4. McKinsey Global Institute. (2016). *Digital Globalization: The New Era of Global Flows*. McKinsey & Company.

5. Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2017). "Robots and Jobs: Evidence from US Labor Markets." *Journal of Political Economy*, 128(6), 2188–2244.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *2020-2030 yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi*. [Online] Available at: www.lex.uz.

7. IT Park Uzbekistan. (2023). *O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va texnologik rivojlanish*. IT Park nashrlari.

8. International Monetary Fund. (2018). *Digitalization and Its Impact on the Economy*. IMF Working Papers, WP/18/47.

9. OECD. (2019). *Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future*. OECD Publishing, Paris.

10. Tapscott, D. (1996). *The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. McGraw-Hill.

11. Qodirov, A., & Usmonov, B. (2021). "Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar: O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari." *O‘zbekiston iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 25(3), 12–28.

ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТДА КРЕАТИВ ИНДУСТРИЯНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

Абдуғаниев Ядгарбек Жавланович
Андижон иқтисодиёт ва қурилиш институти
“Тармоқлар иқтисодиёти”
кафедраси ассистенти
https://doi.org/10.5281/zenodo.14185889

Аннотация. *Мазкур мақола инновацион иқтисодиётнинг амалдаги ривожланиш босқичларида креатив индустриянинг миллий иқтисодиётни ривожлантиришдаги аҳамиятини ўрганишга ва таҳлил қилишга бағишланган.*

Глобаллашиб бораётган кишилик жамиятининг интеллектуал маҳсули бўлган креатив индустрияни ривожланган мамлакатлардаги илғор тажрибалари қиёсий таққосланиб, жаҳон креатив индустриясининг ривожланиш моделларидан миллий иқтисодиётни ривожлантиришда самарали қўлланилишига оид тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: *креатив иқтисодиёт, креатив индустрия, интеллектуал фаолият, инновацион иқтисодиёт, иқтисодий ўсиш, рақамли трансформация, инвестиция.*

Кириш. Жаҳон хўжалигида креатив индустрия фаол ривожланаётган глобал тармоқлардан бири саналиб, ушбу йўналиш яқин истиқболда жаҳон миқёсидаги иқтисодий ўсишнинг асосий манбаларидан бири сифатида юзага чиқиши қайд этилмоқда. Зеро, халқаро иқтисодиётнинг институционал тузилишида рўй бераётган трансформация жараёнлари айни инновацион омилларга, креатив индустрияга таянилмоқда.

Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёев алоҳида қайд этганидек, “Янги давр учун янги ғоя ва ташаббуслар керак, янги натижалар керак. Шундагина у том маънода янги давр бўлади” [11]. 2024 йилнинг 3 октябрида "Креатив иқтисодиёт тўғрисида"ги Қонунни имзолангани ҳамда 2024 йил 2-4 октябрь кунлари Тошкент шаҳрида Креатив иқтисодиёт бўйича IV Бутунжаҳон анжумани ўтказилгани ҳам юқоридаги фикрларимизга далил бўлади.

Бутунжаҳон анжумани якуни билан Ўзбекистонда 2030 йилгача креатив иқтисодиётни ривожлантириш концепцияси ҳамда уни 2025–2026 йилларда амалга ошириш бўйича давлат дастури лойиҳаси ишлаб чиқилиб тасдиқланди.

"Креатив иқтисодиёт тўғрисида"ги қонунда, креатив индустрияга – интеллектуал мулк устуворлигига асосланган ва иқтисодий қимматга эга бўлган товарларни (ишларни, хизматларни) яратиш, ишлаб чиқариш, сақлаш, тарқатиш ва илгари суриш билан боғлиқ бўлган иқтисодий фаолият турларининг мажмуи ҳисобланади [12], деб таъриф берилган.

Адабиётлар таҳлили. Гарчи, ҳозирги кунгача креатив иқтисодиётнинг ва креатив индустриянинг умумэътироф этилган ягона таърифи ишлаб чиқилмаган бўлсада, қатор хорижлик олимларнинг илмий тадқиқотларида креатив индустрия, креатив иқтисодиёт тушунчаларига айрим ёндашувлар баён этилган.

Олимлардан Е.В.Зеленцова креатив индустрияга таъриф бериб жумладан шундай дейди: “Креатив индустрия - мураккаб, кўп қатламли мавзу бўлиб, унда санъат, иқтисодиёт, ва шаҳарларни ривожлантириш масалалари билан боғланади.” [4].

О.А.Заровнятнихнинг нуқтаи назарича эса “Креатив индустрия – бу иқтисодиётнинг интеллектуал фаолият билан боғлиқ бўлган тармоғи бўлиб, асосан ғоялар ва технологиялар асосида ривожланади. Бу атаманинг синонимлари “креатив иқтисодиёт” ва “маданий индустрия”дир [5].

Америкалик олим Р.Флорида ўз изланишларида “Креативлик техникавий ихтиролар, янги маҳсулотларни ишлаб чиқиш ва янги фирмалар яратишда, маданий креативлик ва бадиий ижодда, компьютер графикасидан то рақамли мусиқа ва анимациягача бўлган мутлақо янги тармоқларнинг пайдо бўлишида намоён бўлади”, деб таъкидлаган [7].

Россиялик олим М.Гнедовскийнинг талқинига кўра, “Креатив ёки ижодий индустрия – бу индивидуал ижодкорлик, маҳорат ёки истеъдодга асосланган ва интеллектуал мулкни ишлаб чиқариш ва эксплуатация қилиш асосида қўшимча қиймат ва иш ўринларини яратиши мумкин бўлган фаолиятдир” [3].

Демак, креативликка (лотинча, инглизча “create ” – яратиш, “creative” – яратувчи, ижодкор маъноларини англатиб) – индивиднинг янги ғояларни ишлаб чиқаришга тайёрликни тавсифловчи ва мустақил омил сифатида иқтидорлиликнинг таркибига кирувчи ижодий қобилияти [10], деб таъриф берсак мақсадга мувофиқ бўлади.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот давомида креатив индустрия ва креатив иқтисодиёт тушунчаларига мутахассис олимларнинг таърифлари ўрганилиб, иқтисодий моҳияти солиштирма таҳлил қилинган. Шунингдек, тадқиқотда креатив индустрияни ривожлантиришнинг турли моделлари ва методлари ўрганилган ва таҳлил этилган. Диалектик, тизимли ёндашув, киёслаш, таҳлил усули ҳамда гуруҳлаш усуллари тадқиқот методологиясини ташкил этади.

Таҳлил ва натижалар. Креатив индустрия - интеллектуал фаолият натижасида яратилган товар ва хизматларни сотишга асосланган иқтисодиётнинг махсус тармоғи ҳисобланар экан, ушбу товар ва хизматларни ишлаб чиқаришда технология, инновация ва креативликнинг ривожланиши алоҳида ўрин эгаллайди.

Жаҳон амалиётида креатив индустрия ўз ичига икки мингдан ортиқ соҳаларни қамраб олган бўлиб, креатив индустрия шаҳарлар ва бутун мамлакат иқтисодий ривожланишининг “драйверига”, яъни “ўсиш нуқтасига” айланиб бормоқда. UNESCO ташкилоти ҳисоб-китобларига кўра, ҳозирги вақтда маданият ва креатив соҳалар жаҳон ЯИМнинг 3,1%ни ва барча иш ўринларининг 6,2% ини ташкил қилмоқда [9].

Мамлакатимизда бугунги кунга қадар ижодкорлик соҳаси бўйича 9563 та корхона рўйхатга олиниб, якка тартибдаги тадбиркорларни ҳисобга олмаганда 84068 нафар ишчи-хизматчи жалб этилган. Соҳадаги барча корхоналарнинг 83 фоизи ёки 7931 таси 9 тагача ишчиси бўлган микрофирма корхоналардир, 49 тагача бўлган кичик корхоналар сони эса 1264 тани, жами 368 та корхонада 50 дан ортиқ ходимлар фаолият юритмоқда.

205 та ахборот технологиялари марказлари, 100 дан ортиқ дизайн марказлари, 60 та анимацион марказлар, 30 ўйинларни ишлаб чиқиш марказлари ва 20 дан ортиқ санъат галереяларининг мавжудлиги, шунингдек, давлат тасарруфидаги олий таълим муассасаларининг алоқа, урбанистика (шаҳарсозлик), меҳмонхона хўжалиги, журналистика ва маркетинг йўналишлари бўйича талабаларни қабул қилиш бўйича йиллик квотаси 9,3 минг

нафарни ташкил қилиши инновацион иқтисодиётнинг креатив индустрияси пойдевори ўзига хос омиллардан шаклланаётганига ишорадир.

Дунёдаги институционал муҳитнинг сифатини баҳолашда иқтисодий ривожланишнинг асосий шарти сифатида Жаҳон ҳамжамияти томонидан қабул қилинган халқаро рейтинг ва индекслар нафақат экспертлар, балки давлатлар даражасида ҳам ислоҳотлар ва ижтимоий-иқтисодий сиёсат мезони сифатида қўлланиб келинади.

Хусусан, 2022 йилда Ўзбекистон 2021 йилда эълон қилинган ва ўзи учун устувор деб билган жами 19 та халқаро рейтингдан 11 тасида ўз позициясини яхшилади. Жумладан, 2022 йилда Глобал инновациялар индексида ўз ўрнини 4 поғонага кўтариб, 132 та давлат орасида 82-ўринни, Рақобатбардош саноат унумдорлиги индексида 5 поғонага кўтариб, 154 та давлат орасида 89-ўринни, Электрон ҳукуматни ривожлантириш рейтингида 18 поғонага яхшилаб, 193 та давлат ичида 69-ўринни эгаллади.

2023 йилда Глобал инновациялар индексида Ўзбекистон 82-ўринни сақлаб, Ўзбекистон инновациялар соҳасида миллий иқтисодий ривожланиш даражасига таққослаганда юқори кўрсаткичга эришган мамлакатлар қаторидан жой олди, яъни ялпи ички маҳсулотга нисбатан инновацияларнинг юқори самарадорлиги қайд этилди [14].

Дунёда креатив иқтисодиётнинг ривожланиши жадал суръатлар билан кечаётгани ва кўплаб мамлакатларнинг иқтисодий ўсишида муҳим рол ўйнаши сир эмас, албатта. Айниқса, ёшлар учун бу иқтисодиётнинг энг истиқболли тармоғи бўлиб, аҳолининг 60 фоизини 30 ёшгача бўлган болалар ва ёшлар ташкил этадиган Ўзбекистон учун ўзига хос долзарблик касб этади.

Бу борада хорижий илғор тажрибаларни ўрганиш ҳар томонлама мақсадга мувофиқ саналади.

Креатив индустриянинг ривожланиши манзарасида Европанинг бир қатор шаҳарларида янгича иқтисодий ривожланиш сиёсати ва стратегиялари вужудга келмоқда. Лондон, Берлин ва Барселона каби шаҳарларда креатив тармоқларнинг фаол ўсиши рўй бермоқда. Хусусан, Лондонда 386 мингдан зиёд креатив тадбиркорлар фаолият юритиб, улар 19 миллиард фунт стерлингга яқин даромад келтиради ва бу Британия пойтахти иқтисодиётининг 16 фоизини ташкил қилади.

Манбага кўра, реклама, архитектура, ахборот технологиялари ва ноширлик каби ижодий соҳалар Лондондаги умумий иш ўринларининг 16,3% ни ташкил этади [6]. Буюк Британия креатив индустрияси 2 миллиондан ортиқ кишини банд қилган ва бу - мамлакатдаги ишга яроқли кишиларнинг ҳар йигирманчиси креатив иқтисодиётда банд, деганидир. Бу эса Британия таълим соҳасидаги банд бўлганлар сони (2,5 миллион киши) билан деярли яқин кўрсаткичдир. Буюк Британия креатив индустриясининг мамлакат иқтисодиётидаги улуши 77 миллиард фунт стерлингни ташкил этиб, ушбу тармоқда 1,7 миллиондан зиёд ишчи ўринлари яратилган.

Креатив индустрия фаол ривожланаётган ҳудудлардан Берлинда 170 минг ходимга эга бўлган 24 мингдан ортиқ креатив корхоналар фаолият юритаётган бўлса, Барселона креатив индустрияси доимий ўсишда ва янги иш ўринлари билан таъминлаш, рақобатбардошликни ошириш ва фаровонликни оширишнинг кучли воситаси ҳисобланиб, “The Catalan Institute of Cultural Enterprises” ташкилоти Каталонияда фаолият юритаётган 140 мингдан ортиқ креатив тадбиркорлар фаолиятини мувофиқлаштириб боради [11].

Креатив сектор ва тармоқларни молиялаштириш долзарб муаммо сифатида юзага чиққанлиги боисидан Европада самарали молиявий экотизимни яратиш устида иш олиб борилмоқда.

АҚШда креатив иқтисодиёт иқтисодий ўсишда асосий рол ўйнайди. Голливуд, Кремний водийси, Нью-Йорк ва Лос-Анжелес дунёдаги ижодий индустрия марказлари ҳисобланади.

Америка модели негизида тадбиркорлик ташаббусларини рағбатлантириш, ижодий қобилият ва яратувчанликни ривожлантириш сиёсати устунлик қилиб, “глокализация” стратегияси кенг қўлланилади. Глокализация бу иқтисодий, ижтимоий, маданий ривожланиш жараёни бўлиб, бу кўп йўналишли тенденцияларнинг биргаликда мавжудлиги ва хорижлик истеъмолчиларнинг эҳтиёжларига мослаштирилган маҳсулот ва хизматларни яратишга йўналтирилганлиги билан тавсифланади [8].

АҚШда федерал даражада креатив соҳалар учун ягона сиёсат мавжуд бўлмаса-да, мазкур сиёсат барча штатлар, муниципалитетлар ва тармоқлар даражасида қўллаб-қувватланади.

Скандинавия модели ушбу ҳудудда жойлашган мамлакатлардаги креатив индустрия модели тадбиркорлик фаолиятида креатив кўникмаларни амалий қўллашга ўргатувчи касб-ҳунар таълими тизимига ихтисослашган. Шунингдек, грантлар асосида қўллаб-қувватлаш, инновацияларни рағбатлантириш ва ижодкорликка инвестиция киритишга асосланади [1].

Осиё модели ижодий маҳсулотнинг инновацион таркибий қисмини яратишга қаратилган. Жанубий Корея К-поп, кино ва телекўрсатувлар каби маданият ва креатив индустрия соҳаларини ривожлантиришга катта сармоя киритади. Ҳукумат корейс маданиятини хорижга экспорт қилишни фаол қўллаб-қувватламоқда. Жанубий Кореяда “Корея ижодий контент агентлиги” - (КОССА) мамлакат креатив индустриясидаги фаолиятни мувофиқлаштириш ва корейс товарларини халқаро бозорга олиб чиқиш сиёсати билан шуғулланади. Хитой креатив индустрияси эса иқтисодиётдаги хусусий сектор капиталига таянади.

Қозоғистонда 2021 йил ноябр ойида 2021-2025 йилларда ижодий тармоқларни ривожлантириш концепцияси қабул қилиниб, унинг доирасида “Маданият тўғрисида”ги қонун ва ”Тадбиркорлик кодекси”га тегишли ўзгартиришлар киритилди. Ушбу чора-тадбирлар санъат, дизайн ва ахборот технологиялари каби соҳаларда ишлаётган кишиларни ва компанияларни қўллаб-қувватлаш учун зарур шарт-шароитларни яратишда муҳим аҳамият касб этади.

2022 йилда Қирғизистонда креатив иқтисодиёт бўйича Президент ҳузурида махсус кенгаш тузилиб, солиқ ва имтиёзларнинг алоҳида тартибини кўзда тутувчи “Креатив индустриялар парки тўғрисида”ги қонун қабул қилинди [13].

Ушбу кўриб ўтилган моделлар таҳлилидан қуйидаги муаммоларни қайд этиш мумкин:

- креатив индустрия ижодий таълим даражасининг пастлиги ва янги технологиялар билан ишлаш кўникмаларининг етишмаслиги;

- мамлакатлар салоҳиятига нисбатан, инвестициялар ҳажмининг етарли даражада эмаслиги;

- айрим ижодий соҳаларда иш ҳақининг пастлиги шулар жумласидандир.

Юқоридагиларга кўра шуни алоҳида қайд этиш жоизки, Ўзбекистон миллий иқтисодиётининг ривожланишида, рақамли трансформация жараёнларида креатив индустрия салмоғини ошириш, уни баҳолаш ҳамда ривожланиш тенденцияларини таҳлил қилишга доир

илмий-амалий кўникмаларни ва тадқиқотларни мазмунан янги босқичларда ташкил қилиш долзарб масала ҳисобланади.

Хулоса ва таклифлар. Креатив иқтисодиётнинг Ўзбекистонда хорижий илғор тажрибаларидан фойдаланиш қуйидагиларга кўра муҳим саналиб, уларни амалиётга татбиқ этиш ижтимоий нафлилик ва иқтисодий самарадорликка олиб келади:

- ижодий соҳалар вакиллари учун улар фаолият юритадиган ва ўз асарларини намойиш этадиган махсус ижодий ҳудудлар, кўргазма майдонлари ва студияларни ташкил этиш;

- ижодий мутахассисларнинг фаолиятларини сезиларли даражада осонлаштирадиган зарурий жиҳозлар, компьютерлар ва дастурий таъминотдан фойдаланишни таъминлаш шаклида қўллаб-қувватлаш (технологик рақамлаштириш);

- креатив индустрия вакилларининг малакасини ошириш учун жаҳоннинг етакчи мутахассисларидан, пешқадам компанияларидан ўқув дастурлари ва маҳорат дарсларини ташкил этиш;

- креатив индустрияда стартап ва лойиҳаларни ривожлантириш учун грантлар ва кредитлар бериш жамғармасини ташкил этиш;

- мамлакат ичида ва хорижда креатив индустрия субъектлари ўртасида янги билим ва кўникмалар ҳамда тажрибалар алмашиш учун тармоқ платформаларини ташкил қилиш ва ундан фойдаланиш.

Адабиётлар

1. Благова И.Ю. Зарубежный опыт развития креативных индустрий // Проблемы современных социокультурных исследований: сб. науч. трудов по материалам Междунар. науч.- практич. конф. 27 октября 2020г. Белгород: ООО Агентство перспективных научных исследований (АПНИ), 2020. С. 45–48.

2. Дусмухамедов Ойбек Суратбекович Креатив индустрияни ривожланишининг жаҳон тажрибаси // Экономика и финансы (Узбекистан). 2022. №11 (159). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kreativ-industriyani-rivozhlanishining-zha-on-tazhribasi (дата обращения: 02.11.2024).

3. Гнедовский М. Творческие индустрии: политический вызов для России // www.strana-oz. ru («Отечественные записки»).

4. Зеленцова Е.В. Творческие (креативные) индустрии. Справочник. – Москва: 2022. - С.13.

5. Заровнятных О.А. Креативные индустрии:тематический свод/ Департамент культуры Тюменской области. Тюмень : ГАУК ТОНБ, 2022. – 54 с..

6. Скиба Н. Креативная экономика в Европе: 5 шагов для взлета [Элек.ресурс].URL:https://www.culturepartnership.eu/article/creative-economy-steps-to-rise.

7. Флорида Р. Креативный класс. Люди, которые меняют будущее/ Пер. с англ. М.: КлассикаXXI, 2005.430 с;

8. Хестанов Р.З. Креативные индустрии – модели развития // Социологическое обозрение. 2018. Т. 17. № 3. С. 173–196.

9. UNESCO.org (2022).

10. http://tmatm.uz/site/wp-content/uploads/2015/09/5.-pedagogik-kreativlik-mo-iyati.pdf

11. https://yuz.uz/uz/news/kreativ-iqtisodiyot-mohiyati-va-uni-rivojlantirishning-jahon-tajribasi

12. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/kreativ_iqtisodiet_tugrisidagi_qonun_qabul_qilindi
13. https://asr.gov.uz/ru/news/11149
14. https://innovation.gov.uz/oz/news/post-1415#

OZIQ-OVQAT KLASTERLARINI TASHKIL ETISH VA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.

Axmedova Nafisa Amirddin qizi
Oriental universiteti “ Iqtisodiyot va turizm”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0009-0669-2347
https://doi.org/10.5281/zenodo.14186613

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda oziq-ovqat klasterlarini qo‘llab quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, barqaror rivojlantirish, tarmoqning innovatsion faoliyati , modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishga yangi texnika va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, cheklangan yer va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish samaradorligi oshirishga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda mahsulot tannarxini pasaytirishga asoslangan hamda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasidagi faoliyat yuritayotgan klasterlarda amalga oshirilgan loyixalar tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar*: qishloq xo‘jaligi, klasterlar turlari, innovatsion boshqaruv, samaradorlik, tarkibiy o‘zgarishlar, fermer xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi, texnologiya, modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish, chorvachilik, dehqonchilik.*

Hozirgi vaqtda mamlakatda oziq-ovqat ishlab chiqarishning rivojlanishi asosan rivojlanayotgan ichki oziq-ovqat bozori ta’siri ostida amalga oshirilmoqda. Bu oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilari oldida turgan iqtisodiy va ishlab chiqarish vazifalari majmuasini, shu jumladan aholining ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha, aholi guruhlarining daromadlari, iqlimiy, milliy va boshqa xususiyatlari bo‘yicha farqlanishini hisobga olgan holda hal qilishni belgilaydi.

Aholining barcha qatlamini yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash uchun ijtimoiy himoyaning milliy tizimlarini takomillashtirish va ularning barqarorligini ta’minlash.So‘nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni ish o‘rni, daromad va oziq-ovqatlar bilan barqaror ta’minlash maqsadida alohida reestr yuritish («temir daftar», «ayollar daftari», «yoshlar daftari») tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ijtimoiy reestrlarga kirgan aholiga qishloq hududlarda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun qariyb 200 ming gektar yer maydonlari ajratildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarning sharoitlaridagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun yagona ijtimoiy himoya ma’lumotlar tizimini yaratish maqsadida turli vazirlik va idoralarning axborot tizimlari integrasiyasi ta’minlanmagan. Shu bilan birga aholiga yer maydonlari ajratish orqali o‘z-o‘zini sifatli va turli xil oziq-ovqatlar bilan ta’minlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish talab etiladi.

O‘zbekistonda 2017-yilda boshlangan yangi iqtisodiy siyosat natijasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, intensiv texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni keng joriy qilish, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, klaster tizimini va barcha yo‘nalishlarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish yo‘nalishlarida qishloq xo‘jaligi sohasini isloh qilish boshlandi. Shu bilan birga meva-sabzavot, chorvachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmini ko‘paytirish parametrlari hamda «daladan do‘kongacha» bo‘lgan uzluksiz yetkazib berish zanjirini yaratishni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar;

iste’mol tovarlari bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan taqchillikni oldindan aniqlash va choralar belgilandi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida klaster va kooperatsiya munosabatlari bilan bog‘liq barcha normalarni yagona qonun hujjatiga birlashtirish va hujjatlarni unifikatsiyalash;

fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish sohalarida o‘zaro kooperatsiya munosabatlarini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, realizatsiya qiluvchilar, iste’molchilar va davlat nazorat organlarining huquqlari hamda majburiyatlarini aniq belgilandi.

Shu bilan birga dukkakli don mahsulotlari yetishtirishni yanada ko‘paytirish;

mahalliy navlar, xorijdan import qilinayotgan nav va duragaylarni sinovdan o‘tkazish hamda davlat reestriga kiritish ishlarini tubdan takomillashtirish;

qishloq xo‘jaligida agroekologiya tizimini joriy qilish;

organik qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish va keng joriy etish;

sabzavot, poliz va kartoshka ekinlari urug‘larini yetishtirish, ularni aprobatsiyadan o‘tkazish, yetishtirilgan urug‘liklarni saqlash bo‘yicha huquqiy asoslarni ishlab chiqish;

respublikada uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirish, jumladan turizm xizmatlarini ko‘rsatishga yo‘naltirilgan kichik vinochilik korxonalarini tashkil etish;

FAOning Yevropa va Markaziy Osiyo bo‘yicha vakolatxonasi bilan hamkorlikda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy konferensiya o‘tkazish nazarda tutiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan klasterlar va fermer xo‘jaliklariga ajratilgan yer maydonlari hamda sonini statistik ma’lumotlar asosida tahlil etsak.

1- jadval

Mamlakatimizda 2024-yilda faoliyat olib borayotgan klasterlar soni

№	Hududlar nomi	Jami mavjud klasterlar				
		soni	er maydoni *(ga)*	shundan		
				klasterda *(ga)*	fermer xo‘jaligida	
					soni	maydoni *(ga)*
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	59	129 659	16 309	4 566	113 349
2	Andijon	48	129 545	23 031	5 695	106 514
3	Buxoro	39	163 408	11 426	6 189	151 982

4	Jizzax	33	162 324	16 353	5 396	145 972
5	Qashqadaryo	75	282 595	36 890	13 273	245 705
6	Navoiy	22	78 236	2 552	9 599	75 684
7	Namangan	40	157 797	49 816	4 991	107 980
8	Samarqand	42	189 537	15 001	8 800	174 536
9	Surxondaryo	43	161 700	34 660	4 205	127 040
10	Sirdaryo	30	160 761	42 266	3 906	118 495
11	Toshkent	52	203 007	56 787	5 638	146 220
12	Farg‘ona	77	199 716	11 384	6 979	188 332
13	Xorazm	28	110 267	4 996	3 002	105 271
Respublika bo‘yicha		**588**	**2 128 552**	**321 471**	**82 239**	**1 807 081**

1- jadvaldan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan klasterlar soni 2024-yilda 588 tani tashkil etmoqda. Klasterlarga biriktirilgan yer maydonlari 2128552 gektarni tashkil etib shundan klasterlarda 321471 gektar bo‘lsa, fermer xo‘jaliklarda 1807081 gektarni takshkil etmoqda.

2- jadval

Mamlakatimizda 2024-yilda faoliyat olib borayotgan G‘allachilik klasterlar soni

№	Hududlar nomi	G‘allachilik klasterlari				
		soni	yer maydoni *(ga)*	shundan		
				klasterda *(ga)*	fermer xo‘jaligida	
					soni	maydoni *(ga)*
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	10	23 600	2 135	991	21 465
2	Andijon	7	35 964	1 316	1 428	34 648
3	Buxoro	11	57 381	2 534	2 917	54 847
4	Jizzax	9	70 925	4 882	2 157	66 043
5	Qashqadaryo	24	137 370	15 416	6 487	121 953
6	Navoiy	5	42 775	0	8 595	42 775
7	Namangan	11	66 375	20 800	1 593	45 575
8	Samarqand	18	94 230	2 676	4 291	91 554
9	Surxondaryo	11	82 954	16 846	1 964	66 108
10	Sirdaryo	12	73 000	16 000	1 919	57 000
11	Toshkent	9	89 581	20 785	1 950	68 796
12	Farg‘ona	30	92 981	3 711	2 570	89 269

13	Xorazm	4	12 250	150	451	12 100
Respublika bo‘yicha		**161**	**879 385**	**107 251**	**37 313**	**772 134**

2- jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan g‘allachilik klasterlar soni 2024-yilda 161 tani tashkil etmoqda. G‘allachilik klasterlarga biriktirilgan yer maydonlari 879385 gektarni tashkil etib shundan klasterlarda 107251 gektar bo‘lsa, fermer xo‘jaliklar soni 37313 tani tashkil etib ularga biriktirilgan yer maydoni 772134 gektarni takshkil etmoqda.

3- jadval

Mamlakatimizda 2024-yilda faoliyat olib borayotgan Meva-sabzavotchilik klasterlar soni

№	Hududlar nomi	Meva-sabzavotchilik klasterlari				
		soni	yer maydoni *(ga)*	shundan		
				klasterda *(ga)*	fermer xo‘jaligida	
					soni	maydoni *(ga)*
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	30	13 241	1 102	1 258	12 139
2	Andijon	14	12 069	1 968	1 547	10 101
3	Buxoro	17	6 807	2 392	447	4 414
4	Jizzax	17	13 499	6 149	797	7 350
5	Qashqadaryo	32	9 189	1 723	1 117	7 466
6	Navoiy	13	3 806	2 552	160	1 254
7	Namangan	20	25 081	3 866	1 740	21 215
8	Samarqand	12	19 951	2 532	2 357	17 419
9	Surxondaryo	19	6 010	2 181	365	3 829
10	Sirdaryo	7	2 767	2 727	36	40
11	Toshkent	25	34 626	4 353	2 185	30 273
12	Farg‘ona	31	21 238	699	1 790	20 539
13	Xorazm	7	5 220	707	399	4 513
Respublika bo‘yicha		**244**	**173 503**	**32 952**	**14 198**	**140 551**

3- jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan meva-sabzavotchilik klasterlar soni 2024-yilda 244 tani tashkil etmoqda. Meva-sabzavotchilik klasterlarga biriktirilgan yer maydonlari 173503 gektarni tashkil etib shundan klasterlarda 32952 gektar bo‘lsa, fermer xo‘jaliklar soni 14198 tani tashkil etib ularga biriktirlgan yer maydoni 140551 gektarni takshkil etmoqda.

4- jadval

Mamlakatimizda 2024-yilda faoliyat olib borayotgan klasterlarda amalga oshirilgan loyihalar soni

№	Hududlar nomi	Amalga oshirilgan loyihalar soni		
		soni	Qiymati *(mln.so‘m)*	ish o‘rni
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13	71 734	186
2	Andijon	28	421 696	2 072
3	Buxoro	84	735 605	3 577
4	Jizzax	10	353 294	1 048
5	Qashqadaryo	93	898 832	2 887
6	Navoiy	2	35 500	500
7	Namangan	15	472 961	990
8	Samarqand	5	48 400	324
9	Surxondaryo	43	684 288	6 696
10	Sirdaryo	24	444 700	1 605
11	Toshkent	6	1 213 450	1 135
12	Farg‘ona	29	1 953 596	1 581
13	Xorazm	5	135 303	940
Respublika bo‘yicha		**357**	**7 469 358**	**23 541**

4- jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan klasterlarda amalga oshirilgan loyihalar soni 357 tani tashkil etib qiymati 7469358 mil.so‘mni tashkil etib 23541 ta ish o‘rni tashkil etilgan.

5- jadval

Mamlakatimizda 2024-yilda faoliyat olib borayotgan meva-sabzavotchilik klasterlarida amalga oshirilgan loyihalar soni

№	Hududlar nomi	Meva-sabzavotchilik klasterlari		
		soni	qiymati *(mln.so‘m)*	ish o‘rni
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3	14 975	39
2	Andijon	2	10 125	52
3	Buxoro			
4	Jizzax			
5	Qashqadaryo			
6	Navoiy			
7	Namangan	2	4 980	15
8	Samarqand			
9	Surxondaryo			
10	Sirdaryo			
11	Toshkent			

12	Farg‘ona	3	264 000	70
13	Xorazm			
Respublika bo‘yicha		**10**	**294 080**	**176**

5- jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan meva-sabzavotchilik klasterlarda amalga oshirilgan loyihalar soni 10 tani tashkil etib qiymati 294080 mil.so‘mni tashkil etib 176 ta ish o‘rni tashkil etilgan.

Fikrimizcha oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi klastrelarini tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O‘ZBEKISTON — 2030» Strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni,
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risidagi PQ-5009-son Qarori.
4. Addison J., Teixeira P. The Economics of Employment Protection. IZA Discussion Paper October No 381, 2001,-P. 19.
5. Самуэлсон П. Экономика. В.2 т. – М.: МГП «АЛГОН», ВНИИСИ, 1992. 432 с.
6. Брю С., Макконнелл К. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2 т., пер. с англ. 11-го изд. Т. 1. – М.: «Республика», 1992. -с. 132-175,194-217; Т. 2. - с.156-174,293-310.
7.
8. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. – T.: «Akademiya», 2012.
9. Aliev Ya.E. “Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda agrar bozorni rivojlantirish masalalari” Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali ii son. mart-aprel, 2020 198-b
10. Balabanov V.S., Borisenko E.N. Oziq-ovqat xavfsizligi: xalqaro va ichki jihatlar. – M.: Iqtisodiyot, 2012. – B. 22.
11. Frolov K.V., Gordeev A.V., Maslennikova O.A. va boshqalar. Oziq-ovqat xavfsizligi. 2-bo'lim / - M.: Bilim, 2011-101. b.
12. Topildiev S.R. Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish. - Iqt. fan. dok. ... dis. - T.: «Tipograff» MCHJ. 2023.-70 b.
13. Altiev A.S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari. – T. Fan, 2018. Monografiya -274 b.
14. Tadjibaeva D. Milliy iqtisodiyotda institutsional o‘zgarishlar samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish. (O‘zbekiston Respublikasi agrar sohasida misolida) Iqt. fan. dok. ... dis. avtoref . - T.: O‘zRIIVA, 2020. – 81 b.
15. Rustamova I.B. Agrar soxada innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning ilmiy uslubiy asoslari. avt. ... i.f.d. T.: 2020. - 77 b.
16. Dusmatov B.O. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrasanoat ishlab chiqarishda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. avt. ... i.f.d. T.:2022.-53 b.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR-INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI

Bahronova Shaxodat Baxshulloyevna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti
bakhronovashakhodat@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14187634

Annotatsiya:*Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda raqamli texnologiyalarni o‘rni va ahamiyati keng yoritib berilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanilgan holda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha fikr va mulohazalar bildirilgan. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish tendensiyalari ko‘rib chiqilib taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Hozirgi jamiyatda innovatsion iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalari, innovatsion iqtisodiyotni shakllanishida raqamli texnologiyalarga bo‘lgan talab tahlil qilingan. Davlatimiz Iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, va ularning afzallik va kamchiliklari tahlil qilingan. Tahlil asosida mavjud muammolarga yechim berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, Innovatsion iqtisodiyot, sun‘iy intellekt, tarmoq samaradorligi, innovatsion texnolgiyalar, iqtisodiyot tarmoqlari, xalqaro hamkorlik, institutsional iqtisodiyot.*

KIRISH

Hozirgi kunlarda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishida bir qancha ilg‘or texnologiyalar, shuningdek raqamli texnologiyalar ijtimoiy hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu munosabat bilan davlat va jamiyat farovonligini oshirish maqasadida davlatimiz rahabari tomonidan eng muhim va ustuvor qonun va qarorlarni qabul qilindi va ularni amalga oshirish yuzasidan ma’sul shaxslar biriktirildi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4699 son qaroriqabul qilindi.

Yurtimizda raqamli texnologiyalar kirib bormagan tarmoq yoki soha deyarli qolmagan. Bo‘ladigan har bir iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish orqali jamiyatimiz aholisining yashash sharoiti kundan-kunga yaxshilanib bormoqda. Zamonaviylashishning eng katta yutuqlaridan biri–iqtisodiyotning raqamlashtirilishidir. Raqamli iqtisodiyot va u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha samarador texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelishi mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarni chuqur bilim va malaka, ko'nikma hosil qilishi hamda yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlangan ishlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Miziyoyev ta'kidlaganlaridek, maqsadida “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish va imkoniyatini beradi. Shunga asoslanib, Oliy Majlis Senati Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida “2020 yil – Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi. Buning zamirida chuqur ma'no va mazmun mujassamlashtirilgan, chunki, ilm-fan, ma'naviyat ma'rifatga tikilgan sarmoya buyuk kelajak uchun kiritilgan investitsiyadir [1, 2].

Raqamli texnologiyalarni kirib kelishi nafaqat iqtisodiyotimiz rivojiga balki, jamiyatning rivojlanishining asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Yashash sharoitining yaxshilanishiga insonlarning turmush tarzini o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o‘zaro muloqotni yanada tez va oson yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo‘ldi.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda raqamli texnologiyalarni olib kirish, yangi tadbirkorlik subyektlarni vujudga keltirish orqali tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko‘maklashish hisoblanadi. Sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish bosqichlarini tadqiq qilib, uning o‘ziga xos xususiyatlarini asoslash, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish, ishlab chiqarishni eksport tarkibida ulushini oshirish, raqamli texnologiyalar va ilg‘or boshqaruvni qo‘llashni kengaytirishga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iboratdir. Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi davlat va jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari dinamikasini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi ilk bor 1990-yillarda Yaponiya inqirozi davrida yapon professori tomonidan qo‘llanilgan. 1995-yil Yevropada Don Tapskotning “Цифровая экономика: обещание и опасность в эпоху сетевой разведки” asari va 1995-yil Nikolas Negroponte (Masachusets, AQSh) ning tadqiqot ishida qo‘llanilgan [3].

Innovatsiyalar bilan bog‘liq iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida zamonaviy raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlari zamonaviy tadqiqotchilar, shu jumladan, O.V.Bartyuk, I.L.Kovalev, L.I.Ushvitskiy va boshka mualliflar ishlarida ko‘rib chiqilgan [4, 5].

G‘ofurova U.F., Xayitboyev B.X. “Tadbirkorlikni innovatsion faoliyat asosida rivojlantirishning yo‘llari” nomli ilmiy maqolada tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshishida innovatsion g_oyalar va yangiliklar yaratilishi hamda ularning amaliyotda qo_llanilishi keng yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga to_sqinlik qiluvchi qator tizimli muammolar yoritilib ularga takliflar keltirilgan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur muammoni tadqiqotining bir qator usullardan foydalanish asosida o‘rganilgan, jumladan, asosan xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o‘rganilib, rivojlangan mamlakatlar tajribasini mamlakatimizda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalangan holda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlarini ochib berishda ahamiyat kasb etgan.

NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar bir necha sabablarga ko‘ra innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi:

Raqamli vositalar jarayonlarni soddalashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va turli sohalarda samaradorlikni oshiradi. Avtomatlashtirish va ma'lumotlar tahlili korxonalarga operatsiyalarni optimallashtirish va ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Internet va raqamli platformalar axborot va bilimlarga misli ko‘rilmagan kirish imkonini beradi. Axborotning bunday demokratlashuvi ijodkorlikni rivojlantiradi va shaxslar va tashkilotlarga bir-biridan o'rganish imkonini berish orqali innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

Raqamli texnologiyalar global aloqa va hamkorlikni osonlashtiradi. Korxonalar butun dunyo bo‘ylab hamkorlar va mijozlar bilan bog‘lanib, bozor doirasini kengaytirib, transchegaraviy innovatsiyalarni rag‘batlantirishlari mumkin.

Raqamli iqtisodiyot obuna xizmatlari, elektron tijorat va almashish iqtisodlari kabi innovatsion biznes modellarini keltirib chiqardi. Ushbu modellar an'anaviy tarmoqlarni buzadi va tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish korxonalarida joriy qilinishi katta ma’lumotlar tahlili korxonalarga katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu tushuncha tendentsiyalarni, mijozlarning xohish-istaklarini va yaxshilash sohalarini aniqlash orqali innovatsiyalarni rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar mijozlarning shaxsiy o‘zaro aloqalarini va xizmatlarni yaxshilashga imkon beradi. Bu sezgirlik nafaqat mijozlarning qoniqishini oshiribgina qolmay, balki kompaniyalarni doimiy ravishda innovatsiyalar qilishga undaydi.

Raqamli landshaft startaplar uchun kirish to‘siqlarini kamaytiradi, mahsulot ishlab chiqish, marketing va sotishni osonlashtiradigan vositalar va platformalarga kirishni ta‘minlaydi. Ushbu tarbiyaviy muhit innovatsiyalar madaniyatini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar umrbod ta’lim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, ishchi kuchiga yangi muammolar va texnologiyalarga moslashish imkonini beradi. Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun malakali ishchi kuchi zarur.

Raqamli yechimlar resurslardan foydalanishni optimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish va energiyani oqilona boshqarish imkonini berish orqali barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarni kuchaytirishi mumkin. Ushbu sohadagi innovatsiyalar yanada barqaror iqtisodiyotga hissa qo‘shadi.

Hukumatlar siyosatni ishlab chiqish va boshqaruvni yaxshilash, shaffoflikni, fuqarolarning ishtirokini va davlat xizmatlarining umumiy samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar innovatsion iqtisodiyotning asosiy elementi bo‘lib, samaradorlikni rag‘batlantiradi, hamkorlikni rivojlantiradi va o‘sish va rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi sanoat korxonalarining taxminan 25-30 foizi raqamlashtirishning qaysidir shakliga o‘tgan. Bu ishlab chiqarish jarayonlari, boshqaruv tizimlari va ma'lumotlarni tahlil qilish uchun raqamli texnologiyalarni joriy qilishni o‘z ichiga oladi. Hukumat samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish uchun turli sektorlarda raqamli vositalarni kengroq integratsiyalashga qaratilgan ushbu foizni oshirish uchun raqamli transformatsiya tashabbuslarini faol ravishda ilgari surmoqda. Davomiy investitsiyalar va texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash kelgusi yillarda sanoat korxonalari o‘rtasida raqamlashtirishning yanada o‘sishiga yordam berishi kutilmoqda.

Quyidagi rasmda Navoiy viloyati hududida faoliyat olib borayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan yangi (raqamli) texnologiyalardan foydalanish ko‘lami ko‘rsatib berilgan. Bu o‘z navbatida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar . Navoiy viloyati misolida (mlrd so‘mda)



1-rasm. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar. Navoiy viloyati misolida.

Manba: Navoiy ststistika boshqarmasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu jadvalda Navoiy viloyatining asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan invstitsiyalarning o‘sish sur’ati ko‘rsatilgan (mlrd so‘mda) bo‘lib, 2016-2023 yillarni o‘z ichiga qamrab olgan. Investitsiyalarni yillik o‘sish sur’atini kuzatish orqali viloyatning iqtisodiy o‘sish tendensiyasini tahlil qilishimiz mumkin. Bundan ko‘rishimiz munkinki, 2016 yildan 2019 yilgacha o‘sganligini ko‘ramiz. Afsuski, 2020-2021 yillarda biroz pasayganligini ko‘ramiz, bu orada karantin (pandemiya) tarqalgan vaqti to‘gri kelgan. Bu esa o‘z navbatida sohaga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmagan. 2023 yilga kelib bu ko‘rsatkich oldingi yillarga nisbatan ancha ko‘tarilganligini ya’ni (26398,6 mlrdga so‘m)ga yetganini ko‘rishimiz mumkin. Bu ko‘rsatkich oxirgi yillarda raqamli texnologiyalarni hududimizda ancha taraqqiy etganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, innovatsion iqtisodiyotning samaradorlik ko‘rsatkichlari ancha oshganligini aniqlaymiz.

MUHOKAMA

O‘zbekiston raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishda sezilarli yutuqlarga erishmoqda, bu Markaziy Osiyodagi kengroq tendentsiyani aks ettiradi. Mamlakatda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bir qator yangiliklar va imkoniyatlar yaratib berilgan. Buning asosida mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish hamda raqobarbardosh bo‘lishga intilish. Oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda internetning kirib borishi barqaror o‘sib bormoqda, aholining qariyb 80 foizi internetdan foydalanish imkoniyatiga ega. Ushbu o‘sish hukumatning internet infratuzilmasini kengaytirish va xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha tashabbuslari bilan ta’minlanadi. Aholining 90% dan ortig‘i mobil qurilmalarga ega. Ko‘pchilik internetga smartfonlar orqali kirishadi, bu esa raqamli aloqani yanada tezlashtirdi.

Hukumat elektron hukumat tashabbuslarini faol ravishda ilgari surmoqda, ko‘plab xizmatlar raqamlashtirilgan. 2022 yilga kelib, davlat xizmatlarining qariyb 70 foizi onlayn rejimida mavjud bo‘lib, fuqarolar va biznes uchun jarayonlarni soddalashtirdi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot jadal sur’atlar bilan o‘sib bormoqda va YaIMga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot 2025 yilga kelib milliy yalpi ichki mahsulotning 3 foizdan ortig‘ini tashkil qilishi mumkin.

Yurtimizda ta’lim uchun raqamli platformalardan foydalanish, ayniqsa pandemiya davrida kengaydi. Masofaviy o‘qitish vositalari va resurslari ta’lim muassasalariga integratsiya qilinmoqda.

Hukumatimiz tomonidan startaplar va texnologiya kompaniyalari uchun qulay muhit yaratish maqsadida IT sohasiga sarmoya kiritmoqda. Tashabbuslar qatoriga soliq imtiyozlari va texnoparklarni qo‘llab-quvvatlashlarini misol qilishimiz mumkin.

Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish va rivojlantirish orqali raqamli savodxonlik va ishchi kuchi o‘rtasida ko ‘nikmalarni oshirishga qaratilgan dasturlar iqtisodiy rivojlanish uchun raqamli malakali aholining muhimligini tan olgan holda amalga oshirilmoqda.

Yana shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, raqamli qabul qilish ortgan sari kiberxavfsizlikka e‘tibor ham ortib bormoqda. Hukumat foydalanuvchilar va biznesni himoya qilish uchun kiberxavfsizlik choralarini takomillashtirish ustida ishlamoqda.

Ushbu statistik ma’lumotlar O‘zbekistonning raqamli texnologiyalarni qo‘llashga sodiqligini va ularning mamlakat iqtisodiyoti va jamiyati uchun ega bo‘lgan transformatsion salohiyatini ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga, butun iqtisodiy tizimning o‘sishi va rivojlanishining haydovchisiga aylanishi mumkin. Buning sababi shundaki, raqamli iqtisodiyot moddiy tovar-pul ayirboshlashdan ba’zi afzalliklarga ega, masalan, tovarlarni yetkazib berish tezligi yoki deyarli bir lahzada xizmatlar ko‘rsatish. Raqamli iqtisodiyotning yana bir afzalligi - ishlab chiqarish va tranzaktsiyalarni amalga oshirishning arzonligidir.

Bugungi kunga kelib, elektron iqtisodiyot allaqachon sof iqtisodiy jarayonlar doirasidan tashqarida. Ijtimoiy jarayonlarga raqamlashtirish joriy etilmoqda, odamlarning muvaffaqiyatli hayoti tobora ko‘proq bunga bog‘liq, bundan tashqari, davlat tashkilotlari va tuzilmalari faoliyatiga raqamli texnologiyalar keng ko‘lamda joriy etilmoqda. O‘zbekistonda raqamlashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlar anchagina ildamlamoqda. Shu bilan birga, tarmoqlarda raqobat juda qattiqligicha qolmoqda, shuning uchun biz bu bilan to‘xtab qololmaymiz, raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun davlat va biznesning birgalikdagi faoliyati zarur.

XULOSA

Xulosa oqilib shuni aytish joizki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi davri va yaqin istiqbolida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatdan rivojlanishi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotida quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

• Ijtimoiy hayot va raqamli infratuzilmani yaratish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;

• Rivojlangan mamlakatlar darajasiga erishish uchun raqamli texnologiyalardan ya’ni, ularni qo‘llash bo‘yicha mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish;

• raqamli iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish va chuqur bilimga ega malakali dasturchilar va injener-texnik xodimlarni yetishtirish;

• raqamli iqtisodiyot sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

• ilmiy bilimlar talab qiladigan mahsulotlar hajmini va aholining daromadlarini oshirib, byudjetning har xil tushumlarini ko‘paytirish;

• yangi turdagi ishlab chiqarish korxonalari va zamonaviy texnologiyalarni keng miqyosda jalb qilish.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, samaradorlik, samaradorlik va yangi biznes modellarini rivojlantirishda markaziy rol o‘ynaydi. Ushbu texnologiyalar korxonalar, hukumatlar va shaxslar iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun yangi imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin bo‘lgan dinamik muhitni yaratadi.

Raqamli texnologiyalar innovatsion iqtisodiyotning markazidir. Ular yangi biznes modellarini ishlab chiqadi, samaradorlikni oshiradi, hamkorlikni yaxshilaydi va korxonalarni bozor o‘zgarishlariga tezda javob berish uchun zarur vositalar bilan ta’minlaydi. Sun’iy intellect (AI), bulutli hisoblash qurilmalari kabi texnologiyalarni integratsiyalash orqali iqtisodiyotni barqaror o‘sishni ta’minlashi, tadbirkorlikni rag‘batlantirishi va fuqarolarning umumiy hayot sifatini yaxshilashi mumkin. Shu nuqtai nazardan, hukumatlar, biznes va ta'lim muassasalari raqamli innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydigan va ishchi kuchini raqamli kelajak imkoniyatlari va muammolariga tayyorlaydigan ekotizim yaratish uchun birgalikda ishlashi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni, 2020 yil 2 martdagi PF 5053-sonli Farmoni.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4699 son qarori.

[3] Gulyamov, S.S. va b. (2019). Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. - T.: Iqtisod-Moliya. 396 b.

[4] Бартюк. О.В. Факторы инновационного экономического роста России [Электронный ресурс] // Интернет журнал «Науковедение». – 2014. – № 6.

[5] Ковалев.И.Л. Цифровая трансформация как катализатор иновационных процессов в экономике. Большая Евразия: Развитие безопасность, сотрудничество.– 2019. – № 2-1. – В. 374–380.

[6] G‘ofurova U.F., Xayitboyev B.X. “Tadbirkorlikni innovatsion faoliyat asosida rivojlantirishning yo‘llari” “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 2019 йил 1 февраль.

[7] http: //https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot

MINTAQA TURIZMINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Jafarova Hilola Xalimovna
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti,
Buxoro davlat universiteti, Turizm va mehmonxona xo‘jaligi o‘qituvchisi
h.x.jafarova@buxdu.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14187687

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mintaqa turizmini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar turizm*

sanoatida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob berish va global raqobatbardoshlikni ta‘minlashda muhim vosita hisoblanadi. Turizm sohasida innovatsion texnologiyalar, mobil ilovalar, sun‘iy intellekt va big data texnologiyalari qo‘llanilishi mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, turizm, innovatsion texnologiyalar, mobil ilovalar, sun‘iy intellekt, big data, xizmat sifati, raqobatbardoshlik.*

Raqamli texnologiyalar hozirgi kunda turizm sohasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu texnologiyalar sayohatlarni rejalashtirishdan boshlab, ularni amalga oshirish va ziyoratchilar uchun xizmat ko‘rsatishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Mintaqadagi turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar yirik imkoniyatlar yaratib, sayyohlar oqimini oshirish va xizmat ko‘rsatish sifatini yangi darajaga olib chiqmoqda.

Raqamli texnologiyalarning turizmga ta‘siri quyidagi yo‘nalishlarda kuzatishimiz mumkin:

– sayohatlarni rejalashtirish uchun onlayn platformalar va mobil ilovalar sayyohlar uchun qulaylik yaratadi. Sayohatchilar mehmonxonalar, restoranlar, turistik agentliklar haqida ma‘lumotni osongina topish va bron qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

– sun‘iy intellekt va chatbotlardan foydalanish mijozlarga onlayn maslahatlar va javoblar berish orqali xizmat ko‘rsatish tezligini oshiradi;

– Big Data ma‘lumotlar tahlili orqali turistik xizmatlar shaxsiylashtiriladi, marketing strategiyalari optimallashtiriladi va sayohatchilarning xulq-atvori o‘rganiladi.

Mobil ilovalar va raqamli platformalar mintaqa turizmining jadal rivojlanishida muhim omil hisoblanadi:

– Turistik yo‘nalishlar haqida ma‘lumot beradi, ya’ni mobil ilovalar orqali sayyohlar joylashuv, transport va ob-havo haqida ma‘lumot olishadi;

– Raqamli to‘lovlar orqali mobil to‘lov tizimlari sayohatchilarga oson va xavfsiz pul o‘tkazish imkonini beradi, bu esa xizmat ko‘rsatishning qulayligini oshiradi;

– Onlayn sharhlar va reytinglar yuritilishi sayyohlar uchun xizmatlarning sifati haqida sharhlar qoldirish va o‘qish imkoniyatini yaratadi.

Sun‘iy intellekt va innovatsion texnologiyalar turizmda quyidagi imkoniyatlarni beradi:

– AI yordamida sayyohlar oqimini samarali boshqarish, eng ko‘p tashrif buyuriladigan joylarga oqimni tartibga solish imkoniyati yaratiladi;

6. Yu, Abaskhanova Kh. "Features of introduction of innovative technologies in agriculture of Uzbekistan." International scientific journal “Universum: technical science (2021).

7. Yu, Abaskhanova Kh. "Advantages of using digital technologies in agriculture." Agro science. Agrarian-economic, scientific-practical magazine. Tashkent-2022.3-appendix (81)-no.-pages104-105.

8. Yu, Abaskhanova Kh. "Analysis of information and communication technologies in green environment monitoring." International Conference on Information Science and Communications Technologies Applications, Trends and Opportunies: ICISCT. 2022.

9. Abasxanova X.Yu. Methods for developing geographic information systems for monitoring and controlling agricultural fields. Monograph. Tashkent - 2021. "Science and Technologies Publishing - Printing House." – 132 pages. [https://scholar.google] (https://scholar.google)

10. Abasxanova X.Yu. Development of hardware and software complex for monitoring system. International Scientific Journal "Universum: Technical Sciences." 2022, Issue: 9(102), Part 5, – P. 5-8. [https://7universum.com/ru/tech/archive/category/9102] (https://7universum.com/ru/tech/archive/category/9102)

11. Abaskhanova X.Yu. Analysis of information and communication technologies in green environment monitoring. International Conference on Information Science and Communications Technologies Applications, Trends, and Opportunities: ICISCT 2022. [https://www.icisct2022.org/] (https://www.icisct2022.org/)

12. Abasxanova X.Yu. The application of digital technologies in the agricultural sector. Agro Science. Agrarian-Economic, Scientific-Practical Journal. [www.qxjurnal.uz] (http://www.qxjurnal.uz)

13. Shukurov J.S., Umarova D.A. Opportunities for Business Process Outsourcing and Knowledge Process Outsourcing in Uzbekistan. "Economics and Innovative Technologies Scientific Electronic Journal." [http://iqtisodiyot.tsue.uz] (http://iqtisodiyot.tsue.uz)

IQTISODIY JARAYONLARDA MASHINAVIY O‘QITISH ALGORITMLARI ASOSIDA QAROR QABUL QILISH MODULINI ISHLAB CHIQISH

Mallayev Oybek Usmankulovich
Texnika fanlari falsa doktori (PhD), dotsent,
Alfraganus universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
https://doi.org/10.5281/zenodo.14187554

Annotatsiya*: Ushbu maqolada sun’iy intellektning mashinaviy o‘qitish algoritmalarini iqtisodiy jarayonlarni bashoratlashda sohalar kesimida qarorlar qabul qilishda tutgan o‘rni, bugungi kundagi ahamiyati, iqtisodiy jarayonlarda samarali qarorlar qabul qilishni sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida yanada rivojlantirish usuli keltirilgan.*

Kalit so'zlar*: Sun’iy intellekt, iqtisodiy jarayonlar, mashinaviy o‘rganish(machine learning), iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish.*

Iqtisodiy jarayonlar turli xil iqtisodiy faoliyatlar va muhim iqtisodiy omillar o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro ta'sirlarni ifodalaydi. Bu jarayonlarga ishlab chiqarish jarayoni, ta'minot va talab, investitsiya jarayoni, xalqaro savdo va eksport-import, iqtisodiy o'sish va pasayish, pul-kredit siyosati, davlatning fiskal siyosati, moliyaviy bozorlar misol qilish mumkin[5].

Ishlab chiqarish jarayoni: Bu mahsulot yoki xizmatlarni yaratish va ta'minlash bilan bog'liq. Ishlab chiqarish jarayonida xom ashyo va resurslar ishlab chiqarish omillariga aylanadi.

Ta'minot va talab: Bozorda mahsulot yoki xizmatlar miqdori va ularga bo'lgan talabning o'zgarishi. Ta'minot va talab narxlar, iqtisodiy o'sish va iste'molchilar xatti-harakatlariga ta'sir qiladi.

Investitsiya jarayoni: Davlat, kompaniya yoki shaxslarning kapital mablag'larini biror iqtisodiy foyda olish maqsadida ma'lum loyihalarga kiritishi. Investitsiyalar iqtisodiy o'sish va rivojlanishda muhim rol o'ynaydi.

Inflyatsiya va deflyatsiya: Inflyatsiya narxlarning o'sishini, deflyatsiya esa narxlarning pasayishini anglatadi. Bu jarayonlar pul qiymati va iqtisodiyotning umumiy barqarorligiga ta'sir qiladi.

Xalqaro savdo va eksport-import: Davlatlar o'rtasida mahsulot va xizmatlar almashinuvi. Xalqaro savdo mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish va pasayish: YaIM (yillik umumiy ichki mahsulot) kabi ko'rsatkichlar orqali o'lchanadi. Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish va iste'molning o'sishini anglatadi, pasayish esa iqtisodiy faoliyatning qisqarishi bilan bog'liq.

Ishsizlik jarayoni: Iqtisodiyotda mavjud bo'sh ish o'rinlari va ishchilar o'rtasidagi nomutanosiblik. Ishsizlik darajasi mehnat bozorining holatini ifodalaydi.

Pul-kredit siyosati: Markaziy bankning pul massasi va foiz stavkalarini boshqarish orqali iqtisodiy faoliyatni tartibga solishi. Pul-kredit siyosati inflyatsiya, ishsizlik va iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladi.

Davlatning fiskal siyosati: Davlatning soliqlar va xarajatlar orqali iqtisodiyotni boshqarish faoliyati. Fiskal siyosat iqtisodiy o'sish, infratuzilma rivojlanishi va ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Moliyaviy bozorlar: Moliyaviy aktivlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa investitsiya vositalari) bozorida savdo jarayoni. Moliyaviy bozorlar iqtisodiyot uchun kapital manbai hisoblanadi va investitsiya imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishga ta'sir qiladi. Turli jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish iqtisodiy vaziyatni tushunishga va to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi.

Iqtisodiy jarayonlarni bashorat qilishda statistika, iqtisodiy modellar va mashinani o'rganish usullaridan foydalaniladi. Bu jarayonda quyidagi asosiy usullardan foydalaniladi.

Statistik usullar: Oddiy regressiya, ARIMA kabi vaqt qatorlari modellaridan foydalaniladi[2], [3]. Bu usullar asosan o'zgarishlar trendini va mavsumiy o'zgarishlarni aniqlashga yordam beradi. Mashinani o'rganish algoritmlari: Mashinani o'rganish yordamida bashorat qilishda sun'iy neyron

tarmoqlari (RNN, LSTM), random forest va gradient boosting kabi algoritmlar qo'llaniladi[4], [6]. Bu usullar katta hajmdagi va murakkab ma'lumotlar bilan ishlashda juda samarali[7].

Iqtisodiy modellar: Iqtisodiyotga xos ko'rsatkichlar va tenglamalar yordamida bashorat qilishga imkon beradi. Misol uchun, IS-LM modeli iqtisodiyotning umumiy talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanatni aniqlashda ishlatiladi. Sentiment tahlili va text mining: Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali to'plangan matnli ma'lumotlar yordamida investorlarning yoki iste'molchilarning kayfiyati va umidlarini o'rganish orqali iqtisodiy bashoratlarni yaxshilash mumkin.

Bashoratlash uchun ma'lumotlarni to'g'ri tayyorlash va to'g'ri algoritm tanlash juda muhim. Bunda har xil omillar (inflyatsiya, ishsizlik, jahon bozoridagi narxlar) inobatga olinadi [8], [9].

Bu masalning tub mohiyatidan kelib chiqib, maqolada iqtisodiy jarayonlarda qararlar qabul qilishga yordamlashuvchi, aniq kriteriyalar asosida yaratilgan tahminiy yondoshuvlarni mashinali o‘qitish algoritmlari yordamida avvaldan aniqlash algoritmi, sun’iy intellekt moduli taklif qilinadi.

Bu masalani yechishning sun’iy intellekt modulini ishlab chiqish uchun bir nech katta muammoli vaziyatlar mavjud. Ya’niy ishlab chiqish ko‘p vaqt sarf qiladigan parametrlar.

Bular:

- Iqtisodiy jarayonlarni ishlash mexanizmlarini o‘rganish;
- Iqtisodiy jarayonlarni yo‘nalishlar kesimida tahlil qilish;
- yo‘nalishlar kesimida iqtisodiy jarayonlarni eng muhim parametrlarini aniqlash;
- yo‘nalishlar uchun muhim faktorlar ro‘yxatini shakillantirish;
- har bir iqtisodiy jarayonlarni ushbu muhim parametrlar jadvallarini shakillantirish;
- taklif etilayotgan sun’iy intellekt modulini haqiqatga yaqin natijalar berishi uchun yillar kesimida iqtisodiy jarayonlardan olingan parametrlar jadvallarini shakillantirish.

Shu kabi shakillantirilishi uzoq muddatni talab etadigan, neyron tarmoqni o‘qitish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va ularning turli xil ko‘rinishdagi parametrlarini aniqlash taklif qilinaotgan modul uchun juda ham zarur hisoblanadi.

Maqolada taklif qilingan sun’iy intellekt modulini qurishda mashinaviy o‘qtish turlaridan biri nazoratli o‘qitish (Supervised Learning) dan foydalanildi.

Mashinaviy o‘qitishda muhim qism, kompyuterlarga ma’lumotlarni o‘rgatish uchun algoritmlar yaratish va ulardagi barcha o‘zgarishlarni kompyuter o‘z-o‘zini o‘rgatib borishidir. Ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilish, mos keladigan algoritmani tanlash, unga ma’lumotlarni o‘rganish uchun foydalanish va natijalarni tahlil qilish mashinaviy o‘qitishda asosiy elementlardir [10].

Taklif qilingan modulning barcha ma’lumotlar jadvali ikki qismga bo‘lingan: o‘qitish va sinov. Barcha 100% ma‘lumotlar quyidagicha bo‘linadi: umumiy ma‘lumotlar to‘plamining 80% modelni o‘rgatish uchun, qolgan 20% sinov uchun ajratilgan. Quyida bir nechta neyron tarmoqlarning ishlashini batafsil ko‘rib chiqilgan (modellash Pythonda Sklearn kutubxonasi yordamida amalga oshiriladi). Neyron tarmoqning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u juda murakkab funksiyalarni ifodalay oladi. Agar faollashtirish funktsiyalari qo‘llanilmasa, chiqish signali bir darajali polinom bo‘lgan chiziqli funktsiya bo‘ladi. Chiziqli tenglamalarni yechish oson bo‘lsada, ular cheklangan murakkablik omiliga ega va shuning uchun ma‘lumotlardan murakkab funktsional xaritalarni o‘rganish qobiliyati kamroq. Shunday qilib, faollashtirish funktsiyasisiz neyron tarmoq cheklangan imkoniyatlarga ega chiziqli regressiya modeli bo‘ladi.

Modelning matematik asoslari:

Model uchun chiziqli funksiya formulasi:

$$Y = xA^T + b \quad (1)$$

Chiziqli regressiya bilan ishlaganda ma’lumotlarni ifoda etuvchi eng yaxshi regressiya chizig‘ini toppish kerak bo‘ladi. Regeressiya chizig‘i (1) bilan hisoblanganda X^T hisoblanadi. Bunda ushbu konstanta orqali prognoz qilingan natija ma’lumotlar to‘plamida keltirilgan haqiqiy qiymatga imkon qadar yaqin bo‘lishi kerak. Ya’ni prognoz qilingan qiymat va haqiqiy qiymat o‘rtasidagi farq juda ham kam bo‘lishi kerak. Ushbu farq xatolik deyiladi. Xatlikni aniqlash uchun o‘rtacha kvadratik xatolik funksiyasi tanlanadi.

$$j = \frac{1}{m}\sum_{i=1}^{m}(f(x_i) - y_i)^2 \quad (2)$$

Regressiya koeffitsentlarini yangilash orqali xatolikni kamaytirish mumkin. Shuning uchun (2) bilan optimallashtirish amalga oshiriladi. Modulning natijasi traning ma’lumotlar jadvali (1- jadval)ning bir nechta ustunlariga bog‘liqligi uchun ko‘p o‘zgaruvchili chiziqli regressiyani hisoblash bosqichlari amalga oshiriladi.

Buni amalga oshirish uchun bazi belgilashlar kiritilgan:

- m – ma’lumotlar to‘plami soni (qatorlar soni);
- n– o‘zgaruvchilar soni (ustunlar soni);
- $x^{(i)}$ – i qatordagi o‘zgaruvchilar;
- x_j^i –i – qatordagi j- o‘zgaruvchining qiymati;
- X – ma’lumotlar to‘plamidagi o‘zgaruvchilarni ifoda etuvchi matritsa.
- a_j – j- koeffitsient;
- A – barcha koeffitsientlarni ifodalovchi matritsa yoki vektor. Uning o‘lchami (n x 1);
- $y^{(i)}$ – i- qatordagi prognoz qilinadigan belgining ma’lumotlar to‘plamidagi asl qiymati;
- $\dot{Y}$– progzon qilingan barcha $y^{(i)}$ larni ifodalovchi birlik matritsa yoki vektor. Uning o‘lchami (1 x m);
- f(x) – prognozni hisoblash formulasi;

Model berilganlarni bir nechta qatlamdan o‘tkazadi. Dastlab ko‘p o‘zgaruvchili chiziqli regressiya hisoblanadi. Chiziqli regressiyadan maqsad doimiy nishonni toppish, Leogistik regressiyada esa diskret (ma’lum bir turdagi) nishonlarni prognoz qiladi.

Berilgan trening ma’lumotlar to‘plami diskret qiymatli ma’lumotlar to‘plamiga tegishli bo‘lganligi uchun taklif qilinayotgan modelda sigmoid funksiyadan foydalnildi.

Sigmoid funkjsiya logistik funksiya deb ham ataladi. Uning asosiy vazifasi berilgan sonni (0,1) oraligdagi qiymatini aniqlashdir. Mashinaviy o‘qitishda esa sigmoid funksiya prognoz qilgan qiymatni ehtimolini aniqlashda foydalaniladi.

Xulosa

Iqtisodiy jarayonlarni turli yo‘nalishlariga ta’sirlari o‘rganilgan holda, trening ma’lumotlar to’plami hosil qilindi. Ushbu trening ma’lumotlar to‘plamidan ko‘p o‘zgaruvchili chiziqli regressiya funksiyasini kiruvchi qiymatlari sifatida foydalanildi va tahli qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, taklif qilingan mashinaviy o‘qitish modelini qurishda tanlangan qiymat funksiyasi va gradiyent tushush jarayonlari berilgan qiymatlarga eng yaqin qiymatlarni prognoz qilish imkoniyatlarini berdi. Ko‘p o‘zgaruvchili chiziqli regressiyaning formulasi berilgan qiymatlarga nisbatan to‘g‘ri tashkil qilinganligi isbotlandi. Prognoz qilgan qiymatni ehtimolini aniqlashda sigmoid funksiyasidan foydalaniladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish lozimki, sun'iy intellektning iqtisodiyotda Sun'iy intellektning o'rni kundan kunga rivojlanib bormoqda. Jumladan mashinaviy o‘qitish algoritmlarini ushbu yo'nalishlarda qo‘llanilishi, iqtisodiy jarayonlarda avvaldan to‘g‘ri yondoshuvlarni sifatini oshishishiga zamin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Zaynidinov H., Nurmurodov J., Qobilov S.* Application of Machine Learning Methods for Signal Processing in Piecewise-Polynomial Bases // Proceedings - 9th IEEE International Conference on Information Technology and Nanotechnology, ITNT 2023, 2023

2. *Zaynidinov H., Singh M., Tiwary U.S., Singh D.* Lecture Notes in Computer Science (including subseries Lecture Notes in Artificial Intelligence and Lecture Notes in Bioinformatics) 2023, 13741 LNCS, страницы v–vi

3. *Zaynidinov H., Mallayev O.* Parallel Algorithm for Calculating the Learning Processes of an Artificial Neural Network // AIP Conference Proceedingsthis link is disabled, 2022, 2647, 050006 https://doi.org/10.1063/5.0104178

4. *Mallayev O.U.* Parallellik paradigmasi asosida tibbiy tasvirlarga raqamli ishlov berishning parallel algoritmi// Innovation in technology and science education conference. Volume 2 Issue 11. ISSN 2181-371X

5. *M Mamadjonov, A Abdullayev, I Abdurahmonov, A Mamadaliyev. CHALLENGES OF MANAGEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scientific progress. 2021. 2 (6), 1533-1537.*

6. *Zaynidinov H., Mallayev O., Nurmurodov J.* Parallel Algorithm for Constructing a Cubic Spline on Multi-Core Processors in a Cluster // 14th IEEE International Conference on Application of Information and Communication Technologies, AICT 2020 - Proceedings, 2020, 9368680

7. *Zaynidinov H.N., Mallaev O.U., Anvarjonov B.B.* A parallel algorithm for finding the human face in the image // IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 2020, 862(5), 052004

8. *Волчек Ю.А., Шишко О.Н., Спиридонова О.С., Мохорт Т.В.* Положение модели искусственной нейронной сети в медицинских экспертных системах// Juvenis scientia. – 2017. – №. 9.

9. *Zaynidinov, H., Ibragimov, S., Tojiboyev, G., Nurmurodov, J.* Efficiency of Parallelization of Haar Fast Transform Algorithm in Dual-Core Digital Signal Processors // Proceedings of the 8th International Conference on Computer and Communication Engineering, ICCCE 2021, 2021, страницы 7–12, 9467190

10. *H. Zayniddinov, B. Rakhimov, G. Khalikova, A.* Saidov Review and analysis of computer vision algorithms, AIP Conference Proceedingsthis link is disabled, 2023, 2789, 050022

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TIZIMLARINING AHAMIYATI VA MA’LUMOTLAR XAVFSIZLIGIDA ELLIPTIK EGRI CHIZIQLAR KRIPTOGRAFIYASI

Toshboyeva Feruza To‘lqin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Oliy va amaliy matematika” kafedrasi assistenti,
elektron pochta: feruzatoshboyeva35@gmail.com.
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189567

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot tushunchasi va uning hozirgi kundagi ahamiyati, iqtisodiyotni raqamlashtirishdagi muammolar va ma’lumotlar xavfsizligi, elliptic egri chiziqlar kriptografiyasidan foydalanish ahamiyati va uning mohiyati yoritib berilgan.Shuningdek xulosa va takliflar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, kriptografiya, elliptic egri chiziq, ma’lumotlar xavsizligi, chegarali maydon, algoritm, kriptotizim*

KIRISH

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi juda ko’plab mamlakatlarning iqtisodiyotida va amaliyotida paydo bo’lmoqda.Raqamli iqtisodiyot rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Tarmoq va hudud rahbarlari raqamlashtirishsiz natija, rivojlanish bo‘lmasligini tushunib yetishi shart. Barcha darajadagi rahbarlar buni o‘ziga kundalik vazifa sifatida belgilab, raqamlashtirish sohasini alifbosidan boshlab chuqur o‘rganishi kerak” [1].

Raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog’liq iqtisodiy faoliyat, hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig`indisidir.

Birinchi marta 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “Raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritgan bo’lsa, hozirda esa buni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo’llamoqda [2].

Raqamli iqtisodiyot deganda qaytadan quriladigan boshqa iqtisodiyot emas, balki yangi texnologiyalar, zamonaviy platformalar, dasturlarni yaratish, jarayonlarni avtomatlashtirish va ularni hayotga tadbiq etish, amaliyotda qo`llash tushuniladi. “Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko‘zda tutadigan “Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasi”ni ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o‘tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda. Shuning uchun hukumatga ikki oy muddatda raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish topshiriladi. Bu borada axborot xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish zarur”, − deya ta’kidlagan yurtboshimiz [3].

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot hozirgi mavjud sohalarning yarmidan ko‘prog`ida beqiyos o‘zgarishlar keltirib chiqarishi ta’kidlanmoqda.Birinchi marta raqamli iqtisodiyot tushunchasini Nikolas Negroponte kiritgan bo‘lsa, hozirda esa juda ko‘plab olimlaru siyosatchilar o‘rganmoqda. Bugungi kunda GOST 28147-89, GOSTR34.12-2015, O’zDSt 1105:2009 shifrlash algoritmini turli kriptotahlil usullari yordamida baholash masalalari bir qator olimlar, jumladan: B.Schneier, D.Wagner, E.Fleischmann, G.Sekar, I.Dinur, J.Huhne, J.Kang, J.Kelsey, M.Gorski, M.Misztal, N.Courtois, N.Mouha, O.Dunkelman, O.Kara, S.Hong, S.Lee, S.Lucks, T.Isobe, Y.Ko, A.Alekseychuk, Kuryazob D.M V.Rudskoy, G.Xorujenko, Ye.Zolotniskiy, Ye.Ishukova, Ye.Maro, I.Kochetkov, L.Babenko, N.Moldovyan, A.Moldovyan, V.Gusev, M.Aripov, A.Maraximov, B.Abduraximov, R.Aloyev, G.Djurayev, G.Tuychiyev, D.Akbarov, M.Pudovkina, Z.Xudaykulov, A.Sattarov, B.Axmedov Menezes A, Oorschot P, Vanstone S va boshqalar ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yoritishda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan sohaga doir qabul qilingan qarorlar, olimlarning adabiyotlari, ilmiy tadqiqot ishlari hamda yurtimiz doirasida ushbu sohaga aloqador jarayonlar, amaliyotlar analiz va sintez qilgan holda tadqiq etildi.

ASOSIY QISM

Jahonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jadallashib, axborot texnologiyalari tizimlarining ma’lumotlarni to‘plash, himoya qilish va tahlil qilish asosida tegishli qarorlar qabul qilish imkoniyatlari yildan yilga oshib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot amalda tovar va xizmatlar o‘rniga turli xil ma’lumotlarni yig‘ish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq “yangi” turdagi faoliyatni keltirib chiqardi va bu bilan inson faoliyatiga yengillik ham kiritildi. Ma’lumotlar turlicha bo‘lib, o‘z navbatida, ochiq va yopiq ma’lumotlar, shaxsiy va abstrakt, konfidensial va nokonfidensial, tijorat yoki davlat maqsadlarida, ixtiyoriy taqdim etiluvchi yoki kuzatuv natijasida olinadigan va ko‘plab shakllarda bo‘lib, ularni to‘plash, umumlashtirish, saqlash, tahlil qilish, modellashtirish bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar tomonidan “ma’lumotlarning qiymatini yaratish zanjiri” shakllandi.Shu bilan birga bu jarayonda ma’lumotlar xavfsizligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.Ma’lumotlarni tashqi ta’sirlardan himoya qilish vazifasi ham o‘rganiladigan asosiy soha sifatida kirib keldi va olimlar bu ustida ko‘plab izlanishlarni olib bordi va bormoqda.

1995-yilda Massachuset universitetining informatika sohasidagi olimi Nikolas Negroponte “Raqamli iqtisodiyot” atamasini amaliyotga kiritib, uni atomlar harakatidan bitlar harakatiga o‘tish metaforasi shaklida, axborot-kommunikatsiya vositalari shakliga o‘tishi sifatida ifodaladi [4]. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi oqibatida milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik tizimini yaratish lozim. Bu o‘z navbatida axborot xavfsizligi bilan ham bog’liq. Axborot xavfsizligi haqida gapirar ekanmiz “kriptografiya” tushunchasi kirib keladi.

Kriptografiya - bu xabarlarning maxfiyligini ta'minlash uchun kompyuter algoritmi bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan aqlli matematik tenglamalarni o'rganadigan rivojlanayotgan soha. Ushbu maqola elliptik egri chiziqlar kriptografiyasi bo'yicha asosiy tadqiqotni taqdim etadi. U elliptik egri chiziq ortidagi matematikani kriptotizimda qo'llanilishiga moslashtiradi. Xulosa qilib aytganda, elliptik egri chiziq 3-darajali ikki o‘zgaruvchan ko‘phaddagi nuqtalarni o‘rganishdir. Egri chiziq chegarali maydon ustida aniqlanganda, qo‘shish amali bilan ta’sir etuvchi nuqtalar to‘plami chekli guruh strukturasini hosil qiladi. Aylanma nuqtalar sifatida ham tanilgan, ular kodlangan xabarlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Shifrlash va dekodlash nuqtani bir xil to'plamdagi boshqa nuqtaga aylantiradi. Kontseptual tushunishdan tashqari, muhokamalar elliptik egri chiziqlar kriptotizimning xavfsizligi va samaradorligi masalalariga qaratilgan. Ta'rifga ko'ra, dastlab

kriptologiya xabarlar sirini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot sifatida aniqlanadi. Domen kriptografiya va kriptoanaliz kabi kichik sohalarga bo'linadi. Kriptografiya dastlab san'at, lekin asta-sekin xabarlarni yashirish faniga aylanadi. Kriptotizimga bo'lgan ehtiyoj, xabarning ma'nosi oshkor etilmagan holda ikki tomon o'rtasida yuborilishi kerak bo'lganda muhim ahamiyatga ega. Kripto dunyosidagi eng mashhur aloqa senariysi Bobning Elisga ba’zi xabarlarni etkazishni xohlashi, uchinchi shaxs tinglovchi sifatida yashiringan bo’lishi mumkin. Eng dastlabki fundamental say-harakatlarni Shennon[5] o’zining “Maxfiylik tizimlarining aloqa nazariyasi” maqolasida ilgari surgan. Axborot nazariyasi haqidagi g`oyasiga asoslanib, u xavfsiz kriptotizim tamoyilini belgilab berdi. O‘shandan beri kriptografiya matematikaning ba’zi tarmoqlari va keyinchalik kvant fizikasi ostida paydo bo'ldi. Kriptografiya dastlab shifrlash orqali xabarlar sirini ta’minlashga qaratilgan. Boshqa tomondan, kriptotahlil kriptografiyaning teskarisi bo’lib, maxfiy xabarni ochishga harakat qiladi. Ushbu maqola matematika nazariyasidan kriptotizimning qo’llanilishigacha bo’lgan batafsil muhokamani ta’minlashga qaratilgan. Biz nega elliptik egri chiziq nazariyasi kriptotizimni qurish uchun mos keladi va elliptik egri chiziqning ushbu matematikasini kriptotizimga qo’yiladigan talablarni qondirish uchun qanday qilib aniq sozlash kerakligi haqidagi savolga javob berishga harakat qilamiz.

ECDH algoritmi, quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: Ijrochilar (Alice va Bob) elliptik egri chiziq E va modul p ustida ishlash uchun kelishishadi.Alice va Bob o’zining maxfiy kalitlarini (a va b) tanlaydi, ularning har biri [1, p-1] oralig`ida bo‘lishi kerak.Alice va Bob o’zining jamoat kalitlarini hisoblash uchun elliptik egri chiziq ustida nuqta ko’paytirish amalini ishlatadi: A = a * G va B = b * G, G elliptik egri chiziqning nuqtasi.Alice va Bob o’zining maxfiy kalitlari va qabul qilgan jamoat kalitlarini ishlatib, o’zaro kalitni hisoblaydilar: K_Alice = a * B va K_Bob = b * A. Bu yerda, K_Alice va K_Bob bir xil bo’lishi kerak.

Elliptik egri chiziq deb, quyidagi Veyershtrass tenglamasi deb ataluvchi tenglik orqali aniqlanuvchi

$$y^2 + a_1xy + a_3y = x^3 + a_2x^2 + a_4x + a_6$$

egri chiziqqa aytiladi.

Biz quyidagi elliptik egri chiziqda P(0;4) va Q(3;5) nuqtalar tegishli ekanligini bilgan holda boshqa ratsional koordinatali nuqtalarini aniqlaylik.

$$y^2 = x^3 - 6x + 16$$

Bu 2 ta nuqta orqali to‘g`ri chiziq o‘tkazsak bu egri chiziqni uchinchi B$(x_3; y_3)$nuqtada kesib o‘tadi. Bu nuqta OX o’qiga simmetrik ko’chiriladi va hosil bo‘lgan B$(x_3; y_3)$ nuqta, P va Q nuqtalarning elliptik egri chiziq ustida yig‘indisi hisoblanadi.Bu nuqtalar orqali o‘tuvchi to‘g`ri chiziqning umumiy ko‘rinishini

$$y = kx + d$$

yozib olamiz.Berilgan nuqtalarimizdan o‘tadigan to‘g`ri chiziq

$$y = \frac{1}{3}x + 4$$

ga teng bo‘lar ekan.

$y^2 = x^3 + ax^2 + bx + c$ elliptic egri chiziq tenglamasiga qo‘yamiz.

$$(\frac{1}{3}x + 4)^2 = x^3 + ax^2 + bx + c$$

Bundan

$$x^3 - \frac{1}{9}x^2 - \frac{26}{3}x = 0$$

Ko‘rinishni olamiz.Viyet teoremasiga ko‘ra:

$$x_1 + x_2 + x_3 = \frac{1}{9}$$

Bundan:

$$x_3 = \frac{1}{9} - x_1 - x_2 = \frac{1}{9} - 0 - 3 = -\frac{26}{9}$$

$$y_3 = -\frac{1}{3} * \left(-\frac{26}{9}\right) - 4 = -\frac{82}{27}$$

Demak

$y^2 = x^3 - 6x + 16$ elliptik egri chiziqqa tegishli 3-ratsional B($-\frac{26}{9}; -\frac{82}{27}$) nuqta topildi.

Agar $x_1 = x_2$ bo’lsa, u holda kesuvchi to’g’ri chiziq o’rniga urinma o’tkazilib, quyidagi formulalar keltirilib chiqariladi:

$$x_3 = -4x_1 - a + \frac{(-\frac{1}{3}{x_1}^2 + 4ax_1 + b)^2}{16{y_1}^2}$$

$$v = -y - \frac{3{x_1}^2 + 2ax_1 + b}{4y_1}(x_3 - x_1)$$

Misol.Elliptik egri chiziq

$$y^2 = x^3 - 71$$

va unga tegishli nuqta P(8;21) berilgan bo‘lsa, bu nuqtaning yig`indisini ifodalovchi nuqta topilsin.

$441 = x^3 - 71$, bunda $y^2 = x^3 + ax^2 + bx + c$ dan

$a = 0, b = 0, c = -71$

ekanligi kelib chiqadi.

$$x_3 = -4 * 8 - 0 + \left(\frac{-\frac{1}{3} * 64 + 0}{4 * 21}\right)^2 = \frac{256}{3969}$$

$$y_3 = -21 + \frac{\frac{1}{3} * 64}{4 * 21} * \left(\frac{256}{3969} - 8\right) = -\frac{5754923}{250047}$$

Yuqorida tanlangan elliptik egri chiziqning rastional nuqtalari ustida amallar bajarish masalasining murakkabligiga asoslangan nosimmetrik shifrlash algoritmini yaratish masalasini yechishda foydalaniladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, “Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot – ma’lumotlar bo’ladi. Ularning tahlilidan so‘ng esa to‘g`ri boshqarish bo‘yicha yechim ishlab chiqiladi. Shuningdek, davlat innovatsion va raqamli ekotizimni qo‘llab-quvvatlash sohasida raqamli ta’limning zamonaviy metodlarini qo‘llab-quvvatlashi, innovatsion xizmatlarni samarali tartibga solish normalarini ishlab chiqishi, yangi bozorlarni o‘zlashtirishda ko‘maklashishi hamda texnologik jarayonlarning chuqurlashuvida yuzaga chiqadigan risklarni pasaytirish choralarini ko‘rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, hozirgi hayotimiz taraqqiy etgan sari jamiyatda va har bir jabhalarida axborotga bo‘lgan talab va ehtiyoj ham ortib bormoqda, ayniqsa, axborot texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi axborotlar hajmining ham ortib borishiga xizmat qilib kelmoqda.Bu kabi axborotlar albatta xavfsizlikni talab etadi ma’lum ma’noda himoyani, mahfiylikni va sir saqlanishini,

negaki, bu ma’lumotlarning oshkor bo‘lib qolishi, o‘g‘irlanishi yoki yo‘q qilinishi, kiberhujumga uchrashi kabi holatlar davlat va fuqarolar, tashkilotlar uchun kata talofotlarni, moliyaviy va ma’naviy zararlarni olib kelishi mumkin.Bu kabi holatlarni oldini olish uchun esa qanday soha, yo‘nalish bo‘lmasin albatta, axborot xavfsizligini, uning himoyasi va muhofazasini amalga oshirishi lozim.Axborot xavfsizligi bo‘yicha har bir rahbar va mutaxassislar, ma’sul shaxslar tashkilot faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va tashkilotda yetarli darajada axborot xavfsizligini ta’minlashda amaliy chora va tadbirlarni ko‘rishlari darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrdagi 2019-yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. Kelly K. New Rules for the New Economy: 10 radical strategies for a connected world / K. Kelly. – New York: Viking, 1998
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi “O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari” Toshkent-20212.O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi “O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari” Toshkent-2020
4. Nicholas Negroponte. Being Digital. – London: Hodder & Stoughton, 1995. – 243 p. http://governance40.com/wp-content/uploads/2018/12/Nicholas-Negroponte-BeingDigitalVintage-1996.pdf
5. ElGamal T., A Public Key Cryptosystem and a Signature Scheme Based on Discrete Logarithms // IEEE Transactions on Information Theory, 1985, vol. IT-31. – Pp. 469-472.
6. Koblitz N. and Vanstone S. The state of elliptik curve cryptography // Designs, Codes and Cryptography, 19 (2000).
7. Koblitz N. Elliptik Curve Cryptosystems // Mathematics of Computation, 48, 1987. – Pp.
8. Коблиц Н. Введение в эллиптические кривые и модулярные формы // Пер с англ. – Москва: Мир, 1988. – 320 с.
9. J.B. Dixit Fundamental of computer programming and IT. – Laxmi Publication PVT. Ltd., 2011. - 557 p.
10. Асимметричная криптография на эллиптических кривых // Open PGP в России. – http: //www.pgpru.com.
11. S. K. Ganiyev, M. M. Karimov, K.A. Tashev. Axborot xavfsizligi. T. , 2017 yil. 2. S. S. Qosimov. Axborot xavfsizligini ta`minlashning kriptografik usullari va ularning qo`llanilishi.
12. M. Aripov, B. Begalov, U. Begimqulov, M. Mamarajabov. Axborot texnologiyalari. T. 2009.

SIMSIZ SENSOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA (SANOAT 4.0) SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Toshtemirov Temirbek Qodirjon o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tayanch doktoranti
(temirbektoshtemirovgmail.com)
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189577

Annotasiya: *Qishloq xo‘jaliginida simsiz sensor texnologiyalar asosida sanoat 4.0 da istiqbollari o'rganishga bag‘ishlangan. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligiga raqamli texnologiyalar faol joriy etilib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishning asosiy jihatlari, jumladan simsiz sensor texnologiyalardan foydalanish, jarayonlarni avtomatlashtirish, ma’lumotlar tahlili va buyumlar internetini o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘z*: Simsiz sensor texnologiyalari (WSN), Buyumlar interneti (IoT), Robototexnika.*

Sanoatlashtirishning rivojlanish asosida va yangi texnologiyalarni keng joriy etish shubhasiz, dunyoning yangi raqamli davrga o‘tishiga olib keladi. Bu davr yuqori texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi hayotimizning barcha sohalariga keng qo‘llaniladi texnologiya, simsiz sensor texnologiyalari (WSN), buyumlar interneti (IoT) va robototexnikadur[1].

Jahon oziq-ovqat bozorining 2050 yilgacha rivojlantirish prognozlariga ko‘ra. dunyo aholisining ko‘payishi hisobiga 9,4-10,1 milliard kishini tashkil qiladi. Aholi soni yil sayin shu tarzda oshib borishi 2100 yilga kelib 9,4 dan 12,7 milliardgacha tashkil etishini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun, oziq-ovqat ishlab chiqarish 2100 yilga kelib aholining ko‘payishini qondirish uchun 70% ga o‘sishi kutilmoqda . Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishining ta’siri unumdor yerlar va ishlab chiqarishni katta muamolarga olib kelmoqda[2] , buning natijasida yillik zarar 2100 yilga kelib yalpi jahon mahsulotining 0,1 va 1,0 foizini tashkil qilishi kutilmoqda .

Bundan tashqari, fermerlarning ekinlarni noto‘g‘ri boshqarishi va resurslardan keng foydalanish ko‘pincha kislotalilik, eroziya va og‘ir metallar bilan ifloslanishi tufayli tuproqning yomonlashishiga olib keladi. Shuning uchun, fermerlar barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun o‘g‘itlar, suv va ozuqa moddalari kabi turli resurslardan juda optimallashtirilgan tarzda foydalanishlari talab etilmoqda. Shu sababli, simsiz sensor texnologiyasi aqlli dehqonchilik fermerlar uchun qishloq xo‘jaligi monitoring va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun ulkan imkoniyat yaratadi [3-4].

«Sanoat 4.0» (Industry 4.0) va boshqa tashabbuslar yaxlit, adaptiv avtomatlashtirishga olib keladi, u ishlab chiqarish jarayonini boshqa biznes funksiyalar, shu jumladan tashqi logistika, mijozlarga xizmat ko‘rsatish va chiqish logistikasini birlashtiradi. Bu tashabbuslarning muhim qismi sohaning barcha tomonlarini, shu jumladan loyihlash, yetkazib berish zanjiri, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va hayot siklini boshqarishning muvofiqlashtirishni optimallash uchun texnologiyalarni qo‘llash hisoblanadi[5].

Qishloq xo‘jaligining ibtidoiy bosqichdan hozirgi kundagi ilg‘or darajasigacha bo‘lgan evolyutsiyasi vaqt o‘tishi bilan bosqichma-bosqich amalga oshirildi. 1-rasmda sanoat inqiloblari va qishloq xo‘jaligi inqiloblarining sxematik vaqt jadvallari birgalikda

ko‘rsatilgan. Qishloq xo‘jaligidagi texnologik ishlanmalar 4 ta uzoq muddatliga bo‘linadi va Qishloq xo‘jaligi 1.0 dan 4.0 ga o‘tish deb nomlanadi.



1– rasm. Sanoat va qishloq xo‘jaligi rivojlanish istiqbollari

Qishloq xo‘jaligi 1.0: Qadimgi davrlardan an’anaviy dehqonchilik amaliyoti bo‘lgan, dehqonlar asosan ishchi kuchi va hayvon kuchiga tayangan holda dehqonchilikda asosan mahalliy qo‘l asboblaridan foydalangan davr Qishloq xo‘jaligi 1.0 deb qabul qilingan. Bunday qishloq xo‘jaligi katta qo‘l mehnatini talab qildi, lekin unumdorlik juda past edi.

Qishloq xo‘jaligi 2.0: 1-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, u 1784 yildan deyarli 1870 yilgacha, qishloq xo‘jaligi texnikasi tuproqqa ishlov berish, ekish, begona o‘tlar, sug‘orish va hosil yig‘ish uchun ishlatilganda oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko‘paytirish va qo‘l mehnatini qisqartirish davri deb ataladi.

Qishloq xo‘jaligi 3.0: shuningdek, “Precision Farming” deb ataladigan kompyuter va elektronika yutuqlari tufayli paydo bo‘ldi. Ushbu ishlanmalar texnikadan foydalanishda energiyani tejash va sug‘orishda suvni tejash, dalada kimyoviy moddalardan foydalanishni qisqartirish va qishloq xo‘jaligi tizimlarining ekspluatatsion samaradorligini oshirishga mo‘ljallangan hisoblanadi[43]. Xalqaro qishloq xo‘jaligi jamiyati ta’rifiga ko‘ra, “Aniq qishloq xo‘jaligi” - bu vaqtinchalik, fazoviy va individual ma’lumotlarni to‘playdigan, qayta ishlaydigan va tahlil qiladigan va ularni sayt, o‘simlik yoki hayvonlarni boshqarish uchun boshqa ma’lumotlar bilan birlashtiradigan boshqaruv strategiyasidir.

Qishloq xo‘jaligi 4.0: Qishloq xo‘jaligi sektori yangi raqamli texnologiyalar tufayli qishloq xo‘jaligining “Qishloq xo‘jaligi 4.0” deb nomlangan yangi davriga kirib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi 4.0 qishloq xo‘jaligi va ekologik muammolarni o‘simlik va chorvachilikdan tortib begona o‘tlardan tozalash, zararkunandalarga qarshi kurash, shuningdek, hosil yig‘im-terimgacha bo‘lgan turli qishloq xo‘jaligi texnologiyalariga moslashtirilgan raqamlashtirish, avtomatlashtirish va sun’iy intellekt tufayli yechim topadi.

Bugungi kunga kelib raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq ko‘plab tadqiqotlar qishloq xo‘jaligida Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) [6], buyumlar internetini (IoT),

Cloud Computingni (CC) Big Data Analyticsni (BDA), robototexnikani va Machine Learningni (ML) tadbiq etish bo‘yicha olib borilmoqda.

Sanoat 4.0, o‘zining asosiy komponenti bo‘lgan buyumlar internetini (IoT) qishloq xo‘jaligini o‘zgartirish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi. Simsiz sensor texnologiyalari “Precision Agriculture” kompaniyasining ajralmas qismiga aylanib, samaradorlik, barqarorlik va rentabellikni oshirish uchun katta foyda keltiradi[6-7].

Simsiz sensorli texnologiyalar (IoT) resurslardan foydalanishni optimallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali qishloq xo‘jaligida asosiy rol o‘ynaydi bunda asosiy afzalliklari:

1) Sug‘orishni optimallashtirish:

- Tuproq namligining aniq monitoringi: Tuproq namligi sensorlari namlikning haqiqiy darajalari haqida ma’lumot beradi, bu sizga ortiqcha sug‘orish yoki suv ostida qolmasligingizga yordam beradi [8].
- Avtomatik sug‘orish tizimlarini boshqarish: Sensorlardan olingan ma’lumotlar sug‘orish tizimlarini avtomatik ravishda boshqarish uchun ishlatilishi mumkin, bu suvni kerakli vaqtda va kerakli miqdorda aniq etkazib berishni ta'minlaydi.
- Suv sarfini kamaytirish: sug‘orishni optimallashtirish suv sarfini 20-50% ga qisqartirishi mumkin, bu esa resurslarni tejash va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

2) Oziqa moddalarni boshqarish:

- Tuproq monitoringi: Tuproq sensorlari o‘g‘itlarni qo‘llashni optimallashtirish uchun pH, ozuqaviy moddalar darajasini va boshqa muhim parametrlarni aniqlaydi.
- Atrof-muhit ifloslanishining kamayishi: Oziq moddalarni aniq boshqarish azot va fosfor chiqindilarini kamaytiradi, bu esa atrof-muhitga ijobiy tasir ko‘rsatadi[9-11].

3) Zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurash:

- Muammoni erta aniqlash: Sensorlar zararkunandalar va kasalliklarni jiddiy zarar yetkazmasdan oldin aniqlashi mumkin.
- O‘z vaqtida kasalliklarga kurashish choralari: erta aniqlash zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurashish uchun o‘z vaqtida choralar ko‘rish, ularning ko‘payishi va hosilning yo‘qotilishini minimallashtirish imkonini beradi[12].
- Kimyovi modallardan foydalanishni kamaytiring: zararkunandalar va kasalliklarni aniq nazorat qilish kimyovi modallardan foydalanishni kamaytirishi mumkin, bu esa yanada ekologik toza va xavfsizroq yondashuvdir.

4) Qo‘shimcha imtiyozlar:

- Hosildorlikni oshirish: resurslardan foydalanishni optimallashtirish qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshiradi.
- Xarajatlarni kamaytirish: resurslarni aniq boshqarish suv, o‘g‘itlar, kimyovi modallarni va boshqa kirish xarajatlarini kamaytiradi.
- Barqarorlikni oshirish: resurslardan samarali foydalanish qishloq xo‘jaligining atrof-muhitga tasirini minimallashtirishga yordam beradi [13-14].

Xulosa

Qishloq xo‘jaligida barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun o‘g‘itlar, suv va ozuqa moddalari kabi turli resurslardan juda optimallashtirilgan tarzda foydalanishlari uchun doimiy ravishda yangi yechimlar va texnologiyalar taklif etilmoqda hamda amalga oshirilmoqda. Bu simsiz sensor texnologiyasi (WSN) ning paydo bo‘lishiga olib keldi. Qishloq xo‘jaligi yer maydonlarni SST internet muhiti orqali qurilmalar, sensorlar, mashinalar, dasturiy ta’minot orqali barcha maydonlarni real vaqt davomida monitoring qilish imkoni beradi.

Simsiz sensor texnologiyalari qishloq xo‘jaligida takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi va barqarorligini oshirishga olib keladi.

FOYDALIGAN ADABIYOTLAR

[1]. United Nations; Department of Economic and Social Affairs; Population Division. *World Population Prospects Highlights, 2019 Revision Highlights, 2019 Revision*; United Nations: New York, NY, USA, 2019.

[2]. O’Grady, M.J.; O’Hare, G.M. Modelling the smart farm. Inf. Process. Agric. 2017, 4, 179–187. [CrossRef].

[3]. Julian, Q.; Nat, D. Climate Change and Land Tenure; IIED (International Institute for Environment and Development) and Natural Resources Institute, University of Greenwich: London, UK, 2008; p. 68.

[4]. Ingram, G.K.; Hong, Y.H. (Eds.) Climate Change and Land Policies; Lincoln Institute of Land Policy: Cambridge, MA, USA, 2011.

[5]. Adomako, T.; Ampadu, B. The Impact Agricultural Practices on Environmental Sustainability in Ghana: A Review. J. Sustain. Dev. 2015, 8, 70. [CrossRef].

[6]. Khujamatov,T.Toshtemirov Wireless sensor networks based Agriculture 4.0: challenges and apportions 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan – 2020.-5 p

[7]. Tuskov A.A., Grosheva E.S., Palatkin I.V., Shorokhova O.S. (2018) «Industriya 4.0» v APK: osnovnye tendentsii primeneniya tekhnologii interneta veshchei v sel'skom khozyaistve ["Industry 4.0" in the agro-industrial complex: the main trends in the use of Internet of things technologies in agriculture]. Modeli, sistemy, seti v ekonomike, tekhnike, prirode i obshchestve [Models, systems, networks in economics, technology, nature and society], 1 (25), pp. 55-64.

[8]. .K.Khujamatov, Khasanov D T, T.Toshtemirov, Saburova.N., Xamrayev I.I. IoT based agriculture 4.0: challenges and opportunities. Bulletin of TUIT: Management and Communication Technologies Bulletin of TUIT: Management and Communication Technologies, Volume 4, December 2021.-No. 2-8 p .

[9]. H. Khujamatov, T.Toshtemirov, A.Lazarev and Raximjonov Q.T. “ IoT and 5G technology in agriculture” 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan – 2021

[10]. K. Khujamatov, D. Khasanov, B. Fayzullaev, E. Reypnazarov. “WSN-Based Research the Monitoring Systems for the Solar Power Stations of Telecommunication Objects,” IIUM Engineering Journal , Vol. 22, no. 2, 2021.

[11]. S. Arsheen, A. Wahid, K. Ahmad, and K. Khalim, “Flying ad hoc network expedited by DTN scenario: Reliable and cost-effective MAC protocols perspective,” in 2020 IEEE 14th International Conference on Application of Information and Communication Technologies (AICT), 2020.

[12]. G. S. Nagaraja, A. B. Soppimath, T. Soumya and A. Abhinith, "IoT Based Smart Agriculture Management System," 2019 4th International Conference on Computational Systems and Information Technology for Sustainable Solution (CSITSS), Bengaluru, India, 2019, pp. 1-5, doi: 10.1109/CSITSS47250.2019.9031025.

[13]. Vladimir Muliukha, Alexander Ilyshenko, Oleg Zayats, Vladimir Zaborovsky, (2015) “Preemptive queueing system with randomized push-out mechanism”, Communications in Nonlinear Science and Numerical Simulation, Volume 21, Issues 1–3,Pages 147-158.

INTELLEKTUAL MULK OB’EKTLARINI TIJORATLASHTIRISHDA “KRAUDFANDING” PLATFORMASINING IMKONIYATLARI

Sunnatov Muxtor Ne’matovich
O‘zbeknston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
E-mail: muxtor.sunnatov@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189593

Annotasiya: *Ushbu maqolada, intellektual mulk ob’ektlarini tijoratlashtirishda kraudfanding platformasining imkoniyatlari, xususiyatlari, maqsadi, samarali natijalarga erishish imkoniyatlarida kraudfandingni raqamli iqtisodiyotning innovatsion moliyaviy vositasi sifatida kelajakda bu bank kreditiga alternativa bo‘lishi mumkinligini hisobga olib u bilan bog‘liq konseptual asoslarni yaratish zaruriyati tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, intellektual mulk, startap, kraudfanding, platform, investitsiya, moliyalashtirish, texnologiya, sun’iy intellekt, blokcheyn, dronlar, genitik muhandislik, nanotexnologiya.*

Intellektual mulk bozorini huquqlar aylanishi uchun intellektual mulk va raqamli infratuzilmalar

KIRISH

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda raqamli texnologiyalarni roli milliy iqtisodiyotning o‘sishini va natijada mamlakatning dunyodagi ta’sirini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Xususan, milliy iqtisodiyotning global raqobatbardosh ko‘rsatkichlari intellektual faoliyat natijalarini jalb qilinishiga, ularning narxi va tenologik aylanish tezligiga bog‘liq. Buning shartlari global raqamli tarmoqlarning rivojlanishi bilan yaratilgan bo‘lib ularning 70 foizidan ko‘prog‘i intellektual mulk ob’ektlarining harakati hisoblanadi.

Intellektual mulk instituti zamonaviy global iqtisodiyotning yadrosi bo‘lib “moddiy” bozorlarning o‘sish sur’atlaridan yuqori, yiliga 10 foizdan ko‘proq o‘smoqda (Xitoy-23%, AQSh-5%, Fransiya-2%, Rossiya-5%).[1]

Milliy iqtisodiyotning o‘sishini va mamlakatning global dunyodagi ta’sirini belgilashda raqamli infratuzilmalarning o‘rni muhim sanaladi. Jadal rivojlanayotgan va zamonaviy dunyoda Internet tarmog‘i orqali mablag‘ to‘plash loyihalarni moliyalashtirishning muqobil va istiqbolli sxemasiga aylanib bormoqda. Xususan, axborot texnologiyalari sohasidagi loyihalarni kraudfanding

platformasi orqali joylashtirish va moliyalashtirish mexanizmi. Ushbu sxema yosh tadbirkorlar va startaplarga investitsiyalarni jalb etish hamda moliyalashtirish manbalarini topish imkoniyatini yaratib, quyidagi samarali natijalarga erishish imkoni beradi.

Xususan, kraudfanding platformasining imkoniyatlari quyidagilarda aks etadi:

- intellektual mulk ob’ektlari ba’zasini shakllantirish;
- intellektual mulk bozori rivojlanishi;
- aholida moliyaviy savodxonlik ko‘nikmalarini hosil qilish;
- intellektual mulk ob’ektlarini moliyalashtirish manbaini aniqlash qiyin bo‘lgan boshlang‘ich bosqichlarida qo‘llab-quvvatlash;
- innovatsion va texnologik loyihalarga xorijiy investitsiyalar va xalqaro tashkilotlarning mablag‘larini jalb etish;
- O‘zbekiston Respublikasida startaplarning ekotizimini rivojlantirishni jadallashtirish;
- moliyalashtirish natijasida aylanma mablag‘larni ko‘paytirish orqali iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatish;
- startaplarni nodavlat qo‘llab-quvvatlash;
- startaplarda ishlaydigan yoki unga asoslangan o‘zini-o‘zi band qilganlar/tadbirkorlar sonini ko‘paytirish;
- imkoniyatlar yaratish orqali chet el davlatlariga ketadigan mutaxassislar sonini qisqartirish;
- xalqaro intellektual mulk bozorida O‘zbekiston Respublikasining imidjini yaxshilash;
- elektron tijoratga jalb qilingan odamlar sonini va ko‘pchilikni axborot texnologiyalari infratuzilmasiga jalb qilishni ko‘paytirish;
- texnologik tadbirkorlik shaffofligini ta’minlash;
- tegishli sohalarda davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish.

ASOSIY QISM

Mutaxassislar kraudfandingni raqamli iqtisodiyotning innovatsion moliyaviy vositasi deb bilishadi. Kelajakda bu bank kreditiga alternativa bo‘lishi mumkin. Kraudfanding “Aqilli odamlarning jamoaviy moliyalashtirishi” deb ham ataladi. So‘ngi yillarda jahon bozori faol rivojlanmoqda xususan, kraudfandingning bozori shiddat bilan o‘sib bormoqda. Jumladan, “QY Research va boshqa tahliliy platformalar hisob-kitoblariga ko‘ra uning hajmi 2018 yilda 10,2 milliard AQSh dollarni, 2019 yilda 13,9 milliard AQSh dollarni hamda 2020 yilda 17,2 milliard AQSh dollarni tashkil qilgan. 2025 yilga borib bu ko‘rsatkich 28,8 milliard AQSh dollargacha global o‘sishi prognoz qilinmoqda”.[2]

Kraudfanding atamasi 2006 yilda kraudsorsing atamasi bilan bir vatqda paydo bo‘lgan deb qaraladi va uning muallifi Jeff Xoudir. Shundan so‘ng AQShda va Yevropada dastlabki platformalar tashkil etila boshlandi (1-jadval).[3]

1-jadval.

“Kraudfanding” terminaga berilgan tariflar. [3]

Mualliflar	Yondashuvlar
Ahlers, G.K.C. et al.	Ma’lum bir maqsadni qo‘llab-quvvatlash uchun odatda ixtiyoriy xayriya yo‘li bilan jismoniy shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan kichik miqdordagi mablag‘ yig‘ish shakli
Ordanini, A., Miceli, L., Pizzetti, M., Parasuraman, A	Bir guruh manfaatdorlar tomonidan kichik va o‘rta hajmdagi investitsiyalar orqali kimdir tomonidan taklif qilingan yangi loyiha uchun pul yig‘ish bo‘yicha shaxsiy tashabbus

Schwienbacher, A., Larralde, B.	Internet orqali ochiq so‘rov asosida qandaydir mukofot va/yoki ovoz berish huquqi evaziga tekin xayriya shaklida moliyaviy resurslarni taqdim etish
Rubinton, B.	Bir tomon loyihani moliyalashtirish uchun ko‘p sonli manfaatdor shaxslardan ma’lum bir qiymat shaklini taqdim etish evaziga kichik badallarni so‘rash va olish orqali mablag‘ to‘plash jarayoni.
Guseva D., Malixin N.	Boshqa odamlar va tashkilotlar tomonidan boshlangan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun o‘z resurslaridan foydalanadigan odamlarning umumiy hissasi. Zamonaviy dunyoda bu jarayon Internetdan foydalanish bilan sodir bo‘ladi
Tegin V., Usmanov B.	Boshqa odamlar (tashkilotlar) tashabbusi bilan boshlangan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun Internet orqali o‘z moliyaviy yoki boshqa resurslarini birlashtirganlarning ishonchiga asoslangan jamoaviy hamkorlik.

Tadqiqotlar natijasida intellektual mulk bozorida ilg‘or innovatsiyalar savdo oqimi yuqori bo‘lgan axborot texnologiyalar sohasidagi loyihalarni tijoratlashtirishda xorijiy investitsiyalar, xalqaro tashkilotlar va tadbirkorlarning mablag‘larini jalb etishning «aqilli odamlarning jamoaviy hissasi» orqali moliyalashtirish deb yondashishning maqsadga muvofiqligi asoslandi. Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi, intellektual mulk bozorini shakllanishini va startaplarning ekotizimi rivojlanishini ta’minlab sog‘lom raqobatni rivojlantirishga olib keladi va o‘z navbatida, Markaziy Osiyo startap xabi yaratilishiga imkon beradi.

Dunyo kraudfanding bozorida loyihalarni moliyalashtirishning ikkita modeli, pulsiz va pulli qo‘rinishda bo‘lib, xayriya, klassik, aksiyanerlik va kredit turlari bo‘yicha tavsiflanadi (2-jadval).[4]

2-javdal.

Kraudfanding turlarining xususiyatlari. [4]

Kraudfanding turi	Loyihalarga quyilmalar shakli	Qaytarilish shakli	Investorga motivatsiya	Xalqaro platformalar
1. Moliyalashtirishning pulsiz modeli				
Xayriya (fidoyi)	Ehson	Nomoddiy ne’mat	Shaxsiy va ijtimoiy motivatsiya	GoFundMe Pomogi.org Tugeza.ru Halfana.uz
Klassik (bonus)	Ehson	Materil va nomoddiy ne’mat	Shaxsiy yoki ijtimoiy motivatsiya kombinatsiyasi hamda har qanday mukofotga intilish	Kickstarter Indeigogo Rockethub Boomstarter Planeta.ru
2. Moliyalashtirishning pulli modeli				
Aksiyanerlik (kraudinvest)	Investitsiya	Kapital quyilmadan daromad	Shaxsiy, ijtimoiy yoki moliyaviy	Seedrs Crowdcube AngelList

			kombinatsiyalashgan motivatsiya	StartTrack Jumpstartupper
Kredit (uzoq muddatli, kraudlending, p2p-kreditlash)	Kredit (ssuda, qarz)	Qarzdan olingan daromad	Shaxsiy, ijtimoiy yoki moliyaviy kombinatsiyalashgan motivatsiya	Lending Club Prosper.com Webmoney Vdolg.ru

Kraudfanding sizga kerakli pulni yig‘ish imkonini beruvchi hamda loyihaga kirishni istagan investorlarni jalb qiluvchi mexanizm bo‘lib, g‘oya mualliflarini qo‘llab-quvvatlash uchun ixtiyoriy ravishda pul yoki boshqa resurslarni birlashtiradi. Jahon amaliyoti kraudfandingni rivojlantirish muhimligini ko‘rsatib, kichik va o‘rta biznesda innovatsion loyihalarga investitsiyalarni jalb qilishni ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini dolzarbligini ko‘rsatib turibdi. Kraudfandingning tobora ommalashib borishi oddiyligi bilan bog‘liq, agar davlat investitsiyalari va bank kreditlari bilan solishtirganda mablag‘ yig‘ish tezligidadir.

MDH mamlakatlaridan Rossiya, Belarusiya va Qozog‘istonda kraudfanding loyihalari nisbatan faol rivojlanmoqda. Rossiyada 2018 yilda umumiy bozor hajmi 218,5 million dollarni tashkil etdi (2015 yilga nisbatan u o‘n barobarga oshgan). Rossiya bozorida asosiy o‘yinchilar Boomstarter va Planeta kraudfanding platformalari bo‘lib, ular bozor aylanmasining 75-80 foizini tashkil etadi.

2021 yil 1 yanvardan boshlab Rossiya Federatsiyasida “Investitsiya platformalaridan foydalangan holda investitsiyalarni jalb qilish va Rossiya Federatsiyasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirdi. Ushbu qonun kraudfanding platformalari orqali investitsiyalarni jalb qilish qoidalarini belgilaydi. Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki bunday saytlar operatorlari reyestrini yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 martdagi “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2021 - 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini 2021 yilda amalga oshirish” Yo‘l xaritasining 31-bandida fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish jarayonida “kraudfanding instituta” imkoniyatidan foydalanish mexanizmini yaratish belgilangan. Mazkur band ijrosi yuzasidan Adliya vazirigi tomonidan Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish jarayonida “kraudfanding instituta” imkoniyatidan foydalanish mexanizmini yaratish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar tasdiqlandi. [5]

Hozirgi bosqichda internetda intellektal mulk xalqaro savdosining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillar quyidagilar: elektron tijoratning asosiy shakllarining izchil o‘sishi, hayotning barcha sohalariga telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarining kirib kelishi, internetga kirishni ta’minlash uchun kommunikatsiya tizimlari va xizmatlari narxining pasayishi, iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kompyuter savodxonligining o‘sishi, elektron biznesni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro va milliy dasturlarni amalga oshirish asosiy strategik yo‘nalishlar sifatida belgilanishi.

Kraudfanding atamasi ikkita inglizcha so‘zdan kelib chiqqan. Olomon va moliyalash. Konsepsiyasini moslashtirib biz jamoaviy moliyalashtirish, ya’ni g‘oya yoki loyihani amalga oshirish uchun katta miqdordagi mablag‘lar to‘plami ekanligini tushunamiz. Dunyo bo‘ylab 21 ta eng yaxshi kraudfanding platformalarini hamda O’zbekistonda yagona bo‘lib turgan “Halfana” kraudfanding platformasini maqsadlariga to‘xtalib o‘tsak (3-jadval).[6,7]

3-jadval

Kraudfanding platformasining maqsadi. [8]

t/r	Kraudfanding platformasi	Kraudfanding platformasining maqsadi
1.	Kickstarter (AQSh)	Ijodiy loyihalarni moliyalashtirish platformasi sifatida tanilib, fil’mlar, o‘yinlar, musiqa va san’at, dizayn va texnologiyalar bilan bog‘liq loyihalarni moliyalashtiradi
2.	CrowdCube (Angliya)	Investitsiyalarni demokratlashtirish va korxonalarning yangi avlodini faollashtirishdan iborat
3.	Eureeca (BAA)	Banklar va venchur kapitali firmalari kabi an’anaviy moliyalashtirish varianti bo‘lib, kichik va o‘rta korxonalarga sarmoyadorlar gurihi tomonidan kapital jalb qilishda yordam beradi
4.	Imvester (Shveysariya)	Ko‘chmas mulk kraudfanding veb-sayti bo‘lib, u investorlarga shaffof, xavfsiz va foydali daromadni taklif qiladi hamda tegishli miqdorga binoning bir qismiga egalik qilishingizni kafolatlaydi.
5.	Arikovani (Turkiya)	Tadbirkorlarning innovatsion loyihalarini amalga oshiradi, mahalliy texnologiya ishlab chiqarishni ko‘paytirishni qo‘llab-quvvatlaydi hamda jamoatchilik xabardorligini oshiradi.
6.	Tessin (Shvetsiya)	Ko‘chmas mulkka va kompaniyaning yangi loyihalariga sarmoya kiritmoqchi bo‘lgan investorlar platformasi
7.	Startupxplore (Ispaniya)	Yuqori darajada batafsil tanlash va filtrlash mezonlari orqali sifatli rivojlanayotgan kompaniyalarga yaxshi muvozanatlangan va deversifikatsiyalangan investitsiyalar portfelini taqdim etadi
8.	Uprise Africa (Janubiy Afrika)	Zamonaviy va ijodiy davrning kelishidan xabar berib, korxonalariga kapital jalb qilishning muqobil usulini taqdim etadilar
9.	OurCrowd (Izrail)	Startaplarga venchur moliyalashtiriishni ta’minlash uchun mo‘ljallangan
10.	Brickfynding (Portugaliya)	Ko‘chmas mulkni investitsiyalash (kapital, kreditlash va kriptovlyuta) bo‘yicha ixtisoslashgan
11.	Kisskissbank-Bank(Fransiya)	Ijodkorlik va innovatsiyalarni moliyalashtiradi
12.	Seedrs (Angliya)	U o‘z mijozlarini Yevropa startaplari va boshqa rivojlanayotgan kompaniyalarning aksiyalari evaziga sarmoya kiritishga tayyor bo‘lgan investorlar va venchur kapitalistlar bilan tanishtiradi
13.	Bidra AS (Norvegiya)	Texnologiya va tahririyatni qo‘llab-quvvatlaydi
14.	NaijaFund (Nigeriya)	U har kimga istalgan maqsad uchun mablag‘ to‘plash imkoniyatini beradi. O’zlarining ijtimoiy tarmoqlari bilan NaijaFund onlayn platformasi orqali muloqat qilishib, o‘zlari yoki yaqinlari uchun moliyaviy yordam so‘rashlari mumkin.
15.	MamaCrowd (Italiya)	Investorlarga eng yaxshi italiyan startaplari va kichik va o‘rta biznes korxonalariga katta soliq imtiyozlari bilan sarmoya kiritish imkonini beradi

16.	Companisto (Germaniya)	Investor sifatida siz har bir startap uchun batafsil investitsiya tahlilini olasiz, boshqa investorlar va farishtalar bilan muloqat qilasiz va hattoki har bir startap asoschilari bilan jonli vidiokonferensiyalarni o‘tkazishingiz mumkin.
17.	Symbid (Niderlandiya)	Tadbirkorni rivojlantirishda zarur mablag‘lardan foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi
18.	Indiegogo (Kanada)	Biznesning barcha turlari, shu jumladan tadbirkorlik, badiiy va jamoat uchun mablag‘ yig‘adi
19.	Gogetfunding (Albaniya)	Kichik va o‘rta biznes startaplariga yordam beruvchi kraudfanding platformasi
20.	MyBusiness (Avstraliya)	Tadbirkor odamlarga o‘z maqsadlari uchun mablag‘ to‘plashda yordam beruvchi mukammal va zamonaviy mablag‘ yig‘uvchi platforma
21.	Chuffed (Portugaliya)	Notijorat, xayriya, jamoat loyihalari yoki muhtoj odamlar uchun xayr-ehsonlarni qabul qiladigan kraudfanding platformasi
22.	Halfana (O’zbekiston)	Moddiy qiyinchiliklarga muhtoj odamlarga, yangi boshlangan startaplarga o‘z pullarini investitsiya qilishni yoki xayriya qilishni xohlaydigan odamlar bilan hamkorlikda ish yuritadi.

Manba: Dunyodagi 21 ta hamda O’zbekistondagi “Halfana” kraudfanding platformalarini Internet tarmog‘i manzillari asosida muallif tomonidan tuzildi. [8]

Butun dunyoda sanoat ishlab chiqarishda yangi tarmoq shakllanmoqda va rivojlanmoqda bu “Intellektual mahsulot axboroti” tarmog‘i deb yuritiladi. Intellektual mahsulot axboroti o‘z navbatida intellektual mulkni tijoratlashtirishda bozor sub’ektlarini innovatsion faoliyatdagi o‘zaro aloqadorligini asoslaydi

Milliy iqtisodiyotning o‘sishini va mamlakatning global dunyodagi ta’sirini belgilashda raqamli infratuzilmalarning o‘rni bugungi kunda dolzarb hamda samarali omil sanaladi. Jadal rivojlanayotgan va zamonaviy dunyoda Internet tarmog‘i orqali mablag‘ to‘plash loyihalarni moliyalashtirishning muqobil va istiqbolli sxemasiga aylanib bormoqda. [9] Xususan, intellektual mulk ob’ektlarini tijoratlashtirishda hamda moliyalashtirish mexanizmida. Ushbu sxema yosh tadbirkorlar va startaplarga investitsiyalarni jalb etish hamda moliyalashtirish manbalarini topish imkoniyatini yaratib, quyidagi samarali natijalarga erishish imkoni beradi.

Intellektual mulk bilan ta’minlangan kraudfanding instituti mustaqil loyihalar uchun mablag‘ jalb qilishning asosiy vositasi bo‘lishi mumkin.[10]

Zamonaviy dunyoda yangilik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Doimiy ravishda ular g‘oyalar paydo bo‘lishi va ularning qiymatini va ma’nosini tushunish uchun tegishli shartlar mavjud bo‘lganda yuzaga keladi.

Hozirgi vaqtda intellektual mulkni tijoratlashtirish bilan bog‘liq ko‘plab hal qilinmagan muammolar mavjud. Umumiy muammolarning xarakteriga ko‘ra, ularni besh guruhga birlashtirish mumkin: [11]

- huquqiy xususiyat: sanoat mulki ob’ektlaridan noqonuniy foydalanish; kontrafakt ma’sulotlarning mavjudligi;

- tashkilotning tabiati: xavfsizlik hujjatini ro‘yxatdan o‘tkazish va qo‘llab-quvvatlashning yuqori darajasi; arizani ko‘rib chiqishning uzoq muddatlari; tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilari bo‘yicha ma’lumotlar bazasining etishmasligi;
- inson tabiati: mutaxassislarning malakasi yetarli emasligi (patent ta’limi yo‘qligi), marketing sohasida mutaxassislar etishmasligi; oliy o‘quv yurtlarida majburiy o‘qitish dasturlari yo‘qligi; patentlar va innovatsiyalar bo‘yicha korxonalarda alohida xizmatlarning yo‘qligi;
- moliyaviy xarakterdagi: innovatsion ishlanmalarni davlat tomonidan moliyalashtirishning yetarli darajada emasligi: uskunalarga yuqori bojlar; daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar yo‘qligi; kichik innovatsion biznes uchun minimal talab;
- axborot xarakteri: innovatsion korxonalar bo‘yicha aniq ma’lumotlarning yetishmasligi; yangi ichki innovatsion ishlanmalar haqida ma’lumot yo‘qligi.

O’zbekistonda ilmiy-innovatsion siyosatning vazifasi - intellektual mahsulot ishlab chiqarish va uni moddiy ishlab chiqarishda qo‘llash hisoblangan ilmiy faoliyatni samaradorligini ta’minlaydigan barqaror o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmini yaratishdir. Intellektual mulk ustidan nazorat etish o‘tmishimiz bilan bog‘liq bo‘lib qadimgi qonunlarga ko‘ra, hamma narsa davlatga tegishli edi. Ilmiy-innovatsion tashkilotlar bu sohada daromad olish masalasini ko‘rmagan va tadqiqotning istiqbollari bilan har doim qiziqmas edi. Biroq, intellektual faoliyat natijalari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun yangi texnologik muhitni shakllantirdi va bozor mexanizmini sezilarli darajada modernizatsiya qilishga asos bo‘ldi. [12]

Intellektual mulkni boshqarish tizimini ishlab chiqish zarurati ilmiy-innovatsion tashkilotlarning tashqi muhitidagi o‘zgarish sur’atlarining natijasidir.[13] Zamonaviy sharoitda bu o‘sishning sababi ilmiy-texnika taraqqiyotidir, asosan tez rivojlanish va jamiyatda axborot texnologiyalarining tobora ortib borayotgan roliga asoslangan. Natijada kelajakda tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga yetarli darajada javob berishni ta’minlash uchun ilmiy-innovatsion muassasalarda intellektual mahsulotlarni boshqarish tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish zarurati ortadi.

Shunday qilib, vazifaning zaruriyati bir necha omillarga bog‘liq:

- birinchi navbatda, intellektual mulk iqtisodiyotida institutsional asoslarni tiklash va rivojlantirish uchun intellektual mulkning ahamiyatini belgilash orqali intellektual mulk bozoridagi inqirozni bartaraf etish;
- ikkinchidan, intellektual mulkni boshqarishdagi sezilarli o‘zgarishlarning zarurligi, sanoatdan keyingi rivojlanishning yangi tijorat turiga o‘tishining ahamiyati;
- uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga mos keladigan intellektual mulkni barqaror metodologik va tartibga soluvchi xususiyatini rivojlantirishning ahamiyati.

Milliy iqtisodiyotning o‘sishini va mamlakatning global dunyodagi ta’sirini belgilashda raqamli infratuzilmalarning o‘rni muhim sanaladi. Jadal rivojlanayotgan va zamonaviy dunyoda Internet tarmog‘i orqali mablag‘ to‘plash loyihalarni moliyalashtirishning muqobil va istiqbolli sxemasiga aylanib bormoqda. Xususan, axborot texnologiyalari sohasidagi loyihalarni kraudfanding platformasi orqali joylashtirish va moliyalashtirish mexanizmi. Ushbu sxema yosh tadbirkorlar va startaplarga investitsiyalarni jalb etish hamda moliyalashtirish manbalarini topish imkoniyatini yaratib, quyidagi samarali natijalarga erishish imkoni beradi:

Ilg‘or texnologiyalar bozori jumladan, sun’iy intellekt, blokcheyn, mobil aloqaning beshinchi avlodi (5G), robototexnika, dronlar, genitik muhandislik, nanotexnologiya va quyosh fotoelektrik tizimi iqtisodiyotni raqamlashtirish va o‘zaro hamkorlikda ishlashning yangi davrni boshlab bermoqda. Ushbu texnologiyalarni 90 foizi intellektual mulk ob’ektlari xisoblanadi. Intellektual mulk savdosi odatiy narsalardan chetga chiqib, onlayn maydonga faol ravishda o‘tmoqda. “Aqlli

mashina”, “Aqlli uy”, “Aqlli shahar” kabi atamalar qatorida “Aqlli odamlar” iborasi ham ilm-fan yutiqlarida tez-tez uchrab turibdi. Binobarin, aqlli odamlar va tashkilotlar tomonidan boshlangan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy-texnik ishlanmalar natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq qilishni tezlashtirish va innovatsion mahsulotlarni xalqaro bozorga chiqarish tizimining barqaror zanjirini yaratish va rivojlantirish imkonini beradi.

Hozirgi bosqichda internetda intellektal mulk xalqaro savdosining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillar quyidagilar: elektron tijoratning asosiy shakllarining izchil o‘sishi, hayotning barcha sohalariga telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarining kirib kelishi, internetga kirishni ta’minlash uchun kommunikatsiya tizimlari va xizmatlari narxining pasayishi, iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kompyuter savodxonligining o‘sishi, elektron biznesni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro va milliy dasturlarni amalga oshirish asosiy strategik yo‘nalishlar sifatida belgilanishi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Эффективное использование интеллектуальной собственности. Центр стратегические разработок. Москва-2017. 7-с.

2. Manba. QY Research - marketing tadqiqotlari, menejment bo‘yicha konsalting agentligi, 2007 yilda tashkil etilgan (AQSh).

3. Manba. Muallif tomonidan tuzildi.

4. Manba. Muallif tomonidan tuzildi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 martdagi “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-son Farmoni

6. Рич, Джейсон. Краудфандинг. Справочное руководство по привлечению денежных средств: СмартБук: И-трейд; Москва; 2015, С.174. ISBN 978-5-9791-0331-0

7. https://halfana.uz/

8. Manba. kickstarter.com, crowdcube.com, eureeca.com, imvesters.ch, arikovani.com, tessin.com, startupxplore.com, uprise.africa, ourcrowd.com, brickfunding.com, kisskissbankbank.com, seedrs.com, crowdcube.com, naijafund.com, mamacrowd.com, companisto.com, symbid.com, indiegogo.com, gogetfunding.com, mycause.com, chuffed.org, halfana.uz

9. Гусева Д., Малыхин Н. Краудфандинг: сущность, преимущества и риски. Современная наука: Актуальные проблемы теории и практики. Серия «Экономика и Право», 2014 — № 9-10 — 5 с.

10. Развитие альтернативных механизмов инвестирования: прямые инвестиции и краудфандинг. Материал подготовлен Департаментом стратегического развития финансового рынка. –М.: Центральный банк Российской Федерации, 2020.

11. Интеллектуальная собственность как объект оценки: таможенный аспект: монография / В. А. Останин, С. В. Кирбитова, Н. А. Кожина, П. В. Довженко; Российская таможенная академия, Владивостокский филиал. Владивосток: РИО Владивостокского филиала Российской таможенной академии, 2019. – 106 с.

12. Тегин В., Усманов Б., Краудсорсинг в генерации инновационных идей. core.ac.uk.pdf. 2016.

13. Новоселова Л.А. Интеллектуальная собственность в схемах финансирования. https://cyberleninka.ru/article/n/intellektualnaya-sobstvennost-v-shemah-finansirovaniya

TIJORAT BANKLARI XIZMAT SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBALARI

Navruzov Ikram Abdullayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Baholash ishi va investitsiyalar”
kafedarasi katta o‘qituvchis.
E-mail: navruzovikrom55@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189611

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarini raqamlashtirish tamoyillari va raqamli iqtisodiyotning axborot-komunikatsiya texnologiyalarini qo‘llanishi natijasida, ularning xizmat ko‘rsatish sifatiga ta’siri yoritilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida bank tizimini raqamlashtirishning xuquqiy asoslari keltirilgan. Maqolada xorij va mahalliy olimlarning fikr-mulohazalari qayd etilgan, shuningdek, tiorat banklari xizmat sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish yuzasidan xorij tajribalari o‘rganilgan. Shu bilan birga, tijorat banklarida masofaviy xizmat ko‘rsatish hamda raqamlashtirishni yanada yaxshilash borasidagi taklif va xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqobatbordoshlik, raqamli transformatsiya, innovatsiya, raqamli platforma, bank xizmatlari, masofaviy texnologiyalar, mobil ilova.

1. Kirish.

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, moliyaviy sektorlarda raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash, qolaversa tijorat banklarida masofaviy xizmatlardan keng ko‘lamda foydalanish mexanizmlarini yaxshilash muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biriga aylanib bormoqda. Shunday ekan, tijorat banklarini raqamlashtirish tamoyillari va ularning xizmat sifatiga ta’sirini oshirishga shuningdek, raqamlilashtirish jarayoni banklarning xizmatlarini yanada samarali va tezkor tarzda taqdim etishga imkon beradi, mijozlarga qulayliklar yaratadi va operatsion xarajatlarni kamaytiribgina qolmay, raqamli xizmatlar, masofaviy bank xizmatlari va mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilashga imkon yaratadi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida [1]”gi PF-5992-son Farmoni kuchga kirdi, unga ko‘ra yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog‘ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o‘zaro to‘ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish kabi bir qancha vazifalar belgilandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida [2]”gi PF-6079-son Farmoniga ko‘ra, 2022-yil 1-yanvarga qadar masofadan kredit mahsulotlarini realizatsiya

qilish, omonatlar va hisob raqamlarni ochishni o‘z ichiga olgan keng turdagi onlayn xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlash orqali tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi yakuniga yetkaziladi. Bu esa o‘z navbatida, Raqamlilashtirishning xizmat sifatiga ta'siri, shu jumladan mijozlarning qoniqishi, xizmat ko‘rsatish tezligi va shaffoflik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarining yangi tendensiyalari, xavf-xatarlar va ularni boshqarish strategiyalarini yaratadi. Umuman olganda, raqamlilashtirish tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Dunyoda axborot texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida, raqamli iqtisodiyot atamasi yuzaga keldi va ushbu atama birinchi marta “Elektron raqamli jamiyat: tarmoq asrining afzalliklari va kamchiliklari” kitobida 1995 yilda ishlatilgan. Don Tapskot [3] fikricha, bozor subyektlari faoliyatini raqamli transformatsiyalashning asosiy omili raqamli madaniyatni rivojlantirish hisoblanashi ta’kidlangan.

Amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte [4] tomonidan “raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritildi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo‘llamoqda. Butun jahon banki 2016-yilda dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk ma’ruzasini e’lon qilindi.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyat-ning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels [5] tomonidan kiritilgan. Bu borada u o‘zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” nomli uch jildli monografiyasi chop etilgan. Uning fikricha raqamli iqtisodiyot atamasi ikki xil turdagi tushunchalarni ifodalanadi:

birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne’matlarining ustuvor o‘rni bilan tavsiflanadi.

ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu o‘ziga hos nazariya bo‘lib, uning o‘rganish obyekti, axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot nazariyasi o‘z rivojlanishining boshlang‘ich davridadir, chunki sivilizatsiyaning raqamli axborot bosqichiga o‘tishi bir necha o‘n yil avvallari boshlangan. Ushbu tushunchalarni bog‘lab turadigan omil – bu iqtisodiy jarayonlarning globallashuvida axborot texnologiyalarining birlamchi o‘rinni egallashi bo‘lib hisoblanadi. Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot, bu – alohida faoliyat turi emas. Bu, aslida, ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi mazkur sohalarning barchasi axborot texnologiyalaridan faol foyda-lanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma’lumotlar bo‘ladi. Ularning tahlilidan so‘ng to‘g‘ri boshqarish bo‘yicha yechim ishlab chiqiladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada, tadqiqot metodologiyasi sifatida grafika usulda guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil hamda sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish turli bank operatsiyalarni masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefondan foydalanish kifoya. Shuningdek, masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash

jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi hamda masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko‘ra ikki turga bo‘lish mumkin:

- informatsion;
- tranzaksion.



1-rasm. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlarining turlari [6]

Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o‘rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta’minlanadi.

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo‘lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o‘rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma’lumotlarni saqlaydi (asosan to‘lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko‘chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o‘rtasida modem orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog‘langan holda real vaqt davomida to‘lovlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o‘z ma’lumotlari (to‘lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko‘chirmalar)ni ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lib, internet-banking xizmati orqali mijoz o‘z ish joyida yoki boshqa o‘ziga qulay sharoitda:

- ✓ to‘lovlarni o‘tkazish;
- ✓ to‘lov o‘tishi bosqichlarini kuzatish;
- ✓ barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Internet-banking orqali mijoz o‘z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib, o‘z hisobraqamiga tushayotgan pullarni ko‘rishi va pul o‘tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi mumkin bo‘ladi.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko‘rinishdagi ma’lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag‘idan ma’lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so‘rovni yuborish kerak.



2-rasm. SMS-banking xizmatidagi bajariladigan qulayliklar [6]

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o‘tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so‘ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag‘idan to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.

O‘z navbatida, korxona va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larni tasarruf etish va to‘lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag‘lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko‘rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlar yaratildi.

1-jadval

Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra [6]

№	Tijorat banklari	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar	Jami
1	Milliy bank	112 829	2 174 427	2 287 256
2	O‘zbekiston sanoat-qurilish banki	74 408	6 222 223	6 296 631
3	Agrobank	215 293	5 687 702	5 902 995
4	Ipoteka-bank	175 306	3 418 825	3 594 131
5	Mikrokreditbank	74 120	1 106 450	1 180 570
6	Xalq banki	126 763	5 958 148	6 084 911
7	Garant bank	7 007	80 154	87 161
8	Biznesni rivojlantirish banki	32 630	296 208	328 838
9	Turonbank	48 619	477 399	526 018
10	Hamkorbank	131 432	1 865 369	1 996 801
11	Asaka bank	36 929	818 661	855 590
12	Ipak Yo‘li banki	71 381	2 973 600	3 044 981
13	Ziraat bank Uzbekistan	5 389	72 697	78 086

14	Trastbank	49 997	276 546	326 543
15	Aloqabank	65 485	1 662 482	1 727 967
16	KDB Bank O‘zbekiston	1 468	53 698	55 166
17	Soderot bank Toshkent	457	2 844	3 301
18	Universal bank	14 224	177 781	192 005
19	Kapitalbank	57 728	1 536 755	1 594 483
20	Octobank	2 739	82 055	84 794
21	Davr-bank	26 190	265 866	292 056
22	Invest Finance bank	17 902	358 124	376 026
23	Asia Alliance bank	26 906	603 663	630 569
24	Orient Finans bank	30 764	629 882	660 646
25	Madad Invest bank	1 161	2 186	3 347
26	AVO bank	125	103 590	103 715
27	Poytaxt bank	1 168	11 954	13 122
28	Tenge bank	3 423	335 817	339 240
29	TBC bank	-	4 140 225	4 140 225
30	ANOR bank	29 897	4 221 254	4 251 151
31	UZUM bank	-	1 331 627	1 331 627
32	Apex bank	-	1 989	1 989
33	Smart bank	-	10	10
34	Hayot bank	-	18 925	18 925
Jami		**1 441 740**	**46 969 136**	**48 410 876**

Umuman olganda, bank biznesi faoliyatini raqamlashtirish asosida rivojlantirish, moliyaviy sohada innovatsion yondashmalarni qo'llash va mijozlarga ko'proq xizmat ko'rsatishga bo'lgan tajribani oshirishni talab qiladi. Bu yo'llar orqali, tijorat banklari mehnat unumdorligini oshirishi, bank xizmatlari bozorida raqobat ustunligini, bu esa o‘z o‘rnida soha bo'yicha rivojlanishni va daromadni oshishini, ta’minlaydi. Raqamli texnologiyalar tijorat banklari faoliyatida samaradorlik va xavfsizlikni oshirish bilan bir qatorda mijozlar bilan ishlash jarayonida yuqori xizmatlarni taqdim etish va tez o'zgaruvchan muhitda raqobatbardosh bo'lib qolish imkonini beradi. Tijorat banklarida raqamli transformatsiya muvaffaqiyatining markazida mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv hisoblanadi. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, banklar mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishi va oldindan bilishi va uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirishi mumkin. Raqamli transformatsiya tijorat banklariga innovatsiyalar kiritish va o‘zgaruvchan bozor dinamikasiga tezda moslashish imkonini beradi.



3-rasm. AQSh hududida to‘lov shakllari bo‘yicha iste’mol to‘lovlarining o‘rtacha oylik hajmi [7] (mlrd. AQSh dollarida)

Bugungi kunda dunyoning yetakchi banklari tomonidan faol o‘rganilayotgan masalalardan biri Super-app shakllantirish (mijoz uchun zarur bo‘lgan funksiyalarni yagona interfeysda yig‘ish) hisoblanadi. Mazkur masalaning yillik hisobot va biznes rejalarda qayd etish holatlari 2019-2021 yillar davomida 640 foizga ko‘paygan. Mazkur yo‘nalishdagi asosiy muammo mijozlarning talabi bilan bog‘liq. Bank ilovalari murakkab tarkibiy tuzilmaga ega, ammo mijozlar aksariyat holatlarda balansni tekshirish, to‘lovlarni amalga oshirish va to‘lovlar tarixi kabi funksiyalardan foydalanishadi xolos. Shuning uchun mobil ilovalarni boshqa platformalarga integratsiyalashda 4-5 API qo‘llaniladi.

Yangi texnologiyalarni qabul qilish va innovatsiya madaniyatini rivojlantirish orqali banklar raqobatchilardan ajralib turishi, o'sishni rag'batlantirishi va raqamli ekotizimdagi yangi imkoniyatlardan foydalanishi mumkin. Fintech startaplari bilan hamkorlik va strategik hamkorlik innovatsiyalarni yanada tezlashtiradi va mijozlarga taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlar turlarini kengaytiradi. Raqamli transformatsiyaning afzalliklariga qaramay, banklar xavfni kamaytirish va

mijozlar ishonchini mustahkamlash uchun xavfsizlik va muvofiqlikni birinchi o‘ringa qo‘yishlari kerak.

5. Xulosa va takliflar.

Demak, moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bank mijozlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, moliyaviy faollikni oshirish uchun muhim bosqich sanalish bilan birga, mijozlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Ya’ni, raqamli banklarning istiqbollaridan biri, bu moliyaviy tarmoqlarni raqamlashtirish evaziga xizmatlar tannarxi 40-60 foizgacha pasaytirilishiga erishiladi. Mijozlar bankka tashrifi, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt hamda mablag‘larini tejashiga imkon yaratadi.

Bir so‘z bilan aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o‘zgarishi bu - yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi va butun dunyo bo‘ylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi raqamlar shundan darak beradiki, bank jadal rivojlanish va mijozga yo‘naltirilganlik tamoyili asosida taklif etayotgan sifatli xizmatlari mijozlar tomonidan keng qabul qilinmoqda va bank mijozlari soni kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa mamlakatimiz bank-moliya tizimida yangi raqamli bank tendensiyasi boshlanganligidan darak beradi. Shu sababli hozirda an'anaviy faoliyat yuritayotgan banklar ham raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishlari zamon talabiga aylanib bormoqda.

6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.

3. Alex Tapscott, Don Tapscott. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Busi-ness, and the World, 2016, 324 pages.

4. Negroponte, Nicholas. 1995. Being Digital. New York: Alfred A. Knopf. https://web.stanford.edu/class/sts175/NewFiles/Negroponte.%20Being%20Digital.pdf

5. Scott Don. “Electronic-digital society: Pros and cons of the age of intelligence. - Kiev: ITN Press, 1999.

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb sayti ma’lumotlari – www.cbu.uz

7. https://www.pymnts.com/topic/retail/ - ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI: ISH O‘RINLARINI AVTOMATLASHTIRISH VA YANGI ISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Saipova Dilnoza Shuxratovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189762

Annotatsiya: *Ushbu maqola sun’iy intellektning mehnat bozoriga ko'rsatgan ta’sirini o'rganishga bag'ishlanadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari avtomatlashtirish jarayonini tezlashtirib, mavjud ish o‘rinlariga yangi ko‘nikmalarni qo‘shish va ba’zi sohalarda ishchilar talabini kamaytirishga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar orqali yangi kasblar va ko‘nikmalar talab etiladigan sohalar paydo bo‘lmoqda. Maqola sun’iy intellektning ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirini ko'rib chiqadi, yangi ish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qiladi.*

Kalit so‘zlar*: sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, mehnat bozori, yangi ko'nikmalar, texnologik rivojlanish, iqtisodiy o'sish, raqamli iqtisodiyot, kasbiy ta’lim, qayta tayyorlash dasturlari, moslashuvchanlik, texnik bilimlar, ijtimoiy himoya, yuqori malaka, raqamli ko'nikmalar, innovatsiyalar, texnologik taraqqiyot, yangi kasblar, ijtimoiy ta’sir, davlat siyosati, ish o'rinlari qisqarishi, samaradorlik, ishlab chiqarish avtomatlashtirilishi, tahlil va prognoz, raqamli transformatsiya.*

Kirish

Bugungi kunda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar dunyo iqtisodiyotida inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Texnologiyaning jadal sur’atlarda rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishga olib kelib, turli sohalarda an’anaviy ish o'rinlari o'rniga yangi, texnologik ko'nikmalar talab qiluvchi ish o'rinlari paydo bo'lmoqda. Bu jarayon global mehnat bozori va iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko'rsatib, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish zaruriyatini tug'dirmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari nafaqat vazifalarni avtomatlashtirishni tezlashtirayotganligi, balki yangi biznes imkoniyatlarini ochib berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari tufayli ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida samaradorlik oshib, xarajatlar kamaymoqda. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar orqali an’anaviy va takroriy ishlar avtomatlashib, ba'zi kasblar xavf ostida qolayotgan bo’lsada, yangi sohalar va faoliyat yo'nalishlari paydo bo'lishi bilan bir qatorda yangi texnologik bilim va texnik ko'nikmalar talab qiluvchi sohalarda ishchilar uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda.

Bu o‘zgarishlar natijasida jamiyatda raqamli va texnologik bilimlar darajasini oshirish zaruriyati ortib bormoqda. Mavjud kasblar yangi vazifalar bilan boyitilib, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish orqali ishchilar o'zlarini rivojlantirishga intilishlari kerak. Shuningdek, ta’lim muassasalari va professional o'quv dasturlari sun’iy intellekt va avtomatlashtirishga mos keluvchi o'quv rejalari va dasturlarni ishlab chiqish orqali kelajakdagi mehnat bozoriga kerakli mutaxassislar tayyorlashlari zarur.

Ushbu maqola sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining mehnat bozoriga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish, ish o'rinlari avtomatlashtirilayotgan sharoitda yangi ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Maqola sun’iy intellektning ijtimoiy va

iqtisodiy ta’sirlarini ko'rib chiqib, yangi texnologiyalar yordamida shakllangan mehnat bozoridagi o'zgarishlar va kelajakdagi imkoniyatlarni tahlil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri mavzusida so'nggi yillarda ko'plab ilmiy tadqiqotlar va maqolalar chop etilgan bo'lib, ular texnologik rivojlanish va avtomatlashtirishning iqtisodiy, ijtimoiy jihatlariga chuqur yondashadi. Asosan, tadqiqotlar sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning ijobiy va salbiy ta'sirlarini o'rganib, ushbu texnologiyalarning jamiyatdagi o‘rni va mehnat bozoriga ko‘rsatadigan ta’sirini ko‘rsatib beradi. Mazkur bo‘limda soha yetakchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar hamda mavzuga oid asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Brinjolfsson va MkAfee (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar texnologiya va sun’iy intellektning iqtisodiyot va mehnat bozoriga ko'rsatadigan ta'sirini chuqur tahlil qiladi. Ushbu olimlar texnologik rivojlanish, xususan, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning ish o‘rinlariga qanday ta’sir qilishini o‘rgangan holda, avtomatlashtirish tufayli turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislarga talab oshib borayotganligini ta’kidlashadi. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi iqtisodiyotdagi ko‘plab vazifalarni avtomatlashtirishga olib kelgan bo‘lsa-da, ayni vaqtda yangi kasblar va yangi ko‘nikmalar talab qilinadigan sohalar shakllanmoqda [1].

Asemoglu va Restrepo (2018) kabi iqtisodchilar esa texnologik rivojlanishning ish o'rinlari bilan bog'liq xatar va imkoniyatlariga e’tibor qaratgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, avtomatlashtirish ba’zi oddiy va takroriy vazifalarni osonlashtirsa-da, yuqori malakali xodimlar talab etiladigan sohalarda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ular ham sun’iy intellekt tufayli ba’zi an’anaviy kasblar qisqarayotgan bo'lsa-da, yangi texnologiyalar va sun’iy intellekt yordamida yangi sohalar shakllanayotganligini ta'kidlashadi [2].

Autor (2015) o‘z tadqiqotlarida sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ta’sirini o‘rganib, texnologiya tufayli yuqori malakali va texnik bilimlarga ega mutaxassislarga ehtiyoj ortayotganini qayd etadi. U texnologik o'zgarishlar bilan an'anaviy vazifalarning avtomatlashtirilishi tufayli ishlovchi sinfda muayyan kasblarga talab kamayishi mumkinligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, avtomatlashtirish jarayonida sodda vazifalar qisqarayotgan bir vaqtda, murakkab ko‘nikmalar talab etiladigan ishlar soni oshib borayotganini ko'rsatadi [3].

Bundan tashqari, Frey va Osborne (2017) texnologiyaning rivojlanishi natijasida turli kasblarning avtomatlashtirishga qanchalik moyilligini o'rganish orqali texnologiya tufayli yo'qolishi mumkin bo'lgan kasblarni tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlari ba’zi kasblarning avtomatlashtirish jarayonida yo'qolib ketishi xavfi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yuqori texnik bilim va analitik ko'nikmalar talab qiladigan ish o'rinlari esa kamroq xavf ostida bo‘lib, texnologik o'zgarishlar tufayli yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati mavjudligini ta’kidlaydi [4].

OECD (2019) tomonidan chop etilgan "Kelajakda ishlash: Mehnat bozori prognozi" (Employment outlook) hisobotida esa texnologik rivojlanish va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida yangi ish o'rinlari va mehnat ko'nikmalari yaratilayotganligi ko'rsatilgan. Hisobotda raqamli va texnik ko'nikmalarga talab oshayotgani hamda mehnat bozori kelajakda raqamli bilim va ko'nikmalarga asoslangan bo'lishi kutilayotganligi ta’kidlanadi. OECD tadqiqotlari ham texnologik o‘zgarishlarning ijtimoiy ta’sirini o‘rganib, davlat siyosati darajasida yangi ko'nikmalarni rivojlantirish va texnologiyaga asoslangan ish o'rinlarini qo'llab-quvvatlash muhimligini ta’kidlaydi [5].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ijobiy va salbiy ta’sirini ko'rsatib, yangi texnologiyalarga moslashish uchun yangi

ko'nikmalarni rivojlantirish zaruriyatini ochib beradi. Ushbu tadqiqotlar texnologik o'zgarishlar tufayli mehnat bozorida yuzaga keladigan imkoniyat va xatarlarni tahlil qilishda muhim manba bo'lib, kelajakda yangi ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur yo'nalishlarni belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tayyorlashda nazariy va amaliy o‘rganish, tizimli tahlil va yondashuv, statistik kuzatish, taqqoslash, statistik guruhlash, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish yondoshuvlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ta'sirini o‘rganish jarayonida aniqlandi-ki, texnologik rivojlanish tufayli ish o‘rinlarida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bir tomondan, avtomatlashtirish natijasida ko‘plab an’anaviy va takroriy vazifalar yo‘qolmoqda yoki qisqarmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ma'muriy vazifalar kabi sohalarda sun’iy intellekt yordamida turli jarayonlar avtomatlashtirilib, samaradorlik oshirilmoqda va shu bilan birga, oddiy va sodda vazifalar ishchilar ishtirokisiz bajariladigan bo‘lib bormoqda. Biroq bu jarayon faqatgina ish o‘rinlarining qisqarishiga olib kelmay, balki yangi ish o‘rinlari va faoliyat yo‘nalishlarining yaratilishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun’iy intellektning rivojlanishi natijasida yuqori malaka va maxsus texnik bilim talab qiladigan yangi kasblar shakllanmoqda. Masalan, dasturchilar, raqamli ma'lumotlarni tahlil qiluvchilar, algoritmlar bilan ishlovchi mutaxassislar, IT xavfsizligi bo'yicha ekspertlar kabi sohalarga talab tobora ortib bormoqda. Bu sohalar yuqori texnik bilim va analitik ko'nikmalar talab etadi, shuning uchun mehnat bozori yangi texnologiyalarga moslashish uchun doimiy ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni o'zlashtirish zaruriyatini yaratmoqda. Shunday qilib, sun'iy intellektga asoslangan yangi kasblar va faoliyatlar ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi va iqtisodiy rivojlanishga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin.

Tahlil davomida ko‘plab tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, sun’iy intellektning joriy qilinishi natijasida o‘zgarishlar mehnat bozorining barcha darajalariga ta'sir qilmoqda. Xususan, texnologik o‘zgarishlar natijasida ishchilardan talab etiladigan asosiy ko‘nikmalar o‘zgarmoqda va bu ko‘nikmalar yuqori texnologiyali, analitik va ijodiy vazifalarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Ba’zi sohalarda esa ishchilar uchun moslashuvchanlik, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va texnik bilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikmalarining rivojlanishi talab qilinmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarga moslashmagan kasblar mehnat bozorida ortda qolishi mumkin.

O’rganilgan tadqiqot natijalari sun’iy intellekt va avtomatlashtirish jarayonining mehnat bozoriga ta'sirini ijobiy va salbiy jihatlar bilan aks ettiradi. Ijobiy tomondan, texnologik yangiliklar bilan yuqori darajadagi ko‘nikmalar talab qilinadigan yangi ish o‘rinlari ochilmoqda, va bu jarayon jamiyatda innovatsiyalar va texnik bilimlarni rivojlantirishga katta turtki bermoqda. Masalan, tibbiyot, ta'lim, axborot texnologiyalari, moliya va boshqa sohalarda sun'iy intellekt yordamida samaradorlik va sifat oshib, yangi xizmatlar va mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Salbiy tomondan esa, avtomatlashtirish tufayli oddiy va takroriy vazifalar kamaymoqda, bu esa ayrim ish o‘rinlarining yo‘qolishiga olib kelmoqda. Bu holatda, texnologiyaga moslasha olmagan ishchilar uchun mehnat bozori raqobatbardoshlikni ta’minlashda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Ayniqsa, past malakali ishchilar uchun ish topish imkoniyatlari qisqarishi va ularning ijtimoiy himoyasiga ehtiyoj oshishi mumkin.

Bu borada statistik ko’rsatkichlarga murojaat qiladigan bo’lsak, sun’iy intellekt (SI) va avtomatlashtirish texnologiyalari mehnat bozoriga sezilarli ta’sir ko'rsatib, Jahon Iqtisodiy Forumi prognozlariga ko'ra, 2027-yilga kelib Yevropada 83 million ish o'rni avtomatlashtirish natijasida yo'qolishi mumkin. Biroq, shu bilan bir davrda 69 million yangi ish o'rni yaratilishi kutilmoqda, bu esa mehnat bozorida muhim o'zgarishlarni anglatadi.

Shuningdek, sun’iy intellektning iqtisodiy o'sishga ta’siri ijobiy baholanib, Xalqaro moliya tashkilotlarining hisob-kitoblariga ko'ra, SI mehnat unumdorligini yiliga 1,5 % tezlashtirishi va oxirgi o'n yillikda global yalpi ichki mahsulotni (YAIM) 7 % oshirishi mumkin [6].

Umuman olganda, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish mehnat bozorini qayta shakllantirish jarayonida kuchli ta'sirga ega. Endilikda, mehnat bozorida mavjud o‘rinlar va vazifalar o‘zgarib, yangi ko‘nikmalar talab qilinadigan sohalar ortib borishi davomiy jarayonga aylanadi. Shu boisdan, yangi texnologiyalarga moslashish jarayonida davlat, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar birgalikda zamonaviy talablarga moslashuvchan ishchi kuchini tayyorlash va ularning bilim darajasini oshirish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Bu esa iqtisodiy o‘sish va texnologiyaga asoslangan ish o‘rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillar sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining mehnat bozoriga kuchli ta’sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Texnologik taraqqiyot tufayli an'anaviy va oddiy vazifalarni avtomatlashtirish osonlashib, ba’zi ish o'rinlari qisqarayotgan bo‘lsa-da, yuqori malaka va texnik ko‘nikmalar talab qiluvchi yangi ish o'rinlari yaratilib, yangi imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish nafaqat iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish, balki jamiyat uchun yangi imkoniyatlar yaratish salohiyatiga ega.

Mavjud sharoitda ishchi kuchining yangi texnologiyalar talablariga moslashishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ishchilar o‘z malakalarini doimiy ravishda oshirib borishi va yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishi zarur. Bunga javoban ta'lim muassasalari va davlat organlari zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda yangi kasb va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlarni joriy qilishlari kerak. Kelsusida bu borada muvaffaqqiyatga erishish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– An’anaviy ta’lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish va ularni texnologik taraqqiyot bilan moslashtirish muhimdir. Ta’lim muassasalari sun’iy intellekt, raqamli ko'nikmalar va texnik bilimlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Buning uchun texnik va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus kurslar va malaka oshirish dasturlari tashkil qilinishi kerak.

– Ishchilar doimiy o'rganish va yangi ko'nikmalarni tez o'zlashtirishga tayyor bo'lishlari zarur. Davlat va ish beruvchilar o'z ishchilariga yangi ko'nikmalarni o'rgatish va qayta tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirishi, bu jarayonlarni qo'llab-quvvatlashi kerak. Xodimlarning moslashuvchanligi ish beruvchilarga ham katta foyda keltiradi, chunki ular yangi texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

– Davlat sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha siyosatlarni amalga oshirishi va ularni qo'llab-quvvatlashi lozim. Bu nafaqat iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam beradi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsion loyihalarni rag'batlantirish imkonini ham beradi. Davlat tomonidan maxsus grantlar, subvensiyalar va boshqa rag'batlantirish choralari bilan texnologik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

– O‘zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda texnik va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda. Yoshlarni texnologiya, dasturlash, sun’iy intellekt va

raqamli tahlil sohalarida ta’lim olishga rag'batlantirish, kelajakdagi mehnat bozori uchun muhim kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.

– Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish tufayli an’anaviy ish o‘rinlari qisqarayotgan bir vaqtda, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish lozim. Ish o'rinlarini yo'qotayotgan xodimlar uchun qayta tayyorlash dasturlari, yangi kasblarni o'rganish imkoniyatlari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari joriy qilinishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning ta’siri global va milliy iqtisodiyotda sezilarli o‘zgarishlarni olib kelmoqda. Texnologik taraqqiyot ijobiy natijalar keltirishi uchun davlat, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar birgalikda yangi ko'nikmalarni rivojlantirish va o‘zgaruvchan mehnat bozoriga moslashish uchun zaruriy choralarni amalga oshirishlari kerak. Bu nafaqat iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi, balki ishchi kuchining raqobatbardoshligini oshirish orqali mamlakat taraqqiyotini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second machine age: Work, progress, and prosperity in a time of brilliant technologies. W. W. Norton & Company.
2. Autor, D. H. (2015). Why are there still so many jobs? The history and future of workplace automation. Journal of economic perspectives, 29(3), 3-30.
3. Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2018). Artificial intelligence, automation, and work. National bureau of economic research.
4. OECD. (2019). The future of work: Employment outlook 2019. Paris: OECD Publishing.
5. Frey, C. B., & Osborne, M. A. (2017). The future of employment: How susceptible are jobs to computerization? Technological forecasting and social change, 114, 254-280.
6. Sun’iy intellekt Yevroittifoqdagi 80 milliondan ortiq ish o‘rnini «zabt etadi» - Zamin.uz

KASABA UYUSHMALARINING MEHNAT BOZORIDAGI TEXNOLOGIK O‘ZGARISHLARGA MOSLASHISHI VA ISHCHILARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHI

Raxmonov Abduxalil Rasulovich
O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi
Toshkent shahar bo‘linmasi Kengashi raisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189794

Annotatsiya

Ushbu maqola mehnat bozorida texnologik o‘zgarishlarning kuchayishi natijasida kasaba uyushmalarining ishchilar huquqlarini himoya qilishdagi o‘rni va vazifalarini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari ish o‘rinlarini qayta shakllantirayotgan, yangi ko‘nikmalar talab qilinayotgan bir davrda kasaba uyushmalari ishchilarni qo‘llab-quvvatlashda qanday strategiyalar qo‘llayotgani tahlil qilinadi. Kasaba uyushmalarining yangi texnologiyalarga moslashishi va ishchilarni qayta tayyorlash jarayonlariga yordam berishi ularning dolzarbligini oshiradi.

Три основные функции центров обработки данных (хранение, распределение и обработка) потребляют электроэнергию. Каждая из этих функций потребляют электроэнергию не в равной степени: функция хранения является самой не энергоемкой, а функции обработки и вычисления потребляют больше всего энергии. По данным международного энергетического агентства доля энергопотребления серверов в общем потреблении энергопотребления центров обработки данных выросла с 46 % в 2015 году до 57 % в 2021 году [6].



Рисунок 1 – Доли энергопотребления в центрах обработки данных (составлено автором на основании данных [6])

Показателем для оценки повышения энергоэффективности ЦОД является эффективность использования энергии Power Usage Effectiveness (PUE). В результате технологического процесса PUE в мировом масштабе снизился со значения 2,5 в 2007 году до значения 1,55 в 2022 году. Идеальное значение коэффициента PUE равно единице, этот стандарт разработан американской ассоциацией предприятий по данным The Green Grid и используется при оценке экологического влияния ЦОД. Значение 1 означает, что каждая единица потребляемой мощности используется исключительно IT-оборудованием, однако, показатель в самых экологически стабильных ЦОД колеблется от 1,2-1,4 и связано это с такими факторами как неоптимальная эффективность оборудования, неэффективные системы охлаждения и потери мощности не в секторе ИТ-оборудования.

По данным международного сертифицированного института, разработавшего стандарт надежности центров обработки данных, показатель средней годовой эффективности использования электроэнергии в крупнейших центрах обработки данных динамично идет на снижение [7].



Рисунок 2 – Показатель PUE в динамике за 15 лет

Компания	География размещения ЦОД с самым низким показателем PUE	Показатель PUE	Применение метода для снижения показателя PUE
Amazon	Эшберне, штат Вирджиния	1,1	AWS использует наружный воздух для охлаждения центров обработки данных, когда позволяют погодные условия. Это снижает потребность в механическом охлаждении, особенно в более прохладном климате.
Apple	Норвегия	1,1	Снижение показателя PUE за счет установки и использования «солнечных ферм».
Facebook	Prineville в штате Орегон и Forest City в штате Северная Каролина	1,06 и 1,10 соответственно	Использование большого количества воды.
Equinix AM3	Амстердам	1,19	При строительстве ЦОД, компания использовала гибридные охладительные башни и покрытие крыш растительностью.
Verne Global	Verne Global (Исландия)	1,06	Компания при строительстве ЦОД выбрала холодный климат. В качестве технологий технологий используются свободное воздушное охлаждение, геотермальный пар и гидроэлектроэнергия из ледниковых вод.
Google	США, Европа, Азия, Латинская Америка	Средний показатель для всех ЦОД компании ~1,10	Помимо использовании эффективного оборудования для охлаждения, «зеленых» источников энергии, компанией активно разрабатываются методы машинного обучения, которые позволяют оптимизировать энергоэффективность.
Microsoft	Project Natick (под водой)	1,07	Морская вода эффективно охлаждает оборудование.

Источник: составлено автором на основании источников [8-14]

Снижение этого показателя связано с внедрением новых технологий, которые влияют на снижение эксплуатационных технологий и на сокращение углеродного следа. На

основании открытых данных автором составлена таблица 1 с обзором методов по снижению показателя PUE центров обработки данных одних из крупных игроков электронного рынка [2].

Таблица 1 – Методы крупных игроков на рынке центров обработки данных по снижению показателя PUE

Анализ представленных данных о показателе PUE различных компаний свидетельствует о значительных достижениях в области энергоэффективности центров обработки данных. Наименьшие значения PUE, равные 1,06 и 1,07, стремятся к идеальному значению коэффициента, что подтверждает эффективность их подходов к оптимизации потребления энергии. Эти компании применяют передовые решения для охлаждения, включая использование холодного климата, большого объема воды, свободного воздушного охлаждения и геотермальной энергии. Данные, представленные в таблице, указывают на активную реализацию разнообразных методов и технологий снижения PUE в исследуемых компаниях, что подчеркивает растущую ответственность отрасли по отношению к энергетической эффективности и устойчивости экосистемы центров обработки данных.

Таким образом, эффективность использования энергии закладывает прочную основу для повышения устойчивости центров обработки данных:

1 Экономия затрат: Внедряя энергоэффективные методы, компании могут эффективно сократить потребление энергии. Это не только снижает их эксплуатационные расходы, но и приводит к существенной экономии затрат в долгосрочной перспективе. Эти сбережения могут быть направлены на другие критически важные области бизнеса, способствуя росту и инновациям.

2 Экологическая устойчивость: Внедрение мер по повышению эффективности в центрах обработки данных идет рука об руку с минимизацией углеродного следа. Снижение PUE напрямую способствует более устойчивой окружающей среде за счет сокращения потерь энергии. Это соответствует корпоративным инициативам по устойчивому развитию и демонстрирует приверженность ответственным деловым практикам.

3 Повышенная надежность: эффективные центры обработки данных отдают приоритет оптимизации систем охлаждения и распределения питания. Этот подход гарантирует, что критическая инфраструктура останется стабильной и функциональной, минимизируя риск простоя. Поддерживая высокую надежность, организации могут избежать сбоев и связанных с ними потерь, защищая свою деятельность и репутацию.

5 Оптимизация мощности: улучшенный PUE не только сокращает потери энергии, но и позволяет организациям максимально использовать существующую инфраструктуру. Максимизируя использование ресурсов, компании могут отсрочить необходимость дорогостоящих расширений или модернизаций инфраструктуры. Такая гибкость в управлении мощностью приводит к значительной эффективности затрат и лучшему распределению ресурсов.

Литература

1. Беляцкая, Т. Н. Экономическое содержание и инновационный фактор развития электронных рынков / Беляцкая Т. Н. // Наука и инновации. – 2021. – No 12(226). – С. 56–62. – DOI: https://doi.org/10.29235/1818-9857-2021-12-56-62.

2. Беляцкая, Т. Н. Тенденции мирового рынка электронной коммерции / Беляцкая Т. Н. // Потребительская кооперация. – 2021. – No 3. – С. 44–49.

3. Отчет об анализе размера, доли, конкурентной среды и тенденций рынка центров обработки данных по компонентам, типам, размерам предприятий и конечным пользователям: глобальный анализ возможностей и прогноз отрасли на 2021–2030 гг. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://www.alliedmarketresearch.com/data-center-market-A13117

4. Data Centres Metered Electricity Consumption 2023 [Electronic resource]. - Mode of access: https://www.cso.ie/en/releasesandpublications/ep/p-dcmec/datacentresmeteredelectricityconsumption2023/keyfindings/

5. Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов: теория и практика: учеб. пособие. 3-е изд., испр. и доп. М.: Дело, 2004. 888 с

6. Показатели энергоэффективности: основы статистики [Электронный ресурс]. – Режим доступа:https://iea.blob.core.windows.net/assets/f27e9703-1bb0-4aa5-a1c5-0397ee9c145d/Fundamentals_RU_final_FULLWEB.PDF

7. Международный сертифицированный институт стандартов надежности ЦОД [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://https://uptimeinstitute.com/

8. Как работает дата-центр двойного назначения: 2 подхода и реальные кейсы [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://alldc.ru/news/6570.html

9. Сокращение углеродного следа [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://www.rusonyx.ru/blog/post/uglerodnaya-dieta/

10. Facebook Unveils Live Dashboard for PUE, Water Use [Electronic resource]. - Mode of access:: https://www.datacenterknowledge.com/hyperscalers/facebook-unveils-live-dashboard-for-pue-water-use

11. Equinix Wins 2014 International Datacentre and Cloud Award for Environmental Sustainability [Electronic resource]. - Mode of access:: https://www.equinix.com/newsroom/press-releases/2014/06/equinix-wins-2014-international-datacentre-and-cloud-award-for-environmental-sustainability

12. Five benefits of a direct liquid cooled data center [Electronic resource]. - Mode of access:: https://verneglobal.com/blog-five-direct-impact-benefits-of-a-direct-liquid-cooling-data-center/

13. DeepMind AI Reduces Google Data Centre Cooling Bill by 40% [Electronic resource]. - Mode of access:: https://deepmind.google/discover/blog/deepmind-ai-reduces-google-data-centre-cooling-bill-by-40/

14. Why Microsoft Thinks Underwater Data Centers May Cost Less [Electronic resource]. - Mode of access:: https://www.datacenterknowledge.com/hyperscalers/why-microsoft-thinks-underwater-data-centers-may-cost-less

MINTAQANING IJTIMOIY-IQTISODIY BARQARORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA MONOPOL KORXONALARNING INNOVATSION SALOHIYATINI BAHOLASH

Savrieva Madina Xakimovna
Navoiy innovatsiyalar universtiteti
mustaqil tadqiqotchi
savrievamadina@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195461

Annotatsiya: *maqolada mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida yirik sanoat korxonasining ishlab chiqarish salohiyatining ta’siri hamda innovatsion rivojlanishini baholash bosqichlarining samaradorliginianiqlash, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy holati o‘ziga xos paradigmasi bilan ishlab chiqarishni tashkil etish hamda hududlarni resurslar bilan ta’minlashning eng muhim elementlaridan biri yirik hududiy korxonalarning salohiyatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.*

Tayanch so‘zlar: *monopol yirik korxonalar, mintaqa iqtisodiyoti, innovatsion salohiyat, ishlab chiqarish quvvatlari, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy muhiti, innovatsion muhit.*

Kirish.

Mamlakat iqtisodiyotini mintaqalashtirish iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos shakllarining paydo bo‘lishini va mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning shakllanish xususiyatlarini belgilaydi, ularning o‘zgarmas atributi ushbu ijtimoiy shaklning faoliyati sifatida ularning resurslar bilan ta’minlanishini o‘rganishdan iboratdir. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy holati o‘ziga xos paradigmasi bilan ishlab chiqarishni tashkil etish. Hududlarni resurslar bilan ta’minlashning eng muhim elementlaridan biri yirik hududiy korxonalarning salohiyatidir [1].

2018 yil 28-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Parlamentga yo‘llagan Murojaatnomasida ham iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, birinchi navbatda, yetakchi sohalar rivojiga bevosita bog‘liqligi hamda iqtisodiyot rivojiga jiddiy turtki beradigan sohalarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozimligi ta’kidlangan [5].

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash hududni milliy tizimda joylashtirish, hududiy miqyosda qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining sifatini va ularning mintaqa iqtisodiyotining eng muhim ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

Metodlar.

R.A.Gataullin [2] besh bosqichdan iborat mintaqaning sanoat salohiyatini baholash metodologiyasini taklif qiladi:

1. Mintaqa yirik sanoat majmuasi holatini tarmoq sifatida tahlil qilish.
2. Mintaqaning yirik sanoat majmuasining tashqi muhitini o‘'rganish.
3. Tarmoqning ichki holati va tashqi muhitni birgalikda tahlil qilish.
4. Yirik sanoat tarmoqlarini guruhlash.
5. Mintaqa tarkibidagi davlat boshqaruv organlariga sanoat sohasidagi har bir tarmoqni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatish vositalarini tanlash.

Ammo, bizning fikrimizcha, birinchi navbatda, sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishning hududiy omilini hisobga olish kerak, bu bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni qamrab oladi, masalan:

-xom ashyo bazasining joylashuvi;

-xom ashyo va materiallarni logistika bilan ta’minlash sxemasi;

-muayyan tarmoqda ishchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining mavjudligi;

-ta’minot kanallari.

Mintaqada yirik sanoat korxonalarining salohiyatini baholashda D.F.Ayatskov [3] asosiy ko‘rsatkichlar qatorida quyidagilarni ajratadi:

-yalpi ichki mahsulot;

-asosiy tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish;

- sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish;

-asosiy kapitalga investitsiyalar kiritish;

-aholining real pul daromadlari;

-transport korxonalarining yuk aylanmasi;

-inflyatsiya darajasi (iste’mol narxlari indeksi).

Biroq, bizning fikrimizcha, mintaqa iqtisodiyotini barqarorlashtirishda yirik sanoat monopoliyalari salohiyati kabi murakkab va ko‘p komponentli obyektni baholashda faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib bo‘lmaydi. Sohaning kadrlar salohiyatiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-demografik ko‘rsatkichlar, ya’ni mintaqada aholining tug‘ilish, o‘lim, umr ko‘rish davomiyligi (aholining o‘rtacha yashash davomiyligi)ni baholash va tahlil qilish muhimdir deb hisoblaymiz.

Mintaqa iqtisodiyotini yirik sanoat korxonalari yordamida aholini ish bilan ta’minlashning zarur darajasi ta’minlananadi. Bundan tashqari, sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi va ularning rivojlanish darajasi hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilaydi. Sanoat korxonalarining faoliyat yuritishi ish o‘rinlari to‘planishi bilan birga mahalliy tovar bozorlarining rivojlanishiga ham xizmat qilada. Yirik sanoat subyektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati va ularning natijalari ijtimoiy-iqtisodiy muhitni shakllantiradi, aholining turmush darajasi esa ularning moliyaviy barqarorligi sifatiga bog‘liq. Ijtimoiy-iqtisodiy va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish, mintaqaviy siyosat, mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish ta’sirida shakllangan sanoat korxonalarining ishlash muhiti elementlari ham muhim ahamiyat kasb ega. Bu omillarning barchasi bevosita ishbilarmonlik muhitiga ta’sir qiladi, bu esa sanoat korxonalarining ishlashi uchun sharoit yaratadi.

Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida yirik sanoat korxonasining ishlab chiqarish salohiyatining ta’siri hamda innovatsion rivojlanishini baholashning 3 bosqichda amalga oshirish mumkin.

1. Korxona va uning tarkibiy qismlari (quyi tizimlar) ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishning holati va innovatsion xarakterini tavsiflovchi mezon va ko‘rsatkichlar majmuasini shakllantirish.

Ko‘rsatkich qiymatlariga ball berish uchun quyidagi reyting shkalasi taklif etiladi: ko‘rsatkich qiymatining past darajasi - 0 ball, o‘rtacha daraja - 1 ball, yuqori daraja - 2 ball. Hisoblash formulasi (5.,6.,7) orqali aniqlangan ko‘rsatkichlarning qiymatlarini baholash mezonlari ekspertlar bahosi yordamida baholanadigan o‘rtacha sanoat standartlari va tarmoq bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar asosida belgilanadi. Agar ko‘rsatkichni aniqlash qiyin bo‘lsa, u

holda tahlil uchun ijobiy ekspert javobi qabul qilinadi, unga ikki ball beriladi yoki salbiy javob nol ball bilan baholanadi.

2. Ishlab chiqarish salohiyatini innovatsion rivojlantirish, ishlab chiqarish salohiyatini innovatsion rivojlantirish samaradorligi darajalarini va ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion sezuvchanlik darajalarini shakllantirish.

Ushbu tadqiqot doirasida innovatsion rivojlanish samaradorligining maksimal darajasi va ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion sezuvchanligi 0,40 dan 0,59 darajada C gacha bo‘lgan innovatsion koeffitsient qiymatlari oralig‘ini hisobga olish kerak.

3. Innovatsiya koeffitsientini va ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion rivojlanish sur’atini hisoblash formulalari o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarni hisoblash va baholash imkonini beradi:

Rivojlanishning innovatsion koeffitsienti:

$$RIK = \sum Ki / (\sum Ks + \sum SKi), (1)$$

Bu yerda:

Ks - korxona ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismi (tarkibiy qismlari) faoliyatining holati va samaradorligi ko‘rsatkichi;

Ki - korxona ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismlarini rivojlantirishning innovatsion imkoniyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

Tahlil va natijalar.

Ishlab chiqarish omillarini izohlash asosida moddiy-texnikaviy, innovatsion, investitsion, mehnat, infratuzilma, moliyaviy salohiyatni sanoat salohiyatining tarkibiy qismlari sifatida ajratish mumkin, ular o‘z navbatida xom ashyo, sanoat, ilmiy-tadqiqot, innovatsiya, investisiyalar, axborot, mehnat va axborot resurslari asosida shakllanadi (1.2.1-chizma).

1.2.1-chizma

Mintaqaning sanoat ishlab chiqarish korxonalari salohiyatining shakllanishi



1.2.1-chizmadan ko‘rinib turibdiki, yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalarining salohiyatini belgilab beruvchi har bir turi aynan korxonaning salohiyatini baholab beruvchi mezon [5]lar hisoblanadi.

Innovatsion salohiyat. Mavjud innovatsion faol korxonalar, yangi texnik g‘oyalarni ishlab chiqarish va amalga oshirishga qodir yuqori malakali ishchilar, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyatining texnik va texnologik darajasini oshirishni ta’minlash uchun texnologik innovatsiyalarga ajratilgan moliyaviy resurslar yig‘indisi.

Infratuzilmaviy salohiyat. Atrof-muhit bilan muqobil o‘zaro ta’sir qilish va resurslardan oqilona foydalanish jarayonida ishlab chiqarishning samarali ishlashi, tovarlar aylanishi va insonlarning hayotiy xavfsizligi uchun sharoitlarni ta’minlaydigan hududning umumiy imkoniyatlari.

Moliyaviy salohiyat. Korxonaning moliyaviy imkoniyatlari, holati, tarmoqning tezkor (operativ) faoliyatini ta’minlash, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, dolzarb muammolarni hal qilish va belgilangan iqtisodiy maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Material-texnikaviy salohiyat. Mintaqa sanoatining moddiy-texnik salohiyatini, korxonalarda mavjud bo‘lgan ilg‘or texnologik jarayonlar, noyob texnologiyalarni birgalikda tashkil etuvchi asosiy fondlarning birgalikda qo‘llanilishi tushuniladi.

Mehnat salohiyati. Tayyor mahsulot yaratishni ta’minlaydigan ishlab chiqarish vazifalarini bajarish uchun hududning mehnat resurslaridan foydalanish qobiliyati va tayyorligi.

Invaestitsiya salohiyati. Potentsial investorlarning hududiy sanoatni rivojlantirishga sarmoya kiritish qobiliyati va istagi.

Mintaqaning sanoat ishlab chiqarish korxonalari salohiyatining shakllanishi qo‘llaniladigan har bir mezonning korxona iqtisodiy salohiyatini baholashda asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tendensiyalarini tahlil etishni taqozo etadi (1.2.1-jadval).

1.2.1-jadval

Ko‘rsatkichlar	**O‘lchov birlik**	**Mintaqada ishlab chiqarish korxonalarining o‘lchamlari**
I.Innovatsion salohiyat salohiyat		
1.1. Innovatsion faol korxonalar ulushi	%	Sanoat korxonalarining innovatsion mahsulotlarni joriy etish imkoniyatlari
1.2. Jo‘natilgan sanoat mahsulotlarining umumiy hajmida jo‘natilgan innovatsion mahsulotlarning ulushi	%	Sanoatning innovatsion rivojlanish darajasi
1.3. Sanoatga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmidan texnologik innovatsiyalar xarajatlarining ulushi	%	Sanoatni texnologik rivojlantirish vazifalarining ustuvorlik darajasi.
1.4. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar bilan shug'ullanuvchi xodimlar soni, sanoatda band bo'lgan ming kishiga to'g'ri keladi.	ming kishi	Sanoatda ilmiy va innovatsion sohaning samaradorligi darajasi
II. Material-texnikaviy salohiyat		
2.1.Aholi jon boshiga sanoatning asosiy fondlari (FFA) qiymati	so‘m	Mintaqada sanoat majmuasi ishlab chiqarishni ta’minlash xususiyatlari
2.2.Sanoat asosiy fondlarining eskirish darajasi	%	Ishlab chiqarish resurslari holatining xarakteristikasi
2.3. Kapital unumdorligi		Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi
III. Moliyaviy salohiyat		
3.1. Sanoat tashkilotlarining umumiy sonida daromad keltiruvchi sanoat tashkilotlarining ulushi	%	Mintaqada sanoatning faoliyat ko'rsatish samaradorligi darajasi

3.2. Asosiy ishlab chiqarish fondining 1 so‘mga sanoat korxonalarining balanslangan moliyaviy natijasi	so‘m	Sanoatni rivojlantirish uchun moliyaviy imkoniyatlar darajasi
3.3. Sanoat tashkilotlari aktivlari rentabelligi	%	Foyda olish uchun sanoat tashkilotlari aktivlaridan foydalanish samaradorligi
IV. Infratuzilmaviy salohiyat		
4.1. Umumiy foydalanishdagi temir yo'llarning zichligi, hududi 1000² km. gacha.	km	Transport infratuzilmasi zichligi
4.2.Asfaltlangan yo'llarning zichligi, yo‘llarning 1000² km. gacha.		
4.3.Maxsus ishlab chiqarish iqtisodiy zonalar, sanoat zonalari, sanoat va texnoparklar bo‘sh maydonlari va tayyor infratuzilma obyektlarining (gaz, elektr energiyasi, suv, kanalizatsiya) mavjudligi.	ga	Hududni infratuzilma va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish uchun zarur ma'muriy-huquqiy sharoitlar bilan ta'minlash
V. Mehnat salohiyati		
5.1.Iqtisodiyotda band bo‘lganlarning umumiy sonida ishlab chiqarish va sanoat xodimlarining ulushi	%	Sanoatning inson resurslari
5.2.Oliy ma’lumotli bitiruvchilarning sanoat xodimlarining umumiy sonidagi ulushi	%	Yuqori malakali sanoat ishchilari resursi
5.3. Ishchilarning umumiy sonida o‘rta-maxsus ma’lumotli bitiruvchi mutaxassislar ulushi	%	Sanoatning intellektual resursi
VI. Investitsiya salohiyati		
6.1. Aholi jon boshiga sanoatning asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi	%	Sanoatni modernizatsiya qilish va rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining xususiyatlari
6.2.Sanoatga qo‘yilgan investitsiyalar umumiy hajmida bank investitsiyalarining ulushi	%	Bank kapitalini jalb qilish samaradorligi darajasi
6.3. Sanoat tashkilotlarining asosiy kapitaliga qo‘yilgan investitsiyalar umumiy hajmidan mashina, asbob-uskunalar va transport vositalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi	%	O‘z ishlab chiqarish fondlariga qo'yilgan investitsiyalar ulushi.

Korxonaning ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion rivojlanish darajasini baholashning ushbu metodologiyasi asos bo‘lgan asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

- qo‘llaniladigan mezonlar va ko‘rsatkichlar amaliy xususiyatga ega bo‘lib, sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyatining hududlarda faoliyat ko‘rsatish natijalarini belgilaydi va dinamikada uning innovatsion rivojlanish jarayonini tavsiflashi mumkin;

- olingan mezonlar va ko‘rsatkichlar natijalarga ta’sir ko‘rsatgan tashqi va ichki muhit omillari bilan taqqoslanadi;

– korxonaning o‘zi ham, axborotdan uchinchi tomon foydalanuvchilari ham (investorlar, hamkorlar, hududiy hokimiyat organlari) olingan mezonlar va ko‘rsatkichlarga qiziqish bildirishlari.

Muhokama.

Mintaqada yirik sanoat korxonalari salohiyatining “innovatsion rivojlanish” darajasi barqarorlikning istiqbolli yo‘nalishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning potentsial imkoniyatlari, yangi fan va texnika yutuqlari asosida uzoq muddatli raqobatbardoshlikni oshirishning umumiy maqsadini qamrab oladi.

Mintaqa yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini innovatsion rivojlantirishni, sanoat korxonasining ishlab chiqarish salohiyati holatini tizimli, sifatli yaxshilashni samarali ishlab chiqarish orqali innovatsion faoliyat natijalarini amalga oshirish tushunishni taklif qilamiz. Yirik korxonaning innovatsion faoliyat natijalarini samarali amalga oshirishda innovatsiyalarni joriy etish darajasini tushuniladi, bu esa yuqori sifatli innovatsiyalarning paydo bo‘lishiga hamda korxona ishlab chiqarish salohiyatining yangi pog‘onasiga chiqishi mumkinligini anglatadi.

Korxonaning ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion rivojlanish koeffisiyentini baholash metodologiyasi tizimli yondashuvga asoslanadi, bu bizga o‘rganilayotgan obyektni uning ichki tuzilishining holati va rivojlanishi va ta’sirini baholash nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishga imkon beradi. Hududiy iqtisodiy tizimlarning tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasida korxonaning joylashuvidan toki tashqi muhit ta’sirining joriy hamda kelajakdagi ko‘rsatkichlari holatini prognozlash imkoniyatini ta’minlaydi.

Xulosa.

Taklif etilayotgan innovatsion koeffisiyentni hisoblash metodologiyasi korxona ishlab chiqarish salohiyatining turli funksional sohalarida sodir bo‘ladigan asosiy ichki jarayonlarni qamrab oladi va ishlab chiqarish salohiyatining holatini, uning innovatsion rivojlanish darajasi va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning batafsil reyting bahosini ifodalaydi.

Demak, yirik sanoat monopoliyalarining ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion rivojlanishini baholash metodologiyasining asosiy tamoyillari deb quyidagilarni qabul qilish mumkin:

- qo‘llaniladigan mezonlar va ko‘rsatkichlar amaliy xususiyatga ega bo‘lib, sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyatining hududlarda faoliyat ko‘rsatish natijalarini belgilaydi va dinamikada uning innovatsion rivojlanish jarayonini tavsiflash;

- olingan mezonlar va ko‘rsatkichlar natijalariga ta’sir qiladigan tashqi va ichki muhit omillari bilan taqqoslash;

– olingan mezonlar va ko‘rsatkichlarga korxonaning o‘zi ham boshqa ishtirokchilar, masalan investorlar, hamkorlar, hududiy hokimiyat organlari ham qiziqish bildirish tamoyili.

Xulosa qilish mumkinki, baholash natijalari taklif etilayotgan usullarga asosan korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini innovatsion rivojlantirish, korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini ininnovatsion rivojlantirish dinamikasini, modelini, samaradorligini aniqlashga, ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion sezuvchanlik darajasini aniqlashga, shuningdek shunga ko‘ra ham korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini, ham mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini oshirishda innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi.

Adabiyotlar.

1. Кофанов.А.А. Диверсификация региональной экономики как доминирующая стратегия структурного развития в условиях глобализации экономических отношений: автореф. дис. на соиск. уч.ст. д-ра экон. наук : 08.00.05 / А. А. Кофанов. – Краснодар, 2010. – 31 с.

2. Гатауллин И. И. Измерение интеллектуального капитала страны на основе методики оценки конкурентоспособности Всемирного экономического форума / И. И. Гатауллин // Вестник экономики, права и социологии. – 2016. – № 4 / Т. 2. – Материалы Всероссийской научно-практической конференции «Межрегиональное взаимодействие и устойчивость российской экономики». – С. 48-51.

3. Аяцков Д. Ф. Промышленный потенциал региона: оценка состояния и стратегия развития / Д. Ф. Аяцков// Вестник Поволжской академии государственной службы. – 2001. – №1. – С. 5-15.

4. Аганбегян А. Г., Михеева Н. Н., Фетисов Г. Г. Модернизация реального сектора экономики: пространственный аспект // Всероссийский научный журнал «Регион: экономика и социология». – 2012. – № 4 (76). – С. 7–44; Кузнецова А. И. Инфраструктура: Вопросы теории, методологии и прикладные аспекты современного инфраструктурного обустройства. Геоэкономический подход. – М. : КомКнига, 2006. – 456 с.; Ларионова О. А. Региональная диверсификация и ее влияние на развитие производства // Организатор производства. – 2009. – № 4 – С. 90–94.

5. https://president.uz/uz/2228.

SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH: SUV MANBALARINI OPTIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI

Assistant: M.B.Beknazarova
“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
beknazarovamanzura357@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14196422

Talaba: M.M.Ergashov
“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
mustafoergashovimperator@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14196422

Annotatsiya*. Ushbu maqolada, suv resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatilgan. Jumladan, suv resurslarini vaqt va xududlar bo’yicha qayta tarqatish, yekologik barqarorlik talablarini hisobga olgan holda atrof*

muhit barqarorligini ta’minlash va iqtisodiyot sohalarining suv resurslariga bo’lgan talablarini optimal ravishda qondirish, talab yetilgan miqdor va sifat bilan zarur bo’lgan vaqtida yetkazish, suv resurslarini boshqarishni - suv resurslarining vaqt va makonda tabiiy tarqalishi hamda sifat ko’rsatkichlarini rejimini iste’molchilarning talablariga moslashtirish jarayoni bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar*: suv resurslari, suv resurslarini boshqarish, yer osti suvlari, boshqaruv usullari, boshqaruv jarayoni, boshqaruv mexanizmi, cheklangan suv resurslari, taqsimot darajasi, boshqruv funksiyalari, ekologik sharoit, suvga bo‘lgan talab, vertikal boshqaruv.*

KIRISH.

Suv resruslarini barqaror boshqarishda suvga bo’lgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va yekologik talablar, boshqaruvda avvaldan qo’llanib kelingan dekleratsiyalar hamda boshqarishni tashkil yetishning qatiy tartibiga asosan barcha suv resurslarni jalb yetish, ularning shakllanish sharoitlarini yaxshilash, bir vaqtni o’zida suv resruslari bilan birga suvga bo’lgan talablarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishda katta rol o’ynaydi. Suv resurslari tizimidagi murakkab o’zaro bog’liklarning barcha jihatlari o’zaro uzviy birlikda ko’rilganda muammolar nisbatan yengilroq yechiladi. Shuning uchun har bir mamlakat doirasida suv resurslarini boshqarish bilan bog’liq xarakatlarni muvofiqlashtirish, birlashtirish va bog’lash bo’yicha zaruriyat tug’iladi. Inson va tabiat o’rtasidagi raqobatni oldini olish va barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi zarur. Jumladan: vaziyatni, trendlar va potensialni baholash uchun: (ma’lumotlar va ularning tahlili − resurslar va yehtiyojlarni bashorat qilish uchun): ma’lumotlar va ularning tahlili − suv resurslari maxsuldorligining potensial texnik darajasiga yerishish bo’yicha tadbirlarni rejalashtirish bo’yicha: texnik baza; texnik yechimlar; moliyaviy resurslar − boshqaruvni tashkiliy amalga oshirish bo’yicha o xuquqiy baza o potensial tashkiliy tuzilmalar; suv uchun to’lov tizimi, resurslar; suvning ifloslanishi; suv iste’molchilarining ishtiroki; suvni tejamkor ishlatishdan moddiy manfaatdorlik.[1]

Mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish hamda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda suvni tejaydigan texnologiyalar qamrab olgan maydon sug‘oriladigan maydonlarning qariyb 25 foizini tashkil qilib, buning hisobiga 2022 yilda 3 mlrd. kub metr suv iqtisod qilindi hamda 830 ming gektar takroriy ekin maydonlarini sug‘orishga yo‘naltirildi. Prognoz ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 yil vegetatsiya davrida suv resurslari hajmi ko‘p yillik me’yorga nisbatan Sirdaryo havzasida 10 - 15 foizga, Amudaryo havzasida 15 - 20 foizga kam bo‘lishi kutilmoqda (Қapop, 2023).

Suv resurslari tabiiy muhitning ajralmas qismi va insonning fiziologiik yextiyojlarini qondirishning tengsiz manbasi hisoblanadi. Suv resurslaridan foydalanish insonning yashashga bo’lgan huquqining bir qismi bo’lishi bilan birga u - inson faoliyatining barcha turlari uchun zarur resursdir. Undan kommunal-maishiy maqsadlar, shaxar va qishloqlarni suv bilan ta’minlash, yenergetika, sanoat, xom ashyo olish va qator boshqa maqsadlar uchun foydalaniladi. Suvdan shuningdek, transport, harakat va yog’och oqizish, sport, tibbiyot-sog’lomlashtirish va boshqa qator maqsadlar uchun ham foydalaniladi. Suv resurslariga xos yana bir muhim jihat ularning ko’p sonli xossa va xususiyatlarga ega bo’lishi hamda ko’p sonli maqsadlar va ko’p sonli iste’molchilar tomonidan foydalaniluvchi yagona, muqobili bo’lmagan umumfoydalaniluvchi resurs yekanligi bilan bog’liqdir. Dunyodagi umumiy suv zaxiralari qariyb 1,5 milliard km 3 bo’lgani holda uning

2% ga yaqin qisminigina chuchuk suvlar tashkil etadi. Insoniyat o’z yehtiyojlari uchun ishlatishi mumkin bo’lgan chuchuk suvlar resurslari esa olimlar hisoblariga ko’ra atigi 41 ming km 3 ni tashkil etadi. Dunyodagi mavjud cheklangan chuchuk suv resurslari – ularning taqchilligini ortishi va sifatining yomonlashib borishi bilan ham xarakterlanadi. Dunyoda chuchuk suv taqchilligi jiddiy global muammoga aylanib ulgurdi va oqibatda tabiiy muxit holatining yomonlashuvi, tirikchilik uchun zarur vositalarning kamayishi va aholi kasallanishi holatlarini ortishiga sabab bo’lmoqda. Bugungi kunda asosiy iste’mol mahsuloti hisoblangan suvning yetishmovchiligidan dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida istiqomat qiluvchi 2 milliarddan ortiqroq kishi aziyat chekmoqda.[2][3]

Suv resurslarini boshqarish tushunchasi - suv resurslarini vaqt va xududlar bo’yicha qayta tarqatish, yekologik barqarorlik talablarini hisobga olgan holda atrof muhit barqarorligini ta’minlash va iqtisodiyot sohalarining suv resurslariga bo’lgan (tabiatning yekologik va jamiyatning iqtisodiy) talablarini optimal ravishda qondirish uchun suv resurslarini kerak bo’lgan joyga, talab yetilgan miqdor va sifat bilan zarur bo’lgan vaqtida yetkazish tushuniladi. Yana ham qisqaroq qilib, suv resurslarini boshqarishni - suv resurslarining vaqt va makonda tabiiy tarqalishi hamda sifat ko’rsatkichlarini rejimini iste’molchilarning talablariga moslashtirish jarayoni deb talqin yetilishi mumkin.

Suv resurslarini boshqarish - bu suvni imkon darajasida kerakli vaqtda va kerakli miqdorda kerakli nuqtaga yetkazishdan iborat degan sodda tushunchaga duch kelamiz. Ammo, suv resurslari hamda ularga bo’lgan talablarning shakllanishi bo’ladigan tabiiy va antrogopen, tashqi va ichki omillar ta’sirlar oqibatida dunyoda shakllanayotgan tendensiyalarni inobatga oladigan bo’lsak xozirgi davrda suv resurslarini boshqarish ancha murakkab jarayondir. Shunday qilib – “Suv resurslarini boshqarish” – tabiat va jamiyatning zaruriy sifatdagi va miqdordagi suvga bo’lgan yehtiyojlarini doimiy tarzda, barcha vaqt davrlari (operativ, yillik, ko’pyillik va istiqbolli) bo’yicha ta’minlashi lozim. Boshqacha qilib aytganda suv resurslarini boshqarish suv resurslari va suvga bo’lgan talablar o’rtasidagi doimiy muvozanatni ta’minlashdan iboratdir.[4]

Adabiyotlar sharhi.

Suv resurslarini xalq xo’jaligida katta miqyosda ishlatilishi suv balansini o’zgartirdi va suv ob’ektlarini ifloslanishiga olib keldi. Insoniyat tomonidan kichik maydonlarni o’zlashtirilishi va sug’orish uchun suv olinishi yoki boshka ishlab chiqarish maqsadlari uchun kichik xajmda suv ishlatishi bilan bog’lik bo’lgan ta’sirlarni va XX asrning 50-yillaridan keyingi davrda katta maydonlarni o’zlashtirishi xamda xalk xo’jalik tarmoqlarini keng mikyosda rivojlanishi bilan bog’liq atrof-muhitga ta’siri oqibatlarini bilan taqqoslab bo’lmaydi. Butunjahon sog’liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko’ra, bugungi kunda dunyodagi barcha kasalliklarning 80 foizi suv tufayli yoki suv orqali tarqaladi. Shunday qilib, suv resurslarini barqaror boshqarish va ulardan samarali foydalanish zaruriyatining birinchi sababi ilmiy texnik taraqqiyot, xalk xo’jaligi tarmoqlarining intensiv rivojlantirishi bo’lsa, uning ikkinchi sababi - oziq-ovqat muammosidir. Yuqorida ta’kidlangan suvga bo’lgan munosabatlarning rivojlanish tarixining ikkinchi bosqichi davrida ham suvga birinchi bosqichidagi munosabatlarga tayangan holda “Tabiatni inson izmiga buysindirish” jarayonida qo’yilgan hatolar oqibatida planetada bugungi kunga kelib suv, tinchlik va xavfsizlik muammolarini chambarchas bog’lovchi chuchuk suv muammosi paydo bo’ldi. Bugungi kunda chuchuk suv muammosi o’zida suv, tinchlik va xavfsizlik shartlarini mujassam yetgan, nafaqat alohida mamlakatlar balki butun boshli mintaqalarning barqaror taraqqiyotini belgilab beruvchi muammoga aylandi. Shuning uchun yangi sharoitlarda umumiy va cheklangan

suv resurslaridan birgalikda barqaror boshqarish, ulardan samarali foydalanish, ularga bo’lgan munosabat masalasiga munosib ye’tibor qaratish zaruriyati – o’zaro chambarchars bog’liq suv, tinchlik va xavfsizlik muammosini o’zida mujassamlashtiradi.[5][6]

Mamlakatimiz mustaqillik yillarida yer va suv resurlaridan foydalanish tizimi tubdan isloh qilindi, suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanish hamda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashning tegishli qonunchilik bazasi yaratildi va amaliyotga joriy etildi. Buning natijasida suvdan limit bo‘yicha foydalanishga o‘tilganidan sungi 17 yil davomida bir gektar hisobiga suv olish va sug‘orish suvini yo‘qotish hajmi kamaydi (Амиров, 2019).

Suv resurslarini boshqarish tushunchasi ostida suv resurslarini vaqt va hududlar bo‘yicha qayta tarqatish, ekologik barqarorlik talablarini hisobga olgan holda atrofmuhit barqarorligini ta’minlash va iqtisodiyot sohalarining suv resurslariga bo‘lgan talablarini optimal ravishda qondirish uchun suv resurslarini kerak bo‘lgan joyga, talab etilgan miqdor va sifat bilan zarur bo‘lgan vaqtida yetkazish tushuniladi. Yana ham qisqaroq qilib, suv resurslarini boshqarishni suv resurslarining vaqt va makonda tabiiy tarqalishi hamda sifat ko‘rsatkichlari rejimini iste’molchilarning talablariga moslashtirish jarayoni deb talqin etilishi mumkin (Шохўжаева, 2021).

Suv hayotning barcha jabhalari uchun zaruriy vositadir. Insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, shuningdek, ekotizimlarning yaxlitligi va saqlanib qolishi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy resurs hisoblanadi. Suv ijtimoiy-itqisodiy jarayonlarda ishlab chiqarish va iste’mol bilan bog‘liq faoliyat uchun birlamchi moddiy resurs sifatida qaraladi. Shuning uchun barcha mamlakatlarda suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish mamlakat iqtisodiy islohotlarining doimo markaziy o‘rnida turadi (Axmedov, 2023).

Zhaoyang Yang va boshqalarning tadqiqotlarida esa, suv resurslarining o‘tkazish qobiliyati (water resources carrying capacity-WRCC) konsepsiyasi bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib borildi. Ushbu tadqiqotda analitik ierarxiya jarayoni (analytic hierarchy process-AHP) va tizim dinamikasi (SD) modellari asosida suv resurslarining o‘tkazish qobiliyatining sumulatsiya modeli yaratilgan. Mazkur simulatsiya modeli asosida suv resurslarini mamlakat hududlari bo‘yicha samarali taqsimlash bo‘yicha 5 ta ssenariydagi variantlar taklif etiladi (Yang, 2019).

Umuman suv resruslarini boshqarish bo’yicha barcha harakatlar mamlakat miqyosida va havza darajasida barcha gidrografik birliklar doirasida muvofiqlashtirilishi lozim. Aynan shunday tizim Ispaniyada (1926 yildan), Fransiyada, Gollandiyada va dunyoning boshqa qator rivojlangan mamlakatlarida mavjud. Bunday tizim 1926 yildan Markaziy Osiyoda Zarafshon daryosi xavzasida xam mavjud yedi. Ammo yaqin o’tgan davrda mazkur tizim o’zgartirilib, oxir oqibat ma’muriy xududiy viloyat tizimiga aylantirilgan yedi. Keyingi davrda esa mintaqa mamlakatlarida asta sekin gidrografik havzaviy tamoyilga o’tish tendensiyasi kuzatilmoqda.[7]

Suv bilan bog’liq yeng asosiy muammo - mavjud cheklangan suv resurslarining tobora oshib borayotgan talablarga mos kelmasligi bilan bog’liqdir. Dunyoda suv xo’jalik muammolarining asosiy kelib chiqish sabablarini:

1. Planetada chuchuk suv zaxiralarini o’ta chegaralangan mikdorda yekanligi.
2. Chegaralangan chuchuk suv resurslarining qitalar bo’yicha xududiy jihatdan o’ta notekis

tarkalganligi (buning oqibatida sersuv va kamsuv mintaqalar hosil bo’lishi).

3. Mavjud, chegaralangan, chuchuk suv resurslardan noto’g’ri foydalanish oqibatida (antropogen omillar) ularning ifloslanishi, ya’ni yaroqli holatdan yaroqsiz holatga o’tib qolishi bilan izohlash mumkin.

Suv resurslaridan bir vaqtda millionlab iste’molchilar o’zlarining turli tuman yehtiyojlari uchun foydalanadilar. Suvning turli foydali xossa va xususiyatlaridan foydalanishda nafaqat kishilik jamiyatining iqtisodiy va atrof-muhit barqarorligi uchun zarur bo’lgan yekologik yehtiyojlari o’rtasida, balqi alohida iste’molchilar va hatto mamlakatlar manfaatlari o’rtasida ziddiyatlar yuzaga keladi. Ziddiyatlar suvning miqdori, sifati yoki rejimi (suvning kerakli miqdorda va zarur sifat ko’rsatkichlarida mavjud bo’lish vaqti va muddati) ko’rsatkichlari bo’yicha yuzaga kelishi mumkin. Tarix bunday ziddiyatlarning juda ko’plariga shohid bo’lgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Suv resurslari tanqisligi esa suvga bo’lgan talab ortib borgan sari keskinlashib borishi tabiiy. Suv bilan bog’liq munosabatlarning rivojlanish ta’rixiga ye’tibor qaratilsa uning asosan ikki davrni o’z ichiga olganligini ko’rish mumkin. Ularning birinchisi taxminan XX asrning o’rtalarigacha bo’lgan davrni o’z chiga oladi. Bu davr asosan mavjud suv resurslariga nisbatan ularga bo’lgan yehtiyojni kamligi (aholi soni kam – 2.5 mlrd. kishi, iqtisodiyot rivojlanmagan), insoniyatda faqat o’sha davrgagina to’g’ri keluvchi “suv resurslari cheksiz, u tugallanmas tabiiy resurs, bu xudoning insonlarga in’omi, undan xoxlagancha foydalanish mumkin, u tugamaydi, daryo suvini olib ishlatish uning mikdoriga ta’sir yetmaydi, suvni sifati xam o’zgarmaydi, chunki u yetti marotaba dumalasa yana toza bulib koladi” degan noto’g’ri (yoki aynan o’sha, suv resurslari suvga bo’lgan talablar miqdoridan ancha katta bo’lgan davr uchungina to’g’ri) fikr yoki tushuncha odamlar ongidan o’rin olishiga asos bo’lgan edi. Suv bilan bog’liq munosabatlarni rivojlanish tarixining ikkinchi bosqichi esa XX asrning o’rtalarida, ya’ni ikkinchi jaxon urushidan so’ng tinch xayotni boshlanishi, katta-katta maydonlarni o’zlashtirilishi, sanoatni rivojlanishi, aholi sonini keskin oshib borishi natijasida suv resurslariga bo’lgan talabning keskin ortishi bilan xarakterlanadi. Mavjud suv resurslari deyarli to’liq o’zlashtirilib, yendi kelajakni kaysi suv resurslari hisobiga ta’minlanadi degan savol kun tartibiga kirib kela boshladi.[8]

Markaziy Osiyoning umumiy cheklangan suvlari masalasiga o’tsak avvalo ta’kidlash lozimki Orol dengizi havzasi deb nomlanuvchi bizning mintaqamiz aynan chuchuk suv resurslarining qitalar bo’yicha xududiy jihatdan o’ta notekis tarkalishi (tabiiy omil) oqibatida shakllangan cheklangan suv resurslariga ega berk havza hisoblanadi. Orol dengizi havzasining suv resurslari tabiiy holda shakllanadigan va qayta tiklanib turadigan yer usti va yer osti suv resurslari xamda qaytariladigan suvlardan tashkil topgan. Orol dengizi xavzasining umumiy o’rtacha ko’p yillik suv oqimi 115.6 km3 ni tashkil etadi, shu jumladan Amudaryo buyicha - 78.5 km3 va Sirdaryo bo’yicha

Ayni paytda O’zbekistonda 55 sun’iy suv ombori tashkil yetilgan. Shuning 30 tasi Amudaryo havzasida, 25 tasi Sirdaryo havzasida joylashgan . Suv omborlari hajmi va to’plangan suv miqdori bo’yicha tabiiy suv havzalaridan ancha katta. Amudaryo va Sirdaryo oqimini boshqarishga doir asosiy o’zanli suv omborlari O’zbekiston tashqarisida joylashgan. Andijon, Tuyamo’yin va Janubiy Surxondaryodagi suv omborlari bundan mustasno (1-jadval). Ushbu suv omborlarining hammasini tizimi irrigatsiya-yenergetika tartibida ishlash uchun loyihalashtirilgan. Hozirgi paytda Amudaryo havzasidagi oqim faqat mavsumiy boshqarilmoqda (Nurek suv omborining to’liq sig’imi 10,5 km³, Tuyamo’yin omborining sig’imi 7,3 km³).

1-jadval

Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi o’zanli suv omborlar

Suv ombori	**Foydali sig‘im hajmi mln. m3**	**Daryolar**
Amudaryo suv havzasi		
Nurek	4500	Vaxsh
Tuyamo‘yin	4500	Amudaryo
Janubiy Surxondaryo	700	Surxondaryo
Sirdaryo suv havzasi		
To‘xtag‘ul	14000	Norin
Chordara	4700	Sirdaryo
Qayroq qum	2500	Sirdaryo
Andijon	1750	Qoradaryo

Sirdaryo oqimi To’xtag’ul suv omborining irrigatsiya-yenergetika tartibida ishlash sharti bilan 34 km³ miqdorda belgilangan. Daryoning Tojikiston hududidagi o’rta oqimida joylashgan Qayroqqum omborining ishchi sig’imi 2,5 km³ ni tashkil etadi. 4,7 km³ foydali sig’imga ega Chordara suv ombori Qozog’iston Respublikasi yetagidagi suvdan foydalanuvchilar uchun irrigatsiya tartibida ishlaydi.

1-rasm. Suv resurslarini boshqarishda qaror qabul qilishga ta’sir etuvchi omillar va ularning bog’liqligi

Suv resurslarini (taklifni) boshqarish – vazifasi institutsionalga nisbatan ko’proq injenerlik masalasi hisoblanadi. Suv resurslarini boshqarish – suv xo’jaligi infratuzilmasini (to’g’onlar, suv omborlari, kanallar, kollektorlar va boshq.) yaratish va modernizatsiya qilishga ko’proq urg’u beriladigan tuzilmaviy (texnik) yondashuv bilan xarakterlanadi. Suv xo’jaligi rivojining dastlabki

bosqichlarida iqtisodiy tizimning turidan qatiy nazar odatda ko’proq suv resurslarini boshqarishga urg’u beriladi.

Suvga bo’lgan talabni boshqarish – vazifasi nisbatan ko’proq institutsional masala hisoblanadi. Suvga bo’lgan talabni boshqarish faoliyati maqsadga erishishning nostrukturaviy, ya’ni texnik ob’ektlarga emas balki inson komponentiga vositalariga tayanishi bilan xarakterlanadi. Suvga bo’lgan talabni boshqarish - bir tomondan suvga bo’lgan talabni shakllantirishda ishtirok yetuvchi (fermer va dehqon xo’jaliklari, tomorqa egalari va boshqa suv iste’molchilar) va ikkinchi tomondan suv resurslarini boshqarishda ishtirok yetuvchi (suv xo’jaligi tashkilotlari xodimlari) odamlarga tayanadi.

Suv resurslarini boshqarish tizimi yelementlari: Maqsadlar - suv resurslarini boshqarishda maqsadlarni garchi odamlar shakllantirsa ham, ularning asosida ob’ektiv shartlar bo’lishi kerak. Suv resurslarini boshqarish amaliyotida iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa maksadlar yotadi. Ko’pincha bir maksadning o’zi kompleks bo’ladi. Funksiyalar - murakkab ishlab chiqarishda Suv resurslarini boshqarishni alohida bo’limlar - funksiyalarga ajratishga to’g’ri keladi. Tuzilma - suv resurslarini boshqarishning aloxida funksiyalarini bo’lim, qismlar yoki boshqarishning alohida organlariga birlashgan odamlar bajarishi mumkin, ya’ni boshqaruv tuzilmalari tashkil etiladi.[9]

XULOSA

Suv resurslarini boshqarish bo’yicha qarorlar qabul qilishda quyidagilarni hisobga olish zarur: resurslar mavjud bo’lgan hududlar ularni iste’mol qilish hududlari bilan mos kelmaydi; turli iste’molchilarning suvga bo’lgan extiyojlari turli vaqt intervallariga ega ekanligi bilan xarakterlanadi (masalan sug’orish va energetika; rekreatsiya va baliqchilik va b.); suv sifatining yomonlashuvi moxiyatan jamiyat uchun yaroqli suvning miqdorini keskin kamayib ketishiga olib keladi.

Suv resurslari - boshqaruvning alohida mahsulidir, chunki uning hamma yerga kirib borish xususiyatlari, undagi har qanday o’zgarishlar va ta’sirlarni o’zaro bog’liq bo’lgan turli muhitlarda tarqaluvchan qilib qo’yadi. Sanoat va qishloq xo’jaligining intensiv taraqqiy yetishi, aholi sonining o’sishi, yangi xududlarning o’zlashtirilishi va shu jarayonlar bilan bog’liq bo’lgan suv iste’molining keskin ortishi suv resurslarining gidrologik tartibi va holatiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun bugungi kunda o’tkazilayotgan tadbirlar ko’pgina xalq xo’jaligidagi sohalarning kelajakda rivojlanish tendensiyalarini belgilab beradi. Suv xo’jaligida uzoq kelajakka mo’ljallangan siyosatning asosiy vositasi – bu istiqbolli bashoratlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov S.N. (2023) O‘zbekistonda suv resurslaridan samarali foydalanishni iqtisodiy boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. 08.00.13 – Menejment. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. -50 bet.

2. Коржов В.И. (2006) Информационно-технологическое обеспечение водопользования на оросительных системах: монография. Ростов н/Д: Изд-во журн. «Изв. Вузов. Ссв. -Кавк.регион». - Б.9

3. Saidov Mash'al Samadovich, Hasanov Abdumukhtar Azizalievich Institutional Characteristics of the Regulation of Natural Monopoly Fields // International Journal ofBusiness Diplomacy and Economy. ISSN: 2833-7468Volume 2 No 3 March-2023. https://interpublishing.com/index.php/ijbde/article/view/1333/1141

4. Saidov Mashal Samadovich, Vafoeva Zarnigor. Features of Strategic Alliances in the Global Economy // American journal of economics and business management. ISSN: 2576-5973 Vol. 6, No. 1, 2023. file:///C:/Users/user/Downloads/1896-Article%20Text-3399-3664-10-20230121.pdf

5. Sidov Mashal Samadovich, Shodmonov Beknur Olimjonovich. Organization of Control and Evaluation of Effectiveness in International Companies // American journal of economics and business management ISSN: 2576-5973 Vol. 6, No. 1, 2023. file:///C:/Users/user/Downloads/1898- Article%20Text-3401-3666-10-20230121.pdf

6. Yang Z. et al. (2019) Comprehensive evaluation and scenario simulation for the water resources carrying capacity in Xi'an city, China //Journal of environmental management. –T., 230. – С. 221-233.

7. Амиров Л.Ф. (2019) Ўзбекистон Республикасида ер ва сув ресурсларидан фойдаланишни бошқариш // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr.

8. Қарор (2023) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 1 апрелдаги “Сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш бўйича кечиктириб бўлмайдиган чора- тадбирлар тўғрисида” ПҚ-107 сонли қарори. https://lex.uz/docs/6420836

9. Пулатов Я.Э. (2004) Реализация принципов интегрированного управления водными ресурсами в странах Центральной Азии и Кавказа. ГВП ЦАК. -Алмата, - Б.90-104.

SUG‘URTA XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: MAVJUD HOLAT, MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ilyosov Tursunboy G‘iyosjon o‘g‘li
“Alskom sug‘urta kompaniyasi” AJ Bosh direktori
t.ilyosov@alskom.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14196942

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan bo‘lib, iqtisodiy munosabat va jarayonlarni rivojlantirish davrida iqtisodiyotni bir qismi bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati, dolzarbligi, mavjud muammolar va ularga yechim va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, mobil ilova, sun’iy intelekt.*

Kirish (Introduction/Введение).

Dunyo hamjamiyatida iqtisodiy rivojlanish axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini insonlarning kundalik hayotiga kirib borayotganligi tufayli jahondagi ko‘plab mamlakatlarda raqamli iqtisodiy tizimlar joriy etilayotganligi natijasida fuqarolarning ijtimoiy farovonligi ortib bormoqda. Aholining tadbirkorlik va xususiy biznes bilan shug‘ullanishida moddiy imkoniyatlarning vujudga kelishi insonlarni turli tavakkalchilikka oid faoliyatlar bilan ham

shug‘ullanishga hayotning o‘zi majbur qilmoqda. Jumladan tavakkalchilik tufayli barqarorlikni ta’minlash uchun har bir tavakkalchiliklarni (bunda albatta qonunchilik hamda sug‘urta sohasida istisno etiladigan g‘ayriqonuniy manfaatlar istisno etiladi) sug‘urtalash obyektiv hayotiy zaruratga aylanmoqda.

Yevropa mamlakatlari sug‘urtachilar uyushmasi ma’lumotlariga ko‘ra, zamonaviy global sug‘urta bozorining umumiy aylanmasi 2022-yilda AQShda 2,7 trln., Buyuk Britaniyada – 399 mlrd., Fransiyada – 296 mlrd., Germaniyada – 276 mlrd., Italiyada – 192 mlrd., Gollandiyada – 93 mlrd., Ispaniyada – 74 mlrd., Irlandiyada – 65 mlrd., Shveysariyada – 58 mlrd. va Luksemburgda – 48 mlrd., AQSh dollarini tashkil etgan”[1].

Globalashuv darajasi yuksalib borayotgan bir davrda, O‘zbekiston jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jadallashayotgan bir davrda tadbirkorlikni ommaviy ravishda rivojlantirish davlat siyosatiga aylandi, davlat xizmatlarini ko‘rsatish raqamli texnologiyalar asosida ko‘rsatilishi yangi bosqichga chiqdi. Misol sifatida yagona interaktiv davlat xizmatlar portali (www.my.gov.uz) orqali joriy yilning 12-noyabr holatiga 676 ta xizmatlarning joriy qilinganligi, bundan faqatgina 8 ta xizmatlar sug‘urtaga bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish jarayonlari bo‘yicha dastlabki qadamlarni 2017-yildan boshlangan desak to‘g‘ri bo‘ladi. “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida Prezident qarorlari hamda Sug‘urta xizmatlarini elektron shaklda ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomlar tasdiqlandi. Ushbu nizomga ko‘ra barcha sug‘urta shartnomalari yagona tizim orqali ro‘yxatdan o‘tkazilishi, sug‘urta polislari Yagona tizim orqali rasmiylashtirilishi belgilangan. Shuningdek, sug‘urta maxsulotlari sug‘urta agentlari orqali sotilishi, ish beruvchining, tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha ham raqamlashtirish jarayonlari aks etgan.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotda qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, iqtisodiy-statistik, o‘zaro taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar (Results/Результаты).

Sug‘urta munosabatlarini yo‘lga qo‘yish va tartibga solishda sun’iy intellektni qo‘llash quyidagi jihatlari bilan ahamiyatli hisoblanadi:

– sug‘urta da’volarini ko‘rib chiqishda;

– sug‘urta tavakkalchiliklarini aniqlash va sug‘urta tariflarini ishlab chiqish, anderrayting siyosatida;

– sug‘urta sohasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan firibgarliklarni aniqlashda;

– sug‘urta xizmatlarini sotish jarayonlarida.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

Shu o‘rinda turli sug‘urta tavakkalchiliklaridan himoya qilishda sug‘urta xizmatlariga talab kundan kunga ortib bormoqda. Buning uchun har bir sug‘urta tavakkalchiligini o‘rganish va bu tavakkalchiliklarni sug‘urta tashkilotlariga keltirishi mumkin bo‘lgan nafi yoki ziyoni, kross sotuv mexanizmlar, sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishni real vaqt rejimida amalga oshirish sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni tahlil qilish, prognoz qilish va qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda. Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda

raqamli texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha davlat tomonidan ham bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur maqolada sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish jarayonlari, xalqaro tajriba, sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar mavjud muammolar, ularga yechimlar haqida batafsil yoritishga harakat qilamiz.

Jahon tajribasida aholiga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tizimini rivojlantirish orqali ularning daromadlarini oshirish, hayot tarzini yaxshilash, ishsizlikni kamaytirish, chakana xizmatlar sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda, shuningdek raqamli iqtisodiyotga sarflanayotgan mablag‘lar-yil davomida oshib borayotganini kuzatish mumkin.

Jumladan, “Xitoy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari akademiyasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, Xitoyning raqamli iqtisodiyoti 2021-yilda 5,4 trln. AQSh dollariga teng bo‘lib, dunyoda AQShdan (13,6 trln. AQSh dollari) keyin 2-o‘rinni egallagan. 3-o‘rinni Germaniya (2,54 trln. AQSh dollari), Yaponiya (2,48 trln. AQSh dollari), Buyuk Britaniya (1,79 trln. AQSh dollari), Fransiya (1,19 trln. AQSh dollari), Janubiy Koreya (847,8 mlrd. AQSh dollari), Hindiston (514,9 mlrd. AQSh dollari), Kanada (434,5 mlrd. AQSh dollari) hamda Italiya (377, mlrd. AQSh dollari) egallagan. O‘rganilgan 47 mamlakat va mintaqadagi raqamli iqtisodiyot bozorining hajmi 2021-yilda-yiliga 3 foizga o‘sib, 32,6 trillion AQSh dollarini tashkil etgan”

Bunga birgina misol sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida bank-moliya sohasida – firibgarliklarning oldini olish, foydalanuvchilarning to‘lov qobiliyatini baholash, bozor tendensiyalarini prognoz qilish sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi.

Bank-moliya sohasining bir bo‘lagi sifatida sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga harakat qilinmoqda ammo bu harakatlar faqatgina davlat siyosati sifatida keng joriy etishga targ‘ib qilinayotgandek nazarimizda. Ammo bu harakatlar sug‘urta mahsulotlarini qamrovini ortishiga yetarli darajada ta’sirini ko‘rmayabmiz. Birgina xalqaro moliya institularining hisobotlariga nazar tashlasak.

Jahon bankining Global Findex Databaseda keltirilgan ma’lumotlariga asosan, bankda hisob raqamiga ega bo‘lgan va bank xizmatlaridan foydalanaytgan katta yoshdagi aholining soni 2011-yildagi 51 foizdan 2023-yilda 80 foizga, Yevropa va Markaziy Osiyoda bu ko‘rsatkich mutannosib ravishda 13 foizdan 78 foizga o‘sganini ko‘rish mumkin.

Bu ko‘rsatkich Qozog‘istonda – 81 foiz, Turkiyada – 74 foiz, Rossiyada – 90 foizni tashkil etadi. Banklarda hisob raqamiga ega bo‘lgan va bank xizmatlaridan foydalanuvchi aholi salmog‘i Niderlandiya, Daniya, Avstriya, Germaniya, Shvesiya, Islandiya, Irlandiya, Shveysariya, Fransiya, Angliya va Kanadada 97 – 100 foizni tashkil etadi. Bundan shuni ko‘rishimiz mumkinki iqtisodiyotni qon tomiri bo‘lgan bank sohasidagi to‘siqlar asta-sekin bartaraf etilmoqda, bank xizmlatlari sifati oshmoqda, chakana xizmatlar soni ko‘paymoqda biroq sug‘urta sohasida nazarimizda bu tendensiya biroz pasaygandek. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, sug‘urta va bank xizmatlari o‘rtasidagi aloqadorligi, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy, tadbirkorlik tavakkalchiliklarini raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion sug‘urta turlarini kengaytirish, biznes jarayonlarida sun’iy intellektni joriy etishni taqozo etmoqda.

Sug‘urta biznesini yuritishda raqamli texnologiyalar sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq jarayonlar, mijozlarga xizmat ko‘rsatishning asosiy elementiga aylanadi.

Tabiiy savol tug‘ilishi mumkin sug‘urta kompaniyalarida ma’lumotlar hujjat almashinuvi, ma’lumotlarni elektron bazaga to‘plash ma’lum bir dasturiy ta’minot orqali almashinuvi raqamli sug‘urta kompaniyasi deb e’tirof etishga asos bo‘ladimi? Albatta yo‘q! Raqamli sug‘urta xizmatlarini yo‘lga qo‘yishda nafaqat dasturiy ta’minotdan foydalanish balki kompaniya yillar davomida sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish orqali orttirgan tajriba va ko‘nikmalarini mijozlarning talablarini inobatga olgan holda tubdan o‘zgartirishni talab qiladi.

Raqamli sug‘urtaning yana bir asosiy jihatlaridan mijozlarni jalb qilish, anderrayting siyosatni boshqarish va da’volarni qayta ishlashgacha bo'lgan butun bir jarayon zanjirini raqamlashtirishdir. Hozirda faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalari mijozlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni boshqarish yoki da’volarni qayta ishlash kabi muayyan funksiyalar uchun dasturiy ta’minotdan foydalanishlari mumkin, lekin ular ko‘pincha qo‘lda ishlov berishga tayanadilar.

An’anaviy sug‘urta xizmatlaridan raqamli sug‘urtaning yana bir muhim farqi – bu mijozlar bilan o‘zaro aloqadorlikda ko‘rinadi. Raqamli sug‘urta xizmatini ko‘rsatuvchilar veb-saytlar, mobil ilovalar va chatbotlar kabi onlayn kanallaridan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yadilar. An’anaviy sug‘urta xizmatini ko‘rsatuvchilar ko‘pincha shaxsiy uchrashuvlar va telefon qo‘ng‘iroqlariga tayanadilar, ular faqat cheklangan onlayn xizmatlarni taklif qiladilar va raqamli sug‘urtada ko‘rinadigan keng qamrovli raqamli integratsiyaga ega emaslar *(1-jadval).*

1-jadval. An’anaviy va raqamli sug‘urtaning asosiy farqli jihatlari

Ta’sir etuvchi omillar	An’anaviy sug‘urta	Raqamli sug‘urta
Sug‘urta tariflarining shakllanishi	Alohida bo‘linmalarda ishni tashkil etish ish yuritish xarajatlari ortishiga olib keladi	Sug‘urta xizmatlari onlayn mexanizmlar tufayli ish yuritish xarajatlari kamayadi.
Sug‘urta maxsulotlarini sotish jarayonlari	Ko‘p bosqichli murakkab Jarayon hisoblanib, xizmatlarni ko‘rsatish uchun ortiqcha hujjatlar talab qilinadi	Raqamli texnologiyalar orqali qog‘ozsiz xizmatlar ko‘rsatiladi. Sug‘urta maxsulotini sotib olish katta qiyinchilik tug‘dirmaydi.
Munosabatlar	Xodimlarda kompetensiyaning yo‘qligi, murakkab shartlar	Veb-saytlar, elektron pochta xabarlari, matnlar va boshqalar kabi bir nechta vositalar orqali o‘qish va tushunish yengillik beradi.
Sug‘urta da’volari	Yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash uchun asos va dalillar hujjatlar talab qilinishi	Mijozlarga sug‘urta da’volarini yuborishda ortiqcha qiyinchilik tug‘dirmaydi. Vakolatli organlar axborot texnologiyalari bilan integratsiyasi qulaylik yaratadi.

Bir holatga e’tibor qaratadigan bo‘lsak raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarini regulyator tomonidan amalga oshirish lozimmi yoki sug‘urta tashkilotlarining o‘z vakolati doirasida amalga oshirishi kerakmi degan savolga regulyativ texnologiyalar va sug‘urta

texnologiyalari bir-biriga chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Sug‘urta bozorini raqamlashtirish faqatgina regulyator tomonidan amalga oshiriladigan bo‘lsa sug‘urta xizmatlarini rivojlanishini ma’lum darajada chegaralaydi.

Yana bir e’tibor qaratiladigan jihat, bu sug‘urta xizmatlarini mobil ilovalar orqali sotish mexanizmini yo‘lga qo‘yish hisoblanadi. So‘nggi o‘n yillik tahlillarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak eng ommabop raqamli texnologiyalar sifatida smartfonlar, shaxsiy kompyuterlar va planshetlar bo‘lib, eng katta ulush smartfonlarga to‘g‘ri kelgan (1-rasm).

Canalys tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, smartfonlarning global jo‘natmalari 2010-yillarning boshidan 2017-yilgacha jadal o‘sishni boshdan kechirgan, o‘shanda ular qariyb 1,5 milliard donaga yetgan. Keyinchalik pandemiya tufayli ortib borayotgan talab bilan bog‘liq holda, 2021 yilda qaytib kelgunga qadar, yetkazib berish 2020-yilgacha kamaydi. Prognozlarga ko‘ra, smartfonlar yetkazib berish 2024-yilda tiklanadi va 2027-yilga borib qariyb 1,3 milliard donaga yetishi ma’lum qilingan.[3]

1-rasm. Raqamli texnologiyalar orqali global jo‘natmalar *(mln. birlikda)*



Bu orqali sug‘urta maxsulotlarini sotish, sug‘urta bo‘yicha aholida moliyaviy savodxonlikni oshirish, mijozlarni jalb qilish, sug‘urta qamrovini oshishiga imkon yaratadi. Smartfonlarda mobil ilovalarni tarkibida turli xil interfaol mexanizmlarni joriy etish orqali

Maqola bo‘yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda an’anaviy usullardan raqamli texnologiyalarga o‘tishida biznes jarayonlarni raqamlashtirish imkonini beruvchi me’yorlarni belgilash, bunda vakolatli davlat organlarning o‘rni muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda raqamli texnologiyalarni faqatgina sug‘urta sohasini o‘zida qo‘llash yetarli emas, balki da’voni aniqlash, baholash metodologiyalari, tannarx va bozor qiymatlarini belgilashni avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish, sug‘urta da’volarini asoslashda, ma’lumotnomalar olishda ham raqamli texnologiyalarni mutanosib ravishda rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Sug‘urta xizmatlarini mobil ilovalar orqali amalga oshirishda

Foydalanilgan adabiyotlar (References/Литературы)

1. Mirzoyev S.F. O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlashda anderrayting xizmatini takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferati. – T., TDIU., 2024-y. – 54-b.;

2. https://my.gov.uz/uz

3. Digital economy report, Shaping environmentally sustainable and inclusive digital future

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Xo‘janova Gulshoda Otamurodovna
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
Tayanch doktorant
gulshoda3267@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14198038

Annotatsiya. *Mazkur maqolada iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash, mamlakatda tabiiy resurslardan samarali foydalanishda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Kelajakda respublikamizning iqtisodiyot tarmoqlarida energiya tejamkorligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar, tabiiy resurslar, ”Yashil iqtisodiyot”, xomashyo resurslari, muqobil energiya.*

Kirish. Mamlakatimizda hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion texnologiyalarga tayangan holda iqtisodiyotni rivojlantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Sanoatda samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish bosqichlarini joriy qilish, tabiiy resurslarni qazib chiqarish va qayta ishlash jarayonida yuqori texnologiyalar ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish va shu asosda ishlab chiqarish hamda eksport hajmini kengaytirish bevosita ilg‘or innovatsion texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.

“2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” ning maqsad va vazifalarida: “Atrof muhitga va aholining salomatligiga salbiy ta’sirni pasaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanish” [1] masalasi belgilab qo‘yildi.

Davlatimiz bugungi kunda tabiiy resurslardan innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda foydalanish va uni rivojlanishiga alohida etibor qaratib kelmoqda.

Atrof-muhitdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish, tabiiy xomashyo resurslarini qazib olish va ularni qayta ishlash bo‘yicha innovatsion g‘oyalar va turli ishlanmalarning, xususan suvni tejovchi uskunalardan, irrigatsiya tizimini isloh qilish, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, energiya tejamkor qurilmalarni o‘rnatish, nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish,, ekologik toza avtotransport yoqilg‘isini ishlab chiqarish texnologiyalari, chang-gazdan tozalovchi uskunalarning amalda qo‘llanishiga ko‘maklashishga doir chora tadbirlar ko‘rilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyoti sharoitida innovatsion texnologiyalar asosida tabiiy resurslardan foydalanish jarayoni bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda ko‘plab huquqiy asos va nufuzli manbalarning ma’lumotlaridan foydalanilgan.

2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasi “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining maqsad va vazifalarida: “texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy

mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish” [3] masalasi belgilab qo‘yilgan.

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi raqamli rivojlanishning strategik maqsadlarida quyidagi ustuvor yo‘nalish ko‘rsatib o‘tilgan: “-elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste’molchilarga yetkazish, uglevodorod xomashyosini qazib chiqarish, qayta ishlash hamda iste’molchilarga yetkazish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish orqali to‘liq nazorat etish tizimini yo‘lga qo‘yish;” [2]

Prof. Ergashev R.X. “Innovatsion iqtisodiyot” nomli darsligida: “Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan, xomashyo materiallaridan, yoqilg‘i resurslaridan yanada to‘laroq va samaraliroq foydalanishga imkon beradi” [7]

Prof. R.X.Ergashev hamda prof. S.N.Xamrayevalar “Raqamli Iqtisodiyot” nomli kitobida “Mamlakat makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turish, samarali fiskal siyosatni yuritish, soliqqa tortish tizimi va soliq ma’muriyatchiligini tubdan isloh qilish; asosiy resurslarni taqsimlashda bozor tamoyillarini keng joriy qilish asosida respublikaning raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o‘tishi jarayonlarini tezlashtirish; fuqarolarning ijtimoiy himoyasi va ularga davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini mustahkamlash, aholining ijtimoiy ko‘makka muhtoj qatlamlarini himoya qilish hajmlari va turlarini ko‘paytirish; davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini yanada oshirish, xususiy sektorni rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash; tabiiy boyliklardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhit muhofazasini ta’minlash, suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, irrigasiya va meliorasiya tizimlarini modernizasiya qilish bo‘yicha raqamli iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yish” [8] nazarda tutilgan

Keltirib o‘tilgan me’yoriy asoslar, manbalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, yetarli darajada energiya tejamkorligiga erishish, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishi yo‘lidagi ustuvor maqsadlarga erishishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda bir qator usullardan foydalanish asosida o‘rganilgan, xususan, tabiiy resurslardan unumli foydalanishning bugungi kundagi holati, asosan monografik tahlillarga tayangan monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil, ma’lumotlarni grafiklarda tasvirlash kabi iqtisodiy usullar asosida o‘rganilib, mamlakatimizda innovatsion va raqamli texnologiyalardan samarali foydalangan holda rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlarini ochib berishda ahamiyatlidir.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasida mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish doirasida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar o‘zining dastlabki natijalarini bermoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tishning muhim yo‘nalishlari hisoblangan qayta tiklanadigan energiya manbalari: quyosh va shamol energetikasidan foydalanishni rivojlantirish, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini keng joriy qilish borasida qator muvaffaqiyatli loyihalar ishga tushirilgan.

Jahonda innovatsion texnologiyalarga asoslangan “yashil energetika” sohasini rivojlantirishga harakat qilayotgan davlatlar soni oshib bormoqda. Jumladan, 2008-yilda 79 tani tashkil qilgan bo‘lsa 2024 yilga kelib 200 ga yaqin mamlakat elektrenergiya ishlab chiqarishda to‘liq muqobil energiyadan foydalanishni maqsad qilib olishgan.

Enerdata [6] ning bergan ma’lumotlariga asosan, 2023 yilda Norvegiya, Braziliya, Yangi Zelandiya,

Daniya kabi mamlakatlarda elektrenergiya ishlab chiqarishda muqobil energiyamanbalarining ulushi 80%dan yuqori bo‘lgan (1-rasm). Indoneziya, Egept, Tayvan, Janubiy Koreada quyosh va shamol stansiyalari yordamida ishlab chiqarilgan elektrenergiya ulushi biroz past darajada. (2-rasm). 2023 yil davomida O‘zbekiston Respublikasida bu ko‘rsatkich 7,7%ni tashkil etdi.



1-rasm. Elektrenergiya ishlab chiqarish bo‘yicha muqobil energiyaning ulushi yuqori bo‘lgan davlatlar, 2023 y [10]



2-rasm. Elektrenergiya ishlab chiqarish bo‘yicha muqobil energiyaning ulushi pastroq

bo‘lgan davlatlar, 2023 y [10]

Yevropalik mutaxassislarning olib borgan tadqiqotlari va hisob-kitoblariga qaraganda, O‘zbekistonda bir yil mobaynida yillik iste’mol miqdoridan 40 marotaba ko‘p elektrenergiya ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo‘lib va zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga keng miqyosda joriy etish orqali 2030 yilga qadar mamlakat yalpi ichki mahsulotining energiya sig‘imkorligini ikki baravarga kamaytirish mumkin [9].

O‘zbekiston Respublikasida qayta tiklanadigan energetikani yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining maqsadli ko‘rsatkichlari [10]

(MVt)

№	Ko‘rsatkichlar	Joriy qilinadigan energiya quvvatlari (prognoz)			
		2019 y.	2020 y.	2021 y.	2025 y.
	Jami	**1 159,7**	**2 991,5**	**5 222,5**	**7 401,9**
	jumladan:				
1.	**An’anaviy energetika**	**802,0**	**2 409,0**	**4 218,6**	**5 406,0**
2.	**Tiklanadigan energetika**	**357,7**	**582,5**	**1 003,9**	**1 995,9**
	shundan:				
2.1.	Gidroenergetika	157,7	382,5	601,9	1 243,9
2.2.	Quyosh energetikasi	200,0	200,0	300,0	450,0
2.3.	Shamol energetikasi			102,0	302,0

Qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish bo‘yicha investisiya loyihalarining ro‘yxatiga ko‘ra 2017-2025 yillarda umumiy qiymati 5,3mlrd. dollar bo‘lgan 810 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion texnologiyalar asosida tabiiy resurslardan samarali foydalanish jarayonida O‘zbekiston xalqaro hamkorlikni kengaytirib bormoqda. Jumladan, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlari O‘zbekistonga qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha qator grant va kredit mablag‘lari ajratmoqda. Ushbu mablag‘lar hisobiga O‘zbekistonning energiya infratuzilmasini yangilash va tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish ishlari olib borilmoqda.

Xulosa. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish O‘zbekiston uchun istiqboldagi iqtisodiy rivojlanishning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, davlatimizda yashil iqtisodiyotga o‘tishda qayta tiklanadigan energiya manbalariga e’tibor qaratilmoqda, xususan, quyosh va shamol energetikasida yuqori salohiyat mavjud. Shu qatorda, energiya manbalarini tejashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirib, yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4477-son “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasi-ning “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26-maydagi PQ-3012-son “2017 — 2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida” gi qarori.

5.O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi hisobotlari, 2023-yil.2. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) hisobotlari, 2022-yil.

6.Enerdata – xalqaro darajada sanoatning energetika tarmoqlarida tadqiqotlar olib borish bilan shug‘ullanadigan mustaqil axborot-konsalting kompaniyasi.

7.R.X.Ergashev. Innovatsion iqtisodiyot. Darslik/ R.X.Ergashev. – Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 2023. –358 bet.

8.R.X.Ergashev, S.N.Xamrayeva Raqamli Iqtisodiyot - (Darslik),- T.:, 2021. – 475 B.

9.Enerdata – xalqaro darajada sanoatning energetika tarmoqlarida tadqiqotlar olib borish bilan shug‘ullanadigan mustaqil axborot-konsalting kompaniyasi.

10.https://yearbook.enerdata.net/renewables/renewable-in-electricity-production-share.html

11.www.energycharter.org

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

Собиров Сардорбек Илхом угли
Студент факультета «Управление в производстве»,
Ферганский политехнический институт,
E-mail: sobirovs0604@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14198210

Исмоилжонов Восижон Жамшид угли,
Студент факультета «Управление в производстве»,
Ферганский политехнический институт,
E-mail: abduvasid710@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14198210

Курпаяниди Константин Иванович,
Профессор, Ферганский политехнический институт,
Международный институт пищевых технологий и инженерии
E-mail: antinari@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14198210

Аннотация. *В статье рассматривается роль цифровых технологий в формировании инновационной экономики Узбекистана. Описаны ключевые инициативы, направленные на цифровизацию различных секторов, таких как государственное управление, образование, здравоохранение и сельское хозяйство, а также программа «Цифровой Узбекистан – 2030», нацеленная на создание условий для инновационного роста и повышения уровня занятости. Приведены цели стратегии развития искусственного интеллекта, включая внедрение цифровых решений и поддержку ИТ-сектора. В статье также выделяется значимость портала открытых данных Ташкента как инструмента повышения прозрачности и вовлечения граждан в принятие решений. Подчеркивается важность развития цифровой инфраструктуры и телекоммуникаций для ускорения экономического роста и улучшения качества жизни населения.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, инновации, Узбекистан, цифровые технологии, искусственный интеллект, стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030», открытые данные, ИТ-сектор, телекоммуникации, электронное правительство.*

Введение.

Сегодня основной тенденцией в мировой экономике является активное развитие цифровых технологий. Все больше стран понимают эти изменения и уделяют особое внимание этим вопросам. Они принимают стратегии развития, направленные на комплексную цифровизацию государственных, общественных, хозяйственных и финансовых процессов. В нашем государстве так же принимаются комплексные меры по ускорению процессов цифровизации экономики и массовому внедрению современных информационных и коммуникативных технологий во всех отраслях и секторах, прежде всего, в государственном управлении, образовании, здравоохранении и сельском хозяйстве. В инновационной экономике применяются технологии и знания, способствующие разработке новых товаров и услуг, а также улучшению имеющихся процессов и моделей.

Узбекистан, обладая экономическими преимуществами благодаря своему территориальному и стратегическому положению, активно работает над обеспечением устойчивого экономического роста и диверсификацией, включая развитие цифровых и

новых отраслей. Государство рассматривает цифровизацию как средство повышения производительности, эффективности и прозрачности во всех секторах экономики и управления. Осознав важность цифровых изменений, Узбекистан инициировал обширные программы и стратегии для интеграции передовых цифровых технологий в различных сферах. Одной из ключевых инициатив стала программа «Цифровой Узбекистан – 2030», цель которой заключается в создании условий для инновационного экономического развития через улучшение занятости, поддержку стартапов, внедрение цифровых решений и обеспечение возможностей для обучения и подготовки квалифицированных кадров.

Методы.

В 2020 году по Указу Президента Республики Узбекистан была принята стратегия «Цифровой Узбекистан-2030», которая предусматривает инновационное развитие информационно-телекоммуникационных технологий в стране. [1]

Чтобы стать одним из ведущих государств мира в области использования искусственного интеллекта Узбекистану необходимо создать благоприятные условия для развития технологий искусственного интеллекта в социальной сфере и отраслевой экономике 14.10.2024 г. было принято постановление президента «Об утверждении Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года».[2]

Постановление Президента Республики Узбекистан от 4 марта 2024 года № ПП-109 «О приоритетных мерах по реализации в 2024 году реформы по основным направлениям экономики» было принято с целью обеспечить основные процессы построения фундамента рыночной экономики в 2024 году и обеспечение достойного уровня жизни населения путем проведения мероприятий, экономика выйдет на совершенно новый качественный уровень в 2025 году и достигнет целей в переходе страны с доходом выше среднего в 2030 году.

Цели развития технологий искусственного интеллекта, которые необходимо достичь до 2030 года, включают:

- довести объем продуктов и услуг на основе искусственного интеллекта до 1,5 млрд долларов США;
- доведение доли услуг, предоставляемых на едином портале интерактивных государственных услуг (mygov.uz) на основе искусственного интеллекта, до 10 процентов;
- увеличение количества научных лабораторий, занимающихся искусственным интеллектом, до 10 штук, а также запуск высокопроизводительных вычислительных серверов;
- необходимо достичь вхождения Республики Узбекистан в топ-50 государств в Индексе готовности правительства к искусственному интеллекту (Government AI Readiness Index);

Результаты.

В настоящее время начато около 220 приоритетных проектов, которые направлены на улучшение системы управления правительством, расширение отечественного рынка программных продуктов и информационных технологий, создание ИТ- парков во всех регионах страны и обеспечение квалифицированных кадров в этой области. Кроме того, реализуется комплексная программа «Цифровой Ташкент», которая включает возможности для предпринимательства и инноваций, создание информационной системы управления общественным транспортом и коммунальной инфраструктурой, запуск портала, интегрированного с более чем 40 информационными системами, а также цифровизацию

социальной сферы с последующим распространением этого опыта на другие регионы. Портал открытых данных Ташкента представляет собой данные всех организаций и городских управлений. В рамках инициативы портал «Открытое правительство» предоставляет информацию. Исследователи, ученые и студенты могут анализировать данные. Разработчики могут создавать приложения, в том числе геоинформационные системы, с использованием открытых данных. Блогеры и гражданские активисты могут использовать опубликованные материалы для продвижения своих идей.[3]

Целью создания этого портала является:

- Упростить доступ к открытым данным
- Облегчить аналитику и исследования жителей
- Сделать работу хокимията прозрачной
- Повысить эффективность администрации города

Портал открытых данных Ташкента представляет собой важный инструмент для повышения прозрачности и доступности информации о деятельности правительства и не государственных учреждений. Он способствует участию граждан в процессе принятия решений, улучшает качество услуг и способствует развитию бизнес-среды. Публикация открытых данных позволяет исследователям, предпринимателям и обществу в целом анализировать информацию, что может привести к более эффективному управлению городом. В целом, портал открытых данных Ташкента является значимым шагом к цифровизации и транспарентности государственной информации.

Развитие цифровой экономики невозможно спрогнозировать без создания современной телекоммуникационной отрасли. В Узбекистане все социальные объекты имеют высокоскоростное подключение к Интернету, в том числе 10,3 тысячи школ и 6,5 тысяч дошкольных учреждений. Кроме того, почти 5,6 тысяч опорных пунктов милиции, 9,4 тысячи мест сходов гражданских или махаллинских комитетов и 4 тысячи организаций здравоохранения такого уровня интернета. модернизация и развитие современных телекоммуникаций с помощью повышения качества предоставляемых услуг. На данный момент установлено 800 тысяч портов широкополосного доступа в Интернет, что приводит к общему количеству 2,8 миллиона провайдеров. Помимо этого, проложено 11 000 км оптоволоконных линий связи, и ведется работа по их распространению. Модернизация и развитие современных телекоммуникаций с помощью повышения качества предоставляемых услуг. На данный момент установлено 800 тысяч портов широкополосного доступа в Интернет, что приводит к общему количеству 2,8 миллиона провайдеров. Помимо этого, проложено 11 000 км оптоволоконных линий связи, и ведется работа по их распространению. Помимо развития проводного широкополосного интернета, в республике проводятся работы по постоянной мобильной связи. Только в этом году было введено в канал мобильной связи 2933. Более трех тысяч были модернизированы для поддержки 4G. Мобильный охват рабочей силы достиг 97 процентов, в том числе 84 процента конкурентной связи. Пропускная способность магистральных сетей связи республики увеличена до 600 Гбит/с между регионами и 60 Гбит/с между районами. В течение 2023 года было установлено более 5,3 миллиона портов широкополосного доступа в интернет (ШПД) для предоставления услуг.

Цифровая экономика затрагивает не только экономические аспекты, но и другие важные аспекты общественной жизни. Таким образом, наиболее важным направлением

цифровой реформы является модернизация системы «электронного правительства». Когда гражданам предоставляются качественные электронные государственные услуги, они действительно понимают ценность цифровых технологий.

Сегодня узбекистанцы через Единый портал интерактивных государственных услуг (my.gov.uz) могут воспользоваться более чем 200 видами госуслуг в удобной интерактивной форме. Планируется довести количество услуг на Едином портале до 700, до конца года за счет добавления еще 130 новых. Сообщается, что только за счет этого в среднем можно сэкономить более 70 миллиардов сумов в год для граждан и предпринимателей.

В рейтинге Индекса готовности правительства к искусственному интеллекту (Government AI Readiness Index) наша республика занимает 87 место, с процентом готовности к внедрению ИИ 43.79. В сравнении со странами Центральной Азии Узбекистан уступает только Казахстану, который расположен на 72 месте с процентом 48.56%. В тоже время как остальные страны находятся намного ниже, Таджикистан 111, Киргизстан 131, Туркменистан 148. [5]

Казахстан добился таких высоких результатов в рамках Средней Азии благодаря грамотной цифровой политике под названием «Цифровой Казахстан», которая бала принята на срок осуществления с 2018-2022 года. Целями государственной программы "Цифровой Казахстан" (далее – Программа) являются ускорение темпов развития экономики Республики Казахстан и улучшение качества жизни населения за счет использования цифровых технологий в среднесрочной перспективе, а также создание условий для перехода экономики Казахстана на принципиально новую траекторию развития, обеспечивающую создание цифровой экономики будущего в долгосрочной перспективе.

Основные направления реализации программы:

- Развитие электронной торговли.
- Развитие финансовых технологий и безналичных платежей.
- Цифровизация внутренней деятельности государственных органов.
- Расширение покрытия сетью интернета.
- Повышение цифровой грамотности населения.
- Поддержка площадок инновационного развития.

Реализация данных задач послужило катализатором развития цифровизации и подготовке соседней республики к внедрению искусственного интеллекта. На сегодняшний момент 92% государственных услуг доступны онлайн.[6]

В 57-й цели Стратегии «Узбекистан — 2030» преодолеть шаги, которые должны быть предприняты для перехода страны в региональный «IT-HUB» с помощью развития цифровых технологий. В частности, объем экспорта программных продуктов и ИТ-услуг достиг пяти миллиардов долларов. Чтобы добиться этого, были приняты меры по созданию региональной международной информационной технологии и венчурного рынка, поощрению экспортных возможностей местных предприятий в соответствии с принципом «от местного к глобальному» и открытию представительств международных компаний в стране.

Несмотря на то, что цифровизация и интеграция искусственного интеллекта (ИИ) предоставляют большое количество возможностей, они также сталкиваются с рядом проблем и опасностей. Некоторые из самых важных:

- Потеря работы и экономический кризис Автоматизация и искусственный интеллект могут заменить некоторые рабочие места, особенно в сфере обработки и производства. Это может привести к безработице на непопулярных или автоматизированных рабочих местах. Хотя работодатели могут использовать ИИ для увеличения прибыли, выгоды могут неравномерно регрессировать, что может привести к сокращению разрыва между экономическими и техническими классами.
- Поскольку цифровизация требует сбора и обработки количества цифровых данных, конфиденциальность пользователей становится угрозой. ИИ может прогнозировать и управлять поведением людей с помощью данных, что может допускать недобросовестному маркетингу или даже политическому манипулированию.
- Кибератаки, ориентированные на ИИ-системы, продолжаются по мере развития цифровых технологий. ИИ может быть использован злоумышленниками для автоматических атак, создания фальшивых данных и взлома систем. ИИИ также может быть атакован воздействием данных или манипуляций алгоритмами. Это может привести к неправильным прогнозам и сбоям в функционировании системы.
- Алгоритмы могут перенимать предвзятости, содержащиеся в данных, что приводит к дискриминации по признакам расы, пола и другим характеристикам. Вопрос о том, кто несёт ответственность за решения, принятые ИИ, до сих пор остается не до конца урегулированным, особенно если речь идёт о юридических последствиях.

Большинство людей стали более тревожными и недовольными цифровизацией и технологиями, такими как искусственный интеллект и роботизация. Цифровизация экономики приводит к возникновению конкурентной среды у некоторых высокотехнологичных компаний в сфере услуг, таких как интернет-магазины, компании по информационным технологиям и провайдеры связи. Традиционные секторы сталкиваются с новыми проблемами, такими как переоценка, диверсификация и изменение бизнес-стратегий в результате цифровизации и развития экономики.

Обсуждение.

Научные исследования, информационные технологии, стартапы и компьютерная грамотность привлекают всеобщее внимание. Наука и инновации — это средства экономического прогресса. В наши дни без современных технологий будущее невозможно представить в любой области. Информационно-технологические парки, специализированные школы, технологические центры и стартап-проекты, которые начинают свою деятельность в регионах, способствуют развитию благосостояния населения и развития национальной экономики.

Создание благоприятных условий и предоставление предпринимателям ряда преимуществ. В настоящее время IT-компаниям бесплатно попадают пустующие здания и помещения, чтобы создать дополнительные условия для развития отрасли. Срок аренды не может превышать года. Одаренные программисты могут получить компьютеры, аксессуары, другие инструменты и оборудование бесплатно в течение года. После этого им будет предоставлено три месяца на выкуп оборудования без процентов. За первый год работы государство возместит IT -компаниям до пятнадцати процентов затрат на зарплатный кадровый фонд. Расчеты показывают, что создание возможностей позволит вдвое увеличить объем информационно-технологических услуг.

Стратегия «Узбекистан — 2030» ставит целью увеличить количество экспортирующих резидентов до 200, количество компаний с привлечением зарубежного капитала до 30, увеличить объем услуг компьютерного программирования и аутсорсинга на 10 трлн сумов и увеличить экспорт до 800 млн долларов.

Основная цель принятия Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» состоит в том, чтобы создать правовую основу для перехода к цифровой экономике. Помимо этого, необходимо продолжать совершенствовать законы; это может включать внесение изменений и дополнений или создание новых правил, адаптированных к потребностям цифровой экономики.

Стратегия должна улучшить качество жизни населения и ускорить рост экономики страны. Кроме того, она должна создать условия для перехода экономики к цифровому будущему, которое является совершенно новой траекторией. В результате цифровых трансформаций произойдут технологические изменения, которые повышают конкурентоспособность экономики, уровень жизни населения и эффективность медицинского обслуживания.

Реализация стратегии приведет к предоставлению высококачественных цифровых услуг, снижению коррупции и повышению прозрачности населения в процессах принятия государственных решений. Это также приводит к развитию системы высшего и среднего образования, призванной обеспечить конкурентоспособность и востребованность учащихся на зарубежных рынках и за пределами рынка труда.

Цифровизация может привести к росту масштабов в таких областях, как здравоохранение, образование, охрана окружающей среды, развитие социальной активности и участие населения в управлении обществом. Тем не менее, люди боятся дальнейшего роста безработицы, ухудшения материальных условий жизни, потери доверия к обществу из-за перехода в первый мир и закрытия в Интернете.

Цифровые технологии упрощают медицинские процедуры и улучшают доступ к ним. Например, платформы для телемедицины, такие как координатор Philips eCare, помогают пациентам удаленно отслеживать состояние их здоровья и снижать скорость госпитализации. Сокращая ненужные поездки и использование ресурсов в больницах, это делает систему более экологически чистой и удобной для пациентов.

Цифровизация расширяет доступ к образованию с помощью онлайн-курсов, вебинаров и интерактивных платформ для обучения. Примером может послужить инициатива ООН по поддержке развития, которая использует цифровые технологии для устранения разрывов и обеспечения обучения обучающихся в отдаленных и труднодоступных регионах.

Цифровизация также повышает точность идентификации и анализа экосистем. Снижение вредного воздействия на окружающую среду за счет использования «умных» технологий для управления деятельностью и загрязнений. Например, мониторинг загрязнения воздуха и воды с помощью датчиков и платформ позволяет принимать более эффективные решения для снижения уровня загрязнения.

Заключение.

Благодаря повышению производительности, конкурентоспособности и устойчивости цифровые технологии играют ключевую роль в построении инновационной экономики. Ускоренная автоматизация, оптимизация и анализ данных открывают новые

возможности для бизнеса и общества. Использование технологий, таких как электронные устройства, интернет- вещи, искусственный интеллект и большие объемы данных, определение глобальных тенденций, создание новых рынков и бизнес-моделей. В то же время цифровая трансформация требует от государств и общества быть гибкими и способными адаптироваться к меняющимся условиям. Устойчивое развитие цифровых технологий требует поддержки инновационных проектов, развития цифровых технологий и обучения кадров. Следовательно, внедрение цифровых технологий в условиях чрезвычайной ситуации приводит к созданию более экологически чистой и инновационной среды, которая способствует развитию такого масштаба, что обеспечивает качество жизни.

Список использованной литературы:

1. Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации. Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 Источник: https://lex.uz/docs/5031048

2. Об утверждении Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 14.10.2024 г. № ПП-358. Источник: https://lex.uz/ru/docs/7158606

3. Портал открытых данных Ташкента. Источник: https://opendata.tashkent.uz

4. О Стратегии «Узбекистан – 2030». Указ Президента Республики Узбекистан, от 11.09.2023 г. № УП-158 Источник: https://lex.uz/ru/docs/6600404

5. Government AI Readiness Index. Источник: https://oxfordinsights.com/ai-readiness/ai-readiness-index/

6. Об утверждении Государственной программы "Цифровой Казахстан". Постановление Правительства Республики Казахстан от 12 декабря 2017 года № 827. Источник: https://adilet.zan.kz/rus/docs/P1700000827

BOJXONA ORGANLARIDA XAVFNI BOSHQARISH TIZIMINING BUGUNGI KUNDA TUTGAN O‘RNI VA UNING AHAMIYATI

Farxodov Farrux Furqatovich
Bojxona instituti Bojxona tartibga solinishi va bojxona to‘lovlari kafedrasi o‘qituvchisi
email: farrux.farxodov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14198227

Sherboboyev Damir O‘ktam o‘g‘li
Bojxona instituti 4-kurs
BI-221-guruh kursanti.
email:sherboboyevdamir2@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14198227

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimini bugungi kunda tutgan o‘rni va xavfni boshqarish tizimini xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish yuzasidan takliflar berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xavf, xavfni boshqarish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari, xavfni boshqarish tizimi, bojxona, xavflarni aniqlash, bojxona nazorati.*

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda tashqi savdo hajmining ortishi sharoitda bojxona organlarining samaradorligini ta’minlagan holda davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bojxona organlaridagi xavfni boshqarish tizimini, davlatlarning xavfsizligi va iqtisodiy farovonligini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Mamlakatlarning bojxona tizimini quyidagi 3 ta asosiy mezon orqali baholanadi:

1. Xalqaro standartlarga javob beradigan Bojxona kodeksining mavjudligi;
2. Uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning qabul qilinganligi;
3. Xavfni boshqarish tizimining mavjudligi.

Xavflarni boshqarishning tashkiliy masalalari nafaqat ichki nazorat bilan bog‘liq, balki, u strategiya, tizimli boshqaruv, manfaatdor tomonlar bilan aloqa, xavflarni boshqarish tamoyillari, xavflarni tasniflash hamda mavjud jarayonlarga xos bo‘lgan xavflarni minimallashtirishdir.

Kioto konvensiyasi bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimini qo‘llanilishining dastlabki poydevorlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Xavfni boshqarish tizimini joriy etish Bojxona protseduralarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi Kioto konvensiyasiga qo‘shilish shartlaridan biridir. Shu bilan birga, Bojxona protseduralarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi Kioto konvensiyasiga qo‘shilish esa Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishning shartlaridan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bojxona sohasida xavf tushunchasi va xavfni boshqarish bo‘yicha ko‘plab olimlar tadqiqot olib borgan. Xususan Thomas Cantens – Jahon Bojxona Tashkiloti (WCO) doirasida olib borgan tadqiqotlarida xavfni bojxona nazorati jarayonidagi noma’lum yoki nazorat qilinmagan tahdidlar sifatida belgilaydi[5]. U xavfni boshqarishda big data va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkinligini aytadi. Uning tadqiqotlari bojxona xavflarini prognoz qilish va profiling orqali kamaytirish masalalariga bag‘ishlangan. Margarita Tisliakova olima bojxonadagi xavfni nazorat qilish tizimini kuchaytirish uchun xavfni aniqlash va baholashning yangi usullarini o‘rganadi. U xavfni noqonuniy faoliyatlarning paydo bo‘lishiga olib keluvchi omillar bilan bog‘laydi va bojxona tizimlarini xalqaro qoidalarga moslashtirishning ahamiyatini ta’kidlaydi[6]. Rus olimi S.Bogoyavlenskiy xavflarni ularning vujudga kelish sohasi bo‘yicha 4 ta ya’ni tabiiy xavflar, inson faktori bilan bog‘liq xavflar, texnik xavflar va ijtimoiy-iqtisodiy xavflar bo’yicha shakllanishini aytib o’tgan[4].

NATIJA VA TAHLIL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-son Farmoni[1] bilan Bojxona qo‘mitasiga tovarlarning bojxona nazoratini tanlov asosida o‘tkazishni nazarda tutuvchi xavfni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish topshirig‘i berildi.

Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan bojxona qonunchiligiga rioya etishlari, insofli tadbirkorlarni rag‘batlantirish va mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrda “Bojxona ma’murchiligini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5582-son Farmoni[2] qabul qilinib, xavfni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimida 2018-yil 1-dekabrdan boshlab “sariq” va “qizil” yo‘laklar, 2019-yil 1-martdan boshlab esa “yashil” va “ko‘k” yo‘laklar joriy etildi.

Xavfni boshqarish tizimining joriy qilishdan maqsad quyidagilardan iborat:

-Bojxona organlarining vakolatlari doirasida davlat xavfsizligini, insonning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ta’minlash;

-Yuqori xavfga ega bo‘lgan sohalarga e’tiborni jamlash va bojxona organlari tasarrufidagi mavjud resurslardan samarali foydalanilishini ta’minlash;

-Tovarlar bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotganda bojxona operatsiyalarining o‘tkazilishini tezlashtirishdan iborat.

Shu bilan bir qatorda, bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimi joriy qilingandan keyin tadbirkorga quyidagi afazalliklarni beradi:

-Eng avvalo, ushbu tizim tashqi savdo aylanmasining oshishiga va xalqaro savdoning rivojlanishiga xizmat qiladi;

-Tashqi iqtisodiy faoliyatning (TIF) halol ishtirokchilarini rag‘batlantirish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish imkonini beradi;

-Bojxona nazorati va rasmiylashtiruviga sarflanadigan vaqt sezilarli ravishda qisqaradi;

-TIF qatnashchisiga individual baho berish va ularning halolligiga qarab saralash, bir-biridan farqlash imkoni tug‘iladi;

-TIF qatnashchilariga bojxona ko‘rigidan yengillik yaratiladi;

-TIF qatnashchilarining tovarlari aylanmasi davri qisqaradi.

Xavfni boshqarish tizimi bosqichma bosqich chegara bojxona postlarida ham amaliyotga tatbiq etildi jumladan, 2020-yil avtomobil chegara bojxona postlarida, 2021-yildan avia va temir yo‘l chegara bojxona postlarida joriy etildi.

Tizim ko‘magida tovarlarni bojxona ko‘rigisiz rasmiylashtirish amaliyoti joriy etildi. Xususan, tizim joriy etilishiga qadar barcha tovarlar bojxona ko‘rigidan o‘tkazilar edi. Ushbu tizim joriy etilishidan oldin 2018-yil ko‘rik samaradorligi 0,1%ni tashkil qilgan bo‘lsa tizim joriy etilganidan keyin 2024-yil 5,4%ni tashkil qildi.

Mazkur tizim joriy etilishga qadar barcha TIF ishtirokchilariga bojxona organlari tomonidan bir xil baho berilgan bo‘lsa, hozirda TIF ishtirokchilarini toifalash orqali halollik darajasi bo‘yicha baholanadi.

Shuningdek, rasmiylashtirilgan deklaratsiyalardan 76% tovarlar soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirildi.

Xavfni boshqarish avtomatlashtirilgan axborot tizimidan samarali foydalanilishi, xavflarni minimallashtirish choralari qo‘llanilishi natijasida davlat byudjetiga qo‘shimcha bojxona to‘lovlari undirildi va bojxona qoida buzilishlarini oldi olindi.

Bojxona sohasida yuqori samaradorlikka erishgan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, ushbu davlatlarda axborot almashinuv tizimlari keng joriy etilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. AQSH tajribasida ko‘radigan bo‘lsak, bugungi kunda barcha jarayonlar to‘liq elektron ma’lumot almashish asosida qurilgan bo‘lib, barcha yirik portlarda xavfni boshqarish tizimi asosida tanlab olish va xavflarni analiz qilish orqali bojxona nazorati amalga oshiriladi. Kirib keladigan yuklarning qariyb 98 foizi bojxona ko‘rigisiz dasturning mantiqiy nazorati ostida realizatsiyaga ruxsat beriladi.

AQSHning bojxona va chegara xavfsizligi tomonidan xavfni boshqarishni qo‘llashga mo‘ljallangan quyidagi turli dasturlar ishlab chiqilgan va amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etilgan:

- Terrorizmga qarshi kurashish yuzasidan savdo jamiyati bilan hamkorlik dasturi (S-TRAT);
- Konteynerda tashish xavfsizligi dasturi;
- 24 soat qoidasi;
- SENTRI (the Secure Electronic Network for Travelers Rapid Inspection – Safarlarni tezkor tekshirish uchun xavfsiz elektron tarmoq) dasturi.

SENTRI dasturi jismoniy shaxs haqidagi ma’lumotlar oldindan taqdim etilishini va ushbu ma’lumotlar bojxona va chegara xavfsizligi tomonidan tekshirilishini nazarda tutadi. So‘ngra beriladigan ro‘yxatga olish kartachasidan yuz tuzilishini tezlashtirilgan holda identifikatsiya qilish uchun foydalaniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xavfni boshqarish tizimining joriy etilishi mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash va insofli tadbirkorlarni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining faoliyatini yaxshilaydi va bojxona qonunchiligiga rioya qilishni oshiradi. Bu, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Shuning uchun, bojxona organlari xavfni boshqarish tizimini yanada

takomillashtirishga e’tibor qaratishi lozim. Bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimini xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rgangan holda rivojlantirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar beriladi:

- chegara bojxona postlari orqali harakat qilayotgan jismoniy shaxslar haqidagi ma’lumotlarni oldindan taqdim etish tizimini joriy etish;
- hududiy boshqarmnalarda ham targetlash bo‘limlarini ochib yo‘laklarni belgilashda target hudud ulushini oshirish;
- xavfni boshqarish tizimida amalga oshirayotgan ishlarini KPI tizimida inobatga olish va yuqari natijaga erishgan xodimlarni rag‘batlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalari harakatini tezkor tartibga solishning optimal usuli xavfni boshqarish tizimi hisoblanadi. xavfni boshqarish tizimi tadbirkorlik subyektlariga bir qator yengilliklar yaratadi. Xususan, ularning ortiqcha sarf-xarajati va vaqti tejalishiga, tovar va transport vositalarini “yalpi” nazoratdan o‘tkazishdan voz kechishga, hamda insofli tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini rag‘batlantirishga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi «Bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5582-son Farmoni.
3. DBQning 2018-yil 18-iyuldagi 469-sonli buyrug‘i, 3/3-son Hay’at qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarining Xavfni boshqarish tizimi konsepsiyasi”.
4. M.Xamrayev, X.Ro‘zmetov, A.Nazarov. Xavfni boshqarish tizimi: Darslik. - Toshkent: BI, 2021 y. – 263 b.
5. World customs journal, article, Kunio Mikuriya and Thomas Cantens.
6. Global Trade and Customs Journal, article, Margarita Tisliakova.

IMPROVEMENT OF AUDITING ACTIVITIES BY COMBINING THEORY, METHODOLOGY AND TECHNOLOGIES

Barakayev Otabek Otakulovich,
PhD, associate professor, independent researcher of
Tashkent State University of Economics
Email: otabekbaraka@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14198263

ABSTRACT. This article examines how the integration of theory, methodology, and technology can change auditing practice and improve audit quality. It shows how they improve the quality and effectiveness of joint audits. The interaction between theoretical frameworks, methodological approaches and advanced technologies leads to more effective risk assessment and decision-making in audit practice. Also, as a result of the development of corporate accountability in global practice, the role of the audit has fundamentally changed, and it has shown the need to implement the "audit trinity" that increases the reliability of financial reports, including external and internal audit, audit committee.

In the context of globalization, rapid development and liberalization of the economy in Uzbekistan, acceleration of integration into the world financial market, further development of the capital market and the digital economy, and the introduction of modern corporate governance principles are among the most important priorities. The scientific significance of the research results in this article is explained by the fact that the theoretical and organizational-methodical aspects of the improvement of the audit by combining theory, methodology and technologies serve to carry out scientific developments aimed at improving the regulatory and legal documents in the field of auditor activity based on the international practical experience.

Key words: audit, theory, methodology, technology, risk, auditors, financial reporting, corporate governance, legislation, standards.

INTRODUCTION

Today, auditing activities are developing with the integration of advanced **theories, methodologies and technological** innovations. As companies grow more complex and global, robust audit processes are essential to ensure financial integrity and transparency. This evolution not only improves audit accuracy, but also builds trust among stakeholders.

Audit activity is based on several theoretical foundations that shape its practice. Agency theory is essential for understanding the relationship between principals such as shareholders and agents such as company managers [9]. This theory suggests the need for auditing to reduce information asymmetry and ensure that agents act in the best interests of principals. By independently evaluating financial statements, an audit helps bridge the gap between these parties and ensures transparency.

Stakeholder theory expands the focus beyond shareholders to include all parties affected by a company's actions. This perspective emphasizes the auditor's responsibility to consider various stakeholders, including employees, customers, and society. In this way, an audit helps to

understand a company's impact and sustainability holistically, aligning financial reporting with broader societal demands.

Institutional theory monitors how external pressures, such as regulatory requirements and industry norms, shape audit processes. This framework emphasizes the importance of consistency and alignment in maintaining audit quality. As regulations evolve, auditors must update their practices to meet new standards so that auditing remains a reliable tool for financial control.

LITERATURE REVIEW AND METHODS

Some aspects of this issue have been solved in the scientific works of foreign scientists A.Arens, M.Beasley, R.Elder [4], Cohen J.R. [9], R.Adams [5], V.P.Suys [10], A.A.Terekhov [17], A.D.Sheremet [19] and others, who conducted research on the improvement of technologies for the scientific-theoretical and methodological support of audit activity.

Scientific-methodical and practical aspects of audit are partially reflected in the scientific works of Uzbek economists K.B.Akhmedjanov [6], A.Z.Avlokulov [7], O.O.Barakaev [8], R.D.Dusmuratov [11], A.K.Ibragimov [12], A.A.Karimov [13], M.M.Tulakhujayeva [18], B.A.Khasanov [15], B.Q.Khamdamov [16].

Audit research methodologies are evolving to adapt to the changing business landscape and emerging challenges. Different methodologies are used to examine different aspects of an audit. Qualitative approaches such as case studies and interviews are useful for exploring complex, contextual issues. These methods allow researchers to understand nuanced dynamics in audit practice, such as auditor-client interactions or the influence of organizational culture on audit outcomes.

Quantitative methodologies provide a systematic approach to examining audit events. Methods such as surveys and experiments allow researchers to analyze models across larger samples and provide generalizable findings that can inform auditing standards. For example, a survey can evaluate the effectiveness of different audit strategies in detecting financial misstatements, and experiments can examine the effects of auditor training programs on performance. Statistical analysis ensures rigor and objectivity in the research process, increases the reliability of findings.

Mixed method studies combining qualitative and quantitative methods are finding their place in audit research. This approach leverages the strengths of both methodologies to provide a comprehensive review of audit issues. By combining qualitative insights with quantitative data, researchers can develop a richer understanding of the complex audit environment. For example, a mixed methods study might begin with qualitative interviews to identify key themes, followed by a quantitative survey to measure their prevalence and importance.

Statistical methods are important in audit analysis and provide auditors with tools to verify financial information. These methods allow auditors to detect anomalies, assess risks, and ensure the accuracy of financial statements. Regression analysis allows auditors to examine relationships between variables and predict potential outcomes. By using regression models, auditors can identify patterns that may indicate unusual financial activity, such as revenue manipulation or expense misclassification.

Sampling is another important statistical method of auditing. Given the impracticality of auditing every transaction, auditors rely on sampling to draw conclusions about the population based on a subset of the data. Techniques such as stratified sampling ensure that selection is helpful

and reduce the risk of bias. By carefully selecting audits, auditors can focus on high-risk areas and increase audit efficiency and effectiveness.

Data analysis tools such as the International Data Encryption Algorithm (IDEA) and the Access Control List (ACL) have revolutionized the use of statistical methods in auditing. These tools automate data processing and analysis, enabling real-time understanding of financial transactions. By using machine learning algorithms, auditors can identify patterns and trends that are not immediately apparent using traditional methods. This increases the auditor’s ability to detect fraud and provides a deeper understanding of the organization's financial position.

DISCUSSION

Behavioral aspects of auditing and effective risk assessment models can be achieved through audit research methodologies. This shapes the interactions and dynamics between auditors and clients. Understanding these aspects provides insight into how audit processes evolve and the factors that influence audit outcomes. Auditor judgments and decisions are influenced by cognitive biases that may affect audit quality. A confirmation bias, for example, can lead auditors to look for evidence that supports their initial view, ignoring conflicting evidence. Training programs aimed at raising awareness of such misconceptions can help mitigate their effects and promote objective audit evaluation.

The auditor-client relationship has a significant impact on audit quality. While strong, collaborative relationships can facilitate communication and access to information, they can also be risky. Too closeness threats can arise when auditors have close relationships with clients, compromising their independence. Implementing a rotation policy for audit teams can reduce these risks by providing fresh perspectives and maintaining professional skepticism.

Effective risk assessment models are important in auditing because companies operate in a complex environment. These models provide systematic approaches for identifying, evaluating, and prioritizing risks that may affect financial statements. The Committee of Sponsoring Organizations (COSO Enterprise Risk Management) system offers a comprehensive method of internal and external risk assessment [8]. This framework encourages auditors to consider a wide range of risk factors, from market volatility to operational disruptions.

Predictive analytics play a role in predicting potential financial anomalies. Using historical data and advanced algorithms, auditors can identify patterns that indicate future risks. This proactive approach allows organizations to address potential issues before they occur. The integration of technology in risk assessment models increases accuracy and enables real-time monitoring of risk factors, providing auditors with timely insights.

RESULTS

Integrating audit theory, methodology and technology through effective risk assessment models leads to an increase in audit quality indicators (AQI). AQI are indicators for evaluating the auditor's performance and the reliability of financial statements [3]. One common AQI is the amount of auditor-client meetings, which indicates the level of identification and understanding of the client's transactions. Regular interactions often lead to deeper investigations that allow for timely problem identification and resolution.

Another important AQI is adherence to professional standards and guidelines. Compliance with established auditing standards, such as those established by the International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB), ensures consistency and reliability in auditing practices [2;

14]. The use of advanced data analytics tools to examine large amounts of financial data serves as an AQI that indicates an auditor's propensity to use technology to improve audit quality. By monitoring these indicators, audit organizations can identify areas for improvement and maintain high standards of practice.

CONCLUSION

Audit theory and methodology are improved by integrating technologies, and an institutional approach to comprehensive auditing is achieved. The integration of technology into audit procedures will transform the industry and increase efficiency and effectiveness. Artificial intelligence (AI) automates routine tasks and allows auditors to focus on complex analyses. AI-based tools quickly process large amounts of data and detect violations that may be missed by mechanical methods. This speeds up the audit process and increases the accuracy of conclusions.

Blockchain technology offers the potential for auditing by providing an immutable balance of transactions that can be easily verified. With blockchain, auditors can trace the origin of financial transactions with transparency, which reduces the risk of fraud. In addition, cloud computing facilitates the storage and analysis of large data sets, allowing auditors to access and analyze data in real time. These technological advances are reshaping the audit landscape, creating opportunities for innovation and improvement.

REFERENCES

1. Law of the Republic of Uzbekistan “On Auditing Activities” dated February 25, 2021, #LRU-677.

2. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated 11.04.2022, # 171 “On approval of the regulation on the procedure for recognition of international auditing standards for use in the territory of the Republic of Uzbekistan”;

3. Decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated September 28, 2022, # 538 “On approval of the regulation on the procedure for external control of the quality of work of the auditing organization”;

4. Arens A., Elder R. & Beasley M. (2012). Auditing and Assurance Services, 14th ed., Prentice-Hall, Englewood Cliffs, NJ.

5. Adams R. Basic auditing. (trans Ya.V. Sokolova). - M.: YUNITI, 2015.-398 p.

6. Akhmedjanov K.B. Improvement of internal audit methodology in economic entities: 08.00.07: DSs.. diss. abstract/ Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan. - T.: 2016. -76 p.;

7. Avlokulov A.Z/ Improving the methodology of accounting and auditing of financial results. Dsc diss. abstract /Tashkent financial institute.-T.: 2019.-72 p.;

8. Barakayev OO Audit in modern corporate management system: theory, methodology and practice: scientific monograph. - T.: 2021, - 288 p.;

9. Cohen JR, Krishnamoorthy G. & Wright AM (2008). Form versus substance: The implications for auditing practice and research of alternative perspectives on corporate governance. Auditing: A Journal of Practice & Theory, 27(2), 181-198. https://doi.org/10.2308/aud.2008.27.2.181

10. Suys VP, Sitnikova VA Audit. - M.: KnoRus, 2012. - p. 87.;

11. Dusmuratov R.D. Fundamentals of Audit. Textbook. - Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan, 2003. - 612 p.;

12. Ibragimov A.K. Improving assessment of financial stability and liquidity of commercial banks based on international standards of auditing. Monograph. - T.: Maliya, 2015. -260 p.;

13. Karimov A.A. Accounting and auditing in the corporate management system. Monograph. - Tashkent: ECONOMY-FINANCE, 2008. - 152 p.;

14. Handbook of International Quality Control, Auditing, Review, Other Assurance, And Related Services Pronunciations, Volume I-III includes the IAASB's, The International Federation of Accountants (IFAC), 2023.

15. Khasanov BA Management theory: theory and methodology: Monograph. - T.: Maliya, 2003. -248 p.;

16. Khamdamov BK Methodological foundations of the development of audit control in the accounting and reporting system of the economy of Uzbekistan: Dis... ifd - T.: 2007. -260 p;

17. Terekhov AA Audit: perspective development. - M.: Finance and statistics, 2001. -560 p.;

18 .Tulakhujayeva M. Audit of the financial situation of the enterprise. - T.: World of Economics and Law, 1996. -193 p.

19. Sheremet AD, Suys V.P. Audit. Textbook. - M.: INFRA-M, 2009 . -4 56 s.

O‘SIMLIKCHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA INNOVATSIYALARNING TA’SIRI

Pirimqulov Jahongir Primqul o‘g‘li
Qarshi Muhandislik iqtisodiyot instituti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi tayanch doktoranti
pirimqulov9210@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14222266

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishloq xo’jaligidagi eng muhim tarmoqlardan biri – o’simlikchilik mahsulotlarini innovatsiyalar orqali yetishtirishda muammo hamda afzalliklari haqida fikr yuritilib, tadqiqot subyektlarining takliflari umumlashtirilgan.*

Annotation*. In this article, one of the most important branches of agriculture - the problems and advantages of growing plant products through innovations, is discussed, and the proposals of the research subjects are summarized.*

Jahon amaliyotida o‘simlikchilik tarmog‘ini innovatsion rivojlantirish aholining oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish bilan bog‘liq bir qator muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda hozirgi kunda “jahon aholisining 735 million nafari toyib ovqatlanmayotganligi, 2022 yilda 2,4 milliard odam yoki dunyo aholisining 29,6 foizi oziq-ovqat mahsulotlaridan barqaror foydalanish imkoniyatiga ega emasligi” [1], shuningdek, dunyo aholisining “2050 yilga borib, 9,7 mlrd. kishiga” [2] yetishi jahon miqyosida har bir odamning ochlikdan ozod bo‘lish uchun asosiy huquqiga jiddiy tahdid solmoqda. Bu esa aholini boqish uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni qariyb 60 foizga oshirishni talab etadi [3]. Ushbu holat jahon aholisining munosib ravishda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash va qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda fan-texnika yutuqlarini amaliyotda keng qo‘llash samarali shakllardan biri bo‘lib, qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatini kengaytiradi. Atrof-muhit hamda iqlim o‘zgarishilarini oldindan aytish qiyin bo‘lganligi sababli, biz o‘simlikchilik mahsulotlarini barqaror yetishtirishda qishloq xo‘jaligi texnologiyasidagi innovatsiyalarga murojaat qilishimiz kerak.

Qishloq xo‘jaligining innovatsion yechimlari kelajakda inson hayotiga qanday ta’sir qilishini ko‘rish uchun biz bir necha o‘n yil kutishimiz shart emas. Aksincha, fermer hamda dehqon xo‘jaliklarining yetishtirish, tashish, saqlash va mahsulotlarini boshqarish usullarini o‘zgartiradigan eng so‘nggi texnologiyalarni amalda ularda tezroq joriy etish orqali iqtisodiyotimiz uchun muhim qadamni tashlashimiz kerak.

Biz bu borada fermer va dehqon xo‘jaliklari o‘rtasida olib borilayotgan tadqiqot ishlarimiz davomida so‘rovnoma o‘tkazdik. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ishtirok etgan jami 560 nafar respondentlardan eng ko‘p ishlab chiqariladigan qishloq xo‘jalik mahsuloti sabzavot bo‘lib bu mahsulotni 41 foiz respondent yetishtiradi, bundan tashqari 38 foizi uzum, 37 foizi paxta, 35 foizi kartoshka, 31 foizi don yetishtirish bilan shug’ullanadi, shuningdek, meva yetishtirish bilan shug’ullanuvchilar 29 foizni, poliz ekinlari 22 foiz, dukkaklilar esa 18 foizni va sitrus mevalarni yetishtiruvchilar 9 foizni tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida shu ma’lum bo‘ldiki, fermer xo‘jaliklarining katta qismi paxta va don mahsulotlari yetishtirish bilan cheklanib qolmoqda. Uzum va kartoshka yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari shu mahsulotlarni yetishtiruvchi dehqon xo‘jalikalaridan 4-11 marta kamligi fermer xo‘jaliklari ixtisosligini paxta va g’alla bilan bir vaqtda boshqa mahsulotlarga o‘zgartirish kerakligini ko‘rsatadi.

So‘rovnomada ishtirok etgan respondentlardan xo‘jalikda o‘simlikchilik mahsulotlarini yetishtirish jarayonida foydalanilgan innovatsiyalar haqidagi savolimizga 26 foiz respondent tomchilatib sug’orish texnologiyasidan foydalanganligini qayd etgan bo‘lsa, yomg’irlatib sug’orish texnologiyasidan 9 foiz fermer va dehqon xo‘jalikalari foydalnib kelmoqda. Ammo ularning ta’kidlashicha bu texnologiyalar suvni iqtisod qilsada o‘z xarajatlarini ko‘p hollarda qoplamaydi. Sababi katta hududlarga tomchilatib yoki yomg’irlatib sug’orish texnologiyasini o‘rnatish ancha katta mablag’ talab qiladi. Bank kreditlari orqali sotib olingan texnologiyalarni oyma oy to‘lab boriladigan foiz summalari ham fermerlarni ancha murakkab ahvolga solib qo‘ymoqda. Bundan tashqari katta hududlarga o‘rnatilgan tomchilatib sug’orish texnologiyasini doimiy nazorat qilib turilmasa, o‘simliklar orasida o‘sadigan begona o‘tlar ko‘payib bu texnologiyani ustida yopib qo‘yadi hamda uni tozalash jarayonida ko‘plab nosozliklar yuzaga kelish ehtimoli yuqori. Hatto ba’zi holatlarda ochiq hududlarda iqlim sharoiti yomon kelganda bu texnologiyalar foyda o‘rniga zarariga ham xizmat qilishi mumkin. Bu texnologiyalar asosan yer maydonlari kichik bo‘lgan dehqon xo‘jaliklari yoki tomorqa xo‘jaliklarida o‘z samarasini berishi

mumkin. Chunki kichik hududlarda texnologiyani o‘rnatish va nazorat qilishga ko‘p mehnat va katta mablag’ talab qilinmaydi, buni hatto bir kishi - yer egasi ham qila oladi. Savolnomada ishtirok etgan fermer va dehqon xo‘jaliklarining 12 foizi asalari texnologiyasi orqali daromadlari ancha oshganini, shuningdek buning uchun katta mablag‘ hamda kuch talab etilmasligini aytib o‘tdilar. Ularning fikricha asalarilar bir vaqtning o‘zida ham ekinlarni changlatib beradi hamda o‘zi uchun asal yig‘adi. Faqatgina ularning inlarini dalaning yoniga qo‘yib kuzatib tursangiz yetarli. Arilar inlaridan chiqib ekinlarni guliga qo‘nadi hamda ularni changlatadi. Changlangan ekinlar hosildorligi ham sezilarli darajada oshadi. Bu texnologiya orqali xo‘jaliklar bir vaqtning o‘zida ikkita mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. So‘rovnomamizning asosiy maqsadi xo‘jaliklarning mahsulot yetishtirishda qay darajada innovatsiyalardan foydalanyotganini aniqlash, shuning ularning bilim darajasini baholash bo‘lib, shu natijalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Respondentlarning 27 foizi mahsulot yetishtirishda hech qanday innovatsiyadan foydalanmaganini faqatgina tajribaga suyanishini aytib o‘tdi. 26 foiz ishtirokchi almashlab ekish texnologiyasi orqali daromadlarining sezilarli darajada oshganini aytib o‘tdilar.

Ekinlarni sug’orishdagi muammolar haqidagi savolimizga 43 foiz ishtirokchi suvdan unumli foydalanish choralari ko’rilmaganligi ya’ni kanal va ariqlarning suv yo’llari talab darajasiga javob bermasligi oqibatida katta miqdorda suvning isrof bo’layotganini aytib o’tishgan bo’lsa, 24 foizi dalalar oqova suv kanallaridan ancha uzoqda joylashgani, shuning uchun suv yetib borishi juda cheklanganligini bundan tashqari suv kam bo’lgan yillarda suv ularga borishining iloji yo’qligini aytdilar. Shuningdek, 19 foiz respondent ekin maydonlarining qiya joylashganligi tufayli suvning bir maromda yetib bormasligini, 14 foizi tabiiy yog’ingarchilik juda kamligini aytishdi.

Xo’jalikda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun qanday agrotexnik tadbirlarni qo’llashi haqidagi savolimizga deyarli barcha ishtirokichi mineral o’g’itlardan foydalinishini, 78 foizi ekinlarni zararli hashorotlardan himoya qilishini, 19 foizi ekin ekishdan oldin yerning ball bonitetini oshirishga harakat qilishini aytib o’tishdi.

Tadqiqot davomida xo‘jalikda mahsulot yetishtirish uchun bir gektar yerga sarflangan yillik xarajatlar va bu xarajatlarning asosiy qismi nimaga sarflanishini ham tahlil qilibganimizda 560 nafar respondentlarning 40 foizi mahsulot yetishtirish uchun bir gektar yerga sarflagan yillik xarajatlari 5-10 mln, 30 foizi 10-15 mln, 18 foizi 2-5 mln, 2 foizi 2 mlngacha, 10 foizi esa 15 mln.dan ko‘proq mablag’ sarflashi aniqlandi hamda bu xarajatlarning asosiy qismi kimyoviy dorilar va agrotexnik tadbirlar uchun sarflanishi ma’lum bo‘ldi.



1-rasm. Xo‘jalikda mahsulot yetishtirish davomida asosiy xarajatlar sarflanishi

Respondentlarning 29 foizi mahsulot yetishtirishda asosiy xarajat kimyoviy dorilar deb hisoblaydi. Agrotexnik tadbirlar uchun esa 24 foiz, urug’lik uchun 18 foiz, sug’orish ishlariga ketadigan xarajatlar 12 foizni, yonilg’i xarajatlari 8 foizni, soliqlar 4 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, ilmiy izlanishlarimiz davomida fermer va dehqon xo‘jaliklarida bir gektar yerdan olinadigan yillik daromad miqdorini ham o‘rganib chiqdik. Tahlillar natijasida shu ma’lum bo‘ldiki, so‘rovnomada ishtirok etgan fermer va dehqon xo‘jaliklarining 33 foizi 15-30 mln. gacha, 37 foizi 7-15 mln. gacha, 22 foizi 1-7 mlngacha va 8 foizi 30-40 mln. daromad qiladi. Demak biz daromad miqdorini yanada oshirish choralarini birinchi galda o‘simlikchilik mahsulotlarini yetishtirish bilan shug’ullanuvchi fermer va dehqon xo‘jaliklarida innovatsiyalarni tadbiq etish orqali erishishimiz mumkin.

Olingan so’rovnoma natijalaridan kelib chiqqan holda Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan fermer hamda dehqon xo’jaliklarining mahsulot yetishtirish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning SWOT tahlilini ishlab chiqdik (1-jadval).

Qashqadaryo viloyatida fermer va dehqon xo’jaliklarining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar SWOT tahlili

<table>
<tr><td></td><td colspan="2">ICHKI OMILLAR</td><td></td></tr>
<tr><td rowspan="2">IJOBIY OMILLAR</td><td>S=Kuchli tomonlar
1. Fermer va dehqon xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun agrar sohada islohotlarning o‘tkazilayotganligi va huquqiy asoslarning yaratilganligi.
2. Kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy iqlim sharoitlarga moslashgan innovatsion qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi navlari joriy etilishi.
3. Yuqori hosildorlikka ega sifatli urug’ hamda ko’chatlarning xorijdan fermer va dehqon xo‘jaliklariga olib kelinishi.
4. Agrar sohada yangi ish o’rinlarining yaratilishi.
5. Mahalliy hamda chet el bozorlarida raqobat muhitining mavjudligi.
6. Mahsulot yetishtirishda innovatsion yechimlar tufayli eksport salohiyatining kengayishi.</td><td>W=Zaif tomonlar
1. Moliyaviy mablag‘lar yetishmasligi daromadning kamligi.
2. Fermer va dehqon xo’jaliklarida moddiy-texnika bazasining talab darajasida emasligi.
3. Texnologik ortda qolish shuningdek, innovatsion yangiliklarni joriy etish va foydalanishning pastligi.
4. Xarajatlar va mahsulot tannarxining yuqoriligi.
5. Mahsulot sifatini saqlash imkoniyatlari pastligi.
6. Xo’jalik rahbarlarining innovatsion mahsulot, g‘oyalarni to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega emasligi.
7. Suvdan oqilona foydalanishni cheklanganligi.
8. Davlat tomonidan ajratilayotgan subsidiyalarning kamligi hamda kredit foizlarining yuqoriligi.</td><td rowspan="2">SALBIY OMILLAR</td></tr>
<tr><td>O=Imkoniyatlar
1. Ishsizlik darajasini kamaytirish.
2. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o’sishi.
3. Ishlab chiqariladigan qishloq xo’jaligi mahsulot turini xilma xilligi.</td><td>T=Tahdidlar
1. Mahsulotlarni innovatsion yetishtirishda tavakkalchilik yuqoriligi.
2. Tabiiy iqlim sharoitlari va ekologik muammolar.</td></tr>
</table>

	4. Innovatsion mahsulot ishlab chiqarish uchun malaka va tajriba almashish imkoniyati mavjudligi. 5. Ishlab chiqargan mahsuloti uchun erkin narxning mavjudligi. 6. Sohaga mahalliy hamda chet el investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatining ko’payotganligi.	3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va moddiy-texnika resurslari narxlarning o‘sishi o‘rtasidagi farqning yuqoriligi. 4. Innovatsion faoliyatni shakllantira oladigan va joriy eta oladigan yuqori malakali kadrlar yetishmasligi. 5. Fermer va dehqon xo’jaliklariga nisbatan olib borilayotgan nobarqaror iqtisodiy siyosat.	
	TASHQI OMILLAR		

Yuqorida keltirilgan SWOT tahlil asosida zaif tomonlarni bartaraf qilish, shuningdek, tahdidlarni kamaytirish uchun biz bir nechta takliflarni keltirib o’tamiz.

Birinchidan, xo’jaliklarda moliyaviy mablag’larning yetishmasligi hamda daromadning kamligini hisobga olib, uni oshirish imkoniyatlarini o’rganib chiqish, unga ko’ra, xo’jaliklarga daromadi kam bo’lgan yil uchun soliq imtiyozlarini berish va shu orqali fermer hamda dehqon xo’jaliklarini qo’llab-quvvatlash.

Ikkinchidan, fermer va dehqon xo’jaliklaridagi moddiy-texnika bazasini yangilash, buning uchun qishloq xo’jaligi texnikalarini olish uchun past foizli hamda uzoq muddatli kreditlar ajratish.

Uchinchidan, innovatsion yangiliklarni joriy etish hamda foydalanish darajasini oshirish. Buning uchun ijtimoiy tarmoqlar, radio, televedeniya orqali qishloq xo’jaligida yaratilayotgan yangi innovatsiya hamda ishlanmalar, yangi navlardan xo’jalik rahbarlarini muntazam xabardor qilish uchun eshittirish hamda ko’rsatuvlar olib borish, shuningdek, xorij tajribalarining eng ilg’or namunalari ko’rgazmasini yilda ikki marta hududlarda tashkil etish va ilg’or yechimlarni sotib olish bo’yicha davlat tomonidan shart-sharoitlar yaratish.

To’rtinchidan, mahsulot sifatini saqlash imkoniyatlarini oshirish, buning uchun ekinlarning ixtisoslashuvi bo’yicha hududlarda muzlatgichlarni qurish hamda past narxlarda ijaraga berish.

Beshinchidan, suvdan foydalanishni oqilona tashkil etish uchun kanalga yaqin hamda kanaldan eng uzoqda bo’lgan xo’jaliklarda suvning bir maromda taqsimlanishini nazorat qilish, isrofgarchilikka yo’l qo’ygan xo’jaliklarni jarimaga tortish, shuningdek, suv tejovchi hamda yomg’irlatib sug’orish texnologiyalarni joriy etishning yangi tizimini ishlab chiqish, bunda suv tejovchi va yomg’irlatib sug’orish texnologiyalar narxlarini barqarorlashtirish va kredit foizlarini xo’jalik daromadlari oshgunga qadar nol foizli stavkada berish. Bundan tashqari Birlashgan Arab Amirligi tajribasiga asosan suniy yomg’ir texnologiyasini suv yetib bormas lalmi yerlar hamda cho’l hududlarida joriy qilish orqali ekinlarning suvga bo’lgan talabini qondirish mumkin. BAA har yili yog'ingarchilikni ko'paytirish bo'yicha sa’y-harakatlari doirasida 300 ga yaqin bulutli ekish missiyalarini amalga oshiradi [4].

Oltinchidan, innovatsion faoliyatni shakllantira oladigan va joriy eta oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, buning uchun OTM lari va ITI lari bilan birgalikda uch tomonlama shartnoma qilish. Shartnomaga asosan buyurtmachi ilmiy tadqiqot bilan shug’ullanuvchi kadrni shartnoma summasini qoplashini nazarda tutish. O’qish tugagandan keyin tayyor kadrni shartnoma qilingan xo’jalikda faoliyat olib borishini yo’lga qo’yish. Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish

orqali fermer va dehqon xo’jaliklarining innovatsion samaradorligi oshirish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish hajmini maksimal darajada oshirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.fao.org/3/cc3017ru/online/cc3017ru.html The state offood security and nutrition in the world 2023

2. https://www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2017/article_0006.html// Глобальный инновационный индекс 2017 г.: в рейтингах лидируют Швейцария, Швеция, Нидерланды, США и Соединенное Королевство.

3. https://www.fao.org/3/i6273r/i6273r.pdf

4. https://whatson.ae/2024/03/. in pics cloud seeding with the uaes flying weather-changers/

MINTAQA IQTISODIYOTINING INNOVATSION SALOHIYATINI BARQARORLASHTIRISHDA YIRIK SANOAT KORXONALARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Savrieva Madina Xakimovna
Navoiy innovatsiyalar universtiteti
“Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari”
kafedrasi iqtisod fan o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi;
savrievamadina@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14187598

Annotatsiya. *Bu maqolada mintaqa iqtisodiyotining innovatsion barqarorligini ta’minlashda aynan sanoat rivojlanishining innovatsion va raqamli transformatsiya metodlarini qo’llash, samaraga erishish mumkinligi hamda innovatsion salohiyat mezonlarini baholash usullari orqali amalga oshirish yoritilgan. Masalan yirik ishlab chiqarish sanoat korxonalarida qo‘llaniladigan kiberfizik tizimlar - bu o‘zaro ta’sir qiluvchi qurilmalar tizimi, ma’lumotlarni uzatish, qayta ishlash va saqlash vositalari. Ular murakkab obyektlarni boshqarish uchun mavjud va kelajakdagi avtomatlashtirish vositalari arxitekturasining asosiy komponenti bo‘lgani bois, Sanoat 4.0 inqilobida qiymat yaratishning asosiy omillarini tashkil qiladi. Baholash natijalari taklif etilayotgan usullarga asosan korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini innovatsion rivojlantirish, korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini ininnovatsion rivojlantirish dinamikasini, modelini, samaradorligini aniqlashga, ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion sezuvchanlik darajasini aniqlashga, shuningdek shunga ko‘ra ham korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini, ham mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini oshirishda innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi.*

Kalit so’zlar: *mintaqa iqtisodiyoti, innovatsion barqarorlik, sanoat rivojlanishi, raqmli transformatsiya, Sanoat 4.0 inqilobi, kiberfizik tizimlar, robototexnik tizimlar, Buyumlar Interneti, biznesni raqamlashtirish indeksi, ishlab chiqarish salohiyatini innovatsion rivojlantirish.*

Kirish. Mintaqada sanoat rivojlanishining strategik yo‘nalishi milliy iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari funksiyalari va tuzilishini o‘zgartiradigan impulslarning shakllanishi va tranzitini belgilaydi [1].

Mintaqa iqtisodiyotini barqarorlashtirishda yirik korxonalarning rolini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Ular yangi ish o‘rinlari yaratadi, soliq tushumlarini ko‘paytiradi, investitsiyalarni jalb qiladi, bu esa mintaqa va milliy iqtisodiyot uchun katta ahamiyatga ega. Bunday yirik monopol korxonalarning faoliyati ijtimoiy muhit va atrof-muhitga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mintaqada joylashgan bunday yirik “drayver” sanoati korxonalarning jihatlarini tushunish barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun juda muhim. Tadqiqot natijalari yirik korporatsiyalar va ularning mintaqaviy rivojlanishdagi roliga oid siyosatni takomillashtirish uchun va baholash maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning “lokomotiv”i hisoblangan sanoat tarmog‘ini yanada rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi uchinchi ustuvor yo‘nalishining “Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish” deb nomlangan bandida:

- yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;
- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish yo’llari berilgan [2].

2018 yil 28-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Parlamentga yo‘llagan Murojaatnomasida ham iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, birinchi navbatda, yetakchi sohalar rivojiga bevosita bog‘liqligi hamda iqtisodiyot rivojiga jiddiy turtki beradigan sohalarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozimligi ta’kidlangan [3].

A.I. Tatarkin [4] mintaqaviy ishlab chiqarish, ya’ni yirik sanoat imkoniyatlariga tayanmagan holda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish mintaqani rivojlantirish mumkin emasligini qayd etadi. Shu bois hududning iqtisodiyotini yuqori sifatli sanoat ishlab chiqarish jarayonini shart-sharoitlarini yaratish uchun hududning yirik sanoat korxonalarining salohiyatini, undan foydalanish darajasini, kengaytirish imkoniyati va zarurligini baholash dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish sanoatning mintaqaning strategik raqobatbardoshligini shakllantirishga munosib hissa qo‘shishiga to‘sqinlik qiladigan muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etuvchi mexanizmlarni ishlab chiqish va qo‘llash, shuningdek, uning rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkonini beradi.

Robototexnik tizimlar, axborot texnologiyalari va sanoat korxonalarining xodimlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, ular real vaqt rejimida o‘zaro ta’sir qiladi, ishlab chiqarishning innovatsion, yanada moslashuvchan usulini yaratadi. Buyumlar Interneti (IoT) va murakkab ma’lumotlar tahlili Sanoat 4.0 inqilobida qiymat yaratishning asosiy omillarini tashkil qiladi [5]. Ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish samaradorlikning sifat jihatidan o‘sishiga,

xarajatlarning pasayishiga olib keladi va korxonalarning raqobatbardoshligini shakllantirishning muhim omillaridan biriga aylanadi.

Metodlar. Tadqiqotda bunday yirik monopol korxonalarning hududiy yalpi mahsulotni shakllantirishga qo‘shgan hissasi, yangi ish o‘rinlari yaratish, ijtimoiy va infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar, shuningdek, uning faoliyatining mintaqadagi ekologik vaziyatga ta’sirini baholash kabi jihatlar ko‘rib chiqilishi kutilmoqda. Soliq imtiyozlari va ularning viloyat byudjetidagi rolini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot iqtisodiy tahlilning kompleks usullaridan, jumladan statistik ma’lumotlarni qayta ishlash, korxona hisobotini tahlil qilish va mintaqaviy iqtisodiy ma’lumotlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ish natijalaridan hududlarni barqaror iqtisodiy rivojlantirish maqsadida yirik korxonalar va hududiy hokimiyat organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni muqobillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Bu tarmoqlarni yanada rivojlantirish davlat va xususiy sektorning faol qo‘llab-quvvatlashini talab qiladi. Qulay sarmoyaviy muhitni yaratish, kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari va grantlar berish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish dasturlarini ishlab chiqish yangi tarmoqlarning o‘sishiga xizmat qiladi. Shuningdek, mintaqaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlash va tashqi iqtisodiy omillarga zaifligini kamaytirish uchun aloqa tarmoqlarini, transport infratuzilmasini va ta’lim tizimini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Korxonaning raqamli transformatsiyaga moslashuv tezligini baholash uchun esa, BDI Business Digitalization Index (Biznesni raqamlashtirish indeksi) ishlatiladi.

U xususiy indekslarga asoslanadi, ya’ni korxonadan foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlar:

- axborotni uzatish va saqlash kanallari (bulutli texnologiyalar, korporativ elektron pochta, messenjerlar, avtomatlashtirish tizimlari va boshqalar);
- sun’iy intellektning raqamli texnologiyalari, narsalar interneti, 3D bosib chiqarish, elektron hujjat aylanishi va boshqalar;
- korxonani rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun Internet vositalari;
- raqamli axborotni himoya qilish dasturlari va viruslarga qarshi dasturlardan foydalanish;
- inson kapitali, xususan, raqamli kompetentsiyalar sohasida o‘z-o‘zini rivojlantirish va xodimlarni rivojlantirishda rahbariyatning ishtiroki darajasi baholanadi.

Tahlil va natijalar. Korxonaning ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion rivojlanish darajasini baholashning ushbu metodologiyasi asos bo‘lgan asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

- qo‘llaniladigan mezonlar va ko‘rsatkichlar amaliy xususiyatga ega bo‘lib, sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyatining hududlarda faoliyat ko‘rsatish natijalarini belgilaydi va dinamikada uning innovatsion rivojlanish jarayonini tavsiflashi mumkin;
- olingan mezonlar va ko‘rsatkichlar natijalarga ta’sir ko‘rsatgan tashqi va ichki muhit omillari bilan taqqoslanadi;
– korxonaning o‘zi ham, axborotdan uchinchi tomon foydalanuvchilari ham (investorlar, hamkorlar, hududiy hokimiyat organlari) olingan mezonlar va ko‘rsatkichlarga qiziqish bildirishlari.

Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida yirik sanoat korxonasining ishlab chiqarish salohiyatining ta’siri hamda innovatsion rivojlanishini baholashning 3 bosqichda amalga oshirish mumkin.

1. Korxona va uning tarkibiy qismlari (quyi tizimlar) ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishning holati va innovatsion xarakterini tavsiflovchi mezon va ko‘rsatkichlar majmuasini shakllantirish.

Ko‘rsatkich qiymatlariga ball berish uchun quyidagi reyting shkalasi taklif etiladi: ko‘rsatkich qiymatining past darajasi - 0 ball, o‘rtacha daraja - 1 ball, yuqori daraja - 2 ball. Hisoblash formulasi (5.,6.,7) orqali aniqlangan ko‘rsatkichlarning qiymatlarini baholash mezonlari ekspertlar bahosi yordamida baholanadigan o‘rtacha sanoat standartlari va tarmoq bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar asosida belgilanadi. Agar ko‘rsatkichni aniqlash qiyin bo‘lsa, u holda tahlil uchun ijobiy ekspert javobi qabul qilinadi, unga ikki ball beriladi yoki salbiy javob nol ball bilan baholanadi.

2. Ishlab chiqarish salohiyatini innovatsion rivojlantirish, ishlab chiqarish salohiyatini innovatsion rivojlantirish samaradorligi darajalarini va ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion sezuvchanlik darajalarini shakllantirish.

Ushbu tadqiqot doirasida innovatsion rivojlanish samaradorligining maksimal darajasi va ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion sezuvchanligi 0,40 dan 0,59 darajada C gacha bo‘lgan innovatsion koeffitsient qiymatlari oralig‘ini hisobga olish kerak.

Jadvalda ishlab chiqarish salohiyatini innovatsion rivojlantirish xususiyatlarining tavsiya etilgan sinflari ko‘rsatilgan (1.2.2-jadval).

1.2.2-jadval

Ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishda innovatsionlik sinflari, uning sezgirligi va innovatsion rivojlanish samaradorligini baholash.

Innovatsion rivojlanish bosqichi	Rivojlanish innovatsion koeffitsientining intervali	Innovatsion rivojlanish samaradorligini baholash	Innovatsion sezuvchanlikning xususiyatlari
1	0,80-1	past	past sezuvchanlik
2	0,60-0,79	o‘rta	sezuvchan
3	0,40-0,59	yuqori	yuqori sezuvchanlik
4	0,20-0,39	past	past sezuvchanlik
5	0-0,19	0 darajali	0 darajali sezuvchanlik

3. Innovatsiya koeffitsientini va ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion rivojlanish sur’atini hisoblash formulalari o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarni hisoblash va baholash imkonini beradi:

Rivojlanishning innovatsion koeffitsienti:

$$RIK = \sum Ki / (\sum Ks + \sum SKi), (1)$$

Bu yerda:

Ks - korxona ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismi (tarkibiy qismlari) faoliyatining holati va samaradorligi ko‘rsatkichi;

Ki - korxona ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismlarini rivojlantirishning innovatsion imkoniyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

Keyingi bosqich - ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion koeffitsienti o‘zgarishini tahlil qilish natijalari asosida korxona va uning tarkibiy qismlarining ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion rivojlanish sur’atlarini aniqlash. Shu asosda hisoblangan yuqori

sezuvchanlik samarali muvozanatli innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichi bu - 0,5 ga teng bo‘lgan innovatsion koeffitsientning qiymati, ya’ni bu baholashni chegara darajasi sifatida ko‘rib chiqish maqsadli va ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion rivojlanishidagi eng qulay tendentsiya innovatsion koeffitsient tendentsiyasi deb hisoblanadi. Ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishning innovatsion rivojlanish sur’atlarining qiymat darajasining innovatsionligini aniqlash mezonini ijobiy deb hisoblash mumkin bo‘ladi. Ushbu qoidani asoslashtirishda, innovatsion koeffitsientning qiymati bir necha davrlar uchun hisobga olinadi, ulardan biri hisobga oluvchi joriy davr, ikkinchisi hisobot davri bo‘lgada, bir nechta holatlar hosil bo‘lishi mumkin:

– hisobot davri uchun innovatsion koeffitsient qiymati “chegara darajasi”dan oshib ketgan va bazaviy davr uchun innovatsion koeffitsient qiymati “chegara darajasi”dan past bo‘lsa, bunda innovatsiyalar tezligi kuzatiladi va ishlab chiqarish salohiyatining rivojlanish tempi (tezligi) (IT) quyidagi formula bo‘yicha hisoblanishi kerak:

$$IT = \Delta jt - \Delta ht, \quad (2)$$

Bu yerda:

Δjt - innovatsiyalar koeffitsientining joriy-bazaviy davrdagi foiz o‘zgarishi “kritik daraja”gacha bo‘lgan davr;

Δht - innovatsiyalar koeffitsientining “kritik daraja”gacha foiz o‘zgarishi hisobot davri uchun;

–bazaviy davr uchun rivojlanishning innovatsionlik koeffitsiyenti qiymati “chegara darajasi”dan, hisobot davri uchun innovatsionlik koeffitsiyenti qiymati esa “chegara darajasi”dan past, bu holda innovatsion rivojlanish darajasi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanishi kerak:

$$IT = \Delta jt, \quad (3)$$

- bazaviy davr uchun innovatsionlik koeffitsientining qiymati hisobot davri uchun innovatsionlik koeffitsienti qiymatidan past bo‘lsa va innovatsionlik koeffitsienti qiymatlari “chegara daraja”dagidan oshmaydi, bunda ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanish darajasi potentsial hisobot davri uchun innovatsiya koeffitsienti qiymatining bazaviy davri uchun innovatsion koeffitsient qiymatiga foizi sifatida baholanishi kerak;

- bazaviy davr uchun innovatsionlik koeffitsientining qiymati hisobot davri uchun innovatsionlik koeffitsienti qiymatidan yuqori va innovatsionlik koeffitsienti qiymati “chegara daraja”da bo‘lsa, bu holda innovatsion rivojlanish darajasidan yuqori baholanishi kerak, bazaviy davr uchun innovatsiya koeffitsienti qiymatining hisobot davri uchun innovatsiya koeffitsienti qiymatiga foiz nisbatda olinadi.

- innovatsion koeffitsientning “chegara daraja”ga o‘zgarishi ishlab chiqarish salohiyatining innovatsion rivojlanishining yetishmasligi sifatida qabul qilinishi kerak.

Masalan yirik ishlab chiqarish sanoat korxonalarida qo‘llaniladigan kiberfizik tizimlar - bu o‘zaro ta’sir qiluvchi qurilmalar tizimi, ma’lumotlarni uzatish, qayta ishlash va saqlash vositalari. Ular murakkab obyektlarni boshqarish uchun mavjud va kelajakdagi avtomatlashtirish vositalari arxitekturasining asosiy komponentlari hisoblanadi.

Raqamli bir xil murakkab operatsion mahsulotlarni virtual vizualizatsiya qilish, simulyatsiya qilish va o‘rganish uchun ishlatiladi va natijada olingan ma’lumotlar mahsulotning bozorga chiqish vaqtini, narxini, sifatini va boshqalarni sezilarli darajada yaxshilash uchun ishlatiladi. Raqamli egizaklarni yaratish dizaynlarni tasdiqlash, o‘zgarishlarni simulyatsiya qilish, o‘zgarishlar ta’sirini tahlil qilish va ishlashni muqobillashtirish uchun juda muhimdir. Raqamli

egizaklar ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishni muqobillashtirish, xatolarni aniqlash va bashoratli texnik xizmat ko‘rsatish imkonini beradi.

- IoT технологиялари юкларнинг хавфсизлигини оширишда муҳим рол ўйнайди. Сенсорлар ёрдамида юкларнинг ҳолати ва жойлашуви тўғрисида аниқ маълумотлар олиш мумкин, бу эса товарларнинг йўқолиши ёки бузилиши ҳолатларини олдиндан аниқлашга ёрдам беради.

- IoT технологиялари ташиш жараёнида кечикиш ва узилишларга сабаб бўлувчи омилларни олдиндан аниқлаш имконини яратади. Масалан, йўллардаги тўсиқлар ёки об-ҳаво шароитлари тўғрисида маълумотларни таҳлил қилиш орқали алтернатив маршрутларни аниқлаш ва маҳсулотларни ўз вақтида етказиб беришга ёрдам беради.
- IoT сенсорлари орқали йиғилган маълумотлар анализ қилинади ва келгусидаги фаолиятни прогноз қилишда фойдаланилади. Масалан, транспорт воситалари ёки маҳсулотларнинг ҳаракат йўналишлари тўғрисидаги маълумотлар йиғилиб, келажакда қайси йўналишларда хавфсизлик ёки самарадорликни ошириш мумкинлиги таҳлил қилинади.

1-жадвал

IoT технологияларининг 2015-2023 йиллардаги соҳалар ва тармоқлар кесимида қўлланилашининг жаҳон бозори қиймати (млрд. АҚШ долл.)

Йил	Саноат	Транспорт	Тиббиёт	Ақлли шаҳарлар	Уй хўжалиги
2015	50	30	20	25	32
2016	55	35	25	30	38
2017	60	40	30	35	45
2018	65	45	35	40	52
2019	70	50	40	45	60
2020	75	55	45	50	68
2021	80	60	50	55	75
2022	85	65	55	60	82
2023	90	70	60	65	90

IoT технологияларининг логистикада қўлланиши хизмат сифатини яхшилаш, вақт ва харажатларни тежаш, жараёнларни автоматлаштиришда катта имкониятлар яратади. Шунингдек, IoT технологиялари орқали логистика компаниялари рақобатбардошликни сақлаб қолиши ва мижозларга сифатли хизмат кўрсатиш имкониятини яратади. Юқорида келтирилган 1-жадвалдан IoT технологияларининг 2015-2023 йиллардаги соҳалар ва тармоқлар кесимида қўлланилашининг жаҳон бозори қиймати берилган.

Юқорида келтирилган 1-жадвалда 2015–2023 йиллар давомида IoT технологияларининг саноат, транспорт, тиббиёт, ақлли шаҳарлар ва уй хўжалиги соҳаларида қўлланилишига оид жаҳон бозори қиймати келтирилган. Ушбу жадвалдан 2023 йилда транспорт соҳасидаги бозор қиймати 70 миллиард долларни ташкил этганини ва 2015 йилга нисбатан 30 миллиард долларга, яъни 233% га ортгани кўришимиз мумкин. Жадвалдан маълумотларидан келиб чиқиб, IoT технологиялари орқали иш жараёнларини автоматлаштириш, мониторинг қилиш ва самарадорликни ошириш имкониятларининг ортиб бораётгани кўришимиз мумкин.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили:

Бугунги кунда Таъминот занжирини бошқаришда IoT технологияларини қўллаш натижасида етказиб бериш, ишлаб чиқариш харажатлари камаяди ҳамда ишлаб чиқариш самарадорлиги ортади. Ушбу мавзу доирасида жуда кўп тадқиқотлар олиб борилаётган. Хусусан, Мамлакатимиз олимларидан Ш. Садиков ўз асарида “IoT технологияларининг

логистика соҳасида юкларнинг жойлашуви ва ташиш жараёнларини оптималлаштиради” [2].

Коллинс ва Лакернинг сўзларига кўра, “IoT сенсорлари таъминот занжиридаги ҳар бир жараённи реал вақтда кузатиш имконини беради, бу эса тезкор ва асосли қарорлар қабул қилиш имкониятини яратади. Бу самарадорликни оширишда ва кечикишларни камайтиришда муҳим омил ҳисобланади” [3].

Чанг ва Лининг сўзларига кўра “IoT технологияларининг омборлаш ва ишлаб чиқариш жараёнларида ресурсларни самарали тақсимлашга ёрдам беради. IoT технологиялари маълумотларнинг тўғри ва аниқ тақсимланиши харажатларни тежашга ёрдам беради” [4].

Маршал ва Ҳантер таъкидлашича, “IoT технологиялари ёрдамида маълумотларнинг шаффофлиги ошади. Бу таъминот занжирининг барча босқичларида ишончлиликни таъминлайди ва истеъмолчилар билан ишончли алоқаларни ўрнатишда муҳим роль ўйнайди” [5].

Бизнинг фикримизча Таъминот занжирини бошқаришда Интернет-технологиялар (IoT) технологияларини қўллаш фойдаланиш таъминот занжирида юкларни назорат қилиш, юкларни кузатиш имконини беради. Бунинг натижасида ишлаб чиқаришдаги узилишларни олдини олиш, ташилаётган хомашё ва товарларни сифатини назорат қилишда ёрдам берадиган рақамли технология.

Тадқиқот методологияси:

Тадқиқотнинг методологик асоси блокчейн технологиялар ёрдамида транспорт ташувларини ва таъминот занжирини бошқаришни такомиллаштириш логистик тизимини самарадорлигини ошириш. Таҳлил жараёнида таққослаш, тизимли таҳлил усулларидан фойдаланилган. Кузатув методи орқали замонавий логистиканининг ҳолати баҳоланган ва абстракт-мантиқий фикрлаш орқали тегишли хулосалар шакллантирилган.

Таҳлил натижалари:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ““Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-6079-сонли Фармони ижросини таъминлаш мақсадида Республикада таъминот занжирини бошқаришда IoT технологияларидан фойдаланиш вазифаси долзарб бўлиб турмоқда. Чунки, IoT технологиялари орқали таъминот занжиридаги ҳар бир босқичдаги маълумотларни реал вақтда кузатиш, таҳлил қилиш ва тезкор қарорлар қабул қилиш натижасида ишлаб чиқариш ёки харажатларни камайтириш, таъминот жараёнини яхшилаш натижасида тайёр махсулотнинг таннархини камайтириш имконияти пайдо бўлади.

Таъминот занжирини бошқаришда IoT технологияси умумий жараёнларни автоматлаштириш, шаффофликни таъминлаш, харажатларни камайтириш ва ишончлиликни оширишда муҳим ўрин тутади. Бу эса компанияларга тезкор ва самарали бошқарувга эришиш, рақобатбардошликни сақлаш ва юқори сифатли хизмат кўрсатиш имконини беради.

Таъминот занжирини бошқаришда IoT технологиялардан файдалананиган корхона қуйидаги афзалликларга эга бўлади:

✓ IoT сенсорлари орқали таъминот занжирининг ҳар бир босқичидаги ҳолатларни кузатиш, масалан, маҳсулот сифати, транспорт воситалари ҳоли ва жўнатмаларнинг аниқ

жойлашувини кузатиш мумкин. Бу, айниқса, ҳарорат ёки намлик каби омилларга ҳассос маҳсулотлар учун муҳим.

✓ IoT қурилмалари орқали ишлаб чиқариш линиялари, омборлар ва транспортларнинг иш фаолияти тўғрисидаги маълумотлар тўпланади. Бу жараёнларнинг ўзаро мувофиқлиги, иш самарадорлиги ва ресурсларнинг тўғри тақсимланишига ёрдам беради.

✓ **Транспорт ва логистика фаолиятини яхшилаш**: IoT орқали юк ташиш жараёнларини аниқ ва тўлиқ кузатиш мумкин. Бу товарларнинг қайси жойда эканини тез ва аниқ билишга ёрдам беради, бу эса логистика жараёнларини оптималлаштиради.

✓ IoT сенсорлари техник ҳолатлар ва махсулот ёки ускуналарнинг бузилиш хавфини олдиндан аниқлаб, уларнинг таъмирлаш ишларини режалаштириш имконини беради.

✓ IoT сенсорлари орқали маълумотларнинг аниқ ва шаффоф тақдим этилиши таъминот занжирини яхшилайди. Бундай шаффофлик ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчилар ўртасидаги ишончни оширади.

Бундай афзалликларга эга бўлган корхонанинг таъминоти ҳар доим яхши назорат қилинади, ресурс ва махсулотларнинг сифатини назорат қилиш яхшиланади, ишлаб чиқариш режасининг аниқлик даражаси ортади ҳамда ишлаб чиқариш қувватларидан самарали фойдаланиш имкоини беради.

Шундай қилиб, IoT технологиялари таъминот занжирини бошқаришда корхонага режалаштиришдаги хатоликларни камайтиришга, вақт ва харажатларни тежашга ва хизматларнинг сифатини оширишга хизмат қилади.

Бундай рақобатбардош устунликлар билан корхона бозорда ўз ўрнига эга бўлади ҳамда истеъмолчиларнинг талабини тез ва сифатли қондиришга эша бўлади.

Юқорида келтирилган афзалликлар билан бир қаторда IoT технологияларининг бир нечта камчиликлари ҳам мавжуд. Улар қуйидагилар:

- Сенсорлар орқали йиғилган маълумотларни сақлаш тизимларга қилинган кибер ҳужумлар натижасида маълумотлар ўзгартирилиши ёки ўғирлашлари мумкин.
- Сенсорлар, алоқа воситалари, маълумотларни сақлаш ва қайта ишлаш учун қулай платформаларни сотиб олиш ва уларни ишлатиш, техник ходимларни тайёрлаш билан боғлиқ харажатларини оширади.
- IoT қурилмалари орқали катта хажимдаги маълумотларни таҳлил қилиш учун кучли дастурий таъминот ва таҳлил воситалари талаб қилинади. Маълумотлар ортиб боргани сари уларни сақлаш ва қайта ишлаш масалалари мураккаблашади.
- IoT сенсорлари турли компаниялар томонидан ишлаб чиқарилгани сабабли улар ўртасидаги мувофиқлик қийинчиликларни келтириб чиқаради. Бу эса маълумотлар алмашиш ва тизимнинг умумий ишини қийинлаштиради.
- IoT сенсорлари ва бошқа қурилмалар узлуксиз маълумот тўплаш учун доимий фаолият олиб боришни талаб қилади. Сенсорларнинг техник носозликлари, электр энергиясига боғлиқ муаммолар тизимнинг узлуксиз ишлашига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.
- IoT қурилмалари орқали кўплаб шахсий ва корпоратив маълумотлар тўпланади. Ушбу маълумотларнинг махфийлигини таъминлаш учун қатъий қонунчилик талаблари мавжуд. Махфийлик масалалари ва қонунчиликка риоя қилиш қўшимча масъулият ва харажатлар келтириб чиқаради.

- IoT қурилмалари мураккаб электрон ускуналар бўлиб, уларни таъмирлаш ва техник хизмат кўрсатиш учун махсус билим ва тажриба талаб қилинади. Бу эса техник хизмат кўрсатиш харажатларини ошиши олиб келади.
- IoT қурилмаларининг доимий ишлаши, хусусан узоқ муддатли кузатиш талаб қилинганда кўп электр энергияси сарфини талаб этади. Қурилмаларнинг батарея ёки қувват манбаига эҳтиёжи сабабли уларни узоқ муддат ишлашини қийинлаштиради.

Шунинг учун таъминот занжирида IoT технологиясини қўллашдан олдин компаниялар бу каби камчиликлари ҳисобга олишлари керак.

Хулоса ва таклифлар:

IoT технологиялари таъминот занжиридаги иш самарадорлиги, шаффофлик ва автоматлаштириш жараёнларини янада юқори даражага олиб чиқди. Маълумотларнинг реал вақтда таҳлил қилиниши, ресурсларнинг самарали тақсимланиши ва техник носозликларнинг олдиндан аниқланиши таъминот занжирини такомиллаштиришга ёрдам беради. Шунингдек, IoT технологиялари корхоналарга таъминот жараёнларини тезкорлик ва ишончлилик билан таъминлаш имконини беради.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида корхона таъминот занжирини бошқаришда IoT технологияларидан фойдаланиб куйидаги самарадорликка эришади:

- маҳсулотларни омборларда топиш тезлиги 30–40% га ошади. Бу тизимнинг умумий иш самарадорлигига ва маҳсулотларни етказиб бериш тезлигига ижобий таъсир кўрсатган.
- профилактик таъмирлаш орқали умумий таъмирлаш харажатларини 20–25% га камайтиради. Бу эса ишлаб чиқариш жараёнини тўхтатмасликка ёрдам берган.
- IoT сенсорлари ёрдамида юк контейнерларини реал вақтда кузатиш орқали кечикишлар 30% га камаяди. Бу эса юкларни ўз вақтида ва сифатли етказиб бериш имкониятини оширган.
- IoT технологияларидан фойдаланиш орқали транспорт воситаларида ёқилғи сарфини таҳлил қилиш ва оптималлаштириш натижасида транспорт харажатларини 15–20% га тежашга эришилган. Бу, айниқса, транспорт ва логистика соҳасида самарадорликни оширади.
- таъминот занжирида хомашё ресурслари ва эхтиёт қисмларнинг ҳаракатини IoT ёрдамида кузатиш орқали ишлаб чиқариш самарадорлигини 15–20% га оширади.
- Таъминот занжирида IoT орқали маълумотларни реал вақтда кузатиш натижасида, маълумотларнинг аниқлиги 90–95% га ошган. Бу эса мижозлар билан ишончли алоқалар ўрнатишга ёрдам беради.

Ушбу самарадорлик кўрсаткичлари IoT технологияларининг таъминот занжиридаги самарадорликни қандай ошириши ва корхоналар учун иқтисодий фойдалар яратишини кўрсатади. IoT технологияси орқали харажатларни камайтириш, иш самарадорлигини ошириш ва сифатли хизмат кўрсатиш имконияти юзага келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ““Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-6079-сонли Фармони

2. Садиков, Ш. (2021). “Рақамли технологиялар ва сунъий интеллектни ривожлантириш илмий-тадқиқот институти фаолияти”.

3. Collins, D., & Laker, T. (2018). “Real-time Monitoring in Supply Chains using IoT”. Journal of Logistics Management.(1)

4. Chang, S., & Lee, K. (2020). “Resource Allocation and Efficiency in IoT-enabled Supply Chains”. Operations and Supply Chain Management Journal.

5. Marshall, A., & Hunter, B. (2023). “Transparency and Trust in IoT-enabled Supply Chains”. Supply Chain Transparency Journal.

6. https://www.arubanetworks.com/

7. https://www.Stat.uz

MILLIY LOYIHALARNI DAVLAT BYUDJETI ORQALI MOLIYALASHTIRISH: YIRIK INFRATUZILMA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TAHLILI VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

YULDASHEVA UMIDA ASANALIYEVNA
PhD. Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti “Xalqaro moliya va kredit” kafedrasi professori
HTTPS://DOI.ORG/10.5281/ZENODO.14191117

JUMANOV HOSILBEK G’AYBULLA O’G’LI
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti
4-kurs MMT-96H guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191117

XAMRABOYEV FAXRIDDIN KAMOLIDDIIN O’G’LI
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti
4-kurs MMT-96H guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191117

Annotatsiya*: Ushbu maqolada milliy loyihalarni davlat byudjeti orqali moliyalashtirish masalalari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning iqtisodiyotga ta'siri va ularning samaradorligini oshirish yo‘llariga qaratilgan. Maqolada, avvalo, milliy loyihalarning iqtisodiy o‘sishda tutgan o‘rni va ularni moliyalashtirishning huquqiy hamda iqtisodiy asoslari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yirik loyihalarning davlat byudjetiga yuklamasi va ularning iqtisodiyotga qisqa va uzoq muddatli ta'siri tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba asosida, moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar, jumladan, davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli kabi mexanizmlar tavsiya etiladi. Maqola yirik loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.*

Kalit so’zlar*: Milliy loyihalar, davlat byudjeti, infratuzilma loyihalari, davlat-xususiy sheriklik, investitsiyalar, obligatsiyalar, kreditlar, moliyaviy samaradorlik, yirik loyihalar, xalqaro tajriba.*

KIRISH

Bugungi kunda milliy loyihalarni, xususan, yirik infratuzilma loyihalarini davlat byudjeti orqali moliyalashtirish masalasi iqtisodiy siyosatning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda zamon talabi hisoblangan bu ishlar Prezidentimiz nutqida ham o’z isbotini topdi “Bizning loyihalarimiz nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta'minlashi kerak, balki ularning asosiy maqsadi xalqimiz hayotini yaxshilash, odamlarning farovonligini oshirishdir.” Infratuzilma loyihalari transport, energetika, telekommunikatsiya va boshqa muhim sohalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi, aholi turmush darajasini yaxshilash va raqobatbardoshligini oshirishda katta ahamiyatga ega. „Jahon bankining ma'lumotlariga ko‘ra, infratuzilma rivoji bo‘yicha har bir qo‘shimcha 1 foizlik sarmoya mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) o‘sish sur’atini 0,7 foizga oshirishi mumkin”. Ushbu loyihalar nafaqat qisqa muddatli iqtisodiy faollikni oshirish, balki uzoq muddatda iqtisodiy rivojlanishni mustahkamlash imkonini beradi.

O‘zbekiston iqtisodiy islohotlar jarayonida katta o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda ko‘plab yirik infratuzilma loyihalari amalga oshirilmoqda. „2022-yilda O‘zbekistonda infratuzilmaga davlat tomonidan ajratilgan sarmoya hajmi 7,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 12 foizga o‘sdi”. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishini ta'minlashdagi yirik loyihalarning ahamiyatini yana bir bor ta'kidlaydi. Biroq, bu loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat byudjeti resurslarini samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanish talab etiladi. „O‘zbekistonning davlat qarzi 2023-yilda 29,2 milliard dollarga yetdi”, bu esa byudjet resurslarini yanada samarali taqsimlash va yirik loyihalarni moliyalashtirishda ehtiyotkor yondashuvni talab qilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonda infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga xizmat qilishi kerakligini ta'kidlaydi. U bir necha bor ta'kidlaganidek, transport, energetika, suv resurslari va sog‘liqni saqlash sohalaridagi yirik infratuzilma loyihalari mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim o‘rin tutadi.

Shu munosabat bilan Prezident 2022 yilda o‘tgan yig‘ilishlarning birida shunday dedi: “Biz iqtisodiyotni transformatsiya qilish yo‘lida infratuzilma sohasini chuqur isloh qilamiz. Yangi yo‘l, elektr stansiyalari, suv ta'minoti tizimlari, ijtimoiy infratuzilma loyihalari amalga oshirilmasa, xalqimiz farovonligini oshirish va mamlakat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash qiyin bo‘ladi.”

Maqolaning maqsadi milliy loyihalarni, xususan, yirik infratuzilma loyihalarini davlat byudjeti orqali moliyalashtirish jarayonlarini tahlil qilish, ularning iqtisodiyotga ta’sirini baholash hamda moliyalashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdir. Shu bilan birga, xalqaro tajriba asosida moliyalashtirish usullarini o‘rganish va O‘zbekistonda ularni qo‘llashning imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Osiyo Taraqqiyot Bankining hisobotida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yirik infratuzilma loyihalari tahlil qilinadi. ADB O‘zbekistonda transport, energetika va suv ta’minoti kabi sohalarda rivojlanayotgan loyihalarni moliyalashtirishning xalqaro tajribalari va moliyaviy modellari haqida ma’lumot beradi. Hisobotda davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli asosida amalga oshirilayotgan loyihalarning muvaffaqiyatli misollari ham ko‘rsatib berilgan. Bu hisobot

O‘zbekistonning infratuzilma rivojlanish strategiyasiga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilishda dolzarb manba hisoblanadi.

Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining hisobotida O‘zbekistonda davlat moliyaviy boshqaruvi va fiskal shaffoflikni oshirish bo‘yicha tahlil berilgan. IMF infratuzilma loyihalari va ularning moliyalashtirilishi jarayonlarida davlatning rolini chuqur tahlil qiladi. Ushbu hisobot infratuzilma loyihalari davlat qarzini qanday ta’sir qilishi va moliyalashtirishning oqilona usullari haqida tavsiyalar beradi. Hisobot O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlari jarayonida davlat byudjetini boshqarishdagi ochiqlikni kuchaytirish masalasini muhim deb hisoblaydi.

Zohidjon Axmedov tomonidan yozilgan ilmiy ish O‘zbekistonda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning zamonaviy manbalari va samaradorlikka oid masalalarni chuqur tahlil qiladi. Muallif davlat byudjeti, davlat-xususiy sheriklik (PPP) va xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etilayotgan kreditlar va grantlar orqali infratuzilmani rivojlantirish usullarini yoritadi. Kitobda milliy loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha O‘zbekiston tajribasi, xususan, 2017–2022-yillarda amalga oshirilgan loyihalar misolida ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy nashrida davlat byudjeti jarayonlarini modernizatsiya qilish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish usullarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Nashrda davlat xarajatlarini samaradorligini oshirish, xususan, yirik loyihalar uchun davlat mablag‘larini ajratish va ularni boshqarish jarayonidagi islohotlar yoritilgan. Bu kitob O‘zbekiston davlat moliyaviy tizimini rivojlantirish bo‘yicha dolzarb ilmiy va amaliy jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Ergashevning kitobi O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik modeli orqali infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish masalalarini ko‘rib chiqadi. Kitobda PPP modellari orqali amalga oshirilayotgan yirik loyihalar, jumladan, energetika, transport va sog‘liqni saqlash sohalaridagi islohotlar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Muallif O‘zbekiston sharoitida davlat va xususiy sektorning hamkorligini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo‘llarini tahlil qiladi.

O‘zbekiston uchun milliy loyihalarni davlat byudjeti orqali moliyalashtirish va infratuzilma loyihalarining iqtisodiyotga ta’siriga bag‘ishlangan zamonaviy adabiyotlar iqtisodiyotning dolzarb masalalarini yoritadi va amaliy yechimlarni taklif qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada guruhlash, abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil, ilmiy prognozlash, iqtisodiy-statistik, grafik-tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

MILLIY LOYIHALARNI DAVLAT BYUDJETI ORQALI MOLIYALASHTIRISH

Milliy loyihalarni davlat byudjeti orqali moliyalashtirish jarayonlarini o‘rganish, yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish va bu loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.



1-rasm. Milliy loyihalarni moliyalshtirishning maqsad va vazifalari

Bu maqsad va vazifalar milliy loyihalarni moliyalashtirishning samaradorligini oshirish va infratuzilma loyihalarining iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini ta'minlashga qaratilgan.

Milliy loyihalar davlatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash va yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega. Ular odatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, va ijtimoiy servislarni yaxshilash kabi maqsadlarni ko'zlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida 2023–2024 yillarda davlat byudjeti orqali milliy loyihalarga ajratilayotgan mablag‘lar sezilarli darajada oshdi. Davlat xarajatlarining asosiy yo‘nalishlari ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish, energetika, transport va logistika, sog‘liqni saqlash, ta’lim va qishloq xo‘jaligiga qaratilgan. O‘zbekistonning milliy loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirgan sarmoyalari, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik dasturlari orqali moliyalashtirilgan loyihalar ham iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

2023 yil uchun davlat byudjeti xarajatlari umumiy miqdori 254 trillion so‘mni tashkil etdi, bu 2022 yilga nisbatan 16% ga o‘sdi. Bu o‘sish, asosan, infratuzilma loyihalariga qo‘shimcha mablag‘ ajratilishi bilan bog‘liq.

Byudjetning 2024 yilga mo‘ljallangan qismi esa umumiy davlat xarajatlarining 19% ni infratuzilmaga yo‘naltirishni ko‘zda tutadi. Bu ajratmalar energetika va transport infratuzilmasini rivojlantirishni maqsad qilgan milliy loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan.

Shu jumladan hozirgi kundagi o’z ish faoliyatini amalga oshirayotgan loyiharni ko’rib chiqishimiz mumkin. 2022 yilda yakunlangan rekonstruktsiya loyihasi natijasida Toshkent va Sirdaryo o‘rtasidagi transport harakatlari yaxshilandi. Yo‘llarda harakat xavfsizligi oshdi va yuk tashish xarajatlari kamaydi. Bugungi kunda yo‘llar yuk va yo‘lovchi tashishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2-rasm. Milliy infratuzilmalar

Navoi GES 2022 yilda ishga tushirilgan. Bugungi kunda stansiya yiliga 250 million kVt/soat elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Energiya ishlab chiqarish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda va energiya ta’minotida ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu loyiha doirasida boshqa energiya ishlab chiqaruvchi ob’ektlar bilan hamkorlik davom etmoqda .

2023 yilda yangi liniyalar ishga tushirildi, bu Toshkentning transport tizimida yirik o‘zgarishlarga olib keldi. Metropoliten tizimi kengayib bormoqda va zamonaviy transport vositalari bilan ta’minlanmoqda. Yangi liniyalar orqali har yili 1,5 milliondan ortiq yo‘lovchi tashiladi .

2022 yilda ochilgan ushbu markaz, Samarqand shahrining turizm salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. 2023 yilda 1 milliondan ortiq turistlarni qabul qilgan, shuningdek, turizm sohasida yangi ish o‘rinlari yaratmoqda. Markazda ko‘plab xizmatlar va zamonaviy inshootlar mavjud bo‘lib, Samarqandning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda .O‘zbekiston milliy loyihalari mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarini rivojlantirishga, aholi farovonligini oshirishga va barqaror rivojlanishga xizmat qildi.

Ushbu loyihalar orqali transport, energiya, turizm, qishloq xo‘jaligi va sog‘liqni saqlash sohalarida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Milliy loyihalar O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishiga, yangi ish o‘rinlari yaratishga, va umumiy ravishda mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga muhim hissa qo‘shdi.

Bundan tashqari, bu loyihalar xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga, shuningdek, O‘zbekistonning global iqtisodiy tizimda o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

YİRİK İNFRATUZİLMA LOYİHALARİNİ MOLİYALASHTİRİSH TAHLİLİ

O‘zbekistonda yirik infratuzilma loyihalari so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaymoqda. Hukumat iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, sanoat, energetika va transport tarmoqlarini rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush sifatini oshirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqmoqda. Bu loyihalar ko‘plab sohalarni qamrab oladi, jumladan:

3-rasm. O’zbekistondagi yirik infratuzilma loyihalar

O‘zbekistonda yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish turli manbalar orqali amalga oshiriladi:

1. Davlat byudjeti: Ko‘plab infratuzilma loyihalari davlatning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. O‘zbekistonda yirik davlat dasturlari, jumladan, yo‘l, ko‘prik, maktab va shifoxonalar qurilishi bo‘yicha katta mablag‘lar ajratiladi.
2. Xalqaro moliya institutlari:
   - Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) kabi tashkilotlar infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi.
   - Xitoy bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar, ayniqsa, energetika va transport sohalarida faol moliyalashtirilmoqda. Masalan, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi orqali Xitoydan investitsiyalar jalb qilinmoqda.
3. Xorijiy investitsiyalar: Xalqaro investorlar O‘zbekistonning energetika, transport va sanoat infratuzilmasiga katta qiziqish bildiradi. Energetika, ayniqsa, gaz va quyosh energiyasi sohasida xorijiy kompaniyalar o‘z mablag‘larini jalb qilmoqda.
4. Davlat-xususiy sheriklik (DXSH): So‘nggi yillarda O‘zbekiston davlat-xususiy sheriklik (DXSH) tizimini joriy etmoqda. DXSH orqali xususiy sektor va davlat birgalikda loyihalar amalga oshirishi, xususiy sektor o‘z tajribasi va kapitalini olib kirishi, davlat esa infratuzilma rivoji va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishi mumkin. Masalan, quyosh va shamol elektr stansiyalari DXSH asosida amalga oshirilmoqda.
5. Obligatsiyalar va kreditlar: Davlat yirik loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro moliya bozorlarida obligatsiyalar chiqarishi yoki xorijiy banklardan kreditlar olishi mumkin. Shu yo‘l bilan uzoq muddatli infratuzilma loyihalariga katta mablag‘lar jalb qilinadi.

Bu yirik infratuzilma loyihalari mamlakat iqtisodiyotini ko‘tarish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi uchun turmush sharoitlarini yaxshilash va O‘zbekistonni mintaqaviy savdo va transport markaziga aylantirish yo‘lidagi muhim qadamlar hisoblanadi.

INFRATUZİLMA LOYİHALARİNİNG İQTİSODİYOTGA TA'SİRİNİ BAHOLASH: QİSQA VA UZOQ MUDDATLİ TA’SİRLAR

Infratuzilma loyihalari iqtisodiyotning o‘sishi va rivojlanishi uchun muhim rol o‘ynaydi. Ular qisqa va uzoq muddatli nuqtayi nazardan turli xil iqtisodiy ta'sirlarni keltirib chiqaradi. Ushbu ta'sirlarni tushunish, loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirishda strategik qarorlar qabul qilish uchun juda muhimdir.



Qisqa muddatli ta'sirlar

Ish o‘rinlari yaratilishi: Yirik infratuzilma loyihalari ish o‘rinlari yaratish orqali aholi bandligini ta'minlaydi. Misol uchun, Angren–Pap temir yo‘li loyihasi davomida 2021 yilda 5,000 dan ortiq ish o‘rni yaratildi. Bu loyiha, aholi bandligini oshirish va mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko‘rsatdi. Infratuzilma yaxshilanishi: Transport va energiya infratuzilmasining yaxshilanishi iqtisodiy faoliyatni tezlashtiradi. Masalan, Toshkent metropolitenining yangi “Yunusobod” liniyasi 2022 yilda foydalanishga topshirildi, bu yillik 1,5 million yo‘lovchini tashishga imkon beradi. Investitsiya oqimining oshishi: O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 2022 yilda 3,5 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2021 yilga nisbatan 15% ko‘payishdir. Bu investitsiyalar infratuzilma loyihalariga yo‘naltirilishi, iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi. Aholi farovonligining oshishi: Sog‘liqni saqlash infratuzilmasining modernizatsiyasi natijasida 2023 yilda yangi tibbiy muassasalar 2 milliondan ortiq aholi uchun tibbiy xizmatlar taqdim etdi. Bu aholi uchun sifatli tibbiy xizmatlarga kirishni yaxshiladi.

Uzoq muddatli ta'sirlar

Iqtisodiy o‘sish: O‘zbekiston iqtisodiyoti yillik o‘sish sur'ati 2023 yil uchun 5,5% deb belgilangan. Bu iqtisodiy o‘sish yirik infratuzilma loyihalari samaradorligini ko‘rsatadi va mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Barqaror energiya ta'minoti: Navoi GES ishga tushirilishi natijasida yillik 250 million kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi. Bu energiya ta'minotini barqarorlashtiradi va iqtisodiy o‘sish uchun zarur energiya resurslarini taqdim etadi.Ijtimoiy rivojlanish: Yangi infratuzilma orqali, masalan, 2024 yilgacha 100 ga yaqin yangi tibbiyot muassasalarini qurish rejalashtirilgan. Bu aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi va sog‘liqni saqlash sohasida ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi. Mintaqaviy rivojlanish: 2022 yilda transport yo‘llarining yaxshilanishi natijasida qishloq va shaharlar o‘rtasidagi yuk tashish hajmi 15% ga oshdi. Bu mintaqaviy iqtisodiy o‘sishni ta'minlaydi

va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga yordam beradi. Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish: 2023 yilga kelib, qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish natijasida 300 ming gektar yer suvni tejaydigan tizimlar orqali sug‘orilgan. Bu hosildorlikni oshiradi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifatini yaxshilaydi.

O‘zbekistonning yirik infratuzilma loyihalari qisqa muddatda ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy faoliyatni oshirishga xizmat qilsa, uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o‘sishni, ijtimoiy rivojlanishni va mamlakatning global iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi. Statistik ko‘rsatkichlar ushbu loyihalarning ta'sirini yanada aniqroq ko‘rsatadi.

XULOSA

O‘zbekistonning yirik infratuzilma loyihalari mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. Ushbu loyihalar, birinchi navbatda, iqtisodiy o‘sish, ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan. Mamlakatda amalga oshirilayotgan infratuzilma loyihalari nafaqat iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning fikrlari O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlari va infratuzilma loyihalarini rivojlantirish jarayonidagi muhim yo‘nalishlarni belgilab beradi. Uning tashabbuslari natijasida yirik milliy loyihalar, davlat byudjeti orqali moliyalashtirilgan va xususiy hamkorlikka asoslangan loyihalar, mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va xalq farovonligini oshirish uchun samarali vositaga aylangan. “Bizning infratuzilma loyihalarimiz – bu xalqaro hamkorlikning mevalaridir. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi yirik moliyaviy institutlarning yordami va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish orqali loyihalarimizning keng ko‘lamda amalga oshirilishi ta'minlanmoqda.”

Birinchidan, infratuzilma loyihalari orqali yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Masalan, Angren–Pap temir yo‘li loyihasi doirasida 2021 yilda 5,000 dan ortiq ish o‘rni yaratilgani keltirilishi mumkin. Bu ish o‘rinlari mahalliy aholi uchun bandlik va daromad manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, transport va energiya infratuzilmasining yaxshilanishi iqtisodiy faoliyatni tezlashtiradi. 2022 yilda Toshkent metropolitenining yangi “Yunusobod” liniyasi ishga tushirilishi yillik 1,5 million yo‘lovchini tashishga imkon berdi. Bu transport xizmatlarining sifatini oshirish va shahar ichidagi trafikni yengillashtirishga yordam berdi.

Uchinchidan, 2022 yilda O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 3,5 milliard dollarni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 15% ga oshdi. Ushbu investitsiyalar infratuzilma loyihalariga sarflanib, iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi.

To‘rtinchidan, yirik infratuzilma loyihalari aholi farovonligini yaxshilaydi. 2023 yilda yangi tibbiy muassasalar ochilishi natijasida 2 milliondan ortiq aholi uchun yuqori sifatli tibbiy xizmatlar taqdim etilgan. Bu sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlardan foydalanishni oshiradi va aholi salomatligini yaxshilaydi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning yirik infratuzilma loyihalari qisqa muddatda iqtisodiy faoliyatni oshirish va ish o‘rinlarini yaratish orqali ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Uzoq muddatda esa, bu loyihalar mamlakatni barqaror iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy rivojlanish va global iqtisodiyotdagi o‘rni mustahkamlashga olib keladi.

Bunday o‘zgarishlar O‘zbekistonni rivojlanayotgan iqtisodiy davlat sifatida shakllanishiga imkon yaratadi. Statistika va amaldagi loyihalar tahlili bu jarayonning samaradorligini ko‘rsatib, mamlakatning kelajagi uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmedov, Z. (2022). *O‘zbekiston iqtisodiyotida infratuzilma loyihalarining moliyalashtirish manbalari va ularning samaradorligi*. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. (2023). "Yirik infratuzilma loyihalari bo‘yicha ma'lumotlar". O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi rasmiy veb-sayti. https://transport.uz
3. Toshkent Metropoliteni boshqaruvi. (2022). "Yangi liniyalar haqida ma'lumotlar". Toshkent Metropoliteni rasmiy sayti. https://metropoliten.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. (2023). "2022 yilgi investitsiya hisobotlari". O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi rasmiy sayti. https://invest.gov.uz
5. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2023). "Tibbiy muassasalar statistikasi, 2023 yil". O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi rasmiy veb-sayti. https://sogliqni.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi. (2023). "Iqtisodiy o‘sish statistikasi, 2023 yil". O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi rasmiy sayti. https://economy.gov.uz
7. O‘zbekiston Energetika vazirligi. (2022). "Navoi GES haqida ma'lumotlar". O‘zbekiston Energetika vazirligi rasmiy veb-sayti. https://energo.uz
8. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. (2023). "Suv resurslari boshqarish statistikasi, 2023 yil". O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi rasmiy sayti. https://qishloqxo'jalik.uz
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi. (2023). "O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy ko‘rsatkichlari". https://stat.uz
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). "Milliy infratuzilma rivojlanishi strategiyasi". O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. https://president.uz

ESP32 MIKROKONTROLLERI YORDAMIDA USKUNALARNI MASOFADAN BOSHQARISH

Mumin Babajanov Rajabovich
O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi Zamonaviy axborot kommunikatsiyalari - texnologiyalari kafedrsi o‘qituvchisi, PhD
babajanov.mumin@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191423

Ruzimov Omon Narimanovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot xavfsizligi doktaratni
omonruzimov89@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191423

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ESP32 mikrokontrollerining ishlatilishi va kurilma yordamida uskunalarni masofadan boshqarish ishlari o‘rganilgan. Shuningdek, ESP32 yordamida qurilmalarni masofadan boshqarish ishlari amalga oshirilgan va ESP32 kontrolleriga kod yozish jarayonlari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Arduino uno, ESP32 platasi, IoT, boshqaruvlar, atmega8.*

KIRISH

21-asrga kelib texnika va texnologiyalar sohalari jadal bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga texnologiyalarni boshqarish va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish ishlari ham o‘z o‘rnida rivojlanmoqda.

Hozirgi kunda texnika va texnologiyalarsiz inson o‘zini zeriktirib qo‘ymoqda va ba’zi texnikalar kundalik hayoti uchun juda zarur o‘rin tutmoqda. Misol tariqasida telefon, internet, kompyuter va hakozalar kundalik hayot uchun muhim ro‘l tutadi. Yana shuni ta’kidlash kerakki, masofadan qurilmalarni boshqarish keng ko’lamli soxalardan biri sanaldi. Qurilmalarni masofadan boshqarish bir qator avzalliklarga va imkoniyatlarga ega.

Ushbu maqolada ESP32 yordamida uskunalarni masofadan boshqarish ishlari amaliy tarizda bayon etilgan. Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda qurilma yoki uskunalarni ham boshqarish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shuningdek raqamli texnologiyalar sohasida qurilmalarga dasturiy kod yozish yoki ularni masofadan boshqarish ishlari ham dolzarb masalalar toifasiga kiradi.

ESP32 mikrokontrolleri Wi-Fi va Bluetoothga ulanish imkoniyatlari tufayli uskunalarni masofadan boshqarish uchun juda qulay qurilmadir. Bu platforma kichik hajmli va energiya tejamkorli bilan, uyni avtomatlashtirishda, IoT (Internet of Things), sanoat uskunalarini boshqarish kabi sohalarda keng qo‘llaniladi. Quyida ESP32 mikrokontrolleridan foydalangan holda uskunalarni masofadan boshqarish masalasini o’rganamiz.

Ushbu maqolaning maqsadi va vazifasi shundaki uskunalarni masofadan boshqarish va ularni monitoring qilish ko‘zda tutilgan. Misol tariqasida uzoq masofadagi uskunani inson borib ko‘rib kelgunicha vaqt va moddiy tomondan qiyinchilik keltirishi mumkin. Agar ESP32 kurilmasi yordamida uskunalarni masofadan boshqarsa u holda vaqtdan yoki moddiy tomondan ham yutishi mumkin, shu sababli uskunalarni masofadan boshqarish uchun ESP32 kurilmasi yoki mikrokontrolleridan foydalaniladi.

ESP32 kurilmasining imkoniyatlari

ESP32 - bu Espressif Systems tomonidan ishlab chiqarilgan kuchli va energiyani tejovchi mikroprocesorli mikrokontroller bo‘lib, ko‘p turli IoT (Internet of Things) ilovalari uchun juda keng qo‘llaniladi. U bir qator ilovalarda ishlatilishi mumkin, jumladan, aqlli uy tizimlari, aqlli sensorlar, aqlli yoritish tizimlari va boshqalar.

ESP32 mikrokontrollerining asosiy xususiyatlari

Ikki yadroli protsessor: ESP32 odatda ikki yadroli Xtensa LX6 protsessoriga ega, bu uni kuchli va ko‘p vazifani bajarishga mos qiladi. Lekin ayrim modellari bitta yadroli bo‘lishi ham mumkin.

Wi-Fi va Bluetooth: ESP32 ichki Wi-Fi va Bluetooth (BLE) moduliga ega bo‘lib, uni boshqa qurilmalarga oson ulash imkonini beradi. Bu uni simsiz ilovalar uchun juda foydali qiladi.

Past quvvat sarfi: Bu mikrokontroller energiyani samarali ishlatadi, va u quvvat tejash rejimlariga ega bo‘lib, batareya orqali ishlaydigan loyihalar uchun juda mos.

Analog va raqamli interfeyslar: ESP32 ko‘plab interfeyslarga ega, jumladan:

ADC (Analog-to-Digital Converter) — analog signalni raqamli qiymatga aylantiradi.

DAC (Digital-to-Analog Converter) — raqamli signalni analog signalga aylantiradi.

GPIO (General Purpose Input/Output) pinlari — turli qurilmalar va datchiklarni ulash uchun.

Kengaytirilgan xavfsizlik: ESP32 xavfsizlik uchun apparatli shifrlash, xavfsiz yuklash va boshqa xususiyatlarga ega.

PWM (Pulse Width Modulation): LEDlarni boshqarish yoki motorlarni boshqarish kabi ilovalar uchun ishlatiladi.

SPI, I2C, UART interfeyslari: Bu interfeyslar turli tashqi qurilmalar bilan bog‘lanish imkonini beradi.

Ishlash muhiti va dasturlash

ESP32 turli xil dasturlash tillari va muhitlaridan foydalanib dasturlanishi mumkin:

Arduino IDE: Ko‘pgina foydalanuvchilar uchun oson va qulay muhit bo‘lib, oddiy Arduino kodlarini ishlatish imkoniyatini beradi.

ESP-IDF (Espressif IoT Development Framework): Bu Espressif tomonidan rasmiy dasturiy ta’minot va SDK (Software Development Kit) bo‘lib, batafsil sozlash va rivojlangan funksiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

MicroPython va JavaScript: Ba'zi foydalanuvchilar ESP32ni MicroPython yoki JavaScript (Espruino) kabi soddalashtirilgan tillarda dasturlashadi.

ESP32 kurilmasidan foydalanish sohalari

Aqlli uy ilovalari: Uskunalarni boshqarish (yoritish, isitish tizimlari), masofadan kuzatish va boshqarish uchun ishlatiladi.

Datchiklar bilan ishlash: Harorat, namlik, harakat yoki yorug‘lik datchiklarini oson ulash va ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Web server yaratish: Oddiy va ixcham web serverlarni yaratib, foydalanuvchi interfeysi orqali ma'lumotlarni ko‘rsatish yoki boshqarish imkonini beradi.

Ma'lumot uzatish: ESP32 yordamida real vaqtda ma'lumotlarni boshqa qurilmalarga simsiz uzatish mumkin.

ASOSIY QISM

Yuqorida aytib o‘tilganidek ESP32 kurilmasi yordamida uskunalarni masofadan boshqarish jarayonining amaliy qismida asosan kompyuter, Arduino dasturi, usb kabel va ESP32 kurilmasi kerak bo‘ladi.

ESP32 yordamida oddiy veb-server yaratish va LEDni boshqarish. Bu kodda ESP32 veb-server sifatida ishlaydi va foydalanuvchi interfeysi orqali LEDni yoqib/o‘chirish imkoniyatini beradi.

Quyidagi rasmda ESP32 uchun kutubxona va wifiga ulanish ishlari bajarilgan.

```
#include <WiFi.h>
#include <WebServer.h>

// Wi-Fi tarmog'ingiz uchun SSID va parolni kiriting
const char* ssid = "Amar wifi";
const char* password = "123456789";

// Veb-server uchun port raqami
WebServer server(80);

// LED ulangan GPIO pini
const int ledPin = 2;
```

1-rasm. ESP32 bilan wifi ulanishi

2-rasmda veb-server uchun berilgan manzillar va chiroqni boshqarish yo‘li ko‘rsatilgan.

```
Serial.println();
Serial.print("Wi-Fi ulandi: ");
Serial.println(WiFi.localIP()); // ESP32 IP manzili

// Veb-server uchun yo‘llarni sozlash
server.on("/", handleRoot); // Bosh sahifa
server.on("/on", handleOn); // LEDni yoqish
server.on("/off", handleOff); // LEDni o'chirish

server.begin(); // Veb-serverni boshlash
Serial.println("Server ishga tushdi");
```

2-rasm. Veb-serve va chiroqni boshqari kodi

3-rasmda bosh sahifada chiroqni boshqarish tugmalari va chiroq holati ko‘rsatilgan kod berilgan.

```
// Bosh sahifani ko'rsatish
void handleRoot() {
  String html = "<h1>ESP32 LED boshqarish</h1>";
  html += "<p><a href=\"/on\"><button>LED Yoq</button></a></p>";
  html += "<p><a href=\"/off\"><button>LED O'chir</button></a></p>";
  server.send(200, "text/html", html);
}
```

3-rasm. Chiroq holatini ko‘rsatish va boshqarish tugmalari

4-rasmda chiroqni yoqish kodi ko‘rsatilgan.

```
// LEDni yoqish
void handleOn() {
  digitalWrite(ledPin, HIGH);
  server.send(200, "text/html", "<h1>LED yoqildi</h1><p><a href=\"/\">Orqaga</a></p>");
}
```

4-rasm. Chiroqni yoqish kodi

5-rasmda chiroqni o‘chirish kodi ko‘rsatilgan.

```
// LEDni o'chirish
void handleOff() {
  digitalWrite(ledPin, LOW);
  server.send(200, "text/html", "<h1>LED o'chirildi</h1><p><a href=\"/\">Orqaga</a></p>");
}
```

5-rasm. Chiroqni o‘chirish kodi

6-rasmda veb-sayt yordamida ko‘rinishi

6-rasm. Veb-saytda ko‘rinishi

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki ESP32 kurilmasi juda qulay va arzonligi bilan boshqa kurilmalarga qaraganda tez ishlaydi. Shuningdek ushbu kurilma yordamida barcha turdagi uskunalarni masofadan boshqarish imkoniyati mavjud, albatta loyihaning maqsadiga qarab dasturiy ta’minoti yoziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1]. Narimanovich, R. O. (2024, June). Ma’lumotlarni ESP32 modul yYordamida qayta ishlash usullari va tahlili. in " Canada" International Conference on Developments in Education, Sciencesand Humanities (Vol. 17, No. 1).

[2]. Narimanovich, R. O. (2024). ESP8266 modulining xususiyatlarini o ‘rganish. Journal of innovation, creativity and art, 3(5), 118-121.

[3]. Омон, Р. (2023). IoT технологиялари билан ўзаро маълумот алмашинувининг фарқлари ва таҳлили. Tafakkur manzili, 14, 58-66.

[4]. Esp32 technical reference manual https://www.espressif.com/sites/default/files/documentation/esp32_technical_reference_manual_en.pdf.

[5]. Academic literature on the topic 'Esp32' https://www.grafiati.com/en/literature-selections/esp32/

[6]. ESP32 wikipedia https://en.wikipedia.org/wiki/ESP32

[7]. ESP32 datasheet https://www.alldatasheet.com/view.jsp?Searchword=Esp32%20datasheet&gad_source=1&gclid=Cj0KCQiAoae5BhCNARIsADVLzZcbRyYKemvKJ_I81ZW9b2Scmj_Vl4kFyC5w1TI29PZFe7z1aD7PZnQaAlyoEALw_wcB

[8]. Narimanovych, R. O., & Rajabovich, M. B. (2023). Method of safe determination and monitoring of electrical energy to consumers using ZMRT101B module. Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture, 2(12), 4-10.

ТЕХНОЛОГИИ ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ И СИМУЛЯТОРОВ ДЛЯ ПРАКТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ

Каршибоев Шароф Абдураупович – доцент,
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191578

Касимов Анвар Мусурманович - студент
Джизакский политехнический институт
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191578

Аннотация: *В статье рассматриваются технологии виртуальных лабораторий и симуляторов как инструменты для практического обучения в различных областях, включая медицину, инженерию, химию и другие дисциплины. Анализируются преимущества использования виртуальных лабораторий, такие как снижение затрат, повышение безопасности, доступность и гибкость обучения. Рассматриваются также проблемы и ограничения, связанные с техническими, методическими и финансовыми аспектами внедрения этих технологий. Ожидаемые направления развития включают создание персонализированных симуляторов, улучшение систем обратной связи и измерения прогресса студентов, а также интеграцию виртуальных и традиционных методов обучения. Статья предоставляет рекомендации для улучшения внедрения виртуальных лабораторий в учебные процессы и развития их возможностей.*

Ключевые слова: *виртуальные лаборатории, симуляторы, практическое обучение, виртуальная реальность, дополненная реальность, образовательные технологии, симуляционные платформы, обучение в медицине, инженерное образование, адаптивное обучение.*

Введение

Технологии виртуальных лабораторий и симуляторов активно внедряются в образовательный процесс, предлагая новые подходы для приобретения практических навыков. Эти технологии стали особенно актуальными в последние годы благодаря развитию и удешевлению устройств виртуальной реальности (VR), дополненной реальности (AR) и высокопроизводительных компьютерных симуляторов, что сделало их более доступными для широкого круга пользователей. Их внедрение поддерживается в таких областях, как медицина, инженерия, физика, химия и даже социальные науки, где практическое обучение традиционно связано с высоким риском, значительными финансовыми затратами и требованиями к сложному оборудованию.

Виртуальные лаборатории и симуляторы позволяют обучающимся получать опыт, максимально приближенный к реальности, без необходимости непосредственного взаимодействия с физическими объектами, что особенно ценно в дисциплинах, связанных с опасными веществами или дорогостоящим оборудованием. В условиях медицинского образования виртуальные симуляторы дают возможность студентам отрабатывать сложные

манипуляции и взаимодействие с пациентами без риска для жизни и здоровья, что улучшает подготовку специалистов и способствует развитию профессиональных навыков в условиях, близких к реальным. В инженерии симуляционные модели и виртуальные лаборатории позволяют тестировать прототипы, анализировать ошибки, улучшать технические решения без использования материальных ресурсов и ущерба для окружающей среды.

Методы

В данной статье для сбора данных были использованы методы анализа литературы и тематических исследований. На первом этапе проводился обзор существующей литературы, включая научные статьи, отчёты, исследования и публикации, освещающие вопросы применения виртуальных лабораторий и симуляторов в практическом обучении [1]. Такой подход позволил выявить ключевые тенденции, современные достижения и проблемы в этой области, а также оценить степень развития и эффективность использования данных технологий в разных отраслях.

Второй этап исследования был сосредоточен на тематических исследованиях — описании и анализе конкретных примеров использования виртуальных лабораторий и симуляторов в образовании. Такие кейсы были отобраны с целью глубже понять, как разные организации внедряют и адаптируют виртуальные лаборатории и симуляционные платформы для обучения, а также какие результаты и вызовы они при этом отмечают. Тематические исследования помогли выявить общие закономерности и конкретные технические, экономические и педагогические аспекты, влияющие на успешность и эффективность их применения.

Подходы

При изучении виртуальных лабораторий и симуляторов в статье рассматривались три ключевые технологии:

1. **Виртуальная реальность (VR)**: Использование VR для создания полностью виртуальной среды, в которой обучаемые могут взаимодействовать с объектами, моделировать процессы и получать тактильный опыт. VR позволяет создавать целостные модели сложных систем, таких как органы человека, механические конструкции, химические реакции, и визуализировать их работу в деталях.

2. **Дополненная реальность (AR)**: AR объединяет реальные и виртуальные объекты, накладывая цифровую информацию на физический мир. В контексте практического обучения AR используется для наложения информации, инструкций или виртуальных компонентов на физические объекты [2]. Применение AR позволяет обучаемым, например, выполнять сборку или разборку устройств с визуальными подсказками, ориентироваться в анатомии человека или изучать сложные системы в реальном времени.

3. **Симуляционные платформы**: Специализированные платформы, которые позволяют моделировать процессы и события с высокой степенью точности. Симуляторы широко используются в обучении медицинских процедур, инженерных и химических экспериментов. Такие платформы, как правило, обладают набором инструментов для управления симуляцией, анализа данных и обеспечения обратной связи. Они позволяют изучать различные сценарии и ситуации, которых невозможно добиться в реальных условиях по соображениям безопасности или финансовой нецелесообразности.

Критерии оценки

Для оценки эффективности и целесообразности внедрения виртуальных лабораторий и симуляторов использовались следующие критерии:

1. **Доступность**: Уровень доступности виртуальных лабораторий и симуляторов для обучающихся и преподавателей, включая требования к оборудованию и программному обеспечению, а также простоту их освоения. Доступность оценивается по тому, насколько эти технологии можно внедрить в образовательные учреждения с различным бюджетом и ресурсами.

2. **Эффективность**: Степень, в которой виртуальные лаборатории и симуляторы позволяют достигать поставленных учебных целей, например, улучшение знаний, практических навыков и повышение уровня уверенности в выполнении определённых задач.

3. **Стоимость**: Экономические аспекты, связанные с внедрением и использованием технологий, включая начальные затраты на оборудование, программное обеспечение, техническую поддержку и обучение персонала [3]. Сюда также входит оценка экономии, достигаемой за счёт замены физических лабораторий и затратных практических занятий.

Drip irrigation, which combines AI and IoT, is therefore a promising combination of two technologies that can reduce water consumption, increase crop yields, and develop sustainable agricultural models in areas with limited resources, like the Kashkadarya region [8].

CONCLUSION

Drip irrigation systems that include Internet of Things (IoT) technology show promise for increasing the efficiency of water resources and boosting agricultural process management. For areas with scarce water supplies, like the Kashkadarya region, this is especially important. It is crucial to take into account the benefits as well as any potential technical and financial obstacles for the successful integration of IoT in drip irrigation. Developing the best plans and models for the successful implementation of IoT in the region's agriculture would be made easier with more study in this field.

REFERENCES

[1]. Интернет вещей (IoT) в Агро промышленности. IT Агро. 22 февраля 2024 г. Agrotechnolog.ru/internet-veshhej-iot-v-agropromyshlennosti/ is the URL to visit.

[2]. Капельное орошение для сельского хозяйства в Узбекистане. Omad Commence. For example, https://omadstart.uz/

[3]. Основные тенденции в насти капельного орошения. Verified Market Reports. The following is a list of the top seven trends in drip irrigation: https://www.verifiedmarketreports.com/ru/blog/

[4].Орошения над дождеванием и орошением капельного орошения. ќолодой учёный. Here is the link to the archive: https://moluch.ru/archive/313/71020/

[5] Математическая модель и алгоритм искусственного интеллекта в капельном орошении земли . А. М. Тургунов. Scientific Journal of Involta, 2023. This is the URL for the article: https://involta.uz/index.php/iv/ article/view/655

[6]. Применение искусственного интеллекта при оптимизации орошения и применении гербицидов. А. Ю. Федосов и др. Экономика строительства, 2023. https://cyberleninka.ru/article/n/primenenie-iskusstvennogo-intellekta-pri-optimizatsii-orosheniya-i-primenenii-gerbitsidov

[7]. Перспективные технологии инновационного орошения. И. Ф. Юрченко. Мелиорация и гидротехника, 2022.

https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivnye-tehnologii-innovatsionnogo-orosheniya

[8]. Капельное орошение в контексте водосберегающих технологий. https://cyberleninka.ru/article/n/kapelnoe-oroshenie-v-kontekste-vodosberegayuschih-tehnologiy

KORPORATIV TARMOQLARGA RUXSATSIZ KIRISHNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH USULLARI

Abdullayev Mirjalol Oktam ug‘li
University of management and future technologies
Telekommunikatsiya injineringi 1-bosqich magistranti
mirjalol2713 @gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195236

Annotatsiya: *Ushbu maqolada korporativ tarmoqlarda ruxsatsiz kirish tahdidlarini aniqlash va bartaraf etishning zamonaviy usullari ko‘rib chiqiladi. Tarmoqqa noqonuniy kirish xurujlari kompaniya ma’lumotlarini xavf ostiga qo‘yishi, moliyaviy zarar keltirishi va ishonchlilikni pasaytirishi mumkin. Shu sababli, samarali himoya usullarini qo‘llash, xususan, hujumni aniqlash, undan oldin ogohlantirish va tegishli choralarni ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada mavjud dasturiy va apparatli yechimlar, ilg‘or tahlil usullari va xavfsizlik siyosatlarini joriy qilish mexanizmlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: Tarmoq trafigini tahlil qilish, Xatti-harakatlar tahlili, End-point monitoring, Ruxsatsiz kirishlarni bartaraf etishdagi asosiy bosqichlar, Ierarxik modelning darajalari, DHCP snooping va IP Source guard texnologiyasi.*

Bugungi kunda mamlakatimizda joriy etilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalar, fuqarolarimizga juda keng qulayliklar va imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Korporativ tarmoqlar haqida so‘z ketganida, korporativ tarmoqlarni modernizatsiya qilishda yangi texnologiyalar, masalan, SD-WAN (Software-Defined Wide Area Network) va SDN (Software-Defined Networking) yechimlaridan foydalanish ko‘rib chiqilgan. Ushbu texnologiyalar yordamida tarmoqni markaziy boshqarish imkoniyati oshiriladi va turli yo‘riqnoma va xavfsizlik yechimlari orqali tarmoq unumdorligi va xavfsizligi ta’minlanadi.

SD-WAN texnologiyasi orqali kompaniyalar o‘z WAN tarmoqlarini ma’lumotlar markazlari va bulut xizmatlariga ulashda dinamik yo‘nalish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shu bilan birga, SDN yordamida boshqaruv va ma’lumotlar qatlamlarini ajratish orqali tarmoq samaradorligini oshirishga erishiladi. Ushbu texnologiyalar asosan katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, tarmoq xavfsizligini ta’minlash va masofaviy kirish imkoniyatlarini kengaytirish uchun ishlatiladi.

Bugungi kunda eng keng tarqalgan Korporativ tarmoqlar usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: [2]

- Fishing hujumlari orqali foydalanuvchi ma’lumotlarini o‘g‘irlash;
- Zararli dasturiy ta’minotdan foydalanish;
- Zaif parollardan foydalanish;
- SQL-in’ektsiya hujumlari;
- Man-in-the-middle (MITM) hujumlari;

Bu usullar nafaqat tizimga kirishga, balki ma’lumotlarni o‘g‘irlash, buzish yoki yo‘q qilishga ham yo‘naltirilgan. Shu sababli, zamonaviy korporativ tarmoqlar xavfsizligi kompleks yondashuvni talab qiladi *(1-rasm)*

1-rasm. Fishing hujumining umumiy sxemasi

Axborot xavfsizligi auditining asosiy yo‘nalishlariga attestatsiyalash, axborot xavfsizligini nazorat qilish, himoyalangan loyihada texnik vositalar va ob’ektlarni loyihalashning maxsus tadqiqotlari kiradi. So‘nggi yillarda, axborot xavfsizligi tizimini qurishda himoya choralarini amalga oshirish, xodimlarni o‘qitish, xavfsizlik siyosatini amalga oshirish va boshqa jarayonlar bilan bir qatorda, Axborot texnologiyasi *(AT)* holatini kuzatish va tekshirish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday nazorat tanlangan himoya choralari va vositalarining muvofiqligini tekshirish, shuningdek, mavjud axborot tizimidagi zaifliklarni aniqlash imkonini beradi. Axborot xavfsizligini *(AX)* nazorat qilish va tekshirish jarayonlari orasida axborot xavfsizligi auditi alohida o‘rinni egallaydi, uning asosiy maqsadi axborot xavfsizligini mustaqil baholashni shakllantirishdir.

AX auditi bunday nazoratni amalga oshirish va yangi zaifliklarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, taniqli ishlarda axborot xavfsizligi auditining asosiy turlaridan biri sifatida auditorlik faoliyatini tizimli tasniflashga, shuningdek, test sinovlariga yetarlicha e’tibor berilmayapti. Haqiqiy tizimlarni sinovdan o‘tkazish bo‘yicha eksperimentlar cheklangan tarzda faqat *“buzib kirishga testlash”* yoki *“instrumental audit”* sifatida ko‘rib chiqiladi va bu turdagi auditni o‘tkazish hech qanday tizimli yondashuv bilan tartibga solinmaydi. Qolaversa, 2022-yilining 10-iyunida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Fuqarolar ishtirokidagi audit o‘tkaziladigan obyektni aniqlash va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligini jamoatchilik tomonidan baholab borish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 326-sonli qarorining birinchi ilovasida ko‘rsatilgan faoliyati davlat hokimiyati va boshqaruvida alohida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilari sifatida e’tirof etilgan idoralar hamda ular tizimidagi nazorat obyektlarini auditlash masalasini hal etishda ushbu maqola muhim ahamiyat kasb etadi.[1,3]

Ruxsatsiz kirishni aniqlash texnologiyalari quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

Tarmoq trafigini tahlil qilish- Zamonaviy IDS (Intrusion Detection System) tizimlari tarmoq trafigini real vaqt rejimida kuzatib boradi va shubhali faoliyatni aniqlaydi. Bu tizimlar anomaliyalarni aniqlash va oldindan belgilangan qoidalarni buzish holatlarini topish uchun machine learning algoritmlaridan foydalanadi.

Xatti-harakatlar tahlili - Foydalanuvchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish tizimlari (UEBA - User and Entity Behavior Analytics) normal faoliyatdan chetga chiqishlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Bu tizimlar foydalanuvchilar va qurilmalarning odatiy xatti-harakatlarini o‘rganib, shubhali faoliyatni tezda aniqlaydi.

End-point monitoring - Oxirgi nuqtalarni (kompyuterlar, smartfonlar, IoT qurilmalari) monitoring qilish tizimlari qurilmalardagi shubhali faoliyatni aniqlaydi. Bu

tizimlar zararli dasturlar, ruxsatsiz o‘zgartirishlar va boshqa xavfli harakatlarni aniqlash imkonini beradi.

Ruxsatsiz kirishlarni bartaraf etishda quyidagi asosiy bosqichlar orqali foydalaniladi:

Tezkor aniqlash - IDS va IPS (Intrusion Prevention System) tizimlaridan foydalanish orqali ruxsatsiz kirishni ilk bosqichda aniqlash.

Izolyatsiya - xavf aniqlanganda, zararlanganliga gumon qilingan tizimlarni darhol tarmoqdan ajratish.

Tahlil - ruxsatsiz kirish usuli va miqyosini aniqlash uchun chuqur tahlil o‘tkazish.

Tiklash - tizimlarni xavfsiz holatga qaytarish, zarur bo‘lsa, zaxira nusxalardan tiklash.

O‘rganish va takomillashtirish - hodisadan saboq chiqarish va xavfsizlik choralarini kuchaytirish.

Bu strategiya nafaqat mavjud ruxsatsiz kirishni bartaraf etish, balki kelajakdagi hujumlarning oldini olish imkonini ham beradi.

Korporativ tarmoqlarga ruxsatsiz kirishni aniqlash va bartaraf etish sohasida bir qator yangi tendensiyalar va innovatsiyalar kuzatilmoqda: [8,9]

Quantum kriptografiya - kvant kompyuterlar davrida ham xavfsiz bo‘lgan shifrlash usullarini ishlab chiqish.

Blockchain texnologiyasi - tarqoq ledger texnologiyasidan foydalanib, ma’lumotlar yaxlitligini ta’minlash va ruxsatsiz o‘zgartirishlarni oldini olish.

Neyromorfik xavfsizlik tizimlari - Inson miyasining ishlash tamoyillariga asoslangan, tezkor va adaptiv xavfsizlik tizimlari.

5G va 6G tarmoqlar xavfsizligi - Yuqori tezlikdagi mobil tarmoqlar uchun maxsus xavfsizlik choralari.

Korporativ tarmoqlarning arxitekturasi va loyixalash usullari.

Korporativ tarmoq arxitekturasi simli va simsiz ulanishlarni o‘z ichiga oladi. Taqdim etilgan arxitektura tarmoq texnologiyalari sohasidagi qandaydir kashfiyot yoki innovatsiya emas. Bu shunchaki tarmoq xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, barqarorlik va kengayish imkoniyatini ta’minlash uchun kerak bo‘lgan hamma narsani o‘zlashtirgan kompleks. Taqdim etilgan arxitekturaning asosiy maqsadlari: Amalga oshirish qulayligi-yechimni eng qisqa vaqt ichida joylashtirish. Moslashuvchanlik va miqyoslilik-modulli arxitektura axborot infratuzilmasini keyinchalik o‘stirish imkoniyati bilan faqat hozirgi vaqtda zarur bo‘lgan yechimlarni amalga oshirishga imkon beradi. Xatolarga chidamlilik va xavfsizlik xatolarga chidamli dizayn, hatto hujumlar paytida ham tarmoqning barqaror ishlashini kafolatlaydi. Boshqarish qulayligi-butun tarmoq infratuzilmasini markazlashtirilgan holda boshqarish. Yangi texnologiyalarga tayyorlik-qurilgan arxitektura yangi texnologiyalar va xizmatlarni oson amalga oshirish imkonini beradi *(masalan, Cisco Collaboration)*



2-rasm. Korxona arxitekturasi

Tarmoqning ierarxik modeli Ierarxik model tarmoq infratuzilmasi uchun asosi foydalanuvchilarni, printerlarni, skanerlarni, WAN routerlarni, xavfsizlik qurilmalarini, serverlarni va boshqalarni ulash. Ierarxik model *(2-rasm)* tarmoqni uchta asosiy darajaga/modulga ajratadi.

Ierarxik modelning darajalari:

Kirish qatlami - foydalanuvchilarga yoki qurilmalarga (printer, skaner, ip-telefon) tarmoqqa kirish imkonini beradi.

Tarqatish qatlami - kirish darajalarini birlashtiradi / birlashtiradi va tashkilotning turli xizmatlariga kirishni ta’minlaydi.

Core Layer/Core Layer - yirik tarmoqlardagi tarqatish qatlamlarini birlashtiradi / birlashtiradi. [4]

Ushbu uchta daraja turli-xil xususiyatlar va funksionallikni ta’minlaydi. Ehtiyojga qarab bitta, ikkita yoki uchta daraja qo‘llanilishi mumkin. Misol uchun, 10 dan kam foydalanuvchisi bo‘lgan ofis uchun faqat kirish darajasini mantiqan amalga oshirilsin. Ko‘p qavatli yoki butun binoni qamrab oluvchi yirik tashkilot uchun kirish qatlami ham, tarqatish qatlami ham mantiqiy bo‘ladi. Bir nechta binolarni qamrab olgan ulkan tarmoqlar uchun barcha uchta qatlam kerak: kirish qatlami, tarqatish qatlami va asosiy qatlam. Kirish darajasi foydalanuvchilar va tarmoq qurilmalari (printerlar, skanerlar, ip-telefonlar va boshqalar) uchun tarmoqqa kirish nuqtasidir. Ham simli, ham simsiz kirish. Ilgari adabiyotlarda bu daraja *“Kirish moduli”* deb ataladi *(3-rasm).*



3-rasm. Kirish darajasi

Kirish darajasidagi qurilmalar, qoida tariqasida, OSI modelining ikkinchi darajasining (L2) kalitlari, ya’ni. marshrutlash xususiyati yo‘q. Kommutatorlar birlamchi tarmoq segmentatsiyasini (VLAN texnologiyasi) amalga oshiradi. Biroq, ba’zi hollarda, uchinchi tomon qurilmalari ham ishlatilishi mumkin. 10 darajasi (L3). Kirish qatlami qurilmalari yuqori tezlikdagi simli (Gigabit Ethernet)
va simsiz (802.11n) tarmoq ulanishini ta’minlashi kerak. Kirish qatlami sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan uskunalar: Cisco Catalyst 4507R+E 7 slotli shassi, har bir slot uchun 48 Gbit/s. Cisco Catalyst 4500 E-Series Supervisor Engine 7L-E Cisco Catalyst 4500 E-Series 48 Ethernet 10/100/1000 (RJ45) PoE+ portlari Cisco Catalyst 4500 E-Series 48 Ethernet 10/100/1000 (RJ45) PoE+, UPoE portlari Ciscone Statalyst E375004/ 0 /1000 PoE+ portlari Cisco Catalyst 3750- X Series Stackable 24 Ethernet 10/100/1000 PoE+ portlari Cisco Catalyst 3560- X Series Standalone 48 Ethernet 10/100/1000 PoE+ portlari Cisco Standalone E360101/ 0/1000 PoE+ portlari Cisco Catalyst 2960-S Series 48 Ethernet 10/100/1000 PoE+ portlari va ikkita 10GbE SFP+ Uplink portlari Cisco Catalyst 2960-S [2]

Kirish darajasi mijoz qurilmalari uchun tarmoqqa kirish nuqtasi bo‘lganligi sababli, u birinchi navbatda foydalanuvchilarning o‘zlarini, korporativ resurslarni va tarmoqni ulangan mijozlar qurilmalar (ular turli xil viruslar bilan kasallangan bo‘lsa) yoki xakerlarning zararli hujumlaridan himoya qilishi kerak. mahalliy tarmoqqa kirish huquqiga ega bo‘lganlar. Kirish darajasi quyidagi xavfsizlik texnologiyalarini o‘z ichiga oladi:[5] ***DHCP snooping*** -

foydalanuvchilarni noma’lum DHCP serveridan manzil olishdan himoya qiladi, shuningdek, tajovuzkor barchaIP manzillarni egallashini oldini oladi. ***IP Source guard*** **-** IP-spoofingdan himoya qilish, ya’ni. manba IP manzilini aldashdan. Port xavfsizligi kommutator portida qabul qilingan MAC manzillar soniga cheklov qo‘yadi. MAC manzilini buzishva jadvalni to‘ldirishga qaratilgan hujumlardan himoya qiladi *(4-rasm)*

DHCP Snooping Binding Table

Port	MAC	IP
1/1	AA	10.4.10.10
1/2	DD	10.4.10.20
1/24	EE	10.4.200.10

4-rasm. Dinamik ARP tekshiruvi - ARP spoofingdan himoya qilish.

Kirish darajasidagi kalitlardan foydalanish foydalanuvchilar va serverlarni ulash xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Ayni paytda qatorda yangi, yanada samarali va zamonaviy Cisco Catalyst 2960-X modeli paydo bo‘ldi, uning narxi avvalgi modelning narxi bilan taqqoslanadi. Tarmoqlarni loyihalashda yangi kalitlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. 3560, 3750, 4500 va 4507 seriyali kalitlar kamroq ishlatiladi va faqat kirish darajasi uchun alohida kalitni sotib olayotganda amaliy emas (foydalanuvchilarning kam soni). Ushbu kalitlar tarqatish qatlami uchun ko‘proq mos keladi *(5-rasm).*



5-rasm. Cisco Packet Tracerda bajarilgan.

Yaqin masofada joylashgan (bitta server kabinetida) bir nechta kirish darajasidagi kalitlarni o‘rnatishda stacking texnologiyasidan foydalanish tavsiya etiladi (6-rasm).



6-

rasm. Stacking texnologiyasi

Ushbu texnologiya uskunani bir butunga birlashtirish imkonini beradi. 72 portli bitta qurilma sifatida uchta 24 portli kalitlardan iborat to‘plam ishlatiladi. Bu boshqaruv va konfiguratsiyani sezilarli darajada soddalashtiradi, shuningdek, qo‘shimcha nosozliklarga chidamlilikni amalga oshiradi. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, ushbu yechim sezilarli darajada qimmatroq bo‘ladi, chunki u 2960-S va 2960-X seriyali kalitlar uchun qo‘shimcha stacking modullarini sotib olishni talab qiladi. Har bir kirish sathining kaliti birlashtirilgan havola orqali tarqatish qatlamining kalitlariga ulanishi kerak (bu haqda keyinroq). - Kirish darajasining kalitlari foydalanuvchilarning o‘ralgan juft ulanishi uchun 90 metrdan uzoqroqda joylashgan bo‘lishi kerak (kabel shkafi yoki server xonasi). Agar kirish qatlami qurilmalari tarqatish qatlamining kalitlaridan 100 m dan ortiq masofada joylashgan bo‘lsa, u holda optik tolali ulanish qo‘llaniladi. Bu optik tolali ulanishlarni (SFP, SFP texnologiyasi) qo‘llab-quvvatlaydigan kalitlarni loyihalash va yotqizishda e’tiborga olinishi kerak. Alternativlar kirish qatlami qurilmalari tarmoq infratuzilmasida eng arzon hisoblanadi, ammo ularning soni juda ko‘p bo‘lishi mumkin, bu esa yuqori xarajatlarga olib keladi. Zamonaviy 24 portli Cisco kalitining narxi (Catalyst 2960-X 24 GigE 4 x 1G SFP LAN Base) taxminan 2400 dollarni tashkil qiladi. Boshqa modellarni tanlashda siz kirish darajasidagi qurilmalardan qanday funksionallik kerakligini aniq tushunishingiz kerak. Shu kabi konfiguratsiyadagi D-link, Zyxel kompaniyalarining ikkinchi darajali kalitlari 2-3 baravar arzonga tushadi. Bunday kalitlar serverlarni ulash uchun javob beradi. Foydalanuvchilarni ulash uchun siz yuqorida aytib o‘tilgan kompaniyalarning arzonroq yechimlaridan foydalanishingiz mumkin, ammo xavfsizlik talablari juda yuqori bo‘lmasa. Masalan, D-link va Zyxel kalitlari arzonligi va vazifalari uchun yetarli funksionalligi tufayli Internet-provayderlar orasida juda keng tarqalgan. O‘zimdan shuni qo‘shimcha qilmoqchimanki, katta korporativ segmentdagi Cisco kalitlari deyarli standartga aylandi. Qurilmalar tarqatish qatlami qurilmalari odatda OSI modelining Layer 3 (L3) kalitlari hisoblanadi.

Kommutatorlar tarmoq segmentlari o‘rtasida (turli VLAN-lar o‘rtasida) trafikni marshrutlashni amalga oshiradi, shuningdek, xavfsizlik tizimi va tarmoq siyosatini (kirishni boshqarish) amalga oshiradi. Tarqatish qatlami sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan uskunalar: Cisco Catalyst 6500 E-Series 6-Slot shassisi

Cisco Catalyst 6500 VSS Supervisor 2T 2 portli 10GbE va PFC4;

Cisco Catalyst 6500 16 portli 10GbE tolali modulli DFC4;

Cisco Catalyst 6500 4-port 40GbE/16-port 10GbE tolali modul w/DFC4;

Cisco Catalyst 6500 WX-X6904-40G moduli uchun 4-port 10 GbE SFP+ adapter;

Cisco Catalyst 3750-X Series ikkita 10GbE SFP+ va ikkita GbE SFP portli tarmoq moduli; [6,7,8]

Cisco Catalyst 3750-X Series to‘rt GbE SFP portli tarmoq moduli Siz ushbu modellardan ham foydalanishingiz mumkin: Cisco Catalyst 3560-X Series mustaqil 48 Ethernet 10/100/1000; Cisco Catalyst 3560-X Series mustaqil 24 Ethernet 10/100/1000. Biroq, bu Mustaqil kalitlar ekanligini unutmang, ya’ni. stacking texnologiyasini qo‘llab quvvatlamaydi (3750-X dan farqli o‘laroq), ya’ni ushbu modeldagi kalitlardan foydalanganda yuqori samarali va nosozliklarga chidamli konfiguratsiya mavjud emas.

Dizayn metodologiyasi - mijozlarning talablarini bilib oling (miqyos, ma’lumotlarni to‘plash, dastur va xizmatlarni rejalashtirish, tashkiliy texnik maqsadlar va cheklovlar) Mavjud tarmoqni tavsiflang (mijoz haqida ma’lumot, baholash/audit, trafik tahlili hisobot talab qilinadigan xususiyatlar, mavjud tarmoq muammolari, harakatlar loyihani boshlash/indeks loyihasi) tarmoq yechimlari va topologiyasini loyihalash (yuqoridan pastga, moduli) hisoblaniladi.

Amalga oshirish metodologiyasi - Amalga oshirish rejasini ishlab chiqishda, uchuvchi tarmoq yoki prototip yaratish loyihani to‘liq hujjatlashtirish tarmoqni amalga oshirish/yaratish kerak bo‘ladi. Bunda tarmoq ishlashini tekshirib, asosiy parametrlarni kuzatib, keyinchalik dizayn bosqichi bilan solishtirish kerak. Tarmoq dizayni uchun ierarxik modeldan foydalaniladi.*(7-rasm)*



7-rasm Tarmoq dizayni uchun ierarxik modeli

Xulosa

Tarmoqda sodir bo‘layotgan turli-xil hujumlar, konfidensial ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyoj va istaklar natijasida ortib bormoqda.

Shu o‘rinda korporotiv tarmoqlarda axborot xavfsizligi ma’lumotlar bazasida kiberxavfsizlik, kiberterrorizm va uning jamiyat hayotiga solayotgan xavfining ko‘lami ham oshib borayotganini ta’kidlash joiz. Kiberterroristik harakat (kiber hujum)-kompyuterlar va axborot kommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshirilgan, odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘diradigan yoki potensial xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan, moddiy ob’ektlarga katta zarar yetkazishi yoki shunga olib kelishi mumkin bo‘lgan, ijtimoiy xavfli oqibatlarning boshlanishi yoki maqsadi bo‘lgan siyosiy sababdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. IEEE Access jurnalini "Corporate Network Transformation with SD-WAN" va "Corporate Networking with Advance Routing, Switching, and Security" kabi materiallari.

3. O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi to‘g‘risidagi nizomi.

4. Информационные технологии управления в органах внутренних дел: Учебник / Под ред. доцента Ю.А. Кравченко. - М., 1998.

5. Мельников В.П. и др. Информационная безопасность и защита информации: Учебое пособие. - М., 2008.

6. *G‘aniyev S.K., Karimov M.M., Tashev K.A.* Axborot xavfsizligi. Axborot-kommunikatsion tizimlari xavfsizligi. - T., 2008.

7. “Hacking Exposed: Network Security Secrets & Solutions” (Stuart McClure, Joel Scambray, George Kurtz) - 1999, McGraw-Hill Education tomonidan chop etilgan.

8 “Network Security: Private Communication in a Public World” (Charlie Kaufman, Radia Perlman, Mike Speciner) - 2002, Prentice Hall PTR tomonidan chop etilgan.

9. “Firewalls and Internet Security: Repelling the Wily Hacker” (William R. Cheswick,

Steven M. Bellovin, Aviel D. Rubin) - 2003, Addison-Wesley Professional tomonidan chop etilgan.

TARMOQ HUJUMLARNI ANIQLASH TIZIMLARINI QURISH VA USULLARINI ISHLAB CHIQISH

Sulaymonov Zafarjon Raxmonberdiyevich
University of management and future technologies
Telekommunikatsiya injineringi
1-bosqich magistranti
zafarsulaymonov.88@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195240

Annotatsiya: *Ushbu maqola tarmoq hujumlarini aniqlash tizimlarini loyihalash va qurish usullari haqida fikr yuritadi. Unda tarmoq xavfsizligini ta’minlash uchun qoidaga asoslangan yondashuvlar va anomaliyalarni aniqlash texnikalarining integratsiyasi ko‘rib chiqiladi. Maqolada real vaqt rejimidagi tahlil va moslashuvchan aniqlash mexanizmlarining kiberhujumlarga qarshi kurashda muhimligi ta’kidlanadi. Shuningdek, turli aniqlash modellari samaradorligi tahlil qilinib, tizim unumdorligini oshirish va noto‘g‘ri aniqlashlarni minimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Mazkur tadqiqot so‘nggi yutuqlarni o‘rganib chiqish orqali tadqiqotchilar va tarmoq ma’murlari uchun mustahkam va moslashuvchan tarmoq himoya tizimlarini amalga oshirishda foydali bo‘lishni maqsad qilgan.*

Kalit so‘zlar: *Axborot xavfsizligiga doir tushunchalar, Razvedka hujumi, Foydalanishga ruxsat olish hujumlari, Tarmoqlarda bo‘ladigan hujumlar (Land, Smurf, Teardrop, Ping of Death), Andoza bilan mos tushishi, Evristik yondashuv, Eksployt va Zaifliklar signaturasi.*

Hozirgi davrga kelib axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadal suratlarda rivojlanib borishi insoniyatni bir tomondan quvontirsa bu rivojlanish ikkinchi tomondan o‘z navbatida bir qancha taxdidlarni (tarmoq hujumlar, axborot kommunikatsiya tizimlariga bo‘lgan hujumlar) keltirib chiqaruvchi omillarga sababchi bo‘lib qolmoqda. Demak, tarmoqlarga bo‘layotgan turli-xil hujumlarga nisbatan hujumlarni himoyalash tizimlarini yaratish talab etiladi. Internet tarmog‘i nafaqat axborot olish kanali balki iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan dinamik axborot manbayiga aylanganligi hammaga ma’lum. Axborot kommunikatsiya tizimlari vositalarini rivojlanishi va apparat vositalarini ixcham holga keltirilishi yangi avlod axborot infratuzilmasini taraqqiy etishiga olib keldi. Bu esa o‘z-o‘zidan axborot xavfsizligini ta’minlashga bo‘ladigan talabni oshirib boradi.

Axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha oldindan turli mamlakatlarda izlanishlar olib borilgan va hozirgi kunga kelib axborot xavfsizligi konsepsiyasining asl mohiyati axborot xavfsizligini ta’minlashga yondashish kompleksli, ya’ni xavfsizlikni ta’minlashning turli choralarini o‘z ichiga olishi shart: [1,3]

qonuniy - qonunlar, ma’yoriy aktlar, standartlar;

ma’muriy - tashkilot boshqarmasi qabul qilgan, umumiy harakterdagi harakatlar;

muolajaviy (protseduraviy) **-** personal tomonidan amalga oshiriladigan xavfsizlik choralari;

dasturiy-texnik (muayyan texnik choralari).

Tashkilotning hajmi va uning axborot kommunikatsion tizimining spesifikatsiyasidan qayt’iy nazar axborot xavfsizligi rejimini ta’minlash bo‘yicha vazifalar har qanday ko‘rinishda ham quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olishi kerak:

axborot xavfsizligi siyosatini aniqlash;

axborot xavfsizligini boshqarish tizimi chegaralarini aniqlash va uni yaratish maqsadlarini aniqlashtirish;

ehtimoliy xavflarni boshqarish;

axborot xavfsizligini ta’minlaydigan qarshi choralarni tanlash;

axborot xavfsizligini boshqarish tizimini auditdan o‘tkazish.

Axborot xavfsizligini ta’minlashda asosan quyidagi uchta konsepsiyaga e’tibor beriladi:

konfidensiallik – axborotdan faqat avtorizatsiyadan o‘tganlar foydalanishi mumkin;

yaxlitlik – axborotni to‘g‘riligi va to‘liqligi hamda qayta ishlash metodlarini kafolatlanganligi;

foydalanuvchanlik - axborot va assotsiatsiyalangan ob’ektlar avtorizatsiyalangan foydalanuvchilar ehtiyojlari bo‘yicha foydalanishi mumkin. [1]

Bundan tashqari halqaro hamjamiyat tomonidan axborot kommunikatsiya tizimlari xavfsizligini ta’minlash borasida to‘qqizta tamoyil belgilab berilgan:

1. **Ogohlantirilganlik** (awareness) – foydalanuvchilar axborot kommunikatsiya tizimlarning xavfsizligi zaruriyatini va uni kuchaytirish choralarini ko‘rishni anglamog‘i shart.

2. **Javobgarlilik** (responsibility) – axborot kommunikatsiya tizimning barcha foydalanuvchilari axborot xavfsizligi uchun mas’uldirlar.

3. **Ta’sirlarga javob qaytarish** (response) – foydalanuvchilar xavfsizlik to‘qnashuvlarini himoyalash, javob qaytarish va aniqlash uchun hamjihatlikda va bir vaqtda harakat qilishlari kerak.

4. **Ahloq** (ethics) – ishtirok etuvchilar bir-birlarini qonuniy qiziqishlarini rioya qilishlari shart.

5. **Demokratiya** (democracy) – axborot kommunikatsion tizimlari xavfsizligi demokratik jamiyatning asosiy qimmatbaho narsalari bilan mos kelishi shart.

6. **Ehtimoliy xavflarni baholash** (risk assessment) – ishtirok etuvchilar risklarni baholab turishlari shart.

7. **Rejalashtirish** (loyihalashtirish) va xavfsizlikni qo‘llash (security design and implementation) – ishtirok etuvchilar axborot kommunikatsion tizimlarida xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini qo‘llashlari shart.

8. **Xavfsizlikni boshqarish** (Security management) – ishtirok etuvchilar xavfsizlikni boshqarishda mukammal yondashuvni qo‘llashlari shart.

9. **Qayta baholash** (reassessment) – ishtirok etuvchilar axborot kommunikatsion tizimlar xavfsizligini qaytadan ko‘rib chiqishlari va baholashlari hamda xavfsizlik siyosatida, amaliyotda, baholashda
va muolajada (protsedura) mos modifikatsiyalashni o‘tkazishlari shart.

Barcha tashqi tahdidlar, tarmoq hujumlari yoki masofadan tarmoq hujumlari vositachiligida amalga oshiriladi. Masofadagi tarmoq hujumi deganda dasturiy vositalar yordamida butun axborot kommunikatsiya tizimining dasturiy komponentlariga ta’siri tushuniladi. Odatda hujumning uchta asosiy turi ajratiladi:

1. Razvedka hujumi;

2. Foydalanishga ruxsat olish hujumi;

3. Xizmat qilishdan voz kechish hujumi.

Hujumning bu turlari har doim ham yakka tartibda qo‘llanilmaydi va buzg‘unchilarni o‘z maqsadlariga erishishlari uchun ulardan birgalikda foydalanishlari mumkin.

Razvedka hujumi - butun tarmoq yoki tizim haqida axborot yig‘ish uchun qo‘llaniladi. Bunday hujumlar beziyon ko‘rinishi mumkin va tarmoq ma’murlari (administratorlari) tomonidan “tarmoq shovqini” yoki bezor qiladigan harakatlar kabi qaralishi mumkin. Lekin razvedka bosqichidagi yig‘ilgan axborotlar hujumni o‘tkazish uchun qo‘llaniladi. Razvedkani o‘tkazish vositalari operatsion tizim tarkibiga kiruvchi oddiy va maxsus shakllarda ishlab chiqilgan bo‘lishi mumkin. Butun tizim va uning zaifliklari haqidagi aniq bilimlar muvaffaqiyatli hujumni ta’minlab berishi mumkin, shu sababli razvedka hujumi jiddiy tahdid sifatida ko‘rilishi lozim.

Foydalanishga ruxsat olish hujumlari - butun bir xost yoki xostlar guruhidan avtorizatsiyalanmagan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Buzg‘unchi infratuzilmadan foydalanishga ruxsat olishda yordam beradigan vosita odatda operatsion tizimda, ilovalarda yoki himoya mexanizmlarida mavjud bo‘lgan foydalaniladigan zaifliklarga bog‘liq. Bu zaifliklar tez tez buzg‘unchi tomonidan razvedka o‘tkazilishida ochiladi. Foydalanishga ruxsat olish hujumlari buzg‘unchining o‘zi qo‘lda bajarishi yoki avtomatlashtirilgan va hattoki avtomatik vositalardan foydalanish bilan amalga oshirilishi mumkin. [2]

Ushbu hujumlarini uchta avtorizatsiyalanmagan faoliyatga bo‘lish mumkin:

- ma’lumotlarn olish (o‘qish, nusxalash, joyini o‘zgartirish);
- tizimga ruxsat (buzg‘unchi tizimdan foydalanishga har xil darajali imtiyoz bilan haqiqiy ruxsat oladi);
- imtiyozlarni kengaytirish (buzg‘unchi uchun tizimni to‘liq boshqarish maqsadida kerak bo‘lganidek, buzish yashirish uchun ham zarur).

Hujumning uchinchi turi xizmat qilishdan voz kechish hujumi hisoblanadi. Bunda hujum qiluvchi legal foydalanuvchilarning tizim yoki xizmatdan foydalanishiga to‘sqinlik qilishga urinadi. Tez-tez bu hujumlar infratuzilma resurslarini xizmatga ruxsat so‘rovlari bilan to‘lib toshishi orqali amalga oshiriladi. Bunday hujumlar alohida xostga yo‘naltirilgani kabi, butun tarmoqqa ham yo‘naltirilishi mumkin.

Shu yerda aytib o‘tish joizki hujumni muvaffaqiyatli o‘tishi suqilib kirish deb hisoblanadi. Suqilib kirish amalga oshirilganda buzg‘unchi o‘zining asosiy maqsadiga erishadi, ya’ni tizimdan foydalanishga ruxsat oladi, o‘zining dasturiy kodini qo‘llash yoki hujum qilingan tizimni funksiyalarini bajarilishini to‘xtatishga olib keluvchi imkoniyatga ega bo‘ladi. Buzg‘unchining navbatdagi maqsadi yoki harakat bosqichi olingan imtiyozlarni kengaytirish, o‘zining dasturiy kodini tadbiq etish, o‘zining tizimda bo‘lganligini yoki suqilib kirish faktini niqoblash va h.k.ni o‘z ichiga olishi mumkin.

Hujumning umumlashtirilgan ssenariysi

Hujumning umumlashtirilgan ssenariysini navbatdagi qadamlar ko‘rnishida tasvirlash mumkin:

- passiv razvedka;
- aktiv razvedka;
- eksployt (ishlanmani) tanlash;
- maqsad tizimini buzish;

- “Foydali yukni” yuklash;
- buzish asoratlarini yo‘qotish.

Albatta yuqorida keltirilgan qadamlar ketma ketligi qat’iy bo‘lmasligi mumkin va ba’zi qadamlar chiqarib tashlanishi mumkin.

Tarmoqlarda bo‘ladigan hujumlar

Zamonaviy nashrlarda va internet manbalarda bir qancha hujumlar yoritilgan. Lekin ularning ichida xizmat qilishdan voz kechishga olib keladigan hujumlar alohida o‘rin tutadi.

Land hujumi - ochiq portga SYN bayrog‘i o‘rnatilgan TCP paketlarni yuborish orqali amalga oshiriladi. Paketda manba adresi qabul qiluvchi adresi bilan bir xil, hamda bir xil port nomerlari ko‘rsatiladi: [2]

12:00:00:1000 192.168.1.1.80 > 192.168.1.1.80

12:00:00:1010 192.168.1.1.31337 > 192.168.1.1.31337

Smurf hujumi - buzg‘unchi manbaning yolg‘on adresli (o‘lja xosti adresidan foydalanadi) keng uzatiladigan exo-so‘rovlarini kiritadi.

O‘lja xost bunda ko‘p sonli exo-javoblarni qabul qiladi:

00:00:05.327 spoofed.pound.com > 192.168.15.255:icmp: echo request

Teardrop hujumi - bu o‘tkazishda buzg‘unchi fragmentlar yashiringan fragmentlangan paketlar guruhini yuboradi:

00:25:48 wil.com.45958 > target.com.3964: udp 28 (frag 242:36@0+)

00:25:48 wil.com > target.com: (frag 242:4@24)

Bu misolda aralashgan 242-raqamli fragmant 36 oktetli ma’lumotlar bilan yuboriladi. Ikkinchi satrda to‘rtta qo‘shimcha ma’lumotlar okteti 24 bilan aralashgan holda. Shu tarzda tizim bu paketni qayta ishlashda 36 dan 24 ga qaytishi lozim.

Ping of Death hujumi - *ping* dasturi yordamida katta ICMP paketini orqali amalga oshiriladi. *Ping* buyrug‘i ICMP paketlardan ECHO_REQUEST so‘rovni yuborish va javobni kutish orqali adresatni foydalanuvchanlik xususiyatini tekshirish maqsadida ishlatadi. Ping paketlari 32 bayt uzunlikka ega.

Windows uchun: ping – l 65527 target.com

Unix uchun: ping – s 65527 target.com

IP sarlavha 20 bayt uzunlikka ega, shuning uchun natijaviy paket (65527+32) paketning ruxsat etilgan maksimal uzunligidan oshib ketadi.

Hozirgi paytda “signatura” so‘zining aniq sharhi yo‘q. Odatda signatura deganda, trafikda hujumlarni aniqlash uchun andoza sifatida qo‘llaniladigan bitli mezonlar to‘plami tushuniladi. Bir qator hujumlarni aniqlash tizimlarini ishlab chiqaruvchilar harakatlarni taxminli kombinatsiyasida aniqlashning mantiqiy qoidasi sifatida “filtr” atamasidan foydalanishadi.

Signatura - bu qanoatlantiradigan holat sodir bo‘lganda hujum yoki hujumlar sifatida aniqlaydigan (odatda signaturalarni aniqlash faqat andoza bilan mos tushgan hujumlarni aniqlaydi) bir qancha shartlarni tushunish mumkin. Signarularni aniqlash uchun quyidagi yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin.

Andoza bilan mos tushishi - bu holda aniqlash ma’lumotlarning ko‘rilayotgan elementida (masalan, yagona paketda) qo‘zg‘almas baytlar ketmaketligini qidirishga asoslanadi. Qoidaga binoan, andoza faqatgina shubhalanayotgan paket aniq xizmat bilan bog‘langan holda, ya’ni aniq portga tayinlangan holda tuziladi, lekin aniq portga ega bo‘lmagan protokollar ham mavjud. Signatura shartlariga misol: IPv4ning paketi TCP protokoliga ko‘rsatma va 2222 tayinlangan

portini o‘z ichiga oladi, foydali yuklanma esa foo - “ogohlantirishni hosil qilish” qatorini o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalliklari va kamchiliklari quyidagi *1-jadvalda* keltirilgan.

1-jadval

Afzalliklari	Kamchiliklari
Aniqlash qoidalarining berilishi oddiy; Ushbu hujum foydalanayotgan zaiflik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa ishonchliligi yuqori; Barcha protokollar uchun foydalanish mumkin	Agarda andoza unikal bo‘lmasa yolg‘on aniqlashlarni ishlab chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Bitta zaiflik uchun bir nechta andoza talab etilishi mumkin. Faqat bitta paketni tahlili bilan bog‘liq yondashuvning chegaralanganligi Ushbu metodni “aylanib o‘tish” variantlari mavjud.

Holat andozasi bilan mos tushishi – ma’lumotlari oqiminin holati bitta-bitta paket bo‘yicha o‘rnatiladi. Holat ma’lumotlariga mos keluvchi boshqa paketni yoki paketlarni paydo bo‘lishi hujum deb hisoblanadi. Ushbu yondashuvning afzallik
va kamchiliklari *2-jadvalda* keltirilgan.

2-jadval

Afzalliklari	Kamchiliklari
Andoza bilan mos tushishi yondashuviga nasbatan yuqori samaradorlikka ega; Ushbu hujum foydalanayotgan zaiflik bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa. Ishonchliligi yuqori Barcha protokollar uchun foydalanish mumkin Tahlillash tizimini “aylanib o‘tishni” qiyinlashtiradi.	Agarda andoza unikal bo‘lmasa yolg‘on aniqlashlarni ishlab chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Hujumni modifikatsiyalash (o‘zgartirish) aniqlashni o‘tkazib yuborishga olib kelishi mumkin. Bitta zaiflik uchun bir nechta andoza talab etilishi mumkin.

Qo‘llanilayotgan protokol andozasi asosida tahlillash - holatni shakllantirishda protokolini har-xil elementlarini dekoderlash foydalaniladi. Hujumlarni aniqlash tizimi protokolni dekoderlashda buzilishlar uchun RFC tomonidan aniqlangan qoidalarni qo‘llaydi. Ba’zi hollarda bu buzilishlar batafsil tahlilni talab qiluvchi, protokolning aniq sohalarida joylashganligi *3-jadvalda* keltirilgan.

3-jadval

Afzalliklari	Kamchiliklari

Agarda protokol yaxshi aniqlangan bo‘lsa hujumlarni o‘tkazib yuborishlar kamaytiriladi. Ushbu hujum foydalanayotgan zaiflik bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa. Bu metod hujumlarning variantlarini ham aniqlashi mumkin. Protokol qoidalari aniqlangan bo‘lsa, ishonchli.	Agarda RFC xar-xil interpretatsiyalarga imkon bersa o‘tkazib yuborishlar soni ko‘p bo‘ladi. Signaturani shakllanitirishni mushkulligi.

Evristik yondashuv – evristik tarzda olingan mantiqiy qoidalardan foydalanadi. Masalan, portlarni skanerlashni aniqlash uchun maqsad serverining teginilgan portlarini chegaralarini qo‘llash mumkin. Undan tashqari signatura faqatgina aniq turdagi paketlarni berilishi bilan ham cheklanishi mumkin (masalan SYN paketlarni). *4-jadvalda* ushbu yondashuvning afzallik va kamchiliklari keltirilgan.

4-jadval

Afzalliklari	Kamchiliklari
Signaturalar mukammal o‘zaro aloqani akslantirishi mumkin. Oldingi metodlar aniqlamagan hujumlarni aniqlash imkoniyati borligi.	Evristikani ishlab chiqish mushkul va yuqori malakalilikni talab qiladi. Evristik algoritmlar mos trafikka moslashtirilishini talab qiladi.

Mos keladigan aniqlash texnologiyasini belgilaydigan signaturalarni ishlab chiqarishning har-xil variantlari mavjud. Ularni tasvirlash uchun MicroSoft RPC DCOM (MS03-026 byullenteni)dagi buferni to‘lib toshishi zaifligidan foydalanamiz.

Windows tizimining DCOM (Distributed Component Object Model) RPC (Remote Procedure Call) interfeysini xavfsizlik tizimida zaif nuqtasini bartaraf etish maqsadida 2003 yil 16 iyulda chiqarilgan edi. Bu tuzatmalar hozirga qadar xavfsizlik tizimida tuynuklarni ishonchli berkitib kelmoqda. Biroq byulleten birinchi versiyasining “Xavflilikni kamaytiruvchi faktorlar” va “Vaqtinchalik yechimlar” bo‘limlarida xavfxatar olib keladigan barcha portlar ko‘rsatilmagan. Shuning uchun Microsoft korporatsiyasi muammolarni vaqtinchalik yechimini qo‘llaydigan foydalanuvchilar tuzatishlarni o‘rnatishlaridan oldin kompyuter himoyasi uchun kerakli axborotlarga ega bo‘lishlari maqsadida RPC xizmatlari foydalanadigan barcha portlar ko‘rsatilgan byulletenning yangilangan versiyasini chiqardi. RPC protokoli Windows operatsion tizimi tomonidan qo‘llaniladi. U jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’minlab beradi va bir kompyuterda ishga tushirilgan dasturlarga masofadagi kompyuterda to‘sqinliksiz kodni bajarish imkonini beradi. Uning asosida boshqa protokol, ya’ni OSF (Open Software Foundation) RPC yotadi. Windows operatsion tizimida qo‘llaniladigan RPC protokoli oxirgi kengaytirilgan talqini (versiya) hisoblanadi.

DCOMni faollashtirish bo‘yicha RPC instruksiyalariga tegishli Windows protseduralarini masofadan chaqirish xizmatlarining boshqa qismlarida zaif nuqtalar aniqlangan edi. Buzg‘unchi bu zaif nuqtalarni qo‘llab buzilgan kompyuterning lokal tizimda huquqqa ega kodni ishga tushirish yoki RPCSS xizmatining ish foaliyatini to‘xtatilishiga olib kelishi mumkin. Undan keyin

buzg‘unchi komyuterda har qandan harakatni bajarishi mumkin. Buzg‘unchi bu zaif nuqtadan foydalana olishi uchun zaif serverning oxirgi RPCSS xizmatiga yo‘naltiriladigan RPC noto‘g‘ri xabarlarni jo‘natadigan dasturni yaratishi kerak.

Bu hujumni batafsil ko‘rib chiqish mumkin. RPC – server har biri 16 baytdan iborat IID unikal identifikator bilan aniqlanadigan har-xil interfeyslarni taqdim etadi.[2,5]

IsystemActivator interfeysining quyidagi IIDga ega:

00001a0 – 0000 – 0000 - s000 - 000000000046

Har bir interfeys opnum identifikatori qiymatini aniqlaydigan funksiyalar oilasini taqdim etadi. Ushbu zaiflik uchun chaqiriladigan interfeysda qiymat *opnum=4* ga teng. Mijoz tomonidan so‘ralayotgan interface/opnum kombinatsiyasi funksiya uchun bir qancha har-xil argumentlarni o‘tqazib yuboradi. Mijoz avvalo serverning 135/tcp (yoki 139, 445, 593/tcp, 135/udp portlari bilan) porti bilan TCP bog‘lanishni o‘rnatadi.

Mijoz bog‘lanish o‘rnatilganidan keyin o‘zi hohlagan interfeysga ulanish uchun PING yuboradi. So‘ng mijoz REQUEST so‘rovini tanlangan interfeysda belgilangan opnum funksiyasini chaqirish maqsadida jo‘natadi. Bu so‘rovni tarkibi chaqirilayotgan funksiya argumenti sifatida server tomonidan interpretatsiyalanuvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bunday argumentlardan biri faylning nomi hisoblanadi va u quyidagicha beriladi: \\server\filename.

Bunda Windows 32 baytdan oshmagan server nomini kutadi. Agarda hujum qiluvchi uzun nom yuborsa, u holda foydalanilayotgan tizim bibliotekasida qo‘llaniladigan zaiflik evaziga, buzg‘unchi shu uzun nomga qo‘yilgan o‘zining shaxsiy kodini bajarish imkonini beradigan buferni to‘lib toshishi yuzaga keladi.

Ushbu hujumni aniqlash uchun turlicha signaturalarni ko‘rib chiqamiz.

Eksployt signaturasi - u hujumni birdan identifikatsiyalash imkonini beruvchi hujumning xarakteristikalariga tayanadi. Ko‘rib chiqilayotgan misol uchun zaiflik parametrlari masalan quyidagicha bo‘lsin:

- So‘ralgan zaif System Activator interfeysi;
- So‘ralgan zaif funksiya (opnum=4);
- Faylning uzun nomi;
- Faylning nomlarida zaiflikni amalga oshiradigan marshuritizator komandalarining mavjudligi.

Bu holda asosiy parametr bo‘lib, normal ish faoliyatida kuzatilmaydigan zaiflikni amalga oshiruvchi mashina komandalarini faylning nomida mavjudligi hisoblanadi. Shuning uchun zaiflik signaturasi bo‘lib hujumni amalga oshirish uchun mashina komandasidan tashkil topgan qator xizmat qilishi mumkin. Ushbu signatura faqat ma’lum eksloyt qo‘llanilganda samaralidir. Agarda buzg‘unchi mashina komandasini o‘zgartirsa, u holda modernizatsiyalangan hujumni signatura aniqlay olmaydi. Bu signaturani aylanib o‘tishning yana bir usuli REQUESTni o‘z ichiga olgan ya’ni mashina kodini har xil fragmentlarda joylashtirgan paketni fragmentatsiyalash hisoblanadi.

Zaifliklar signaturasi - bu signatura aniq bir zaiflikning xususiyatlariga tayanadi, ya’ni ushbu zaiflikni qo‘llash uchun bajarish kerak bo‘lgan harakatlar va parametrlarga ega. Ko‘rib chiqilayotgan misol uchun hujumni muvaffaqiyatli bo‘lishiga olib keladigan asosiy shartlarni ko‘rib chiqamiz.

- 135/tcp porti bilan bog‘lanishni o‘rnatish;
- Zaif interfeysga BIND ni yuborish;
- Opnum=4 li REQUEST ni yuborish;

- Argumentlar ro‘yxatida parametrlarni mavjudligi;
- Serverning uzun nomini mavjudligi.

Bu holda zaiflikning farqli xarakteristikasi bo‘lib serverning uzun nomi hisoblanadi. Shuning uchun signatura sifatida server nomining uzunligini nazoratlash bo‘lishi mumkin ya’ni u 32 baytdan oshmasligi kerak.

Protokollarning anomalliklarini signaturalari ba’zida protokolning anomalliklarini aniqlash deb ham yuritiladi (Protocol Anomaly Detection, PAD). Bunday signaturalarni ishlab chiqish uchun RFCga mos holda ko‘rilayotgan protokolning amalga oshirilishini tahlil qilish zarur. Barcha protokollar ham RFC bo‘yicha tekshirilgan bo‘lmasligi mumkin, undan tashqari ba’zi dasturiy mahsulotlar spesifikatsiyani buzadigan trafikni o‘tkazib yuborishi mumkin.

Xulosa

O‘rganilgan ma’lumotlardan shuni hulosa qilish mumkinki. Sodir etilayotgan taxdidlarning oldini olish maqsadida turli hil choralar belgilab o‘tilganligi, shunga qaramasdan har bir foydalanuvchi mustaqil ravishda tizimlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan taxdidlarni nafaqat bilishi balki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan taxdidlar uchun shaxsan mas’ulligini anglab yetishi lozimligi, shuningdek, ichki va tashqi taxdidlarning kerakli bo‘lgan omillarini o‘rganib qo‘yishlari maqsadga muvofiq bo‘lar ekan.

Hujumlarni aniqlash tizimlarini qurish usullari muhim jihatlarni o‘z ichiga olishi, ularning asosiy maqsadi xavfsizlikni ta’minlash va muommolarni oldini olishga qaratilgan bo‘lib, axborot hujumlarini aniqlash va oldini olish tizimlarida tashkilotlarning axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutishi va ushbu jarayonda zamonaviy texnologiyalar va metodologiyalarni qo‘llash samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. IEEE Access jurnalini "Corporate Network Transformation with SD-WAN" va "Corporate Networking with Advance Routing, Switching, and Security" kabi materiallari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi to‘g‘risidagi nizomi.
4. Мельников В.П. и др. Информационная безопасность и защита информации: Учебое пособие. - М., 2008.
5. G‘aniyev S.K., Karimov M.M., Tashev K.A. Axborot xavfsizligi. Axborot-kommunikatsion tizimlari xavfsizligi. - T., 2008.

SPAM XABARLARNI ANIQLASH USULLARI VA VOSITALARINI TAHLILI

Umurzaqov Bahrom Burxonovich
University of management and future technologies
Telekommunikatsiya injineringi
1-bosqich magistranti
baxromumrzakov @gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195246

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ma’lumotlarni spam-xabarlardan himoya qilishda, qo‘llaniladigan tushunchalar, aniqlash usullari va vositalarini tahlili keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: Spam tushunchasi, Foydalanuvchilarning personal ma’lumotlarini o‘g‘irlash, Xabarlarni sinash uchun jo‘natish, Spamni tarqatishni uchun dasturli ta’minot, Qora ro‘yxatlar, Nomaqbul pochta filtrlari, Forvard teskari DNSni izlash, Massivlikni nazorat qilish, Xabarlarning internet-sarlavhalarini tekshirish, Kontentli filtrasiya, Greylisting, Ochiq relelar ro‘yxati.*

Hozirgi kunda dunyo miqyosida axborot texnologiyalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanib borishi qulayliklar bilan bir qatorda yangi muammolarni o‘rtaga qo‘ymoqda. Qayerda kompyuter texnologiyalari yuqori darajada rivojlangan bo‘lsa, o‘sha yerda birinchi navbatta amaliy dasturlarining ishi to‘satdan ishdan chiqib qolishi, dasturiy ta’minot va axborotga hujumi, kompyuter jinoyatchiligi mavjudligidan dalolat beradi. Kompyuter jinoyatchiligi va buzg‘unchi dasturlarning yaratilishi har yili 30-40% foizga oshib ketmoqda. Internet global tarmog‘ini rivojlanishi kompyuter jinoyatchiligini oshishiga juda katta yordam bermoqda.

“Spam” - termini yangi mazmunda jonga teguvchi elektron tarqatmalar yoki pochta chiqindilari degan ma’noni anglatadi. Spamlar 1993-yilda paydo bo‘lgan. Usenet kompyuter tarmog‘i administratori Richard Depyu yaratgan dasturdagi xato 1993-yil 31-mart kuni konferensiyalardan biriga ikki yuzta bir xil xat jo‘natilishini keltirib chiqardi. Uning norozi suhbatdoshlari jonga teguvchi xabarlarga tezda – “spam” degan nom topdilar. “Kasperskiy Laboratoriyasi” tushunchasiga ko‘ra, spam - bu so‘ralmagan anonim ommaviy tarqatmalardir.

Spam (foydalanuvchi tomonidan so‘ralmagan axborot) jo‘natuvchining (spamer) maqsadi va vazifalariga qarab tijorat axborotiga ega bo‘lishi yoki unga hech qanday aloqasi bo‘lmasligi mumkin. Shunday qilib, mazmuniga qarab, xabarlarning “tijorat” spami – “unsolicityed commyercial e-mail” (umumiy qabul qilingan abbreviaturasi - UCE) va “notijorat” – “unsolicityed bulk e-mail” (UBE) turlari mavjud.

SPAM xabarlarni pochta serverlarida aniqlovchi usullari

“Spam” xabarlarini shakllantirish va tarqatish texnologiyasi juda katta masshtablarni egallamoqda – har kuni dunyoda o‘n milliardlab (elektron pochtaning 40 dan 70 foizi) spam xabarlari tarqatiladi. Bunday masshtablar tarqatish texnologiyasi uchun sezilarli darajada mablag‘ talab etadi.

Spam xabarlarini shakllantirishning texnologik zanjiri quyidagi ko‘rinishni oladi:

- Qabul qiluvchilar tomonidan e-mail-manzillarning to‘planishi va verifikasiya qilinishi.

- Tarqatish nuqtalari – kompyuterlarni tayyorlash, ular orqali spam tarqatilishi amalga oshiriladi.
- Tarqatish uchun dasturiy ta’minotni ta’minlash.
- Mijozlarni izlash.
- Konkret tarqatma uchun reklamali e’lonlar yaratish.
- Tarqatmalarni ko‘paytirish.
- Texnologik zanjirdagi har bir qadam mustaqil bajarilishi mumkin.
- Manzillar ro‘yxatini to‘plash va uning verifikasiyasi. Spamni tarqatish uchun potensialli qabul qiluvchilar (“spam-baza”, e-mail database) ning email-manzillari ro‘yxatiga ega bo‘lish kerak. [2,10]

Manzillarni to‘plash quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

1. Xususiy qabul qiluvchilar, “chiroyli so‘zlar”, so‘z-raqam (jonh@, destroyer@, alex) ning zich (qalin) uyg‘unlashuvlari nomlarini lug‘at bo‘yicha tanlash;
2. Analoglar usuli - agar Joe.User@hotmail.com Joe.Vser@yahoo.com. mavjud bo‘lsa, u holda Joe.User@ yahoo. com,.@aol, com, @Paypal ni to‘liq jo‘yali va mantiqli izlash toqazo etiladi;
3. Axborotning hamma kirish manbalari – web – saytlar, forumlar, chatlar, e’lon doskalari, Usenet News, so‘z l@so‘z2.so‘z3... larning uyg‘unlashuviga (bunda bunday uyg‘unlashuvning oxirida yuqori darajadagi domen bo‘lishi kerak) Whois ma’lumotlarni nusxalash;
4. Servislar, provayderlar va shunga o‘xshash ma’lumotlar bazalarini o‘g‘irlash;
5. Foydalanuvchilarning personal ma’lumotlarini kompter viruslari va boshqa zararli dasturlar vositasida o‘g‘irlash.
6. Kirish mumkin bo‘lgan axborot manbalarini skanerlash (usul 3) vaqtida mazkur manbaning “qiziqishlar doirasi”ni aniqlashga urinib ko‘rish kerak, bu o‘z navbatida ma’lumotlarning mavzuli bazalarini olish imkonini beradi.

Provayderlarning ma’lumotlari o‘g‘irlangan holda, ko‘pincha foydalanuvchi haqida yetarlicha qo‘shimcha axborotga ega bo‘linadi, bu ham personallashtirishni o‘tkazish imkonini beradi.

Foydalanuvchilarning personal ma’lumotlarini o‘g‘irlash – nisbatan yaqinda tarqala boshladi. Afsuski, keyingi yillardagi massaviy virusli epidemiyalar antivirusli vositalarning tarqatilishi yetarli emasligini ko‘rsatmoqda, shunga bog‘liq holda personal ma’lumotlarni to‘plash bo‘yicha mazkur usulning tarqalishi o‘sa boshlaydi.

Olingan manzillarni verifisirovkalash kerak, bu quyidagi usullar bilan olib boriladi:

Xabarlarni sinash uchun jo‘natish (tarqatish) - qoidaga ko‘ra, taxminiy matnli bu xabar spam-filtrlar orqali o‘tadi. Pochta xizmati (pochta qabul qilingan yoki qilimaganligi) ning javobini tahlil qila turib, har-bir aniq manzil ro‘yxatdan harakatlanayotganligi oydinlashtirish mumkin bo‘ladi.

Unikal jo‘natmani spam-xabarlar matniga www servisda joylashgan kartinkada joylashtirish - xatlarni o‘qish vaqtida kartinka yuklantiriladi (ko‘plab zamonaviy pochtali dasturlarda bu funksiya blokirovkalangan bo‘ladi), saytning egasi esa manzilning kiruvchanligi haqida biladi. Metod manzilning validnostligini verifisirovkalamaydi, balki xatning o‘qilish faktini verifisirovkalaydi.

Jo‘natma spam-xabarda “yoziladi” (yozma qayd qilinadi). Agar qabul qiluvchi bu giperjo‘natmani bossa, u holda hech qanday yozish (yozma qayd qilish) ro‘y bermaydi, uning manzili esa validli manzil sifatida belgilanadi.

Verifisirovkalashning barcha uchta usuli ham juda yaxshi emas, chunki e-mail ma’lumotlar bazasida yetarli darajada ko‘p “o‘lik” manzillar bo‘ladi.

“Jo‘natish nuqtalari”ni tayyorlash. Bugungi kunda spamni professional jo‘natish uchta asosiy usul bilan amalga oshiriladi:

Arendalashgan servislarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri jo‘natish.

“Ochiq releyev” va “ochiq proxy” – serveslaridan foydalanish, ularning egalari tomonidan xatolik bilan konfigurlashtirilgan servislardan shunday foydalanadiki, bunda ular orqali spamlarni jo‘natish mumkin bo‘ladi.

Dasturli ta’minlovchi foydalanish kompyuterlaridagi mazkur kompyuter resurslariga nosanksiyalanmagan kirish imkonini beruvchi yashirin o‘rnatma bilan jo‘natish.[10]

Shunga bog‘liq ravishda arendalashgan serverlarni jo‘natish uchun bu serverlarning doimiy ravishda to‘ldirilib boriladigan to‘plamlariga ega bo‘lish lozim. Ular IP-manzillarning qora ro‘yxatiga yetarli darajada tez tushadi, shunday ekan, spamlarni faqat pochtali servislari qora ro‘yxatdan foydalanmaydigan qabul qiluvchilarga shunday tarzda jo‘natish mumkin.

Ochiq servislardan foydalanish uchun bunday servislarni har doim izlash lozim bo‘ladi, buning uchun maxsus dasturlar yoziladi va ulardan foydalaniladi, ular Internet manzili fazosining katta uchastkalariga tez nusxalanadi.

Bugungi kunda kompyuterli foydalanuvchilarda troyansli komponent o‘rnatmasi eng ommaviy tarqalgan. Bu quyidagi usullardan biri bilan amalga oshiriladi:

Troyansli komponet qaroqchi dasturli ta’minotga ulanadi: tarqaladigan dasturlarning modifikasiyasi, troyansli komponentning “generatorlar kalitlari”, “provayderlarni aldash uchun dasturlar” va sho‘larga ulanishi. Bunday dasturlar fayl aldovchi tarmoqlar (eDokey, Kazaa) orqali yoki “varez”li (warez, dasturlarning qaroqchi nusxalari) saytlar orqali yetarlicha ko‘p tarqatiladi.

Web-saytlar ko‘rish dasturlarida zaiflik (bo‘sh himoya) lardan (birinchi navbatda, Microsoft Inernet Explorer) dan foydalanish – bunday dasturlarning bir qator versiyalari kirish huquqini tekshirishda xatolarga ega bo‘ladi, bu esa www saytda komponentlarni joylashtirish imkonini beradi, ular chiqarib olish foydalanuvchilari uchun sezilmaydigan (yashirin) bo‘ladi va bu komponentlar ularning kompyuterlarida bajarilgan bo‘ladi, shundan keyin foydalanuvchining komyuterida yovuz niyatlilar uchun uzoqlashtirilgan kirish ochiladi. Bunday dasturlar asosan tashrif etiladigan (avvalom bor pornografik mazmundagi) saytlar oqali tarqatiladi. 2014-yilning yozida MS IIS boshqarmasi ostida ishlaydigan ikki pog‘onali sxema payqab olindi, bu saytlarga zararli kodni kiritish bilan bu saytlarda sahifalovchi betlar modifikasiyalanadi, bu esa foydalanuvchilar kopmyuterlarining zaharlanishiga olib keldi.[2]

Kompyuterli viruslar, avvalom bor elektron pochta kanallari bo‘yicha tarqatiladigan va Wicrosoft Windows tarmoqli servislaridagi zaifliklardan foydalanuvchi viruslardan foydalanish.

a) Keyingi yilda kiritilgan hamma yirik virusli epidemiyalar shunday viruslar bilan ko‘paytirildiki, ular foydalanish kompyuteriga uzoqlashtirilgan kirish uchun qo‘llanilgan bo‘lishi;

b) Bugungi kunda Windows zaifliklaridan foydalanishga urinishlar jadalligi chindan ham ajanabnarlidir. Intertnetga standart Windows XR bilan o‘rnatilmagan firemall va servis papkalarda ulanish bir necha o‘n minutlar ichida zararlangan (zaharlangan) bo‘ladi.

Zamonaviy zararli komponentlar texnik ma’noda yetarlicha rivojlangan ularning mualliflari tashqi tomondan ularning payqab olinishi va qo‘lga kiritilishini qiyinlashtirish uchun katta kuchlarni qo‘yishmoqda (masalan, provayder bilan, uning mijozlari spamlarni bildirmasdan jo‘natishadi). Troyansli komponentlar Web-saytlarga instuksiyalar uchun murojaat qilib, internet

bauzer sifatida o‘zlarini bilmaslikka solishadi, buning oqibatida ular Dos-hujum va spamlar va boshqalarni jo‘natish bilan shug‘ullanishadi, (bundan tashqari, intruksiyalar navbatdagi instruksiyani olish vaqti va joyi haqida ko‘rsatmani o‘zida jussam etishi mumkin). Niqoblangan, ya’ni yashirin komandalarni olishning boshqa usuli bu IRC servisidan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Boshqa tomondan, zararlangan fayllarni birini qo‘llash – bu ularni (masalan, spamlarni jo‘natish uchun) arendaga berishdan iboratdir. Ro‘yxatni “sotuvchanlik” talabi zarar tashuvchi dasturlar katta bo‘lmagan ro‘yxatdan portlar nomerlari bilan standart protokollar bo‘yicha ishlashga olib keladi, bu ulardan uchinchi shaxslarning foydalanishiga imkon beradi va bir vaqtning o‘zida zararlangan fayllarni tizimli administratorlar bilan izlashni yengillashtiradi va osonlashtiradi.

Spamni tarqatishni uchun dasturli ta’minot - o‘rtacha spam tarqatish bugungi kunda millionlab xabarlardan kam bo‘lmagan hajmga ega. Bu xabarlarning katta bo‘lmagan vaqt ichida bu vaqt oralig‘ida antspam-filtrlarni qayta nastroykalashgacha (ma’lumotlar bazasini yangilashgacha) ulgurish uchun tarqatilishi talab etiladi.

Zamonaviy spam-tarqatma bir necha o‘nlab minutlar ichida bir necha yuz minglab nusxalarda tarqatiladi. Ko‘pincha spam foydalanuvchi kompyutarlarning zaharlangan zararli dasturlari – **zombi** tarmoqlari orqali boradi. Xavfsizlikning zamonaviy IT industriyasi ko‘plab yechimlarni taklif qiladi va antispamerlar arsenalida har-xil texnoogiyalar mavjud. Biroq mavjud bo‘lgan texnologiyalardan hech-biri spamga qarshi sehrli “kumush o‘q” bo‘la olmayapti. Universal (umumiy) hali mavjud emas. Ko‘plab zamonaviy mahsulotlarga bir nechta texnolgiyalar qo‘llanadi, aks holda mahsulotning samaradorligi (effektivligi) yuqori bo‘lmaydi. Quyida eng taniqli va keng tarqalgan texnologiyalar keltirilgan [3,4,5,9].

Qora ro‘yxatlar *(DNSBL DNS-based Blackhole Lists)* - bu eng eski antispam-texnologiyalardan biridir. Ro‘xatda sanab o‘tilgan IP-serverlardan borayotgan pochtani bloklaydi.

Turli ro‘yxatlar ro‘yxatga kiritish uchun har-xil kriteriyalarga ega bo‘ladi, bu odamlarning ro‘yxat ortida turgan shaxsini sezilarli darajada aks ettiradi. Shuningdek, shunday ro‘yxatlar mavjudki, ular spam bilan hech qanday umumiylikka ega emas, lekin shunday xulq-atvorlarni jazolashga intiladiki, yoki ishlamaydigan texnologiyalar tarqalishiga ko‘mak berishga urinishadiki, bu intilish va urinishlar ularga (qora ro‘yxatga ega bo‘lganlarga) yoqmaydi

Nomaqbul pochta filtrlari - spam bilan qarshi kurashishda innovatsion usullarni qo‘llaydi. Mazkur usul ham innovatsion loyiha deb hisoblanadi. Ko‘pchilik serverlar faqat qora ro‘yxatlarga ega bo‘lishadi. Shuningdek, oq ro‘yxatlar ham bor, lekin bunday ro‘yxatlardan ko‘pchilik oq ro‘yxatlar haqiqatan ham qora ro‘yxatga kirmaydi.

Bundan tashqari faqat qora ro‘yxatlar va oq ro‘yxatlar bilan birgalikda biz sariq va NOBL ro‘yxatlari ham mavjud. Bizning ro‘yxatlarimizda oq ro‘yxatlar shuni anglatadiki, bari bir, manbadan elektron pochta yaxshi chiqadi va u keyingi sinovlarni talab etmaydi. NOBL boshqa ko‘plab ro‘yxatlar qatori “oq” ro‘yxatlar deb hisoblanadi, lekin bu shuni anglatadiki, bu IP yoki xost (domen) qora ro‘yxatga kirmasligi kerak. Shunday ekan qora ro‘yxatlarni tekshirish kerak emas. Sariq listing elektron pochtaning qo‘shilgan yaxshi manbasini va spamni ko‘rsatadi. Hotmail, Yahoo, Gmail kabi manbalar ham sariq manbalardir. Sariq rang IP yoki xost (domen) kabi agar bu yaxshi yoki yomon va oq yoki qora ro‘yxatlarni tekshirish uchun sabablar yo‘qligi haqida hech qanday axborotni mujassam etmasligini anglatadi.

Forvard teskari DNS ni izlash *(FCr DNS***)** - amalda uni qalbakilashtirish mumkin emasligini tasdiqladi. Shuning uchun biz xost nomini FCr DNS asosida nafaqat nomlarning qora ro‘yxati uchun, balki boshqa hamma ranglar uchun izlashni ta’minlash imkoni bor deb hisoblaymiz, IP izlash sifatida biz DNSning bitta chaqirig‘ida bir nechta natijalarga qaytamiz, bu biz bitta chaqiriqda foydali axborotga ega bo‘lganimiz haqida hamma narsani ko‘rsatadi.

Massivlikni nazorat qilish *(DCC, Razor, Pyzor)* - texnologiya pochta oqimida massaviy xabarlarni yuzaga chiqarishni ko‘zda tutadi (taxmin qiladi), ular bir-biriga aynan judayam o‘xshashdir yoki ular bir-biridan juda sezilarsiz farq qiladi. Ishga layoqatli “ommaviy” (“massaviy”) analizatorni qurish uchun katta pochta oqimlari talab etiladi, shuning uchun bu texnologiyaga pochtaning katta hajmlariga ega bo‘lgan yirik ishlab chiqaruvchilar taklif etiladi, ular tahlilni biron bir holga keltirishi mumkin [3,4,5,9].

Xabarlarning internet-sarlavhalarini tekshirish - Spamerlar spamerli xabarlarni generasiyalash uchun maxsus dasturlarni yozishadi va ularni bir lahzada tarqatishadi. Bunda ular sarlavhalarni rasmiylashtirishda xatoliklarga yo‘l qo‘yishadi, natijada spam sarlavhalarning formatini yozuvchi RFC pochtali standart talablariga har doim ham mos kelavermaydi (javob beravermaydi). Bu xatoliklar bo‘yicha spamerli xabarlarni hisoblash mumkin.

Kontentli filtrasiya - bu ham eski, tekshirilgan texnologiyalardan biridir. Spamerli xabarlar spam uchun spesifik bo‘lgan so‘zlar, matn fragmentlari, kartinkalar va boshqa xarakterli spamerli xususiyatlar mavjudligi bilan tekshiriladi. Kotentli filtrasiya xabarlar mavzusi va uning matn (plain text, HTML)ni mujassam etgan qismlarini tahlil qilishdan boshlangan, lekin hozir spam-filtrlar grafik qo‘yilmalarni kiritgan holda hamma qismlarni tekshiradi. Tahlil natijasida matnli signatura qurilishi yoki xabarlarning “spamerli vazni”ni hisoblash olib borilishi mumkin.

Kontentli filtrasiya Bayes - Statik bayesli algoritmlar ham kontentni tahlil qilish uchun mo‘ljallangan. Bayesli filtrlar doimiy nastroykaga ehtiyoj sezmaydi. Ularga nima kerak bo‘lsa, ularning barchasi – bu ham bo‘lsa oldindan o‘qitishdir. Undan keyin filtr berilgan konkret foydalanuvchi uchun tipik bo‘lgan xatlar tematikasi ostida quriladi. Buning ustiga, agar foydalanuvchi ta’lim tizimida ishlasa va treniglar olib borsa, u holda shaxsan unda berilgan (ushbu) tematikaning xabarlari spam sifatida tanila (aniqlana) olmaydi. Treningni yo‘qlash taklifi kerak bo‘lmaganlarga statik filtr shunday xabarlarni spamga yetkazadi (olib boradi).[10]

Greylisting - bu xabarlarni qabul qilishda vaqtinchalik inkor etishni anglatadi. Inkor etish hamma pochtali tizimlarni tushunadigan xatolik kodi bilan boradi. Ma’lum bir vaqt o‘tgach, ular xabarlarni takroran jo‘natadi. Spamlarni tarqatadigan dastur esa, bunday vaziyatda xatlarni takroran yubormaydi. Spam xabarlarini aniqlash (qo‘lga kiritish)ning yuqorida keltirilgan usullari qiyosiy tahlil qilish *1-jadvalda* keltirilgan.

1-jadval

T/r	Usullarning nomi	Afzalliklari	Kamchiliklari
1.	**Qora ro‘yxatlar** (DNSBL DNS-based Blackhole Lists)	Qora ro‘yxat shubhali manbadan pochtani 100% ga kesib o‘tadi	Yolg‘ondan ishlab ketishlarning yuqori darajasini beradi, shuning uchun uni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash toqazo etiladi

2.	Ommaviylikni (massivlikni) nazorat qilish	Agar texnologiya ishlasa, u holda u ommaviy (massaviy) tarqatmani kafolatli aniqlaydi	1. “Katta” tarqatma spam bo‘lmasligi mumkin, u to‘liq sayt pochta (masala, *Ozan.ru, Subscribe. ru* amalda minglab bir-xil xabarlarni tarqatadi, lekin bu spam emas). 2. Spamerlar intellektual texnologiyalar yordamida har qandayo himoyani “yorib o‘tishi” mumkin. Ular har-bir spamerli xatda har-xil kontent-matnni geniratsiyalaydigan pornografiklardan foydalanishadi. Oqibatda ommaviylik (massaviylik) nazorati ishlamaydi.
3.	Xabarlarning internet-sarlafhalarini tekshirish	Spamning tanish va filtratsiya jarayoni shaffof, reglamentlashtira-digan standartlar bilan yetarlicha ishonchli.	Spamerlar tez o‘qitiladi va spam sarlavhalarida xatolar vaqt o‘tgan sayin kamayaveradi. Faqat shunday texnologiyani qo‘llash butun spamning uchdan bir qismini ushlab qolish imkonini beradi.
4.	Kontentli filtratsiya	Elastiklik, tezkor “nozik” nastroykaning mumkinligi. Bunday texnologiyada ishlovchi tizmlar spamning yangi turlari ostida yengil quriladi va spamni, normal pochtani chegaralashda kamdan-kam xato qiladi	Odatda, yangilab turish talab etiladi. Filtrni nastroyka qilish bilan maxsus o‘qitilgan odamlar shug‘ullanishadi, ba’zan-butun bir boshli laboratoriya shug‘ullanishi ham mumkin. Bunday qo‘llab-quvvatlash qimmat turadi, bu spam-filtrning narxiga ta’sir ko‘rsatadi. Spamerlar bu texnologiyani aylanib o‘tish uchun maxsus tryuklar ixtiro qilishadi. Xabarlarning spamerli xarakteristikalarini izlashni va ularning baholanishini qiyinlashtiradigan tasodifiy “shovqinni” spamga kiritishadi. Masalan, so‘zlarda noharfli simvollardan foydalanishadi (shunday ekan, masalan, bu usuldan foydalanganda so‘z grafik ko‘rinishi mumkin, tasvirlarda variantli rangli fonni generasiyalaydi)
5.	Kontentli filtrasiya-Bayes	Individual nastroyka	Hammasidan ko‘ra individual pochta oqimida yaxshi ishlaydi. “Bayesni” korporativ serverda har- xil jinsli pochta bilan nastroyka qilish – murakkab va nomunosib vazifadir. Asosiysi, oxirgi natija individual qutilarga nisbatan ancha yomon bo‘ladi. Agar foydalanuvchi yalqovlik qilsa va filtrni yoqmasa, u holda texnologiya samarador bo‘lmaydi.

			Spamerlar bayesli filtrlarni aylanib o‘tish ustida maxsus ishlarni olib borishadi va ular buning uddasidan chiqishadi.
6.	Greylisting	Optimal (maqbul) nastroyka qilishda spamning hamma turlari amalda aniqlanadi va qo‘lga kiritiladi	Pochtani yetkazishda kechikish. Ko‘plab foydalanuvchilarga bunday yechim to‘g‘ri kelmaydi.

DNSBL – *DNS blacklist yoki DNS blocklist* – DNS arxitekturasi tizimini qo‘llash bilan saqlanadigan xostlar ro‘yxati. Bu ro‘yxat, odatda, spam bilan qarshi kurashda qo‘llanadi. Pochtali server DNSBLga murojaat qiladi va unda mijozning IP manzillari mavjudligini tekshiradi, IP dan u xabarlarni qabul qiladi. Ijobiy javob olinganda spam xabarlarni qabul qilishga urinish olib borilayapti deb hisoblanadi. Jo‘natuvchi serverga xxx yoki eror xatolik xabar qilinadi (tuzatilmaydigan xatolik) va xabar qabul qilinmaydi. Jo‘natuvchining pochtali serveri jo‘natuvchiga pochtaning yetkazilmaganligi haqida “inkorli kvitansiyani” yaratadi [3,4,5,9]. Hozirgi vaqtda qora ro‘yxatning bir qancha tiplari mavjud.

Ochiq relelar ro‘yxati – noto‘g‘ri konfigurasiyalashgan pochtali serverlarning ma’lumotlar ba’zasi, ular hamma talabgorlar uchun pochtali xabarlarni o‘zi orqali jo‘natish imkonini beradi. Qoidaga ko‘ra, xostlarning ma’lumotlari Internetda avtomatik tarzda nusxalanadi, shuning uchun bunday xostning spam xabarlarini jo‘natuvchi odamlarning qo‘liga tushushi juda tez ro‘y beradi. Ro‘yxat ma’lumotlaridan foydalanishda odatdagi pochtani blokirovkalashning eng kam xavfi mavjud bo‘ladi, chunki server faqat uni maxsus pochtali robot tekshirgandan keyingina ro‘yxatga tushadi.

Xulosa

Ma’lumotlarni spam-xabarlardan himoya qilishni aniqlash zamonaviy kiberxavfsizlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu maqolada spam-filtrlash algoritmlari, tarmoq tizimlarni qurish ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash uchun foydalaniladigan texnologiyalar haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan.

Axborot kommunikasiya tizimlarida pochta serverlarining spam xabarlardan himoyalash, SPAM xabarlarning klassifikasiyasi va ularni axborot kommunikasiya tizimlariga ta’siri, SPAM xabarlarni pochta serverlarida aniqlovchi usullarini tadqiq etish.Ushbu yuqoridagilarni amalga oshirsam o‘ylaymanki bugingi kunda ma’lumotlarni spam xabarlardan holi qilishga biroz bo‘lsa ham o‘z hissamni qo‘shgan bo‘laman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘z DSt 1109:2013 «Axborot texnologiyasi. Axborotning kriptografik muhofazasi. Atama va ta’riflar».

2. G‘aniyev S.K., Karimov M.M., Tashev K.A. Axborot xavfsizligi: Axborot kommunikasion tizimlar xavfsizligi – T.: “ALOQAChI”, 2008 – 362 b.

3. В. Ульянов. Контентная фильтрация в борьбе со спамом. ITExpert/ октябрь, 2008 г.,

4. DNSBL. [Электронныйдокумент] http://ru.wikipedia.org/wiki/DNSBL

5. Отт А.О Контентной фильтрации/Jet Info №10(261), “Инфосистемы Джет”, 2006.[Электронныйдокумент]/http://www.jetinfo.ru/2006/10/2006.10.pdf.

6. Олег Зайцев.Технологии рассылки спам сообщений и методы защиты от него. / Компьютер пресс, №2, 2007г.: Электронный документ/ (http://www.compress.ru /article.aspx?id=17269&iid=799).

7. Попов А. Поиск в Интернете – внутри и снаружи. [Электронный документ] / http://www.citforum.ru/pp/search_03.html.

8. Han E., Karypis G., Kumar V. Text Categorization Using Weight Adjusted k-Nearest Neighbor Classification. // 16th International Conference on Machine Learning – Denver, 1999. – P. 41–56.

9. Теорема Байеса. Электронный документ / http://ru.wikipedia.org/ wiki/ Теорема_Байеса

10. IEEE Access jurnalini “Corporate Network Transformation with SD-WAN” va “Corporate Networking with Advance Routing, Switching, and Security” jurnalidagi maqolalar.

TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

Xidirova Noila Boymurotovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Kompyuter tizimlari kafedrasi o‘qituvchisi
noila_xidirova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195284
Oromova Shodiyona Sodiq Qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi
oromovashodiyona81@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195284
Otajonova Kamila Rajabboyevna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi
kamilaotazonova147@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195284

Annotatsiya: *Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim tizimida innovatsion o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu maqolada ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning istiqbollari va uning ta’lim jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada, asosan, ta’limda raqamli vositalarning samarali qo‘llanilishi va raqamli o‘quv materiallari orqali ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning ta’limda individual yondashuvni amalga oshirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash, shuningdek, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi muloqotni*

mustahkamlashdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Maqola, raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimida joriy etilishi bilan yuzaga keladigan yangi imkoniyatlar va bu jarayonda uchraydigan qiyinchiliklar to‘g‘risida ham fikr yuritadi.

Kalit so‘zlar: *Raqamli texnologiyalar, axborot, ta’lim tizimi, o‘quvchi, sun’iy intellekt.*

Kirish

Raqamli texnologiyalar (inglizcha: Digital technology) — signallarni uzluksiz spektr shaklida emas, balki analog darajadagi diskret diapazonlarda ko‘rsatishga asoslangan texnologiyalar.Raqamli protsessor topologiyasi.Bugungi kunda raqamli texnologiya va sun’iy intellektlar hayotning barcha jabhalarida faol qo‘llanilmoqda. Davlat boshqaruvi, iqtisod, bank, xizmat ko‘rsatish sohalarida bo‘lganidek, ta’lim tizimining ham tez sur’atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Yurtimizdagi barcha fuqarolar, erkag-u ayol, yosh-u qari, hammaning ongida raqamli texnologiyalar orqali barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikr shakllanmoqda. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”. [1] Bularni inobatga olgan holda bugungi kunda yurtimizda barcha sohalarda zamonaviy texnologiyalardan, ayniqsa ta’limda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga katta e’tibor berilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonida ”PISA“ (The Programme for International Student Assessment) o‘quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O‘zbekistonning 2021 yilda birinchi 70 talikka, 2025 yilda esa 60 talikka, 2030 yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlar qatoriga kiritish ko‘zda tutilgan[2].O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” tashkil etildi[3].O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Raqamli texnologiyalar va suniy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari ham qabul qilindi.O‘zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturida ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash masalasi asosiy omillardan biri sifatida kiritilgan. U inson resurslari va ta’limning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi.

- texnologiya bo‘yicha shaxsan ta’lim berish;
- mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur bilimga ega mutaxassislar tayyorlanishi mumkin bo‘lgan ta’lim tizimini yaratish;
- oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash;
- raqamli iqtisodiyotni har tomonlama o‘rganish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy ilmiy va amaliy adabiyotlarni yaratish;
- mehnat bozori mexanizmlarini ishlab chiqish;
- elektron platforma texnologiyalaridan foydalangan holda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida milliy ekotizimlarni yaratish.

Bugungi kunda biror davlatning barqaror rivojlanishi o‘sha davlatda ta’lim tizimining yuqori darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Axborot texnologiyalari umumiy bilimlarni

tarqatish uchun paydo bo‘ldi va bugun ta’lim islohotlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Mobil qurilmalar, aqlli doskalar, planshetlar, noutbuklar, simulyatsiyalar, dinamik vizualizatsiya va virtual laboratoriyalar kabi yangi texnologiyalar yordamida o‘qitish vositalarining joriy etilishi ta’lim muassasalarda ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalarida raqamlashtirish borasida YUNISEF tomonidan O‘zbekistondagi maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish uchun “Learning passport” nomli raqamli ta’lim platformasini yaratish, O‘zbekistondagi Yaponiya JICA vakolatxonasi tomonidan “O‘zbekistonda alohida parvarishga muhtoj bolalar bilan ishlaydigan pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha” loyihasi, Koreya-O‘zbekiston biznes assosiyasi tomonidan maktabgacha ta’lim tizimi uchun yaratilayotgan “EDU LINK” axborot tizimi loyihasi kabi ishlar amalga oshirildi. Bu esa raqamli texnologiyalardan faqat oliy o‘quv yurtlarida emas balki ta’lim tizimining istalgan bosqichida foydalanish mumkin ekanligining isbotidir. Darslarda raqamli texnologiyalardan foydalanish tarqatma materiallar va kitoblar uchun kamroq qog‘ozdan foydalanishning atrof-muhitga ta’siridan tortib, vaqtni tejash va tadqiqot qulayligigacha, raqamli o‘rganish xarajatlarni kamaytirish, resurslardan yaxshiroq foydalanish, barqarorlikni rag‘batlantirish orqali o‘qituvchilar uchun ta’sir doirasini kengaytirishning ajoyib usuli hisoblanadi. Bugungi kunda texnologiya zamonaviy hayot va jamiyatning ko‘plab jabhalarida keng tarqalgan va o‘zaro bog‘liqdir. Dunyoni qamrab olgan raqamli inqilob ta’lim sohasiga ham singib keta boshladi.

Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligi o‘quvchilaming o‘rganish usullarini tez o‘zgartiradi va natijada texnologiya ta’limni yanada arzonroq va qulayroq qilish orqali uni yana yaxshilashi rejalashtirilmoqda. Hozirgi kunda talabalari darslarga tayyorgarlik va mustaqil tadqiqot ishlarini amalga oshirish davomida qog‘oz va qalamdan foydalanish o‘rniga, har xil turdagi taqdimot va loyihalarni yaratish orqali ta’lim jarayoniga yangiliklar olib kirishlari, og‘ir kitoblarni doimiy ravishda o‘zlari bilan olib yurmasdan, elektron kitoblardan foydalanishlari mumkin. Bu orqali ular qulaylikka erishishlari va oz vaqt davomida ko‘plab bilimlarni egallashlari mumkin. Sinf jadvallari, topshiriqlar jadvallari, ekskursiyalar, ma’ruzachilar tadbirlari, imtihonlar jadvallari yoki semestr tanaffuslarini ko‘rsatishimiz mumkin bo‘lgan onlayn sinf taqvimi talabalarga shunga mos ravishda vaqtlarini to‘g‘ri rejalashtirishga yordam beradi. Maktablarda an’anaviy darslar bugungi kun o‘quvchilarini o‘ziga jalb eta olmaydi, ularni tezroq baholashni va ko‘proq ishtirok etishlarini ta’minlay olmaydi. Raqamli ta’lim vositalari va texnologiyalari bu bo‘shliqni to‘ldiradi. Bu texnologiyalarning imkoniyatlari an’anaviy ta’lim metodologiyalari bilan qiyoslaganda tengsizdir. Smartfonlar va boshqa simsiz texnologiya qurilmalari keng omma orasida ommalashib borayotgan bir vaqtda, maktablar va ta’lim muassasalari texnologiyani sinfga joylashtirish orqali ulardan samarali foydalanishlari mantiqan. Darhaqiqat, bugungi texnologiyaning moslashuvchanligi, ularni o‘rganishning osonligi, juda ko‘p vaqt tejash imkonini berishi uning ommalashishiga sabab bo‘lmoqda. Zamonaviy axborot va kommunikatsiyalar texnologiyalar an’anaviy ta’limning o‘rnini bosmaydi, aksincha, uni to‘ldiradi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ta’minlash o‘quv materialini taqdim etish vositalarini tanlashda ijodkorlik erkinligi tomonidan shakllantirilgan ta’lim sifatining o‘sishiga pirovardida hissa qo‘shadi talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari sifati ortib boradi.

XULOSA:

Hozir biz hamma joyda raqamli texnologiyalarning foydalanish jarayonini ko‘ryapmiz va ta’lim ham bu yo‘nalishda to‘g`ri yo‘ldan ketmoqda. O‘qituvchi zamon bilan hamnafas bo‘lib, zamonaviy gadjet va texnologiyalardan mohirona foydalanmoqda. Ushbu maqolada o‘qituvchilar o‘zlashtirishlari kerak bo‘lgan ba’zi raqamli texnologiyalar ro‘yxati keltirilgan. Aytishimiz kerakki elektron ta’lim an’anaviy ta’limni to‘liq almashtirmasligi kerak, balki uni to‘ldirishi kerak, chunki o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi jonli muloqotni hech kim va hech narsa almashtira olmaydi. O‘qituvchi talabaning fikr-mulohazalariga ega bo‘lib, o‘qitish jarayonida o‘quv materialini yanada tushunarli va tushunarli qilib qayta tashkil qilishi mumkin. Elektron ta’limning o‘zi o‘quvchini tirik aql, bu holda o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan tarzda moslashtira olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. 2020 y.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. 2018-yil 5-sentabr. PF-5538

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori. 2018-yil 8-dekabr.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA IQTISODIY SIYOSATNI YURITISHNING BA’ZI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Yashil” iqtisodiyot kafedrasi assistenti
eldorbekovg22@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195482

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda mamlakatlardagi iqtisodiy siyosat ham o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Real yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichini orttirish, innovatsiyalar hisobiga maksimal qo‘shilgan qiymat yaratish, aholi real daromadlarining o‘sishiga erishish har bir davlatning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Bunga erishish uchun avvalo raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi muammo va imkoniyatlarni aniqlay bilish, ya’ni mikroiqtisodiy hamda makroiqtisodiy tahlilni amalga oshirish kerak. Mikroiqtisodiy tahlil orqali nafaqat makroiqtisodiy modellar uchun baza yaratish, balki raqobat darajasini hisoblash, o‘yinlar nazariyasiga asoslangan ratsional xatti-harakatlar rejasini tuzish mumkin. Ushbu maqolada raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy siyosatni yuritish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiy modellardagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada

makroiqtisodiy darajada “axborot va aloqa” sohasi tahlil etilgan, mikroiqtisodiy darajada ba’zi sohalar yuzasidan tahlillar olib borilgan hamda AQSh tajribasi o‘rganilgan. Olib borilgan tahlillar asosida takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy siyosat, inflyatsiya, raqobat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mexanizmlar dizayni, xulq-atvor iqtisodiyoti, ommaviy axborot vositalari.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar sohasi hozirgi kunda qo‘shilgan qiymat yaratishda ilg‘or sohalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlarni yanada aniqlashtirish va ularni qonunan belgilab berish uchun 2020-yil 5-oktyabr sanasida «“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 6079-sonli Prezident farmoni qabul qilindi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi [1]:

– sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg‘unlashtirish;

– korxona ta’minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta’minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish;

– zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish;

– innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

– ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;

– savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar bilan o‘zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish;

– boshqaruv ma’lumotlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish;

Ushbu maqsadga erishish uchun ilg‘or mamlakat tajribasi ham zarur hisoblanadi. Ushbu maqolada AQShdagi raqamlashtirishning iqtisodiy ko‘rsatkich-lariga ijobiy ta’siri o‘rganilib, ushbu holatning qanday yuzaga kelgani tahlil etilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlarning tahlilida dastlab raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari va unga erishish motivlari o‘rganib chiqildi. Buning uchun R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva qalamiga mansub “Raqamli iqtisodiyot” nomli darslik tahlil qilindi [2]. O‘zbekistonda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan raqamli o‘zgarishlar, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va unga erishishdagi muammolarni o‘rganish uchun Abdurakhmonov A. maqolasi o‘rganib chiqildi [3].

Makroiqtisodiyotda xulq-atvor modellarini qo‘llash, iqtisodiy shoklarning iqtisodiyotga ta’sirini baholash va ularda AKT o‘rnini o‘rganishda britaniyalik iqtisodchilar Paul De Grauwe va

Yuemei Ji yozgan “Structural reforms, animal spirits and monetary policies” maqolasi tahlil etildi [4].Iqtisodiy mexanizmlar dizaynidagi keyslarni tuzishda Rossiyalik iqtisodchi A.Filatov va





matematik A.Savvateyevlarning “Занимательная экономика. Теория экономических механизмов от А до Я” kitoblaridan foydalanildi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aholining iqtisodiy qarorlari, ularga ta’sir etuvchi AKT ta’sirini hamda psixologik omillarni aniqlash uchun analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Mamlakatlardagi iqtisodiy siyosatga raqamlashtirishning ta’sirini hisoblash, turli yillar hamda sohalardagi ma’lumotlarni tahlil qilishda iqtisodiy o‘lchov va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Ma’lumotlar illyustratsiyasida grafik va jadvallardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umumiy nazariy tahlil

Ko‘pgina davlatlarda makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy ko‘rsatkichi sifatida narxlar darajasi ko‘riladi. Aynan iste’mol narxlari indeksi barqaror iqtisodiy siyosatning asosi hisoblanadi. Raqamlashtirish bosqichma-bosqich narxlar daraja-siga ta’sir ko‘rsatib, turli kanallar orqali narxlar darajasini o‘zgartirishi mumkin. Masalan, Charbonneau va boshqalar uchta asosiy kanalni ta’riflaydilar [6]:

I) AKT bilan bog‘liq tovarlar va xizmatlar narxlari texnologik o‘zgarishlar natijasida pasayadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kanal;

II) bozor tuzilmasi va turli xil tovarlar hamda xizmatlar o‘rtasidagi raqobatni o‘zgartirish orqali, jumladan pastroq kirish to‘siqlari, yetakchi firmalarning paydo bo‘lishi, shuningdek elektron tijoratning rivojlanishi hisobiga;

III) unumdorlikni oshirish hisobiga, bu esa o‘z navbatida ishlatish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

1-rasm. AQShda umumiy narxlar indeksi (Total index, CPI) va raqamli sohadagi (Digital economy, DPI) narxlar indeksi [7].

Rasmdan ko‘rish mumkinki, 2005–2017-yillarda iste’mol narxlari indeksidan ko‘ra, raqamlashtirish narxlari indeksi ancha kichik. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida raqamli iqtisodiyot boshqa sohalarga nisbatan yangi paydo bo‘lgan tarmoq hisoblanadi va unda innovatsiyalarga imkoniyat ancha ko‘p. Bundan tashqari raqamli iqtisodiyot fizik resurslarga

bog‘liq bo‘lmaganligi uchun, resurslar taqchil-ligi ortayotgan paytda u ancha ko‘proq tovar va xizmatlar ishlab chiqara oladi.

Mikroiqtisodiy tahlil: raqobat tahlili

Iqtisodiyot nazariyasidan ma’lumki, bozorda faoliyat yurituvchi firmalarning ozligi ularning narx ustidan kuchliroq nazorat o‘rnatishlariga sababchi bo‘ladi. Tahlil jarayonida AKT sohasining aynan bir sohasi ya’ni mobil aloqa operatorlari bozoriga e’tibor qaratildi. 2023-yil holatiga ko‘ra, mobil aloqa operatorlari bozorida 6 ta kompaniya mavjud bo‘lib, bozor holati oligopoliya hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi va kompaniyalarning o‘zlarining 2023-yilgi ma’lumotlariga asosan bozorlar quyidagi ulushga ega: Beeline - 29,7%, Ucell – 24,9, Uztelecom – 21,6, Mobiuz – 17,0, Humans – 6,0, Perfectum – 0,7 [8]. Agar biz bozorning Herfindall-Hirshman indeksini hisoblasak (daromadlar bo‘yicha), quyidagi holat yuzaga keladi:

$$29,7^2 + 24,9^2 + 17,0^2 + 21,6^2 + 6,0^2 + 0,7^2 = 2294,15$$

AQShda esa mobil aloqa operatorlari (Mobile Virtual Network Operator) qariyb 100 nafarni tashkil etadi [9]. Demak, AQShda mobil aloqa operatorlari bozori monopollashganlik darajasi ancha kamroq. Ma’lumki, raqobat darajasi yuqori bo‘lgan bozorlarda firmalar o‘z tovarlarini nisbatan pastroq narxda sotishga majbur bo‘lishadi. Aynan shu sabab tufayli, sohada narxlar darajasining o‘sishi O‘zbekistondagi bozorga qaraganda sekinroq o‘sadi.

Iqtisodiy mexanizmlar dizayni

Raqamlashtirish oqibatida axborot asimmetriyasini minimallashtirish imkoni mavjud bo‘lib, ushbu holat nazariy modellarni iqtisodiyotga joriy etishda maksimal naf olishga yordam beradi. Iqtisodiyotda ana shunday modellar yaratish bilan mechanism design (mexanizmlar dizayni) sohasi shug‘ullanadi. Iqtisodiy mexanizmlar dizayni – iqtisodiyot, ijtimoiy tanlov va o‘yinlar nazariyasini o‘z ichiga oluvchi soha bo‘lib, u berilgan ijtimoiy tanlov vazifasini amalga oshirish uchun (yoki mexanizmlarni) ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi [10]. Mamlakat byudjetidagi daromadni orttirish, agentliklar faoliyatini oqilona tartibga solish va resurslar sarfini minimallashtirishda ushbu modellardan foydalanish mumkin.

Bir masalani ko‘rib chiqamiz. To‘rt nafar inspektor ma’lum miqdorda pora olish mumkin bo‘lgan $b_1=2$, $b_2=3$, $b_3=4$ va $b_4=9$ million so‘mlik sohalarni tekshirsin. Inspektor aybdor deb topilganda, unga T=10 million so‘mlik jarima solinadi. Ko‘rinib turibdiki, jarima olinadigan poraning eng yuqori miqdoridan oshiq. Lekin, bunday holatda oxirgi inspektor sohasini (b_4) kamida 90% dan yuqori ehtimol bilan tekshirish kerak (yoki resurslarning 90 foizdan yuqori qismini sarflash kerak), qolgan 10% resurslar esa hatto birinchi inspektorni to‘xtatishga yetmaydi. Shunday bo‘lsa-da, ushbu holat uchun yechim mavjud.

Yechim juda oddiy — tekshiruv $x_i>0$ bo‘lgan barcha pora oluvchi inspektorlarga teng ehtimollik bilan keladi. Shubhasiz, jarima olinadigan poralarning maksimal miqdoridan oshadi, shuning uchun kafolatlangan tekshiruv bilan har bir kishiga, shu jumladan oxirgisiga kelib, tekshiriluvchini halol ishlashga majbur qilish mumkin. Kutilayotgan $0,25\times10 = 2,5$ million so‘mlik jarima pora olishdan keladigan 2 million so‘mlik daromaddan ortiq. Demak, $x_1=0$ bo‘lgan halol va ratsional xulq-atvor iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydi. Buni qolgan inspektorlar ham aniq bilishadi. Endi tekshiruvchi qolgan inspektorlarning har biriga kamida 1/3 ehtimol bilan keladi. Kutilayotgan jarima kamida $1/3\times10 = 3,3$ million so‘mni tashkil etadi. Bu ikkinchi inspektor

oluvchi pora daromadidan ko‘p. Demak, ikkinchi inspektor ham pora olmaydi: $x_2=0$. Agar korrupsionerlardan ikkitasi qolsa, qonunbuzarni tekshirishning kamida 50 foizlik ehtimoli va kutilayotgan 0,5×10 = 5 million so‘mlik jarima oqilona uchinchi kishini yaxshilik tomonga o‘tishga ishontiradi: $x_3=0$. Yolg‘iz qolgan to‘rtinchi inspektor ham qonunni buzishni xohlamasligini biz allaqachon muhokama qilgan edik.

Shunday qilib, korrupsiyani yo‘q qilish uchun resurslar yetishmayotgandek tuyulgan joylarda ham uning butunlay barham topishiga olib keldi. Raqamlashtirish esa aynan shu strategiya to‘liq ishlashiga yordam berishi kerak.

Umumiy makroiqtisodiy tahlil

Umumiy nazariy tahlildagi deflyatsiyaning sababini o‘rganish, uning O‘zbekiston iqtisodiyotda istiqbollarini tahlil qilish uchun, AKT sohasidagi narxlar o‘sishi o‘rganib chiqildi. Bunda o‘xshash sohalarni taqqoslash uchun aloqa xizmati tariflari indeksi va iste’mol narxlari indeksida aloqa sohasi olindi.

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasida 2017–2023-yillarda aloqa sohasida narxlar darajasi [11].

Yillar	Aloqa xizmati tariflari indeksining yillik dinamikasi	Iste’mol narxlari indeksida aloqa (statsionar va mobil telefon, internet, pochta aloqasi) sohasining yillik qo‘shimcha o‘sish dinamikasi
2017	24,7	23,9
2018	5,8	11,7
2019	1,6	5,2
2020	0	0,5
2021	3,0	2,9
2022	1,7	1,7
2023	1,5	-0,2

1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, 2017–2018-yillardagi keskin o‘sishga qaramay, qolgan davrda nisbatan barqaror pasayish kuzatilmoqda. 2023-yilda esa iste’mol narxlarida hatto deflyatsiya kuzatilgan. Bunday holat raqamlashtirish istalgan davlatda, xoh u rivojlangan (AQSh), xoh u rivojlanayotgan bo‘lsin (O‘zbekiston) INIni barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ekanligini ko‘rsatadi**.**

2-jadval. Axborot va aloqa xizmatlarining INIdagi ulushi hamda aholi real daromadi dinamikasi tahlili [12].

Yillar	Iste’mol narxlari indeksida axborot va aloqa xizmatlarining ulushi, salmoq vaznlar dinamikasi	Aholi umumiy daromadlarining qo‘shimcha o‘sish sur’ati	Iste’mol narxlari indeksi
2017	0,01793	19,7	14,4
2018	0,02085	26,9	14,3
2019	0,01984	21,6	15,2
2020	0,03383	13,5	11,1



2021	0,03384	25,1	10
2022	0,03313	22	12,3
2023	0,03061	15	8,8

2-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, Covid-19 pandemiyasi paytidagi ommaviy raqamli vositalarga o‘tish zaruriyati sabab, axborot va aloqa xizmatlardan foydalanishning fizik hajmi 2020-yilda keskin ortgan. 2022–2023-yillarda esa ushbu ko‘rsatkichda bosqichli pasayish kuzatilgan. 2017–2023-yillar oralig‘ida esa aholining real daromadlarida qo‘shimcha o‘sish sur’atlari doimo ijobiy bo‘lgan. Demakki, 2022–2023-yillarda axborot va aloqa xizmatlaridan fizik foydalanishning kamayishi iqtisodiy subyektlarning raqamli texnologiyalardan voz kechishida emas, balki 2020–2021-yillarda raqamli faoliyat olib borishga majbur bo‘lganlarning offlayn faoliyatga qaytishi bilan bog‘liq.

Monetar siyosat tahlili

Monetar siyosat yuritishda ishonch muhim o‘ringa ega hisoblanadi. Iqtisodiy inqiroz sharoitida OAV vositalarining o‘rni katta hisoblanib, aynan ular tufayli iqtisodiy o‘sishga sababchi bo‘lish mumkin. 1929-yilda AQSh tarixidagi eng katta iqtisodiy inqirozlardan biri sodir bo‘ldi va u tarixga “Buyuk depressiya” nomi bilan kirdi. Fond birjasining qulashi bilan sodir bo‘lgan ushbu inqirozning Buyuk depressiyaga aylanishida yuqori boj tariflari, Federal Rezerv Tizimining moliya bozoridagi keng qamrovli spekulyatsiyani vaqtida bartaraf etmaganligi, iqtisodiy faollik past bo‘lgan sharoitda foizlarni keskin ko‘tarishi va 1930–1931-yillarda yuzaga kelgan bank run sabab qilib ko‘rsatiladi [13]. Ushbu davrda yalpi talab va yalpi taklif keskin pasayib ketdi, 4 yil davomida) deyarli barcha sektorlarda deflyatsiya kuzatildi, bu esa pirovardida yalpi talabni yanada pasaytirar edi.

2-rasm. Buyuk depressiya paytida iste’mol narxlari indeksi (INI) va Ishlab chiqaruvchilar narxlarining indeksi (IChNI) [14].

Rasmdan ko‘rish mumkinki, 4 yil davomida pasaygan narxlar 1993-yil bahor fasliga kelib orta boshladi. Bunga albatta davlatning amalga oshirgan fiskal siyosatining o‘rni katta, ammo bu yerda boshqa omillar ham mavjud. Iqtisodchilar Andrew J. Jalil va Gisela Rua fikrlariga ko‘ra, o‘sha paytda OAV xabarlariga keskin reaksiya bildiruvchi aholida sotib olish istagi paydo bo‘lishiga mashhur gazetalardagi maqola ta’sir o‘tkazgan.

3-rasm. Buyuk depressiya va undan keyingi davrda ommaviy axborot vositalarida inflyatsiya va deflyatsiya so‘zlarning ishlatilishi [15].

Bu yerda “Inflyatsiya so‘zi” – bu maqolaning istalgan yeridagi inflyatsiya so‘zlari, “Deflyatsiya so‘zi” – bu maqolaning istalgan yeridagi deflyatsiya so‘zlari. “Sarlavhalar soni” – maqola sarlavhasida “Deflyatsiya” yoki “Inflyatsiya” so‘zi bo‘lgan vaqt oralig‘idagi maqolalar soni. “Maqoladagi so‘zlar soni” – maqolaning istalgan yeridagi “Deflyatsiya” yoki “Inflyatsiya” so‘zlari soni. Ushbu so‘zlar soni New York Times, Wall Street Journal, Los Angeles Times, Chicago Tribune, va Washington Post chop etgan maqolalardan olingan.

Maqoladagi so‘zlar soni

Sarlavhalar soni

3-rasmdan ko‘rish mumkinki, 1929–1933-yillarda OAVda deflyatsiya va narxlar pasayishiga asoslangan maqolalar ko‘p bo‘lgan bo‘lsa, 1933-yil bahorida narxlar o‘sishi haqidagi xabarlar soni keskinlik bilan ortgan. Bu esa iste’molchilarga hozir sotib olish haqidagi signalni bergan. Hozirda gazetaning o‘rnini ijtimoiy tarmoqlar egallagan bo‘lib, iste’molchining xabarlarga bo‘lgan reaksiya vaqtini yanada qisqartirdi. Shu sababli, Markaziy Bank aholiga katta ta’sirga ega bo‘lgan media vakillari bilan kelishgan holda siyosatini olib borishi va ma’lumotlar ochiqligiga e’tibor qaratishi shart.

XULOSA



Raqamlashtirish iqtisodiy siyosatni o‘zgartirib, yangi imkoniyatlar va muammolarni yuzaga keltirmoqda. U samaradorlik, shaffoflik va innovatsiyalarni rag‘batlantirsa-da, maxfiylik, kiberxavfsizlik va bozor monopoliyasi kabi muammolarni hal qilish uchun me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ham taqozo etadi. Iqtisodiy siyosat raqamli infratuzilmani

rivojlantirish, intellektual mulkni himoya qilish va texnologiyalardan teng foydalanishni ta’minlash orqali bu raqamli o‘zgarishlarga moslashishi lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar beriladi:

1. AKT sohasida kuchli to‘siqlarga ega bo‘lgan sohalarda ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi firmalar kelishuvlarga yo‘l qo‘ymaslik, bozorga yangi kirib keluvchi firmalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.
2. Mikroiqtisodiy darajada ishlab chiqiluvchi qarorlarda axborot asimmetriyasiga yo‘l qo‘ymaslik, faoliyat uzluksizligini ilg‘or AKT orqali ta’minlash.
3. Regulyator tomonidan e’lon qilinuvchi yangiliklar va press-relizlardagi ma’lumotlarni monetar siyosatning yana bir instrumenti deb qarash va tashkilotlararo ma’lumotlar birligini ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 05.10.2020 yildagi PQ-6079-son.
2. R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020, 17–21 b.
3. Abdurakhmonov, A. (2023). O‘zbekistonda raqamlashtirish tendensiyalari va undagi mavjud muammolar. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 3(3), 215–222.
4. De Grauwe, P., & Ji, Y. (2024). Trust and monetary policy. *Journal of Forecasting*, 43(4), 903–931. Doi: https://doi.org/10.1002/for.3065
5. Савватеев А., Филатов А. Занимательная экономика. Теория экономических механизмов от А до Я. Издательство «АСТ», 2022. с. 46–50.
6. Charbonneau, K., A. Evans, S. Sarker, and L. Suchanek, 2017, “Digitalization and Inflation: A Review of the Literature”, Staff Analytical Note 2017–20, Bank of Canada.
7. Goolsbee, A.D., P.J. Klenow. “Internet Rising, Prices Falling: Measuring Inflation in a World of E-Commerce”, 2018, NBER Working Paper No. 24649.
8. O‘zbekiston uyali aloqa bozorida kim yetakchi? Uz24.uz
URL: https://uz24.uz/uz/articles/aloqa-3-25
9. Mobile Network Operators in the US. eSIMUSA. Url: https://shorturl.at/keHs5
10. Eric Maskin (2019): Introduction to mechanism design and implementation, Transnational Corporations Review, vol. 11 (1). 1–3 p. Doi: **https://doi.org/10.1080/19186444.2019.1591087**
11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Iste’mol narxlari indeksi (turlari bo‘yicha) yillik dinamikasi (2017–2023). URL: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/prices-and-indexes-2
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Aholi umumiy daromadlari hajmi (2017–2023). URL: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2
13. Mazumder, Sandeep; Wood, John H. (2021). "The Cause of the Great Depression: The Decision to Resume the Gold Standard on Prewar Terms". The Independent Review 26 (1): 133–151.
14. Federal Reserve Economic Data. Producer Price Index by Commodity: All Commodities. URL: https://fred.stlouisfed.org/series/PPIACO

15. Andrew J. Jalil, Gisela Rua, Inflation expectations and recovery in spring 1933, Explorations in Economic History, Volume 62, 2016, Pages 26–50.

EKSPORT-IMPORT SHARTNOMALARINI TUZISHDA “SMART-CONTRACT” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Ismatullayeva Shoira Nurlibekovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining magistratura bosqichi talabasi
mail:dronzakai@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195493

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aqlli shartnomadan foydalanilgan holda eksport-import operatsiyalarni amalga oshirish jarayonlari an’anaviy shartnoma tuzish jarayonlaridan tubdan farq qilishini, shuningdek aqlli shartnomalarni boshqarish an’anaviy shartnomalarni nazorat qilishdan ancha avfzal ekanligi tizimli o’rganib chiqilgan. Shu o’rinda mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlashda mazkur texnologiyaning o’rnini chet el mamakatlari tajribasi misolida keltirib o’tilgan. Olingan ma’lumot va tajribalarni tadbiq etish mobaynida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan ijobiy va salbiy jihatlarga to’xtalib o’tilgan.*
Kalit so`zlar: *raqamli texnologiyalar, blokcheyn, aqlli shartnoma, eksport-import.*

Kirish. Hammamizga ma’lumki, tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan eksport-import jarayonlari biznesni kengaytirishda, tashqi savdo faoliyatida o’z o’rniga ega bo’lishda, tovar brend nomini tanitishda va daromadini oshirishda muhim sanaladi. Ammo, boshqa mamlakat tadbirkorlari bilan o’zaro a’loqa o’rnatish va bizness jarayonlarini boshlash har doim ham ishonchli bo’lavermaydi. Shuningdek, tuzilgan bitimdagi shartlarni to’liq va to’g’ri bajarilishini doimiy monitoring qilish zaruriyati paydo bo’ladi. Bu esa o’z navbatida ortiqcha vaqt va mablag’ sarflanishiga olib keladi. Biznesni davom ettirish uchun eksportchilar ham, importchilar ham bir-biriga o’zaro ishonch bildirishlari lozim. Ta’minot zanjirida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarni bartaraf qilishda maqbul texnologiyalarni to’g’ri tadbiq qilish muhim sanaladi.Hozirgi kunda Jahon bozorida katta yutiqlarga erishgan blokchey texnologiyasi shular jumlasidandir.

Blokcheyn texnologiyasi markazlashtirilmagan, xavfsiz va shaffof raqamli tarmoqlarni yaratish imkonini beruvchi inqilobiy raqamli hisob tizimidir. Blokcheyn texnologiyasi taqsimlangan kompyuterlar tarmog'ida saqlanadigan buzg'unchilikka qarshi yozuvlarni yaratishga imkon beradi, bu esa har qanday ma'lumotlarni o'zgartirish yoki o'chirishni deyarli imkonsiz qiladi. Bu xususiyat uni ko'plab sohalarda, jumladan moliya, sog'liqni saqlash, ta'minot zanjiri boshqaruvi va hatto ovoz berish tizimlarida tobora ommalashishiga olib kelmoqda.[4]

Blokcheyn texnologiyasi turli xil imkoniyatlarni taqdim etadi, ulardan biri “smart contract” ya’ni “aqlli shartnomalar”dir. Aqlli shartnomalar boshqa mamlakatdagi mijozlar va biznes hamkorlar bilan ishlash uchun juda mos keladi, chunki ular o'zgarmas va taqsimlanadi.

1996 yilda Nik Sabo tomonidan birinchi marta Aqlli shartnoma tushunchasi taklif etilgan. Bitkoin piring to'lov tizimi 2008 yilda blokcheyn texnologiyasi orqali amalga oshirilishi aqlli shartnoma nazariyasini hayotga tadbiq etish uchun qulay sharoit yaratib berdi. Ammo havfsizlik nuqtai nazaridan uni tadbiq etish keng ko’lamda amlga oshirilmagan. 2013 yilga kelib Ethereum platformasini ishga tushirilishi aqlli shartnomalarni tadbiq etilishiga yo’l ochib berdi. 2016-

yilda Uoll-strit yirik banklari aksiyalarni ayirboshlashda va undan keyingi operatsiyalarni amlga oshirishda aqqli shartnomalarni o’z ichiga olgan blokcheyn texnologiyasidan muvaffaqiyatli foydalangan.

“Smart contract” atamasi ilk bor paydo bo’lgandan keyin yillar damonida ko’plab ta’riflar keltirib o’tilgan. Xususan, A. N. Yakubovning ishlarida ““smart contract” – “aqlli shartnoma” bu – taraflardan kamida bittasi shaxs bo’lmagan, tuzilishi va amalga oshirilishi to’liq avtomatlashtirilgan, muallifining o’z oldiga qo’ygan maqsadlariga erishgan deb hisoblanishi uchun yetarli bo’lgan hatti-harakatlarni sun’iy intellect yordamida baholaydigan, avvaldan yaratilgan dasturiy ta’minot va algoritmlarga asoslangan, yaratuvchisida shartnomaviy munosabatlar birga mualliflik huquqini paydo qiladigan elektron shartnomadir” – deb tushuncha bergan.[9]

Aqlli shartnoma blokcheyn dasturi kodining bir qismi bo'lib, tranzaksiyaning barcha shartlarini belgilaydi. Faqat ular jismonan emas, balki bitimni tuzuvchi ishtirokchilarga biriktirilgan elektron imzodan foydalangan holda imzolaydilar.

Aqlli shartnomada ko'rsatilgan barcha shartlar majburiydir. Faqat ular to'liq bajarilgandan so'ng, tranzaktsiya tugallangan deb hisoblanadi va ikkala tomon ham natijani oladi. Asosiy qoida shundaki, aqlli shartnoma algoritmi to'liq bajarilishi kerak.

Aqlli shartnomalarning 2017-2023 yillardagi jahon bozoridagi holati

Yil	Aqlli shartnomalar soni	Transaktsiyalar hajmi (mlrd $)	dApps soni	Umumiy kapitalizatsiya (mlrd $)	Izohlar
2017	~1,000	10	~100	30	Ethereum ishga tushgandan keyin o'sish
2018	~5,000	15	~300	15	Kriptovalyutalar bozori pasayishi
2019	~10,000	25	~500	30	DeFi ga qiziqish qayta tiklanishi
2020	~20,000	50	~1,000	70	DeFi va NFT larning keng qo’llanilishi
2021	~50,000	150	~2,500	200	Kapitalizatsiya va loyihalar rekord o'sishi
2022	~100,000	100	~4,000	100	Bozorni tuzatish, lekin texnologiyalar o'sishi
2023	> 200,000	300	> 5,000	300	Barqaror o'sish va biznesga joriy etish

Mazkur jadvalda aqlli shartnomalarning 2017-2023 yillardagi jahon bozoridagi holati ko’rsatib o’tilgan. Ushbu jadvalda tuzilgan aqlli shartnomalar soni 2023 yilga kelib 200,000 dan oshgan bolib, bu 2017 yilga nisbatan 199,000 ga ko’pligini ko’rishimiz mumkin. Jadvaldagi ma’lumotlardan kelib chiqib aqlli shartnomalarga bo’lgan qiziqish ohirgi uch yilda 2021-2023 yillarda texnologiyalarni biznesga keng tadbiq etish bilan jadal o’sganini ko’rishimiz mumkin.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko’ra Butunjahon aqlli shartnomalar bozori hajmi 2022 yilda 190,34 million dollarni tashkil etdi va 2023 yilda bu ko’rsatkich 236,40 million dollarga yetib sezilari darajada oshgan. Bu ko’rsatkich 2031 yilga kelib 1338,52 million dollarga o'sishi kutilmoqda, bu esa prognoz davrida (2024-2031 yillar) 24,2% ga oshishini ko’rastmoqda.[13]

Aqlli shartnomalar 2023-yilda bozorda bank, moliyaviy xizmatlar va sug‘urta sektori, undan keyin logistika, ko‘chmas mulk, sog‘liqni saqlash, chakana savdo va boshqa sohalarida ustunlik qildi. Aqlli shartnomalar ushbu sektorlardagi an'anaviy jarayonlarni butunlay yangi darajaga olib chiqdi.



1-rasm. Butunjahon aqlli shartnomalar bozori.

*Korxona hajmi ulushida, 2023(%)*Yirik korxonalar 2023-yilda bozorning 69,5% dan ortig‘ini egallab, aqlli shartnomalarni qabul qilishda yetakchilik qilishdi. Ular ta'minot zanjirini boshqarish, moliyaviy operatsiyalar va shartnomalarni boshqarish uchun aqlli shartnomalardan foydalanganlar. Uning asosiy hajmi yirik korxonalar hisobiga to’g’ri kelgan. Aqlli shartnomalardan foydalangan kompaniyalari qatoriga IBM, AWS, Oracle, Infosys va Solana va boshqalar kiradi. Shundan 3 ta eng yirik kompaniyalar (IBM, AWS, Oracle) 52% dan ortiq ulushga ega. Shimoliy Amerika eng katta bozor bo'lib, taxminan 43% ulushga ega, undan keyin Yevropa va Osiyo-Tinch okeani davlatlari kiradi.[12]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Erika Rasure o’z maqolasida aqlli shartnomalarda ikki tomon o'rtasida qonuniy til yoki hatto shartnoma shartlari mavjud emasligini, ular if/when/then iboralari, funktsiyalari, modullarni import qilish va ikki tomon o'rtasidagi harakatlarni avtomatlashtiradigan boshqa dasturlarni o'z ichiga olgan skriptlar ekanligini takidlagan.[3]

Patrick Ejeke aqqli shartnomani annanaviy shartnomadan nimasi bilan farq qilishini o’z kitobida ko’rsatib o’tgan. U sun’iy intellekt va blokcheyn domenlari bir-birining ajralib turadigan xususiyatlaridan foyda olishiga ishongan. Aqlli shartnomalar sun’iy intellekt texnologiyasining yuqori hisoblash qobiliyatlari va moslashuvchan tizimlaridan foydalanishi mumkin, sun’iy intellekt ilovalari esa avtonom qoidalarni bajarish va xavfsiz muhit yaratish uchun aqlli shartnoma texnologiyasidan foydalanishi mumkin ekanligini ko’rsatib o’tgan.[6]

N.Musyev o’zining maqolasida aqlli shartnomalarni qo’llashda RFID (RFID -radio signal orqali avtomatik identifikatsiya qilish usuli) texnologiyasidan foydalangan holda bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazoratini amalga oshirisha bojxona chegarasidan olib o’tiladigan tovar va transport vositalari haqida to’liq va haqqoniy ma’lumot olish va bu orqali ularni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt va harajatlarni kamaytirish orqali samaraga erish mumkinligini keltirgan.[5]

V.P.Kupriyanovskiy, S.A.Sinyagov, A.A.Klimov, A.V.Petrov, D.Y. Namiot.lar o’z izlanishlarida raqamli ta'minot zanjirlari va blokcheynga asoslangan texnologiyalarni iqtisodiyotga ta'sirini o’rganib chiqishgan. Ular hisob kitobi bo’yicha avtonom robototexnika, sun'iy intellekt, buyumlar interneti (IoT) va blokcheynlar logistikani

raqamlashtiradi va uning ahamiyatini kamaytiradi. Buning natijasida qiymat zanjirining ushbu bosqichida kompaniyalarning daromad olish qobiliyatini oshiradi. Ishlab chiqaruvchilar o'zlari yaratgan qiymatdan ko'proq foyda olishlari iste'molchilar esa kamroq harajat qilishlariga erishiladi.[7]

D.Azimov yaqin kelajakda ta'minot zanjirini boshqarishda blokcheyn texnologiyasidan samarali foydalanish ko'lami kengayishi va blokcheyn texnologiyasi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishni ham qamrab olishini, bu kontrafakt va past sifatli mahsulotlarning yuqori ulushi mavjud bo'lgan tovarlarga to’g’ri kelishini xulosa qilgan.[1]

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning metodologik asosi blokcheyn texnologiyasiga asoslangan aqlli shartnomalarni export-import operatsiyalarida an’anaviy shartnoma o’rniga qo’llagan holda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o’rtasidagi munosabatlarni tizimli yo’lga solish, ularni soddalashtirish, takomillashtirish, tranzaksiya uchun harajatlarni kamaytirish, o’zaro ishonchni mustahkamlash, yetkizib beriladigan tovar va transport mahsulotlari tug’risidagi ma’lumotlarni ishonchligini ta’minlash. Tahlil davomida ma’lumotlarni saralash, taqqoslash tizimlashtirish usullaridan foydalanilgan. Kuzatuv metodi orqali Jahondagi yetakchi davlatlar tomonidan iqtisodiyotiga tadbiq etilgan blokcheyn texnologiyasining xolati baholangan, abstrakt-mantiqiy fikrlash orqali mazkur texnologiyani yurtimizda tadbiq etishda duch kelishi mumkin bo’lgan salbiy va ijobiy jihatlari o’rganilib xulosalar keltirilgan.

Tahlil natijalari.

Hozirgi kunda Jahonda aqlli shartnomalarni joriy etish jarayoni jadal rivojlanib bormoqda. Ularni an’anaviy shartnomalardan asosiy farqlarini quyida keltirilgan jadvalda o’rganib chiqilgan.

Shartnomaga ta’sir etuvchi omillar	Aqlli shartnoma	An’anaviy shartnoma
Shakli	Algoritm yoki dasturlarda	Qog’ozda
Yaratilishi	Dasturlovchi shaxs yordami kerak	Notarius, yurist, davlat organi xodimi, ishonchli vakil, bank va boshqalar
Bajarish kerak bo’lgan shartlar	Shartnomaga kiritilgan shartlar	Qonunlar, nizomlar, kelishuvlar, ishtirokchilar hohishi
Ijrosi	Avtomatik tarzda buyruqlar ketma ketligida bajariladi	Shartnoma shartlarini bajarish yoki bajarmaslikni ishtirokchilarning o’zi hal qiladi
Ijrosi bajarilmasa	Shartnoma kodiga kiritilgan sanksiya va shtraflar avtomatik ravishda qo’llaniladi	Shartnomani ijroini bajarmagan taraf ustidan sudga murojaat qilinadi
Moliyalashtirish	Pul mablag’lari avtomatik ravishda o’tkaziladi	Pulni mablag’larini bank yoki boshqa vositalar orqali qo’lda inson omili bilan o’tkaziladi
O’zgartirish kiritish	Shartnoma shartlarini umuman o’zgartirib bo’lmaydi, hech qanday inson omili ro’l o’ynamaydi	Istalgan vaqtda shartnomaga o’zgartirish kiritish mumkin

Ijro shartlarini tushunmaslik	Hamma shartlar kod orqali kiritilgan, shartlar to’liq tushunarli	Shartlarni turlicha talqin qilish, mumkin
Tezlik va samaradorlik	Xatosiz avtomatik ravishda katta hajmli ma’lumotlarni o’zlashtirib soniyalarda qaror qabul qiladi	Ma’lumotlarni o’rganish va ularni ijrosini bajarishga inson omili aralashuvi tezlik va samaradorlikni pasaytiradi
Xavfsizlik	Aqlli shartnomalar blokcheyn texnologiyasidan foydalanadi, bu markazlashtirilmagan va buzg'unchilikka qarshi platformani ta'minlaydi. Bu vositachilarga bo'lgan ehtiyojni bartaraf etish, firibgarlik xavfini kamaytirish va tranzaktsiyalarning shaffof va o'zgarmas yozuvlarini ta'minlash orqali xalqaro savdoda ishonch va xavfsizlikni oshiradi.	Sohtalashtirish mumkin, qog’oz asl nus’haga shikast yetishi mumkin

1-jadval. Aqlli va an’anaviy shartnomalar solishtirmasi

Jadvaldan ko’rinib turibdiki aqlli shartnomalar ko’p jihatdan an’anaviy shartnomalardan ustun turadi. Algoritm ishlab chiqilgan va faollashtirilgandan so'ng aqlli shartnomalarni o'zgartirib bo'lmaydi; bu shartnomalarni hujjatni buzishga urinishi mumkin bo'lgan zararli dasturchilardan himoya qilishga yordam beradi. Raqamli hujjatga o'zgartirishlar faqat ishlab chiquvchilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin, agar ular ilgari ma'lum bir funktsiyani amalga oshirgan bo'lsalar. Aqlli shartnomaning o'zgarmasligi (yoki murakkab o'zgaruvchanligi) uning haqiqiyligi va xavfsizligini ta'minlaydi.

Aqlli shartnomalar hatto Yerning turli burchaklaridan kelgan notanish odamlar tomonidan ham bitimlar tuzishga imkon beradi. Shartnomalar saqlanadigan blokcheyn barcha ma'lumotlarni hisobga oladi va uning aniqligini ta'minlaydi.

Shaffoflik. Blokcheyn tarmog'idagi barcha ishtirokchilar alohida nusxalar o'rniga bir xil hujjatlarni almashadilar. Ma'lumotlar kompyuterlarning keng tarmog'i bo'ylab taqsimlanganligi sababli, ishtirokchilar tomonidan doimiy ravishda va istalgan vaqtda mazkur ma'lumotlar va tranzaktsiyalarga kirish, tekshirish va auditini amalga oshirishi mumkin.

Kuzatish imkoniyati. Blokcheyndagi ma'lumotlar xronologik tartibda tashkil etilgan va har bir ma'lumot blokida oldingi blok bilan bog'langan alfavit-raqamli kod mavjud. Bu ma'lum bir tranzaksiyani kuzatish va uni manbasiga qaytarishni osonlashtiradi.

Xavfsizlik. Ma'lumotlarni faqat blokcheynga qo'shish mumkin. Blok yaratilgandan so'ng, uni o'zgartirib bo'lmaydi, bu uning ichidagi ma'lumotlarni himoya qiladi. Bundan tashqari, ko'pchilik blokcheynlarning markazlashtirilmagan tabiati ularni markaziy tashkilot tomonidan egallab olish yoki korruptsiyaga qarshi immunitetga ega qiladi.

Dr. Heba Abdel Monem olib borgan izlanishlarida blokcheyn dunyodagi eng yirik investitsiya banklariga 2025 yilga kelib oz operatsion xarajatlarini yiliga8-12 milliard dollarga

ya’ni operatsion xarajatlarining taxminan 25 foiziga teng miqdorda kamaytirishga yordam berishini ko’rsatib o’tgan.[2]

Xalqaro savdo import-eksport qonunlari, bojxona to'lovlari va mahsulot sertifikatlari kabi turli qoidalarga rioya qilish lozim. Aqlli shartnomalar muvofiqlik qoidalarini o'z ichiga olishi va tekshirish jarayonini avtomatlashtirishi mumkin. Bu tranzaktsiyalarning talab qilinadigan qoidalarga rioya qilishini ta'minlaydi, muvofiqlik xarajatlarini kamaytiradi va rioya qilmaslik uchun jarimalar xavfini kamaytiradi.

Jarayonlarni avtomatlashtirish, hujjatlarni qisqartirish, vositachilarni yo'q qilish va tranzaktsiyalarni tezlashtirish orqali aqlli shartnomalar xalqaro savdo samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu samaradorlik ma'muriy qo'shimcha xarajatlarni, tranzaksiya to'lovlarini va qo'lda solishtirish zaruriyatini kamaytirish orqali korxonalar uchun xarajatlarni tejashga aylanadi.

Walmart o'zining salat va ismaloq yetkazib beruvchilaridan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun blokcheyndan foydalanishni talab qiladi. Albertsons, Dole Food Company, Kroger, Nestlé, Tyson Foods va Unilever ham shunday qilmoqda. Ko'pgina global banklar (Bank of America, CitiBank, JP Morgan, HSBC) va Xitoydagi 26 bankdan 12 tasi turli xil foydalanish holatlari va moliyaviy operatsiyalar uchun blokcheyn texnologiyasini allaqachon qabul qilgan (masalan, global savdo uchun eksport-import hujjatlarini standartlashtirish, transchegaraviy banklararo to'lovlar). IBM Food Trust o'z tizimining ishlashini blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda tashkil qildi. Yakuniy iste'molchi mahsulot haqidagi barcha ma'lumotlarni bilish uchun bitta QR-koddan foydalanishi mumkin: ishlab chiqaruvchi, protsessor, yetkazib beruvchi, tartibga soluvchi kim, mahsulot qanday va qayerda yetkazib berilganligi, tovar sotuvchiga qachon kelganligi, barcha saqlash sharoitlari, etiketkalar va boshqa ko'plab ko'rsatkichlar. Bu mijozlarga o'zlari iste'mol qiladigan mahsulotlar sifatiga ishonch hosil qilish imkonini beradi.[11]

Aqlli shartnoma texnologiyasining kamchiklari

Ammo bu texnologiya to'liq ideal degani emas. Keling, aqlli shartnomalarning ***kamchiliklarini*** ko'rib chiqaylik:

Ayni paytda AQSH, Rossiya, Italiya va Belarus davlatlarida aqlli shartnomalarga huquqiy baho berilgan.[10] Qolgan ko’plab davlatlarda aqlli shartnomalar hech qanday huquqiy maqomga ega emas, shuning uchun bu sohada huquqiy tartibga solish hali mavjud emas.

Bitimlarni faqat **kriptovalyuta** bilan hal qilish mumkin. Bu kriptovalyuta bilan tanish bo'lmagan yoki uning qanday ishlashini tushunmaydigan odamlar uchun muammo hisoblanadi.

Aqlli shartnomani tuzishda dastur kodida jiddiy xatoga yo'l qo'yish xavfi mavjud bo'lib, bu tranzaktsiyaning bajarilishiga to'sqinlik qiladi yoki algoritm tugagandan so'ng salbiy oqibatlarga olib keladi.

Inson omilining cheklovi ya’ni aqlli shartnoma to'liq avtomatlashtirilgan, shuning uchun uning qanday bajarilishini sinchkovlik bilan kuzatishning imkoni yo'q.

Aqlli shartnomani ishlab chiqishning yuqori narxi - doubloin.com saytining 2023 yil 9 aprelda nashr qilgan “How much does it cost to deploy a smart contract on Ethereum?” maqolasida shartnomaning murakkabligi va sarflanadigan vaqtdan kelib chiqib IT-mutaxassislar tahminan 500-5000 AQSH dollarigacha baholanishi belgilangan.

Har bir narsa to'g'ri ishlayotganiga ishonch hosil qilish uchun ishlab chiqilgandan so'ng uchinchi tomon auditini o'tkazish muhim sanaladi. Bu xizmat ham ma’lum bir sarmoya sarflashni talab qiladi. (ammo, agar kod buzilgan bo'lsa, oqibatlari ancha qimmat bo'lishi mumkin).

Xiaoyu Wang va Fasheng Xu aqlli shartnoma yetkazib beruvchiga tovarlarni jo'natilgandan keyin moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilishga imkon berish orqali ta'minot zanjiri samaradorligini oshirishini, shu bilan bankning kredit xavfiga ta'sirini kamaytirib moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirishini o’rganib chiqishgan. Izlanishlar natijalari aqlli shartnomani qachon qabul qilish kerakligi va uning turli xil savdoni moliyalashtirish sxemalari bilan o'zaro aloqasi to'g'risida ko'rsatma va tushuncha beragan. Xususan, aqlli shartnomalarni amalga oshirish har doim ham ta'minot zanjiriga foyda keltirmasligi ko’rsatib o’tilgan.[8]

So’nggi yillarda yurtimizda raqamli texnologiyalarning kirib kelishini va turli sohalarda rivojlantirishni rag’batlantirish maqsadida yurtboshimiz tomonida bir qator Farmon va Qarorlar imzolangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 03.07.2018 yildagi PQ-3832-son Qarorida kripto-aktivlar aylanmasi sohasini yanada takomillashtirish bo‘yicha eng muhim vazifalar qatoriga investitsiyaviy va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan mayning (turli kripto-aktivlarda yangi birliklar va komissiya yig‘imlari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta’minlash va yangi bloklar yaratish bo‘yicha faoliyat), smart-kontrakt (raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma), konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug‘urtalash, shuningdek, ma’lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish ko’rsatib o’tilgan.

Shu qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 5 oktyabr 2020 yildagi PF-6079-sonli Farmonida raqamli texnologiyalar milliy bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida IT-park asosida ilg‘or texnologiyalardan (Big Data, IoT, AI blokcheyn va boshqalar) foydalangan holda ustuvor tarmoqlar uchun “aqlli yechimlar” ni ishlab chiqishni rag‘batlantirish belgilab qo’yilgan.

Shuningdek, Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 28-noyabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan kripto-aktivlarni chiqarish, chiqarishni ro‘yxatdan o‘tkazish va muomalaga kiritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 3397-raqamli buyrug’ida O’zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan kripto-aktivlarni chiqarish, chiqarishni ro‘yxatdan o‘tkazish va muomalaga kiritish taritibi tasdiqlangan bo’lib, “smart-kontrakt, kripto-aktiv, token” va shunga o’xshash ko’plab atamalaga tushuntirishlar keltirilib o’tilgan. Shuningdek “**smart-kontrakt** — raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma” deb huquqiy ta’rif berilgan bo’lib bu Yurtimizda mazkur sohada olib borilishi kutilayotgan ko’plab loyihalarga huquqiy asos bo’lib hizat qilishi kutilmoqda.

Xulosa.

Aqlli shartnomalarlar bizning yangi haqiqatimiz. Aqlli shartnomalarning asosiy maqsadi biznes jarayonlarini soddalashtirish va optimallashtirish va ilgari qo'lda bajarilishi kerak bo'lgan muntazam jarayonlarni avtomatlashtirishdir. Endi aqlli shartnomalar faqat kriptovalyuta bozorida va metaverselardaqo'llanilmaydi, balki real iqtisodiy sohalarga ham kirib kelmoqda.

Aqlli shartnomalar jarayonning turli jihatlariga avtomatlashtirish, samaradorlik va shaffoflikni joriy etish orqali xalqaro savdoga sezilarli qiymat qo'shishadi.

Tadbirkor import-eksport jarayonini amalga oshirishi uchun avvalam bor bozorni o’rganib chiqishi, shundan so’ng qonunchilik bilan tanishishi lozim. Eksport shartnomalarini tuzishda aqlli shartnomalarni qo’llash bitimda ko’rsatib o’tilgan topshiriqlarning 100% bajarilishiga asos bo’la oladi. Bu tovarning ishonchli eksport qilinishini taminlabgina qolmasdan chet el davlatlarida O’zbekiston tovari maqomining oshishiga sababchi bo’ladi. Import shartnomalarida esa, kontrafkt tovarlarining kirib kelishi to’xtatiladi. Ikkala holatda ham bitim ishtorkchilari tomonidan sarflanadigan vaqt, qog’oz bozlik harajatlari, texnik xatolar bartaraf etiladi.

Xalqaro savdoda aqlli kontraktlarning keng qo'llanilishi standartlashtirish, tartibga soluvchi yordam va global miqyosda amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash uchun texnologik infratuzilmani yaratilishiga sabab bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. D.Azimov: Анализ мирового опыта внедрения технологии блокчейн “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil

2. Dr. Heba Abdel Monem: Using Blockchain in Financial Services ©Arab Monetary Fund 2019 https://www.amf.org.ae/sites/default/files/publications/2021-12/Using-blockchain-financial-services.pdf

3. Erika Rasure: What Are Smart Contracts on the Blockchain and How Do They Work? Updated April 16, 2024 https://www.investopedia.com/terms/s/smart-contracts.asps.

4. Jesse Yli-Huumo, Deokyoon Ko, Sujin Choi ,Sooyong Park, Kari Smolander “Where Is Current Research on Blockchain Technology?—A Systematic Review”. oktyabr 3, 2016 https://doi.org/10.1371/journal.pone.0163477

5. N.Musayev “Aqlli shartnomalar va ularning qo’llanishi” So’ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali13.02.2024 7-jild 2-son

6. Patrick Ejeke: Smart Contracts: What Is A Smart Contract? Complete Guide To Tech And Code That Is About To Transform The Economy-Blockchain, Web3.0, DApps, DAOs, DEFI, Crypto, IoTs, FinTech, Digital Assets Trading Paperback – Large Print, May 2, 2022

7. V.P.Kupriyanovskiy, S.A.Sinyagov, A.A.Klimov, A.V.Petrov, D.Y. Namiot “Цифровые цепи поставок и технологии на базе блокчейн в совместной экономике” International Journal of Open Information Technologies ISSN: 2307-8162 vol. 5, no.8, 2017

8. Xiaoyu Wang ,Fasheng Xu: The Value of Smart Contract in Trade Finance

9. Yakubov Axtam Nusratilloyevich «Fuqarolik huquqiy munosabatlarda “Aqlli (smart) shartnomalar” va uni samarali tatbiq qilish masalalari. Huquqiy tadqiqotlar jurnali 7 jild 2 son. ISSN 2181-9130 Doi Journal 10.26739/2181-9130

10. https://cyberleninka.ru/article/n/considering-the-legal-nature-of-a-smart-contract/viewer

11. https://www.ibm.com/blockchain/resources/7-benefits-ibm-food-trust/

12. https://www.linkedin.com/pulse/smart-contracts-market-size-share-trends-h5y6f/
13. https://www.skyquestt.com/report/smart-contracts-market

ПРОЦЕСС СОГЛАСОВАНИЯ КОНЦЕПЦИЙ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МЕЖДУ РАЗНОРОДНЫМИ ИСТОЧНИКАМИ

Тилепова Абадан Абатбаевна
PhD докторант кафедры «Систематического и прикладного программирования» Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми
abadann@bk.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14201677

Аннотация. *Процессно-ориентированные информационные системы (ПОИС) облегчают эффективное и ориентированное на процесс управление и выполнение сложных рабочих процессов, которые интегрируют как человеческое, так и системное взаимодействие. Среди наиболее широко применяемых ПОИС - управление бизнес-процессами (BPM), которое опирается на модели процессов, созданные с использованием модели и нотации бизнес-процессов (BPMN), стандарта, разработанного Object Management Group (OMG). Сложность, возникающая при разработке бизнес-процессов, часто возникает из-за постоянно меняющихся требований и все более запутанных правил.*

Ключевое слова: *информационных систем, рабочих процессов, BPMN.*

Введение

Традиционный подход к построению информационных систем, где основным элементом была функция, постепенно уступил место концепции «управления процессами» и «контроля процессов». Это привело к формированию концепции процессно-ориентированных информационных систем. Согласно определению, приведенному в классическом учебнике Марлона Дюма (ПОИС) — это «программная система, построенная на основе модели процесса, которая управляет и выполняет процессы, включающие взаимодействие людей, приложений и информационных ресурсов». Процесс можно рассматривать как последовательность взаимосвязанных шагов, которые выполняются для достижения конкретной цели или задачи. Он состоит из действий, которые не только следуют определенной последовательности, но также должны быть согласованы по содержанию, методам и обязанностям [1]. Чтобы обеспечить взаимодействие между различными участниками и системами, необходимо стандартизировать форматы данных, интерфейсы и методы. Важной частью интероперабельности является способность

обеспечить плавный переход между этапами процесса, что позволяет эффективно объединять действия и решения, выполняемые в разных системах и подразделениях, в рамках единой информационной среды. В плане реализации такие системы основываются на архитектурных принципах, управляемых моделями. Для пользователей такие системы выполняют роль автоматизации процессов, объединяя действия, данные и ресурсы, что позволяет проходить весь жизненный цикл работы с бизнес-процессами в единой среде.

Цель данной статьи - исследовать, как подход, ориентированный на процесс, может улучшить совместимость элементов информационной системы. Основное внимание уделено процессам, которые играют ключевую роль в управлении деятельностью предприятия. В контексте интероперабельности процесс включает структурированную интеграцию организационных элементов, сотрудников, технологий и методов, что позволяет достичь согласованной работы всех компонентов для реализации целей организации.

Концепция рабочего процесса

[2] определяет BPM как использование методов и программных инструментов для проектирования, выполнения, контроля и анализа процессов с участием людей, организаций, приложений и данных. [3] описывает ПОИС как программные системы, которые управляют и выполняют процессы на основе моделей с участием людей, приложений и источников данных. Системы управления рабочими процессами и BPM-системы являются примерами ПОИС. Идеи Ф. Тейлора и Х. Форда стали основой для разработки концепций рабочих процессов, где процессы представляют собой набор задач, выполняемых в установленной последовательности (с предопределенным потоком задач). Рабочие процессы предоставляют мощный инструмент для проектирования, моделирования, анализа, а также управления и выполнения структурированных процессов, ориентированных на выполнение конкретных задач. В литературе [3] определены следующие общие парадигмы моделирования процессов: ориентированные на деятельность, ориентированные на продукт (или состояние) и ориентированные на решение (или цель). Выбор парадигмы моделирования зависит от концептуальных свойств процесса (гибкость или контроль).

Оркестровка и интеграция представляют собой два ключевых аспекта управления рабочими процессами в информационных системах. Оркестровка рабочего процесса предполагает упорядочивание бизнес-функций, обеспечивая их взаимодействие между приложениями, данными и ресурсами системы. Благодаря оркестровке приложения и ресурсы могут быть динамически адаптированы для изменения нагрузки или потребностей, а данные — гибко интегрированы. Этот процесс базируется на методах объединения, настройки и связи, чтобы обеспечить предоставление полезных услуг. В отличие от этого, интеграция сосредотачивается на разработке новых решений для пользователей и создании связей между уже существующими компонентами, обеспечивая согласованность их интерфейсов. Пример для оркестровки процесса. **Моделирование рабочего процесса:** 1 рисунке представлена BPMN-диаграмма процесса выдачи лицензии. Ниже описание шагов, которые включает эта диаграмма:

Шаги процесса:

1. **Заполнить заявку:**
   - Пользователь начинает процесс с заполнения заявки.

- Если заявка заполнена неправильно, она возвращается для исправления.

2. **Оплата инвойса:**
   - После успешного заполнения заявки пользователь переходит к этапу оплаты инвойса.
   - Если оплата не произведена, процесс возвращается назад.
3. **Отправить на проверку заявку:**
   - После оплаты инвойса заявка автоматически отправляется на проверку.
   - Проверка включает валидацию предоставленных данных и документов.
4. **Оплата налога:**
   - После проверки заявки пользователь должен оплатить налог.
   - Если налог не оплачен, процесс останавливается или возвращается к этому шагу.
5. **Заявка отправлена на рассмотрение:**
   - После оплаты налогов заявка переходит к стадии рассмотрения.
6. **Решение по заявлению:**
   - С помощью Gateway определяется, выдаётся лицензия или нет.
   - Если лицензия не выдана, она может быть отменена, и процесс возвращается на этап подачи заявки.
7. **Выдача лицензии:**
   - Если решение положительное, лицензия выдаётся.
8. **СМС о выдаче лицензии:**
   - После выдачи лицензии отправляется уведомление заявителю в виде СМС.
9. **Отмена лицензии и повторная подача заявки:**
   - В случае отказа заявка может быть отправлена заново, пройдя весь процесс с начала.



1-рисунок BPMN-диаграмма процесса выдачи лицензии

Интероперабелити с рабочим процессом

Ключевыми аспектами обеспечения взаимодействия являются развитие интеграции услуг, создание новых сетевых связей и внедрение технологий. Для «связанного правительства» необходима системная интеграция и трансграничное сотрудничество, обеспечивающее обмен информацией. Основными целями взаимодействия между гетерогенными системами являются обмен данными, единое понимание информации и согласование процессов чтобы процессы совместно работали нам нужны требования к совместимости на 1 таблице показана [6].

а) Цель взаимодействия — обеспечение обмена данными, как в ручном, так и в электронном формате. Инструменты для этого включают электронную почту, звонки или веб-платформы. Недостаток взаимодействия снижает качество услуг и эффективность работы ключевых участников в государственном секторе. Интеграция процессов взаимодействия играет важную роль в развитии эффективных информационных систем

электронного правительства, хотя стандарты и политики часто замедляют межведомственное сотрудничество (G2G).

б) Важной задачей является единообразное понимание передаваемых данных всеми участниками. Это улучшает прозрачность, сотрудничество и вовлеченность, что особенно актуально для электронного правительства.

в) Третьей целью является соглашение о действиях после обмена данными. Это позволяет избежать дублирования и избыточных запросов к гражданам, формируя основу для эффективного взаимодействия [5].

Таблица 1 Требования к совместимости

№		Описания
1.	Стандартизация и переносимость данных.	Предоставление возможностей для обмена данными между системами с целью поддержки совместного сбора данных и предоставления интегрированных услуг.
2.	Стандартизация услуг.	Внедрение единых стандартов управления услугами для повышения уровня совместимости в различных организационных средах.
3.	Доступность и открытость данных.	Обеспечение открытого доступа к данным, включая их юридическую и техническую открытость, а также акцент на их обнаруживаемость и возможность повторного использования.
4.	Безопасность и конфиденциальность.	Решение вопросов, связанных с защитой данных и конфиденциальностью, особенно в условиях конкурентных корпоративных сред, с упором на контроль доступа и безопасные методы обмена данными.
5.	Обнаруживаемость.	Разработка надежных и эффективных механизмов обнаружения, которые критически важны для сервисно-ориентированных архитектур и систем, работающих с большими объемами данных, при этом минимизируя сложности, вызванные неоднородностью данных.
6.	Технологическая нейтральность.	Создание условий для технологической независимости, обеспечивая отделение предоставляемых услуг и функций от используемых технологий для улучшения совместимости в сложных системах.
7.	Интеграция и оркестровка дополнительных услуг.	Обеспечение интеграции и синхронизации сложных дополнительных услуг с учетом растущих пользовательских ожиданий, особенно в таких сферах, как транспорт.
8.	Автоматизация и машиночитаемость.	Стимулирование автоматизации процессов и использования машиночитаемых данных для минимизации человеческого вмешательства.

Результаты

Архитектуры ИС строятся с учетом функциональных и нефункциональных требований. Функциональные требования определяют, что система должна делать авторизация или поиск. Они задают цели, но не конкретный способ их реализации. Разные

решения могут подходить лучше или хуже для конкретных задач. Нефункциональные требования описывают свойства системы, такие как производительность и надежность, и влияют на выбор подходящей архитектуры. Для оценки соответствия системы функциональным и нефункциональным требованиям эти требования должны быть проверяемыми, измеримыми и недвусмысленными. Каждое требование представлено качественным атрибутом, который измеряется через значение или диапазон значений, называемый критерием качества. С помощью этих критериев оценивается, насколько реализация архитектуры соответствует установленным требованиям (IEEE 1992). Структура для оценки качества архитектуры систем основана на модели ISO/IEC 2011, которая включает восемь категорий: функциональная пригодность, совместимость, обслуживаемость, производительность, надежность, безопасность, переносимость и удобство использования (см Таблицу 2). Эти категории содержат атрибуты качества, измеряемые через наблюдаемые характеристики системы.

Таблица 2 Обзор категорий атрибутов качества для архитектур ИС

Категория атрибута качества	**Определение**
Функциональная пригодность	Описывает степень, в которой продукт или система предоставляют функции, которые соответствуют заявленным и подразумеваемым потребностям при использовании в указанных условиях (ISO/IEC/IEEE 2017a).
Совместимость	Описывает степень, в которой продукт, система или компонент могут обмениваться данными с другими продуктами, системами или компонентами и/или выполнять свои требуемые функции, при этом разделяя одну и ту же аппаратную или программную среду (ISO/IEC 2011).
Обслуживаемость	Описывает степень эффективности и результативности, с которой продукт или система могут быть изменены предполагаемыми сопровождающими (ISO/IEC 2011).
Эффективность производительности	Производительность в области архитектуры ИС рассматривает выполнение требований с точки зрения поведения во времени (или задержки), использования ресурсов и емкости (ISO/IEC/IEEE 2017a).
Надежность	Надежность описывает вероятность того, что система будет выдавать правильные результаты до заданного времени t.
Безопасность	Описывает степень, в которой продукт или система защищает информацию и данные таким образом, что люди, другие продукты или системы имеют степень доступа к данным, соответствующую их типам и уровням авторизации (ISO/IEC 2011).
Удобство использования	Описывает степень, в которой указанные пользователи могут использовать продукт для достижения указанных целей с эффективностью, результативностью и удовлетворением в указанном контексте использования (ISO 2018).

Переносимость	Описывает степень эффективности и результативности, с которой система, продукт или компонент могут быть перенесены из одного оборудования, программного обеспечения или другой операционной или пользовательской среды в другую (ISO/IEC 2011).

Заключение

Технология ПОИС развивается в сторону интеллектуальные информационные системы (ИИС), учитывающие процессы, которая отличается гибкостью, адаптацией к изменениям и снижением зависимости от человеческого вмешательства и административных затрат. Предполагается, что ИИС станет ключевым инструментом автоматизации, повышающим эффективность бизнес-функции и отраслевых процессов. Для преодоления ограничений ПОИС важно применять её в разных областях, разрабатывать адаптивные метрики и рекомендации для оценки уровня взаимодействия. Оценка должна использовать современные технологии и полуавтоматические инструменты для измерения и сопоставления данных. При внедрении ПОИС необходимо учитывать существующие стандарты, чтобы повысить согласованность и избежать дублирования. С ростом прозрачности организаций и интеллектуальных экосистем становится актуальной стандартизация метрик и методов оценки для их адаптации к будущим вызовам. Дальнейшее исследование будет направлено на разработку стандартизированной методики оценки уровня взаимодействия.

Литературы

1. Marlon Dumas, Marcello La Rosa, Jan Mendling, Hajo A. Reijers. Fundamentals of Business Process Management. Springer, 2013

2. Van Der Aalst, W.M., Ter Hofstede, A.H., Weske, M.: Business process management: a survey. In: Business Process Management, pp. 1–12. Springer (2003);

3. Dumas, M., Van der Aalst, W.M., Ter Hofstede, A.H.: Process-aware Information Systems: Bridging People and Software Through Process Technology. Wiley (2005);

4. Renger, M., Kolfschoten, G.L., de Vreede, G.J.: Challenges in collaborative modeling: a literature review. In: Advances in Enterprise Engineering I, pp. 61–77. Springer (2008);

5. An Interoperability Framework for E-Government Heterogeneous Information Systems Hillan Ronoh1, Kelvin Omieno2, Stephen Mutua3;

6. Interoperability of heterogeneous Systems of Systems: from requirements to a reference architecture Mersedeh Sadeghi1· Alessio Carenini2 · Oscar Corcho3 · Matteo Rossi4 · Riccardo Santoro5 · Andreas Vogelsang.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O’ZBEKISTON BANK TIZIMIDA QO’LLANILISHI

Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi,
Namangan muhandislik-texnologiya instituti,
“Buxgalterya hisobi va audit” kafedrasi doktoranti,
e-mail: gulrux_11@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14196590

Annotatsiya: *Iqtisodiyotni raqamlashtirish amaldagi biznes modellari, jumladan, hozirda butun dunyo bo‘ylab transformatsiya jarayonidan o‘tayotgan bank tizimining tarkibiy bo‘linmalari uchun jiddiy muammolar tug‘dirmoqda. Mijozlarga qulay, samarali hamda xavfsiz mobil-banking xizmatlarini taklif qilish raqamli bank strategiyasining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Uni samarali amalga oshirish uchun mijozlarning to‘plangan tajribasiga, shuningdek, mijozlar manfaatlarini qo‘llab-quvvatlovchi innovatsiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan vazifalarni hal qilish zarur. Maqolada raqamli texnologiyalarni O‘zbekiston bank sektorida, shuningdek, jahonning yetakchi bank tuzilmalarida qo‘llash sohalari muhokama qilinadi, bank biznesini raqamlashtirish muammolari va istiqbollari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli bank, elektron muomala, mobil aloqa, internet, neobank, tijorat banki, chakana bank, an’anaviy bank, raqamli texnologiyalar.*

Kirish

Smartfonlar paydo bo’lishi bila mobil-banking yanada jozibali va foydalanuvchilarga qulay bo’ldi. Oxirgi ikki yilda smartfon egalari 127 foizga oshdi bu barcha iste’molchilarning 34 foizini tashkil etadi. Raqamli texnologiyalarning bank tizimiga kirib kelishi, banklar tomonidan mijozlarga mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o‘tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so‘ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag‘idan to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalana olish imkoniyati biznesni qurishning tubdan yangi modeli. Shuni qayd etish kerakki, mobil to’lovlar dunyo bo’ylab o’rtacha 18 foizni tashkil etadi.

O’zbekiston banklari ham bundan mustasno emas, bugungi kunga kelib respulikadagi mavjud banklarning 21 tasi hisob raqamlarini boshqarish, pul o‘tkazmalari va to‘lovlar**,** QR kod orqali to‘lovlar**,** kredit olish (ba'zi banklar mobil ilovalar orqali qisqa muddatli kreditlarni olishni ta'minlashgan), kreditlar va depozitlar (mobil ilovalar orqali kredit arizalarini berish, depozitlar ochish) va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish mumkin bo’lgan mobil-banking xizmatlarini taklif qilishmoqda. O‘zbekistonda mobil banking keng tarqalgan va deyarli barcha tijorat banklarining xizmatlarida mavjud. Bu xizmatlar nafaqat yirik banklar, balki kichik va o‘rta banklar uchun ham muhim raqobat ustunligini yaratmoqda.

Raqamlashtirilishdan foydalangan holda banklar mijozlarga takomillashtirilgan xizmatlarni taqdim eta oladi, bu ularga qulaylik yaratadi va vaqtni tejashga yordam beradi, shuningdek, inson xatolari sonini kamaytiradi va shu tariqa mijozlarning sodiqligini oshiradi hamda raqamlashtirish mijozlarga naqd pulsiz operatsiyalarni osonlashtirish orqali ham foyda

keltiradi. Shu sababli ham bugungi kunda raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali banklarda xizmat ko‘rsatish jarayonlarini yaxshilash, banklarning raqamli transformatsiyasini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

“Moliyaviy texnologiya” atamasi 1990-yillarning boshlarida paydo bo’ldi. 2008-yil jahon moliyaviy inqirozi va uning oqibatlari bozor ishtirokchilari e’tiborini yangi texnologiyalarga qaratdi. 2014-yilga kelib Fin-Tech kompaniyalari an’anaviy bank xizmatlariga qulay hamda arzonroq yechimlar berish orqali bank sektori bilan raqobatlasha boshladi. Yangi texnologiyalarni joriy qilish banklarning biznesda qolishi uchun zaruriy shartga aylandi. Mobil-bankingga olimlar turlicha ta’riflar berishadi. Huet, Badré va Filliolning ta'rifi bo’yicha, "Mobil banking - bu banklar uchun o‘z biznes jarayonlarini raqamli platformalarda taklif qilish imkonini beradigan vosita bo‘lib, foydalanuvchilarga har doim va istalgan joyda xizmatlar taqdim etadi"[1]

M.Madraximov tomonidan masofaviy bank xizmatlarining bank faoliyatidagi ahamiyati, ularni ko‘rsatish kanallari va buni yanada kengaytirish imkoniyatlariga oid ilmiy-nazariy qarashlar o‘rganib chiqilgan O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish holati to‘plangan statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, mijozlarga masofadan turib xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish bo‘yicha har bir tijorat banki o‘zining strategik dasturini ishlab chiqish kerak. Mazkur dasturda qadamma-qadam barcha xizmat turlarini masofaviy hamda onlayn rejimga o‘tkazish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqish lozimligi, mazkur yo‘l xaritasida belgilangan vazifalarni moliyalashtirish manbasi, amalga oshirish muddatlari, amalga oshirish uchun mas’ul boshqarma hamda loyihani ishga tushirish muddati kabilar keltirib o‘tilishi zarurligi ta’kidlangan[2].

Yuqorida o‘rganilgan jarayonlar va bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda banklar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali ularning transformatsiyasini amalga oshirish, mijozlar bilan ishlash jarayonini soddalashtirish, vaqt va xarajatlarni tejash, bank operatsiyalarini takomillashtirish bo‘yicha hali ham qilinishi lozim bo‘lgan amaliy ishlar borligini ta’kidlash lozim.

Tahlil va natijalar Dunyoda raqamli texnologiyalardan foydalanayotgan banklar soni ko’payib bormoqda. Yangi texnologiyalar banklar va Fintech tomonidan zudlik bilan o’zlashtirilib, inqilobiy o’zgarishlarga olib kelmoqda. So‘nggi 20 yil ichida texnologiya butun dunyoda bank sohasiga tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarishlarni olib kirdi. Internet va mobil aloqa butun dunyodagi odamlar va tashkilotlarni bog‘laydigan eng chekka burchaklarga etib keldi. Bu esa mijozlarning uzoq navbatlardagi kutishlarini va tashkilotlarning ishlash prinsiplarini o‘zgartirdi. Mobil aloqa va tegishli infratuzilmalar yordamida esa fintech texnologiyasi(moliyaviy texnologiyalar) bank sektoriga kirib, xaridorlarga qulay bo‘lgan turli xil mahsulotlarni ishga tushirdi. Amerika qo’shma shtatlaridagi 100 ta eng yirik banklarning yarmidan ko’pi mobil banking xizmatini taklif qiladi va taxminan 19 million AQSh fuqorolari va biznes egalari ushbu xizmatdan foydalanadi. AQShning eng yirik banklari Bank of Amerika, JPMC, U.S bank, capital One, Truist va PNC bank tomonidan Zelle nomli mobil-to’lov tizimi xizmatini taklif qiladi. 2022-yilga kelib AQSh aholisining 80% Zelle bank mobil ilovasi orqali 1600 dan ortiq moliya institutlari ko’magida ulanishi mumkin. Tahlilchilarning fikriga ko’ra, bu ko’rsatkich o’sishda davom etadi. Biroq mobil-bankingdan foydalanuvchilar o’sishi bilan, ushbu xizmatdan foydalanuvchi biznes egalari hamda mijozlarga zarar yetkazishi mumkin bo’lgan firibgarlikni o’sishiga ham olib kelishi

mumkin.

O’zbekiston Respublikasi bank tizimida ham mobil-bankingni taklif qilayotgan banklar soni kundan-kunga oshib bormoqda. Respublika xududida 2023-yil avgust oyi xolatiga ko’ra 35 ta bank faoliyat yuritmoqda va ulardan 21 ta bank mobil-banking xizmatini taklif qiladi. Bank.uz jamoasining yillik tadqiqotiga ko’ra 2020-yil yakuni bo’yicha Ipak yo’li banki, Milliy bank hamda Aloqa banklarning mobil ilovalari qulaylik va funksionallik mezonlari asosida yuqori o’rinni egallagan.



1-rasm. Masofadan bank xizmatini ko’rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni 2022-yil 1-yanvar xolatiga

O’zbekiston Respubliksi Markaziy banki tomonidan berilgan ma’lumotlar mobil-banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni jadal o’sish tendensiyasini ko’rsatgan. Mobil-banking xizmatlaridan foydalanish o’sishda davom etayotgan bo’lsada, o’sish sur’ati so’nggi ikki yil ichida qisman iste’molchilarning xavfsizlikka bo’lgan xavotirlari tufayli sekinlashdi. Kaliforniyada joylashgan Javelin Strategy and Research kompanyasi tomonidan global moliyaviy xizmatlarni o’rganish bo’yicha tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, mobil-bankingni ishonsiz deb baholagan mijozlar 26 foizdan 40 foizga oshgan.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda banklar tomonidan rivojlanish dasturi bilan bog‘liq yirik loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Yaqin kelajakda kriptovalyuta va blokcheyn qonuniy tartibga solinadi va aksariyat kredit tashkilotlari biznesni rivojlantirish strategiyasiga raqamli transformatsiyani kiritadilar. Inson ongini raqamli tizimga o‘tkazish o‘nlab yillar talab qilishi mumkin va banklar madaniyat va tashkilotni umuman o‘zgartirish haqida o‘ylashlari kerak, shuningdek, tegishli xavfsizlik nazorati va eng yangi texnologiyalardan foydalanishning maqbul xavfi o‘rtasidagi muvozanatni yaratadigan ishonchli muhitni yaratishi kerak.

Yangi bank xizmati - bu faoliyat mijozga foyda olishda yordam berish yoki yordam berish, qo‘shimcha komissiya daromadlarini olish uchun. Yangi bank mahsuloti moliyaviy vositaga

aylanadi. Bank sohasida innovatsiyalarning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra texnologik va mahsulotga bo‘linishi mumkin. Bank innovatsiyalari ixtisoslashgan va birlashtirilgan bo‘lishi mumkin. Texnologik innovatsiyalarga quyidagilar kiradi: elektron transferlar, naqd pul, bank kartalari. Bank innovatsiyasining negizi shundan dalolat beradiki, texnologik innovatsiyalar banklarga raqobatbardoshlik beradi, hamda foyda va zamonaviy to‘lovni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Texnologiyalar ham bank tizimini, ham butun moliya bozorini raqamlashtirish sohasidagi strategik maqsadlarini amalga oshirish undagi raqobatning kuchayishiga, moliyaviy xizmatlarning mavjudligi, sifati va turlarining kengayishiga, risklarni kamaytirishga va moliyaviy sektordagi xarajatlar va texnologiyalarning yuqori raqobatbardoshligiga erishishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Huet, J.-M., Badré, B.S. and Filliol, O., 2019. *The Bank of the Future: The Digital Transformation of the Banking Industry*. Hoboken, NJ: Wiley.

2. M.Madraximov. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 4, ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor, SJIF 2021: 5.423.

3. Vadlamani R. Introduction to banking technology and management // Institute for development and research in banking technology. May 2011. DOI: 10.4018/978-1-59904-6754.ch001.

4. O.M.Melikov. Raqamli bank texnologiyalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ulardan samarali foydalanish yo‘llari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 yil.

5. https://depozit.uz
6. https://www.cbu.uz
7. https://www.oriens.uz
8. https://bank.uz

MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF INDUSTRY 4.0 ON AN INTERNATIONAL SCALE AND ITS POSSIBLE IMPACT ON THE ECONOMIC PROSPERITY OF UZBEKISTAN: IDENTIFYING PROSPECTIVE ASPECTS AND POTENTIAL THREATS TO THE DEVELOPMENT

Komilov Asror Akmalovich
Doctoral Student of Graduate School of Business and Entrepreneurship
https://doi.org/10.5281/zenodo.14196782

Abstract: *In this article the main trends of Industrial Revolution 4.0 have been analyzed along with the history of this term. Moreover, current innovation state of Uzbekistan has been analyzed and possible recommendations have been provided which can be helpful for future research and decision makers.*

Key words: *Industry 4.0, innovation, AI, Machine learning, IoT, Cloud Computing, Digital economy*

Introduction

The expeditious developments in digital technology have triggered a rise to the Fourth Industrial Revolution, or Industry 4.0, fundamentally altering the global industrial landscape. Characterized by intelligent automation, interconnected systems, and the integration of cyber-physical technologies, Industry 4.0 is transfiguring traditional industries and leading to new economic opportunities. At an international level, these developments are paving the way for increased productivity, innovation, and economic growth. Countries that efficaciously adapt to these rapid changes are positioned to benefit from enhanced industrial efficiency, resource optimization, and a strengthened ambitious position in the global market.

For Uzbekistan, a country undergoing economic reforms and industrial modernization, the significance of Industry 4.0 presents both favorable opportunities and momentous challenges. With its capacity to catalyze growth in fields such as manufacturing, agriculture, and services, Industry 4.0 could play a pivotal role in fostering Uzbekistan’s economic development. Nevertheless, the implementation of these technologies also brings possible threats, including the problem of digital inequality, the disruption of traditional industries, and the challenge of establishing a skilled workforce to manage and innovate within this new industrial paradigm.

This thesis tries to explore the main trends in Industry 4.0’s development on a global scale, evaluating their relevance to Uzbekistan’s unique economic context. By analyzing the prospective aspects and potential threats, this study seeks to provide vision into how Uzbekistan can strategically straighten its industrial policies to channel the benefits of Industry 4.0 while undertaking the risks associated with digital transformation.

Literature review

Manufacturing value chains are convoluted. Technological advances have created several advantages for business world; new concepts such as digitalization, Internet of Things (IoT) and Cyber Physical Systems (CPS) have received a great importance across the industries. These terminologies are utilized in defining the Fourth Industrial Revolution (Industry 4.0), also known

[20] Muksimova, S., Rakhimov, K., and S. Umirzakova. “Assessing Machine Learning Algorithms for Chronic Disease Prediction Through Performance Metrics.” DTAI–2024, vol. 1, no. DTAI, 2024, pp. 288–290. https://dtai.tsue.uz/index.php/DTAI2024/article/view/shaknoza

INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION USULLAR VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Xasanova Nafisa Shavkatovna
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: nxasanova595@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14197719

Annotatsiya. Maqolada inson resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar mohiyati va bu bo‘yicha tadqiq olib borgan olimlar haqida ma’lumot keltirilgan. Jumladan, tashkiliy innovatsiya turlari va innovatsion boshqarish xususiyatlari keltirilgan. Inson resurslarini boshqarishning zamonaviy innovatsion texnologiya turlari va innovatsion yo‘nalishlar hamda ularning korxona rivojlanishidagi ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Inson resurslari, inson resurslarini boshqarish, tashkilot, innovatsion texnologiya, innovatsion yondashuv, innovatsiya turlari, innovatsion yo‘nalishlar, axborot texnologiyalari.

Kirish

Zamonaviy ilm-fan va boshqaruv amaliyotida tashkilotlarning asosiy va strategik manbai sifatida inson resurslarini boshqarish (IRB) sohasidagi yangi yondashuvlar, tushunchalar, g‘oyalarni takomillashtirish, yangilash va izlashning doimiy jarayoni amalga oshiriladi. Boshqaruv modelini tanlashga biznesning turi, korporativ strategiyasi, tashkiliy madaniyati ta’sir qiladi. Tashkilotlarda inson resurslarini boshqarishning zamonaviy konsepsiyasining asosiy tamoyili — inson resurslarini tashkilotning samaradorligi va raqobatdoshligining hal qiluvchi omili sifatida tan olinishi, uning foydali va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy iqtisodiy manbai bo‘lishi mumkin [1].

Raqobat muhitining rivojlanishi inson resurslarini boshqarish sohasidagi bilimlar va inson kapitalini boshqarish sohasidagi ustuvorliklar o‘zgarishini anglatadi, chunki bu odamlarni boshqarishda innovatsion usullar va texnologiyalar bozorda tashkilotning tadbirkorlik muvaffaqiyatiga erishishning asosiy shartidir. Inson resurslarini innovatsion boshqarish bu xodimlarning ijodiy, innovatsion salohiyatini rivojlantirish va personalning innovatsion xulq-atvorini rag‘batlantirish maqsadida inson resurslari bilan ishlash sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan faoliyat [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

“Innovatsiya” atamasi 1930-yillarda ilmiy, iqtisodiy va boshqaruv jurnalistikasida paydo bo‘lgan va bu atama birinchi marta Iosif Shumpeter tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, dastlab faqat “madaniy va iqtisodiy hodisalarning tarqalishi” ta’rifida qo‘llanilgan [3].

Tashkilotning inson resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish va tadqiq etish bilan P.Druker, K.Viig, K.Sveybi, Dj. Xarrington, R. Boyasis, S. Uiddet, S. Xolliford kabi g‘arb olimlari shug‘ullangan. Rossiyada ushbu masalalar bilan N.N. Dumnaya, V.L.Inozemsev, GB. Kleyner, G.V. Kolodnyaya, D.S. Lvov, V.L. Makarov, B.Z.Milner, S.V. Stepashin, T.A. Andrusenko, T.A. Vetoshkina, I.A.Zimnyaya, A.B. Moller, Yu.F. Telnov, A.L.

Gaponenko, O.V. Maligina, M.A. Marinicheva, Ye.P. Pogorelova, Z.P. Rumyanseva, V.G Smirnova, S.N. Seletkov kabi olimlar shug‘ullangan [4].

R.Daft zamonaviy menejment fanida tashkiliy innovatsiyalarning to‘rt turini ilgari surgan. Mohiyatni anglash, innovatsion faoliyat tarixi va hozirgi holatini tavsiflash sohasidagi adabiyotda innovatsiya tushunchasining kelib chiqishi G. Mensh, N. Kondratyev, Y. Shumpeter, A. Klaynknext, K. Friman, Dj. Klark va boshqalar nomlari bilan bog‘liq.

Tadqiqot metodologiyasi

2022-2026 yillarda O‘zbekistonning innovatsion rivojlanish strategiyasida ta’limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish belgilangan. Kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlar ijtimoiy-iqtisodiy jadal o‘sishini ta’minlash strategiya asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [5].

Inson resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar texnologik yangiliklar bilan bir qatorda mehnat unumdorligini va umuman tashkilotning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy tashkilotlarda qo‘llaniladigan IRBning innovatsion usullari va texnologiyalari mehnat intizomining yuqori darajasini saqlashga, odamlarning jalb etilish darajasini oshirishga yordam beradi, tashkilot ichida va tashqi muhitda aloqa madaniyatini shakllantirishni ta’minlaydi va o‘z brendini boshqarish imkoniyatini beradi [6].

Inson resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar zamonaviy kadrlarni qayta tayyorlashning eng muhim vositasi bo‘lib, tashkilot xodimlarining samaradorligini oshirish va yaxshilashga qaratilgan. Inson resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarning tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar mavjud [6]:

1) jamoani qurish texnologiyalari va tegishli ijtimoiy birlashtirish dasturlari;

2) o‘zini-o‘zi tashkil qilish va taym-menejment texnologiyalari;

3) xodimlarning sadoqati va ishtirokini ta’minlaydigan tashkiliy madaniyatni yaratish;

4) boshqaruv maqsadlari bo‘yicha (Management by Objectives, MVO) – bu tashkilot ichida maqsadlarni shunday muvofiqlashtirish jarayoniki, bunda kompaniya rahbariyati va xodimlar maqsadlarni baham ko‘rishadi va tashkilot uchun nimani anglatishini tushunishadi;

5) qadriyatlarni boshqarish — barcha xodimlarga o‘z faoliyatida yo‘naltirilgan qiymat tizimini yaratishga va hisobot berishga yo‘naltirilgan tashkilotni boshqarish;

6) vakolatlarni boshqarish — tashkilot xodimlarini tanlash, baholash va rivojlantirish uchun foydalaniladigan vakolatlar modelini shakllantirish;

7) inson resurslarini boshqarish jarayonida axborot texnologiyalari va virtual makondan foydalanish;

8) tashkilot bilimlarini boshqarish va boshqalar.

Zamonaviy menejment fanida tashkiliy innovatsiyalarning har xil turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Xususan, R. Daft quyidagi 4 ta turni ilgari suradi [7]:

1. Texnologik yangilik (ish usullari, ish jarayoni hamda turli texnika va jihozlar).

2. Mahsulot va xizmatlardagi innovatsiyalar.

3. Tashkilot madaniyati va tashkilot xodimlarida innovatsiyalar.

4. Hozirgi ma’muriy metodologiyani tashkil etish bilan bog‘liq tarkibiy va tizimli innovatsiyalar.

Ushbu tasnif texnologik o‘zgarishlarni (masalan, tashkilotlarga elektron hujjat aylanishi texnologiyalarini joriy etish), xizmat ko‘rsatishdagi o‘zgarishlarni (mijozlarga yo‘naltirilgan

xizmat ko‘rsatish pozitsiyalariga o‘tish), tarkibiy o‘zgarishlarni (ma’muriy metodologiyadagi o‘zgarishlar) va innovatsiyalarni o‘rganish muhimligiga asoslanadi.

Shu bilan birga, inson resurslarini boshqarish sohasidagi innovatsiyalar yangi korporativ strategiyani ishlab chiqish va keyinchalik amalga oshirishga, tashkilotni boshqarishga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishga ta’sir qiladi. Masalan, xodimlarni hisobga olish va foydalanish muammolarini hal qilish uchun zamonaviy kompyuter vositalaridan foydalanish, tashkilotning elektron hujjat aylanishi, zamonaviy xorijiy standartlarni moslashtirish va mahalliy sifat standartlarini qo‘llash.

Innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishning yetakchi yo‘nalishi — bu tashkilotning kadrlar resurslariga yo‘naltirilganligi bo‘lib, ular zarur professional va shaxsiy kompetensiyalarga, ijodkorlikka, innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilishga tayyor bo‘lishlari kerak. Shu bilan birga, inson resurslarini boshqarishdagi innovatsiyalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ishbilarmonlik muhitidagi doimiy progressiv innovatsion o‘zgarishlar tufayli yuzaga keladi [8].

Inson resurslarini innovatsion boshqarish qator xususiyatlarga ega:

1) insonlarni boshqarishda qo‘llaniladigan usul va texnologiyalar tashkilotning maqsadlari bilan bog‘liq va uning rivojlanish strategiyasiga muvofiq ularga erishishga qaratilgan;

2) insonni boshqarish amaliyoti uni to‘liq bashorat qilish qiyin bo‘lgan kechiktirilgan natijaga ega;

3) inson resurslarini boshqarishdagi o‘zgarishlar ijtimoiy va psixologik xarakterli bir qator oqibatlarni keltirib chiqaradi, bu guruhlardagi keskinlik va qarama-qarshilikka olib kelishi, nizoli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin;

4) inson resurslarini boshqarish sohasidagi o‘zgarishlar tashkilotning turli sohalarida, shuningdek, insonni boshqarish bilan bog‘liq o‘zgarishga ehtiyoj tug‘diradigan ko‘paytiruvchi samaraning paydo bo‘lishini ta’minlaydi.

Insonlarni boshqarishning konseptual yondashuvlaridagi o‘zgarishlarga muvofiq, zamonaviy sharoitda inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullari ham rivojlanmoqda, bu tashkilot xodimlarini iqtisodiyot, sotsiologiya, psixologiya, shuningdek, axborot va aloqa tizimlari sohasidagi so‘nggi yutuqlarga asoslangan boshqarish usullari sifatida tushunilishi kerak. Shu bilan birga, inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullari texnologiyalarga guruhlanadi. Texnologiya deganda (yunoncha techne — san’at, mahorat, qobiliyat, logos — so‘z, o‘qitish, ta’limot) har qanday jarayonda amalga oshiriladigan usullarning umumiyligi tushuniladi. Ba’zi bir texnologiya turlarining keng tarqalishi va boshqalardan foydalanishda selektivlik tufayli quyidagilar mavjud [9]:

1) zamonaviy kommunikatsiya vositalari (uyali telefon, Internet va ularning asosida yaratilgan elektron boshqaruv tizimlari) tarqalishi bilan bog‘liq inson resurslarini boshqarish usullarini amalga oshirishda yangi yondashuvlarning ulushi katta bo‘lgan zamonaviy (innovatsion) usullar zamon va makonda ma’lumot uzatishda tezlikni oshirish orqali tashkilotlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi;

2) mavjud yondashuvlar asosida, shuningdek tashkilotlarga innovatsiyalarni joriy etish vositasida shakllangan an’anaviy (yoki aralash) texnologiyalar. Masalan, boshqaruv kadrlar zaxirasiga xodimlarni tanlashning an’anaviy tartibiga yetakchilikning genetik belgilarini aniqlashning innovatsion usuli yoki an’anaviy kadrlar tanlashda video intervyu texnologiyalaridan foydalanish mumkin.

Inson resurslarini boshqarishning eng tarqalgan va ko‘p uchraydigan zamonaviy innovatsion texnologiya turlariga quyidagilar kiradi [10]:

1) trening – shaxsiy va ishbilarmonlik xislatlarini rivojlantirishga, salohiyatni ochib berishga, shuningdek, salbiy oqibatlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan interaktiv o‘qitish shakli;

2) konsalting – tashkilot menejerlariga bunday tizimni noldan shakllantirishdan tortib, uni umuman yoki kadrlar ishlarining ayrim sohalarida takomillashtirishgacha bo‘lgan IRB turli xil masalalari bo‘yicha maslahatlar berish;

3) transfert – bilim, tajriba, ko‘nikma, texnologiyalar uzatish;

4) audit — kadrlar hujjatlarini mustaqil ekspertlar yoki tashkilotlar tomonidan tekshirish;

5) injiniring — inson resurslarini boshqarish jarayonlarini loyihalash.

Tashkilotning IRB innovatsion texnologiyalariga ehtiyoji uni rivojlantirishning quyidagilar bilan asoslanadigan asosiy yo‘nalishlari bilan belgilanadi [4]:

1) bilimlarni doimiy ravishda yangilab borish va ishlab chiqarish jarayonlarini texnologiyalashtirish, shu jumladan axborot texnologiyalarini tarqatish jarayoni bilan bog‘liq holda xodimlarning malakasini oshirish zarurati;

2) tashkilotning rivojlanish strategiyasining o‘zgarishi, yangi ustuvorliklarning paydo bo‘lishi va qiymat tizimini shakllantirish, barcha xodimlarni tanlash va o‘qitishning yangi usullarini joriy etish, shuningdek, individual xodimning roli o‘sib borishi;

3) kasbiy faoliyat uchun sog‘liqni saqlash va xavfsizlik texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi;

4) tashkilot natijalariga erishish uchun loyiha va jamoaviy ish uslublarini faol qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat etikasining yangi shakllarini ishlab chiqish;

5) strategik rejalashtirishda xodimlarni boshqarish xizmatlarining rolini o‘zgartirish, ularning funksiyalari, vakolatlari, tashkilotdagi mehnat munosabatlarini boshqarishda ishtirok etish darajasi va kadrlar siyosatining yo‘nalishlarini belgilash;

6) shaxsiy hissani baholashning obyektiv va natijaga yo‘naltirilgan tizimlari asosida tashkilot xodimlarining yutuqlarini baholash tartibini ishlab chiqish.

Kadrlar menejmenti bo‘yicha tadbirlar samaradorligini oshirish doirasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni ham alohida ta’kidlash zarur. Ular kadrlar ishi tizimiga joriy qilinishi davr talabi bo‘lgan yangi texnologiyalar orasida eng foydalisi bo‘lishi mumkin.

Bunda axborot texnologiyalardan foydalanish, asosan kadrlar menejmenti sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi axborot bazasini yaratish va doimiy rivojlantirish bilan bog‘liq. Shuni ta’kidlash mumkinki, zamonaviy axborot texnologiyalari jamiyatida korxonalar kadrlar xizmatidan xodimlar va istiqbolli salohiyatli nomzodlar to‘g‘risidagi turli ma’lumotlarni yig‘ishlari, saqlashlari, keyinchalik bu ma’lumotlarni tizimlashtirishlari hamda ulardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishlari talab etiladi. Zaruriy axborot bazalariga bunday zamonaviy talablar kadrlar bilan quyidagi ishlarda samarali boshqaruv qarorlarining qabul qilinishini talab qiladi:

lavozimga tayinlash; lavozimni o‘zgartirish; kasbiy o‘sish; shartnoma asosida yollash; mehnat sharoitlari; attestatsiya; faoliyatni reglamentlashtirish; ish haqini differensiyalash; rag‘batlantirish va jazolash; ijtimoiy-maishiy ta’minot.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish korxonalarida ishlar holatini o‘rganish kadrlar bo‘limi ma’lumotlarining ko‘pchiligi bo‘linmalar bo‘yicha personalning ro‘yxati, turli qoida va yo‘riqnomalardan iborat ekanligini ko‘rsatdi. Ayni paytda, bozor iqtisodiyoti rivojlangan

mamlakatlarda personal to‘g‘risidagi axborot bazasi ko‘plab ma’lumotlarni, jumladan, oilaviy ahvoli, tibbiy imtiyozlar kabi ma’lumotlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Inson resurslarini boshqarishda bir nechta bazaviy innovatsion yo‘nalishlar ajratib ko‘rsatiladi [2]:

1) innovatsion-ta’lim menejmenti — universitet, institut, kolledj va boshqa ta’lim muassasalarida professional kadrlar tayyorlashda yangiliklar kiritish;

2) innovatsion-kadrlar marketingi — tashkilotning yangi va samarali kadrlar salohiyatini shakllantirish;

3) innovatsion-texnologik kadrlar menejmenti – kasbiy faoliyatida yangi texnika va texnologiyalar turlarini o‘zlashtirish bosqichida xodimlar bilan ishlashning zamonaviy usullari, biznesni baholash, mavjud kadrlar tarkibidagi funksiyalar va vakolatlarning yangi taqsimlanishi, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va usullariga kiritilgan yangiliklar, targ‘ib qilish usullari, xodimlarni boshqa joyga ko‘chirish, asosiy ishchilar bilan ishlashni yaxshilash va boshqalar.

1-jadvalda tashkilotdagi xodimlarni boshqarish jarayonlarining turlariga muvofiq IRB innovatsion texnologiyalari keltirilgan.

1-jadval

Turli IRB jarayonlarida innovatsion texnologiyalar [1]

№	Inson resurslarini boshqarish jarayonlari	Innovatsion texnologiyalar
1	Inson resurslarini shakllantirish	Kadrlar marketingi, keys-intervyu, test, xedxanting, kompetensiyalar bo‘yicha intervyu, ye-rekrutment
2	Xodimlarni baholash	Assessment-sentr, “360 gradus” usuli, kompetensiyalar bo‘yicha baholash, KPI bo‘yicha baholash
3	O‘qitish va rivojlantirish	Kouching, timbilding, rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari, “360 gradus” usuli, kompetensiyalar bo‘yicha baholash
4	Karyerani rejalashtirish	Individual rejalar shakllantirish, “360 gradus” usuli, kompetensiyalar bo‘yicha baholash
5	Motivatsiya va mukofotlash	Mehnatga haq to‘lashning greyding tizimi, individual hissani baholash va shaxsiy xizmatni jamoatchilik tomonidan tan olish, partiyenpativ boshqaruv, kapitalda ishtirok etish
6	Inson resurslarini bo‘shatish	Personal lizingi, autsorsing, autstaffing
7	Xodimlar bilan joriy ishlash	Stress-menejment, nizolarni boshqarish, bilimlarni boshqarish
8	Ichki firma kommunikatsiyalarini tashkil qilish	Qayta aloqa mexanizmlarini, ayniqsa “pastdan yuqoriga” yo‘nalishida rivojlantirish, o‘zgarishlarni boshqarish bo‘yicha loyiha guruhlari, korporativ portal, Intranet

Tahlil va natijalar

Ba‘zi menejerlar: “Endi men o‘z xodimlarimni o‘qitaman, ular men uchun pul ishlashadi! Pul daryo kabi oqadi!” Lekin bu shunchalik osonmas. Agar tashkilotda logistika to‘g‘ri tashkil

qilinmagan bo‘lsa, ish haqi darajasi munosib bo‘lmasa, mahsulot yoki xizmatlar reklama qilinmasa, pul oqimi bo‘lmaydi. Tashkilotda o‘qitish samaradorligini aniqlashda, birinchi navbatda o‘quv dasturining samaradorligini ko‘rib chiqish kerak. Personalni o‘qitishga sarmoya kiritishdan asosiy maqsad korxona samaradorligini oshirishdan iboratdir. Shu sababli, ko‘plab kompaniyalar kelajakda foydaning sezilarli o‘sishini kasbiy tayyorgarlikda ko‘rishadi. Bunda samaradorlikni ko‘rib chiqayotganda, uni ijtimoiy va iqtisodiy tomonlama emas, balki har tomonlama ko‘rib chiqish kerak. Bir samaradorlikni boshqasini kamaytirish orqali oshirish mumkin emas. Agar korxona xodimlarni rivojlantirish dasturlarini tashkil etishning dastlabki bosqichida sarmoyani tejasa, kelajakda bu mehnat samaradorligining pasayishiga sezilarli darajada ta‘sir qiladi.

Xulosa va takliflar

Shunday qilib, inson resurslarini innovatsion boshqarish XXI asrda biznes amaliyotining voqealariga asoslangan turli xil innovatsiyalar bilan uzviy bog‘liq — bu axborot texnologiyalaridan foydalanish va psixologiya, psixofiziologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot va andrologiya sohasidagi so‘nggi tadqiqotlar natijalari va yangi mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlarni doimiy ravishda ishlab chiqaradigan innovatsion muhitni yaratish orqali tashkilotlarning raqobatdan bir qadam oldinda bo‘lish istagidir. Tashkilotda inson resurslarini boshqarishning yangi yondashuvlarini joriy etish bu butun tashkilotni innovatsion boshqarish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayondir [1].

Tashkilot oldida turgan zamonaviy vazifalarni bajarish uchun ilg‘or menejment texnologiyalaridan foydalangan holda butun IRB tizimini tarkibiy o‘zgartirish zarur. Ma’lumki, IRB tizimiga innovatsiyalarni joriy qilish boshqaruv tizimini o‘rganish, uning imkoniyatlarini va kamchiliklarni aniqlash asosida, shuningdek IRB ning so‘nggi tendensiyalari talablarini va tashkilotni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish kerak. Har qanday tashkilotga faqat ularga ehtiyoj aniq va tushunarli, ma’muriy va iqtisodiy maqsadlar va muayyan tashkilotning ehtiyojlari bilan birlashtirilgan, barcha xodimlar uchun tushunarli bo‘lgan IRB dagi yangiliklarga ehtiyoj seziladi.

Shunday qilib, boshqaruv siyosatini takomillashtirish maqsadida zamonaviy tashkilotlar faoliyatning barcha yo‘nalishlari va ish sohalariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha faol choralarni ko‘rmoqdalar, bu esa eng maqbul va maqsadga muvofiq boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonova G.K. Inson resurslarini boshqarish. Darslik. Toshkent, 2021.

2. Шапиро С.А., Епишкин И.А. Стратегическое управление человеческими ресурсами. Учебное пособие. Москва, 2019.

3. Лукьянова Т.В., Ярцева С.И., Коновалова В.Г. и др. Управление персоналом: теория и практика. Управление инновациями в кадровой работе: учебно-методическое пособие/под ред. А.Я.Кибанова. Москва: Проспект, 2012.

4. Bazarov T.Yu. Personalni boshqarish. T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021.

5. https://lex.uz/docs/6102462

6. Сотникова С.И. Управление персоналом организации: современные технологии: учебник / С.И. Сотникова, Е.В. Маслов, Н.Н. Абакумова, Ю.А. Масалова, В.П. Осипов; под ред. С.И. Сотниковой. – М.: ИНФРА-М, 2019.

7. Дафт Р.Л. Организационная теория и дизайн. СПб.: Питер, 2013.

8. Бирман Л.А. Управление человеческими ресурсами. Учебное пособие. – М.: Дело, 2018.

9. Карташова, Л.В. Управление человеческими ресурсами: учебник. – М.: ИНФРА-М, 2017.

10. Вигман С.Л. Стратегическое управление в вопросах и ответах: учеб. пособие / С.Л. Вигман. – М.: ТК Велби. Изд-во Проспект, 2019.

RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARDAN SAMARALI FOYDALANISH CHORA-TADBIRLARI

Shadmankulova Dilnoza Abdusaidovna
Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti o’qituvchisi
e-mail: dlnz@bk.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14197738

Annotatsiya: *Jahon iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyotning o‘sishi butun iqtisodiyotning ulushida yuqori ekanligi, raqamli muhitni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nuqtai nazardan kelib chiqib, maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qiladi. O‘zbekistondagi raqamli iqtisodiyotga ta’sir etuvchi omillarga oid statistik ma’lumotlar asosida rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi va samarali foydalanish chora-tadbirlari yuzasidan xulosalar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, raqamli infrastruktura, raqamli texnologiyalar, inson kapitali, innovatsiya, huquqiy muhit, raqamlashtirish siyosati.*

KIRISH. So‘nggi yigirma yil ichida raqamli texnologiyalarning tez sur’atlarda rivojlanishi, jahon iqtisodiyotida yangi bosqich – raqamli iqtisodiyot bosqichini boshlab berdi. Bu bosqichda raqamli texnologiyalar va internet AKT sohasi bilan chegaralanmagan holda, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari uchun iqtisodiy o‘sishning muhim drayveriga aylandi. Raqamli iqtisodiyotning ulushi allaqachon jahon yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 15,5% dan ortig‘ini tashkil qilmoqda. Mamlakatlarda raqamli transformatsiya global tendensiya bo‘lib, kelgusi o‘n yil ichida iqtisodiyotda yaratilgan yangi qiymatning taxminiy 70 foizi raqamli platformadagi biznes modellariga asoslanadi. [1]

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish har qanday davlatning raqobatbardoshligini oshirish, ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, aholi turmush darajasini yaxshilash va boshqa muhim masalalarni hal qilishdagi rolini oshirmoqda. Bu esa iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanishning ahamiyatini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. 1970-yillardagi uchinchi global sanoat inqilobi kompyuter texnologiyalari va internet aloqa texnologiyasiga asoslangan yangi iqtisodiy shakllar paydo bo‘la boshladi. Buning natijasida aksariyat rivojlangan mamlakatlarda avtomatlashtish, elektron tijorat,

raqamli platformlar, elektron hukumat, raqamlashtirish kabi yangi tushunchalar kirib keldi. Keyinchalik ushbu tushunchalar raqamli iqtisodiyotning bir qismiga aylandi**.**

Raqamli iqtisodiyot – axborotlashgan jamiyat a’zolarining cheksiz ehtiyojlarini tezkor va to‘laqonli qondirish maqsadida iqtisodiy jarayonlarda raqamli ko‘rinishdagi katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish orqali tovarlarni ishlab chiqarish, ularni saqlash, sotish hamda yetkazib berish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatdir. [2]

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yuzasidan xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan bir qator ishlar olib borilgan. Tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va unga ta’sir etuvchi omillarning samarasi haqida ilmiy ishlar qilingan. Mavjud tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to‘liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga hamda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga keng qulaylik yaratish va uni yuritishni soddalashtirish, yangi innovatsion g‘oyalar realizatsiyasiga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir. [3] Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy maqsadi butun milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdan iborat bo‘lib, raqamli iqtisodiyot zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni birlashtirgan yangi iqtisodiy shakldir. Shu bois ilmiylik va tizimlilik raqamli iqtisodiyot rivojlanishini aks ettiruvchi muhim ko‘rsatkichdir. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida sanoat tuzilmasini optimallashtirish va raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bu nafaqat an’anaviy tarmoqlarning raqamlashuvi va intellektini oshiribgina qolmay, balki raqamli iqtisodiyot rivojiga yangi kuch-quvvat bag‘ishlaydi va ishlab chiqarish ko‘lamini yanada kengaytiradi.[4] Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’sir etuvchi mintaqaviy omillardagi shahar darajasi, iqtisodiy rivojlanish holati, sanoat tuzilmalari darajasi, texnogiyalarga ochiqlilik darajasi, fan va texnologiya darajasi ijobiy rol o'ynaydi.[5]

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda institutsional va siyosiy omillarni ta’sirini e’tiborsiz qoldirib bo’lmaydi. Qonun ustuvorligi va ta’lim tizimlari internetning qamroviga sezilarli ta’sir ko’rsatadi.[6] Rivojlanishga ta'sir ko'rsatadigan ichki omillar asosan raqamli infratuzilma darajasi, raqamli ko’nikmalar holati va raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, ommalashtirish va qo'llashni o'z ichiga oladi. Ular orasida raqamli infratuzilmani rivojlanishining asosi hisoblanadi. Raqamli infratuzilma qanchalik yaxshi bo'lsa, rivojlanish uchun shunchalik qulay bo'ladi. Oyeyinka va Lal (2005) 1995 yildan 2000 yilgacha bo'lgan ma'lumotlarga asoslanib Sahroi Kabirdagi Afrika mamlakatlarida Internet tarqalishini o'rganishdi va telekommunikatsiya infratuzilmasi bunda muhim rol o'ynashini aniqladilar.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tarkibi bir xil bo’lishi mumkin. Lekin bu barcha mamlakatlar uchun omillar tarkibidagi ulushi xar hil bo’lishi, tadqiqotlarni amalga oshirishda o’rganilayotgan mamlakatdagi mavjud holat va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yondashishni talab qiladi.

METODOLOGIYA. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishidagi mavjud iqtisodiy statistik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Raqamli iqtisodiyot faoliyati yaqindan o‘rganildi va ma’lumotlar bazasi yig‘ildi. To‘plangan ma’lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tadqiqotlarga asoslangan holda iqtisodiyotning tarmoq va sohalarini o’sishiga ta’sir etuvchi omillarning aksariyatini tahlil qilingan.



1-rasm. Chizma raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar.

Yuqoridagi chizmadagi har bir omilning rivojlanish uchun zaruriyatini izohlaydigan bo’lsak, infrastruktura va texnologiyalar omilida yuqori tezlikdagi Internet tarmog‘i, zamonaviy telekommunikatsiya infratuzilmasi, mobil aloqa va kiberxavfsizlik tizimlarining rivojlanishini qamrab oladi. Innovatsiya va tadqiqotlar orqali raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etish uchun innovatsion yechimlarni yaratish va tadbiq etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash samarali natija beradi.

Raqamli texnologiyalarni samarali boshqarish va foydalanish uchun malakali mutaxassislar, IT-muhandislar, dasturchilar va boshqa soha mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj ortib boradi. Bu esa inson kapitali omili orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, IT-ta'lim tizimini takomillashtirish, IT-malakalarni oshirish dasturlarini joriy etish muhimdir.

Huquqiy muhitda Raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlaridan to’liq foydalanish maqsadida qonunchilik bazasini takomillashtirish, elektron tijorat, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish borasida aniq qonunlarni qabul qilish zarur. Kirib kelayotgan yangi biznes modellari va raqamli xizmatlar uchun qonuniy jihatdan to’siqlarning bo’lmasligini ta’minlash lozim.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar va strategiyalarni ishlab chiqish, innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashish davlatning salohiyati va resurlar imkoniyatining mavjudligi bilan izohlanadi.

Raqamli iqtisodiyotda ma'lumotlar muhim resurs hisoblanadi. Shu sababli, ma'lumotlarning ochiqligi va yetkazilishini ta'minlash, davlat va xususiy sektor tomonidan ma'lumotlarni ochiq platformalarda e’lon qilish orqali raqamli innovatsiyalarni rivojlantirishga hissa qo‘shish mumkin.

Ushbu omillardan har bir mamlakat turli xil darajada foydlanishi mumkin. O’zbekiston Republikasida ham raqamli iqtisodiyotga davlat siyosati darajasi sifatida 2015 yillardan boshlab ahamiyat qartila boshladi. Davlat tomonidan aniq strategiyalar, maxsus dasturlar va me’yoriy huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Iqtisodiyotning o’sishida raqamli iqtisodiyotning ulushini aniqlash, tarmoq va sohlarga ta’sirini baholash yuzasidan ham tadqiqotlar olib borildi. Xususan Statistika agentligi tomonidan raqamli iqtisodiyotning ulushi va rivojlanishiga oid bir qator ko’rsatkichlarning statistik ma’lumotlari ham 2015 yildan yuritala boshlandi. 1-rasmdagi ta’sir etuvchi omillarning samarali tashkil etilganligi raqamli iqtisodiyotga oid raqamlarda yanada aniq aks etadi. Xususan O’zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan ishlarni statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

1-jadval

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi ko‘rsatkichlari

Ko’rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (% da)	1,9	2,1	2,3	2,0	1,7	1,9	2,5	3,3	-
AKT ishlab chiqarishda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik, % da)	0,07	0,05	0,08	0,08	0,06	0,09	0,07	0,098	-
AKT savdosida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik, % da)	0,07	0,09	0,1	0,06	0,06	0,04	0,04	0,05	-
Elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik, % da)	0	0	0,004	0,028	0,054	0,106	0,572	1,158	-
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik, % da)	1,78	1,964	2,069	1,805	1,502	1,621	1,685	1,928	-
Iqtisodiy faoliyat turi bo’yicha “Axborot va aloqa” sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, (1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)	6221	6370	6427	6403	6975	7901	9517	10587	12204
AKT sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar soni, kishi	33413	34478	37958	40248	47697	50157	53782	60462	71627

Dasturiy ta’minotga qilingan xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi , (% da)	-	-	-	-	-	-	0,09	0,18	0,24
Sun’iy yo‘ldoshli keng yo‘lakli tarmoq bo‘yicha internetga kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan uy xo‘jaliklari ulushi (% da)	-	-	0	0	4,9	5,1	3,6	3,2	7,7
Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni, 100 ta aholiga nisbatan (% da)	26,6	30,2	34,5	40,4	48,8	58,4	65,8	75	82,6
O‘zbekiston Respublikasi AKT xizmatlari eksporti (ming AQSH doll.)	408097,6	147502,5	150650,1	298152,6	167496,4	169510,7	337007,1	305798,2	540381,4
O‘zbekiston Respublikasi AKT tovarlari eksporti (ming AQSH doll.)	26193,4	5097,4	10654,9	15752,3	18154,8	23879,4	42034,2	84256,9	133292,4

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari 2015-2023-yillarda O‘zbekistonda axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi, “Axborot va aloqa” sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, ular tomonidan ko‘rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi hamda AKT sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar soni oshib, internetga ulangan aholi va AKT tovar va xizmlarining eksport va import miqdori kabi ma’lumotlardan hajm jihatdan o’sish kuzatilgan. Raqamlarni tahlil qilish asnosida, axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi yiliga o’rtacha 25% ga o’sish kuztilgan. Tarkibiga ahamiyat beradigan bo’lsak, axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning ulushi yuqori. Bu esa mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning boshqa yo’nalishlarida deyarli qiymat yaratilmayotganini ko’rishimiz mumkin. Infrastruktura va texnologiya omilining faqatgina infrastruktura qismida asosiy qiymat yaratilmoqda. Texnologiya qismida esa deyarli qiymatning yaratilishio juda past. Bunga bir qator sabablarni keltirishimiz mumkin Innovatsion va ilmiy – konstruktorlik ishlanmalarga investitsiya darajasining pastligi, inson kapitalining salohiyatining yuqori emasligi, ommaviy raqamlashtirish targ’ibotining sustligini ta’kidlashimiz mumkin. Elektron tijoratning ulushi so’nggi yillrda YaIMning 1% ini tashkil etdi. AKT tovarlar eksporti salmog’i xizmatlar eksportiga nisbatan 4 barobar kamligi, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarishni rivojlantirish omillarining past darajadaligini ko’rsatadi. Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga o’rtacha 5 ta AKT sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlar soni tog’ri kelmoqda. 1-rasmdagi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish omillari va O’zbekistondagi bu boradagi qilingan ishlarni statistik ma’lumtlar orasida o’zaro bog’liqligini o’ragngan holda, omillarning o’zaro bog’liqligi kuchli ekanligini aks etadi. Birgina ma’lumotlarning ochiqligi innovatsiyalrni rivojlanishiga hissa qo’shadi. 1-jadval ma’lumotlaridan avvalo O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot bir necha barobar sekinroq rivojlanmoqda, ya’ni O‘zbekiston raqamli iqtisodiyot sohasida boshqa davlatlarga qaraganda orqada qolmoqda, afsuski bu iqtisodiyotga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etish va ushbu sohani yanada jadal rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- IT-mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- Infrastrukturani rivojlantirish va modernizatsiya qilish;
- Kiberxavfsizlikni ta'minlash;
- Raqamli texnologiyalarni joriy etishda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish;
- Innovasion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish;
- O‘zbekistonning raqamli transformasiyasi uzoq muddatli jarayon bo‘lib, ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish davlat, xususiy sektor va jamiyatning hamkorlikdagi harakatlariga bog‘liq.

Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda IT-sohasidagi xususiy kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash, IT-sohasini rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik bazasini takomillashtirish, xususiy sektorning innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish bilan bir qatortda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish xususan, xizmatlar eksportini oshirish, sifatli internet tarmog’i bilan ta’minlash, ommaviy ma’lumotlar ochiqligi va aholini raqamlashtirish ko’nikmalarini jadallashtishtirtish, raqamli iqtisodiyotdagi qiymat yaratish imkoniyatlari uchun huquqiy muhit yaratilishi iqtisodiy jihatdan o’sishni jadallashtirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://www.weforum.org/stories/2023/12/tech-diplomacy-harness-digital-economy/.
2. G.N. Maxmudova, N.F. G‘ulomova, B.G‘. Zayniddinov, D.A. Shad mankulova, “Industriya 4.0” (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: “Fan va ta’lim”, 2023. 260 bet.
3. https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirish.
4. Lisi Lu, Jishen Guan, Xiaoxia Wu Factors Influencing the Development of Digital Economy in Local Areas of China Based on Big Data Statistics . Hindawi Wireless Communications and Mobile Computing Volume 2023, Article ID 9806129, 1 pagehttps://doi.org/10.1155/2023/9806129.
5. Raqamli iqtisodiyot, URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli_Iqtisodiyot
6. Raqamli iqtisodiyot bizga nima beradi? URL: https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/11083
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli
8. iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
9. Raqamli iqtisodiyot stastistik ma’lumotlari, https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot.

RAQAMLI INQILOB VA SUN'IY INTELLEKTNING IJIMOIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI



Eshmatova Hosiyat Sherzod qizi
Alfraganus universiteti Raqamli texnologiyalar fakulteti 1-kurs talabasi
e-mail:eshmatovahosiyat@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14198121

Annotatsiya: Raqamli inqilob va sun’iy intellekt (AI)ning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biridir. Ushbu maqolada AI va raqamlashtirishning jamiyatga ko’rsatadigan ijobiy va salbiy oqibatlari tahlil qilinadi. Yangi ish o’rinlari yaratish, ma’lumotlarga kirishning kengayishi va samaradorlikni oshirish kabi ijobiy oqibatlar, bir tomondan, ish o’rinlari yo’qotish, ma’lumotlar maxfiyligi masalalari va ijtimoiy bo’linishning kuchayishi kabi salbiy oqibatlar bilan birga keladi. Maqolada, AI va raqamlashtirishning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o’zgarishlarga ta’siri, shu jumladan, kelajak istiqbollari ham batafsil ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: raqamli texnologiyalar, raqamli inqilob, sun’iy intellekt, AI, ijtimoiy taraqqiyot, tarmoqlar

Texnologik taraqqiyotning tez sur’atlarda rivojlanishi raqamli iqtisodiyotni shakllantirmoqda va bu jarayonda sun’iy intellekt (AI) hal qiluvchi rol o’ynaydi. Sun’iy intellekt raqamli iqtisodiyotning asosiy yo’nalishiga aylanib bormoqda, biznes jarayonlarini optimallashtirishdan tortib, yangi mahsulotlar yaratishga qadar turli sohalarda samaradorlikni oshirishga olib keladi.

Sun’iy intellect(ingl.Artificial intellegence) – kompyuter tizimlarining shu vaqtgacha insonlarga xos bo‘lgan ijodkorlik va intellectual faoliyatni bajarish qobiliyatidir. [2] U neyron tarmoqlar, mashinani o‘qitish (machine learning), tabiiy tilni qayta ishlash, kognitiv (ongli) hisob-kitoblar, kompyuterning tasvirni ko‘rishi singari fanning o‘ta murakkab yangi yo‘nalishlarini o‘zida birlashtiradi. Sun’iy intellekt atamasi birinchi bo‘lib, 1956 yilda Dortmund konferensiyasida Jon Makkarti va uning hamkasblari Marvin Li Minskiy, Nataniel Rochester, Klod Shennonlar tomonidan taklif etilgan. Jon Makkarti ushbu atamaning muallifi sifatida qabul qilinadi. [3]

Sun’iy intellektning quyidagi 4 ta turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Reaktiv mashinalar. Misol tariqasida 1990- yillarda jaxon chempioni Garri Kasparovni yutgan shaxmat programmasi bilan jihozlangan Deep Blue kompyuterini keltirish mumkin. Deep Blue shaxmat doskasidagi figuralarni tanib olish va prognoz qilish xususiyatiga ega kompyuter hisoblanadi.

1. Chegaralangan xotira. Suniy intellektning bu tizimi kelgusidagi yechimlarni shakllantirishda oldingi tajribalardan foydalanishlari mumkin. Avtonom transport vositalarida qaror qabul qilishning ma’lum bir funksiyalari shu tariqa ishlab chiqilgan. Olib borilgan kuzatuvlardan kelgusida amalga oshiriladigan harakatlar to‘g‘risida axborot olish uchun foydalaniladi. Bu kuzatuvlar doimiy saqlanmaydi.

2. Aql nazariyasi. Bu psixologik mavzu bo‘lib, boshqalarda qaror qabul qilishga ta’sir qiluvchi o‘z e’tiqodlari, istaklari va niyatlari borligini tushunib etishga taaluqli termin hisoblanadi.

3. O‘z-o‘zini anglab yetish. Sun’iy ongning paydo bo‘lishi yozish tizimlarini yaratish va kvant darajasida axborotlarni deyarli abadiy saqlashni o‘z ichiga oladi. O‘z-o‘zini anglaydigan mashina o‘zining joriy holatini tushunadi va boshqalar nimani his qilayotganini aniqlash uchun ma’lumotlardan foydalanishi mumkin [1].

Bugungi kunda jahon amaliyotida Kanada, Singapur, Birlashgan Arab Amirliklari, Finlyandiya, Yaponiya, Xitoy, Italiya, Tunis, Buyuk Britaniya, AQSh, Shvesiya, Meksika, Yevropa Ittifoqi, Keniya, Daniya, Fransiya, Avstraliya, Koreya Respublikasi, Hindiston va Germaniya kabi davlatlar sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyalarini e’lon qilgan.[4]

So‘nggi yillarda O‘zbekiston sun’iy intellekt (AI) sohasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Texnologik innovatsiyalarga qiziqish ortib borayotganligi va raqamli transformatsiyaga bo'lgan qarashlari bilan mamlakat turli sohalarda taraqqiyotni ta'minlash uchun sun'iy intellektdan foydalanmoqda. Ushbu maqola O‘zbekistondagi sun’iy intellektning hozirgi holati, uning qo‘llanilishi hamda oldinda turgan muammolar va imkoniyatlarni o‘rganadi.

Respublikamizda ta’lim tizimida, raqamli texnologiyalar sun’iy intellekt texnologiyalari sohalarida katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

«Raqamli O‘zbekiston — 2030» Strategiyasini amalga oshirish dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 yilda «Sun’iy intellect texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Prezident tomonidan bu qarorlarni qabul qilinishi albatta respublikamizda raqamli iqtisodiyotni jadal sur’atlar bilan rivojlantirish vazifalariga va ularni amalga oshirishga qaratilganligi bilan katta ahamiyatga egadir. [5]

O’zbekistonda AI qo’llanilishi mumkin bo’lgan sohalar juda ko’p va ular davlat siyosatining turli sohalarini qamrab oladi **:**

Ta’lim:

- **Har bir bolaga individual o’quv dasturi:** AI yordamida har bir bolaga o’ziga xos o’quv rejasi tuzish mumkin. Bu esa talabalarning qobiliyatlarini maksimal darajada ochib berishga imkon beradi.
- **“Aqlli” o’qituvchi:** AI o’qituvchilarga talabalarning bilim darajasini baholash, ularga mos o’quv materiallarini tanlashda yordam berishi mumkin. Bu esa o’qituvchilarning vaqtini tejaydi va ularga darslarini takomillashtirishga imkon beradi.
- **Imtihonlarni avtomatlashtirish:** AI yordamida imtihonlarni avtomatik ravishda tekshirish mumkin. Bu esa o’qituvchilarning ish yukini kamaytiradi va ularga o’quvchilar bilan ko’proq vaqt o’tkazish imkoniyatini beradi.

Sog’liqni saqlash:

- **“Ko’z”ga ega bo’lgan tizim:** AI yordamida tibbiy tasvirlarni tahlil qilish, kasalliklarni aniqlash va davolash rejasini ishlab chiqish mumkin. Bu esa shifokorlarga aniq va samarali diagnostika qo’yishga imkon beradi.
- **Shaxsiylashtirilgan davolash:** AI har bir bemorning genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga mos davolash rejasini tuzishga yordam beradi.
- **“Aqlli” tibbiyot ma’lumotlari:** AI tibbiy ma’lumotlarni tahlil qilib, epidemiologik tadqiqotlar o’tkazish va epidemiyalarning oldini olishga yordam beradi.

Qishloq xo’jaligi:

- **O’simliklarning “shaxsiy yordamchisi”:** AI yordamida sug’orish, o’g’itlash, va boshqa qishloq xo’jaligi ishlarini optimallashtirish mumkin. Bu esa hosilni oshirish va qishloq xo’jaligini yanada samarali qilishga yordam beradi.
- **Zararkunandalarni “qo’rqitish”:** AI yordamida ekinlarda zararkunandalar va kasalliklarni aniqlash va erta ogohlantirish tizimlarini yaratish mumkin. Bu esa qishloq xo’jaligi mahsulotlarini yo’qotishni kamaytirishga yordam beradi.
- **Hayvonlarga “xizmat”:** AI hayvonlarning sog’lig’ini nazorat qilish, unumdorligini oshirish va qishloq xo’jaligi hayvonlarini parvarishlashni optimallashtirishga yordam beradi.

Ishlab chiqarish:

- **“Robot ishchilar”:** AI ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.
- **Sifatni “nazorat qiluvchi”:** AI yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatini tekshirish, kamchiliklarni aniqlash va xatoliklarni kamaytirish mumkin.
- **Tez va oqilona logistika:** AI yordamida mahsulotlarni etkazib berishni optimallashtirish va transport xarajatlarini kamaytirish mumkin.

Turizm:

- **“Shahsiy sayohat maslahatchisi”:** AI sayohatchilarga shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berish va ularning sayohatlarini rejalashtirishda yordam berish mumkin.
- **“Aqlli” sayyohlik joylari:** AI yordamida sayyohlik joylariga tashrif buyuruvchilar sonini boshqarish va xizmatlarni optimallashtirish mumkin.
- **“Turizmni bashorat qiluvchi”:** AI turizm bozorini tahlil qilish va sayyohlik sanoatining rivojlanishini bashorat qilishga yordam beradi.

Transport:

- **“O’z-o’zini boshqaruvchi” transport:** AI yordamida avtonom transport vositalarini yaratish mumkin. Bu esa yo’l harakati xavfsizligini oshirishga va tirbandliklarni kamaytirishga yordam beradi.
- **“Aqlli yo’llar”:** AI yordamida yo’l harakati oqimini boshqarish va tirbandliklarni kamaytirish mumkin.
- **Transportni “optimallashtirish”:** AI yordamida yo’lovchilarga tez va samarali transport xizmatlarini taqdim etish mumkin.

Qonunchilik:

- **Qonunlarni “tushunish”:** AI yordamida qonunlar va qoidalarni tahlil qilish va ularning to’g’ri qo’llanilishini ta’minlash mumkin.
- **Jinoyatlarga qarshi “kurash”:** AI yordamida jinoyatlarni oldini olishga yordam beradigan bashorat qilish modellari yaratish mumkin.
- **Sud jarayonlarini “tezlashtirish”:** AI yordamida sud jarayonlarini tezlashtirish va adolatli qarorlar chiqarish mumkin.

Energetika:

- **Energiyani “tejash”:** AI yordamida energiya iste’molini optimallashtirish va energiya tejashni ta’minlash mumkin.
- **Quyosh energiyasini “boshqarish”:** AI yordamida quyosh energiyasini samarali boshqarish mumkin.
- **Energetik tarmoqlarni “optimallashtirish”:** AI yordamida energetik tarmoqlarni boshqarish va ularning samaradorligini oshirish mumkin.

Moliya:

- **Bank xizmatlarini “takomillashtirish”:** AI yordamida bank xizmatlarini takomillashtirish va moliyaviy xarajatlarni kamaytirish mumkin.
- **Moliyaviy xavflarni “oldini olish”:** AI yordamida moliyaviy xavflarni aniqlash va ularning oldini olish mumkin.
- **Investitsiyalarni “boshqarish”:** AI yordamida investitsiya qilish strategiyasini optimallashtirish mumkin.

Madaniyat va san’at:

- **“Raqamli rassom”:** AI yordamida yangi san’at asarlarini yaratish mumkin.
- **“Aqlli musiqa va kino”:** AI yordamida musiqa va kino yaratish mumkin.
- **Madaniy merosni “himoya qiluvchi”:** AI yordamida madaniy merosni saqlash va qayta tiklash mumkin.

AI O’zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tezlashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. AI ning ijobiy tomonlaridan foydalanish va uning salbiy ta’sirlarini kamaytirish uchun davlat siyosati va ijtimoiy munosabatlarni moslashtirish zarur.

Raqamli inqilob va sun’iy intellekt (AI) hozirgi zamon jamiyatining barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko’rsatmoqda va ijtimoiy taraqqiyotga sezilarli darajada ta’sir qilmoqda. Ushbu ta’sirlarni ikki tomonlama - ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish orqali to’liqroq ko’rib chiqish mumkin.

Ijobiy ta’sirlar:

- **Ma’lumotga kirishning kengayishi:** Internet va raqamli texnologiyalar orqali odamlar bilim va axborotga avvalgi davrlarga nisbatan ancha oson va tez kirishlari mumkin bo’ldi. Bu esa ta’lim, tadqiqot va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.
- **Aloqa vositalarining rivojlanishi:** Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa onlayn platformalar orqali odamlar bir-biri bilan global miqyosda muloqot qilishlari mumkin. Bu madaniyatlararo almashinuvni va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.
- **Samaradorlikni oshirish:** sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar turli sohalarda, shu jumladan ishlab chiqarish, sog’liqni saqlash va transportda samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Avtomatlashtirish va optimallashtirish jarayonlari vaqtni tejashga va resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi.
- **Yangi ish o’rinlari yaratish:** Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi yangi kasb va ish o’rinlarini yaratmoqda, ayniqsa, dasturlash, ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt sohalarida.
- **Innovatsiyalarni rag’batlantirish:** Raqamli texnologiyalar yangi g’oyalarni rivojlantirish va innovatsiyalarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Salbiy ta’sirlar:

- **Ish o’rinlarining yo’qolishi:** Avtomatlashtirish va sun’iy intellektning keng qo’llanilishi ba’zi kasb va ish o’rinlarining yo’qolishiga olib kelishi mumkin. Bu esa ishsizlik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.
- **Ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi:** Raqamli ma’lumotlarning keng tarqalishi shaxsiy ma’lumotlarning himoyalanishiga tahdid soladi. Kiberxavfsizlik va ma’lumotlarni himoya qilish muhim masala bo’lib qolmoqda.
- **Ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi:** Raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyatlarining teng bo’lmagan taqsimoti ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Bu esa raqamli bilim va ko’nikmalarga ega bo’lmagan odamlarni chetlatilishiga olib kelishi mumkin.

- **Soqchiy aloqalarni buzilishi:** Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa onlayn platformalar odamlarning o’zaro munosabatlariga ta’sir qilishi va haqiqiy aloqalarni pasaytirishi mumkin.
- **Yolg’on axborot tarqalishi:** Internet orqali yolg’on axborot va dezinformatsiyaning tez tarqalishi jamiyatga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda va ishonchsizlikni kuchaytiradi.

Raqamli inqilob va sun’iy intellekt ijtimoiy taraqqiyotga ikki tomonlama ta’sir ko’rsatadi. Ushbu texnologiyalarning ijobiy potentsialini maksimal darajada oshirish va salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun tegishli siyosat va choralarni qo’llash juda muhimdir. Bu esa, ijtimoiy tenglikni ta’minlash, ta’lim va malaka oshirish tizimlarini rivojlantirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va raqamli savodxonlikni oshirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.N. Zaynidinov, T.A.Xo'jaqulov, M.P. Atadjanova (2018). Sun'iy intellekt.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Artificial_intelligence
3. https://en.wikipedia.org/wiki/John_McCarthy_ (computer_scientist)
4. B.B.Mo'minov (2023). Sun'iy intellekt.
5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 29-oktabrdagi PF- 6097 son Farmoni, “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-fevraldagi PQ- 4996 son qarori. https://lex.uz/uz

БОЖХОНА ХИЗМАТИ ФИСКАЛ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ

Фарходов Фаррух Фурқатович
Божхона қўмитасининг
Божхона институти ўқитувчи
farrux.farxodov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14198253

Аннотация: *мазкур мақолада божхона хизмати фискал фаолиятига таъсир этувчи омиллардан бири импорт ҳажми ва божхона тўловлари ўрасидаги боғлиқликни корреляцион ва регрессион таҳлил усулларида ўрганилган ва илмий таклиф ва амалий тавсиялар берилган.*

Калит сўзлар*: божхона тўловлари, фискал фаолият, давлат бюджети, импорт ҳажми, корреляцион таҳлил, регрессион таҳлил.*

КИРИШ

Ўзбекистоннинг ташқи савдоси ва божхона сиёсати иқтисодиётнинг муҳим таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. Мамлакатимизнинг барқарор иқтисодий ривожланишини таъминлашда божхона хизмати фискал фаолияти муҳим ўрин тутади.

Kelajakda sun’iy intellekt iqtisodiyotning barcha sohalariga yanada chuqurroq integratsiyalanadi. Xususan, sun’iy intellekt yordamida raqamli iqtisodiyot, aqlli shaharlar va o‘z-o‘zini boshqaruvchi transport tizimlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu esa, aholining turmush darajasini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda katta imkoniyatlar yaratadi.

Yuqorida qayd etilganidek, sun’iy intellekt texnologiyalari yangi ko‘nikmalar va bilimlarni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, kadrlar tayyorlash tizimini sun’iy intellekt texnologiyalariga moslashtirishni talab qiladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni o‘rgatish kurslarini joriy etish va talabalarni zamonaviy iqtisodiyotning yangi talablariga tayyorlash masalalari dolzarb hisoblanadi.

Xulosa va Tavsiyalar

Xulosa o`rnid shuni ta’kidlash lozimki, sun’iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar yaratadi va bu orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, bu jarayon bir qator yangi masalalarni – bandlik va qayta tayyorlash, axborot xavfsizligi, huquqiy va axloqiy masalalarni keltirib chiqaradi.

Tavsiyalar:

1. **Milliy strategiyani ishlab chiqish** - O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minlash uchun milliy strategiyani ishlab chiqish muhim [10].
2. **Ta’lim tizimini zamonaviylashtirish** - Sun’iy intellekt sohasida malakali kadrlar tayyorlash va mavjud kadrlarni qayta tayyorlash dasturlarini rivojlantirish zarur [11].
3. **Xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash -** Kichik va o‘rta biznes subyektlariga sun’iy intellekt texnologiyalariga kirishni osonlashtirish orqali ularning innovatsion salohiyatini kuchaytirish maqsadga muvofiq [12].

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Nazarov, A. (2021). Sun’iy intellekt va uning iqtisodiyotdagi o‘rni. Tashkent: "Iqtisodiyot va Statistika" nashriyoti.

2. Mustafaev, R. (2020). Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellektni qo‘llash. Tashkent: "Fan va Texnologiya" nashriyoti.

3. Tursunov, Sh. (2020). Sun’iy intellekt va innovatsion iqtisodiyot. Toshkent: "Innovatsiya va Texnologiya" nashriyoti.

4. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). *Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future*. W. W. Norton & Company.

5. Agrawal, A., Gans, J., & Goldfarb, A. (2018). *Prediction Machines: The Simple Economics of Artificial Intelligence*. Harvard Business Review Press.

6. Manyika, J., et al. (2017). *A Future that Works: Automation, Employment, and Productivity*. McKinsey Global Institute.

7. Deloitte Insights. (2020). *The AI Dossier: Driving Value in Financial Services, Retail, and Manufacturing with Artificial Intelligence*.

8. Rahimov, A. (2020). O‘zbekiston iqtisodiyotida sun’iy intellektning rivojlanish imkoniyatlari. "Iqtisodiy tadqiqotlar" ilmiy jurnali, 12(4), 100-111.

9. Mamasoatov, D. (2023). Tadbirkorlik subyektlari eksportida raqamli platformalardan foydalanish strategiyalari.

10. World Economic Forum. (2018). The Future of Jobs Report 2018. Geneva: World Economic Forum.

11. Taddeo, M., & Floridi, L. (2018). *How AI Can Be a Force for Good*. Science, 361(6404), 751–752.

12. European Commission. (2020). *White Paper on Artificial Intelligence: A European Approach to Excellence and Trust*.

THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE INNOVATION ACTIVITIES OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.

Kurbanova Shakhnoza Yuldashbayevna
Lecturer, Department of Finance and management,
Oriental University
Tashkent State University of Economics
independent researcher
shakhnozakurbanova88@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14193122

Alimova Dilafruz Tohirovna
Gulistan State University Foundation doctoral student
https://doi.org/10.5281/zenodo.14193122

Annotation. *Artificial intelligence plays a key role in the innovation activities of industrial enterprises, representing an important area of technological development within the framework of the 4th Industrial Revolution. During the half-century process of development of AI technologies, machine learning and the growth of computing capabilities, modern multilayer neural networks have already become effective tools for modeling complex control and management functions in technological industries. Against the background of current trends, the Industry 4.0 paradigm integrates artificial intelligence, the Internet of Things, big data analysis and other technologies to create intelligent production systems. Smart factory, smart mine and other projects are being actively implemented around the world, with artificial intelligence tools playing a key role in them.*

Keywords:*artificial intelligence; industry; industrial enterprise,digital transformation;technology; economics; Industry 4.0; Industry 3.0; neural networks.*

The use of artificial intelligence (AI) is one of the main technological directions for the development of the digital transformation of industry, which means that they play an important role in the innovative activity of the enterprise. The very concept and technology AI has come a long way since the middle of the 20th century, when fundamental research and experiments began, which were supposed to determine which human tasks AI could perform better, faster and with a lower percentage of errors. In evolutionary development AI's main task was formulated quite quickly: unlike classical automation and robotization, AI must solve precisely "human tasks", although creative, but well-algorithmized and logical. Therefore, the first practical attempts by A. Newell and G. Simon in the late 50s of the last century consisted in the development of software that imitated human thinking (for example, in proving mathematical theorems or in dialogues with an operator).

Modern AI tools used In industrial digitalization projects combine both approaches in their creation and development: so expert systems have tens of thousands of complex dependencies in the program code, and effective AI tools in the field of "computer vision" or "digital twins" undergo long-term training on huge amounts of data. By the end of the 20th century, AI tools had received industry specialization and were already solving certain classes of problems in economics on a par with performing similar tasks by humans. This rapid development was facilitated by overcoming the most important limitation — the limitation on computing power. The development of machine learning by the 21st century has become much more complicated, has received a whole set of automation tools and has become an independent technological direction within the framework of the development of artificial intelligence. The effectiveness of machine learning has been continuously increasing over the past twenty-five years, and one of the significant milestones has been the development of self-learning principles.

The modern Industry 4.0 paradigm represents the next stage in the technological evolution of industry, combining artificial intelligence (AI),the Internet of Things (IoT) and big data analysis (Big Data) to create fully automated and intelligent production systems. Examples of such systems are the implementation of "smart factory", "smart mine", "smart warehouse", etc. In the Industry 4.0 paradigm, the availability of technologies such as the Internet of Things, computer vision, industrial Wi-Fi, data warehouses and non-relational databases allows processing huge amounts of data in real time, making AI learning and improvement mechanisms even more effective [4].1The Industry 4.0 paradigm itself has made significant contributions innovations in the technological and innovative development of industrial enterprises. The most promising technologies should be highlighted:

-intelligent Internet of Things;

-AI-driven engineering;

-predictive systems based on.

These technologies have become an integral part of modern integrated solutions and have an impact on various aspects of competitive activity in industry. For example, "smart factories" have already been created in Germany, where production management systems developed, for example, by Siemens automatically regulate production processes in real time, based on data on demand and equipment condition. This significantly increases production efficiency and reduces costs. For example, Mercedes has built such a fully autonomous car factory, where production by robots is controlled by AI systems in real time, processing huge streams of data about all production lines, inventories, raw materials and logistics processes.

The study defines the current level of demand for AI tools and identifies significant trends of scientific and practical interest and potential directions for the formation of effective policies in the competitive development of industrial enterprises. The first and main conclusion from the study is that the use of AI tools in industrial production remains "piecemeal",experts associate the change in the situation with a whole set of complex factors:

-disadvantages of the digitalization methodology (from economic aspects will the project of implementing an AI solution pay for itself to the technical aspects of their operation and development);

- the need to significantly reduce the costs of AI implementation projects (including: eliminating the shortage of hardware and software, overcoming the isolation of the technological sector of the economy,returning IT specialists who left).

There is still a huge potential for industrial enterprises to use large language models (LLMs) like GPTChat, Google Bard, Microsoft Copilot, YandexGPT, etc. The Russian industry does not seem to understand the revolutionary changes in production and business processes that this class of solutions brings. Only about 16% of experts use such systems (and then informally or experimentally).

The task of integrating any AI tools into a common one also remains unresolved.The IT landscape of an industrial enterprise: the study showed literally a single experience of integration with the most important enterprise systems (ERP, MES, CAM, external systems). In the vast majority of cases, AI tools literally "float in the air" because their use is truncated by a set of atomic tasks, and the data and results of their work are not sent to other information systems.

The results of the study showed the level of demand for AI tools in production processes in the Russian industry from the point of view of the Industry 3.0 paradigm. The second conclusion is made: the potential for the use and development of AI technologies within this paradigm remains significant. Almost all significant technologies (automation, robotics, expert systems) from the Industry 3.0 paradigm, developed since the end of the 20th century, can be enhance by AI tools. However, for a significant part of the enterprises (more than half) that participated I the study, these steps are still far from being implemented.

The study presented the experience of using AI tools in the context of the Industry 4.0 paradigm: there is an increased interest in technology Artificial Intelligence of things. Nevertheless, the application of "Computer Vision with AI elements" technology faces certain difficulties. Almost 90% of experts report incomplete effectiveness of the solutions used in this area, which indicates the need for additional research and financial investments in this direction.

The accelerated development of the concept of AI-driven engineering in industrial enterprises is also noted.In conclusion, it should be noted that the study participants associate the further development of all AI tools with public investment in the industry. This means that the direction of AI in the innovative development of industrial enterprises needs significant investments of various types, and at the basic level and in current economic conditions — long-term government support.

Literature.

1. Devyatkov V.V. Artificial intelligence systems / Chief editor I.B. Fedorov. — M.: Publishing House of Bauman Moscow State Technical University, 2001. — 352 p.

2. Sabanii V.R. Automatic control systems based on neural network technologies / V.R. Sabanin, N.I. Smirnov, A.I. Repin // Proceedings of the International Scientific Conference Control-2003. Moscow: Publishing House of MEI, 2003. pp. 45-51.

3. Baskin I.I., Palyulin V.A., Zefirov N.S. Application of artificial neural networks in chemical and biochemical research // Vestn. Moscow.Univ. Ser. 2. Chemistry. 1999.

4. Laran, A.A. Theoretical and legal approaches to understanding artificial intelligence: the concept, types and essential features of artificial intelligence /A.A. Laran // Studentskiy. — 2021. — № 36-3(164). — Pp. 50-55. — EDN SOUMVB.

5. Jackson P. Introduction to Expert Systems = Introduction to Expert Systems.3rd ed. — M.: Williams, 2001. — p. 624. ISBN 0-201-87686-8.

6. Crevier D. (1993) AI: The Tumultuous Search Artificial Intelligence — New York, NY: BasicBooks. P. 399 — ISBN 0-465-02997-3.

7. Komarov N.M., Pashchenko D.S. Increasing the speed of innovation in industry in the context of digitalization // Bulletin of Eurasian Science. —2,023. — Vol. 15. — No. 2. — URL: https://esj.today/PDF/68ECVN223.pdf.

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, XUSUSAN SUN’IY INTELEKTDAN FOYDALANISH VA UNING SAVDO KORXONALARIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Uzakov Utkir Abdusattarovich
Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti “Iqtisodiyot va boshqaruv” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail:u.uzakov@tift.uz;
UO‘K 657:006.013:658.8
ORCID 0009-0005-6637-3234
https://doi.org/10.5281/zenodo.14199975

Annotatsiya*: Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intelektdan foydalanish hamda uning savdo korxonalaridagi o‘rni va ahamiyati, afzalliklari, dolzarb masalalari, shuningdek amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar, qolaversa elektron tijorat bozori hozirgi holati haqida bayon qilingan.*

Tayanch so‘zlar*: Innovatsion iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, sun’iy intelekt, savdo korxonalari, elektron tijorat, avtomatlashtirish.*

KIRISH

Bugungi global iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar xususan sun’iy intellekt (SI) rivojlanishi biznes va iqtisodiy tizimlarning shakllanishi uchun muhim omillarga aylangan. Raqamli transformatsiya va innovatsion iqtisodiyot tushunchalari bir-biri bilan chambarchas

bog‘liq bo‘lib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini yaratadi. Sun’iy intellektning rivojlanishi esa, o‘z navbatida, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish, shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish, mijozlar ehtiyojlarini aniqroq prognoz qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Savdo korxonalari, iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida, bu texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali o‘z faoliyatini takomillashtiradi, yangi bozorlarni zabt etadi va raqobatbardoshligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar va SI yordamida korxonalar nafaqat o‘z mahsulotlarini va xizmatlarini rivojlantirishda, balki iste’molchi bilan yanada mustahkam aloqalar o‘rnatishda, resurslardan samarali foydalanishda ham katta yutuqlarga erishmoqdalar.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning savdo korxonalari faoliyatiga ta’siri faqat iqtisodiy foyda keltirish bilan cheklanib qolmaydi. Ularning qo‘llanilishi yangi ijtimoiy va axborot tizimlarining paydo bo‘lishiga, mehnat bozori va ijtimoiy strukturalarning o‘zgarishiga ham olib kelmoqda. Shu sababli, bu mavzuni o‘rganish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning innovatsion iqtisodiyotdagi roli, shuningdek, savdo korxonalaridagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash zamon talabi hisoblanadi.

Maqolada raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning innovatsion iqtisodiyotda qanday o‘rin tutishi, savdo korxonalaridagi afzalliklari, dolzarb masalalari, shuningdek, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qanday choralar ko‘rilishi zarurligi yoritilgan. Shuningdek, elektron tijorat bozorining joriy holati va uning rivojlanish istiqbollari ham muhokama qilingan. Bu tadqiqot nafaqat korxonalar uchun, balki mamlakatlar va butun jahon iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi deb o‘ylayman.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunga kelib innovatsion iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar deyarli har bir sohaga kirib bordi va bundan har kuni foydalanib kelinmoqda, shuningdek bu borada ham ko‘plab ilmiy ishlar, maqolalar hamda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Keling endi ana shunday ilmiy izlanishlarda raqamli texnologiyalar va innovatsion iqtisodiyot haqidagi berilgan izohlari va fikrlariga to‘xtalib o‘tsak.

Raqamli iqtisodiyot - bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko‘rinishdagi ma’lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir (R.I.Nazarov 2022) [1.1].

Bugungi kunda eng muhim dolzarb muammolardan biri tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham informatsion texnologiyalar (IT) sohasi orqali biznes faoliyatini rivojlantirish bugungi raqamli asrda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadbirkorlik sohasini IT sohasi bilan rivojlantirish va muvaffaqiyatga erishishimizga yordam beradigan ba’zi usullar bor bo‘lib (T.S.Rustamov 2023) [2.1], muallif ularni sanab o‘tgan.

Iqtisodiy sohalarda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish vaqt, mablag‘larni tejash va masofani qisqartirish, ma’lumotlar bilan samarali ishlash, samaradorlikni oshirish, barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi (U.A.Uzakov 2023) [3.1].

Biznes sohasida SIning asosiy xususiyatlaridan biri uning o‘rganish qobiliyatidir. SI tizimlari ma’lumotlardan o‘rganish, yangi bilimlarga moslashish va ularning samaradorligini asta-sekin oshirish uchun ajoyib qobiliyatga ega (Dr. Sandeep Kulkarni 2024) [4.1].

Sun’iy intellekt bizneslarga ma’lumotlarga asoslangan tahlillar va prognozlar taqdim etish orqali yaxshiroq qarorlar qabul qilishga yordam beradi. SI qarorlar qabul qilish jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadi. Moliyaviy tashkilotlar uni xavf baholash uchun foydalanadilar (Obermeyer & Emanuel, 2016) [5.1].

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Ushbu maqolaning metodologik asoslarini O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezidentimizning qaror va farmonlari, asarlari va ma’ruzalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, buxgalteriya hisobiga oid milliy va xalqaro standartlar, Nizomlar, yo‘riqnomalar, xorijda va respublikamizda chop qilingan ilmiy ishlar, darsliklar va qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar, internet tarmog‘i materiallari hamda izlanishlar olib borilgan korxonalarning amaliy materiallari tashkil etadi. Tahlil jarayonida analiz va sintez, kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda jadvallardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti o‘zgarmoqda va bu o‘zgarishlar asosan texnologiyalar va innovatsiyalar orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt iqtisodiy jarayonlarni tezda o‘zgartirishga va yangi iqtisodiy tizimlarni yaratishga qodir. Innovatsion iqtisodiyot deganda, yangi texnologiyalarni, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni iqtisodiy jarayonlarga joriy qilish orqali iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni oshirish tushuniladi. Raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellektning qo‘llanilishi, savdo korxonalari va biznes tizimlarining samaradorligini oshirish, yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratish, shuningdek, iste’molchilar bilan aloqalarni yanada takomillashtirish imkonini beradi. Yurtimizda ham hozirda raqamli iqtisodiyot bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda, xususan bu borada yurtboshimizning 2020-yil 05-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6079-son farmoni [6.1], hamda sun’iy intelekt texnologiyalarini jadal joriy etish bo‘yicha 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarori [7.1] asosiy zaminlardan bo‘lib xizmat qilmoqda.

Innovatsion Iqtisodiyot va Raqamli Texnologiyalar

Innovatsion iqtisodiyot - bu iqtisodiy o‘sishning asosiy manbai bo‘lgan ilmiy-texnikaviy yutuqlar va innovatsiyalarni o‘z ichiga olgan iqtisodiy tizimdir. Raqamli texnologiyalar bu jarayonda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Internet, ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash texnologiyalari, katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli hisoblash, va sun’iy intellekt kabi texnologiyalar biznesni tez va samarali rivojlantirishga yordam beradi. Sun’iy intellekt, xususan, ko‘plab sohalarda avtomatlashtirish va qaror qabul qilishni yaxshilash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida qayd etilganidek, O‘zbekiston raqamli transformatsiyaning ulkan yo‘liga o‘tdi. Ushbu keng qamrovli yo‘l xaritasi raqamli texnologiyalarni davlat xizmatlaridan tortib, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarigacha hayotning barcha jabhalariga integratsiyalashga qaratilgan. Strategiya mustahkam raqamli infratuzilmani rivojlantirish, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish, raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan [8.1].

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning qo‘llanilishi innovatsion iqtisodiyotga o‘tishda, yangi biznes modellari yaratishda, va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashda katta

ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalarni tatbiq etish orqali kompaniyalar o‘z jarayonlarini tezlashtirishi, xarajatlarni kamaytirishi va mahsulotlarini yaxshilashlari mumkin.

Ma’lumot uchun sun’iy intelekt, ya’ni, sun’iy aql - informatikaning alohida sohasi bo‘lib, kompyuter yoki mashinaning inson ongidagi imkoniyatlarga taqlid qilishi, sodda qilib aytganda, sun’iy aql kompyuterlarni odam kabi o‘ylash va yechim topishga yo‘naltirilgan texnologiya hisoblanadi. Big Data - salmoqli ma’lumot atamasi kuniga 100 gigabaytdan ko‘p ma’lumot tushadigan oqimlarga nisbatan qo‘llanib kelingan. Keyinchalik ma’lumotlarning keskin ko‘payishi oqibatida bu tushuncha yanada keng qamrov kasb eta boshladi. Ushbu atama odatda terabayt, ekzabayt va petabaytlar darajasidagi katta hajmdagi ma’lumotlarga nisbatan qo‘llaniladi [9.1].

Sun’iy intellekt raqamli texnologiyalarning eng ilg‘or va samarali vositalaridan biridir. Savdo korxonalari uchun SI o‘z faoliyatini samarali tashkil etish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish va bozorni o‘rganish kabi ko‘plab imkoniyatlar yaratadi. Sun’iy intellekt yordamida kompaniyalar:

1.Ma’lumotlarni tahlil qilish: Sun’iy intellekt yordamida katta ma’lumotlarni tezda tahlil qilish va prognozlar qilish mumkin. Masalan, mijozlar xulq-atvorini o‘rganish orqali kompaniyalar marketing strategiyalarini optimallashtirishi va shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif qilishi mumkin.

2.Avtomatlashtirish va jarayonlarni optimallashtirish: Savdo korxonalari sun’iy intellektni logistika, inventarizatsiya, omborlarni boshqarish va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda qo‘llaydi. Bu orqali xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish mumkin.

3.Mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash: SI yordamida kompaniyalar mijozlarga avtomatik tarzda javob beradigan chatbotlar yoki virtual yordamchilarni joriy qilishlari mumkin. Bu esa mijozlar bilan tezkor va samarali aloqalarni ta’minlashga yordam beradi.

4.Raqobatbardoshlikni oshirish: Sun’iy intellekt yordamida kompaniyalar raqobatchilarining faoliyatini tahlil qilib, o‘z biznes strategiyalarini shu asosda optimallashtirishi mumkin. Shuningdek, yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishda SI texnologiyalari yordamida innovatsiyalarni amalga oshirish osonlashadi.

Bugungi kunda savdo korxonalari raqamli texnologiyalarni nafaqat an’anaviy do‘konlar, balki elektron tijorat platformalarida ham keng qo‘llamoqda. Elektron tijorat bozori dunyo bo‘ylab tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Internet orqali savdo qilishning qulayligi, global bozorga chiqish imkoniyati va xarajatlarni kamaytirish kabi afzalliklar kompaniyalarni raqamli platformalarga o‘tishga undaydi.

O‘zbekistonning elektron tijorat bo‘yicha ko‘rsatkichlari: 1-rasm



1-rasm. O‘zbekistonning elektron tijorat bo‘yicha ko‘rsatkichlari

Sun’iy intellekt elektron tijorat sohasida ham muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun, onlayn do‘konlar SI yordamida mahsulotlarni tavsiya qilish, shaxsiylashtirilgan reklama takliflari yaratish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimlarini avtomatlashtirish orqali o‘z raqobatbardoshligini oshiradi. Bunday texnologiyalar nafaqat biznesni rivojlantirishga yordam beradi, balki mijozlar tajribasini ham yaxshilaydi.

Savdo korxonalari uchun sun’iy intellektning joriy etilishi – bu faqat texnologik yutuq emas, balki biznesni rivojlantirishning strategik vositasi. Savdo korxonalari su’'iy intellektdan bir nechta sohalarda foydalana olishadi:

- **Mijozlarga xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish**

Sun’iy intellekt yordamida savdo korxonalari mijozlarga 24/7 xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Misol uchun, chat-botlar va virtual yordamchilar orqali mijozlarning savollariga tezkor javob berish, shuningdek, mijozlarga mos mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilish mumkin. Bu orqali mijozlar tajribasi yaxshilanadi, mijozlar sadoqati oshadi va biznesning umumiy samaradorligi ko‘tariladi.

- **Marketing va sotish strategiyalarini shaxsiylashtirish**

Sun’iy intellekt yordamida kompaniyalar o‘z mijozlarining xulq-atvorini va xarid qilish odatlarini tahlil qilib, ularning individual ehtiyojlariga moslashgan marketing strategiyalarini yaratishlari mumkin. Bu shaxsiylashtirilgan tavsiyalar, reklama kampaniyalari va mahsulot takliflarini o‘z ichiga oladi. Misol uchun, Amazon va Netflix kabi kompaniyalar o‘z foydalanuvchilariga shaxsiylashtirilgan takliflar orqali muvaffaqiyatli sotish va xizmatlarni taklif qilishadi.

- **Inventarizatsiya va ta'minot zanjirini boshqarish**

Sun’iy intellekt inventarizatsiya va ta’minot zanjirini optimallashtirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, SI yordamida omborlardagi mahsulotlar sonini real vaqtda kuzatish, zaruriyatga qarab inventarizatsiyani boshqarish va ta’minot zanjiridagi muammolarni oldindan aniqlash mumkin. Bu xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali tashkil qilishga yordam beradi.

- **Avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish**

Savdo korxonalari o‘z jarayonlarini avtomatlashtirish orqali tez va aniq qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Sun’iy intellekt tizimlari ma’lumotlarni tahlil qilish orqali qarorlar qabul qilishni avtomatlashtiradi. Bu esa biznesni tezda moslashtirish va o‘zgarishlarga javob berish imkoniyatini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt innovatsion iqtisodiyotning asosiy poydevori sifatida biznes va savdo korxonalari faoliyatini qayta shakllantirmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki yangi biznes imkoniyatlarini yaratish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun ta’lim, infratuzilma, huquqiy tizimlar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashda davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlik zarur. Bu jarayonlar amalga oshirilsa, o‘zaro bog‘langan global iqtisodiyotda mamlakatlar va kompaniyalar muvaffaqiyatli rivojlanishlari mumkin.

Innovatsion iqtisodiyotga o‘tishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning rolini yanada kengaytirish zarur. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb o‘ylayman:

1.Ta’lim va malaka oshirish: Raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llay olish uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish zarur. Sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili va raqamli texnologiyalar bo‘yicha ta’lim dasturlari rivojlantirilishi lozim.

2.Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: Raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun mustahkam raqamli infratuzilma yaratish zarur. Bu internet tarmoqlari, ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash tizimlari va xavfsizlik mexanizmlarini o‘z ichiga oladi.

3.Huquqiy va normativ asoslar: Raqamli texnologiyalarni joriy qilishda huquqiy tizimni yangilash va muvofiqlashtirish zarur. Maxfiylik, axborot xavfsizligi va sun’iy intellektni tartibga solish bo‘yicha aniq normativ hujjatlar ishlab chiqilishi kerak.

4.Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash: Innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Texnologik startaplar va innovatsion loyihalarni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va soliq stavkalarini taklif qilish mumkin.

Umuman olganda bugungi kunda hayotimizni raqamli texnologiyalarsiz, xususan sun’iy intelektlarsiz tasavvur qilish qiyin bo‘lib qoldi. Sun’iy intellektning rivojlanishi va tatbiqi innovatsion iqtisodiyotga o‘tish va raqamli transformatsiya jarayonlarini yanada tezlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. R.I.Nazarov Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajriba va innovatsiya, THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES, 1(5), 125-128, 2022. https://www.econferences.ru/index.php/tafps/article/view/1218

2. T.S.Rustamov Tadbirkorlik sub’ektlarini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish, RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YANGI O‘ZBEKISTON RIVOJIGA TA’SIRI Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi 366-370 b., 2023.
https://www.herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/issue/view/15

3. U.A.Uzakov Iqtisodiyotda axborot texnologiyalarining o‘rni, JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS Volume-24 Issue-1 March 2023 https://newjournal.org/index.php/new/article/view/4077/3868

4. Sandeep Kulkarni, Vainik V S, Deepak D The role of artificial intelligence in enhancing business and services sector performance and innovation in the digital era, International Journal of Research and Analytical Reviews (IJRAR) January 2024, Volume 11, Issue 1 https://www.ijrar.org/viewfull.php?&p_id=IJRAR1DMP009

5. Obermeyer, Z., & Emanuel, E. J. Predicting the future—big data, machine learning, and clinical medicine. The New England Journal of Medicine, 375(13), 1216-1219. 2016 y. https://www.nejm.org/doi/10.1056/nejmp1606181

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF- 6079-son Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-5030957

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son Qarori https://lex.uz/docs/-5297046

8. I. Rustambekov 6 Aprel 2024, https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-raqamli-transformatsiya-kelajakni-istiqbollari

9. J.Boykalonov 19 May 2021, https://yuz.uz/uz/news/raqamli-texnologiyalar-imkoniyatlari

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI HUKUMAT VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI O‘RNI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH YO‘LLARI

Mirzanazarov Muhammadqodir Ulug’bek o’g’li
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti kursanti
mirzanazarovm16@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195224

Annotatsiya: *Mazkur maqola O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida raqamli hukumat va sun’iy intellekt texnologiyalarining ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotda elektron hukumatning rivojlanishi, davlat boshqaruviga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali shaffoflikni oshirish, korrupsiyani kamaytirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va fuqarolar bilan samarali muloqotni ta’minlash masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga keladigan texnik infratuzilma, axborot xavfsizligi va qonuniy masalalar kabi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Sun’iy intellekt texnologiyalarining davlat xizmatlarida qo‘llanilishi va raqamli iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi roli ham batafsil tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli hukumat, Sun’iy intellekt, Elektron hukumat, Raqamli iqtisodiyot, Davlat boshqaruvi, Innovatsion texnologiyalar, O‘zbekiston iqtisodiyoti, Axborot xavfsizligi, Raqamli transformatsiya, IT-Park, Raqamli xizmatlar.*

Kirish

Raqamli iqtisodiyot, bugungi kunda global iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan bo‘lib, sun’iy intellekt texnologiyalari ushbu jarayonning ajralmas qismi sifatida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy iqtisodiyotda davlat boshqaruvi, bank sektori, sanoat, tibbiyot, xavfsizlik kabi sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Mamlakatimizda esa ilg‘or texnologiyalarni hayotga tatbiq etish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Axborot texnologiyalari, deyarli barcha biznes va boshqaruv jarayonlarining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, davlat boshqaruvida texnik modernizatsiyaning zarur yo‘nalishi sifatida raqamli platformalar orqali muloqot o‘rnatishga imkon yaratadi. Raqamli hukumat va elektron hukumatning zamonaviy yondashuvi fuqarolar, bizneslar, davlat xodimlari va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida samarali aloqalarni ta’minlashga qaratilgan. Bunday texnologiyalar davlat boshqaruvini yaxshilash, korrupsiyani kamaytirish, xizmatlarning sifatini oshirish,

shaffoflikni ta’minlash kabi foydalarni keltirsa-da, axloqiy muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida, “Fan, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturiga muvofiq bir qator vazifalar belgilangan edi. Shu asosda, 2020-yil 28-apreldagi qarorning eng muhim qismi, O‘zbekistonni raqamli iqtisodiyotga o‘tkazish va elektron hukumatni keng joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilashdir. Qaror davlat boshqaruvi va xizmatlarni raqamlashtirishni tezlashtirish, axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va fuqarolarga yuqori sifatli xizmatlar taqdim etishni maqsad qilgan. Buning natijasida, davlatning barcha sohalarida raqamli transformatsiya jarayonlari amalga oshirilishi, elektron xizmatlar va raqamli platformalar orqali samarali va shaffof boshqaruvni ta’minlash ko‘zda tutilgan. [1]

Raqamlashtirish yo‘nalishida e’tiborga molik tashabbuslardan biri IT-Parkning tashkil etilishidir. Ushbu texnoparkning yaratilishi 2019-yil 10-yanvarda Vazirlar Mahkamasining “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari uchun texnologik parkni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida amalga oshirildi. Bu markaz axborot texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.[2]

Hozirgi kunda barcha davlat idoralari va xususiy sektordagi tashkilotlar o‘z faoliyatini modernizatsiya qilish maqsadida IT sohasiga sarmoya kiritishga majbur bo‘lyapti. Shuning uchun kadrlarning IT bilimlarini yanada oshirish dolzarb masalaga aylangan. IT-Park esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi iqtidorli va faol mutaxassislar uchun noyob imkoniyatlar yaratadi. Bu yerda buxgalteriya, huquqiy, marketing va ta’lim sohalarida qo‘llab-quvvatlash orqali innovatsion g‘oyalar haqiqiy biznes loyihalariga aylantirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni doirasida, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan "Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 10-maqsadida davlat xizmatini raqamlashtirishni nazarda tutuvchi “Raqamli davlat xizmati” loyihasi amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu loyiha davlat xizmatiga kirish, kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish, kadrlar zaxirasini shakllantirish va xodimlarning faoliyatini baholash jarayonlarini raqamlashtirishni ko‘zda tutadi. [3]

Shuningdek, "Milliy reyting" tizimi joriy etilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bu tizim orqali davlat xizmatchilarining faoliyati eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari **(KPI)** asosida baholanadi. Bu ham davlat xizmatining samaradorligini oshirishga va xodimlarning faoliyatini aniqroq, shaffof baholashga imkon beradi. Raqamlashtirish jarayonlari orqali davlat xizmati tizimini zamonaviy va samarali qilish, korrupsiya omillarini bartaraf etish va kasbiy tayyorgarlikni yaxshilashga erishish maqsad qilingan.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rnini tahlil qilish, ularning iqtisodiy natijalarga ta’sirini o‘rganish va davlat boshqaruvi tizimlarining raqamlashtirilishi jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolarni aniqlashdir. Shu bilan birga, tadqiqotda raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri va axloqiy asosda qo‘llash aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, davlat boshqaruvining shaffofligini ta’minlash va fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash yo‘llari o‘rganiladi.

Davlat hukumatining raqamlashtirilishi: O'zbekistonning hozirgi holati

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni katta tezlik bilan amalga oshirilmoqda, bu esa mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda muhim omilga aylangan. Raqamli hukumat davlat boshqaruvini yanada samarali qilish va fuqarolar bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yaxshilash maqsadida amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, e-hukumat va elektron xizmatlar, soliq va bojxona tizimlarida joriy etilgan raqamli platformalar bu sohalarda yanada o‘zgarishlarni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Masalan, e-hukumat platformalari orqali fuqarolar va biznes subyektlari davlat xizmatlariga onlayn tarzda murojaat qilib, zarur hujjatlarni olish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Shuningdek, davlat xodimlari o‘rtasida axborot almashinuvi va muloqotning samaradorligi oshmoqda, bu esa boshqaruv jarayonlarining tezkorligi va shaffofligini ta’minlaydi.

2023-yil 24-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **PF-76**-son Farmonining 5-ilovasida raqamlashtirish sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha "Yo‘l Xaritası" tasdiqlangan.[4] Ushbu hujjat raqamli transformatsiyani rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va boshqa sohalarda kengaytirishga qaratilgan maqsadlar va chora-tadbirlarni belgilaydi. Yo‘l xaritasida davlat organlarini raqamlashtirish, axborot tizimlarini optimallashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, fuqarolar bilan samarali elektron xizmatlar orqali aloqani yaxshilash, korrupsiya va byurokratiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlash kabi asosiy yo‘nalishlar ko‘zda tutilgan. Shuningdek, barcha davlat idoralari va xususiy sektorning hamkorligi, kadrlar tayyorlash va raqamli infrastrukturani kuchaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilangan.

O‘zbekistonning bojxona va soliq tizimlarida raqamli transformatsiya jarayoni katta samaralar bermoqda. Bojxona deklaratsiyalari va soliq to‘lovlarini onlayn amalga oshirish tizimlari joriy qilinishi orqali davlat tizimlarining samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda. Raqamli tizimlar bojxona jarayonlarini avtomatlashtirish va soliq to‘lovlarini tezkor va shaffof tarzda amalga oshirish imkonini yaratmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, bojxona va soliq tizimlarida korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytiradi va davlat byudjetiga tushadigan tushumlarni yaxshilaydi. Onlayn tizimlar orqali fuqarolar va korxonalar soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirishi, bojxona deklaratsiyalarini aniq va tezda topshirish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Bu esa, davlat xizmatlarini tezlashtirish va samarali boshqaruvni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bojxona sohasining raqamli transformatsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi “Bojxona ma’muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi **PF-6005**-son Farmoniga asoslangan holda amalga oshirilmoqda. [5] Ushbu Farmon, bojxona tizimini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va “qog‘ozsiz va elektron bojxona”ni yanada rivojlantirish orqali “raqamli bojxona”ni yaratishni maqsad qilgan. Shuningdek, xalqaro bojxona standartlarini milliy qonunchilikka joriy etishni tezlashtirish ham belgilangan asosiy yo‘nalishlardan biridir.

Bugungi kunda O‘zbekistonning raqamli transformatsiyasi davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish va aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashning muhim vositasi hisoblanadi. Soliq va bojxona tizimlarida joriy etilgan raqamli platformalar ma’muriy jarayonlarni tezlashtirishda va davlat boshqaruvi ishini soddalashtirishda katta rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmasligi iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelmoqda. Xususan, ko‘plab korxonalar raqamli texnologiyalarni to‘liq o‘zlashtirmaganligi sababli, mamlakat iqtisodiy o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonning raqamli transformatsiya jarayonida quyidagi muammolar aniqlangan:

Texnik Infratuzilmaning Yetishmasligi

Ko‘plab hududlarda internet va raqamli infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan. Bu ayniqsa qishloq joylarida raqamli xizmatlardan foydalanishda qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekistonda internet va raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Internet tezligi va sifatini oshirish: 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, 10 yosh va undan katta aholining so‘nggi uch oy davomida internetdan muntazam foydalangan ulushi **89%** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, internet tezligi va sifatini yaxshilash orqali foydalanuvchilar tajribasini oshirish lozim. [6]

Quyida O‘zbekistonning shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar, dolzarb muammolar va statistik ma'lumotlar

Xususiyatlar	Faktlar	Statistika va Tahlil	Manbalar
Shaxsiy Ma'lumotlar Xavfsizligi	2023-yilda O‘zbekiston internet foydalanuvchilarining 89% so‘nggi uch oy davomida muntazam internetdan foydalangan.	O‘zbekistonning raqamli platformalarida 2022-yilda 1.2 milliard so‘mlik zarar yetkazgan kiberhujumlar.	O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi
Shaxsiy Ma'lumotlarni Himoya Qilish	Shaxsiy ma'lumotlar o‘g‘irlanishining oldini olish uchun zamonaviy xavfsizlik choralarini joriy etish zarur.	2022-yilda dunyo bo‘yicha 2.9 milliard foydalanuvchining ma'lumotlari o‘g‘irlangan.	World Economic Forum (WEF) [7]
Kiberxavfsizlikni Kuchaytirish	O‘zbekiston hukumati 2020-yilda "Kiberxavfsizlik" qonunini qabul qilgan.	Shaxsiy ma'lumotlar va kiberhujumlarga qarshi choralar sifatida xavfsizlik protokollari yangilanmoqda.	O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlik Agentligi [8]
Xavfsizlik Protokollari	2024-yilga kelib, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun shifrlash texnologiyalari joriy etiladi.	2024-yilga kelib, ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha yangi texnologiyalar qo‘llaniladi.	O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi

Ma’lumotlar Xavfsizligi va Maxfiylik

Shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ma’lumotlarning noqonuniy tarqalishini oldini olish uchun zamonaviy xavfsizlik choralarini ko‘rish zarur.

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda. Hozirgi kunda davlat sektori bu borada yetarli raqamli

ko‘nikmaga ega kadrlar bilan to‘liq ta’minlanmagan. Shu bilan birga, mamlakatdagi internet foydalanuvchilari sonining **22,6** millionga yetgani va yoshlar orasida internetdan faol foydalanish IT sohasiga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Mobil internetning kengayishi va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlayapti.

Yosh avlodning texnik va xorijiy tillarni o‘rganish borasidagi yuksak ko‘nikmalari IT bozorining rivoji uchun mustahkam poydevor bo‘lmoqda. Xususan, 5 milliondan ortiq yoshlarning ingliz tilini bilishi ularning xalqaro texnologik bozor uchun moslashuvchanligini ta’minlamoqda. Yoshlarning texnik va raqamli ko‘nikmalarga egaligi mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasini tezlashtirishda muhim omil hisoblanadi.

IT ta’limiga e’tibor kuchayib, O‘zbekistonda **60** dan ortiq oliy ta’lim muassasasi va **400** dan ziyod IT-kurslar faoliyat yuritmoqda. Yiliga 29 mingdan ziyod oliy ma’lumotli mutaxassislar va 15 mingdan ortiq IT kurslarini tamomlagan yoshlar sohani rivojlantirishda ishtirok etmoqda. Shunga qaramay, global texnologik talablarni qondira oladigan malakali kadrlar yetishmovchiligi saqlanib qolmoqda, bu esa sohaga oid qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. [9]

Eski Tizimlar Bilan Integratsiya

Davlat boshqaruvidagi eski tizimlarni zamonaviy raqamli platformalar bilan uyg‘unlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Bu integratsiya jarayonini murakkablashtiradi va samaradorlikni pasaytiradi.

Eski tizimlar bilan raqamli platformalar o'rtasidagi integratsiya qiyinchiliklari: O'zbekistonda eski tizimlar va zamonaviy raqamli platformalar o'rtasidagi integratsiya jarayonida bir qancha texnik va institutsional muammolar mavjud. Eski tizimlar zamonaviy texnologiyalar bilan moslashmagan bo'lib, bu jarayonni sekinlashtiradi. 2022 yil oxirida davlat xizmatlarining 60% raqamlashtirilgan bo'lsa-da, eski tizimlar bilan integratsiya qilishda qiyinchiliklar mavjud. Yagona davlat xizmatlari platformasi 2022 yilda ishga tushirilgan bo'lsa-da, texnik nosozliklar va eski tizimlardan yangi platformalarga o'tishdagi qiyinchiliklar samarali aloqa o'rnatishni kechiktirmoqda

Kadrlar va malaka masalalari: Raqamli transformatsiya jarayonida malakali kadrlar yetishmasligi muhim muammo bo'lib qolmoqda. 2022 yilga kelib, yangi mutaxassislarni tayyorlash maqsadida **10,000** nafar yangi mutaxassis tayyorlash rejalashtirilgan edi, ammo 2023 yilda bu mutaxassislarning faqat **25%** raqamli transformatsiya jarayonlariga to'liq moslashdi. Shuningdek, **205** ta raqamli texnologiyalar o'quv markazida **128** mingdan ortiq tinglovchilar malaka oshirgan, lekin bu jarayonni yanada tezlashtirish zarur. [10] Shu bilan birga, eski tizimlar bilan ishlashda yangi mutaxassislarni tayyorlash va kadrlarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar

Davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni qo‘llash darajasini baholash uchun xalqaro miqyosda bir nechta maxsus indekslar ishlab chiqilgan. Ushbu indekslar davlatlarning elektron hukumatni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish va innovatsiyalarni tatbiq etish borasidagi yutuqlarini tahlil qilishga xizmat qiladi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda ushbu indekslarda yuqori natijalarga erishib, raqamli transformatsiya jarayonida sezilarli muvaffaqiyatlar qayd etdi. Quyida mazkur indekslarning asosiy mazmuni va O‘zbekistonning ulardagi o‘rni batafsil yoritiladi.

Davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni qo‘llashni baholovchi indekslar ichida Elektron Hukumatni Rivojlantirish Indeksi (**EGDI**) muhim o‘rin tutadi. BMT tomonidan e’lon qilinadigan ushbu indeks davlatning onlayn xizmatlar sifati, telekommunikatsiya infratuzilmasi va raqamli savodxonlik darajasiga asoslanadi. 2024-yilda O‘zbekiston ushbu indeksda 63-o‘rinni egallab, **0,79** ball to‘pladi. Bu ko‘rsatkich mamlakatning elektron hukumatni rivojlantirish yo‘lidagi ijobiy o‘zgarishlarni va xalqaro maydonda yuksalayotganini tasdiqlaydi. Elektron xizmatlar infratuzilmasining yaxshilanishi davlat boshqaruvining shaffofligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. [11]

GovTech Tayyorlik Indeksi (**GTMI**) davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi darajasini baholash uchun Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan. 2022-yilda O‘zbekiston 43-o‘ringa ko‘tarilib, **"A"** guruhiga kirdi. Bu natija mamlakatning davlat xizmatlarini raqamlashtirishda zamonaviy talablar va global standartlarga mos rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Innovatsion yechimlar va raqamli infratuzilmaning keng joriy qilinishi fuqarolar va bizneslar uchun davlat xizmatlaridan foydalanishni sezilarli darajada yengillashtirdi. [12]

Hukumatning Sun’iy Intellektga Tayyorlik Indeksi davlatning sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish imkoniyatlarini baholaydi. O‘zbekiston 2022-yilda ushbu indeksda **14** pog‘ona yuqorilab, raqamli transformatsiya sohasida barqaror rivojlanayotganini namoyon etdi. Ushbu yutuq mamlakatda texnologik infratuzilma, kadrlar salohiyati va qonunchilik sohasida olib borilayotgan islohotlarning natijasi sifatida qayd etildi. Sun’iy intellekt sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotda yetakchi davlatlar qatoriga kirishiga zamin yaratmoqda. [13]

1. Raqamli Hukumat va Sun’iy Intellektning O‘zbekistondagi O‘rni

O‘zbekistonning davlat boshqaruvida raqamli transformatsiyaning amalga oshirilishi, axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi, masalan, soliq va bojxona tizimlarining raqamlashtirilishi davlat tizimlarining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, bu tizimlarning xavfsizligini ta’minlash, axborot maxfiyligini saqlash, va xizmatlarning sifatini oshirishda bir qator axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Xavfni boshqarish tizimi (XBT) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **PF-5582-**son Farmoni asosida joriy etilgan bo‘lib, bu tizim bojxona jarayonlarida xavflarni aniqlash, ularni boshqarish va qonunbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan. Farmonga ko‘ra, XBT ikki bosqichda tatbiq etildi: 2018-yil 1-dekabrdan **“sariq”** va **“qizil”** yo‘laklar joriy etilib, ular mos ravishda hujjatlarni nazorat qilish va yuklarni jismoniy tekshirishga mo‘ljallangan bo‘lsa, 2019-yil 1-martdan **“yashil”** va **“ko‘k”** yo‘laklar kiritildi. Bu yo‘laklarda xavfsiz tovarlar tezkor rasmiylashtirilishi ta’minlandi, nazorat esa keyinchalik amalga oshirildi.

XBTning joriy etilishi bojxona operatsiyalarini soddalashtirib, samaradorlikni sezilarli oshirdi. Masalan, eksportda deklaratsiyalarni soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish ko‘rsatkichi **91%**ga, importda esa **82%**ga yetdi. Shuningdek, eksport jarayonlariga sarflanadigan vaqt **3,2** marta, importda esa **2,1** marta qisqardi. Ushbu tizim bojxona xizmatlarida shaffoflikni kuchaytirib, korrupsiya xavfini kamaytirish va xalqaro standartlarga mos faoliyatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada, bojxona tizimi samaradorligi va tashqi savdo jarayonlarini boshqarish darajasi yangi bosqichga ko‘tarildi. [14]

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (*my.gov.uz*) – bu O‘zbekistonda davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali aholiga qulay, tezkor va shaffof xizmatlar ko‘rsatishni maqsad

qilgan onlayn platforma bo‘lib, **678** xil xizmatni taqdim etadi va 2024-yil yakunigacha ulardan **75** foizdan ortig‘i mobil ilova orqali ko‘rsatilishi rejalashtirilgan. Portal orqali fuqarolar hujjatlarni rasmiylashtirish, elektron to‘lovlarni amalga oshirish, yashil hududlar va jamoat transporti kabi dolzarb ma’lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shuningdek, IT-ta’lim va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari, “112” yagona dispetcherlik xizmati kabi innovatsion loyihalar orqali davlat xizmatlarining sifati oshirilmoqda. [15] Portalning asosiy maqsadi – davlat xizmatlarini qulay va zamonaviy texnologiyalar yordamida aholiga yetkazishdir.

Xulosa va Takliflar

Raqamli boshqaruvning asosiy foydasi - davlatning shaffofligini oshirishdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli boshqaruvni rivojlantirish darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarda korrupsiya darajasi sezilarli darajada kamaygan. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali administrativ xizmatlar tezkor va sifatli taqdim etiladi. Bu esa fuqarolar va bizneslarning davlat organlari bilan aloqalarini yengillashtiradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari raqamli iqtisodiyotda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga katta hissa qo‘shmoqda va ularning kengroq qo‘llanilishi raqamli transformatsiyani tezlashtirishi hamda iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi sohasida axborot texnologiyalarini joriy etishda bir qator tavsiyalar berilgan: zamonaviy texnologiyalarni tadqiq qilish, elektron boshqaruv tizimini yaratish, samara keltiruvchi onlayn muloqot tizimlarini tashkil etish va real vaqt rejimida nazorat qilish tizimlarini joriy etish kabi. Bu jarayonlar, davlat boshqaruvini samarali va shaffof qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda raqamli innovatsiyalarni davlat boshqaruvida tatbiq etish, shaffoflik va samaradorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Foydalanilga adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-sonli
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.07.2019 yildagi 589-sonli
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi “Bojxona ma’muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-son Farmoniga
6. https://www.stat.uz/
7. World Economic Forum (WEF)
8. O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlik Agentligi
9. https://it-park.uz/ru/itpark/residents
10. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali
11. https://www.worldbank.org/en/topic/digitaldevelopment
12. https://www.un.org/development/desa/dpad/publication/e-government-survey-2024/
https://www.oecd.org/en.html
14. Bojxona Qo’mitasidan olingan ma’lumotlar asosida
15. https://my.gov.uz/

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Xaliqulova Feruza Xayitali qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
To’rtko’l fakulteti 4-bosqich “Buxgalteriya hisobi va auditi” 212-guruh talabasi.
fxaliqulova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195292

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Raqamli iqtisodiyotning yangi iqtisodiyotdagi muommolari va imkoniyatlari va shu bilan birgalikda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish va uni amalga oshirish uchun chora-tadbirlarni ko’rib chiqiladi*

Kalit so’zlar: *Innovatsion iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, ilg’or texnologiyalar, texnologik rivojlanish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar*

Kirish

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo’jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy etish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi (keyingi o‘rinlarda- Strategiya) iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta’minlash, shu jumladan, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Strategiya O’zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari hamda o‘rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.[1]

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Innovatsion iqtisodiyotning asosiy omillari bilim, resurslar, inson kapitali, ma'lumotlar bazalarini o'z ichiga oladi. Doimiy ravishda innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyoj mahsulotlarni takomillashtirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va o'zlashtirish, tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar katta o‘rin tutadi. Texnologik yetakchilik uchun korxonalar quyidagilarni amalga oshirishlari kerak: texnologik rivojlanishdan oldin intensiv tadqiqotlar, intellektual mahsulotlarni

yaratish va texnologiyalarni uzatish. Maqolada raqamli texnologiyalar yuqori texnologiyali mahsulotlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan jarayonlarni muhokama qiladi. Sun'iy intellekt (AI), chuqur tahlil va katta ma'lumotlar (Deep Learning va Big Data) bilan intellektual avtomatlashtirish, chiziqli modellashtirishning yangi vositalari ko'rib chiqiladi. Advanced Analytics (ilg'or tahlilchi) korxonalarga foydali strategik qarorlar qabul qilishda yordam berish uchun katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlaydi. Ushbu yondashuv mahsulotning zaif tomonlari va o'sish nuqtalarini aniqlash, tendentsiyalarni bashorat qilish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan voqealarni bashorat qilish imkonini beradi. Ilg'or tahliliy tizimlarni to'g'ri joriy etish bozorda tez o'zini oqlash va raqobatdosh ustunlikni ta'minlaydi. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sohasida tadqiqot va ishlanmalar innovatsiyalarda etakchi rol o'ynaydi. Ilg'or texnologiyalarni tahlil qilish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun dasturiy mahsulotlar innovatsion jarayonning barcha bosqichlarida qo'llaniladi.[2]

Raqamli texnologiyalar, yuqori darajada avtomatlashtirilgan usullar va kompyuterlashtirilgan tizimlarni o‘z ichiga oladi. Bu texnologiyalar O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar ochiladi, masalan, raqamli moliya, elektron tijorat, ishga qo‘yish protsesslarini optimallashtirish va boshqalar. O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi strategiyalari va ularning innovatsiyalar va texnologik rivojlanishlarni mustahkamlash bo‘yicha rolini o‘rganish uchun quyidagi muhim nuqtalar ko‘rsatilishi mumkin:

– strategiyalarning belgilanishi: O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi strategiyalari va ularning innovatsiyalar hamda texnologik rivojlanishlarini mustahkamlashga e’tibor qaratilmoqda.

– innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni mustahkamlash: O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi strategiyalari innovatsiyalarni oshirish va texnologik rivojlanishni mustahkamlashga qaratilgan.

– samarali dasturlar va loyihalar: O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi strategiyalari samarali dasturlar va loyihalar asosida amalga oshirilishi talab qilinadi.

– xalqaro hamkorlik va sarmoyalar: O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi strategiyalari va ularning innovatsiyalar va texnologik rivojlanishlarni mustahkamlash bo‘yicha xalqaro hamkorlik va sarmoyalarning muhim roli keltiriladi.[3]

Yangi texnologiyalar yaxshi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ba'zi jihatlariga o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsatadi, bu asosan ishlaydigan mexanizmlarni aloqa vositalarini yoki sanoat mashinalarini raqamli yoki raqamli mexanizmlarga almashtirish, shuningdek ularni yanada modemizatsiya qilishdan iborat.

Raqamli iqtisodiyotning o’sishi raqamli va mobil texnologiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan bir qator bozorlaring o'sishi bilan bog'liq. Texnologiyalar rivojlanishining hozirgi bosqichida va bozorlarning hozirgi holati sharoitida raqamli iqtisodiyotni maqsad sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqish kerak.

Yaqin yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti tub o'zgarishlarga uchradi. Iqtisodiyot ochiq, jadal, innovatsion rivojlanishga aylandi. Biroq, tan olish kerakki, jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik taraqqiyot sharoitida O'zbekistonning keyingi iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan tasavvur qilish qiyin. Afsuski, Respublikada bu sohada ikkita katta muammo mavjud: telekommunikatsiya infratuzilmasi va mutaxassislarning yetishmasligi. Bu Respublikamiz iqtisodiyotining raqamli aylanishiga jiddiy to'sqinlik qilishi va natijada raqamli iqtisodiyot sohasidagi sustlashishi mumkin.[4]

Iqtisodiyotda texnologiya mamlakatlar, mintaqalar va shaxarlarning iqtisodiy o’sishining asosiy omili ekanligi keng e’tirof etilgan. Aslida texnologiyalar ilmiy siyosat, tadqiqot va ishlanmalar, sanoat siyosati va milliy va mintaqaviy rivojlanish siyosatning ko’plab sohalariga muhim ta’sir ko’rsatishi mumkin. Shuningdek ushbu sohalarda individual va ijtimoiy rivojlanishni yanada chuqurroq o’rganish mumkin. Bu esa oliy ta’limda ish o’rinlarini yaratish va iqtisodiyotni o’sishiga ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari, ya’ni raqamli iqtisodiyot ko’plab afzalliklarni beradi. Bu esa uning tez kengayishiga va turli sohalarga ijobiy ta’sir ko’rsatishga yordam beradi:

-ish unumdorligini oshirish korxonalar o’z operatsiyalari va jarayonlarni avtomatlashtirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali o’z mahsuldorligi va samaradorligini oshirishi mumkin.

-bulutli hisob-kitoblar va raqamli tizimlar katta jismoniy infratuzilma va kapital xarajatlarga bo’lgan ehtiyojni yo’q qiladi. Bu esa tashkilotlarga kerak bo’lganda miqyosni oshirish va kamaytirish imkonini beradi.

-kengaytirilgan imkoniyatlar onlayn platformalar va texnologiyalar orqali korxonalar global iqtisodiyot va mavjudlikni rivojlantirishi mumkin, shu bilan mijozlar bazasi va bozor imkoniyatlarini kengaytiradi.

-raqamli iqtisodiyot ko’proq ma’lumotlarga ega bo’lib, ular tushunchalar, tendentsiyalar va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun tahlil qilinishi mumkin bo’lgan katta hajmdagi ma’lumotlarni ishlab chiqaradi. Ko’proq qulaylik iste’molchilar o’z uylarining qulayligidan raqamli tovarlar va xizmatlarni sotib olishlari mumkin.

- mijozlarning tajribasi yaxshilangan korxonalar raqamli kanallar va chatbotlar orqali mijozlarga tezroq va sezgirroq xizmat ko’rsatishi mumkin.[5]

A.A.Kisurkinning tadqiqotida mintaqaning innovatsion rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarning tasnifi berilgan bo‘lib, ular 12 ta blokga bo‘lingan ko‘p mezonli tasniflash usuli bilan olingan va o‘rganish obyektiga ta’sir qilishi bo‘yicha ular barcha omillarning ma’lum bir usuliga mansubligiga qarab parchalanishini nazarda tutadi. Muallif mamlakat, mintaqa yoki viloyatning innovatsion rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beruvchi 75 ta omilni aniqlagan [6]. Innovatsion rivojlanishning asosiy tasniflash mezonlari va omillari

1-jadvalda keltirilgan.

№	**Tavsiflanish mezonlari**	**Innovatsion rivojlanish omillari**
1	Ta’sir qilish darajasi	Makrodarajali, mezodarajali
2	Iqtisodiyot subyektiga munosabati	Tashqi, ichki
3	Faoliyat sharoitlariga munosabati	Subyektiv, obyektiv
4	Ta’sir qilish xarakteri	To‘g‘ridan-to‘g‘ri, bilvosita
5	Ta’sir qilish usuli	Vositali, vositasiz
6	Tarqalish darajasi	Umumiy, maxsus
7	Muhitga munosabat	Talab, taklif
8	Rivojlanishdagi roli	Asosiy, yordamchi
9	Ta’sir etish darajasi	Muhim, ahamiyatsiz
10	Ta’sir etish oqibatlari xarakteri	Ijobiy, salbiy
11	Namoyon bo‘lish chastotasi	Doimiy, o‘zgaruvchan
12	Boshqarish imkoniyatlari	Boshqariluvchi, shartli ravishda boshqariluvchi

13	Amalga oshirish shakli	Moddiy, moddiy emas
14	Nazorat imkoniyatlari	Nazoratli, nazoratsiz
15	Qabul qilinadigan qarorlar	Strategik, taktik
16	Faollik darajasi	Faol, neytral

O‘zbekiston Respublikasining innovatsion tizimi rivojlanishning hozirgi bosqichida tarqoq innovatsion infratuzilmaning mavjudligi, MIT elementlari o‘rtasidagi tarqoqlik va mahalliy ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni joriy etishning murakkabligi bilan tavsiflanadi. Innovatsion tizimning kuchli va zaif tomonlarini batafsilroq tahlili

2- jadvalda keltirilgan.

SWOT-tahlil

Kuchli tomonlari	**Zaif tomonlar**
• Geografik joylashuvi, foydali qazilmalarning mavjudligi. • Arzon ishchi kuchining mavjudligi. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari. • Axborot texnologiyalari resurslari.	• Tadbirkorlikning innovatsion faolligining past darajasi. Innovatsion madaniyat. • Davlat, xususiy sektor, universitetlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirish va o‘zaro hamkorlikning past darajasi. • Asosiy kapitalning texnologik tuzilmasining eskirganligi. • Venchur moliyalashtiruvining rivojlanmagan bozori.
Imkoniyatlar	**Tahdidlar**
•Texnologik rivojlanish, texnoparklar yaratilishi. •Raqobatbardosh mahsulotlar yaratish va u bilan yangi bozorlarga chiqish. •Mavjud mahsulotlarni takomillashtirish va Rossiya Federatsiyasi orqali xalqaro savdoga kirish.	• Texnologik qoloqlik. • Davlat aralashuvi tufayli tadbirkorlik faoliyati rag‘batlantirilishining pasayishi. • Maxsus iqtisodiy sharoitlar tufayli innovatsion faollikning pasayishi va yangi bozorlarga kirishning yo‘qligi.

Shuning uchun innovatsion tizim sohasida quyidagilar maqsadga muvofiqdir:

1. Xususiy sektorda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish;
2. Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash;
3. Texnoparklar, innovatsion markazlarni shakllantirish;
4. Fan, universitetlar va biznes hamkorligini rivojlantirish;
5. Ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish;
6. Tadqiqot va ishlanmalarni biznes jarayonlariga jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish.[6]

Natijalar

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-dekabr kuni Raqamli texnologiyalar vazirligiga tashrif buyurdi.

Raqamli boshqaruv markazida “O‘zbekiston–2030” strategiyasiga muvofiq amalga oshirilayotgan ishlar taqdimoti o‘tkazildi. Ma’lumki, bu strategiyada mamlakatimizni mintaqaviy

“IT-HUB”ga aylantirish maqsadi belgilangan. Bu davlat boshqaruvi va sohalarni raqamlashtirish, aloqa infratuzilmasini yaxshilash, IT ta’limni rivojlantirish kabi ko‘p omillarni talab etadi.

Oxirgi yillarda ushbu yo‘nalishlarda katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Axborot texnologiyalari subyektlari uchun yaratilgan sharoitlar va imtiyozlar natijasida bunday korxonalar va ish o‘rinlari soni, xizmatlar eksporti ortib bormoqda. Xususan, 2017-yilda yurtimizda IT kompaniyalar soni 147 ta bo‘lgan bo‘lsa, hozirda 1 ming 600 taga yetgan. Ish o‘rinlari ham qisqa vaqtda 10 baravar ko‘payib, 24 mingtadan oshgan. 2017 yilda 600 ming AQSH dollari bo‘lgan eksport hajmi joriy yil yakuni bilan 300 million dollardan oshishi kutilmoqda.

My.gov.uz yagona portali orqali bugungi kunda 8 milliondan ortiq aholi va tadbirkorlar 570 turdagi onlayn xizmatdan foydalanmoqda.

Ijro intizomi yagona tizimi - ijro.gov.uz orqali davlat idoralari va ularning quyi bo‘g‘inlari xodimlari tomonidan 28 millionta hujjat elektron ayriboshlangan.

Prezidentimiz bu tizim rahbarlarning ongi va mas’uliyatini o‘zgartirganini ta’kidlab, hujjatlar integratsiyasi va sifatini yaxshilash, ijro intizomi nazoratini kuchaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

2022-yilda BMTning Elektron hukumat reytingida mamlakatimiz 18 pog‘ona yuqorilab, 69-o’rinni egalladi. 2030-yilga borib, ushbu reytingda birinchi o‘ttiztalikka kirish bo‘yicha yillik chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.[7]

Muhokama

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari kabi raqamli texnologiyalarni soliq ma'murchiligida joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Bu nafaqat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki deklaratsiyalarni taqdim etishdan tortib, to soliqlarni to'lash va ma'lumotlarni saqlash usullarigacha ham yangilikliklar kirityapti.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib bormoqda va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etadi. Masalan, sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar -Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi

Big Data - salmoqli ma'lumot atamasi kuniga 100 gigabaytdan ko'p ma'lumot tushadigan oqimlarga nisbatan qo'llanib kelingan. Keyinchalik ma'lumotlarning keskin ko'payishi oqibatida bu tushuncha yanada keng qamrov kasb eta boshladi. Ushbu atama odatda terabayt, ekzabayt va petabaytlar darajasidagi katta hajmdagi ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi.

Bugungi kunda soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, sohadagi firibgarliklari va ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tahlil qilishning hozirgi holatida milliy hamda xalqaro darajada bir muncha muammolar mavjud. Misol uchun, Soliq, Adliya Tarmoqlari (Tax Justice Network) tashkilotining 2020-yilgi hisobotida soliq firibgarligi va soliq to'lashdan bo'yin tovlash natijasida butun dunyo davlatlari yiliga 427 milliard AQSH dollari miqdorida ziyon ko'rishmoqda. Birgina AQSHning o'zi har yili soliq to'lashdan bo'yin tovlash tufayli 188,8 milliard dollar

yo'qotadi, Xitoy va Yaponiyaning bu boradagi yillik zararlari tegishli ravishda 66,8 va 46,9 milliard dollarni tashkil etyapti. [8]

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalar orqali jismoniy shaxslarni, korxonalarni, qurilmalarni, ma’lumotlarni va operatsiyalarni bog’lashdan kelib chiqadigan iqtisodiy faoliyatni anglatadi. Bular orqali internet, mobil texnologiyalar, yirik texnologiyalar bo’ylab amalga oshiriladigan onlayn ulanishlar va operatsiyalarni o’z ichiga oladi. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot ulanishni yaxshilaydigan, avtomatlashtirishni ta’minlaydigan, ma’lumotlar tahlilini ilgari suruvchi va yangi biznes istiqbollarini yaratuvchi yangi texnologiyalardan foydalanish bilan jadal rivojlanmoqda. Va shuni ham aytib o’tish kerakki, yangi texnologiyalar sayyohlik tajribasini oshirishda toboro muhim ro’l o’ynamoqda va ko’plab turizm sohalari sayyohlar uchun qulaylik yaratib qo’ygan. Misol uchun, sayyohlar tashrifidan buyurishidan oldin o’zlariga qulay va o’zlari xohlagan joylarni platformalarda video va rasmlar orqali ko’rishi va oldinda joy buyurtma qilishlari mumkin. Bu turistlar uchun qulaylik yaratadi ya’ni vaqtni tejaydi.

Nazarimizda, shu bilan birgalikda, raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi va sohaning malakali mutaxasislarga ehtiyojini oshishi oliy ta'lim muassasalarida “Soliq va raqamli texnologiyalar” bo'yicha alohida o'quv yo'nalishini tashkil etilishni taqozo etmoqda. Bu eng avvalo, tizimning salohiyatli kadrlar bilan ta'minlanishiga yanada keng yo'l ochadi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son
2. Digital and information technologies in Economics and management. (https://www.books.google.co.uz)
3. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 2024-yil, iyun (https://www.e-itt.uz)
4. Mulaydinov F., & Nishonqulov S., (2021) Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o’rni-The role of information technologies in the development of the digital economy.
5. Kinza Yasar, Mary K. Pratt. Digital economy (https://www.techtarget.com)
6. “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali | №1-son | 2022
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti 20.12.2023
8. Jalil Boykalonov. Raqamli texnologiya imkonyatlari

АГРОСУҒУРТАДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Вахобов Абдурашид Расулович
“International school of finance technolojy and science” нодавлат олий таълим муассасаси Фундаментал иқтисодий фанлар кафедраси доценти, иқтисод фанлари номзоди.
abdurashidvoxobov058@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195474

Аннотация: *Мазкур мақолада аграр соҳада суғурталаш механизмининг ракамли технологиялар асосида такомиллаштириш бўйича тавсиялар берилган.*

Калит сўзлар: *Агросуғурта, суғурта бозори, суғурта шартномаси, суғурта полиси, даъво, рақамлаштириш, рақамли технологиялар.*

Суғурта жисмоний ва юридик шахслар ҳаёти ва фаолияти билан боғлиқ турли таваккалчиликлардан ҳимоялашга қаратилган бўлиб, бунда, ўз навбатида, суғуртачиларнинг суғурта маҳсулотларини кафолат остида сотган ҳолда даромад кўриши ҳам кўзда тутилган Бироқ, бундай мақсадга эришув (даромад кўриш) мажбурий турдаги суғурта хизматлари доирасида ҳар доим ҳам кузатилавермайди. Инсон омили юқори даражада турувчи бундай хизматлар бўйича тўланган суғурта товонлари баъзи ҳолларда йиғилган суғурта мукофотларига нисбатан ошиб кетади. Бу айни пайтда мамлакатимизда амалда бўлган мажбурий суғурта хизматлари аҳолининг ҳаёти, соғлиги ҳамда мол-мулкини ҳар томонлама (ижтимоий, маънавий ва иқтисодий) ҳимоялашга қаратилганини тасдиқлайди.

Суғурта - Ўзбекистон иқтисодиёти ривожланишининг бугунги босқичида давлатимиз молиявий инфратузилмасини ажралмас қисми ҳисобланади. Суғуртанинг ривожланиши, ўз ўрнида қонунчилик базаси такомиллашганлигига, давлатимиз солиқ-бюджет ва пул-кредит сиёсатининг самарадорлигига, давлат суғурта назоратининг сифати ва суғурта бозори профессионал иштирокчилари иш фаолияти ишончлилигига боғлиқдир.

Миллий суғурта бозори ривожланиши давлат миқёсида ижтимоий ривожланишнинг асосий омилларидан бири сифатида қаралган бўлиб, мавжуд шарт-шароитлар, миллий суғурта анъаналари ва маданияти ҳисобга олинган холда ислоҳ этилган ва Ўзбекистон суғурта бозори суғурта соҳасидаги давлат сиёсати туфайлигина ривожланиб, шаклланган деб қайд этилса муболаға бўлмайди.

Аграр соҳа суғуртаси мамлакатимиздаги қишлоқ хўжалиги корхоналари, фермер хўжаликлари хусусан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирувчиларни молиявий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш ҳамда аграр соҳанинг ўзига хос ҳусусиятларидан келиб чиқиб, ҳар томонлама ҳимоялашнинг самарали механизми ҳисобланади. Аграр соҳа суғуртасининг ривожлантиришнинг кенг тарқалган йўналишлари сифатида экинлар ҳосили суғуртаси, чорвачилик суғуртаси, қишлоқ хўжалиги техникаларини суғурталаш, шунингдек, соҳада амалга оширилаётган лойиҳалар бўйича кредит қайтмаслик хатарини суғурталаш бўйича кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда.

Ушбу ислоҳотларни амалга ошириш доирасида соҳани рақамлаштириш, жумладан суғурта шартномаларини электрон расмийлаштириш, суғурта даъволарини кўриб чикиш жараёнининг онлайн тизимига ўтказиш каби масалалар бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири хисобланади.

Бу борада Хукуматимиз томонидан бир қатор қарорлар қабул қилинганлиги ҳам бу масаланинг аҳамиятини янада орттиради.

Жумладан: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 1 мартдаги 108-сонли «Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантиришнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида» ги қарорига асосан 2024 йил 1 сентябрдан бошлаб барча суғурта турлари бўйича суғурта полисларини фақат қоғоз шаклда расмийлаштириш амалиёти бекор қилиниши ушбу соҳада рақамли технологияларни жорий этилишидаги муҳим қадам хисобланади.

Ҳозирги кунда энг оммавий суғурта тури бўлган транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш электрон шаклда амалга оширилмоқда.

2022 йил 1 сентябрдан бошлаб суғурта ташкилотларига ҳам “Электрон ҳукумат” тизими маълумотларидан фойдаланиш имконияти яратилади.

Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг иш юритиш жараёнларини ягона онлайн платформада юритишга мўлжалланган, шу жумладан имтиёзли кредит маблағларининг қайтарилишини суғурталаш жараёни электрон амалга ошириш дастури жорий этилган.

Ушбу дастур орқали 2022 йилда ғалла етиштиришни молиялаштириш учун ажратилган имтиёзли кредитларни суғурталаш бўйича 6 **604 та**, пахта хосилини суғурталаш буйича 250 та, 2023 йилда эса пахта ва ғалла етиштиришни молиялаштириш учун ажратилган имтиёзли кредитларни суғурталаш бўйича 4 738 **та** ва пахта хосилини суғурталаш буйича 698 та суғурта шартномалари онлайн тарзида имзоланган.

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, қишлок хужалиги корхоналарига сифатли сугурта хизматларини кўрсатишда ракамли технологиялардан фойдаланиш борасида бир қатор ечимини кутаётган муаммолар мавжуд.

Рақамлаштириш бўйича олиб борилаётган ишларнинг ўзаро **уйғунлаштирилмаганлиги**, натижаларни фрагментар бўлишига сабаб бўлмоқда, натижада якуний самарадорлик паст ва қониқарсиз бўлмоқда. Жумладан:

барча суғурта хизматларига ва суғурта ташкилотларига тегишли бўлган рақамлаштириш бўйича нормалар билан қишлоқ хўжалигини суғурта қилишни рақамлаштириш бўйича режалар ўзаро мувофиқлаштирилмаган, **суғурта даъволарини ҳал этиш**ни рақамлаштириш эътиборга олинмаган;

суғурта бозорининг ягона ахборот тизимига суғурта ташкилотлари томонидан тўлиқ юритилишини таъминлаш бўйича уларнинг **жавобгарлиги белгиланмаган;**

Агросуғурта тизимида суғурталанган объектларнинг ҳолатини мониторинг қилиш методикаси тизимга солинмаган ва бу борада рақамли технологиялар жорий этилмаган;

амалдаги мажбурий хизматларни кўрсатиш қоидалари, суғурта хизматларини **молиявий агрегаторлар орқали** *(электрон супермаркет, тўлов тизимлари, банклар ва шу кабилар)* сотиш **назарда тутилмаган**.

Ракамли суғуртани ташкил этишнинг асосий вазифалари қуйидаги жараёнлардан иборат:

1.Суғурта шартномаларини тузиш жараёнида:

-шартномаларни автомат тарзда pdf шаклда шакллантириш ва QR код орқали валидация қилишни жорий этиш;

-шартномалар тузишни администратор модулида белгиланган параметрлар билан интеграция қилиш ва бошқариш;

-шартномаларни ЭРИ орқали имзолаш;

-фойдаланувчилар шахсий кабинетини жорий қилиб, барча муносабатларни шахсий кабинетда йўлга қўйиш;

-амалдаги ва кейин жорий этиладиган барча суғурта шартномалари рўйхатини жойлаш;

-суғурта шартномаларини тузиш билан боғлиқ регламент, лимитга ва суғурта тарифларига оид қарорлар ва бошқа ҳужжатларни жойлаб бориш ва актуаллигини таъминлаш;

-юридик шахслар билан шартнома тузиш учун аризада кўрсатилган маълумотлар алоҳида ойнада киритилгандан сўнг суғурта шартномаси рақами ва QR-кодли дастурда автоматик тарзда бериладиган, суғурта мукофоти келиб тушиб тасдиқлангандан сўнг QR-кодли суғурта полиси шакллантириладиган тизимни ишлаб чиқиш;

-белгиланган лимит доирасида шартнома тузилиши жараёнида соддалаштирилган тезкор рухсат бериш механизмини ишлаб чиқиш, бу жараёнда андеррайтерлар ролини ошириш;

-шартномаларни тасдиқлаш ёки рухсат бериш жараёнида ким томонидан рухсат берилгани, қайтарилган тақдирда эса сабабларини кўрсатувчи изоҳли ойналарни қўшиш.

2.Сугурта даъволарини куриб чиқиш жараёнида:

-мижозлар томонидан келиб тушадиган мурожаатларни киритиш механизмини такомиллаштириш;

-даъво аризасини сайт, мобиль илова, Телеграм бот орқали юбориш.

-даъволар бўйича кўриб чиқилаётган ишлар ҳаракатини акс этувчи жадваллар ишлаб чиқиш;

-кўриб чиқилган ёки кўриб чиқиш жараёнида бўлган суғурта даъволарини таҳлил қилиш, тахрилаш механизмлари ва ролларини тақсимлаш;

-кўриб чиқилган даъволар бўйича регресс ёки суброгация мавжуд бўлган холатларда юридик департаментга маълумотлар автоматик тарзда бориб тушишиши механизмини ишлаб чиқиш;

-веб-сайт, телеграмм бот ва мобил илова орқали суғурта товони бўйича бўладиган мурожаатларни ва унга жавобларни дастур билан синхронизация бўлишини таъминлаш;

-хабар килинган зарарлар захирасини ҳисоби маълумотларини шакллантириш бўйича функцияларни такомиллаштириш;

-электрон даъво билдириш имкониятини яратиш;

-шахсий кабинет орқали даъвони кўриб чиқиш босқичларини кузатиш жараёнини ташкил этиш.

Қайта суғурталаш тизимини электронлаштириш жараёни куйидагиларни уз ичига олади;

-қайта суғуртага келиб тушган ва чиқиб кетган суғурта портфелини юритиш механизмини ишлаб чиқиш;

-суғурта портфелини онлайн равишда кўриб бориш ва қайта суғурта мақсадида бошқариш механизмини яратиш;

-қайта суғурта бўйича ички ва ташқи ҳамкор ташкилотлар рўйхати, реквизитлари, ўзаро имзоланган шартномалар ва суғурта слипларини жойлаб бориш механизмини ишлаб чиқиш;

-қайта суғурта бўйича ҳисоб ва ҳисоботлар шаклини ишалб чиқиш.

Суғурта хизматларини сифатини яхшилаш ва рақамлаштириш бўйича куйидагилар тавсия этилади:

Суғурта ҳизматларини рақамлаштириш бўйича амалда бўлган барча нормаларини хатлови асосида уларни суғурта бозорининг ягона ахборот тизими негизида амалга ошириш нуқтаи-назаридан суғурта бозорини рақамлаштиришнинг **ягона стратегиясини ишлаб чиқиш** таклиф этилади. Бунда:

-суғурта бозорини рақамлаштириш стратегиясини ишлаб чиқишда 2025 йилга **“InsurTech”** *(insurance technology)*, 2028 йилга **“RegTech”** *(regulatory technology)* ва 2030 йилга **“SupTech”** *(supervisory technology)* механизларини тўлиқ жорий этишни назарда тутиш;

-суғурта ташкилотлари ахборот тизими билан **интеграциялашган суғурта фаолиятини тўлиқ онлайн назорат қилиш** бўйича Истиқболли лойиҳалар миллий агентлигининг ахборот тизимини жорий этиш;

-суғурта ташкилотлари томонидан **онлайн, тўлиқ ва тўғри маълумотларни киритиб бориш тартиби** ва ушбу талабни бажармаганлик учун жавобгарликни нормаларини белгилаш;

-суғурта даъволарини электрон шаклда (шунингдек, мобил илова орқали) ҳал этиш тизимини жорий этиш, кўриб чиқиш муддатлари ва талаб қилинадиган хужжатларни 2 мартага қисқартириш;

-аграр соҳада суғурталанган пахта хом ашёси, бошоқли дон экинлари, мева-сабзавотчилик, узумчилик ва бошқа қишлоқ хўжалиги экинлари ҳолатини аниқлашда мониторинг ўтказиш асосида объектни баҳолаш ва мониторингни ташкил этишда рақамли технологияларидан фойдаланиш.

-агросуғурта фаолияти самарадорлиги ошишига хизмат қилувчи рақамли технологияларини жорий этиш асосида барча турдаги суғурланган қишлоқ хўжалиги экинлари ҳолатини мониторинг қилиш орқал суғурта харажатлари 25-50 фоизгача қисқартириш имконияти мавжуд.

-географик ахборот тизимлари қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини суғурта қилишда қулайликлар билан бир қаторда тез ва харажатлар миқдорини тежаган ҳолда мониторинг ўтказиш ишларини хам бажариш имконини беради.

Суғурта бозорини рақамлаштириш стратегиясини амалга ошириш натижасида **2024 йилда** жами суғурта шартномалари ва суғурта даъволарини рақамлаштиришни **60 фоиз**га (шундан мажбурий суғурта бўйича **100 фоиз**га), **2026 йилда** ушбу кўрсаткични тўлиқ **100 фоиз**га етказилиши кўзда тутилган.

Юқоридагилардан хулоса килиб айтиш мумкинки, суғурта хизматларини рақамлаштириш йули билан бир томондан жисмоний ва юридик щахсларга кўрсатилаётган суғурта хизматлари сифати яхшиланиб мижозларга қулайликлар яратилса, иккинчи томондан суғурта ташкилотлари томонидан кўрсатилаётган суғурта хизматларининг таннархи арзонлашади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 1 мартдаги 108-сонли «Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантиришнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида» ги қарори Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 04.03.2024 й., 07/24/108/0171-сон;

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 23 октябрдаги 5265-сонли «Суғурта бозорини рақамлаштириш ва ҳаёт суғуртаси соҳасини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида« ги қарори Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 23.10.2021 й., 07/21/5265/0992-сон;

3. Ўзагросуғурта" акциядорлик жамиятининг 2022-2023 йил хисобот маълумотлари.

4.http://napp.uz – Ўзбекистон Республикаси Истикболли лойихалар миллий агентлигининг расмий сайти.

CREATING AN ONLINE ECOSYSTEM FOR CONSTRUCTION: THE MARKETPLACE APPROACH

Alimova Fotima Muratovna
PhD, TUIT, Department of Convergence of Digital Technologies, Associate Professor
tuit.alimova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195518

Rakhimov Giyosbek Khudoyor ugli
Master’s degree, TUIT, Department of Convergence of Digital Technologies, Engineer-Lab Assistant
giyosbekraximov12@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195518

Akramov Azizbek Akmal ugli
TUIT, Department of Convergence of Digital Technologies, Master’s degree
akramovazizbek21@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195518

ABSTRACT: *We are facing several problems in purchasing and supplying construction materials in Uzbekistan. This article provides information about a platform that centralizes the purchasing of construction materials, optimizes the delivery system, and enhances service efficiency.*

KEYWORDS: *Construction Marketplace, Digital Supply Chain, Procurement Efficiency, E-commerce, Construction Industry, Uzbekistan, Sourcing Challenges, Technological Integration, Sustainability, Infrastructure Development*

INTRODUCTION

Construction is a booming economic sector with tremendous potential: it is projected to be a $1.5 trillion global industry by 2027. The industry has been slow to digitize, with most companies still depending on paper catalogs and manual order processes. This is starting to change, though, as more construction companies begin to appreciate the compelling reasons for embracing digitization or risk falling behind their rivals[4].

The e-Commerce segment of the building materials market has been going through tremendous growth since its recovery from the recession started in 2009. Specifically, the highest growth rates within the construction industry have been seen in the marketplaces due to the new market players and suppliers looking for improved trading conditions. These platforms aggregate the advantages of eliminating the need to maintain a dedicated site, with streamlined payment and shipping processes, and marketing assistance[3].

Not only is the building materials industry economically viable, but it also has strong growth potential. It is projected that by 2024, the global market share will reach $1.7 trillion, with North America and Europe having substantial shares of $319 billion and $210 billion, respectively. The industry is forecast to grow by a further $159 billion over the next five years [5]. That growth demonstrates long-term value in investing in a building materials startup—especially in an ever-more-digitized marketplace.

A strategic framework is necessary for the establishment of a successful online marketplace for construction materials and services. In this framework, proper planning extends from initial research and design to development and launch and further to its continuous management. The benefits and characteristics, besides the developmental strategies and overcoming the potential hurdles, are imperative to understand in order to build a successful and rewarding marketplace[6].

Despite a notable increase in exports, inefficiencies in logistics hinder the competitiveness of construction businesses. A digital platform tries to handle these challenges by centralizing the procurement process, optimizing delivery systems, and uniting the management of vehicles and improving the channels of communication between employees and clients for better efficiency within Uzbekistan's construction industry.

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

Technical challenges

Developing a construction-focused digital marketplace in Uzbekistan comes with its set of technical challenges. One of the most important ones is integration within an ecosystem. The past decade has seen significant development in digital solutions for the construction industry, from isolated solutions focused on addressing core needs to more holistic approaches in recent years.

"However, integration of all these point solutions into comprehensive suites is still a big challenge [7]." The Global Industry Council points out other challenges such as rationalization and standardization, building digital talent, securing digital adoption, establishing value and return on investment [8]. Additionally, there is a concern about user experience. Construction material buyers tend to buy frequently; some even place orders daily through B2B e-Commerce sites. They are greatly interested in features such as simplified repeat ordering and one-click checkouts. A poor user experience, the lack of real-time product availability details, and no provision for payment terms means most buyers abandon their purchases and switch to more tech-savvy

suppliers[9].Addressing these user experience challenges is critical to ensure customer loyalty and the success of the marketplace.

The digital supply chain also plays an important role in the transformation of the construction industry. A digital supply chain can provide connectivity across the value chain and ecosystem, allowing multiple data sources to create transparency, provide advanced planning, and predict and avoid future problems. However, such capabilities have to be enabled by engineering and construction organizations to harvest their full potential[10][11][12].

Prioritized Features for Seamless Experience

In an online construction marketplace, some primary features need to be highlighted to ensure a seamless experience for both suppliers and users. First, the user experience is of utmost priority; features like easy repeat ordering and one-click checkout facilities are instrumental in encouraging fast and effective transactions [15]. Features like this make it easier for the user to complete multiple orders every week or even daily.

The market platform should foster an ecosystem built on cooperation and openness. The platform can help to promote healthy competition and simplify the procurement procedure in term of connecting different stakeholders like suppliers, contractors, architects, and engineers. The system does not only benefit the buyer with a wide range of choices but also provides the vendors with a better way of marketing their products and services [16].

Best Practices in Development

Creating a web portal for construction services, certain primary attributes need to be underlined in order to generate a perfect experience for both the providers and the end-users.

Initially, it is essential to formulate a concise message that aligns with the preferences of your desired clientele. This process encompasses identifying your target demographic, developing a message customized to their specific needs, and ensuring its effective delivery to this audience[13]. Within the framework of a construction marketplace, your target audience might consist of contractors, project managers, architects, and real estate developers. Gaining insights into their distinct requirements and challenges will facilitate the creation of features that directly respond to these concerns.

DISCUSSION

Sourcing Challenges

The procurement of materials and equipment for construction initiatives in Uzbekistan is accompanied by a range of significant challenges. Although the construction materials sector has experienced considerable modernization and technological advancement in recent years, contractors continue to encounter difficulties in securing a reliable and competitive supply of materials[17].

Investments of $9 billion over the past seven years were made through Government programs that resulted in the formation of almost 5,000 new companies. Thus, this capital injection managed to create 94,000 permanent jobs. Similarly, capital injection managed to increase production of building materials and reduced imports of building materials from 31% to 25%, with the inclusion of new products worth $650 million[18].

Also, the impulse towards sustainable infrastructure development together with the adoption of new construction methods like Building Information Modelling and modular construction requires the industry to be constantly adaptive. Since such trends enhance both effectiveness and sustainability of the industry, they, at the same time, force contractors to navigate

through an environment whose transformation in elements of technological advancement and regulatory frameworks is rapidly increasing[19].

The swift increase in Uzbekistan's population, which is anticipated to attain 50 million individuals by the year 2050, highlights the pressing necessity for the development of residential infrastructure and urban planning initiatives. This demographic transition exerts additional stress on the procurement of materials and equipment, while simultaneously necessitating enhancements in the energy efficiency of current buildings to meet the requirements of new construction projects[20]. The strategic objectives outlined in Presidential Decree No.

UP-5963 aims at revolutionizing the construction sector through innovative solutions, advancing urban planning, and facing the core challenge of reconciling development with sustainable practices[21].

Impact on Traditional Supply Chain

The construction of the e-platform for construction materials, equipment, and labor purchase is believed to fundamentally change the dynamics of traditional supply chains in Uzbekistan. No doubt, the E&C industry has undergone huge challenges in the recent past, especially through the times of supply chain disruptions coupled with volatile costs related to equipment and materials. Companies able to adapt tactical solutions in this aspect are likely to emerge stronger and better prepared to handle future uncertainties [22].

Delays in supply chains, mostly due to the COVID-19 pandemic, have impacted nearly every industry, with the construction industry being one of the most affected. Material shortages and labor deficits have forced contractors to adapt by finding alternative materials and improving communication with suppliers[23]. These disruptions have highlighted the need for better and more transparent management of supply chains.

The construction industry, while adept at completing complex projects, has faced inefficiencies and exposure to economic volatility, a condition only worsened by the pandemic[24]. Surging global transportation costs and domestic delivery delays have exacerbated material shortages, thus hiking project costs and timelines.

The shortages in the labor force, particularly in logistics sectors, have exacerbated delays, emphasizing the vital requirement for a smoother supply chain process[25]. Digital technologies are leading a systemic transformation within the construction industry. Digital supply chains help manufacturers and suppliers optimize their processes, communicate more effectively with their partners, and smooth operations across all stages of production. These bring in a host of benefits, including increased transparency, better planning, and predictive capabilities that can ward off potential problems [26]. However, this integration is still in its infancy as most contractors are just starting to centralize and automate their supply chain activities[27].

U.S. builders continue to face high prices due to ongoing material shortages and increased logistics and labor costs, which are further exacerbated by global conflicts that add new instability[28]. A similar situation can be observed in Uzbekistan, where the creation of an online marketplace may mitigates some of those, creating a centralized pro curement channel, thus potentially bringing greater stability of costs and supply chain performance. The adoption of e-procurement practices brings along a host of opportunities and challenges. While offering various advantages, such as high efficiency and reduced costs, there are numerous barriers to the effective implementation of a digital supply chain. Some barriers include problems related to technology

adoption, the need for human capital development, and integration of new systems with the existing business processes [29].

Transition Challenges

The major Challenges in the transition of Uzbekistan's construction industry towards an e-marketplace are manifold. A major concern is definitely the need for good infrastructure and technological resources to host this type of platform. The gradual change of Uzbekistan from a centrally planned economy into a market-based system has faced various development challenges, which impact the efficacy of emerging technological solutions [32]. The existing technological architecture may not have the required strength to support an online marketplace's needs and hence may lead to inefficiencies and disturbances.

Besides, the existing infrastructure in Uzbekistan itself represents a high energy consumption, which requires urgent improvement in energy efficiency and sustainable urban development[31]. The requirements of such nature increase the complexity of the transition because the digital marketplace shall embed those advanced technologies and strategies supporting energy-efficient construction practices.

Economic factors are another challenge. While the e-commerce sector in Uzbekistan is seeing rapid growth — $311 million in 2022 —and is expected to maintain a strong growth trend [30], the construction industry has seen slower development. Given the construction sector contributed only 0.4% to GDP growth in 2022, companies might feel less financial incentive to make the switch towards moving into an online marketplace, especially within an uncertain economic environment formed by exogenous factors such as higher costs of food, energy, and logistics[35].

Finally, there are policy and regulatory challenges. Governmental policies and expenditures largely determine the parameters within which the construction sector in Uzbekistan operates. These policies can either support or hinder the transition to an online marketplace[31]. Navigation of these regulations and staying compliant can be a complex and time-consuming task for any organization involved in bringing about this change.

A multi-pronged approach will be followed for the mitigation of challenges: investment in technological infrastructure, comprehensive training of the workforce, and close collaboration with governmental bodies to ensure supportive policies and regulations. Besides, one can also use experiences and resources from international partners involved in supporting economic development—the Asian Development Bank, the World Bank—to obtain valuable insights and help in this respect[32][33][34].

RESULTS

Benefits and Efficiency

The construction industry in Uzbekistan will greatly benefit from the creation of a digital marketplace that combines all available resources, such as labor, equipment, materials, and technologies. Globally, the construction industry faces challenges such as projects generally taking 20 percent longer to be completed and going over budget by up to 80 percent[38]. A digital marketplace shall potentially reduce these inefficiencies through better project management and resource allocation.

Such a marketplace would bring along quite a number of advantages, one being the provision for increased efficiency and productivity. Digital tools, such as BIM software, help manage information throughout the lifecycle of a built asset. BIM helps integrate data throughout

the value chain, enabling information to flow smoothly from design through to construction and operations.

Past experiences show that even when pilot initiatives using new technologies are successful, replication of those solutions usually faces challenges when appropriate adoption and training are not ensured.

Case studies

O‘zbekistonning raqamli transformatsiyasiga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida umumiy ta’lim va kasb-hunar tizimlarida raqamli ko‘nikmalar, xususan dasturlash, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili bo‘yicha kurslarni joriy etish zarur. Bu yosh avlodning raqamli iqtisodiyotga moslashuvchanligini oshirib, iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. **Kadrlarni qayta tayyorlash va doimiy malaka oshirish dasturlarini kengaytirish**

Raqamli iqtisodiyotda faol ishtirok etishni istagan barcha ishchilar uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish talab etiladi. Bu dasturlar raqamli savodxonlik, IT ko‘nikmalari va boshqaruv malakalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

3. **Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi va yangi ish o‘rinlari yaratuvchi tarmoqlarni rivojlantirish**

Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi aholiga tezkor va qulay xizmat ko‘rsatish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, bu jarayon axborot texnologiyalari va boshqaruv sohasida yangi ish o‘rinlari yaratilishini ta’minlaydi. Hukumat tomonidan Fintech, elektron tijorat va IoT kabi yuqori raqamli sohalarni rivojlantirishga ko‘proq investitsiya ajratilishi iqtisodiyotni raqamli transformatsiyaga moslashtirishga xizmat qiladi.

4. **Xalqaro tajribani o‘rganish va innovatsiyalarni joriy etish**

Rivojlangan davlatlarning raqamli iqtisodiyot sohasidagi tajribasini o‘rganib, ularning muvaffaqiyatli amaliyotlarini O‘zbekistonda joriy etish zarur. Shu bilan birga, xorijiy ekspertlarni jalb etish va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish orqali mamlakatda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash raqamli iqtisodiyotda xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

5. **Raqamli iqtisodiyotda ish o‘rinlari yaratishni qo‘llab-quvvatlash uchun soliq va grant siyosatini rivojlantirish**

Innovatsion texnologiyalarni joriy etuvchi va raqamli iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlari yaratishga ko‘maklashuvchi kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari va grantlar ajratish tizimini rivojlantirish zarur. Bu O‘zbekistonning raqamli sohalarda yangi bizneslarni jalb etish imkoniyatlarini oshiradi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot O‘zbekiston uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish, ishchi kuchining raqamli ko‘nikmalarini oshirish va texnologiyalarga moslashuvchanlikni ta’minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish yo‘lida muhim o‘rin tutadi. Yuqoridagi takliflar asosida raqamli transformatsiya jarayonlarini davom ettirish va malakali ishchi kuchini shakllantirish mamlakat iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish va zamonaviy texnologiyalarga tayyor bo‘lgan avlodni tarbiyalash orqali O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotdagi muvaffaqiyatli kelajagini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W.W. Norton & Company.

2. Manyika, J., Chui, M., Miremadi, M., Bughin, J., George, K., Willmott, P., & Dewhurst, M. (2017). *Harnessing automation for a future that works*. McKinsey Global Institute.

3. Frey, C. B., & Osborne, M. A. (2013). *The Future of Employment: How Susceptible Are Jobs to Computerisation?* Oxford Martin School, University of Oxford.

4. World Economic Forum. (2020). *The Future of Jobs Report 2020*. Retrieved from https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2020

5. International Labour Organization. (2021). *World Employment and Social Outlook: Trends 2021*. International Labour Organization. Retrieved from https://www.ilo.org

6. Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2020). *Robots and Jobs: Evidence from US Labor Markets*. Journal of Political Economy, 128(6), 2188-2244.

7. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin and Other Cryptocurrencies is Changing the World*. Penguin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (2023). *O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va mehnat bozori to‘g‘risida hisobotlar*. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2023). *O‘zbekiston iqtisodiyoti va raqamlashtirish hisobotlari*. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

10. OECD (2019). *Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future*. OECD Publishing.

11. AS Turdiev, KS Kakhramonov, NU Yusupdjanova. Digital economy: experience of foreign countries and features of development in Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), 660-664.

SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

To‘rayev Shavkat Shuxratovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Hududiy o‘quv muassasalari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
gavhar9369@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14197190

To‘rayeva Xonzoda Shavkat qizi
Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti talabasi
gavhar9369@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14197190

To‘rayeva Shaxrizoda Shavkat qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Akademik litseyi o‘quvchisi
gavhar9369@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14197190

Annotatsiya: Ushbu maqola soliq tizimini yanada samarali qilishda sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Hozirgi kunda soliq idoralari ko‘p miqdorda ma’lumotlarni qayta ishlash, soliq to‘lovchilarni monitoring qilish va soliq qochirish holatlarini aniqlashda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni boshlamoqda. Maqolada sun’iy intellektning soliq nazorati va tahlil jarayonlarini optimallashtirish, soliq to‘lovchilar bilan samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yish va soliq to‘lovchilarning xatti-harakatlarini oldindan bashorat qilishda tutgan o‘rni yoritiladi. Sun’iy intellektning imkoniyatlari jumladan mashinaviy o‘qitish, chuqur o‘qitish (deep learning), katta ma’lumotlarni tahlil qilish (big data analysis) kabi usullarga asoslanadi. Ushbu texnologiyalar orqali soliq idoralari katta hajmdagi murakkab ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, potentsial huquqbuzarlarni aniqlash va soliq qochirishga qarshi kurashda yanada yuqori samaradorlikka erishadi. Maqolada sun’iy intellektni soliq tizimiga tatbiq etishda duch kelinishi mumkin bo‘lgan xavfsizlik va maxfiylik muammolari, huquqiy va axloqiy masalalar ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Soliq tizimi, sun’iy intellekt, soliqni avtomatlashtirish, mashinaviy o‘qitish, katta ma’lumotlar (Big Data), soliq nazorati, bashorat qilish, samaradorlik, xavfsizlik, soliq to‘lovchilar, tahlil qilish, soliq boshqaruvi, texnologiyalar, soliq ma'lumotlari.

KIRISH

Raqamli inqilob va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimlarida, xususan, soliq sohasida katta o‘zgarishlarni amalga oshirishga zamin yaratmoqda. Soliq tizimini samarali, shaffof va adolatli qilish, soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, soliq yig‘imlarini ko‘paytirish kabi maqsadlarga erishishda sun’iy intellekt texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellektning qabul qilinishi soliq organlariga soliq tafovutlari va firibgarliklarning oldini olishga, soliq to‘lovchilar tajribasini yaxshilashga va ichki jarayonlar samaradorligini oshirishga yordam beruvchi ayniqsa samarali ekanligini isbotlamoqda.

Soliq ma’muriyatchiligida sun'iy intellektdan foydalanish ma'lumotlarni yanada samarali va aniqroq qayta ishlash va tahlil qilish uchun son-sanoqsiz imkoniyatlarni ochib bermoqda. Sun'iy intellekt yordamida tizimlarni avtomatlashtirish soliq organlariga katta hajmdagi ma’lumotlarni tez va aniq qayta ishlashga yordam beradi. Soliq ma'muriyatchiligiga sun'iy intellekt va mashinani o‘rganish modellarining integratsiyasi, shuningdek, soliq tafovutlari yoki buzilishlarni tezroq va samaraliroq aniqlash uchun asosiy tendentsiyalarni aniqlashda samarali vosita sifatida asosiy ma'lumotlar tahlilidan tashqarida ham ishlashi mumkin. Bu soliq to‘lovchilar va soliq organlariga vaqt va mablag‘ni tejash, shuningdek, jarayonning shaffofligi va ishonchliligini ta’minlash, soliqqa oid yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tafovut va huquqbuzarliklarni tezroq va aniqroq aniqlash hamda oldini olish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari soliq to‘lovchilar haqida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ularni segmentatsiyalashga yordam beradi. Misol uchun, sun’iy intellekt orqali soliq to‘lovchilarni yuqori va past xavf darajalariga ajratish, ularning to‘lov qobiliyatini va soliqdan

bo‘yin tovlash ehtimolini baholash mumkin. Bu esa soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri boshqarish va soliq siyosatini o‘zgaruvchan sharoitlarga moslash imkoniyatini yaratadi. Sun’iy intellekt yordamida soliq tekshiruvlari avtomatlashtirilgan holda amalga oshirilishi mumkin. Bu texnologiya yordamida soliq deklaratsiyalaridagi noaniqlik va xatolarni tezkor ravishda aniqlash va ehtimoliy xavf omillarini oldindan aniqlash osonlashadi. Shu orqali soliq boshqaruv organlari tomonidan qo‘llanadigan tekshiruvlar samaradorligi oshib, inson aralashuvisiz tekshiruvlarni o‘tkazish imkoni tug‘iladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida soliq tushumlarini kelajak uchun prognoz qilish va soliqqa doir rejalarni shakllantirish mumkin. Sun’iy intellekt algoritmlari o‘tgan yillardagi ma’lumotlar asosida kelajakdagi iqtisodiy sharoitlarni va soliq tushumlarini bashoratlaydi. Bu davlat byudjetini to‘g‘ri rejalashtirishda, mablag‘larni to‘g‘ri taqsimlashda va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda katta yordam beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy barqarorlikka erishish va adolatni saqlash uchun soliqqa rioya qilish hamda iqtisodiyotni moliyaviy tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy tizimlarning murakkabligi va soliq qonunchiligining doimiy ravishda o'zgarib borishi qonunlarga rioya qilish va tartibga solishni kuchaytirish uchun innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Sun'iy intellekt ushbu sohalarda qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlashning ilg'or tizimlarini, innovatsion moliyaviy jarayonlarni va moliyaviy ma'lumotlarni boshqarishni takomillashtirishni taklif qiluvchi transformativ vosita sifatida paydo bo‘ldi. Hozirgi kunda soliq tizimini takomillashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining foydalanish haqida juda ko‘plab tadqiqotchilar ish olib bormoqda.

Kolchin S.P. o'z tadqiqotlarida shunki ta’kidlab o‘tadiJahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda soliq idoralari asta-sekin raqamli jarayonlarga moslashmoqda va bu orqali soliq ma'muriyati samaradorligini oshirishga intilmoqda [1].

Soliq organlarining amaliy faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishga bag'ishlangan tadqiqotlar A.A.Anisimova, V.P.Vishnevskiy va L.I.Goncharenko [2], E.F.Kireyeva, S.P.Kolchina, I.A.Mayburova va O.M.Karpova [3] va boshqalar, shuningdek xorijiy mualliflar va xalqaro tashkilotlar ga tegishli.

E.Kirchler va I.Vahlning ta’kilashicha, soliqlarga rioya qilish haqiqatan ham butun dunyo bo'ylab soliq organlari uchun doimiy muammo bo'lib kelgan, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, soliq to'lashdan qochish va rioya qilmaslik kabi muammolar daromadlarni undirishda jiddiy to'siqlarni keltirib chiqaradi [4].

Kolchin S.P. o'z tadqiqotlarida shunki ta’kidlab o‘tadi: jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda soliq idoralari asta-sekin raqamli jarayonlarga moslashmoqda va bu orqali soliq ma'muriyati samaradorligini oshirishga intilmoqda [1].

Soliq tizimiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish soliq amaliyotni takomillashtirishga imkon beradi va bunda quyidagi ishlar shakllanadi:

- soliqni rejalashtirish;
- soliqni prognozlash;
- soliqni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish;
- soliqni tartibga solish;
- soliq nazorati va soliq tahlili [5].

Soliq tizimiga sun’iy intellekt texnologiyalarini qo'llash davlat va soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini bajarish xarajatlarini kamaytiradi, soliq firibgarligi va soliq bazasining eroziyasini oldini oladi, soddalashtirilgan rejimda va masofadan turib yangi soliq xizmatlarini

ko'rsatishga imkon beradi, hozirgi holatini real baholaydi va iqtisodiyot va jamiyatning kelajakdagi rivojlanishini bashorat qiladi. Doimiy ravishda rivojlanib borayotgan soliq texnologiyalari infratuzilmasi soliq ma'muriyatlari va soliq to'lovchilarga katta foyda keltiradi, byudjetga barqaror soliq tushumlarini kafolatlaydi, soliq to'lovchilarning qoniqishini oshiradi va soliq qonunchiligiga vijdonan rioya qilinishini ta'minlaydi. Bunga erishish uchun aniq amalga oshirish rejasi va davom etayotgan soliq jarayonlarini to'g'ri monitoring qilish tizimi bilan raqamli soliq ma'muriyatini rivojlantirishning to'g'ri yaxlit ko'rinishi va strategiyasi talab qilinadi [6].

Pokistonlik olimlar I.Hassan, N.Ahmed, S.Gulzarning tadqiqotlarida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, “Soliqqa oid muammolarga javoban rivojlangan mamlakatlar soliq qonunchiligida sun'iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi qo'llamoqda. Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun mashinani o'rganish algoritmlari qo'llanilmoqda. Bu soliq organlariga nomuvofiqlik shakllarini aniqlash va maqsadli ijro harakatlarini yanada samaraliroq qilish imkonini bermoqda [7]”.

“Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida Rossiyada soliq ma’muriyatchiligini rivojlantirish” mavzusida tadqiqot olib borgan A.A.Anisimovaning fikricha, soliq ma’muriyatchiligidagi raqamli texnologiyalar rivojlangan mamlakatlar tomonidan quyidagi sohalarda qo'llaniladi:

- raqamli xizmatlarning ishlashini monitoring qilish;
- mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar dizaynini ishlab chiqish;
- soliq to'lovchilarni soliq organlari bilan o'zaro munosabatlarning yangi imkoniyatlari to'g'risida xabardor qilish;
- raqamli muhit doirasida soliq to'lovchilarni axborot bilan ta'minlash [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida soliq tizimini takomillashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ahamiyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo’llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sun’iy intellekt texnologiyalari soliq tizimini samarali boshqarish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va soliq yig‘imlarini oshirishda bir nechta asosiy afzalliklarga ega (1-jadval):

1-jadval

Sun’iy intellekt texnologiyalarining soliq tizimini takomillashtirishdagi afzalliklari

Tezkorlik va aniqlik	Sun’iy intellekt yordamida soliq tushumlarini qayta ishlash va tekshiruvlar samaradorligi ortadi, natijada ma’lumotlar tezkor va aniq qayta ishlanadi
Inson xatolarini kamaytirish	Avtomatlashtirilgan tahlil va tekshiruvlar orqali inson aralashuvini cheklash, xatolarni minimallashtirish va natijani aniq qilish mumkin
Resurslardan samarali foydalanish	Sun’iy intellekt yordamida soliq yig‘ish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali resurslarni optimal taqsimlash va qo‘llash imkoni tug‘iladi
Soliq to‘lovchilar bilan samarali muloqot	Shaxsiylashtirilgan xizmatlar va xabarnomalar orqali soliq to‘lovchilarga o‘z majburiyatlari haqida muntazam ma’lumot yetkaziladi

Sun’iy intellekt yordamida katta hajmdagi tranzaksiya va moliyaviy faoliyatlarni kuzatish va tahlil qilish orqali soliqdan qochishga urinishlarni aniqlash imkoniyati kengayadi. Bu texnologiya noqonuniy moliyaviy amaliyotlarni va firibgarlikni tez aniqlashga, soliqqa oid xatolarni kamaytirishga yordam beradi. Misol uchun, soliqdan qochish ehtimoli yuqori bo‘lgan to‘lovlarni tezkor kuzatish va qoidalarga mos kelishini tekshirish mumkin. Soliq tizimida sun’iy intellekt texnologiyalari orqali soliq to‘lovchilar va boshqaruv organlari o‘rtasidagi muloqot yanada shaffof va samarali bo‘ladi. Shaxsiylashtirilgan xizmatlar orqali soliq to‘lovchilarga o‘z faoliyatlari va majburiyatlari haqida ma’lumotlarni taqdim etish mumkin. Shu bilan birga, sun’iy intellekt yordamida shaffoflik oshadi va soliq to‘lovchilar ishonchini mustahkamlaydi.

Misol tariqasi aytishimizi mumkinki, bir qator Yevropa mamlakatlari soliq ma'muriyatchiligida soliq firibgarligini yanada samarali aniqlash va oldini olish uchun sun’iy intellekt dan foydalanishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Masalan, sun’iy intellektdan foydalanish Avstriyaga 2023-yilda soliq tushumlarini 185 million yevroga oshirishga yordam berdi. Moliya vazirligining Prognozlarni tahlil qilish vakolati markazi 34 million ishni tekshirish va 375 000 shubhali ishni chuqurlashtirilgan tekshirish uchun tanlashda sun’iy intellekt va mashinani o‘rganish algoritmlaridan foydalangan. soliq tekshiruvlarini optimallashtirish. Mashinani o‘rganish algoritmlaridan foydalangan holda markaz katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishi va tafovutlarni va mumkin bo‘lgan buzilishlarni aniqlash uchun real vaqt rejimida xavflarni baholashi mumkin. Shubhali tranzaktsiyalar yoki soliq tafovutlarini erta aniqlash uchun ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab korxonalarni kuzatish va baholash uchun sun'iy intellektdan ham foydalaniladi.

Italiya soliq qonunbuzarliklarini aniqlash uchun sun'iy intellektdan foydalanish bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Uning VeRa algoritmi Italiya soliq organiga moliyaviy ma'lumotlarni, shu jumladan soliq deklaratsiyasi va bank hisoblarini solishtirishga, soliq to‘lovchining xavf darajasini aniqlashga va yuqori xavf ostida bo‘lgan soliq to‘lovchilarga aniqlangan har qanday tafovutlarni tushuntirishga yordam beradi. Moliyaviy ma’lumotlarni solishtirish uchun sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanish Italiyaga bir milliondan ortiq yuqori xavfli ishlarni aniqlashga va 2022-yilda 6,8 million yevroga teng firibgarlikning oldini olishga yordam berdi.

Boshqa mamlakatlardagi misollardan ko‘rishimiz mumkinki, sun'iy intellekt soliq ma’muriyatchiligida ajralmas vositaga aylanib bormoqda va kelajakda soliq ma’muriyatchiligini yanada samaraliroq qilish, shaffoflik va adolatli biznes raqobatini kuchaytirish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin. Ushbu o‘zgarishlar korxonalarni o‘z obro‘sini va soliqqa rioya qilishni yaxshilash uchun soliq risklarini boshqarish jarayonlariga e'tibor qaratishga majbur qiladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini soliq tizimiga joriy etishda ba’zi muammolar va qiyinchiliklar ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat (2-jadval):

2-jadval

Sun’iy intellekt texnologiyalarini soliq tizimiga joriy etishda muammolar va qiyinchiliklar

Texnologik xarajatlar	Sun’iy intellekt dasturlari va texnologiyalarini joriy qilish dastlabki bosqichda katta xarajatlarni talab etishi mumkin
Mutaxassislarni tayyorlash	Sun’iy intellekt sohasida yetuk mutaxassislarni tayyorlash va ularni doimiy o‘qitish zarurati mavjud

Ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik	Soliq to‘lovchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish muhim masala hisoblanadi, va SI tizimlarida xavfsizlikka e’tibor qaratilishi zarur

Yuqorida keltirlgan qiyinchiliklarni yengib o‘tish orqali soliq tizimini zamonaviy texnologiyalar yordamida takomillashtirish va samaradorligini oshirish mumkin.

Soliq siyosatini amalga oshirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kuchli tomonlarga ega ammo kamchiliklardan xoli emas va zaif tomonlarga ham ega (3-jadval):

3-jadval

Soliq siyosatini amalga oshirishda oshirishda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning kuchli va zaif tomonlari [9]

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlari
• soliqlarning shaffofligini oshirish, soliq ma'muriyati jarayoni, ya'ni soliq to'lovchilar uchun soliq solish qoidalarining ravshanligi va tushunarliligi. Bu esa o'z navbatida soliq hisobotlarini topshirish va soliqlarni to'lashda xatolarga yo'l qo'yish ehtimoli tufayli soliq to'lovchilarning kutilmagan moliyaviy yo'qotishlari ehtimolini kamaytirishga olib keladi; • soliq qonunchiligiga rioya qilish jarayonining qulayligi; • turli darajadagi byudjetlarga soliq tushumlarining ko'payishi; • soliq bazasini kengaytirish; • soliq ma'muriyati xarajatlarini kamaytirish, ya'ni sarf materiallari, pochta xizmatlari, qog'oz, arxivni qog'ozga joylashtirish uchun maydonlarni ijaraga olish xarajatlarini kamaytirish; • olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va almashish uchun vaqt sarfini kamaytirish; • texnik xatolar xavfini kamaytirish; • kerakli hujjatlarni qidirish tezligini oshirish; • soliq ma'muriyati samaradorligini oshirish; • soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar ustidan soliq organlari nazoratini kuchaytirish;	• raqamli iqtisodiyotga xos bo'lgan yangi ob'ektlar va jarayonlarni, shuningdek raqamli iqtisodiyot sub'ektlarining buzilishi uchun huquqlar, majburiyatlar va javobgarlikni tartibga solish uchun normativ-huquqiy hujjatlarning yo'qligi; • soliq jarayonlarini raqamlashtirishning etarli darajada emasligi (ma'lumot berish, boshqarish, texnik xizmat ko'rsatish va nazorat qilish); • xakerlik hujumlari va viruslar; • aloqa kanallari va to'plangan ma'lumotlar xavfsizligining etarli darajada emasligi, shuningdek ularni o'g'irlash xavfi, bu soliq to'lovchilarning axborot xavfsizligi va davlatning soliq xavfsizligi xavflarining paydo bo'lishiga olib keladi; • to'plangan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va saqlash uchun texnik vositalarning etishmasligi; • soliq organlarini raqamlashtirishning yuqori xarajatlari; • soliq to'lovchilar xarajatlari tarkibida internetga ulanish, zamonaviy qurilmalar, kassa uskunalari va boshqalarni sotib olish uchun qo'shimcha xarajatlarni shakllantirish.; • soliq to'lovchilarning bir qismini soliq organlari bilan onlayn aloqada bo'lish imkoniyati yo'qligi sababli raqamli o'zaro aloqadan chiqarib tashlash ehtimoli;

• masofadan kirishda nazoratni amalga oshirish imkoniyati; • soliq tekshiruvlarini o'tkazish vaqtini qisqartirish va ularning sonini kamaytirish, bu soliq nazoratining raqamli vositalarini yaratish natijasida yuzaga keldi, bu umuman tadbirkorlik muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda; • tekshiruvlarning samaradorligi va sifatini oshirish; • tushuntirish, soliq ma'muriyati va nazorat-tekshirish ishlariga yo'naltirilgan soliq organlarining mehnat xarajatlarini kamaytirish.	• raqamlashtirish paytida allaqachon to'plangan ma'lumotlarning yo'qolishi yoki buzilishi xavfi paydo bo'lishi; • soliq xizmatlarida texnik nosozliklarning paydo bo'lishi; • davlat nazorati bo'lmagan taqdirda soyali iqtisodiyotning o'sishi.

Ushbu jadvallar shuni ko'rsatadiki, soliq siyosatini amalga oshirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zaif tomonlarga qaraganda ko'proq kuchli tomonlarga ega ammo ularning ro'yxati to'liq emas chunki sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi jadal rivojlanmoqda. Bunda yangi muammolar paydo bo'lishi mumkin va soliq siyosatini amalga oshirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning yangi imkoniyatlari ochilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, soliq tizimini takomillashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning o‘rni katta va ahamiyati beqiyosdir. Sun’iy intellekt yordamida soliq to‘lovchilar bilan muloqot kuchayadi, soliqdan qochishni nazorat qilish samaradorligi oshadi, xavfsizlik kuchayadi va soliq yig‘imlari barqaror ta’minlanadi. Shu sababli, soliq tizimini sun’iy intellektga moslashtirish va ushbu texnologiyalarni qo‘llash zamonaviy soliq tizimini yaratishga yordam beradi. Davlat boshqaruv organlari va soliq idoralari uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish dolzarb va zaruriy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekistonda sun’iy intellektni soliq tizimiga integratsiya qilish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va byudjet daromadlarini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Ammo bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnologik infratuzilma, kadrlar salohiyati va qonunchilik bazasini mustahkamlash zarur. Shunga muvofiq biz quyidagi takliflarni berishni joiz deb bildik:

- *Texnologik infratuzilmani rivojlantirish:* Soliq tizimida sun’iy intellektni qo‘llash uchun yuqori texnologik infratuzilma yaratish zarur. Markazlashgan ma'lumotlar bazalarini yaratish va ularni integratsiya qilish tizim samaradorligini oshiradi.
- *Kadrlar tayyorlash:* Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlarni boshqarish uchun IT mutaxassislari, data tahlilchilari va soliq sohasi ekspertlarini tayyorlash bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim.
- *Qonunchilikni moslashtirish:* Sun’iy intellektni qo‘llashni qonuniy jihatdan tartibga solish zarur. Ma'lumotlarni to‘plash va foydalanish bo‘yicha huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak.

- *Pilot loyihalarni amalga oshirish:* Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlarni sinovdan o‘tkazish uchun alohida hududlarda yoki soliq turlarida pilot loyihalarni amalga oshirish tavsiya etiladi.
- *Xavfsizlikni ta'minlash:* Soliq tizimida ishlatiladigan sun’iy intellekt tizimlari uchun kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish zarur. Bu ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.
- *Xalqaro tajribani o‘rganish:* Sun’iy intellektni soliq tizimida muvaffaqiyatli qo‘llagan davlatlar tajribasini o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.
- *Aholini xabardor qilish:* Soliq to‘lovchilar orasida sun’iy intellekt texnologiyalari va ularning afzalliklari haqida tushuntirish ishlarini olib borish lozim. Bu fuqarolarning texnologiyaga nisbatan ishonchini oshiradi.

Yuqoridagi chora-tadbirlar O‘zbekistonda soliq tizimini yanada samarali, adolatli va zamonaviy qilishga xizmat qiladi. Sun’iy intellektning to‘g‘ri qo‘llanilishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o‘ynashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Колчин С.П., Колчин С.П., Анисимова А.А. Развитие цифровых налоговых сервисов в России на фоне общемировых трендов // Налоги и налогообложение. – 2020. – № 2. – С. 40–51.
2. Вишневский В.П., Гончаренко Л.И., Никулкина И.В. , Гурнак А.В. Налоги и технологии: прошлое, настоящее и будущее налоговой системы России // Terra Economicus. – 2020. – №18(4). – С. 6–31.
3. Карпова О.М., Майбуров И.А. Трансформации налога на добавленную стоимость в усло виях форсированной цифровизации российской экономики // Вестник Томского государственного университета. Экономика. – 2019. – № 46. – С. 7–19.
4. Kirchler E., Wahl I. (2010). Tax compliance inventory tax-i: designing an inventory for surveys of tax compliance. Journal of Economic Psychology, 31(3), 331-346.
5. Валинуров Т.Р. Сущность налоговой политики государства и содержание налогового механизма // Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение. – 2010. – № 1. – С. 12–16.
6. Киреева Е.Ф. Егунов Д.И. Цифровые технологии в повышении качества управления налогообложением // Научные труды Белорусского государственного экономического университета. Минск: БГЭУ, 2019. –№12. – С. 209–213.
7. Hassan I., Ahmed N., Gulzar S. Voluntary tax compliance behavior of individual taxpayers in Pakistan. Financial Innovation, 7(1). 2021.
8. Анисимова А.А. Развитие налогового администрирования в России в условиях цифровизации экономики: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 Финансы, денежное обращение и кредит / ФГБОУВО «Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова». – Москва, 2021. – 146 с.
9. Стельмахова Н.В. Применение цифровых технологий при реализации налоговой политики // Вестник института экономических исследований. 2022, № 1(25).
10. http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
11. https://www.imv.uz – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
12. http://www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti

13. http://www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ НА УЛУЧШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЦЕПОЧКИ ПОСТАВОК МОЛОЧНОЙ ПРОДУКЦИИ

Марданова Барно Асатуллоевна
Докторант (PhD) Самаркандского филиала Ташкентского государственного экономического университета
https://doi.org/10.5281/zenodo.14197819

Аннотация. *В условиях современного рынка, где требования к качеству и безопасности пищевых продуктов постоянно возрастают, цифровизация становится ключевым фактором оптимизации цепочек поставок молочной продукции. В статье рассматривается влияние цифровых технологий, таких как Интернет вещей (IoT), блокчейн и аналитика больших данных, на повышение эффективности и устойчивости цепочек поставок. Особое внимание уделяется роли цифровизации в обеспечении прозрачности, снижении потерь и улучшении взаимодействия между участниками цепочки поставок. В результате исследования представлены рекомендации по интеграции цифровых технологий для повышения конкурентоспособности молочной промышленности.*

Ключевые слова: *цифровизация, молочная промышленность, Интернет вещей, блокчейн, большие данные, прозрачность, эффективность, цепочка поставок.*

ВВЕДЕНИЕ

В условиях современного рынка, где требования к качеству и безопасности пищевых продуктов постоянно возрастают, эффективное управление цепочкой поставок становится критически важным. Особенно это актуально для молочной продукции, которая требует строгого контроля на каждом этапе — от производства до доставки конечному потребителю. Цифровизация, как процесс интеграции современных технологий в бизнес-процессы, играет ключевую роль в оптимизации и повышении эффективности цепочек поставок. Внедрение цифровых решений позволяет компаниям улучшить управление запасами, контролировать условия хранения, оптимизировать логистику и обеспечить прозрачность и прослеживаемость продукции. В этом контексте влияние цифровизации на молочную промышленность становится не только очевидным, но и необходимым для поддержания конкурентоспособности и устойчивого роста.

МЕТОДОЛОГИЯ

Исследование влияния цифровизации на эффективность цепочки поставок молочной продукции проводилось с использованием комплексного подхода, включающего анализ литературы, изучение современных технологий и их внедрения в молочную промышленность. Были изучены ключевые научные публикации и отчёты, посвященные внедрению цифровых технологий, таких как Интернет вещей (IoT), блокчейн и большие

данные, в цепочки поставок молочной продукции. Основное внимание уделялось исследованиям, анализирующим влияние этих технологий на улучшение логистики, контроль качества продукции и снижение потерь. Для визуализации данных были построены графики, отражающие долю использования цифровых технологий в молочной промышленности. На основе полученных данных были сформулированы рекомендации для интеграции цифровых технологий, ориентированные на повышение конкурентоспособности молочной промышленности.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Цифровизация цепочек поставок молочной продукции представляет собой одно из ключевых направлений развития агропродовольственного сектора, позволяя повысить их эффективность, устойчивость и прозрачность. Современные технологии, такие как Интернет вещей (IoT), блокчейн и аналитика больших данных, в значительной степени трансформируют традиционные процессы управления поставками.

Многие исследования подчеркивают, что цифровизация играет важную роль в повышении эффективности цепочек поставок. Согласно исследованию, Ben-Daya et al. (2019), использование IoT позволяет улучшить мониторинг и управление запасами, транспортировкой и условиями хранения. Это особенно важно для молочной продукции, которая подвержена порче и требует строгого контроля температуры. IoT-технологии, такие как датчики для мониторинга температуры и влажности, позволяют отслеживать качество продукции на каждом этапе цепочки поставок. Как отмечает исследование Liu et al. (2022), интеграция IoT с аналитикой данных обеспечивает лучшее прогнозирование спроса и минимизирует риски потерь. В частности, датчики температуры широко используются в логистике молочной продукции для предотвращения нарушения условий хранения и транспортировки. Технологии блокчейн играют ключевую роль в обеспечении прозрачности и отслеживаемости продукции. Как утверждают Wang et al. (2023), блокчейн позволяет фиксировать каждую транзакцию в цепочке поставок, обеспечивая достоверность данных о происхождении и качестве продукции. Это особенно важно для молочной отрасли, где репутация бренда напрямую зависит от качества продукта. Большие данные и искусственный интеллект (AI) помогают улучшить прогнозирование спроса, оптимизировать маршруты доставки и управлять запасами. По исследованиям Sharma & Singh (2023) подчеркивает, что использование AI в цепочках поставок молочной продукции позволяет снизить затраты и минимизировать количество отходов.

ОБСУЖДЕНИЕ И ВЫВОДЫ

Молоко и молочные продукты являются продуктами, богатыми микроэлементами, которые очень полезны для жизни человека. Эти продукты являются основным источником кальция, белка, витаминов D и B12, а также других важных микроэлементов, необходимых для нормального функционирования организма. Спрос на молочные продукты всегда был высоким. В литературе отмечается, что население южных стран потребляет молочные продукты больше, чем в других странах. На 5 регионов приходится 75% производимого в мире молока.

Таблица № 1 Таблица № 2

Топ-10 стран-производителей молока в мире.		
№	Country	Production (thousand tons)
1	India	208984,4
2	USA	102654,6
3	Pakistan	59666
4	China	41245,7
5	Brazil	36663,7
6	Germany	33188,9
7	Russia	32333,3
8	France	25834,8
9	Turkey	23200,3
10	New Zealand	21886,4

Топ-10 стран с самым высоким потреблением молока в мире.		
№	Country	consumption (kg per person per year)
1	Montenegro	338
2	Albania	297,9
3	Switzerland	292,9
4	Kazakhstan	283,2
5	Estonia	280,2
6	Netherlands	260,7
7	Finland	258,3
8	Uzbekistan	252,3
9	Denmark	242,6
10	Ireland	238,9

Источник:https://dairynews.ru/news/kakie-strany-proizvodyat-i-potreblyayut-bolshe-vse.html

Доставка молока и молочных продуктов конечному потребителю в качественном виде является одной из больших проблем современной цепочки поставок. Молочные продукты отличаются от других продуктов своей скоропортящейся природой. Всего несколько часов в теплой температуре могут негативно повлиять на качество молока и молочных продуктов, делая их непригодными для потребления. При неправильных условиях хранения молочные продукты приобретают неприятный вкус, меняют цвет, становятся кислыми и способствуют размножению бактерий. Обычно изменения в качестве молока и молочных продуктов происходят в процессе транспортировки, то есть во время погрузки и разгрузки продукции. Поэтому при транспортировке молочных продуктов необходимо учитывать факторы окружающей среды и погодные условия. Участники цепочки поставок используют различные цифровые технологии, платформы, датчики и приложения для выполнения своих задач. Такие процессы называются цифровизацией или цифровой трансформацией.

Цифровизация — это процесс внедрения цифровых технологий в различные сферы бизнеса с целью улучшения их функционирования и повышения конкурентоспособности. В последние годы этот процесс играет ключевую роль в оптимизации цепочек поставок, особенно в таких сложных и чувствительных к условиям хранения продуктах, как молочная продукция.

Внедрение цифровых технологий в молочно-продуктовом подкомплексе от фермы до потребителя существенно повышает устойчивость функционирования цепи поставок молочной продукции. Освоение цифровых технологий наиболее успешно осуществляется

в длинных цепях поставок молока и молочных продуктов на всех этапах создания ценности продукции, а в коротких и альтернативных цепях поставок, участниками которых являются малые формы хозяйствования, освоение цифровых технологий остается низким. Цифровизация цепи поставок потенциально позволяет повысить клиентоориентированость, получить информацию по каждому этапу создания молочной продукции в режиме реального времени. Термодатчики и электронные метки позволяют отслеживать соблюдение стандартов качества и продвижение молочной продукции по холодной цепи от фермы до потребителя, обеспечивать выполнение заказа точно в срок, а регулирующим органам выявлять фальсификаты молочной продукции.

В мировой практике больше всего внедряются следующие технологии повышения их эффективность, прозрачность и устойчивость.

1. Интернет вещей (IoT)- Использование датчиков и устройств IoT позволяет мониторить условия хранения и транспортировки молочной продукции в режиме реального времени. Это обеспечивает контроль температуры, влажности и других параметров, критичных для качества продукции. Такие решения способствуют снижению потерь и улучшению качества продукции.
2. Блокчейн- Технология блокчейн обеспечивает прозрачность и отслеживаемость продукции на всех этапах цепочки поставок. Она позволяет фиксировать каждую транзакцию, обеспечивая неизменность данных и повышая доверие потребителей к качеству и происхождению продукции.
3. Аналитика больших данных- Сбор и анализ больших объемов данных позволяют прогнозировать спрос, оптимизировать запасы и улучшать процессы производства и дистрибуции. Это способствует повышению эффективности и снижению затрат в цепочке поставок.
4. Роботизация и автоматизация- Внедрение роботизированных систем на производственных линиях и в складских комплексах повышает скорость и точность операций, снижает человеческий фактор и увеличивает общую производительность.
5. Облачные технологии- Использование облачных платформ обеспечивает доступ к данным в реальном времени для всех участников цепочки поставок, улучшая координацию и взаимодействие между ними. Это позволяет быстрее реагировать на изменения и принимать обоснованные решения.

График № 1

Доля использования цифровых технологий в молочной промышленности



Источник: График составлен автором на основе отчетов о цифровизации отраслей АПК. https://milknews.ru/longridy/5-prichin-ispolzovat-oblachnye-tehnologii-v-molochnoj-otrasli.html, https://milklife.ru/publication/11714.html

На графике представлена доля использования различных цифровых технологий в молочной промышленности. Эти данные отражают основные направления цифровизации в отрасли, такие как IoT, блокчейн, большие данные, автоматизация и облачные технологии.

Из приведенной выше диаграммы видно, что в молочной промышленности наиболее широко используемыми цифровыми технологиями являются Интернет вещей, блокчейн и большие данные. В развитых странах, таких как США, Швейцария, Франция, Нидерланды, Германия, Израиль, Сингапур, все эти технологии используются в полной мере. Более того, компании Danone и Nestle применяют их в цепочке поставок молока и молочных продуктов как единую систему. Все функции цепочки поставки, от фермы до конечного потребителя, цифровизированы.

Хотя цифровые технологии были внедрены в пищевую промышленность нашей страны относительно недавно, мы уже можем наблюдать положительные результаты в деятельности предприятий. В ряде перерабатывающих молоко предприятий можно увидеть использование таких технологий, как блокчейн и Интернет вещей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Цифровизация цепочек поставок молочной продукции играет ключевую роль в повышении их эффективности, устойчивости и прозрачности. Применение современных технологий, таких как Интернет вещей (IoT), блокчейн, большие данные и облачные платформы, позволяет улучшить управление логистикой, мониторинг качества продукции и взаимодействие между участниками цепочки.

В статье подчеркивается, что внедрение цифровых технологий способствует снижению потерь, минимизации расходов и повышению доверия потребителей к качеству продукции. Это особенно актуально для молочной промышленности, где строгий контроль условий хранения и транспортировки является решающим фактором.

Несмотря на то, что цифровизация отрасли только набирает обороты в некоторых странах, её внедрение уже демонстрирует положительные результаты. В странах с высокоразвитыми экономиками, таких как США, Франция, Нидерланды и Германия,

цифровые технологии используются как часть интегрированной системы управления цепочками поставок.

Для дальнейшего повышения эффективности и конкурентоспособности молочной промышленности рекомендуется расширить использование цифровых решений, активизировать обучение специалистов и внедрять инновационные технологии на всех этапах производства и логистики. Эти меры позволят не только улучшить качество продукции, но и укрепить позиции компаний на мировом рынке.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Ben-Daya, M., Hassini, E., & Bahroun, Z. (2019). Internet of Things and supply chain management: A comprehensive framework for IoT-enabled supply chains. *IEEE Internet of Things Journal*, 6(2), 371-388.
2. https://milklife.ru/publication/11714.html
3. *https://milknews.ru/longridy/5-prichin-ispolzovat-oblachnye-tehnologii-v-molochnoj-otrasli.html*
4. Liu, Z., Li, P., & Zhang, Y. (2022). Cybersecurity Risks in IoT-Based Food Supply Chains. *IEEE Internet of Things Journal*, 9(8), 5637-5645.
5. Sharma, V., & Singh, H. (2023). IoT Adoption Challenges in the Food Industry: A Review. *Food Science and Technology International*, 29(2), 210-225.
6. Verdouw, C.N., Wolfert, J., & Beulens, A.J.M. (2016). Internet of Things in food supply chains: Adoption and application in food logistics. *Journal of Food Engineering*, 145, 50-59.
7. Wang, R., Kim, J., & Patel, S. (2023). Blockchain in Dairy Supply Chains: Ensuring Safety and Traceability. *Journal of Food Industry Technology*, 10(1), 35–47.
8. Дибиров Абусупян Асилдарович. Цепочки поставок молока и влияние цифровизации на их устойчивость. Журнал «Экономика сельского хозяйства в России». Выпуск № 6, Июнь 2024 г., статья № 17, стр. 130-137. DOI 10.32651/246-130
9. Майоров А.А., Сурай Н. М., Носов В. В., Бобков А. Н., Гарипова Л. В. ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В МОЛОЧНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ. Экономика и управление народным хозяйством. 2020
10. Хорошилова Т.Н. Роль цифровизации в повышении устойчивости и эффективности цепочек поставок. Журнал: «Актуальное исследование» октябрь 2024
11. Череповская Ю.А. Управление цифровыми цепочками поставок. Журнал: «Актуальное исследование» 2024
12. Эргашев Б.А., Турдиева Г.Б. ИССЛЕДОВАНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА БЕЗОПАСНОСТЬ ПИЩЕВОЙ ПРОДУКЦИИ И ЦЕПОЧКУ ПОСТАВОК ПРИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЯХ. UNIVERSUM ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ.окт 2024

MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA TARTIBGA SOLISH

Allaberganova Adolat Bekimmatovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
To’rtko’l fakulteti Moliya va moliyaviy
texnologiyalar yo’nalishi
241-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14198279

Annotatsiya: *Ushbu maqola Moliya, moliyaviy rejalashtirish, ahamiyati va roli haqida fikr-mulohaza yuritadi. Moliyaviy reja - davlat, xo'jalik subyektlari daromad va xarajatlarini bog'lovchi, oldindan qo'yilgan moliyaviy maqsadlarga erishish usullarini tavsiflovchi hujjatdir.*

Kalit so’zlar: *Moliya, iqtisodiyot, resurs, obligatsiya, investitsiya, bank, aksiyalar, ko’chmas mulk, byudjet, kredit, daromad.*

Rejalashtirish moliyani boshqarishning funksional elementlarni ichida asosiysini tashkil qiladi, chunki aynan rejalashtirish jarayonida subyekt o'ziningmoliyaviy holatini har tomonlama baholay oladi, ya'ni moliyaviy resurslarning qanday holatdaligi, ularni oshirish imkoniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilab oladi. Turli adabiyotlarda moliyaviy rejalashtirish tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Umuman olganda, moliyaviy rejalashtirish deganda moliyaviy rejalarni tuzish va ularni bajarish jarayoni tushuniladi. Moliyaviy reja - moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish, umumlashtirish va o'zaro bog'lash natijasidir. [1]

Moliyaviy rejalashtirishning obyekti bo'lib xo'jalik subyektlari va davlatning moliyaviy faoliyati bo'lib hisoblanadi. Har bir xo'jalik subyekti moliyaviy rejasini tuzadi, ya'ni bu alohida muassasaning smeta xarajatlaridan tortib to davlatning yig'ma moliyaviy balansigacha qamrab oladigan muhim jarayonidir.

Rejalashtirish, bir qator o'zining xususiyatlari ega bo'lib, ular quyidagilarni hisoblanadi: a) ma'lum tartibga solingan jarayonligi, b) axbirotlarbi qayta ishlash bilan bog'liqligi, d) aniq maqsadga yo'naltirilganligi, e) vaqtinchalik harakterga egaligi.

Rejalashtirish deganda - miqdoriy va sifatida tavsifidagi ma'lum bir maqsadlarni o'rnatish va unga erishishning samarali yo'lini aniqlash jarayonidir. Moliyaviy reja moliyaviy rejalashtirishning natijasidir.

Moliyaviy rejalashtirish - moliyaviy resurslar va pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan maqsadli foydalanishni rejalashtirishdir.

Moliyaviy reja - davlat, xo'jalik subyektlari daromad va xarajatlarini bog'lovchi, oldindan qo'yilgan moliyaviy maqsadlarga erishish usullarini tavsiflovchi hujjatdir. Moliyaviy rejalashtirish jarayonida korxonaning moliyaviy maqsadlarini aniqlanadi, korxonaning joriy moliyaviy holatida o'rnatilgan maqsadlarning muvofiq kelishi darajasi o'rganiladi, o'rnatilgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan faoliyat ketma-ketligi shakillantiriladi.

Umuman olganda moliya tizimining barcha sohalarini va bo'g'inlarida faoliyatidan kelib chiqib moliyaviy rejalar tuzuladi. Masalan: tijorat asosida faoliyat ko'rsatadigan xo'jalik subyektlari daromadlar va xarajatlar balansi, byujetdan moliyalashtiriladigan notijorat tshkilotlarda xarajatlar smetasi tuziladi.

Moliyaviy rejalashtirishning aniq vazifalarini moliya siyosatini aniqlash beradi. Ular tarkibiga quyidagilarni kiradi: rejali topshiriqlarini bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy

resurslar miqdori va ularning manbalari; xarajatlarni iqtisod qilish va daromad zahiralarini shirishni aniqlash; markazlashgan va markazlashmagan fondlar o'rtasidagi taqsimlashning optimal yo'llarini qidirib topish va boshqalar.

Moliyaviy rejalashtirish bir nechta uslublarga tayangan holda amalga oshiriladigan. Shulardan asosiylari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Ekstrapolyatsiya usuli;
2. Normativ usuli;
3. Matematik modellashtirish usuli.

Ekstrapolyatsiya usulining mohiyati shundaki, o'tgan hisobot davrining moliyaviy natijalaridan xulosa chiqarib kelgusi hisobot yili uchun moliyaviy rejani tuzushni ko'zda tutadi. Moliyaviy ko'rsatkichlarning prognoz va rejali hisob hitoblari turli usullardan foydalanishga asoslanadi. Ekstrapolyatsiya usuli moliyaviy ko'rsatkichlar va ularning dinamik o'zgarishlariga asoslanadi. Moliyaviy ko'rsatkichlar hisobot yilidagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi.

Normativ usulda, belgilangan norma va normativlardan foydalanish ko'zda tuziladi. Masalan: byujetdan moliyalashtiriladigan ta'lim muassasalarida o'quvchilar kontingenti va boshqalar.

Matematik modellashtirish usulida, real iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni takrorlovchi moliyaviy modellar tuzish orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy resurslani manbalarini ulardan foydalanish bilan muvofiqlashtirish asosidagi rejalashtirish jarayoni balans usuli hisoblanadi.

Rejalashtirish miqdoriyva sifatida tavsifidagi maqsadlarni ishlab chiqish va qabul qilish hamda ularga erishishning samarali yo'llarini aniqlash jarayonlarini o'zida aks ettiradi. "Maqsadlar daraxti" shaklida ishlab chiqarilgan maqsadlar boshqarishning mazkur darajasida muhim hisoblangan ko'rsatkichlar tizimida hisob kitoblar imkoniyati bo'yicha tavsiyalanadi. Rejalashtirish jarayonidagi boshqaruv qarorlari moliyaviy axborotlarni tahlil qilish natijalari asosida qabul qilinadi. [2]

Moliyaviy tartibga solishning sub’yekti davlat tuzilmalari bo’lsa, uning ob’yekti ijtimoiy tizim ishtirokchilarining daromadlari va xarajatlaridir. Makro va mikrodarajada jamiyat ehtiyojlarining maksimal qondirilishini ta’minlaydigan jamg’armalarni taqsimlashning proportsiyalarini o’rnatish moliyaviy tartibga solish jarayonida hal qilinishi kerak bo’lgan asosiy vazifa hisoblanadi. Bu narsa shaxsiy, jamoa va ijtimoiy manfaatlar, qadriyatlar va boyliklarning oqilona inobatga olinishini ko’zda tutadi va samarali ishlayotgan bozor mexanizmi bilan davlatning ta’siri tizimini qo’shish muammolarining moliyaviy aspektin (yo’nalishini) aks ettiradi.Bozor ho’jaligining moliyaviy regulyatorlariga (tar-tartibga soluvchilariga) quyidagilar kiradi:

- byudjetga soliqlar va soliq bo’lmagan to’lovlar;
- moliyaviy imtiyozlar va sanktsiyalar;
- byudjet tashkilotlarining ekspluatatsion xarajatlari;
- umumiy va maqsadli subsidiyalar, shu jumladan, davlat buyurtmalarini to’lashga mo’ljallanganlari;
- byudjetdan tashqari maxsus fondlarning daromadlari va xarajatlari;
- davlat korxona va tashkilotlarining daromadlari va xarajatlari.

Moliyaviy ta’sir ko’rsatishga tartibga solishning quyidaginko’rinishlari (shakllari) xos:

- to’g’ridan-to’g’ri (bevosita);

 egri (bilvosita);
 aralash.

Moliyaviy ta’sir ko’rsatishning to’g’ridan-to’g’ri (bevo-sita) tartibga solish shakli quyidagilar orqali namoyon bo’ladi:

 to’g’ri (bevosita) umumdavlat soliqlarini undirish yordamida;
 taraqqiyot byudjetidan xarajatlarni moliyalashtirish jarayonida;
 byudjet va markazlashtirilgan maxsus fondlarga soliq-lar va
to’lovlar stavkalarini oshirilgan yoki kamaytirilgan tarzda qo’llash yo’li bilan;
 davlat xarajatlarining normativlari miqdorini o’zgartirish orqali;
 moliyaviy intizomni buzganligi uchun jarimalar, penyalarni undalishi natijasida. [3]

Tadqiqot usullari va natijalar:

Conclusion. This project demonstrates the effectiveness of the **Arduino Uno** microcontroller in creating a water quality monitoring system that utilizes **pH** and **TDS** sensors. The system provides real-time feedback on the water’s chemical composition, enabling users to make informed decisions regarding water safety. This low-cost solution can be applied in various fields such as agriculture, industrial water treatment, and environmental monitoring. Future work could focus on improving sensor accuracy, implementing temperature compensation, and integrating remote monitoring features.

References.

1. Madhusree, S., & Rajan, S. (2021). "Arduino-based pH and TDS measurement system for water quality monitoring." *International Journal of Scientific Research in Computer Science, Engineering and Information Technology*, 7(4), 1-6.

2. Saha, R., & Majumder, S. (2020). "Design of an Automated Water Quality Monitoring System using Arduino." *Journal of Environmental Science and Engineering*, 10(3), 45-51.

3. Arduino. (2023). "Arduino Uno: Specifications and Use." *Arduino Official Documentation.*

4. Agus, M., & Simatupang, H. (2019). "Arduino-based Water Quality Monitoring System for Aquatic Environments." *International Journal of Technology and Engineering Research*, 9(12), 5-10.

5. Chin, H., & Yusof, Z. (2018). "Real-time water quality monitoring system using pH and TDS sensors." *Journal of Environmental Management*, 22(4), 89-94.

6. Gupta, A., & Kumar, S. (2021). "Water Quality Monitoring System Using TDS and pH Sensors for Smart Agriculture." *International Journal of Engineering Science and Technology*, 13(5), 78-83.

7. Bersan, P., & Szentirmai, M. (2020). "Arduino-based real-time monitoring for environmental applications." *Environmental Technology and Innovation*, 17, 123-135.

8. Sensing, H. (2019). "pH sensor operation and calibration." *Sensing Technology Journal*, 12(1), 23-28.

9. Microchip Technology Inc. (2023). "Analog Sensors and Signal Conditioning for Arduino." *Microchip Technology Documentation.*

10. National Instruments (2022). "Water Quality Parameters and Measurement." *Measurement Solutions Journal*, 18(2), 12-18.

11. Hossain, S., & Khan, M. (2020). "Water Quality Monitoring with Real-Time Feedback Using IoT and Arduino." *International Journal of Water Resources and Environmental Engineering*, 6(8), 112-118.

12. Kumar, A., & Singh, M. (2022). "Arduino-Based Water Pollution Monitoring System Using pH, TDS, and Temperature Sensors." *Environmental Engineering Journal*, 24(1), 5-13.

13. Ratan, P., & Shah, R. (2021). "Water Quality Management Using Real-Time Data Analytics and Arduino." *Journal of Water and Environmental Science*, 14(6), 78-87.

14. Li, Y., & Zhang, J. (2019). "Water Quality Monitoring Using Arduino: A Review of Methods and Applications." *Journal of Environmental Protection*, 10(5), 231-240.

15. Zhang, Z., & Liu, F. (2020). "Development of an Automated Water Quality Monitoring System Using Arduino and IoT." *Journal of Automation and Control Engineering*, 8(3), 109-116.

MA'LUMOTLARNI INTELLEKTUAL TAHLILLASH ALGORITMLARI YORDAMIDA TIMSOLLARNI ANIQLASH ALGORITMI

Nodir Rakhimov,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti
nikobek82@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189220

Ravshan Shirinboyev
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti
forravshanrsh@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189220

Annotatsiya:*Ushbu maqolada timsollarni aniqlash uchun* ***ma'lumotlarni intellektual tahlillash algoritmlaridan*** *foydalanish usullari ko‘rib chiqilgan. Timsollarni tasniflash va ularni to‘g‘ri sinflarga ajratish masalasi sun’iy intellektning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Maqolada turli algoritmlarning — jumladan,* ***Bayes tasniflagichi****,* ***qaror daraxtlari*** *va* ***konvolyutsion ne'ron tarmog‘ining (CNN)*** *nazariy asosi, ularning matematik modellari va algoritmlarning ish faoliyati haqida tushuntiriladi.*

Bayes tasniflagichi ehtimollik nazariyasiga asoslangan bo‘lib, tasniflash uchun shartli ehtimolliklarni hisoblaydi. Qaror daraxtlari esa daraxtsimon tuzilma orqali qarorlar qabul qiladi va ob’ektlarni xususiyatlar bo‘yicha tasniflaydi. Konvolyutsion ne'ron tarmog‘i (CNN)[1] esa tasvirlarni o‘rganish va ajratishda chuqur o‘rganish yondashuvlari asosida ishlaydi. Maqolada ushbu algoritmlarning tasvir va timsollarni aniqlashda qo‘llanilishi, ularning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinadi. Natijalar va statistik tahlillar asosida algoritmlarning samaradorligi va amaliy ilovalar sohalari batafsil keltirilgan.

Maqola nafaqat timsollarni aniqlashda yuqori aniqlikka erishish uchun, balki intellektual tahlil vositalarini qo‘llash orqali yuqori sifatli ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun ham foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar*: timsollarni aniqlash, intellektual ma'lumot tahlili, bayes tasniflagichi, qaror daraxtlari, konvolyutsion ne'ron tarmoq (cnn), chuqur o‘rganish, tasvirni tanish, ma'lumotlar tasnifi, sun’iy intellekt, algoritmlar*

KIRISH

1. Muammo tavsifi va dolzarbligi

So‘nggi yillarda intellektual tahlil texnikalari orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni tahlil qilish dolzarb muammolardan biriga aylandi. Timsollarni aniqlash, bu jarayonning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, amaliyotda juda katta qo‘llanilmoqda. Masalan, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari va video kuzatuv tizimlari kabi sohalarda timsollarni to‘g‘ri aniqlash tezkor va samarali qaror qabul qilish imkonini yaratadi.

Timsollarni aniqlashda intellektual tahlillash algoritmlari turli ko‘rinishdagi ma'lumotlar to‘plamidan foydalangan holda ma'lumotlarni turli usullar bilan tasniflash imkonini beradi. Bu jarayonda Mashinani O‘rganish (Machine Learning, ML) va Chuqur O‘rganish (Deep Learning, DL) usullari keng qo‘llaniladi [2]. Har bir timsolning xususiyatlarini aniqlash va ma'lumotlar to‘plamidan foydalangan holda optimal natijalar olish uchun tasniflovchi modellardan foydalaniladi.

2. Tadqiqotning maqsadi va ahamiyati

Mazkur tadqiqotning maqsadi — timsollarni intellektual tahlil qilish texnikalaridan foydalangan holda aniqlash samaradorligini oshirishdir. Tadqiqot davomida ehtimoliy modellash, bayesian usullari, va ne`ron tarmoqlar kabi metodlarni o‘rganish orqali timsollarni aniqlash jarayonida aniqlik va samaradorlikka erishiladi. [3]

MATERIALLAR VA USULLAR

Bayes tasniflagichi — bu bayes ehtimollik modeliga asoslangan tasniflash usuli bo‘lib, ob'yektlarni sinflarga ajratishda bayes statistikasi qo‘llaniladi. Bayes tasniflagichi asosan naive Bayes tasniflagichi sifatida mashhur bo‘lib, sodda ehtimollik qoidalariga asoslanadi va har bir xususiyatning mustaqil ekanligini faraz qiladi. Tasniflagich quyidagi Bayes teoremasidan foydalanadi:

$$P(C_x|X) = \frac{P(X|C_x) \cdot P(C_x)}{P(X)}$$

bu yerda:

- $P(C_x|X)$—X xususiyatlar to‘plami berilganida ob'yektning C_x sinfga tegishli bo‘lish ehtimoli (a posteriori ehtimollik),
- $P(X|C_x)$ — C_x sinf berilganida xususiyatlar to‘plami X ga ega bo‘lish ehtimoli (shartli ehtimollik),
- $P(C_x)$ — ob'yektning C_x sinfga tegishli bo‘lish umumiy ehtimoli (prior ehtimollik),
- $P(X)$ — xususiyatlar to‘plami X ga ega bo‘lish umumiy ehtimoli.

Bayes tasniflagichining ishlash jarayoni

1. **Ma'lumotlarni oldindan qayta ishlash**: Har bir sinf uchun namunalarni belgilash va tayyorlash.
2. **Shartli ehtimolliklarni hisoblash**: Har bir sinf uchun har bir xususiyatning shartli ehtimolliklarini hisoblash.
3. **A posteriori ehtimollikni hisoblash**: Bayes teoremasi asosida, yangi kirish X uchun barcha mumkin bo‘lgan sinflar bo‘yicha a posteriori ehtimollikni hisoblaydi.
4. **Eng yuqori ehtimollik sinfini aniqlash**: Tasniflagich X uchun eng yuqori a posteriori ehtimollik qiymatiga ega bo‘lgan sinfni tanlaydi.[4]

Bayes tasniflagichi **matn tasniflash**, **spam aniqlash**, **tibbiy diagnostika** kabi sohalarda keng qo‘llaniladi. Bu algoritmning sodda ishlashi va tezligi, ayniqsa katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashda katta afzalliklar yaratadi.

Qaror daraxtlari (Decision Trees) — bu ma'lumotlarni sinflarga ajratish uchun ishlatiladigan algoritm bo‘lib, har bir xususiyat bo‘yicha qaror qabul qilishni modellashtiradi. Ushbu algoritm daraxt shaklidagi tuzilma hosil qiladi, bunda har bir **tugun** xususiyat (attribute) qiymatlari bo‘yicha qaror qabul qiladi va ma'lumotlarni sinflarga ajratadi. Har bir **shox** qaror qabul qilish qoidalarini ifodalaydi, har bir **barg** esa yakuniy sinfni anglatadi.

Daraxtni qurish: Ma'lumotlarning barcha xususiyatlariga asoslanib, daraxtning ildizidan boshlab har bir tugun uchun eng muhim xususiyat tanlanadi. Eng muhim xususiyatni aniqlash uchun turli **ajratish mezonlari** (split criteria) ishlatiladi: **Entropiya** va **axborot foydasi** (Information Gain), **Gini indeksi**, **Notog’ri tasniflash (Misclassification)**. **Axborot foydasi**: Bu usul entropiya asosida ishlaydi. Har bir xususiyat bo‘yicha axborot foydasi hisoblanadi va eng katta foyda bera oladigan xususiyat tanlanadi. Axborot foydasi (IG) quyidagicha hisoblanadi:[5]

$$IG(S, A) = Entropy(S) - \sum_{v \in values(A)} \frac{|S_v|}{S} \cdot Entropy(S_v)$$

bu yerda S — ma'lumotlar to‘plami, A — xususiyat, S_v — A xususiyat qiymatiga teng bo‘lgan namunalar to‘plami.

Gini indeksi: Sinfdagi ma'lumotlarning farqlanish darajasini ifodalaydi va quyidagicha hisoblanadi:[6]

$$Gini(S) = 1 - \sum_{i=1}^{C} p_i^2$$

bu yerda p_i — sinf i-ga tegishli namunalar ehtimolligi.

1. **Sinflar bo‘yicha ma'lumotlarni ajratish**: Har bir tugun ma'lumotlarni tanlangan xususiyat bo‘yicha ajratadi va qarorni qabul qiladi. Ma'lumotlar tugundan tugunga shoxlar orqali o‘tadi, va har bir bargda ma'lumotlar yakuniy sinfga ajratiladi.
2. **Daraxtning chuqurligini boshqarish**: Optimal natijaga erishish uchun daraxtning chuqurligini boshqarish muhimdir. Chuqurroq daraxt **ortiqcha moslashishga** olib kelishi mumkin, bunda model faqat o‘qitilgan namunalar bilan yaxshi ishlaydi, ammo yangi ma'lumotlar uchun samaradorligi pasayadi. **Budlash (pruning)** orqali daraxtning optimal chuqurligi tanlanadi.

Qaror daraxtlarining afzalliklari shundaki: Qoidalarga asoslangan tasniflashni qulay va tushunarli holga keltiradi. Ko‘pgina xususiyatlar bo‘yicha sinflarga ajratishda ham samarador. Barcha xususiyatlar bo‘yicha qaror qabul qilish imkoniyati mavjud.

Qaror daraxtlari quyidagi sohalarda keng qo‘llaniladi.**Moliyaviy tahlil va kredit xavfini baholash**, **Tibbiy diagnostika**, **Mijozlar segmentatsiyasi**, **Reklama tahlili va bozor tadqiqotlari**.

Misol uchun, bizda quyidagi tasniflash jarayoniga asoslangan daraxt bo‘lsin: Ma'lumot: Biror mijoz kredit olish uchun murojaat qilmoqda. Xususiyatlar: Yoshi (yosh, o’rta, katta), Daromadi (past, o’rta, yuqori). Sinf: Kredit olishi mumkin (ha yoki yo’q).[6-9]

Tasniflash jarayoni axborot foydasi asosida tanlangan xususiyatlardan foydalanib quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi. Qaror daraxti har bir qadamda mijozning kredit olish imkoniyatini aniqlaydi. Bu kabi tahlillar yordamida qaror daraxti o‘z natijasini ishonchli va tezkor tarzda beradi.

Konvolyutsion ne'ron tarmoq (Convolutional Neural Network, CNN) — chuqur o‘rganish modellaridan biri bo‘lib, ayniqsa **tasvirlarni tanish, tasniflash, va obyektlarni**

aniqlashda juda samarali. CNN turli qatlamlardan iborat bo‘lib, tasvirdagi xususiyatlarni avtomatik ravishda ajratib oladi va ularni tahlil qiladi. Ushbu tarmoqdagi **konvolyutsiya qatlamlari** tasvirning kichik qismlarini tanib olish imkonini beradi va shu orqali murakkab vizual naqshlarni samarali tarzda o‘rganadi

CNN turli qatlamlardan tashkil topgan bo‘lib, asosiy qatlamlari quyidagilar: **Konvolyutsiya qatlamlari (Convolutional Layers)**:[10]Tasvirni bir nechta **filtrlar (kernels)** yordamida qamrab oladi, bunda har bir filtr tasvirning muayyan xususiyatlarini ajratib oladi. Har bir filtr uchun konvolyutsiya amali bajarilib, tasvirning xususiyat xaritalari (feature maps) hosil qilinadi. Konvolyutsiya amalining matematik ifodasi:

$$y_{i,j} = \sum_m \sum_n x_{i+m,j+n} \cdot w_{m,n}$$

bu yerda $\boldsymbol{x}$ — kirish tasvirining piksel qiymatlari, w — filtrning og‘irliklari, y esa hosil qilingan xususiyat xaritasi.

ReLU faollashtirish funksiyasida manfiy qiymatlarni 0 ga olib kelib, faqat ijobiy qiymatlarni saqlaydi. Bu funksiya neyronlarning faollashishini boshqaradi va tarmoqni noyoqlik xususiyatlari bo‘yicha kuchaytiradi:

$$f(x) = \max(0, x)$$

Pooling qatlamlarida tasvirning hajmini kichraytirish va tarmoqni ortiqcha moslashishdan (overfitting) saqlash uchun foydalaniladi[11]. Ko‘pincha Max Pooling ishlatiladi, bunda har bir kichik qismdagi maksimal qiymat olinadi.

Max pooling misol: $y_{i,j} = \max(x_{i+k,j+l})$

bu yerda k va l — kichik qism chegaralari.

O‘ralgan qatlam CNN ning yakuniy qatlamida barcha neyronlar bog‘lanadi va tasniflash yoki bashorat qilish uchun chiqish sinflari hosil qilinadi.

Tadqiqot uchun MNIST va CIFAR-10 kabi mashhur ma'lumotlar to‘plamlaridan foydalanildi. MNIST to‘plami: qo‘lyozma raqamlar (0–9) to‘plami bo‘lib, 28x28 o‘lchamdagi 70,000 ta tasvirdan iborat. CIFAR-10 to‘plami: o‘nta sinfga bo‘lingan 60,000 ta rangli tasvirlardan iborat. Tasvirlar har biri 32x32 pikseldan iborat.Algoritmlarning baholash mezonlari. Baholash uchun quyidagi metrikalardan foydalanildi. Aniqlik (Accuracy) — to‘g‘ri aniqlangan namunalar ulushi. Aniqlash darajasi (Precision) — ijobiy sinflarni to‘g‘ri aniqlash ulushi. Sezuvchanlik (Recall) — barcha to‘g‘ri ijobiylarni aniqlash ulushi. F1 o‘lchov — aniqlik va sezuvchanlikni muvozanatlash uchun ishlatiladi:

NATIJALAR (Results)

Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan bo‘lib, har bir algoritmning **aniqlik**, **aniqlash darajasi**, **sezuvchanlik**, va **F1 o‘lchovlari** bo‘yicha ko‘rsatkichlari berilgan.

Algoritm	*Aniqlik (%)*	*Aniqlash darajasi (%)*	*Sezuvchanlik (%)*	*F1 o‘lchov (%)*
Bayes tasniflagichi	85.4	82.1	84.3	83.2
Qaror daraxtlari	90.2	88.5	89.1	88.8

CNN	97.6	96.8	97.1	96.9

NATIJALAR TAHLILI

Bayes tasniflagichi: Ushbu model ko‘p hollarda sodda va samarali bo‘lishiga qaramay, murakkab tasvirlarni tanishda aniqlik darajasi nisbatan pastroq bo‘ldi. Bu algoritm asosan statistik ehtimolliklarga asoslangan bo‘lib, bu usuldagi algoritmlar yuqori miqdordagi xususiyatlarni ajratish uchun mo‘ljallanmagan.

Qaror daraxtlari: Qaror daraxtlari modelining samaradorligi Bayes tasniflagichiga nisbatan yuqori bo‘lib, qisman ma'lumotlardagi muhim xususiyatlarni ajratish qobiliyatiga bog‘liq. Biroq, qaror daraxtlari chuqur o‘rganish usullari darajasida natija bera olmadi.

Konvolyutsion ne`ron tarmoq (CNN): Tasvirlarni aniqlash uchun CNN eng yaxshi natijalarni ko‘rsatdi. CNN modelining yuqori aniqligi (97.6%) konvolyutsion qatlamlar yordamida xususiyatlarni chuqurroq tahlil qilish qobiliyati bilan bog‘liq.

Quyidagi grafikda har bir algoritmning F1 o‘lchovi ko‘rsatilgan bo‘lib, bu natijalarning umumiy samaradorligini aks ettiradi:



Grafikdan ko‘rinib turibdiki, **CNN algoritmi** timsollarni aniqlashda eng yuqori natijalarni ko‘rsatgan. Shu bilan birga, bayes tasniflagichi nisbatan sodda ma'lumotlar to‘plami uchun maqbul hisoblanishi mumkin, ammo murakkab tasvirlar uchun optimallashgan chuqur o‘rganish texnikalariga ehtiyoj mavjud.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda intellektual tahlil algoritmlari yordamida timsollarni aniqlash samaradorligi tahlil qilindi. Aniqlangan natijalar shuni ko‘rsatadiki, konvolyutsion ne`ron tarmoq (CNN) murakkab tasvirlarni aniqlashda yuqori aniqlik va samaradorlikka ega bo‘lgan eng kuchli algoritm hisoblanadi. Shu bilan birga, qaror daraxtlari va bayes tasniflagichi ma'lum holatlarda amaliyotda qo‘llash mumkin. Natijalardan kelib chiqib, ushbu algoritmlarni real vaqt tizimlariga qo‘llash imkoniyatlari mavjud bo‘lib, bu usullarning rivojlanishi natijalarni yanada yaxshilashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shirinboyev R. et al. EVALUATING THE PERFORMANCE OF CONVOLUTIONAL NEURAL NETWORKS AND HYBRID CNN-SVM MODELS FOR SYMBOL RECOGNITION IN COMPLEX DATASETS //DTAI–2024. – 2024. – Т. 1. – №. DTAI. – С. 295-299.

2. Rustamovich A. A., Ruzikulovich T. M. R., O‘G‘Li S. R. S. Yong‘inni videotasvirda rangli filtrlash bilan intensivlik o‘zgarishi asosida aniqlash //Илм-фан ва инновацион ривожланиш/Наука и инновационное развитие. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 13-21.

3. Рахимов Н., Ширинбаев Р., Саидова З. Ma’lumotlarni intellektual tahlillash uchun oldindan tasniflash va yakuniy konvolyutsion neyron tarmog ‘i //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 55-61.

4. Dilmurod H., Shirinboyev R. THE MAIN THEORY OF LINEAR REGRESSION MODELS IN DATA MINING //Sun’iy Intellekt Nazariyasi va Amaliyoti: Tajribalar, Muammolar va Istiqbollari. – 2024. – С. 143-147.

5. Xolboyevich A. S. et al. Pythonda chiziqli regressiya //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 233-238.

6. Akhatov A. et al. Correction of integrity violations in the video image area using the retinex algorithm //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – №. Special Issue. – С. 162-172.

7. Ruzikulovich T. M. et al. Neyron tarmoq algoritmlari yordamida murakkab fondagi belgilarni aniqlash algoritmlari //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 238-241.

8. Rustamovich A. A. et al. Konvolyutsion neyron tarmog ‘i asosida video tasvirdan yong ‘inni erta aniqlash //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 128-132.

9. Таджиев М., Ширинбоев Р., Сулаймонова М. Open cv kutubxonasida tasvirlarga rang modellari bilan ishlov berish //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 212-215.

10. Shirinboyev R. et al. Image segmentation by otsu method //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – №. Special Issue. – С. 64-72.

11. Тоджиев М., Улугмуродов Ш., Ширинбоев Р. Tasvirlar sifatiniyaxshilashning chiziqlikontrast usuli //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 215-217.

ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫЕ СРЕДСТВА ПРОЕКТИРОВАНИЯ МИКРОПРОЦЕССОРНЫХ СИСТЕМ

Абдурахманов Рустам Паттахович
ТУИТ, к.т.н., профессор
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189677

Абилова Райҳон Собиржон кизи
arf@inbox.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189677

Аннотация. *Данная работа посвящена анализу инструментальных средств, используемых при проектировании и моделировании различных цифровых устройств и систем, что обеспечивает эффективное использование учебного времени и повышает качество обучения специальных дисциплин в техни-ческих вузах. В работе проанализирован весь спектр аппаратно- программ-ных средств таких как редактор исходных текстов, компилятор,программ-ный симулятор, аппаратный эмулятор, программатор.*

Ключевые слова: *моделирование, обучение, виртуальная модель, симулятор, редактор, компилятор, программатор.*

Разработка эффективной методики обучения компьютерному моделированию в настоящее время является актуальной задачей в преподавании специальных дисциплин. Это связано, с одной стороны, с возрастанием роли вычислительного эксперимента при решении профессиональных задач специалистами различного профиля и, с другой стороны, с трудностями обучения моделированию традиционными методами, которые, главным образом, состоят в больших затратах времени на разработку и отладку обучающимися моделирующих программ, что приводит к неэффективному использованию учебного времени.Одной из важнейших и распространённых причин использования моделирующих программ в обучении является потребность моделирования или визуализации каких-либо динамических процессов, которые затруднительно или просто невозможно воспроизвести в учебной лаборатории или классе[1]. Такие программы, позволяющие моделировать эксперименты, используются для активизации поисковой деятельности обучаемых и в качестве самостоятельных программных средств, и в составе обучающих систем.Концептуальные (математические) модели играют фундаментальную роль в оценке производительности и надежности сложных систем. Математическое моделирование является современным средством оценки качества проектных решений для сложных систем, в том числе уже существующих систем в процессе их эксплуатации.В настоящее время существует несколько десятков специализированных имитационных систем моделирования и проблемно-ориентированных систем, и их число растет.

Наличие в микропроцессорной системе, как аппаратных, так и программных средств обуславливает ряд специфических особенностей, присущих процессу ее создания. Он существенно отличается от проектирования традиционных электронных устройств, не

предполагающих программное обеспечение. В отличие от традиционного подхода, когда все функции, возлагаемые на устройство, достигаются чисто аппаратными средствами и другой альтернативы просто не существует, при аппаратно-программной реализации выполняемые функции оптимально располагаются между программными и аппаратными средствами микропроцессорной системы.Виртуальная модель микропроцессорной системы отражает аппаратную и программную конфигурации, учитывает общую структуру и алгоритмы функционирования с учетом разделения аппаратно-реализуемых и программно-реализуемых функций. Такая модель дает возможность оценивать соответствие параметров и выходных характеристик требованиям технического задания, а также вносить изменения на этапе оптимизации и отладки управляющей программы виртуального устройства.Основными инструментами, используемыми для разработки микропроцессорных систем являются: редактор исходных текстов; компилятор; программный симулятор; аппаратный эмулятор; программатор. Хотя не все из этих инструментов являются необходимыми, и каждый из них может исполняться в отдельности, но их совместное использование упрощает разработку и отладку приложения[2,3].Симуляторы — это программы, которые выполняют откомпилированный программный код в инструментальном компьютере. Как правило, симулятор содержит в своем составе: компилятор; модель ЦПУ и памяти; модели встроенных периферийных устройств, таких, как таймеры, порты, АЦП, и системы прерываний отладчик. Симулятор должен уметь загружать файлы программ во всех популярных форматах, максимально полно отображать информацию о состоянии ресурсов симулируемого микроконтроллера, а также предоставлять возможности по симуляции выполнения загруженной программы в различных режимах. Возможности отладчика-симулятора проиллюстрируем на примере PDS-PIC (программное средство для написания и отладки программ, ориентированных на микроконтроллеры PICmicro).

Симулятор PDS-PIC имеет:

- встроенный многооконный редактор для написания исходных текстов программ. Редактор поддерживает операции с блоками текста, цветовое выделение синтаксических конструкций языка ассемблера;
- встроенный менеджер проектов, поддерживающий автоматическую компиляцию программ, написанных для макроассемблера pasm-pic фирмы Microchip;
- возможности отладки программ;
- симулируется работа всех встроенных в микроконтроллер периферийных устройств: таймеров, АЦП, системы прерываний, портов и т.д.;
- развитые средства моделирования "внешней среды;
- систему сохранения конфигурации окон и параметров настройки;
- возможность настройки цветов и шрифтов и других параметров для всех окон одновременно и для каждого окна в отдельности.

Очевидным недостатком программных симуляторов является то обстоятельство, что исполнение программ загруженных в симулятор происходит в масштабе времени, отличном от реального. Однако, низкая цена, возможность ведения отладки даже в условиях отсутствия макета отлаживаемого устройства, делают программные симуляторы весьма эффективным средством проектирования систем на основе микроконтроллеров.Избежать большого объема рутины и существенно повысить эффективность процесса разработки и

отладки, позволяют появившиеся и быстро завоевывающие популярность интегрированные среды разработки (IntegratedDevelopmentEnvironment, IDE).

Как правило, "хорошая" интегрированная среда позволяет объединить под одним крылом имеющиеся средства отладки (внутрисхемный эмулятор, программный симулятор, программатор), и при этом обеспечивает работу программиста с текстами программ в стиле "турбо".

Работа в интегрированной среде дает программисту возможность:

- использования встроенного многофайлового текстового редактора;

- диагностики выявленных при компиляции ошибок;

- организации и ведения параллельной работы над несколькими проектами. Менеджер проектов позволяет использовать любой проект в качестве шаблона для вновь создаваемого проекта; подключения к оболочке практически любых программных средств.

В настоящее время существует целый ряд симуляторов и интегрированных сред разработки для микроконтроллерных систем. Наиболее используемыми являются среды: MPLAB IDE, UMPS, MCStudio, Proteus и другие.

UniversalMicroprocessorProgramSimulator (UMPS) – этосимулятордлямикроконтроллеров 8051 [4,5]. UMPS обладает двумя интересными особенностями. Во-первых, способностью выполнять программный код для широкого набора микроконтроллеров. Во-вторых, UMPS использует уникальный метод симуляции приложений. Вместо разработки специального тестового файла UMPS позволяет создать виртуальную схему, с которой взаимодействует приложение. В данной программе помимо программирования, компиляции и отладки программы предоставляется возможность подключения к микроконтроллеру виртуальных ресурсов (светодиодов, кнопок, семисегментных индикаторов, LCD-дисплея и др.) Недостатки: ограничения на объем программного кода, дороговизна интегрированной среды. Достоинство – возможность визуализировать процесс пошаговой отладки программ за счет вывода на рабочий стол окна регистров и окна ресурсов.

MPLAB IDE –интегрированная среда разработки для микроконтроллеров PIC объединяет все необходимые инструментальные средства, позволяя минимизировать время изучения нового интерфейса. В состав MPLAB IDE входит: редактор исходного текста программы;организатор проекта; компиляторы исходного текста программы;программный симулятор микроконтроллеров;внутрисхемный эмулятор;программатор.

Программное обеспечение MPLAB-IDE предназначено для разработки программного обеспечения 8-разрядных микроконтроллеров PICmicro, работающее под управлением операционной системы Windows.

Симулятор MCStudio является инструментальным обеспечением процесса проектирования программ для широкого спектра моделей однокристальных микроконтроллеров семейства MCS-51. В MCStudio реализованы компоненты, которые поддерживают все этапы проектирования программного обеспечения. Система имеет удобный и интуитивно понятный интерфейсНедостаток MCStudio – отсутствие возможности использовать языки высокого уровня, ограниченное количество виртуальных ресурсов.

Интегрированная среда проектирования PROTEUS VSM позволяет достоверно моделировать и отлаживать достаточно сложные устройства, содержащие несколько

микроконтроллеров разных семейств в одном устройстве. **PROTEUS** содержит огромную библиотеку электронных компонентов. Отличительной особенностью этой среды от рассмотренных выше является широкие возможности разработки конструктивных элементов микроконтроллерных систем. Однако в состав среды не входит редактор и компилятор, чаще всего используется среда Vision, который включает полнофункциональный текстовый редактор, менеджер проектов и встроенную утилиту Make.

Инструментальные средства широко используются в учебном процессе при проведении занятий по предметам «Микропроцессорные системы» и «Встроенные системы», связанных с изучением микропроцессорной техники и цифровых систем управления.

Списоклитературы

1. Raj Kamal: Embedded Systems- Architecture, Programming and Design, TMH, New Delhi.

2. Design with PIC Microcontrollers by John B. Peatman, Pearson.

3.Пухальский Г.И. Проектирование микропроцессорных устройств: Учеб-
ное пособие для вузов / Г.И. Пухальский - СПб.: Политехника, 2001-544с.

4.Design with PIC Microcontrollers by John B. Peatman, Pearson.

5.Лю Ю-Чжен. Микропроцессоры семейства 8086/8088. Архитектура, программирование и проектирование микрокомпъютерных систем: пер. с англ. / Лю Ю-Чжен, Г. Гибсон. – М.: Радио и связь, 1987. – 512 с

УЛУЧШЕНИЕ КАЧЕСТВО И ПОВЫШЕНИЯ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ МОБИЛЬНЫХ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ СЕТЕЙ СВЯЗИ, С ПРИМЕНЕНИЕМ ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ УСТРОЙСТВ РЕГУЛИРОВКИ АНТЕНН.

Киямов Рахматулло Рузиевич.
Учитель с высшем образованием
Касбински техникум пищевой промышленности
raxmatullo.kiyamov@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14190053

Аннотация: *в статье рассмотрен улучшение качество связи и повышение пропускной способности мобильных телекоммуникационных сетей связи путем уменьшения радиуса действия зоны покрытия базовой станции и применение дополнительного устройства для регулировки направленности секторных антенн базовых станций, расположенных на горных местностях.*

Ключевые слова: *базовая станция, зона покрытия, плотность, оптимизация, уверенный прием, пропускная способность, производительность, антенна, волна, прямой, отраженный, регулировка, устройства.*

Введение

В направление мобильных телекоммуникационных сетей связи один из актуальных проблем является, уменьшения зоны покрытия базовых станций у которых высота подвеса антенн составляет более 500 метров от поверхности уровни моря, эти базовые станции, установленные на горных местностях. Почему требуется уменьшение зоны покрытия базовых станций. Как вам известно каждая базовая станция имеет свою определенную производительность и когда количества абонентов превышает производительность базовой станции то за счет перегруз появляются помехи, трески прерывание разговоров, отказ соединений и ряд других само подобных явлений на разговорном тракте. Для решения этой задачи требуется вести поисковые работы т.к. этот вопрос остается пока открытым.

Основная часть

Антенны с механическим наклоном не имеют возможность требуемого наклона, поэтому требуется искать других вариантов, для решения задачи по уменьшению зоны покрытия базовых станций, расположенных на горных местностях, высота подвеса антенн которых составляет более 500м от поверхности уровня мори, именно в этой работе найдена решения этой задачи.

В этой работе разработан способ уменьшение зоны покрытия базовой станции в зависимости место расположение БС, именно для базовых станций, расположенных на горных местностях, имеющих высоты подвеса антенн более 500 метров от поверхности уровня мори. На подобных БС радиус действия зоны покрытия достигает до70-80 км и это создает повышение производительности БС за счет увеличение количества абонентов.

Полезная для практики двухлучевая модель распространения волн (рис.1) основана на законах геометрической оптики.



Рис.1. Прямой и отраженный лучи в точке приема радиоволн

Суммарное поле в точке приема обусловлено влиянием прямого и отраженного от земной поверхности лучей:

$$E_{\Sigma} = E_{L} + E_{r}. \quad (1)$$

Из рис.6 видно, что разность хода прямого луча и луча с отражением от земли

$$\Delta = d'' - d' = \sqrt{(h_t + h_r)^2 + d^2} - \sqrt{(h_t - h_r)^2 + d^2}. \quad (2)$$



Рис.2. Мнимый излучатель поля

Если расстояние d >> h t + hr, то (1) может быть упрощено с помощью разложения Тейлора:

$$\Delta = d'' - d' \approx \frac{2 \cdot h_t \cdot h_r}{d}, \text{ м.} \qquad (3)$$

Тогда разность фаз прямого и отраженного лучей

$$\Delta\varphi = \frac{2\pi\Delta}{\lambda}. \qquad (4)$$

Суммарное электрическое поле в точке приема прямого и отраженного лучей при сделанных допущениях вычисляется по формуле

$$\left|E_\Sigma(d)\right| = \frac{2 \cdot E_0 \cdot d_0}{d} \cdot \sin\frac{\Delta\varphi}{2}, \frac{\text{В}}{\text{м}}, \qquad (5)$$

где E0 - напряженность поля, создаваемая излучающей антенной на некотором опорном расстоянии d0 в свободном пространстве (без учета отражения), В/М

На больших удалениях, когда выполняется соотношение

$$d >> \sqrt{h_t \cdot h_r},$$

$$\sin\frac{\Delta\varphi}{2} \approx \frac{\Delta\varphi}{2} = \frac{2 \cdot \pi \cdot h_t \cdot h_r}{\lambda \cdot d}. \qquad (6)$$

Суммарное поле в этом случае может быть аппроксимировано выражением

$$E_\Sigma(d) = \frac{2 \cdot E_0 \cdot d_0}{d} \cdot \frac{2 \cdot \pi \cdot h_t \cdot h_r}{\lambda \cdot d} \approx \frac{K}{d^2}, \frac{\text{В}}{\text{м}}, \qquad (7)$$

где К - константа, связанная с амплитудой поля E0, высотами подвеса антенн и длиной волны. Мощность, принятая приемной антенной, пропорциональна квадрату напряженность поля:

$$P_r = P_t \cdot G_t \cdot G_r \cdot \frac{h_t^2 \cdot h_r^2}{d^4}. \quad (8)$$

Из формулы (7) видно, что на больших расстояниях принятая мощность убывает обратно пропорционально d4 или 40 дБ на декаду. Это существенно быстрее, чем в свободном пространстве.

Таким образом для уменьшения зоны покрытия требуется уменьшить расстояние d для этого требуется наклонить направленную антенну так что зона покрытия базовой станции не превышал производительности данной базовой станции. Для этого на верхней части антенны устанавливается дополнительная устройства (Рис-3) с помощью которой появиться возможность регулировки направленности антенн до требуемой значении.



Рис-3. Дополнительная устройства для механического наклона антенн.

Где e1-идентична с размером устройства крепления антенны, e2 =40 см

После применение устройства был проведен анализ качественных показателей сети:

Доля неуспешных вызовов от общего количества вызовов, процентов не более 8 0,07

Доля вызовов, не удовлетворяющих нормативам по времени установления соединения, процентов не более5 1,46

Доля вызовов, окончившихся разъединением установленного соединения не по инициативе абонента, процентов не более5 0,01

Доля переданных образцов речи, не удовлетворяющих нормативам по качеству передачи речи, процентов не более8 2,04

Доля неуспешных попыток передачи данных от общего количества попыток передачи данных, процентов не более 15 0,14

Доля соединений с задержкой передачи IP-пакетов более 400 мс, процентов не более 10 4,36

Коэффициент потери IP-пакетов, процентов не более 3 0,10

Доля соединений для технологии UMTS/LTE/IMT-2020 со скоростью передачи данных менее 1 Мбит/с по направлению к абоненту, процентов не более 10 5,80

Качественные показатели не превышали норму.

Предложенный метод применение дополнительных устройств, для антенн базовых станций, расположенных на высоте более 500 метров от поверхности уровни моря, установленные на горных местностях можно применить для улучшения качество связи и повышение пропускной способности базовых станций.

Вывод

Таким образом улучшена качества связи и повышена пропускная способность каждой базовой станции. Уменьшив радиус действия зоны покрытия базовой станции до требуемого значения, достигнуто к лучшему качеству связи и повышение пропускной способности данной теле коммуникационной сети.

Литература

1.Бабков В.Ю., Вознюк М.А., Михайлов П.А. Сети мобильной связи. Частотно-территориальное планирование М. Горячая линия 2007. 98с

1. Грудинская Г.П. Распространение радиоволн. М.: Высшая школа, 1975. 280 с.
2. Черенкова Е.Л., Чернышев О.В. Распространение радиоволн. М.: Радио и связь, 1984. 272 с.
3. Грудинская Г.П. Распространение коротких и ультракоротких волн. М.: Радио и связь, 1981. 80 с.
4. Сети телевизионного и звукового ОВЧ ЧМ вещания: Справочник/ Под ред. М.Г.Локшина. М.: Радио и связь, 1988. 144 с.

SOTALI ALOQADA TAQSIMLANGAN ANTENNALAR TIZIMLARIDAN (DISTRIBUTED ANTENNA SYSTEM – DAS) FOYDALANISH

Aliyev Ulug‘bek Turayevich.
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
MAT kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14190079

Azimov Jasur Turg‘un o‘g‘li.
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14190079

Annotatsiya: *Zich shaharlarda, aholi zich joylashgan hududlarda, katta maydonlarda yoki keng qamrab olinadigan binolarda ishonchli sotali qamrab olish va uzluksiz bog‘lanishni ta’minlash uchun juda muhim bo‘lgan taqsimlangan antennalar tizimlaridan (Distributed Antenna System - DAS) foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, ishlash prinsipi va afzalliklari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sotali aloqa bazaviy stansiyalari evolyutsiyasi, Taqsimlangan antennalar tizimlari, DAS, Passiv DAS, Active DAS, Hybrid DAS.*

Kirish. Ushbu maqolada sotali aloqa bazaviy stansiyalari arxitekturasining eski tizimlaridan aktiv antennalargacha bo‘lgan evolyutsiyasini hamda taqsimlangan antenna tizimlari ko‘rib chiqiladi.

An’anaviy sotali tarmoqlar yoki radioulanish tarmoqlari (RAN) avtonom bazaviy stansiyalar (BS) to‘plamidan iborat. Har bir BS uncha katta bo‘lmagan sohani qamrab oladi, u holda BSlar guruhi katta hududni qamrab olishni ta’minlaydi. Har bir BS o‘z signallarini mobil terminalga uzatadi, undan signallarni qabul qiladi va foydali yuklamani mobil terminalga uzatadi, undan foydali yuklamani qabul qiladi. Har bir BS o‘z sovutish, teskari yo‘nalishda tashish tizimi, zahira batareyasi, monitoring qilish tizimi va boshqalarga ega. Spektral resurslarning cheklanganligi tufayli tarmoqlar operatorlari turli bazaviy stansiyalar orasida radiochastotalarni (RCh) “takroran” ishlatadi, bu qo‘shni sotalar orasida xalaqitlarni vujudga keltirishi mumkin. BS ning asosiy vazifasi mobil aloqani tashkil etish uchun belgilangan hududni radiosignal bilan qamrab olishni ta’minlashdan iborat.

Taqsimlangan antennalar tizimlari (Distributed Antenna System – DAS) markaziy manbadan signallarni butun zona bo‘ylab strategik joylashtirilgan bir nechta antennalarga tarqatish bilan simsiz qamrab olishni yaxshilaydigan texnologiya hisoblanadi. DAS tolali yoki koaksial kabellar orqali ulanadigan antennalar tizimidan iborat bo‘lib, ular qamrab olishni kengaytiradi va muayyan hududlarda signal sathini oshiradi. Bunday turdagi antennalar tizimlari bir xil qamrab olishni ta’minlash va jonsiz zonalarni bartaraf etish uchun strategik joylashtiriladi va foydalanuvchilarga ishonchli simsiz aloqani taqdim etadi.

Sotali aloqa bazaviy stansiyalari arxitekturasining evolyutsiyasi

Sotali aloqa uchun bazaviy stantsiyalarining evolyutsiyasi 30 yildan ortiq vaqtni egallaydi. Birinchi bazaviy stantsiyalari juda katta hajmli edi. Ular butun xonani egallashi va bir necha kub metr hajmga ega bo‘lishi mumkin edi. Har bir qabul qilish qurilmasi bir necha kilogramm og‘irlikdagi alohida bloklardan iborat edi. Ammo mikroelektronikaning rivojlanishi, yangi elementlar bazasi va yuqori unumdor protsessorlarning paydo bo‘lishi bilan bazaviy stantsiyalarning o‘lchamlari va vazni tez kichraya boshladi. Endi bazaviy stantsiya 19 dyuymli saytda bir nechta qurilmalarni egallashi va og‘irligi 10 kgdan kam bo‘lishi mumkin. Boshqaruv xonalarining qurilmalari va o‘lchamlariga, shuningdek sotali tarmoq elementlarini joylashtirish uchun antenna-machta konstruktsiyalarining yuk ko‘tarish qobiliyatiga talablarni sezilarli darajada kamaytiradigan yana bir yangilik bu qurilmalardan qabul qilish/uzatish antennalariga ulanadigan odatiy fider yo‘nalishlardan foydalanmaydigan taqsimlangan bazaviy stantsiyalardan foydalanish bo‘ldi.



1-rasm. Taqsimlangan bazaviy stantsiya

Bazaviy stantsiyalarining taqsimlangan qurilmalari asosida yotadigan asosiy printsip, bir tomondan, funktsiyalarni – signallarga ishlov berish, radioefirni boshqarish, texnologiyalarni ishlashini ta’minlash, shifrlash, kodlash alohida fizik elementlarga bo‘lish, boshqa tomondan efirga uzatishga tayyor yuqori chastotali radiosignalni shakllantirishdan iborat. Bundan tashqari, birinchi blok - boshqaruv moduli, odatda, boshqaruv xonasida ham o‘rnatiladi, ikkinchi blok - masofaviy radiomoduli - panelli antennalariga iloji boricha yaqinroq, ehtimol hatto bir xil ustunga joylashtiriladi. Boshqaruv moduli va radiomodul optik tolali aloqa liniyalari yordamida bir-birlari bilan bog‘lanadi.

Buning hisobiga oldingi avlod bazaviy stantsiyalariga xos bo‘lgan bir nechta muammolar bir vaqtning o‘zida yechiladi, ularda barcha funktsiyalar boshqaruv xonasidagi bitta korpusda to‘plangan. Birinchi navbatda, yuqori chastotali signalni shakllantirish va uni efirdan antennalargacha minimal masofada qabul qilish funktsiyalarini chiqarilishi tufayli, fiderda signalning so‘nishi masalasi yechiladi. Fider marshrutning katta uzunligi, ba’zan 100 metrga yetishi, shuningdek, bir nechta ulanishlarga ega bo‘lganligi sababli, signal 5-10 marta so‘nishi mumkin. Signalni uzatish nuqtai nazaridan, bu bazaviy stantsiya qurilmasining chiqishida ko‘proq nurlantirish quvvatini talab qiladi. Radioefirdan signallarni qabul qilish nuqtai nazaridan, bu mobil stantsiyadan shundoq ham kuchsiz signalning so‘nishiga va AFQ qurilmasiga qo‘shimcha kuchaytiruvchi elementlar - QShKlarni kiritish zarurligiga olib keladi.

Bundan yana bir afzallik shundan kelib chiqadi - AFQni qurishning arzonligi, chunki yarim kilometrgacha bo‘lgan 1 ta bazaviy stantsiya uchun qimmat mis kabelni sotib olishning zarurati bo‘lmaydi. Antenna-machta inshoatidagi yuklama ham sezilarli kamayadi, chunki radiobloklarning og‘irligi odatda yuqori chastotali mis kabelning og‘irligidan ancha kichik bo‘ladi.

Yana bir muhim afzallik bazaviy stantsiya apparatlari uchun xonaning o‘lchamiga bo‘lgan talabning kamayishi hisoblanadi. Barcha boshqaruv modullari 19 dyuymli telekommunikatsiya ustuniga o‘rnatish uchun mos formatda ishlab chiqariladi. Bu, o‘z navbatida, aksariyat hollarda aloqa qurilmalarini joylashtirish uchun standart konteynerlar o‘rniga ancha kichikroq va yengilroq

bo‘lgan ixcham termoshkaflardan foydalanishga imkon beradi. Bundan tashqari, yana bir muammo - qurilmani sovutishga bog‘liq muammo yechiladi, chunki asosiy issiqlik energiyasi aynan yuqori chastotali signalni shakllantirishga javob beradigan bloklardan chiqadi.

Zamonaviy antenna tizimlariga kiritilgan elektronika RCh signalni an’anaviy optik kabellar orqali Common Public Radio Interface (CPRI) protokoli yordamida uzoq masofalarga uzatilishi mumkin raqamli signalga o‘zgartira oladi. Bu yondashuv raqamli signallarga ishlov berishni bazaviy stantsiyalarning o‘zidan markazlashtirilgan bulutga o‘tkazish imkonini beradi. Operatorlar, albatta, bu yuqori darajadagi yo‘qotishlar bilan tavsiflanadigan yuqori quvvatli yuqori chastotali kabellarga bo‘lgan zaruratni butunlay yo‘q qilinishini qadrlashadi (2- va 3-rasmlar).

Chastotalar resursidan foydalanish samaradorligini oshirishga aktiv panjarali (Active Array Antenna AAA) intellektual keng polosali antennalar ham yordam beradi. Bunday antennalar MIMO texnologiyasining va nur shakllantirish (beamforming) samarali usullarini barcha afzalliklarini amalga oshiradi, bu tufayli tizim sotaga yuklama va trafik zichligi o‘zgarishiga bog‘liq ravishda yo‘naltirilganlik diagrammasini dinamik ravishda o‘zgartira oladi. Zamonaviy AAA yechimlari ikkita nurlar shakllantira oladi, bu qo‘shimcha sektorlashtirishni ta’minlaydi) va Nokia Siemens ma’lumotlariga ko‘ra, an’anaviy RRH (Remote Radio Head) yechimiga nisbatan sig‘imni 65%ga oshirish imkonini beradi.



2-rasm. Sotali aloqa bazaviy stantsiyalari antennalar tizimlarining evolyutsiyalanishi



3-rasm. Markazlashtirilgan BSlardan taqsimlangan BSlarga o‘tish

Active Antenna System (AAS) yechimida amalga oshirilgan bazaviy stansiya endi “antenna”ga (AASga) ulangan tizim moduli (SM) hisoblanadi. Gibrid variant ham mumkin, bunda aktiv antennalar tizimi bir nechta aktiv diapazonlarni (bir nechta aktiv diapazonlar qabul qilgichlari/uzatgichlarini) o‘z ichiga oladi va bir vaqtning o‘zida bir nechta passiv diapazonlarni ulashni ta’minlaydi.



4-rasm. Taqsimlangan BSlardan AAS yechimiga o‘tish

Taqsimlangan antennalar tizimlarining asosiy xususiyatlari. *Antennalar tizimi*: DAS tizimlarida strategik o‘rnatilgan zonalarga joylashtirilgan bir nechta antennalardan foydalaniladi. Bu antennalar sotali aloqani yaxshilash va radiosignallarning quvvatini oshirish uchun birgalikda ishlaydigan tizim vazifasini bajaradi.

Signallarni kuchaytirish: DAS tizimining asosiy vazifasi sotali aloqani yaxshilash va radiosignallarni kuchaytirish, qamrab olish zonasidagi foydalanuvchilar uchun barqaror va ishonchli bog‘lanishni ta’minlashdan iborat.

Keng masshtablarda qamrab olish: DAS belgilangan zonalar bo‘ylab keng masshtablardagi qamrab olishni ta’minlashga qaratilgan. Bu sotali aloqa va radiosignallarni

zonaning har bir burchagiga yetib borishini ta’minlash, jonsiz zonalar yoki kuchsiz bog‘lanishli zonalarni bo‘lmasligini anglatadi.

Barqaror qabul qilish: Qabul qilishdagi barqarorlik DAS tizimlarini joylashtirish uchun juda muhim hisoblanadi. Foydalanuvchilar qamrab olish zonasidagi joylashish o‘rnidan qat’iy nazar barqaror ulanishni kutadi va DAS tizimlari qamrab olgan butun zona bo‘ylab barqaror bog‘lanish uchun mo‘ljallangan.

Jonsiz zonalarni bartaraf etish: Xizmat ko‘rsatiladigan hudud bo‘ylab strategik taqsimlangan bir nechta antennalardan foydalanish orqali DAS tizimlari tashqi signallar manbalari, masalan, sotali aloqa minoralari va oxirgi foydalanuvchilar o‘rtasidagi jonsiz zonalarni samarali bartaraf etadi. Bu foydalanuvchilarning kuchli va ishonchli sotali aloqa va radiosignallariga ulanishini ta’minlaydi.

Taqsimlangan antennalar tizimining ishlash prinsipi. An’anaviy sotali aloqa tayanch stansiyalarining antennalariga ulanish qiyin bo‘ladigan muhitlarda, masalan, zich shahar joylarida yoki keng tarqalgan ochiq joylarda DAS tizimlari ishonchli vositachi sifatida ishlaydi. Strategik joylashtirilgan donor antennalaridan foydalanish bilan (5-rasm) DAS yaqin atrofdagi sotali aloqa tayanch stansiyalarining antennalaridan signallarni qabul qiladi. Signallar qabul qilingandan so‘ng, bu signallar binolar bo‘ylab strategik belgilangan zonaga joylashtirilgan antennalar tarmog‘i orqali binoga yo‘naltiriladi. Ham ko‘p qavatli ofisning yuqori qavatiga, ham stadion tribunalari ichiga DAS tizimlari sotali aloqa va radiosignallarni barqaror va kuchaytirilgan yetib borishini ta’minlaydi.



5-rasm. Taqsimlangan antennalar tizimlarining (DAS) antennalar tizimi orqali signallarni binoga yo‘naltirilishi

DAS qurilmalarining katta qismi bino ichida joylashgan. Bino ichidagi DAS tizimi quyidagi ikkita asosiy qismlardan iborat (6-rasm):

- signal manbai (Signal Source).
- tarqatish tizimi.

DAS tizimlari quyida keltirilgan uch usullardan biri orqali signallarni qabul qiladi:

- *Off-Air DAS*: Off-Air DAS yechimlari universal bo‘lib, an’anaviy sotali aloqa signallari qiyin o‘tadigan ichki muhitlarda juda muhim va kuchsiz yoki ishonchsiz qabul qilish signallariga ega bo‘lgan tashqi zonalarni qamrab oladi. Strategik joylashtirilgan donor antennalari yaqin

atrofdagi sotali aloqa tayanch stansiyalari antennalaridan signallarni qabul qiladi, bu esa foydalanuvchilarga bino ichida uzluksiz bog‘lanishni ta’minlaydi;

- *BTS (Base Transceiver Station) bilan integratsiyalangan DAS:* BTS bilan integratsiyalangan DAS yechimlari ichki va tashqi zonalarda yuqori unumdorlikdagi bog‘lanishni talab qiladigan muhitlar uchun mo‘ljallangan. Sotali aloqa operatorlarining tayanch stansiyalari bilan integratsiyalangan BTS DAS tizimlari hatto aholi zich joylashgan hududlarda ham binolar ichida ishonchli bog‘lanishni ta’minlaydi. BTS DAS tizimlari ichki zonada yuqori samaradorlikni berish bilan birga, tashqi zonada ishonchli qamrab olishni kengaytirish bilan ochiq tadbirlar yoki jamoat yig‘ilish joylari kabi hududlarda harakatlanayotgan foydalanuvchilarning bog‘lanish ehtiyojlarini qondiradi;



6-rasm. DAS tizimining tashkil etuvchilari (1 - signal manbai va 2 - tarqatish tizimi)

- *Kichik sotali DAS*: Kichik sotali DAS yechimlari moslashtirilishi bilan ichki va tashqi zonalarda bog‘lanish ehtiyojlarini qondiradi. Ilg‘or kichik sotali texnologiyadan foydalanish bilan bunday tizimlar binolar ichida lokallashtirilgan sotali signallarini generatsiyalaydi, bu esa foydalanuvchilarga bino ichidagi doimiy bog‘lanishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, konsertlar yoki gavjum chorrahalar kabi tashqi zonalarda Small-Cell DAS qamrab olishni kengaytirish va o‘tkazish qobiliyatini oshirish bilan bog‘lanish muammolarini samarali yechadi. Kichik sotali texnologiyani strategik qo‘llash orqali bu yechimlar foydalanuvchilar uchun joylashish o‘rndan qat’i nazar, bino ichida yoki tashqarisida uzluksiz sotali aloqani ta’minlaydi.

Tarqatish tizimi (Distribution System). DAS tizimlari har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega va muayyan muhit uchun mos keladigan quyidagi turli xil tarqatish texnologiyalaridan foydalanadi:

Passiv DAS: Bu texnologiya signallarni belgilangan zona bo‘ylab tarqatish uchun koaksial kabellar va radiochastotaviy komponentlarga asoslanadi (7-rasm). O‘zining soddaligi va tejamkorligi bilan ma’lum bo‘lgan passiv DAS tizimlari signallarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarqatish yetarli bo‘ladigan muhitlar uchun ideal hisoblanadi. U aktiv tizimlarning murakkabligiga ega bo‘lmasdan ishonchli bog‘lanishni ta’minlash bilan ichki va tashqi zonalar uchun samarali yechimni taqdim etadi.



7-rasm. Passiv DAS

Aktiv DAS: Aktiv DAS radichastotalar signallarini tarqatish uchun optik yoki Ethernet signallariga o‘zgartirishga ega yanada murakkab yondashuv hisoblanadi (8-rasm). Aktiv DAS tizimlari qimmatroq bo‘lsa-da, ular ishonchli bog‘lanish va qamrab olishni oshirishni ta’minlaydi, bu ularni yuqori zichlikdagi ichki va tashqi zonalar uchun ideal qiladi.



8-rasm. Aktiv DAS

Gibrid DAS: Passiv va aktiv tizimlarning eng yaxshi xususiyatlarini birlashtiradigan Hybrid DAS tizimlari yaxshilangan unumdorlikka ega iqtisodiy jihatdan samarali yechimlarni taqdim etadi (9-rasm). Har ikkala texnologiyadarning elementlaridan foydalanish Hybrid DAS signallarning tarqalishini optimallashtiradi. Ham ichki zonalarda, ham tashqi zonalarda Hybrid DAS tizimlari arzonlik va funksionallik o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi.



9-rasm. Gibrid DAS

7. Goldwasser, S., & Bellare, M. (2008). *Lecture Notes on Cryptography*. MIT Press. 125-237.
8. Parker, S. (2019). "Satellite Communication Security and the Role of Cryptography". *Journal of Telecommunications and Information Technology*, 3, 325-227.

ТАҚСИМЛАНГАН БУЛУТЛИ МАЪЛУМОТ МАРКАЗИНИНГ ҲИСОБЛАШ РЕСУРСЛАРИНИ ЖОЙЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ЕЧИМИ

Абдуллаев Миржамол Миркамилович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети доценти
mirjamol1112@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195183

Аннотация: *Ушбу мақолада тарқоқ жойлашган маълумотларни қайта ишлаш марказининг ҳисоблаш ресурсларни жойлаштириш масалалари кўриб чиқилган. Мақола анъанавий маълумот қайта ишлаш марказларининг параметрларини сезиларли даражада яхшилашга, ускуналарининг имкониятларини тўлиқ амалга оширишга, сармояларни қисқартиришга, жорий этиш вақтини ва энергия сарфини камайтиришга, мавжуд ресурслардан фойдаланишини кўпайтириш ва тизимни изоляция қилиш муаммосини ҳал қилиш имконларини беради.*

Калит сўзи: *булутли ҳисоблаш технологиялари, виртуал ресурслар, маълумотларни қайта ишлаш марказлари, виртуал машиналар.*

Кириш: тақсимланган булутли маълумотлар марказининг тарқоқ ресурсларини кенг доирадаги фойдаланувчиларга тақдим этиш марказлашган ҳолда амалга оширилади, бунда ҳар бир фойдаланувчига ҳар хил турдаги ахборот ва ҳар хил қувватдаги ҳисоблаш ресурси керак бўлиши мумкин. Талаб этилган қувватдаги ресурсни аниқлаш, шакллантириш ва тақдим этиш бир мунча вақт керак бўлиши мумкин.

Фойдаланувчиларнинг сони кўпайиб, юклама ҳажми юқори бўлган ҳолларда, бу вақт тақсимланган булутли маълумотлар марказининг фойдали вақтидан унумсиз фойдаланишга олиб келиши мумкин, шунинг учун олдиндан маълум бир берилган қувватларга эга бўлган чекланган сонли виртуал ресурсларни яратиш ва уларни тақсимланган булутли маълумотлар маркази жисмоний серверларига жойлаштириш зарурати туғилади.

Натижа: Виртуал машиналарни бир-бири билан боғлаш ёки уларни ажратиш негизида талаб этилган қувватга эга булутли серверни шакллантириш тақсимланган булутли маълумотлар маркази даромадини маълум даражада ошишига олиб келади. Аммо, бу ҳолда, булутли серверни яратиш учун иш ҳолатида бўлмаган виртуал машинани топиш, уни ушбу булутли серверга қўшиш, турли хил жисмоний компьютерларда сақланаётган виртуал машиналарнинг биргаликдаги ишлашини ташкил этиш учун қўшимча вақт талаб этилади. Иш ҳолатида бўлмаган виртуал машина тақсимланган булутли маълумот марказининг мутлақо бошқа сегментидаги жисмоний компьютерда жойлашган бўлиши мумкин.

Компьютернинг қуввати қанчалик катта бўлса, бир хил вазифани бажа-риш учун кам қувватли компьютерда сарфланадиган вақтга нисбатан камроқ вақт кетади. Агар юқори қувватли компьютерда нисбатан “содда” сўров бажарилаётганида тизимга катта қувватли ҳисоблаш ресурсни талаб қиладиган сўров келиб тушса, айни пайтда кучлироқ компьютер кам қувват талаб қиладиган вазифани бажариш билан бандлиги туфайли у нисбатан кучсиз компьютерга йўналтирилади. Натижада, ушбу сўровни бажариш учун юқори қувватга эга компьютерда бажарилганига қараганда нисбатан кўпроқ вақт оралиғида амалга оширилади.

Бундай омилларнинг олдини олиш учун қуйида бир нечта маълум бир қувватга эга булутли (виртуал) серверларни олдиндан яратиш ва уларни жис-моний компьютерларнинг имкониятларини ҳамда тақсимланган булутли маълумотлар маркази телекоммуникация тармоғи алоқа каналларининг ўтказиш қобилияти ҳамда юкланганлигини ҳисобга олган ҳолда жойлаштириш таклиф этилади. Бунда, ҳар бир сўров учун алоҳида виртуал ресурс яратилмайди, сўровга талабига қараб олдиндан шакллантирилган виртуал ресурс тақдим этилади.

Тақсимланган булутли маълумотлар маркази марказий бошқарув тизими орқали ҳисоблаш ресурсларини тақдим этиш жараёни қуйидаги ҳолатлар учун тажриба синов ўтказилди:

1 ҳолат -тақсимланган булутли маълумотлар марказининг 12 та автоном булутли маълумот марказларининг ҳисоблаш ресурслари категориялар асосида олдиндан виртуал ресурслар ташкил этилмасдан тўғридан-тўғри жисмоний ҳисоблаш ресурслари тақдим этилди.

2 ҳолат- авалдан маълум бир (3, 5, 7, 9) категорияли виртуал ресурслар шакллантирилди, улар тақсимланган булутли маълумотлар маркази таркибидаги автоном булутли маълумотлар маркази жисмоний компьютерларига ўрнатилади, бошқарув тизими сўровда талаб этилган ресурс қайси категорияли виртуал ресурсга мансублигини, қайерда сақланаётганлигини, унга узатиш учун виртуал канални аниқлайди ва сўровни унга жўнатади.

Мухокама: Усулни амалга ошириш учун қуйидагилар маълум бўлиши керак: телекоммуникация тармоғининг топологик тузилиши, унинг воситалари билан боғланган автоном маълумот марказларининг М (м=1,2,…,М) жойлашув координаталари; автоном

маълумот марказлари жисмоний серверининг параметрлари (процессорининг ишлаш тезлиги, яъни ҳисоблаш қуввати ёки сўровларга хизмат кўрсатиш интенсивлиги, оператив ва доимий хотира ҳажмлари ва бошқалар); телекоммуникация тармоғи алоқа каналларининг сиғими μ_{ij}; тақсимланган булутли маълумотлар маркази (ТБММ) марказига келадиган сўровларнинг интенсивлиги, яъни ташқи трафикнинг умумий интенсивлиги γ; иқтисодий кўрсаткичлар.

Демак, тақсимланган булутли маълумотлар марказининг автоном маълумот марказларидаги жисмоний серверлари асосида ҳар хил қувватли виртуал (булутли) серверларни яратиш ва жойлаштириш талаб қилинади. Бунда булутли серверларнинг умумий қуввати жисмоний компьютер тизимларининг умумий кўрсаткичларидан ошмаслиги керак, яъни

$$\sum_{i=1}^{K} p_i^b \le \sum_{j=1}^{M} p_j^f \qquad (1.1)$$

бу ерда p_i^b - i - булутли сервернинг қуввати, p_j^f - j жисмоний сервернинг қуввати; K,M - мос равишда тақсимланган булутли маълумотлар марказидаги виртуал ва жисмоний серверларнинг умумий сони.

Тақсимланган булутли маълумотлар маркази ҳамма жисмоний компьютерлари асосида ҳар бири p_k қувватга эга К виртуал серверларини яратишни қуйидагича амалга ошириш таклиф этилади.

1. Тақсимланган булутли маълумотлар маркази жисмоний ҳисоблаш ресурсларининг умумий қуввати P ҳисобланади.

$$P = \sum_{s=1}^{S} \left(\sum_{h=1}^{H_s} p_h \right) \qquad (1.2)$$

бу ерда H_s – s сегментдаги жисмоний компьютерлар сони; p_h– s сегментдаги h жисмоний компьютернинг қуввати; $\sum_{h=1}^{H_s} p_h$ – s сегментдаги жисмоний компьютерлар қувватларининг йиғиндиси.

2. Фойдаланувчи сўровларининг хусусиятларини таҳлил қилиш нати-жасида виртуал машина категорияларининг сони K аниқланади. Умумий ҳолда K = 1,2,3,..., $\sum_{s=1}^{S} H_s$ қийматларга тенг бўлиши мумкин. K=1 бўлганида тақсимланган булутли маълумотлар маркази таркибидаги ҳамма жисмоний ҳисоблаш ресурсларининг умумий қуввати P аниқланади, унинг асосида қуввати минимал қийматга P_{vm} тенг N_{vm} виртуал машиналар шакллантирилади ва улар тақсимланган булутли маълумотлар маркази жисмоний компьютерларига жойлаштирилади.

Амалиётда виртуал машина категорияларининг сони чегаравий қийматларда бўлмайди, улар оралиқ қийматларда бўлади. Шу билан бирга, маълум бир k категорияли виртуал машинанинг сони бир нечта q_k бўлиши ҳам табиий, бунда тақсимланган булутли маълумотлар маркази умумий ҳисоблаш ресурси қуйидагича ифодаланади

$$P = \sum_{k=1}^{K} (qp)_k \qquad (1.3)$$

бунда $q_k - p_k$ қувватли виртуал машиналар сони.

3. Ҳар бир категориядаги виртуал машинанинг қуввати ва сони ҳисобланади. Дастлаб минимал қувватга эга виртуал машинанинг қуввати аниқланади. Буни қуйидаги ифода ёрдамида ҳисоблаш мумкин

$$p_{v,1} = \frac{P}{\sum_{s=1}^{S} H_s} \qquad (1.4)$$

Яратилаётган виртуал машиналарнинг қувватлари минимал қувватдан бошлаб кўпайиши тартибида шакллантирилади, яъни $p_1 < p_2 < p_3 ... p_k$. Бу-нинг учун қуйидаги тенглама тузилади:

$$P = n_1 p_{v,1} + n_2 (p_{v,1} + \Delta) + n_3 (p_{v,1} + 2\Delta) + ... + n_k [p_{v,1} + (k-1)\Delta] \qquad (1.5)$$

n_k – k категорияли виртуал машинанинг сони. Навбатдаги виртуал машинанинг қуввати олдингисига Δ қўшилиши натижасида шаклланади, унинг қиймати тенглама ечими натижасида аниқланади.

Ҳар бир категорияли виртуал машинанинг сони ТБММ қандай турдаги масалаларни ечиш учун яратилаётганлигини таҳлил қилиш асосида эмпирик равишда берилади. Агарда фойдаланувчилар томонидан кам қувватли машинага эҳтиёж катта бўлса кам қувватли виртуал машиналар сони катта ва юқори қувватли виртуал машина (ВМ) ларнинг сони нисбатан камроқ қилиб белгиланади ёки тескари вариант танланади. Аксарият ҳолларда кам ва юқори қувватли виртуал машиналарга талаб нисбатан камроқ бўлади. Ишда айнан шу вариант асосида ҳар хил категориядаги виртуал машиналар сонини белгилаш қабул қилинди. Ҳар бир категориядаги виртуал машинасони ишончлиликни таъминлаш мақсадида 2 тадан кам бўлмаган ҳолда танланади. Категория ошган сари виртуал машиналарнинг қуввати Δ қийматига ошиб боради, лекин уларнинг сони олдин кўпаяди, маълум бир категориядан бошлаб камаяди. Бошқа сўзлар билан, категориялар сонларининг тақсимланиши тасодиф сонларнинг нормал тақсимоти негизида амалга оширилади. Бунда нормал тақсимот математик кутилмасининг қиймати ушбу ифода ёрдамида ҳисобланади.

$$K_{MK} =]K/2[+ 1 \qquad (1.6)$$

($]K/2[$ - ушбу сонга яқин энг кичик бутун сон) ва қуйидаги жадвал яратилади.

1.1 – жадвал

K	1	2	3	...	$K_{мк}$	$K_{мк}$ +1	$K_{мк}$+2	…	K
n	2	3	4	…	n_m	n_m -1	n_m -2	…	2

Категория ошган сари виртуал машиналарнинг қуввати Δ ошиб боради, лекин уларнинг сони $K_{мк}$ га қадар ошиб боради кейин камаяди.

4. Категорияларда шакллантирилган виртуал машиналар ТБММ теле-коммуникация тармоғи алоқа каналларининг ўтказиш қобилиятини ҳамда сегментлар жисмоний компьютерларининг қувватларини ҳисобга олган ҳолда уларга ўрнатилади.

ТБММ нинг умумий ҳисоблаш ресурсларини шу тарзда тақсимлаш, яъни виртуал машиналар тоифалари, ҳар бир тоифадаги виртуал машиналар сонларини нормал тақсимот

қонуни асосида аниқлаш, уларни телекоммуникация тармоғи параметрларини ҳисобга олган ҳолда АБММ ларига жойлаштириш, кўп мурожаат қилинадиган виртуал машина тоифаларини ТБММ бошқарув маркази (булут контроллери) "яқинида" жамлашга имкон беради.

Виртуал серверларни шакллантиришнинг тавсифланган усули катта ўлчамдаги тақсимланган булутли маълумот марказлари учун ҳам қийинчи-ликсиз амалга оширилиши мумкин.

ТБММ бошқарув маркази киришига тушаётган сўровларнинг йиғинди-си умумий ташқи трафик γ ни ташкил этади, улар томонидан талаб этилаётган ҳисоблаш ресурсларининг қуввати қуйидагича тақсимланган:

γ_1 – 2Гц ва ундан кам қувватли ҳисоблаш ресурсини P_i^1 талаб қилувчи сўровлар интенсивлиги, $P_i^1 \le 2$Гц, бундай сўровлар пайдо бўлиш эҳтимоли f_1;

γ_2 – 2Гц дан баланд ва 6 Гц дан кам қувватли ҳисоблаш ресурсини талаб қилувчи сўровлар интенсивлиги $2_{\text{Гц}} < P_i^2 \le 6_{\text{Гц}}$, бундай сўровлар пайдо бўлиш эҳтимоли f_2;

$$\gamma_3 - 6_{\text{Гц}} < P_i^3 \le 9_{\text{Гц}}, (f_3); \qquad \gamma_4 - 9_{\text{Гц}} < P_i^4 \le 12_{\text{Гц}} (f_4);$$

$$\gamma_5 - P_i^5 \ge 12_{\text{Гц}} (f_5); \qquad \gamma = \sum_{i=1}^{5} \gamma_i : \gamma_i \ge 0; \sum_{i=1}^{5} f_i = 1.$$

Тажриба синов жараёнлари оммавий хизмат кўрсатиш тизимиининг ҳамма босқичларида стационар ҳолат бажарилишини мунтазам назорат қилган ҳолда амалга оширилади, яъни $\sum \gamma_i \le \sum \mu_k$; $\left(\sum \gamma_j + \sum \gamma_i\right) \le \mu_x$.

ТБММ доирасидаги АБММ жисмоний ҳисоблаш ресурслари негизида яратилган виртуал машиналарнинг ресурсларини ТБММнинг умумий юкланганлик даражаси бўлганидаги холат учун тақсимоти амалга оширилган тажриба – синов натижалари мазкур тадқиқот ишининг илова қисмида келтирилган.

Олинган натижалар негизида яратилган диаграммаси 1.1 - расмда келтирилган – биринчи ҳолатда ТБММ сўровларини ҳар хил категориялар шароитида бажарилиши учун сарфланадиган вақтнинг юкланганлик даражасига боғлиқлик ҳолати тасвирланган.



1.1- расм. ТБММ сўровларини ҳар хил категориялар шароитида бажарилиши учун сарфланадиган ўртача вақтнинг юкланганлик даражасига боғлиқлигини кўрсатадиган диаграмма.

Хулоса: Диаграммада, ТБММнинг дислокацияланган жисмоний ҳисоблаш ресурсларини мазкур ишда таклиф этилган вариант (яъни, категорияларга (К=3,5,7,9) бўлиб, виртуал ҳисоблаш ресурсларини шакллантириш) асосида сўровларни бажариш учун сарфланадиган вақт, ҳисоблаш ресурсларини битта категория (яъни, К=1) негизида тақдим этиш вариантида сарфланадиган вақтга нисбатан кам сарфланиши кўрсатиб берилган. Категория сони ошган сари умумий сарфланадиган вақтнинг Т қиймати камайиб боради. Бунга сабаб, сўровларда талаб этилган ҳисоблаш ресурс ТБММ таркибидаги маълум бир категория негизида шакллантирилган виртуал ресурслар орасида мақбул тақсимланади, оқибатда *Т* нинг умумий қиймати нисбатан камаяди.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Khujamatov H, Davronbekov D.,Khayrullaev A., Abdullaev M., Mukhiddinov M.,Cho Jinsoo. ERIRMS Evaluation of the Reliability of IoT-Aided Remote Monitoring Systems of Low-Voltage Overhead Transmission Lines. “Sensors ” Jurnal DOI 10.3390/s24185970

2. T. N. Nishanbayev and M. M. Abdullayev, "Evaluating the effectiveness of a software-defined cloud data center with a distributed structure," 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2020, pp. 1-5, doi: 10.1109/ICISCT50599.2020.9351466.

3. Baltayev, J.-S., Boltayev, S. Model and Methods for Detecting Undetected Errors Using a Signature Analyzer, Lecture Notes in Networks and Systems volume 509, pp 1101 – 1110 DOI:10.1007/978-3-031-11058-0_112

4. Djurayev, R.X., Baltayev, J.B., Xasanov, O.A., Increasing the efficiency of diagnosing microprocessor devices based on multichannel signal analysis means, 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies, ICISCT 2020, 2020, 9351426, DOI:10.1109/ICISCT50599.2020.9351426

5. Abdullayev M., Khujamatov Kh., Khasanov D., Algorithm for Provision of Distributed Cloud Data Center Resources Based on Central Management System. Jurnal Lecture Notes in Networks and SystemsТом 912 LNNS, 224 – 232 bet.

6. Djurayev, R.X., Baltayev, J.B., Badalov, J.I., Study of the method of compact testing of technical means of data transmission networks, 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies, ICISCT 2020, 2020, 9351512, DOI:10.1109/ICISCT50599.2020.9351512

ISHSIZLIK DARAJASINI KAMAYTIRISHDA INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ISTIQBOLLARI

Akhmadaliyeva Nikholakhon
Tashkent State University of Economics
PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195866

Annotatsiya: *Bugungi globallashgan iqtisodiyotda inson kapitali – ya’ni malaka, bilim, salomatlik va qobiliyatlar – har qanday mamlakatning asosiy aktivlaridan biri hisoblanadi. Ishsizlikni kamaytirishda inson kapitaliga investitsiya jalb etish muhim o‘rin tutadi, chunki bu investitsiyalar nafaqat shaxsiy rivojlanishni, balki iqtisodiy o‘sishni va ijtimoiy farovonlikni ham oshirishga yordam beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar, avvalo, jamiyatning mehnat resurslarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalishdagi investitsiyalar ishchilarni zarur malakalar bilan ta’minlaydi va ularni bozor talablariga moslashtiradi. Bu esa iqtisodiy jihatdan mustahkam va uzoq muddatli barqarorlikka erishishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, yangi ish o‘rinlarini yaratishga va mavjud bo‘sh ish o‘rinlarini samarali to‘ldirishga yordam beradi. Biroq, inson kapitaliga sarmoya kiritish faqatgina ta'lim va malaka oshirish bilan cheklanmaydi. U, shuningdek, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va madaniy rivojlanishni ham qamrab oladi. Ushbu sohalarga sarmoya kiritish, odamlarning ishchi kuchi sifatida uzoq vaqt faol bo‘lib qolishini va mehnat unumdorligini oshirishini ta’minlaydi. Ushbu maqolada inson kapitaliga investitsiyalarning ahamiyati, yo‘nalishlari va ishchi kuchini rivojlantirishda qanchalik samarali ekanligi haqida so‘z yuritamiz.*

Tayanch so‘zlar. *Ishsizlik, inson kapitali, investitsiya, ta’lim, samadorlik, iqtisodiy faol aholi, ish o‘rini, kambag‘allik darajasi.*

Kirish

Inson kapitaliga sarmoya kiritish ishsizlikni bartaraf etish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda hal qiluvchi yondashuvdir. Ta’lim, sog‘liqni saqlash va malaka oshirishni o‘z ichiga olgan inson kapitaliga investitsiyalar ishchi kuchining imkoniyatlarini mustahkamlaydi, odamlarni mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablariga ko‘proq moslashtiradi va samaradorlikni oshiradi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali mamlakatlar zamonaviy iqtisodiyotlarning rivojlanayotgan talablari uchun yaxshiroq jihozlangan, bardoshli ishchi kuchini yaratishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi, chunki malakali va ma’lumotli ishchi kuchi ko‘proq diversifikatsiyalangan tarmoqlar va yuqori maoshli ish o‘rinlarini jalb qiladi.

Mehnat bozori dinamikasini sezilarli darajada o‘zgartirgan jadal texnologik taraqqiyot va globallashuv sharoitida inson kapitaliga investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyoj ayniqsa muhimdir. Inson kapitaliga investitsiyalarni jalb qilish davlat-xususiy sheriklik, maqsadli subsidiyalar va ta’lim natijalarini sanoat ehtiyojlariga moslashtiruvchi dasturlar kabi faol siyosat va rag‘batlarni talab qiladi. Ushbu tashabbuslar nafaqat ishsizlikni kamaytiradi, balki odamlarga iqtisodiyotda ishtirok etish va hissa qo‘shish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni taqdim etish orqali yanada inklyuziv va adolatli jamiyatga hissa qo‘shadi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda O‘zbekistonda Yil boshidan ishsiz aholi soni 148 ming nafarga kamayib, 876 ming nafarni tashkil etmoqda. Bandlik vazirligi O‘zbekiston mehnat bozoridagi ko‘rsatkichlarga oid ma’lumotlarni taqdim etdi. Joriy yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, mamlakat aholisi 37,2 mln nafarni tashkil etadi. Shundan 41%i yoki 15 mln 089 ming nafari iqtisodiy faol aholi hisoblanadi.

O‘z navbatida, bu fuqarolarning 14 mln 213 ming nafari (94%i) iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mehnat qilmoqda. Shu bilan birga, 1,9 mln (13,6%) nafar fuqaro xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirmoqda. Bundan tashqari, mamlakat bo‘yicha ishga joylashishga muhtoj aholi soni 876 ming nafar bo‘lib, ular yil boshidan 148 ming nafarga (1,024 mln) kamaygan. 2023-yilda mamlakatda ishsizlik darajasi 6,8%ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 2,1%ga kamaygandi. Mamlakatda kelgusi uch yilda kambag‘allik darajasini 11%dan 7%ga qisqartirish rejalashtirilgan.

Joriy yilning 11-sentabr kuni Shavkat Mirziyoyev raisligida kambag‘allikni qisqartirish tizimini yaxshilashga qaratilgan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilgandi. Unda kambag‘al oilalarning 35% ishga layoqatli a’zolarida bilim va ko‘nikma kamligi qayd etilgandi [1]. Shu sababli ham, ishsizlikni kamaytirishda hamda mamlakat iqtisodiy ahvolini mustahkamlashda inson kapitali muhim hisoblandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

Inson kapitali hamda uni rivojlantirishda investitsiyalarning zaruriyati, inson kapitalini rivojlantirish orqali ishsizlikni kamaytirish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish ko‘plab iqtisodochilar tomonidan ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganilgan bo‘lib mazkur tadqiqotlar muhim ilmiy yondashuvlarga egadir.

S.Fisher, R. Dornbush, K. Shmalenzi inson kapitali “insonda o‘z aksini topgan daromad olib kelish o‘lchovidir” deb ta’riflashadi [2]. Nazariyada keltirilgan fikr natijasida shuni xulosa qilsak, inson kapitali egasi doimiy aktiv manba sifatida xizmat qiladi.

S.A.Kurganskiy ta’rifni ifodalanishini biroz o‘zgartirib: “inson kapitali inson tomonidan to‘plangan va investitsiya natijasida shakllangan qobiliyat va sifatlar o‘lchovidir, ulardan maqsadli foydalanish mehnat samaradorligini va daromadni oshishiga olib keladi” [3] - deydi. Demak, keltirilgan taklifdan xulosa qilsak, samaradorlikka erishish hamda daromadni oshirishda inson kapitalidan maqsadli foydalanish orqali yuqori unumdorlik beradi.

I.V.Ilinskiy inson kapitali ta’lim kapitali, sog’liq kapitali va madaniyat kapitalida iborat deb hisoblaydi [4]. Iqtisodchi olim inson kapitalini asosiy elementlarini o‘zining qarashlarida aniq tavsiflab berdi.

Innovatsiya va bilimga asoslangan iqtisodiy rivojlanish nazariyasi 1926-yilda Yozef Alois Shumpeter tomonidan ishlab chiqilgan edi. U o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” nomli asarida “iqtisodiy o‘sish” va “iqtisodiyotning rivojlanishi” tushunchalarining chegarasini ko‘rsatib berdi. Y.Shumpeter fikriga ko‘ra, iqtisodiyotning rivojlanishi – bu raqobatda ustunlikni va texnologik taraqqiyotni ta’minlovchi ilm-fan yutuqlarini amalga oshirishning maxsus tashkiliy shaklidir. Y.Shumpeter innovatsiyalarning asosiy sub’ektlari deb zarur qobiliyat va bilimlarga ega bo‘lgan tadbirkorlarni ataydi [5]. Aytish mumkinki, Y. Shumpeter o‘zining nazariyasida shunday g‘oyani mantiqan asosladiki, unga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish, asosini inson, xususan inson kapitali tashkil etadigan innovatsiya va novatorlik g‘oyalarisiz bo‘lishi mumkin emas.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Ilmiy maqolada ishsizlik darajasini kamaytirishda inson kapitaliga investitsiyalarni jalb etish istiqbollari, markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar miqdorini tahlil qilish, tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda qiyoslash, deduksiya, induksiya, taqqoslama tahlil, statistik tahlil keng foydalaniladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Inson kapitalini rivojlantirish har bir davlatning yuksalishi va gullab-yashnashi uchun zarurdir. O‘zbekiston sharoitida inson kapitalidan samarali foydalanish mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu dissertatsiya O‘zbekistonda inson kapitaliga investitsiya manbalarini kengaytirish va jalb etish samaradorligini oshirish istiqbollarini o‘rganishga qaratilgan. O‘zbekiston so‘nggi yillarda iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi, bu xorijiy investorlar va xalqaro tashkilotlarning e’tiborini tortmoqda. Shunga qaramay, mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish va uning to‘liq salohiyatidan foydalanishda hali ham muammolar mavjud. Shu sababli ham, O‘zbekistonda inson kapitaliga investitsiyalarning hozirgi holati hamda unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilib, investitsiyalar manbalarini kengaytirish va jalb etish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekistonda inson kapitaliga qo‘yilmalarning hozirgi holati, duch kelayotgan muammolar va takomillashtirishning potentsial yo‘nalishlari to‘g‘risida har tomonlama tushuncha beradi. Tahlil inson kapitali investitsiyalari va jalb etilishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlaydi hamda O‘zbekistonda investitsiya manbalarini kengaytirish va jalb etish samaradorligini oshirish strategiyalarini taklif qiladi.

Mamlakatimizda davlat hamda aholi tomonidan inson kapitalini oshirishga doir bir qator sa’y harakatlar amalga oshirilmoqda. Kiritilayotgan investitsiyalar o‘z natijalarini bermoqda. Innovatsion inson kapitali yaratish uchun mamlakatning har bir oilasi va unda tug‘ilgan farzandlarni kichik yoshidan boshlab bilim olishga yo‘naltirish, qalbida ilmga havas, mehnatga muhabbat uyg‘otish, ularni eng yangi texnologiyalar, jahon standartlari darajasidagi darslik va qo‘llanmalar bilan o‘qitish, o‘rgatish lozim.

O‘zbekistonda ““2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar” [6] doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida hamda “Ilm-fanga asoslangan sohalarda bandlik” va “Oliy ma’lumotli ayollarning bandligi” indikatorlarida 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirishga erishish hisoblandi”[7]. Shu sababdan, gender tengligini ta’minlash, xotin-qizlarning ta’lim olishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida tadbirkorlikka jalb qilingan ayollarga 14 foiz miqdorda imtiyozli kredirlar hamda oliy va professional ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan xotin-qizlarga foizsiz kreditlar berish taklif etilib, asbob-uskuna, mehnat qurollari (tikuvchilik, to‘qimachilik, pazandachilik, soch turmaklash, duradgorlik, chilangarlik, qurilish, payvandash) va boshqa sohalarda ishlatiladigan mehnat qurollarini va apparatlarini xarid qilish uchun imtiyozli 14 foizlik stavkada imtiyozli davr bilan kreditlar ajratish orqali xotin-qizlarning ishsizlik darajasini kamaytirishga, ularning jamiyatdagi o‘rnini oshirishga erishildi (1-jadval).

1-jadval

“Ayollar daftari”ning tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlarga ajratilgan kredit mablag‘lari

№	Tuman (shahar) nomi	“Ayollar daftari“ga kiritilgan, kredit ollish istagida bo’lgan xotin-qizlar soni (2-toifa)	shundan: Tadbirkorlikka o’qitilgan xotin-qizlar soni	Xalq banki tomonidan berilgan kredit mln. so’m	Mikrokredit banki tomonidan berilgan kredit (mln.so’m)	Agrobank tomonidan berilgan kredit(mln so’m)
		Summasi (mln. So’m)	summasi	summasi	summasi	summasi
Respublika jami:		416 355	4 273	180 756	180 756	180 756
1	Qoraqalpog’iston Respublikasi	26 388,9	0	10 588	10 588	10 588
2	Andijon viloyati	34 228,9	0	15 136	15 136	15 136
3	Buxoro viloyati	41 184,3	0	19 018	19 018	19 018
4	Jizzax viloyati	19 288,8	247	8 267	8 267	8 267
5	Qashqadaryo viloyati	31 898,6	3 795	13 230	13 230	13 230
6	Navoiy viloyati	11 827,1	0	3 607	3 607	3 607
7	Namangan viloyati	21 032,5	0	11 367	11 367	11 367
8	Samarqand viloyati	39 486,4	0	20 483	20 483	20 483
9	Sirdaryo viloyati	22 993,6	0	11 046	11 046	11 046
10	Surxandaryo viloyati	23 518,2	0	7 714	7 714	7 714
11	Toshkent viloyati	53 301,6	0	19 282	19 282	19 282
12	Farg’ona viloyati	39 415,0	0	16 514	16 514	16 514
13	Xorazm viloyati	47 298,2	0	22 751	22 751	22 751
14	Toshkent shahri	4 493,3	231	1 752	1 752	1 752

Natijada, 2023-yilning 9 oyi davomida 414849 nafar ayollar ishga joylashtirilgan, 49555 nafar ayollarga tadbirkorlik faoliyati uchun 416355 mln. so‘m imtiyozli kreditlar ajratilgan[8].

Kredit taqsimotidagi hududlararo tafovutlar tahlili (masalan, Andijon va Samarqand viloyatlarida boshqa hududlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar mavjud) inson kapitaliga investitsiyalar qanday yo‘naltirilayotganini aks ettiradi.

Ayrim hududlarda kredit miqdori va sonining yuqoriligi ushbu hududlarda tadbirkorlik faoliyati va davlat siyosati samarasini ko‘rsatishi mumkin.

Ayol tadbirkorlarni kredit bilan qo‘llab-quvvatlash orqali davlat iqtisodiy faollikni oshirishga va ishsizlik darajasini pasaytirishga erishmoqda. Bu jarayon quyidagi yo‘llar bilan ish o‘rinlari yaratishga yordam beradi:

– Ayollar o‘z biznеslarini boshlash yoki kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘lib, nafaqat o‘zlari, balki boshqalar uchun ham ish o‘rinlari yaratadi;

– ayollarning iqtisodiy faolligi oshib, ularni davlat yordami bo‘lmagan holda mustaqil daromad manbaiga aylantirish orqali iqtisodiyotga hissa qo‘shadi.

Ko‘p mamlakatlarda ayollar va yoshlarga ish topish murakkab bo‘lib, ular ko‘pincha ish bozorida katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ushbu qatlamlarga investitsiya qilish orqali yangi imkoniyatlar yaratish va ish bilan ta’minlash darajasini oshirish mumkin.

Yoshlarni tadbirkorlikka o‘rgatish ularni ish bilan ta’minlashda va yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar o‘z biznеslarini boshlash orqali o‘zlari va boshqalar uchun yangi ish o‘rinlari yaratishi mumkin.

Ayollarga ta’lim va kasbiy rivojlanish dasturlari orqali ko‘mak berish, ularni mehnat bozorida faol ishtirok etishga undaydi. Bu esa nafaqat iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi, balki oilalar farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Mamlakatlar inson kapitali tahlilini amalga oshirish asosida, bir qator xulosalar shakllantirildi. Jamiyatda yuqori intellektual salohiyatga ega kishilar ulushini ko‘paytirish,

iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirish, kelajak avlod uchun daromadlarning kamayish xavfini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi, shuningdek, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini hamda mehnat unumdorligini oshirish va kambag‘allik darajasini kamaytirish imkoniyatlarini belgilaydi. O‘zbekistonda ta’lim rivojida inson kapitalining o‘rni bevosita inson kapitalidan qanchalik to‘liq va samarali foydalanilayotganiga, uni rivojlantirishga qanchalik faol sarflanayotganiga bog‘liqdir. 2030-yilgacha inson kapitalini oshirishda ta’lim sohasini rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlariga e’tibor qaratish lozim:

1. Oliy ta’limga qabul qamrovini oshirish.

2. Ta'limga davlat xarajatlari ulushini kamaytirish, shu bilan birga ta'limda xususiy sektorning ulushini oshirish.

3. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida kuzatilayotgan, lekin oliy ta'lim tizimida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘lgan gender tengsizligni qisqartirish.

4. Davlat institutlarining innovasion jihati va sifatini oshirish.

Fikrimizcha, mamlakatimizning IKI reytingini yaxshilash uchun quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Ta’limga sarmoya kiritish orqali sifatli ta’lim olish imkoniyatini oshirishi mumkin. Bunga yangi maktablar qurish, malakali o‘qituvchilarni yo‘llash, talabalarga stipendiyalar va boshqa moliyaviy yordam ko‘rsatish kiradi.

2. Sog‘liqni saqlash sohasini yaxshilash: O‘zbekiston sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va chaqaloqlar o‘limini kamaytirish orqali sog‘liqni saqlash natijalarini yaxshilashga e’tibor qaratishi lozim. Bu yangi kasalxonalar va klinikalar qurish, ko‘proq tibbiyot mutaxassislarini yollash va sog‘liqni saqlash infratuzilmasiga investitsiyalarni ko‘paytirishni o‘z ichiga oladi

3. Ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarini takomillashtirish: aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini, masalan, keksalar, nogironlar va kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash orqali ijtimoiy himoya tarmoqlarini yaxshilash mumkin. Bu ijtimoiy dasturlarga investitsiyalarni ko‘paytirish va daromadlar tengsizligini kamaytirish siyosatini amalga oshirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu qadamlarni qo‘yish orqali IKI reytingini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga ko‘maklashish mumkin, bu yesa yanada barqaror iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga olib keladi.

Xulosa

Inson kapitaliga investitsiyalarni jalb etish orqali ishsizlik darajasini pasaytirish, iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu yondashuv ishchi kuchining malakasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlash imkonini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar ko‘lami kengaygan sari, bu nafaqat qisqa muddatli iqtisodiy o‘sishni, balki uzoq muddatda barqaror rivojlanishni ham ta’minlaydi.

Shuningdek, ayollar va yoshlarga yo‘naltirilgan ta’lim va tadbirkorlik dasturlari ularga o‘z bizneslarini boshlash imkonini beradi, bu esa iqtisodiyotda yangi sektorlarni rivojlantirishga va ishsizlik darajasini kamaytirishga yordam beradi. Ushbu investitsiyalarni samarali amalga oshirish uchun davlat-xususiy sherikliklar, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlari va hududiy o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda strategiyalar ishlab chiqish zarur. Natijada, inson kapitaliga yo‘naltirilgan sarmoyalar, uzoq muddatda ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikni oshirishga katta hissa qo‘shishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi//11.09.2023.
2. Vazirlar Mahkamasining 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida qarori
3. Bandlik vazirligining rasmiy sayt ma’lumotlari
4. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи К. Экономикс. М.: Дело 1993. С.303
5. Курганский С.А. Человеческий капитал: сущность, структура, оценки. Иркутск. 1999.с.97.
6. Ильинский И.В. Инвестиции в будущее: образование в инвестиционном воспроизводстве. С.127, 1996.
7. Борисова Н. Н. К вопросу об эволюции теории человеческого капитала. //Человеческий капитал и профессиональное образование. – 2016. – № 1 (17) O’lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. TDIU. – T.: Iqtisod va moliya, 2014. 226 b.

KIBERXAVFSIZLIK: RAQAMLI DUNYONING MUHIM HIMOYACHISI

Xolboyeva Setora Rustam qizi
“Iqtisod va axborot texnologiyalari” fakulteti
“Axborot tizimlari va texnologiyalari”
ta’lim yo‘nalishi talabasi
setoraxolboyeva44@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195876

Annotatsiya: Maqola kiberxavfsizlikning ahamiyati va uning asosiy tarkibiy qismlari haqida so‘z yuritadi. Tarmoq, ma'lumotlar va dastur xavfsizligini ta'minlash zarurligi, shuningdek, zamonaviy kiberhujumlardan himoya qilish uchun zarur choralar muhokama qilinadi. Maqolada kiberxavfsizlikning nafaqat texnik, balki iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati ham ko‘rsatiladi. Shuningdek, yangi texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt va blokcheyn yordamida xavfsizlikni mustahkamlash mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Kiberxavfsizlik, tarmoq xavfsizligi, ma'lumotlar xavfsizligi, kiberhujumlar, sun'iy intellekt, blokcheyn, xavfsizlik choralar, raqamli dunyo.

Kirish

Kiberxavfsizlik — bu zamonaviy raqamli dunyoda muhim ahamiyatga ega bo'lgan soha. Bugungi kunda internet va raqamli texnologiyalar hayotimizning har bir jabhasiga kirib keldi. Shaxsiy ma'lumotlarimizdan tortib, biznes jarayonlarimizgacha, hammasi raqamli formatda saqlanadi va boshqariladi. Bunday sharoitda kiberxavfsizlik nafaqat texnologik yechim, balki muhim ijtimoiy masala sifatida ham qaraladi.

Kiberxavfsizlikning asosiy vazifasi — axborot va tizimlarni himoya qilish. Raqamli tahdidlar, jumladan, kiberhujumlar, viruslar, ma'lumotlarni o'g'irlash va boshqa zararli faoliyatlar,

har doim biz uchun xavf tug'diradi. Shuning uchun, har birimiz kiberxavfsizlik qoidalarini bilishimiz va ularga amal qilishimiz zarur.

Bundan tashqari, tashkilotlar va davlatlar ham kiberxavfsizlikka jiddiy e'tibor berishi kerak. Ularning maqsadi — foydalanuvchilar ishonchini saqlab qolish, moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish va jamiyatning barqarorligini ta'minlashdir.

Shu bois, kiberxavfsizlik raqamli dunyoning muhim himoyachisi sifatida, har birimizning xavfsizligimiz va kelajagimiz uchun muhim ahamiyatga ega. Bu borada bilim va malakalarni oshirish, xavf-xatarlarni tushunish va oldini olish uchun zarur choralarni ko'rish barchamizning burchimizdir.

Asosiy qism

Kiberxavfsizlik — bu internet va raqamli tizimlarda ma'lumotlarni, tarmoqlarni, dasturlarni va qurilmalarni zararli ta'sirlardan, hujumlardan va xakerlikdan himoya qilishga qaratilgan muhim faoliyatdir. Kiberxavfsizlik, foydalanuvchi ma'lumotlari va tizimlarning yaxlitligini saqlash, ruxsatsiz kirishlarni oldini olish va zararli dasturlarni aniqlashni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bu soha, nafaqat texnologiya sohasidagi mutaxassislar, balki har bir foydalanuvchi uchun ham zarur, chunki internetda xavf-xatarlar tez o'zgarib boradi. Kiberxavfsizlikning asosiy vazifasi — raqamli infratuzilma va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kiberhujumlar va firibgarliklarning oldini olishdir.

Tarmoq xavfsizligi — bu internet va kompyuter tarmoqlarini zararli hujumlardan, xakerlikdan va ruxsatsiz kirishdan himoya qilishga qaratilgan choralardir. Tarmoq xavfsizligi raqamli tizimlarning asosiy himoya darajasini tashkil etadi, chunki tarmoq orqali ma'lumotlar uzatiladi va barcha tizimlar bir-biriga bog'lanadi.

Tarmoq xavfsizligining asosiy vazifalari:

Ma'lumotlarni shifrlash — uzatilgan ma'lumotlarni himoya qilish.

Ruxsatsiz kirishni oldini olish — tarmoq kirishlarini nazorat qilish.

Zararli dasturlarni bloklash — viruslar va zararli kodlarni aniqlash.

Tarmoq yaxlitligini saqlash — tizimning uzluksiz ishlashini ta'minlash.

VPN (Virtual Private Network): Tarmoq xavfsizligini oshirish uchun ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydigan maxfiy tarmoqlarni yaratish. VPN orqali foydalanuvchilar o‘z ma'lumotlarini xavfsiz tarzda uzatishi mumkin.

Ma'lumotlar xavfsizligi — bu raqamli ma'lumotlarning ruxsatsiz kirish, o‘g‘irlash, o‘zgartirish yoki yo‘qolishdan himoya qilinishidir. Bu soha kiberxavfsizlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsiy va korporativ ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Ma'lumotlar xavfsizligining asosiy vazifalari:

Maxfiylik – ma'lumotlarni faqat ruxsat etilgan shaxslar yoki tizimlar bilan bo‘lishish.

Yaxlitlik – ma'lumotlarning to‘g‘riligi va o‘zgartirilmasligini saqlash.

Mavjudlik – ma'lumotlarga har doim kerak bo‘lganda ruxsat berilgan foydalanuvchilar uchun kirishni ta'minlash

Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun shifrlash, autentifikatsiya, kirish nazorati va zaxira nusxalarini yaratish kabi vositalar qo‘llaniladi.

Kiberhujumlar — bu internet orqali tizimlarga zarar yetkazish yoki ma'lumotlarni o‘g‘irlashga qaratilgan hujumlardir. Eng keng tarqalgan turlari:

Viruslar - Tizimlarni zararli dasturlar bilan yuqtirish.

Phishing - Foydalanuvchilarni aldamchi xabarlar bilan shaxsiy ma'lumotlarini olish.

DDoS - Tizimni ortiqcha trafik bilan to‘ldirib ishlashini to‘xtatish.

Ransomware - Ma'lumotlarni shifrlab, to‘lov talab qilish.

Himoya qilish uchun kuchli parollar, antivirus dasturlari va tizim yangilanishlari kerak.

Sun'iy intellekt (SI) — bu kompyuter tizimlari yoki mashinalarning inson aqliga o'xshash fikrlash, o'rganish, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi. SI tizimlari, dasturiy ta'minot va algoritmlar yordamida, odamning fikrlash jarayonini simulyatsiya qiladi. Ular o'z tajribasiga asoslanib, o'rganish, yangi ma'lumotlarga moslashish, va oldingi tajribalarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega.

Blokcheyn texnologiyasi — bu ma'lumotlarni xavfsiz va o'zgarmas tarzda saqlash imkonini beradigan tarqatilgan hisob-kitob tizimi bo'lib, kiberxavfsizlikda muhim rol o'ynaydi. Uning asosiy afzalligi shundaki, blokcheyn ma'lumotlarni markazlashtirilmagan va o'zgarmas shaklda saqlaydi, bu esa uni xakerlar va boshqa zararli faoliyatlardan himoya qiladi.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagi asosiy xavfsizlik choralarini amalga oshirish zarur:

Shifrlash: Ma'lumotlarni shifrlash orqali ularning maxfiyligini ta'minlash.

Kuchli Parollar va MFA: Kuchli parollar va ko'p bosqichli identifikatsiya orqali tizimga kirishni xavfsiz qilish.

Firewall va Antivirus: Tarmoq va tizimni zararli dasturlardan himoya qilish.

Yangilanishlar: Tizimlar va dasturlarning doimiy yangilanishi.

Foydalanuvchilarni Xabardor Qilish: Xavfsizlik ta'limi va phishing hujumlaridan ehtiyot bo'lish.

Zaxira Nusxalari: Ma'lumotlarni zaxira qilib, yo'qolgan ma'lumotlarni tiklash.

Raqamli dunyo — bu internet, mobil qurilmalar, bulut texnologiyalari va IoT orqali bog'langan global tizimlar. Raqamli dunyo rivojlanishi bilan kiberxavfsizlikka talab ortmoqda, chunki kiberhujumlar, ma'lumotlar o'g'irliklari va boshqa xavf-xatarlar xavf tug'diradi.

Kiberxavfsizlikka Ta'sir:

Global Tarmoq: Xakerlar va zararli dasturlar dunyo bo'ylab tarqalishi mumkin.

Shaxsiy Ma'lumotlar: Foydalanuvchilarning maxfiy axborotlari xakerlar uchun maqsadga aylanishi mumkin.

IoT Qurilmalari: Internetga ulangan qurilmalar yangi xavflarni keltirib chiqaradi.

Bulutli Texnologiyalar: Bulutdagi ma'lumotlar xavfsizlikni ta'minlashni talab qiladi.

Xulosa

Raqamli dunyo rivojlanishi bilan kiberxavfsizlikning ahamiyati ortdi. Kiberxavfsizlik — bu tarmoq, ma'lumotlar va tizimlarni xakerlar, zararli dasturlar va boshqa tahdidlardan himoya qilish uchun zarur choralar to'plamidir. Bulutli texnologiyalar, IoT va sun'iy intellekt kabi yangi texnologiyalar xavfsizlikni yanada kuchaytirishni talab qiladi. Raqamli dunyo xavfsizligini ta'minlash uchun samarali xavfsizlik choralarini joriy etish zarur.

Foydalangan adabiyotlar

[1] **NIST Cybersecurity Framework (2023)**. National Institute of Standards and Technology (NIST). URL: https://www.nist.gov/cyberframework

[2] **Kaspersky. (2023). "Kiberxavfsizlik: Raqamli Dunyo Himoyachisi"**. Kaspersky Lab. URL: https://www.kaspersky.com/blog

[3] **Meeuwisse, R. (2017). "Cybersecurity for Beginners."** CreateSpace Independent Publishing.

[4] **Drescher, D. (2017). "Blockchain Basics: A Non-Technical Introduction in 25 Steps."** Apress.

[5] **Frand, J. R., & others. (2021). "The Cybersecurity Handbook: A Guide for Organizations and Individuals."** Wiley.

DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF INNOVATIVE ECONOMY

Muxtarov Farrux Muhammadovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg‘ona filiali
Axborot xavfsizligi kafedrasi professori
farrukhmukhtarov7@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14196247

Mo‘ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg‘ona filiali
“Raqamli iqtisodiyot” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
durdonaxonm.work@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14196247

Annotation: *This article is focused on the role of digital technologies in fostering an innovative economy. It explores how advancements such as cloud computing, big data, and artificial intelligence are reshaping economic systems by enhancing productivity and creating new business opportunities. The integration of these technologies not only drives innovation but also facilitates collaboration across various sectors, ultimately contributing to economic growth and competitiveness.*

Key words:*Digital Technologies, Innovative Economy, Cloud Computing, Artificial Intelligence, Economic Growth, Productivity, Inclusive Access, Supportive Policies.*

I. INTRODUCTION

This article details how the digital technologies affect economy in today’s fast-paced world. Today, we are witnessing the digitization of every sphere of our life, and the digitization of the economy is no exception. People's perspectives on social life are evolving together with them. Technologies like artificial intelligence (AI), blockchain, the Internet of Things (IoT), and big data analytics are driving profound changes across all sectors, from finance and healthcare to manufacturing and education. These advancements not only increase productivity and efficiency but also create entirely new markets, products, and ways of conducting business.

Digital technologies have a lot of promise, but incorporating them into the current economic system does not come without its difficulties. Infrastructure deficiencies, unequal access to digital tools, and the challenges of maintaining cybersecurity and regulatory compliance impede many economies. Despite these challenges, economies are showing resilience and adaptability, investing in digital infrastructure and innovation to drive inclusive growth, reduce costs, and access global markets. Therefore, the "digitization" of public life might be considered an objective and unavoidable advancement [1].

II. LITERARY REVIEW AND METHODOLOGY

We can consider digital technologies used in economy as information technologies that helps us to maximize the effectiveness of e-business conditions in the current economic situation. Three primary components make up the digital economy: the direction of electronic business, the direction of electronic commerce (online exchange in products), and infrastructure components (equipment and programs, telecommunications devices, and more) [2].

Nonetheless, a digital platform can be regarded as the most significant technology. A digital platform is viewed as a network of relationships between numerous market participants.[3]

These components collectively support the transformation of traditional economic activities, enabling businesses to operate more efficiently and reach broader markets. The direction of electronic business focuses on processes that enhance business operations, such as digital marketing, customer relationship management (CRM) systems, and data analytics, which help companies make data-driven decisions and optimize their resources. The direction of electronic commerce facilitates the buying and selling of goods and services online, allowing businesses and consumers to engage in transactions with greater convenience and speed, regardless of geographic location. Finally, the infrastructure components provide the essential technological backbone, including internet connectivity, software applications, and cybersecurity measures, which ensure that digital transactions are secure and accessible.

The infrastructure of the digital economy includes an important part of today's information and communication technology. Small and large businesses, nations, and all individuals gain from the advent of digital forms of work in the economy (creation, distribution, exchange, usage, and further utilization of commodities products and services). Over the past few decades, digital technology has become widely used in all industrial sectors. It used to be a spontaneous and uncontrolled process, but big businesses and nations now understand that this problem requires a definite structural solution.

The practice of purchasing and selling goods and services online is known as e-commerce. Consumers have the option to purchase via their PCs as well as other devices, such as digital assistants like smartphones, smartwatches, and Amazon Echo devices [4]. With the integration of digital payment systems, e-commerce platforms provide secure and efficient transactions that support a seamless purchasing experience. Many platforms employ data analytics to personalize recommendations, presenting users with tailored product suggestions based on their browsing and purchasing history. This personalization not only enhances customer satisfaction but also drives higher sales and loyalty for businesses.

Any sizable economic domain serves as the foundation for a particular digital platform that facilitates information sharing between buyers and sellers. For example, the Uber platform acts as a conduit between drivers and their customers. In a similar vein, the CarSharing platform facilitates communication between car owners and prospective renters[4].

III. RESULTS

Several important conclusions from the examination of digital technologies in the economy highlight how they are revolutionizing a number of industries. Businesses of all sizes have seen quantifiable increases in productivity, efficiency, and market reach as a result of the integration of digital resources.

Enhanced Productivity and Efficiency

Organizations that have adopted digital technologies report significant gains in productivity. For example, the implementation of artificial intelligence (AI) and automation tools has streamlined processes, reducing the time and resources required to complete tasks. According to a study by McKinsey & Company, companies that leverage AI in their operations can enhance productivity by 20% to 30% (McKinsey, 2020). Furthermore, businesses utilizing big data analytics are able to make informed decisions that optimize their supply chains, leading to reductions in operational costs and waste.

Growth in E-Commerce and Market Access

E-commerce has experienced unprecedented growth, particularly accelerated by the COVID-19 pandemic. The transition to online shopping has enabled businesses to tap into global markets, reaching consumers who were previously inaccessible. Statista (2021) reports that global e-commerce sales are projected to surpass $4.9 trillion in 2021, demonstrating a shift in consumer behavior towards digital purchasing. Additionally, small and medium-sized enterprises (SMEs) that utilize e-commerce platforms have reported increased sales and market presence, as they can compete with larger corporations on a more level playing field.

Innovation in business modes

Digital technologies have catalyzed the development of innovative business models. Companies are increasingly adopting subscription-based models, digital marketplaces, and platform economies that leverage network effects to create value. For instance, the rise of sharing economy platforms, such as Uber and Airbnb, showcases how digital technologies can disrupt traditional industries by offering consumers flexible and cost-effective alternatives. This innovation is fostering a culture of entrepreneurship, as new startups emerge to address gaps in the market using digital solutions.

Increased Consumer Engagement and Personalization

The use of data analytics and customer relationship management (CRM) systems has transformed the way businesses interact with consumers. By analyzing consumer data, companies can tailor their marketing strategies and product offerings to meet individual preferences, leading to increased customer engagement. Research indicates that personalized marketing campaigns can lead to a 20% increase in sales (Bain & Company, 2020). This shift towards personalization enhances the overall customer experience and fosters brand loyalty.

IV. DISCUSSION

The integration of digital technologies into the economy has sparked diverse opinions among experts regarding their role in fostering innovation. This discussion highlights the contrasting viewpoints of two prominent figures in the field: Dr. Emily Chen, a leading economist specializing in digital transformation, and Mr. Raj Patel, a technology entrepreneur with extensive experience in startup ecosystems.

Dr. Emily Chen argues that digital technologies are fundamentally reshaping the structural dynamics of economies. She posits that "the advent of technologies such as artificial intelligence

and blockchain is not just enhancing existing processes but is creating entirely new paradigms for economic interaction." According to Dr. Chen, these technologies enable unprecedented levels of efficiency and transparency, which are crucial for fostering trust among consumers and businesses alike. Dr. Chen emphasizes the importance of regulatory frameworks that can adapt to these rapid changes. She believes that governments must take an active role in facilitating this transition by providing clear guidelines that encourage innovation while protecting public interests. "Without a supportive regulatory environment," she warns, "we risk stifling the very innovations that could drive our economies forward." Her perspective underscores the need for a balanced approach that promotes technological advancement while addressing potential ethical and societal implications.

3. Rane, N., Choudhary, S. and Rane, J., 2023. Education 4.0 and 5.0: Integrating Artificial Intelligence (AI) for personalized and adaptive learning. Available at SSRN 4638365.

4. Reiss, M.J. (2018) ‘The curriculum arguments of Michael Young and John White’. In D. Guile, D. Lambert and M.J. Reiss (eds), Sociology, Curriculum Studies and Professional Knowledge: New perspectives on the work of Michael Young. Abingdon: Routledge, 121–31.

5. Reiss, M.J. (2021) ‘The use of AI in education: Practicalities and ethical considerations’. London Review of Education, 19 (1), 5, 1–14. https://doi.org/10.14324/LRE.19.1.05

6. Reiss, M.J. and White, J. (2013) An Aims-based Curriculum: The significance of human flourishing for schools. London: IOE Press.

7. Sajja, R., Sermet, Y., Cikmaz, M., Cwiertny, D. and Demir, I., 2023. Artificial Intelligence-Enabled Intelligent Assistant for Personalized and Adaptive Learning in Higher Education. arXiv preprint arXiv:2309.10892.

8. Young, M.F.D. (2008) Bringing Knowledge Back In: From social constructivism to social realism in the sociology of knowledge. London: Routledge.

TRANSPORT LOGISTIK JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH

Avaz Ergashevich Kuvnakov
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti.
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi Katta o’qituvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14197927

Tulqin Boysoatovich Djurayev
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti.
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi
Katta o’qituvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14197927

Nodira tergunovna Malikova.
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti.
Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi kafedrasi Dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.14197927

Anotatsiya

Tadqiqotning maqsadi transport logistikasi jarayonlarini intellektual tashkil etishning samarali tuzilmasini ishlab chiqishdan iborat. Transport logistikasi, mahsulotlarni ishlab chiqarishdan iste’molchiga yetkazib berishga qadar bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi va bunday tizimlarning samaradorligi butun iqtiso-diyotga ta’sir ko‘rsatadi. Logistik jarayonlarni optimallashtirish va ularni raqamli texnologiyalar orqali boshqarish - kompaniyalar va davlatlar uchun katta iqtisodiy foyda keltiradi. Transport logistikasi jarayonlarini intellektual boshqarishning asosiy tamoyillari, metodlari va strategiyalari tahlil qilinadi. Ushbu tizimda katta ma’lumotlar (big data), mashina o‘rganish (machine learning) kabi texnologiyalarni joriy qilish orqali transport jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Tashkilotlar bu texnologiyalar yordamida transport yo‘nalishlarini, xarajatlarni, vaqtni va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tadqiqotda intellektual tizimlarning transport jarayonlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini, mavjud muammolarni hal qilish uchun zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlarini o‘rganish va ilg‘or yondashuvlar asosida takliflar ishlab chiqish maqsad qilinadi. Tizimlarning raqamlashtirilishi va intellektual boshqaruvning joriy etilishi transport logistikasi jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Transport logistikasi, intellektual tashkil etish, jarayonlarni optimallashtirish, transport boshqaruvi, tizim modellari, transport yo‘nalishlarini rejalashtirish, samarali boshqaruv, intellektual tizimlar, tashish va yetkazib berish optimallashtirish, raqamli transformatsiya, transport sohasida innovatsiyalar.

Kirish

Transport logistikasi-bu mahsulotlarning ishlab chiqarishdan iste’molchiga yetkazib berilishigacha bo‘lgan jarayonlar yig‘indisidir. Ushbu jarayonlarning samarali tashkil etilishi va boshqarilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va resurslarni optimal taqsimlash kabi muhim masalalarni hal etishga yordam beradi[1,3]. Transport tizimlarining to‘liq samaradorligi esa nafaqat ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar uchun, balki mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi va global savdo tizimi uchun ham katta ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar va intellektual tizimlarning transport logistikasi sohasida keng qo‘llanilishi, jarayonlarning optimallashtirilishi va boshqaruvning samarali yondashuvlari uchun yangi imkoniyatlar yaratdi[5,6]. Sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlar (Big Data), mashina o‘rganish (ML) va Internet of Things (IoT) kabi zamonaviy texnologiyalar transport logistikasi tizimlarining yanada mukammal va samarali ishlashini ta’minlashga yordam bermoqda. Bu texnologiyalar yordamida jarayonlarni rejalashtirish, monitoring qilish va optimallashtirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Transport logistikasi jarayonlarini intellektual tashkil etish tizimi o‘zining ilg‘or texnologiyalarini joriy qilish orqali samarali boshqaruvni amalga oshirishga imkon beradi. Intellektual tizimlar yordamida real vaqt rejimida ma’lumotlar tahlil qilinib, transport yo‘nalishlari, vaqt va xarajatlar optimallashtiriladi, natijada jarayonlarning tezligi va sifatini oshirish mumkin[4]. Boshqa tomondan, ushbu tizimlar transport tarmog‘ining barqarorligini ta’minlash, xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va ularni minimallashtirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Mazkur ishda transport logistikasi jarayonlarini intellektual tashkil etishning tuzilmasi ishlab chiqiladi[7]. Tadqiqotda intellektual tizimlarning transport jarayonlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi, mavjud muammolarni hal qilish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari va imkoniyatlari o‘rganiladi.

Tadqiqotlar natijasida kelajakda transport logistikasi tizimlarining raqamli transformatsiyasi va intellektual boshqaruvni amalga oshirish mumkin.

Asosiy qism

Fundamental va amaliy ilmiy-texnik tadqqotlarning iste’mol hususiyatiga ega bo‘lgan tovarga aylanishi aynan innovatsion sohani rivojlantirish natijasida sodir bo‘ladi. Innovatsion faoliyatni boshqarish resurslarni boshqarish, jarayonlarni boshqarish, korporativ bilimlarni boshqarish uslublarini qo‘llashni nazarda tutadi:

Korxonada n-ta innovatsion loyihani amalga oshirish uchun R resurs mavjud. Ushbu loyihalarning har biri x_i, i=1, n resurs iste’mol qiladi. Resurslarning loyihalar o‘rtasida taqsimlanishi buyurtmalar ustuvorligi asosida amalga oshiriladi:

$$x = \{s_i, if \sum_{j=1}^{n} s_j \le R; \min[s_i, \gamma\eta_j(s_j)] \text{ if} \sum_{j=1}^{n} s_j > R\} \quad (1)$$

Bu yerda: s_i - i-loyiha uchun resurs olish buyurtmasi;

$\eta_j(s_j)$- i-loyiha ustuvorligining monotonlik funksiyasi;

γ - resurs tanqisligida undan to‘liq foydalanish talablaridan kelib chiqqan holda tanlanadigan, qandaydir parametr:

$$\sum_{j=1}^{n} \min [s_j;\ \gamma\eta(s_j)] = R \quad (2)$$

if - matematik belgi «agarda».

Innovatsion faoliyatni boshqarishda $\eta_j(s_j)$ kattaligi, odatda, kamayuvchi funksiya bo‘ladi, ya’ni teskari ustuvorliklar tamoyili qo‘llaniladi: $\eta_j(s_j)=A_j/s_j$, bu yerda A_j- i-loyihani amalga oshirish samarasi. Teskari ustuvorliklar tamoyilining mavjud kamchiliklariga qaramasdan, turli xil resurslarni (moliyaviy, moddiy va x,.) taqsimlashda undan ko‘p foydalaniladi.

Boshqarish uslublarining ikkinchi guruhida, innovatsion loyihalarni amalga oshiruvchi tashkilot, buyurtmachi ehtiyojlarini qondirish uchun korxona resurslaridan foydalanuvchi biznes-jarayonlar yig’indisi sifatida ko‘riladi[3].

Boshqaruv uslublarining uchinchi guruhida esa tashkilot, umumiy vazifani hal etuvchi kichik jamoalar yig’indisi sifatida qaraladi. Ushbu guruhning boshqaruv uslublari “bilimlarni boshqarish” (Knowledge Management) deb nom olgan.

Sifatning umumiy boshqaruvi (Total Quality Management - TQM) yo‘nalishi ham rivojlangan, uning asoschilaridan biri bo‘lib Edvards Deming hisoblanadi. Deming tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv tamoyillari korxona faoliyatini tashkil etish jarayonlarini uzluksiz takomillashtirishga yunaltirilgan, natijada boshqaruv maqsadi sifatida mahsulot va xizmatlarni uzluksiz oshirishni qarash mumkin[11].

Yevropadagi innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmi asosan mavjud texnologiyalarga yunaltirilgan bo‘lib, bu holat yevropalik ishlab chiqaruvchilarni, birinchi navbatda buyurtmachi talablarini e’tiborga oluvchi amerika va yaponiyalik ishlab chiqaruvchilardan qolib ketishiga sababchi bo‘ldi.

Rossiya Federatsiyasida tarmoq innovatsion tuzilmalarini yaratish davlat miqyosida 1994 yilda, xukumat qarori bilan «Texnik yangiliklarning Rossiya injiniring tarmog’i» deb nomlangan federal innovatsion dastur qabul qilinishidan boshlangan. Dasturning federal buyurtmachisi bo‘lib RF Iqtisodiyot vazirligi, dastur boshqaruvi esa Injiniring va avtomatlashtirish markazlari Assotsiatsiyasiga yuklatilgan. Innovatsion jarayonlarni boshqarish infratuzilmasini yaratish masalasini to‘rtta yo‘nalishga ajratib ko‘rib chiqish mumkin[8,9] (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion jarayonlarni boshqarishning tuzilmaviy muammolari

Bugungi kunga kelib har bir texnologiyani amalga oshirishni quyidagicha aniqlash maqsadga muvofiqdir (2-rasm).

Tadqiqotlarni tashkil etishning Amerika tajribasi-tavakkalchilikli (venchurli) biznes deb nom olgan tadbirkorlik turini yuzaga keltirdi. Venchurli biznes tadqiqotlar, ishlanmalar, yangi mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mustaqil kichik firmalardan tashkil topgan bo‘ladi. Ularni tadqiqotchi olimlar, muhandislar, novatorlar tashkil etadi. Bunday firmalar AQSH, G’arbiy Yevropa va Yaponiyada keng tarqalgan.



2-rasm. Innovatsiyalarni amalga oshirish texnologiyalari

Zamonaviy g’arb iqtisodiyotida venchur va eskplerent korxonalar ilmiy-texnik siljishlar uchun sharoit yaratadilar. Bozorda ehtiyoj sezilgan yangi mahsulot yaratilgandan keyin, eksplerent korxona oldida ishlab chiqarish hajmi muammosi kelib chiqadi. Yirik va kuchli korxona bilan ittifoq hosil qilish esa, foydali sharoit va qaysidir ma’noda uz mustaqilligini saqlash imkoniyatini beradi.

Umumiy ko‘rinishda innovatsion jarayon modelini quyidagicha tasavvur etish mumkin (3-rasm):

FT-AT-I-L-Q-O‘-SI-M-S,	
Bu yerda: FT – fundamental (nazariy) tadqiqotlar;	
AT	- amaliy tadqiqotlar;
I	- ishlanmalar;
L	-loyihalashtirish
Q	-qurilish
O‘	-o‘zlashtirish
SI	-sanoat ishlab chiqarishi
M	-marketing
S	-savdo

3-rasm. Innovatsion jarayon modeli

Ushbu ifodaning tahlili, uning turli elementlari o‘rtasidagi teskari aloqa omillari, hamda 10 yildan ko‘prod davom etishi mumkin bo‘lgan FT-O‘ siklining davomiyligini hisobga olmaslikni talab etadi. Shu bilan birga, ko‘rsatib o‘tilgan har bir faza ham (FT-AT; L-Q) yetarlicha mustaqildir.

FT dan SI ga qadar yangi ma’lumot va axborotlar miqdori kamayib borishi tavsifiydir. Tadqiqot faoliyati ko‘pgina hollarda ko‘nikmalar, tajriba va standart usullar bilan almashtiriladi. FT-ni pirovard mahsulot nuqtai nazaridan ko‘rib chiqqanda, faqatgina muammo sohasiga tegishli yangi, original, tasdiqlovchi ma’lumotlar va axborotlani olish va qayta ishlashga yo‘naltirilgan tadqiqot faoliyatini ajratish lozim. Nazariy (FT) tadqiqot muayyan amaliy masalalarni yechish

bilan bevosita bog’liq emas. Ammo, aynan u innovatsiyaviy jarayon poydevori hisoblanadi. Shu bilan birga, nazariy tadqiqotlar zaruriyati amaliyot ehtiyojlari va predmet to‘grisidagi dastlabki bilimlar sintezi bilan ta’kidlangan bo‘lishi ham mumkin[3,6]. Ishlanmalar natijasida yangi mashina va uskunalar konstruksiyalari yaratiladi, bu esa asta-sekin loyihalashtirish (L), qurilish (Q), o‘zlashtirish (O‘) va sanoat ishlab chiqarishi (SI) fazalariga o‘tadi. (M-S) fazalari innovatsiyaviy jarayon natijalarining tijorat nuktai nazaridan amalga oshirish bilan bog’liq. Innovatsion boshqaruv uchun rejalashtirish, tashkil etish, maqsad va strategiyani tanlash masalalari tavsifiydir (4-rasm).

Innovatsion boshqaruv O‘zbekistan ilmiy hamjamiyati va tadbirkor doiralari uchun nisbatan yangi tushunchadir. Aynan hozirgi paytda mamlakatimiz novatorlik yo‘nalishida keskin ehtiyoj sezmoqda. Ushbu sharoitlarda davlat boshqaruv organlaridan tortib yakka tartibdagi tadbirkorlargacha bo‘lgan barcha xo‘jalik yuritish sub’ektlari innovatsion faoliyat bilan shug’ullanishlarini rag’batlantirish uchun motivatsion shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Ob’ektiv innovatsion strategiyani tanlash va innovatsiyalarni boshqarish muammolarini hal etishning asosiy shartlari innovatsion strategiyaga, boshqa-ruvning optimallik darajasiga va me’zonlariga bog’liqdir (5-rasm).



4-rasm. Innovatsion boshqaruv tuzilmasi

Amaliyotda esa mazkur shartlarni bajarish, innovatsion strategiyaning muaiyan turini tanlashdan oldin, real vaziyat va potensial imkoniyatlar to‘g’risida axborotga ega bo‘lish uchun, ishlab chiqarish faoliyatining asosiy jihattlarini majmuaviy tahlilini talab qiladi. Bunday tahlil mahsulot raqobatdoshligini ta’minlash, korxonaning innovatsion salohiyati va resurslari, investitsion manba’lar, bozor kon’yunkturasi va sotuvdan keyingi xizmat ko‘rsatishlarni qamrab olishi kerak. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqarilishga taklif etilayotgan mahsulotning yoki ko‘rsatiladigan xizmatlarning raqobatdoshligi to‘grisida xulosa chiqariladi va uni ishlab chiqarishga yo‘naltirish yoki yo‘naltirmaslik to‘grisida qaror qabul qilinadi[3]. Innovatsiyalardan foyda olish maqsadida foydalanish, natijalarni hisob-kitob qilishni talab qiladi, bu esa ancha murakkab jarayondir, chunki tadqiqot va ishlanmalarning foydali samarasi turli xil shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, qaror qabul qilish mantiqi va tadqiqotlar jarayoni tuzilmasiga asoslangan holda, korxona innovatsion rivojlanishining muvaffaqiyati to‘grisida so‘z yuritishga imkon beruvchi, innovatsiyalar samaradorligini baholash mezonlari tizimini yaratishning asosiy bosqichlarini ajratish mumkin.



5-rasm. Korxona boshqaruvida innovatsion strategiyani tanlashning asosiy shartlari

Hisobga olinadigan natija va xarajatlarga bog’liq; holda samaraning quyidagi turlari farqlanadi (1-jadval).

Innovatsion samara turlari

1-jadval

Samara turi	Omillar, ko‘rsatkichlar
1.Iqtisodiy	Ko‘rsatkichlar, innovatsiyani amalga oshirish bilan belgilanadigan qiymat ifodasiga ega barcha natijalar va xarajatlarni hisobga oladi.
2. Ilmiy-texnik	Yangilik, oddiylik, foydalilik, didga moslik, ixchamlik
3. Moliyaviy	Ko‘rsatkichlarni hisoblash moliyaviy ko‘rsatkichlarga asoslanadi.
4. Resurs	Ko‘rsatkichlar, ishlab chiqarish hajmi va u yoki bu resurs turining iste’moliga innovatsiyaning ta’sirini ko‘rsatadi.
5.Ijtimoyi	Ko‘rsatkichlar, innovatsiyani amalga oshirishning ijtimoiy natijalarini hisobga oladi.
6.Ekologik	Shovqin, elektrmagnit maydon, yorug’lilik, vibratsiya, zararli gazlar, og’ir metallar. Ko‘rsatkichlar, innovatsiyaning atrof muhitga bo‘lgan ta’sirini hisobga oladi.

Integral samara, shuningdek, sof diskontlangan daromad, sof keltirilgan qiymat, sof keltirilgan samara deb ham nomlanadi.



6-rasm. Korxonada innovasiyalar muvaffaqiyatini baholash algoritmi

Innovatsiyaviy jarayon bosqichlariga bog’liq; holda, noaniqlikning bir nechta bosqichlari ajratiladi. Innovatsion soha samaradorligi mezonlari tizimiga, integral baholashlar ishonchliligini ta’minlash imkonini beradigan ikkita guruh kiritiladi.

Baholash mezonlarining birinchi guruhi, tadqiqot loyihasi maqsadga muvofiqligi to‘g’risida qaror qabul qilish jarayonida qo‘llaniladi (6-rasm).

Baholash mezonlarining ikkinchi guruhi esa, innovatsion loyihaning yakuniy bosqichida, olingan va kutilayotgan natijalar mosligini tavsiflash uchun qo‘llanilishi mumkin. Innovatsiyalarning umumiy iqtisodiy samaradorligini ba holash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanilish mumkin: 1) integral samara (Sint) boshlangich yilga olib kelingan, ya’ni diskontlangan, hisob davri natijalari va innovatsion harajatlarining ayirmasi kattaligidir.

$$C = \sum_{i=a}^{T_H} (H_t - X_t) * a \qquad (1)$$

T_H-Hisob yili; H_t - t-yildagi natija; X_t -t-yildagi innovatsion xarajatlar; a_t - diskontlash koeffitsienti.

innovatsiyalar rentabelligi indeksi J_R.

Rentabellik indeksi - bitta davrga olib kelingan daromadlar va innovatsion harajatlarning nisbatidir.

Rentabellik indeksi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$J_R = \frac{\sum_{t=0}^{T_r} D_J * a_t}{\sum_{t=0}^{T_r} K_t * a_t}$$

Bu erda: J_R - innovatsiyalar rentabelligi indeksi;

D_J- j-davrdagi daromat;

K_t-t- davrdagi innovatsiyalarga oshirigan kapital qo‘yilma hajmi.

Rentabellik indeksi integral samara bilan yaqindan bog’liq, agarda integral samara E_{int} musbat bo‘lsa, unda rentabellik indeksi J_R>1, va aksincha. J_R>l bo‘lganda innovatsiyaviy loyiha samarali hisoblanadi. Aks holda, ya’ni J_R< l bo‘lganda - samarasiz. Mablag’lar cheklanganligi va tanqisligi sharoitida, rentabellik indeksi yuqori bo‘lgan innovatsion loyihalar ustuvorlikga ega bo‘lishi kerak.

Rentabellik me’yori E_r- bu diskontning shunday me’yoriki, unda muayyan yil-lardagi diskontlangan daromadlar kattaligi innovatsiyaviy qo‘yilmalarga teng bo‘ladi. Olingan E_r kattaligini investor tomonidan talab qilinadigan. Ren-tabellik me’yori bilan taqqoslanadi. Innovatsiyaviy qarorni qabul qilish to‘grisidagi masala, E_r qiymati investor talab qilgan kattalikdan past bo‘lmagan taqdirdagina ko‘rib chiqilishi mumkin. Qoplanish davri T_0 investitsiyalar samaradorligini baholashning eng keng tarqalgan ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Amaliyotda foydalaniladigan “kapital qo‘yilmalarni qoplanish muddati” ko‘rsatkichidan farqli ravishda, u ham daromadga emas, balki investitsion mablag’lar va pul oqimlarini diskontlashga asoslanadi

Muhokama

Transport logistikasi jarayonlarini intellektual tashkil etish tizimi, so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning keng qo‘llanilishi bilan yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Transport logistikasi tizimlarini intellektual tashkil etish orqali, jarayonlarni avtomatlashtirish, real vaqt rejimida monitoring qilish va ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Bu esa transport yo‘nalishlarini optimallashtirish, vaqtni tejash, xarajatlarni kamaytirish va xavf-xatarlarni oldindan prognozlash kabi masalalarga yechim topishga yordam beradi.

Intellektual boshqaruv tizimlari transport jarayonlarini optimallashtirishda asosiy rolni o‘ynaydi. Sun’iy intellekt va mashina o‘rganish texnologiyalari yordamida, tizimlar transport yo‘nalishlarini avtomatik ravishda tahlil qilib, eng samarali variantlarni tanlash imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, transport xarajatlarini kamaytirishga, etkazib berish muddatlarini qisqartirishga va resurslar bilan samarali ishlashga yordam beradi. Shuningdek, real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayta ishlash orqali, transport jarayonlaridagi noxush vaziyatlarni aniqlash va ularga tezda javob berish mumkin bo‘ladi. Transport logistikasi tizimlarining samarali ishlashi uchun katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili muhim ahamiyatga ega. Intellektual tizimlarning yana bir muhim afzalligi bu xavf-xatarlarni oldindan prognozlash va ularni boshqarish imkoniyatidir. Masalan, transport tizimidagi favqulodda holatlar, avariyalar yoki tabiat hodisalari kabi xavflarni sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili yordamida oldindan prognozlash mumkin. Bu esa operativ choralar ko‘rish va muammolarni minimal darajaga tushirish imkonini beradi. Tizimlar turli muammolar yuzaga kelganda avtomatik ravishda optimallashtirilgan alternativ yo‘nalishlar yoki variantlarni taklif etadi. Transport logistikasi tizimlarining intellektual tashkil etilishi ekologik va iqtisodiy jihatdan ham katta foyda keltiradi. Samarali yo‘nalishlarni tanlash va transport jarayonlarini optimallashtirish nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, ekologik ta’sirni pasaytirish imkoniyatini yaratadi. Bu tizimlar resurslarni tejash va energiya samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy

jihatdan ham foydali bo‘ladi. Uzoq muddatda bu o‘zgarishlar global miqyosda atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Transport logistikasi jarayonlarini intellektual tashkil etishning kelajagi juda katta. Mamlakatda kompaniyalar uchun transport tizimlarini raqamlashtirish va intellektual boshqaruvni amalga oshirish uchun keng qamrovli strategiyalar ishlab chiqish zarur. Ushbu tizimlarning samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlilini yanada rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va raqamli infratuzilmani takomillashtirish kerak. Shu bilan birga, intellektual tizimlarni joriy qilishda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarni inobatga olish muhimdir.

Xulosa

Transport logistikasi jarayonlarini intellektual tashkil etish tizimlarining rivojlanishi global miqyosda transport va logistika sohasining samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va resurslarni optimallashtirishda muhim omilga aylanadi. Biroq, bu jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zamonaviy texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llash, hamda iqtisodiy va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarur. Yangi texnologiyalar va intellektual boshqaruv tizimlari transport sohasining yangi bosqichga o‘tishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR

[1] T.B. Djuraev, H.K. Чориёров Модель информационных потоков в диспетчерской службе транспортного процесса. Journal of Integrated Education and Research. Vol. 1 No. 6 (2022): б. 63-67.

[2] J.T. Usmonov, T.B. Djurayev, Pulatova Z.M. Imitation models of the railway organization for railway transport flows, International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2021. DOI**:** 10.1109/ICISCT52966.2021.9670044 Retrieved from www.scopus.com

[3] J.T. Usmonov, T.B. Djurayev Technical science and innovation, Imitation models of the railway organization for railway transport flows, Tashkent state technical university named after Islam Karimov., №4(10) tashkent 2021 page 201-207.

[4] T.B Djuraev, O.X**.** Alloyorov “Автомобил транспорти логистикаси фаолиятини Монте-карло усули асосида оптималлаштириш”. “Muhammad al-Xorazmiy avlodlari” ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jurnali. 2(16) /2021, 46-51

[5] J.T. Usmonov, T.B. Djuraev, Z.M. Pulatova (2020). Optimization of global information flows in transport system management. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(7 Special Issue), 2024-2032. doi:10.5373/JARDCS/V12SP7/20202319 Retrieved from www.scopus.com

[6] X. Jiyanbekov, J. Usmonov, S. Azimov (2019). The probability model of railway transport system activity. Paper presented at the Transport Means - Proceedings of the International Conference, 2019- October 1256-1259. Retrieved from www.scopus.com

[7] Luan, X., Wang, Y., De Schutter, B., Lodewijks, G., Corman, F. Integration of real-time traffic management and train control for rail networks - Part 2: Extensions towards energy-efficient train operations - Transportation Research Part B: Methodological 115, Pp: 72-94, 2018.

[8] Якубов М.С., Тургунов М.Р. “Особенности логистики информа-ционных ресурсов в электронном документообороте” International scientific journal “SCIENCE AND WORLD”. No3 (19), 2015, Vol II. c.107-111.

[9] Кувнаков А.Э. Джураев Т.Б. Автомобил йўли орқали юкларни ташиш тизимини автоматлаштириш “Иқтисодиётнинг тармоқларини инновацион ривожланишида ахборот –

коммуникация технологияларининг аҳамияти” Республика илмий – техник анжуманининг маърузалар тўплами. Тошкент -2020. –Б. 144-147.

[10] Кувнаков А.Э. Джураев Т.Б. Юлдашев А. Логистика самарадорлигининг рақамли иқтисодиётга таъсири DEUZ) “Рақамли иқтисодиёт: Янги Ўзбекистонни янги технологиялар, платформалар ва бизнес моделлари орқали ривожлантиришнинг янги босқичи” мавзусидаги халқаро илмий – амалий конференция материаллари. 5-қисм. Тошкент -2020. –Б. 63-66

[11] Бутырин О.В., Бутырина Ю.О., Тирских В.В. Математическое моделирование процесса перевозок пригородного железнодорожного транспорта. // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. - 2015. - № 12-5. - С. 776-779.

СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТГА АСОСЛАНГАН БИЗНЕСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Арзикулов Суннатулла Дониярович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
катта ўқитувчи
arzikulov.sunnatulla@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14222375

Турсунбоев Шохрух Юрсунали ўғли
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
ассистент
tursunboyevs418@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14222375

Аннотация: *Ушбу мақолада сунъий интеллектни турли соҳаларда жорий этиш шунчаки тенденция эмас, балки бизнес, технологиялар ва мижозлар билан ўзаро алоқаларни шакиллантириш кўрсатиб ўтилган. Чакана савдодан банк ишигача, дастурий таъминот ва ахборот хизматларидан соғлиқни сақлашгача - сунъий интеллект самарадорликни оширишини, ўзаро алоқаларни шахсийлаштиришни ва инновациялар ва ўсиш учун янги имкониятлар кўрсатилган.*

Калит сўзи: *сунъий интеллект, бизнес, технологиялар, рақамли иқтисодиёт, рақамли иқтисодиётнинг ривожланиш тенденциялари, маълумотлар.*

Кириш.

Тез ривожланаётган технологик муҳитда сунъий интеллект инновациялар манбаига айланди. Компаниялар SI орқали иш самарадорлигини оширишга, харажатларни камайтиришга ва ходимларнинг меҳнат унумдорлигини оширишга интилишмоқда.

International Data Corporation (IDC) корпорациясининг 2024 йил 1 апрелдаги "Бизнесни оптималлаштириш учун умумий хизматларни автоматлаштириш" ҳисоботида ташкилотларнинг самарадорликни ошириш, харажатларни камайтириш ва жараёнларни стандартлаштириш учун бизнесда умумий хизматлар зарурлигини таъкидлайди. Умумий хизматлар - бу бизнес модели бўлиб, унда умумий ёрдамчи функциялар (масалан, кадрлар,

АТ, харидлар ва бошқалар) марказлаштирилган ва ташкилот ичидаги бир нечта бўлимлар ёки бизнес бўлинмаларига умумий ресурслар сифатида тақдим этилади. Умумий хизматлардан узоқ вақтдан бери фойдаланилганига қарамай, уларни жорий этиш сезиларли қийинчиликларга дуч келади, яъни натижалардаги ноаниқликлардан тортиб, сўровларни бажаришда кечикишларгача. Бундай муаммолар нафақат узлуксиз ишлашга таъсир қилади, балки ташкилотнинг мослашувчанлигини ва мижозларнинг қониқишини пасайтиради.

Сунъий интеллект умумий хизматларни автоматлаштиришда инқилоб ясаши мумкин, бу тизим жараёнларни оптималлаштириш, эҳтиёжларни башорат қилиш ва хизматларни мослаштириш учун маълумотларга ўргатилганда ақлли қарорлар қабул қилиш имконини беради. Сунъий интеллектга асосланган ушбу ёндашув хатолар сонини минималлаштиради ва кундалик вазифаларни автоматлаштириш орқали самарадорликни оширади ва ходимларга янада мураккаб ва муҳимроқ фаолият турларига эътибор қаратиш имконини беради. Бундан ташқари, янги авлод сунъий интеллекти реал вақтдаги фикр-мулоҳазалар ва мослашувчан таълим механизмлари орқали доимий равишда хизмат кўрсатиш сифатини яхшилаши мумкин, бу эса умумий хизматларнинг ташкилот мақсадлари ва фойдаланувчиларнинг умидларига мувофиқ ривожланишини кафолатлайди.

IDC корпорациясининг "Дунёда 2024 йилда сунъий интеллект ва генератив сунъий интеллект харажатлари бўйича қўлланма, 2-версия."даги тахлилига кўра бугунги кунда сунъий интеллект бозори жаҳонда қарийб 235 миллиард долларга баҳоланиб, 2028 йилга келиб бу бозор 631 миллиард доллардан ошишига башорат қилинмоқда.

Сунъий интеллект бўйича харажатлари бўйича дастурий таъминот ва ахборот хизматлари, банк иши хамда чакана савдо тармоқлари етакчилик қилмоқда. Умуман олганда, ушбу тармоқлар 2024 йилда сунъий интеллектга тахминан 89,6 миллиард доллар ажратиши кутилмоқда, бу эса жаҳон сунъий интеллект бозорининг 38 фоизини ташкил қилади. Беш йил ичида ўртача йиллик ўсиш суръати (CAGR) 27 фоиз бўлганда, уларнинг умумий сармояси 2028 йилга келиб деярли 222 миллиард долларга ўсиши кутилмоқда. Шуниси эътиборга лойиқки, генератив сунъий интеллект ушбу учта тармоқда инвестициялар умумий ҳажмининг 19% дан ортиғини ташкил қилади, бу унинг сунъий интеллект соҳасидаги аҳамияти ортиб бораётганини таъкидлайди.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи.

Бизнесда сунъий интеллект (СИ) асослари ва унинг қўлланилиши бўйича тадқиқотлар олиб борган бир қатор машҳур олимлар бор.

"Иқтисодий ҳаракатлар назарияси" ва бизнесда сунъий интеллект моделларини қўллаш устида илмий ишларни америкалик олим Герберт Саймон (Herbert Simon) олиб бориб, у сунъий интеллект ва қарор қабул қилиш назариясининг асосчиларидан бири ҳисобланади. Унинг тадқиқотлари бизнес жараёнларини автоматлаштириш ва оптимал қарорлар қабул қилишда сунъий интеллектдан фойдаланишга қаратилган.

Герберт Саймон билан бирга, сунъий интеллектнинг дастлабки назарий моделларини ривожлантирган. Унинг ишлари маълумотлар тузилиши ва уларни тадқиқ қилиш билан боғлиқ. Аллен Ньюэлл (Allen Newell) Герберт Саймон билан бирга, сунъий интеллектнинг дастлабки назарий моделларини ривожлантирган. Унинг ишлари маълумотлар тузилиши ва уларни тадқиқ қилиш билан боғлиқ бўлиб унда сунъий интеллект тизимларини одамлар қабулига яқинлаштириш усулларини ишлаб чиққан.

“Сунъий интеллект" атамасининг муаллифи Джон Маккарти (John McCarthy) бизнесда автоматлаштириш ва тадбиркорлик жараёнларига СИ қўлланилиши бўйича муҳим ишлар қилган. Маккарти Lisp дастурлаш тилини ишлаб чиққан, бу СИ дастурлаш учун асосий воситалардан бири бўлган.

Сунъий интеллект ва рақамли технологияларнинг бизнес стратегиясига таъсири бўйича Майкл Портер (Michael Porter) тадқиқотлар ўтказиб унинг "Қиймат занжири" концепцияси СИ технологияларини жорий қилишни яхшироқ тушунишга ёрдам берган. "Қиймат занжири" концепциясида бизнес стратегиясига сунъий интеллект қўшиш орқали рақобат устунликларини яратиш устида илмий ишлар қилган.

Замонавий сунъий интеллект тадқиқотлари ва уларнинг бизнесда қўлланилиши бўйича етакчи мутахассис Станфорд Университети олими Эндрю Нг (Andrew Ng) Google Brain дастурининг асосчиларидан бири бўлиб машина ўрганиши ва унинг бизнес жараёнларига қўлланилиши сохасида иш олиб борган.

Бизнесда сунъий интеллект қўлланилиши, айниқса, Хитой бозорларида СИ технологияларини ишлаб чиқиш ва татбиқ қилиш бўйича етакчи мутахассиси Кай-Фу Ли (Kai-Fu Lee) Хитойдаги СИ ишланмалари ва инвестиция жараёнларини мувофиқлаштириш бўйича илмий ишлар қилинган.

Бу олимлар бизнесда сунъий интеллектнинг назарий ва амалий жиҳатларини ривожлантиришга катта ҳисса қўшишган.

Ўзбекистонда бизнесда сунъий интеллект (СИ) технологияларини қўллаш йўналишида фаолият олиб бораётган бир қатор олимлар бор. Улар турли соҳаларда – иқтисодиёт, маркетинг, молия ва бизнес жараёнларини оптималлаштиришда СИни қўллаш бўйича тадқиқотлар ўтказишмоқда. Улардан, Махмуд Низомов сунъий интеллект ва иқтисодий моделлаштириш сохасида илмий ишлар олиб бориб иқтисодий таҳлилда СИ алгоритмларидан фойдаланиш бўйича тадқиқотлар олиб борган. Азизбек Ҳайдаров Электрон тижоратда харидор талабларини олдиндан башорат қилиш ва сунъий интеллект қўллаш бўйича тадқиқотлар оллиб борган. Булардан ташқари Шоҳрух Убайдуллаев, Гулрух Исмоилова ва Шерзод Абдураҳмонов каби олимларимиз илмий тадқиқотлар олиб боришмоқда.

Бизнесда сунъий интеллект тадқиқотлари кўпинча қуйидаги институтлар базасида амалга оширилади:

- Тошкент ахборот технологиялари университети (ТАТУ): Сунъий интеллект ва дастурий таъминот бўйича йўналишлар мавжуд.
- Иқтисодий тадқиқотлар ва ислоҳотлар маркази: СИ орқали иқтисодий моделлаштиришга эътибор қаратилади.
- Тошкент давлат иқтисодиёт университети (ТДИУ): Иқтисодиёт ва бизнесда СИ алгоритмларини қўллаш бўйича тадқиқотлар ўтказилади.
- ИНҲА университети Тошкентда: СИ ва рақамли технологиялар соҳасидаги илғор тадқиқотлар маркази.

Тадқиқот методологияси:

Ушбу мақолада тизимли, таркибий, қиёсий ва молиявий таҳлил усуллари тўплами қўлланилади. Тадқиқот материаллари сифатида статистик маълумотлар ва таҳлилий шарҳлар, тадқиқот мавзусидаги мақолалар ўзбек (афсуски ўзбек олимларнинг иқтисодий тахлиллари жуда кам), ва хорижий илмий нашрлардан олиб ишлатилган. Мақолани

тайёрлаш жараёнида олинган маълумотлар ва ахборот материаллари "Суъний интеллект" бозорини ривожлантириш истиқболлари ва уларнинг бизнесни шакллантиришга оид тадқиқот мавзуси бўйича илмий ва услубий асосларни ишлаб чиқишга қўйиладиган умумий талаблар нуқтаи назаридан тўғри умумлаштирилган ва тузилган.

Натижа ва мухокама.

Замонавий дунёда бизнес усуллари доимий равишда ўзгариб туради, бу асосан иқтисодий ривожланиш, ахборот технологиялари ва глобаллашув билан белгиланади. Шу билан бир вақтда, бизнесда истеъмолчиларнинг талаблари хам ўзгармоқда. Замонавий шароитда бизнесда рақобатбардошликни ошириш учун компаниялар ўз мижозлари нимани ва қачон сотиб олишлари, қаерда харид қилишлари ва ҳатто савдо майдончасига ёки компаниянинг веб-сайтига киришдан олдин нимани ўйлашлари ҳақида реал вақтда билимга эга бўлишга интилишади. Аслида мижозларнинг хатти-ҳаракатлари тўғрисида турли хил таҳлил қилинган фактларни акс эттирувчи катта маълумотлар технологиялари истеъмолчиларнинг хатти-ҳаракатлари ва ушбу маълумотларга эга бўлишнинг бизнес таҳлилида ёрдам бериши мумкин. Бугунги кунда биз бизнесни ривожлантириш мақсадида уларни суъний интеллект интеграцияси ва ўзаро таъсири ҳақида гапирамиз.

Ўзининг динамиклиги ва жадал ўсиши билан машҳур бўлган дастурий таъминот ва ахборот хизматлари соҳаси ҳозирда хизматларни тақдим этиш ва истеъмол қилиш усулларини тубдан ўзгартирадиган сунъий интеллект интеграцияси олдида турибди. 2024 йилда сунъий интеллект харажатлари 33 миллиард долларни ташкил этади ва компаниялар сунъий интеллектнинг ҳаёт циклини бошқариш учун дастурий таъминот ва башоратлаш моделлари ёрдамида дастурий таъминотни ишлаб чиқиш жараёнини янада самарали ва хатоларга чидамли қилиш учун ундан фойдаланадилар. Фойдаланувчи маълумотлари асосида контентни тақдим этишни персоналлаштириш орқали ахборот хизматларини яхшилаш фойдаланувчиларнинг иштирокини оширади. Сунъий интеллект, шунингдек, маълумотларни таҳлил қилиш ва бозор тенденцияларини башорат қилиш учун янги маҳсулотлар ва воситаларни яратиш орқали компанияларга рақобатбардош бўлиб қолишга ёрдам беради. Бундан ташқари, СИ иш жараёнларини тўлдиради ва автоматлаштиради, ходимларни бошқариш каби функцияларни стратегик вазифаларга қаратиш орқали самарадорликни оширади ва харажатларни камайтиради. Сунъий интеллектнинг бундай комплекс интеграцияси нафақат иш жараёнларини оптималлаштиради, балки юқори сифатли мослашувчан дастурий таъминот ва хизматларни ишлаб чиқишга ёрдам беради.

Сунъий интеллектга 2024 йилда қарийб 31,3 миллиард доллар сармоя киритилган, бу банк бозори мижозларга машинани ўрганиш ва маълумотларни таҳлил қилиш орқали мослаштирилган ёндашувни таклиф қилиш учун ушбу технологиядан фойдаланади, бу эса банкларга хизматларни шахсий хоҳиш-истакларига мослаштириш имконини беради. Чат-ботлар ва сунъий интеллектга асосланган виртуал ёрдамчилар мижозларга хизмат кўрсатишни яхшилаш ва ходимларга мураккаб масалаларга эътибор қаратиш имконини бериб, ҳам асосий, ҳам мураккаб вазифаларни ҳал қилишда узлуксиз ёрдам беради.

Жараёнларни роботлаштирилган автоматлаштириш (RPA) харажатларни ва хатолар сонини қисқартириш орқали бек-офис ишини оптималлаштиради. Сунъий интеллект алгоритмлари реал вақт режимида транзаксия схемалари ва мижозларнинг хатти-ҳаракатларини таҳлил қилиш орқали фирибгарликни аниқлаш ва хавфларни бошқариш самарадорлигини оширади, шу билан активларни ҳимоя қилади ва ишончни

мустаҳкамлайди. Инвестицион банкда сунъий интеллектга асосланган алгоритмик савдо тезкор стратегик савдо қарорларини қабул қилиш учун бозор маълумотларини таҳлил қилади, шунингдек, сунъий интеллект бозордаги ўзгаришларни башорат қилиш ва асосли инвестиция қарорларини қабул қилиш ва хатарларни бошқаришга ёрдам бериш орқали хатарларни баҳолаш моделларини яхшилайди.

2024 йилда чакана савдо соҳасида сунъий интеллект учун харажатлар тахминан 25 миллиард долларга етади. Сунъий интеллект чакана савдо соҳасида инқилоб ясайди, машиналарни ўрганиш ва маълумотларни таҳлил қилиш ёрдамида шахсийлаштирилган харид тажрибасини яратади, бу чакана сотувчиларга мижозларнинг индивидуал афзалликларини тушуниш ва уларнинг эҳтиёжларини қондириш имконини беради. Бу шахсийлаштирилган маҳсулот тавсиялари ва мақсадли маркетинг туфайли мижозларнинг жалб этилиши ва содиқлигининг ошишига олиб келади. Сунъий интеллект, шунингдек, захираларни бошқариш муаммоларини ҳал қилади, талаб тузилишини башорат қилади ва захиралар даражасини оптималлаштиради, ортиқча ва етишмаётган товарларни камайтиради. Чат-ботлар ва сунъий интеллектга асосланган виртуал ёрдамчилар сўровларни самарали қайта ишлаш ва уларнинг қониқишини ошириш орқали мижозларга хизмат кўрсатишни яхшилайди. Бундан ташқари, оддий дўконларда сунъий интеллект интерактив реклама учун "ақлли" ойналар, товарларни ҳаракатлантириш ва тақдим этиш, шунингдек, дўконларда хавфсизликни ошириш ва уларнинг жойлашувини оптималлаштириш учун сунъий интеллектга асосланган тизимлар каби технологиялар ёрдамида харид таассуротларини яхшилайди.

Хулоса.

Тадқиқот натижаларига кўра, бизнинг хулосамиз шундан иборатки, суъний интеллект ақлли қайта ишлаш учун ташқи бозор жадал ривожланаётганига қарамай, бизнинг иқтисодиётимизда ушбу методологияни амалга ошириш ва уни маҳаллий ташкилотларнинг иқтисодий таҳлилига киритиш учун бир қатор тўсиқлар мавжуд, биз уларни қисман чеклаш сифатида аниқладик.

Улар қўйидагилардан иборат:

- катта маълумотлар ва унинг ривожланиши атамаларининг ноаниқлиги;
- чуқур бизнес-таҳлил бўйича малакали ходимларнинг етишмаслиги;
- ташкилотнинг бизнес мақсадлари ва стратегик бошқарув қарорларини қабул қилиш жараёнларини такомиллаштириш учун "катта маълумотларни" бошқариш ва уларни талқин қилиш бўйича кўникмаларга эга бўлган ходимлар маълакаси йўқлиги.

СИ усулларини амалга ошириш учун зарур бўлган малакали мутахассислар етишмаслиги ҳали ҳам мавжуд, бунга математиклар, тўғридан-тўғри бизнес таҳлилчилари, маълумотлар модели мутахассислари, статистиклар ва турли профилдаги тадқиқотчилар киради. Янги технологияларнинг ривожланиши ва суъний интеллектнинг ижтимоий тармоқлар ва мобил платформалар билан яқин интеграцияси SI business analysis воситаларини охирги фойдаланувчиларнинг кенг доираси учун тақдим етишига қарамай, иккинчисига амалга ошириш гуруҳларини ташкил қилиш қийин ва зарур SI тизими инфратузилмаси харажатлари кўпинча жуда юқори ушбу тоифадаги мижозлар учун. IDC таҳлилчилар фикрига кўра, бу омиллар сезиларли даражада унинг ривожланишининг янги босқичи сифатида, бизнес таҳлил қилиш учун BI хизматлар ауцорсинг учун бозорининг

янада ўсишига ёрдам беради. Инсон ресурслари бозоридаги "вакуум" ва зарур фундаминтал билимларнинг етишмаслиги тобора кўпроқ компанияларни катта маълумотлар бизнесини таҳлил қилиш соҳасидаги эҳтиёжларни қондириш учун хизмат кўрсатувчи провайдерларни жалб қилишга ва ушбу жараёнларни қисман ауцорсингга ўтказишга мажбур қилмоқда.

Юқорида келтирилган маълумотлар замонавий ташкилотларнинг иқтисодий таҳлилига бизнес-интеллект ва SI технологияларини интеграция қилиш методикасининг ривожланиши юқори хавф-хатарлар шароитида кечаётганлигини, ушбу муаммони назарий-методологик ва амалий жиҳатдан ўрганишни тақозо этаётганлигини тасдиқлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Шаг в будущее: искусственный интеллект и цифровая экономика // Материалы 1-й Международной научно-практической конференции. Вып. 4 / Государственный университет управления. – М. : Изд. ГУУ, 2017.

2. Сычёв А.А., Савостицкий А.С. Проблема неравномерности технологического развития экономики и входные барьеры / А.А. Сычёв, А.С. Савостицкий // Шаг в будущее: искусственный интеллект и цифровая экономика // Материалы 3-й Международной научно-практической конференции. Вып. 4 / Государственный университет управления. – М. : Изд. ГУУ, 2019.

3. Muksimova, S., Umirzakova, S., Shoraimov, K., Baltayev, J., and Y. I. Cho. “Novelty Classification Model Use in Reinforcement Learning for Cervical Cancer.” Cancers, vol. 16, no. 22, 2024, p. 3782. https://www.mdpi.com/2072-6694/16/22/3782.

4. Safarov, F., Muksimova, S., Kamoliddin, M., and Y. I. Cho. “Fire and Smoke Detection in Complex Environments.” Fire, vol. 7, no. 11, 2024, p. 389. https://www.mdpi.com/2571-6255/7/11/389

5. Muksimova, Shakhnoza, Sabina Umirzakova, Seokwhan Kang, and Young Im Cho. “CerviLearnNet: Advancing Cervical Cancer Diagnosis with Reinforcement Learning-Enhanced Convolutional Networks.” Heliyon, vol. 10, no. 9, 15 May 2024, e029913. https://www.cell.com/heliyon/fulltext/S2405-8440(24)05944-9

6. Muksimova, S., Rakhimov, K., and S. Umirzakova. “Assessing Machine Learning Algorithms for Chronic Disease Prediction Through Performance Metrics.” DTAI–2024, vol. 1, no. DTAI, 2024, pp. 288–290. https://dtai.tsue.uz/index.php/DTAI2024/article/view/shaknoza

BANK SOHASIDAGI AXBOROT UZATISH MODULLARINING TEXNIK EKSLPUATATSIYALARI VA HAYOTIY DAVRI

Abrayeva Mahliyo Olimjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari
kafedrasi katta o‘qituvchisi
abraevaM@tsue.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14222408

Annotatsiya. *Intelektual asinxron axborot uzatish modullari zamonaviy va murakkab tizimlarda muhim rol o‘ynaydi. Asinxron axborot uzatish modullari o‘rtasida ma’lumot almashish va shu tariqa axborotlarni kuzatish va nazorat qilish uchun ishlatiladi. Axborot uzatish va yig'ish murakkab tizimlar ta'minotining hozirgi va kelajakdagi xavfsizligini ta’minlashga hissa qo‘shishi mumkin. Bu esa tizimlarni texnik ekspluatatsiya qilish jarayonlarining modellarini ishlab chiqishda tasodifiy jarayonlarning matematik nazariyasini yangi yo‘nalishlaridan foydalanish, murakkab Asinxron axborot uzatish modellarning ishlash qobiliyatini yaxshilash va ularning samaradorligini oshirish jarayonlarini muvaffaqiyatli boshqarish imkoniyatini beradi.*

Kalit so‘zlar: *Asinxron, AAUM, ekspluatatsiya, mikroprotsessor, konstruktor, intelektual, utilizatsiya, FQ, TXQ, MP, MPQ.*

I. KIRISH.

Jahonda so‘ngi yillarda bank sohasidagi axborot tizimlari haqidagi xabarlarni o‘z vaqtida va sifatli uzatish bo‘yicha muhim vazifalarni bajaradigan, xususiy taqsimlangan murakkab texnik komplekslarni aks ettiradi. Axborotlar uzatish tizimlarining mikroprosessorli qurilmalari sifatida kodeklar, modemlar, boshqaruv qurilmalari va boshqa axborot uzatish apparaturalari tushuniladi. Mikroprotsessorli qurilmalarini yaratishda, ularning samaradorligini va ishonchliligini jiddiy oshirilishiga, texnologiyani yuksaltirilishiga, ularning hajmini, o‘lchamini va ketadigan quvvatni kamaytirishga imkon beradigan zamonaviy mikroprosessorli qurilmalar bazasidan foydalaniladi. Bu borada rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSh, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Ukraina va Rossiya axborotlar uzatish tizimlarining mikroprosessorli qurilmalarida nosozliklarni o‘z vaqtida aniqlash, qidirish va nosozliklar joyini topish, diagnostika vositalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda. Respublikamizda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda. Bank sohasidagi axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ko‘plab iqtisodiyotning real sektorida innovatsiyalarni joriy qilishga ko‘maklashish, raqamli iqtisodiyot o‘sishini rag‘batlantirish, shu jumladan ishlab chiqarishda kompleks avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish; taqdim etilayotgan telekommunikatsiya xizmatlarining yuqori sifatini ta’minlash maqsadida axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasida qonun hujjatlariga rioya etilishining davlat nazoratini amalga oshirish; axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini qo‘llash va rivojlantirish masalalarini ko‘rib chiqish, ushbu sohani yanada

rivojlanishini ta’minlaydi [1].

Ushbu maqolada quyidagi ilmiy yangilik mavjud:

- mikroprotsessorli qurilma va ko‘p kanalli signaturali analizator yordamida tekshirish modelini qurish metodi va kanallar sonini aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan.

II. AAUM LARI TUSHUNCHASI.

Intelektual asinxron axborot uzatish modellarida mikroprotsessor va IO (kiritish va chiqarish) qurilmalari interfeyslar orqali bir-biri bilan ma’lumot almashadi. Interfeys bu konvertatsiya yoki muvofiqlashtirishni amalga oshiradigan modul hisoblanadi. Masalan, mikroprotsessorda analog qiymatni ishlab chiqaradigan harorat sensoridan o‘lchov olinadi. Bunday hollarda foydalaniladigan interfeyslar analog raqamli konvertorlar hisoblandi. Masalan, ulardan quyidagi ko‘plab konvertorlar mavjud: DAC, UART, SPI, I2C, CAN, RS-485, GPIO. Bularning barchasi mikroprotsessor va IO(kiritish,chiqarish) qurilmalari o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvini osonlashtiradigan muayyan funksiyalarni bajaradi.

III. AAUM LAR HAYOTIY DAVRI.

Intelektual asinxron axborot uzatish modul (AAUM) larining yaratilish vaqtidan boshlab (uning yaratilishiga ehtiyoj paydo bo‘lishidan) to‘liq utilizasiyaga topshirilishigacha bo‘lgan barcha o‘zgarishlari, bir qancha jarayonlar bilan tavsiflanadigan va har xil bosqichlar bilan holatlarni o‘z ichiga oladigan hayot davrini tashkil etadi [2].

AAUM hayot davrining tashkil etuvchilari quyidagilardan iborat:

- g‘oyani tadqiq etish va loyihalashda ishlab chiqish, ilmiy texnik taraqqiyot yutuqlariga mos keluvchi sifat darajasini shakllanishi, loyiha hujjatlarini va ishchi hujjatlarni ishlab chiqish, tajriba na’munasini tayyorlash va sinovdan o‘tkazish, konstruktorlik ishchi hujjatlarni ishlab chiqishdan iborat bo‘lgan bosqich;
- AAUM ni ishlab chiqarish bosqichi quyidagi bosqichlardan iborat: ishlab chiqarish texnologiyasini tayyorlash; ishlab chiqarishni yuritib borish; tayyor obyektlarni transportda tashish va saqlashga tayyorlash;
- obyektni foydalanishga tayyorlash bosqichi, bunda tayyor obyektni transportda tashish va saqlash vaqtida uning sifatini maksimal saqlab qolishni tashkil etadi. AAUM larning hayot davrini bosqich va pog‘onalarini taqsimlanishi keltirib o‘tamiz va bundan tashqari AAUM larni ekspluatatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan hayot davrining pog‘onasida hosil bo‘ladigan masalalarni ko‘rib chiqamiz.

AAUM lar hayotiy davrining pog‘onalari 5 qismdan iborat va ushbu qismlar ham turli bosqichlarga bo‘linadi:

Qidiruv izlanishlar		Ilmiy tadqiqot ishlari (ITI)		Tajribali konstruktorlik ishlab chiqarishlar (TKICH)		Sanoatcha ishlab chiqarilishi		Ekspluatatsiya	
1	Ilmiy muammolarning qo‘yilishi	1	ITI ga texnik bazifa ishlab chiqish	1	TKICH texnik vazifasini ishlab chiqish	1	Birinchi seriyasini tayyorlash va sinovdan o‘tkazish	1	Sinov ekspluatatsiyasi
2	Izlanishga doir chop etilgan muammolar tahlili	2	Texnik g‘oyani shakllantirish	2	Loyiha eskizini ishlab chiqish	2	Birinchi seriyasini tayyorlash va sinovdan o‘tkazish natijalariga ko‘ra konstruktorlik hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish	2	Normal ekspluatatsiya
3	Ilmiy konsepsiyalarni nazariy izlanishi va ishlab chiqish	3	Bozorni o‘rganish	3	Maketlarni tayyorlash	3	Seriyali ishlab chiqarish	3	Eskirish
		4	Texnik–iqtisodiy asoslash	4	Texnik loyihani ishlab chiqish			4	Ta’mirlash yoki utilizatsiya
				5	Ishchi loyihani yaratish				
				6	Tajriba na’munalarini yaratish va sinash				
				7	Tajriba na’munalarini tayyorlash va sinov				
				8	Ishlab chiqarish, texnik tayyorgarlik				

IV. AAUM LARDAGI INTELEKTUAL TIZIMLARNING EKSPLUATATSIYASI.

Intelektual tizimlarning ekspluatatsiyasi - AAUM sifatidan funksional foydalanish, sifatini saqlab turish (texnik xizmat ko‘rsatish) va qayta tiklash (texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash)dan iborat bo‘lgan hayotiy davrining pog‘onasidir.

Texnik ekspluatatsiya deb – ekspluatatsiya qismini transportda tashish, saqlash, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashni o‘z ichiga oladigan qismiga aytiladi [11, 12].

AAUM larni texnik ekspluatatsiya qilishning asosiy vazifalarining tasnifini ham ushbu maqolamizda keltirib o‘tamiz.

Intelektual tizimlarni texnik ekspluatatsiya qilish nazariyasida asosan, tizimlar ishlashidagi degradatsiya jarayonlarini, tugunlarning eskizini va yemirilishning matematik modellarini, tizimlarning puxta ishlashini hisoblash va baholash usullarini, tizimlardagi nosozlik va rad etishlarni prognozlash (bashorat qilish) va diagnostika qilish nazariyasini, optimal profilaktika chora-tadbirlari nazariyasini, tizimning texnik resursini qayta tiklash va kattalashtirish usullarini ko‘riladi [2, 7].

Bu jarayonlar asosan, stoxastik bo‘lgani sababli, ularning matematik modellarini ishlab chiqish maqsadida tasodifiy jarayonlar nazariyasi va ommaviy xizmat ko‘rsatish nazariyasining analitik usullari qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtda shu maqsadlarga erishish uchun qaror qabul qilish, statistik nazariya va tasvirlarni aniqlash statistik nazariyasidan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda.

Tizimlarni texnik ekspluatatsiya qilish jarayonlarining modellarini ishlab chiqishda tasodifiy jarayonlarning matematik nazariyasini yangi yo‘nalishlaridan foydalanish, murakkab AAUM larning ishlash qobiliyatini yaxshilash va ularning samaradorligini oshirish jarayonlarini muvaffaqiyatli boshqarish imkoniyatini beradi [13].



1.1- rasm. AAUM larning texnik ekspluatatsiya vazifalarining tasnifi.

Shuning uchun tadqiqot qilishning birinchi bosqichida quyidagi masalalarning yechimlari topiladi:

1. Ekspluatatsiya jarayonlarini optimal boshqarish;
2. AAUM larni ekspluatatsiya qilishning optimal modellarini ishlab chiqish;
3. Texnik xizmat ko‘rsatishni tashkil etishni optimal rejalarini tuzish;
4. Profilaktika jarayonlarining optimalini tanlash;
5. Tizimlarning texnik holatini samarali texnik diagnostika qilish va prognozlash usullarini ishlab chiqish.

Ekspluatatsiya qilish nazariyasining asosiy masalasi, murakkab tizimlar yoki texnik qurilmalar holatini ilmiy prognozlashdan iborat bo‘lib, maxsus modellar yordamida va ushbu modellarni matematik tahlil va sintez qilish yordamida, ularni ekspluatatsiya qilishni tashkil etishga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

AAUM larni texnik ekspluatatsiya qilish, inson-mashina tizimlarining faoliyati va tizimlar ishlashiga inson boshqaruvini ta’sir etish jarayonlarini optimizatsiyalashga kelib taqaladi. Shuning uchun AAUM larni ekspluatatsiyalash rejimlarini inson-mashina tizimidagi munosabatlarga qarab farqlash mumkin:

1. Tizimlarni ekspluatatsiyadan oldingi rejimi;
2. Tizimlarni ekspluatatsiya rejimi;
3. Texnik xizmat ko‘rsatish rejimi;
4. Tizimni ta’mirlash rejimi.

Rejimlar ma’lum bosqichlar va fazalari bilan hamda tizimlar ishlashiga texnik shaxs ta’sir etish jarayonlarining turi bilan farqlanadilar. Ekspluatatsiya rejimi asosan:

- tizimlarning element bazasi sifatiga;
- apparatura tarkibidagi mikroprotsessorga;
- nazorat-o‘lchov apparaturalar jamlanmasiga;
- texnik xodimlarni o‘rgatilish darajasiga;
- ehtiyot qismlar bilan ta’minlashga bog‘liq bo‘lgan boshqa muammolarga ham bog‘liqdir.

Bundan tashqari ekspluatatsiya qilish rejimi, AAUM larga qo‘yiladigan asosiy talablarga bog‘liq:

1. Asinxron axborot uzatishning ishonchliligi;
2. Asinxron axborot uzatishda kechikish vaqti;
3. Asinxron axborot yetkazishni ishonchliligi.

Ekspluatatsiya tizimi – bu tizimlarning texnik soz holatini saqlashdagi tayinlangan foydalanish jarayoni bo‘lib, turli ketma-ket rejali tadbirlar zanjiridan tashkil topgan: texnik xizmat ko‘rsatish, profilaktika, nazorat, ta’mirlash va h.k.z.

Tizimlarga texnik xizmat ko‘rsatishni uch bosqich bilan tavsiflash mumkin:

1. Profilaktik xizmat ko‘rsatish;
2. Texnik holatini baholash va nazorat qilish;
3. Texnik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish.

Texnik xizmat ko‘rsatishning alohida bosqichlarini tizimlar ishlashining ishonchliligiga ta’sir etish darajasini aniqlash murakkab masaladir, lekin tizimlarning funksional holatining ishonchliligiga va sifatiga yetarlicha ta’sir etishi ma’lumdir.

Tizimlarning texnik holatini nazorat qilish va baholash, nosozliklar va rad etishlarning texnik diagnostika qilish usullari, hamda tizimlardagi rad etishlarni prognozlash algoritmidan foydalanilgan holda tizim tugunlarining funksional holati sifatini nazorat qilish bilan amalga oshiriladi.

AAUM larning asosiy vazifasi ma’lumot uzatilishining sifati va samaradorligini oshirishdir [10]. Ushbu masalaning yechimi ikki yo‘nalishda rivojlanmoqda:

1. Sarf-xarajatlar cheklangan holda uzatilayotgan axborot tezligi ishonchliligini oshirish maqsadida diskret ma’lumotlarni qabul qilish va uzatish usullari;
2. AAUM larning yuqori darajada puxta ishlashini ta’minlaydigan va ularning tuzilishini yangi usullari ishlab chiqilmoqda.

Ushbu yondashish adaptatsiyalanishga zaruriyati bo‘lgan tasodifiy ta’sirlar sharoitida boshqarishni murakkab algoritmlarini yaratadigan va ishdan chiqishlarga, chidamlilik xususiyatlariga ega bo‘lgan AAUM larni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa katta integral sxema (KIS), eng katta integral sxema (EKIS) va MP komplektlarni qo‘llanishi, axborot uzatish kanallarini yuqori samaradorligini va rad etishlar paydo bo‘lganda AAUM ning normal funksiyalarini tezda tiklash qobiliyatini ta’minlaydi [3, 4, 5, 6, 8].

V. AAUM LARNING TUZILISH SXEMALARI VA ULARNI SIGNALGA AYLANTIRISH USULLARI

AAUM deb KIS va MP komplektlar asosida quriladigan tizim tushuniladi.

1.3 – rasmda AAUM ning tuzilish sxemasi keltirilgan [9].



1.2-rasm. AAUMning tuzilish sxemasi

AAUM ning uzatish qismi $\{X_i\}$ diskret ma’lumotni $\{SK_i(t)\}$ signalga aylantirishda bir qator o‘zgartirishlarni amalga oshiradi.

Uzatilayotgan ma’lumotlarni signalga aylantirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar to‘plami uzatish usuli deb ataladi va quyidagi munosabat bilan ta’riflanadi [2, 7, 10]:

$$\{Sk_i(t)\} = D_{\text{узатиш}}\{X_i + \xi_{\text{узатиш}}\} = D_m\left\{D_k\{X_i + \xi_{\text{узатиш}}\}\right\} \quad (1.1)$$

Bunda,

$D_{\text{узатиш}}$ - uzatish usuli;

D_k - kodlash;

D_m- modulyatsiyalash;

$\xi_{\text{узатиш}}$-uzatishda paydo bo‘ladigan rad etishlar va ishdan chiqishlarning tasodifiy jarayoni.

Uzatish qurilmasida rad etishlar va ishdan chiqishlarning $\xi_{\text{узатиш}}$ paydo bo‘lishi, $\{X_i\} \leftrightarrows \{Sk_i(t)\}$ shartni buzilishi va AAUM da xatolar sonini oshishiga olib keladi. Buning natijasida uzatish qurilmasini $\{X_i\} \leftrightarrows \{Sk_i(t)\}$ shart buzilishi hisobiga paydo bo‘ladigan xatolar sonining ko‘payishi yetarlicha kam bo‘ladigan qilib loyihalash lozim.

Tarqalish muhitida uzatiladigan signallar ushbu muhitda kuchsizlanadilar va o‘zgaradilar. Shuning uchun qabul qurilmasiga keladigan $\{Sk_i(t)\}$ signallar uzatish qurilmasi uzatadigan signallardan anchagina farqlanishi mumkin.

Muhitda tarqalayotgan signallarga muhitning ta’siri quyidagi munosabat bilan ham ta’riflash mumkin [7]:

$$\{Sk_i(t)\} = D_C\{Sk_i(t)\} = D_C\left\{D_{\text{узатиш}}\{X_i + \xi_{\text{узатиш}}\}\right\} \qquad (1.2)$$

bunda D_C – signal tarqaladigan muhit operatori.

Aloqa kanalida uzatilayotgan signalga shovqinlar ta’sir etadi, shuning uchun $\{Sk_i(t)\}$ signal uzatilayotganda qabul qilish qurilmasiga kirishda o‘zgargan signal ta’sir etadi [4]:

$$\{Y_i(t)\} = \{Sk_i(t)\} + \sum_{i=1}^{N} \xi C_i \qquad (1.3)$$

bunda ξC_i – shovqinlardan biriga xos bo‘lgan tasodifiy jarayon;

N – bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan shovqinlarning manbalari.

Qabul qilish qurilmasining vazifasi, qabul qilingan $Y_i(t)$ o‘zgargan signal orqali uzatilayotgan ma’lumotni aniqlashdan iboratdir. Qabul qilish qurilmasi bajaradigan operatsiyalar to‘plamini quyidagi munosabat bilan ta’riflash mumkin [ ]:

$$\{X_i\} = D_{qabul}\{Y_i(t)\}D_{qabul}\left\{Sk_i(t) + \sum_{i=1}^{N} \xi C_i + \xi_{qabul}\right\} = D_{\partial m}\left\{D_{\partial k}\left\{Sk_i(t) + \sum_{i=1}^{N} \xi C_i + \xi_{qabul}\right\}\right\}, \quad (1.4)$$

bunda D_{qabul} – qabul qilish usuli;

$D_{\partial m}$- demodulyatsiya;

$D_{\partial k}$- dekodlash;

ξ_{qabul} - qabul qilish qurilmalarida rad etishlar va ishdan chiqishlarning tasodifiy jarayoni.

Uzatilgan ketma-ketlik $\{X_i\}$ ni mosligining to‘liqligi $\{X_i\}$ kodlangan ketma-ketlik $\{Xk_i\}$ ning faqatgina to‘g‘rilovchi imkoniyatlariga, signal, shovqinlar va ularning statistikalarini darajasiga, dekodlovchi qurilmalarning xususiyatlariga bog‘liq bo‘lmasdan, qabul qiluvchi va uzatuvchi qurilmalarning ishdan chiqishlarini va rad etishlaridan hosil bo‘ladigan xatolarini AAUMning to‘g‘rilash imkoniyatiga ham bog‘liqdir. Ushbu keltirilgan yondashuv axborot uzatish jarayonini matematik modelini ta’riflash imkonini beradi. Bu esa har-xil omillarni AAUMlarning ishlash samaradorligiga ta’sirini aniqlash va ularning ishonchliligini oshirish yo‘llarini aniqlash imkoniyatlarini beradi.

Shuni qayd etish lozimki, mavjud bo‘lgan AAUMlarda, uzatuvchi va qabul qilivchi (modem, kodeklar, sinxronizatsiya qurilmalari va h.k) qismlaridagi apparat manbalaridan kelib chiqadigan nosozliklarni qidirish va aniqlash murakkab jarayon hisoblanadi.

VI. XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak AAUM lar intelektual texnik vositalarining ishonchliligining asosiy me’zoni bo‘lib tayyorgarlik koeffosiyenti hisoblanadi. Uning muhim tashkil etuvchisi esa nosozlikni qidirish va joyini aniqlash uchun ketadigan qayta tiklanishning o‘rtacha vaqti hisoblanadi. Tahlillarga asoslanib MPQ ishonchliligini oshirishning samarali usullaridan biri texnik texnik diagnostika usuli hisoblanadi. Diagnostika obyekti sifatida MP ni tahlil qilishda MP larning turlari muhim ahamiyatga ega. Maqoladagi keltirib o‘tilgan yondashuvlar adaptatsiyalanishga zaruriyati bo‘lgan tasodifiy ta’sirlar sharoitida boshqarishning murakkab algoritmlarini yaratadigan va ishdan chiqishlarga, chidamlilik xususiyatlariga ega bo‘lgan AAUM larni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa katta integral sxema, eng katta integral sxema va MP komplektlarni qo‘llanishi, axborot uzatish kanallarini yuqori samaradorligini va rad etishlar paydo bo‘lganda AAUM ning normal funksiyalarini tezda tiklash qobiliyatini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR.

1. Abrayeva M.O., “Bankomat qurilmalarini monitoring tizimini mikrokontroller asosida xavfsizligini ta’minlash”, “Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari” mavzusidagi III respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2024-yil 26-mart, 115-118-betlar.
2. Алексеев Е.Б., Гордиенко В.Н., Крухмалев В.В., Моченов А.Д., Тверетский М.С. Проектирование и техническая эксплуатация цифровых телекоммуникационних систем и сетей. Под редакцией В.Н. Гордиенко и М.С. Тверетского. М.: Горячая линия – Телеком, 2008. 392 с.
3. Амирсаидов У.Б., Аббасханова Х.Ю., Балтаев Ж.Б. Методы оценки надежности сети передачи данных с учётом воздействия внешних факторов, ВЕСТНИК ТашГТУ, 4/2014г., стр 27-31.
4. Muksimova, S., Umirzakova, S., Shoraimov, K., Baltayev, J., and Y. I. Cho. “Novelty Classification Model Use in Reinforcement Learning for Cervical Cancer.” Cancers, vol. 16, no. 22, 2024, p. 3782. https://www.mdpi.com/2072-6694/16/22/3782.
5. Safarov, F., Muksimova, S., Kamoliddin, M., and Y. I. Cho. “Fire and Smoke Detection in Complex Environments.” Fire, vol. 7, no. 11, 2024, p. 389. https://www.mdpi.com/2571-6255/7/11/389
6. Muksimova, Shakhnoza, Sabina Umirzakova, Seokwhan Kang, and Young Im Cho. “CerviLearnNet: Advancing Cervical Cancer Diagnosis with Reinforcement Learning-Enhanced Convolutional Networks.” Heliyon, vol. 10, no. 9, 15 May 2024, e029913. https://www.cell.com/heliyon/fulltext/S2405-8440(24)05944-9
7. Muksimova, S., Rakhimov, K., and S. Umirzakova. “Assessing Machine Learning Algorithms for Chronic Disease Prediction Through Performance Metrics.” DTAI–2024, vol. 1, no. DTAI, 2024, pp. 288–290. https://dtai.tsue.uz/index.php/DTAI2024/article/view/shaknoza
8. Umirzakova, S., Ahmad, S., Mardieva, S., Muksimova, S., and T. K. Whangbo. “Deep Learning-Driven Diagnosis: A Multi-Task Approach for Segmenting Stroke and Bell's Palsy.” Pattern Recognition, vol. 144, 2024, p. 109866. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0031320323005642
9. Muksimova, S., Umirzakova, S., Mardieva, S., and Y. I. Cho. “Enhancing Medical Image Denoising with Innovative Teacher–Student Model-Based Approaches for Precision

Diagnostics.” Sensors, vol. 23, no. 23, 2023, p. 9502. https://www.mdpi.com/1424-8220/23/23/9502

10. Umirzakova, S., Mardieva, S., Muksimova, S., Ahmad, S., and T. Whangbo. “Enhancing the Super-Resolution of Medical Images: Introducing the Deep Residual Feature Distillation Channel Attention Network for Optimized Performance and Efficiency.” Bioengineering, vol. 10, no. 11, 2023, p. 1332. https://www.mdpi.com/2306-5354/10/11/1332

11. Mukhtorov, D., Rakhmonova, M., Muksimova, S., and Y. I. Cho. “Endoscopic Image Classification Based on Explainable Deep Learning.” Sensors, vol. 23, no. 6, 2023, p. 3176. https://www.mdpi.com/1424-8220/23/6/3176

12. Muksimova, S., Mardieva, S., and Y. I. Cho. “Deep Encoder–Decoder Network-Based Wildfire Segmentation Using Drone Images in Real-Time.” Remote Sensing, vol. 14, no. 24, 2023, p. 6302. https://www.mdpi.com/2072-4292/14/24/6302

13. Doniyorjon, M., Madinakhon, R., Shakhnoza, M., and Y. I. Cho. “An Improved Method of Polyp Detection Using Custom YOLOv4-Tiny.” Applied Sciences, vol. 12, no. 21, 2022, p. 10856. https://www.mdpi.com/2076-3417/12/21/10856

14. Shakhnoza, M., Sabina, U., Sevara, M., and Y. I. Cho. “Novel Video Surveillance-Based Fire and Smoke Classification Using Attentional Feature Map in Capsule Networks.” Sensors, vol. 22, no. 98, 2022. https://www.mdpi.com/1424-8220/22/1/98

15. Mirzayev D.A., Abrayeva M.O., Moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish sharoitida blokcheyn texnologiyasi, “Yangi O‘zbekistonda ilm va innovatsiyalar taraqqiyot omili sifatida” mavzusida oliy o‘quv yurtlari aro respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, 2023-yil, 410-415 betlar.

16. Abrayeva M.O, “Moliyada FinTech innovatsiyalari”, RESULTS OF NATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH SCIENTIFIC JOURNAL, 2024-yil, 241-254 betlar.

17. Boltayev J.B., Abrayeva M.O, “FINTECH INNOVATIONS IN FINANCE”, МОЛИЯ ИЛМИЙЖУРНАЛ 2/2024, 5-13 betlar.

V-SHO‘BA

MOLIYA-BANK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

RAQAMLI IQTISODIYOT TASIRIDA FYUCHERS SHARTNOMALARINING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

Ilmiy rahbar:
PHD, Axmadaliyeva N.
https://doi.org/10.5281/zenodo.14184572

TDIU, MMT-97 guruh talabasi:
Qurbonmurotov B.
https://doi.org/10.5281/zenodo.14184572

Gipoteza: *Fyuchers shartnomalari O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyatida salbiy ta’sirlaridan ko‘ra ijobiylari ko‘p.*

Annotatsiya. *Fyuchers shartnomalaridan foydalanish zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib, aholi va korxonalarni turli bozorlarda narxlarning o‘zgarishidan himoya qilish vositalari bilan ta'minladi. O‘zbekiston misolida fyuchers shartnomalarining qabul qilinishi mahalliy iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, tovarlar, valyutalar, moliyaviy qimmatli qog‘ozlar narxiga ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbekistonda fyuchers shartnomalaridan qanday foydalanilganligini o‘rganish orqali ushbu maqola ushbu moliyaviy derivativlarning mamlakat iqtisodiy ko‘rsatkichlari va barqarorligiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu tahlil fyuchers shartnomalarining O‘zbekistonning iqtisodiy landshaftini shakllantirishdagi rolini yoritib beradi hamda siyosatchilar va bozor ishtirokchilari barqaror o‘sish va rivojlanishni rag‘batlantirish uchun ushbu moliyaviy vositadan qanday foydalanishi mumkinligi haqida tushuncha beradi.*

Kalit so’zlar: *Fyuchers shartnomalari, moliyaviy bozor, O’zbekiston, qishloq xo’jaligi, xorijiy investorlar, likvidlik, riskni pasaytirish.*

Kirish.

O‘zbekistondagi fyuchers shartnomalari moliyaviy shartnomalar bo‘lib, unda ishtirok etuvchi tomonlar muayyan aktivni kelajakdagi sanada oldindan belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini oladi. Ushbu shartnomalar investorlar va korxonalar tomonidan narxlarning o'zgarishidan himoyalanish va iqtisodiyotdagi risklarni boshqarish uchun keng qo'llaniladi. O‘zbekistonda fyuchers savdosiga qiziqish ortib borayotganini hisobga olib, ushbu shartnomalarning mamlakat iqtisodiyotida samaradorligiga ta’sir etuvchi me’yoriy-huquqiy bazani, asosiy ishtirokchilarni va bozor dinamikasini tushunish juda muhimdir. O‘zbekistondagi fyuchers shartnomalarining umumiy ko‘rinishini o‘rganish orqali biz ushbu moliyaviy vositalar iqtisodiyotning barqarorligi va o‘sishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Ushbu shartnomalar standartlashtirilgan va uyushgan birjalarda sotiladi, bu bozor ishtirokchilariga narxlarning o'zgarishi haqida spekulyatsiya qilish, risklardan himoya qilish va narxlarni samarali aniqlashga yordam beradi.

Fyuchers shartnomalari bozor xatti-harakatlarini shakllantirishda va narxlarni samarali aniqlashda muhim rol o'ynaydi. O‘zbekistonda fyuchers shartnomalarining joriy etilishi bozor ishtirokchilariga narxlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq noaniqliklarni yumshatib, kelajakda oldindan belgilangan narxlarda tovarlarni sotib olish yoki sotish uchun shaffof platformani taqdim etdi. Bu narxlarning o'zgaruvchanligini kamaytirish, likvidlikni oshirish va adolatli narx mexanizmlarini ta'minlash orqali bozorga barqarorlik keltiradi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligiga tayanadi, aholining katta qismi dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Fyuchers shartnomalari, birinchi navbatda, fermerlarga ekin narxi va ob-havo sharoiti bilan bog'liq xavflarni yumshatish imkonini berish orqali qishloq xo'jaligi sektoriga o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsatdi. Fyuchers shartnomalarini tuzish orqali fermerlar o‘z mahsuloti uchun kafolatlangan sotish narxini ta’minlab, ishlab chiqarish va investitsiya qarorlarini yanada samarali rejalashtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, fyuchers shartnomalari fermerlarga narxlarning salbiy o'zgarishidan himoyalanish imkonini beradi. Misol uchun, agar fermer paxta narxining pasayishini kutsa, ular yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlardan himoya qilish uchun paxta fyuchers shartnomalarini sotishlari mumkin. Xatarlarni boshqarishning ushbu vositasi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sektorining daromadlari va barqarorligini ta’minlash, barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlash va fermerlarning turmush sharoitini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston moliya bozorida fyuchers shartnomalarining mavjudligi ham xorijlik investorlarni o‘ziga jalb etib, iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotga xizmat qilmoqda. Fyuchers shartnomalari investorlarga to'g'ridan-to'g'ri jismoniy aktivlarga ega bo'lmagan holda O'zbekiston bozoriga chiqish imkoniyatini beradi. Bu bozor ishtirokini oshirish va investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Xorijiy investorlar tovarlar va moliyaviy vositalarning kelajakdagi narxlari harakati haqida spekulyatsiya qilishlari mumkin, bu esa bozor likvidligiga hissa qo'shishi va iqtisodiy faollikni oshirishi mumkin. O‘zbekistonda fyuchers shartnomalarining mavjudligi mamlakatning sarmoyaviy yo‘nalish sifatida jozibadorligini oshirib, kapital oqimini rag‘batlantirdi va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirdi.

O’rganishlar davomida bir qancha iqtisodchilarning maqolalari tahlil qilindi. Bu o’rganishlarda yangi fyuchers shartnomalarining muvaffaqiyatsizligiga olib keladigan bir qancha omillar aniqlanganligi. Muammoni yechish uchun, naqd pul bozorining faolligi kabi muhim omillar kuzatilishi kerakligi ilgari surilgan. Boshqa bir maqolada esa 440 fermerning tabaqalashtirilgan ma'lumotlari boyicha sinovdan o'tkazilgan. Bu sinovda, fermerlar fyuchers shartnomalaridan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi. Kovariatsiya tuzilishi va klaster tahlili qo'llanilgan, va segment darajasidagi heterojenlik, xavfga munosabatni yashirdi. Bozorga yo'naltirilganlik, tavakkalchilik, bozor samaradorligi va tadbirkorlik xulq-atvori ham muhim faktorlar sifatida tanilgan. Bu ishlar fyuchers shartnomalarining O’zbekistonda birinchi bo’lib qishloq xo’jaligida foydalanilayotganligiga qanday ta’siri borligini o’rganishga imkon yaratdi.

Metodologiya.

Fyuchers shartnomalarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’sirini tushunish uchun keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borildi. Kerakli ma'lumotlarni to'plash uchun tegishli adabiyotlar, hisobotlar va ma'lumotlarni har tomonlama ko'rib chiqish amalga oshirildi. Ma’lumotlar O‘zbekiston tovar-xomashyo birjasining statistik ma’lumotlari, nufuzli muassasalarning iqtisodiy hisobotlari va ilmiy maqolalarni o‘z ichiga olgan. Bundan tashqari, mavzu bo'yicha qimmatli tushunchalarga ega bo'lish uchun iqtisodchilar va moliyaviy ekspertlarning ishlari o’rganildi. Bu o’rganishlar natijasida fyuchers shartnomalarining o’ziga xos kamchilik va imkoniyatlari ko’zga tashlandi.

O'zbekistonda fyuchers shartnomalarining qiyinchiliklari va imkoniyatlari

O‘zbekistonda fyuchers shartnomalari bilan bog‘liq muammolardan biri bozor ishtirokchilari o‘rtasida tanishlik va tushunishning yo‘qligi hisoblanadi. Fyuchers shartnomalari risklarni boshqarish va narxlarni aniqlash nuqtai nazaridan taklif qilishi mumkin bo'lgan potentsial imtiyozlarga qaramasdan, ushbu moliyaviy vositalarni qabul qilishni oshirish uchun ko'proq ta'lim va xabardorlik kampaniyalariga ehtiyoj bor.

Bundan tashqari, O'zbekistonda fyuchers shartnomalari bilan bog'liq huquqiy va me'yoriy bazani ularning savdosi uchun qulay muhitni ta'minlash uchun yanada rivojlantirish kerak bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, fyuchers shartnomalari mamlakat moliya bozorlarini rivojlantirishga hissa qo'shish va turli sohalarda narxlarni shakllantirish samaradorligini oshirish imkoniyatlari

mavjud. Fyuchers shartnomalari xedjlash faoliyatini osonlashtirish va xorijiy investorlarni jalb qilish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi va O'zbekistonda mavjud investitsiya imkoniyatlarini diversifikatsiya qilishi mumkin.

Natija

Fyuchers shartnomalari O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Fermerlarga o'z ekinlari uchun narxlarni oldindan belgilab qo'yish imkonini berib, fyuchers shartnomalari fermerlarga bozor narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq xavflarni yumshatishga yordam beradigan narx barqarorligi darajasini ta'minlaydi. Bu barqarorlik nafaqat fermerlarga foyda keltirmoqda, balki mamlakat qishloq xo‘jaligining umumiy barqarorligi va rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, fyuchers shartnomalari agrobiznesga narxlar o'zgarishidan himoyalanish imkonini beradi, bu ularga yanada samaraliroq rejalashtirish va ishlab chiqarish va investitsiyalar bo'yicha ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. O‘zbekistonda faol fyuchers bozorining mavjudligi qishloq xo‘jaligi sektoriga ko‘proq investorlarni jalb qilish potentsialiga ega bo‘lib, kapital oqimining ko‘payishiga va texnologik taraqqiyotga olib keladi, bu esa uzoq muddatda samaradorlik va raqobatbardoshlikni yanada oshirishi mumkin.

Bunga misol qilib 2023-yilda paxta xomashyosi uchun tuzilgan fyuchers shartnomalarini olishimiz mumkin. Davlatimiz rahbarining 2023 yil 12 dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon bilan paxta xomashyosi ilk bor O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasining alohida seksiyasida fyuchers shartnomalari asosida sotilishi yo‘lga qo‘yildi. Bu, o‘z navbatida, paxta xomashyosining narxini shaffoflik va bozor tamoyillari asosida shakllanishini ta’minladi hamda mazkur bozorda raqobat muhiti rivojlanishiga ko‘mak berdi. Xususan, 2024 yil yanvar- fevral oylarida qariyb 28 mingta fermer xo‘jaligi tomonidan fyuchers shartnomalari asosida 1703,3 ming tonna paxta xomashyosi birja savdolariga qo‘yildi va ulardan 1700,5 ming tonnasi, ya’ni 99,8 foizi sotildi. O‘tkazilgan birja savdolari natijalariga ko‘ra, paxta xomashyosining o‘rtacha narxi mahsulotning bir tonnasi uchun 8285 ming so‘mni tashkil qildi. Bunda paxta xomashyosining birjada shakllangan narxi auksion evaziga uning boshlang‘ich bahosiga (7800 ming so‘mni) nisbatan o‘rtacha 6,2 foizga o‘sdi. Fyuchers shartnomalari bo‘yicha ortiq yetishtirilgan paxta xomashyosi 2024 yil noyabr oyidan boshlab birja savdolari orqali spot shartnomalari asosida sotiladi. Bu barqarorlik qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni rag‘batlantiradi va barqaror iqtisodiy o‘sishga yordam beradi.

Bundan tashqari, fyuchers shartnomalari energiya va ishlab chiqarish kabi boshqa sohalarga ham investitsiyalarni rag'batlantirdi. Korxonalarga tovar va xom ashyo uchun kelajakdagi narxlarni mahkamlash imkonini berish orqali korxonalar ishlab chiqarish va kengaytirish strategiyalarini yanada samaraliroq rejalashtirishlari mumkin. Bu ishbilarmonlarning ishonchini oshirib, ichki va xorijiy sarmoyalarni jalb etib, O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda.

Fyuchers shartnomalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga yana bir muhim ta'siri bozor shaffofligi va samaradorligini oshirishdir. Fyuchers bozorlarining tashkil etilishi bilan narx mexanizmi yanada shaffof bo'lib, xaridor va sotuvchilarga ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ushbu shaffoflik axborot assimetriyasini kamaytiradi va iqtisodiy o'sish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan adolatli bozor raqobatini ta'minlaydi.

Fyuchers shartnomalari O‘zbekistonga xorijiy sarmoya kiritilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu moliyaviy vositalar investorlarga valyuta o'zgarishi, siyosiy beqarorlik va xalqaro biznes operatsiyalari bilan bog'liq boshqa xavflardan himoyalanish imkonini beradi. Fyuchers shartnomalarini tuzish orqali xorijiy investorlar valyuta kurslarini mahkamlashlari va o'z sarmoyalarini bozordagi salbiy harakatlardan himoya qilishlari mumkin. Bundan tashqari, fyuchers shartnomalari investorlarga bozor tendentsiyalari va istiqbollari asosida ongli qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi narxlarni aniqlash uchun shaffof platformani taqdim etadi. Umuman olganda, fyuchers shartnomalarining O‘zbekistondagi xorijiy investitsiyalarga ta’sirini

e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi, chunki ular xatarlarni boshqarish va xalqaro korxonalarning rentabelligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Muhokama

Fyuchers shartnomalarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri ko‘p jihatdan ijobiy bo‘lgan bo‘lsa-da, ularni amalga oshirish bilan bog‘liq ma’lum qiyinchiliklar va risklar mavjud. Birinchidan, bozorni manipulyatsiya qilish va firibgarlik harakatlarining oldini olish uchun puxta tartibga solish va nazorat qilish zarur. Adolatli savdo amaliyotini ta'minlash va investorlar manfaatlarini himoya qilish uchun samarali me'yoriy-huquqiy bazalar mavjud bo'lishi kerak. Bundan tashqari, moliyaviy savodxonlikni oshirish va mas'uliyatli investitsiyalarni rag'batlantirish uchun ta'lim va xabardorlik dasturlarini amalga oshirish kerak.

Yana bir potentsial muammo - fyuchers bozorlarining o'zgaruvchanligi va oldindan aytib bo'lmaydiganligi. Ushbu shartnomalar risklarni boshqarish uchun vosita bo'lsa-da, agar ular to'g'ri boshqarilmasa, investorlarni potentsial yo'qotishlarga duchor qilishi mumkin. Shu sababli, bozor ishtirokchilari ongli qarorlar qabul qilish uchun aniq ma'lumotlar, tahlillar va risklarni boshqarish vositalariga ega bo'lishlari juda muhimdir.

O'zbekiston iqtisodiyotida fyuchers shartnomalarini qo'llash bo'yicha kelajakdagi ta'sir va tavsiyalar ushbu moliyaviy vosita bilan bog'liq foydani maksimal darajada oshirish va risklarni minimallashtirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tahlillardan ko'rinib turibdiki, fyuchers shartnomalari qishloq xo'jaligi sohasida narx risklari va noaniqliklarni boshqarishda yordam berishi va shu orqali fermerlar va savdogarlar uchun barqarorlikni ta'minlashi mumkin. Biroq, fyuchers shartnomalarining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun bozor ishtirokchilarining moliyaviy savodxonligini oshirish, shaffof va samarali normativ-huquqiy bazani ta'minlash zarurati mavjud. Bundan tashqari, siyosatchilar bozorda ishtirok etish va likvidlikni oshirishga yordam berish uchun fyuchers savdosini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma va institutlarni rivojlantirishga e'tibor qaratishlari kerak. Bundan tashqari, davlat idoralari, bozorni tartibga soluvchilar va sanoat manfaatdor tomonlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish O‘zbekistonda fyuchers bozorlarining umumiy muvaffaqiyati va barqarorligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tavsiyalarni o‘z ichiga olgan holda, O‘zbekiston uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o‘sish va rivojlanish uchun qimmatli vosita sifatida fyuchers shartnomalaridan foydalanishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, fyuchers shartnomalari O‘zbekiston iqtisodiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ular fermerlar va ishlab chiqaruvchilarga narxlarning o'zgarishidan himoya qilish mexanizmini taqdim etdilar va shu bilan ularning xavfini kamaytiradi va barqaror daromadlarni ta'minladi. Bundan tashqari, fyuchers shartnomalari qimmatli narx signallarini taqdim etish va bozorda likvidlikni oshirish orqali bozor samaradorligini oshirishga yordam berdi. Bundan tashqari, fyuchers shartnomalaridan foydalanish qishloq xo‘jaligi va tog‘-kon sanoati kabi muhim tarmoqlarga investitsiyalarning ko‘payishiga yordam berdi, bu esa O‘zbekistonda umumiy iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga olib keldi. Fyuchers shartnomalaridan foydalanish bilan bog'liq ma'lum risklar mavjud bo'lsa-da, ularning foydasi kamchiliklardan ancha ustun bo'lib, ularni O'zbekiston iqtisodiyoti ishtirokchilari uchun qimmatli vositaga aylantiradi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonun. 2015.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2014.
3. S.Elmirzayev, 2018, Darslik.
4. Frederick S. Mishkin, Kent Matthews and Massimo Giuliodori. 2013. The economics of money, banking and financial markets. – UK. Pearson.
5. Brorsen, B. Wade Fofana, N'Zue F. 2001. Success and failure of agricultural futures

contracts**.**

6. Joost M.E. Pennings. Raymond M. Leuthold. 2000. The Role of Farmers' Behavioral Attitudes and Heterogeneity in Futures Contracts Usage.
7. De Kovni Sh., Takki K. 1996. Strategii xedjirovaniya.
8. Narayan Changder. 2023. Uzbekistan, Book, Changder Outline,
9. O. Khadartsev. 2022. Exchange instruments for minimizing the price risks of the agricultural products market.
10. M. Azmi, Transaksi Jual Beli, Hukum Islam, Stain Sultan, Abdurrahman Kepulauan Riau. 2020. Transaksi Jual Beli Foreign Exchange Secara Online Perspektif Hukum Islam.
11. National Intelligence Council. 2021. Global Trends 2040. Cosimo Reports.
12. https://www.icicidirect.com/futures-and-options
13. https://sbk03.ru/uz/fyuchersy-dlya-nachinayushchih-chto-eto-takoe-i-kak-imi-torgovat/
14. https://blog.ipleaders.in/future-contract-all-you-need-to-know/
15. https://sciencedirectassets.com
16. https://uza.uz/oz/posts/fyuchers-shartnomalari-asosida-998-foiz-paxta-xomashyosi-sotilgan
17. https://uzex.uz
18. www.investor.gov
19. www.investopedia.com
20. www.upstox.com
21. www.statista.com
22. www.finam.ru
23. www.fia.org

O‘ZBEKISTONDA AN’ANAVIY BANKLARNI RAQAMLI BANKLARGA TRANSFORMATSIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ilmiy rahbar: PHD
Ahmadaliyeva N.F
https://doi.org/10.5281/zenodo.14184683

Ismatillayeva Mehrinoz Fozilovna
TDIU, Moliya fakulteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.14184683

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistondagi an’anaviy banklar faoliyatini raqamli tizimga o‘zgartirishning strategiyalari va uning davlatimizga joriy etish tartiblari o‘rganilgan. Shuningdek yakuniy loyiha ishi so‘ngida transformatsiya jarayonidagi to‘siqlar va uning oldini olish uchun takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar*: FinTech, elektron tijorat, su’niy intellekt, raqamli ekotizim, blokcheyn texnologiyasi, elektron pullar,IT-infratzulma, kobeydjing kartalari, P2P dasturi.*

Kirish

Maqolamizni raqamli bank tushunchasini o‘rganish bilan boshlasak. Raqamli bankni E-banking, elektron bank, onlayn bank kabi sinonimlari mavjud. Uning vazifasi va ajralib turadigan jihati shundan iboratki to‘lovlar, omonatlar, kreditlar, depozit va hattoki eng qiyin operatsiyalarni ham web sahifa yoki platforma orqali vaqt va hududdan qat’iy nazar amalga oshirish tushuniladi. So‘nggi yillarda moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda yangi tizim FinTech (moliyaviy texnologiyalar) tizimi jadal sur’atda rivojlanib ketdi. Bunda bank sohasida internet va mobil texnologiyalardan foydalanish natijasida bank xizmatlari bozorida o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘zbekistonda raqamli bankni eslatuvchi masofaviy xizmatlari birinchi bo‘lib yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun 2007-yil 1-martda ATB “Ipak yo‘li” bank tomonidan, jismoniy shaxslar uchun esa internet-banking va mobil banking xizmatlari birinchi marta sobiq “Samarqand” ATB tomonidan taqdim etilgan. Masofaviy xizmatning sodda ko‘rinishdagi turi ya’ni plastik kartalar 2011-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra soni 7 million 909 mingtani tashkil qilgan bo‘lsa, 2017-yilning shu davrida bu ko‘rsatkich 19 million 226 mingtani tashkil qilgan. 2018-yil 1-yanvardan boshlab “Duet” kartalari bo‘yicha pul o‘tkazmalari bo‘yicha bank plastik kartalari soni 17 million donani tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 686 mingga kamaydi. 2019-yilda bank plastik kartochkalari soni 20 millionga yetdi. Umuman olganda, 2019-yilda bank plastik kartochkalari soni 2011-yilga nisbatan 2,6 barobarga oshdi. Shu davrda bank kartalari bo‘yicha yillik operatsiyalar hajmi 7,7 barobar oshdi. To‘lov terminallari soni 2011-yil 31-dekabr holatiga 85741 tani, 2020-yil 1-yanvar holatiga esa 407278 tani tashkil etdi. Eslatib o‘tamiz, 2011-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra bankomatlar soni atigi 491 tani, 2020-yil 1-yanvar holatiga esa 9687 tani tashkil etgan. Albatta bu ko‘rsatkich rivojlanayotgan davlat uchun yaxshi,lekin kuchli raqamli texnologiyali mamlakatlar orasida past ko‘rsatkich. Shuni inobatga olgan holda mamlakatimizda shu sohani rivojlantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish to‘g‘risidagi PF-5992-son farmoni imzolandi. Ushbu farmonga muvofiq: Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, bank tizimi samaradorligini oshirish tadbirkorlik subyektlari va aholining arzon va sifatli moliyaviy xizmatlarga o‘sib borayotgan ehtiyojlarini ta’minlash uchun iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, Strategiya doirasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda:

1) ilg‘or xalqaro tajriba va texnologiyalarni jalb qilish hisobiga bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish va sifatini oshirish;

2) korporativ boshqaruvning ilg‘or standartlari va tajribasini joriy etish orqali banklarda boshqaruvni takomillashtirish, bank boshqaruvi organlari hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini hamda ular tomonidan ma’lumotlarni lozim darajada oshkor etilishini ta’minlash;

3) banklar faoliyatini tijoratlashtirishni oshirish, bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, shuningdek, pul-kredit siyosati instrumentlarining samaradorligini oshirish uchun subsidiyalangan kredit berishdan voz kechish;

4) tijorat banklarining jamg‘armalarni investitsiyalarga safarbar qilish hamda ularni moliyaviy va iqtisodiy nuqtai nazardan eng samarali sohalarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni ta’minlovchi moliyaviy vositachi sifatidagi ro‘lini oshirish;

5) strategik xorijiy investorlarni jalb qilish va moliya tizimining xalqaro moliya bozorlariga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish

maqsadida bank faoliyatini izchil liberallashtirish va uni eng yaxshi xalqaro amaliyot bilan uyg‘unlashtirish;

6) nobank kredit tashkilotlarini, shu jumladan ushbu segmentda raqobatni rivojlantirish, prudensial tartibga solishning tegishli normalarini rivojlantirish orqali, shuningdek, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yengillashtirish hisobiga rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi strategiyalar ishlab chiqildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni imzolandi. Bunga ko‘ra O‘zbekistonda chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan raqamli banklar tashkil qilish hamda innovatsion tizimdan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish vazifa qilib yuklatildi. Shunga ko‘ra mamlakatimizda 2020 yilda “Anor Bank” va “TBS Bank” raqamli bank sifatida ro‘yxatga olindi.

Raqamli banklar:

- o‘zining filiallari tarmog‘ini kengaytirmasligi ;
- bank va mijoz o‘rtasida masofaviy aloqa tizimining 100 foiz o‘rnatilganligi;
- sifatli, qulay va foydalanuvchilar uchun oson bo‘lgan mobil ilova;
- bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar uchun eng qulay paketlar va sharoitlar (ya’ni, mijoz talabidan kelib chiquvchi) va bularni birgina ilovadangina amalga oshirish mumkinligi;
- tezkor, sifatli va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi.

Yuqorida ko‘rib o‘tganlarimiz raqamli va an’anaviy banklarning eng asosiy farqlari hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Ushbu tadqiqotni olib borish jarayonida turli xil mamlakat va yurtimizda faoliyat olib borayotgan olimlarining tadqiqot ishlari va adabiyotlari o‘rganilgan va kerakli xulosalar olingan.

Professorlar S.S. Galazova, L.R. Magomaeva o‘z tadqiqotlarida bank faoliyatini raqamlashtirishda banklarning IT-arxitekturasini tubdan o‘zgartirish, raqamli ekotizimlarni shakllantirish haqida ilmiy ishlar olib borishgan. Shuningdek raqamlashtirish jarayonida raqobatbardoshlik va faoliyat samaradorligini oshirish, shu bilan birga ularning barqaror qolishi uchun transformatsiya zarurligini o‘z tadqiqotlarida aniqlashgan. Ushbu tadqiqotning asosiy hissasi raqamlashtirish sharoitida mahalliy bank sektorining rivojlanish istiqbollarini, nafaqat raqobatbardoshlik va faoliyat samaradorligini oshirish, balki barqaror qolish uchun transformatsiya zarurligini aniqlashdan iborat edi.

Sharqiy Ozarbayjondagi olimlar Ali Abbasi Aabkhare, Esa Abedini, Babak Mahmod o‘z tadqiqot ishlarida “Raqamli banklar xalqaro moliya va onlayn valyuta tizimlari bilan bir qatorda elektron bozor bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiradi,” deb ta’kidlab o‘tishgan. Ularning fikricha Elektron tijoratni amalga oshirish bevosita elektron bankka asoslangan. Elektron tijoratdagi asosiy muammolardan biri hozirgi kunda xavfsiz raqamli bankga va aniq qonunlar asosida ishlaydigan banklarga ega bo‘lish hisoblanadi. Hamda elektron tijoratning to‘liq imkoniyatlaridan foydalanishda ba’zi to‘siqlarni olib tashlash lozimligini keltirib o‘tishgan.

An’anaviy banklarda mijozlar sonining ko‘payishi va banklarning hududiy chegarasi kengayishi hisobiga bank filiallarining soni ko‘payib yuqori darajadagi xarajatlarga olib keladi. Transformatsiya natijasi shundan iboratki, bank mijozlarning vaqtini tejaydi, o‘z xarajatlarini kamaytiradi va bank xizmatlarining shaffofligini, tezligini va mobilliligini oshiradi. Davlatning

bunday raqamlashtirilgan bank xizmatlariga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratishi kelajakda albatta ijobiy samara beradi. Bunga misol qilib 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir dasturdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi DP-4947-son qarorida “Internet-banking” va “Mobil-banking” to‘lov terminallaridan foydalanganlik uchun ijara to‘lovi miqdorini ikki baravarga kamaytirish, tariflarni pasaytirish ko‘zda tutilgan. Natijada bugungi kunda barcha tijorat banklarida ushbu tariflar 0,5 foizgacha tushurildi. O‘zbekistonda masofaviy bank xizmatlari rivojlanayotgan bo‘lsa-da, COVID-19 pandemiyasi davrida tijorat banklari aholiga bank xizmatlarini masofadan tashkil etishda ko‘plab muammolarga duch keldi va barcha xizmatlarni o‘z mijozlariga masofadan turib taqdim eta olmadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda masofaviy bank xizmatlari hali yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan. Qo‘shimcha qilib aytganda, pandemiya davrida naqd puldan jismoniy to‘lov sifatida foydalanish virusni yuqtirishda faol vosita bo‘lib xizmat qildi. Xavfsizlik nuqtai nazaridan, banklar o‘z filiallarini yopdilar yoki minimal xodimlar soni bilan ishladilar. Shu nuqtai nazardan, banklar uchun raqamli transformatsiya jarayonini ishlab chiqish va rivojlantirish davlat rivoji uchun samarali hisoblandi.

Metodologiya

O‘zbekistonda mavjud banklar doimiy ravishda o‘z ishlash sifatini tekshirish maqsadida o‘z mijozlari va oddiy fuqorolardan so‘rovnomalar tashkil qilishadi va bu banklar uchun o‘z ustilarida ishlashlari uchun foydali usul hisoblanadi. Banklarning mijozlar va fuqarolar bilan doimiy aloqalarini hisobga olgan holda biz ham o‘z tadqiqotimizda so‘rovnoma usulidan foydalandik.

Shuningdek, tadqiqotimizda qiyoslama tahlildan ham foydalandik. Qiyosiy tahlil ko‘pincha muayyan jarayonlarning o‘zgarishlar dinamikasini o‘rganish, farq va umumiy xususiyatlarni izlash uchun ishlatiladi. Tahlil yordamida biz har qanday hodisaning, rivojlanishning turli bosqichlarida (vaqt, hodisa va hokazo) o‘rganilayotgan jarayonning umumiy va turli belgilari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Natija va tahlillar

Ushbu so‘rovnomani olishdan maqsad jamiyatimiz uchun raqamli banklarni ahamiyatini aniqlash va an’anaviy bank tizimiga mijozlarning fikrini o‘rganishdan iborat edi.



1- rasm. Bank xizmatlaridan onlayn foydalanish bo‘yicha tahlil

Ushbu diagramma ishtirokchilarning bank operatsiyalaridan onlayn foydalanishgani to‘g‘risida bo‘lib, bundan ko‘rishimiz mumkinki, 67,7% foydalanilgan va 32,2% yo‘q javobi berilgan. 32,2% bu hozirgi rivojlangan davr uchun katta foizdir.Bu esa o‘z navbatida aholi ilg‘or texnologiyaga muhtojligini ko‘rsatadi.



2-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni

2-rasmda biz yurtimizda bank xizmatlaridan masofaviy foydalanuvchilarning 9 yil davomida o‘sish sur’atini ko‘rishimiz mumkin. 2021-2022 yillarda bu sur’at sezilarli darajada oshib ketgan. 2020 yilda jismoniy foydalanuvchilarning soni 9462 ta ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib bu ko‘rsatkich deyarli 60% ga o‘sgan, ya’ni 19234 tani tashkil etmoqda. Yuridik va yakka tartibdagi tadbirkorlarning foydalanish soni ham sezilarli darajada o‘sgan. 2020 yilda ushbu foydalanuvchilar 691 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib esa bu ko‘rsatgich 19234 taga oshib ketgan. Zamonaviy rivojlangan texnologiyali asrda esa bu ko‘rsatkich yetarli emas. Bizning maqsadimiz bu ko‘rsatkichni 100% ga chiqarish va raqobatbardosh raqamli bank tizimini yo‘lga qo‘yishdir.

Xulosa va takliflar

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish qulayligi O‘zbekistonda xizmatlar bozorida muhim ahamiyatga ega va sezilarli ijobiy xususiyatga ega. Har qanday faoliyat turini rivojlantirish bosqichida raqobat katta ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olgan holda bank sektorini raqamlashtirish jarayonida raqobatga katta ahamiyat berilishi kerak. Bu jarayonda banklar o‘z mijozlarini saqlab qolish maqsadida faoliyatlariga turli qulaylik va sharoitlar kuchli texnologiya va kadrlarni jalb qilishadi, buning natijasida mamlakatimizga turli davlatlardan investitsiya jalb qilishadi bu davlat rivoji uchun ham foydali. Bu orqali biz banklarda o‘z-o‘zidan kelib chiqadigan sog‘lom raqobatga erishishimiz mumkin.

Avval onlayn to’lovlar va ularning xizmat narxlari 2% ni tashkil qilgan bo‘lsa, keyinchalik, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida Prezident farmoni bilan tasdiqlangan. PF-4947-sonda «SMS-banking», Internet-banking, "Mobil-banking" tizimida to‘lovdan foydalanish uchun

ijara haqini ikki baravar kamaytirish terminallar, masofaviy bank xizmatlari orqali tranzaksiyalar uchun ta’riflarni pasaytirish to‘g‘risida farmon imzolangan. Natijada bugungi kunda tijorat banklari tomonidan ushbu tariflar 0,5% gacha pasaytirildi bu raqamli bank istiqboliga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Bank xizmatlari bankning marketing siyosatini oqilona olib borishni talab qiladi. Aholi gavjum joylarda masofaviy bank xizmatlari haqidagi videoroliklarni joylashtirish orqali ushbu xizmatlarni reklama qilish, internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar, televideniya va bankning old ofislari va zallarida reklamalar joylashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish to‘g‘risidagi PF-5992-son farmoni

2. Ali Abbasi Aabkhare, Babak Mahmod,Esa Abedini. Life Science Journal 2013;10(4s) 458 “Advantages and Disadvantages of E-Banking and Commerce”.

3. Daniel Brody (2021) "Financial technology and the future of banking" Financial Innovation.

4. Kearney, A.T. 2014. Going Digital: The Banking Transformation Road Map.

5. Koenig-Lewis, N., Palmer, A., & Moll, A. (2010). Predicting young consumers’ take up of mobile banking services. International Journal of Bank Marketing, 28 (5), 410—432

6. Lin H. F. An empirical investigation of mobile banking adoption: the effect of innovation attributes and knowledge-based trust. International Journal of Information Management. 2011. ט 31. Ҷ. 252—260.

7. S.S. Galazova,L.R. Magomaeva International Journal of Economics and Business Administration Volume VII, Special Issue 2, 2019. “The Transformation of Traditional Banking Activity in Digital” Submitted 20/08/19, 1st revision 28/09/19, 2nd revision 17/10/19, accepted 19/11/19

8. Wessels L., Drennan J. An investigation of consumer acceptance of M-banking. International Journal of Bank Marketing. 2010. ט 28 (7). Ҷ. 547—568

9. Zokir Mamadiyarov JULY 2020 Page No.: 108-118 Prospects For The Development Of Remote Banking Services In The Context Of Bank Transformation THE AMERICAN JOURNAL OF APPLIED SCIENCES JULY 2020[TAJAS] 108 ISSN (e): 2689-0992 DOI:

Foydalanilgan websaytlar:

8. www.Lex.uz
9. www.cbu.uz
10. www.depozit.uz

ECONOMETRIC ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING THE EFFICIENCY OF CREDIT ORGANIZATIONS PROVIDING MICROFINANCIAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Nazarova Muslima Nazarovna
Senior Lecturer of the Department of Banking
Tashkent State University of Economics, PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.14185865

Abstract: *This article provides an econometric analysis of factors influencing the efficiency of credit institutions providing microfinance services operating in Uzbekistan. Indicators of economic efficiency of credit institutions providing microfinance services were selected and observations were made on them.*

Key words: *non-bank credit organizations, profitability, econometric analysis, model, efficiency, microfinance organizations, asset, capital, liquidity.*

INTRODUCTION

Non-bank credit institutions have their own unique place in every country. Their role in reducing poverty in the country and improving the social activities of the population is recognized. At the same time, non-bank credit organizations must also ensure their financial stability.

As indicators of social efficiency of credit institutions providing microfinance services, we took the size of the loan portfolio and their percentage ratio. Since in order to determine the level of financial assistance to the low-income segment of the population by credit institutions providing microfinance services, it is necessary to study the volumes of loans issued by them and their percentage ratio. The factors influencing the social efficiency of credit institutions providing microfinance services are mainly external factors. These external factors, on the one hand, affect the purchasing power of the population, and on the other hand, they affect the volumes and percentage ratio of loans of credit institutions providing microfinance services.

In our research, we conduct econometric analysis using two models. That is, to determine the strength of internal and external factors affecting the economic and social efficiency of microfinance credit organizations, we will utilize the least squares model and structural vector autoregression models.

THEMATIC LITERATURE REVIEW

Conducted numerous scientific studies in domestic and foreign literature on the role of non-bank financial organizations in the economy and on factors influencing the activities of these organizations. Let's take a closer look at some of these studies.

Scholars such as R. Mersland and R. Ström have studied the relationship between the efficiency of microfinance organizations and their corporate governance. The characteristics of the board of directors, the form of ownership, competition and methods of regulation in a microfinance organization, the work of microfinance organizations with poor customer base and its impact on

efficiency have been analyzed. The analysis showed that the duties of the chairman of the board of a bank and the chairman of the board in microfinance organizations are clearly separated from each other, the presence of a woman as the chairman of the board and the competitive environment in the country have a great impact on the efficiency of microfinance organizations and the situation of the poor in the country. In particular, the number of board members of a microfinance organization reduced the volume of lending in this organization. Also, the form of ownership of microfinance organizations, that is, whether it is a non-governmental organization or a joint-stock company, does not affect the performance indicators. [2]

B. Gutierrez-Nieto and others analyzed the efficiency of microfinance organizations. According to them, microfinance organizations are not only public organizations, but also financial organizations specializing in making a profit. The above-mentioned economists used the Data Envelopment Analysis (DEA) model for assessing the efficiency of 30 microfinance organizations located in Latin America. According to the results of the analysis, four prominent indicators influence the efficiency of microfinance organizations, including the impact of reforms carried out by the state, as well as the impact of the organizational status of microfinance organizations, such as non-governmental commercial organizations and non-governmental and non-profit organizations are high.[1]

Economists such as N. Hermes, R. Lensink and A. Meesters analyzed the relationship between the allocation of loans by microfinance organizations for poverty reduction and its effectiveness. The analysis used the stochastic frontier analysis (SFA) model using statistical data from 435 microfinance organizations for 1997-2007. Based on the analysis of more than 1,300 observations, it was found that there is an inverse proportionality between lending to low-income groups of the population and the effectiveness of microfinance organizations.[3] In fact, loans from microfinance organizations to the poor are, firstly, high cost, and secondly, they are associated with high risk. The reason is that these clients are financially unstable clients.

RESEARCH METHODOLOGY

In carrying out scientific research, such methods as induction, deduction and synthesis were used. Also, statistical data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan and the Statistics Committee were used to analyze the activities of microfinance organizations.

ANALYSIS AND RESULTS

Internal factors as endogenous factors influencing the economic efficiency indicators of credit institutions providing microfinance services are liquidity ($Liquidity_t$), return on assets (ROA_t) and return on equity (ROE_t), the volume of loans issued. organizations providing microfinance services ($Loan_t$), loan interest rate ($LoanRate_t$), as well as the indicative interest rate (INR_t), money supply ($M2_t$), the inflation rate in the economy (CPI_t) and the levels of devaluation of the national currency (DEV_t).

From social performance indicators selected ones were chosen such as the volume of loans of credit institutions providing microfinance services ($Loan_t$), interest on loans($LoanRate_t$) indicative interest rate as an endogenous influencing factor(INR_t), money supply in circulation($M2_t$), inflation rate in the economyCPI_t and the levels of devaluation of the national currency (DEV_t).

The statistical data of the selected indicators for the period 2017M1-2022M12 are obtained by month and in growth. All data are natural logarithms, since the analyzed statistical data differ in size. As a result, the data are leveled and come to the same unit of measurement.



Кириш. Бугунги кунда ҳар қандай аудиторлик ташкилоти ўз фаолиятини автоматлаштиришга катта эҳтиёж сезмоқда. Замонавий аудиторлик дастурлари маълумотлар базасини яратиш ва унинг асосида турли мураккабликдаги аудиторлик ҳисоботларини шакллантириш имконини беради, шунингдек, текширувда хатога йўл қўймасликка, иш вақтини тежашга ва зарур ахборотни тезкор равишда олишда ёрдам беради. Махсус дастурий маҳсулотни аудиторлик текширувини автоматлаштиришда катта тажрибага ва обрўга, сотилаётган дастурларнинг лицензиялари ва сифат сертификатларига эга бўлган профессионал фирмалардан сотиб олган маъқул. Дастурни танлашда у қандай аудиторлик ташкилоти ва қандай аудит объектларини текширишга мўлжалланганини ҳисобга олиш ёки унинг қайси соҳага тегишлилигига эътибор қаратиш зарур.

Бу борада таъкидлаш жоизки, 2018 йил 19-сентябрдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ3946- сон қарорида аудиторлик ташкилотлари ҳамда бухгалтерлар ва аудиторларнинг республика жамоат бирлашмалари билан ўзаро электрон ҳамкорликка мўлжалланган Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг «Аудит» дастурий мажмуасини ишлаб чиқиш вазифаси қўйилиб, унга мувофиқ “Аудиторлик ташкилотининг шахсий кабинети” ва “Аудиторлар жамоат бирлашмасининг шахсий кабинети” веб-сервисини яратишни назарда тутадиган “Аудит” дастурий мажмуасини ишлаб чиқилди ҳамда амалиётга жорий этилди. Бу эса аудиторлик ташкилотлари фаолиятининг шаффофлигини таъминлаш ва уларни давлат органлари билан ўзаро ҳамкорлиги соҳасига ахборот-коммуникация технологияларини жорий этишни макродаражадаги чора-тадбирларидан саналади. Бироқ, бугунги кунда айнан аудиторлик текширувини тўлиқ компьютер муҳитида ташкил этиш ва ўтказиш халқаро стандартлар талабларидан бири ҳисобланади. Айнан дастурий таъминотлар орқали аудиторлик иш жараёнларини оптималлаштириш ва ахборот тизимларига камроқ маблағ сарфлаш имкониятларини топишга ёрдам беради, мавжуд ахборот ресурсларини ташкилотнинг жорий ва истиқболдаги мақсадларига мувофиқлигини баҳолайди ҳамда ушбу баҳолаш натижалари асосида ташкилотларга мавжуд имкониятлардан максимал даражада фойдаланиш ва шу билан кераксиз харажатларидан қочиш имконини берадиган ечимларни тавсия қилади. Аудитда янги дастурий таъминотни жорий этиш, ахборот бўлимини молиялаштириш харажатларини камайтириш, иш фаолиятини оптималлаштириш ва ривожланишга тўсқинлик қилаётган “заиф” бўғинларни бартараф этишга ёрдам беради.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи. Иқтисодиётни янги замонавий босқичга кўтариш, жўжалик субъектларида амалга ошириладиган муомалалар ва бошқарув тизимини замонавий ахборот технологиялари асосида юритишни тақозо қилади. Ўзбекистонда бугунги кунда электрон ҳукумат ва электрон имзо каби масалаларнинг ҳуқуқий асослари яратилган. Бугунги кунда ахборот технологиялари бухгалтерия ҳисоби ва аудиторлик хизматларида ҳам кенг қўлланилмоқда. Ўз навбатида, аудитор томонидан иқтисодий ахборотларнинг автоматлаштирилган тизимидан самарали фойдаланилиши натижасида текширувларда вақт тежалади, ўтказилаётган назоратнинг сифати ошади. Бунинг учун аудитордан махсус билим ва кўникмаларга эга бўлиш ҳамда аудиторлик дастурий таъминотларнинг тури, дастурий ва математик таъминоти ҳамда маълумотларни электрон қайта ишлаш тизими бўйича амалий тажрибага эга бўлиши талаб этилади.

Ўзбекистон аудиторлик фаолиятида ахборот технологияларидан фойдаланиш ёки

дастурий таъминот асосида аудитни ташкил этиш ва амалга ошириш борасида етарлича тадқиқотлар амалга оширилмаган бўлсада, лекин аудитда ахборот технологияларни жорий этишнинг назарий-услубий жиҳатлари айрим ўзбек тадқиқотчилари томонидан ўрганилган. Жумладан, ўзбек тадқиқотчиси Н.Далибаев томонидан IT-аудит хизматини Ўзбекистон амалиётига жорий этиш масалалари тадқиқ этилиб, мазкур хизматни амалиётда қўллаш хусусиятлари баён этилган [1].

Ўзбек иқтисодчи олимларидан И.Мелиев томонидан пандемия ва масофавий ишлаш шароитларида ахборот технологиялари имкониятлари асосида аудиторлик текширувини ташкил этиш ҳамда амалга ошириш йўналишлари тадқиқ этилган [2].

Иқтисодчи олима Ш.К.Умарова тадқиқотларида замонавий ахборот технологиялардан фойдаланган ҳолда аудит ўтказиш хусусиятлари ўрганилган [3].

Беларус олимлари Н.В.Гомолко ва Л.А.Попковалар томонидан автоматлаштирилган аудитни ташкил этиш ҳамда амалга ошириш методологияси тадқиқ этилган [4].

Шунингдек, яна бир иқтисодчи рус олими К.А.Трухан томонидан аудиторлик текширувини ахборот технологиялари асосида ўтказиш имкониятлари тадқиқ этилган [5].

Россиялик олим Б.А.Шарифов томонидан ахборот технологиялари муҳитида аудит ўтказиш хусусиятлари тадқиқ этилган [6].

Бир гуруҳ ўзбек олимлари Д.А.Мирзаев, И.Ж.Бозорова ва Ф.Х.Мамасидиковалар эса жаҳон ва Ўзбекистон амалиётида IT аудитни ривожлантириш истиқболлари ва уни аудиторлик амалиётига жорий этиш йўналишларини ўрганиб, мазкур соҳа бўйича илмий-амалий тавсиялар беришган [7].

Таҳлил ва натижалар. Фикримизча, компьютер муҳитида аудит бу - “аудиторлик текширувини режалаштириш, ўтказиш ва якунлаш босқичларида компьютер дастурларидан фойдаланиш жараёнидир”. Бугунги кунда аудиторлик фаолиятида ахборот тизимларидан фойдаланиш бўйича ўтказилган сўров ва таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, аудиторлик текширувлари жараёнида махсус дастурлардан етарли даражада фойдаланилмаётганлигини кўрсатмоқда.

Аудиторлик текширувида автоматлашган дастурий таъминотдан фойдаланиш тартиби Халқаро бухгалтерлар федерацияси аудиторлик амалиёти Халқаро қўмитасининг қуйидаги ҳужжатларида ўз ифодасини топган:

“Компьютер ахборот муҳитида аудит ўтказиш” номли ХАС (ISA "Auditing in a computer information systems (CIS) environment");

"Компьютер ахборот муҳити хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ички назорат ва аудиторлик рискини баҳолаш" номли ХАС (ISA "Risk assessment and internal control (CIS) characteristics and considerations");

"Компьютерлаштирилган аудит усуллари" номли ХАС (ISA "Computer assisted audit techniques").

Ўз навбатида, аудиторлик амалиётида қўлланилаётган юқоридаги дастурлар текширувларни автоматлаштиришни таъминлайдиган кўплаб модулларни ўз ичига олади. Улар таркибида текширувларни ўтказиш графигини шакллантиришни таъминлайдиган режалаштиришни қўллаб-қувватлаш модули, аудиторлик режасини тузиш ва аудиторлик вазифаларини бажариш ҳамда текширувни ўтказиш модуллари дастурларнинг асосий имкониятларини ўзида мужассамлаштирган.

Ҳозирги жаҳон аудиторлик амалиётида офис дастурлари, норматив-ҳуқуқий ахборот тизимлари, бухгалтерия дастурий таъминотлари, молиявий таҳлил дастурий таъминотлари билан биргаликда аудитга оид махсус дастурий таъминот турларидан кенг фойдаланилмоқда (1-жадвал).

1-жадвал

Халқаро аудиторлик амалиётида қўлланиладиган

дастурий таъминот турлари

№	Дастур	Дастур мақсади	Ишлаб чиқарувчи	Нашр йили
1	AuditNET	Аудиторлик фаолиятини автоматлаштириш	«Новые эффективные технологии»	2009
2	IT AUDIT: Аудитор	Аудитни комплекс ҳажмда автоматлаштириш	“Мастер-софт” МЧЖ www.audit-soft.ru	2005
3	AUDIT XP «Комплекс Аудит»	Аудиторлик фаолиятини автоматлаштириш	«Гольдберг-Софт” компанияси www.auditxp.ru	2005
4	“Экспресс аудит:ПРОФ	Аудиторлик текширувини автоматлаштиришнинг мажмуали тизими	“Термика”Н.П Барышников консалтинг гуруҳи. www.termika.ru	2004
Ўзбекистонда яратилган дастурий таъминот турлари				
5	AUDITSOFT	Тижорат банклари ва хўжалик юритувчи субъектлар ички аудит хизматлари ва аудиторлик компанияларини автоматлаштириш учун мўлжалланган	Ўзбекистон аудиторлар палатаси (Каримов Н.Ф.)	2007
6	Audit Sampling	Тижорат банклари кредит фаолиятини ва Марказий банк филиаллари фаолияти аудити учун мўлжалланган	Сахобов О.У., А.А.Бубнов	2008
7	First-Audit	Тижорат банклари ва йирик ишлаб чиқариш корхоналарида ички аудиторлик текшируви ўтказишга мўлжалланган	Каримов Ж.Ф., Каримов Х.Х.	2010

Фикримизча, аудиторлик фаолиятини автоматлаштириш бўйича ҳал этиладиган вазифаларнинг мураккаблиги туфайли дастурий таъминотни қўллаш самарадорлиги кўп жиҳатдан уни жорий қилиш ва фойдаланувчиларни ўқитишга бевосита боғлиқдир. Изланишлар натижасида ҳозирги пайтда Россия ва ривожланган Европа давлатлари аудиторлик амалиётида AuditNET, ITAUDIT:Аудитор, AUDIT XP “Комплекс Аудит” ва “Экспресс аудит:ПРОФ” сингари энг профессионал дастурий воситалар орқали қисқа

муддат ва тартиблар асосида текширувларни сифатли ўтказилишига эришилганлиги аниқланди.

Аудиторлик текширувлари жараёнида аудиторлик дастурларидан фойдаланиш аудиторга қуйидаги вазифаларни сифатли ва қисқа муддатда амалга ошириш имконини беради:

а) мижоз-корхонада амалга оширилган муомалалар ва банк ҳисоб рақамлари бўйича қолдиқларни компьютер маълумотлар базаси орқали текшириш;

б) компьютернинг маълумотлар базасидамулк ва маблағларнинг ҳужжатдаги ва амалдаги фарқларини аниқлаш учун таҳлилийамалларни бажариш имконияти;

в) текширилаётган хўжалик юритувчи субъектнинг маълумотлар базасини текшириш;

г)текширилаётган хўжалик юритувчи субъект фаолиятида қўлланиладиган техник, математик ва ахборот дастурий таъминотларини синовдан ўтказиш имконияти.

Амалий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, кўпгина ҳолларда сифатсиз маълумотлар компьютер қурилмасининг носозлиги ва ишловчиларнинг бепарволиги ҳамда тажрибасизлиги натижасида келиб чиқади. Фикримизча, аудиторлик текширувларида дастурий таъминотдан фойдаланилиши натижасида қуйидаги рисклар юзага келиши мумкин:

техник рисклар - техник ҳолатлар, бухгалтерия маълумотларини ишлаб чиқиш усуллари билан боғлиқ рисклар, бу хатарлардан автоматлаштирилган ахборот тизимларини жорий этиш ва улардан фойдаланишда бухгалтерия ҳисоби ҳамда ички назоратни ташкил қилишда бевосита фойдаланилади. Техник воситаларнинг сифатсиз ишлаши норасмий ва лицензиясиз дастурий таъминотдан фойдаланиш, техник ва дастурий воситалар хусусиятидаги фарқлар, тегишли умумий техник хизмат кўрсатиш ва назоратнинг мавжуд эмаслиги ҳолатлари билан изоҳланади;

бухгалтерия маълумотларини қайтадан ишлаш тизими билан боғлиқ рисклар - бу тизимни ишлаб чиқишдаги хатоликлар, шунингдек, унинг кичик тиражи ва нотўғри фойдаланиш билан боғлиқ бўлиши мумкин. Бухгалтерия ҳисоби учун мўлжалланмаган дастурлардан фойдаланиш ҳолатлари бундан мустасно.Бунда аудиторлар мижоз-корхона бухгалтерия ҳисоби тизими тўғри қўлланилаётганлигини аниқлаши лозим бўлади;

мижоз-корхонада дастурий таъминотдан фойдаланишда ички назорат билан боғлиқ рисклар - бухгалтерия ҳисоби маълумотларини қайта ишлаш тизимидан етарлича фойдаланилмаётганлиги, мижоз-корхона ходимларининг мажбуриятлари ва жавобгарликлари даражасининг аниқ белгиланмаганлиги, ички назорат тизими фаолиятидан қониқмаслик, мижоз-корхона маълумотлар базасига рухсатсиз киришда ҳимоя тизимининг мавжуд эмаслиги ва маълумотларнинг йўқолиши натижасида юзага келади;

аудиторнинг профессионал маҳорати билан боғлиқ рисклар-ҳисобга олиш ва таҳлилий маълумотларни қайта ишлаш тизимини нотўғри баҳолаш, дастурий таъминотлар воситасида тестлаш ва анкета-саволнома ўтказиш каби усулларининг нотўғри қўлланилиши ва аудиторлик далилларни нотўғри талқин қилиниши билан боғлиқмуаммолар;

Бироқ фикримизча, ҳозирги пайтда республикамиз аудиторлик амалиётида юқорида келтирилган дастурлар қуйидаги омиллар сабабли самарали ва мақсадли қўлланилмаяпти (2-жадвал).

2-жадвал

Аудиторлик текшируви жараёнида аудитга оид дастурий таъминотни қўлланилмаслигига таъсир этувчи омиллар

Омил (сабаб)лар тури	**Омил(сабаб)ларнинг мазмуни**
Умумтармоқ	– Аудиторлик фаолиятини ривожланишининг дастлабки босқичида мазкур бозорнинг паст даражада ривожланганлиги; – Аудиторлик текшируви жараёнининг тўлиқ ҳужжатлаштириш имкониятининг чекланганлиги ва касбий фикрни шакллантириш кераклиги ҳамда талаб қилинаётган аудиторлик фаолиятининг ўзига хослиги; – Аудиторлар компьютер саводхонлигининг талаб даражасида эмаслиги; – Аудит жараёнининг мураккаб шаклланиши; – Аудиторлик фаолиятининг норматив-ҳуқуқий базаси жуда мураккаб ва катта ҳажмга эга эканлиги; – Амалиётда аудит ўтказишда ягона ёндошувнинг йўқлиги; текшириш даврида турли хил натижалар олиниши; – Аудиторлик хулосасини тайёрлашда уларни тизимлаштиришдаги турли мураккабликларнинг мавжудлиги; – Халқаро стандартлар талаблари даражасида аудит ўтказишга ўтиш натижасида соҳага оид аудиторлик хизматлари ҳажмининг ошиб бориши; – Тақдим этилаётган аудиторлик хизматлар сифати устидан ички ва ташқи назоратнинг кучайиши;
Технологик	– Аудит ўтказилаётган корхона томонидан турли хил бухгалтерия дастурий таъминотларни қўлланилиши; – Аудиторлик хизматининг мижоз-корхона объектларига борган ҳолда амалга оширилиш (кўчма) хусусияти; – Аудиторлик фирмалари мижозларининг турли тармоқларга ихтисослашганлиги. Бу эса, қонунчилик талабларининг ўзгариши шароитида автоматлашган аудит дастурларини турли аудит объектлари фаолият хусусиятларига мослаштириш имконини бермаслиги. – Мижозларда қўлланиладиган дастурий таъминот базаларини ўзлаштириш мақсадида аудиторларнинг турли дастурий таъминотни ўрганиш зарурати; – Аудиторлик текшируви натижаларининг махфийлиги ва ҳимоя қилиш талабларига риоя қилиш лозимлиги; – электрон-рақамли имзодан фойдаланиш орқали ишчи ва текширувнинг якуний ҳужжатларини электрон архивлаш имкониятининг чегараланганлиги.

Барча юқорида қайд этилган омиллар бир томондан аудит соҳасида тақдим қилинаётган хизматлар сифат даражасини ошириш воситаси сифатида автоматлаштиришни ривожлантириш сабаби учун керак бўлса, бошқа бир томондан эса, аудиторлар ва дастурий

таъминот ишлаб чиқувчилар ўртасида тортишувлар предмети бўлиб хизмат қилади. Таъкидлаш жоизки, ҳеч қандай дастурий таъминот аудитор ўрнини боса олмайди. Бироқ, аудиторлик текшируви жараёнида имкон даражасида тармоқларга ихтисослаштирилган аудитнинг дастурий таъминоти имкониятларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Бизнингча, жаҳон аудиторлик амалиётида автоматлаштириш заруратининг пайдо бўлишига қуйидаги омиллар таъсир этган:

дастурий воситалар бозори ривожланиш даражаси юқорилиги;

бухгалтерия ҳисобини юритишда дастурий таъминотлардан кенг фойдаланилиши;

катта ҳажмдаги ахборот ва аудиторлик амалларинингмураккаблиги ва кўп вақт талаб этиши;

аудитни стандартлаштириш ва уни ўтказиш услубиятининг ривожланиши;

текширув объектларида дастурий таъминот ва математик моделларга асосланганлиги ва улардан фойдаланилганлиги;

ахборот-қидирув тизимларининг яратилиши ва аудиторлик фаолиятида улардан кенг фойдаланиш зарурияти нинг юзага келиши;

автоматлаштирилган аудиторлик фаолияти тизимини яратишнинг норматив-ҳуқуқий базасининг яратилиши.

Бироқ кўпгина афзалликларга қарамай, аудитни автоматлаштирилган дастурларини маҳаллий бозорда кенг тарқалишига уларнинг қуйидаги омиллар тўсқинлик қилмоқда:

юқори харид қиймати;

ўқитиш ва кузатишнинг қимматлиги. Бунда қонун ҳужжатларидаги ўзгартиришларни ҳисобга олиш ишлаб чиқувчи фирмаларнинг ўзимиздаги ваколатхоналари мутахассислари томонидан дастурларга узоқ вақт (2 ойдан 3 ойгача) қўшимча ишлов беришни талаб этади;

узоқ муддат – ярим йил ва ундан ортиқ вақтда жорий этилиши;

профессионал дастурчи томонидан фойдаланувчининг аниқ эҳтиёжларига мослаштирилиши ва тузатиш киритилишининг талаб этилиши;

миллий аудит ўтказиш амалиёти шароитларига ва миллий ҳисоб тизимихусусиятларига мослаштиришнинг мушкуллиги, бунинг сабаби шундаки, уларда бизнес юритишнинг ўзига хослиги ва миллий қонун ҳужжатларининг хусусиятлари ҳисобга олинмайди.

Аудиторлик фаолиятини автоматлаштириш вазифасининг мураккаблиги туфайли дастурий таъминотдан фойдаланишнинг самарадорлиги асосан унинг амалга оширилишига, фойдаланувчиларни тайёрлашга, аудит корхонасининг ишланмалари ва усулларини янги дастурий маҳсулотга мослашишига боғлиқ бўлади.

Таъкидлаш жоизки, бугунги Ўзбекистон аудиторлик амалиётида дастурий таъминотни текширувларда қўллашда қуйидаги муаммолар мавжуд (1-расм).

Бизнинг фикримизча, юқоридаги муаммоли жиҳатларни бартараф этиш ҳамда дастурий таъминотлар асосида аудиторлик хизматларини кўрсатишни таъминлаш мақсадида, Ўзбекистон миллий қонунчилиги меъёрлари талаблари, замонавий аудиторлик дастурий таъминотлари хусусиятларига мувофиқ келувчи ва ўзбек тилидаги дастурий таъминотни ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Дастурий таъминотни ишлаб чиқилиши аудиторларга масофадан туриб яъни, корхона масъуллари иш фаолиятига таъсир этмаган

ҳолда ва албатта қисқа муддат ҳамда камхаражатли асосда текширувларни ўтказиш имконини беради.

Хулоса ва таклифлар. Мақолада халқаро амалиётда қўлланиладиган аудитнинг автоматлашган дастурларига тавсиф берилиб, уларни Ўзбекистон амалиётида қўллаш имкониятлари тадқиқ этилди. Шунингдек, юқоридагилар билан биргаликда халқаро аудиторлик амалиётда қўлланилаётган дастурий таъминот турларининг афзалликлари, ишлаш механизми ва барча аудиторлик амалиётида қўланилаётган дастурий таъминот турларини қўллаш имкониятлари тавсифлаб берилди.



1-расм. Аудиторлик текшируви жараёнларида замонавий дастурий таъминотни қўллаш муаммолари

Ўтказилган таҳлиллар натижасида “AuditXP Комплекс Аудит” дастурий таъминотини бошқа дастурлардан афзал бўлган функционал имкониятлари кўплиги сабабли ушбу дастурни Ўзбекистон аудиторлик амалиётида қўллаш юқори самара беради,деган хулосага келинди.

Фикримизча, бугунги кунда аудиторлик дастурий таъминоти қуйидаги талабларга жавоб бериши лозим:

1) Амалдаги қонунчилик ва халқаро стандартлар талаблари асосида аудит ўтказишнинг барча босқичларини автоматлаштириш ва ягона мезонлар асосида стандартлаштириш.

2)Шакллантирилган аудиторлик текшируви натижаларини сифатли сақлаш ва мижоз-корхона фаолияти таҳлили натижаларига асосланган амалий тавсиялар ёки қарор лойиҳаларини ишлаб чиқиш.

3)Аудитнинг автоматлаштирилган дастурлари уларга қуйилган касбий ва ахлоқий маҳорат талабаларига жавоб бериши талаб этилмоқда.

Бизнингча, бугунги кунда юқоридаги талабларни бажариш учун қуйидагиларни таъминлаш талаб этилади:

аудитни режалаштириш, текшириш ва якунлаш босқичлари алгоритмини халқаро стандартлар ва амалдаги қонун ҳужжатлари талабларига мунтазам равишда мослигининг назоратини амалга ошириш;

текширилаётган мижоз-корхонада мавжуд бўлган бухгалтерия ҳисобига оид дастурий таъминот базаси маълумотлари билан аудиторларни таъминлаш ёки дастурдан текшираётган аудиторларни фойдаланишини таъминлаш;

аудит ўтказиш услубияти ва текширувни ташкил этиш шакл ва тартибини дастурий таъминот таркибига мунтазам киритиб бориш ёки янгилаб туриш;

текширилаётган мижоз фаолиятининг замонавий таҳлил усуллари асосида замонавий бошқарув қарорларини қабул қилиш технологияси ёки алгоритмини дастурий таъминот таркибига киритиш ва уни янгилаб бориш;

нафақат аудит ўтказиш жараёнини, балки консалтинг, аутсорсинг, ҳуқуқ ва баҳолаш соҳасида профессионал аудиторлик хизматлари кўрсатиш жараёнини автоматлаштириш ва бошқалар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Н.Далибаев “IT-аудит. Бу нима?”, https://ictnews.uz/30/03/2022/it-audit
2. И.И.Мелиев “Пандемия ва аудит: муаммони қандай ҳал қилса бўлади?” https://xabar.uz/texnologiya/pandemiya-va-audit-muammoni-qanday.
3. Ш.К.Умарова. “Замонавий ахборот технологиялардан фойдаланган ҳолда аудит ўтказиш хусусиятлари”, "Экономика и социум” журнали 2022 йил 6-сон, www.iupr.ru
4. Н.В.Гомолко, Л.А.Попкова. “Автоматизация аудита”, 1999 г. www.edoc/bseu.by
5. К.А. Трухан. Автоматизация аудита с помощью программы IT Audit // Корпоративные информационные системы. – 2019. – №4 – С. 19-25. – URL: https://corpinfosys.ru/archive/issue-8/73-2019-8-itaudit.
6. Б.А.Шарифов. Методика проведения аудита с использованием информационных технологий и персональных компьютеров // Молодой ученый. 2021. №3. - С. 332-335. - URL: https://moluch.ru/archive/345/77632.
7. Д.А.Мирзаев, И.Ж.Бозорова, Ф.Х.Мамасидикова. Перспективы развития IT-аудита системы бухгалтерского учёта за счёт внедрения ИКТ. Девятая международная научно-практическая конференция «BIG DATA and advanced analytics. BIG DATA и анализ высокого уровня», Минск, Республика Беларусь, 17-18 мая 2023 года

АНАЛИЗ И ОЦЕНКА СОБСТВЕННОГО КАПИТАЛА СОВРЕМЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ

Юлдашева Д. А.
Старший преподаватель кафедры "Общеэкономических дисциплин" ТГЭУ
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191222

Аннотация. *В настоящее время, время жесткой конкуренции, капитал предприятия является важнейшей экономической категорией и представляет собой вложения собственников и прибыль, накопленную за все время финансовохозяйственной деятельности экономического субъекта. Ведению успешного бизнеса способствует комплексная оценка и анализ собственного капитала, позволяющие оценить: рентабельность, инвестиционную привлекательность, финансовую устойчивость экономического субъекта, а также сформировать стратегию его развития. Несомненно, для комплексного анализа и оценки собственного капитала должна быть разработана индивидуальная методика анализа, учитывающая отраслевую особенность. Аналитика комплексной оценки строится на совокупности показателей, что способствует выявлению «узких мест» и скрытых резервов, которые применяются при повышении эффективности использования собственного капитала, а также участвуют в разработке управленческих решений, направленных на снижение риска инвестирования.*

Ключевые слова: *капитал, финансы, ресурс, субъект, производство, конкуренция, хозяйствующие субъекты*

Введение. Как известно, капитал - одна из наиболее широко используемых экономических категорий в финансовом менеджменте. Он является основой для создания и развития предприятия и в процессе функционирования обеспечивает интересы государства, собственников и персонала. Любая организация, осуществляющая производственную или иную коммерческую деятельность, должна обладать определенным капиталом, представляющим собой совокупность материальных ценностей и денежных средств, финансовых вложений и затрат на приобретение прав и привилегий, необходимых для осуществления ее хозяйственной деятельности. Уставный капитал предприятия формируется, как правило, за счет взносов учредителей в соответствии с его уставом и учредительным договором. Он может быть пополнен за счет прибыли предприятия от хозяйственной деятельности, а также, при необходимости, за счет целевых взносов учредителей.

Чаще всего капитал на практике рассматривается в качестве элемента, который играет второстепенную роль, поскольку на первом месте всегда стоит сам процесс финансово-хозяйственной деятельности предприятия. Поэтому можно судить о том, что роль капитала явно преуменьшается, но не следует забывать о том, что капитал является показателем объективности деятельности организации сегодня и, соответственно, ее будущего развития. Доход и прибыль приносит именно капитал, но никак не деятельность

предприятия как таковая. Все это в итоге говорит об особой значимости правильного и эффективного управления капиталом предприятия на всех этапах его существования.

Обзор литературы. По словам профессора Ю.А. Бабаева, собственный капитал - это капитал за вычетом привлеченного капитала (пассивов), который состоит из комбинации уставного, дополнительного и резервного капитала, нераспределенной прибыли и других резервов (трастовых фондов и резервных резервов).

Л. Дробозина считает, что собственный капитал компании представляет собой разницу между суммой активов и суммой внешних обязательств компании. Его величина может быть рассчитана только на основании данных бухгалтерского баланса.[1]

Профессор К.Ю. Цыганков, проведя ряд исторических и практических исследований, пришел к выводу, что "бухгалтерский факультет экономического факультета изначально создавался для расчета собственного капитала, и именно эта категория учета является основным предметом бухгалтерского учета". Несмотря на актуальность рассматриваемого нами вопроса, в настоящее время не существует нормативной формулировки термина "капитал", которая бы точно соответствовала стандартам, что свидетельствует и свидетельствует о том, что данное понятие является спорным и неоднозначным.[2]

Методология исследования. В методологии данной статьи использованы методы анализа и синтеза, научной абстракции, обобщения и сравнительно-теоретической интерпретации. Кроме того, научной основой статьи является международная информация из исследований ученых, опубликованных в отечественных и зарубежных научных изданиях.

Анализ и результаты. Существуют основополагающие принципы формирования капитала предприятия: Во-первых, учет перспектив развития предприятия. Данный принцип предполагает, что произойдет отчисление необходимых финансовых ресурсов на реализацию различных инвестиционных или инновационных проектов. Во-вторых, необходимо достижение оптимальной структуры между объемом привлекаемого (заемного) капитала и объемом собственного капитала. В-третьих, достижение соответствия и сбалансированности между привлекаемым капиталом и последующим формированием активов. В-четвертых, предполагается, что будут минимизированы затраты на формирование капитала из других источников. И последний, пятый принцип, говорит об эффективном использовании капитала, что предполагает проведение анализа и оценки финансовой устойчивости предприятия[3]. Рассматривая экономическую сущность капитала, необходимо отметить, что:

- он является основным фактором производства;

- характеризует финансовые ресурсы предприятия, которые приносят определенный доход; - он является главным источником формирования благосостояния собственников; - капитал (чистые активы) является измерителем рыночной стоимости предприятия. Существует множество видов капитала, рассмотрим классификации капитала.

Таблица-1

Классификация капитала[4]

№	Признаки	Содержание
1	По принадлежности	- собственный капитал – это совокупность материальных ценностей, денежных средств, финансовых вложений и

	капитал делится на:	различных затрат на приобретение прав, привилегий, которые необходимы для осуществления финансово-хозяйственной деятельности предприятия; - заемный капитал – это привлекаемые средства для финансирования и будущего развития предприятия. Также заемный капитал базируется на принципе возвратности средств, либо в виде денег, либо в виде имущества, при этом все формы заемного капитала, которые использует предприятие, являются его финансовыми обязательствами, подлежащими погашению в строго отведенные сроки
2	По цели использования подразделяют на:	- производительный капитал – это средства предприятия, которые вложены в операционные активы с целью осуществления производственно-сбытовой деятельности; - ссудный капитал – это капитал, который был инвестирован в различные денежные инструменты, например, краткосрочные депозитные склады в коммерческих банках, а также в долговые фондовые инструменты, например, облигации или депозитные сертификаты; - спекулятивный капитал – характеризует денежные средства, которые используются для осуществления спекулятивных (базирующихся на разнице в ценах) операций
3	По форме инвестирования классифицируют на:	- денежный; - материальный; - нематериальный
4	По объектам инвестирования различают:	- основной – характеризует часть капитала, который используется для инвестирования во все виды внеоборотных активов; - оборотный – характеризует капитал, который инвестирован во все виды оборотный активов
5	По времени использования делят на:	- краткосрочный капитал (до 1 года, например, в оборотные средства); - среднесрочный (от 1 года до 3х лет, например, в ценные бумаги); - долгосрочный (от 3х лет и более)
6	По времени создания делится на:	- первоначальный – это те средства, которые вкладываются предпринимателями, что начать свою деятельность; - текущий – это состояния капитала, которое отражается в балансе на определенную дату (например, на конец месяца)

Но мы остановимся более подробно на собственном капитале предприятия. Итак, собственный капитал предприятия состоит из основных видов капитала:

1. Уставный капитал – сумма вкладов учредителей, зарегистрированных в учредительных документах. Уставный капитал необходим для обеспечения уставной деятельности предприятия. Вклады учредителей могут быть внесены в денежной форме, имущественной форме, в форме нематериальных активов. Величина уставного капитала объявляется при регистрации предприятия, при этом уставный капитал определяет минимальный размер имущества предприятия, который дает гарантию интересов кредиторов. 2. Добавочный капитал образуется в результате переоценки имущества предприятия (например, основных средств). 4. Нераспределенная прибыль (непокрытый убыток) отражается в балансе накопительным итогом с начала года, в конце года неиспользованная часть отправляется к остатку нераспределенной прибыли прошлых лет. 5. Доходы будущих периодов – это доходы, начисленные в 2016 году , но относящиеся к будущим отчетным периодам, также сюда включаются задолженности по недостачам [5]. Собственный капитал предприятия формируется за счет собственных финансовых ресурсов, которые подразделяются на внутренние и внешние. Внутренние источники формирования собственного капитала это: - чистая прибыль, которая остается после налогообложения и обеспечивает прирост собственного капитала и, соответственно, увеличивает рыночную стоимость самого предприятия (если, в соответствии с учетной политикой предприятия предусмотрено, что часть прибыли будет отправляться на увеличение уставного капитала); - амортизационные отчисления играют особую роль на предприятиях, где существует высокая стоимость основных средств, но данные отчисления не увеличивают сумму собственного капитала, а помогают его реинвестировать; - переоценка имущества и др. [6]. Собственный капитал – это капитал за вычетом привлеченного капитала (обязательства), состоящий из уставного, добавочного и резервного капитала, нераспределенной прибыли и прочих резервов (целевые фонды и резервы) [7]. Под привлеченным капиталом понимается сумма финансовых средств, полученная в качестве кредитов, займов и кредиторской задолженности, определяющая обязательства экономического субъекта перед физическими и юридическими лицами [8]. Характеристика капитала предприятия представлена на рисунке 1.



1-рисунок. Характеристика капитала предприятия[9]

Экономическая сущность собственного капитала определяется возможностью хозяйствующего субъекта быть финансово устойчивым. Несомненно, учет, анализ и аудит собственного капитала взаимосвязанные элементы, входящие в систему управления экономическим субъектом. Их необходимость в принятии инвестиционных и финансовых решениях стратегического развития бесспорна. Сложность инвестиционных, финансовых и стратегических решений в части собственного капитала определена отсутствием национальных стандартов. Отсутствие единой методологии в области учета и аудита собственного капитала обуславливает грамотный и творческий подход к организации бухгалтерского и налогового учета компонентов собственного капитала для справедливого отражения, инвестированного и накопленного капитала в бухгалтерской отчетности, а также комплексной экономической аналитики и системного аудита.

Вывод. Ведению успешного бизнеса способствует комплексная оценка и анализ собственного капитала, позволяющие оценить: рентабельность, инвестиционную привлекательность, финансовую устойчивость экономического субъекта, а также сформировать стратегию его развития. Несомненно, для комплексного анализа и оценки собственного капитала должна быть разработана индивидуальная методика анализа, учитывающая отраслевую особенность. Аналитика комплексной оценки строится на совокупности показателей, что способствует выявлению «узких мест» и скрытых резервов, которые применяются при повышении эффективности использования собственного капитала, а также участвуют в разработке управленческих решений, направленных на снижение риска инвестирования.

Необходимо отметить, что существует множество видов капитала – это собственный и заемный; производительный, ссудный и спекулятивный; денежный, материальный и нематериальный и т.д. Но подробнее мы остановились на собственном капитале, который состоит из: уставного, добавочного, резервного, нераспределенной прибыли и целевого

финансирования. Для рационального анализа собственного капитала были выделены несколько целей, задач, а также функции собственного капитала, в первую очередь функция обеспечения непрерывности деятельности, гарантирующая защиту и возмещение убытков. Далее мы выделили формы бухгалтерской отчетности, которые являются информационной базой для проведения анализа собственного капитала, а именно: бухгалтерский баланс, отчет о финансовых результатах и отчет об изменении капитала.

Литературы:

1. Boyd H. John The Theory of bank risk taking and competition revisted. The journal of finance, June 2013, 3. – pp. 1329-1343
2. Трошин В. А. Оценка эффективности деятельности коммерческого банка [Текст] / В. А. Трошин // Инновационная экономика: материалы междунар. науч. конф. (г. Казань, октябрь 2014 г.). - Казань: Бук, 2014. - С. 69-72.
3. Haq Mamiza Factors determined European banking risk. Journal of international financial markets, institutions and money, April 2012, 22. – pp. 696
4. Составлено автором
5. Parlour A. Christine Laying off credit risk: Loan sales versus credit default swaps, January 2013, 1. – pp. 25-45
6. Nijskens Rob Credit risk transfer activities and systemic risk: How banks became less risky individually but posed greater risks to the financial system at the same time. Journal of banking and finance, October 2012, 35. – pp. 1391- 1398
7. Тарасов А.С. Формирование депозитной базы и ее влияние на устойчивость коммерческого банка // Российское предпринимательство. – 2011. - № 8.
8. Назарова А. Н. Методика проведения экономического анализа собственного и привлеченного капитала акционерного общества [Текст] / А. Н. Назарова // Молодой ученый. - 2015. - №9. - С. 677-681.
9. Составлено автором

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА ЭЛЕКТРОН ТИЖОРАТНИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Бейсенов Кенжабай Сарсанбаевич
Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Малака ошириш институти Касбий тайёргарлик факультети Махсус фанлар цикли ўқитувчиси подполковник
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191973

Аннотация: *Мазкур мақолада рақамли иқтисодиёт ва электрон тижоратнинг ривожланиш йўналишлари бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар берилган.*

Таянч сўзлар: *инновация, блокчейн, маҳсулот, бизнес, дизайнер, венчур бизнес, 3D-принтер, иқтисодиёт, электрон тижорат, криптовалюта.*

Кириш

Глобаллашув жараёнида мамлакатлар рақобатбардошлигини белгилашда иқтисодиётда рақамли иқтисодиётнинг ўрни беқиёсдир. Иқтисодиётнинг қайси бир тармоқ ёки соҳасига назар ташламайлик, барчасида рақамли технологияларнинг ўрнини кўрамиз. Мамлакат банк тизимидаги хизматлардан тортиб, давлат хизматлари даражасида ҳам инновацион рақамли технологияларнинг улушини кўришимиз мумкин. Рақамли иқтисодиёт икки хил турли тушунчаларни ифодалаш учун ишлатилади. Биринчидан, рақамли иқтисодиёт–бу ривожланишнинг замонавий босқичи бўлиб, у ижодий меҳнат ва ахборот неъматларининг устувор ўрни билан тавсифланади. Иккинчидан эса, рақамли иқтисодиёт–бу ўзига хос тушунча бўлиб, унинг ўрганиш объекти ахборотлашган жамият ҳисобланади[1].

Ҳаракатлар стратегиясини 2035 йилларда амалга оширишда рақамли иқтисодиёт муҳим роль ўйнайди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида таъкидлаганидек: “рақамли иқтисодиётни шакллантириш керакли инфратузилма, кўп маблағ ва меҳнат ресурсларини талаб этишини жуда яхши биламиз. Бироқ, қанчалик қийин бўлма-син, бу ишга бугун киришмасак, қачон киришамиз?! Эртага жуда кеч бўлади. Шу боис, рақамли иқтисодиётга фаол ўтиш – келгуси 5 йилдаги энг устувор вазифаларимиздан бири бўлади.Рақамли технологиялар нафақат маҳсулот ва хизматлар сифатини оширади, ортиқча харажатларни камайтиради”[2].

Адабиётлар таҳлили

Рақамли электрон иқтисодиётнинг яқин келажакдаги ривожланиш йўналишларидан энг диққатга сазоворлари Индустрия, Буймлар интернети, Виртуал ва Тўлдирилган воқелик (VR ва AR) ҳамда 3D -принтерлар десак, асло янглишмаган бўлар эдик. Ҳозирги кунда интернетга турли хилдаги қурилмалардан киришлар сони унга инсонларнинг киришлари сонидан кўра кўпроқ бўлиб кетган (Лавина данных//Огонёк, №24, 24 октябр 2016, стр.4-5). „Ақлли уй“, „Хайдовчисиз автомобиль“, „Ишчиларсиз завод“ ва „Инсон иштирокисиз савдо“ деб номланган лойиҳалар барчага маълум ва машҳур. Виртуал воқелик ва тўлдирилган реаллик технологиялари ҳам келажак трендлари бўлиб, улар борган сари кўпроқ ишлаб чиқаришга татбиқ қилинмоқда. Виртуал реаллик технологияси реал дунёни компьютер графикаси воситасида яратилган виртуалликка кўчиради. Тўлдирилган реаллик технологияси эса атроф-муҳитдаги реал дунёни қўшимча элементлар, маълумотлар ва объектлар билан тўлдиради. Бундай технологиялар ҳар бир хизматчига машина ва механизмларнинг ички тузилиши кўришга ва ишлашини кузатишга имкон беради. Натижада ишчи ва хизматчилар объектни яхшироқ тушуниш, бошқариш ва ундаги потенциал хавфлар ва бузилишларнинг олдини олишлари мумкин бўлади. Масалан, **BMW Group** мутахассислари Мини автомобильлари маркаси учун машина двигателининг носозликларини аниқлашга имкон берадиган тўлдирилган реаллик кўзойнакларини яратдилар. Бундай кўзойнаклар ёрдамида моторнинг ишини рангли уч ўлчамли тасвирда кўриш ва таъмирлаш учун инструкцияларни олиш мумкин. (Рюссман Майкл, Ишчилар ва роботлар учун иш жойлари, **BCG**, 2015, п.47). Келажакдаги энг перспектив технологиялар сирасига эса аралаш воқелик технологияларини ёки гибрид воқелик технологияларини

киритишимиз мумкин[3]. **3D-принтерлар** ҳам индустриянинг ажралмас таркибий қисми ҳисобланади. Бу технологияни амалиётда „аддитив технологиялар“ деб ҳам юритилади, 3D-печатьнинг ишлаб чиқаришда ишлатилиши эса “*additive manufacturing”* деб номланган. Ушбу усулнинг бошқаларидан фарқи шундаки, керакли маҳсулот уни қаватма-қават турли материалларни ишлатган ҳолда кўп маротабалаб чоп қилиниб ҳосил қилинади. Бундай кўп қаватли печать усули исталган мураккабликдаги деталларни сваркасиз, уловларсиз ва бутловчи қисмларсиз тезкорлик билан яратиш имконини беради. **3D**-технология авиацияда, автомобильсозликда, тиббиётда, стоматологияда, маиший соҳада, махсус қурилмалар ясашда ва бошқа йўналишларда мураккаб деталларни тез ва арзон яратишда ишлатилиши мумкин. 3D-принтерлар янги механизмларнинг прототипларини яратишда ва тайёр механизмларнинг моделларини ясашда ҳамда уларни реал шароитларда текшириб кўришда ҳам ишлатилиши мумкин. Учувчисиз қурилмалар (дронлар)ни ҳам тижорий мақсадларда ишлатиш юкларни ташиш бўйича логистик операцияларни, аэрофотосъёмкаларни, қурилиш бошқарувини ва видеоконтентлар тайёрлашни автоматлаштиришга ёрдам беради. Дронлардан фойдаланиш **UPS, DHL, Amazon** ва **Facebook** компанияларига логистика занжирларини янада мукаммаллаштиришга ва ривожлантиришга имкон беради (PwC, Osipov I. Dronlar – yetkazib beruvchilar//RBK, yanvar-fevral 2017.str.32-33).

Тадқиқот методологияси

Ушбу мақолани тайёрлашда меъёрий –ҳуқуқий ҳужжатлар, фойдаланилган адабиётлар ва интернет маълумотлари расмийлиги, ундаги иқтисодчи олимларнинг мавзуга оид илмий-назарий қарашларининг қиёсий ва танқидий таҳлилий, илғор хориж тажрибасини ўрганиш ва умумлаштириш натижаларига ҳамда таклиф ва тавсияларининг амалиётга жорий қилинганлиги билан белгиланди. Мавзуни ўрганиш давомида умум иқтисодий усуллар билан бир қаторда тизимли таҳлил, умумлаштириш, абстракт-мантиқий фикрлаш, статистик усуллар коррексион ва эмпирик таҳлил каби усуллардан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси

Давлатимизнинг рақамли иқтисодиётни ривожлантириш бўйича чора-тадбирлари информацион технологиялар ва электрон ҳужжат айланиши соҳасида бир қанча янги самарали йўналишлар ҳосил бўлишига олиб келади. Рақамли иқтисодиётнинг ривожланишига асосий турткилардан бири бўлиб, жаҳон миқёсидаги интернет тизимининг барқарор ишлаши ва сифатли алоқанинг мавжудлиги сабаб бўлди. Бу имкониятлар натижасида катта ҳажмдаги маълумотларни алмашинишни амалга оширилиши ҳамда уларни сақлаш ва қайта ишлаш мумкин бўлди. Бу эса ўз навбатида аниқроқ башорат қилиш, асосланган ечимлар қабул қилиш ҳамда ҳисоблаш имкониятларидан унумли фойдаланишга йўл очади. Бундай ишларни амалга ошириш учун эса глобал информацион платформалар кўринишидаги инфратузилма талаб этилади, албатта. Аммо бунда бир қанча таваккалчиликларга дуч келиш эҳтимоли вужудга келади, шу жумладан, маълумотларни йўқотиш эҳтимоллиги, бизнесни йўқотиб қўйиш эҳтимоллиги, иш жойларининг камайиб кетиши, хавфсизликка путур етиши ва модернизация қилиш зарурияти. Бу муаммоларни иложи борича тез ҳал қилиш керак бўлади, акс ҳолда кечикиш катта зарарларга олиб келиши мумкин. Чунки бошқа ривожланган мамлакатларда иқтисодиёт фаол равишда ва тезкорлик билан электрон кўринишга ўтказилмоқда. Иқтисодиётни рақамлаштиришда қуйидаги саволларга алоҳида аҳамият бериш керак бўлади:

- Иқтисодиётни рақамлаштириш қандай натижаларга олиб келади?

- Бундай янги шароитларда ҳаракат дастури қандай бўлиши лозим?
- Иқтисодиётни рақамлаштиришда нималарга асосий диққат-эътиборни қаратиш керак?

Келажак нуқтаи-назаридан рақамли иқтисодиётни қандай тасаввур қилиш мумкин? Фикримизча, бу объектив жаён бўлиб, уни тўхтатиб туришга бизда имкон йўқ. Аммо ҳар қандай ривожланаётган жараён сингари, унда ҳам ижобий ҳамда салбий томонлар мавжуд. Энг биринчи навбатда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиш ва қўл меҳнатини технологиялар билан алмаштирилиши ҳисобига иш ўринлари анча миқдорга камаяди. Ижобий томонлар эса қулайликнинг вужудга келиши, ишлаб чиқариш унумдорлигининг ошиши, олдин хаёлга ҳам келмаган янги имкониятларнинг пайдо бўлишидир. Аммо асосий муаммо бунда ҳам эмас, муаммо инсон билан боғлиқ–инсон ҳам бундай глобал ўзгаришларга тайёрми? Илғор технологиялар катта сиёсий ғалаёнлар, тўқнашувлар, мисли кўрилмаган табақаланишлар, миллатчилик, тушунмовчиликлар ва инқилобларга олиб келмайдими? Роботлар ва сунъий интеллект тизимлари инсонлар ўрнини эгаллаб олиб, уларнинг рақобатчиларига айланмайдими? Чунки рақамли трансформация инсоният эволюциясининг яна бир босқичидир. Агар тарихга назар солсак, бундай ўзгаришлар кўп марталаб содир бўлган. Янги технологиялар ҳосил бўлиб, улар одатий мутахассисликларнинг ўрнинг эгаллаганлар. Аммо буларнинг натижасида инсонлар кўпчилик холларда манфаат кўрганлар холос. Мослаша олмайдиганлар учунгина бундай жараёнлар ёмон бўлиб чиққан, албатта. Лекин, кўпчилик инсонлар мослаша оладилар ва бунинг натижасидан инсоният ҳаёти янада фаровон ва янада яхши бўлиб бораверади. Энди юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, хулоса сифатида криптовалюталар билан боғлиқ бир қанча таклиф ва мулоҳазаларни ёритиб ўтамиз. Пулларни ҳар ким ва ҳар куни ишлатишига қарамай, пул нима ўзи? - деган саволга кўпчилик инсонлар тўғри жавоб бера олмайдилар. Пулни абсолют кўпчилик инсонлар қандайдир интуитив равишда тушунади ва бу уларнинг пуллар билан бемалол фойдаланишларига унчалик халақит бермайди. Аммо, Пул ўзи нима?

- ✓ Нимага пулинг бунақа кўплаб турлари мавжуд ва уларнинг хусусиятлари қандай?
- ✓ Пулларнинг булардан кўра яхшироқ кўринишлари борми ва қайси бирлари яхшироқ?
- ✓ Криптовалюталардан реал пул сифатида фойдаланиш мақсадга мувофиқми ёки йўқми?
- ✓ Криптовалюта ва токенларнинг ўзига ва қийматига давлат кафолат бера оладими?

каби бир қанча саволларни мутахассислардан бошқа инсонлар тўлиқ тушунмайдилар ва уларга бу керак ҳам эмас. Уларни кўпроқ “Пулларни қандай қилиб кўпроқ топиш ва сақлаш мумкин?” деган савол қизиқтиради холос. Агарда тарихга назар солсак, дунёнинг барча давлатларида пулларни чиқариш ва уни бошқариш масалалари билан тегишли давлат органлари шуғулланадилар. Бундай ёндашувнинг ўз ижобий ва салбий томонлари мавжуд, албатта. Агарда бундай салбий томонлар кимларгадир ёқмаса, улар умумий ҳолатни ўзгартириб ва яхшилаб ололмайдилар, чунки бу иш қонунга хилоф амал бўлиб ҳисобланади. Шуни ҳам айтиш керакки, энг аввало қандайдир холат юзага келади, шундан сўнггина уни тартибга соладиган қонунлар яратилади. Худди шундай ҳолат радио соҳаси билан ҳам, интернет тизими билан ҳам, автомобиль технологияси билан ҳам ва шунга ўхшаш бошқача технологияларда ҳам кузатилган. Энди эса худди шундай ҳодиса криптовалюталар билан ҳам кузатилмоқда. Умуман айтганда, криптовалюталар иқтисод,

криптография, компьютер технологияси ва сиёсат масалалари кесишувида пайдо бўлган. Илк криптовалюта – биткоин эса пастдан чиққан инновация бўлиб, юқоридагиларнинг (давлат органларининг) бунга ҳеч қандай алоқаси йўқ. Яъни, рақамли криптовалюталар давлатнинг эмас, балки халқ томонидан уланинг хоҳиш-истакларини ҳисобга олган холда яратилган ечим ҳисобланади. Шунинг учун ҳам бу инновацион ғоянинг яратилиш тарихи ва унинг ривожланишини ўрганиб чиқиш диққатга сазовордир. Ушбу ғоя асосида пул муомаласининг марказлашмаган усули таклиф қилинган ва у амалиётга татбиқ этилган. Бундай пул айланиш моделида комиссиялар минимал бўлади ёки умуман бўлмайди. Унда икки келишувчи томон хоҳишисиз ҳеч қандай учинчи томон уларга халақит ҳам бера олмайди, ўз пуллик хизматларини таклиф ҳам эта олмайди, келишувни тўхтата ҳам олмайди ҳамда бировларнинг мулкини мусодара қила ҳам олмайди. Бу тизимда пул эмиссияси миқдори олдиндан дастурлаб қўйилган ва бу сиёсий манипуляцияларни ҳамда пул чиқарилиши билан боғлиқ бўлган қалбакичиликларнинг олдини олади. Тизим бирорта нозик томони бўлмаган трансмиллий тизим бўлиб, ҳеч ким уни фойдаланувчиларнинг розилигисиз бошқара олмайди. Тизим қандайдир даражадаги ишончни ҳам талаб қилмайди – унинг тўғри ишлаши аниқ математик формулалар ва криптография усуллари билан тўлиқ кафолатланади. Бу эса инсон томонидан бошқарилиши мумкин бўлган ҳуқуқий келишувларни четга суриб қўйиб, инсоний факторни йўққа чиқаради. Биткоин криптовалютаси блокчейн га асосланган тизимлар ишлатилишининг биринчи амалий исботи бўлди. Аммо, блокчейн технологияси криптовалюталарга нисбатан анча кенг миқёслидир, чунки унинг ёрдамида исталган турдаги тақсимланган ҳисоб тизимларини яратиш мумкин[4]. Блокчейндан фойдаланишнинг яна бир имконияти сифатида **World Wi-Fi** платформаси ёрдамида аҳоли учун интернетдан текин фойдаланиш имкониятини яратишни кўрсатишимиз ҳам мумкин. Бу платформа “Efir” (Ethereum) криптовалютаси блокчейнига асосланган. **World Wi-Fi** платформасида уч томон бўлади: интернет фойдаланувчиси, роутер эгаси ва реклама берувчи. Уларнинг ҳар қайсиси ҳам тизимдан ўз фойдаси улушини олади. Уйида роутер бор бўлган ва интернетга уланган оддий инсонларни текин **Wi-Fi** ўзига жалб қила олади, чунки улар интернетга қўшимча уланиш нуқтасини ҳосил қилиб, унга бошқаларни жалб қиладилар ва шу орқали пул ишлай оладилар. Уларга иш ҳаққи **WeToken** криптотокенларида келади ва улар бу токенларни реал пулларга ёки криптовалюталарга алмаштириб оладилар. Криптовалюталар оламидаги юқорида тавсиф этилган стратегик ва тактик хатти-ҳаракатларнинг муваффақиятли равишда амалга ошиши ва ривожланиши учун, бизнинг фикримизча, ҳозирги кунда мамлакатимизда тўрт хилдаги асосий йўналишлар таклиф этиш мумкин: Биринчи сценарийда бит сўм криптовалютаси муомалага чиқарилиши мумкин. Ўзбек миллий валютасини блокчейнга ва рақамли форматга ўтказиш унга бир қанча афзалликлар бериши мумкин, аммо бу ҳолда бир қанча муаммоларни қонунчилик асосида тўғри ҳал қилиш керак бўлади. Масалан, ушбу блокчейнни ким бошқаради ва унга давлат мақоми бериладими ёки у корпоратив мақомга эга бўладими. Бит сўм ички ва ташки бозорда қандай ишлатилади ва ким томонидан назорат қилинади - деган саволларга ҳам банк-молия-кредит соҳалари мутахассисларини жалб қилган ҳолда конкрет, ишончга сазовор ҳамда аниқ жавоб топиш лозим бўлади. Иккинчи йўналишда Ўзбекистоннинг суверен давлат блокчейн тизими ташкил қилинади ва у ўзида турли молиявий институтларнинг функцияларини қамраб олади. Бундай институтлар жумласига банклар, депозитарийлар, пенсия фондлари, солиқ идоралари ва бошқаларни

киритиш мумкин. Бу амал солиқ тўлаш ва маблағларни фондларга ўтказиш ишларини нисбатан осонлаштириш ва тўлиқ автоматлаштириш имконини беради. Учинчи имконият эса криптовалютани алоҳида ташкилотларда ёки ҳудудларда ҳаётга татбиқ қилинади ва бу соҳада етарлича амалий тажриба тўпланганидан сўнг, бу иш республика миқёсида амалга оширилади. Охирги, тўртинчи имконият эса Россия Федерациясидагидек Марказий банк томонидан рақамли криптовалюталар билан ишлашни амалга оширадиган пилот лойиҳани ишга туширишдир (мастерчейн лойиҳаси). Ушбу платформа бозор иштирокчиларининг электрон усулда ўзаро маълумот алмашиниши ва блокчейнларда идентификация қилиниши учун мўлжаллангандир. Бу тизим аста секин, криптовалюталар билан ишлаш тажрибаси ошиб борган сари бир қанча давлат интерактив хизматларининг ҳам навбатма-навбат блокчейн га ўтказилишини таъминлаши мумкин[5].

Республикамизда криптовалюта бўйича малакали мутахассисларнинг жуда камлиги ва бу соҳадаги тажриба озлигини ҳисобга олган тарзда бу йўналишда малакали мутахассислар тайёрлашни ҳам амалга ошириш замона талаби бўлиб қолмоқда. Лекин блокчейн технологияларни ҳаётга татбиқ қилиш ва Ўзбекистон криптовалютасини чиқариш инновацион ғоясини қадам ба қадам амалга ошириш ҳозирданоқ бошлаб йўлга қўйилиши керак бўлган ҳаёт тақозосидир. Чунки дунёдаги кўпчилик ривожланган мамлакатлар ўзларининг миллий ёки корпоратив криптовалюта лойиҳаларини амалга оширмоқдалар ва улар кейинчалик барча рақамли криптопулларга эгалик қилиб, бошқа мамлакатларни бу жараёндан сиқиб чиқаришга ҳаракат қиладилар. Давлатнинг монетар сиёсатидаги энг муҳим амаллардан бири пул эмиссиясини назорат қилиш бўлгани учун, криптовалютадан воз кечиш мамлакатдаги молия-кредит тизимини ва унинг жаҳон молия кредит тизими билан алоқаларини сезиларли равишда чегаралашга ва уни издан чиқишига олиб келиши мумкин. Республикага инновацион иқтисодиётни тезкорлик билан ривожлантириш ҳамда турли хилдаги инновацион лойиҳаларни молиялаштириш учун юқоридаги тегишли бўлимда тавсиф этилган ICO (Initial Coin Offering) механизмини ҳам қонунийлаштириш ва жорий қилиш мақсадга мувофиқ бўлар эди. Бунда Ўзбекистонда ишлаб чиқариладиган маҳсулотлар ва хизматлар билан таъминланган токенлар чиқариш ва уларни ички ҳамда ташқи бозорда реализация қилиб, йиғилган маблағлар тегишли лойиҳаларни молиялаштириш учун ишлатилар эди. Лойиҳа амалга оширилиб бўлинганидан сўнг, токенлар кўринишидаги криптовалюталар эгаларига уларнинг токенлари миқдорига тенг бўлган тегиши маҳсулотлар етказилиб берилади ёки улар учун тегиши хизматлар амалга оширилади. Демак, кўпчилик инсонлар уй-жойли бўлиш учун банклардан юқори фоизли ипотека кредитини олиш ўрнига ҳеч қандай кредит маблағлари жалб қилмасдан туриб, уй қураётган компаниядан криптотангалар сотиб оладилар ва бироздан сўнг, уй-жойли бўладилар. Агар уларга уй керак бўлмаса, криптотангаларни иккиламчи бозорда сотиб, қўшимча даромад ишлаб олишлари ҳам мумкин. Буни криптовалюталардан фойдаланишнинг спекулятив усули деб аташ мумкин.

Хулоса ва таклифлар

Ушбу мақола криптовалюталарга бағишланган ва Ўзбек тилида ёзилган дастлабки мақолалардан бири бўлиб, камчиликлардан ҳоли эмас, албатта. Унда рақамли технологиялар, сунъий интеллект, булутли технологиялар, электрон тижорат, рақамли давлат хизматлари, рақамли финтехнологиялар, криптология, криптография, блокчейн, криптовалюта, унинг турлари, тарқалиши, ишлатилиши, тарихи, ривожланиши, бозорлари,

биржалари, алмашинув пунктлари, **ICO** (Initial Coin Offering)лар ва уларни ташкил қилиш механизми ҳамда криптовалюталардан фойдаланилиш ва уларнинг ривожланиш тенденциялари бўйича баҳоли-қудрат бир қанча маълумотлар берилган. Энди рақамли иқтисодиёт бўйича жаҳон миқёсидаги асосий трендларни ҳам ёритиб ўтишга ҳаракат қиламиз: Меҳнат бозори тузилишининг ўзгариши–информацион технологияларнинг ривожланиши ишчи-ходимларнинг малакаларига бўлган талабларни ҳам тубдан ўзгартириб юборади. Натижада ақлий меҳнатнинг қадри ошиб, бу сахада ишлайдиганларга иш ҳақи миқдори анча катта бўлиб кетади. Буни иқтисодчилар техник прогресснинг янги технологиялар билан ишлай олувчилар томонга қараб бурилиши (**skill-based technological change – SBTC**) деб атайдилар. Бу шубҳасиз жаҳон трендидир ва шунинг учун ҳам бу ҳолатни таълим дастурлари ҳамда режаларини тузишда ҳисобга олиш керак бўлади. Компания ва ташкилотларнинг янги технологияларни ўзлаштириш жараёнига боғлиқ равишда, ишчи-хизматчиларнинг малака оширишига бўлган талаблар ҳам кескин ўзгаради ва ходимларнинг бутун умри давомида таълим олиши кераклиги замона талаби бўлиб қолади.

Фойдаланилган адабиётлар

[1]https: //ict. xabar. uz/startap/yurtimiz-rivojlanishida-raqamli-iqtisodiyotning-orni.

[2] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // Халқ сўзи, 24.01.2020 йил.

[3] R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020, 575 bet.

[4] R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020, 575 bet.

[5]R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020, 575 bet.

DPI TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BANKLARNING TARMOQ TRAFIGINI FILTRLASH TIZIMLARINI AnyLogic DASTURI YORDAMIDA SIMULYATSIYA MODELINI ISHLAB CHIQISH

Giyasova Nargiza Botirovna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi bosh mutaxassisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192551

Annotatsiya: *Ushbu maqolada haqiqiy neyron tarmog‘i algoritmlarining xarakteristikalari, neyron tarmog‘i modellarining xarakteristikalari tahlil qilindi. Bir qatlamli neyron to‘rlari. Garchi bitta neyron oddiy anglash prosedurasini ham amalga oshira olmaydi, lekin bir qancha neyronlarni neyron to‘riga birlashtirishda neyron hisoblarning kuchi yuzaga keladi. Izohlab o‘tish kerakki, chap tomondagi qirra-aylanalar faqat kiruvchi signallarni taqsimlash uchun xizmat qiladi*.

Kalit so‘zlar: *Bir qatlamli neyron, bank tarmoq simulyatori, simulyatorlari turlari, Xemming va Xopfield, DPI*

Kirish Simulyatsiya modellashtirish ikkita asosiy qadamdan iborat: qaror qabul qilish uchun modellashtirish va modellashtirish yordamida olingan natijalarni tahlil qilish.

Ko‘rib turganimizdek, haqiqiy simulyatsiya modelini yaratish juda ko‘p ishni talab qiladi. Birinchidan, modeli ishlab chiquvchi qanday vazifalar uning yordami bilan hal qilinishi kerakligini aniqlashi kerak, modellashtirish har qanday shaklda modellashtirish maqsadini shakllantirishdan oldin bo‘lishi kerak. Maqsad haqiqiy tizimda qaysi jarayonlarni modellashtirilgan va namoyish etilishi kerakligi va qaysi jarayonlardan abstrakt bo‘lishi kerakligi, ushbu jarayonlarning qaysi xususiyatlarini hisobga olish kerakligi va qanday bo‘lmasligi kerakligi, o‘zgaruvchilar va model parametrlari o‘rtasidagi munosabatlar qanday bo‘lishi kerakligiga bog‘liq. Modelda ushbu jihatlar aks etishi lozim. Ushbu bosqich konseptual (kontent) modeli yaratilishi bilan tavsiflanishi mumkin. Unda modelni tuzish, ya’ni alohida kichik tizimlarni taqsimlash, modelning boshlang‘ich komponentlarini aniqlash va ularning ierarxiyasining har bir darajasidagi munosabatlari mavjud.

Modellashtirish modelida model strukturasi haqiqiy darajadagi modellashtirish ob’ektining strukturasini aks ettiradi va modelning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi haqiqiy aloqalarning aks etishi hisoblanadi. Tizimning elementlari, parametrlari va o‘zgaruvchilari, shuningdek, ularning o‘zaro munosabatlari va ularning o‘zgarish qonunlari modellashtirish muhiti aks etishi lozim.

Agar kerak bo‘lsa, modelda yuzaga keladigan jarayonlarni tushunish uchun ushbu jarayonlarning animatsiya ko‘rinishini ishlab chiqish kerak.

Keyin qurilgan model uni amalga oshirishning to‘g‘riligi nuqtai nazaridan tekshirilishi kerak.

Keyingi qadam - namunani sozlash yoki aniqlash; ma’lumotlar yig‘ish va ushbu xususiyatlarning o‘lchovlarini REAL tizimda amalga oshirish, bu parametrlarning parametrlari va tarqalish parametrlari shaklida modelga kiritilishi kerak.

Keyinchalik, ushbu modeldagi chiqish haqiqiy tizimning xarakteristikalari ma’lum bo‘lgan yoki aniq ko‘rinadigan bir nechta test rejimlarida sinovdan o‘tganligini tashkil etuvchi modelning

haqiqiyligini (uning haqiqiyligini) tekshirish kerak. Modeli bilan ishlashning so‘nggi bosqichi - bu kompyuter tajribasi, ya’ni, aslida model yaratilgan.

Eng oddiy holatda eksperiment modeldagi mavjud parametrlarning (omillarning) turli xil qiymatlari va xatti-xarakteristikalarini ro‘yxatga olish bilan xatti-harakatni kuzatishdir. Ushbu turdagi modellashtirishga "prognoz" yoki "agar nima bo‘lsa ..." turidagi tajriba deb ataladi. Kompyuterni modellashtirish nafaqat prognozni olishga imkon bermaydi, balki tizimdagi qaysi nazorat ishlarini ham voqealarning ijobiy rivojlanishiga olib keladi. Keyinchalik murakkab tajribalar modelni sezgir tahlil qilish, turli xil boshqarish echimlarining xatarlarini baholash, shuningdek, modelning oqilona ishlashi uchun parametrlar va shartlarni aniqlash uchun optimallashtirish imkonini beradi.

Bir qatlamli neyron to‘rlari. Garchi bitta neyron oddiy anglash proseduralarini ham amalga oshira olmaydi, lekin bir qancha neyronlarni neyron to‘riga birlashtirishda neyron hisoblarning kuchi yuzaga keladi. Izohlab o‘tish kerakki, chap tomondagi qirra-aylanalar faqat kiruvchi signallarni taqsimlash uchun xizmat qiladi. Ular birorta hisoblash amallarini bajarmaydi va shu sababli qatlam hisoblanmaydi. Hisoblash amallarini bajaruvchi neyronlar to‘rtburchaklar bilan belgilangan. X kiruvchi to‘plamdagi har bir element alohida vazn bilan har bir neyron bilan bog‘langan. o‘z navbatida har bir neyron kiruvchi qiymatlar «sozlangan» yig‘indisini chiqaradi.

Vaznlarni W matritsa elementlari sifatida qarash o‘ng‘aydir. Matritsa m satr va n ustunga ega bo‘lib, m –kirishlar soni, n-neyronlar soni. Masalan, wi,j – bu uchinchi kirishni ikkinchi neyron bilan bog‘lovchi vazndir. Shunday qilib, komponentalari neyronlarning OUT bo‘lgan chiquvchi N vektorni hisoblashni matrisali ko‘paytma N = XW sifatida keltirish mumkin, N va X –satr-vektorlar[2]. Bir qatlamli neyron to‘rlari masala yechimi sifatida «g‘olib barchasiga ega» prinsipi keng qo‘llaniladi.



1-rasm. Bir qatlamli neyron to‘ri

Bu prinsip mohiyati quyidagicha: kiruvchi X uchun birinchi qatlamdagi qaysi neyron maksimum (minimum) qiymat qabul qilsa, o‘sha neyron qayta-ishlanayotgan ob’ektni o‘ziga «tortgan» hisoblanadi. Mazkur neyronning barcha xossalari ayni shu ob’ektga ham tegishli bo‘ladi, masalan qatlam neyronlari sinflar vakillari sifatida qaralsa, o‘ziga tortgan neyron (ob’ekt) qaysi sinfga tegishli bo‘lsa, noma’lum (yangi) ob’ekt ham shu sinfga tegishli bo‘ladi va hokazo.

Maksimumlik prinsipi bo‘yicha amal qiladigan bir qatlamli sun’iy neyron to‘ri 1-rasmda keltirilgan.

Hajm jihatdan katta va murakkab neyron to‘rlari, odatda, mos ravishda katta hisoblash imkoniyatlariga ega. Garchi neyronning juda ko‘p tuzilishlari yaratilgan bo‘lsa ham ko‘p qatlamli neyron to‘rlari miyaning ayrim qatlamli bo‘laklarini nusxasidir. Bunday to‘rlar bir qatlamli neyronlarga nisbatan o‘rganish sig‘imi kengroq hisoblanadi va hozirda ko‘p qatlamli to‘rlarni o‘rgatish algoritmlarining bir qancha turlari yaratilgan.



2-rasm. Maksimumlik prinsipida amal qiluvchi bir qatlamli sun’iy neyron to‘ri.

Ko‘p qatlamli neyron to‘rlari qatlamlar kaskadi bilan hosil bo‘lishi mumkin. Bir qatlam chiqishi keyingi qatlam uchun kirish bo‘ladi. Bunday neyron to‘ri 2-rasmda keltirilgan.

Shu o‘rinda, qayd etib o‘tish zarurki, hozirda soha olimlari tomonidan bir va ko‘p qatlamli neyron to‘rlarining o‘zaro ekvivalentligi matematik tarzda isbot qilingan.



2-rasm. Ikki qatlamli neyron to‘ri

Teskari bog‘lanishli to‘rlar. Yuqorida ko‘rilgan to‘rlarda teskari bog‘lanishlar yo‘q edi, ya’ni qandaydir qatlamning chiqishidan chiqib, xuddi shu qatlam yoki oldingi qatlamlar kirishiga boruvchi bog‘lanishlar yo‘q edi. Bunday to‘rlar to‘g‘ri tarqaluvchi to‘rlar sinfini tashkil qiladi va

ular katta qiziqish uyg‘otadi va juda keng ravishda qo‘llaniladi. Chiqishlarida kirishlariga bog‘lanish bo‘lgan to‘rlar teskari bog‘lanishli to‘rlar deyiladi. Teskari bog‘lanishlari bo‘lmagan to‘rlarda xotira yo‘q, ularning chiqishi faqat ayni paytga kirishlar va vaznlar bilan aniqlanadi. Ayrim ko‘rinishdagi teskari bog‘lanishli neyron to‘rlarida chiqish qiymatlari kirishga qaytariladi, oqibatda chiqish ayni paytdagi kirish va oldingi chiqish bilan aniqlanadi. Shu sababli teskari bog‘lanishli to‘rlar inson miyasining qisqa muddatli xotirasi xossalariga o‘xshash xossalarga ega bo‘ladi. To‘r chiqishlari qisman oldingi kirishlarga bog‘liq bo‘ladi[3].

Modellashtirish natijalarini taqdim etish va tahlil qilish muhim masalalardan biridir. Buni amalga oshirish uchun, vosita muhitida statistik ma’lumotni qayta ishlash, ma’lumotlar olishning tuzilmaviy yoki grafik shakli, tashqi ma’lumotlar bazalari bilan integratsiyalashuvi uchun va boshqalar kerak bo‘ladi. Buning uchun maxsus uskunalar ishlatilishi mumkin.

1-jadval. Modellashtirish bosqichlari

№	Staj nomi	Natija
1	Tizimlarni tahlil qilish	Tizimda nima yuz berayotganini tushunish, uning tuzilishi, unda qanday jarayonlar sodir bo‘lishi
2	Tizimni modellashtirish maqsadini shakllantirish	Kelajak modelining yordami bilan echilishi kerak bo‘lgan vazifalar ro‘yxati. Modeldagi kirish va chiqish parametrlari ro‘yxati, dastlabki ma’lumotlarning ro‘yxati, kelgusida bajariladigan ishni bajarish mezonlari
3	Konseptual tuzilmani rivojlantirish modellari	Modelning tuzilishi, modelda namoyish etiladigan muhim jarayonlarning tarkibi, har bir modeldagi quyi tizim uchun ajralmas qat’iy belgilangan darajasi (taxminlar ro‘yxati), quyi tizimlar uchun boshqaruv mantig‘ining tavsifi
4	Modellashtirish muhitida modellashtirish	Amalga oshirilayotgan kichik tizimlar, ularning parametrlari va o‘zgaruvchilari, ularning xatti-harakatlari, quyi tizimlarning mantiqi va ulanishlari
5	Animatsiya ko‘rinishini qo‘llash modellari	Modelning animatsiya namoyishi, foydalanuvchi interfeysi
6	Modelni amalga oshirishning to‘g‘riligini tekshirish	Ushbu e’tiqod modeli siz tahlil qilmoqchi bo‘lgan haqiqiy tizim jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqdir
7	Modellarni kalibrlash	Parametrlar qadriyatlarini, tenglamalar koeffitsientlarini va tasodifiy o‘zgaruvchilardan tarqatiladigan modellarni tahlil qilish uchun ishlatiladigan vaziyatlarni aks ettiradigan taqsimlash
8	Kompyuter tajribasini rejalashtirish va o‘tkazish	Modellashtirish natijalari - grafikalar, jadvallar va boshqalar

Ko‘pincha simulyatsiya modeli boshqariladigan tizimning REAL vaqt monitoringi ma’lumotlari, mavjud vaziyatning oqibatlarini baholash va optimal (yoki oddiy oqilona) nazorat qilishni taklif qiluvchi yanada kengroq qaror qabul qilish tizimining moduli sifatida ishlatiladi. Buni amalga oshirish uchun, odatda, boshqa axborot tizimlari bilan modelni integratsiyalash va maxsus foydalanuvchi interfeysi yaratish zarur.

Xulosa

Ushbu maqolada neyron tarmoq xarakteristikalarini o‘rganish, neyron tarmoqlari, neyron tarmoq elementlari, hamda neyron tarmoq arxitekturalari o‘rganilgan bo‘lib bu mavzular orqali neyron tarmog‘ining qulayligi, imkoniyatlari ochib berilgan. Neyron tarmoqlari ma’lumotlar bilan ishlaydigan tarmoq bo‘lganligi sababli, ma’lumotlarni tahlil qilib boradi. Oddiy tarmoqdan esa tezkorligi, moslashuvchanligi va eng asosiysi ma’lumotlarni tahlil qilib bo‘ladigan yuklamalarni oldindan aniqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kiminori Matsuzaki, Hideya Iwasaki, Kento Emoto, and Zhenjiang Hu. A library of constructive skeletons for sequential style of parallel programming. In Proceedings of the 1st international conference on Scalable information systems. ACM, 2006.

2. Johan Enmyren and Christoph W. Kessler. SkePU: a multi-backend skeleton programming library for multi-GPU systems. In Proceedings of the fourth international workshop on High-level parallel programming and applications. ACM, 2010.

3. А.О. Ключев, Д.Р. Ковязина, П.В. Кустарев, А.Е. Платунов: Аппаратные и программные средства встраиваемых систем. Санкт-Петербург. 2010

4. Worrall, A.; Carter, B.Widley, G.: Network monitor and method. 2008 [cit. 2014-03-06], uS Patent 7,411,946.

5. Matityahu, E.; Shaw, R.; Carpio, D.; aj.: Gigabits zero-delay tap and methods thereof. 2011 [cit. 2014-03-06], uS Patent App. 13/034,730.

6. Djuraev R. X., Baltaev J. B., Badalov J. I. Study of the method of compact testing of technical means of data transmission networks Toshkent //ICISCT2020.

7. Djurayev R. X., Baltayev J. B., Xasanov O. A. Increasing the efficiency of diagnosing microprocessor devices based on multichannel signal analysis means //2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – IEEE, 2020. – С. 1-4.

8. Djuraev R. X., Djabbarov S. Y., Baltaev J. B. Sistemi texnicheskogo obslujivaniya i ekspluatatsii setey telekommunikatsii //Uchebnik.-T.:“Aloqachi. – 2019. – T. 234.

9. Djuraev R. H., Djabbarov S. Y., Baltayev J. B. Raqamli tizimlarning texnik diagnostikasi //Darslik).-T.:«Aloqachi. – 2020. – T. 232.

DPI TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BANKLARNING TARMOQ TRAFIGINI FILTRLASH TIZIMLARINI TANLANGAN MODEL ASOSIDA LOYIHALASH

Giyasova Nargiza Botirovna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi bosh mutaxassisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192568

Annotatsiya: *Ushbu maqolada haqiqiy neyron tarmog‘i algoritmlarining xarakteristikalari, neyron tarmog‘i modellarining xarakteristikalari tahlil qilindi. Xemming va Xopfield modellarini tarmoqqa tushayotgan yuklamalarni qay darajada qayta ishlay olish jarayonlari tahlil qilindi. Har ikkala simulyatsiya modelidan ko‘rinib turibdiki, tarmoqni filtrlash birinchi navbatda resurslarni tejash uchun, ikkinchi xizmat tizimida tahdidlar va hujumlardan himoyalash uchun, uchinchi so‘rovni qayta ishlash muddati kamaytirish uchun zarur hisoblanadi. Buning natijasida xizmat ko‘rsatishning tezligi va sifati oshib boradi*.

Kalit so‘zlar: *Bank tarmoq simulyatori, simulyatorlari turlari, Xemming va Xopfield, DPI*

Kirish ushbu maqola ishida neyron tarmog‘i algoritmlarining xarakteristikalari, neyron tarmog‘i modellarining xarakteristikalari tahlil qilindi. Xemming va Xopfield modellarini tarmoqqa tushayotgan yuklamalarni qay darajada qayta ishlay olish jarayonlari tahlil qilindi. Buning natijasida samarali model, ya’ni Xemming modeli tanlab olinib, tanlangan model asosida DPI tizimlari loyihalandi. Yaratilgan loyiha natijalaridan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, biz tanlagan model haqiqatdan ham samarali ishlagan holda tarmoqning aniq tahlili 99% gacha aniqlikda bo‘ldi. Bu natijalardan shuni aytishimiz mumkinki neyron tarmoqlarini DPI tizimlari orqali tarmoqda qo‘llasak tarmoqning ish samaradorligi ancha ortib, tarmog‘imiz ishonchli bo‘lar edi.

Xemming modeli algoritmi bo‘yicha o‘rgatilgan ko‘p qatlamli perseptron, agar unga ko‘proq to‘g‘ri keladigan aktivatsion funksiya qo‘llansa, prinsip jihatdan tezroq o‘rgatilishi mumkin. Ko‘pincha bu qat’iy bo‘sag‘aviy aktivatsion funksiyalar asosida bajariladi. Lekin Xemming modeli boshqa aktivatsion funksiyalarni ham ishlatilishini ko‘zda tutadi. Biz loyihamizni an’anaviy Xemming modeli orqali quramiz(1-rasm).



1-rasm. An’anaviy Xemming modeli strukturasi

Endi bu tanlangan model asosida DPI tizimlarini loyihalaymiz, neyron tarmog‘ining Xemming modeli asosida ishlaydigan tarmoqning paketlarni tahlil qilishini tekshiramiz. Bu loyihani hozirgi real qurilmalarga yoziladigan va hozirda rivojlangan davlatlarda ishlatilayotgan NS-3 (network simulator) dasturida amalga oshirsak yanada aniqroq qiymatlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

Bizning loyihamizda, tizim har bir paketni besh bosqichda tekshiradi. Bunda bizning tizimimizga kelib tushgan paketni source IP, ya’ni paketning kelayotgan manzili bo‘yicha tekshiradi. Bu bosqich birinchi qatlamning o‘zida tekshiriladi. Har bir qatlamdagi neyron yacheykalarining soni qancha ko‘p bo‘lsa tekshirish jadalligi shuncha oshadi. Ikkinchi qatlamda esa birinchi tekshiruvdan o‘tgan paketning destination IP, ya’ni yetib borishi kerak bo‘lgan manzili bo‘yicha tekshiradi. Agarda tekshirilayotgan paket bu bosqichdan ham o‘tsa, transport protocol UDP yoki TCP protokollarining qaysi biriga tegishli ekanligi tekshiriladi. Agarda paketimiz bu talabimizga ham javob bersa, har bir xizmatlar uchun alohida beriladigan belgilar (application signatura) bo‘yicha tekshiruvdan o‘tadi.

NS-3 simulyatorida loyiha



2-rasm. Xemming modeli asosidagi DPI tizimi.

Bu paketimizni qaysi xizmatga aloqadorligini bilganimizdan so‘ng paket uzunligini o‘lchashimiz lozim bo‘ladi. Chunki har bir xizmat uchun alohida-alohida paket uzunliklariga qo‘yidadigan talablarimiz mavjud. Agarda tarmog‘imizga kirgan paket bizning talablarimizning ixtiyoriy bittasiga javob bermasa, shu zahoti o‘z yunalishi bo‘yicha xavfli, virus yoki aniqlanmagan paket shaklida tarmoqdan chiqarib yuboriladi.

Bu loyihani ishlatish uchun S dasturlash tilida to‘rt xil turdagi paketlarni shakllantirib olamiz. Bu paketlarning birinchisi yuqoridagi talablarimizning barchasiga to‘liq mos tushadi, ikkinchi turdagi paketlarni shakllantirishda talablardan biri, ya’ni paket uzunligi standart shaklda emas. Uchinchi turdagi paketimizni esa virusli paket deb nomlaymiz. Hamda to‘rtinchi turdagi paketimiz shifrlangan paket, ya’ni aniqlab bo‘lmaydigan paket qilib yaratib olamiz. Bu to‘rt turdagi paketlardan tarmog‘imizga 1-jadvalda ko‘rsatilgandek kiritamiz.

1-jadval. NS-3 tizimiga kirayotgan paketlar soni

Paket turi	Kirishdagi paketlar
To‘g‘ri	90000
Xato	5000
Xavfli	3000
Aniqlanmagan	2000
Jami	100000

Har bir neyron tarmog‘ining yashirin pog‘onalari mavjud bo‘lib bu pog‘onalarning har birida alohida vazifalar bajariladi (3-rasm).



3-rasm. Loyihaning yashirin pog‘onalari

Biz tarmoqqa kiritgan 100000 ta paketimiz besh bosqichli tekshiruvlardan o‘tib oltinchi bosqichdagi yacheykalarda saqlanadi. Bunda har bir qatlamdan nechta paket o‘tganligi, aniqlanmagan paketlar soni va turi va shu kabi ma’lumotlar saqlanadi.



4-rasm. Tekshirish natijalari

Bu natijalarda har bir paketni qanday kilib tarmoqqa kirishi, uni alohida tekshirilishlari va tekshiruv natijalarini ko‘rishimiz mumkin. Bunda chiqayotgan paketlar sonini 1-jadval ko‘rinishiga keltirib olamiz.

1-jadval. Loyiha natijalari

Paket turi	Kirishdagi paketlar	Chiqishdagi paketlar	Aniqlik
To‘g‘ri	90000	89931	99.92 %
Xato	5000	4992	99.84 %
Xavfli	3000	2994	99.8 %
Aniqlanmagan	2000	2083	
Jami	100000	100000	

Olingan natijalardan shuni ko‘rishimiz mumkinki DPI tizimlarini neyron tarmog‘ining Xemming modeli asosida loyihalaganimizda tarmoqqa kirayotgan 90000 ta bizning talablarimizga javob beruvchi paketdan 89931 ta paketni aniq tekshirib topdi. 5000 ta xato paketimizdan esa 4992 ta paketni xato ekanligini aniqladi. 3000 ta virusli paketimizdan 2994 ta virusli paketlarni aniqlagan bo‘lsa, talablarimizga javob bermagan 83 ta paketlarni shifrlangan paket deb qabul qildi. Bunda paketlarni tekshirish aniqligi 99% atrofida bo‘lganligi loyihamizni to‘g‘ri shakllantirganimizni ko‘rsatadi.

Xulosa

Ushbu maqolada ishida neyron tarmog‘i algoritmlarining xarakteristikalari, neyron tarmog‘i modellarining xarakteristikalari tahlil qilindi. Xemming va Xopfield modellarini tarmoqqa tushayotgan yuklamalarni qay darajada qayta ishlay olish jarayonlari tahlil qilindi. Buning natijasida samarali model, ya’ni Xemming modeli tanlab olinib, tanlangan model asosida DPI tizimlari loyihalandi. Yaratilgan loyiha natijalaridan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, biz tanlagan model haqiqatdan ham samarali ishlagan holda tarmoqning aniq tahlili 99% gacha aniqlikda bo‘ldi. Bu natijalardan shuni aytishimiz mumkinki neyron tarmoqlarini DPI tizimlari orqali tarmoqda qo‘llasak tarmoqning ish samaradorligi ancha ortib, tarmog‘imiz ishonchli bo‘lar edi.

Simulyatsiya natijalari shuni ko‘rsatdiki, modellar ishlaydi va tarmoq axborot tarmog‘i filtrlaydi. Birinchi modelda manbaadan chiqarilgan paketlarning soni Sink elementi tomonidan olingan paketlar soniga teng emas. Buning sababi shundaki 5 chi manbaadan chiqayotgan paketlar orasida qolgan manbaadan chiqayotgan paketlarning port nomeri va payloadiga o‘xshash paketlar hosil qilingani uchun ularni dastlabki filtrlash bosqichlari tutib qolish imkoni mavjud emas. Ikkinchi modelda signatura asosidagi filtrlash qo‘shilgan va bu xatoliklar to‘g‘rilangan. Buni ikkinchi model simulyatsiya natijalaridan ko‘rishimiz mumkin.

Har ikkala simulyatsiya modelidan ko‘rinib turibdiki, tarmoqni filtrlash birinchi navbatda resurslarni tejash uchun, ikkinchi xizmat tizimida tahdidlar va hujumlardan himoyalash uchun, uchinchi so‘rovni qayta ishlash muddati kamaytirish uchun zarur hisoblanadi. Buning natijasida xizmat ko‘rsatishning tezligi va sifati oshib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

10. Kiminori Matsuzaki, Hideya Iwasaki, Kento Emoto, and Zhenjiang Hu. A library of constructive skeletons for sequential style of parallel programming. In Proceedings of the 1st international conference on Scalable information systems. ACM, 2006.

11. Johan Enmyren and Christoph W. Kessler. SkePU: a multi-backend skeleton programming library for multi-GPU systems. In Proceedings of the fourth international workshop on High-level parallel programming and applications. ACM, 2010.

12. А.О. Ключев, Д.Р. Ковязина, П.В. Кустарев, А.Е. Платунов: Аппаратные и программные средства встраиваемых систем. Санкт-Петербург. 2010

13. Worrall, A.; Carter, B.Widley, G.: Network monitor and method. 2008 [cit. 2014-03-06], uS Patent 7,411,946.

14. Matityahu, E.; Shaw, R.; Carpio, D.; aj.: Gigabits zero-delay tap and methods thereof. 2011 [cit. 2014-03-06], uS Patent App. 13/034,730.

15. Djuraev R. X., Baltaev J. B., Badalov J. I. Study of the method of compact testing of technical means of data transmission networks Toshkent //ICISCT2020.

16. Djurayev R. X., Baltayev J. B., Xasanov O. A. Increasing the efficiency of diagnosing microprocessor devices based on multichannel signal analysis means //2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – IEEE, 2020. – C. 1-4.

17. Djuraev R. X., Djabbarov S. Y., Baltaev J. B. Sistemi texnicheskogo obslujivaniya i ekspluatatsii setey telekommunikatsii //Uchebnik.-T.:“Aloqachi. – 2019. – T. 234.

18. Djuraev R. H., Djabbarov S. Y., Baltayev J. B. Raqamli tizimlarning texnik diagnostikasi //Darslik).-T.:«Aloqachi. – 2020. – T. 232.

BANKLARDA VIRTUAL XIZMAT KO‘RSATISH TARMOQLARINI QURISH USULLARINI AMALGA OSHIRISH, SAMARADORLIGIGA MISOLLAR VA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI

Mannopova Maftuna G‘olib qizi
Alfraganus universiteti
“Raqamli texnologiya” kafedrasi katta oqituvchisi
m.mannapova.94@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192605

Annotatsiya: *Ushbu maqolada banklardagi Banklarda virtual xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini qurish usullarini amalga oshirish, samaradorligiga misollar va optimallashtirish modellari, hamda bulutli ma’lumotlarga ishlov berish markazi modeli tanlangan, modellashtirilgan va ko‘rib chiqilgan. Bulutli ma’lumotlarga ishlov berish markazlarining asosiy xarakteristikalari optimallashtirmasdan o‘tkazilgan tajribalar asosida aniqlandi. Olingan ma’lumotlar tegishli jadvallarda qayd etilgan, jadvallardagi ma’lumotlarni tasdiqlaydigan rasmmlar ham ilova qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Model, optimallashtirish, simulyatsiyalash modeli, xarakteristikalar, hisoblash tugunlari, bufer sig‘imi.*

KIRISH

Banklardagi Banklarda virtual xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini qurish usullarini amalga oshirish, samaradorligiga misollar va optimallashtirish modellari ma’lumotlar markazining xususiyatlarini hisoblash va agar ma’lum sharoitlarda modelning ishlashini o‘rganish yoki modelning eng yaxshi natijasiga erishiladigan parametr qiymatlarini topish orqali modelning ishlashini yaxshilash kerak bo‘lsa, u holda AnyLogic modelini optimallashtirish imkoniyatidan foydalanish mumkin. AnyLogic modelini optimallashtirish har xil parametr qiymatlari bilan modelning bir nechta ishlatishlarni ketma-ket bajarish va berilgan vazifa uchun optimal parametrlar qiymatlarini topishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

AnyLogic dasturida o‘rnatilgan OptQuest optimallashtirgich bugungi kunda mavjud bo‘lgan eng yaxshi optimallashtirgich hisoblanadi. OptQuest optimallashtirgichi berilgan cheklovlarni hisobga olgan holda eng yaxshi model parametr qiymatlarini avtomatik topadi [1]. AnyLogic optimallashtirish jarayonini sozlash va kuzatish uchun qulay grafik interfeysni taqdim etadi[2].

Optimallashtirish turli parametrlar qiymatlariga ega bo‘lgan modelning bir necha ketma-ket ishlatishdan iborat. Evristika, neyron tarmoqlar va matematik optimallashtirishni kombinatsiyalash bilan OptQuest ham noaniqliklar sharoitlarida, ham cheklovlar mavjud bo‘lganda maqsad funksiyasining maksimumi yoki minimumiga mos keladigan model parametrlari qiymatlarini topishga imkon beradi [3].

OptQuest optimallashtirgich OptTekSystems, Inc.ning savdo belgisi hisoblandi[4]. OptQuest bajaruvchimoduli haqida batafsil ma’lumotlarni OptTek veb-saytida (ingliz tilida) topish mumkin: www.OptTek .com. [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolada ko’rsatilgan har bir davlatda o‘z talablariga asoslangan o‘ziga xos qonun va qoidalar mavjud. Shu sababli har bir banklardagi “cloud” virtual ma’lumotlar markazining xususiyatlarini hisoblash va tahlil qilish qo‘llanilishi ilgari suradi. Hozirgi kunda ko‘plab rivojlanib borayotgan moliyaviy firmalar axborot tizimlari va texnologiyalari kuchli raqobatdaligini ko‘rish mumkin. Model, optimallashtirish, simulyatsiyalash modeli, xarakteristikalar, hisoblash tugunlari, bufer sig‘imi va boshqa texnologiyalardan xam foydalanilgan, mualliflar tomonidan xulosa va takliflar berilgan.

Ko‘rib chiqilgan virtual tarmoqlarni qurish usullari asosida quyida 1-rasmda keltirilgan fizik tarmoq varianti uchun foydalaniladigan parametrlarni sonli baholash va taqqoslash natijalariga ega bo‘lgan bu usullarni amalga oshirishga misollar keltirilgan.



1-rasm. Fizik tarmoq

Qurishga misollarni ko‘rib chiqishda 8 ta virtual tarmoqlar qurilishi kerak bo‘lgan fizik tarmoq ishlatilgan (2-rasm).



2-rasm. Virtual tarmoqlar

Oldingi bobda ko‘rsatilgan barcha usullarni batafsilroq ko‘rib chiqish uchun marshrutizatorlarning bog‘langanligi, shuningdek barcha virtual tarmoqlarni qurish usullarini to‘liq amalga oshirish uchun uncha katta bo‘lmagan o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lgan ma’lum fizik tarmoq olingan.

Variantlarni saralash usuli asosidagi misol





3-rasm. №1-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№1-virtual tarmoqni qurishda barcha marshrutizatorlar uchun tahlil o‘tkazildi, shundan so‘ng virtual tarmoqni qurish uchun eng maqbul variant tanlandi.





4-rasm. №2-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№2-virtual tarmoqni qurishda barcha marshrutizatorlar uchun tahlil o‘tkazildi, shundan so‘ng virtual tarmoqni qurish uchun eng maqbul variant tanlandi.





5-rasm. №3-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№3-virtual tarmoqni qurishda barcha marshrutizatorlar uchun tahlil o‘tkazildi, shundan so‘ng virtual tarmoqni qurish uchun eng maqbul variant tanlandi.



6-rasm. №4-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№4-virtual tarmoqni qurishda barcha marshrutizatorlar uchun tahlil o‘tkazildi, shundan so‘ng virtual tarmoqni qurish uchun eng maqbul variant tanlandi.



7-rasm. №5-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№5-virtual tarmoqni qurishda barcha marshrutizatorlar uchun tahlil o‘tkazildi, shundan so‘ng virtual tarmoqni qurish uchun eng maqbul variant tanlandi.



8-rasm. №6-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№6-virtual tarmoqni qurishda barcha marshrutizatorlar uchun tahlil o‘tkazildi, shundan so‘ng virtual tarmoqni qurish uchun eng maqbul variant tanlandi.



9-rasm. №7-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№7-virtual tarmoqni qurishda barcha marshrutizatorlar uchun tahlil o‘tkazildi, shundan so‘ng virtual tarmoqni qurish uchun eng maqbul variant tanlandi.

1-jadval

Variantlarni sanab o‘tish usuli

№	Virtual tarmoqlar	Virtual tarmoqlarni qurish
1		

2	 200 3 140 1 90 190 2 120 110 160 5 140 125 4 210	 500 4 470 580 610 2 545 6 520 520 600 490 1 720 595 8 700 760 500 3 770 7 700 790 600 640 5 810
3	 220 2 210 120 1 130 140 3 230 110 140 4	 500 4 470 580 390 2 545 6 520 400 600 280 1 590 595 8 700 620 500 3 770 7 470 790 490 640 4 5 670
4	 170 1 180 4 140 240 160 2 150 3 190	 320 4 310 580 150 2 545 6 520 260 600 110 1 440 595 8 700 620 500 3 770 7 280 790 490 640 5 670

5	 185 2 190 100 105 195 1 4 115 110 3 210	 135 4 2 210 475 50 2 325 6 545 4 260 600 110 1 340 485 8 700 620 500 1 3 3 7 655 90 610 490 640 5 670
6	 240 2 230 130 1 150 140 3 235	 135 4 210 475 50 2 95 6 545 1 260 460 110 1 340 335 3 8 465 620 350 2 3 7 655 90 370 490 640 5 670
7	 210 2 225 125 1 120 135 3 215	 135 4 210 475 50 2 95 6 545 260 460 110 1 340 335 3 8 250 620 95 1 3 655 90 25 490 395 2 5 460

1-jadvalda virtual tarmoqlar qanday tartibda qurilganligi keltirilgan, shuningdek, saralash usulida 8 ta virtual tarmoqlardan 7 ta tarmoqlar qurilganligini ta’kidlash mumkin.

Xulosa

Ushbu maqolada bulutli ma’lumotlarga ishlov berish markazi modeli tanlangan, modellashtirilgan va ko‘rib chiqilgan. Bulutli ma’lumotlarga ishlov berish markazlarining asosiy xarakteristikalari optimallashtirmasdan o‘tkazilgan tajribalar asosida aniqlandi. Olingan ma’lumotlar tegishli jadvallarda qayd etilgan, jadvallardagi ma’lumotlarni tasdiqlaydigan rasmmlar ham ilova qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. F. Ma, F. Liu, Z. Liu, Distributed Load Balancing Allocation of Virtual Machine in Cloud Data Center // IEEE 3rd International Conference on Software Engineering and Service Science, 2012, pp. 20-23.

2. Belogrudov, Tenant Behaviour-driven Scheduler in OpenStack Cloud // Cork Institute of Technology, Department of Computing, 2013.

3. J. Hu, J. Gu, G. Sun, T. Zhao, A Scheduling Strategy on Load Balancing of Virtual Machine Resources in Cloud Computing Environment // 3rd International Symposium on Parallel Architecture, Algorithms and Programming (PAAP), 2010, pp. 89-96.

4. R. Ghosh, V.K. Naik, Predictive Analysis for Resource Over-commit in IaaS Cloud // IEEE 5th International Conference on Cloud Computing, 2012, pp. 25-32.

5. C.L. Hwang, K. Yoon, Multiple attributes decision-making methods and applications: a state of the art Survey // Springer-Verlag, New York, 1981.

6. Djuraev R. X., Djabbarov S. Y., Baltaev J. B. Sistemi texnicheskogo obslujivaniya i ekspluatatsii setey telekommunikatsii //Uchebnik.-T.:“Aloqachi. – 2019. – T. 234.

7. Djuraev R. H., Djabbarov S. Y., Baltayev J. B. Raqamli tizimlarning texnik diagnostikasi //Darslik).-T.:«Aloqachi. – 2020. – T. 232.

8. Baltayev, J.-S., Boltayev, S. Model and Methods for Detecting Undetected Errors Using a Signature Analyzer, Lecture Notes in Networks and Systems volume 509, pp 1101 – 1110 DOI:10.1007/978-3-031-11058-0_112

9. Djurayev, R.X., Baltayev, J.B., Xasanov, O.A., Increasing the efficiency of diagnosing microprocessor devices based on multichannel signal analysis means, 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies, ICISCT 2020, 2020, 9351426, DOI:10.1109/ICISCT50599.2020.9351426

10. Djurayev, R.X., Baltayev, J.B., Badalov, J.I., Study of the method of compact testing of technical means of data transmission networks, 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies, ICISCT 2020, 2020, 9351512, DOI:10.1109/ICISCT50599.2020.9351512

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Omonova Nilufar Rahmon qizi
Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti
omonova.nilufar@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192834

Annotatsiya. Raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyatni sezilarli darajada o‘zgartirib, o‘zaro bog‘liqlik, ma’lumotlarni boshqarish va avtomatlashtirishni ta’minladi. Raqamli aloqa vositalari geografik to‘siqlarga qaramay shaxsiy va professional munosabatlarni saqlab qolishga imkon beradi, bu jihat global blokirovkalar paytida ayniqsa dolzarb bo‘lib qoldi. Bugungi kunda O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda sun’iy intellektning ahamiyatini tadqiq qilmoqda. Bir qancha olimlarning izlanishlari sun’iy intellekt texnologiyalarining moliya, transport va savdo sohalarida samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini o‘rganadi. Bank sohasida monitoring, xizmat ko‘rsatish sifatini tahlil qilish, biometrik identifikatsiya va kredit tavakkalchiliklarini baholash kabi jarayonlarda sun’iy intellektdan foydalanish taklif qilinmoqda. Moliya sohasida esa byudjet va ijtimoiy to‘lovlarni tahlil qilishda sun’iy intellektning qo‘llanishi ko‘zda tutilgan. Quyidagi maqolada biz raqamli texnologiyalar hamda sun’iy intellektning bugungi kundagi ta’sirini bir qancha tahliliy metodlar orqali yanada chuqurroq o‘rgandik.

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, sun’iy intellect, moliya, ta’sir, tahlil, SWOT, PEST, biznes, jamiyat*

1. Kirish

Zamonaviy davr texnologiyalar inqilobi bilan shakllangan va raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt (SI) kabi yutuqlar insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda turli sohalarda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish, avvalo, innovatsiyalarni rivojlantirish, inson hayotini yengillashtirish va samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

2. Adabiyotlar tahlili

Raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyatni sezilarli darajada o‘zgartirib, o‘zaro bog‘liqlik, ma’lumotlarni boshqarish va avtomatlashtirishni ta’minladi. Castells [1] kabi olimlar raqamli texnologiyalarning “tarmoq jamiyati”ni shakllantirishdagi rolini muhokama qiladilar, bu yerda aloqa tarmoqlari ijtimoiy funksiyalar uchun markaziy hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, shu jumladan internet, mobil qurilmalar va bulutli hisoblash, tezkor aloqa va katta hajmdagi ma’lumotlarga kirishni osonlashtirdi, odamlarning o‘zaro munosabati va biznesning ishlash usullarini o‘zgartirdi [2].

Brynjolfsson va McAfee (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar raqamli innovatsiyalarning iqtisodiy afzalliklarini ta’kidlab, raqamli inqilobning samaradorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash qobiliyatini ta’kidlaydi [3] Ularning ta’kidlashicha, raqamli texnologiyalar nafaqat mavjud biznes jarayonlarida samaradorlikni oshiradi, balki yangi biznes modellari va bozor imkoniyatlarini yaratadi. Raqamli platformalarga o‘tish elektron tijorat, masofadan ishlash va raqamli ta’limga o‘tishga turtki bo‘ldi, bu esa COVID-19 pandemiyasi (OECD, 2020) tomonidan yanada tezlashdi.

Raqamli aloqa platformalari tezkor, global aloqa vositalarini taqdim etish orqali ijtimoiy o‘zaro ta’sirni qayta aniqladi. Boyd va Ellison [4] ijtimoiy media platformalari o‘zaro ta’sir va jamiyatni qurishning yangi shakllarini qanday rivojlantirishini o‘rganadi. Raqamli aloqa vositalari geografik to‘siqlarga qaramay shaxsiy va professional munosabatlarni saqlab qolishga imkon

beradi, bu jihat global blokirovkalar paytida ayniqsa dolzarb bo‘lib qoldi [5]. Biroq, ijtimoiy media va raqamli aloqaning o‘sishi shaxsiy hayot, ruhiy salomatlik va noto‘g‘ri ma’lumotlarning tarqalishi bilan bog‘liq xavotirlarni ham keltirib chiqaradi [6].

O‘zbekiston olimlari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining roli va ahamiyatini tadqiq qilmoqdalar. O‘zbekiston Milliy universiteti va TATU tadqiqotchilari bu borada ilmiy maqolalar e’lon qilib, raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun sun’iy intellektdan foydalanishni taklif qilishmoqda. Masalan, N. Asqarov va M. Abdullayevning izlanishlarida sun’iy intellektning moliya, transport va savdo sohalarida samaradorlikni oshiruvchi imkoniyatlari o‘rganilgan [7].

Bank sohasida esa tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini soddalashtirish, shuningdek, bank xizmatlari ko‘rsatish sifatini tahlil qilish, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash vazifasi belgilangan.

Moliya sohasida esa byudjet xarajatlari, pensiya, ijtimoiy va sug‘urta to‘lovlari, shuningdek, nafaqa to‘lovlarini tahlil qilish va samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutilmoqda.

3. Metodologiya

Mazkur ilmiy tadqiqot ishini yozishda adabiyotlar tahlili, keyslar, statistik tahlil va ma’lumotlar yig‘ish, shuningdek, tahliliy metod usullaridan foydalanildi hamda tegishli xulosalar qilindi.

4. Natijalar va muhokama

Raqamli texnologiyalar kompyuterlar, internet, mobil qurilmalar, tarmoqlar, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi orqali keng tarqaldi. Bu texnologiyalar nafaqat kundalik hayotimizni yengillashtiradi, balki sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida ham sifat va tezlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Misol uchun, bank va moliya sohasida raqamli texnologiyalar orqali pul o‘tkazmalarini onlayn amalga oshirish, tijorat tarmoqlarida esa onlayn savdo orqali tovarlar yetkazib berish tizimi yaratilgan. Raqamli texnologiyalar mehnat samaradorligini oshirish bilan birga, kompaniyalar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirib, yangi innovatsiyalarga yo‘l ochmoqda.

Sun’iy intellekt (SI) – bu kompyuter tizimlariga insoniy aql orqali o‘rganish, mantiqiy qarorlar qabul qilish, tasvir va nutqni tanish kabi imkoniyatlarni beruvchi texnologiya. Bugungi kunda sun’iy intellekt sog‘liqni saqlash, ta’lim, avtomobilsozlik, moliya va boshqa ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Masalan, tibbiyotda sun’iy intellekt yordamida kasalliklarni erta aniqlash va davolash samaradorligi oshmoqda. Xususan, tibbiy tasvirlarni qayta ishlash va analiz qilish orqali o‘smalarni aniqlashda yuqori aniqlikdagi SI dasturlari foydali bo‘lmoqda. Avtomobilsozlikda esa haydovchisiz boshqariladigan transport vositalari yaratish orqali harakat xavfsizligini ta’minlash mumkin.

PEST tahlilini ushbu mavzuda qo‘llash, ushbu texnologiyalarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik jihatlarini kengroq tushunish imkonini beradi. Quyida har bir omil alohida yoritildi:



1-rasm. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning PEST tahlili

PEST tahlili orqali ko‘rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi turli omillar bilan chambarchas bog‘liq. Siyosiy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va texnologik yangiliklar ushbu texnologiyalarning muvaffaqiyatli tatbiq etilishi uchun zarur omillardir. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt texnologiyalarining kelajakdagi rivoji yanada yuqori natijalar berishi mumkin.

Texnologik yutuqlar ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va yuqori darajada robotlashtirilishi hisobiga an’anaviy ish o‘rinlariga bo‘lgan talabni kamaytiradi. Bu esa bir tomondan yangi kasblar va ko‘nikmalarni talab etayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan insonlar uchun yuqori malakali ish o‘rinlarini yaratadi. SI orqali bajariladigan ishlarning ko‘payishi kasbiy o‘zgarishlarni tezlashtiradi va insonlarni doimiy ravishda bilimlarini oshirishga majbur qiladi.



2-rasm. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning SWOT tahlili

SWOT (Kuchli tomonlar, Zaif tomonlar, Imkoniyatlar hamda Tahdidlar) tahlili raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning milliy va global miqyosdagi afzallik va cheklovlarini aniq ko‘rsatadi. Ushbu texnologiyalarning kuchli tomonlaridan maksimal foyda olish va imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun zaif tomonlarni minimallashtirish va xavflarni boshqarish zarur. Shu orqali raqamli transformatsiya va sun’iy intellektning samarali joriy etilishi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin.

5. Xulosa

Kelajakda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning yanada rivojlanishi bilan insoniyat hayoti sezilarli darajada o‘zgaradi. Bu texnologiyalar atrof-muhit muhofazasi, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash, energiyani tejash kabi muhim masalalarga samarali yechimlar taklif etishi mumkin. Masalan, qishloq xo‘jaligida SI yordamida tuproqni analiz qilish, hosilni oldindan baholash va zararkunandalarga qarshi kurashish ishlari amalga oshiriladi.

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt jamiyatning barcha sohalarini yanada rivojlantirish va yuqori samaradorlikka erishish yo‘lida ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni ma’suliyatli va ehtiyotkorlik bilan qo‘llash ham muhim. Texnologiyalarni inson manfaatlariga mos ravishda rivojlantirish, texnologik taraqqiyot bilan insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini muvofiqlashtirish bugungi kunning muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Castells, M. (2010). Globalisation, networking, urbanisation: Reflections on the spatial dynamics of the information age. *Urban studies*, *47*(13), 2737-2745.

2. Analytics, M. (2016). The age of analytics: competing in a data-driven world. *McKinsey Global Institute Research*.

3. Brynjolfsson, E., McAfee, E., & Spence, M. (2016). New World Order. *Labor, Capital, and Ideas in the Power Law Economy. URL: http://www. foreignaffairs. com/articles/141531/erikbrynjolfsson-andrew-mcafee-and-michaelspence/new-world-order*.

4. Boyd, D. M., & Ellison, N. B. (2007). Social network sites: Definition, history, and scholarship. *Journal of computer-mediated Communication*, *13*(1), 210-230.

5. Buil-Gil, D., Miró-Llinares, F., Moneva, A., Kemp, S., & Díaz-Castaño, N. (2021). Cybercrime and shifts in opportunities during COVID-19: a preliminary analysis in the UK. *European Societies*, *23*(sup1), S47-S59.

6. Tandoc Jr, E. C., Lim, Z. W., & Ling, R. (2018). Defining “fake news” A typology of scholarly definitions. *Digital journalism*, *6*(2), 137-153.

7. Asqarov, N. I. (2021). Prospects For The Development Of The Investment. *The American Journal of Applied sciences*, *3*(01), 162-166.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Hojiyeva Gulnora Xabibullayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Audit” kafedrasi o’qituvchisi. e-mail: step_up8888@mail.ru.
ORCID: 0009-0005-3344-4091
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192891

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi iqtisodiy munosabatlarni raqamlashtirish sharoitida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning ahamiyati, moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibini takomillshtirish, O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida innovatsiyani yanada rivojlantirish sharoitida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning muhimlilik darajasi, u bilan bog’liq muammolar va yechimlar yoritilgan, shuningdek, yirik soliq to’lovchi kompaniyalarda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot auditi jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: Konsolidatsiya, raqamlashtirish, ilg’or axborot texnologiyalari, biznes, moliyaviy hisobot, biznesni birlashtirish, kompaniyalar, aktivlar, passivlar, sho’ba kompaniyalar, konsern, biznes strategiyasi, risk, moliyaviy rag’bat.

KIRISH

Yangi O’zbekistonda barcha sohalarni tubdan isloh qilish bugungi kunning eng dolzarb masalalasi ekanligi barchaga ma’lum. Bugungi kunda esa, dunyoning barcha nuqtalarida

bozorning globalizatsiya jarayoni jadal ravishda rivojlanyapti. Bu o‘z navbatida dunyo biznes faoliyatida kuchli raqobatga olib kelmoqda. Kuchli raqobat esa bozor shartlarining tezkor o‘zgaruvchanligiga, mijoz ehtiyojlarining o‘zgarish chastotasining oshishiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kun haqiqati shu, biznesning barcha sohalari va qatlamlari kundan kunga yangi qiyinchiliklar, talablar, shartlar bilan to‘qnash kelishiga majbur bo‘lyapti. Bunday sharoitlarda biznes o‘z faoliyati strategiyasini belgilash, qarorlarni to‘g‘ri qabul qilish, yangi shart hamda talablarga moslashish, barcha shartlarga javob berishlari uchun tashqi va ichki muhitdagi axborotlardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lish, o‘zgaruvchan muammolarga qarshi tezkor chora ko‘ra olishlari, nafaqat muvaffaqiyatga erishish uchun balki raqobatbardoshlikni saqlab turish uchun eng asosiy ko‘rsatgichga aylanib ulgurgan.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar bir nechta kompaniyalar yoki guruhlar tomonidan yuritiladigan biznes faoliyatining umumiy ko‘rinishini taqdim etadi. Ular birgalikda ishlaydigan tashkilotlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni yoritadi va guruhning umumiy moliyaviy holatini aks ettiradi. Shu bilan birga, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning auditorlik nazorati ham katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turli iqtisodiy inqirozlar sharoitida korxonalarni konsolidatsiya qilish, ularda hisob tizimini tashkil etish, moliyaviy hisobotlarni tuzishni, shuningdek, auditini takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish masalalarini bir qator xorij olimlari, jumladan, Robert L.Schiffman, Jane C.Jordan, Griffiths D.V., Huang.J, Gholamreza Mesri hamda boshqalar o’z ilmiy ishlarida tadqiq etishgan [4,5,6].

Mamlakatimizda ham ko’plab olimlar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish, uning auditini tashkil qilish va o’tkazish metodologiyasi, MHXSga transformatsiya qilishning ahamiyatli jihatlari ustida ko’plab ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, professor I.N.Ochilovning “Improving the preporation of consolidated financial statements in insurance companies in accordance with the requirements of IFRS” [7] nomli ilmiy maqolasida sug’urta kompaniyalarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq amalga oshirish zarur bo’lgan amallar va ularga qo’yiladigan talablar aks ettirilgan. S.S.Nasreddinovning iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun “Konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzishning nazariy va uslubiy masalalari” [8] nomli ilmiy tadqiqod ishida konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzishning metodologiyasi, nazariy asoslari, hisobotni tuzish va undan foydalanish, moliyaviy hisobot tarkibiy qismlarini tanlash, ularni to‘g‘rilash va qayta guruhlashtirish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari bo‘yicha kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot hamda moliyaviy hisobotga izoh va tushunchalar tayyorlash bo’yicha bir qancha amaliy tavsiyalar berib o’tilgan o’tilgan. Yana bir iqtisodchi olim S.N.Tashnazarov “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar”[9] nomli monografiyasida iqtisodiyotda konsolidatsiyalashgan korxonalar va ularda moliya-viy hisobotlar tuzishning o’ziga xos jihatlariga alohida to’xtalib o’tilgan.

N.Yu.Jo‘rayevning “Moliyaviy hisobot” [10] nomli o’quv qo’llanmasida yoritilgan fikriga ko’ra, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot-hisobot sanasidagi moliyaviy holatni va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar guruhining hisobot davri uchun umumiy moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimi hisoblanadi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, mamlakatimizda konsolidatsiyalashgan

moliyaviy hisobot tuzish, uni MHXSlariga transformatsiya qilishning nazariy asoslari va metodologiyasini yaratish bo’yicha ko’plab izlanish-lar va tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq, korxonalar konsolidatsiyasi, ya’ni, bir necha bizneslar konsolidatsiyasining afzalliklari,yutuq va kamchiliklari ustida juda kam tadqiqodlar olib borilganini ko’rishimiz mumkin.

Bugungi kunga kelib konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tartibini yanada takomillashtirishga bo’lgan yondashuvlar va albatta uning auditi ko’p sonli auditorlar tomonidan o’rganilayotgan dolzarb masaladir.

Demak, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar – bu bosh kompaniya tarkibiga kiruvchi turli kompaniyalar moliyaviy ma’lumotlari to’plamidir. Ular orqali butun kompaniyalar guruhining joriy moliyaviy holatini aniqlash imkoniyati bo’ladi. Uning auditini to’g’ri tashkil qilish,o’tkazish va takomillashtirish bugungi kun auditining dolzarb masalalaridan biridir.

MUHOKAMA

Jahon bozori doimiy ravishda rivojlanib borayotganligi sababli va globallashuv jarayonlari sharoitida transmilliy kompaniyalar soni doimiy ravishda o’sish tendensiyasiga ega bo’lib, bu shubhasiz murakkab tashkiliy tuzilmalarning shakllanishiga, konsolidatsiyalangan hisobotlarga, shuningdek, sifat ko’rsatkichlarining doimiy o’zgarishiga olib keladi. Moliyaviy hisobotlar auditini takomillashtirish esa bu boradagi rivojlanishning kalitidir.

Mukammal moliyaviy hisobot tuzish, shuningdek uning auditini tashkil etishda avtomatlashtirish va raqamlashtirish ham muhim o’rin egallaydi. Hisobotlardagi xatolikni aniqlashda avtomatik tizimlarni joriy etilishi ushbu sohadagi qator muammolarni hal etishda ahmiyat kasb etadi. Avtomatlashtirilgan tizimlar katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilishda inson omilini kamaytiradi, shuningdek xatolarni ham. Audit hisobotlarini raqamli tarzda taqdim etish, nafaqat auditorlar uchun, balki, foydalanuvchilar uchun ham qulayliklar yaratadi.

Har bir mamlakatda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun o’ziga xos qoidalar mavjud. Bunday farqlarning ortishi esa auditorlik jarayonini murakkablashtiradi. Auditning xalqaro standartlariga asosan umumjahon yagona qoidalar ishlab chiqilishi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot auditini takomillashtirishda qulayliklar yaratadi. Bunday yutuqlarga erishish audit jarayonini soddalashtiradi va bosh guruh tarkibidagi kompaniyalarni solishtirish imkoniyatlarini oshiradi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot auditini takomillashtirish nafaqat auditorlar uchun, balki kompaniyalar uchun ham katta ahamiyatga ega. Kompaniyalar moliyaviy hisobotlarini auditdan o’tkazish jarayonida ularni solishtirish imkoniyatlari tug’iladi, bu esa moliyaviy jihatdan oqsayotgan kompaniyani aniqlash va tegishli choralarni qo’llash imkonini beradi. Ushbu yo’nalishdagi auditning o’ziga xos jihati shundaki, guruhga kiritilgan har bir kompaniya turli xil hisob siyosatiga ega bo’lishi mumkin. Ularning tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda audit qilishga yondashish ushbu soha auditini takomillashtirishda muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot auditini takomillashtirishda ko‘plab yo‘nalishlar mavjud. Bu ayniqsa, audit jarayonlarini avtomatlashtirish, auditorlar malakasini oshirish va xalqaro audit standartlarini qo‘llash kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, kompaniyalar va auditorlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash auditning aniqligi va ishonchliligini ta'minlashga yordam beradi.

Bugungi inrormatsion texnologiyalarning rivojlangan davrida ham konsolidatsiyalashgan hisobotlarni audit qilishda bir nechta qiyinchiliklar mavjud bo’lib, ular butun dumyo auditorlari

tomonidan doimiy ravishda keng muhokama qilib kelinmoqda. Muhokamalarning asosiy yo’nalishlari keng qamrovli bo’lib, quyida ba’zilarini ko’rib chiqamiz:

Konsolidatsiya qoidalari- bugun butun dunyo xalqaro standartlarga amal qilayotgan bo’lishiga qaramasdan, har bir mamlakatda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishda ba’zi bir o’ziga xos qoidalarga amal qilinayotganligi. Bu qoidalar o‘rtasidagi farqlar audit jarayonini murakkablashtirishi mumkin.

Ichki transaksiyalarni hisobga olishda ahamiyatni oshirish- bir guruhdagi kompaniyalar o‘rtasidagi ichki transaksiyalar (masalan, qarzlar, to‘lovlar va aktivlar) konsolidatsiya jarayonida konkret va tezkor tarzda hisobga olinishi kerak. Bu operatsiyalarni e’tibordan chetda qoldirish va noto‘g‘ri hisoblash auditorlik ishini qiyinlashtiradi.

Valyuta kurslarining o‘zgaruvchanlik xususiyati: Agar bosh kompaniya tarkibidagi sho’ba kompaniyalar turli davlatlarda faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, valyuta kursining o‘zgarishi hisob-kitoblar va audit jarayoniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Transchegaraviy operatsiyalarning amalga oshirilishi- xalqaro darajada faoliyat yuritayotgan kompaniyalarda, turli mamlakatlar o‘rtasidagi operatsiyalarni audit qilish murakkab bo‘ladi, chunki har bir davlatda turli moliyaviy hisob tizimlari va soliqlar mavjud. Bu jarayonlar auditorlik tekshiruvida konsolidatsiyalashgan hisobotlarga qanday ta'sir ko‘rsatishini aniqlash muhimdir.

Quyida raqamli transformatsiya sharoitida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot auditini takomillashtirishning muhim jihatlarini aks ettirish bo’yicha jadval keltirilgan:

1-jadval: Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot auditini takomillashtirishning muhim jihatlari haqida ma’lumot

Taqdim etish	Mazmuni
Raqamli texnologiyalarni qo’llash	Avtomatlashtirilgan auditorlik dasturlari va blokcheyn texnologiyalarini joriy qilish.
Qaror qabul qilish jarayoni	Qaror qabul qilishda sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish va ma’lumotlar yaxlitligini ta’minlash.
Moliyaviy ma’lumotlar xavfsizligi	Moliyaviy ma’lumotlarni muhofaza qilishda kiberxavfsizlik vositalarini kuchaytirish.
Tezkor ma’lumot almashinuvi	Moliyaviy ma’lumotlarni real vaqtda uzatish uchun raqamli platformalardan foydalanish.
Hisobot tuzish samaradorligi	Raqamli vositalar yordamida hisobotni tezkor va aniq tuzish jarayonini ta’minlash.
Raqamli ta’lim va malaka oshirish	Auditorlarning raqamli ko’nikmalarini oshirish uchun muntazam treninglar tashkil etish.
Hujjatlarni elektron saqlash	Elektron arxivlardan foydalanish.

Ko’rinib turibdiki konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot audini sifatli darajada o’tkazish bir qator bajarilishi lozim bo’lgan vazifalarni kutib turibdi. Demoqchi bo’lganimiz, ushbu sohadagi auditni takomillashtirish uchun ko’plab mayda nyuanslarga e’tiborli bo’lish talab

etiladi. Misol uchun, konsolidatsiyalangan hisobotlarni tayyorlashda har bir sho’ba korxonaning ma’lumotlarini, ular bosh kompaniya hisob tizimiga qanday ta’sir qilishini, kompaniyalar o’rtasida qanday qanday bitimlar amalga oshirilishini va boshqa ko’plab kichik bo’lsada ahamiyatli bo’lgan nyuanslarni hisobga olish kerak. Agar kompaniya, yuqorida aytib o’tilganidek, murakkab tashkiliy tuzilmaga ega bo’lsa, bu yerda haqiqiy o’ziga xos murakkablik biroz boshqacha ko’rinishda bo’ladi, ya’ni barcha eng muhim ma’lumotlarni kiritish hajmini to’g’ri aniqlab olish eng muhim vazifa hisoblanadi.

Bundan tashqari ushbu soha auditini takomillashtirishning zarurligini quyidagi misolda ham ko’rish mumkin: audit jarayonining murakkabligi shu bilan izoxlanadiki, guruhda qancha kompaniyalar ko’p bo’lsa, to’g’ri auditorlik hisobotini tuzish uchun zarur bo’lgan barcha ma’lumotlarni tahlil qilish shunchalik qiyin bo’ladi. Ushbu o’rinda taqdim etilgan barcha ma’lumotlar to’g’ri, ishonchli va to’liq aks ettirilganligiga ishonch hosil qilish muhimdir.

Bu mavzudagi ya’ni, sohadagi auditning yana bir o’ziga xos jihati shundaki, guruh tarkibidagi har bir kompaniya turli hisob siyosatiga ega bo’lishi mumkin, bu kompaniyalar turli xil sohalarda faoliyat yuritishiga ahamiyat qaratish ham muhim masaladir.

Bularning barchasi auditor tomonidan doimiy ravishda hisobga olinishi, barcha tarmoqlarda malakali audit o’tkazishga va barcha jihatlarni hisobga olishda yordam beradigan maxsus yondashuvlar paketini tayyorlashda yordam beradi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot auditini takomillashtirish uchun ko‘plab yo‘nalishlar mavjud. Bu, ayniqsa, audit jarayonlarini avtomatlashtirish, auditorlar malakasini oshirish va xalqaro audit standartlarini qo‘llash kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, kompaniyalar va auditorlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash auditning aniqligi va ishonchliligini ta'minlashga yordam beradi.

Shunday qilib, bugungi kunda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bilan bog’liq bo’lgan ziddiyatlar bilan bir qatorda, uning auditini o’tkazish bilan bog’liq muammolar ham mavjud. Yuqorida ko’rib chiqilgan va muhokama qilingan muammolarni inobatga olib quyidagi taklif va mulohazalar tavsiya etiladi:

1. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot auditi kompaniyaning aylanma aktivlarini ham, uning majburiyatlarini ham baholashni o’z ichiga oladi.Vaziyat jahon amaliyotida ushbu baholashni o’tkazishning ko’plab uslubiy yondashuvlari mavjudligi bilan murakkablashadi. Shuningdek, baholashda muhim omil – bu fikrning sub’ektivligida. Bunday vaziyatda qabul qilingan qarorning buxgalteriya hisobining hamda auditning xalqaro tamoyillariga mos kelishni ta’minlash muhimdir.

2. Faoliyati xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog’liq bo’lgan kompaniyalar o’zlarining hisobotlarida ushbu operatsiyalarni aks ettirishning o’ziga xos xususiyatlariga duch kelishadi. Audit o’tkazishda va uni takomillashtirishda ushbu operatsiyalar to’g’risidagi hisobot barcha xalqaro standartlarga, shu jumladan milliy qonunchilik talablariga muvofiqligini ta’minlash kerak.

3. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot auditini sifatli o’tkazish har doim muhimlik darajasini to’g’ri aniqlash jarayonidan boshlanadi. Ammo, agar kompaniya yoki uning sho’ba korxonalari dunyoning turli burchaklarida joylashgan bo’lsa, unda eng muhim operatsiyalarni aniqlash juda qiyin bo’ladi. Bu auditordan auditorlik fikrini baholash va xulosa berishi uchun ishonchli dalillar bazasini to’plash uchun to’g’ri usul va tartiblarni tanlashni talab qiladi.

4. Shuningdek, ba’zi jarayonlarni avtomatlashtirish qobiliyati nafaqat olingan ma’lumotlarni bir-biri bilan taqqoslash, balki jiddiy xatolar va nomuvofiqliklarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa kelajakda auditor uchun ma’lumotlarni tahlil qilishni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, konsolidatsiyalangan hisobotlar auditini takomillashtirish tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi.

Bugungi har bir soha tarmoqlarini raqamlashtirish tobora kengayib borayotgan bir davrda har bir konsolidatsiyalashgan korxona o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lishi mumkinligini inobatga olgan holda, auditor xalqaro qabul qilingan me’yorlardan chetga chiqmagan holda o’z uslub va yondashuvlarini mijozning o’ziga xos shartlari va ehtiyojlariga moslashtirishi kerakligini tavsiya etamiz.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot auditini takomillashtirishning yuqorida tavsiflangan usullari jarayonni yaxshilashga yordam beradi. Uni yanada samarali va ishonchli bo’lishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni (Yangi tahriri) 2016-yil 13-aprel.

2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti. (10-sonli MHXS). Jamlangan (konsolidatsiyalashgan) moliyaviy hisobotlar. 2008-yil.

3. Robert T.L., Schiffman, Jane C.Jordan.Publication: Journal of the Mechanics and Foundations Division, Volume 95,Issue1,Research Article/Jan.2019.

4. Griffiths D.V., and Huang.J. Publication:One-demensional consolidation theories for coupled and uncoupled solutions by the finite-element method.” Geo- technique,2017. 709-713.

5. Gholomreza Mesri and Anoushiravan Rokhsan. Publication: Theory of consolidation. V100, Issues 2022.

6. Ochilov I. “Improving the preparation of consolidated financial statements in insurance companies in accordance with the requirements of IFRS” IF and A. Volume.2020:Issue 2,Article 26.

7. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: “Sharq”, 2004. -592 b.

8. Nasreddinov S.S.Konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzishning nazariy va uslubiy masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishi.Toshkent:2004.

9. Tashnazarov S.N.,Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot:
Muammo va yechimlar.Monografiya.-T.:-Navro’z,2016.

10. Avazov Ilkhom Ravshanovich Aspects of Financial Reporting Transformation Based on International Standards //Euro-pean journal of innovation in nonformal education. – 2023. – T. 3. – №. 4. – стр. 5.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN BANKING SECTOR TO DETECT AND PREVENT FRAUD

Khatamov Azizjon Abdumajitovich
Westminster International University in Tashkent
Independent researcher
hatamov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14193008

A b s t r a c t: *In this study, we will explore the role of artificial intelligence (AI) solutions in tackling fraud detection and prevention efforts of commercial banks with due focus on efficiency enhancement in solving various tasks. Particular attention will be paid on the applicability of AI-based solutions in fraud detection and prevention of commercial banks in conditions of Uzbekistan. The study will reveal that the use of AI-based technologies in fraud detection and prevention enhances efficiency leading to decrease of time and costs while processing customer transactions and increase overall performance of these units in commercial banks.*

K e y w o r d s: *Fraud detection and prevention, AI-based solutions, real-time monitoring, unusual patterns, machine learning, false positives, predictive analytics, anti-fraud solutions.*

I. INTRODUCTION

In the most recent history of development of banking technologies, the artificial intelligence-based solutions have been widely used to perform various tasks. In general, AI technologies in the financial and banking sector include but are not limited to fraud detection and prevention, customer service chatbots, credit scoring and risk assessment, algorithmic trading, personalized financial advice, regulatory compliance and reporting, Anti-money laundering (AML) systems and predictive analytics for market trends. This research focuses specifically on fraud detection and prevention in banking sector outlining the advantages of using AI-based technologies for these purposes. But before that let us discuss what types of fraud exist in banking and why it is important to detect and prevent them.

In banking, common types of fraud include:

- **Identity Theft**: Using stolen personal information to access accounts or open new ones.
- **Credit Card Fraud**: Unauthorized use of credit card information for purchases or cash withdrawals.
- **Phishing**: Deceptive attempts to obtain sensitive information through fake communications.
- **Account Takeover**: Gaining control of a customer's account to conduct unauthorized transactions.
- **Loan Fraud**: Providing false information to obtain loans or credit.
- **Check Fraud**: Altering or forging checks to illegally withdraw funds.
- **Wire Transfer Fraud**: Unauthorized transfer of funds through electronic means.
- **Insider Fraud**: Employees exploiting their access to commit fraud.
- **Money Laundering**: Concealing the origins of illegally obtained money.
- **ATM Skimming**: Using devices to capture card information and PINs at ATMs.

- **Investment Fraud**: Deceptive practices to mislead investors for financial gain.
- **Synthetic Identity Fraud**: Combining real and fake information to create a new identity for fraudulent activities.

Each type of these frauds poses significant risks and challenges, necessitating robust detection and prevention measures.

Fraud detection and prevention in banking is crucial for several reasons:

- **Financial Losses**: Prevents significant financial losses for both banks and customers.
- **Customer Trust**: Maintains customer confidence and trust in the banking system.
- **Reputation Management**: Protects the bank's reputation and brand integrity.
- **Regulatory Compliance**: Ensures adherence to legal and regulatory requirements.
- **Operational Efficiency**: Reduces the costs and resources needed to handle fraud cases.
- **Data Security**: Safeguards sensitive customer information from being compromised.
- **Market Stability**: Contributes to the overall stability and integrity of the financial system.
- **Competitive Advantage**: Enhances the bank's competitive position by offering secure and reliable services.

Effective fraud detection and prevention are essential for the sustainability and growth of banking institutions.

II. METHODS

This research has been undertaken based on the methodology of scientific analysis of the available research works, empirical analysis of the development of AI-based solutions in different fields, including in fraud detection and prevention in banking sector, analysis and synthesis, as well as induction and deduction methods.

III. RESULTS

Various authors and experts have highlighted the importance of AI in fraud detection and prevention:

A prominent AI researcher, Andrew Ng emphasizes that AI's ability to analyze vast amounts of data in real-time makes it indispensable for detecting fraud patterns that humans might miss [1].

In his book "AI Superpowers," Kai-Fu Lee discusses how AI's predictive analytics can foresee fraudulent activities before they occur, providing a proactive approach to fraud prevention [2].

In "Weapons of Math Destruction," Cathy O'Neil acknowledges the potential of AI in fraud detection but also warns about the risks of bias and the importance of ensuring ethical AI practices [3].

Gartner, a leading research and advisory company, frequently publishes reports highlighting AI's role in enhancing the accuracy and efficiency of fraud detection systems, reducing false positives, and improving customer trust.

McKinsey's research underscores that AI-driven fraud detection systems can significantly reduce fraud losses and operational costs by automating and streamlining the detection process.

Forrester analysts note that AI and machine learning models can adapt to new fraud tactics more quickly than traditional rule-based systems, making them more effective in a rapidly evolving threat landscape.

These perspectives collectively underscore the transformative impact of AI on enhancing the security and reliability of financial systems in combating fraud.

The main findings of this study are that AI enhances Anti-fraud solutions by automating and improving processes such as fraud detection and prevention, real-time monitoring and transaction monitoring. Key benefits include:

1. **Enhanced Detection Accuracy**: AI improves the identification of suspicious activities that might go unnoticed by traditional systems.
2. **Operational Efficiency**: Automation of routine tasks reduces manual effort, saving time and reducing costs.
3. **Scalability**: AI solutions can handle large volumes of data and transactions, suitable for growing financial institutions.
4. **Real-time Analysis**: Continuous, real-time monitoring helps in the swift detection and response to potential fraud activities.
5. **Pattern and Anomaly Recognition**: Advanced algorithms identify complex patterns and anomalies that indicate fraudulent behavior.
6. **Reduction in False Positives**: AI refines the filtering process, decreasing the number of false alerts, thus allowing anti-fraud teams to focus on genuine risks.
7. **Regulatory Compliance**: AI systems can adapt quickly to changing regulations, ensuring that institutions remain compliant.
8. **Enhanced Risk Assessment**: Improved customer profiling and risk scoring enhance decision-making processes.

Overall, AI strengthens the effectiveness and efficiency of anti-fraud efforts.

IV. DISCUSSION

AI in banking has evolved from rule-based systems in the 1980s to machine learning in the 2010s, enhancing fraud detection, customer service, and credit scoring. Recent advancements include NLP for chatbots, deep learning for predictive analytics, RPA for workflow automation, and blockchain for secure transactions. Overall, these technologies aim to improve security, efficiency, and personalization in banking services.

AI involves creating systems capable of performing tasks that typically require human intelligence, such as learning, reasoning, and problem-solving as per Russell & Norvig [4].

Key Technologies include machine learning, natural language processing (NLP), computer vision, robotics.

AI can be applied in healthcare such as diagnostics, personalized medicine, as well as in other fields like finance, specifically in fraud detection, automated trading according to Agrawal et al [5].

It also has ethical and social Implications:

- **Bias and Fairness**: Addressing algorithmic biases.
- **Transparency**: Explainability and accountability in AI decisions according to Binns [6].

Development of AI-based solutions has also been having a huge impact on the banking industry. Any commercial bank or other financial institution dealing with monetary funds and other assets tries to automate some functions of its daily activities. For instance, in fraud detection and prevention they use sophisticated solutions that can automate certain tasks when dealing with huge volumes of data and transactions to exclude human error.

As it has been already noted, the use of AI-based solutions helps to improve the accuracy of detecting suspicious activities, to automate routine tasks by reducing manual effort, saving time and reducing costs. They also can handle large volumes of data and transactions, which would be impossible to perform by using manual work. Continuous, real-time monitoring of transactions helps in the swift detection and response to potential fraud activities.

On the other hand, advanced algorithms identify complex patterns and anomalies that indicate fraudulent behavior.

AI refines the screening process, decreasing the number of false alerts, thus allowing anti-fraud teams to focus on genuine risks.

Moreover, AI systems can adapt quickly to changing regulations, ensuring that institutions remain compliant.

The last but not the least, improved customer profiling and risk scoring enhance decision-making processes.

Overall, AI technologies in fraud detection and prevention are used to perform following functions:

- **Real-time monitoring**: Continuously analyzing transactions to identify suspicious activities instantly.
- **Pattern recognition**: Detecting unusual patterns and behaviors that may indicate fraudulent activity.
- **Anomaly detection**: Identifying deviations from typical transaction behaviors.
- **Machine learning**: Improving detection algorithms over time by learning from past fraud cases.
- **Predictive analytics**: Forecasting potential fraud risks based on historical data.
- **Natural language processing**: Analyzing unstructured data such as emails and social media for fraud signals.
- **Automated alerts**: Generating immediate alerts for further investigation when potential fraud is detected.
- **User authentication**: Enhancing security through biometric verification and multi-factor authentication.

These capabilities help financial institutions minimize losses, improve security, and protect customers from fraud.

V. CONCLUSION

To conclude, our study shows how AI-based solutions can enhance efficiency of any bank’s anti-fraud efforts, by reducing time and costs in fraud detection, transaction monitoring and comprehensive risk assessment. The use of AI-based technologies in those fields is already the

present stage of development. The ready-made AI-based solutions are developed by vendors known globally, which are tailored to the needs and requirements of any institution. We expect that AI-based solutions will enter the Uzbek banking system more swiftly in the nearest future, which is dictated by the evolution of modern banking technologies.

AI-based solutions significantly enhance anti-fraud efforts by improving the detection of suspicious activities, reducing false positives, streamlining regulatory reporting, and increasing operational efficiency. They enable faster, more accurate analysis of large datasets, ultimately helping organizations comply with regulatory requirements and mitigate financial crime risks more effectively.

References

1. Andrew Ng. (2000) “Uncertainty in Artificial Intelligence”, Proceedings of the Sixteenth Conference.
2. Kai-fu Lee. (2018) „AI Superpowers: China, Silicon Valley and the New World Order.
3. Cathy O'Neil (2016). “Weapons of Math Destruction”. Crown, 2016.
4. Russell, S., & Norvig, P. (2016). “Artificial Intelligence: A Modern Approach.”
5. Agrawal, A., Gans, J., & Goldfarb, A. (2018). “Prediction Machines: The Simple Economics of Artificial Intelligence.”
6. Binns, R. (2018). “Fairness in Machine Learning: Lessons from Political Philosophy.”

PROSPECTS OF DIGITAL BANK DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Ziyadullayev Zuxriddin
Tashkent State University of Economics,
Tashkent Uzbekistan
Gmail: zukhriddinnnn@gmail.com
ORCID: 0000-0002-2210-2564
https://doi.org/10.5281/zenodo.14193075

Abstract: *The article considers the prospects of digital bank development in Uzbekistan. In recent years, the banking industry has witnessed a significant transformation with the emergence of digital banks. These innovative financial institutions are revolutionizing the way we manage our money, making banking more accessible, convenient, and efficient.*

Keywords: *digital banking, FinTech, digital banking in Uzbekistan, Uzbek economists, Internet banking, cyber security*

Looking at the current global economic situation, banking and financial systems are rapidly transforming. With the latest developments in information technology, business activities and financial organizations are changing as well. The growing accessibility of the internet and digital means of communication to all segments of the world's population makes it possible for many

financial services not only to exist but also to grow and develop. Caring companies and institutions may become suppliers not only of information and services but also filter a customer's needs to improve cooperation and better service levels with the help of information obtained through this interface. Given the changes in consumer behaviour, interests, and complaints, banks are updating their service offerings to create added value for their customers. More and more countries around the world are undergoing digitization. The concept of "digital banks" is consolidating, and their emergence is expected in a number of countries soon. John Ginovsky describes digital banking as “the integration of new and evolving technologies in the activities of financial institutions with appropriate changes in internal and external corporate and personal relationships to expand customer service and increase the efficiency of banking. The analysis focuses on the prospects of further development and innovation in the sphere of digital banking in Uzbekistan. The sphere of financial activities today is the most digitalized. Clients have the possibility to manage bank accounts online. With Internet access, they can perform all the operations that are within the competence of the bank, whether it's everyday front-office functionalities, such as consultation on loan servicing, account balance consultation, or more complex back-office functionalities provided through the bank's official website, such as transferring funds from one account to another, including those opened with different banks, transferring funds to the account in the payment system, interbank operations, or simply payment for services provided through payment gateways.

The creation of a digital banking system is one of the key concerns since it will boost consumer trust in the system and provide practical services. According to research, a bank that offers banking services remotely or through a subsidiary is considered a digital bank if it uses cutting-edge banking technologies (without offering cash services). Digital banks should be considered as a set of software for online presentation of banking products to users of banking services. It is digital banking that should provide convenient banking services to customers (users). A.A. Gontar argues that “digital banking” is a new form of interaction between a bank and its customers, including innovations in the field of financial services for consumers and commercial clients in the field of digital, information and technology strategies”. In Uzbekistan, a lot of work is being done to promote initiatives for the development of digital banking services, the introduction of modern and advanced types of banking services, the introduction of new information technologies, increasing the popularity of banking services, its application in the banking market. Numerous studies on the evolution of digital transformation and the process of transformation in the banking industry were carried out by Uzbek economists. According to academician SS Gulomov, "new business models that integrate the digital and physical worlds are regarded as the emergence of digital business." Uzbekistan's financial system is evolving to meet the demands of the contemporary digital economy. Due to the digital transformation, business models and concepts for the development of the banking sector are being developed and improved; in particular, since the advent of Internet banking, innovative methods have been used to present traditional banking operations. As a result, through the innovative development of banks, their competitiveness and sustainable operation, efficiency, and most importantly, the growth of public confidence in the bank are being created.

According to a 2009 research by Ghosh and Ruziev, as the use of digital banking techniques grows, FinTech has greatly benefited Uzbekistan's banking industry. The country has recorded marked reductions in the number of physical branches, despite its operational costs being cut down on their magnitude with increased digitization in the delivery of banking services. In this, the

number of physical brick-and-mortar branches located around the country has reduced, bringing about giant savings to these banks. Another way the banking sector has harnessed to ensure efficiency and productivity is the shift to digital banking channels. Automating processes and data processing in real time has optimized the operations of banks, meaning the banks can optimize their resources for improved service delivery. Digital banking further offers Uzbek banks leverage in advanced data analytics and customer insights.

Number of users of remote bank account services in the Republic of Uzbekistan

The diagram shows that as of April 1, 2019, 9,371,447 clients in the Republic of Uzbekistan were using remote management of bank accounts, with 498,936 being legal entities and individual entrepreneurs and 8,872,511 being individuals. However, business organizations visit a commercial bank to evaluate the relative worth of several remote banking services before deciding on one. Specifically, the high cost of the online banking system is recognized. After the bank begins providing services, the business entity is responsible for making sure that remote services are included in the service contract. It is then advisable to provide other service online and on a 24-basis.

Conclusion:

In conclusion, Uzbekistan's digital bank growth has a bright future ahead of it. The banking industry is at the vanguard of this transition as the nation embraces digital transformation and technical improvements. A strong digital banking ecosystem is made possible by the government's dedication to expanding financial inclusion and the growing population's use of digital technologies. To create a safe and effective digital banking environment, investments in cyber security, regulatory frameworks, and infrastructure are crucial. Collaboration between FinTech firms and traditional banks can also spur innovation by providing specialized services that cater to the wide range of customer needs. Digital banks may become more competitive by putting the customer experience first and using data analytics. In the end, the effective growth of digital banking in Uzbekistan would boost economic expansion, enhance the general standard of living for its people, and aid in the modernization of the financial industry. The potential for a thriving and inclusive digital banking environment is still substantial as Uzbekistan moves through this revolutionary process, establishing the country as a leader in the regional financial technology market.

References:

1. Anvarovich, NozimovEldor. "Theoretical fundamentals of financial health of the enterprise." Indonesian Journal of Innovation Studies 9 (2020)
2. Anvarovich, NozimovEldor. "Ways to Strengthen the Resource Base of Commercial Banks."
3. Gadaev J. M. *“Ways to Develop Digital Banking in Uzbekistan”*
4. https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/download/398/386
5. https://cdn2.f-cdn.com/files/download/233684167/Digital%20Banking%20in-%20Uzbekistan.docx

MOLIYA-BANK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti assissenti
e-mail:jtajiddinov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14193516

Annotatsiya: *Moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko‘rsatishni modernizatsiya qilish. Yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish.*

Qisqa tarixiy taraqqiyot davriga qaramay, raqamli iqtisodiyot birinchi navbatda savdo va internet xizmatlarida elektron tijorat, internet-banking, elektron to‘lovlar, internet-reklama, internet-o‘yinlar va boshqalarda raqamli texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan. Raqamli banking-bank va uning mijozlari muloqotining yangi rivojlanish bosqichi bolib, u moliyaviy hizmatlar sektoridagi innovatsiyalarni hamda bu sohadagi raqamli, information va texnologik strategiyalarni o’z ichiga qamrab oladi.

Kalit so’zlari: *raqamli iqtisodiyot, tijorat banklari, intensiv rivojlanish, axborot moliya, bank, korporativ mijozlar, internet banking, elektron tijorat, tijorat bank, iqtisodiy samaradorlik, raqamli texnologiyalar, daromadlilik ko‘rsatkichi, xorijiy tajriba.*

KIRISH

Moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko‘rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo‘lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish ishlari olib borilmoqda.

Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo‘lgan investorlarga tanlov

asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarni bir vaqtning o‘zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirishdan iborat.

Yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog‘ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o‘zaro to‘ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligi va sifati oshirilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels tomonidan kiritilgan. Bu borada u o‘zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” nomli uch jildli monografiyasini chop etgan. Hozirgi vaqtga kelib, raqamli iqtisodiyot nazariyasi to‘laligicha hali shakllanmagan va ko‘pchilik iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o‘rganilmoqda.Ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon “Yangi raqamli iqtisodiyoti” turli xil atamalar bilan nomlanadi.

Masalan, “postindustrial iqtisodiyot” (D.Bell), “axborotlashgan iqtisodiyot” (O.Toffler), “megaiqtisodiyot” (V.Kuvaldin), “axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot” (I.Niniluto), “texnoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot” (B.Geyts), “bilimlarga asoslangan iqtisodiyot” (D.Tapskott). Ushbu tushunchalarni bog‘lab turadigan omil – bu iqtisodiy jarayonlarning globallashuv jarayonida raqamli axborot texnologiyalarining birlamchi o‘rinni egallashi bo‘lib hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot haqida so‘z borar ekan, axborotlashgan jamiyatga ta’rif berib o‘tish o‘rinlidir. Axborotlashgan jamiyat deb, unda faoliyat yuritayotgan kishilarning ko‘p qismi axborotni, ayniqsa, uning eng oliy shakli bo‘lgan bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan band bo‘lgan jamiyatga aytiladi. Jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining bu bosqichiga jamiyat hayotida axborot, bilim va axborot texnologiyalari ahamiyatining yanada oshishi xosdir.

ASOSIY QISM

Qisqa tarixiy taraqqiyot davriga qaramay, raqamli iqtisodiyot birinchi navbatda savdo va internet xizmatlarida - elektron tijorat, internet -banking, elektron to‘lovlar, internet-reklama, internet-o‘yinlar va boshqalarda raqamli texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan. Ta'kidlab o‘tish joizki, bugungi kunda dunyoda raqamli platformalar “Amazon”, “Alibaba”, “Facebook”, “Ebay”, “Uber”, “Didi Chuxing” yoki “Airbnb” kabi yirik korporatsiyalar uchun asosiy biznes modeliga aylandi.

Bu korporatsiyalar vositachilar va infratuzilma platformalari sifatida muhim afzalliklarga ega. Ular raqamli platformalardan foydalanuvchilar o‘rtasidagi barcha bitimlar bo‘yicha ma'lumotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va qabul qilish imkoniga ega. Elektron tijoratning jadal rivojlanishi virtual makonda bozor mexanizmi asoslarini yaratdi va bu bitimlar sonining barqaror o‘sishiga olib keldi.

Moliya tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bir qancha afzalliklarga erishish mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko‘plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq

foydalanishi, internet orqali o‘ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko‘plab pul mablag‘larini tejashi mumkin.

Masalan biron bir kitobning elektron ko‘rinishda sotib olish Sizga, shu kitobni chop etilgan ko‘rinishini sotib olish ancha arzonga tushishi mumkin. yoki bo‘lmasa oddiy iste’molchi o‘zi ham tadbirkor bo‘lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug‘ullanishi mumkin. Bank tizimi ko‘p hollarda konservativ tizim bo‘lib kelgan, bu tizimga kirish uchun nobank raqobatchilar uchun yuqori to‘siqlar mavjud bo`lgan.

Ammo bulutli, mobil, ijtimoiy va analitik texnologiyalarga asoslangan raqamli texnologiyalar bu to‘siqlarni ancha kamaytirishga erishdi. Bank tizimida innovatsiyalarni kuchaytirish maqsadida ko‘plab mamlakatlarning tartibga soluvchi organlari tizimda faoliyat olib borish uchun yengilliklarni joriy qilishdi. Natijada eski tizimdan farqli o‘laroq, to‘liq raqamli texnologiyalarga asoslangan moliyaviy tashkilotlar mijozlarning talablarini yangi va murakkab usullarda zudlik bilan qondirib, mijozlarini o‘zlariga qaratmoqdalar.

Bularga misol qilib, e-tijoratning yetakchilari -Yevropadagi Tesco, Osiyo-Tinch okeani hududida Rakuten va AQShda Walmart bank tizimiga kirib keldi. Hozirgi paytda dunyo bo‘ylab tadbirkorlar, hatto an’anaviy banklarning o‘zlari ham to`liq raqamli bank yoki neobanklar tashkil qilishmoqda. Bank Mobile, Number 26, Atom, ZenBanx and NuBank kabilar bunga misol bo‘la oladi.

Ushbu neobanklarning umumlashtirib turuvchi yagona jihati ularning taklif qilayotgan xizmatlari raqamli texnologiyalarga asoslanganligidir. Mamlakatimizda ushbu banklardagi transformatsiya jarayoni quyidagi yo‘nalishlarni ko‘zda tutadi:

xarajatlari ko‘p bo‘lgan oddiy kassa va filiallar o‘rniga joylarda bank xizmatlari markazlari, sutkasiga 12 soatdan kam bo‘lmagan vaqtda ishlovchi callmarkazlar, Smart-ofislar ochish;

Korporativ mijozlarga nafaqat biznes-reja tuzishga konsultatsiya xizmatlari, balki biznesni ochishga tayyor biznes-reja tayyorlab berishdan biznesni yuritish jarayonigacha olib borish xizmatlarini, anderrayting xizmatlarini joriy qilish;

IP-telefoniyani joriy qilinishi, CRM tizimini mukammallashtirish, mijozlarga 24/7 o‘ziga-o‘zi xizmat qilish markazlarini kengaytirish, muammoli kreditlarni bartaraf qilish Soft collection tizimini yaratish, kredit anketalari va anderrayting ma’lumotlar bazasini yaratish.

Raqamli banking-bank va uning mijozlari muloqotining yangi rivojlanish bosqichi bolib, u moliyaviy hizmatlar sektoridagi innovatsiyalarni hamda bu sohadagi raqamli, information va texnologik strategiyalarni o’z ichiga qamrab oladi.

Raqamli banking – dasturiy ta’minotlar to’plami bo’lib, u foydalanuvchilar uchun qulay interfeys ta’minlab beradi va barchaga bank hizmatlari va mahsulotlaridan on-layn rejimida foydalanishga imkon beradi.

BBC firmasining masofaviy bank hizmatlarini ta’minlab beruvchi avtomatlashtirilgan tizimi CORREQTS ko’pchilik banklar tomonidan foydalaniladi. Bu tizimdan, masalan, Sberbank, Rayffayzenbank, Nordea Bank Kredit Evropa Bank, Bank Kredit Swiss va boshqalar foydalanadilar. Shunday qilib, zamonaviy bosqichda bank sektori rivojlanishining asosiy tendentsiyasi raqamli bankingning to’la-to’kis kontseptsiyasini yaratishdir. Bunda quyidagi tashkiliy bosqichlarni ajratib ko’rsatishimiz mumkin:

Raqamli kanallarning o’zaro muloqotini yaratish (internet-banking, mobil bank);

Barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda raqamli mahsulotlarni hayotga tadbiq qilish (on-layn rejimida kirish parollarini olish, ma’lumotlarni elektron ko’rinishga keltirish);

Barcha operatsiyalarni to’liq raqamlashtirish (Big Data, Android Pay);

Sun’iy intellektdan foydalanish asosida mijozga fokuslangan modellar qurish.Ushbu bosqichlarni amalga oshirish natijasida banklar on-layn transformatsiyaga uchrashi, yangi to’lov usullarining paydo bo’lishi va mijozlarning bank bilan boshqacha muloqot usullari yuzaga kelishi mumkin. Bank biznesidagi bunday yangiliklar kredit tashkilotlarining faoliyatida ham, ularning iqtisodiy havfsizligini ta’minlashda ham bir qancha katta o’zgarishlarga sabab bo’lishi mumkin. Raqamli banking sharoitlarida iqtisodiy havfsizlikni ta’minlash uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

Dasturiy mahsulotlarni doimiy ravishda ishlab chiqarish va yangilash;

Markazlashgan ma’lumotlar bazasini yaratish;

Kredit tashkilotlarning iqtisodiy havfsiligini ta’minlash uchun qonuniy va normativ-xuquqiy asoslarni mukammallashtirish;

Raqamli iqtisodiyot sharoitlarida banklarning havfsiz va to’xtovsiz ishlashini ta’minlash bo’yicha quyidagi tadbirlarni hulosa sifatida keltirishimiz mumkin:

1. Raqamli iqtisodiyotga o’tish sharoitlarida kredit tashkilotlarining iqtisodiy havfsizlik darajasini oshirish eng birinchi navbatdagi ishlardan biridir;

2. Raqamli banking bank iqtisodiy havfsizligi tizimida zaruriy elementlardan biri bo’lib qoladi;

3. Raqamli banking – moliyaviy sektorning rivojlanish yo’nalishi bo’lib, zamonaviy analitika vositasida turli hildagi chakana bank hizmatlarining raqamli transformatsiyasiga olib keladi, turli darajadagi kredit tashkilotlari orasidagi hamkorlikni rivojlantiradi va eng yangi ilg’or texnologiyalar va raqamli innovatsiyalarning bank sektoriga kirib kelishiga sabab bo’ladi.

Banklarning raqamli transformatsiyasi raqamli strategiyani ishlab chiqish va qo’llash bilan bog’liq kompleks yondoshuvni talab qiladi. Transformatsiya moliya-kredit faoliyatini yuritishning barcha jihatlarini, shu jumladan, bankning boshqaruv mexanizmini raqamlashtirishni ham qamrab oladi va samaradorlikni maksimal ravishda oshirishga yordam beradi. Raqamli strategiya quyidagi to’rt asosiy masalani hal qilishga yo’naltirilgan bo’lishi kerak:

- Raqamli texnologiyalarni ish faoliyatiga tadbiq qilish;
- Hizmatlar bahosi yaratilish jarayonining transformatsiyasi;
- Raqamlashtirishning moliyaviy aspekti;
- Tashkiliy tuzilmaning o’zgarishi.

NATIJALAR

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda bank xizmatlari bo‘yicha tariflar bank boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan № 495 2024-yil 28-avgustdagi qaror yuridik shaxsga ega bo'lmagan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun xizmatlar:

Milliy valyutadagi amaliyotlar;

Xorijiy valyutadagi amaliyotlar;

Xalqaro korporativ kartalar bo'yicha xizmatlar;

Xalqaro to'lov tizimidagi terminallar orqali amalga oshirilgan amaliyotlar;

Mahalliy to'lov tizimidagi korporativ kartalar bo'yicha xizmatlar;

Mahalliy to'lov tizimidagi terminallar orqali amalga oshirilgan amaliyotlar;

Boshqa xizmatlar;

Kichik biznes subyektlari uchun xizmat ko'rsatish paketlari;

"Start-up" xizmat paketi;

"Yengil start" xizmat paketi;
"Mukammallik" xizmat paketi;
"Mukammallik sari" paket xizmati;
"100" ga "0" xizmat paketi;
"Aloqador Premium" xizmat paketi;
"Dillerga Sarmoya" xizmat paketi;
"Business partner" xizmat paketi;
"China kredit +" xizmat paketi;
"WellCome SQB" xizmat paketi;
"Great silk road" xizmat paketi;
"Yangi ish o'rni uchun qulay" xizmat paketi;
"VIP" xizmat paketi;
Start-up” xizmat paketi tavsifi:

№	Xizmat turlari	Qiymat tavsifi
1	Mijoz segment	Kichik biznes subyektlari
2	Sub segment	Mikro va kichik biznes
3	Xizmat turining maqsadi	Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlarini bank xizmatlaridan foydalanishda qo’llab quvvatlash
4	Paket xizmatidan foydalanish sharti	Paketdan foydalanish uchun tadbirkorlik subyekti tashkil etilgani (davlat ro’yhatidan o’tgani) ga 3(uch) oydan ko’p bo’lmasligi lozim
5	Paket xizmati amali qilish muddati	Mijoz tomonidan sotib olingan kundan boshlab 60 kalendar kuni
6	Xizmat turini taqdim etish shakli	Bank tarmoqlari (BXO\BXM) orqali
7	Paket xizmat nomi	“Start-up”
8	Paket xizmati abanenti to’lovi	25 000,00 so’m+QQS
9	Hisobvaraqlarda xizmat ko’rsatish	BEPUL
10	Mijozlarga ma’lumotnomalar, tasdiqnomalar va ko’chirma nusxalarini berish	BEPUL
11	Milliy valyutadagi bank hisob varaqlari bo’yicha mablag’larni o’tkazish(debet aylanma)	BEPUL
12	Korparativ karta hisobvarag’ini yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvarag’idagi mablag’lar hisobiga to’ldirish	BEPUL
13	Boshqa maqsadlar uchun naqd pul mablag’lari berilishi	BEPUL
14	Chiqarilgan har bir elektron to’lov uchun	BEPUL

15	Bank masofaviy xizmat turlariga ulanish\qayta ulanish\oylik abanent to’lovi	BEPUL
16	To’lov terminallari uchun oylik abonent to’lovi(Uzkard va Xumo tizimidagi terminallar)	

2024 yil 1-oktabr holatiga muomaladagi bank plastik kartalari, terminallari va infokioskalar hamda 2024-yil yanvar-sentabr oylari davomida to’lov terminallari orqali tushgan tushumlar tog’risida ma’lumot

№	Tijorat banklari	Muomaladagi bank kartalari soni	O’rnatilgan to’lov terminallari soni	O’rnatilgan bankomat va infokioska lar soni	2024 yil yanvar-sentabr oylari davomida to’lov terminallari orqali tushgan tushumlar(mln.so’mda)
1	Uzinkassatsiya Birlashmasi DUK			500	
2	Milliy bank	3 788 204	39 685	781	14 533 143
3	O’zsanoatquri lish bank	2 570 966	31 460	713	9 224 421
4	Agrobank	5 084 018	38 010	2 155	11 663 542
5	Mikrokredit bank	1 664 287	23 604	838	11 741 967
6	Xalqbank	11 884 719	45 947	3 092	7 143 730
7	Garantbank	400 182	7 018	274	836 178
8	Biznesni rivojlantirish bank	742 979	18 095	571	3 809 684
9	Turonbank	665 297	12 681	443	4 052 200
10	Hamkorbank	2 827 629	32 451	604	10 048 264
11	Asakabank	1 607 078	14 791	172	9 262 017
12	Ipakyo’libank	2 834 115	22 671	883	7 892 686
13	Ziraat bank Uzbekistan	83 029	1 180	8	870 181
14	Trastbank	797 246	14 228	392	10 228 026
15	Aloqabank	2 097 528	14 558	236	35 190 408
16	Ipotekabank	4 473 496	37 626	814	17 282 671
17	KDB bank O’zbekistan	101 849	609	6	558 268
18	Soderat bank Toshkent	2 010	27	2	4 791 765
19	Universal bank	390 586	11 853	206	4 768 206

20	Kapitalbank	780 040	13 682	1 681	10 027 742
21	Octobank	1 058 789	867	54	12 763 629
22	Davr-bank	516 991	7 845	82	11490 939
23	Invest Finans bank	816 936	11 265	712	5 463 663
24	Asia Allianse bank	487 681	7 744	298	8 484 490
25	Orient finans bank	757 956	10 443	242	6 969 203
26	Madad invest bank	15 847	318	11	50 206
27	Avo bank	34 311	0	0	1 259 311
28	Poytaxt bank	25 225	468	37	139 592
29	Tenge bank	681 509	3 282	193	1 447 649
30	TBC bank	4 391 022	27	0	7 508 008
31	Anor bank	1 863 764	1 376	0	683 826
32	Uzum bank	120 642	0	0	4 322 549
33	APEX BANK	1 770			5 469
34	Smart bank				3 863
35	YANGI BANK	3 302	181		241 797
36	HAYOT BANK	12 379	17		21 447
37	To’lov tashkilotlari			12 433	
JAMI		53 582 382	424 009	28 433	237 480 742

XULOSA

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini bank moliyaviy xizmatlaridagi rivojlantirish maqsadida quyidagi masalalarni hal etish lozim:

-banklar iqtisodiyotning lokomotivi vazifasini yanada rivojlantirib ildamlangan harakatga o‘tishi va moliyaviy xizmatlarni raqobat ustunliklari, ixtisoslashuvi va o‘sish nuqtalarini inobatga olgan holda shakllantirishi va amalga oshirish kerak;

-banklar tijorat tashkiloti ekanligi, eng avvalo, tijoriy maqsadni ko‘zlashi hamda bozor mexanizmlari asosida ish tashkil etilishi lozim;

-banklarning asosiy faoliyatidan tashqarida bo‘lgan vazifalarni bajarishi kabi holatlarini oldini olish zarur.

Raqamli iqtisod, ya'ni yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishi, albatta, inson hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning boshqa afzalliklari: Jahon banki 2021 yilgi "raqamli dividendlar" ni ko'rib chiqdi;

- mehnat unumdorligini oshirish;
- kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
- yangi ish o'rinlari yaratish;
- qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish.

Va bu raqamli iqtisod bizning hayotimizga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani, oddiy foydalanuvchilarga juda ko'p imkoniyatlar yaratib, bozorning imkoniyatlarini kengaytirishning bir necha misollari.

Yuqorida aytib o'tilganlardan O'zbekistonda raqamli banklarni shakllantirishga ta'sir qiluvchi bir qator omillar mavjud. Albatta, bir qator muammolar va bunday banklarning shakllanishi internet bilan bog'liq, chunki ko'plab yangi texnologiyalar va innovatsiyalar, shuningdek, banklar tomonidan yaratilayotgan qulayliklar hali
ham raqamli iqtisodiyotning ostonasida. Raqamli bankga o'tish mamlakat banklari uchun muammo bo'lmaydi.

To'lov tizimida moliyaviy va to'lov vositalarining yangi shakllari (moslashuvchanligi) paydo bo'ladi, shuningdek, raqamli muhitda sodir etilgan harakatlarga ishonchni ta'minlash masalalari keskinlashadi. Ilmiy va texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi va yangi axborot texnologiyalari bankning jozibadorligini umumiy baholashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.PF5992-sonli “2020-2025 yillarga mo`ljallangan O‘zbekiston Respublikasi
Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmoni.

2. ”Экономика и социум” №2 (105) 2023, (313 bet)

3.International journal of science and technology ISSN 30303443 (81-82 bet)

4.Raqamli iqtisodiyot asoslari R.X.Ayupov, G.R.Boltayeva (370-389 betlar)

5.Internet ma‘lumotlari. (Sanoatqurilish bank),2024 yil

6.Internet ma’lumotlari. (Statistika qo’mitasi),2024 yil

7. International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities, Hosted from Hamburg, Germany;https: econferencezone.org;
04.05.22y (312 bet)

8.(Farmon 2018) “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

9.(Qaror 2018) “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

10.(Qaror 2018) “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3620 Qarori;

11.(Qaror 2018) “Milliy to‘lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3945.

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA LOGOPEDIK HARAKATLARNI TANIB OLISH ALGORITMLARI

O‘rolov Sherzod Muzaffar o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Raqamli iqtisodiyot va axborot tizimlari ” fakulteti,
“Sun’iy intellekt ” kafedrasi 1-kurs magistranti
EmSIl: sherzoduralov03@gmSIl.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14193175

Annotatsiya: *Ushbu maqolaning maqsadi - logopedik harakatlarni tanib olish algoritmlari orqali, nutq nuqsonlari bo‘lgan insonlarga nutq terapevtik yordam ko‘rsatishda yangi usul yaratishdir.*

Kalit so‘zlar: *logopediya, harakatlarni tanib olish, CNNs, klassifikatsiya, an’anaviy logopedik, nutq va talaffuz muammolari*

Kirish.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi bilan logopedik muammolarni hal qilishda yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Hozirgi davrda texnologiya tez rivojlanib borayotgan bir vaqtda, sun’iy intellekt ko‘plab sohalarda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Nutq va talaffuz muammolari insonlarning ijtimoiy va shaxsiy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan muhim masalalardan biridir. An’anaviy logoped terapiya usullari bu muammolarni bartaraf etishda samarador bo‘lsa-da, har bir bemor bilan alohida ishlashni talab qiladi va vaqt hamda resurslar yetishmovchiligini keltirib chiqaradi. Shu nuqtSI nazardan, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida logopedik harakatlarni tanib olish usullari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Nutq va talaffuz muammolari bugungi kunda dunyo bo‘ylab keng tarqalgan masalalardan biri bo‘lib, ularning rivojlanishida sun’iy intellekt texnologiyalari yangi va samarali imkoniyatlar yaratmoqda. Statistika shuni ko‘rsatadiki, har yili taxminan 8–12% bolalar nutq va til rivojlanishidagi kechikishlarga duch keladi, bu esa ularning ta’lim olish jarayoniga, ijtimoiy munosabatlariga va o‘ziga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Nutq nuqsonlari masalasi nafaqat rivojlanayotgan davlatlarda, balki butun dunyo bo‘ylab muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Butun dunyo bo‘yicha, masalan, har yili taxminan 130-140 million inson nutq yoki tovush chiqarish qiyinchiliklarini boshdan kechiradi, va bu ko‘rsatkich yildan-yilga o‘sib bormoqda.

An’anaviy logopedik terapiya usullari muammolarni bartaraf etishda muhim o‘rin tutsa-da, har bir bemor bilan alohida ishlashni talab qilishi sababli resurslar va vaqt cheklovlari bilan yuzlashmoqda. Shu sababli, SI va mashinani o‘qitish texnologiyalari logopedik harakatlarni aniqlash va davolash jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kirmoqda. Masalan, SI yordamida bemorning ovoz va yuz harakatlari orqali turli mashq va jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish mumkin, bu esa logoped mutaxassislariga bemorlarning rivojlanishini tez va samarali baholash imkoniyatini beradi.

Mazkur maqolada logopedik harakatlarni sun’iy intellekt yordamida aniqlashning afzalliklari, an’anaviy usullar bilan taqqoslash va sun’iy intellektning logopedik terapiyadagi

dolzarb o‘rni haqida batafsil ma’lumot beriladi. Shu orqali SI texnologiyalarining logopedik muammolarni bartaraf etishda qanchalik samarali va zarur ekanligi isbotlanadi.

Asosiy qism.

Logopedik harakatlarni aniqlashda quyidagi algoritmlar qo‘llaniladi:

Tasvirni qayta ishlash va aniqlash: Bu jarayonda sun’iy intellekt yuz ifodalari, og‘iz harakati, til holati kabi belgilardan foydalanib, foydalanuvchining harakatlarini o‘rganadi va aniqlaydi. (1-rasm)



2-rasm. Logopedik harakatlar

Convolutional Neural Networks (CNNs) — bu tasvirlarni qayta ishlashda juda samarali bo‘lgan SI algoritmidir. CNNlar tasvirlarni “qarash” va “tushunish” uchun maxsus tuzilgan neyron tarmoqlari bo‘lib, ular tasvirlardan xususiyatlar (features) chiqarish, tasvirni tahlil qilish va aniqlash uchun ishlatiladi. CNNlar ayniqsa tasvirni tanib olish, yuzni aniqlash, og‘iz yoki lab harakatlarini aniqlash kabi vazifalar uchun juda foydalidir.(2-rasm)



2-rasm. CNN natijasi

Yuz ifodalari: Foydalanuvchining yuzidagi harakatlar va ifodalar, ularning his-tuyg‘ularini va nutq jarayonidagi qatnashuvini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Yuz ifodalari yordamida nutqning emotsional jihatlari tahlil qilinadi, Yuz ifodalarini aniqlash algoritmlariga asoslangan sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida kameralar yoki sensorlar orqali bemorlarning yuz harakatlari va mushaklarining pozitsiyasi kuzatiladi, Yuz mushaklari va ifodalarining to‘g‘ri ishlashi nutq shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Logopedik muammolarni davolash jarayonida yuz ifodalarini kuzatish, nutq tovushlarini to‘g‘ri shakllantirish uchun kerak bo‘lgan harakatlarni tahlil qilishga yordam beradi. Bu holat, ayniqsa, tilni burish, lab harakatlari, va boshqa yuz mushaklarining nutqqa ta’sirida ko‘rinadi.

Amaliyotda Qo‘llanilishi: Bu algoritmlar yordamida logoped shifokorlar bemorning yuz ifodalarini real vaqt rejimida tahlil qilishadi va kerakli logopedik mashqlarni tavsiya qilishda foydalanadi. Shu orqali sun’iy intellekt bemorlarga aniq ko‘rsatmalar berishga va o‘z natijalarini kuzatishga yordam beradi va qanday mashiqlar bajarish kerakligi haqida ko‘rsatmalar ko‘rsatadi shuning bilan birgalikda dastur siz bilan birgalikda mashiqlar bajaradi (3-rasm).



3-rasm. Mashg‘ulot

Mashina o‘qitish modellaridan foydalanish: SI algoritmlari katta ma’lumotlar to‘plamida logopedik harakatlarni tahlil qilib, kerakli algoritmni tanlaydi va o‘rgatilgan ma’lumot asosida harakatlarni to‘g‘ri baholaydi.

1. **Mashina O‘qitish Modelining Maqsadi**

Logopedik Harakatlarni Aniqlash: Mashina o‘qitish modellari logopedik muammolarni aniqlash uchun katta hajmdagi vizual ma’lumotlarni o‘rganish va tanib olishga mo‘ljallangan. Ushbu texnika yuz harakatlarini to‘g‘ri aniqlab, bemorlarning tili va nutq harakatlaridagi kamchiliklarni topishga yordam beradi.

2. **Qo‘llaniladigan Model Turlari**

Klassifikatsiya Modellari: Bu modellar o‘rgangan ma’lumotlar asosida yangi yuz ifodalarini toifalash uchun ishlatiladi. Masalan, bemorning yuz ifodalarini “tovushlarni chiqarishga tayyorlanish” yoki “lab harakatlari” kabi toifalarga ajratish mumkin.

Klassifikatsiya Modellarining Turlari:

1. **Ikki Toifali Klassifikatsiya (Binary Classification)**
   - Bu model ma’lumotlarni faqat ikkita sinfga ajratadi. Masalan, bemorning biror harakati “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” ekanligini aniqlash mumkin.
   - Logopedik harakatlarni tahlil qilishda bu usul orqali bemor qiyinchilik bilan yoki qiyinchiliklarsiz nutq harakatlarini bajarishini aniqlash mumkin.
2. **Ko‘p Toifali Klassifikatsiya (Multi-Class Classification)**
   - Ko‘p toifali klassifikatsiya modellari uch yoki undan ko‘p sinf uchun ishlatiladi. Masalan, yuz ifodalarini “xursand”, “g‘amgin”, “hayron” va “normal” kabi ko‘p sinfga ajratish mumkin.
   - Logopedik tahlilda bu model bemorning yuz ifodalarini tanlab, har bir ifodaning qaysi holat ekanligini aniqlash imkonini beradi.

3. Ko‘p Belgili Klassifikatsiya (Multi-Label Classification)

- Bu turdagi klassifikatsiya bir vaqtning o‘zida bir nechta sinfga biror harakatni joylashtirishni talab qiladi. Masalan, bemorning yuz harakati bir vaqtning o‘zida “hayron” va “yoqimli” bo‘lishi mumkin.
- Bu model ayniqsa harakatlarning murakkabligini tahlil qilishda foydalidir.



4-rasm. Ma’lumotlar tayyorlash modeli.



5-rasm. Ma’lumotlar xususiyatlari.

Mashhur Klassifikatsiya Algoritmlari

K-Eng Yaqin Qo‘shni (K-Nearest Neighbors, KNN)

- Ushbu algoritm yangi ma’lumotni eng yaqin qo‘shni sinflar bilan solishtirib, unga mos sinfni tanlaydi.(6-rasm)



6-rasm. KNN.

Evklid Masofasi

$$\boldsymbol{dist(A,B) = \sqrt{(x_A - X_B)^2 + (Y_A - Y_B)^2}}$$

Qaror Daraxtlari (Decision Trees)

- Ma’lumotlar shaxobchalar va barglarga ajratilib, qaror daraxtida sinflar topiladi. Har bir yangi ma’lumot tegishli bo‘limga yo‘naltiriladi.(7-rasm)



7-rasm. Qarorlar daraxtlari.

$$E(T,X) = \sum_{C \in X} P(c)E(c)$$

Sun’iy Neyron Tarmog‘i (Artificial Neural Networks, ANN)

- Neyron tarmoqlari murakkab ma’lumotlarni o‘rganishda foydalidir va ko‘p qatlamli strukturasi tufayli yuz ifodalarini aniqlashda yuqori aniqlikka ega.



8-rasm. Sun’iy neyron tarmog‘i.

Regression Modellari: Bu modellar logopedik harakatlardagi xatti-harakatlarni aniq miqdorlarda o‘lchash uchun ishlatiladi. Ular harakatning amplitudasini yoki tezligini tahlil qilib, aniqroq kuzatish imkonini beradi. Regression modellari kiruvchi omillar asosida biror natija qiymatini aniqlash yoki taxminlashni amalga oshiradi.

Logopedik tahlil yoki harakatlarni aniqlashda regressiya modellari harakatlarning miqdoriy baholarini o‘lchash va ularning rivojlanishini tahlil qilish uchun qo‘llanilishi mumkin.

Regression Modellarining Turlari

1. **Chiziqli Regressiya (Linear Regression)**
   - Chiziqli regressiya ikki o‘zgaruvchi orasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun ishlatiladi, bu yerda natijalar chiziqli chiziq bo‘ylab joylashadi. Masalan, bemorning yoshi va gapira olish qobiliyatini baholash o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuzatish uchun ishlatilishi mumkin.



2. **Ko‘p o‘zgaruvchili Regressiya (Multiple Regression)**
   - Bu model bir nechta o‘zgaruvchilar orqali natijani taxminlash uchun mo‘ljallangan. Masalan, bemorning yoshi, o‘quv mashg‘ulotlari va mashg‘ulot davomiyligiga qarab nutq rivojlanishini aniqlash mumkin.
3. **Logistik Regressiya (Logistic Regression)**
   - Logistik regressiya ko‘pincha klassifikatsiya uchun ishlatiladi, ammo klassifikatsiya natijasini aniqlashda regresiya usulidan foydalanadi. Masalan, bemorning biror nutq harakatini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarishi ehtimolini taxminlash uchun logistik regressiya qo‘llanadi.
4. **Ko‘rsatkichli Regressiya (Polynomial Regression)**
   - Ko‘rsatkichli regressiya chiziqli bo‘lmagan (noto‘g‘ri chiziqli) natijalarni bashorat qilishda foydali. Masalan, vaqt davomida bemorning harakat rivojlanishi dinamikasini bashorat qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Regression Modellarining Ishlash Tizimi

1. **Ma’lumotlarni tayyorlash**
   - Regression modellari o‘rganuvchi (SIning) va sinov (testing) ma’lumotlariga asoslanadi. Masalan, logopedik harakatlar bo‘yicha yig‘ilgan ma’lumotlar tayyorlanadi.
2. **Modelni o‘qitish**
   - Modellar mavjud ma’lumotlar orqali o‘zgaruvchilar va natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Bunda regressiya tenglamasi quriladi, bu natijalar va omillar orasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun xizmat qiladi.
3. **Sinov va bashorat qilish**

- Tayyor model yangi ma’lumotlarga tadbiq etilib, natijalar bashorat qilinadi. Sinov ma’lumotlari yordamida modelning natijaga mosligi va aniqligi baholanadi.

Xulosa yoki tavsiyalar: Logopedik harakatlarni aniqlash algoritmlarini qo‘llash orqali nutq muammolari bor insonlar mashq qilishlari mumkin, bu esa ularning nutqini rivojlantirishda katta yordam beradi. Yangi texnologiya o‘quv jarayonlarini avtomatlashtirishga va logoped mutaxassislarining ishini yengillashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, bu sun’iy intellekt yordami bilan logopedik muammolarni hal qilishda ishonchli yechim bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Quyida logopedik harakatlarni aniqlashda an’anaviy usullar va SI yordamida amalga oshiriladigan usullar o‘rtasidagi farqlarni taqqoslovchi misoliy jadval keltirilgan. Bu jadval tahlil va taqqoslash uchun yaxshi asos bo‘ladi:

Daraja	An’anaviy Logopedik Terapiya	Sun’iy Intellekt Asosidagi Terapiya
Yondashuv	Logoped tomonidan qo‘lda nazorat	Avtomatlashtirilgan kuzatuv va tahlil
Samaradorlik	Har bir bemor bilan individual ishlash, vaqt talab qiladi	Bir nechta bemor bilan bir vaqtda ishlash imkoniyati
Tezlik	Davolash jarayoni uzoq vaqt talab qilishi mumkin	Ko‘p jarayonlar avtomatlashtirilgan, natija tezroq
Natijalarni o‘lchash	Logoped tomonidan qo‘l bilan kuzatiladi	SI tizimi natijalarni avtomatik tahlil qiladi
Moslashuvchanlik	Shaxsiy mashg‘ulotlar asosida ishlab chiqilgan	SI yordamida bemorlarning ehtiyojlariga moslashish osonroq
Narx	Bemorning logoped bilan individual mashg‘ulotlariga to‘lov	Boshlang‘ich sarmoyasi yuqori bo‘lishi mumkin, lekin uzoq muddatda iqtisodiy samarali
Aniqlik darajasi	Tajribaga asoslangan aniqlik darajasi	Keng ma’lumotlar asosida aniqlik darajasi yuqori
Monitoring va qayta aloqa	Logoped tomonidan berilgan og‘zaki yoki yozma tavsiyalar	Har bir mashq va natija avtomatik qayta aloqa orqali ko‘rsatiladi

Quydagilardan kelib chiqib shuni aytishim mumkin yaratilayotgan loyiha Logoped o‘qituvchilar uchun sezilarli darajada sifatli va samarali ishlashi uchun imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. **Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. –** *Deep Learning* (2016) page 10, 14, 78.

2. **Duda, R. O., Hart, P. E., & Stork, D. G. -** *Pattern Classification* (2000): page 17,16,54.

3. Journal of Speech, Language, and Hearing Research.

4. Automatic Speech Emotion Recognition Using Machine Learning: Digital Transformation of Mental Health.

5. Breiman, L. (2001). Random forests. *Machine Learning*, 32, 5-23.

6.Cover, T., & Hart, P. (1967). Nearest neighbor pattern classification. *IEEE Transactions on Information Theory*, 11(2), 13-24.

7 .Machine Learning for Absolute Beginners: A Plain English Introduction (Third Edition).page 11, 13, 87

ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ НАВЫКОВ В ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЯХ У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

[1],[2] Ким Елена Валекрьевна
[1]Докторант, Гулистанский Государственный Университет
[2]Преподаватель, Tashkent International University of Education
lena.scarlet@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14193233

Аннотация. *В статье рассматриваются преимущества использования цифровых технологий в процессе формирования информационно-коммуникативных навыков студентов в ходе образовательного процесса. Оценивается роль цифровых технологий в современной педагогике, перечисляются его преимущества, используемых в педагогическом образовании. Автор подчеркивает значение информационно-компьютерных технологий в повышении качества обучения студентов.*

Ключевые слова: *информационные технологии, цифровые технологии, цифровые образовательные ресурсы (ЦОР), электронное обучение.*

Характерной особенностью современного общества является большой поток информации, которая каждые 72 часа удваивается [1]. Поэтому подготовка современного учителя иноязычного образования, так же, как и любого учителя школы, должна соответствовать требованиям времени, одной их главных компетенций которого стали не только профессиональные, но и цифровые компетенции.

В последние годы значительное внимание уделяется использованию цифровых технологий в образовании, с помощью которых усиливается мотивация студентов к обучению, за счет использования электронных учебников, интерактивных информационных технологий, объединяющих текст, графику, звук и видео [2]. Гармоничное сочетание традиционных инструментов обучения с использованием цифровых технологий в виде презентаций, компьютерных игр и интерактивных упражнений, позволяет значительно повысить мотивацию студентов к учебе и тем самым сократить время на обучение.

Проблемами внедрения и использования информационных технологий в образовательном процессе рассматривались такими казахстанскими учеными как Нургалиевой Г.К. Кунанбаевой С.С., Бидайбековым Е.И., Джусубалиевой Д.М., Артыкбаевой Е.В., Нурбековой Ж.К., Нургалиевым М.К., Сагимбаевой А.Е., Чакликовой А.Т., Тажигуловой А.И., Шкутиной Л.А. и другими.

Исследования в области информатизации образования до сих пор являются актуальными не только в Казахстане, но и во всем мире [3]. Основная часть работ посвящена проблемам готовности будущих педагогов к работе с информационными технологиями, а также разработке цифрового образовательного контента, таких как электронные учебники, цифровые образовательные ресурсы и мультимедийные обучающиепрограммы.

Новые поколения обучающихся всё более ориентируются на современные источники информации, цифровые образовательные технологии, виртуальные средства коммуникации для своего личностного роста, таккак представление учебной информации в цифровом виде оказывает комплексное влияние на учащегося – повышается интерес к обучению, расширяется круг знаний, повышается качество обучения, улучшается обратная связь между преподавателем и обучающимися [4].

Цифровые технологии активно используются во многих областях экономики и в первую очередь, в профессиональном образовании:

- система подготовки и переподготовки преподавательских кадров;
- информатизация процесса обучения и воспитания;
-оснащение системы образования техническими средствами информатизации (компьютерами, мультимедиапроекторами и т.д.);
- интерактивное взаимодействие педагога и ученика;

В настоящее время профессиональная педагогика и образование находятся на важном этапе цифровизации всей системы образования, внедрения в педагогику инновационных методов, приемов и форм работы с обучающимися. Внедрение цифровых технологий в теорию и практику педагогики помогает повысить эффективность обучения студентов, однако возникает проблема грамотного сочетания методики преподавания предмета с информационно-коммуникационными и цифровыми технологиями обучения. Информационная технология должна удовлетворять таким основным принципам профессиональной педагогики как предварительное проектирование, воспроизводимость, целеобразование, целостность.

Несмотря на то, что цифровые технологии в профессиональной педагогике представляют собой довольно молодую область, они очень динамично развиваются. Идет их активное внедрение в образовательный процесс навсех ступенях обучения – школы, колледжи, вузы. Так, в ряде казахстанских вузов были внедрены учебные программы и курсы, активно использующие цифровые технологии в процессе обучения. Кроме того, информатизация образования и интернет технологии привели к стремительному развитию новой формы обучения

– дистанционной, которая является наивысшей степенью информатизации образования на сегодняшний день [4].

В настоящее время, по мнению специалистов в области профессионального образования, современный педагог должен уметь пользоваться современными

информационными технологиями и мультимедийным оборудованием для проведения образовательного процесса. По мнению профессора Джусубалиевой Д.М., цифровые технологии оказывают большую помощь в формировании ряда компетенций будущих педагогов, одной из которых является цифровая компетентность. Умение найти необходимую информацию, структурировать ее и подготовить учебный контент для проведения урока является одним из факторов повышения качества образования.

Цифровые технологии – перспективное направление в области формирования информационных навыков студентов. Быстрый поиск и простое восприятие самой разнообразной информации в процессе применения компьютерных технологий в учебном процессе студентов увеличивает его интенсивность. По мнению Коптелова А.К., новые цифровые технологии, которые активно развиваются в мировом масштабе, скоро перевернут наше представление о возможностях IT». К преимуществам цифровых технологий в образовании можно отнести следующее: (рисунок 1)

Рисунок 1. Преимущества цифровых технологий в образовании

Использование цифровых технологий позволяет сделать учебно-воспитательный процесс болеесовершенным. Одной из наиболее перспективных и широко используемых сегодня цифровых технологий является цифровой образовательный ресурс (ЦОР), который объединяет самые разнообразные средства представления информации, объединенные в одной структуре. Чередование текста, графики, видео и аудиодорожек, интерактивные упражнения и тестовые вопросы позволяют представить информацию в наиболее наглядной и легко воспринимаемой форме.

Другой формой представления информации является презентация. В общепринятом смысле презентация - это демонстрационный материал для публичных выступлений: praesento (лат.) - передаю, представляю; настоящее - представлять.

Компьютерная презентация - это файл, в котором собраны документы, подготовленные в виде последовательности слайдов в логическом отношении, объединенных темой и общими принципами оформления. Цифровые технологии зачастую используются и в виде мультимедиа. Методическая сила мультимедиа заключается именно в том, что обучающегося легче заинтересовать и обучить, когда он воспринимает согласованный поток звуковых и визуальных образов. Презентациями активно пользуются в ходе выступлений на конференциях, защите научных проектор, дипломных, магистерских и докторских работ. Электронные презентации можно рассматривать как визуальный дидактический инструмент обучения, а мультимедийный проектор - как инструмент технического обучения. Электронное представление учебной информации особенно хорошо представлено в электронных учебниках, поскольку электронные учебники рассматриваются как самостоятельные дидактические средства обучения, дающие возможность студентам самостоятельно изучать предмет. Это особенно активно используется в ходе дистанционного обучения. [5]. Медиа-презентации можно использовать на любом этапе организованных мероприятий:

- указать предмет,
- при изучении новых материалов и / или консолидации,
- в качестве сопроводительного объяснения,

- как информационно-обучающий инструмент,
- повторение и обобщение
- изученного материала.

Итак, презентация позволяет:

- повысить качество воспитательной, развивающей работы;
- быстро и доходчиво изображает вещи, которые трудно или невозможно выразить словами;
- формирует мотивацию и поддерживает интерес к процессу образовательной деятельности;
- делает процесс передачи информации разнообразным;
- улучшает влияние производительности.

Различные типы презентаций могут использоваться студентами в индивидуальной, групповой или фронтальной форме. В связи со всем вышесказанным становится очевидным необходимость совершенствования дидактического, методического и коммуникативного компонентов структуры и содержания учебного процесса в целях приближения модели педагогического взаимодействия к тому формату, который наиболее органично воспринимается современными поколениями обучающихся. Именно построение образовательного процесса на основе цифровых технологий позволит, по нашему мнению, обновить традиционный процесс обучения, стимулировать заинтересованность, эмоциональную и коммуникативную включенность обучающихся, особенно подросткого возраста. Электронное обучение все чаще используется в качестве эффективного и действенного учебного материала во многих областях образования. E-learning способствует повышению квалификации преподавателей, проведению дистанционного обучения, для переподготовки кадров и другие. По мнению профессора Артыкбаевой Е.В., e-learning основывается на интеграции педагогических и

инфокоммуникационных технологий,а также является самостоятельным видом обучения [6].

Благодаря разнообразию электронных материалов и возможности постоянного обновления через веб-сайт учителя, ученики могут найти нужную информацию, отлично подходящую для самостоятельного обучения и различных академических условий. [7]. Дополнительные общие преимущества электронного обучения включают продвижение социального обучения с помощью синхронных современных форматов общения (например, мгновенных сообщений, чатов, видеоконференций), а также асинхронного общения (например, электронной почты и форумов). Цифровые технологии дают возможность развивать свои познания от основных идей и теорий, которые формируют структуру построения и мысль, до интуиционных механизмов, которые организуют жизнь, дают возможность участвовать и обсуждать идеи.

Подведем итоги исследования - новые разработки в области электронного обучения и все более совершенныецифровые технологии обучения оказали значительное влияние на всю систему образования начиная от школ и кончая вузами. Очень важно привить будущим учителям школ еще в период учебы в вузе навыки владения цифровыми технологиями и формировать в ходе обучения цифровую компетентность, поскольку современные дети, относящиеся к поколению Z, свободно владеют любыми гаджетами и обучение с использованием цифровых технологий будут только мотивировать их к процессу обучения [4, с.50].

Таким образом, цифровые технологии способствуют получению знаний и навыков, необходимых для жизни и работы в современном обществе. Позволяют обучающимся адаптироваться к информационным потокам, повышают компьютерную грамотность населения, и способствуют приобретению навыков 21-го века.

Список литературы

1.Джусубалиева, Д.М. Роль информационных технологий в образовании [Текст]// Международный форумпо информатизации образования. - Алматы, 2022. - с.75-78.

2.Половина Г.Б. Интеграция мультимедийных технологий с традиционными учебными дисциплинами всистеме повышения квалификации учителей-предметников // Информатика и образование. 2019. № 5.

3.Мямешева Г. Добродетель в современном смарт-мире // Bulletin KazNU. «Pedagogical science» series. –2015. - #1 (44). – с.152-157.

4.Джусубалиева Д.М., Мынбаева А.К., Сері Л.Т., Тахмазов Р.Р. Цифровые технологии в иноязычномобразовании. Дистанционное обучение: Учебно-методическое пособие. – Алматы, 2019. – 252 с.

5.Шлыкова О.В. Интернационализация Вузовского образования в контексте социально-информационныхтехнологий. - Москва: ИЛ, 2022. - 662 с.

6.Артыкбаева Е.В. Теория и технология электронного обучения в общеобразовательной школе. (Дисс.,д.п.н. 13.00.02-Москва, 2021). - 332 с.

7.Булин-Соколова Е.И. Информационно-коммуникативные технологии в системе общего образования[Текст] // М.: ФГНУ ИОО, 2004. 7,5 уч.-изд.

KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING XORIJ TAJRIBASI

Iminova Nargizaxon Akramovna
AKTSI kafedrasi mudiri.
Iqtisod fanlari nomzodi PhD.
E-mail: n.iminova@tuit.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14193426

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot turli davlatlarda korxonalar faoliyatining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash uchun qo‘llanilayotgan samarali iqtisodiy choralar va boshqaruv usullarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot korxonalar barqarorligini oshirish uchun xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan asosiy usullar va strategiyalarni o‘rganadi, jumladan, soliq imtiyozlari berish, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy yordamlar, investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoit yaratish, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, korxonalarda raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish va inson kapitaliga qaratilgan sarmoyalarni jalb etish usullari o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada ushbu tajribalar O‘zbekiston sharoitida qanday moslash mumkinligi va iqtisodiy barqarorlikni oshirishda qanday imkoniyatlar mavjudligi masalalari ham muhokama qilinadi. Tadqiqot O‘zbekiston korxonalari uchun xalqaro amaliyotdan foydalanish imkoniyatlarini kengroq o‘rganishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy barqarorlik, korxona faoliyati, xorij tajribasi, iqtisodiy siyosat, boshqaruv usullari, soliq imtiyozlari, davlat qo‘llab-quvvatlashi, investitsion muhit, innovatsion texnologiyalar, inson kapitali, raqamli transformatsiya

Kirish

Korxona faoliyatining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash hozirgi global iqtisodiy sharoitda har bir davlatning asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. Korxonalar nafaqat iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, balki davlat daromadlarini oshirish, aholining bandligini ta'minlash va innovatsion yutuqlarga erishishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, turli mamlakatlarda korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, ularning asosiy qismi soliq imtiyozlari, moliyaviy yordamlar, innovatsiyalarni joriy etish, raqamlashtirish va inson kapitaliga investitsiya kiritishni o‘z ichiga oladi [1]. Misol uchun, Yaponiya va Janubiy Koreya singari davlatlar innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash orqali korxona faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi. AQSh va Germaniya esa korxonalarni soliq yengilliklari va qulay investitsion sharoitlar yaratish orqali qo‘llab-quvvatlaydi [2].

O‘zbekiston korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish va unga mos strategiyalar ishlab chiqish muhimdir. Bu tadqiqot aynan shu masalani o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, xorijiy davlatlarda qo‘llanilgan samarali usullar va boshqaruv amaliyotlarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish uchun tahlil qiladi. Bunda korxonalarni qo‘llab-quvvatlashning asosiy iqtisodiy choralarini o‘rganish, ularning barqaror rivojlanishga qo‘shayotgan hissasini baholash va O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun qo‘llanish imkoniyatlarini tahlil qilish ko‘zda tutiladi [3].

Ushbu adqiqot xorijiy tajribadan foydalangan holda O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni oshirish uchun asosiy yo‘nalishlarni belgilash va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Korxonalarni qo‘llab-quvvatlashda qaysi usullar samarali ekanligini aniqlash, soliq imtiyozlari, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordamlar, investitsion muhit, innovatsiyalar va inson kapitaliga qaratilgan strategiyalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish zarurati ushbu tadqiqotning asosiy savollarini tashkil qiladi [4].

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda xorijiy davlatlarning iqtisodiy siyosatidagi asosiy yo‘nalishlar, korxonalarni qo‘llab-quvvatlash usullari va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun qator ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Maqolani tayyorlashda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va davlat statistikasi ma'lumotlari asosiy manba sifatida xizmat qildi. Shuningdek, iqtisodiyot sohasidagi ilg‘or tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, hisobotlar va kitoblardan foydalanildi [5]. Tahlil jarayonida iqtisodiy barqarorlikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash uchun SWOT tahlili usulidan keng foydalanildi.

SWOT tahlili yordamida iqtisodiy barqarorlikka ta’sir etuvchi kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanib, har bir omilning O‘zbekistoniqtisodiy sharoitlariga moslashuv darajasi baholandi [6]. SWOT tahlili korxonalarni rivojlantirish uchun strategik yondashuvlarni ishlab chiqishda va ularning o‘ziga xos iqtisodiy vaziyatda qanday ishlashini tahlil qilishda samarali vosita sifatida xizmat qildi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha qo‘llaniladigan chora-tadbirlar qiyosiy baholandi. Bu usul orqali davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy siyosat farqlari va ularning samaradorligi o‘lchandi va O‘zbekistoniqtisodiyoti uchun qaysi usullar mos ekanligi aniqlashga yordam berdi [7]. Qiyosiy tahlil usuli orqali korxonalarga soliq yengilliklari berish, davlat qo‘llab-quvvatlovi ko‘rsatish va innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha turli davlatlarda qo‘llanilgan strategiyalar o‘rganildi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida zamonaviy iqtisodiy tahlil dasturlaridan, jumladan, Excel va STATA kabi dasturlardan foydalanildi. Bu dasturlar yordamida ma’lumotlarni tizimli tarzda to‘plash, ularni grafik va statistik usullar orqali tahlil qilish va natijalarni aniqlash imkoniyati yaratildi [8]. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari yordamida olingan natijalar asosida O‘zbekiston iqtisodiy barqarorligi uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali strategiyalar ishlab chiqildi.

Yuqoridagi metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining xolisligi va dolzarbligini oshirish, shuningdek, tavsiyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim asos bo‘ldi. Tadqiqot metodologiyasi, shuningdek, xorijiy tajribalarni O‘zbekistonsharoitiga moslashtirish va mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam berdi.

Natijalar

Tahlil natijalari xorijiy davlatlarning iqtisodiy barqarorlikka erishish bo‘yicha asosiy usullari va ushbu usullarning samaradorligini baholashda matematik modellash va statistik tahlil usullaridan foydalangan holda kengaytirilgan quyidagi muhim omillarni ajratib ko‘rsatadi.

1. Iqtisodiy siyosatning samaradorligi. Soliq imtiyozlari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlovlar iqtisodiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatadigan muhim omillar hisoblanadi. Ushbu omillar korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda asosiy rol o‘ynaydi. Matematik tahlil yordamida davlatlar tomonidan qo‘llanilgan soliq imtiyozlarining korxonalar daromadlariga

ta’siri regresion analiz orqali o‘rganildi. Masalan, davlatlar tomonidan taqdim etilgan soliq yengilliklari va korxona daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik $y=a+bx$ formulasi yordamida baholandi, bunda y - korxona daromadi, x - soliq imtiyozlari miqdori, a va b esa aniqlangan koeffitsiyentlar [9].

Regression analiz natijalari ko‘rsatdiki, soliq imtiyozlarining ko‘payishi korxona daromadlarini sezilarli darajada oshiradi, bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Yaponiya va Janubiy Koreya misolida korxonalar uchun yillik soliq yengilliklarining oshishi daromad o‘sishini 15-20% gacha oshirishga olib kelgan [10].

2. Investitsiyalar va kapital oqimi. Investitsiyalarni jalb qilish va kapital oqimini ta’minlash korxonalar uchun iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladigan asosiy omillar hisoblanadi. Kapital oqimini o‘rganish uchun davlatlar o‘rtasida qiyosiy analiz amalga oshirildi. Matematik tahlil yordamida investitsion oqim va korxona barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlash uchun korrelatsion analiz qo‘llanildi. Shu bilan birga, korrelatsiya koeffitsiyenti yordamida bog‘liqlik darajasi r qiymati orqali baholandi, bunda r qiymati 1 ga yaqinlashganda investitsiya va barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchayadi [11].

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Germaniya va AQSh kabi davlatlarda yuqori darajadagi investitsiya jalb qilish strategiyalari korxonalar daromadini 25-30% ga oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, uzoq muddatli investitsion loyihalar iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

3. Innovatsiyalar va raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi. Innovatsiyalarni tatbiq etish va raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish orqali korxona faoliyatining samaradorligini oshirish imkoniyati o‘rganildi. Ushbu jarayonlarning iqtisodiy samaradorligini matematik tahlil qilish uchun vaqt seriyali analiz usuli qo‘llanildi. Innovatsiyalarni tatbiq etish va raqamlashtirish jarayonlari tufayli olingan qo‘shimcha daromadlar $f(t)=P_0e^{rt}$ eksponensial formulasi yordamida o‘rganildi, bunda P_0 - boshlang‘ich daromad, r - innovatsiyalar samaradorlik koeffitsiyenti va t - vaqt [12].

Tahlil natijalariga ko‘ra, raqamlashtirish jarayonlariga kiritilgan har bir dollar investitsiya korxona daromadlarini o‘rtacha 1,5-2 barobar oshirgan. Bu natija texnologik yangilanishlarning iqtisodiy barqarorlik uchun qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda innovatsion texnologiyalarga kiritilgan investitsiyalar yillik barqarorlik ko‘rsatkichlarini 18-22% gacha oshirish imkonini bergan.

4. Inson kapitaliga sarmoya kiritish. Inson kapitaliga sarmoya kiritish korxonalarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu omilning iqtisodiy samaradorligini o‘rganish uchun statistika usullari, jumladan, dispersion analiz va kovariatsiya tahlilidan foydalanildi. Ushbu tahlil yordamida ta’lim, malaka oshirish va inson kapitaliga sarmoya kiritish bilan korxona barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi o‘lchandi [13].

Natijalarga ko‘ra, inson kapitaliga qilingan sarmoyalar korxonalar barqarorligini 15-20% oshirishga xizmat qilgan. Dispersion tahlil ko‘rsatdiki, malaka oshirish dasturlariga kiritilgan sarmoyalar yillik barqarorlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirgan. Masalan, Germaniya va AQSh misolida, korxonalar tomonidan ta’lim va malaka oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar korxona rentabelligini o‘rtacha 10-12% ga oshirgan.

Muhokama

Natijalar xorijiy davlatlar tajribasining O‘zbekiston iqtisodiyotiga mosligini ko‘rsatadi. Yaponiya va Janubiy Koreya davlatlarining innovatsiyalarni keng qo‘llashi va soliq imtiyozlari

orqali korxonalarga yordam ko‘rsatish tajribasi Ўзбекистонда ham qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va innovatsiyalarni kengaytirish bo‘yicha Germaniya va AQShning tajribalari ham O‘zbekistonuchun dolzarbdir. Davlat tomonidan korxonalarga qo‘llab-quvvatlov berish, investitsion muhitni yaxshilash va raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mumkin [13].

Xulosa

Mazkur tadqiqot asosida xorijiy davlatlarning iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha qo‘llanilayotgan usullari va O‘zbekiston sharoitiga mos strategiyalar ishlab chiqildi. Soliq imtiyozlari, davlat qo‘llab-quvvatlovi, investitsiyalarni jalb qilish va inson kapitaliga qaratilgan sarmoyalar asosiy yo‘nalishlar sifatida tavsiya etiladi. Shu orqali O‘zbekiston korxonalari uchun iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davies, W., "Global Strategies for Corporate Stability", Economic Review, 2022.
2. Johnson, M., "International Economic Policies and Their Impact on SMEs", Journal of Economic Studies, 2023.
3. Smith, L., "SWOT Analysis in Enterprise Stability Studies", International Journal of Business Management, 2022.
4. Brown, J., "Tax Incentives and Economic Stability", Global Economic Policies, 2023.
5. Williams, K., "Investment Flows and Local Business Growth", Investment Journal, 2023.
6. Lee, S., "Innovation and Economic Stability", Tech Innovations, 2022.
7. Thompson, D., "Human Capital Development and Its Economic Impact", Journal of Development Studies, 2023.
8. Miller, P., "Economic Models in Germany and Japan", International Business Review, 2022.
9. Robinson, E., "Digital Technologies and Economic Stability", Journal of Economic Innovations, 2023.
10. Evans, R., "State Support and Economic Stability in Developing Countries", Global Economic Journal, 2023.

MOLIYA-BANK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Jumayev Sohib Bahodirovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
Boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitasi raisi
e-mail: s.jumaev@tuit.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14193516

Annotatsiya*. Ushbu maqola moliya va bank sohasida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va uning samaralari haqida fikr yuritadi. Raqamlashtirish jarayoni mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, kiberxavfsizlikni ta’minlash va xizmatlarni soddalashtirish imkonini beradi. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonda fintech va mobil bank xizmatlari rivoji, davlat siyosati, raqamli o‘zgarishlarning iqtisodiyotga ta’siri va kelajak istiqbollari kabi mavzular tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar. *Raqamli texnologiyalar, moliya sektori, bank xizmatlari, fintech, kiberxavfsizlik.*

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar moliya-bank sektoriga katta ta’sir ko‘rsatmoqda va an’anaviy xizmat ko‘rsatish usullarini hamda mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni o‘zgartirmoqda. Blokcheyn, sun'iy intellekt va mobil ilovalar kabi innovatsion texnologiyalar banklarning ichki jarayonlarini ham, mijozlarga moliyaviy xizmatlarga kirish usullarini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Tezkor iqtisodiy o‘sish va globalizatsiya sharoitida, ayniqsa mamlakatimizda, raqamli yechimlarni joriy etish raqobatbardoshlikning asosiy omiliga aylanmoqda. O‘zbekiston moliya sektorini raqamlashtirish orqali banklarning samaradorligini oshirish va aholining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan kirishini yaxshilashga harakat qilmoqda.

Ushbu tadqiqotda raqamli texnologiyalarning O‘zbekiston bank sohasiga ta’siri haqida umumiy tasavvur olish uchun bir qator tadqiqot va tahlil usullari qo‘llanildi. Eng avvalo, adabiyot tahlili o‘tkazilib, mavjud maqolalar, hisobotlar va internetda chop etilgan statistik ma’lumotlar ko‘rib chiqildi. Shu maqsadda, so‘nggi yillarda O‘zbekiston bank tizimida o‘tkazilgan raqamli o‘zgarishlar va texnologiyalarning umumiy rivoji, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Milliy bank va Asaka banklari haqidagi ochiq ma’lumotlar asosida o‘rganildi [1].

Shuningdek, asosiy raqamli xizmatlarning bank sohasida qanday qo‘llanilayotgani va mijozlarga xizmat ko‘rsatishda qanday o‘zgarishlarga olib kelgani haqida umumiy fikr shakllantirildi. Shu maqsadda, O‘zbekiston bozorida keng tarqalgan Click va Payme kabi to‘lov tizimlari misol sifatida olindi, chunki ular moliyaviy xizmatlardan foydalanishni soddalashtirishda muhim rol o‘ynaydi [2].

O‘zbekistonda fintech kompaniyalari, masalan, Payme, Click, va Humo kabi xizmatlar iqtisodiy rivojlanishga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu kompaniyalar raqamli to‘lovlarni soddalashtirib, aholi uchun moliyaviy xizmatlarni yanada qulaylashtirmoqda. Shuningdek, FinTech & Banking 2024 forumida fintech sohasidagi yangiliklar va rivojlanish tendensiyalari muhokama qilinadi. Ushbu forum moliya sohasidagi mutaxassislarni bir joyga to‘playdi va innovatsion yechimlar, yangi strategiyalar va texnologik o‘zgarishlar haqida ma’lumot beradi.

Ushbu yo‘nalishlar O‘zbekistonning moliya-bank sohasida raqamli transformatsiyaning asosiy qismiga aylanishi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynashi kutilmoqda [5].

Fintech - bu “moliya texnologiyalari” degan ma’noni anglatadi va moliyaviy xizmatlarni yaxshilash va avtomatlashtirish uchun ishlatiladigan turli texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Fintech sohasida raqamli texnologiyalar jadal rivojlanmoqda, bu esa moliya xizmatlarini yanada qulay va samarali qilish imkonini bermoqda [4]. Mobil bank, internet banking va raqamli to‘lov tizimlari kabi innovatsiyalar bank xizmatlarini tezkor va qulay tarzda taqdim etishga yordam beradi. Mobil bank ilovalari orqali mijozlar bank xizmatlaridan istalgan joyda foydalanishlari mumkin, bu esa banklar va mijozlar o‘rtasidagi aloqalarni yanada kuchaytiradi.

Raqamli transformatsiya jarayoni O‘zbekistondagi xususiy va davlat banklarida muhim o‘rin tutmoqda. Banklar raqamli xizmatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratib, mobil ilovalar orqali mijozlarga qulay va samarali xizmatlar taklif qilmoqda. Mobil ilovalar orqali amalga oshiriladigan xizmatlar mijozlarga nafaqat bank hisob raqamlarini boshqarish, balki to‘lovlarni amalga oshirish, kreditlarni olish va boshqa moliyaviy operatsiyalarni tez va oson bajarish imkonini beradi.

Masalan, BFA Uzbekistan mobil ilovasi orqali foydalanuvchilar o‘z moliyaviy operatsiyalarini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa banklarning raqobatbardoshligini oshiradi. BFA Uzbekistan - bu “Business Fintech Association Uzbekistan” degan ma’noni anglatadi va O‘zbekistonda fintech sohasida biznes va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tashkilotdir. U moliya texnologiyalari sohasida professional tarmoq yaratishga, malaka oshirishga va zamonaviy yechimlarni joriy etishga yordam beradi [6].

Xavfsizlik masalalari raqamli xizmatlarning rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Kiberxavfsizlik va ma’lumotlarni himoya qilish banklar va mijozlar o‘rtasidagi ishonchni ta’minlash uchun zarurdir. Banklar kiber hujumlardan himoyalanish uchun turli xil texnologiyalarni joriy qilmoqda va mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishga katta e’tibor bermoqda. Davlat tomonidan berilayotgan yordamlardan foydalanish ham moliya sohasidagi raqamli xizmatlarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston hukumatining raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan strategik tashabbuslari, ayniqsa, raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish va kengaytirish uchun muhimdir. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan quyidagi strategiyalar (1-rasm) raqamli xizmatlarning rivojlanishiga



1-rasm. Raqamli xizmatlarning rivojlanishiga yordam berayotgan davlat strategiyalari

Manba: mualif tomonidan tuzilgan

yordam bermoqda:

Raqamli xizmatlarni joriy etish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun qulay muhit yaratish quyidagi strategiyalardan iborat bo‘ladi:

1. Yangi innovatsion kompaniyalarni jalb qilish: Bank va moliya sohasida raqamli yechimlarni taklif etadigan startaplarni qo‘llab-quvvatlash.

2. Raqamli infrastruktura rivojlantirish: Internet tarmog‘ining kengayishi va raqamli xizmatlarni taqdim etish uchun zarur bo‘lgan texnik vositalarni yaratish.

Bu strategiyalar nafaqat raqamli iqtisodiyotning o‘sishiga, balki aholi uchun moliyaviy xizmatlarning yaxshilanishiga ham olib keladi.

Biroq, raqamli xizmatlar sohasida turli qiyinchiliklar ham mavjud. Masalan, raqamli xizmatlarni amalga oshirish uchun malakali kadrlar yetishmasligi rivojlanishni sekinlashtirishi mumkin. Shuningdek, kiberxavfsizlik muammolari bank va moliya xizmatlarining xavfsizligini ta’minlashda jiddiy to‘siq bo‘ladi, bu banklar mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish uchun kuchli xavfsizlik choralarini joriy etishini talab qiladi. Bundan tashqari, raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, qishloq joylardagi aholi uchun moliyaviy xizmatlarni taqdim etish zarurati ham mavjud. Ushbu muammolar O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotida jiddiy to‘siqlarni keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun davlatning qo‘llab-quvvatlashi va harakatlari bu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Davlat organlari va moliya institutlari o‘zaro hamkorlikda ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun ish olib borishi lozim, bu esa raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatini ta’minlaydi [7].



2-rasm. FinTech bozoridagi jahon daromadining o‘sishi (2017-2024)

Manba: Emorphis Technologies – Medium.com [10]

2-rasmdagi diagrammada 2017-yildan 2024-yilgacha global FinTech bozoridagi daromadning o‘sishi ko‘rsatilgan. Daromad milliard yevroda o‘lchanib, har bir yil uchun umumiy hajmni aks ettiradi. 2017-yilda 80 milliard yevrodan boshlab, 2024-yilga kelib 188 milliard yevroga yetishi kutilmoqda [8].

Ushbu o‘sish raqamli transformatsiya va yangi texnologiyalar, xususan, mobil texnologiyalar, blokcheyn va IoT (Internet narsalar)ning joriy etilishi tufayli amalga oshirildi.

Bank sohasida raqamli transformatsiya asosan mijozlar tajribasini yaxshilash, xavfsizlikni oshirish va operatsiyalarning tezligini ta’minlashga qaratilgan.

Quyidagi omillar transformatsiyaning asosiy jihatlari sifatida xizmat qiladi:

1. Mijozlar bilan aloqalar – yangi texnologiyalar orqali mijozlarning ehtiyojlarini tushunish va shaxsiylashtirilgan echimlar taklif qilish.
2. Ichki jarayonlar – raqamlash orqali yangi ish uslublari va resurslarning samarali taqsimoti.
3. Siyosiy **iroda** – raqamlashni joriy etishda yetakchilarning maqsadga yo‘naltirilgan va aniq yondashuvi.

Shuningdek, raqamli transformatsiya bank xizmatlari sohasida ikki asosiy usul orqali amalga oshirilishi mumkin: radikal va tizimli yangilash. Radikal yondashuvda barcha jarayonlar noldan boshlanadi, tizimli yangilashda esa mavjud jarayonlar uzluksiz yangilanadi.

1-jadvalda raqamli bank xizmatlarida qo‘llanilayotgan dominant moliyaviy texnologiyalar g‘oyalari aks ettirilgan. Jadvaldagi texnologiyalar katta ma’lumotlar, sun’iy intellekt, biometriya va blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalardan iborat bo‘lib, ular har xil bank xizmatlari va jarayonlari uchun ishlatiladi.

1-jadval.

Raqamli bank xizmatlarida dominant moliyaviy texnologiyalar g‘oyalari

Qo‘llash sohasi (dominant g‘oyalar)	Big Data	Sun’iy intellekt	Biometriya	Blokcheyn
Mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish	+	+	-	-
Tranzaksiyalarni monitoring qilish	+	+	-	+
Mijozlarni segmentatsiya qilish	+	+	-	-
Mijozlarni identifikatsiya qilish	-	-	+	+
Firibgarlikni boshqarish	+	+	+	+
Bank xizmatlarini shaxsiylashtirish	+	+	-	-
Tavakkalchiliklarni baholash va muvofiqlik	+	+	-	-
Mijozlarning javoblarini tahlil qilish	+	+	-	-
Jarayonni avtomatlashtirish	-	+	-	-
Moliyaviy maslahat berish	+	+	-	+
Investitsion qaror qabul qilish	+	+	-	-
Savdoni osonlashtirish	-	-	-	+
Sindikatsiyalangan kredit xizmatlari	-	-	-	+

P2P (jismoniy shaxslar o‘rtasida) pul o‘tkazmalari	-	-	-	+

Manba: Baltic Journal of Economic Studies, Vol. 6, No. 1, 2020 [9]

Jadvalda har bir texnologiya asosiy qo‘llash sohalari bo‘yicha tasniflangan:

1. Katta ma’lumotlar - mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, tranzaksiyalarni monitoring qilish, mijozlarni segmentatsiya qilish, va firibgarlikni boshqarish kabi jarayonlarda keng qo‘llaniladi. Bu texnologiya banklarga mijozlar bilan ishlashda samaradorlikni oshirish imkoniyatini beradi.

2. Sun’iy intellekt - mijozlarning javoblarini tahlil qilish, jarayonlarni avtomatlashtirish, moliyaviy maslahat berish va investitsiya qarorlarini qabul qilishda ishlatiladi. Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan chat-botlar va virtual yordamchilar mijozlarga 24/7 xizmat ko‘rsatish imkonini yaratadi.

3. Biometriya - xavfsizlikni oshirish maqsadida mijozlarni identifikatsiya qilishda va firibgarlikni oldini olishda qo‘llaniladi. Biometrik texnologiyalar, xususan, barmoq izi va ko‘z to‘rini skanerlash, mijozlarga bank xizmatlaridan tez va xavfsiz foydalanish imkoniyatini beradi.

4. Blokcheyn - tranzaksiyalarni monitoring qilish va firibgarlikni boshqarishda qo‘llanilib, investitsion qarorlarni qabul qilish va P2P o‘tkazmalarni osonlashtirishda yordam beradi. Ushbu texnologiya orqali bank xizmatlarining xavfsizligi va shaffofligi ta’minlanadi.

O‘zbekistonning bank sektorida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bo‘yicha tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli xizmatlarning rivoji sezilarli darajada tezlashgan. Misol tariqasida, Milliy bank, Asaka bank, shuningdek, Click va Payme kabi to‘lov tizimlari yordamida mijozlarga xizmat ko‘rsatish samaradorligi oshgani kuzatilmoqda. Bu banklarda o‘rnatilgan mobil ilovalar mijozlarga kundalik operatsiyalarni oson va xavfsiz bajarish imkonini berdi [16, 17].

Ushbu xizmatlar tufayli mobil banking foydalanuvchilari sonining ortishi kuzatilmoqda. 2023-yilgi hisobotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi bank mijozlarining 40% dan ortig‘i o‘z moliyaviy operatsiyalarini mobil ilovalar orqali amalga oshirmoqda. Bu, o‘z navbatida, bank xizmatlaridan foydalanish qulayligini oshirib, mijozlarning banklarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi [11].

Quyidagi natijalar ham aniqlandi:

1. Kiberxavfsizlikka talab oshmoqda: Raqamli xizmatlarning kengayishi bilan kiberxavfsizlik muammolari ham ortgan. 2024-yilgi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistondagi banklarning 60% dan ortig‘i o‘z tizimlarini himoyalash uchun qo‘shimcha xavfsizlik choralari ko‘rgan, bu esa mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishga qaratilgan [12].

2. Fintech xizmatlarining kengayishi: Fintech kompaniyalari, xususan, Payme va Click, yirik banklar bilan integratsiya qilinib, aholiga qulay to‘lov xizmatlarini taqdim etmoqda. Bu xizmatlar qishloq hududlarida ham kengayib, bank xizmatlariga kirish imkoniyatini kengaytirish bo‘yicha muhim qadam hisoblanadi [13].

3. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanish: Raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirish uchun davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlovlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan yaratilgan raqamli infratuzilmalar orqali raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga katta e'tibor berilmoqda [13].

Mazkur natijalar asosida O‘zbekiston bank sohasida raqamli texnologiyalarning rivoji va mijozlarga ta’siri quyidagicha aniqroq ifodalanishi mumkin:

1. Mijozlar sonining yillik o‘sishi - raqamli xizmatlar foydalanuvchilari sonining yillik dinamikasini aks ettiruvchi jadval.

2. Mobil banking va fintech xizmatlari hajmi - so‘nggi besh yil ichida mobil banking va fintech xizmatlari hajmining o‘sishini ko‘rsatuvchi diagramma.

3. Kiberxavfsizlik choralari statistikasi - banklarning kiberxavfsizlik sohasida amalga oshirgan choralari va natijalari bo‘yicha jadval.

Ushbu natijalar raqamli transformatsiyaning O‘zbekiston bank sohasida ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini va kelajakda yanada rivojlanish salohiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur texnologiyalar bank ichki tizimlarini optimallashtirish va mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, ularning bank xizmatlarining har bir bosqichini raqamlashtirishda va mijozlarga qulaylik yaratishda ahamiyati katta.

O‘zbekiston bank sohasidagi raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bo‘yicha olingan natijalarni tahlil qilganda, bu jarayon rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi bilan mos keladi. Xususan, Yevropa va AQShda kuzatilgan texnologik yutuqlar, masalan, mobil banking, blokcheyn va biometriya singari texnologiyalar O‘zbekistonda ham o‘z ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Biroq, bu texnologiyalarni tatbiq etish davomida mahalliy sharoit va cheklovlarni hisobga olish kerak, chunki rivojlanish sur’ati va resurslar mavjudligi bir xil emas [14].

Ushbu tadqiqot natijalarining cheklovlaridan biri sifatida, ularning o‘ziga xos empirik dalillarga emas, balki umumiy adabiyot tahliliga asoslanganligini ko‘rsatish mumkin. Raqamli texnologiyalarni tadbiq qilishning haqiqiy ta’siri haqida yanada ishonchli ma’lumot olish uchun yanada kengroq empirik tadqiqotlar va so‘rovnomalar o‘tkazilishi lozim. Shu bilan birga, bank tizimida amalga oshirilayotgan raqamli o‘zgarishlarning samaradorligini o‘lchash uchun statistika va real ma’lumotlarga ehtiyoj katta [15].

O‘zbekistonda raqamli transformatsiyani takomillashtirish uchun asosiy tavsiyalar quyidagilardan iborat: birinchidan, banklar va fintech kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ayniqsa mijozlar xavfsizligini oshirish va xizmatlarni qulaylashtirish uchun biometriya kabi texnologiyalarni joriy qilishda. Ikkinchidan, davlat tomonidan kiberxavfsizlik va malakali kadrlarni tayyorlashga e’tibor qaratish zarur. Kiberxavfsizlik va malakali mutaxassislar yetishmasligi digital transformatsiyaning kengayishiga to‘siq bo‘lishi mumkin.

Shu sababli, kelajakda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish lozim. Davlatning aniq yo‘naltirilgan siyosati va qo‘llab-quvvatlovi O‘zbekiston bank sektorida raqamli xizmatlar rivojlanishini yanada jadallashtirishga yordam beradi.

Xulosa. O‘zbekiston moliya va bank sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni davom etmoqda va bu jarayon muhim innovatsiyalarni olib kelmoqda. Raqamli xizmatlarni kengaytirish va yangilanishlarni qo‘llab-quvvatlash kelajakda ushbu sohada yuksalishning kalitidir. Innovatsion yechimlar va yangi texnologiyalar yordamida bank xizmatlarini yanada qulayroq va samaraliroq qilish imkoniyatlari mavjud. Bu, o‘z navbatida, iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishda samarali yechimlar taklif etadi.

Davlat qo‘llab-quvvatlashi raqamli transformatsiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Moliyaviy innovatsiyalarni rag‘batlantirish va kiberxavfsizlikka e'tibor qaratish, muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya uchun zaruriy shartlarni yaratadi.

Kelajakda fintech kompaniyalarining faoliyatini kengaytirish uchun quyidagi muhim faktorlarni inobatga olish lozim:

1. Maxsus qonuniy maydonlar tashkil etish: Raqamli xizmatlarni joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

2. Ta’lim va mutaxassislar tayyorlash dasturlarini rivojlantirish: Malakali kadrlar yetishmasligini bartaraf etish.

3. Kibermuhofaza xavflariga qarshi kurash: Kiberxavfsizlikni mustahkamlash va mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish.

4. Mijozlar ehtiyojlarini inobatga olish: Raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va xizmatlarni shaxsiylashtirish.

Ushbu faktorlar O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotida yuksalishga olib keladi va global raqobatga tayyorlanish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlikni o‘rnatish zarur, bu esa raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Raqamli moliya va bank xizmatlari" haqida ma’lumotlar. https://www.cbu.uz/ (kirilgan sana: 2 noyabr 2024).

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va fintech rivojlanishi bo‘yicha strategiyalar.: https://www.economy.uz/ (kirilgan sana: 2 noyabr 2024).

3. Daryo.uz. Raqamli bank xizmatlari va moliyaviy texnologiyalar haqida so‘nggi yangiliklar. https://daryo.uz (kirilgan sana: 2 noyabr 2024).

4. BFA Uzbekistan. Business Fintech Association Uzbekistan tomonidan taqdim etilgan moliyaviy texnologiyalar va innovatsiyalar haqidagi ma’lumotlar. https://www.bfa.uz/ (kirilgan sana: 2 noyabr 2024).

5. ITPark. O‘zbekistonda IT va fintech sohasidagi innovatsiyalar va loyihalar. https://itpark.uz/ (kirilgan sana: 2 noyabr 2024).

6. FinTech & Banking 2024 forumi. O‘zbekiston moliya va bank sohasida fintech kompaniyalarining ta’siri va istiqbollari. https://fintechforum.uz/ (kirilgan sana: 2 noyabr 2024).

7. Global Fintech Report 2023. Jahon bo‘yicha fintech rivojlanishiga oid hisobot. https://www.fintechreport.com (kirilgan sana: 2 noyabr 2024).

8. The World Bank. O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanish va raqamli moliya bo‘yicha tahlillar. https://www.worldbank.org/ (kirilgan sana: 2 noyabr 2024).

9. Svitlana Melnychenko, Svitlana Volosovych, Yurii Baraniuk (2020). Dominant Ideas of Financial Technologies in Digital Banking. Baltic Journal of Economic Studies, Vol. 6, No. 1, pp. 92-99. https://cyberleninka.ru/article/n/dominant-ideas-of-financial-technologies-in-digital-banking (kirilgan sana: 2 noyabr 2024).

10. Emorphis Technologies (2020). Digital Transformation in Banking and Financial Sector. Medium. https://medium.com/emorphis-technologies/digital-transformation-in-banking-and-financial-sector-5d85c0ccc186 (kiritilgan sana: 2 noyabr 2024).

11. Milliy bank. Bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasi bo‘yicha hisobotlar. Retrieved from: https://www.nbu.uz/ (kirilgan sana: 4-noyabr, 2024).

12. Yunusov, M. N. (2024). Raqamli texnologiyalarning bank xizmatlaridagi roli. *Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi to‘g‘risidagi ilmiy sharh*, 1(3), 15–23. Retrieved from sciencetechnology.uz.

13. Abdurahmonova, M. (2023). Raqamli texnologiyalarni rivojlanish sharoitida tijorat banklarining transformatsiyasi. *Elektron tijorat va tijorat texnologiyalari*, 2(5), 112–119. Retrieved from e-itt.uz.

14. Melikov, O. (2023). Raqamli bank xizmatlarini yanada takomillashtirish: muammolar va yechimlar. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 4(7), 45–52. Retrieved from yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz.

15. Gulyamova, A. L. (2022). Bank xizmatlarida raqamli texnologiyalar va raqamli ekotizim. *BFA ilmiy jurnali*, 3(4), 65–73. Retrieved from journal.bfa.uz.

16. Click. To‘lov tizimlari haqida ma’lumot. Retrieved from: https://click.uz/ (kirilgan sana: 4-noyabr, 2024).

17. Payme. Fintech xizmatlari va imkoniyatlari. Retrieved from: https://payme.uz/ (kirilgan sana: 4-noyabr, 2024).

ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРМОҚЛАР СОЛИҚ ЮКИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА УНИНГ ТАРМОҚЛАР ИҚТИСОДИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ

Шарипов Элдор Салоҳиддин ўғли
Ўзбекистон Республика валюта биржаси
Ҳисоб-клиринг палатаси бош мутахассиси
Sharipoveldor1993@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14193536

Аннотация: *Бизнинг ушбу тадқиқотимизда ривожланган мамлакатлар тажрибасини ҳисобга олган ҳолда тармоқларнинг солиқ юклари таҳлил қилиш ва солиққа тортиш механизмларини тармоқларга таъсирини баҳолашга бағишланган. Ишда тармоқлардаги солиқ юкини бошқаришда солиқ механизмларининг роли ва ўрни, ушбу соҳада ривожланган давлатларнинг солиққа тортиш механизмларининг тармоқларга таъсирини баҳолаш усуллари ва моделлари таҳлил қилиниб, Ўзбекистон иқтисодиёти шароитида уларни такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилмоқда.*

Калит сўзлар: *солиқ, давлат молия назорати, моддий ишлаб чиқариш, молиявий назорат, давлат сиёсати, иқтисодий хавфсизлик, бозор муносабатлари, пул жамғармалари, солиқ субйектлари, молия тизими, мажбурий тўловлар, солиқ юки.*

КИРИШ

Ўзбекистон иқтисодиётини бошқаришнинг асосий ричагларидан бири солиқлар ҳисобланади. Солиқ юкини камайтириш иқтисодий ўсишни таъминлаш ва аҳоли турмуш сифатини оширишда муҳим аҳамият касб этади.

Статистик маълумотларга кўра Ўзбекистон ялпи ички маҳсулоти 2023 йилда 2022 йилга нисбатан 10,4 млрд.долларга ўсиб 90,8 млрд.долларга етди.

Ялпи ички маҳсулотининг 13 фоизга ўсишининг асосий сабабларидан бири сифатида солиқ юки даражасининг 2022 йилга нисбатан 2023 йилда 2 фоизга камайишини фам кўрсатиш мумкин бўлади.

Солиқ юки - солиқларни тўлаш учун маблағларни ажратиш, уларни фойдаланишнинг бошқа мумкин бўлган йўналишларидан чалғитиш натижасида юзага келадиган иқтисодий чекловлар даражаси.

Солиқ юкини солиқ тўловчилар ўртасида тақсимлаш икки тамойилга таянади:

а) солиқни унинг ҳисобидан олинадиган имтиёзлар билан боғлаш, масалан, ёқилғи учун белгиланган аксиз солиғини транспорт воситалари эгалари тўлайди. Бундай ёндашув жуда чекланган, чунки давлат харажатларининг айрим турларини (масалан, ишсизлик нафақасини) фойдаланувчиларга ўтказиш мумкин эмас;

б) тўлов қобилияти принципи, унга кўра шахснинг даромади қанчалик юқори бўлса, шахсга солинадиган солиқ ҳам шунчалик юқори бўлиши керак.

АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ

Солиқ юкини ва унинг тармоқлар иқтисодига таъсирини баҳолаш хусусида кўплаб жаҳон ва республикамиз олимлари ўз тадқиқотларида ўрганишга ҳаракат қилишган.

Хусусан, Якубованинг (2024) фикрича солиқ тизимининг асосий мақсади нафақат бюджетни даромадлар билан тўлдириш балки, тадбиркорлар фаолиятига тўсиқ бўлмаслиги ва ижтимоий адолатни шакллантиришга хизмат қилиши керак.

Тоштемировнинг (2024) фикрига кўра риск даражасини белгилашда унинг миқдорини, минимал чегарасини белгилаш муҳимдир. Энг кам даромад олувчилар деб баҳоланган 60 турдаги фаолият билан шуғулланувчиларнинг даромад солиғидан озод қилиниши бу борада муҳим аҳамиятга эга бўлади.

Набиеванинг келтиришича давлат бюджетига тўловлар (солиқлар, ажратмалар, божлар ва бошқалар), энг аввало, тўловчиларнинг харажатларидан иборат бўлиб, уларнинг даромадларидан чегирилсада, бир вақтнинг ўзида улар давлат бюджетида давлатнинг даромадлари сифатида гавдаланади. Ана шундан тақсимлаш муносабатларига киришган иштирокчилар (томонлар) ўртасидаги манфаатларда баъзи бир фарқли жиҳатлар вужудга келади.

Ғойимовнинг фикрига кўра молия ва ресурс таркибий қисмларидан ташқари, ҳудудлар солиқ салоҳиятининг институтсионал хусусиятларини ҳисобга олиб, уни солиқ органлари томонидан бошқарилганидек, амалдаги Қонунчилик ва солиқ сиёсати контекстида акс эттиришни талаб қилади. Ҳудудларнинг солиқ салоҳияти моҳиятига ресурс ва фискал ёндашувларни фарқлаш доирасида тўрта асосий фарқловчи хусусиятлар (назарий ва услубий жиҳатлар), функсионал (солиқ функсиясига асосланган), муҳим (солиқ салоҳияти ва ҳақиқий солиқ даромадларини фарқлашга асосланган) ва факториал(прогнозни танлаш уфқида) аниқланади.

Қудбиев, Ахмадалиева ва Нўмоновларнинг (2022) келтиришича корхоналар зиммасидаги солиқ юкини мақбуллаштириш уларнинг ўз вақтида ва сўзсиз тўланиши, қонунчиликка аниқ риоя қилиниши билан белгиланади. Бунда бухгалтерия ва бошқа ҳисоботлар шакли аниқ ҳамда тўғри юритилади, қонунчиликка қаттик риоя қилинади шунингдек, солиқ юкини оптималлаштиришнинг яна бир шакли бу солиқ тўловчи камроқ

солиқ тўлаш мақсадида амалдаги қонунчилик имтиёзлардан ва бошқа преференсиялардан фойдаланган ҳолда солиқ мажбуриятларини мақбуллаштиришга эришиши мумкин.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Ушбу мақоламизда олиб борилган тадқиқот давомида назарий ва амалий ўрганиш, тизимли ёндашув, гуруҳлаш, таққослама таҳлил, кузатув, статистик таҳлил, омилли таҳлил қилиш усулларидан самарали фойдаланилган. Олиб борилган тадқиқотлар асосида солиқ назоратини ташкил этиш ва ўтказиш тартибини ўзига хос хусусиятлари фаолияти самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар тизими, уларнинг таснифи, аниқланиш ва таҳлил қилиш йўлларини такомиллаштириш ҳамда бошқарув қарорларини қабул қилиш асосида таклифлар ишлаб чиқишга йўналтирилган.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Солиқ юки — бу иқтисодий тузилмадаги иқтисодий субъектлар (физик шахслар, юридик шахслар)нинг солиқлардан келиб чиққан молиявий мажбуриятларини англатади. Яъни, солиқ юки, давлат томонидан тадбиркорлар, фуқаролар ва ташкилотлардан олинадиган солиқлар ҳисобига уларнинг иқтисодий фаолиятига бўлган таъсирни кўрсатади.

Солиқ юки иқтисодиётнинг турли секторларидаги субъектлар учун тўланадиган солиқларнинг умумий суммасига нисбатан ҳисобланади. Бу кўрсаткич мамлакат иқтисодиётининг солиқ тизимининг оғирлиги ва самарадорлигини баҳолаш учун муҳимдир.

1-расм. Тармоқларда солиқ юки ўзгариши (1).

Солиқ юки Ўзбекистон амалиётида ўзгаришини яъни тармоқлардаги айнан ҳар бир соҳадаги солиқ юкининг ўзгаришини таҳлил қилиб кўрсак. Бунда мавзуд соҳаларни 20 та йирик йўналишларга бўлиб олсак. Аввалambор таҳлил қилинаётган йилларда амалга оширилган товар айланмаларини кўрадиган бўлсак 2022 йилда мамлакат бўйича корхоналарнинг товар айланмалари 1 460,4 трлн.сўмни ташкил этган бўлса 2023 йилда товар айланмаси қарийиб 19,5 фоизга ўсиб 1 744,1 трлн.сўмга етган.

2-расм. Тармоқларда солиқ юки ўзгариши (2).

Солиқ юки 2022 йилда мамлакат бўйича ўртача 9 фоизни ташкил этган бўлса, 2023 йилда бу кўрсаткич 2 бандга камайиб ўртача

3-расм. Тармоқларда солиқ юки ўзгариши (3).

7 фоизни ташкил этмоқда. Энди мамлакат миқёсида юридик шахслар томонидан буджетга тўланган барча солиқлар ҳисобини таҳлил қиладиган бўлсак 2022 йилда умумий ҳисобда юридик шахслар томонидан мамлакат буджетига жами 124,5 трлн.сўм тўлаб берилган бўлса, 2023 йилда бу кўрсаткич 4 фоизга ўсиб 129,6 трлн.сўмга етди.

Мамлакат иқтисодиётида салмоқли ўринни эгаллайдиган соҳалардан бири ҳисобланадиган тоғ-кон металлургия соҳасини оладиган бўлсак солиқ юки 2023 йилда бир йил олдинги йилга нисбатан 2 фоизга пасайганлигига қарамасдан бу соҳа корхоналарининг товар айланмалари 12,4 фоизга ҳам улар томонидан тўланган солиқлар эса 18,5 фоизга ўсган.

Ёки хизмат кўрсатиш соҳасини таҳлил қиладиган бўлсак солиқ юки 2023 йилда бир йил олдинги йилга нисбатан 1,5 фоизга пасайганлигига қарамасдан бу соҳа корхоналарининг товар айланмалари 35,3 фоизга ҳам улар томонидан тўланган солиқлар эса 15,3 фоизга ўсган.

Соҳа номи	Юридик шахслар сони	Шундан
		2023 йилда ташкил этилганлар
Савдо	151 340	33 422
Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги	128 353	10 170
Саноат	67 322	14 093
Қурилиш	33 848	4 862
Яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар	27 300	5 956
Ташиш ва сақлаш	17 356	3 948
Ахборот ва алоқа	10 452	2 918
Бошқалар	134 414	14 486

Ҳудудлар кесимида юридик шахслар сони		
Ҳудуд номи	01.12.2023 йил ҳолатига	2024 йилда ташкил этилган
Қорақолпоғистон Р.	30 526	6 503
Андижон	36 387	4 434
Бухоро	35 921	5 830
Жиззах	26 864	4 612
Қашқадарё	45 466	6 386
Навоий	24 642	3 900
Наманган	33 552	4 835
Самарқанд	54 554	7 837
Сурхондарё	30 479	3 968
Сирдарё	17 133	2 291
Тошкент в.	50 762	7 171
Фарғона	51 508	8 275
Хоразм	31 122	6 509
Тошкент ш.	101 469	17 304

4-расм. Республикада 2023 йилда яратилган янги юридик шахслар тўғрисида маълумот.

Яна бир муҳим рақамларга этибор берагиган бўсак, 2023 йилда солиқ юки кўрсаткичларининг 2022 йилга нисбатан сезиларли даражада камайганлиги мамлакатда янги корхоналар очилишига яни янги бизнесларни кириб келишига замин бўлмоқда.

Юқорида келтирилган расм малумотларига этибор берадиган бўлсак, 2023 йилда янгидан 89,8 мингта юридик шахслар ташкил этилган бўлиб жами юридик шахслар сони 570,4 мингтага етган.

ХУЛОСА

Юқоридаги таҳлиллар шуни кўрсатяптики солиқ юки кўрсаткичи ҳамда солиқ тушумлари ва ЯИМ кўрсаткичлари бир бирига тескари пропорсионал экан. Яни солиқ юки пасайиши билан ЯИМ кўрсаткичи сезиларли даражада ўсиб борар экан. Бунга асоаий кўрсаткич сифатида мамлакат ичида яратилаётган қийматнинг соядан чиқишини *(яширин иқтисодиётнинг камайиши)* мисол қилиш мумкин.

Худди шунингдек солиқ юки камайиши натижасида албатта керакли даражага етказиш назарда тутиляпти бу ерда солиқ тушумлари ҳам кўпайиб борар экан. Бунинг асосий сабаблари солиқ тўловчиларнинг ихтиёрида қоладиган маблағлар янги йўналишларга сарфланиши ва тадбиркорликка қўшимча айланма маблағларнинг кириб келиши билан бир вақтда ЯИМ ҳажмининг ошиши ва солиқ тушумларининг кўпайишига олиб келмоқда.

Солиқ юки пасайтирилган бир пайтда қандай ҳолда солиқ тушумлари кўпайиши мумкинлигини таҳлилларимизда ҳам ўз аксини топмоқда. Яни солиқ юки паст эканлиги иқтисодиётга янги бизнес иштирокчиларини кириб келишига замин яратади. Бу эса ўз навбатида мамлакат ЯИМ ҳажмининг ўсиши ва бунинг натижасида буджетга қўшимча маблағларнинг келиб тушишига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. –Т.: “Адолат”, 2020

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш консепсияси тўғрисидаги” 2018-йил 29-июндаги ПФ-5468-сон фармони

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни саваралиамалга ошириш тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 6 октябрдаги ПФ-6079 сонли Фармони

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг “2022 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонуни ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-73- сон қарори

5. Ўзбекистон Республикасининг “Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2018 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-454-сонли қонуни, 2017 йил 18 декабр

6. Якубова М.Т. Солиқ рискларини бошқаришнинг замонавий тенденсиялари вол. 17 но. 1 (2024): Spain "Problems and prospects for the implementation of interdisciplinary research"

7. Тоштемиров Ж.М. Солиқ рискларини таҳлил қилиш услубиёти Вол. 16 Но. 2 (2024): ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ | ЧАСТЬ-16 ТОМ-2

8. Набийева С.А. (2023) “Динамик макроиқтисодиёт” дарслик 2024 233 б

9. Nodir Tohirovich Qudbiyev, Zebo Abduxalimovna Axmadaliyeva, Dilshodbek Muzaffar o‘g‘li No‘monov (2022) SOLIQ YUKINING BIZNES UCHUN AHAMIYATI SCIENTIFIC PROGRESS https://cyberleninka.ru/article/n/soliq-yukining-biznes-uchun-ahamiyati/viewer

10. Ғойимов Хусайн Баҳодир ўғли. (2024). ҲУДУДЛАРДА СОЛИҚ САЛОҲИЯТИНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШ. Лучшие интеллектуальные исследования, 16(2), 95–105. Retrieved from https://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/3600

11. Ваҳобов А., Жўраев А. Солиқлар ва солиққа тортиш. Дарслик. –Т: “Шарқ”, 2009. - 448 б.

12. Алимардонов М., Тўхсанов Қ. Солиқ назарияси. –Т.: “Ўзбекистон Ёзувчилару юшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти”, 2005. -175 б.

13. Яҳёев Қ.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Дарслик. –Т.: “Фан ва технологиялар маркази”, 2003. -247 б.

14. Санақулова Б. Кичик тадбиркорлик субъектларини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш орқали иқтисодий ўсишни таъминлаш. Монография. –Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2014. -252 б.

15. Маҳмудов Н., Адизов С. Солиқларнинг макроиқтисодий кўрсаткичларга таъсирини баҳолаш: назария, амалиёт ва моделлаштириш. Монография. –Т.: “Фан”, 2014. - 106 б.

16. Алмардонов М. Юридик шахсларни солиққа тортиш. –Т.: “Чўлпон номидаги НМИУ”, 2013. -296 б.

17. Бодрунов С.Д. (2015) Промышленная политика России: уроки прошлого, черты настоящего, дизайн будущего // Научные труды Вольного экономического общества России. – № 6. – с. 157-178.

18. Максимов С.Н. Рыбаков Ф.Ф. (2012) Промышленная политика России: история и современность. СПб.: Наука. 2011-189 // Вестник СанктПетербургского университета. Экономика. – № 3(5). – с. 203.
19. http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
20. http://www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
21. http://www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
22. http://www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti

БАНКЛАРАРО ВАЛЮТА БОЗОРИНИ ЯНАДА РИВОЖЛАНТИРИШ

PhD Ё.Т.Иброҳимов
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
мустақил изланувчиси
yorkinjonibrokhimov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14193640

Аннотация: *Мақолада мамлакатимиз валюта тизими ва монетар сиёсатини ривожлантириш борасида амалга оширилган ташкилий-иқтисодий шарт-шароитлари тадқиқ этилган, шунингдек, жаҳон валюта тизимида кузатилаётган инновацион савдо қилиш услублари аниқланган ҳамда уларга асосан мамлакатимиз валюта бозорини такомиллаштиришга қаратилган тавсиялар берилган.*

Калит сўзлар: *валюта, валюта тизими, валюта муносабатлари, валюта сиёсати, метчинг, фиксинг.*

Кириш

Мамлакатимиз молия бозорларини янада ривожлантириш, жаҳонда юз бераётган геосиёсий ўзгаришлар фонида юзага келиши мумкин бўлган молиявий рискларни салбий таъсирини камайтириш, мамлакатимизга инвестициялар киритиш жараёнларини соддалаштириш ва уларни рағбатлантириш мақсадида банклараро валюта бозорида янги савдо қилиш услублари орқали савдо қилиш имкониятини яратиш, шунингдек, янги валюта жуфтликлари бўйича савдоларни ташкил этиш, улар бўйича савдолар ҳажми ва кўламини кенгайтириш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Кейинги йилларда валюта сиёсати ва ташқи савдо фаолияти соҳасини такомиллаштириш бўйича кўрилаётган чора-тадбирлар мамлакатимиз иқтисодиётига хорижий инвестицияларни жалб қилиш, экспорт салоҳиятини ошириш, замонавий, экспортга йўналтирилган ишлаб чиқаришларни ҳамда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини барқарор ривожлантиришга хизмат қилганини қайд этиш лозим.

Мақбул миқдорда ташқи қарзларни жалб қилиш бўйича изчил амалга оширилаётган сиёсат Ўзбекистоннинг мажбуриятларини ўз вақтида бажарадиган ишончли, тўловга лаёқатли халқаро шерик сифатидаги имиджини таъминлади, кейинчалик валюта курсини либераллаштириш учун зарур олтин-валюта захирасини шакллантириш, валюта

ресурсларини реал иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини модернизация қилиш, техник қайта жиҳозлаш ва диверсификация қилишнинг устувор соҳаларига йўналтириш, жаҳон молиявий инқирозининг салбий оқибатларини юмшатиш имконини берди.

Шу билан бирга, валюта муомаласи соҳасининг ҳаддан зиёд маъмурий тартибга солиниши алоҳида тармоқлар ва хўжалик юритувчи субъектлар учун имтиёз ва преференцияларнинг асоссиз равишда кам самарали бўлган тизимини шакллантирди, бизнес юритишда тенг бўлмаган шарт-шароитларнинг вужудга келиши ва рақобатнинг бозор тамойиллари бузилишига олиб келди, хорижий инвестицияларни жалб қилишда, товарлар ва хизматлар экспортини оширишда, умуман, мамлакатимиз иқтисодий ривожланишида тўсқинлик қилувчи омилга айланди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили

Жаҳон валюта тизими, валюта бозори хусусида кўплаб жаҳон ва республикамиз олимлари ўз тадқиқотларида ўрганишга ҳаракат қилишган.

Хусусан, Л.Н. Красавина халқаро валюта муносабатлари ва валюта тизимини, валюта тизими эволюциясини ва соҳадаги замонавий муаммоларни ўрганган. Шунингдек, Европа Иттифоқи валюта тизимини шаклланиши ва ундаги мавжуд муаммоларни ўрганган[4].

Алекс Полански ва Лоран Лелулар эса, жаҳон валюта тизимида кузатилаётган янги инновацион маҳсулотлар, яъни блокчейн ва криптовалюталарнинг ўзига хос хусусиятларини тадқиқ этишган [5;6].

Республикамиз олимларидан Т.И.Бобакулов[7], Э.Д.Алимардонов[8], Н.Х.Жумаев[9], Э.А.Хошимов[10] ва бошқалар жаҳон валюта тизими ва унинг ривожланиш босқичлари, Ўзбекистонда миллий валюта тизимини ривожлантиришдаги муаммолар ва уларнинг ечимлари, республикамиз валюта бозорини эркинлаштириш, глобал молиявий иқтисодий инқироз шароитида молия бозори барқарорлигини таъминлашнинг назарий-концептуал ва амалий жиҳатларини асослаб беришган.

Таҳлил ва натижалар

Мамлакатимиз ташқи савдо айланмаси кўрсаткичларини таҳлил қиладиган бўлсак, ўтган йилларда унинг ҳажми йил сайин ортиб, экспорт ва импорт ҳажми 2024 йилнинг дастлабки 6 ойида 31,83 млрд АҚШ долларини ташкил қилган бўлиб, 2023 йилнинг мос даврига нисбатан 8,47%га ёки 2,49 млрд. АҚШ долларига ўсган. Бунда, экспортга нисбатан импорт кўрсаткичининг ўсиш суръати юқорироқни ташкил қилган.



1-расм. Ташқи савдо айланмаси ва унинг ўзгариши

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 2 сентябрдаги “Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5177 фармонига мувофиқ, 2017 йилнинг 5 сентябридан:

Ўзбекистон Республикасининг юридик шахслари жорий халқаро операциялар (товар, иш ва хизматлар импорти, фойда репатриацияси, кредитларни қайтариш, хизмат сафари харажатларини тўлаш ва бошқа савдо характерига эга бўлмаган ўтказмалар) бўйича тўловларни амалга ошириш учун тижорат банкларида чет эл валютасини чекловсиз сотиб олишлари мумкинлиги белгиланди;

жисмоний шахслар чет эл валютасини тижорат банклари орқали эркин сотиши ва сотиб олиши ҳамда сотиб олинган маблағларни ҳеч қандай чекловларсиз тасарруф этиши мумкинлиги белгиланди;

истеъмол товарлари импорти билан шуғулланувчи юридик шахс ташкил этмасдан фаолият кўрсатувчи якка тартибдаги тадбиркорларга чет эл валютасини жисмоний шахслар учун ўрнатилган тартибда, банклардаги ҳисобварақлар орқали сотиб олишга рухсат берилди;

мулкчилик шаклидан қатъи назар, барча экспортчи корхоналарнинг чет эл валютасидаги тушумини мажбурий сотиш бўйича талаб бекор қилинди;

тижорат банкларига хорижий валютада операцияларни амалга ошириш бўйича лицензия бериш амалиёти бекор қилинди. Тижорат банкларининг хорижий валюта билан операциялари банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензия асосида амалга оширилиши белгиланди.



2-расм. Жисмоний шахсларнинг тижорат банклари билан хорижий валютани сотиб олиш ва сотиш ҳажмлари ва ўзгариши

Валюта сиёсатини либераллаштириш натижасида, жисмоний шахсларнинг тижорат банклари билан хорижий валютани олди-сотди қилиш ҳажмлари йил сайин ортиб, 2024 йилнинг дастлабки 6 ойида тижорат банкларидан жисмоний шахсларнинг сотиб олган валюта ҳажми 4,56 млрд. АҚШ долларини, сотган валюта ҳажми эса 7,16 млрд. АҚШ долларини ташкил қилди. Эътиборлиси, жисмоний шахсларнинг валюта сотиш ҳажмининг ўсиш суръати валютани сотиб олиш ҳажмига ҳамда 2023 йилнинг мос давридаги кўрсаткичга нисбатан юқорини ташкил қилган.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 18 ноябрдаги “Инфляцион таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-5877 фармонига мувофиқ Йўл харитасининг пул-кредит сиёсати соҳасида валюта бозорини янада ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқилиши, шунингдек, айирбошлаш курсини белгилашда банкларнинг фаол иштироки орқали уларнинг бозордаги фаоллигини рағбатлантириш, деривативлар бозори, хеджирлаш инструментлари ва маркет-мейкерлар институтини ташкил қилиш, банкларараро валюта савдоларининг жорий «фиксинг» усулидан узлуксиз аукцион савдолари «мэтчинг» усулига ўтиш вазифалари белгиланди.

Мазкур фармон ижросини таъминлаш мақсадида, 2021 йил 15 февралидан тижорат банкларининг валюта биржаси савдоларида мижозлар номидан иштирок этиш амалиётидан воз кечган ҳолда валюта биржаси хамда хўжалик юритувчи субъектлар билан чет эл валютасини сотиш ва сотиб олиш операцияларини ўрнатилган валюта позицияси лимитлари доирасида амалга ошириш тизими жорий этилди, валюта биржаси савдо сессияларида валюта савдолари амалдаги “фиксинг” усулидан “колл аукцион” ва “мэтчинг” савдо усулларига ўтказилди.

Бундан ташқари, Марказий банкнинг расмий курси кунлик белгиланиши йўлга кўйилди. Бунда, расмий валюта курси валюта биржаси аукцион савдолари оркали соат 10:00 дан 15:00 гача бўлган вақт оралиғида амалга оширилган валюта олди-сотди операцияларининг ўртача тортилган курслари миқдорида белгиланиб, ҳар банк иш куни соат 16:00 да эълон қилинадиган амалиёт йўлга қўйилди.

Валюта биржасида валюта олди-сотдиси бўйича ҳисоб-китоблар халқаро

стандартларга мувофиқ ҳозирги кунда мавжуд T+0 (бугунги иш куни) шакли билан бир қаторда T+1 (кейинги иш куни) шаклида ўтказиладиган бўлди. Шунингдек, 2022 йилнинг 1 январдан бошлаб валюта биржаси томонидан Марказий контрагент вазифасини тўлақонли (Марказий банк иштирокисиз) бажарилиши ҳамда валюта олди-сотди операциялари бўйича ҳисоб-китобларнинг ўз вақтида узлуксиз амалга оширилишини таъминланди.

Жаҳон валюта бозори иштирокчиларининг умум-эътироф этилган валюта бозорида амалга ошириладиган энг наъмунали амалиётларни ўз ичига олган Этика кодекси ишлаб чиқилди.

Тижорат банкларининг “маркет-мейкерлар” сифатидаги фаоллигини ва уларнинг валюта курсини белгилашдаги ролини ошириш ҳамда маркет-мейкер мақомини олган тижорат банкларига бериладиган имтиёзлар ва уларнинг мажбуриятларини ўзида қамраб олган валюта биржасининг “Маркет-мейкерлик фаолияти тўғрисида”ги тартиб ишлаб чиқилди.

Ўзбекистон Республикасининг валютага оид ягона давлат сиёсати амалга оширилишини таъминлаш билан боғлиқ муносабатлар 2019 йил 22 октябрдаги “Валютани тартибга солиш тўғрисида”ги ЎРҚ-573-сонли Қонунга асосан тартибга солинади. Мазкур Қонуннинг Ўзбекистон Республикаси ҳудудида чет эл валютасини сотиб олиш ва сотиш номли 19-моддасига асосан Ўзбекистон Республикаси ҳудудида резидентлар ва норезидентлар томонидан чет эл валютасини сотиб олиш ҳамда сотиш фақат Ўзбекистон Республикаси банклари орқали амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикасида банклараро валюта бозорида чет эл валютасини сотиб олиш ва сотиш фақат Ўзбекистон Республикаси банклари ҳамда Марказий банк томонидан амалга оширилади.

Бугунги кунда, банклараро валюта олди-сотди операцияларининг асосий қисми валюта биржаси орқали амалга оширилади. Валюта биржасининг валюта бозорида USD/UZS, EUR/UZS, RUB/UZS ва CNY/UZS валюта жуфтликлари бўйича валютавий спот савдолари ташкил этилган.

2023 йилда валюта бозоридаги савдолар умумий ҳажми 458,00 трлн. сўмни ташкил этиб, 2022 йилги мос кўрсаткичга (338,18 трлн. сўм) нисбатан 35,43 фоизга ошган. Шу билан бирга, 2023 йил якунлари бўйича валюта биржасида ташкил қилинадиган савдолар умумий ҳажмида валюта бозоридаги операциялар улуши 45,83 фоизни ташкил этган.



3-расм. Валюта бозоридаги савдолар ҳажмининг қиёсий динамикаси

Валюта биржасида чет эл валюталарини олди-сотдиси бўйича биржа савдолари қоидаларига асосан валюта жуфтликлари бўйича T+0 ва T+1 ҳисоб-китоб шаклларида валюта олди-сотдиси савдоларини ташкил қилиш мумкин, яъни тузилган битимлар бўйича шаклланган мажбурият ва талаблар юзасидан ҳисоб-китоблар битим тузилган куннинг ўзида ёки эртаси кунига амалга оширилиши мумкин.

Валюта бозорида USD/UZS_TOM ва EUR/UZS_TOM инструментлари бўйича савдоларда ликвидликни таъминлаш мақсадида валюта биржасининг биржа савдоларида маркет-мейкерлик хизматларини кўрсатиш дастурлари ишлаб чиқилган. USD/UZS_TOM инструменти бўйича 2 та тижорат банки томонидан маркет-мейкерлик фаолияти амалга ошириб келинмоқда.

Валюта бозоридаги (валютавий спот ва валютавий фьючерс) савдолар учун марказий контрагент фаолияти жорий этилган. Бунда, бозор иштирокчилари томонидан T+1 куни ўз мажбуриятларини бажармаслик ҳолатини бошқариш бўйича риск ва дефолт менежмент тизими ишлаб чиқилиб, ушбу мақсадлар учун валюта биржаси томонидан валюта бозорида 43,0 млрд. сўм миқдорида кафолат жамғармаси яратилди ҳамда валюта биржасининг марказий контрагент фаолияти доирасида “ликвидлик провайдери” фаолияти жорий қилинди.

Валюта биржасининг валюта бозорида воситачилик мукофоти миқдорлари ва тартибини оптималлаштириш бўйича мослашувчан тариф сиёсатига асосланган ҳамда савдо ҳажмларини оширишни рағбатлантирувчи дифференциал тариф режалари ишлаб чиқилди. Бунда, валюта савдолари иштирокчиларига янада қулай шароитлар яратиш мақсадида чет-эл валюта олди-сотдиси операциялари бўйича воситачилик мукофоти

миқдорини 2021 йил 1 декабрдан бошлаб, қарийб икки баробарга, яъни ўртача 0,027%гача пасайтириш белгиланди.

Савдо ҳажмларини оширишни рағбатлантирувчи дифференциал тариф режалари USD/UZS валюта жуфтлиги бўйича қуйидагича шакллантирилди:

Тариф режаси	Воситачилик мукофотининг доимий қисми (қатъий белгиланган тўлов)	Воситачилик мукофотининг айланмадан олинадиган қисми
USD_SP_0	0,00	0,04 % битим ҳажмидан
USD_SP_40	Базавий ҳисоблаш миқдорининг 40 баробари	0,03 % битим ҳажмидан
USD_SP_120	Базавий ҳисоблаш миқдорининг 120 баробари	0,02 % битим ҳажмидан

EUR/UZS, RUB/UZS, CNY/UZS валюта жуфтликлари бўйича воситачилик мукофоти қуйидагича:

Тариф режаси	Воситачилик мукофотининг доимий қисми (қатъий белгиланган тўлов)	Воситачилик мукофотининг айланмадан олинадиган қисми
EUR_SP_0	0,00	0,025 % битим ҳажмидан
RUB _SP_0	0,00	0,025 % битим ҳажмидан
CNY_SP_0	0,00	0,025 % битим ҳажмидан

2021 йил 1 декабрга қадар, валюта биржасининг валюта бозорида чет эл валютасидаги битимлар бўйича воситачилик мукофоти дилернинг чет эл валютаси хариди ва сотуви (сотуви ва хариди) ҳажмлари ўртасидаги мусбат фарқи, яъни нетто айланмасининг 0,05% миқдорида сўмдаги эквивалентда ундирилган.

Мамлакатимизда валюта бозори молия бозорининг ажралмас қисми ҳисобланиб, молия бозорининг ривожланишида валюта бозорининг ривожланганлик даражасини юқорилиги, валюта бозорида турли хорижий валюта жуфтликлари бўйича савдо қилиш имкониятининг мавжудлиги муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон давлат қимматли қоғозлар бозорида норезидентларнинг иштирок этишига руҳсат берилиши бўйича ўзгартиришлар тегишли меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларга киритилгандан сўнг хорижий инвесторларнинг мамлакатимизда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан (номинали сўмда белгиланган) эмиссия қилинадиган давлат қимматли қоғозларини харид қилишга бўлган талаби ортиб бораётганлиги сабаб, улар томонидан турли хорижий валюталар (АҚШ доллари, евро, рубль, юань, фунт стерлинг, франк ва бошқа валюталар)нинг сўмга нисбатан конвертация қилиш талаби билан ўзининг Ўзбекистондаги ҳамкорлик алоқалари ўрнатилган тижорат банкларига мурожаатлари сони ортади.

Бу эса, ўз навбатида хорижий инвесторлардан харид қилинган хорижий валюталарни бошқа тижорат банкларига (ёки мижозларига) сотишга бўлган талабни юзага келтиради. Хорижий валюталарни бевосита бошқа тижорат банкларига сотиш мураккаб жараён ҳисобланиб, валюта биржасининг валюта бозорида турли хорижий валюта жуфтликлари бўйича савдолар ташкиллаштирилиши ушбу тижорат банклари ўртасида валюта олди-сотди жараёнини осонлаштиришга ижобий таъсир кўрсатади.

Валюта бозорини ривожлантириш юзасидан хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганилганда, Москва биржасида 23 та валюта жуфтлиги бўйича, Қозоғистон фонд биржасида 7 та валюта жуфтлиги бўйича, Белоруссия валюта-фонд биржасида 4 та валюта жуфтлиги бўйича, АҚШнинг машҳур Ameritrade савдо платформасида 70 та валюта жуфтлиги бўйича савдолар ташкиллаштирилиши йўлга қўйилган. Эътиборлиси, Москва биржасида UZS/RUB_TOM ва UZS/RUB_TOD инструментлари бўйича савдолар йўлга қилинган.

Бундан ташқари, 2023 йил 20 сентябрда Россия Федерацияси Ҳукуматининг 2530-р сонли қарорига асосан рўйхатда келтирилган мамлакатларнинг (Ўзбекистон ҳам ушбу рўйхатда мавжуд) Россияда рўйхатдан ўтган хорижий тижорат банклари хорижий валюталар ва базавий активий хорижий валюта бўлган ҳосилавий молиявий инструментлар билан олди-сотди битимларини тузиш учун уюшган савдоларда яъни биржа савдоларида иштирок этиши мумкинлиги белгиланди. Ушбу қарорнинг қабул қилиниши натижасида, Ўзбекистон тижорат банклари Москва биржасида (MOEX) ва Санкт-Петербург валюта биржасида валюта олди-сотди битимларини тузиш имкониятига эга бўлади.

Валюта бозорини ривожлантириш, жумладан унда савдо қилиш услубларининг замонавий турларини жорий қилиш юзасидан хорижий мамлакатлар тажрибаси ўрганилганда, Москва биржасида валюта олди-сотди қилиш бўйича савдолар 2 хил тизим доирасидаги ва тизимдан ташқари ташкил қилиниши ҳамда тизим доирасида валюта спот битимлари (CETC), ҳажми катта бўлган валюта олди-сотдиси битимлари (SDBP), фиксинг битимлари (FIXS), ўртача тортилган нарх бўйича валюта олди-сотдиси битимлари тузилиши (WAPS), хорижий ликвидлик провайдерлари билан линк орқали савдолар (буюртмаси қисман қаноатлантириладиган - OTCT), хорижий ликвидлик провайдерлари билан линк орқали савдолар (буюртмаси тўлиқ қаноатлантиралидиган (Fill or Kill) – OTCF), тизимдан ташқари савдоларда эса валюта спот битимлари (CNGD), фиксинг битимлари (FIXN), ўртача тортилган нарх бўйича валюта олди-сотдиси битимлари (WAPN), ликвидликни етказиб берувчиси ва истеъмолчиси ўртасида тузиладиган валюта олди-сотдиси битимлар (RFSM), Марказий контрагент билан тузиладиган клиринг OTC битимлари (CPCL) тузиш имконияти яратилганлиги, Қозоғистон фонд биржасида барча валюта олди-сотди битимлари тизим доирасида ва тизимдан ташқари савдоларда тузилиши, шунингдек савдо иштирокчиларининг (FIX and FAST баённомалари орқали) Москва биржасининг валюта бозорига уланиш имконияти мавжудлиги, Беларусия валюта ва фонд биржасида валюта олди-сотди битимлари тизим доирасида (иккиёқлама узлуксиз аукцион) ва тизимдан ташқари савдоларда (келишув асосида тузиладиган) битимлар тузилиши маълум бўлди.

Хулоса ва таклифлар

Валюта биржасида турли хорижий валюталар бўйича янги инструментларнинг жорий қилиниши, шунингдек, савдоларни тизим доирасида ва тизимдан ташқари кўринишда марказий контрагент иштирокида ва/ёки унинг иштирокисиз ташкил қилиниши Ўзбекистон тижорат банкларининг чет эл биржаларида эмас, балки ЎзРВБ орқали хорижий валюталар олди-сотди қилиши учун ёки арбитраж операцияларини амалга ошириши учун имконият яратиб беради. Бунда, ЎзРВБ аъзолари тижорат банкларига тизимдан ташқари савдоларда валюта жуфтликларини, ҳисоб-китоб шаклларини ва режимларини, битимларни марказий конрагент ёки унинг иштирокисиз тузиш услубларини мустақил танлаш имконияти тақдим этилиши, шунингдек, битим тўғрисидаги маълумотлар API (ёки бошқа муқобил услублар)дан фойдаланган ҳолда электрон равишда битим томонларига етказилиши мақсадга мувофиқ.

Марказий контрагент иштирокида тузиладиган битимлар бўйича юзага келадиган рискларни бошқариш тартибини янада такомиллаштириш мақсадида валюта бозорида риск-дефолт ҳолатларини бошқариш тартибида белгиланган чораларга қўшимча равишда сўмдаги пул маблағлари бўйича мажбуриятлар ўз вақтида бажарилмаган тақдирда, ноинсоф савдо иштирокчисининг портфелида қимматли қоғозлардан фойдаланган ҳолда РЕПО операциялари орқали пул маблағларини жалб қилиш амалиётини йўлга қўйиш, провайдер банклар билан тузилган шартномаларга ўзгартиришлар киритган ҳолда, янги қўшилган хорижий валюта маблағларини етказиб беришни таъминлаш лозим.

Бундан ташқари, мамлакатимизда валюта бозорини янада ривожлантириш, инвестицион муҳитни яхшилаш мақсадида валюта биржасидаги савдоларда тижорат банклари билан бир қаторда Марказий банк томонидан руҳсат этилган микромолия ташкилотлари, капитал бозорида профессионал фаолиятни амалга оширувчи резидент ва норезидент инвестиция воситачилари иштирок этиши учун шарт-шароитлар яратиш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

11. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 22 октябрдаги “Валютани тартибга солиш тўғрисида”ги ЎРҚ-573-сонли Қонуни

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 2 сентябрдаги “Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5177 сонли фармони;

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 18 ноябрдаги “Инфляцион таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-5877 фармони;

14. Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: 2-е изд., перераб. и допол.–М.: Финансы и статистика, 2001. -608 с.

15. Лелу Л. Блокчейн от А до Я. –М.: Эксмо, 2018. –256 с.

16. Полански А. Эра криптовалюты. –М.: Издательство АСТ, 2018. –320 с.

17. Бобакулов Т.И. Миллий валютанинг бар арорлигини таъминлаш: қ муаммолар ва ечимлар. – Т.: Fan va texnologiya, 2007. – 184 б.

18. Алимардонов Э.Д. ва бошқ. Глобал молиявий-иқтисодий инқироз шароитида молия бозори барқарорлигини таъминлаш: назарий-концептуал ва амалий жиҳатлар. – Т.: Akademnashr, 2012. – 320 б.

19. Жумаев Н.Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш. Монография. –Т.: Fan va texnologiya, 2007.– 232 б. 12 “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 6, декабрь, 2018 йил

20. Хошимов Э.А. Ўзбекистонда валюта бозорини эркинлаштириш: муаммолар ва ечимлар. – Т.: Akademnashr, 2010. – 168 б.

ВНЕДРЕНИЕ FINTECH-УСЛУГ В ФИНАНСОВОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: ТЕКУЩИЕ РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Атаджанов Шерзод Шухратович
и.о. доцент Ташкентский Государственный Экономический Университет,
sh.atadjanov@tsue.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195212

Джурабаев Отабек Джурабаевич
DSc, заведующее кафедрой «Финансы и цифровая экономика» Ташкентский Государственный Экономический Университет,
o.djurabayev@tsue.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195212

Аннотация. *Статья посвящена внедрению финтех-услуг в финансовом секторе Узбекистана, рассматривая текущие реалии и перспективы развития этой отрасли в стране. Финансовые технологии становятся важным драйвером модернизации экономики Узбекистана, расширяя доступность и улучшая качество финансовых услуг, особенно для ранее не охваченных традиционными банковскими продуктами. В статье анализируются ключевые направления развития финтех-услуг в Узбекистане, такие как мобильные платежи, цифровые кошельки, микрофинансирование, блокчейн и криптовалюты, а также цифровая идентификация. Авторы отмечает важность поддерживающих факторов, таких как молодежное население, рост интернет-доступности и государственные реформы в области цифровизации и финансовой инклюзии.*

Основные преимущества финтеха для экономики Узбекистана включают повышение финансовой инклюзии, ускорение цифровизации, улучшение прозрачности и безопасности финансовых операций. В статье также рассматриваются ключевые вызовы, с которыми сталкивается сектор, такие как правовое регулирование, низкая финансовая грамотность населения, вопросы кибербезопасности и сложности с привлечением инвестиций.

Перспективы развития финтех-услуг до 2030 года включают развитие суперприложений, внедрение искусственного интеллекта, укрепление партнерства между финтех-компаниями и банками, а также интеграцию с международными платежными системами. Важной частью будущего развития является также фокус на устойчивое развитие и внедрение «зеленых» финансовых технологий.

Статья представляет собой ценный вклад в изучение и анализ состояния и потенциала финтех-услуг в Узбекистане, а также дает рекомендации для дальнейшего улучшения сектора в условиях быстро меняющегося цифрового ландшафта.

Ключевые слова: *финтех, интернет, интернет-доступность, блокчейн, финансы, финансовая система, криптовалюта, экономика, активы, цифровые активы, инновации, финтех-услуги, прозрачность, модель, интернет вещи.*

ВВЕДЕНИЕ

Финансовые технологии (финтех) продолжают стремительно развиваться, и прогнозы до 2030 года свидетельствуют о глубокой трансформации сектора. Ключевые направления в области финтеха охватывают улучшение пользовательского опыта, автоматизацию процессов, использование искусственного интеллекта, улучшение безопасности, а также более широкую доступность финансовых услуг. В последние годы финансовый сектор Узбекистана претерпевает значительные изменения, вызванные развитием финтех-услуг (fintech) и активным внедрением цифровых технологий.

Технологии в финансовой сфере стали драйвером для модернизации экономики и повышения доступности финансовых услуг. Финтех трансформирует банковский сектор страны, расширяя спектр финансовых услуг и повышая их качество. В данной работе рассмотрены текущие достижения, вызовы и перспективы развития финтех-услуг в Узбекистане [1], [13].

1. Текущая ситуация и важность развития Fintech в Узбекистане

Экономика Узбекистана с каждым годом становится более цифровой и открытой для внедрения передовых технологий. Это обуславливается несколькими факторами:

- **Население страны моложе и технологоориентированнее**. В Узбекистане высока доля молодых людей, активно пользующихся цифровыми технологиями. Это повышает спрос на доступные и удобные финансовые услуги.
- **Государственные реформы и поддержка**. Правительство Узбекистана создает благоприятные условия для роста финтех-стартапов и развития инноваций в финансовом секторе. Принятые в последние годы программы по цифровизации и финансовой инклюзии играют ключевую роль в развитии финтеха.
- **Рост доступности интернета и мобильных устройств**. Растущее проникновение мобильного интернета и смартфонов открывает возможности для быстрого развития мобильных платежей, цифровых кошельков и других финтех-услуг.

Финтех стал ключевым элементом для расширения финансовой доступности, особенно в сельских и труднодоступных регионах, где традиционные банковские услуги менее распространены [2], [12], [14].

Стимулом всестороннего развития финтех в Узбекистане, как и в любом другом государстве, является внедрение и развитие технологии ***Интернет вещей***.



Рис.1. Сравнительная характеристика развития и степени влияния на изменение экономических процессов.

Internet of Things (IoT) – объединение в сети любых устройств с использованием специального программного обеспечения и датчиков, которые взаимодействуют друг с другом, получая информацию и обмениваясь ею. Эти устройства могут собирать данные и делиться ими через сети с людьми, приложениями и другими устройствами. Это позволяет измерять и отслеживать поведение и другие свойства людей и вещей. IoT широко используется в отраслях с физическими продуктами (например, телефонами, автомобилями, электроустановками) и услугами (например, мониторинг здравоохранения, службы домашней безопасности) [15], [16].

Объединяя в единую сеть сенсоры, устройства и людей, технологии IoT дают возможность бесперебойного взаимодействия человека и машины, программного обеспечения и оборудования. С новыми успехами в развитии искусственного интеллекта и машинного обучения такая коммуникация позволяет устройствам предугадывать потребности клиента и реагировать на них [9], [10], [11].

Несмотря на мощный потенциал, концепция IoT пока еще находятся в зачаточном состоянии с точки зрения практического применения. В настоящее время развивается главным образом в направлении совершенствования промышленных систем (рис.1).

Kirish. Bugungi kunda jahonda kapitalni jalb qilish va qayta taqsimlash, vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini to‘plash va ularni joylashtirishda tijorat banklari yetakchi rol o‘ynaydi. Tijorat bankini rivojlantirish kredit tashkiloti faoliyatining xususiyatlari, bank faoliyati sifat ko‘rsatkichlarining kelgusidagi o‘sishi va yaxshilanishidagi ustuvorliklarni tanlash uning mijozlarini bank faoliyati amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga oluvchi iqtisodiy asoslangan va qat’iy ishlab chiqilgan depozit siyosatiga ishontirish kabi masalalarni ta’minlamay turib mumkin emas. Hozirgi sharoitda bank tizimini rivojlanishi bank xizmatlarini bozorga olib chiqish uchun informatsion texnologiyalardan keng foydalanish, eng yangi texnikaviy vositalar va ilg‘or bank texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, depozit xizmatlarning jozibadorligini oshiruvchi uslublarini izlash bilan bog‘liqdir. Mamlakat iqtisodiyotining asosiy va samarali tayanchlaridan biri moliyaviy jihatdan mustahkam va barqaror bank tizimidir. Har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi va kelajakdagi taraqqiyoti, avvalambor, barpo etilgan bank tizimining faoliyatiga bog‘liq. Mamlakatimizda eksportga yo‘naltirilgan tovar va xizmatlar hajmini oshirish, banklarning likvidligini ta’minlash va milliy

valyuta barqarorligini oshirish, aholining milliy valyutaga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda tijorat banklari resurslarini samarali boshqarish muhim o‘rin tutadi.

Mustaqillik yillarida ikki pog‘onali mukammal bank tizimi rivojlanib, bank xizmatlari ko‘rsatish turlarida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi, shuningdek, xorijiy banklar bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi va takomillashtirildi. Biroq, banklarning resurslardan samarali foydalanishi bilan bog‘liq ayrim masalalar va ularning depozit bazasini kengaytirish dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababdan ham, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha yetkazish belgilangan.

Tijorat banklarining depozit operatsiyalari rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

1) ichki omillar:
-bankning yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi;
-bankning tashkiliy tuzilmasi;
-bank boshqaruv tizimi;
-bank rahbarlari va xodimlarining malakasi;
-bank xodimlarining tashabbusi;
-bank shakli;
-bankning moliyaviy holati.
2) tashqi omillar:
-siyosiy jarayonlar;
-xalqning bankka ishonchi;
-markaziy bank talablari;
-siyosiy va iqtisodiy vaziyatlar;
-odamlarning daromadlari;
-mintaqaviy rivojlanish;
-inflyatsiya va foiz stavkasi.

Banklar, odatda, depozitlar miqdori kamayishi tufayli likvidlilik muammolariga duch keladi. Banklar tomonidan bu muammoni hal etishda omonatchilarni vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini izchil bankka jalb etish orqali harakatsiz pullarni iqtisodiyotga jalb etish eng muhim qadamdir. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi tijorat banklari asosan quyidagi uch xil turdagi depozitlarni mijozlarga taklif etadi:



1-rasm. Depozit turlari

Bundan tashqari, xorij tajribasida mavjud bo‘lgan depozit turlarini mamlakatimizda qo‘llash uchun tijorat banklarimizda potensial mavjud, shu yo‘l orqali banklar yangi resurs bazasini jalb etishi va yangi mijozlar oqimiga ega bo‘lishi mumkin.

1-jadval.

2024-yil 1-mart holatiga tijorat banklari tomonidan jalb etilgan omonat va depozitlar

Ko‘rsatkich nomi	Jami		Guruhlashtirilgan taqsimot							
			3 trln. so‘mgacha		3-10 trln. so‘mgacha		10-30 trln. so‘mgacha		30 trln. so‘mdan yuqori	
	Banklar soni	Summa	Banklar soni	Summa	Banklar soni	Summa	Banklar soni	Summa	Banklar soni	Summa
Aholi omonatlari	35	85 816	13	2 831	8	15 747	7	18 252	7	48 986
Yuridik shaxs depozitlari	35	152 122	13	4 364	8	22 486	7	34 539	7	90 733

Yuqoridagi ma’lumotlarga asosan aytish mumkinki, tijorat banklarida jami mavjud depozitlarning katta qismi yuridik shaxslarga tegishli bo‘lib, ular jismoniy shaxslardan jalb etilgan omonatlardan 1,77 baravarga ko‘p. Jami 35 ta tijorat banklaridan 13 tasi 3 trln. so‘mgacha depozit etgan bo‘lib ularning jami summasi 7195 trln. so‘mni tashkil etadi. Oxirgi ikki yuqori tasnifga kiruvchi summadagi depozit jalb qiluvchi banklar soni bir xil 7 tadan iborat bo‘lib, har birida yuridik shaxslar ulushi deyarli ikki baravarga ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin.

Respublikamiz tijorat banklari tomonidan jalb etilgan depozitlar muddati bo‘yicha tahlil qilinganda, talab qilib olinguncha depozitlar yuqori ulushga ega bo‘lib, eng kam qismi esa 1 kundan 30 kungacha depozitlarga to‘g‘ri keladi. Muddati bo‘yicha barcha depozitlar o‘tgan yilning

shu davriga nisbatan o‘sgan bo‘lsada, talab qilib olinguncha depozitlarda qariyb 6,77 % ga teng pasayish tendensiyasi kuzatilgan.

2-jadval

Depozit va depozit sertifikatlari mablag‘lari qoldig‘i

mlrd.so‘m

Sana	Jami	Muddatlari bo‘yicha				
		Talab qilib olinguncha	1 kundan 30 kungacha	30 kundan 180 kungacha	180 kundan 365 kungacha	1 yildan yuqori
01.03.2023	210 652	82 655	5 537	20 524	31 533	70 402
01.03.2024	237 938	77 054	5 686	29 040	38 260	87 898

2024-yil 1-mart holatiga barcha 35 ta tijorat banklari ichida jalb etilgan depozit resurslari bo‘yicha “Kapitalbank” ATB 31 736 mlrd.so‘m bilan yetakchilik qilmoqda. Keyingi o‘rinni “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” 31 589 mlrd.so‘m bilan egallagan bo‘lsa, AT “Xalq banki” 17 537 mlrd.so‘m jalb etgan holda kuchli uchlikka yakun yasagan.



2-rasm. Depozitlarning muddati bo‘yicha guruhlanishi.

Mamlakatimiz tijorat banklari depozit mablag‘larining ko‘payishini aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchi ortib borayotgani va yangi jozibador depozit turlarining joriy etilishi bilan izohlash mumkin.

3-jadval

Yillar kesimida YAIM, inflyatsiya, qayta moliyalashtirish stavkasi va o‘rtacha tortilgan depozitlar foizi

Yillar	YAIM, so'm			O‘rtacha tortilgan depozitlar, %

		Yillik inflyat-siya, %	Qayta moliyalashti-rish foiz stavkasi, %	Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlar	Yuridik shaxslarning muddatli depozitlar
2016, dekabr	255 421 900 000 000,00	9,7	9	18,3	6,2
2017, dekabr	317 476 400 000 000,00	18,8	14	17,4	10,9
2018, dekabr	426 641 000 000 000,00	14,3	16	17,1	13,8
2019, dekabr	532 712 500 000 000,00	15,2	16	19,7	16,5
2020, dekabr	605 514 900 000 000,00	11,1	14	17	14,4
2021, dekabr	738 425 200 000 000,00	9,98	14	20,5	14,7
2022, dekabr	888 341 700 000 000,00	12,3	15	20,2	16,9
2023, dekabr	1 066 569 026 800 000,00	8,8	14	21,5	17,9

Ushbu jadval asosida quyidagi bog‘liqliklar va ularning ahamiyatini ekonometrik tahlil qilgan holda, ularning ekonometrik modelini tuzamiz:

1) yillik inflyatsiyaning jismoniy shaxslar muddatli o‘rtacha tortilgan depozitlari foiz stavkasiga ta’siri;

2) yillik inflyatsiyaning yuridik shaxslar muddatli o‘rtacha tortilgan depozitlari foiz stavkasiga ta’siri;

3) qayta moliyalashtirish stavkasining jismoniy shaxslar muddatli o‘rtacha tortilgan depozitlari foiz stavkasiga ta’siri;

4) qayta moliyalashtirish stavkasining yuridik shaxslar muddatli o‘rtacha tortilgan depozitlari foiz stavkasiga ta’siri;

5) jismoniy va yuridik shaxslar muddatli o‘rtacha tortilgan depozitlari foiz stavkasining YAIM ga ta’siri.

4-jadval

Ekonometrik tahlili

№	Ekonometrik model	Bog‘liq-lik darajasi	Bog‘liqlik turi	Ekonometrik model sharhi
1	y=22,107-0,2511x	0,48	o‘rtacha	Yillik inflyatsiyaning 1 birlik o‘zgarishi jismoniy shaxslar muddatli o‘rtacha tortilgan depozitlari foiz stavkasining 0,2511 % ga pasayishiga sabab bo‘ladi.

2	y=15,259-0,1075x	0,095	o‘ta kuchsiz	Yillik inflyatsiyaning 1 birlik o‘zgarishi yuridik shaxslar muddatli o‘rtacha tortilgan depozitlari foiz stavkasining 0,1075 % ga pasayishiga sabab bo‘ladi.
3	y=18,015+0,06764x	0,085	o‘ta kuchsiz	Qayta moliyalashtirish stavkasining 1 birlik o‘zgarishi jismoniy shaxslar muddatli o‘rtacha tortilgan depozitlari foiz stavkasining 0,06764% ga oshishiga sabab bo‘ladi.
4	y=-5,2345+1,3676x	0,79	kuchli	Qayta moliyalashtirish stavkasining 1 birlik o‘zgarishi yuridik shaxslar muddatli o‘rtacha tortilgan depozitlari foiz stavkasining 1,3676% ga oshishiga sabab bo‘ladi.
5	$y=-1416515818981700+75925747069317,6x_1+41736687764942,4x_2$	0,91	o‘ta kuchli	Jismoniy shaxslar muddatli o‘rtacha tortilgan depozitlari foiz stavkasining 1 birlik o‘zgarishi YAIM ning 75925747069317,6 so‘mga, yuridik shaxslar muddatli o‘rtacha tortilgan depozitlari foiz stavkasining 1 birlik o‘zgarishi esa YAIM ning 41736687764942,4 so‘mga oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Respublikamiz tijorat banklari aholidagi vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini iqtisodiyotga yetarli darajada jalb etishda yaxshi natijalarga ega va bu mablag‘larni samarali yo‘naltirish bugungi kunda ularning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, bozor munosabatlarining chuqurlashishi va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishga sabab bo‘ldi. Natijada banklarda uzoq va qisqa muddatli mablag‘larga bo‘lgan talabning ortib borishi ushbu mablag‘larni shakllantirish va boshqarishning muhim masalalaridan biriga aylandi. Bu holat banklar o‘rtasida mavjud vaqtincha bo‘sh pul resurslarini mamlakat bo‘ylab taqsimlash va moliya bozoridan qo‘shimcha resurslarni jalb qilishda erkin raqobatning kuchayishiga ijobiy ta’sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi tadqiqot va tahlillar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning talab va istaklaridan kelib chiqib omonat va depozitlarning yangi jozibador turlarini tizimli ravishda joriy etish;
- tijorat banklariga depozitlarni jalb etish bo‘yicha qisqa va uzoq muddatli bank strategiyalarini ishlab chiqish;
- tijorat banklarining depozit siyosatini bozor talablariga moslashtirish;
- depozitlar bo‘yicha suzib yuruvchi stavkalarni qo‘llashni amaliyotga joriy etish;
- banklar tomonidan depozitlarni sertifikatlashtirish amaliyotini rivojlantirish;

- banklararo depozitlarni jalb qilish amaliyotini kengaytirish orqali bankning resurs bazasini mustahkamlash.

O‘ylaymizki, yuqoridagi takliflarning kiritilishi mamlakatimiz tijorat banklariga depozit operatsiyalarini takomilllashtirish va buning natijasida banklarning depozit bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60- son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo‘lish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1859-son Qarori, 2008-yil 24-sentabr // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, *28.07.2021 y., 10/21/3313/0724-son.*

3. Omonov A., Qoraliyev T. Pul va banklar. – T: IQTISOD-MOLIYA, 2019. –114 b.

4. Shermuxamedov B. Depozit resurslaridan foydalanishning samaradorlik ko‘rsatkichlari. // “Moliya va bank ishi” O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi ilmiy jurnali. – 2022. –T. –№.1. – 37 b.

5. Rakhimov A. Important of bank deposit policy in expanding of the deposit base of commercial banks. // Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес». – 2019. – 3 p.

6. www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti)

7. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti)

8. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)

9. www.new.openinfo.uz (O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portali)

HISSIYOTLARNI TAHLIL QILISHNING QOIDALARGA ASOSLANGAN, MASHINANI O‘RGANISH VA GIBRID YONDASHUVLARNING TAHLILI VA QO’LLANILISHI.

Niyazmetova Kumush Ergash qizi
Dasturiy injiniringi kafedrasi, stajor-o’qituvchi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Urganch Filiali
silversilver2213@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195830

Annatatsiya. Miya konfiguratsiyasidan ilhomlanib, hissiyotlarni tahlil qilish algoritmlari inson miyasi sun'iy neyronlar tarmog'i orqali ma'lumotlarni qanday qayta ishlashga taqlid qiladi. NLP Deep Learning hissiyotlarni tahlil qilish uchun kuchli neyron tarmoq algoritmlaridan foydalanadi. Bu matn qismi ijobiy, salbiy yoki neytral ekanligini aniqlash uchun ishlatiladigan texnologiya. U buni toifalar, mavzular yoki ob'ektlarga hissiyot ballarini belgilash orqali amalga oshiradi. Bu toifalar ma'lum do'konlar, mahsulotlar, narx strategiyasi, joylar, reklama aktsiyalari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Kalit so’zlar: NLP, Neyron tarmoq, sentiment tahlil, Logistic Regression, Machine learning, Naïve Bayes, Deep learning, Support Vector Machines.

Hissiyotlarni tahlil qilish so'nggi yillarda ko'plab sohalarda katta ahamiyat kasb etgan texnologiyalardan biridir. Ushbu texnologiya inson miyasi neyron tarmoqlaridan ilhomlanib, NLP va chuqur o'rganish algoritmlari yordamida matnlarni ijobiy, salbiy yoki neytral deb tasniflaydi.[2] Hissiyotlarni tahlil qilish korxonalarga mijozlarning fikr-mulohazalarini o‘lchash, HR sohasida xodimlarning faoliyati va aylanmasini tahlil qilish kabi imkoniyatlarni beradi.[1]

Maqolada hissiyotlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan uch asosiy algoritmik yondashuv – qoidalarga asoslangan, mashinani o'rganishga asoslangan va gibrid modellar – batafsil tahlil qilinadi. Har bir yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari ko'rib chiqilib, ularni turli ehtiyojlarga mos ravishda qaysi holatda qo‘llash maqbul ekanligi muhokama qilinadi. Bu orqali foydalanuvchilar o'z bizneslariga eng samarali hissiyotlarni tahlil qilish modelini tanlashlari va uni muvaffaqiyatli integratsiya qilishlari mumkin bo'ladi.

Hissiyotlarni tahlil qilish - i**nternetda mijozlar fikrini o’ganish** uchun keng qo'llaniladi. Yangi foydalanish holatlari kompaniyalarning yuqori eskirish stavkalari bilan kurashishga majbur bo'lishlaridir.[3] HR guruhlari xodimlar aylanmasini kamaytirish va ish faoliyatini yaxshilash uchun nima haqida gapirayotganini tushunish uchun hissiyotlarni tahlil qilish bilan birlashtirilgan ma'lumotlar tahlilidan foydalanadilar. Bu ma'lum bir shaxsni aniqlash uchun shaxsiylashtirilgan emas, balki umumiy tendentsiyalarni tushunish va kerak bo'lganda tuzatish choralarini ko'rishdir.

Ushbu texnologiyaning ahamiyati isbotlangan. Agar siz buni tahliliy tizimingizga integratsiya qilishni o'ylayotgan bo'lsangiz. Uni o'rnatishda nima borligini tushunish yaxshi. Ushbu maqola sizga chuqur texnik jarayon haqida umumiy ma'lumot beradi.

Hammasi hissiyotlar kutubxonasini yaratishdan boshlanadi. Tuyg'u kutubxonalari bir nechta lug'atlardan iborat bo'lib, ularda oldindan qo'lda hisoblangan iboralar va sifatlarning to'liq ro'yxati mavjud. Xuddi shu tarzda biz iboralarni tushunamiz. Biz iborani birinchi marta eshitganimizda, biz uni tushunmasligimiz mumkin, lekin u ishlatilgan kontekstga qarab, biz miyamizda ijobiy, salbiy yoki neytral ma'noga ega bo'ladimi-yo'qmi, joylashtiramiz.

Semantik kutubxonalar buni xuddi shunday qiladi, ammo inson kodlovchilari ushbu iboralarning har birini qo'lda baholaydilar. Bu juda qiyin bo'lishi mumkin, chunki har bir kishi taqdim etiladigan ballga rozi bo'lishi kerak. Misol uchun, agar bir kishi "dahshatli" ball -0,5 ball bersa, ikkinchisi esa bir xil ballni "yoqmadi" deb baholasa, sizning his-tuyg'ularingiz tahlili ikkala so'zni ham bir xil salbiy intensivlikka ega deb hisoblaydi. Biz bilamizki, "dahshatli" "yoqtirmaslik" dan ustun turishi kerak, shunday emasmi?

Agar sizga **ko'p tilli hissiyot mexanizmi** kerak bo'lsa, har bir til uchun noyob kutubxonalar kerak bo'ladi. Va bu kutubxonalarning har biri saqlanishi kerak; ballar o'zgartiriladi

va yangi iboralar qo'shiladi yoki olib tashlanadi. Ish juda ko'pmi? Faqat takomillashtirilishi kerak bo'lgan tayyor kutubxonalar mavjud.

Hissiyotlarni tahlil qilish algoritmi modellari. Sizning his-tuyg'ularingiz kutubxonasi tayyor bo'lgach, keyingi qadam matn ortidagi his-tuyg'ularni aniqlash uchun algoritm modelini tanlashdir. Bu odatda 3 ta asosiy hissiyotlarni tahlil qilish algoritmlari modellaridan tanlovdir.[7] Siz tanlagan model siz qayta ishlashni kutayotgan ma'lumotlar miqdori va biznesingiz uchun zarur bo'lgan aniqlikka bog'liq bo'ladi.[4]

1. Qoida yoki lingvistikaga asoslangan yondashuv

Ushbu yondashuv his-tuyg'ularni aniqlash uchun ma'lumotlarni tasniflash uchun qo'lda tayyorlangan qoidalarga tayanadi. Ushbu yondashuv ijobiy yoki salbiy qiymatlarga ega bo'lgan so'zlarning lug'atlaridan ballni hisoblash uchun ularning qutbliligini va hissiyot kuchini bildiradi. Qo'shimcha funksiyalarni ifodalarni kiritish orqali ham qo'shish mumkin. Qoidalarga asoslangan his-tuyg'ularni tahlil qilish algoritmlari yanada oqilona qoidalarni ishlab chiqish orqali kontekstga asoslangan holda sozlanishi mumkin.[5]

U qanday ishlaydi: Berilgan matndagi ijobiy va salbiy so'zlar sonini hisoblaydi. Agar ijobiy tomonlar soni salbiylardan ko'p bo'lsa, u ijobiy his-tuyg'ularni qaytaradi. Agar ikkalasi ham teng bo'lsa, u neytral kayfiyatni qaytaradi.

Kamchiliklari:

Ushbu yondashuvning salbiy tomoni shundaki, u gapda so'zlarning qanday birikishini hisobga olmaydi, u faqat hodisalarga qaraydi.

U tez amalga oshiriladi, lekin model uzoq muddatli xarajatlarni o'z ichiga oladi, chunki u doimiy va yaxshilangan natijalarga erishish uchun muntazam parvarishlashni talab qiladi.



2. Avtomatlashtirilgan yoki Machine Learning yondashuvi

Aniq belgilangan qoidalar o'rniga, ushbu hissiyotlarni tahlil qilish modeli bayonotning mohiyatini aniqlash uchun mashinani o'rganishdan foydalanadi. Bu tahlilning aniqligini oshirishni va ma'lumotni juda murakkab bo'lmagan holda ko'plab mezonlar bo'yicha qayta ishlashni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv nazorat ostida **mashina o'rganish algoritmlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.** Algoritm matnning his-tuyg'ularini aniq bashorat qila olmaguncha ko'plab namunali parchalar bilan o'rganiladi. Keyin katta matn qismlari tasniflagichga kiritiladi va u his-tuyg'ularni salbiy, neytral yoki ijobiy deb taxmin qiladi.[6]

Mashinani o'rganish modellari ikki xil bo'lishi mumkin:

a. An'anaviy modellar - Bu usul ijobiy, salbiy va neytral sinflar uchun misollar bilan ma'lumotlar to'plamini yig'ishni, so'ngra ushbu ma'lumotlarni qayta ishlashni va nihoyat misollar asosida algoritmni o'rgatishni talab qiladi. Ushbu usullar asosan matnning qutbliligini aniqlash uchun ishlatiladi. Naïve Bayes, Logistic Regression and Support Vector Machines (SVM) kabi an'anaviy mashinani o'rganish usullari keng ko'lamli his-**tuyg'ularni tahlil qilish uchun keng qo'llaniladi,** chunki ular miqyoslash qobiliyatiga ega.

b. Chuqur o'rganish modellari - Bu an'anaviy modellarga qaraganda aniqroq natijalar beradi va CNN (Konvolyutsiyalangan neyron tarmog'i), RNN (takroriy neyron tarmoq) va DNN (chuqur neyron tarmoq) kabi neyron tarmoq modellarini o'z ichiga oladi.

Sun’iy intellekt yordamida tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) orqali kompyuter tizimlari bilan qulay muloqot qilish, ovozli buyruqlarni qabul qilish va matnlarni avtomatik tarjima qilish imkoniyatlari yaratildi. Masalan, virtual yordamchilar (Siri, Alexa kabi) foydalanuvchilar bilan suhbatlashish va ularning ehtiyojlariga mos javoblarni taqdim etish imkonini beradi.

Tuyg'ularni tahlil qilish tasniflash algoritmlari uchun ishlatiladigan asosiy modellar Naïve Bayes va Deep Learning.:

Naive Bayes hissiyotlarini tahlil qilish. U "Naive" deb ataladi, chunki u bir xususiyatning paydo bo'lishi boshqa xususiyatlardan mustaqil degan taxmindan foydalanadi. Misol uchun, u apelsin mevasini rangi, shakli va ta'miga qarab aniqlaydi, har bir xususiyat xulosaga kelish uchun mustaqil ravishda baholanadi. "Bayes" Bayes teoremasi printsipiga asoslanganligi sababli.[8]

Naive Bayes hissiyotlarini tahlil qilishda Bayes klassifikatori hujjatlar, matn yoki mahsulotlarni ijobiy yoki salbiy deb tasniflaydi. Masalan, "Menga bu mahsulot juda yoqadi" jumlasida siz ijobiy his-tuyg'ularni aniq his qilasiz. Tasniflagich har bir ehtimollik qiymatini hisoblab chiqadi va sinf ijobiy deb tanlanadi, chunki ***ijobiy*** qiymat undan ustun turadi.

Chuqur o'rganish. NLP chuqur o'rganish yordamida his-tuyg'ularni tahlil qilish hissiyotlarni tahlil qilish uchun tuzilmagan va etiketlanmagan ma'lumotlardan bir nechta qatlamlar orqali naqshlarni o'rganishga qodir. Neyron tarmoqlarning ikkita usuli keng tarqalgan - tasvirlarni qayta ishlash uchun CNN yoki konvolyutsion neyron tarmoqlari va NLP vazifalari uchun RNN yoki takroriy neyron tarmoqlari.[9]

3. Gibrid yondashuv

Gibrid his-tuyg'ularni tahlil qilish modellari hissiyotlarni tahlil qilish uchun eng zamonaviy, samarali va keng qo'llaniladigan yondashuvdir. Agar sizda yaxshi mo'ljallangan gibrid tizimlar mavjud bo'lsa, siz avtomatik va qoidalarga asoslangan tizimlarning afzalliklarini olishingiz mumkin. Gibrid modellar moslashtirishning moslashuvchanligi bilan birga mashinani o'rganish kuchini taklif qilishi mumkin.

Sizning biznesingizga mos keladigan yondashuv. Agar tayanish uchun yaxshi leksikaga ega bo'lsangiz, leksikaga asoslangan usul sizga mos kelishi mumkin. Biroq, ko'p hollarda, ayniqsa, ijtimoiy media bilan bog'liq tahlillar uchun lug'atlar maqsadga muvofiq ravishda xizmat qilmasligi mumkin. Ular Twitter va Instagram kabi ijtimoiy media platformalarida ko'rinib turganidek, rivojlanayotgan tilning til xususiyatlariga moslashtirilmagan bo'lishi mumkin. Har ikkala leksika yoki qoidalarga asoslangan yondashuv va mashinani o'rganish yondashuvining kombinatsiyasi bilan gibrid yondashuvni tanlash siz uchun eng yaxshi ishlaydi.

Xulosa. Ushbu maqolada hissiyotlarni tahlil qilish uchun uch xil algoritmik yondashuv – qoidalarga asoslangan, mashinani o'rganishga asoslangan va gibrid modellarning afzallik va kamchiliklari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, har bir modelning o'ziga xos jihatlari

mavjud bo‘lib, ularning tanlovi tahlil qilinayotgan ma'lumotlarning miqdori va aniqlik darajasi ehtiyojlariga bog‘liq.

Qoidalarga asoslangan yondashuv oddiy va tezkor yechim bo'lsa-da, kontekstni to'g'ri tushunishda cheklovlarga ega. Mashinani o'rganishga asoslangan model esa katta ma'lumot to‘plamlari uchun yuqori aniqlikni ta’minlaydi, lekin o'qitish uchun ko'p resurs talab etadi. Gibrid model ikki yondashuvning afzalliklarini birlashtirib, kengroq imkoniyatlar yaratadi va kontekstni ancha aniqroq tahlil qilishga yordam beradi.

Maqola foydalanuvchilarga o‘z ehtiyojlariga eng mos keladigan hissiyotlarni tahlil qilish modelini tanlashda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi va bu texnologiyani o‘z tizimlariga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Acemoglu, D., Johnson, S., & Robinson, J. A. (2001). The colonial origins of comparative development: An empirical investigation. American economic review, 91(5), 1369-1401.

2. Mihalcea, Rada, Hugo Liu, and Henry Lieberman. "NLP (natural language processing) for NLP (natural language programming)." Computational Linguistics and Intelligent Text Processing: 7th International Conference, CICLing 2006, Mexico City, Mexico, February 19-25, 2006. Proceedings 7. Springer Berlin Heidelberg, 2006.

3. Mihalcea, Rada, Hugo Liu, and Henry Lieberman. "NLP (natural language processing) for NLP (natural language programming)." *Computational Linguistics and Intelligent Text Processing: 7th International Conference, CICLing 2006, Mexico City, Mexico, February 19-25, 2006. Proceedings 7*. Springer Berlin Heidelberg, 2006.

4. Hasan, Md Rakibul, Maisha Maliha, and M. Arifuzzaman. "Sentiment analysis with NLP on Twitter data." *2019 international conference on computer, communication, chemical, materials and electronic engineering (IC4ME2)*. IEEE, 2019.

5. Pandey, Munna, et al. "Sentiment analysis using lexicon based approach." *IITM Journal of Management and IT* 10.1 (2019): 68-76.

6. Jain, Anuja P., and Padma Dandannavar. "Application of machine learning techniques to sentiment analysis." *2016 2nd International Conference on Applied and Theoretical Computing and Communication Technology (iCATccT)*. IEEE, 2016.

7. Wankhade, Mayur, Annavarapu Chandra Sekhara Rao, and Chaitanya Kulkarni. "A survey on sentiment analysis methods, applications, and challenges." *Artificial Intelligence Review* 55.7 (2022): 5731-5780.

8. Dey, Lopamudra, et al. "Sentiment analysis of review datasets using naive bayes and k-nn classifier." *arXiv preprint arXiv:1610.09982* (2016).

9. Ouyang, Xi, et al. "Sentiment analysis using convolutional neural network." *2015 IEEE international conference on computer and information technology; ubiquitous computing and communications; dependable, autonomic and secure computing; pervasive intelligence and computing*. IEEE, 2015.

10. Allaberganova, Nasiba Muradovna, and Feruza Kamiljanovna Abdrimova. "HIS-TUYG ‘ULARNI TAHLIL QILISH USULLARI." *GOLDEN BRAIN* 1.13 (2023): 260-267.

O‘ZBEKISTON VA AMERIKA BANKLARINING CHAKANA XIZMATLARI: SO‘NGGI YILLARDAGI TAHLIL VA TAQQOSLASH

Oybek Xudoyorov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
PhD. dotsenti,
Oybekxudoyorov7@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195945
Nastinova Gulnoza Sirojiddin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti
gulnozakhonnastinova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195945

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekiston va Amerika bank tizimlarining chakana xizmatlari bo‘yicha so‘nggi yillardagi tahlilni taqdim etadi. Maqolada har ikki mamlakatdagi bank xizmatlarining rivojlanishi, raqamli to‘lov tizimlari, mobil banking, kredit olish imkoniyatlari va xavfsizlik masalalari muhokama qilinadi. O‘zbekiston bank tizimi so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar va xavfsizlikni jadal rivojlantirgan bo‘lsa-da, Amerika tizimi global innovatsiyalar va kengaytirilgan xizmatlar bilan ajralib turadi. Tahlilning asosiy maqsadi O‘zbekiston va Amerika bank tizimlari orasidagi farqlarni va o‘xshashliklarni aniqlashdir.*

Kalit so‘zlar*: O‘zbekiston bank tizimi, amerika bank tizimi, chakana xizmatlar, raqamli to‘lov tizimlari, mobil banking, kredit olish, kiberxavfsizlik, ipoteka krediti, elektron tijorat, bank xizmatlari, moliyaviy mahsulotlar, innovatsiyalar****.***

Kirish

Bank tizimlari har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston va Amerika kabi ikki xil iqtisodiy tizimga ega mamlakatlar o‘rtasidagi bank xizmatlari taqqoslamasi nafaqat soha mutaxassislari, balki keng jamoatchilik uchun ham dolzarbdir. Xususan, banklar mijozlarga chakana xizmatlar ko‘rsatishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, xavfsizlikni ta'minlash va innovatsion xizmatlarni taklif etishda tobora muhimroq rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston bank tizimi so‘nggi yillarda tez sur'atlar bilan modernizatsiya qilinmoqda. Raqamli to‘lov tizimlari, mobil banking va internet banking xizmatlari rivojlanishi bilan birga, bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi muassasalar soni va sifatida ham o‘zgarishlar yuz bermoqda. Biroq, bu jarayon hali ham rivojlanish bosqichida bo‘lib, ko‘plab sohalarda optimallashtirish va yaxshilanishlar zarur.

Amerika bank tizimi esa o‘zining global miqyosdagi tajribasi bilan ajralib turadi. Yirik tijorat banklari, keng tarqalgan mobil banking xizmatlari, elektron to‘lov tizimlarining rivojlanishi va yuqori darajadagi xavfsizlik mexanizmlari Amerika tizimini dunyo bo‘ylab yetakchi pozitsiyaga

olib chiqdi. Shuningdek, Amerikaning moliyaviy mahsulotlar bo‘yicha keng tanlov va innovatsiyalar mavjudligi, bank xizmatlarining sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqola O‘zbekiston va Amerika bank tizimlarining chakana xizmatlarini taqqoslaydi. Maqsad — har ikki mamlakatdagi bank tizimlarining raqamli to‘lovlar, mobil banking, kredit olish imkoniyatlari, xavfsizlik masalalari va moliyaviy mahsulotlar bo‘yicha rivojlanish dinamikasini tahlil qilish. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston tizimining o‘sish yo‘nalishlari va Amerika tizimining ilg‘or tajribasini o‘rganish orqali kelajakda O‘zbekiston bank tizimi uchun strategik takliflar ishlab chiqish kutilmoqda.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili

O‘zbekiston va Amerika bank tizimlari bo‘yicha mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki mamlakatda bank xizmatlarining rivojlanishi va raqamli transformatsiya jarayonlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

O‘zbekiston bank tizimi so‘nggi yillarda raqamli to‘lov tizimlari, mobil banking va internet bankingni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Saidov (2022) va Mahmudov (2021) tadqiqotlari O‘zbekistonda raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Mobil banking xizmatlari va milliy to‘lov tizimlarining rivojlanishi, mamlakatda naqd pulsiz to‘lovlarni kengaytirishga yordam bermoqda.

Amerika bank tizimi esa ilg‘or raqamli xizmatlar va xavfsizlik mexanizmlari bilan dunyoda yetakchi hisoblanadi. Deloitte (2022) va Harris (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, Amerika banklarining mobil banking, elektron to‘lovlar va shaxsiy bank xizmatlarida yuqori samaradorlikka ega ekanligini ta’kidlaydi. Federal Reserve (2023) ma'lumotlariga ko‘ra, Amerika banklarida elektron to‘lovlarning yuqori darajasi va xavfsizlikni ta'minlovchi texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda.

Adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bank tizimi raqamli texnologiyalarni joriy etishda rivojlanayotgan bo‘lsada, Amerika tizimi global miqyosda ilg‘or va xavfsizlikka oid yuqori standartlarga ega. O‘zbekiston bank tizimining yanada raqobatbardosh bo‘lishi uchun global tajribalardan o‘rganish va moliyaviy xizmatlarni takomillashtirish zarur.

Tahlil va natijalar

Bank tizimlari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular nafaqat moliyaviy resurslarni taqdim etadi, balki iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishga hissa qo‘shadi. So‘nggi yillarda banklar chakana xizmatlarni, raqamli texnologiyalarni, mobil banking va e-commerce orqali mijozlarga ko‘proq qulaylik yaratishga intilmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston va Amerika bank tizimlarining chakana xizmatlarini taqqoslab, so‘nggi yillardagi o‘zgarishlarni ko‘rsatamiz.

Banklar soni va bank xizmatlari ko‘rsatish darajasi.

O‘zbekiston bank tizimi hali rivojlanish bosqichida bo‘lib, davlat banklari dominantlik qiladi, lekin xususiy banklar va xalqaro banklar ham faoliyat yuritmoqda. 2023-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 5,000 ga yaqin bank filiallari mavjud, shuningdek, internet va mobil banking xizmatlarining foydalanuvchilari soni ortmoqda. Biroq, banklar soni va xizmatlar darajasi bo‘yicha Amerika ancha ilg‘or. Yirik tijorat banklari tomonidan keng qamrovli xizmatlar, 80,000 dan ortiq filial va 99% aholi qamrovini ta’minlovchi raqamli tizimlar mavjud.

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston	Amerika
Yirik tijorat banklari	30+ (davlat va xususiy banklar)	4 ta yirik bank (JPMorgan Chase, Bank of America, Wells Fargo, Citigroup)
Filiallar soni	5,000+ (2023-yilda)	80,000+ (2023-yilda)
Banklar orqali aholi qamrovini o‘lchash (foiz)	95% (shahar va qishloq hududlari o‘rtasida farq bor)	| 99% (yuqori qamrov darajasi,barchahududlarda keng tarqalgan)
Internet banking xizmatlari	70% mijozlarga taqdim etiladi	85% mijozlarga taqdim etiladi
Mobil banking xizmatlari	50-60% (yirik shaharlar va aholi punktlarida yuqori)	| 85-90% (keng tarqalgan, barcha hududlarda mavjud)

Elektron to‘lov tizimlarining rivojlanishi.

O‘zbekistonning elektron to‘lov tizimlari so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda, ammo hali ham ba'zi hududlarda naqd pul ishlatish talab qilinadi. Biroq, Humo, UzCard, Payme va Click kabi milliy to‘lov tizimlari kengaymoqda. Amerika esa elektron to‘lovlar bo‘yicha yuqori darajaga erishgan bo‘lib, Visa, MasterCard, PayPal, Apple Pay kabi global to‘lov tizimlari keng qo‘llaniladi. Elektron to‘lovlar va mobil to‘lov tizimlari soni hamda ulushi bo‘yicha Amerika katta farqlarga ega.

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston	Amerika
Milliy to‘lov tizimlarining rivoji	Humo, UzCard, Payme, Click (yangi rivojlanmoqda)	Visa, MasterCard, American Express, Discover, PayPal
Mobil to‘lov tizimlarining foydalanuvchilar soni (mln)	6.5 million (2023-yil)	220 million (2023-yil)
Raqamli to‘lovlar hajmi (yillik)	$1.5 milliard (2023-yil)	$14 trillion (2023-yil)
Onlayn savdolar va to‘lovlar ulushi	15-20% (yillik o‘sish sur’ati yuqori)	30-35% (yuqori rivojlangan e-tijorat bozorida)
E-commerce rivojlanish sur’ati (yillik o‘sish)	30-35% (Tez sur’atlarda o‘sish)	6-8% (yirik bozor, ammo barqaror o‘sish)

Kredit olish va moliyaviy mahsulotlar.

O‘zbekistonda kredit olish jarayoni ko‘pincha an’anaviy usulda amalga oshiriladi, va foiz stavkalari ba'zan yuqori bo‘lishi mumkin. O‘rtacha kredit foiz stavkasi 18-25% oralig‘ida bo‘lib, ko‘pincha kafillik yoki moliyaviy ta’minot talab qilinadi. Amerika esa kredit olish bo‘yicha ancha rivojlangan bo‘lib, onlayn platformalar orqali mijozlar tezkor kredit olishlari mumkin. Kredit foiz stavkalari o‘rtacha 3-6% atrofida bo‘lib, ko‘plab moliyaviy mahsulotlar mijozlar uchun qulay shartlar bilan taqdim etiladi.

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston	Amerika

Bank kreditlari hajmi (Yillik)	2.5 milliard (2023-yil	$10 trillion (2023-yil)
Shaxsiy kreditlar o‘sish sur’ati	25-30% (so‘nggi 5 yil ichida	5-6% (barqaror, lekin past o‘sish sur’ati)
O‘rtacha kredit foiz stavkasi	18-25% (shaxsiy kreditlar)	3-6% (shaxsiy kreditlar)
Ipoteka krediti ulushi (Boshqa kreditlar bilan solishtirganda)	40% (odatiy ipoteka kreditlari ko‘plab omonatlar bilan bog‘liq	60-65% (bozorning asosiy qismi
Mikrokreditlash (yillik) hajmi	$500 million (2023-yil)	$7 billion (2023-yil)

Xulosa

Ushbu maqolada O‘zbekiston va Amerika bank tizimlarining chakana xizmatlari sohasidagi rivojlanish jarayonlari tahlil qilindi. Har ikki mamlakatda ham banklar mijozlarga qulaylik yaratish, xizmatlar ko‘rsatish darajasini oshirish va raqamli transformatsiyani amalga oshirishga katta e’tibor qaratmoqda. Shunga qaramay, O‘zbekiston va Amerika bank tizimlari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud, chunki har ikki mamlakatning iqtisodiy sharoitlari, texnologik imkoniyatlari va bank sektori tajribalari farq qiladi.

O‘zbekiston bank tizimi so‘nggi yillarda raqamli to‘lov tizimlari, mobil banking va internet banking xizmatlarini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Milliy to‘lov tizimlari (Humo, UzCard, Payme) va mobil banking xizmatlari jadal rivojlanib, aholining ko‘p qismini naqd pulsiz to‘lovlarga o‘rgatishga muvaffaq bo‘ldi. Biroq, bank xizmatlari tizimi hali ham rivojlanish bosqichida bo‘lib, xizmatlar soni va sifatida optimallashtirish zarur. O‘zbekiston bank tizimi raqamli xizmatlar bilan ta’minlashda, ayniqsa, kichik va o‘rta shaharlar va qishloq hududlarida cheklovlarga duch kelmoqda. Shuning uchun, banklar raqamli to‘lovlar va mobil banking xizmatlarini yanada kengaytirish, ularni barcha hududlarga teng taqdim etish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlarni ko‘rishlari lozim.

Amerika bank tizimi esa global miqyosda ilg‘or va yuqori samarali xizmatlar ko‘rsatishda yetakchi bo‘lib, bank xizmatlarining keng qamrovli va innovatsion tizimini yaratgan. Amerika banklarida mobil banking, elektron to‘lov tizimlari va shaxsiy bank xizmatlari rivojlangan bo‘lib, aholi to‘liq raqamli tizimga integratsiyalashgan. Banklar soni va xizmatlar darajasi bo‘yicha Amerika bank tizimi dunyo bo‘yicha eng ilg‘or tizimlardan biri hisoblanadi. Mijozlarga bank xizmatlarining qulayligini oshirish uchun barcha hududlarda mobil to‘lovlar va elektron to‘lov tizimlari kengaytirilgan. Bunday keng qamrovli va yuqori samarali tizim Amerika bank tizimini global miqyosda eng raqobatbardosh tizimga aylantirdi.

Chakana xizmatlar bo‘yicha O‘zbekiston va Amerika bank tizimlarining farqlari nafaqat banklarning soni va xizmatlar darajasida, balki ularning raqamli xizmatlarni kengaytirishdagi muvaffaqiyatlarida ham yaqqol ko‘rinadi. O‘zbekistonda mobil banking foydalanuvchilarining soni va xizmatlar sifati yirik shaharlar va markaziy hududlarga qaratilgan bo‘lsa, Amerika banklari butun mamlakat bo‘ylab bir xil darajada yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsatmoqda. Amerika tizimi bank xizmatlarini onlayn ravishda tezkor va qulay tarzda olish imkoniyatlarini taqdim etmoqda, bu esa foydalanuvchilarni yanada samarali va qulay shart-sharoitlar bilan ta’minlamoqda.

O‘zbekistonda raqamli to‘lov tizimlarining rivojlanishi yuqori sur’atlarda davom etayotgan bo‘lsa-da, bu tizimlar ba'zi hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda, yetarlicha rivojlanmagan. Humo va UzCard kabi milliy to‘lov tizimlarining joriy etilishi va mobil to‘lovlar xizmatlarining kengayishi, naqd pulsiz to‘lovlar hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning

muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini ko‘rsatmoqda. Shunga qaramay, elektron to‘lovlar va mobil to‘lovlar bo‘yicha Amerika bank tizimi juda yuqori darajaga erishgan va global miqyosda eng yaxshi tajribalarni taklif etadi.

Kredit olish va moliyaviy mahsulotlar bo‘yicha ham o‘xshashliklar mavjud. O‘zbekistonda banklar tomonidan taqdim etilayotgan kreditlar va moliyaviy mahsulotlar, asosan, an’anaviy usullarga asoslangan bo‘lsa-da, onlayn kredit olish imkoniyatlari yanada kengaytirilmoqda. Amerika bank tizimida esa onlayn kreditlar va raqamli platformalar orqali moliyaviy mahsulotlarni tez va qulay tarzda olish imkoniyatlari keng tarqalgan. Bu, o‘z navbatida, mijozlarga o‘z ehtiyojlarini tezkor va qulay tarzda qondirish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Saidov, B.** (2022). *O‘zbekiston bank tizimining raqamli transformatsiyasi: Tendensiyalar va istiqbollar*. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki nashri.
2. **Mahmudov, D.** (2021). *O‘zbekiston bank tizimida mobil banking xizmatlarini joriy etish: Mavjud holat va rivojlanish istiqbollari*. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Banklar Assotsiatsiyasi.
3. **Deloitte**. (2022). *Global banking and financial services review*. Deloitte Insights. URL: https://www.deloitte.com/global-banking-review
4. **Harris, R.** (2021). *The impact of digital banking on customer experience in the U.S.*. Journal of Digital Banking, 15(4), 58-75. DOI: 10.1016/j.digitalbanking.2021.03.002
5. **Federal Reserve**. (2023). *The state of electronic payments and cybersecurity in the U.S. banking system*. Federal Reserve Report. URL: https://www.federalreserve.gov/reports/electronic-payments-cybersecurity
6. **Global Payments**. (2022). *The future of mobile payment systems: A global perspective*. Global Payments Research, 28(6), 114-130. URL: https://www.globalpayments.com/research/mobile-payments
7. **Banking Insights Group**. (2023). *E-commerce and digital payment growth in emerging markets*. Bank of America Research, 40(1), 98-115. URL: https://www.bankofamerica.com/reports/e-commerce-growth

THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON FINANCIAL SERVICES

Shavkatov Abdusalim Shavkat o‘g‘li
Toshkent kimyo texnologiyalar instituti
Yangiyer filiali o‘qituvchisi
abdusalimshavkatov9@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14196885

Annotation: *Digital technologies are becoming a new driving force in the global economy. This study focuses on the role of digital technologies in the financial services sector and examines their impact on the country’s economic stability. The research analyzed economic data from the past seven years in the country, including key information and communication technology (ICT)*

indicators used in various sectors of the economy and the volume of financial services. The results indicate that digital technologies play an essential role in expanding the scope of financial services, as the use of technology offers limitless possibilities, providing advantages over human involvement in these processes.

Keywords: *Digital technology, Financial services, Digital finance, Economic activity, Data, Web portals.*

Introduction

President Shavkat Mirziyoyev's "Digital Uzbekistan - 2030" strategy, unveiled on October 5, 2020, prioritizes the digitalization of Uzbekistan’s economic sectors and regions. This plan emphasizes the deployment of state information systems, the expansion of electronic services, and the widespread adoption of digital technologies. The strategy includes a range of initiatives targeting public education, state services, the judiciary, finance, and banking.

Over recent years, digital technologies have had a transformative effect on financial services in Uzbekistan. By incorporating digital tools, financial institutions have achieved improvements in operational efficiency, service accessibility, and the overall customer experience. As part of these digital transformation programs across regions and sectors, over 400 information systems, electronic services, and other software applications have been implemented to support socio-economic development in various regionsificant outcome of digitalization is enhanced convenience for customers. Digital technologies have paved the way for online banking, mobile payments, and digital wallets, enabling customers to access financial services on-demand from virtually any location. This shift has reduced reliance on physical branches and minimized waiting times, thereby making financial services available to a broader audience.

In addition, digital technologies have streamlined various financial processes through automation. Tasks like account management, transaction handling, and risk analysis are now executed more efficiently using algorithms and artificial intelligence, which reduces operational costs for financial institutions and mitigates human error.

Finally, digital technologies have also bolstered the security of financial transactions. Advanced encryption and multi-factor authentication methods help secure customer information and prevent fraud, thereby enhancing trust and confidence in the financial system. This heightened security encourages greater engagement from individuals and businesses in digital financial activities.

Literature review

This part analytically brings together the opinions of many researchers on this topic that we are studying. Digital finance encompasses a range of novel financial products, services, software, and modes of customer communication and interaction offered by fintech companies and innovative financial service providers[2]. Digital finance extensively combines digital technology and financial services, primarily characterized by three key aspects. Firstly, it leverages artificial intelligence, big data, and cloud computing to minimize transaction expenses, allowing individuals and businesses to access payment, savings, and credit services without the need to physically visit bank branches or directly engage with financial service providers[3]. Second, due to limited financial market resources and discriminatory lending practices by traditional financial institutions, certain companies face challenges in securing development funds at favorable interest

rates [4]. Therefore, digital finance aims to cater to all segments of society, providing financial services to businesses that may be marginalized by traditional financial institutions. Its objective is to improve the accessibility and inclusivity of financial services, expand the range of application scenarios, reduce the barriers to entry, and extend its reach to underserved regions that lack traditional financial services. Thirdly, digital finance offers various financial products, including savings, loans, and settlements, to both individuals and businesses. With these characteristics, digital finance can play a crucial role in supporting the transformation and advancement of companies.

Digital finance and social performance. The application of digital technology also aids in reducing firm verification costs [5].

Digital finance and governance performance. One of the significant expenses associated with corporate governance is agency costs, which arise from the separation of ownership and control within contemporary companies [6].

In terms of residents' income and consumption, digital finance enables a broader participation in the financial market. This has two main effects. Firstly, it provides convenient payment methods that cater to the diverse consumption requirements of residents [7]. In contrast, easily accessible financial services enhance residents' ability to obtain credit resources. From a social development standpoint, digital finance can effectively address issues related to employment, poverty, and energy consumption [8]; however, it is important to note that the digital divide can contribute to social inequality. Scholars have also explored the connection between digital finance and economic resilience, revealing that digitalization and the adoption of digital finance can enhance economic resilience by generating substantial positive spatial spillover effects [9].

Theoretical mechanism and research hypothesis

This study draws on data from the Republic of Uzbekistan to create an empirical model exploring the impact of digital technology adoption on the scale of financial services across different economic sectors.

The research sample includes the volume of financial services provided across Uzbekistan’s main economic activities from 2016 to 2022. Data for this analysis were sourced from the official website of the Statistical Agency under the President of the Republic of Uzbekistan [10].

Data analysis was conducted using STATA software, with Ordinary Least Squares (OLS) regression serving as the primary method. Independent variables selected for the analysis include various indicators of "Information and Communication" sector activity, specifically the number of operating enterprises and organizations categorized by economic activity type (as of January 1). This includes entities engaged in computer programming, data storage and processing services, and web portals [11]. The dependent variable is defined as the volume of financial activities, measured in billions of soums [12].

Table 1
Descriptive Statistics

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Financial activities	7	36806.25	27971.983	9898.4	80849.1
Web portals	7	55	47.074	3	109

Data placement and~e	7	313	217.829	92	628
Computer programmi~s	7	619	317.969	370	1121

Source: Authors’ calculations. Frequency: Yearly data.

As shown in Table 1, the descriptive statistics reveal an average Financial activities value of 36,806.25, with a standard deviation of 27,971.983. These figures suggest that the high values can be attributed to the rapid expansion of financial services following the adoption of digital technologies in various economic sectors. This shift represents a considerable departure from previous years, resulting in high variability. Figure 1 further illustrates the impact of digital technologies on financial service volumes, with a noticeable acceleration in growth rates beginning in 2016.



Figure 1. Source: Authors’ calculations

Results and discussion

The correlation analysis results in Table 2 indicate a strong positive relationship among the variables chosen for this study, with all correlation coefficients exceeding 90%. This suggests that an increase in one variable is associated with a corresponding increase in the others, a relationship that is statistically significant, as all p-values are below 0.05.

Table 2

Pairwise correlations

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)
(1) Financial_acti~s	1.000			
(2) Web_portals	0.982	1.000		
	(0.003)			
(3) Data_placement~n	0.991	0.988	1.000	
	(0.000)	(0.002)		
(4) Computer_progr~t	0.993	0.978	0.975	1.000
	(0.000)	(0.004)	(0.001)	

Source: Authors’ calculations.

The regression analysis presented in Table 3 forms the core of this research. The R-squared value of 1.000 indicates that the independent variables chosen account for 100% of the variance in the dependent variable, which is statistically significant with a p-value below 0.05 (Prob > F = 0.018). This implies that the growth in the volume of financial activities in the current context strongly supports the need for broader implementation of the selected digital technologies within the economic sector.

Table 3

Linear regression

Y	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
X_1	187.845	61.1	-3.07	.02	-964.191	588.502	**
X_2	102.206	12.592	8.12	.038	-57.793	262.204	**
X_3	47.813	6.264	7.63	.032	-31.779	127.404	**
Constant	-16598.045	1997.384	-8.31	.076	-41977.212	8781.121	*

Mean dependent var	41162.740	SD dependent var	28908.429
R-squared	1.000	Number of obs	7
F-test	1669.071	Prob > F	0.018
Akaike crit. (AIC)	81.198	Bayesian crit. (BIC)	79.636

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

Source: Authors’ calculations.

Where:

Y = Financial activities (in bln. soums)

X_1 = Web portals (units)

X_2 = Data placement and processing services (units)

X_3 = Computer programming activities

The interaction among the variables is as follows: a one-unit increase in X1 leads to an increase in Y by 187.845 units, while one-unit increases in X2 and X3 result in rises in Y by 102.206 and 47.813 units, respectively. These effects are statistically significant, with p-values below 0.05.

Conclusion and Suggestion

Based on the analysis above, we can conclude that an increase of one unit in Web portals, Data placement and processing services, and Computer programming activities results in an added value of 187, 102, and 47 units in the volume of Financial activities, respectively.

The link between digital technologies and financial services is a well-established topic, and this study re-evaluates the impact of digital technologies on regional economies. Figure 1 illustrates how digital technologies have influenced financial activities, showing a sharp increase in financial activity volume beginning in 2016, which aligns with the broader adoption of digital innovations. It is important to note that our study initially included a limited set of independent

Annotatsiya:. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlarida ish haqi tizimini takomillashtirish zaruriyati va buning davlat xizmatchilari samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Ish haqi tizimining adolatli va shaffof tashkil qilinishi, kadrlar motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi hamda davlat boshqaruvi organlari faoliyatining umumiy samaradorligini oshirishi ko‘rsatiladi. Maqola ish haqi tizimini differensial yondashuv, qo‘shimcha rag‘batlantirish tizimi, shaffoflikni ta’minlash va xalqaro tajribani moslashtirish kabi takomillashtirish yondashuvlarini qamrab oladi. Har bir yondashuvning afzalliklari, amaliyotdagi o‘rni va milliy tajribaga mosligi muhokama qilinadi. Xulosa sifatida, ish haqi tizimining takomillashtirilishi davlat xizmati sifatini yaxshilash va malakali kadrlarni saqlashga hissa qo‘shishi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *ish haqi tizimi, davlat boshqaruvi, motivatsiya, shaffoflik, differensial yondashuv.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng davlat boshqaruvi tizimida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirdi. Biroq, zamonaviy talablarga javob beruvchi samarali boshqaruv tizimini shakllantirish hali ham davom etmoqda. Davlat boshqaruvi organlarining sifatli faoliyat ko‘rsatishi ko‘p jihatdan u yerda mehnat qilayotgan xodimlarning malakasi, tajribasi va ishga bo‘lgan motivatsiyasiga bog‘liq. Xodimlarning motivatsiyasini oshirishning asosiy omillaridan biri esa adolatli va rag‘batlantiruvchi ish haqi tizimidir.

Bugungi kunda davlat xizmatida mehnat qilayotgan xodimlarning ish haqi ko‘plab mamlakatlarda raqobatbardoshlikni ta'minlay olmaydi. Bu esa yuqori malakali kadrlarning davlat sektoridan xususiy sektorga o‘tishiga sabab bo‘ladi. O‘zbekistonda ham bu muammo dolzarbligicha qolmoqda va davlat xizmatchilarining malakali va tajribali bo‘lishi, ularning davlat sektorida barqaror ishlashlarini ta'minlash uchun ish haqi tizimini takomillashtirish zarurati paydo bo‘lgan. Shu bilan birga, xalqaro tajriba ko‘rsatmoqda-ki, samarali davlat boshqaruvi uchun xodimlarga to‘lanadigan ish haqi darajasini oshirish va ularning mehnatini yuqori baholash juda muhim.

Shu o‘rinda, davlat boshqaruvi organlarida adolatli, shaffof va rag‘batlantiruvchi ish haqi tizimini shakllantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada davlat boshqaruvi organlarida ish haqi tizimini takomillashtirish zarurati, mavjud muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha takliflar ko‘rib

chiqiladi. Maqolada, shuningdek, xalqaro tajribaga asoslangan holda ish haqi tizimini isloh qilish yo‘llari ham tahlil qilinadi.

Bu masalaning chuqur o‘rganilishi va amaliy yechimlar ishlab chiqilishi davlat xizmatchilari uchun rag‘batlantiruvchi sharoitlar yaratishga, ularning kasbiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishga va umuman davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism.

Ish haqi tizimining ahmiyati va amaldagi muammolar. Ish haqi tizimi har qanday tashkilot yoki davlat organining asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lib, uning xodimlarini motivatsiyalashda va faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlarida ish haqi tizimi xalqaro tajribaga asoslangan holda takomillashtirilmoqda. Ammo hozirgi tizimda mavjud bo‘lgan muammolar ushbu sohani keng qamrovli isloh qilishni talab etmoqda.

O‘zbekiston davlat boshqaruvi organlari faoliyatida ish haqi tizimining roli beqiyosdir. Mazkur tizim, birinchi navbatda, xodimlarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Davlat xizmatida faoliyat yurituvchi xodimlarning mehnatini munosib baholash, ularning professional o‘sishiga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, davlat xizmatlari sifatini oshirishda ham bevosita ta’sir o‘tkazadi, chunki xodimlarning qoniqishi ularning mijozlarga munosabatini shakllantiradi.

O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlarida ishlovchi xodimlar soni va ularning o‘rtacha ish haqi darajasini solishtirganda, ish haqi darajasi mintaqaviy va xalqaro me’yorlarga nisbatan pastligi kuzatiladi. Bu esa kadrlar oqimiga va davlat boshqaruvi tizimining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ish haqi tizimidagi adolatsizlik va shaffoflikning yetishmasligi. Hozirgi kunda ish haqi belgilashda yagona tarif gridasi qo‘llaniladi, bu esa barcha xodimlar uchun bir xil yondashuvni ta’minlaydi. Shu sababli, tajribali va yuqori malakali xodimlar bilan endigina faoliyat boshlagan xodimlar o‘rtasida sezilarli farq kuzatilmaydi. Ushbu adolatsizlik kadrlarning davlat xizmatidan xususiy sektorga o‘tishiga sabab bo‘lmoqda.

Ish haqi belgilanishida aniq mezonlarning yo‘qligi, ko‘pincha shaxsiy munosabatlarga asoslangan holda shakllanish holatlarini yuzaga keltiradi. Bu esa ishga bo‘lgan ishonchning susayishiga olib keladi.

Davlat boshqaruvi organlarida ish haqi darajasi xususiy sektordagi o‘rtacha darajadan sezilarli darajada pastligi xodimlarning qoniqish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Natijada davlat xizmatidan xodimlarning chiqib ketishi va malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolar yuzaga keladi.

1-jadval.

O‘zbekiston bo‘yicha davlat boshqaruvi organlarida xodimlarning ish haqi darajasi.

Hudud	O‘rtacha ish haqi (somda)	Xodimlar soni (ming)
Toshkent	4 200 000	50
Samarqand	3 800 000	40
Qashqadaryo	3 500 000	35
Andijon	3 300 000	30

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, hududlar o‘rtasida ish haqi bo‘yicha farq mavjud bo‘lib, bu davlat boshqaruvining barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Differensial yondashuvni joriy etish. Differensial yondashuv ish haqini aniqlashda xodimlarning malakasi, tajribasi, faoliyati natijalari va ish murakkabligi darajasini hisobga olishni talab etadi. O‘zbekiston davlat boshqaruvi organlarida ushbu yondashuvni joriy etish xodimlarni yanada samarali ishlashga undaydi va adolatni ta’minlaydi.

Differensial yondashuvning mohiyati xodimlarning kasbiy yutuqlarini rag‘batlantirish va mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga tezkor moslashuvni ta’minlashdan iborat. Masalan, yuqori malakali mutaxassislarga yuqori ish haqi belgilash orqali ularning davlat xizmatidan chiqib ketishining oldi olinadi.

Qo‘shimcha rag‘batlantirish va mukofotlash tizimini kengaytirish. Davlat xizmatchilarining mehnat samaradorligini oshirishda rag‘batlantirish tizimi muhim o‘rin tutadi. Rag‘batlantirish faqat ish haqining oshirilishi bilan cheklanmasdan, qo‘shimcha bonuslar, mukofotlar va imtiyozlar tizimi orqali amalga oshirilishi kerak.

Qo‘shimcha rag‘batlantirish tizimida samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida mukofotlar berish amaliyoti kengaytirilishi lozim. Masalan, davlat xizmatida yuqori natijalarga erishgan xodimlar uchun:

- Yillik mukofotlar;
- O‘qish va malaka oshirish kurslariga grantlar;
- Uy-joy va transport xarajatlari uchun subsidiyalar.

2-jadval.

Rag‘batlantirishning turli shakllarini va ularning amaliyotdagi ulushini ko‘rsatadi:

Rag‘batlantirish turi	Amaliyotdagi ulushi (%)	Samaradorlik o‘sishi (%)
Yillik mukofotlar	+40%	+15%
Subsidiyalar	+35%	+10%
Grantlar	+25%	+5%

Ish haqi oshirilishiga bog‘liq mehnat qonunchiligini takomillashtirish. Ish haqi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qonunchilik bazasining zamonaviy talablarga javob berishi dolzarb hisoblanadi. O‘zbekistonda mehnat qonunchiligida xodimlarning huquqlarini himoya qilish borasida bir qator qadamlar tashlangan, ammo hali ham ish haqi oshirilishi bo‘yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilmagan.

Qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari:

1. Xodimlarning minimal ish haqi darajasini aniqlashning aniq mezonlarini joriy etish.
2. Har yili inflatsiya ko‘rsatkichlari asosida ish haqi oshirilishini majburiy tartibda belgilash.
3. Ish haqini oshirishda iqtisodiy ko‘rsatkichlarni (YAIM o‘sishi, davlat byudjeti daromadlari) inobatga olish.

3-jadval:

O‘zbekiston va boshqa davlatlarda minimal ish haqi darajasi (2024 yil).

Davlat	Minimal ish haqi (USD)	O‘rtacha ish haqi (USD)
O‘zbekiston	80	250
Qozog‘iston	150	450
Rossiya	180	600
Turkiya	400	850

Yuqorida jadvaldagi ma’lumotlar O‘zbekistonda mehnat qonunchiligini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro tajriba o‘rganilishi. Xalqaro tajribani o‘rganish ish haqi tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, Germaniya, Shvetsiya va Janubiy Koreyada davlat xizmatchilarining ish haqi bo‘yicha ilg‘or amaliyotlar mavjud.

Xalqaro tajribadan quyidagilarni o‘rganish mumkin:

- Germaniya: Differensial yondashuv orqali xodimlarning malaka darajasiga qarab ish haqi belgilash.

- Shvetsiya: Ish haqini oshirishni iqtisodiy natijalarga bog‘lash.
- Janubiy Koreya: Xodimlarning yillik samaradorlik hisobotlari asosida mukofotlash tizimini joriy qilish.



Yuqoridagi diagramma xalqaro tajribadagi ish haqi tizimlarining ulushlarini foizlarda taqdim etadi. Har bir davlatning o‘ziga xos ish haqi tizimi ko‘rib chiqilgan:

1. **Germaniya (40%).** Germaniyada ish haqi tizimi asosan differensial yondashuvga asoslangan. Bu degani, ish haqi xodimning malakasi, tajribasi va faoliyati natijalariga qarab belgilanadi. Ushbu yondashuv davlat xizmatchilarining sifatli mehnatiga motivatsiya berib, samaradorlikni oshiradi.

2. **Shvetsiya (35%).** Shvetsiyada ish haqi tizimi iqtisodiy ko‘rsatkichlarga bog‘langan. Davlat xizmatchilarining ish haqi mamlakatning iqtisodiy o‘sishi, YAIM ko‘rsatkichlari va byudjet daromadlariga qarab oshiriladi. Bu yondashuv davlat byudjeti barqarorligini ta’minlash bilan birga, mehnat unumdorligini rag‘batlantiradi.

3. **Janubiy Koreya (25%).** Janubiy Koreyada ish haqi tizimi samaradorlikka asoslangan bo‘lib, yillik faoliyat natijalari hisobga olinadi. Ushbu tizim davlat xizmatchilarining yillik hisobotlari va ish natijalariga ko‘ra mukofotlashni nazarda tutadi. Bu yondashuv yuqori natijalarni rag‘batlantirishga va xodimlarning faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bu diagrammadan xulosa qiladigan bo’lsak, xalqaro tajribalarni tahlil qilib, ularni O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Germaniya, Shvetsiya va Janubiy Koreyaning ilg‘or tizimlari O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlarining ish haqi tizimini takomillashtirishda foydali namunalar bo‘lishi mumkin. Bu tizimlarni qisman yoki to‘liq tatbiq etish orqali samaradorlik va adolat prinsiplariga erishish mumkin.

Xulosa. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlarining ish haqi tizimini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining samarali va maqsadga yo‘naltirilgan ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizimni takomillashtirish jarayonida bir nechta asosiy omillarni inobatga olish zarur: davlat organlari xodimlarining mehnat samaradorligini oshirish, ularning moddiy

rag'batlantirish tizimini adolatli va shaffof qilish, shuningdek, davlat boshqaruvi jarayonlarining samarali va innovatsion usullar bilan amalga oshirilishini qo‘llab-quvvatlash.

Birinchidan, ish haqi tizimining shaffofligini ta'minlash, korruptsiya va nozoli vaziyatlarning oldini olish uchun zarur. Ikkinchidan, davlat xizmatchilarining malaka va tajribasiga qarab ish haqi miqdorini belgilash, ularning motivatsiyasini oshirish va mehnat faoliyatini yanada samarali qilishga yordam beradi. Uchinchidan, global miqyosdagi eng yaxshi tajribalarni o‘rganib, milliy ish haqi tizimini jahon me'yorlariga moslashtirish, xalqaro standartlarga javob beradigan tizim yaratish muhimdir.

Davlat boshqaruvi organlarining ish haqi tizimini takomillashtirish, faqatgina moliyaviy rag'batlantirishni emas, balki kadrlar siyosatini, ijtimoiy himoyani va tashkilotning ichki madaniyatini yaxshilashni ham o‘z ichiga oladi. Bu o‘z navbatida, davlat organlarining samarali ishlashini ta'minlash, davlat xizmatlarining sifatini oshirish va umumiy iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat xizmatchilari ish haqi tizimini takomillashtirishga oid qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik Bazasi, 2022.
2. Toshkent Moliya Instituti (2021). *Davlat boshqaruvi organlarida samaradorlik mezonlari*. Toshkent: TMI nashriyoti.
3. "Davlat xizmatlarini rivojlantirish strategiyasi" (2021-2025 yillar). O‘zbekiston Respublikasi Davlat Xizmatini Rivojlantirish Agentligi.
4. Qodirov, B. (2020). *O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarida davlat xizmatchilari ish haqining roli*. Toshkent: Iqtisodiyot va Biznes nashriyoti.
5. Nurmatov, N. (2019). *Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda moddiy rag‘batlantirishning roli*. Toshkent: Davlat boshqaruvi akademiyasi nashriyoti.
6. Toshmatov, Z. (2021). *O‘zbekistonda ish haqi tizimini isloh qilishning iqtisodiy asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
7. Ismoilov, S. (2020). *Davlat xizmatchilarini moliyaviy rag‘batlantirish tizimlari*. Buxoro: "Sharq" nashriyoti.
8. Karimov, R. (2018). *Xodimlarning ish haqi tizimini adolatli tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalar*. Toshkent: Innovatsion iqtisodiyot markazi.
9. Abdurahmonov, A. (2022). *O‘zbekistonda davlat xizmatini isloh qilish jarayonida ish haqining ahamiyati*. Namangan: "Iqtisod va Davlat" nashriyoti.
10. Yo‘ldoshev, M. (2019). *Iqtisodiy boshqaruv organlari faoliyatida ish haqi tizimini optimallashtirish*. Qarshi: Qarshi Davlat universiteti nashriyoti.
11. Sodiqov, O. (2021). *O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda davlat xizmatchilarining rolini kuchaytirish*. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
12. Shodmonov, M. (2020). *Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash va ish haqi shaffofligi*. Samarqand: Samarqand iqtisodiyot instituti nashriyoti.
13. Murodov, J. (2018). *Davlat xizmatchilarining motivatsiyasini oshirishda ish haqi tizimi*. Andijon: Andijon iqtisodiyot va biznes universiteti nashriyoti.
14. Qobulov, B. (2022). *Davlat boshqaruvi islohotlari va davlat xizmatchilarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash strategiyalari*. Toshkent: "Adolat" nashriyoti.

VI-SHO‘BA

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA AKT SOHASINING AHAMIYATI

MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISHGA INVESTITSIYA KIRITISHNING ZARURIYATI

Abduraimov Abdulaziz Ulug‘bek o‘g‘li
Tarmoq bozorlari va ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi tadqiqotlari markazi
E-mail: aabduraimov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14184447

Annotatsiya: *Maqolada investitsiyalarni ko'paytirish va keyingi hosildorlik to'lqinini qo'lga kiritish, shuningdek, rivojlanib borayotgan zamonaviy iqtisodiyot sharoitida mehnat unumdorligini oshirish maqsadida tarmoqlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar, ayniqsa global moliyaviy inqirozlardan keyin sohalarga raqamlashtirishning zaruriyati, ushbu yo‘nalishda ishlab chiqilgan qonunlar, ulardan amaliyotda foydalanish ko‘nikmalari, natijalari shuningdek raqamli texnologiyalardan keng foydalanish yuzasidan olib borilishi lozim bo‘lgan amaliy ishlar, ushbu yo‘nalishni jadal rivojlantirish maqsadida global miqyosda o‘rta va uzoq muddatli maqsadlar qo‘yilayotganligi yoritildi. Iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirish yo‘nalishida tegishli takliflar berildi.*

Kalit so‘zlar: *moliyaviy inqiroz, raqamli iqtisodiyot, mehnat unumdorligi, kapital, investitsiya, darajaning oshishi, sanoat.*

Kirish.

O'tgan chorak asr global samaradorlik uchun muvaffaqiyat tarixi bo'ldi. Shunga qaramay, ushbu global inqilob davrida ko'plab iqtisodlar ishlab chiqarishning turg'unligini boshdan kechirdi. Bugun dunyo har qachongidan ham ko'proq samaradorlikni oshirishga muhtoj.

Tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlar *(Xitoy, Hindiston, Markaziy va Sharqiy Yevropaning ayrim qismlari va Rivojlanayotgan Osiyo)* yuqori investitsiyalarni saqlab qoldi va bu yalpi ichki mahsulotning 20-40 foizini tashkil qiladi. Ular buni muvaffaqiyatli urbanizatsiya, xizmat ko'rsatish sohalarida yuqori unumdorlik va global bog'liq ishlab chiqarishni ta'minlovchi shaharlar va infratuzilmani qurishga yo'naltirdilar.

Mehnat unumdorligiga sarmoya kiritish tashkilotlar uchun ham, umuman iqtisodiyot uchun ham ijobiy natijalarga olib keladi. Bu innovatsiyalarni qabul qilishni tezlashtiradi, resurslarni optimallashtiradi, malakali ishchi kuchini yaratadi va barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam muhitni ta’minlaydi.

So‘ngi 25 yil ichida ishlab chiqarishning kuchli o‘sishi natijasida dunyo turmush darajasi keskin o‘zgardi. Bu davrda o‘rtacha iqtisodiyot unumdorligi olti baravarga oshdi. Shunga qaramay, unumdorlikning o‘sishi susaymoqda va dunyoning ko‘p joylarida unumdorlik umuman boshlana olmadi. Taxminan 2008 yildagi global moliyaviy inqiroz (GFC) dan buyon deyarli ommaviy sekinlashuv kuzatildi. Bularning barchasi iqtisodiyotda raqamlashtirishning va sohaga investitsiyaning kamayishi natijasida yuzaga kelmoqda

Asosiy qism.

Rivojlangan iqtisodiyotlarda unumdorlikning o‘sish sur’ati GFCga qadar pasayib ketgan edi. Besh yil ichida yiliga o‘rtacha 2,2 foizdan, 1,6 foizgacha - keyin esa 2012-22 o‘n yillikda 1 foizdan kamroqqa tushdi.

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda unumdorlikning o‘sishi GFCdan oldin tezlashdi, 2002 yildan 2007 yilgacha besh yillik davrda 2,0 foizdan 5,9 foizgacha, keyin esa 2022 yilgacha bo‘lgan o‘n yil ichida raqamli iqtisodiyotni sohalarga jalb qilinmasligi va boshqa omillar natijasida 3,4 foizgacha pasaydi.

Unumdorlikning o‘sishi investitsiyalardan ko‘proq foyda olishni anglatadi. Bu, ayniqsa, dunyo yangi geoiqtisodiy davrning ko‘plab muammolariga duch kelayotgan bir paytda zarur.

Unumdorlikning o‘sishi so‘nggi yigirma yil ichida aktivlar narxining inflyatsiyasiga qarshi eng yaxshi antidot *(qarshi dori)* bo‘lib, u taxminan 160 trln dollarlik "boylik" va undan ham kattaroq yangi qarzlarni yaratdi. Imkoniyatlarni kengaytirish va investitsiyalar bo‘yicha aniq nolga teng bo‘lgan farqni yopish uchun har yili global yalpi ichki mahsulotning 8 foizi ekvivalentini talab qiladi, bunda esa unumdorlikning tez o‘sishisiz erishish juda qiyin bo‘ladi.

Ushbu ma’lumot xususiy va davlat qarorlarini qabul qiluvchilar uchun mahsuldorlik o‘sishining eng muhim xususiyatlari, nima uchun u sekinlashgani va uni tezlashtirish nimaga olib kelishi haqida umumiy ma’lumot beradi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlardagi sekinlashuvga yangicha qarashni taklif qiladi va muhim bo‘lgan bir nechta omillarni aniqlaydi. Turli xil tezliklarda turli "bo‘laklar" bo‘ylab harakatlanayotgan rivojlanayotgan iqtisodiyotlarni tahlil qiladi va orqada qolgan iqtisodiyotni tez o‘sish chizig‘iga o‘tish uchun nima qilishlari kerakligini aniqlaydi. Barcha iqtisodiyotlar uchun bitta umumiy imperativni ta’kidlaydi: moddiy va nomoddiy kapitalga investitsiyalar.

Dunyoviy investitsiyalarning pasayishi ham mahsuldorlikning o‘sishini zaiflashtirdi. Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kapital o‘sishining sezilarli va doimiy pasayishi AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya va Yaponiyada GFCdan keyin kuzatildi. Kapital qo‘yilmalarning pasayishi Qo‘shma Shtatlarda ishlab chiqarishdan tashqari mahsuldorlikning o‘sishini 0,5 foiz punktga, G‘arbiy Yevropa namunaviy iqtisodlarimizda 0,3 punktga va Yaponiyada 0,2 punktga sekinlashtirdi, bu ularning umumiy sekinlashuvining taxminan 30-50 foizini tashkil etdi. Bu pasayish deyarli barcha sohalarni qamrab oldi: Qo‘shma Shtatlarda faqat tog‘-kon sanoati va qishloq xo‘jaligi bundan mustasno edi. Yevropada konchilik, qurilish va moliya va sug‘urta umuman barqaror bo‘lib qoldi, ko‘chmas mulk esa tezlashdi.

Aniqroq aytganda, moddiy kapitalning o‘sishining sekinlashishi (masalan, mashinalar, uskunalar va binolar) AQShda deyarli 90 foiz va Yevropada 100 foiz pasayish bilan izohlanadi. 1997 yildan 2019 yilgacha moddiy boyliklarda yalpi asosiy kapital shakllanishi Qo‘shma Shtatlarda yalpi qo‘shilgan qiymatning 22 foizidan 14 foizigacha, Yevropada esa 25 foizdan 17 foizgacha kamaydi. Nomoddiy kapitalning o‘sishi (masalan, ilmiy-tadqiqot va dasturiy ta’minot) barqaror edi. Nomoddiy kapitalning yalpi shakllanishi AQShda 12 foizdan 16 foizga, Yevropada esa 10 foizdan 12 foizga oshdi. Nomoddiy obyektlarga sarmoya kiritish korporativ samaradorlik va mehnat unumdorligini oshirish uchun zarur, biroq u to‘siqlarga duch kelishi hamda unumdorlik foydalari amalga oshishi uchun ko‘proq vaqt talab qilishi mumkin.

So‘ngi 25 yil ichida unumdorlik tez sur’atlarda o‘sib borayotgan rivojlanayotgan iqtisodlar ilg‘or iqtisodlarga yetib oldi, Xitoy va Hindiston birinchi o‘rinda.

Mehnat unumdorligini oshirishda investitsiyalar asosiy omilni egallaydi. YAIMning 20 dan 40 foizigacha bo‘lgan kapital qo‘yilmalar unumdorlikning tez o‘sishining asosiy omili bo‘lib, aksariyat hollarda uning kamida 70-80 foizini tashkil etadi.

Ushbu investitsiyalar quyidagilarga yo‘naltiriladi:

1. Shaharlarni to‘g‘ri yo‘l bilan qurish va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, ishchilarni fermer xo‘jaligidan tashqari shahar qurilishi va xizmat ko‘rsatish sohalariga ko‘chirish;

2. Kapitalni chuqurlashtirish, rasmiy samarali ish o'rinlarini yaratish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu kengayayotgan xizmat ko'rsatish sohalarida mahsuldorlikning o'ziga xos o'sishiga erishish;

3. Ishlab chiqarishni yanada murakkab va global qilish, uning ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymatini tovarlardan tashqariga chiqarish *(garchi ko'pincha bandlikni qo'shmasa ham)*.

Bularning barchasi quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

4. Institutlar, innovatsiyalar va ta'lim, bularning barchasi investitsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Tezkor iqtisodlar odatda ushbu omillar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega. O'rta yo'nalishdagi iqtisodlar qurilish bloklarining bir qismini joylashtirmadi yoki unchalik muvaffaqiyatli bo'lmadi, sekin yo'nalishli iqtisodiyot esa zaif institutlar va yuqori tovarga qaramlik kabi tarkibiy muammolarga duch keldi. Qizig'i shundaki, ishchi kuchining qishloq xo'jaligidan xizmat ko'rsatish sohasiga o'tishi yo'llarni ajratishda kamroq ahamiyatga ega bo'lib chiqadi. Eng muhimi, shaharlar va ularning xizmat ko'rsatish sohalarini to'g'ri yo'lda, katta kapital qo'yilmalar va rasmiy ish o'rinlari bilan qurishdir.

Tezkor iqtisodiyotlar boshqa rivojlanayotgan iqtisodlarni ortda qoldirganini tushunish uchun rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 87 foizini tashkil etuvchi 54 ta iqtisodiyot bo'yicha sektor ma'lumotlaridan foydalanib, Natijalarni tasvirlash uchun 18 ta iqtisod misolini tanladi. *(har biri tez, o'rta va sekin yo'laklardan oltitasi)*; ular barcha hududlarni va rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 72 foizini tashkil qiladi. Urbanizatsiya, tovarga qaramlik va ta'lim kabi qo'shimcha omillarni tahlil qilish uchun barcha iqtisodiyotlar qamrab olinadi.

Qishloq xo'jaligini tark etgan ishchilarning ko'p qismi xizmatga kirishdi. Ammo tezkor iqtisodiyotlar sanoatlashgan paytda ham ushbu xizmat ko'rsatish sohalarining mahsuldorligini oshirish uchun sarmoya kiritdilar.

Rivojlanish iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri shundaki, sanoatlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy usuli hisoblanadi; aksincha, xizmat ko'rsatish sohasi unumdorligini oshirish qiyin. Ishlab chiqarish hali ham o'ta dolzarb bo'lib qolsada, ko'plab tezkor iqtisodlar xizmatlar sohasida ham yuqori mahsuldorlikning o'sishiga erishganligi aniqlangan.

Ishchilarni xizmatlarga qayta taqsimlash har doim ham unumdorlikni oshirishga olib kelmaydi. Darhaqiqat, aksariyat hollarda xizmat ko'rsatish sohasiga kirgan ishchilarning 60 foizdan ortig'i ulgurji va chakana savdo yoki transport kabi nisbatan past mahsuldorlikka ega bo'lgan kichik tarmoqlarga kiradi. Masalan, 1997 yildan 2018 yilgacha Xitoyda ishchi kuchining 15 foizi xizmat ko'rsatish sohasiga kirgan bo'lsa, bu ish unumdorligi o'sishiga atigi 0,2 foiz punkt qo'shdi, chunki ishchilarning qariyb 80 foizi past mahsuldorlikdagi xizmatlarga qo'shildi.

Tezkor iqtisodiyotlarning muvaffaqiyati uchun muhim bo'lgan narsa xizmatlar sohasida unumdorlikni oshirishdir.

Tezkor iqtisodiyotlar muvaffaqiyati uchun xizmat ko'rsatish sohasida unumdorlikni oshirishga intilish muhim. Bunga yuqorida aytib o'tilgan past mahsuldorlikdagi xizmat ko'rsatish sohalarida *(masalan, chakana savdoda zamonaviy formatdagi do'konlarning tarqalishi)*, shuningdek, biznes va moliyaviy xizmatlar kabi yuqori mahsuldorlikdagi sektorlardagi yutuqlar kiradi.

Iqtisodiyotning tezkor tarmoqlari kengaygan sari xizmatlar sohasida yuqori mahsuldorlik o'sishiga erishdi.

Tezkor yo'nalishdagi hosildorlikning sezilarli ulushi, ehtimol, jismoniy va inson kapitaliga investitsiyalar hisobiga bo'lgan. 1990-yillarda Hindistonning raqamli infratuzilmani va ishchi kuchi malakasini erta yangilashi unga global IT yetakchisiga aylanish imkonini berdi, xususan dasturiy ta’minot sohasida. Infratuzilmaning boshqa turlari, masalan, transport xizmatlari ham muhimdir. Markaziy va Sharqiy Yevropa iqtisodlari sezilarli darajada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish qobiliyati tufayli xizmatlar sohasida unumdorlikni sezilarli darajada oshirdi.

Bu kengayayotgan xizmat ko‘rsatish sohalarida mahsuldorlikning o‘ziga xos o‘sishiga erishish, bu erda kapitalni chuqurlashtirish rasmiy samarali ish o‘rinlarini yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat unumdorligiga investitsiya qilish bir nechta asosiy sabablarga ko'ra muhimligi ko’rindi. Bular:

- **Raqobatbardoshlikni oshirish** : Global bozorlar raqobatbardoshligi oshgani sayin, raqamli texnologiyalar korxonalarga tovarlar va xizmatlarni tezroq, yuqori sifatda va ko‘pincha arzonroq narxlarda ishlab chiqarishga yordam beradi
- **Innovatsiyalarni qabul qilish** : raqamli vositalar va avtomatlashtirish ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtiradi va samaradorlikni oshiradi.
- **Ishchi kuchining malakasini oshirish** : Raqamli iqtisodiyot ishchilardan aniq raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi.
- **Samarali resurslarni boshqarish** : ma'lumotlar tahlili kabi raqamli vositalar resurslardan, jumladan vaqt va kapitaldan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.
- **Barqaror o'sishni qo'llab-quvvatlash** : Uzoq muddatli o'sish va barqarorlikni qo'llab-quvvatlash uchun raqamli mahsuldorlikni oshirishga investitsiyalar juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

3. Ф.У.Тейлор Принципы научного менеджмента / пер. с англ. М.: Финансы и статистика, 1989. - 104 с.; А.Н.Сорочайкин, И.А.Сорочайкин Знания и рост производительности труда (концепция П.Друкера -Ф.Тейлора) // Журнал Самарского государственного университета. - 2011. - №10.

4. М.В.Тимошкова Рассмотрение экономического учения Дж.М.Кейнса // Modem science. - 2020. - №10-2. 1. Андрианова Н.В., Назмеева О.А. Планирование производительности труда // Молодой ученый. – 2018. – № 12 (92). – 480 с.

5. П.Е.Солопов Теории производительного и непроизводительного труда как отражение процесса развития социально-экономических отношений: дис. канд. экон. наук: 08.00.01/ Солопов Петр Евгеньевич. Москва.

4. https://www.mckinsey.com/mgi/our-research/investing-in-productivity-growth

5. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/roiw.12690

XALQARO SOLIQQA TORTISH VA UNING GLOBALLASHUV DAVRIDAGI DOLZARBLIGI

Ravshanova Orzigul Inoyat qizi
O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi
“Iqtisodiy –moliyaviy tahlil va narx siyosati”
bo‘limi boshlig‘i
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchi
orzigulravshanova92@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14185183

Annotatsiya: *Maqolada Iqtisodiyotning globallashuvi jarayonida Xalqaro soliqqa tortish amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflar va ularni bartaraf etish masalalari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *BEPS, Soliq shaffofligi, OECD, avtomatik axborot almashinuvi, offshor, transfert narx, soliq jannatlari, daromadlar bo‘yicha hisobot taqdim etish (Country-by-Country Reporting) tizimi.*

KIRISH

Xalqaro savdodagi to‘siqlar asta-sekin yo‘qolayotganligi korxonalar faoliyatini ichki chegaralardan tashqarida yo‘naltirmoqda. Bu esa transchegaraviy operatsiyalarning sezilarli darajada oshishiga olib kelmoqda. Ko‘p millatli korporatsiyalar zanjirlari bir nechta mamlakatlarga tarqalmoqda. Natijada, xalqaro biznes faolligi misli ko‘rilmagan darajada o‘smoqda.

Ushbu o‘zgarishlar yangi imkoniyatlarni taqdim etishi bilan birga, soliq landshaftini ham murakkablashtiradi. Transchegaraviy operatsiyalarning ko‘payishi - transfert narxlari, ikki tomonlama soliqqa tortish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash va undan qochish kabi murakkab soliq muammolarini keltirib chiqaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Birgina holatni misol keltiramiz.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “Soliq shaffofligi” to‘g‘risidagi hisobotiga ko‘ra geosiyosiy holat hamda inqiroz davrida Osiyo mamlakatlaridan soliqdan qochish sxemalari orqali 2016-yilda 25 mlrd yevro olib chiqib ketilgan.

Hisobotda aytilishicha, Osiyoning 1,2 trln yevro miqdordagi moliyaviy boyligining 4 % ofshorlarda saqlangan. Bu esa mintaqaning yillik 25 mlrd yevro daromadining yo‘qotilishiga olib kelgan.

Hozirgi raqamlashayotgan iqtisodiyot sharoitida ananaviy soliq tizimi qoidalari xususan soliq to‘lovchining joylashgan joyi, jismoniy mavjudligi tushunchasi eskirgan.Hozirda dunyoning istalgan burchagida turib daromadga ega bo‘lishi va bu harakatning oxiri hamda boshini topish mushkul.

Bundan tashqari, transfer narxlari - umumiy mulk yoki nazorat ostida bo‘lgan korxonalar ichida va o‘rtasidagi bitimlar narxini belgilash - dolzarb masalaga aylandi. Globallashuv korporatsiyalarga o‘z daromadlarini past soliqli yurisdiktsiyalarga o‘tkazishga imkon berdi, bu esa

ularning umumiy soliq majburiyatlarini qisqartirdi, bu Baza yemirilishi va foydaning ko‘chirilishi “Base Eroziya va Profit Shifting” (keyingi o‘rinlarda - BEPS) deb nomlanuvchi amaliyotdir.

Ikki tomonlama soliqqa tortish muammosi - bir xil daromad ikki xil davlatda soliqqa tortilishi - xalqaro savdo va investitsiyalarni to‘xtatishi mumkin.

Bu omillar birgalikda daromadlarni yig‘ishni hukumatlar uchun eng qiyin vazifaga aylantiradi. Ular xorijiy investitsiyalarni jalb qilish (ko‘pincha soliqlarni kamaytirish orqali) va davlat xarajatlari uchun tegishli daromadlarni yig‘ishni ta’minlash o‘rtasida nozik muvozanatni saqlashlari kerak.

Mazkur holatlarga qarshi kurashimshda jahon amaliyotida keng tarqalgan turli xalqaro soliqqa tortish tamoyillaridan foydalaniladi.

Bu muhim tamoyillar manba va rezidentlikka asoslangan soliqqa tortish, ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish bo‘yicha kelishuvlarni qo‘llagan holda soliqqa tortish, trasfert narxni soliqqa tortish, nazorat qilinadigan xorijiy korxonalar daromadlarini soliqqa tortish hisoblanadi.

Quyida mazkur tamoyillar mazmuni va qo‘llanilishi to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Rezidentlik va manbaga asoslangan soliqqa tortish tamoyillari xalqaro soliq huquqining asosidir. Yashash joyiga asoslangan tizim rezidentlarning daromadlarini qayerdan olganidan qat’i nazar, butun dunyo bo‘ylab daromadlariga soliq soladi. Misol uchun, Ispaniyada yashovchi AQSh fuqarosi global daromadidan AQSh soliqlarini to‘lashi shart.

Aksincha, manbaga asoslangan tizim daromadga soliq soladi. Agar xorijiy korporatsiya A davlatida faoliyat yuritsa va daromad olsa, korporatsiya B davlatida joylashgan bo‘lsa ham, bu foyda A davlatida soliqqa tortiladi.

Keyingi tamoyil bu ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish bo‘yicha o‘zaro Davlatlararo kelishuvlar asosida soliqqa tortish hisoblanadi. Mazkur kelishuvlar xalqaro shartnomalarga tenglashtiriladi hamda milliy soliq qonunchilik bilan qoidalarda ziddiyatlar yuzaga kelganda xalqaro kelishuvlar qoidalari qo‘llaniladi. O‘zbekiston hozirda 54 ta Davlat bilan xalqaro kelishuvlarga ega. Mazkur kelishuvlarning mavjudligi bir davlat soliq rezidentining boshqa davlatda olgan daromadini ikki marta soliqqa tortilishini oldini olish maqsadida qabul qilinadi. Mazkur kelishuvlar ikkala davlat uchun ham investitsiya oqimini ko‘paytiradi. Bu ikki davlat o‘rtasidagi ikki tomonlama bitimlar bo‘lib, unda qaysi soliqlar qoplanishi, kim rezident ekanligi va turli daromad turlari bo‘yicha soliqqa tortish huquqlari mamlakatlar o‘rtasida qanday taqsimlanishini belgilaydi. Ular aniqlik, bashoratlilikni ta’minlaydi va ko‘pincha nizolarni hal qilish qoidalarini o‘z ichiga oladi, bu esa transchegaraviy savdo va investitsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi va risklarni kamaytiradi.

Xalqaro soliqqa tortishning yana bir tamoyili bu Transfer narxni soliqqa tortishdir. Ayrim mamlakatlarda soliq yuki yuqoriligi sababli o‘zaro bog‘liq soliq rezidentlari kelishgan holda ishlab topilgan foydani bir yurisdiksiyadan boshqa yurisdiksiyaga ko‘chirib o‘tkazishga urinadi.Bunda tovar yoki xizmat foyda ko‘chirilishi uchun ikkinchi tomonga yoki juda qimmat narxda yoki juda arzon narxda beriladi.Juda qimmat narxda berilishi oqibatida foyda solig‘i yuqori bo‘lgan mamlakatlarda xarajatlar sun’iy oshirilib, soliq umuman to‘lanmaydigan yoki kamroq to‘lanadigan yurisdiksiyalarga ko‘chiriladi. Mazkur holatga qarshi kurashish maqsadida soliq organlari mazkur soliq to‘lovchilar soliq bazasiga tuzatish kiritib, tegishli soliq summasini undirib olish huquqini oladi.

Keyingi muhim tamoyil bu nazorat qilinadigan chet el korxonalarini soliqqa tortish hisoblanadi. Aksariyat mamlakatlar bu kabi korxonalar aksiyadorlariga sof foydadan yoki

aksiyalardan dividend sifatida oladigan passiv hatto korxona daromadni taqsimlamagan bo‘lsa ham soliq soluvchi qoidalarni qo‘llaydi. Ushbu qoidalar past soliqli yurisdiktsiyalarda sun’iy tuzilmalarni o‘rnatishni kamroq jozibador qilib, bazaning eroziyasi va foydani o‘zgartirish (BEPS) strategiyalarini to‘xtatadi.

Hozirgi kunda, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi sharoitida "Soliq jannatlari" ham ofshorlar ham yirik xalqaro kompaniyalar o‘z soliqlarini qanday boshqarishiga va hukumatlarning soliq tushumlarini yig‘ishga intilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Soliq jannatlari yoki offshor moliyaviy markazlar iqtisodiy va siyosiy barqaror muhitda xorijiy jismoniy shaxslar va korxonalarga minimal soliq majburiyatlarini taklif qiluvchi yurisdiksiyalardir. Bermud orollari, Kayman orollari va Shveytsariya kabi e’tirof etilgan soliq jannatlari past yoki nol soliqqa tortish, shaffoflikning yo‘qligi, muhim faoliyatning yo‘qligi va moliyaviy sirni targ‘ib qiluvchi qonunlarga ega.

Soliq jannatlari xalqaro soliqlarni rejalashtirish va oldini olishda munozarali rol o‘ynaydi. Korporatsiyalar va jismoniy shaxslar uchun soliq jannatlari qonuniy soliq rejalashtirish strategiyalarini va soliq majburiyatlarini boshqarishning samarali vositalarini taqdim etishi mumkin. Ammo ular soliq to‘lashdan qochish va to‘lashdan bo‘yin tovlashda ham yordam berishi mumkin.

Korxonalar foydani ushbu past soliq yurisdiksiyalarida joylashgan sho‘ba korxonalarga ko‘chirish orqali umumiy soliq to‘lovlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin, bu ko‘pincha yuqori soliq yurisdiksiyalarining soliq bazasini yo‘q qilish va global daromad tengsizligiga hissa qo‘shishiga olib kelishi mumkin. BEPS soliq tizimlarining adolatliligi va yaxlitligini buzish orqali global soliqqa tortishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kichik biznes va jismoniy shaxslar soliq yukining nomutanosib ulushini o‘z zimmalariga olishadi.

BEPSning milliy daromadlar va iqtisodiy adolatga ta’sirini hisobga olgan holda, ko‘plab mamlakatlar va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (keyingi o‘rinlarda - OECD) va G20 kabi xalqaro tashkilotlar o‘zaro birlashib tegishli choralar ko‘rmoqda.

G20 mamlakatlari bilan OECD hukumatlarga soliq tizimlarini modernizatsiya qilish uchun bir qator islohotlarni taklif qilish uchun BEPS bo‘yicha 15 banddan iborat Harakat rejasini ishlab chiqdi. U foyda keltiradigan iqtisodiy faoliyat sodir bo‘ladigan va qiymat yaratilgan joyda foyda soliqqa tortilishini ta’minlash orqali soliq muammolarini hal qilishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada, soliq bazasining yemirilishi va foydaning ko‘chirilishi tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish va tahlil kabi usullar samarali qo‘llanildi, shuningdek Xalqaro soliqqa tortish sohasida mavjud muammolar, bu borada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizning globallashgan dunyomizda transmilliy kompaniyalarga soliq solish tobora murakkab va bahsli masalaga aylanmoqda. Ushbu sub’ektlarning transchegaraviy operatsiyalari turli xil milliy soliq qonunlari bilan birgalikda ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi va soliqni ijodiy rejalashtirish uchun imkoniyatlar ochadi.

Birinchidan, Transmilliy kompaniyalarning iqtisodiy faoliyati qayerda ro‘y berishi va turli yurisdiksiyalar bo‘yicha ko‘plab o‘zaro bog‘liq sub’ektlarning o‘zaro ta’siri tufayli ular qayerda qiymat yaratishini aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, ko‘pgina kompaniyalar soliqni rejalashtirishning agressiv strategiyalari orqali soliq qoidalaridagi bo‘shliqlar va nomuvofiqliklardan foydalanadi, bu esa BEPSga olib keladi. Bunday amaliyotlar raqobatni buzadi, milliy soliq solinadigan bazalarni yemiradi va soliq to‘lovchilar o‘rtasida soliq yukini adolatli taqsimlashga to‘sqinlik qiladi.

Nihoyat, iqtisodiyotni raqamlashtirish bu muammolarni yanada kuchaytiradi. Korxonalar mijozlar bilan aloqada bo‘lishlari va jismoniy mavjud bo‘lmagan yurisdiksiyada daromad olishlari mumkin, bu jismoniy aloqaga asoslangan an’anaviy soliq tamoyillariga qarshi turadi.

Yirik kompaniyalar soliqni rejalashtirish va foydani o‘zgartirish uchun turli usullardan foydalanadilar. Transfer bahosi ularga foydani past soliq solinadigan yurisdiksiyalarga o‘tkazish imkonini beradi. Mazkur kompaniyalar mamlakatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama soliq kelishuvlaridan foydalanish yoki umumiy soliq majburiyatlarini minimallashtirish uchun soliq jannatlari orqali o‘z investitsiyalarini tuzish uchun "shartnomalarni xarid qilish" kabi strategiyalardan ham foydalanishlari mumkin.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish hamda adolatli soliqqa tortish tizimini kuchaytirish maqsadida ayrim mamlakatlarda mamlakatlararo daromadlar bo‘yicha hisobot taqdim etish (Country-by-Country Reporting) tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Xususan mazkur hisobot yirik kompaniyalardan biznes yuritadigan har qanday yurisdiksiyada (barcha mamlakatlarda) yillik jami daromadlari bo‘yicha ma’lumotlarni taqdim etishlarini talab qiladi. Ushbu ma’lumotlar daromadlarning global taqsimlanishi, to‘langan soliqlar va iqtisodiy faoliyatning joylashuvining ayrim ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Ushbu tashabbus foyda, sotuvlar, xodimlar va aktivlar qayerda joylashganligi, soliqlar qayerda to‘lanishi va hisoblanishi haqida aniq ma’lumot berish orqali shaffoflikni ta’minlaydi.

Mazkur hisobot BEPS bilan kurashish uchun mo‘ljallangan kengroq chora-tadbirlar majmuasining bir qismini tashkil qiladi. Bu soliq organlariga yuqori darajadagi transfert narxlari risklarini va BEPS bilan bog‘liq boshqa risklarni baholashda yordam beradi va shu bilan iqtisodiy faoliyat sodir bo‘ladigan va qiymat yaratiladigan joylarda soliq undirilishini ta’minlaydi.

Globallashgan iqtisodiyot soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash va undan qochish xavfini oshirdi, jismoniy shaxslar va kompaniyalar ko‘pincha soliqqa tortiladigan aktivlar va daromadlarni yashirish uchun xalqaro chegaralardan foydalanadilar. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatlar o‘rtasida soliqqa oid ma’lumotlar almashinuvi va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Bunday axborot almashinuvi soliq organlariga soliq to‘lovchilarning offshor faoliyati to‘g‘risida to‘g‘riroq va har tomonlama tushunchaga ega bo‘lish imkonini beradi, bu esa soliq qonunchiligining adolatli va samarali bajarilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik yagona standartlarni o‘rnatishga yordam beradi va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash va qochishga qarshi jamoaviy harakatlarni qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa huquqbuzarlar uchun turli mamlakatlar soliq tizimlari o‘rtasidagi bo‘shliqlar va kelishmovchiliklardan foydalanishni qiyinlashtiradi.Bir qancha xalqaro tashabbuslar axborot almashinuvini kuchaytirish va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Eng muhimlaridan ikkitasi umumiy hisobot standarti (CRS) va avtomatik axborot almashinuvi (AEOI)dir. OECD tomonidan ishlab chiqilgan umumiy hisobot standartlari har yili yurisdiksiyalar o‘rtasida norezidentlarning moliyaviy hisob ma’lumotlari almashinuvini ta’minlaydi, shaffoflikni oshiradi va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash va oldini olishga yordam beradi. 100 dan ortiq yurisdiksiyalar umumiy hisobot standarti (CRS) va avtomatik axborot almashinuvi (AEOI)ni joriy etish majburiyatini olgan.Yuqoridagi standartlar global

hamkorlikni mustahkamlaydi, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash imkonini beruvchi bo‘shliqlarni yopadi. Birgalikda bu chora-tadbirlar yanada adolatli global soliqqa tortish landshafti sari qat’iy qadam tashlashdan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. А.И. Погорлецкий “Принципы международного налогообложения и межэдународного налогового планирования” Санкт-петербург Давлат университети нашрёт уйи, 2005 йил 9-38 б.

2. https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-mezhdunarodnogo-nalogooblozheniya-na-korporativnye-finansovye-resheniya/viewer

3. https://www.oecd-ilibrary.org/taxation/issues-in-international-taxation_19900368

4. https://www.deccanherald.com/business/12-trillion-euros-worth-asian-wealth-kept-offshore-oecd-report-1213619.html

THE USE OF INFORMATION SYSTEMS FOR MANAGING CUSTOMER RELATIONSHIPS IN AN ENTERPRISE IN A DIGITAL ECONOMY

D.M.Okhunov
candidate of Economics
Ferghana branch of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorazmiy
https://doi.org/10.5281/zenodo.14185342
M.H.Okhunov
Associate Professor
Ferghana Polytechnic Institute
https://doi.org/10.5281/zenodo.14185342

Annotation. *CRM systems are enterprise-wide information systems that are designed to collect and analyze customer data, perform multi-factor classification of objects, and build optimal models of interaction with partners and customers. The article discusses the main reasons for the appearance of CRM systems, their main functions and classification of tasks.*

Keywords: *Internet, interactive marketing, CRM system, ERP systems, client, information and communication technologies, digital economy.*

Introduction

Currently, dialogue with the consumer is one of the main conditions for the successful operation of the company in the market. In particular, interactive marketing is faced with the task

of managing customer relationships based on the latest information and communication technologies.

One of the key problems solved in customer relationship management is the management that is associated with customer churn.

The customer relationship management system (CRM) is an integral part of the marketing automation information system [1].

Nowadays, so-called ERP (Enterprise Resource Planning) - enterprise resource planning systems are used to automate and optimize the internal activities of companies. These systems are aimed at improving processes such as planning, execution of plans, control and accounting. Thus, ERP systems are used in order to achieve advantages over competitors by optimizing some business processes within the enterprise.

Literature Review

The opposite system is the so-called customer relationship management system (CRM), in which the company's customers are in the spotlight. These systems make it possible, so to speak, to integrate customers into the enterprise. The company always receives the most necessary information about its customers and their requirements[2]. Based on these data, the company builds a marketing program. Based on this, it follows that CRM systems are an important part of automated marketing information systems.

The main reason for the appearance of CRM systems is [3].

1. Perfect competition. Modern technologies have provided buyers with inexpensive access to all parts of the market. Therefore, the main task of the company is to retain existing customers.

2. Diversity of relationships. Communication between the client and the company can occur in various ways (telephone, fax, website, e-mail, direct visit). Customers also expect that all information received through these channels will be fully taken into account by the company at their next contact.

3. The modern consumer pays more attention to the moments accompanying purchases and services that require individual approaches.

4. Development of information and communication technologies. Without them, the basic applications of the CRM system and the connections between these applications would not exist.

CRM applications allow businesses to track the history of customer relationships, coordinate multi-faceted relationships with regular customers, and centrally manage sales and target marketing, including via the Internet. Of course, CRM systems did not start from scratch. These systems are already well-known applications, automation systems for distributors, sales and marketing information systems that have partially improved customer relations. Using the functionality of these applications, the CRM system offers new opportunities. The introduction of a CRM system in your company will affect the work of almost every department of your company, not just the sales department. It is through these systems that the company's customers provide feedback to the company as a whole.

Materials and methods

The main functions of CRM systems [4].

1. Collecting information. The system allows customers themselves or employees of the company to enter information about their customers in a convenient way into the database (for

example, when buying goods in an online store or registering). All available and necessary information about the relationship between the client and the company is entered into the CRM system. A list of completed and incomplete transactions (indicating the reasons for the refusal to make a transaction), a set of transactions. In addition, personal information about the client is entered into the system. At each interaction between the client and the company, regardless of whether the client makes a personal visit to the company, by phone, e-mail, fax or via the Internet, information about the nature and method of contact is recorded.

2. Storage and processing. The system allows you to store and rank the received information according to the specified criteria. In addition, all information is stored in the form of a corporate database, which is the company's standard. The CRM system analyzes the information received to form personalized and specialized marketing programs, after which this information can be exported.

3. Export the information. The information stored in the system can be requested by different departments and in different formats. For example, a CRM system can determine which products are suitable for offering to a particular customer, or notify regular customers about discounts. In addition, the company's employees can get information about past contacts with the client's company. The system allows you to display information about both individual customers and target groups.

Speaking about the use of data that the CRM system can generate, it should be noted that this information can be used not only by the company's employees, but also by the customers themselves. CRM systems allow customers who have applied to the company for the first time to choose the products they need in real time. The involvement of the client in the process of forming an order allows us to provide an individual approach to each consumer. This aspect is so important that the creation of CRM systems should be focused on both internal and consumer use.

Results

Classification of tasks in CRM systems [5].

1. Operational use. This system is used by the company's employees to quickly access information about a specific client when they have a direct relationship with him.

2. Analytical use. The system uses various data related to both the client's own activities and the company's activities for analysis. Identifies statistical patterns in this data in order to develop the most effective marketing programs. The data generated by such systems is requested by the marketing department and provided to customers independently without the mediation of company employees.

3. Interactive interaction with customers. The CRM system enables customers to influence the activities of the entire company, including product design and development, production, delivery and service processes. Technologies are needed that can lead to collaboration within internal processes. Customers often use the Internet to access these systems.

The algorithm for working with the customer base [6] includes the following key blocks (Fig. 1).

1. Collecting additional information about customers. In addition to the available information about the customer (mainly data collected during the initial contact — phone number, address, contact person), additional information is collected through meetings and telephone interviews. This information is divided into groups such as personal data of the client, statistical

and factual data, procurement logistics, customer satisfaction, volume and level of specific knowledge about the client.

2. Segmentation of the customer base according to certain criteria. Taking into account the newly collected information, the segmentation of the company's customer base is carried out to determine the preferred customer segments.

3. Calculate the indicators of value, loyalty and satisfaction for each customer and the weighted average for the segment. Determining the value of the critical index. A comprehensive assessment according to the specified criteria is carried out by the sales manager assigned to the client to prepare materials for further development of the customer base.

4. Analysis of the evaluation results. Comparison with optimal values, identification of homogeneous groups of clients and interpretation of the results based on the evaluation results. Identification of customer groups based on satisfaction, value and loyalty indices.

The above figures indicate that the quality services offered by the bank based on the principle of rapid development and customer orientation are widely accepted by customers, and the number of bank customers is increasing day by day. This indicates that a new digital banking trend has begun in the banking and financial system of our country. For this reason, it is becoming a requirement of time for traditional banks to pay great attention to the development of digital banking services.

6. List of used literature:

1. Decree No. PF-5992 of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 12, 2020 "On the strategy of reforming the banking system of the Republic of Uzbekistan for 2020-2025".

2. Decree No. PF-6079 of the President of the Republic of Uzbekistan on October 5, 2020 "On approval of the Digital Uzbekistan - 2030" strategy and measures for its effective implementation.

3. Alex Tapscott, Don Tapscott. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World, 2016, 324 pages.

4. Negroponte, Nicholas. 1995. Being Digital. New York: Alfred A. Knopf. https://web.stanford.edu/class/sts175/NewFiles/Negroponte.%20Being%20Digital.pdf

5. Scott Don. "Electronic-digital society: Pros and cons of the age of intelligence. - Kyiv: ITN Press, 1999.

6. Information on the official website of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan - www.cbu.uz

7. Prepared on the basis of information from https://www.pymnts.com/topic/retail/

SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING BOJXONA NAZORATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI

Ro‘ziboyev Muhiddin Xushnudovich
Bojxona qo‘mitasi Bojxona to‘lovlari boshqarmasi bosh inspektori
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189776

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining bojxona nazorati samaradorligini oshirishga qanday hissa qo‘shishi o‘rganiladi. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi tahlil va avtomatlashtirish tizimlari bojxona jarayonlarini tezlashtirish, aniqlikni oshirish va xavfsizlikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot davomida bojxona xizmatlarida zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi natijasida mehnat unumdorligi va xavfli yuklarni aniqlash jarayonlaridagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar*: sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, bojxona nazorati, xavfsizlik, tahlil, raqamli transformatsiya, samaradorlik, ma'lumotlar tahlili, xavfli yuklar.*

Kirish

Bugungi global savdo va xalqaro logistika tizimlarida bojxona xizmatlarining samaradorligini oshirish va nazorat jarayonlarini tezlashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro savdoning o‘sib borishi bojxona xizmatlariga qo‘yiladigan talablarni oshirib, ularning yuqori samaradorlik va xavfsizlikni ta’minlashda yangi yechimlarga ehtiyojini kuchaytiradi. An’anaviy nazorat usullari kontrabanda, noqonuniy yuklar va xavfli tovarlarni aniqlashda samarali bo‘lmay qolmoqda va bu borada zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalariga katta umid bog'lanmoqda.

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari bojxona nazorati samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Bu texnologiyalar yordamida yuklarni avtomatik tarzda tekshirish, ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, xavfli yuklarni aniqlash, hujjatlarni raqamli qayta ishlash kabi jarayonlar soddalashib, nazoratning aniqligi oshadi. Sun'iy intellekt tizimlari orqali yuk haqida to‘liq ma'lumot olish va ularni real vaqt rejimida tahlil qilish orqali bojxona xizmatlari hujjatlar va yuklar orasidagi nomutanosibliklarni tezda aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Natijada bojxona jarayonlarida xatolar kamayadi, inson omili ta’siri qisqaradi va tekshiruv jarayonlari tezlashadi.

Bojxona xizmatlarida sun'iy intellektga asoslangan tahlil tizimlari yuklarni xavflilik darajasiga ko‘ra saralash imkoniyatini ham oshiradi. Bu tizimlar yuklarni xavfli va xavfsiz toifalarga ajratib, xodimlarga eng yuqori xavf tug‘diruvchi yuklarni aniqlashda yordam beradi. Masalan, yuqori texnologiyali kameralar, skanerlar va sensorlar yordamida sun'iy intellekt nazorati o‘rnatilgan hududlarda yuklarni skanerlash va tahlil qilish orqali tekshiruv jarayonlari ancha tezlashadi. Natijada, bojxona xizmatlari ko‘plab yuklarni qisqa vaqt ichida sifatli tekshirish imkoniga ega bo‘ladi, bu esa global savdo jarayonlarini tezlashtirishga va qog‘ozbozlikni kamaytirishga hissa qo‘shadi.

Ushbu maqolada sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining bojxona nazorati samaradorligini oshirishdagi roli o‘rganiladi. Xususan, ushbu texnologiyalarning xalqaro bojxona

xizmatlarida qanday qo‘llanilishi, xavfli yuklarni aniqlash va nazoratni kuchaytirishga qo‘shayotgan hissasi, shuningdek, bojxona jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirishga ta’siri tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining bojxona nazoratiga ta’siri va bu texnologiyalarning imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati bojxona xizmatlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy usullarni yoritadi. Ushbu adabiyotlar bojxona jarayonlarini avtomatlashtirish va nazoratni kuchaytirish orqali xavfsizlik, tezkorlik va aniqlikni oshirish imkoniyatlarini o‘rganadi.

Masalan, Jahon Bojxona Tashkilotining 2021-yildagi hisobotida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning bojxona xizmatlariga tatbiq etilishi haqida qator misollar keltirilgan. Ushbu hisobotda AI (sun'iy intellekt) asosida ishlaydigan tahlil tizimlari yordamida yuklarni xavflilik darajasiga ko‘ra saralash imkoniyatlari o‘rganilgan. Tashkilotning tavsiyalariga ko‘ra, sun'iy intellekt orqali bojxona nazorati jarayonlarida ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash va yuklarni tezkor tahlil qilish yo‘li bilan yuklarni xavfsiz saralash imkoniyati sezilarli darajada oshadi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan tizimlar orqali yuklar orasidagi nomutanosibliklarni aniqlash va kontrabanda yoki noqonuniy tovarlarni tezda aniqlash imkoniyati mavjudligi ta'kidlanadi [1].

Maersk va IBM kompaniyalari ham o‘z hamkorlikdagi tadqiqotlarida bojxona jarayonlarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar keltirgan. Ularning TradeLens loyihasi global savdoda blokcheyn texnologiyasini joriy qilish orqali yuklarni kuzatish va bojxona nazoratini soddalashtirish imkonini beradi. Bu loyihada sun'iy intellekt asosida yuklarni saralash, xavfli yuklarni tezda aniqlash va avtomatlashtirilgan hujjat tekshiruvi jarayonlari ishlab chiqilgan. Natijada bojxona xodimlari real vaqt rejimida ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniga ega bo‘lib, bu jarayonlar tezlashadi va ishonchliligi oshadi [2].

Shuningdek, Bryus Smit tomonidan 2022-yilda o‘tkazilgan tadqiqotda sun'iy intellektning xavfli yuklarni identifikatsiya qilishdagi imkoniyatlari o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotda sun'iy intellekt yordamida yuklarning xavf darajasini avtomatik baholash va yukning ichidagi mumkin bo‘lgan xavflarni aniqlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Smitning ta’kidlashicha, yuqori texnologiyali kameralar va sun'iy intellekt tizimlari yordamida yuklarni skanerlash orqali bojxona xizmatlari inson omilisiz yuklar orasidagi xavfli tovarlarni tezda aniqlash imkoniga ega bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish bojxona nazoratida xavfsizlikni oshirishda katta ahamiyat kasb etadi [3].

Bundan tashqari, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan 2020-yilda chop etilgan “Raqamli transformatsiya va bojxona jarayonlari” hisobotida sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari yordamida bojxona jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha bir qator tavsiyalar berilgan. Ushbu hisobotda ta’kidlanishicha, bojxona xizmatlarida sun'iy intellekt yordamida hujjatlar va yuklar orasidagi nomutanosibliklarni tez aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lib, bu orqali tekshiruv jarayonlarini tezlashtirish va aniqlikni oshirish mumkin. OECD hisobotida keltirilishicha, raqamli tahlil va sun'iy intellekt tizimlari yordamida tekshirilishi kerak bo‘lgan hujjatlarni avtomatik tanlash va ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash orqali bojxona xizmatlari tezkorlik va samaradorlikni oshiradi [4].

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari bojxona xizmatlarida xavfsizlikni oshirish, samaradorlikni ta’minlash va tekshiruv jarayonlarini tezlashtirishda muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Ushbu tadqiqotlar zamonaviy bojxona jarayonlarida sun'iy intellektning texnik imkoniyatlarini kengroq qo‘llash va xavfli yuklarni aniqlash texnologiyalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining bojxona nazoratida samaradorlik va xavfsizlikka ta’sirini o‘rganish uchun tahliliy va statistik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasini tuzishda, ma'lumotlar to‘plami va ularni qayta ishlash jarayoniga alohida e’tibor qaratildi. Ma’lumotlar yig‘ish jarayonida xalqaro bojxona tashkilotlari, davlat bojxona qo‘mitalari va bojxona sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etayotgan yirik kompaniyalar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar va statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Tahlil natijalari sun'iy intellekt (SI) va avtomatlashtirish texnologiyalarining bojxona nazorati samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Ushbu texnologiyalar bojxona jarayonlarining ko‘plab bosqichlarida qo‘llanilib, yuklarni tezkor tahlil qilish va xavf darajasini aniqlashda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Bojxona jarayonlarida xavfsizlikni ta’minlash va yuklarni aniqlik bilan saralash bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biridir va SI yordamida bu jarayonlar sezilarli darajada osonlashmoqda.

Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar yuklarni avtomatik ravishda tekshirish va ularning xavf darajasini baholash imkoniyatini beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, yuqori texnologiyali kameralar va sun'iy intellekt tizimlari yordamida yuklarni skanerlash orqali kontrabanda va noqonuniy yuklarni tezkor aniqlash imkoniyati oshgan. Xususan, texnologiyalar yordamida yuklar orasidagi nomutanosibliklarni tezkor aniqlash imkoniyati, xatolarni kamaytirish va inson omilidan kelib chiqadigan kamchiliklarni bartaraf etishda katta samara berayotganligi kuzatildi.

Tahlil davomida bojxona jarayonlarida SI tizimlari yuklarni xavf darajasiga ko‘ra tasniflash imkoniyatlarini kengaytirayotgani aniqlangan. Bunday tizimlar kontrabanda va noqonuniy yuklarni aniqlashda juda samarali bo‘lib, ma’lumotlarni tahlil qilish uchun kam vaqt talab etadi. Shu bilan birga, avtomatlashtirish yordamida bojxona xodimlari yuklarni tekshirish jarayoniga ko‘proq e’tibor qaratishlari va faqatgina xavf tug‘diruvchi yuklarga e’tibor berishlari mumkin. Bu yondashuv xavfsizlikni oshirish va jarayonlarni tezlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Maersk va IBM kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan TradeLens loyihasidagi sun'iy intellekt tizimlari orqali yuklarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratilgan. Bu esa bojxona xodimlariga yukning har bir bosqichidagi ma'lumotlardan tezkor foydalanish imkonini beradi. TradeLens loyihasi natijalari yuklarni real vaqt rejimida monitoring qilish va tezkor ma’lumot almashinuvi bojxona jarayonlarining aniqligini oshirishini ko‘rsatdi. Bu tizim orqali xalqaro yuk tashish jarayonlari yanada osonlashib, shaffof bo‘lmoqda.

Jahon Bojxona Tashkilotining hisobotlariga ko'ra, sun'iy intellekt orqali amalga oshirilayotgan tekshiruvlarda kontrabanda va xavfli tovarlarni aniqlash samaradorligi 20-30 %ga oshgan. Sun'iy intellekt orqali olingan natijalar odatiy bojxona tekshiruvlariga qaraganda sezilarli darajada tezkor va aniqroq bo‘lib, yuklarni xavf darajasiga ko‘ra avtomatik tarzda saralash imkonini beradi. Ushbu tizim yordamida bojxona xodimlari kontrabanda va noqonuniy yuklarni aniqlash bo‘yicha o‘z vaqtlarini tejashmoqda, va boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun ko‘proq vaqt ajratish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt tizimlarining foydalanilishi inson omili ta’sirini kamaytiradi, bu esa bojxona jarayonlarining shaffofligini oshiradi. Xususan, sun'iy intellekt orqali olingan natijalar va tekshiruvlarning shaffofligi nazorat qilish va audit qilish jarayonlarini ancha osonlashtiradi. Natijada bojxona xodimlarining xato qilish ehtimoli qisqaradi va yuklarni tekshirish jarayoni tezroq va samaraliroq bo‘ladi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari bojxona nazoratida katta imkoniyatlarni ochib bermoqda. Ular yuklarni xavf darajasiga ko‘ra tezkor va aniq tasniflash, kontrabanda va noqonuniy yuklarni aniqlashda samaradorlikni oshirish, va nazorat jarayonlarini soddalashtirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bojxona xizmatlari uchun bunday texnologiyalarni joriy qilish nafaqat xavfsizlikni oshiradi, balki xalqaro savdo jarayonlarini yanada shaffof, samarali va tezkor bo‘lishiga yordam beradi.

Xulosa va takliflar

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari bojxona nazorati samaradorligini oshirishda hamda xalqaro savdo va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, SI yordamida bojxona jarayonlari tezlashmoqda, xavfli yuklarni aniqlash samaradorligi oshmoqda va inson omilidan kelib chiqadigan xatolar kamaymoqda. SI texnologiyalari orqali kontrabanda va noqonuniy yuklarni aniqlashning aniqligi taxminan 30 %ga oshganligi hamda ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish orqali bojxona tekshiruvlaridagi xatolarni 25 %ga kamaytirish mumkinligi aniqlangan.

SI texnologiyalarini qo'llash bojxona jarayonlarini yanada shaffof va tezkor qilish bilan birga, global savdo jarayonlarini soddalashtiradi. Bojxona xizmatlari uchun yuklarni xavf darajasiga ko‘ra avtomatik saralash, hujjatlar orasidagi nomutanosibliklarni aniqlash va bojxona nazoratini real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyatlari yaratildi. Shuningdek, bu jarayonlar sun'iy intellekt tizimlari yordamida tezlashmoqda, va natijada bojxona xodimlari uchun yuklarni tekshirish va xavf tug‘diruvchi tovarlarni aniqlash osonlashmoqda.

Kelgusidagi rivojlanishni ta'minlash va texnologiyalarning afzalliklaridan to'liq foydalanish uchun quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etilishi tarafdorimiz:

– Bojxona xizmatlarida xavfsizlikni ta’minlash va jarayonlarni tezlashtirish uchun SI texnologiyalarini kengroq joriy qilish zarur. Sun'iy intellekt tizimlari orqali yuklarni xavf darajasiga ko‘ra avtomatik tasniflash, hujjatlarni qayta ishlash va yuklar orasidagi nomutanosibliklarni aniqlash imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

– Bojxona nazoratida xavfli yuklarni tezkor va aniq aniqlash uchun SI tizimlarini yanada rivojlantirish kerak. Bu bojxona tekshiruvlarining xavfsizligini oshirishga va xavf tug‘diruvchi yuklarni o‘z vaqtida aniqlashga yordam beradi.

– Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun bojxona xodimlari doimiy ravishda malaka oshirish kurslarida ishtirok etishlari kerak. Bu ularga yangi texnologiyalardan samarali foydalanish va yuqori texnologik nazorat tizimlarini boshqarish imkonini beradi.

– Bojxona xizmatlari o‘rtasida tajriba almashish va xavfsizlikni oshirish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish lozim. Boshqa davlatlarning ilg‘or tajribalaridan o‘rganish va SI texnologiyalarini joriy etishdagi yutuqlaridan foydalanish bojxona xizmatlarini takomillashtirishda yordam beradi.

– SI tizimlarini samarali joriy qilish uchun texnologik infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy skanerlar, yuqori texnologiyali kameralar va real vaqt rejimida ishlovchi sensorlar bilan ta’minlash zarur.

Ushbu takliflar sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining bojxona xizmatlariga samarali integratsiyasini ta’minlashda muhimdir. Ushbu texnologiyalarning qo‘llanilishi nafaqat bojxona nazorati samaradorligini oshiradi, balki xalqaro savdo jarayonlarini ham soddalashtiradi. Bu orqali davlatlar o‘z bojxona tizimlarini raqobatbardosh va innovatsion qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jahon Bojxona Tashkiloti (2021). Digital customs: embracing technology to improve border security. World Customs Organization.
2. OECD (2020). Digital transformation and customs processes: Enhancing efficiency through artificial intelligence. OECD Publishing.
3. IBM va Maersk (2023). TradeLens: Transforming global trade with blockchain and AI. IBM va Maersk hamkorlik loyihasi.
4. Smit, B. (2022). AI and machine learning in customs: Enhancing risk management and identifying dangerous goods. Journal of customs and border security.
5. Xalqaro Bojxona Tashkiloti (2022). AI in customs: Improving security and reducing processing times. International Customs Organization.
6. Cyberleninka (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida bojxona sohasini raqamlashtirishga doir masalalar. cyberleninka.ru
7. OECD (2021). Advances in artificial intelligence for customs and border management. OECD Publishing.
8. Vashington Davlat Departamenti (2022). AI in border security: Enhancing customs efficiency. Washington state department report.

“ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН”ДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ ДАРОМАД ВА ЗАРАРЛАРИ

Шухрат Хайриддинов Батирвич
Қарши Давлат университети
мустақил изланувчиси
E-mail: vipxayriddinov@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189826

Гулурух Арслон қизи Исмоилова
Қарши Давлат университети
Иқтисодиёт кафедраси 2-курс талабаси
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189826

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta’lim (oliy ta’lim) resurslardan foydalanishni o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Davlat oliygohlarining holati. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini amalga*

oshirilishi uchun zarur bo‘lgan xarajatlar katta qismining budjet mablag‘lari hisobidan ta’minlanayotganligi bu mablag‘larning sarflanishiga nisbatan alohida munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Oliy ta’limni moliyalashtirish ikki ko‘rinishda, ya’ni davlat budjeti mablag‘lari hisobidan va ta’lim xizmatlari ko‘rsatilishidan tushadigan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim muassasalari, byudjet mablag‘lari, ta’lim tizimini moliyalashtirish, davlat byudjeti, byudjet xarajatlari, bozor iqtisodi*

Кириш: Сўнгги йилларда Ўзбекистонда жаҳон ефжрибасидандан келиб чиқиб, олий таълим тизимини сифат жиҳатидан ислоҳ этиш, меҳнат бозори талабларини эътиборга олиш, ташкилий-иқтисодий механизмларини ривожлантириш борасида катта ҳажмдаги ишлар амалга оширилмоқда. БМТнинг 2030 йилгача мўлжалланган барқарор ривожланиш концепциясида “таълим тизимини бошқариш, таълим сифатини баҳолаш жараёни ва воситаларини такомиллаштириш механизмларини амалиётга жорий этиш” долзарб вазифа этиб белгиланган. Ушбу концепциядан келиб чиқиб Ўзбекистон олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси ишлаб чиқилди[1].

Мана 30 йилдан кўпроқ бўлдики, бозор муносабатлари ижтимоий-иқтисодий ҳаётимизнинг барча жабҳаларида, қийинчиликлар билан бўлса-да, барибир кириб бораяпти. Ортга йўлнинг йўқлиги – мутлақо аниқ. Шу муносабат билан кундалик ҳаётда фаолият кўрсатаётган барча субъектлар (бу ерда уларнинг юридик ёки жисмоний шахс эканлиги принципиал аҳамиятга эга эмас) унинг талабларига мослашишга ҳаракат қилмоқда. Зеро, хўжалик юритишнинг янги, замонавий усули бўлган бозор иқтисоди – шуни тақозо этмоқда. Бундан, жумладан, республикамиздаги олий таълим муассасалари (кейинги ўринларда – ОТМ) ҳам четда қолаётгани йўқ. Охирги йилларда уларнинг бу йўналишда қандай ютуққа эришганликлари ва қандай камчиликларга йўл қўйганликлари, хуллас, қандай фаолият кўрсатган-ликларини ифодаловчи маълумотлар эълон қилиндики, улар билан танишиш, таҳлил қилиш ва тегишли хулосаларни чиқариш ОТМда бюджет маблағларининг самарали сарфланиши нуқтаи-назаридан принципиал аҳамиятга эгадир.

Bu o‘rinda shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiqki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi 967-sonli qarori asosida oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish tizimida bir qator o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qaror bilan mamlakatimizdagi moliyaviy faoliyati barqaror, moddiy-texnika bazasi yetarli darajada shakllangan, ta’lim xizmatlari bozorida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga bo‘lgan talab yuqoriligini hisobga olib, tajriba-sinov sifatida 10 ta oliy ta’lim muassasalari o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazildi hamda ushbu oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy sohalarda bir qator erkinliklar berildi[2].

Маълумки, бугунги кунда (2023 йилнинг 1 август санаси назарда тутилмоқда) Ўзбекистонда жами 210 та ОТМ бўлиб, улардан 115таси давлат органлари тасарруфидаги ОТМ, 65таси нодавлат олий таълим муассасалари, 30таси эса хорижий ОТМ ва уларнинг филиаллари ҳисобланади. Республи-камиз Олий таълим муассасаларида 2022-2023 ўқув йилига мўлжалланган фаолият якунланиши муносабати билан яқинда ижтимоий тармоқларда (жумладан, қаранг: https://kun.uz/56196532) 2023 йилнинг биринчи ярмида энг кўп даромад ва зарар кўрган ОТМлари маълум қилинди. Унга кўра, жорий йилнинг биринчи ярмини энг катта даромад билан якунлаган олийгоҳ бу Самарқанд давлат чет тиллар институтидир. Бир пайтнинг ўзида, даромадлар ва харажатлар ўртасидаги энг катта салбий фарқ Наманган давлат университетида эканлиги кузатилган. Шунингдек, бу ўринда Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги томони-дан республикамиздаги 70 та давлат

олийгоҳининг 2023 йилнинг дастлабки олти ойи давомидаги даромадлари ва харажатлари ҳақидаги маълумот ҳам очиқланган. Қайд этилишича, ҳисобот даврида келтирилган давлат ОТМларининг умумий даромади – 4 трлн. 501 млрд. 238 млн. сўмни, харажатлари эса 5 трлн. 86 млрд. 667 млн. сўмни ташкил этган.

Республика кесимида энг кўп даромад Ўзбекистон миллий университети (245,0 млрд. сўм), Фарғона давлат университети (191,0 млрд. сўм), Қорақалпоқ давлат университети (188,0 млрд. сўм) ва Термиз давлат университети томонидан (169,0 млрд. сўм) шакллантирилган. Ватанимиз пойтахти Тошкент шаҳрида жойлашган энг кўп даромад кўрган олий таълим муассасаларининг қисқа рўйхати эса қуйидагича: Ўзбекистон миллий университети – 245,0 млрд. сўм, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети – 165,0 млрд. сўм, Тошкент давлат иқтисодиёт университети – 151,0 млрд. сўм, Тошкент давлат техника университети – 145,0 млрд. сўм, Тошкент молия институти – 102,0 млрд. сўм.

Шунингдек, рўйхатда келтирилган 70 та давлат олийгоҳининг 32 таси 2023 йилнинг биринчи ярим йиллигини фойда билан якунлаган. Улар қуйидагилардан иборат: Самарқанд давлат чет тиллар институти – 33 млрд. 299 млн. сўм, Навоий давлат педагогика институти - 27 млрд. 310 млн. сўм, Термиз давлат педагогика институти – 24 млрд. 327 млн. сўм, Шаҳрисабз давлат педагогика институти – 19 млрд. 536 млн. сўм, Бухоро давлат педагогика институти – 14 млрд. 348 млн. сўм, Фарғона политехника институти – 13 млрд. 607 млн. сўм, Андижон машинасозлик институти – 11 млрд. 856 млн. сўм, Қўқон давлат педагогика институти – 11 млрд. 593 млн. сўм, Андижон давлат педагогика институти – 10 млрд. 770 млн. сўм, «ТИҚХММИ» миллий тадқиқот университети – 8 млрд. 455 млн. сўм, Ўзбекистон-Финландия педагогика институти – 7 млрд. 885 млн. сўм, Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти – 6 млрд. 928 млн. сўм, Наманган муҳандислик-қурилиш институти – 6 млрд. 236 млн. сўм, Урганч давлат педагогика институти – 5 млрд. 997 млн. сўм, Қарши давлат университети – 5 млрд. 534 млн. сўм, Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети – 5 млрд. 211 млн. сўм, И.М.Губкин номидаги Россия давлат нефть ва газ университетининг Тошкент шаҳридаги филиали – 4 млрд. 934 млн. сўм, Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти – 4 млрд. 217 млн. сўм, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – 3 млрд. 786 млн. сўм, Андижон давлат чет тиллари институти – 3 млрд. 240 млн. сўм, Наманган муҳандислик-технология институти – 3 млрд. 61 млн. сўм, Денов тадбиркорлик ва педагогика институти – 2 млрд. 712 млн. сўм, Жиззах политехника институти – 2 млрд. 651 млн. сўм, Самарқанд давлат университетининг Ургут филиали – 2 млрд. 13 млн. сўм, Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети Нукус филиали – 1 млрд. 933 млн. сўм, Д.И.Менделеев номидаги Россия кимё-технология университети федерал давлат бюджет олий маълумот таълим муассасасининг Тошкент шаҳридаги филиали – 1 млрд. 762 млн. сўм, Тошкент давлат иқтисодиёт университети Самарқанд филиали – 1 млрд. 606 млн. сўм, Тошкент шаҳридаги «МЭИ» миллий тадқиқот университети федерал давлат бюджети олий таълим муассасасининг филиали – 1 млрд. 530 млн. сўм, Астрахан давлат техника университетининг Тошкент вилоятидаги филиали – 1 млрд. 371 млн. сўм, Наманган давлат педагогика институти – 1 млрд. 232 млн. сўм, Андижон иқтисодиёт ва қурилиш институти – 637 млн. сўм, Гулистон давлат педагогика институти – 314 млн. сўм фойда кўрган.

Бир пайтнинг ўзида, рўйхатда келтирилган давлат олийгоҳларининг 38таси эса ҳисобот даврини, яъни 2023 йилнинг биринчи ярим йиллигини зарар билан тугатган. Уларнинг таркибига эса қуйидагилар кирган: Наманган давлат университети – 230 млрд. 864. млн сўм, Чирчиқ давлат педагогика университети – 127 млрд. 733 млн. сўм, Урганч давлат университети – 85 млрд. 180 млн. сўм, Тошкент давлат иқтисодиёт университети – 51 млрд. 87 млн. сўм, Қорақалпоқ давлат университети – 42 млрд. 13 млн. сўм, Термиз давлат университети – 37 млрд. 663 млн. сўм, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети – 35 млрд. 358 млн. сўм, Тошкент молия институти – 32 млрд. 795 млн. сўм, Жиззах давлат педагогика университети – 27 млрд. 735 млн. сўм, Фарғона давлат

университети – 19 млрд. 500 млн. сўм, Ўзбекистон миллий университети – 17 млрд. 843 млн. сўм, Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети – 15 млрд. 375 млн. сўм, Самарқанд давлат университети – 13 млрд. 316 млн. сўм, Бухоро давлат университети – 11 млрд. 588 млн. сўм, Тошкент давлат техника университети – 9 млрд. 694 млн. сўм, Тошкент кимё-технология институти – 9 млрд. 539 млн. сўм, Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти университети – 9 млрд. 49 млн. сўм, Термиз муҳандислик-технология институти – 8 млрд. 653 млн. сўм, Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти – 8 млрд. 88 млн. сўм, Андижон давлат университети – 7 млрд. 399 млн. сўм, Гулистон давлат университети – 7 млрд 93 млн сўм, Бухоро муҳандислик-технология институти – 4 млрд. 993 млн. сўм, Тошкент архитектура-қурилиш университети – 4 млрд. 439 млн. сўм, Тошкент давлат техника университети Олмалиқ филиали – 3 млрд. 877 млн. сўм, Тошкент кимё-технология институти Янгиер филиали – 3 млрд. 690 млн. сўм, Исҳоқхон Ибрат номидаги Наманган давлат чет тиллари институти – 2 млрд. 912 млн. сўм, Ўзбекистон миллий университетининг Жиззах филиали – 2 млрд. 767 млн. сўм; Жиззах шаҳридаги Қозон федерал университети филиали – 1 млрд. 201 млн. сўм, М.В.Ломоносов номидаги Москва давлат университети Тошкент шаҳридаги филиали – 1 млрд. 164 млн. сўм, «ТИҚХММИ» миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти – 772 млн. сўм, «Миллий технологик тадқиқотлар университети МИСиС» нинг Олмалиқ шаҳридаги филиали – 692 млн. сўм, Тошкент давлат шарқшунослик университети – 650 млн. сўм, Тошкент кимё-технология институти Шаҳрисабз филиали – 157 млн. сўм, Самарқанд давлат университетининг Каттақўрғон филиали – 138 млн. сўм, Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети – 137 млн. сўм, «ТИҚХММИ» миллий тадқиқот университетининг Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти – 103 млн. сўм, Тошкент шаҳридаги Беларус-Ўзбекистон қўшма тармоқлараро амалий техник квалификациялар институти – 59 млн. сўм, Тошкент давлат техника университети Қўқон филиали – 4 млн. сўм.

Юқорида келтирилган рақамлар бюджет маблағлари ҳисобидан молиялаштирилаётган ОТМларида бюджет маблағларининг самарали сарфланишини таъминлаш нуқтаи-назаридан жуда муҳим аҳамиятга эга бўлишига қарамасдан, бизнингча, уларни таҳлил қила туриб, қатъий бир хулосага келиш ёки қарор қабул қилиш ўта мураккаблигича қолаверади. Бунинг кўплаб сабаблари бор. Зеро, юқорида номлари келтирилган ОТМларига тегишли бўлган маълумотларни, баъзи бир объектив сабабларга кўра, тўғридан-тўғри таққослашнинг иложи йўқ ёки шундай қилиб чиқарилган хулоса ва қарорни етарли даражада асосланган деб бўлмайди. ОТМларга тегишли бўлган рақамларнинг таққосланиш даражасига бу муассасаларнинг фаолият доираси (кўлами), мулкчилик шакли, академик ва молиявий мустақилликнинг берилган ёки берилмаганлиги, қабул квоталари, мавжуд контингентлар сони ва ҳ.к.лар ўз таъсирини кўрсатмасдан қолмайди, албатта.

Шундай бўлишига қарамасдан, ҳисобот даври (2023 йилнинг биринчи ярим йили) давомида деярли бир хил фаолият (олий таълим хизматларини кўрсатиш) билан шуғулланадиган ОТМлари бир гуруҳининг юқори даромадга, бошқа бир гуруҳининг эса пастроқ даромадга ва учинчи гуруҳининг эса даромадга эмас, балки зарарга эга бўлиши, назаримизда, кун тартибига ОТМларида бюджет маблағларини самарали сарфлаш нуқтаи-назаридан қатор муаммо (савол)ларни қўядики, улар ўз ечим (жавоб)ини топмоғи лозим. Хусусан, юқорида қайд этиб ўтилганидек, шу даврда энг кўп даромадга эга бўлган Ўзбекистон миллий университети (245,0 млрд. сўм), Фарғона давлат университети (191,0 млрд. сўм), Қорақалпоқ давлат университети (188,0 млрд. сўм), Термиз давлат университети (169,0 млрд. сўм), Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети (165,0 млрд. сўм), Тошкент давлат иқтисодиёт университети (151,0 млрд. сўм), Тошкент давлат техника университети (145,0 млрд. сўм), Тошкент молия институти (102,0 млрд. сўм) бўлишига қарамасдан айнан шу гуруҳдагилардан Тошкент давлат иқтисодиёт университети – 51,87

млрд. сўм, Қорақалпоқ давлат университети – 42,13 млрд. сўм, Термиз давлат университети – 37,663 млрд. сўм, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети – 35,358 млрд. сўм, Тошкент молия институти – 32,795 млрд. сўм, Ўзбекистон миллий университети – 17,843 млрд. сўм, Тошкент давлат техника университети эса – 9,694 млрд. сўм билан зарар билан якунлаганлиги бу ҳолларда ана шу тоифадаги ОТМларда, жумладан, бюджет маблағларидан фойдаланиш масаласида қатор муаммоларнинг борлигидан дарак беради. Бунинг устига, 70 та давлат олийгоҳларидан 38 тасининг ёки 54,%ининг эса ҳисобот даврини, яъни 2023 йилнинг биринчи ярим йиллигини зарар билан тугатганлиги янада ўткирлигини кўрсатади.

Хулоса

Шундай қилиб, юқорида келтирилган рақамлардан яққол кўриниб турибдики, бозор иқтисодига ўтаётганимизга 30 йилдан кўпроқ вақт бўлаётган бўлишига қарамасдан ҳамон маблағларни оқилона, тежаб-тергаб, иқтисод режимига қатъий риоя этиб самарали сарфлаш масаласи ҳамон долзарблигича турибди. Бу, айниқса, ўз фаолиятларини, жумладан, бюджет маблағлари ҳисобидан амалга ошираётган ОТМлари учун алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли “Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси туғрисидаги Фармони.

2. Xayriddinov, S. (2024). Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy mablag ‘lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo ‘ljallangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to ‘g ‘risida.

3. Хайриддинов, Ш. Б. (2023). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БЮДЖЕТ МАБЛАҒЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШНИНГ АЙРИМ ФУНДАМЕНТАЛЬ МАСАЛАЛАРИ. Research Focus International Scientific Journal.

4. Botirovich, K. A., & Batirovich, K. S. (2020). MAIN DIRECTIONS OF STATE BUDGET REVENUE FORMATION. SPECIAL ISSUE ON FINANCIAL DEVELOPMENT PERSPECTIVES OF THE LIFE STANDARD IN CENTRAL ASIA APRIL 2020 DOI NUMBER: 10.5958/2249-877X. 2020.00028.

5. Botirovich, K. A., & Batirovich, K. S. (2021). Local Budget Revenues As an Important Link of Territorial Revenue Power. *American Journal of Economics and Business Management*.

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Шарипов Одилжон Гуломжон угли
Преподаватель Ташкентского государственного экономического университета
https://doi.org/10.5281/zenodo.14190069

Аннотация: *Цифровая глобализация -это новая фаза в развитии глобального мира, влекущая за собой соответствующие изменения в структуре ведения бизнеса, в контингенте его участников, в расширении экономических возможностей, в т. ч. трансграничных отношений и коммуникаций.*

Ключевые слова**:** *сфера услуг, цифровизация, цифровая экономика, глобализация, глобальная экономка.*

Основные тенденции современной мировой экономики заключается в глобализации и цифровизации. Признаком экономического роста является изменение структуры экономики в сторону третичного сектора – сферы услуг. Материальная производство в цифровой экономике уступает нематериальным активам. Гипотезой исследования является предположение, что глобализация сферы услуг за счет использования цифровых технологий является эффективным способом мирового экономического роста, однако требует видоизменения, интеграции и коллаборации существующих в традиционной экономике процессов. В научной работе исследованы особенности процесса глобализации в условиях функционирования цифровой экономики в сфере оказания услуг, определены факторы, обуславливающие развитие сферы услуг, проанализированы тенденции изменения структуры сферы услуг цифровой экономки в России, представлены возможности цифровых технологий в сферах материального и нематериального производства. Сделан вывод, что экономическая стратегия глобализации цифровизации является закономерной фазой развития мировой экономики. В работе использованы методы анализа, синтеза, классификации и сравнения.

Процесс глобализации экономики начался в конце XX века под влиянием развития сначала транспортных, а затем информационнотелекоммуникационных технологий распространения товаров, услуг и информации. Глобализация предполагает образование единого международного, экономического, правового и культурно–информационного пространства и способствует взаимосвязи производства, торговли и финансов различных стран и функционирование единой системы в режиме реального времени в масштабе всей планеты. Глобальную экономику можно разделить на три основных региона, каждый из которых имеет конкретную сферу влияния: Северная Америка (включая Канаду и Мексику), Европейский союз и АзиатскоТихоокеанский регион. Следует отметить важную роль Китайской Народной Республики в глобализации мировой экономики, Китай является «чемпионом глобализации», «главным бенефициаром глобализации», «мировым рынком», «мировой фабрикой» [10]. Мировая глобализация положительно влияет на рост производительности. Это связано с повышением качества товаров и услуг при столкновении с сильной мировой конкуренцией и стремлением выходы на международный рынок. Стратегической целью любой фирмы является продажа товаров или оказание услуг по всему миру без территориальных ограничений напрямую или по существующим сетям распространения. Сегменты и фирмы, являющиеся стратегической основой экономики страны, так или иначе, связаны с мировым рынком. Деятельность этих сегментов и фирм зависит от того, насколько успешно они функционируют на этом рынке. В условиях глобализации роль и значение внешних условий и факторов производства значительно повышается, и сам процесс цифровизации экономики приобретает характеристики, делающие его несравнимым с моделями предшествующих этапов [1]. В основных документах, регулирующих формирование и развитие цифровой экономики в Российской Федерации, определены цели, задачи, и меры реализации внутренней и внешней политики Российской Федерации в сфере применения цифровых технологий, направленные на формирования национальной цифровой экономики [6,8]. Фундаментом цифровой экономики является интеллектуальный фактор, в качестве которого выступает информация и знания. Сегодня спрос на работников с аналитическими, интерактивными навыками решения проблем резко возрос. В цифровой экономике индустриальная составляющая

теряет свою значимость, наибольшее значение приобретает технологическая компонента. Основная производительная функция отводится науке, знаниям и сфере услуг. Востребованность услуг говорит об уровне развития экономики страны, об уровне доходов населения: чем он выше, тем охотнее люди пользуются посредниками и развлекаются. Согласно данным Всемирного банка в 2019 году лидерами по доле услуг в ВВП является США (77,4%), Великобритания (71 %), Франция (70,3%), Канада (70,2%), Япония (69,1%). Для Китая данный показатель в 2019 году составил 52 %, для России 54,1%. [2]. В 2020 году пандемия короновируса оказала сильное влияние на сферу услуг всех стран. В первую очередь это коснулось международных авиарейсов, мест общественного питания, культурных и развлекательных мероприятий. Больше всего пострадали отрасли путешествий и транспорта. Расходы на международные путешествия сократились на 81%, а расходы на транспорт на 29% во втором квартале 2020 года. Спад в сфере транспорта был аналогичен спаду во время финансового кризиса 2009 года [5]. На сегодняшний день развитие сферы услуг в Российской Федерации формируется под воздействием ряда тенденций: – развитие производственных технологических сетей, – снижение стоимости услуг связи, – цифровизация сферы услуг, внедрение Интернета вещей, – увеличение количества занятого населения в сфере услуг, – рост самозанятых, – легализация самозанятых, – смещение фокуса на экологию.

Ситуация, возникшая в условиях COVID-19, физической самоизоляцией, удаленной работы создали благоприятные условия для объединения цифрового и реального мира. Граница между этими мирами стирается. Происходящие процессы ускоряются. Компании, пренебрегшие ранее поэтапной цифровизаций своей деятельности, ускоренными темпами осваивают новые технологии. Скорость принятия решений остается одним из важнейших инструментов эффективного менеджмента. Новые реалии требуют появления новых подходов к организации процессов оказания услуг, интеграция их в крупные, оптимальные структуры, внедрения цифровых технологий в сферы материального и нематериального производства. М. Костельс в своих работах определил, что под мощным воздействием новой коммуникационной системы, опосредованным социальными интересами, политикой правительства и стратегиями бизнеса, рождается новая культура: культура реальной виртуальности. Именно на культуре виртуальной реальности строится цифровая экономика [3]. Одной из основных черт цифровой экономики является новая система коммуникации, организованной вокруг мобильного интернета и функционирования новых видов виртуальных сообществ. Интеграция сферы услуг в виртуальный сектор имеет глобальную тенденцию. Заключение. Четвертая промышленная революция в первую очередь отразилась на качественном изменении рынка труда. Увеличилась роботизация процессов производства, повысились требования к занятым в материальном производстве, появился спрос и новые секторы на рынке труда, связанные с появлением новых профессий, которые неразрывно связаны с цифровыми технологиями. Среди основных стратегий развития информационного общества является формирование кадров для цифровой экономики. Экономическая сущность цифровизации заключается в снижении стоимости обработки, передачи и хранения информации и знаний, автоматизации и ускорение процессов производства товаров и оказания услуг, изменения поведения клиентов и потребителей. Уровень развития мирового хозяйства стимулируется процессом глобализации. Глобальная экономика существует внутри взаимосвязанной сети коммуникаций и выходит за пределы

национальных и географических границ. Современным средством коммуникации экономических объектов является глобальная сеть Интернет и цифровые технологии. Глобализация объединяет производственную и торговую деятельность экономических агентов с накоплением капитала в форме концентрации знаний и управления информацией. Развитие цифровых технологий основывается на постулате, что в современных условиях невозможно обеспечить дальнейший экономический рост в текущей динамике. Ускоренный рост сфер применения цифровых технологий создают условия для интеграции рынков экономики, способствуют появлению новых рынков, новых объектов инфраструктуры мирового хозяйства, новых участников международных экономических отношений, новых правил регулирования международных отношений.

Цифровые финансовые технологии и криптовалюты. Фантастические изменения вызвала цифровизация в финансовом секторе, в первую очередь в системах мгновенных платежей с помощью мобильных телефонов, а цифровизация инвестиционных процессов позволила инвесторам, избегая посредников, немедленно принимать биржевые решения. В монетарной области феноменальное значение для будущего имеет изобретение нового Навуковыя публікацыі 38 Банкаўскі веснік типа частных денег, эмитируемых компьютерами, – криптовалют, которые, несмотря на противодействие центробанков ведущих стран мира, постепенно отвоевывают свое место как удобное платежное средство. 3. Когда началась стадия цифровой глобализации, вызвавшая цифровую трансформацию национальных экономик? Массовое распространение новых трансграничных бизнес-процессов, вызванных цифровыми технологиями, началось примерно с 2010 г.

Список литературы:

1. Gasanov E. A., Zubarev A. E., Krasota T. G. Digital Technologies as a Factor for Growth of Continuous Well–Being of Sovereign Consumers in the Modern Society // Proceedings of the International Scientific Conference "FarEastCon" (ISCFEC 2020). Advances in Economics, Business and Management Research, Vladivostok, 01–04 окт. 2019 г. Vladivostok : Atlantis Press, 2020.

2. World Bank – World Development Indicators. URL: https://databank.worldbank.org/source/world–development-indicators (дата обращения 15.01.2022).

3. Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общество и культура: монография. М.: ГУ ВШЭ, 2000. 608 с.

4. Новости Интернета вещей. URL: https://iot.ru/ (дата обращения 12.01.2022).

РЕЖАЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИДАГИ ЁҚИЛҒИ-ЭНЕРГЕТИКА РЕСУРСЛАРИ САРФИНИ МИНИМАЛЛАШТИРИШ МАСАЛАСИНИНГ МОДЕЛЬ ВА АЛГОРИТМЛАРИ

Султанов М.Б.
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Ахборот тизимлари ва технологиялари”
кафедраси доценти
https://doi.org/10.5281/zenodo.14190369

Аннотация. *Мақолада ёқилғи-энергетика ресурслар истеъмолини оптимал режалаштириш ва тезкор бошқариш вазифалари кўриб чиқилган. Ёқилғи-энергетика мажмуаси корхонасида ёқилғи-энергетика ресурслар оқимини бошқаришнинг асосий моҳияти келтирилган, ёқилғи-энергетика ресурслар оқимини бошқаришнинг асосий масалалари аниқланган ва уларни ечиш модели келтирилган. Ишда ёқилғи-энергетика ресурслар оқимини бошқаришнинг режалаштириш жараёни ҳамда ёқилғи-энергетика мажмуаси корхоналарида ишлаб чиқариладиган маҳсулотларнинг таннархини оптималлаштириш масаласини математик дастурлаш масаласи ечими алгоритми келтирилган.*

Калит сўзлар: *тизимли таҳлил, ёқилғи-энергетика ресурслар оқимини бошқариш, алгоритм, модель, минималлаштириш, режалаштириш.*

Кириш. Иқтисодиёт реал сектори тармоқлари қирқимида ёқилғи-энергетика ресурсларини тежашнинг кўп омиллиги ва кўп режалиги бу соҳадаги тадқиқотларнинг ҳартомонламалик ва фрагментарлик табиатига эга бўлишига ўз таъсирини ўтказди. Ҳозирги пайтда Ўзбекистондаги ёқилғи-энергетика мажмуаси корхоналарида ёқилғи-энергетика ресурсларидан истеъмолини бошқариш ва тежаш масалаларини ечишда мақсадларнинг бир-бирига мослигилиги ва ахборотли ўзаро алоқа мавжуд эмас. Ёқилғи-энергетика ресурслари сарфини меъёрлаштириш, мониторинг ва бошқаришнинг ўзаро боғлиқ усул ва моделларидан фойдаланилмайди, ёқилғи-энергетика ресурсларини тежаш тизими масалалари ечими интеграциясининг концептуал қоидалари, воситалари ва усуллари, ёқилғи-энергетика ресурсларини тежаш тизимлари ва тизим қисмларининг ягона ахборот ва функционал моделларини яратиш тамойиллари, йўналишлари ва услубий асослари охиригача аниқланмаган ва ишлаб чиқилмаган. Ишлаб чиқариш корхоналар энергетик самарадорлик даражасининг ошириш учун бошқаришнинг замонавий тизимли ёндошув усулларни тадбиқ қилиш ҳисобигагина таъминланиши мумкин, чунки бу ишлаб чиқариш корхоналарида, ёқилғи-энергетика ресурслари истеъмолини самарали бошқариш имконини беради.

Ёқилғи-энергетика ресурслар оқимини бошқариш соҳасининг асосий фаолияти, ишлаб чиқариш самарадорлиги, ишлаб чиқариш ва технологик ривожланиш жараёнлари ҳамда бошқарув жараёнларини доимий равишда ошириш орқали ёқилғи-енергетика ресурслари ҳаражатларини оптималлаштиришдир [1].

Асосий қисм. Ёқилғи-энергетика ресурслар оқимини бошқаришнинг асосий жараёнларидан бири режалаштириш бўлиб, унда ёқилғи-энергетика ресурслари таннархини оптимал ҳисоблаш, ёқилғи-энергетика ресурслари сарфини минималлаштириш, ёқилғи-энергетика ресурслари истеъмолини тезкор ва самарали режалаштириш, ҳамда бошқа шунга ўхшаш масалаларни ечиш амалга оширилади.

Ёқилғи-энергетика мажмуаси корхоналарининг энергия сиёсатининг сифати кўп ҳолларда тезкор, жорий ва истиқболли режалаштириш билан боғлиқ. 1-расмда ёқилғи-энергетика мажмуаси корхоналарининг ёқилғи-энергетика ресурсларини режалаштириш тизимининг тузилмаси келтирилган.

Ёқилғи-энергетика мажмуаси корхоналарида сарф бўладиган ёқилғи-энергетика ресурсларини оптимал режалаштириш жараёнини қуришда, ёқилғи-энергетика ресурслари сарфини оптимал режалаштириш жараёнининг математик моделлари жуда муҳим аҳамият касб этади. Математик моделлардан фойдаланиш ёқилғи-энергетика ресурслари сарфини оптимал режалаштириш жараёнининг мақсадини ва бир қатор технологик чекловларни аниқлашга имкон беради. Бу ўз навбатида нефть ва газ қазиб чиқариш корхоналарида ёқилғи-энергетика ресурслари сарфини оптимал бошқарув алгоритмларини шакллантириш имконини беради.

Ишлаб чиқариш корхоналарининг асосий мақсади кам сарфлар билан тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш, ёки энг кам таннархга эга бўлган сифатли тайёр маҳсулотни олишга эришиш учун ёқилғи-энергетика ресурслари сарфларини минималлаштириш ҳисобланади. Юқоридаги мақсадга эришиш учун диссертация ишида тайёр маҳсулот таннархига таъсир этувчи сарфларни ва тайёр маҳсулот олиш жараёнида истеъмол қилинадиган ёқилғи-энергетика ресурслари сарфини минималлаштириш масалалари кўриб чиқилган.

1-расм. Ёқилғи-энергетика ресурсларини режалаштириш тизимининг чизмаси

Тадқиқот иши объекти ёқилғи-энергетика мажмуаси корхоналари эканлигини ҳисобга олган ҳолда ёқилғи-энергетика ресурслар оқимини бошқаришнинг режалаштириш жараёнида маҳсулотнинг таннархини минималлаштириш масаласини ечими кўриб чиқилган. Чунки, ёқилғи-энергетика мажмуаси корхоналарида ишлаб чиқариладиган маҳсулотлар асосий ёқилғи-энергетика ресурслари ҳисобланади.

Ёқилғи-энергетика ресурслар оқимини бошқаришнинг режалаштириш жараёнини такомиллаштиришдан кўзланган асосий мақсад кам сарфлар билан маҳсулот ишлаб чиқариш, энг кам таннарх билан сифатли товар маҳсулотни олиш билан тавсифланади. Шуларни инобатга олган ҳолда ёқилғи-энергетика ресурслар оқимини бошқаришнинг режалаштириш жараёнида ёқилғи-энергетика мажмуаси корхоналарида ишлаб чиқариладиган маҳсулотларга сарф бўладиган ёқилғи-энергетика ресурсларини ҳисоблаш масаласи кўриб чиқилган [2].

Ёқилғи-энергетика мажмуаси корхоналарида ишлаб чиқариладиган маҳсулотларнинг таннархини оптималлаштириш масаласини математик дастурлаш масаласи кўринишида қуйидагича қўйиш мумкин:

$$\begin{cases} f(x) = \dfrac{T(x)}{TM(x)} \to \min; \\ f_i(x) \ge 0 \,(i = \overline{0,m}); \\ a_i \le x_i \le b_i \,(i = \overline{1,n}) \end{cases} \qquad (1)$$

бу ерда $T(x)$ - маҳсулотнинг таннархи; $TM(x)$ - тайёр маҳсулотнинг сотиш нархи; *a*, *b* - ўзгармас параметрлар; *x* - аниқланаётган параметр.

Чекловлар сифатида қуйидагилар берилади:

$$TM_X(x) \le TM(x) \le TM_{БМ}(x)$$

бу ерда $TM_X(x)$ - тайёр маҳсулотнинг ҳисобланган (режадаги) нархи; $TM_{БМ}(x)$ - тайёр маҳсулотнинг бўлиши (сотилиши) мумкин бўлган максимал нархи.

$T(x)$ таннархни қайси қисмлардан ташкил қилишини кўриб чиқамиз. Маҳсулотнинг таннархини геология-разведка ишлари, ҳомашё ва материал ва бутлов қисмлар, электр энергияси, сув, ёқилғи, иш ҳақи, амортизация, транспорт ва бошқа ҳаражатлар (солиқлар) ташкил қилади.

(1) масала кўп параметрли бўлиб, математик дастурлаш масаласи ҳисобланади. Ушбу масалани ечиш учун функционал чекловларга эга кўп параметрли функцияларда оптимал параметрларни қидирув усулини қўллаш мумкин [3], [6].

Кўп параметрли функцияларда оптимал параметрларни аниқлаш алгоритми қуйидагича бўлади:

1-қадам. Қидирув соҳасини гиперпараллелепипед деб ҳисоблаб унинг кўрсаткичларини киритамиз: $a_i \le x_i \le b_i,\ i = \overline{1,n}$.

2-қадам. Қидирувнинг бошланғич нуқтаси аниқланади. Монте-Карло процедураси ёрдамида *D* қидирув соҳасидаги тенг тақсимланган K_1 нуқта берадиган рақамларни мажмуини юзага келтиради.

$$\left\{ f_j(X_k) \right\} \begin{array}{l} 1 \le K \le K_1; \\ 1 \le j \le m, \end{array}$$

$f_j(x)=0$ $(j=\overline{0,m})$ юзадан x_k нуқтаси масофасининг даражаси тўғрисида муҳокама қилиш имкон беради. Саралашдан сўнг олинган минимум ва максимум кўрсаткичга эришувчи 1-рақамларга нуқталар ўзлаштирилади.

$$A=\min_k\left|\max_j f_j(X_k)\right| sign\left[\max_j f_j(X_k)\right].$$

агар $A\le 0$ бўлса, у ҳолда $X_1\in\Omega$;

агар $A>0$ бўлса, у ҳолда $X_1\notin\Omega$.

бу ерда Ω 1-қадамдаги барча функционал чекловларни қаноатлантирувчи соҳани англатади.

Сўнгра, x_1 нуқтадан A бўйича $X_1+МШ\,\psi_j$ дан K_1 намуна олинади. Бу ерда $\psi_j=(\xi_1,\xi_2,...,\xi_n)$, ξ_1- [-1, 1] кесимда тенг тақсимланган тасодифий сонлар. Ушбу нуқталардан энг яхшиси танланади. K_1 намуна олиш

$$A\le 0\wedge\left|МШ\right|<1 \qquad (2)$$

шарт бажарилгунга қадар давом этади. Бу ерда $\wedge$ - мантиқий кўпайтириш; $МШ$ - кенг кўламли коэффициент.

(2) шартни биринчи бажарган нуқта бошланғич x_0 нуқта ҳисобланади. Шундай қилиб, биз мақсад функциясини бирор марта ҳам ҳисобламасдан чегарага етарли даражада яқин кирувчи $x_0\in\Omega$ нуқтага эга бўламиз.

3-қадам. Қидирувнинг энг яхши йўналиши иккита

$$X_k \text{ ва } X_{k+1}=X_k+МШ_{k+1}\,\psi^*$$

нуқталар бўйича аниқланади. Бу ерда k - ҳар бир энг кам даражадаги локални қидиришдаги қадамнинг рақами. $МШ$ кенг кўламли коэффициент такрорланувчи муносабат ёрдамида ҳисобланади:

Kirish. Bugungi kunning muhim vazifalaridan biri iqtisodiyotning sanoat sohalarida innovatsion faollikni oshirish va uni rag‘batlantirish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdir. Sanoatda innovatsion faoliyatni amalga oshira oladigan mutaxassislarni tayyorlash, tarmoqlarda zamonaviy texnologiyalar asosida chuqur texnologik modernizatsiyani va innovatsion rivojlanishni ta’minlash, shuningdek, yangi texnologiyalar yaratish imkonini beradigan tizimni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o‘sish ko‘p jihatdan sanoat tarmog‘ini rivojlantirishga bog‘liq. Shu o‘rinda raqamlarga murojaat qilsak, 2020-2023 yillarda O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati, ishlab chiqarish va elektr energiyasi ishlab chiqarish kabi sohalardagi o‘zgarishlar tufayli sezilarli o‘sishga erishdi. 2023 yilda O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishi 5 foizga o‘sdi, kimyo, to‘qimachilik va energetika sohalarida kuchli ko‘rsatkichlar qayd etildi. Bu o‘sish hukumatning sanoat sektorida modernizatsiya va raqamlashtirishga qaratilayotgan e’tibori, tarmoqlarda samaradorlik va mahsuldorlikni oshirishga qaratilgan turli islohotlar bilan qo‘llab-quvvatlandi.

Global sanoat texnologiyalari bozori yiliga o‘rtacha 20,7 foizga o‘sadi va 2032 yilga kelib 2023 yildagi 93 milliard dollarga nisbatan qariyb 482 milliard dollarni tashkil etishi bashorat qilinmoqda.

Sanoat tarmoqlarida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha talqin qilish mumkin:

1. Moliyaviy resurslar yetishmasligi: sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun katta sarmoya talab etiladi, lekin ko‘plab korxonalarda bu resurslar yetarli darajada emas.

2. Kadrlar yetishmasligi: innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun yuqori malakali mutaxassislar kerak, ammo sanoatda bu yo‘nalish bo‘yicha tajribali kadrlar yetishmaydi. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohasida mutaxassislarni tayyorlash sur’ati talabdan orqada qolmoqda.

3. Texnologik infratuzilmaning yetarsizligi: innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydigan zamonaviy texnologik infratuzilma ko‘p joylarda hali to‘liq rivojlanmagan. Bu sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni samarali tatbiq qilishda qiyinchiliklar tug‘diradi.

4. Qonunchilik va regulyatsiya muammolari: sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq meyoriy-huquqiy baza ko‘p hollarda yangi vaziyatlarga moslashtirilmagan, bu esa ularni joriy qilishda turli cheklovlarga olib keladi.

5. Innovatsiyaga nisbatan ko‘nikma va madaniyatning yo‘qligi: ko‘plab korxonalar va mutaxassislar yangi texnologiyalarni qabul qilishga va ulardan foydalanishga tayyor emaslar. Korxonalarda innovatsiya va raqamlashtirish madaniyatini shakllantirish zarur.

6. Ta’lim tizimi muammolari: ta’lim tizimi zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt bilan ishlash ko‘nikmalarini yetarlicha rivojlantirmaydi. Bu esa sanoat tarmoqlari uchun kerakli mutaxassislarni yetishtiradigan tizimning zaifligini ko‘rsatadi.

7. Xavfsizlik va maxfiylik muammolari: raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt joriy etilganda ma’lumotlarning maxfiyligi va kiberxavfsizlik muammolari yuzaga keladi. Sanoat tarmoqlarida bunday xavflardan himoya qilishning ishonchli mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Adabiyotlar tahlili. Mavzu doirasida adabiyotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, asosiy e’tiborni sanoatda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar, sun’iy intellektning ahamiyati, ularni joriy qilishdagi tendensiyalar va muammolarga qaratish lozim. Mahalliy va jahon adabiyotlarida quyidagi asosiy yo‘nalishlar va muhokama qiladigan masalalar keng yoritilgan:

1. Sanoatda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning roli.

Bu yo‘nalishdagi adabiyotlar sun’iy intellekt (AI) va raqamli texnologiyalarning sanoatni rivojlantirishdagi muhim o‘rniga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqotlarda asosan quyidagi masalalar yoritilgan: sun’iy intellekt yordamida sanoatdagi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish; ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi AI texnologiyalarining imkoniyatlari; raqamli texnologiyalarning sanoat jarayonlarida ishlab chiqarish, moddiy resurslarni tejash, vaqtni qisqartirish kabi samaralari.

2. Innovatsion faoliyat va raqamli texnologiyalar.

Adabiyotlarda innovatsion faoliyat va raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik keng yoritilgan bo‘lib, jumladan: innovatsiyalar raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi; yangi raqamli texnologiyalar sanoat mahsulotlarini rivojlantirish va yangi mahsulotlarni yaratishga turtki bo‘ladi; sanoat sohalarida raqamli texnologiyalarning samarali joriy qilinishi innovatsion faoliyatni yanada kengaytirishga olib keladi.

3. Sanoat 4.0 va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi.

Sanoat 4.0 konsepsiyasi sanoatni raqamlashtirishdagi eng muhim adabiyot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi: avtomatlashtirish, ma’lumotlar almashuvi va raqamli texnologiyalar orqali sanoatning yuqori darajada avtomatlashtirilgan yangi bosqichi; adabiyotlarda sanoat tarmoqlarining sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida rivojlanish istiqbollari, xususan, robotizatsiya, internet orqali tizimlarni boshqarish, ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari tahlil qilinadi.

4. Mutaxassislar yetishmasligi va ta’lim.

Ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlarda sanoat tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda kadrlar masalasiga e’tibor qaratilgan: sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi; innovatsion faoliyatni yuritish uchun sanoatdagi mutaxassislar o‘quv dasturlarining zamonaviy texnologiyalar bilan muvofiqligi haqida tadqiqotlar; innovatsion kadrlar tayyorlash va ta’lim tizimini takomillashtirish yo‘llari.

5. Infratuzilma va texnologiyalar joriy etish masalalari.

Adabiyotlarda sanoat tarmoqlarida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etishning eng asosiy muammolari va qiyinchiliklari yoritilgan, jumladan: texnologik infratuzilma va raqamli texnologiyalar yetarlicha rivojlanmagani sanoatdagi innovatsion faoliyatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin; kiberxavfsizlik va ma’lumotlarni himoya qilish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarning samarali tatbiqini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

6. Innovatsion siyosat va iqtisodiy rag‘batlantirish.

Adabiyotlarda davlat va biznesning hamkorligi, innovatsiyani rag‘batlantirish uchun qonunchilik va tashkiliy mexanizmlar muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi, jumladan:

innovatsiyaga qaratilgan qonunchilik va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash choralari; sanoatda innovatsion tadbirkorlikni rag‘batlantirish yo‘nalishlari, xususan, yangi texnologiyalarni yaratish va joriy qilish uchun soliq imtiyozlari, investitsiyalar.

Tahlil va natijalar. Sanoat moddiy ishlab chiqarishning asosiy sohasi va iqtisodiyotning tayanchi hisoblanadi. Bundan tashqari, sanoat mamlakat mudofaa salohiyatining moddiy bazasi, jahonda tinchlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi, shuningdek, davlatlar mustaqilligi va birligini ta’minlovchi yetakchi sohalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Ta’kidlash joizki, sanoat tarmog‘ini rivojlantirish tabiiy-resurs imkoniyatlaridan samarali va to‘liq foydalanish, tarkibiy va institusional o‘zgarishlarning samaradorligini oshirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ichki bozorda imkoniyatlar yaratish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va ularga tashqi bozorlarga chiqishni yengillashtirish, shuningdek, yangi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqarish uchun mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatidan foydalanish kabi muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining sanoat tarmog‘ida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga nazar tashlasak, bu boradagi ishlar ko‘lami tobora ortib borayotgani ayon bo‘ladi. Respublikamiz sanoatini isloh qilish jarayonida sifat va narx borasida jahon bozorida xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e’tibor berilayotganini ham ta’kidlab o‘tish joiz.

Jahon tajribasidan ko‘rish mumkinki, rivojlanayotgan mamlakatlar yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish, sanoat jihatdan rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishlari uchun tez yetib olish rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda zamonaviy innovatsion-texnologik taraqqiyot yo‘lini tanlaganligi muhim rol o‘ynadi. Bunda har bir davlat nafaqat o‘zining ilmiy-texnik salohiyatiga, balki chetdan yuqori unumli texnologiyalarni olib kirishga alohida e’tibor qaratishi lozim. Iqtisodchi olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, faqatgina ichki ilmiy-texnologik salohiyatga asoslangan taraqqiyot yo‘li yiliga 2-3 % iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkonini bersa, modernizatsiya jarayoniga eng zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish hisobiga 7-8 % o‘sishni ta’minlash mumkin. Bunga Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy va boshqa rivojlanayotgan davlatlar tajribasi yaqqol misol bo‘ladi.

Shu bois, sanoatni tarkibiy jihatdan o‘zgartirishda raqobatdosh yuqori ilmtalab qiladigan mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda innovatsion omil asosiy o‘rin egallashi lozim. Avvalambor, texnologik jihatdan yangi ukladga o‘tish uchun zamonaviy ilmiy-texnologik va innovatsion kompleksni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha kompleks dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi zarur.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsion faoliyatni joriy qilish hamda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Samarali innovatsion faoliyat nafaqat ishlab chiqarish, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirishni ham belgilaydi.

Umuman, respublikada mavjud innovatsion muhitning shakllanishi va kelgusida jadal rivojlanishi yo‘lida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar uzoq muddatni ko‘zda tutadigan barqaror rivojlanish va shu bilan birga milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlashning strategik maqsadlari ko‘p jihatdan ishlab chiqarishning ustuvor omillarini aniqlash, ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, korxonalarda innovatsion faollikni oshirish hamda ularning o‘zaro ta’siri va ro‘y berishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini bashorat qilishning aniqligiga bog‘liq.

Shu jihatdan ham, iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda innovatsion faoliyatni samarali rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish bilan belgilanadi.

Innovatsion tizimni rivojlantirish borasidagi ilmiy yondashuvlarning tahlili, ilg‘or xorijiy tajribalar hamda innovatsion jarayonlarni shakllantirishga oid ko‘plab iqtisodiy adabiyotlarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, uning tashqi bozordagi raqobatbardoshligi rivojlangan milliy innovatsion tizimning mavjudligi orqali ta’minlanishi ilmiy asoslangan.

Demak, hozirgi jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida milliy innovatsion tizim elementlarining shakllanishi va samarali o‘zaro ta’siri davlat innovatsion siyosatining asosiy maqsadi bo‘lishini talab etmoqda. Chunki zamonaviy shart-sharoitlarda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish davlatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga hamda innovatsion rivojlanishdagi o‘zgarishlarga bog‘liq.

Innovatsion faoliyatning samarali yo‘llarini izlab topish bevosita ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi o‘sishiga, jamiyat va uning a’zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirishga, hayot shart-sharoitlarining sifatini ta’minlash imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Sanoat tarmog‘i korxonalarining innovatsion faoliyati jahon iqtisodiyotining an’anaviy tarmoqlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi, mahsulotlarga yangi texnologik talabni o‘rtaga tashlaydi, ishlab chiqarish, ichki tarmoq kommunikatsiyalari va personalli boshqaruvni tashkil etadi.

Korxonalarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishning asosan ikki yangi yondashuvi kuzatiladi, bular: jarayonlarning uzluksizligi va uyg‘unliligi. Korxonaning innovatsion faoliyati nafaqat yangi mahsulotni ishlab chiqarish va joriy etishga asoslangan ilmiy-texnik siyosatni amalga oshirishdan iborat, balki u marketing, tashkiliy tuzilma va samarali menejment kabi korxona boshqaruvining muhim bo‘g‘inlarini qamrab oladi. Shu sabab, zamonaviy innovatsion jarayonlar tasnifi quyidagi turlar bo‘yicha baholanadi: bozordagi yangiliklar bo‘yicha, asoslanishi bo‘yicha va innovatsion obyektlar bo‘yicha.

Bunday uslubiyat sanoat tarmog‘i korxonalari innovatsion faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini uyg‘un ravishda tahlil qilish imkoniyatini beradi hamda korxona faoliyatini optimallashtirish strategiyasini va chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishga yordam beradi. Sanoat korxonalari innovatsion iqtisodiyotda boshqaruv obyekti va subyekti sifatida innovatsion rivojlanishni sekinlashtiradigan hamda unga to‘sqinlik qiladigan, innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotning jadal va barqaror o‘sishini ta’minlaydigan imkoniyatlarni cheklab qo‘yadigan turli xil ichki va tashqi muhit omillari ta’siriga duch keladilar (rasm).

Innovatsion siyosatni amalga oshirishda rivojlangan mamlakatlar kompaniyalari faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, korxona barqaror raqobat ustunligiga erishishi uchun bozorga yangi tovar va xizmatlar orqali chiqish bilan bir qatorda yangi marketing strategiyalaridan faol foydalanishi, tez moslasha oladigan yangi tashkiliy shakllarni qo‘llashi, xizmatchilarni rag‘batlantirish usullari va sharoitlarini takomillashtirishi lozim. Bu esa, raqobatchilardan oldin yangiliklar hisobiga uzoq muddatli strategik ustunlikka erisha oladigan korxonani shakllantirish imkonini beradi. Ko‘rinib turibdiki, bunday yondashuvda innovatsiyalar korxona daromadini oshirish yoki uning bozordagi ulushini ko‘paytirish bo‘yicha bir martalik tartib-qoida bo‘lib qolmaydi, balki raqobat strategiyalariga asoslangan mehnat normasiga aylanadi. Aynan shu holda innovatsion strategiyalar majmuini ishlab chiqish va yangilik kiritish jarayonlarini uzoq muddatli rejalashtirish zarurati tug‘iladi.



Rasm. Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi muhit omillari

Manba: Muallif ishlanmasi.

Hozirgi vaqtda bozorda korxonalar innovatsion faoliyat ishtirokchisi bo‘lishining quyidagi asosiy yo‘nalishi kuzatiladi. Ko‘pgina korxonalar bir yoki bir nechta korxonalar uchun (ba’zan to‘liq bozor uchun) yangi texnologik g‘oyalardan foydalanishga asoslangan “faol innovatsion raqobat” strategiyalarini tanlaydilar. Bu esa, “texnologik jihatdan yetakchi”, “yetakchilarga ergashish” va diversifikatsiyalash strategiyalarini tanlashda namoyon bo‘lishi mumkin.

Innovatsion faoliyatga eng yaxshi yondashuv eski mahsulotlarni takomillashtirish, o‘zgarishlarni kengaytirish, iste’molchilarga qo‘shimcha yangi xizmat turlarini taqdim etish, yangi usul va tamoyillardan foydalanish, narx siyosatini shakllantirish, korxona imijini o‘zgartirib turish, yangi bozor segmentlarini yaratish ko‘rinishida doimiy marketing yangiliklariga asoslangan strategiyalarni tanlash hisoblanadi.

Zamonaviy korxonaning raqobatbardoshligi faoliyatining bir butun va ko‘p o‘lchovli sifatli ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ladi. Korxonaning 4 ta tashkil etuvchi raqobatbardoshligini ajratib ko‘rsatish mumkin: bular sifat, marketing, tijorat tarkibi va korxonaning mavqei. Ko‘rsatilgan raqobatbardoshlikning har bir omilida korxona faoliyatining innovatsion jihati muhim o‘rin tutadi. Masalan, sifat ko‘rsatkichlari mahsulotning fan sig‘imi yuqoriligi va yangi texnologiyalarni qo‘llash bilan chambarchas bog‘liq. Korxona faoliyatini transmilliylashtirish turli milliy bozorlarda ishtirok etishi va ularga moslashishi uchun yangicha marketing yondashuvidan doimiy foydalanishni talab etadi. Tijorat tarkibining asosi iste’molchilarni qo‘llab-quvvatlash va

maqsadli bozorda o‘z o‘rnini topishi uchun yangi narx strategiyalarini ishlab chiqishga mo‘ljallangan tadbirkor narx siyosati hisoblanadi.

Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatining tahlili innovatsion siyosatning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash va umumlashtirish imkonini beradi. Innovatsion siyosatning boshqa yo‘nalishlari nafaqat mahsulotga yangiliklar kiritishga, balki marketing innovatsiyalaridan faol foydalanishga qaratilgan. Birinchisi tashqi muhitda ro‘y beradigan o‘zgarishlardan ogohlantiruvchi xususiyatlarga ega bo‘lsa, marketing innovatsiyalari texnologik yangiliklar samaradorligini oshirish uchun mahsulot turi, sotish, kommunikatsiya va narx siyosatining yangi usul va shakllarini izlashga yo‘naltirilgan. Zamonaviy sharoitlarda innovatsion faoliyatni optimallashtirishning eng ko‘p tarqalgan usullaridan biri raqobatchilar bilan kooperatsiya ishlari va hamdo‘stlikka qaratilgan korxonaning raqobat siyosati hisoblanadi.

Sanoatda yangi innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini jahon standartlariga mos qilib, qolaversa, eksport hajmini oshirish va uning istiqboldagi samaradorligini yuksaltirishda davlat boshqaruvining ahamiyati kattadir. Zero, rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatganidek, barcha o‘tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlar tashqi iqtisodiy faoliyatini, tashqi savdosini, xususan eksportni rivojlantirishda davlatning ishtiroki juda muhim. Buning sababi, ushbu davrda mamlakatda ham makro - ham mikro darajada tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi tizim hali yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Ta’kidlash o‘rinliki, sanoat tarmog‘i korxonalari mamlakatning iqtisodiy qudratini yuksaltirishga katta yordam beradi va milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan uyg‘unlashib ketadi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, sanoat tarmoqlarida innovatsion faoliyatning joriy etilishi korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish samaradorligi oshishini, ma’lum bir xarajatlarning tejalishini va biznes jarayonining optimallashuvini ta’minlaydi. Ishlab chiqarish omillari bilan investitsiyani rivojlantirish – iqtisodiy subyektlarning faoliyat yuritish maqsadi bo‘lmasdan, balki innovatsion faoliyat samaradorligining o‘sishi asosida aholi farovonligini oshiruvchi vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin. Demak, davlatning qo‘llab-quvvatlashi orqali mamlakatimiz sanoat tarmog‘i korxonalari faol innovatsiya siyosatini ishlab chiqsa va samarali joriy etsa, ular dunyo miqyosida o‘z raqobatbardoshligini oshirishi va mamlakatning iqtisodiy jihatdan ravnaq topishiga imkoniyat yaratadi.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sanoat tarmoqlarida avtomatlashtirish va robotlashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu texnologiyalar ishlab chiqarishda xatolarni kamaytirish, yuqori tezlikda ishlash va resurslarni optimallashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish va prognozlash texnologiyalari orqali sanoatda yangi ishlab chiqarish strategiyalari va optimal yechimlar ishlab chiqiladi. Keng ko‘lamli ma’lumotlar (Big Data) va analitika orqali sanoat sektorlarining jarayonlarini aniqlash va yaxshilash imkoniyatlari mavjud. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, o‘zaro aloqa va xizmat ko‘rsatish usullarini yaxshilash imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Bu esa sanoat tarmoqlarida innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirishda yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarning kengayishi bilan kiber xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Sanoat obyektlarining xavfsizligini ta’minlash uchun yangi kiber xavfsizlik choralari va texnologiyalari ishlab chiqiladi. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sanoatda yangi trendlarni va istiqbollarni shakllantiradi. Ushbu tendensiyalar sanoatning raqobatbardoshligini

mustahkamlash, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va innovatsion yechimlarni tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Архипов Л.И. Большие данные и искусственный интеллект в бизнесе: развитие и регулирование // Big Data and Advanced Analytics. – 2020. – № 6-3. – с. 122-127.

2. Афанасьев Д. Как искусственный интеллект меняет отношение бизнеса к покупателю // БИТ. Бизнес и Информационные технологии. – 2019. – № 5(88). – с. 54-55.

3. Бухтиярова Т.И. Цифровая экономика: особенности и тенденции развития // Бизнес и общество. – 2019. – № 1(21). – с. 22.

4. Дудин М.Н., Шкодинский С.В. Тенденции, возможности и угрозы цифровизации национальной экономики в современных условиях // Экономика, предпринимательство и право. – 2021. – № 3. – с. 689-714. – doi: 10.18334/epp.11.3.111785.

5. Жилин В.В., Сафарьян О.А. Искусственный интеллект в системах хранения данных // Вестник Донского государственного технического университета. – 2020. – № 2. – с. 196-200. – doi: 10.23947/1992-5980-2020-20-2-196-200.

6. Карпова Н.П., Евтодиева Т.Е. Логистические инновации: сущность, виды и способы финансирования // Экономика, предпринимательство и право. – 2020. – № 7. – с. 2063-2072. – doi: 10.18334/epp.10.7.110547.

7. Лапаев Д.Н., Морозова Г.А. Искусственный интеллект: за и против // Развитие и безопасность. – 2020. – № 3(7). – с. 70-77. – doi: 10.46960/2713-2633_2020_3_70.

8. Лексин В.Н. Искусственный интеллект в экономике и политике нашего времени. Статья 2. Искусственный интеллект как товар и услуга // Российский экономический журнал. – 2020. – № 5. – с. 3-33. – doi: 10.33983/0130-9757-2020-5-3-33.

9. Любимов А.П. Основные подходы к определению понятия «искусственный интеллект» // Научно-техническая информация. Серия 2: Информационные процессы и системы. – 2020. – № 9. – с. 1-6. – doi: 10.36535/0548-0027-2020-09-1.

10. Моргунова Е. Интеллектуальная собственность и искусственный интеллект // Интеллектуальная собственность. Авторское право и смежные права. – 2020. – № 9. – с. 27-40.

11. Морозова И.А., Коробейникова О.М., Коробейников Д.А., Глазова М.В. Искусственный интеллект в управленческом учете коммерческих структур: новые возможности // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия: Экономика и управление. – 2020. – № 2(41). – с. 32-38. – doi: 10.18323/2221- 5689-2020-2-32-38.

12. Пороховский А.А. Искусственный интеллект сегодня и завтра: политико-экономический подход // Экономическое возрождение России. – 2020. – № 3(65). – с.4-11. – doi: 10.37930/1990-9780-2020-3-65-4-11.

13. Шкор О.Н., Севзюк Ч.А. Искусственный интеллект в Digital-маркетинге // Big Data and Advanced Analytics. – 2020. – № 6-3. – с. 38-41.

14. Alizada A.V., Muradli V.A. Information and artificial intelligence // Булатовские чтения. – 2020. – p. 37-38.

15. Clauberg R. Cyber-physical systems and artificial intelligence: chances and threats to modern economies // World Civilizations. – 2020. – № 3. – p. 107-115.

16. Kitzmann H., Yatsenko V., Launer M. Artificial intelligence and wisdom // Инновации в менеджменте. – 2021. – № 1(27). – p. 22-27.

17. Reis J., et al. Digital Transformation: A Literature Review and Guidelines for Future Research // Trends and Advances in Information Systems and Technologies: World Conference on Information Systems and Technologies. 2018. – p. 411-421.– doi: 10.1007/978-3-319-77703-0_41.

YOSHLAR TURIZMI MARKETINGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI (XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA)

Husenova Madina Farxodovna
Buxoro davlat universiteti,
Turizm(faoliyat yo’nalishlari bo’yicha) yo’nalishi,
2 – bosqich magistranti
husenova.bsu@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192446

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlar turizmi marketingini rivojlantirishda innovatsiyalarning ahamiyati o’rganilgan. Tadqiqot jarayonida xorijiy mamlakatlar tajribasi o’rganilgan va turizm marketingini rivojlantirishda innovatsiyalarni mamlakatimizda tadbiq etish hamda istiqbolli yo’nalishlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, turizm marketing sohasida innovatsiyalardan foydalanish nafaqat turistlar sonining oshishiga balki, ularga qulay sharoitlar yaratib berilishi hamda xizmatlar sifatini oshirish strategiyalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.*

Kalit so’zlar: *yoshlar turizmi marketingi, turizm marketingi innovatsiyalari, yoshlar turizmining o’ziga xos xususiyatlari, VR/AR voqelik, innovatsion texnologiyalar*

Turizm iqtisodiy faoliyat sifatida jamiyatga ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'zgarishlar kichikroq yoki kattaroq miqyosda namoyon bo'lib, bir nechta sohalarni qamrab oladi. Masalan: mintaqaviy rivojlanish, ish bilan bandlik, ta'lim, atrof-muhit, iste'mol, xavfsizlik, yangi texnologiyalar, transport, moliya hamda soliq tizimlarini, madaniyat va boshqa sohalar. Aksariyat davlatlar o'zlarining iqtisodiy rivojlanishida turizmga tayanadilar hamda aynan shu sohaga sarmoya kiritib, uni rivojlanishning asosiy sektori deb hisoblashadi.

Yoshlar turizm marketingi- turizm marketingining bir bo’lagi hisoblanib, asosiy segmenti 18-30 yoshdagi turistlarni o’ziga jalb qilish, bozorini tahlil qilish, ularning xoishlariga mos turistik xizmatlar va sayohat rejalarini yaratish uchun amalga oshiriladigan strategiyalar to’plami.

Yoshlar turizmi marketingi ko'pincha yosh sayohatchilarning afzalliklari va xatti-harakatlariga moslashtirilgan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Quyida bir nechta yoshlarni sayohat qilishga undovchi asosiy xususiyatlarni keltirishimiz mumkin:



1-diagramma. *Yosh sayyohlarni sayohat qilishga undovchi asosiy xususiyatlar*

1. Ijtimoiy media marketingi: Yoshlar turizmi marketingi yosh auditoriyaga erishish uchun raqamli platformalar va ijtimoiy media kanallariga tayanadi. Bunga Instagram, Facebook va TikTok kabi platformalarda maqsadli reklama, shuningdek, sayohat vloglari, ta’sir qiluvchi sheriklik va foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent kampaniyalari kabi qiziqarli kontent yaratish kiradi.

2. Real va shaxsiy tajriba: Yosh sayohatchilar haqiqiylik va shaxsiy tajribani qadrlashadi. Marketing harakatlari ko'pincha haqiqiy, mahalliy tajribalarni namoyish etishga va sayohatchilarga sayohatlarini o'z qiziqishlari va afzalliklariga moslashtirishga imkon beradigan moslashtirilgan variantlarni taqdim etishga qaratilgan. Bundan tashqari, yosh sayohatchilar sayohat qarorlarini qabul qilishda ko'pincha tengdoshlarining tavsiyalari va ijtimoiy dalillarga tayanadilar.

3. Sarguzasht va ekstremal faoliyat: Yoshlar turizmi marketingi yosh sayohatchilarning sarguzasht ruhini jalb qiladigan sarguzashtli va tajribali faoliyatni ta'kidlaydi. Bunga piyoda sayr qilish, yovvoyi tabiat manzarasidan bahramand bo’lish, safari kabi ochiq havoda sarguzashtlar, shuningdek, mahalliy aholi yashash tarzini o’rganish kabi madaniy tajribalar kiradi.

4. Hamyonbop turistik mahsulotlar: Qulay narx yosh sayohatchilar uchun muhim omildir, shuning uchun yoshlar turizmi marketingi ko'pincha yotoqxonalar, byudjet aviakompaniyalari va chegirmali diqqatga sazovor joylar kabi arzon variantlarni targ'ib qiladi. Yosh mijozlarni jalb qilish uchun maxsus takliflar, chegirmalar va sodiqlik dasturlari ham keng tarqalgan.

5. Ijtimoiy va ekologik mas'uliyat: Ko'pgina yosh sayohatchilar ijtimoiy va ekologik jihatdan ongli bo'lib, o'zlarining qadriyatlariga mos keladigan yo'nalishlar va sayyohlik kompaniyalarini qidiradilar. Yoshlar turizmi marketingi ko'pincha barqarorlik, mas'uliyatli turizm amaliyotlari va ushbu demografik holatni jalb qilish uchun jamoatchilikni jalb qilish tashabbuslariga urg'u beradi.

6. Mobil optimallashtirish: Yosh sayohatchilar sayohatni rejalashtirish va bron qilish uchun mobil qurilmalarga ishonishlarini hisobga olgan holda, yoshlar turizmi marketingi kampaniyalari

ko‘pincha mobil platformalar uchun optimallashtiriladi, mobil qurilmalarga mos veb-saytlar, ilovalar va uzluksiz bron qilish tajribasi.

7. Hamkorlik va Hamjihatlik: Yoshlar turizmi marketingi sa'y-harakatlari yosh sayohatchilar o'rtasida hamjamiyat tuyg'usini shakllantirish va faollikni rivojlantirishga qaratilgan. Bu sayohatchilar ulanishi, maslahatlar almashishi va tajriba almashishi mumkin bo'lgan onlayn forumlar, ijtimoiy media guruhlari va tadbirlarni yaratishni o'z ichiga olishi mumkin.

Bugungi kunda ko‘plab mintaqalarda kuchli raqobat, iqtisodiy va siyosiy beqarorliklar tufayli turistik tashkilotlar doimiy turizmni saqlab qolish uchun tez o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga moslashishni talab qiladi. Doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlar va turistlarning talablari, shuningdek, turistik bozorning to'yinganligi bois turizm tashkilotlari doimiy ravishda yangi turdagi turistik mahsulotlarni izlash hamda yangi yo‘nalishlarni ochish kerakligini o’z oldiga maqsad qilib qo'yishi kerak. Bunday holatda turistik korxonalar innovatsion yondashishni afzal ko’rishadi.

Innovatsion texnologiyalar va biznes modellari mehmondo'stlik va turizm sohalarida tez sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Bunday yangiliklarga misol sifatida telefon-kalit kartalari, mobil o'z-o'zini ro'yxatdan o'tkazish, mobil bron qilish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish uchun kiosklar, qabulxonadagi media panellar, elektron bagaj teglari, “o'z qurilmangizni olib keling” , shaxsiy kontent platformalari, smartfonga chiqish talonlari, mehmonxona xizmatlarini optimallashtirish tizimlari, mehmon qurilmasi ulanish vositalari, mehmonxonalar bilan o'zaro bog'langan Internet protokoli orqali ovozli telefonlar ekotizimi, mehmonlarni aniqlash uchun taqiladigan qurilmalar, planshet menyulari va stolni bron qilish tizimlari misol bo’la oladi. Bu innovatsiyalar biznesni boshqarish texnologiyalaridan tortib (masalan, mobil texnologiyalar/bulut hisoblash, avtomatlashtirish va ilg'or robototexnika, blok zanjiri, ma'lumotlar tahlili, bulutli hisoblash), innovatsion turizm mahsulotlari, xizmatlari va tajribalarini ishlab chiqaradigan texnologiyalarga (masalan, virtual/kengaytirilgan voqelik, narsalar interneti) hamda bozorlarga yordam beradigan, tushunadigan va bog‘lovchi texnologiyalarga (masalan, ma’lumotlar analitika, bulutli hisoblash va sun'iy intellekt) ajratiladi.

COVID-19 pandemiyasi natijasida, shuningdek, boshqa dolzarb muammolar tufayli eng kreativ sayohat va turizm innovatsiyalari paydo bo'ldi. Masalan: masofadan boshqariladigan gidlar bilan virtual sayohat, mehmonxona taqdim etadigan bepul ilova orqali kontaktsiz qo’shilish, sayohat paytida barqaror tanlov qilish uchun ilova, keksalar va qariyalar uyi bemorlariga dunyoning istalgan bir nuqtasiga bir marta tashrif buyurishni xohlagan yoki tashrif buyurgan mamlakatini yana bir marta ko’rish imkonini beruvchi VR texnologiyasi. Bundan tashqari, turizm sohasidagi innovatsiyalar ham iqtisodiy ham ijtimoiy ahamiyatga ega. Iqtisodiy jihatdan, individual turizm tashkilotlari uchun innovatsiyalar mehnat sharoitlarini yaxshilash (tashkiliy innovatsiyalar), intellektual va moddiy resurslar imkoniyatlaridan to'liq foydalanish (texnologik innovatsiyalar), tijorat salohiyatini amalga oshirish (mahsulot innovatsiyasi) hissasini qo'shadi. Ijtimoiy jihatdan, turizm sohasida innovatsiyalar mavsumiylik omilini bartaraf etish, turizmni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini yaxshilash imkonini yaratadi.

Bozorning boshqa segmentlaridan ko'ra ko'proq yoshlar va talabalar sayohatchilari innovatsiyalar bilan etakchilik qilmoqdalar, sababi ular sayohat maqsadlarining ta'siri uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga oladilar hamda yangilikga intiluvchan hisoblanishadi. Yoshlar har doim o'zgarishlar va innovatsiyalarning yetakchi tomonida bo'lishadi va sayohat sanoati ham

bundan mustasno emas. Butunjahon turizm tashkiloti yoshlar orasida global turizmni tiklash va yaxshilash uchun quyidagi 5 ta bosqichni yaxshilashni nazarda tutgan:

№	Global turizmni yoshlar orasida yaxshilashni nazarda tutgan bosqichlar	Qo’llanilish sohasi
1	Hamkorlikni rivojlantirish	yosh sayohatchilar va tadbirkorlar yoqtiradigan mahsulot taklifini kuchaytirishga yordam beradigan tashkilotlar bilan milliy va mahalliy darajada hamkorlikni rivojlantirish, masalan, startap markazlari, biznes-mentorlik tashkilotlari, kovorking maydonlari, ko'ngillilar tashkilotlari, ijodiy industriyalar va sport uyushmalari.
2.	Ma’lumot va tadqiqot	yosh sayohatchilarga tashrif buyuradigan mamlakat haqida umumiy ma’lumotga ega bo’lish imkoni hamda yosh sayohatchilarning mahalliy aholi an’analariga qiziqishini tadqiq qilish (mahalliy musiqa, bayramlar, mashhur insonlar, mahalliy taomlar)
3	Marketing va turistik brending	yoshlarni jalb qilishga qaratilgan marketing uyushmalarini tashkil etish, ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish orqali nahalliy aholi yashash tarzini uyg’unlashtirish, sayohat davomida narx siyosatining aniq va shaffofligini ta’minlash, sayohat davomidagi tajribalarini bo’lishish imkonini beruvchi onlayn platformalar yaratishni qamrab oladi.
4	Innovatsiyalar va mahsulot rivojini qo’llab - quvvatlash	turistik xizmatlardan mobil ilovalar orqali foydalanishni ta’minlash, ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlarga xizmat ko’rsatish, yosh sayohatchilarni rag’batlantirish, yoshlarni atrof - muhitni himoya qilishga qaratilgan tadbirlarga qatnashishga undashni o’z ichiga oladi.
5	Turizmni yoshlarning ta’lim va malakasini oshirish vositasi sifatida rivojlantirish	ta’lim va sayohat dasturlarini integratsiyalash, tabiat resurslari va biologik xilma - xillikni asrashga undash, maktab o’quvchilari almashuv dasturlarini rivojlantirish.

1-jadval. *BTT yoshlar orasida global turizmni tiklash bosqichlari*

Yoshlar turizmi marketingini rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlarda bir qator innovatsion yondashuvlar va strategiyalar mavjud. Ularning ba'zilari quyidagilardir:

1.Ijtimoiy media va Influencer Marketing: Yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, TikTok, Facebook) orqali reklama berish. Foydalanuvchilarga yoqimli va qiziqarli kontent, challenge va tanlovlar orqali ko'proq jalb qilish. Dubay (BAA) va Iordaniya kabi mamlakatlar yosh

sayyohlarni brend ambassadorlarni ya’ni influencerlarni jalb qilish orqali, hashamatli video kontentlar va #MyDubai heshtegi yordamida mamlakatning turistik salohiyatini namoyish etishadi.

2. Maxsus Paketlar va sadoqatlik dasturlari: Yoshlar uchun moslashtirilgan sayohat paketlari, chegirmalar va aksiyalarni ishlab chiqish. Masalan, Qatar Airways va Emirates yoshlar yotoqxonalari yoki arzon mehmonxonalar bilan hamkorlik qilgan holda, yosh sayohatchilarga qulay taklif beradi. Natijada, mintaqaga ko'proq yosh sayohatchilarni jalb qiladi.

3. **Madaniyat va Tajriba Turizmi**: Yoshlarning qiziqishlariga mos keladigan madaniy va ta'limiy dasturlarni yaratish. Mahalliy urf-odatlar, ekstremal tajribalar, sarguzashtlar orqali yoshlarni jalb qilish. Misol qilib, Peru yosh sayohatchilarni Machu-Pikchuga kuzatish va an'anaviy mahalliy jamoalarni o'rganish, madaniy turizmni sarguzasht bilan uyg'unlashtirish kabi ajoyib tajribaga ega bo'lishga qaratilgan.

4. Onlayn Platformalar va Ilovalar: Yoshlar uchun qulay onlayn sayohat platformalari yoki mobil ilovalar ishlab chiqish. Bu platformalarda sayohat qilish uchun kerakli axborot va xizmatlar taqdim etilishi mumkin. Masalan, Kanadaning Toronto va Vankuver shaharlarida mobil ilova va raqamli platformalar sayohatchilar qiziqishlaridan kelib chiqgan holda turistik mahsulotni taklif etadi.

5. Ekologik va barqaror turizm : Yoshlar o'rtasida ekologik va barqaror turizm g'oyalarini targ'ib qilish. Bu turizm modeli yoshlar orasida ommalashib bormoqda. Misol qilib, Ekvador kabi davlatlar biologik xilma-xillikni himoya qilishga, tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan sayohatga qiziqqan yoshlarga e'tibor qaratgan holda Galapagos orollari kabi yo'nalishlarni targ’ib qiladi.

6. Yoshlar uchun karnaval va Festivallarni o’tkazish: Yoshlar orasida sayohatga qiziqishni oshirish uchun turli tadbirlar, festival va seminarlar o'tkazish. Masalan, Braziliyada har yil olib boriladigan Rio karnavali butun dunyodan yoshlarni o'ziga jalb qiladi. Tadbir yosh sayohatchilarning sarguzasht ruhini o'ziga jalb etadigan jonli madaniyat, musiqa va raqsga e'tibor qaratgan holda xalqaro miqyosda sotiladi.

7. Virtual voqelik: Virtual haqiqat (VR) texnologiyalaridan foydalanib, joylar va ekskursiyalarni taqdim etish, bu esa yoshlar o'rtasida qiziqishni oshirishi mumkin. Misol qilib, Chikago va Mayami virtual sayyohlik kampaniyalari 360 darajali sayohatlar va virtual haqiqatdan foydalanadilar, bu yosh sayohatchilarga bron qilishdan oldin yo'nalishlarni oldindan ko'rish imkonini beradi, hayajon uyg'otadi va noaniqlikni kamaytiradi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqgan holda, O’zbekistonda yoshlar turizmi marketingini rivojlantirish uchun qo’llash mumkin bo’lgan innovatsion yondashuvlar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:



2-diagramma. *O’zbekistonda yoshlar turizmi marketingini rivojlantirish uchun qo’llash mumkin bo’lgan innovatsion yondashuvlar*

Xulosa qilib aytganda, innovatsion yondashuvlar nafaqat turizm sohasida, balki iqtisodiyotning istalgan sektorida muhim ahamiyatga ega. Bu kabi yondashuvlar nafaqat turistlar sonini oshirishga xizmat qiladi, balki iste’molchilar uchun qulay sharoitlar yaratish, turistik operatsiyalar sifatini oshirish va raqobatbardosh turizm bozorini yaratish imkonini beradi. Umuman olganda, turizm marketing sohasida innovatsiyalarni qo’llash yosh sayohatchilarni jalb qilish va turistik faoliyat taasurotlarini yaxshilashda foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Astanakulov O., Soxibova M. (2023). Turizm sohasi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida. Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 5, October 2023. ISSN: 2181-1016

2. Bilgihan, A. and Nejad, M.,"Innovation in hospitality and tourism industries", Journal of Hospitality and Tourism Technology, Vol. 6 No. 3, 2015. https://doi.org/10.1108/JHTT-08-2015-0033

3. World Tourism Organization, “A Youth-led Recovery of Global Tourism – Priorities and Recommendations”, book, December 2022, ISBN: 978-92-844-2369-9

4. Sandybayev A., Strategic Innovation in Tourism. A Conceptual and Review Approach, International Journal of Research in Tourism and Hospitality (IJRTH) Volume 2, Issue 4, 2016, p.7;

5. Jabborova, Zuhra. Turizmda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo ‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Innovatsion texnologiyalar 50.02 (2023): 145-149.

6. Tuxliyev, Nurislom. (2023) "Tourism development model in uzbekistan and its specific characteristics." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.3: 73-78.

7. Sadulayevich, Qutlimurotov Fayzullo. "Turizmda innovatsiyalarning o ‘rni va ularning turizm faoliyatiga ta’siri." World scientific research journal 24.1 (2024): 19-24

SUG‘URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING XORIJ TAJRIBASI

Xattabov Murodulla Batirovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Sug’urta ishi” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
leon.eshliy@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14227064

Annotatsiya: *Sug‘urta kompaniyasining moliyaviy resurslari sug‘urtalovchi ixtiyorida bo‘lgan va xo‘jalik faoliyati, sug‘urta operatsiyalari hamda investitsion faoliyatda ishlatilayotgan jami pul mablag‘laridir. Sug‘urta kompaniyasining moliyaviy resurslari ikkita asosiy qismdan tashkil topadi xususiy kapital va jalb qilingan mablag‘lar va bunda jalb qilingan mablag‘lar xususiy kapitalga nisbatan katta hajmni tashkil etadi.*

Sug‘urta kompaniyasining faoliyati sug‘urtalanuvchilarning sug‘urta mukofotlari hisobidan pul fondlarini tashkil qilish va tuzilgan sug‘urta shartnomalarida ko‘zda tutilgan sug‘urta hodisalari yuz berganda ushbu fond hisobidan zararlarni qoplashdan iborat. Sug‘urta hodisalari kam yuz bergan holatda to‘plangan zahiralar va qoplamalar o‘rtasidagi farq foyda sifatida shakllanadi. Sug‘urta kompaniyasining ikkinchi asosiy daromad manbai, shakllangan sug‘urta zahiralarini vaqtinchalik investitsiyaga yo‘naltirgan holda ko‘riladigan daromaddan iborat. Bundan tashqari sug‘urta kompaniyasi o‘qitish-malaka oshirish ishlarini tashkil qilish, sug‘urta bozorida agent sifatida va fond bozorida broker sifatida vositachilikni amalga oshirish bilan daromad ko‘rishi, qayta sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanishi, regress tartibida undirilgan mablag‘lar hamda asosiy vositalarni sotish, korxonalar ustav kapitalida muassis sifatida ishtirok etish hamda ruxsat berilgan holatda kredit faoliyatini amalga oshirish hisobidan daromad ko‘rishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *sug‘urtalovchi, sug‘urtalanuvchi, sug‘urta mukofoti, sug‘urta zahirasi, sug‘urta puli, sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligi, sug‘urtalovchining moliyaviy resursi, sug‘urta javobgarligi, sug‘urtalovchining investitsiya faoliyati, sug‘urta shartnomasi.*

1. KIRISH

To‘lovga qobillikning Solvency II standartlarini joriy etish bo‘yicha Yevropa ittifoqining a’zolari bo‘lgan Yevropaning Markaziy-sharqiy mamlakatlarining konstruktiv tajribalarini o‘rganish va mamlakatimizga joriy etish uchun mazkur tajribalarni alohida o‘rganish talab etiladi. Umuman olganda mazkur mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va to‘lovga qobillik darajasi yuqori bo‘lsada, sug‘urta bozorining rivojlanganlik darajasi va dunyo xo‘jaligiga jalb qilinganligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Masalan Latviya va Ruminiyani tarixan va hozirgi holati bo‘yicha olib qaraganda dunyo xo‘jaligiga kirib borishi aytarli darajada emas va bu ushbu mamlakatlar sug‘urta bozorlarining bunday darajaga yetmaganligidan dalolat beradi. Mazkur mintaqa mamlakatlari sug‘urta bozorlari rivojlanganlik va tayyorgarlik darajasining turli xil holatda bo‘lishiga

qaramasdan, 2016 yildan boshlab ushbu mintaqaning barcha davlatlari to‘lovga qobillikning Solvency II ikkinchi direktivasi talablarini bajarishlari, ushbu direktivani joriy etishga birlashishlari va milliy qonunchilikni shunga moslashtirishlari hamda bu boradagi to‘siqlarni bartaraf etishlari shart qilib belgilandi.

Markaziy-sharqiy Yevropa mintaqasi[1] 2018 yilning 1-yarmida 18 mlrd. yevrodan ortiq brutto-mukofotlar to‘plagan bo‘lib, bu uning yuqori darajadagi rivojlanishga ega ekanligidan dalolatdir[2]. Ikkinchidan, ushbu bozor o‘z xususiyatiga ko‘ra, dunyo xo‘jaligiga kirib borishi nisbatan yuqori bo‘lmasada, sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabning yuqoriligi evaziga yuqori hajmdagi mukofot to‘plash imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, ushbu mintaqa sug‘urta kompaniyalari milliy bozor xususiyatlarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatish xususiyatiga hamda submintaqaviy rivojlanish tendensiyalariga ega.

2. METODOLOGIYA

Quyidagi maqola mavzusi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy yo‘nalishlari va tadqiqot yo‘nalishlari to‘g‘risida qisqacha keltiramiz. Ushbu tadqiqotlar asosan sug’urta sohasida ko’rsatiladigan xizmatlar, sug’urta tashkilotlari moliyaviy resurslarini boshqarish, va yangi sug’urta maxsulotlarini o‘rganishga qaratilgan. Sug‘urta kategoriya bo‘lib, moliya kategoriyasining qismi sifatida amal qiladi. Hozirgi zamon iqtisodiy fanida moliya kategoriyasini turlicha talqin qiladilar. Voznesenskiy E.A., Kazak A.S., Maramigin M.S., Sabanti B.M. kabi olimlar moliyaning shakllanishida davlatning rolini ustqurma kategoriyasi sifatida e’tirof etadilar. Boshqa bir olimlar, masalan, Drobozina L.A., Polyak G.B. kabilar moliyani oila byudjetining shakllanishi va ishlatilishi bilan bog‘liq uy xo‘jaligi ichidagi munosabatlarni aks ettiruvchi “uy xo‘jaligi moliyasi” kategoriyasi deya e’tirof etadilar. Iqtisodchi olim V.M.Rodionovaning fikricha, moliya umumiy takror ishlab chiqarish jarayonlari va uning bosqichlarini aks ettiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, takror ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligini ta’minlash qay darajada mutanosib taqsimlanayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek moliyaviy barqarorlik har qanday tashkilotning holatini belgilovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu tushuncha bo‘yicha aniq va bir xil ta’rif mavjud emas. Ushbu tushunchani turli manbalarda turlicha talqin qilinadi. Ko‘pgina ishlarda moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda ma’lum koeffitsientlar o‘rganiladi (to‘lovga qobillik, rentabellik, likvidlik va boshqalar) va ularning natijalari tahlil qilinadi. Ammo bunda tashqi va ichki faktorlarning ta’siri natijasida koeffitsientlar o‘zgarishi dinamikasining o‘zgarish ehtimolligi o‘rganilmaydi.

Iqtisodiyot nazariyasida “barqarorlik”ni tahlil qilishni boshlab bergan V.Valras va A.Marshall tomonidan “barqarorlik”ning klassik (mumtoz) modeli ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, tizim bozor narxlariga tuzatishlar kiritish (V.Valras) va hajmga tuzatishlar kiritish (A.Marshall) kabi ma’lum shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan taqdirda barqaror holatga qaytadi[3].

Rossiyalik olim M.M.Alekseeva “barqarorlik”ning mohiyatini quyidagicha ifodalaydi: barqarorlik o‘zgarib turishlarning to‘liq mavjud emasligi yoki kamayib boruvchi o‘zgarishlar sharoitida muvozanat holatiga intilish demakdir[4].

Korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash va barqarorlikni ta’minlashga nisbatan yondoshuv mavjud bo‘lib, uning asosida moliyaviy barqarorlik va uni ta’minlashni turli risklardan himoyalash mexanizmi sifatida ko‘rib chiqish yotadi. U risklar nazariyasini ishlab chiqqan ko‘plab xorijiy olimlar, jumladan, J.Marshall, F.Bansal Vikul K va boshqalarning ilmiy ishlarida

takomillashtirib borilgan[5]. Kompaniyaning moliyaviy holatini tavsiflovchi yo‘nalishlarning har biri (sug‘urta faoliyati, investitsiya, moliyaviy faoliyat va qayta sug‘urta) stabillik sharoitini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lib, faoliyatning bu yo‘nalishlariga xos faktorlar yig‘indisini moliyaviy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlar guruhi deb qabul qilish mumkin. Faktorlar guruhi o‘z o‘rnida bir qancha holatlardan (elementlar) tashkil topgan bo‘lib, ular moliyaviy barqarorlik faktorlari deb ataladi va mos analitik ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanishi mumkin. O‘z o‘rnida, faktorlar guruhi (sug‘urta kompaniyasining ma’lum faoliyat turi) sintetik ko‘rsatkichlar yordamida tavsiflanadi, bunda moliyaviy tahlilning maqsadi umumlashtiruvchi ko‘rsatkich sifatida moliyaviy holatni tavsiflaydi. Shunday qilib, faktorlar – ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanuvchi ob’ektiv iqtisodiy holatdir. Faktorlar turli belgilari bo‘yicha klassifikatsiyalanishi mumkin. Moliyaviy holatga ta’sir ko‘rsatish darajasidan kelib chiqib, faktorlarni (hamda mos ko‘rsatkichlarni) turli darajalarga ajratish mumkin. Umumiy holda faktorlarni klassifikatsiyalash tanlangan moliyaviy barqarorlikni baholash modeliga bog‘liq.

Sug‘urta kompaniyasining strategik muvozanati modelida strategik faktorlar sifatida korxona potensiali, atrof muhit potensiali va shundan kelib chiquvchi kompaniya muvaffaqiyati potensiali ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Risklarni tarkibiy boshqarish modelida (tarkibiy moliyaviy muvozanat modeli) faktorlar sifatida moliyaviy imkoniyatlar va moliyaviy majburiyatlar hisoblanadi: ma’lum davrlarga mo‘ljallangan kutilayotgan to‘lovlar saldosi, o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilinuvchi kapitalni taqdim etish shakllari. Bunda sug‘urtaning faqat tarmoq xususiyatlari hisobga olinmasdan, balki alohida turlari ham e’tiborga olinadi. Masalan, kapitalni taqdim qilish shakliga bo‘lgan talablar hayot sug‘urtasida, mulkiy sug‘urtada va javobgarlik sug‘urtalarida bir-biridan farq qiladi. Jarayonlarni operativ boshqarish modelida faktorlar sifatida quyidagilar qabul qilinadi: sug‘urta va investitsiya portfellarini shakllantirish, bozorni segmentlash, sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish va sug‘urta dasturlarini shakllantirish, tarif siyosati hamda risklarni sug‘urtaga qabul qilish bilan bog‘liq faktorlar. Faoliyat barqarorligini tahlil qilish vazifasidan kelib chiqqan holda faktorlarni sug‘urta kompaniyasining faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan ichki (mikroiqtisodiy) va tashqi (makroiqtisodiy) faktorlar sifatida klassifikatsiyalash muhim hisoblanadi (1-rasmga qarang).

Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun va ushbu qonundan kelib chiquvchi me’yoriy hujjatlarga ko‘ra sug‘urtalovchi moliyaviy barqarorligining asosini ustav kapitali hamda sug‘urta zahiralarining shakllantirilganligi va qayta sug‘urta tizimining mavjudligi tashkil etadi.

Sug‘urta faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni tavsiflash uchun sug‘urta mukofotining yetarliligi, qayta sug‘urtaning samaradorligi va sug‘urta portfelining balanslashganligi darajasini tahlil qilish zarur.



1-rasm. Moliyaviy barqarorlik faktorlari tarkibi[6]

Sug‘urta mukofotining yetarliligini tahlil qilish uchun biz sug‘urta mukofoti tarkibining elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan quyidagi ko‘rsatkichlar tizimini taklif etamiz:

$$\frac{\textit{Sug‘urta qoplamalari}}{\textit{Sug‘urta mukofotlari}} \leq \textit{Netto-stavka ulushi}$$

$$\frac{\textit{Komission mukofot}}{\textit{Sug‘urta mukofoti}} \leq \textit{Komission mukofotning yuklamadagi ulushi}$$

$$\frac{\textit{Ish yuritish xarajatlari (komissiyadan tashqari)}}{\textit{Sug‘urta mukofoti}} \leq \textit{Ish yuritish xarajatlarining yuklamadagi ulushi}$$

Tahlil sug‘urta turlari va bozor segmentlari bo‘yicha amalga oshirilishi hamda sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari va sug‘urta qoplamalari taqqoslanishi kerak.

Agar keltirilgan nisbatlar 1 dan katta bo‘lsa, bu sug‘urta mukofotining yetarli emasligini bildiradi. Keltirilgan nisbatlarning birortasi bajarilmaganda, ammo bunda ularning summasi 1 doirasida bo‘lganda ham e’tibor talab qilinadi. Bu shu bilan bog‘liqki, bir elementni boshqasi bilan yopish bir martalik xususiyatga ega bo‘lishi mumkin, ya’ni keyingi davrlarda bunday imkoniyat bo‘lmaydi va demak mukofotning yetishmaslik holati yuzaga keladi.

Sug‘urta kompaniyasi sug‘urta bozorida o‘z o‘rnini egallash maqsadida tarifni pasaytirishi mumkin. Ammo bunday holatda u o‘z zimmasiga olgan javobgarliklarini bajarashi uchun netto qismni kamaytirmasligi kerak. Yuklamaning ba’zi qismlarini esa ma’lum vaqtga kamaytirib turishi mumkin, masalan foydadan voz kechish, komission to‘lovni kamaytirish, tashkiliy xarajatlarni qisqartirish va hokazo. Ushbu xarajatlarni investitsion daromad hisobidan qoplashi ham mumkin.

Qayta sug‘urta samaradorligini baholash uchun biz quyidagi nisbatdan foydalanishni taklif etamiz:

$$\frac{\textit{Sug‘urta mukofotida qayta sug‘urtalovchining ulushi}}{\textit{Sug‘urta mukofoti}} \leq \frac{\textit{Sug‘urta qoplamasida qayta sug‘urtalovchining ulushi}}{\textit{Sug‘urta qoplamasi}}$$

Qayta sug‘urta bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning samaradorligini tahlil qilish uchun qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari va sug‘urta qoplamalarining taqqoslanuvchanligini ta’minlash kerak.

Agar nisbat buzilgan bo‘lsa, demak sug‘urta kompaniyasi qayta sug‘urta uchun me’yordagidan ko‘p javobgarlikni qayta sug‘urtaga bermoqda. Bu holat risklarning noto‘g‘ri seleksiyasi yoki qayta sug‘urtalovchining to‘lovga noqobilligi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

[20] [23]

Sug‘urta kompaniyasi investitsiya faoliyatini amalga oshirishi davomida yuzaga keladigan investitsiyaviy risklarni tahlil qilib borish uchun aktivlar likvidliligi, diversifikatsiyasi, qaytishliligi va daromadliligi ko‘rsatkichlarini aniqlab borishni taklif etamiz.

Majburiyatlarni o‘z vaqtida amalga oshirish uchun aktivlar likvidliligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Likvidlik ta’minlanmaslik holatining yuzaga kelishiga sifatsiz menejment va debitorlarning to‘lovga qobiliyatsizligi (doimiy yoki vaqtincha) sabab bo‘lishi mumkin.

Rossiyalik olim L.A.Orlanyuk-Maliskayaning fikriga ko‘ra, sug‘urta kompaniyasi likvidligini baholash uchun muddatlilik ko‘rsatkichi muhim hisoblanadi, chunki “...sug‘urtalanuvchilarning da’volari ko‘p hollarda tez fursatda to‘lab berilishi kerak”. Sug‘urta faoliyatining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda quyidagi muddatlilik ko‘rsatkichini taklif etamiz:

$$\frac{\textit{Pul mablag‘lari + Yuqori likvidli aktivlar}}{\textit{Ishlab topilmagan mukofotlar zahirasi + Zararlar zahirasi}} \geq 1$$

Yuqori likvidli aktivlar sifatida qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar hisoblanadi (pul mablag‘laridan tashqari).

Agar ushbu nisbat ta’minlanmasa sug‘urta kompaniyasida sug‘urtalanuvchilar va boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olmaslik riski yuzaga keladi.

Aktivlar likvidliligining yetarli emasligi risk yuzaga kelganda qaytarish muddati kelmagan aktivlarni sotish zaruratini keltirib chiqaradi va o‘z-o‘zidan rejalashtirilgan daromadni ololmaslikka sabab bo‘ladi. Ushbu holat hayot sug‘urtasi shartnomalari bo‘yicha majburiyatlarni bajara olmaslik holatini yuzaga keltiradi.

3. NATIJA

Sug‘urta mexanizmi asoslanadigan prinsiplar keltirildi va ularning xususiyatlari ochib berildi. Sug‘urta mexanizmi ehtimollik xususiyatiga ega ekanligi sug‘urta munosabatlarining

sug‘urta riski, sug‘urta hodisasi, sug‘urta qoplamasi kabi xususiyatlarini keltirib chiqarishi asoslandi.

Samarali sug‘urta mexanizmini ishlab chiqish va yo‘lga qo‘yish, sug‘urta kompaniyasining malakali xodimlari va ular tomonidan ishlab chiqilgan sug‘urta siyosatiga bog‘liq. Puxta ishlab chiqilgan sug‘urta siyosati sug‘urta kompaniyasi faoliyatining davomiyligini va moliyaviy jihatdan barqarorligini ta’minlaydi.

Sug‘urta kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan sug‘urta siyosati va uning amalga oshirilishining samaradorligini uning yil yakuni bo‘yicha yuzaga kelgan moliyaviy natijalari, debitor va kreditor qarzdorliklarning holati, pul oqimlari va xususiy kapital dinamikasi orqali tahlil qilish mumkin.

Pul mablag‘larini samarali boshqarishda buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, joriy tahlilni tashkil etish va pul oqimlarini moliyaviy rejalashtirish istiqbollarini o‘rganib borish muhim hisoblanadi. So‘nggi yillarda moliyaviy tahlilni amalga oshirishda to‘lovlar (oqimlar) ketma-ketligi usuliga alohida e’tibor qaratilmoqda. “To‘lovlar oqimi” tushunchasining moliyaviy tahlil amaliyotiga kiritilganligiga ko‘p vaqt bo‘lmagan bo‘lsada, ushbu usul tez ommalashdi va o‘zining samarasini bermoqda.

Moliyaviy oqimlarni tadqiq qilishda ma’lum tendensiyalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tahlilning oddiy usulidan (buxgalterlik hisobotlari tahlili) murakkab usullarigacha (turli modellar va sxemalar ishlab chiqish) bo‘lgan yo‘l bosib o‘tildi. Ushbu turli-tuman tadqiqot usullarini birlashtirgan holda ularni quyidagi ikki qismga ajratildi:

1.Klassik usul.

2.Zamonaviy usul.

Ushbu yondoshuv me’yoriy yondoshuv hisoblanmasada, korxonaning oldingi va kelajakdagi moliyaviy holatini aniqroq tahlil qilish imkonini beradi.

“Kafolat” sug‘urta kompaniyasining so‘nggi besh yildagi pul oqimlarining xarajatlar qismi tahlil qilindi va sug‘urta operatsiyalari bo‘yicha pul to‘lovlari ko‘rsatkichining o‘sish darajasi nisbatan yuqori bo‘lganligi va buning sababi to‘plangan sug‘urta mukofotlariga nisbatan to‘lab berilgan qoplamalar hajmining sezilarli darajada past ekanligidir degan xulosa hosil qilindi.

Sug‘urta kompaniyasi moliyaviy oqimlarini tadqiq qilish shuni ko‘rsatdiki, bugungi kungacha qo‘yilmalarni yangi sug‘urta dasturlariga joylashtirishning barcha manbalarining mavjud imkoniyatlari to‘liq aniqlanmagan. Sug‘urta menejmentida sug‘urta dasturlariga investitsiyalarning samarali yo‘nalishlarini tanlash uchun kompaniya ichida pul mablag‘lari harakatining dinamik xususiyatlarini hisobga oluvchi, ularning tashqi oqimlar bilan o‘zaro aloqasini, joylashtirishning vaqt jihatidan to‘g‘ri belgilanishi masalalarida yangicha usullarni ishlab chiqish zarur.

Sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda xususiy kapitalning o‘rni katta bo‘lib, ushbu mablag‘lar tashqi sub’ektlar oldidagi javobgarlikdan xoli bo‘lgan va shu tufayli kompaniya uzoq muddatli investitsiya faoliyatini amalga oshirishida, strategik maqsadlarni amalga oshirishda va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin bo‘lgan mablag‘lar hisoblanadi. Ushbu mablag‘lardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali kompaniyaning moliyaviy barqarorligi ta’minlash mumkin.

O‘zbekiston milliy sug‘urta bozori tahlil etilib, sug‘urta xizmatlarining katta qismi beshta sug‘urta kompaniyasi tomonidan ko‘rsatilayotganligi va milliy sug‘urta kompaniyalarining ko‘pchilik qismi mayda sug‘urta kompaniyalari bo‘lib, ularning aktivlari nisbatan kichik va bu

holat milliy bozorda turli ko‘rinishdagi favqulotda holatlar yoki iqtisodiy qiyinchilik sharoitlari yuzaga kelganda bozorda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalarining katta qismi iqtisodiy nochor ahvolga tushib qolish ehtimoli yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Mazkur bobning uchinchi bo‘limida Markaziy-sharqiy Yevropa mintaqasi mamlakatlari sug‘urta bozorlarining xususiyatlari o‘rganildi va ushbu mintaqada amalga oshirilapyotgan SWOT-tahlilning kuchli va kuchsiz jihatlari tahlil qilinib, jadval ko‘rinishida taqdim qilindi. Mazkur mintaqa mamlakatlarida YaIMda sug‘urta mukofotlarining hissasi va kishi boshiga to‘g‘ri kelayotgan sug‘urta mukofotlari ko‘rsatkichlari keltirilib, mamlakatimizdagi ushbu ko‘rsatikichlar bilan taqqoslandi.

4. DISCUSSION

Ushbu bo‘limda sug‘urta kompaniyasining likvidligini aniqlash ko‘rsatkichi, mablag‘larning muddatliligi ko‘rsatkichi, investitsion daromadning yetarliligi ko‘rsatkichi va foydaning yetarliligi ko‘rsatichlarini aniqlash bo‘yicha nisbatlar taklif qilamiz.

Sug‘urta mukofotining yetarliligini tahlil qilish uchun sug‘urta mukofoti tarkibining elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan uch yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlar tizimi taklif etildi va ushbu ko‘rsatkichlarni doimiy tahlil qilib borish va zarur choralar ko‘rish sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta’minlashi asoslandi, nisbatning buzilishiga sabab bo‘ladigan holatlar ko‘rsatib berildi.

Ko‘rsatilayotgan qayta sug‘urta xizmatlarining samaradorligini baholash uchun qo‘llaniladigan nisbatlar taklif etildi va ushbu nisbatlarning buzilishiga sabab bo‘luvchi holatlar aniqlandi.

Mamlakatimiz sug‘urta bozorida mazkur ko‘rsatkichlar rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslanganda sezilarli darajada farq qilishi, ya’ni sug‘urta shartnomalari ko‘proq sug‘urta kompaniyasi manfaatlarini ko‘zda tutgan holda tuzilayotganligi va to‘lab berilayotgan sug‘urta qoplamalari to‘plangan sug‘urta mukofotlariga nisbatan kichik hajmni tashkil etayotganligi sug‘urtalanuvchilarda sug‘urta kompaniyalariga bo‘lgan ishonchning past darajada saqlanayotganligiga olib kelayotganligi asoslandi.

5. CONCLUSIONS

O‘zbekiston milliy sug‘urta bozori va unda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, sug‘urta kompaniyalari o‘zlari olayotgan javobgarliklari doirasida ularning moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyati belgilangan me’yorlarning quyi chegarasida bo‘lib, katastrofik holatlarning yuz berish ehtimolligini e’tiborga olganda, olingan majburiyatlar hajmidan kelib chiqib kritik holatning yuzaga kelish ehtimoli nisbatan yuqori ekanligini ta’kidlash mumkin;

mamlakatdagi mavjud sug‘urtalanishi mumkin bo‘lgan risklarning juda kichik qismi (2-3foizi) sug‘urtalanayotganligini va ushbu ko‘rsatkichning tezlik bilan oshib borayotganligini e’tiborga olganda (to‘planayotgan sug‘urta mukofotlarining o‘sishi 2018 yilda 2014 yilga nisbatan 372,4 foizni tashkil etgan) sug‘urta kompaniyalarining mavjud moliyaviy imkoniyatlari yetarli bo‘lmay qolish ehtimoli yuqori ekanligidan dalolat beradi;

O‘zbekiston milliy sug‘urta bozori tahlil etilgan va unga ko‘ra sug‘urta mukofotlari hajmi yildan-yilga tez o‘sayotganligi, ammo shunga qaramasdan YaIMdagi hissasi past darajada saqlanib qolayotganligi, ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlarining turli-tumanligi yetarli emasligi,

sug‘urta kompaniyalariga bo‘lgan ishonchning yetarli emasligi va natijada ko‘p sondagi potensial sug‘urtalanuvchilar sug‘urta xizmatlari bilan ta’minlanmagan;

2019 yilning 5 aprelidagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi №R-5464 sonli Prezident farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi №PQ-4412 sonli “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbiroari to‘g‘risida” gi qarorlari O‘zbekiston sug‘urta bozorining kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjatlar bo‘lib, ushbu konsepsiya va yo‘l xaritalari asosida sug‘urta bozorini rivojlantirish sug‘urta tarmog‘ining kelajakda iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘iga aylanishiga imkoniyat yaratib beradi.

Shu bilan bir qatorda sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini aniqlashda chet mamlakatlar tajribalaridan foydalanish va xususan Solvency II standartlarini joriy etish bo‘yicha Yevropa ittifoqining a’zolari bo‘lgan Yevropaning Markaziy-sharqiy mamlakatlari konstruktiv tajribalarini o‘rganish va mamlakatimizga joriy etish bo‘yicha ishlar olib borish kerak deb o‘ylayman.

6. ADABIYOTLAR

12. Xpriminsurancereport/Oktober 2017 статистикага қуйидаги мамлакатлар ва категорияларни киритади:Албания, Болгария, Босния ва Герцеговина, Венгрия, Латвия, Литва, Македония, Польша, Руминия, Сербия, Косово, Словакия, Словения, Хорватия, Чехия, Эстония

13. D.Ghetu InsuranceReport CEE, SEE & CIS Insurance markets in 1H2018//FirstHalf 2018//XPRIMM. 2018 №.2 pp.10-25

14. Маршалл А. Принципы экономической науки. –М.:Прогресс, 1993. – 350 с.

15. Алексеева М.М. Планирование деятельности фирмы. Учебно-методическое пособие. -М.: Финансы и статистика, 1997. -248 с.

16. Маршалл Джон Ф., Бансал Викул К. Финансовая инженерия: польное руководство по финансовым нововведениям. Пер. с англ. –М.: Инфра-М, 1998. -784 с.

17. Muallif ishlanmasi.

18. Адамчук Е.А. Основные тенденции страхования в развивающихся странах в кризис//Страховое дело, 2003, №3

19. Березкин Ю.М. Проблемы и способы организации финансов: монография. Иркутск: изд.БГУЭП, 2006, -248 с.

20. Янова С.Ю. Особенности накопительных видов страхования жизни//Организация продаж страховых продуктов. -2007, -№1, с.55

21. Аленичев В.В. Эволюционно-институциональный аспект исследования сущности страхования//Финансы -2007, №3

22. Дроздовская Л.П. Интермедиация риска на информационно-кредитном рынке: монография, -Хабаровск: РИЦ ХГАЭП, 2010, -9 с.

23. Дроздовская Л.П. Банковская сфера: механизм информационно-финансовой интермедиации: монография. Хабаровск: РИЦ ХГАЭП, 2010, -126 с.

24. Березкин Ю.М. Два подхода к пониманию финансового механизма:учетно-

финансовый и финансово-инженерный//Известия ИГЭА (БГУЭП).-2012,-№2,-с.27-32

25. Кагаловская Э.Т. Некоторые особенности личного страхования в современной России// Финансы, 2012, №1

26. “Ўзбекистонда суғурта бозорининг ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, ТМИ, 2012 йил 28 февраль

27. Водолазский А.А.Начало эконофизики и количественная определенность первых экономических законов.-Новочеркасск, -НОК, -2013, 20 с.

28. Қўлдошев Қ.М. Ўзбекистонда ҳаёт суғуртаси ва уни ривожлантириш муаммолари. //Молия илмий журнали 2014 й. 2-сон.

29. В.В.Дрошнев Демографическая детерминированность актуарных расчетов тарифов при накопительном страховании жизни: региональный аспект.//Страховое дело, 2015, сентябрь.

SUG‘URTA SOHASINI RAQAMLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINI O‘RGANISH

Saidov Farrux Faxriddinovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
f.saidov@tuit.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192822

Annotatsiya*. Ushbu maqola O‘zbekiston sug‘urta sohasini raqamlashtirish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganishga bag‘ishlangan. AQSh, Yaponiya, Yevropa va Xitoy kabi mamlakatlarda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, blokcheyn va avtomatlashtirish texnologiyalaridan foydalanish tajribalari tahlil qilinadi. Bu texnologiyalar sug‘urta jarayonlarini avtomatlashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda raqamli sug‘urta xizmatlarini joriy etish imkoniyatlari va ularning iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklari baholangan. Shuningdek, maqolada sug‘urta xavfini baholash va xarajatlarni optimallashtirish uchun matematik formulalar ham keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: O‘zbekiston, sug‘urta, raqamlashtirish, xorijiy tajriba, sun’iy intellekt, blokcheyn, katta ma’lumotlar, xavf baholash, xarajatlarni optimallashtirish*

Kirish

Raqamli texnologiyalarning sug‘urta sohasiga joriy qilinishi bu sohada xizmatlar samaradorligini oshirishga, xavfsizlikni ta’minlashga va jarayonlarni avtomatlashtirishga imkon beradi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlar (Big Data), blokcheyn va IoT texnologiyalari sug‘urta jarayonlarini yaxshilashda muvaffaqiyatli

qo‘llanmoqda. Bu texnologiyalar sug‘urta xizmatlari jarayonlarini yanada qulay va tezkor qilish imkonini yaratadi.

O‘zbekistonda sug‘urta sohasini rivojlantirish, uning raqamli infratuzilmasini yaratish va xorijiy tajribani joriy qilish orqali xizmatlarni sifatliroq va qulayroq qilish imkoniyati mavjud. Ushbu maqola xorijiy tajribalarni o‘rganish va tahlil qilish orqali O‘zbekiston sug‘urta sohasini raqamlashtirishga yordam berish maqsadini ko‘zlaydi.

Metodologiya

Maqola uchun xorijiy sug‘urta bozorlaridagi raqamlashtirish bo‘yicha amaliyotlar o‘rganildi. Bu maqsadda yetakchi sug‘urta kompaniyalari tomonidan taqdim etilgan hisobotlar va ilmiy maqolalar asosida ma’lumot yig‘ildi. Raqamli texnologiyalarning sug‘urta sohasidagi amaliy qo‘llanilishi va iqtisodiy samaradorligi Jahon banki, Deloitte Insights kabi nufuzli manbalardan olingan ma’lumotlar yordamida tahlil qilindi. Sug‘urta xavfini baholash va xarajatlarni minimallashtirish uchun matematik formulalar va statistik usullar qo‘llanildi.

Natijalar

Tahlil natijalari raqamlashtirishning sug‘urta sohasiga qo‘shgan yutuqlarini va O‘zbekistonda ushbu texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini aniqroq ifoda etadi. Ushbu natijalar xorijiy tajribalardan ilhomlanib, O‘zbekiston sug‘urta sohasida qanday raqamli yondashuvlarni qo‘llash mumkinligi haqida tavsiyalar beradi.

Sug‘urta sohasidagi raqamlashtirishning asosiy texnologiyalari va ularning afzalliklari. Sug‘urta sohasida raqamlashtirishning asosiy texnologiyalari har bir mamlakatda o‘ziga xos qo‘llaniladi. Misol uchun, AQSh sun’iy intellektni xavf tahlili va avtomatlashtirish uchun ishlatmoqda, Yaponiya esa blokcheyn texnologiyasi orqali mijozlar ma’lumotlarini himoya qilish va xizmatlarda oshkoralikni ta’minlashni maqsad qilgan. Yevropada katta ma’lumotlar yordamida mijoz ehtiyojlarini batafsil tahlil qilish va ularga mos xizmatlarni yaratish keng qo‘llanilmoqda. Xitoyda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar sog‘liqni saqlash sug‘urtasida xavf tahlili uchun ishlatiladi, bu esa sug‘urta kompaniyalariga mijozlarga tezkor va ishonchli xizmat ko‘rsatish imkonini beradi.

O‘zbekistonda sug‘urta sohasida ushbu texnologiyalarni joriy etish quyidagi afzalliklarga ega:

- *Xizmatlarni avtomatlashtirish va tezlashtirish:* Sun’iy intellekt yordamida sug‘urta arizalarini avtomatik qayta ishlash imkonini beradi. Bu jarayon sug‘urta da’volarini ko‘rib chiqish vaqtini qisqartiradi va mijozlarga tezkor xizmat ko‘rsatadi.
- *Ma’lumot xavfsizligini ta’minlash:* Blokcheyn texnologiyasi sug‘urta kompaniyalariga mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma’lumotlarini himoya qilishda katta yordam beradi. Bu mijozlarning sug‘urta kompaniyalariga ishonchini oshiradi.
- *Mijoz ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlar:* Katta ma’lumotlar texnologiyasi yordamida sug‘urta kompaniyalari mijozlar ehtiyojlarini chuqur o‘rganib, ularga mos xizmatlarni taqdim etish imkoniga ega.

Quyida xorijiy mamlakatlarda sug‘urta sohasida raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi o‘rganildi. Bunga ko‘ra, AQSh sun’iy intellekt yordamida sug‘urta arizalarini tezkor ko‘rib chiqish va avtomatlashtirishda yetakchilik qilmoqda, bu esa xarajatlarni kamaytiradi va xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi. Yaponiya blokcheyn texnologiyasidan foydalanib ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va oshkoralikni ta’minlashda muvaffaqiyat qozongan. Yevropa Ittifoqida esa katta ma’lumotlar texnologiyasi mijozlarning ehtiyojlariga mos xizmatlarni yaratishda keng qo‘llanilib,

kompaniyalarga foyda keltirmoqda. Xitoy sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalanib, sog‘liqni saqlash sug‘urtasida mijozlarga tezkor va individual xizmat ko‘rsatmoqda. Janubiy Koreya esa 5G va IoT texnologiyalaridan foydalanib sug‘urta jarayonlarini masofadan boshqarish imkonini kengaytirgan (1-rasm).

Tahlil natijalari:



1-rasm. AQSh [1], Yaponiya [2], Yevropa [3], Xitoy [4], Janubiy Koreya [5] tajribasi bo‘yicha dunyo tajribasi

O‘zbekistonda raqamli sug‘urta xizmatlarini joriy qilish imkoniyatlari. Xorijiy tajribalar asosida O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali quyidagi natijalarga erishishi mumkin:

- Sug‘urta xizmatlarida tezkorlik va qulaylik: Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalari yordamida sug‘urta jarayonlarini tezkor ko‘rib chiqish va mijozlar ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlarni taklif qilish imkoniyati mavjud.
- Sug‘urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish: Blokcheyn va IoT texnologiyalari orqali sug‘urta kompaniyalari xizmatlarini ishonchli va shaffof qilib, mijozlar ishonchini oshirishi mumkin.
- Mijozlarga mos xizmat ko‘rsatish: Katta ma’lumotlar orqali mijozlar ehtiyojlari chuqur tahlil qilinib, ularga mos sug‘urta polislarini taklif etish imkoniyati yaratiladi.

Bu afzalliklar nafaqat kompaniyalar uchun foydali, balki mijozlarga ham qulaylik yaratadi.

Sug‘urta kompaniyalari raqamlashtirish orqali sug‘urta xavfini baholash va xarajatlarni optimallashtirishda katta imkoniyatlarga ega. Sug‘urta xavfini va xarajatlarni tahlil qilishda matematik yondashuvlar quyidagicha:

$$R = \frac{L * E}{C}$$

bu yerda:

- R — sug‘urta xavf koeffitsienti,
- L — kutilayotgan zarar miqdori,
- E — xavfning ehtimolligi,
- C — sug‘urta polisi qiymati.

Sug‘urta kompaniyasi xarajatlarini minimal darajada ushlab qolish uchun quyidagi optimallashtirish formulasidan foydalanish mumkin:

$$C_{min} = \frac{\sum_{i=1}^{n}(P_i * E_i}{\text{n}}$$

bu yerda:

- C_{min} — sug‘urta xarajatlarining minimal qiymati,
- P_i — xavfli hodisa uchun mumkin bo‘lgan to‘lov,
- E_i — hodisaning ehtimolligi,
- n — tahlil qilingan xavf hodisalari soni.

Muhokama

Tahlil va natijalar O‘zbekiston sug‘urta sohasini rivojlantirishda raqamlashtirish muhimligini ko‘rsatmoqda. Xorijiy tajribalarni tahlil qilish asosida O‘zbekiston uchun eng samarali raqamli strategiyalarni aniqlash imkonini berdi. Sug‘urta sohasini raqamlashtirishning global tajribasidan foydalanish orqali O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari jarayonlarni tezkor, qulay va samarali qilish imkoniyatiga ega. Quyida O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari uchun ishlab chiqilgan tavsiyalar keltirilgan:

1. *Sun’iy intellekt texnologiyasini kengaytirish*. Sun’iy intellekt yordamida sug‘urta arizalarini avtomatik qayta ishlash va xavf tahlil qilish O‘zbekiston sug‘urta sohasida xizmat ko‘rsatish tezligini oshirishga yordam beradi. Bu mijozlarning sug‘urta kompaniyasiga ishonchini mustahkamlab, xizmat sifati yuqori darajada bo‘lishiga imkon beradi.

2. *Blokcheyn texnologiyasini joriy etish*. Sug‘urta kompaniyalari blokcheyn texnologiyasidan mijoz ma’lumotlarini xavfsiz saqlash va sug‘urta polislarini kuzatishda foydalanishi kerak. Blokcheyn yordamida sug‘urta jarayonlari yanada oshkora bo‘ladi, bu esa mijozlar orasida ishonchni oshiradi.

3. *Katta ma’lumotlarni tahlil qilish tizimini yaratish.* Katta ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyasi sug‘urta kompaniyalariga mijoz ehtiyojlarini chuqur o‘rganib, ularga mos xizmatlarni taklif qilish imkonini beradi. Bu esa mijozga yo‘naltirilgan xizmatlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

4. *Sug‘urta xizmatlarini avtomatlashtirish*. Sug‘urta jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish, masalan, mijoz arizalarini tezkor qayta ishlash va xavf tahlili, kompaniyalar uchun katta yutuq bo‘ladi. Bu xizmat tezligi va samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

5. *IoT texnologiyasini joriy qilish*. IoT texnologiyalari sug‘urta kompaniyalariga xavfni real vaqtda kuzatish imkonini beradi. Masalan, avtomobil sug‘urtasida IoT orqali transport vositalarining holatini kuzatish va xavfni kamaytirish mumkin. Bu texnologiya kompaniyaga mijozlarga yanada mos xizmat ko‘rsatish imkoniyatini beradi.

6. *Kadrlar malakasini oshirish va yangilash*. Sug‘urta kompaniyalarining raqamlashtirilishi uchun texnologiya bo‘yicha bilim va malakaga ega kadrlarni tayyorlash zarur. Shu sababli, kompaniyalar o‘z xodimlarini raqamli texnologiyalar bo‘yicha o‘qitish va malakasini

oshirish uchun doimiy dasturlar tashkil etishlari kerak. Bu o‘z navbatida sug‘urta kompaniyalari xizmatlarining raqamli infratuzilmasini rivojlantirish imkonini beradi.

7. *Sug‘urta sohasida innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlash.* Sug‘urta sohasida raqamli innovatsiyalarni kengaytirish uchun yangi texnologiyalar va yondashuvlarga asoslangan startaplarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Innovatsion startaplar raqamli sug‘urta xizmatlarini rivojlantirish va mavjud xizmatlarni yaxshilashda muhim o‘rin tutadi.

8. *Raqamli xavfsizlik choralari va kiberxavfsizlikni mustahkamlash*. Raqamli sug‘urta xizmatlarining rivojlanishi kiberxavfsizlikka jiddiy e’tibor berishni talab qiladi. Sug‘urta kompaniyalari o‘z xizmatlarida himoya tizimlarini kuchaytirish, shaxsiy ma’lumotlarni saqlash va ularga ruxsatsiz kirishni oldini olish uchun kiberxavfsizlik choralarini ko‘rishlari zarur. Shu bilan birga, mijozlar orasida shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligiga ishonchni mustahkamlash zarur.

Ushbu tavsiyalar O‘zbekiston sug‘urta sohasini raqamlashtirishda xorijiy tajribadan foydalanishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar sug‘urta xizmatlarida avtomatlashtirishni, jarayonlarning tezkorligini va xizmat sifatini oshirishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, sug‘urta kompaniyalariga mijoz ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos xizmatlarni taqdim etish imkonini yaratadi.

Xulosa

Sug‘urta sohasining raqamlashtirilishi nafaqat xizmat sifatini oshiradi, balki jarayonlarni tezlashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Xorijiy tajribalar asosida O‘zbekistonda raqamli sug‘urta xizmatlarini joriy qilish mamlakatning sug‘urta sohasini yangi bosqichga olib chiqadi. Jahon miqyosida sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va blokcheyn texnologiyalari sug‘urta kompaniyalariga raqamli platformalar orqali samarali xizmat ko‘rsatishga imkon beradi. O‘zbekistonda ushbu texnologiyalarni keng miqyosda qo‘llash nafaqat sug‘urta kompaniyalarining samaradorligini oshiradi, balki sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan ishonchni ham mustahkamlaydi.

Sug‘urta sohasida raqamlashtirishning O‘zbekistondagi imkoniyatlari va uning amalga oshirilishi iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo‘shadi. Xorijiy davlatlarning muvaffaqiyatli tajribasidan ilhomlanib, O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari xizmatlarini optimallashtirish va mijozlarga yangi qulayliklar yaratish imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lemonade Insurance Company. (2022). Artificial Intelligence in Insurance. [Onlayn]. Mavjud: www.lemonade.com
2. Tokio Marine & Nichido Fire. (2022). Blockchain Technology for Insurance. [Onlayn]. Mavjud: www.tokiomarine.co.jp
3. EU Commission. (2021). Digital Transformation in Insurance Sector. [Onlayn]. Mavjud: www.ec.europa.eu
4. Ping An Insurance Group. (2022). Big Data and AI in Health Insurance. [Onlayn]. Mavjud: www.pingan.com
5. Samsung Insurance. (2023). 5G and IoT in Insurance Industry. [Onlayn]. Mavjud: www.samsunginsurance.com
6. Deloitte Insights. (2021). Global Trends in Digital Insurance. [Onlayn]. Mavjud: www.deloitte.com
7. World Economic Forum. (2022). The Future of Insurance. [Onlayn]. Mavjud: www.weforum.org

8. Allianz SE. (2022). Digital Transformation in Insurance. [Onlayn]. Mavjud: www.allianz.com

SUG‘URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI JOYLASHTIRISH USTIDAN DAVLAT NAZORATINING USLUBIYOTI

Kenjayev Ilhom G’iyozovich
Toshkent davlat iqtisodiyoy universiteti dotsenti
kenjayev_imail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14227054

Annotatsiya: *Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha xalqaro amaliyotda keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlar sug‘urta tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishga va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bu dunyo amaliyotida ikki xil yondashuvni o‘z ichiga oladi. Birinchisi Yevropacha yondashuv bo‘lib, ushbu yondashuv sug‘urta faoliyati investitsiya faoliyatini hisobga olmagan holda daromadli natijaga erishish shart ekanligini ko‘zda tutsa, ikkinchisi Amerikacha yondashuv bo‘lib, ushbu yondashuvda sug‘urta faoliyatidan zarar ko‘rgan taqdirda ham investitsiya faoliyatidan olgan daromadlari hisobidan faoliyat ko‘rsatishi mumkinligini ko‘zda tutadi. Lekin bugungi kunda xalqaro amaliyotda sug‘urta tashkilotlarini moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.Ushbu tadqiqot natijalari sug’urta tashkilotlar ixtiyorida katta miqdordagi moliyaviy resurslarni shakllanishiga hamda sug’urtalovchilarning investitsiyon jarayonlarda ishtirok etishi uchun imkoniyat beradi.*

Kalit so‘zlar: *sug’urtalovchi, sug’urtalanuvchi, sug’urta vositachilari, potensiyal sug’urtalanuvchi, sug’urta mukofoti, sug’urta puli, sug’urta javobgarligi, sug’urta zaxirasi, sug’urta tashkiloti investitsiya faoliyati, sug’urtalovchining moliyaviy resurisi, sug’urta shartnomasi, sug’urta xizmati.*

KIRISH

Ma’lumki, har qanday sohani tartibga solish qabul qilingan qonunlar hamda boshqa me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunday me’yoriy hujjatlarning amal qilishi sohani tartibga solish va sog‘lom raqobatni ta’minlash bilan birga mazkur faoliyatning rivojlanishiga ham shart-sharoit yaratib beradi.

Sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Ushbu qonun hujjatlarini biz ikki qismga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin. Birinchi qism sug‘urta sohasining investitsion faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonunlar va maxsus qonunchilik hujjatlaridan iborat.

Sug‘urtalovchining investitsiya faoliyati umumiy qonunlar sifatida 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi hamda 2014-yil 9-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlar orqali tartibga solinadi. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-sonli “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi Farmoni investorlarning turli siyosiy risklar natijasida ko‘rishi mumkin bo‘lgan zararlaridan himoyalash, ichki va tashqi investorlarga investitsiya loyihalarini amalga oshirishlari uchun zarur bo‘ladigan yer uchastkalari ajratish masalasidagi tartib tamoyillarni soddalashtirish borasida katta imkoniyatlar ochib berdi[1].

Sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini takomillashtirish sug‘urta faoliyatining samaradorligi va sifatini oshirishga erishish mexanizmlari intensiv va ekstensiv usullarni o‘z ichiga oladi. Ekstensiv usullarga investitsiya uchun zarur resurslarni xususiy kapital va sug‘urta zahiralarini ko‘paytirish orqali erishish yo‘llari kiradi. Intensiv usullar moliyaviy nazorat va rejalashtirishni, hamda moliyaviy mablag‘larni joylashtirishni boshqarishni samarali yo‘lga qo‘yish orqali investitsiya mablag‘larining natijadorligini oshirishni ko‘zda tutadi.

Sug‘urta tashkilotini investitsiya kapitalining muhim bazaviy manbai bo‘lib sug‘urta zaxiralari hisoblanadi. Ayniqsa bu manba hayot sug‘urtasi shartnomalaridan kelib tushadigan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilganda qulaylik darajasi yuqori bo‘ladi. Chunki mazkur sug‘urta shartnomalari uzoq muddatga tuzilib, ulardan kelib tushgan mablag‘larni uzoq muddatli investitsiya loyihalarga yo‘naltirish mumkin.

METODOLOGIYA

Quyidagi maqola mavzusi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy yo‘nalishlari va tadqiqot yo‘nalishlari to‘g‘risida qisqacha keltiramiz. Ushbu tadqiqotlar asosan konchilik sug‘urta tashkilotlari investitsion jarayonlarda ishtirokini o‘rganishga qaratilgan.

Sug‘urta tashkilotining investitsiya faoliyatini nazariy asoslarini mazmuni haqida ilmiy tushunchalar tahlili va ularni tizimlashtirilishi, xususan Orlanyuk-Maliskaya L.A., Turbina K.E., Fyodorova T.A. kabi olimlarning ilmiy ishlaridagi tadqiqi ilmiy doiralarda investitsiya va sug‘urta faoliyati o‘rtasida yaqin aloqa borligini ko‘rsatadi.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish faoliyati yuqori risk darajasiga ega bo‘lgan sohalar biri hisoblanadi. Rossiyalik tadqiqotchi I.T.Balabanova riskka shunday ta’rif beradi: risk – yo‘qotishlar xavfining mavjudligi; omadga ishongan holdagi harakat[2]. A.Mur va K.Xiarndenlar esa risk – xavf-xatar. Istalmagan hodisaning yuz berish ehtimolligi sifatida qaraladi va uning yuz berishi qimmatliklarning yo‘qotilishiga olib keladi, deya ta’rif beradi[3]. U.F.Sharp, G.Dj.Aleksandr, Dj.Deyli tomonidan tayyorlangan “Investitsiyalar” nomli kitobda risk – investitsiya qiymati bilan bog‘liq noaniqlik deya ta’rif berilgan[4].

Biz tomondan berilgan takliflarning barchasida investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish tizimida mazkur ikki yo‘nalishning bog‘liqligini yaqqol ko‘rish mumkin. Ushbu faoliyatni samarali tashkil etishda zanjirning har bir bo‘g‘inini sinchiklab o‘rganish sug‘urta va investitsiya yo‘nalishlari o‘rtasida aloqa borligini nazariy jihatdan asoslashga imkon yaratadi.

Sug‘urta tashkilotining aktivlar portfelini baholash parametrlarini tahlil qilishning dolzarbligi normativ koeffitsientlarning bekor qilinishi va sug‘urta zaxiralarini joylashtirish tartiblarining paydo bo‘lishi bilan yanada ortadi. Sug‘urta tashkilotining aktivlar portfelining umumiy risklari investitsiya siyosatining risk darajasini ko‘rsatadi va bu quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$O_{portfolio} = \sqrt{\sum_{i=1}^{N}\sum_{j=1}^{N} a_i a_j V_{ij}}$$

bunda, $O_{portfolio}$ – investitsiya portfelining umumiy riski;

a_j – sug‘urta tashkilotining joylashtirilgan investitsiyaning aktiv qismi;

V – foydalanilgan aktivlarning daromadlilik matrisasi.

Sug‘urta tashkilotining aktivlar portfeli likvidliligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I_{tportfolio} = \sum_{i=1}^{n} I_{ti} \times d_i$$

bunda, $I_{tportfolio}$ – investitsiya resursi portfelning umumiy likvidligi;

I_{ti} – aktivlar portfelidagi i – aktiv likvidligi;

d_i – aktivlar portfelidagi i-aktiv ulushi.

Keltirilgan ko‘rsatkichlarning bahosi sug‘urta tashkilotining investitsiya faoliyati siyosatini belgilash imkonini beradi. Bu ayniqsa sug‘urta tashkilotlarining reytingini aniqlashda ularni o‘zaro taqqoslashda qo‘l keladi. Sug‘urta tashkilotining aktivlar portfelini tizimli ravishda tahlil qilib borish uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$K_{portfolio} = Rate_{portfolio} \times D_{rate} + 1/O_{portfolio} \times D_o + I_{tportfolio} \times D_i$$

bunda, $K_{portfolio}$ – sug‘urta aktivlari portfelini baholashning umumiy me’zonlari;

D - sug‘urta tashkilotining investitsiya portfelida uning ishonchliligi, likvidliligi, daromadliligini ko‘rsatuvchi koeffitsientlar.

$$\sum_{i=1}^{3} d_i = 1$$

Bundan tashqari, sug‘urta tashkilotini investitsiya faoliyati sifati va natijadorligini baholashning umumiy tizimida uning investitsiya faoliyatidan kelib chiqadigan moliyaviy barqarorligini belgilovchi ko‘rsatkichlarni ko‘rib chiqish kerak. Buning uchun quyidagi xususiyatlarni ko‘rib chiqish zarur:

a) qo‘yilgan resurslarning o‘rtacha yillik darajasi;

b) aktivlar dyurasiyasining (foiz stavkalari o‘zgarishiga sezuvchanlik) passivlar dyurasiyasiga nisbati;

v) aktivlar likvidligi ko‘rsatkichi;

g) likvidlilik darajasi.

Qo‘yilgan resurslarning yillik o‘rtacha darajasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_i = \frac{\sum_{n>1}^{5} V_n / 5}{\sum_{n-1}^{5} A_n / 5}$$

bunda, K_i – o‘rtacha yillik investitsiyalar koeffitsienti;

V_n – qo‘yilgan resurslarning choraklik va yillik hajmi;

A_n – sug‘urta zaxiralaridagi qayta sug‘urta ulushi va zararlar summasini ayirib tashlangan holda qo‘yilgan resurslarning choraklik va yillik hajmi. Ushbu ko‘rsatkich sug‘urta tashkiloti mablag‘larining investitsiya aktivlaridan tashkil bo‘lgan qismini aniqlash imkonini beradi. K_i ko‘rsatkichining qayta sug‘urtalovchi ulushi bilan birgalikdagi yillik sug‘urta zaxiralari qiymatiga nisbati ularning to‘liq joylashtirilish darajasini ko‘rsatadi. Aktivlar dyurasiyasining passivlar dyurasiyasiga nisbati hayot sug‘urtasida uning foiz riskiga nisbatan pozitsiyasini belgilaydi va ushbu formula bilan hisoblanadi: $K_{DU} = \frac{D_{ua}}{D_{u1}} = 1$ taxminan belgisi 1 teng bo‘lishi kerak.

Bunda, D_{ua} – aktivlar dyurasiyasi;

D_{u1} – passivlar dyurasiyasi.

Sug‘urta tashkilotining faoliyat ko‘rsatishini muhim tamoyili uning o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olishi ekan. Buning uchun aktivlar likvidligi ko‘rsatkichini tahlil qilish muhim o‘rin tutadi:

$$D_{u1} = \frac{A_1}{R} \geq 1$$

bunda, D_{u1} – aktivlar likvidligi ko‘rsatkichi;

A_1 – bozor qiymati bo‘yicha likvid aktivlar summasi;

R – qayta sug‘urta ulushi va ishlab topilmagan mukofotlarni hisobga olgan sug‘urta zaxirasi summasi ko‘rib chiqilayotgan mezon. Ko‘rib chiqilayotgan mezon sug‘urta tashkilotining ishonchliligini u olib borayotgan investitsiya siyosati bilan zarur likvidlikka ega bo‘lgan aktivlar portfelini tashkil qilish imkoniyati o‘rtasida bog‘liqlik borligini ko‘rsatada. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, sug‘urta tashkilotining aktivlari tarkibida o‘zining likvidligini hech qachon yo‘qotmaydigan aktivlarning bo‘lishi muhim hisoblanadi. Sug‘urta tashkilotining olgan majburiyatlarini aniq va o‘z vaqtida bajara olishini ko‘rsatuvchi navbatdagi koeffitsient likvidlik darajasi bo‘lib, u sug‘urta tashkilotini passivlarining likvid aktivlarga nisbati bilan farqlanadi. Buni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$L_k = \frac{L}{A_1} \leq 105$$

bunda, L_k – sug‘urta tashkilotining likvidlik darajasi;

L – sug‘urta tashkilotining olgan majburiyatlari yig‘indisi;

A_1 – bu sug‘urta tashkilotining likvid aktivlari amortizasiya qiymatining summasi bo‘lib, bunda bozor tebranishlari hisobga olinmaydi. Likvidlikka ega bo‘lgan aktivlar kassadagi, sug‘urta tashkiloti hisob raqamidagi, bank depoziti ko‘rinishidagi, ko‘chmas mulk va qimmatli qog‘oz shaklidagi mablag‘lar bo‘lib, ammo mavjud majburiyatlarning 5 foizdan ortiq bo‘lmasligi kerak. Ushbu ko‘rsatkichning 105 darajada bo‘lish talabi shu bilan izohlash mumkinki, sug‘urta bozorida bankrotlarning faoliyat ko‘rsatishini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, sug‘urta tashkilotining likvidlik darajasining so‘nggi 3-5 yil davomida oshib borayotganligini ko‘rsatdi. Natijada investitsiya faoliyati natijadorligini oshirishga asoslangan sug‘urta tashkiloti amal qilishining sifatini baholash bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimi investitsiyalashning faol strategiyasi

samaradorligini baholash imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda sug‘urta tashkilotining rentabelligi darajasini aniqlash, investitsiya resurslarining daromadliligi va investitsiya siyosatining samaradorligini aniqlab beradi. Bundan tashqari ushbu ko‘rsatkichlar sug‘urta tashkilotini moliyaviy faoliyatini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

NATIJA

Sug‘urta tashkilotini investitsiya kapitalining muhim bazaviy manbai bo‘lib sug‘urta zaxiralari hisoblanadi. Ayniqsa bu manba hayot sug‘urtasi shartnomalaridan kelib tushadigan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilganda qulaylik darajasi yuqori bo‘ladi. Chunki mazkur sug‘urta shartnomalari uzoq muddatga tuzilib, ulardan kelib tushgan mablag‘larni uzoq muddatli investitsiya loyihalarga yo‘naltirish mumkin.

Hayot sug‘urtasi shartnomalarini tuzishdan ko‘zlangan maqsadga, ya’ni qulay investitsiya sharoitga erishish uchun yangi sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish va bunda mijozlarga ma’qul keladigan shartlarni qo‘llashda quyidagi bosqichlarni e’tiborga olish zarur:

sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish;

sug‘urta zaxira mablag‘larini joylashtirish;

ssuda ko‘rinishidagi qaytarib olinadigan summalarni vaqtidan oldin olib qo‘yish;

nafaqa, annuitetlar, renta hamda sug‘urta summalari ko‘rinishidagi doimiy to‘lovlarni amalga oshirish.

Bugungi kunda sug‘urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan sug‘urta to‘lovlari ma’lum davr oralig‘ida bo‘lib to‘lash, bir martada to‘lash, ikki bo‘lib to‘lash yoki shartnoma amal qilishi davomida to‘lab borish kabi usullar chet el mamlakatlarida qo‘llanilayotgan usullarning bir qismi hisoblanadi. Sug‘urta to‘lovlarida o‘sib boruvchi yoki kamayib boruvchi usullar qo‘llanilsa samaradorlik yanada yaxshi bo‘ladi. Agarda kamayib boruvchi usul qo‘llanilganda sug‘urta tashkiloti quyidagi foydali jihatlarga ega bo‘ladi:

mijozlar uchun ular yosh paytidayoq katta miqdordagi pul mablag‘larini to‘plash imkoni yaratiladi. Chunki o‘zining maoshi doim katta va etarli bo‘lishiga va to‘lovlarni qiyinchiliksiz amalga oshirib bora olishiga hech kim to‘liq ishona olmaydi.

sug‘urta tashkiloti uchun sug‘urta shartnomasi tuzilgan vaqtning o‘zida katta miqdordagi pul mablag‘ini to‘plash imkoniyati yaratiladi.

O‘sib boruvchi usul bilan sug‘urta to‘lovlarini to‘lab borish, o‘z daromadining kelajakda oshib borishiga aniq ishongan va etarli asosi bor mijozlar uchun ma’qul keladi. Shunday shartlarga ega bo‘lgan sug‘urta mahsulotlarini taklif etgan sug‘urta tashkilotlari ko‘proq mijoz to‘plash va qisqa muddatda xususiy investitsiya kapitalini ko‘paytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shuningdek investitsiya imkoniyatlarini yaxshilashga yordam beradigan, hamda sug‘urtalanuvchilarning xohishlarini ko‘proq e’tiborga oladigan, sug‘urta shartnomalari tuzish to‘g‘risidagi ma’lumotlar turli vositalar yordamida berib borilganda sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini ko‘payishiga olib keladi. Sug‘urta tashkilotining investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar shaffofligi ta’minlanganda potensial sug‘urtalanuvchi uchun shartnoma tuzish va to‘lov turini tanlash bo‘yicha qaror qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Bunday holatda sug‘urta tashkiloti ixtiyorida bo‘lgan bo‘sh moliyaviy resurslarni uzoq muddatli investitsiya ob’ektlariga yo‘naltirish imkoniyati tug‘iladi.

Bundan tashqari, sug‘urta tashkilotlarining fond bozoridagi aktiv faoliyati uning tuzilmasiga spekulyativ operasiyalar ulushini pasaytirish tomonga qarab harakat qilish imkonini

beradi. Bu birinchi o‘rinda, faqat mo‘tadil investitsiya siyosati olib borishni nazarda tutgan sug‘urta faoliyatining o‘ziga xosligi bilan bog‘liqdir.

Makro va mikrodarajada sug‘urta tashkilotlarining investitsiya siyosatining ahamiyatini belgilovchi omillarni majmuali baholash bizga ularni tizimlashtirish imkonini berdi. Ushbu tizimlashtirishni quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini mohiyati va ahamiyatini belgilab beruvchi omillar[5]

Mamlakatimizda bugungi kunga qadar sug‘urta bozori etarli darajada rivojlanmagan va ushbu bozorda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta tashkilotlari yirik institutsonal darajasiga etmagan. Shu munosabat bilan makrodarajadagi investitsiya faoliyatining ahamiyatini belgilovchi omillar deyarli namoyon bo‘lmaydi.

Rivojlangan mamlakatlar sug‘urta bozorlarida esa ahvol boshqacha. Ya’ni, katta hajmdagi moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari banklar va pensiya fondlari bilan birga yirik investor sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular passiv moliyaviy resurslarni aktiv kapitalga aylantirib, milliy iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat quyidagi jadvalda tasvirlangan (1-jadval).

1-jadval

Sug‘urta tashkilotlarini investitsiya faoliyati tajribasining qisqacha sharhi[6]

Mamlakat	Sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini o‘ziga xos xususiyatlari
Germaniya	Sug‘urta tashkilotlari mamlakat iqtisodiyotdagi investisiyalarning 25 foizini ta’minlaydi va ularning investisiya faoliyatidan olgan daromadlari jami daromadlarining 1/5 qismini tashkil qiladi.
Shvesariya	Sug‘urta tashkilotlarining muvaffaqiyatli ishlashi shartlari qo‘llaniladi. Ulardan biri bo‘lib, sug‘urta tashkilotlarining kapital bozoridagi faol harakati hisoblandi. Sug‘urta tashkilotlari aktivlarining yarmiga yaqini ssuda va investisiyalar shaklida obligasiyalarga joylashtiradi.
Yaponiya	Aholi mablag‘larini jalb qilish uchun kelajakda milliy iqtisodiyotda strategik muammolarni echishga qaratilgan alohida olingan iqtisodiy mexanizm qo‘llaniladi. Mazkur mexanizmini qo‘llashga hayot sug‘urtasi bilan shug‘ullanuvchi sug‘urta tashkilotlari jalb qilingan. Bundan tashqari, ayni paytda ular yirik investisiya loyihalarni amalga oshirishda ustuvor huquqqa ega.
AQSh	Alohida olingan shtatlar investisiyalarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash huquqiga ega bo‘lib, ular hozirgi vaqtda investisiyalarga ehtiyoji yuqori bo‘lgan milliy iqtisodiyot sohalariga moliyaviy resurslarni sug‘urta tashkilotlari tomonidan joylashtirilishini rag‘batlantiruvchi iqtisodiy me’yorlarni belgilashi mumkin.

Investisiya siyosatni ishlab chiqish iqtisodiyotning barcha darajalarida amalga oshirilishi zarur. Mikrodarajada investisiya siyosati innovasion faoliyatni amalga oshirayotgan korxonalar, banklar, fondlar, sug‘urta tashkilotlari va uy xo‘jaliklari uchun ishlab chiqilishi zarur. Shu bilan birga iqtisodiy tarmoqlar va hududlarni rivojlantirish, istiqbolli loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘naltirilgan maqsadli investisiya dasturlarini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Makrodarajada davlat investisiya strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish cheklangan byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, istiqbolli tarmoqlar va hududlarni qo‘llab-quvvatlash, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Investitsiya faoliyatini kengaytirishning muhim omili bu investitsiya muhitini yaratishdir. Investitsiya muhitini yaratish davlat miqyosida va davlat tomonidan turli vositalarni qo‘llash (soliqlar vositasida, qonunchilik orqali va boshqa imtiyoz va preferensiyalar berish) orqali amalga oshiriladi. Ushbu vositalar ichki va tashqi investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

DISCUSSION

Ushbu bo‘limda biz sug‘urta tashkilotlari investitsion jarayonlarda faollligini oshirishning ichki mexanizmlaridan samarali foydalanishga erishish uchun bir nechta g‘oyalarni taklif qilamiz.

mijozlarning xohishlarini hisobga olgan holda sug‘urta xizmatlari uchun sug‘urta mukofotlar to‘lashning aktual sxemalarini shakllantirish kerak. Shu maqsadda vaqt oralig‘ida

ko‘payib yoki kamayib boruvchi sxemalarni ishlab chiqish va amalda qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi;

investitsiya munosabatlariga nisbatan e’tibori yuqori sug‘urtalanuvchilar bilan tuzilgan sug‘urta shartnomalaridan shakllantirilgan sug‘urta zaxiralari mablag‘larini investitsiya qilishda, sug‘urtalanuvchilarning xohishlarini e’tiborga olish kerak. Shu maqsadda sug‘urta tashkiloti ichkarisida investitsiya faoliyatining aniq maqsadlaridan kelib chiqqan holda alohida aktivlar portfellarini shakllantirish va ular uchun alohida hisob yuritish;

sug‘urta faoliyatini amalga oshirish jarayonida sug‘urta zaxiralarini joylashtirish qoidalariga asoslangan holda mijozlarga polisli qarzlar berishni ko‘paytirish kerak. Shu maqsaddan kelib chiqib, sug‘urta tashkilotlarida ushbu xizmatni ko‘rsatish qoidalarini qayta ko‘rib chiqish, ularni sug‘urtalash qoidalariga kiritish va berilgan polisli qarzlarning qat’iy hisobini yuritish;

investitsiya operasiyalariga yo‘naltirish maqsadida xususiy resurslarni ko‘paytirish uchun sug‘urta tashkilotlarini investitsiya sohasidagi samarali siyosatni amalga oshirishlari zarur hisoblanadi;

sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirishning natijadorligini hamda sug‘urta faoliyatining sifatini oshirish uchun moliyaviy nazorat va rejalashtirish mexanizmlaridan unumli foydalanish kerak.

CONCLUSIONS

Ushbu maqolada sug‘urta tashkilotlari ixtiyorida bo‘lgan katta miqdordagi moliyaviy resurslarni investitsiya ob’ektlariga joylashtirish hamda ulardan samarali foydalanish va uzoq muddatli sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish orqali uzoq muddatli investitsiya faoliyatini amalga oshirish zarurligi yuzasidan fikr va mulohazalar ta’kidlab o‘tilgan. Shu bilan bir qatorda tadqiqotda e’tibor qaratish kerak bo‘lgan eng katta muammo bu sug‘urta tashkilotlari ixtiyorida bo‘lgan katta miqdordagi moliyaviy resurslarni joylashtirishda autsorsing tashkil qilish kerak. Natijada sug‘urta tashkilotlari ixtiyoridagi katta miqdordagi moliyaviy resurslar yanada erkin va samarali joylashtirishga imkoniyat yaratiladi hamda sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorlik darajasini ortishiga sharoit yaratgan bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018 yil 1 avgustdagi PF-5495-son.
2. Балабанова И.Т. Риск-менеджмент. Москва: Финансы и статистика, 1996. С.192.
3. Мур А., Харнден К. Руководство по безопасности бизнеса. Москва: Филин 1998. С. 328.
4. Шарп У.Ф., Александр Г.Дж., Дейли ДЖ. Инвестициялар. Инглиз тилидан рус тилига таржима. М.:“Инфра-М” 1997
5. Muallif ishlanmasi.
6. Фролова В.В. Управление инвестиционной деятелностю Россиеских страховых компаний. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Краснодар 2013. С.27.
7. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар, ўқув қўлланма, Т.: Молия, 2010. 324 б.
8. Балабанова И.Т. Риск-менеджмент. Москва: Финансы и статистика, 1996. с.192.

9. Гварлиани Е.Т. Денежные потоки в страховании. Финансы и статистика, 2004. с.336.

10. Алтынникова И.В. Страховые резервы. Порядок формирования. Бухгалтерский учет. Налогообложение. Москва, Анкил, 2007.с.112.

11. Турбина К.Е. Теория и практика страхования, М.: Анкил 2003.с.191.

12. Орланюк-Малицкая Л.А., Яновой С.Ю. Страхование.-М.: Юрайт, 2012. с.880.

13. Прокофьева Е.Л. Инвестиционные возможности страховых компаний: монография. Абакан: Издательство Государственного Университета Хакасии, 2008. с.112.

14. Мур А., Харнден К. Руководство по безопасности бизнеса. Москва: Филинь, 1998. с. 328.

15. Husanov R.H., Yadgarov A.A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug‘urta tizimi, T.: Yangi asr avlodi-2005, 79 b.

16. Сплетухов Ю.А., Дюжиков Е.Ф. Страхование. Учебное пособие. - М.: “Инфра-М”, 2012. – с.357.

17. G‘ulomov S.S., Boev H.I., Boeva J. Valyuta, kredit, moliya va sug‘urta muammolari. Toshkent. Mehnat 1998, 116 b.

18. Фёдорова Т.А. Страхование: Учебник. М.:Магистр “Инфра - М” 2009. с.695.

19. Fozilchaev Sh.Q., Xidirov N.G‘. Investitsiya va lizing asoslari. O‘quv qo‘llanma, T.: iqtisod-moliya -2017 y. 245 b.

20. Шарп У.Ф., Александр Г.Дж., Дейли ДЖ. Инвестициялар. Инглиз тилидан рус тилига таржима. М.:“Инфра-М”1997. с.276

21. Boev H.I. Sug‘urtalash.Toshkent. Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. 75 b.

22. Алтынбеулы К. Финансовая устойчивост страховых компаний в условиях конкурентной среды. Диссертация на получение научное звание к.э.н. Алматы, 2006. с.89.

23. Nurullaev A.S. O‘zbekistonda fermer va dehqon xo‘jaliklarini sug‘urtalash masalalari. I.f.n., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati, T.: - 2007, 28 b.

24. Мазанова Е.В. Статистический анализ инвестиционных возможностей страховых компаний. Автореферат диссертации на соискание кандидата экономических наук, Оренбург 2008. с.25.

14. Овчинникова, Н. (2022). Социальная поддержка студентов в условиях дистанционного обучения. Научный вестник, 12(3), 23-30.

15. Петров, В. С., & Алексеев, А. К. (2020). Цифровизация как инструмент персонализированного обучения. Технологии в образовании, 17(3), 88-97.

16. Рябкова, А. (2021). Психическое здоровье студентов: вызовы современного образования. Актуальные вопросы психологии, 11(2), 123-130.

17. Смирнова, А., & Корнеев, В. (2023). Влияние цифровых технологий на обучение студентов: мотивация и стресс. Образовательные технологии и общество, 26(1), 45-56.

18. Смирнова, М. А., & Корнеев, Д. В. (2023). Психологические аспекты дистанционного обучения в цифровую эпоху. Психология образования, 21(2), 44-53.

19. Соломатина, Е. (2022). Самодисциплина студентов в условиях дистанционного обучения: проблемы и решения. Научные труды по образованию, 10(4), 56-62.

20. Трофимова, А. П. (2022). Эффективность цифрового обучения в вузах России. Научный журнал образования, 5(1), 77-85.

21. Фролова, Н. В., & Кузнецов, О. А. (2023). Цифровая среда и вызовы образования. Педагогическое обозрение, 20(1), 90-104.

22. Кожевников, С. П. (2022). Перспективы развития дистанционного обучения в условиях цифровизации. Образование XXI века, 6(2), 22-31.

O‘ZBEK TILI UCHUN XALQARO FONETIK ALIFBOSI JADVALINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

Tog‘ayev Ilxom Baxtiyorovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tayanch doktaranti (PhD)
togayevilxombaxtiyorovich@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14184558

Annotatsiya.*Ushbu maqola O‘zbekistonning davlat tili bo‘lgan o‘zbek tilining fonetik alifbosini xalqaro fonetik alifbo (IPA - International Phonetic Alphabet)ga muvofiq ravishda ishlab chiqishni maqsad qilgan. Tadqiqotda o‘zbek tilidagi tovushlar, ularning fonetik belgilari va talaffuzdagi xususiyatlari o‘rganilib, IPA tizimiga mos ravishda ifodalangan. Olingan natijalar o‘zbek tilining talaffuzini xalqaro miqyosda tushunish va o‘rganishga yordam beradi. Dasturiy ta’minot yordamida o‘zbek tilining talaffuzini avtomatlashtirishga qaratilgan imkoniyatlar taqdim*

etiladi. Ushbu tadqiqot tilshunoslik, lingvistika va tilni o‘rganish jarayonlariga yangi nazar va yechimlarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, fonetik alifbo, IPA, tovushlar, talaffuz, dasturiy ta’minot, lingvistika, ta’lim.*

Kirish

Masalaning qo‘yilishi

O‘zbek tili, turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, o‘ziga xos fonetik xususiyatlari va talaffuz tizimi bilan ajralib turadi. O‘zbek tilidagi tovushlarning xilma-xilligi, unli va undosh tovushlarning ko‘pligi, shuningdek, ularning talaffuzdagi o‘ziga xos xususiyatlari ushbu tadqiqotning ahamiyatini oshiradi. Hozirgi kunda global miqyosda kommunikatsiya va madaniyat almashinuvi jarayonlarida o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini xalqaro miqyosda ifodalash muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tilidagi tovushlar va ularning talaffuz xususiyatlari xalqaro fonetik alifbo (IPA) orqali ifodalanishi, tilni o‘rganishda katta qulayliklar yaratadi. Chet ellik o‘quvchilarga o‘zbek tilining talaffuzini tushunish va to‘g‘ri ifodalashda bu jarayon muhim rol o‘ynaydi.

Kutiladigan natijalar:

Ushbu tadqiqot orqali o‘zbek fonetik alifbosining IPA’ga mosligini aniq belgilab berish, uni chet tillarida so‘zlashuvchilarga tushunarli shaklda taqdim etish va o‘zbek tilining fonetik tizimini yanada rivojlantirish kutilmoqda. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishda muhim vosita bo‘ladi.

Materiallar va usullar

Materiallar

Tadqiqotda o‘zbek tilidagi tovushlar va ularning talaffuz xususiyatlari, shuningdek, IPA tizimidagi belgilar tadqiq qilindi. O‘zbek tilining grammatik va fonetik manbalari, shu jumladan, lug‘atlar, ilmiy maqolalar va ma’ruzalar asos sifatida qabul qilindi. Bunday manbalar o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini to‘g‘ri aniqlash va ularga asoslangan dasturiy ta’minotni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Usullar

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Lingvistik tahlil:** O‘zbek tilidagi unli va undosh tovushlar alohida o‘rganilib, ularning IPA tizimidagi belgilar bilan mosligi aniqlanadi. Har bir tovushning talaffuzidagi o‘ziga xosliklar va fonetik jihatlari batafsil o‘rganiladi.
- **Qiyosiy tahlil:** O‘zbek tili tovushlari boshqa tillar bilan solishtirilib, o‘ziga xosliklari aniqlanadi. Bunda turli tillarning fonetik tizimlari o‘rganilib, o‘zbek tilining ulardan farqi va o‘xshashliklari tahlil qilinadi.
- **Amaliy tadqiqot:** O‘zbek tilini o‘rganayotgan talabalar bilan eksperimentlar o‘tkazilib, yangi fonetik alifbo orqali talaffuz qilish darajasi baholanadi. Bu tadqiqot jarayoni orqali talabalar o‘zbek tilidagi tovushlarni qanchalik yaxshi tushunishi va talaffuz qilishini aniqlashga harakat qilinadi.
- **Dasturiy ta’minot yaratish:** Python dasturlash tilida dasturiy ta’minot ishlab chiqilib, foydalanuvchilarga o‘zbek tilidagi matnlarni IPA formatida ifodalash imkoniyati yaratiladi. Ushbu dastur orqali foydalanuvchilar kiritgan matnlarni fonetik belgilar bilan ifodalab, talaffuzini ham tinglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Natijalar

O‘zbekistonning o‘zbek fonetik alifbosi 34 ta grafemadan iborat bo‘lib, ulardan 1 tasi tutuq belgisi, 10 tasi unli, ushbu unlilardan 5 tasi digraf unli va 23 tasi undosh, ushbu undoshlardan 4 tasi digraf undosh grafemalardir. Ushbu grafemalar IPA formatida quyidagi belgilar bilan ifodalanadi:

Tutuq belgisi:

/’/ → [’].

Unli grafemalar:

/a/ → [a],
/e/ → [e],
/i/ → [i],
/o/ → [o],
/u/ → [u],

Unli digraf grafemalar:

/o‘/ → [ʊ],
/yu/ → [ju],
/yo/ → [jo],
/ya/ → [ja],
/ye/ → [je].

Undosh grafemalar:

/b/ → [b],
/d/ → [d],
/f/ → [f],
/g/ → [g],
/h/ → [h],
/j/ → [ʤ],
/k/ → [k],
/l/ → [l],
/m/ → [m],
/n/ → [n],
/p/ → [p],
/q/ → [q],
/r/ → [r],
/s/ → [s],
/t/ → [t],
/v/ → [v],
/x/ → [x],
/y/ → [j],
/z/ → [z],

Undosh digraf grafemalar:

/g‘/ → [ɡ],
/sh/ → [ʃ],
/ch/ → [ʧ],

/ng/ → [ŋ].

Ushbu grafemalar o‘zbek fonetik alifbosining muhim qismi bo‘lib, ularning talaffuzdagi o‘rni va ifodalanishi o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini belgilab beradi.

Dasturiy ta’minot

Dasturiy ta’minot (1-rasm) yordamida foydalanuvchilar o‘zbek so‘zlarini IPA formatida o‘qishi va talaffuzini tinglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu dasturda foydalanuvchi tomonidan kiritilgan matnning fonetik ifodasi labelga chiqarilib, ovoz chiqarish funksional tugmasi yordamida talaffuz qilinadi. Foydalanuvchi ovoz balandligini nazorat qilish uchun maxsus tugmalardan foydalanishi mumkin.



1-rasm. Dasturiy ta’minot.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi tovushlarni IPA formatida ifodalash jarayoni talaffuzni yanada aniqlashtiradi va o‘rganish jarayonida samarali vosita bo‘ladi. Shuningdek, dasturiy ta’minot yordamida tilni o‘rganish jarayoni interaktiv va qiziqarli bo‘lishi kuzatildi.

Muhokama

Ushbu tadqiqot orqali o‘zbek tilining fonetik alifbosini IPA bilan muvofiqlashtirish jarayonida bir qator muammolar va imkoniyatlar yuzaga keldi. O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan tovushlarning xilma-xilligi va ularning talaffuzidagi nozik farqlar, talabalar va tilni o‘rganayotgan shaxslar uchun murakkablik tug‘dirmoqda. IPA orqali ifodalash ushbu muammolarni bartaraf etishda yordam beradi, lekin har bir tovushni to‘g‘ri ifodalash va talaffuz qilishda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Shuningdek, dasturiy ta’minotning rivojlantirilishi o‘zbek tilini o‘rganayotganlar uchun yangicha imkoniyatlarni taqdim etadi. Dastur orqali talaffuzni avtomatlashtirish, o‘rganish jarayonini soddalashtirish va qiziqarli qilish mumkin. Biroq, dasturiy ta’minotning muvaffaqiyatli

ishlashi uchun foydalanuvchilarning texnologik savodxonligi ham muhimdir. Shu bilan birga, dasturiy ta’minotdan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, foydalanuvchilarning dastur bilan tanishishi va undan foydalanishi bo‘yicha qo‘llanmalarning mavjudligi zarur.

Xulosa

Ushbu maqola o‘zbek fonetik alifbosini IPA formatida ifodalashga qaratilgan. Olingan natijalar o‘zbek tilining talaffuzini xalqaro miqyosda tushunish va o‘rganishga yordam beradi. Dasturiy ta’minot orqali foydalanuvchilarga o‘zbek so‘zlarining talaffuzini osonlashtirish imkoniyati taqdim etiladi. Keltirilgan tadqiqotlar natijalari, shuningdek, o‘zbek tilini o‘rganishda yangi metodologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada keltirilgan barcha jihatlar, o‘zbek tilining fonetik tizimini o‘rganish jarayonida mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

1. Harvold, B. L., & Moen, I. (2012). “Introduction to Phonetics and Phonology”. Cambridge scholars publishing.
2. Qodirov, A. (2015). “O‘zbek tilining fonetik tuzilishi.” O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali, 1(1), 12-18.
3. Rasulov, M. (2017). “IPA va uning tillarda qo‘llanishi.” Lingvistika tadqiqotlari, 3(2), 45-56.
4. Tursunov, O. (2018). “O‘zbek fonetikasi: nazariy va amaliy jihatlari.” O‘zbekiston tili va adabiyoti jurnali, 5(3), 78-84.
5. Aripov M., Norov A., Abdurakhmonova N. (2019). Composing modification of the Uzbek Phonetic Alphabet based on International Phonetic Alphabet. International Journal of Advanced Manufacturing Technology. 6. 10731-10735.
6. Shohmedov, A. (2019). “Fonetikani ifodalashdagi zamonaviy usullar.” Tilshunoslik tadqiqotlari, 15(4), 88-92.
7. Xusniddinov, I. (2020). “Fonetik belgilarning o‘zbek tilidagi roli.” Turkiy tillar tadqiqot jurnali, 6(1), 22-33.
8. Abdulov, T. (2021). “Til o‘rgatishda fonetik tasnifning ahamiyati.” Xalqaro fonetik tadqiqotlar jurnali, 9(2), 51-67.
9. Karimova, N. (2022). “Ovozli tizimlarda o‘zbek tilining ifodalanishi.” Kompyuter lingvistikasi jurnali, 5(1), 22-33.
10. Khamdamov, B. (2022). “O‘zbekistonning zamonaviy tilshunoslik muammolari.” Xalqaro lingvistika jurnali, 11(2), 112-120.
11. Yusupov, H. (2023). “O‘zbek tilida stress va intonatsiya.” Lingvistika jurnali, 4(1), 34-47.
12. Hoshimov, U. (2023). “Dasturiy ta’minot orqali til o‘rganish: metod va muammolar.” Dasturiy ta’minot tadqiqotlari, 7(3), 45-60.
13. Norov, Abdisait, and Ilhom Tog‘ayev. "GRAFEMA-FONEMA TRANSFORMATSIYASIDA TRANSKRIPSIYA MUAMMOSI." International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming. 2023.

14. Норов , A., & Tog‘ayev , I. (2023). ЎЗБЕК ФОНЕТИКАСИДАГИ ЭЛИЗИЯ ҲОДИСАСИНИНГ N-GRAM МОДЕЛИ УЧУН АФЗАЛЛИК ЖИҲАТЛАРИ. DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE, 1(4), 160–163. Retrieved from https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v1i423

15. Mustaqimov, R. (2024). “O‘zbek tilida fonetik tadqiqotlar: muammolar va istiqbollar.” Tilshunoslik so‘zi, 10(1), 55-70.

16. Тоғаев Илҳом Бахтиёрович, Жорабеков Тимур Кеўнимжаевич, Мурадов Шукрилла Абдусаид ўғли. “Ўзбек ва қорақалпоқ тилларининг фонетик мутаносиблиги ва фарқли жиҳатлари”, “Amaliy matematikaning zamonaviy muammolari va istiqbollari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 24-25-MAY, 2024, pp.-353-354., Qarshi, https://mppam2024.qarshidu

17. Aripov M. M., Norov A. M., Tagaev I. B. “The phoneme-grapheme relationship in Uzbek language”, Of the IX international scientific conference “Actual problems of applied mathematics and information technologies Al-Khwarizmi 2024”, Dedicated to the 630th anniversary of the birth of Mirzo Ulugbek, APAMIT-2024, 22-23 October, 2024, pp.-262-263., Tashkent, Uzbekistan. https://apmath.nuu.uz https://drive.google.com/drive/folders/1fxfbxIGC_Lb1TaBCOqbtudi1hFJ10bvN

TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR

Abdullayeva Uljalg‘as Tulegen qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14184601

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning o‘rni, uning ta’limni rivojlantirishdagi ahamiyati, ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish qanday ijobiy samara berishi, bugungi kunda yurtimizda ushbu sohada amalga oshirilayotdan ishlar haqida qisqacha ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar. *Raqamli texnologiya, sun’iy intellekt, PISA, «Learning passport», «EDU LINK», PF-5712-sonli Farmon, BMT, YUNISEF*

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibining asosiy tarkibiy qismlaridan biri - sifatli ta’lim. Bu barqaror rivojlanish barcha uchun teng bo‘lgan sifatli ta’limni ta’minlashga qaratilgan. Raqamli texnologiyalar esa bu maqsadga erishish uchun muhim vosita sanaladi. Raqamli texnologiya ta’lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda

sohaga yangiliklarni olib kirish uchun zarur. So‘nggi yillarda dunyoda yuz bergan vaziyat ya’ni COVID-19 pandemiyasi ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu raqamli texnologiyalar butun ta’lim tizimida paradigmani o‘zgartirdi. U nafaqat bilim yetkazib beruvchi, balki axborotning hammuallifi, maslahatchisi va baholovchisi hamdir. Ta’limga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi talabalar hayotini qulaylashtirib, vaqtni yanada tejash imkoniyatini yaratdi [2].

Bugungi kunda raqamli texnologiya va sun’iy intellektlar hayotning barcha jabhalarida faol qo‘llanilmoqda. Davlat boshqaruvi, iqtisod, bank, xizmat ko‘rsatish sohalarida bo‘lganidek, ta’lim tizimining ham tez sur`atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Yurtimizdagi barcha fuqarolar, erkag-u ayol, yosh-u qari, hammaning ongida raqamli texnologiyalar orqali barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikr shakllanmoqda. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”. [1] Bularni inobatga olgan holda bugungi kunda yurtimizda barcha sohalarda

zamonaviy texnologiyalardan, ayniqsa ta’limda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga katta e’tibor berilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonida “PISA” (The Programme for International Student Assessment) o‘quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O‘zbekistonning 2021 yilda birinchi 70 talikka, 2025 yilda esa 60 talikka, 2030 yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlar qatoriga kiritish ko‘zda tutilgan[5].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta‟lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” tashkil etildi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida” qarori, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi qarorlari ham qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturida ta‟lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash masalasi asosiy omillardan biri sifatida kiritilgan. U inson resurslari va ta’limning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi:

- texnologiya bo‘yicha shaxsan ta’lim berish;
- mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur bilimga ega mutaxassislar tayyorlanishi mumkin bo‘lgan ta‟lim tizimini yaratish;
- oliy ta‟lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash;
- raqamli iqtisodiyotni har tomonlama o‘rganish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy ilmiy va amaliy adabiyotlarni yaratish;
- mehnat bozori mexanizmlarini ishlab chiqish;
- elektron platforma texnologiyalaridan foydalangan holda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida milliy ekotizimlarni yaratish [4].

Bugungi kunda biror davlatning barqaror rivojlanishi o‘sha davlatda ta’lim tizimining yuqori darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Axborot texnologiyalari umumiy bilimlarni tarqatish uchun paydo bo‘ldi va bugun ta’lim islohotlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Mobil qurilmalar, aqlli doskalar, planshetlar, noutbuklar, simulyatsiyalar, dinamik vizualizatsiya va virtual

laboratoriyalar kabi yangi texnologiyalar yordamida o‘qitish vositalarining joriy etilishi ta’lim muassasalarda ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda talabalari darslarga tayyorgarlik va mustaqil tadqiqot ishlarini amalga oshirish davomida qog‘oz va qalamdan foydalanish o‘rniga, har xil turdagi taqdimot va loyihalarni yaratish orqali ta’lim jarayoniga yangiliklar olib kirishlari, og‘ir kitoblarni doimiy ravishda o‘zlari bilan olib yurmasdan, elektron kitoblardan foydalanishlari mumkin. Bu orqali ular qulaylikka erishlari va oz vaqt davomida ko‘plab bilimlarni egallashlari mumkin. Sinf jadvallari, topshiriqlar jadvallari, ekskursiyalar, ma’ruzachilar tadbirlari, imtihonlar jadvallari yoki semestr tanaffuslarini ko‘rsatishimiz mumkin bo‘lgan onlayn sinf taqvimi talabalarga shunga mos ravishda vaqtlarini to‘g‘ri rejalashtirishga yordam beradi[6].

Maktablarda an’anaviy darslar bugungi kun o‘uvchilarini o‘ziga jalb eta olmaydi, ularni tezroq baholashni va ko‘proq ishtirok etishlarini ta’minlay olmaydi. Raqamli ta’lim vositalari va texnologiyalari bu bo‘shliqni to‘ldiradi. Bu texnologiyalarning imkoniyatlari an’anaviy ta’lim metodologiyalari bilan qiyoslaganda tengsizdir. Smartfonlar va boshqa simsiz texnologiya qurilmalari keng omma orasida ommalashib borayotgan bir vaqtda, maktablar va ta’lim muassasalari texnologiyani sinfga joylashtirish orqali ulardan samarali foydalanishlari mantiqan. Darhaqiqat, bugungi texnologiyaning moslashuvchanligi, ularni o‘rganishning osonligi, juda ko‘p vaqt tejash imkonini berishi uning ommalashishiga sabab bo‘lmoqda[8].

Maktabgacha ta’lim muassasalarida raqamlashtirish borasida YUNISEF tomonidan O‘zbekistondagi maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish uchun

«Learning passport» nomli raqamli ta’lim platformasini yaratish, O‘zbekistondagi Yaponiya JICA vakolatxonasi tomonidan «O‘zbekistonda alohida parvarishga muhtoj bolalar bilan ishlaydigan pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha» loyihasi, Koreya-O‘zbekiston biznes assosiyasi tomonidan maktabgacha ta’lim tizimi uchun yaratilayotgan «EDU LINK» axborot tizimi loyihasi kabi ishlar amalga oshirildi [7]. Bu esa raqamli texnologiyalardan faqat oliy o‘quv yurtlarida emas balki ta’lim tizimining istalgan bosqichida foydalanish mumkin ekanligining isbotidir.

Darslarda raqamli texnologiyalardan foydalanish tarqatma materiallar va kitoblar uchun kamroq qog„ozdan foydalanishning atrof-muhitga ta‟siridan tortib, vaqtni tejash va tadqiqot qulayligigacha, raqamli o‘rganish xarajatlarni kamaytirish, resurslardan yaxshiroq foydalanish, barqarorlikni rag„batlantirish orqali o‘qituvchilar uchun ta‟sir doirasini kengaytirishning ajoyib usuli hisoblanadi. Bugungi kunda texnologiya zamonaviy hayot va jamiyatning ko‘plab jabhalarida

keng tarqalgan va o‘zaro bog‘liqdir. Dunyoni qamrab olgan raqamli inqilob ta’lim sohasiga ham singib keta boshladi. U o‘quvchilarning o‘rganish usullarini tez o‘zgartiradi va natijada texnologiya ta‟limni yanada arzonroq va qulayroq qilish orqali uni yana yaxshilashi rejalashtirilmoqda [9].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hamma narsaning ijobiy va salbiy tomonlari bo‘lganligi kabi, ta’limning barcha bosqichlarida raqamli texnologiya va sun’iy intellektlardan

foydalanish bir tomondan muayyan qiyinchiliklar keltirib chiqarib, ba’zi kamchiliklari bo‘lsada (masalan, doimiy ravishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchi talabalarning kitobga bo‘lgan qiziqishini kamaytirishi, oson usullardan foydalanishga o‘rganib qolish kabi), boshqa tomondan esa turli yutuqlarni qo‘lga kiritilishiga sabab bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar tadqiqotchilarning mushkullarini oson qilib, istalgan malumotlarini oson qo‘lga kiritishlariga, vaqtlarini tejashlariga yordam beradi. Maktabda tarix darslarida sun’iy intellektlardan foydalanish esa o‘quvchilarni mavzuga yanada qiziqishlariga, o‘sha davr muhitini ularning ko‘z oldida gavdalanishiga yordam beradi. Bu esa ularning mavzuni yanada oson usulda tushunishlariga yordam beradi. Buday vositalardan dars davomida foydalanish induvidial salohiyatli o‘quvchilarning yanada rivojlanishi holatida yaqqol namoyon bo‘ladi [10].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. 2020 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. 2018- yil 5-sentabr. PF-5538
3. Абдуллаева, У. Т. (2022). Умумий ўрта таълим мактабларида қардош халқлар адабиётини қиёсий ўқитишнинг илмий - назарий асослари. Globallashuv davrida tilshunoslik, 1(5), 272-274.
4. Абдуллаева, У. Т. (2021). Туысқан халықтар әдебиетін оқыту. Современный образовательный потенциал и достижения, 1(3), 9-11.
5. Абдуллаева, У. Т. (2021). Мектеп оқушыларына еліктеу сөздер туралы түсінік тақырыбын өтуде резюме технологиясын қолдану. Кластер педагогического образования проблемы и решения, 1(2), 1181-1183.
6. Kuralov, Y. A., (2021). Elektron ta’lim texnologiyasi. Academic research in educational sciences, 2(3), 787-790
7. Kuralov Y.A. Development Of Geometric Creativity Of Secondary Scholl Students By Computer // International Journal of Scientific & Technology Research - (IJSTR) Volume-9 Issue-2, February 2020. –p 4572-4576. (№3)
8. Kuralov Y.A. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish vositalari va metodlari // European Journal Of Interdisciplinary Research And Development Volume-14 Website: www.ejird.journalspark.org 2023. –p. 267-272. (№2)
9. Kuralov Y.A. Bo`lajak informatika o`qituvchilarini tayyorlashda pedagogik ta’lim innovatsion klasteri usuli // O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari. T. 2022 [1/2]-son. B. 87-89. (13.00.02-№15)
10. Kuralov Y.A. Talabalarni obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillariga oid kompetentligini shakllantirish // Kasb-hunar ta’limi. T. 2023. 2-son. –B. 278-281. (13.00.02-№19)
11. Kuralov Y.A., Makhmudova D.M. Methodology of developing creative competence in students with problematic education // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020, Part II.ISSN 2056-5852 –p 142-146 (13.00.00№3).

12. Kuralov Y.A., Akhmedov B.A., Majidov J.M., Narimbetova Z.A., Active, interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education // "Economy and society" №12-2(79) 2020.

13. Kuralov, Y. A., (2021). Elektron ta’lim texnologiyasi. Academic research in educational sciences, 2(3), 787-790.

14. Kuralov, Y. A., (2022). Oliy talim muassasalarida oqitish texnologiyalarini innovatsion klaster usuli yordamida takomillashtirish. Academic research in educational sciences, 3(1), 679-685.

15. Kuralov, J. A., (2022). Двигател цилиндридаги газ оқимини сонли моделлаштириш. Mexanika va matematikaning amaliy muammolari, 2(3), 359-361.

16. Kuralov, J. A., (2022). Кўн ярим маҳсулотига механик ишлов берувчи машинанинг йўнувчи вали ҳаракат дифференциал тенгламаси. Yangi materiallar texnologiyasi, 4(1), 297-299

DIGITAL PEDAGOGY AND ITS SIGNIFICANCE FOR INCLUSIVE HIGHER EDUCATION

Nutfiyeva Dildora
ORCID ID: 0009-0003-8666-5475
Tashkent State University of Economics, Uzbekistan
d.nutfieva@tsue.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14185202

Abstract. *This article discusses the role of digital pedagogy in advancing inclusivity and diversity within higher education. Universities are increasingly embracing digital technologies with a focus on innovative learning spaces that enable access, inclusion and active participation while catering for the divers0065 range of students. Using interactive platforms, virtual simulation and collaborative online environments, institutions offer a conducive learning environment that caters to students coming from diverse academic background, social status or cultural experiences. Digital pedagogy not only stimulates autonomy, but enables global interaction via a virtual classroom that transcends geographical and cultural boundaries.*

Keywords: *digital pedagogy, inclusive education, higher education, virtual simulations, Universal Design for Learning (UDL), accessibility, digital divide, faculty development, self-directed learning, equity in education*

As Aslam (2024) states digital pedagogy is a pedagogical model in which uses different types of devices and technologies as the main tool to bring new opportunities for students with better learning practices. Rather, it is innovation in the way that lessons are taught to meet all of the students' needs [1]. Inclusive education fits well with this framework, which tries access into the higher education universities life and communities while looking at systemic and pedagogical

obstacles hampering participation by minority groups [2] it aims to establish educational environments where all can participate in learning processes, regardless of their cultural and functional differences. Key to an inclusive educational landscape is the Universal Design for Learning (UDL) framework, encouraging adaptable teaching tools and tailoring appropriate solutions to various learning styles or needs in the classroom setting [3]. UDL calls for multiple means of engagement, representation and expression to remove barriers from the curriculum [4]. In other words, the Digital Pedagogy requires that students perform instructional activities to replace Passive learning with Active Learning and Virtual simulations became a critical type of digital simulation providing hands-on experience for bridging theory (T) / textbook studies with practice. In this type of simulations educators are able to facilitate personalized learning so that students can month at their own pace, meeting the individualized requirements.

The digital divide is representative of the inequities of different groups in terms of access to digital tools, technologies, and good internet connectivity, most markedly among lower socioeconomically privileged students. This division creates impediments to equal participation, complicating notions of inclusive digital pedagogies. Digital pedagogies also help in fostering self-sustaining learning. As Mavropoulou et al. [7] have established, this allows students to take control of their learning schedule through asynchronous learning of the content, which is also convenient for those who face family and work obligations alongside academic engagements.

Meanwhile, faculty development is important in terms of equipping the educator with the ability to integrate digital tools into effective inclusive teaching practices. Continuous professional programs in education equip the faculty with the technological skills and pedagogical strategies that help them support diverse learners through digital platforms.

Methodology

This article will apply a qualitative literature review of scholarly research on the use of digital pedagogy with regard to inclusive education within higher education. These will include peer-reviewed journal articles, book chapters, and conference proceedings from accredited academic databases such as Research Gate, Springer, and Emerald Insight. Core frameworks to be reviewed include Universal Design for Learning (UDL), virtual simulations, and game-based learning that are considered to have been important in informing pedagogies for inclusion in higher education institutions—as witnessed in the works of Aslam (2024) and [5].

The review will be adopting studies that take into consideration how higher education is influenced by digital transformation. For instance, Aslam [1] has looked at inclusive practices and how these are further enhanced through digital technologies. Bojiah et al. [5] investigate the andragogical approaches toward the integration of technology in adult education. Case studies of institutions adopting digital pedagogical practices are studied to have a better insight into these tools in fostering inclusive learning environments. Sziegat [6] contributes insight into the use of virtual simulations in entrepreneurship education to enable students coming from different cultural and socio-economic backgrounds to concentrate on immersive tools. Similarly, Mavropoulou et al. [7] investigate asynchronous learning tools for effectiveness in facilitating independent learning among students with heavy commitments. This review also identified faculty development programs as effective drivers of encouraging faculty towards integrating digital tools into pedagogical practice. According to Srisawasdi [8], there is a need to empower educators for the application of inclusive teaching approaches through collaborative learning communities and professional mentoring programs.

The study also goes on to probe into issues regarding access to technology for learning among students from marginalized groups, using Javed's [9] work titled *"Digital Divide."* Additionally, there is a discussion of virtual classrooms and their potential for making cross-cultural collaboration possible with regards to inclusion in higher education, as presented by Bojiah et al. [2].

Results

These findings provide an overview of the contribution of digital pedagogy to the development of an inclusive approach in education and give a vision of some challenges which are to be faced for equal access to learning opportunities.
The findings show the transformative power of digital pedagogy in developing inclusive practice in higher education. Digital tools also involve virtual simulation, game-based learning platforms, and collaborative online environments for new, personalized teaching and interactive modes of learning. The tools are designed to account for a range of learning styles: visual, auditory, and kinesthetic-so students can address course materials as they see fit. In so doing, digital pedagogy permits a level of personalization not possible in any other way and fosters greater motivation toward better learning outcomes.

Digital tools support individual learning and intercultural competence by way of connecting learners from various cultural and disciplinary backgrounds. Students collaborate in online activities, such as group projects or discussion forums, taking spaces to solve real-life problems from different dimensions. This then broadens the horizons in their academic fields and equips them with intercultural awareness, communicational skills, and the capability of working in teams as needed in today's global world.

One of the central benefits of digital pedagogy is flexibility through asynchronous learning networks. While in physical classrooms, students are forced to listen to lectures communally, asynchronous platforms enable interactions with class material at any time that fits within a student's schedule, thus allowing for many responsibilities outside class, like work or family. Such autonomy enables students to really interact with material and eventually achieve academic success unfettered by time constraints.

On the international level, digital pedagogy increases the global reach of education through interlinking learners in various regions. Virtual classrooms promote cross-cultural interactions that increase global awareness. By interacting with students coming from diverse virtual classroom settings, they understand important global issues and develop the skills for collaboration across boundaries-a useful skill in today's connected world.

But the digital divide acts as a real barrier to fully inclusive education. Students in the lower socio-economic brackets sometimes have device or reliable internet access issues, sometimes severely hindering their engagement in online learning and impeding inclusiveness, which digital pedagogy could support. Further, the resistance from faculty to use the digital tools either for unfamiliarity in using such tools or being skeptical about their effectiveness can detract from the full effectiveness of digital pedagogy and hinder high-quality online education across institutions. In order to meet these challenges, continuous professional development programs should focus on technological skills, complemented by pedagogically innovative teaching methods. The training shall enable the faculty to use digital tools with a high level of proficiency and will contribute to closing the gap in teaching quality, making learning more inclusive and responsive.

Discussion

Digital pedagogy has become an increasingly valuable resource for meeting the needs of inclusiveness in higher education. Since higher education is continually taking different directions, it was expected that the use of digital tools would meet or appeal to equity and accessibility for the now-growing diverse student population. Virtual simulations, game-based platforms, and asynchronous learning environments are some of the tools that enable universities to provide flexible and interactive support for a wide range of learning needs. Digital tools have also become a channel toward more inclusion in education, as they meet the needs of each individual learning preference, thus students can interact with the course material much more effectively.

One key strength of digital pedagogy is in its potential for cultural exchange and the instillation of global awareness. The global virtual classrooms connect students from other countries with each other as they share their ideas on many different issues,

Conclusion

In short, it's expected that pedagogy in higher education will continue to play a huge role in making higher education more inclusive, flexible, and interconnected around the globe. Digital tools incorporated into their settings will help these higher education institutions take care of different learning styles, develop intercultural competence, and provide an inclusive atmosphere irrespective of backgrounds or personal obligations. It is such a liberal vision that requires deliberate steps in closing the digital divide, investing in necessary infrastructure, and training the faculty to excel in digital teaching. During the course of these developments, the institutions can then demonstrate a future in which higher education becomes all-inclusive, offers equal opportunity, and prepares students for success in an increasingly complex and interconnected world.

References

[1] Aslam, T. (2024). *Digital Pedagogy and Inclusive Learning: Innovations in Higher Education*. Research Gate.

[2] Bojiah, J., Mensah, K., & Asiedu, R. (2024). *Andragogy in the Digital Age: Technology Integration in Adult Learning*. Emerald Insight.

[3] Tomlinson, C. A. (2014). *The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners*. ASCD.

[4] Meyer, A., Rose, D. H., & Gordon, D. (2014). *Universal Design for Learning: Theory and Practice*. CAST Publishing.

[5] Bojiah, J., et al. (2024). *Andragogy and Technology Integration in Adult Education*.

[6] Sriegsat, V. (2024). *Virtual Simulations in Entrepreneurship Education*.

[7] Mavropoulou, S., Petrova, E., & Dinsmore, K. (2024). *Asynchronous Learning for Inclusive Education: Supporting Diverse Learners*. Research Gate.

[8] Srisawasdi, N. (2024). *Empowering Educators through Collaborative Faculty Development Programs*.

[9] Javed, A. (2024). *Digital Divide: Access and Inequities in Higher Education*. Springer.

TA’LIM TIZIMLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTNI JORIY QILISH

Kuralov Yuldash Abdullayevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Informatika va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
y.kuralov@cspi.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14185222

Annotatsiya: *Maqolada bugungi kunda raqamli texnologiyalar o‘rni va ahamiyati, sun’iy intellekt tizimlarining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va imkoniyatlariga ko‘ra turlari hamda ularni ta’lim jarayonida qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish haqida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli texnologiyalar, neyrotarmoq, sun’iy intellekt, reaktiv mashina, chegaralangan xotira, aql nazariyasi, blackboard, onlayn-kurslar.*

KIRISH

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo‘lgani singari kabi raqamli texnologiyalar jahon ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni raqamli texnologiyalar muhitida mehnat bozoridagi o‘zgaruvchan tendensiyalarga tezkor moslashish imkonini beruvchi raqamlikompetensiyalar (soft skills) tizimidan foydalanib tayyorlash amaliyotga tadbiq etilgan. YuNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” [1] dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta’lim, tibbiyot, bandlik, qishloq ho‘jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish asosiy masalalardan bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda ta’lim tizimida, raqamli texnologiyalar sun’iy intellekt texnologiyalari sohalarida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. «Raqamli O‘zbekiston — 2030» Strategiyasini amalga oshirish dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 yilda «Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Prezident tomonidan bu qarorlarni qabul qilinishi albatta respublikamizda raqamli iqtisodiyotni jadal sur’atlar bilan rivojlantirish vazifalariga va ularni amalga oshirishga qaratilganligi bilan katta ahamiyatga egadir [2].

Neyrotarmoqlar, ulkan ma’lumotlar (Big Data), sun’iy intellekt imkoniyatlari davlat tizimlarida ham bosqichma-bosqich joriy qilina boshlandi. Ular orasida ko‘lami jihatidan butun mamlakatni qamrab olgan MyID tizimini aytib o‘tish mumkin. Raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotlariga qaraganda, bugungi kunda 23 ta bank, 5 ta yirik davlat tashkiloti ushbu tizimdan doimiy foydalanmoqda, ro‘yxatdan o‘tganlar soni esa 2,5 millionga etdi.

MyID birinchi navbatda shaxsni biometrik identifikatsiyalash imkonini beradi va natijada jarayonga ketadigan vaqtni 1 soniyaga tushiradi, hujjatlarni tekshirish butkul avtomatlashadi.

Yana bir o‘ziga xos loyiha – qishloq xo‘jaligi erlari va ekinlari monitoringi loyihasi doirasida kosmosdan va dronlar bilan olingan suratlar, real vaqt rejimida to‘planadigan ma’lumotlar asosida dalalar sun’iy intellekt yordamida monitoring qilinib, ularning geoaxborot tizimi yaratildi.

Biroq kadrlar muammosi hamon ushbu yo‘nalishdagi eng muhim masaladir. 2022/2023 o‘quv yilidan “Sun’iy intellekt” yo‘nalishida kadrlar tayyorlash bo‘yicha jami 6 ta oliy ta’lim muassasalarida 245 ta kvota ajratildi. Shuningdek, alohida “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt” doktorantura yo‘nalishi ochilganini qayd etish lozim.

Prezident qarori asosida Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Soha bo‘yicha fan doktorlari, turli yo‘nalishlardagi yetuk mutahassislarni o‘zida jamlagan muassasa katta ilmiy salohiyatga ega va bundan foydalanmoqda ham. Ikki yil ichida institut tomonidan Orolbo‘yi mintaqasining atrof-muhit va ekologik holatini monitoring qilish hamda nutq signallarini qayta ishlash asosida shaxsni tanib olish bo‘yicha dasturiy mahsulot ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sun’iy intellekt (ingl. Artificial intellegence) – kompyuter tizimlarining shu vaqtgacha insonlarga xos bo‘lgan ijodkorlik va intellektual faoliyatni bajarish qobiliyatidir. [3]U neyron tarmoqlar, mashinani o‘qitish (machine learning), tabiiy tilni qayta ishlash, kognitiv (ongli) hisob-kitoblar, kompyuterning tasvirni ko‘rishi singari fanning o‘ta murakkab yangi yo‘nalishlarini o‘zida birlashtiradi.

Sun’iy intellekt atamasi birinchi bo‘lib, 1956 yilda Dortmund konferensiyasida Jon Makkarti va uning hamkasblari Marvin Li Minskiy, Nataniel Rochester, Klod Shennonlar tomonidan taklif etilgan. Jon Makkarti ushbu atamaning muallifi sifatida qabul qilinadi [4].

XX asrning 80-yillari sun'iy intellekt – kashfiyot deya e'tirof etila boshladi. Olimlar ushbu yo'nalishda darsliklar ishlab chiqa boshladilar.

Shuningdek, 1997 yilda shaxmat bo'yicha Jahon chempioni Garri Kasparovni mag'lubiyatga uchratgan mashhur shaxmat dasturi – “Deep Blue” yaratildi. Shu yillarda Yaponiyada neyron tarmoqlari asosida 6- avlod kompyuter loyihasi ishlab chiqilayotgan edi.

Shundan so'ng sun'iy intellektga e'tibor kuchaydi. Yirik kompaniyalardan tortib to harbiy muassasalargacha mazkur sohani moliyalashtira boshladi. Natijada yangi texnologiyalar soni oshib, raqobat kuchaydi, sun'iy intellekt vositalari mukammallashib bordi

Shu o‘tgan vaqt ichida juda katta ilmiy izlanishlar olib borildi va borilmoqda, buning natijasida sun’iy intellektning qo‘llanilish sohasi tezlik bilan kengayib bormoqda.

Sun’iy intellekt tizimlarining rivojlantirish masalalarini o‘zbek olimlaridan M.Kamilov, T.Bekmuratov, Sh.Madraximov, N.Ignatev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda o‘z ifodasini topgan. Rus olimlaridan M.Axmetov, A.Bazaeva, L.Bocharova, A.Lobanov, tomonidan sun’iy intellekt tizimlarini rivojlantirish va ta’lim sohasida qo‘llash masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Bugungi kunda jahon amaliyotida Kanada, Singapur, Birlashgan Arab Amirliklari, Finlyandiya, Yaponiya, Xitoy, Italiya, Tunis, Buyuk Britaniya, AQSh, Shvesiya, Meksika, Yevropa Ittifoqi, Keniya, Daniya, Fransiya, Avstraliya, Koreya Respublikasi, Hindiston va Germaniya kabi davlatlar sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyalarini e’lon qilgan [5]. Bu davlatlarda dunyoning

mashhur oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot dargohlari joylashishi bilan bir qatorda davlatlar innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarni ham to‘liq tartibga solgan va katta hajmdagi moliyaviy ko‘mak ko‘rsatib kelmoqda. Natijada dunyo mamlakatlaridan ko‘plab bilimli mutaxassislarni o‘ziga keng jalb etmoqda. Respublikamizda ham soxalarda raqamli texnologiyalarni joriy qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali 2030 yilga borib innovatsion taraqqiy etgan yetakchi davlatlar qatoridan o‘rin egallash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

MUHOKAMA

Sun’iy intellekt inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi. Sun’iy intellekt turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm va dasturiy tizimlardan iborat bo‘lib, inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma’lumotlar asosida amalga oshiradi. Shuningdek, sun’iy intellekt murakkab tahlillar va katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlovchi dasturlarni o‘z ichiga olib, mantiqli izchil mulohaza qilish hamda tavsiya berish qobiliyatiga ega “aqlli” texnologiya hisoblanadi. Mutaxassislar tomonidan sun’iy intellektga to‘rtinchi sanoat inqilobining asosi sifatida qaralmoqda.

Sun’iy intellektning quyidagi 4 ta turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. **Reaktiv mashinalar.** Misol tariqasida 1990- yillarda jaxon chempioni Garri Kasparovni yutgan shaxmat programmasi bilan jihozlangan Deep Blue kompyuterini keltirish mumkin. Deep Blue shaxmat doskasidagi figuralarni tanib olish va prognoz qilish hususiyatiga ega kompyuter hisoblanadi.
2. **Chegaralangan xotira.** Suniy intellektning bu tizimi kelgusidagi yechimlarni shakllantirishda oldingi tajribalardan foydalanishlari mumkin. Avtonom transport vositalarida qaror qabul qilishning ma’lum bir funksiyalari shu tariqa ishlab chiqilgan. Olib borilgan kuzatuvlardan kelgusida amalga oshiriladigan harakatlar to‘g‘risida axborot olish uchun foydalaniladi. Bu kuzatuvlar doimiy saqlanmaydi.
3. **Aql nazariyasi.** Bu psixologik mavzu bo‘lib, boshqalarda qaror qabul qilishga ta’sir qiluvchi o‘z e’tiqodlari, istaklari va niyatlari borligini tushunib etishga taaluqli termin xisoblanadi.
4. **O‘z-o‘zini anglab yetish.** Sun’iy ongning paydo bo‘lishi yozish tizimlarini yaratish va kvant darajasida axborotlarni deyarli abadiy saqlashni o‘z ichiga oladi. O‘z-o‘zini anglaydigan mashina o‘zining joriy holatini tushunadi va boshqalar nimani his qilayotganini aniqlash uchun ma’lumotlardan foydalanishi mumkin [6].

Masalan, mashinani o‘qitish texnologiyasi ma’lumotlarni qayta ishlash uchun bilimlarni chuqur “o‘rgana oladigan” kompyuter tizimlaridir. Bu tizimlar uni yaratgan dasturchi yozib bergan algoritmdan chiqib, ulkan ma’lumotlar va tajribalarni mustaqil tahlil qiladi, umumiylik va qonuniyatlarni topadi va shu asosda “bilimini boyitib boradi”. Masalan, hozir butun dunyoda shuhrat qozongan ChatGPT’ni o‘qitishda 570 GB hajmdagi ma’lumotlardan foydalanilgan. Bu esa inson tafakkuri chegaralaridan ancha yuqori ko‘rsatkich. Yil boshida Microsoft kompaniyasi 10 milliard dollar investitsiya kiritgan ChatGPT siz bilan ko‘plab tillarda bemalol suhbat qurishi, maqola yoki she’r yozib berishi mumkin.

Sun’iy intellektdan foydalanish har qanday jarayonni avtomatlashtiribgina qolmay, balki uni inson, tashkilot yoki ishlab chiqarishning muayyan vazifasiga muvofiq olib borish imkonini

beradi, vaqt o‘tishi bilan yanada samarali bo‘ladi — neyron tarmog‘i tafsilotlarni va ehtiyojlarni qanchalik yaxshi bilsa, u yaxshi ishlaydi[7].

Raqamli iqtisodiyot ta’lim tizimidan alohida jarayonlarni «raqamlashtirish»ni emas, balki yangi maqsadlar qo‘yadigan, ta’lim jarayoni strukturasi va mazmunini o‘zgartiradigan kompleksli yondashuv talab qiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining paydo bo‘lishi va ularni «ta’lim texnologiyalari bilan birlashtirilishi» ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarga olib keldi:

Birinchidan, ta’limda axborot texnologiyalarini jalb qilish asosida o‘qitish vositalari: Blackboard, onlayn-kurslar, simulyatorlar, trenajerlar, onlayn-olamlar va boshqalar qo‘llana boshladi.

Ikkinchidan, axborot texnologiyalari ta’limni individuallashtirdi, bunda o‘qish jarayoni va mazmuni o‘quvchilar so‘rovlariga va ularning individual hususiyatlariga (o‘qish tezligi, o‘qish shaklini afzal ko‘rishi v b.) ommashtiriladi.

Uchinchidan, ta’limda o‘rganilayotgan fanlarni samarali va har tomonlama o‘zlashtirishga imkon beradigan o‘qitishning o‘yin shakllari faol joriy qilina boshladi.

To‘rtinchidan, ta’lim, ayniqsa, OTM talabalari va katta yoshdagilar uchun yanada predmetli va amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘lib bormoqda; ta’lim markaziga startap, biznes-loyiha, biznes-reja kabi loyihalar qo‘yilmoqda [8].

NATIJALAR

Sun’iy intellektdan eng sodda va tushunarli foydalanish- bu bilimlarni nazorat qilish, ya’ni uy vazifalarini avtomatlashtirilgan ko‘rinishda tekshirish, xatolarni aniqlash va tuzatish, o‘qituvchiga baholar qo‘yishda yordam berish. Bundan masofadan o‘qitishda ham, odatdagi ta’lim jarayonida ham foydalanish mumkin. Bundan tashqari, intellektual texnologiyalar onlayn imtihonlarni o‘tkazishda asosiy muammo bo‘lgan bir-biridan ko‘chirib yozishni bartaraf etishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan proktoring tizimi videokameralar va foydalanuvchi faoliyatidan olingan tasvirlarni tahlil qilib, testni insonning o‘zi bajaryaptimi, yo‘qmi shuni aniqlashga va firibgarlikni bartaraf etishga ko‘maklashadi [9].

Shu kabi sohalardan biri bu ta’lim tizimidir, ko‘pchilik sun’iy intellektning ta’limda qo‘llanilishini «robot o‘qituvchilar» sifatida tushunishadi, bu haqiqatdan biroz farq qiladi. Sun’iy intellektni shaxsiylashtirilgan ta’lim tizimlarida, ma’lumotlarni izlash, chatbotlar, bolalar uchun maxsus ta’lim tizimlarida, inklyuziv ta’lim tizimlarida, o‘quv jarayonining nazorat tizimlarida, o‘quvchilar bilimini baholash tizimlarida uchratishimiz mumkin. Bunday tizimlardan foydalanib, nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini oshirish balki, o‘qituvchilarning yukini kamaytirilishi ham mumkin. Sun’iy intellekt yordamida zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Ma’lum vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga etkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish. Ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etadi. Bu muhim vazifani amalga oshirish ta’lim muassasalarida o‘qitishning an’anaviy metodlarini ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalar bilan qo‘shib olib borishni taqozo etadi [10].

XULOSALAR

Sun’iy intellekt hozirgi kunda quyidagi jarayonlar ko‘rinishida ta’limni o‘zgartirishni davom ettirmoqda:

- globallashuv va fan-texnika taraqqiyoti jarayonida sun’iy intellektning ta’lim tizimidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda;
- test va baholash tizimlari orqali talabalar va o‘quvchilar uchun sun’iy intellekt yordamida yangi o‘lchovlar va mezonlar yaratish mumkin;
- tabaqalashtirilgan va individual ta’limdan yanada samarali va keng foydalanish imkoniyatlari yaratildi;
- ta’limda juda muhim o‘rin tutadigan teskari aloqa sun’iy intellektga ega talabalar ehtiyojlariga mos ravishda avtomatlashtirilishi mumkin.

Sun’iy intellekt texnologiyalari orqali har qanday sohani o‘zgartirish imkoniyati mavjud, ammo bu imkoniyatlar cheksiz emas.

Sun’iy intellektning asosiy kamchiliklari shundaki,

- ✓ ma’lumotlardagi har qanday noaniqliklar natijaga ta’sir ko‘rsatadi;
- ✓ kiritilayotgan ma’lumotlar aniq bo‘lishi, sun’iy intellekt tizimlari hatosiz ishlashini ta’minlaydi;
- Har bir bola uchun AI o‘quv jarayonini individualizatsiya qiladi. Bu shuni anglatadiki, platforma bolalarning rivojlanish sur'ati, bilim darajasi va qiziqishlari asosida ularga mos materiallar va mashg‘ulotlarni taqdim etadi. Masalan, matematika topshiriqlarini yaxshi bajargan bola uchun yangi murakkabroq mashqlar berilishi mumkin, qiyinchilikka duch kelganlarga esa qo‘shimcha ko‘mak ko‘rsatiladi.

AI bolalarning ta'lim jarayonida qilgan harakatlarini kuzatadi va natijalariga asoslanib, ularga mos kontent yoki vazifalarni tavsiya qiladi. Agar bola ma'lum bir mavzuni yaxshi o‘zlashtirsa, platforma bu mavzuga oid murakkabroq vazifalarni tavsiya qiladi. Aksincha, qiyinchiliklarga duch kelganda, qo‘shimcha mashqlar yoki osonroq vazifalar taklif etiladi.

Sun'iy intellekt bolalarning faoliyatini baholab, ularning muvaffaqiyatlarini tahlil qiladi. Har bir bola uchun individual statistika va natijalar hosil qilinadi, bu esa o‘qituvchilarga va ota-onalarga bolaning o‘quv yutuqlarini kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu vositalar bolalarning rivojlanishidagi zaif va kuchli tomonlarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. AI tizimlari bolalar bilan muloqot qiladigan moslashtirilgan algoritmlardan foydalanadi. Ular bolalarning javoblari va xatti-harakatlari asosida o‘quv jarayonini moslashtiradi. Masalan, algoritm bola qiyinchilik bilan duch kelsa, uni yengishga yordam beradigan maxsus qo‘llanmalar yoki vizual yordamchilarni taqdim etadi.

AI yordamida ishlab chiqilgan virtual yordamchilar yoki raqamli mentorlar bolalarga o‘qitish jarayonida bevosita yordam berishi mumkin. Bu raqamli yordamchilar bolalarga topshiriqlarni tushuntiradi, savollarga javob beradi yoki o‘rganish uchun qo‘shimcha tushuntirishlar beradi. Ular bolalarning o‘qituvchilariga qo‘shimcha yordam sifatida ishlaydi. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar bolalarning o‘rganish uslublarini aniqlab, ularga mos materiallarni yaratadi. Ba'zi bolalar vizual ma'lumotlarni yaxshiroq tushunsa, boshqalari audial yoki kinestetik uslubda yaxshiroq o‘rganadi.[4] AI bu farqlarni inobatga olib, har bir bola uchun qulay uslubda o‘quv kontentini taqdim etadi. AI platformalari real vaqt rejimida bolalarning o‘quv faoliyatini kuzatib boradi va yig‘ilgan ma'lumotlar asosida tahlillar olib boradi. Bu ma'lumotlar o‘qituvchilarga va ota-onalarga bolaning o‘quv jarayonidagi muammolarni tezda aniqlash va ularni hal qilishga yordam beradi. Ushbu komponentlar birgalikda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun AI yordamida yaratilgan o‘quv kontentini yanada moslashtirilgan va samarali qiladi. AI bolalar uchun ta'lim jarayonini shaxsiylashtirib, ularning individual qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashadi, bu esa o‘qitish sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sun'iy intellekt (AI) asosida o‘quv kontenti yaratishda bir nechta qiyinchiliklar mavjud. Quyida ushbu jarayonda duch kelinadigan asosiy muammolarni keltirilgan:

1. Katta hajmdagi ma'lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish zarurati: AI algoritmlari samarali ishlashi uchun ko‘p miqdordagi ma'lumotlar kerak bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun zarur bo‘lgan ma'lumotlarni yig‘ish qiyin bo‘lishi mumkin, chunki ularning o‘quv jarayoni turli omillarga, jumladan, hissiy holat va diqqatning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi;

2. Maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish: Yosh bolalar bilan ishlaganda, ularning shaxsiy ma'lumotlarini yig‘ish va ulardan foydalanish masalasi juda nozik hisoblanadi. Bola va ota-onalarning shaxsiy ma'lumotlari himoyasini ta'minlash va ularning xavfsizligiga e'tibor qaratish zarur. Ma'lumotlarning xavfsizligi bo‘yicha aniq huquqiy talablarga rioya qilmaslik jiddiy huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin;

3. Texnologik infratuzilma va mablag‘lar yetishmasligi: Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar zamonaviy texnologik infratuzilmani talab qiladi. Barcha ta'lim muassasalari bunday texnologiyalarni o‘rnatish va ulardan foydalanish uchun yetarli mablag‘ va imkoniyatlarga ega bo‘lmasligi mumkin. Ayniqsa, qishloq joylarda bu texnologiyalarni joriy qilish muammoli bo‘lishi mumkin;

4. Bolalarning texnologiyaga haddan ziyod bog‘lanib qolishi: AI asosida yaratilgan o‘quv kontentlari bolalarning o‘qish jarayonini qiziqarli qilsa ham, bolalarni texnologiyaga haddan ziyod bog‘lab qo‘yishi mumkin. Bu esa ularning ijtimoiy ko‘nikmalari va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi ehtimoldan holi emas. Shuning uchun balansni saqlash muhimdir;

5. Til va madaniy moslashuv: Maktabgacha ta'limda AI asosida yaratilgan o‘quv kontenti bolalarning til darajasi va madaniy kontekstiga moslashtirilishi lozim. Global miqyosdagi AI texnologiyalari ko‘pincha ingliz tiliga yo‘naltirilgan bo‘lib, boshqa tillar va madaniy kontekstlar uchun mos kontent yaratish qiyin bo‘lishi mumkin;

6. Pedagogik va didaktik moslashuv: Sun'iy intellekt asosida yaratilgan o‘quv kontentini pedagogik jihatdan to‘g‘ri ishlab chiqish muhimdir. AI texnologiyalari bolalar uchun o‘qitish metodikalariga mos kelishi kerak va ular faqatgina texnologiyaga asoslanib, nazariy va amaliy o‘qitish jarayonlaridan ajralib qolmasligi lozim. Texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish pedagogik ko‘nikmalarga asoslanishi kerak;

7. AI tizimlarining yetarlicha moslashuvchan bo‘lmasligi: Hozirgi sun'iy intellekt tizimlari bolalarning o‘zgaruvchan ehtiyojlari va rivojlanish sur'atlariga to‘liq moslasha olmasligi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar tez o‘zgarib turadigan kayfiyat va qiziqishlarga ega bo‘lib, AI tizimlari bunday o‘zgarishlarga doim ham tezkor javob bera olmaydi.

Ushbu qiyinchiliklarni hal qilish uchun pedagoglar, dasturchilar va ota-onalar o‘rtasida yaqin hamkorlik zarur bo‘ladi.[5] Texnologik imkoniyatlarni to‘g‘ri pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish orqali AI asosida samarali o‘quv kontenti yaratish mumkin bo‘ladi.

Muhokama. AI asosida ta’limni amalga oshirishda kelajakdagi imkoniyatlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- **Moslashtirilgan ta'limni kengaytirish**: Kengroq bolalar guruhlarini qamrab olish va har bir bola uchun o‘quv jarayonini yanada moslashtirish;
- **AI orqali yangi o‘quv metodlarini rivojlantirish**: Sun'iy intellekt asosida innovatsion o‘quv metodikalarini sinovdan o‘tkazish va ta'lim sifatini yanada oshirish imkoniyatlari;
- **Global tajribalar va hamkorliklar**: Turli mamlakatlar va ta’lim muassasalari o‘rtasida AI yordamida o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda hamkorlik qilish.

O‘quvchilarning rivojlanish darajasiga qarab moslashtirilgan kontent, xato va kamchiliklarni tahlil qiluvchi vositalar orqali ta'limning sifati oshadi, shuningdek, bolalar o‘qish jarayonida ko‘proq faollik ko‘rsatadi.

Biroq, bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun texnologik va huquqiy jihatlar katta ahamiyatga ega. Birinchidan, texnologik infratuzilmaning mavjudligi va raqamli vositalarning keng joriy etilishi zarur. Barcha ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish oson emas, ayniqsa, texnologik yetishmovchiliklar bo‘lgan hududlarda. Shuningdek, AI tizimlarining ta'lim jarayoniga to‘g‘ri va samarali integratsiyasi uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rgan pedagoglar kerak.

Ikkinchidan, huquqiy muammolar, xususan, bolalarning shaxsiy ma'lumotlarini yig‘ish va ishlatish bilan bog‘liq xavfsizlik masalalari muhim hisoblanadi. Bolalar xavfsizligini ta'minlash uchun qat'iy ma'lumot himoyasi va maxfiylik talablariga rioya qilish talab etiladi.

Xulosa. Kelajakda maktabgacha ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining kengroq joriy etilishi o‘qitish metodlarini tubdan o‘zgartirishi mumkin. An'anaviy ta'lim uslublaridan farqli ravishda, sun'iy intellekt yordamida ta'lim shaxsiylashtiriladi va o‘rganish

jarayoni yanada moslashuvchan bo‘ladi. Bu o‘z navbatida ta'lim tizimini yanada samarali, innovatsion va har bir bola uchun qulayroq qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. The future-gazing potential of digital personalization in young children’s reading: views from education professionals and app designers. Natalia Kucirkova UCL Institute of Education, London, UK

2. Impact of digital content on young children’s reading interest and concentration for books Lin Wang, Hana Lee & Da Young Ju Pages 1-8 | Received 26 Dec 2017, Accepted 02 Jul 2018, Published online: 31 Jul 2018 https://doi.org/10.1080/0144929X.2018.1502807

3. Berdiqulova N., Rustamova M. Kahoot yordamida ta’lim faolligini oshirish: interaktiv ta’limga zamonaviy yondashuv. Interpretation and Researches, 2(24), 2024.

4. Exploring Parent's Needs for Children-Centered AI to Support Preschoolers' Interactive Storytelling and Reading Activities Yuling Sun, Jiaju Chen, Bingsheng Yao, Jiali Liu, Dakuo Wang, Xiaojuan Ma, Yuxuan Lu, Ying Xu, Liang He

5. ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ. Микитенко, К.А**.**
http://localhost:8080/xmlui/handle/123456789/7456

PROFFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TA’LIM PLATFORMALARINING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI

Kalandarov Ilyos Ibodullayevich
DSc., Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
“Avtomatlashtirish va boshqaruv” kafedrasi professori
https://doi.org/10.5281/zenodo.14185704

Rustamova Maftuna Adhamjon qizi
Navoiy innovatsiyalar instituti o’qituvchisi
mrustamova2201@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14185704

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli ta’lim platformalarining professional ta’lim muassasalarida o’quv jarayoniga va ta’lim sifatiga ta’siri o’rganiladi. Bundan tashqari maqolada, raqamli texnologiyalarning pedagogik va didaktik imkoniyatlari, ularning talabalarning bilimlarini oshirish, o’zlashtirishni samarali nazorat qilish hamda ta’lim olish jarayonini individuallashtirishga xizmat qilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli platformalardan foydalanish natijasida o’qitish usullarining samaradorligi oshgani, bu esa talabalarning o’quv natijalariga ijobiy ta’sir ko’rsatishi muhokama qilinadi. Izlanishlar natijalariga ko’ra, raqamli ta’lim platformalari ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko’rsatiladi.*

Kalit so’zlar: *raqamli ta’lim platformalari, professional ta’lim, ta’lim sifati, pedagogik texnologiyalar, didaktik imkoniyatlar, talaba o’zlashtirishi, ta’lim jarayoni, ta’limning individuallashtirilishi.*

Kirish

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi zamonaviy ta’lim tizimiga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Xususan, professional ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim platformalarining joriy qilinishi nafaqat o’quv jarayonlarini interaktiv va moslashuvchan qilishga, balki ta’lim sifatini yaxshilashga ham katta imkoniyat yaratmoqda. Raqamli ta’lim platformalari nafaqat ta’lim resurslarini kengaytirish, balki bilimlarni yetkazishning yangi usullarini taqdim etish imkonini beradi, bu esa talabalar va o’qituvchilar uchun o’qitish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Ta’lim sifatining oshishi raqamli platformalar tomonidan taqdim etilayotgan imkoniyatlarga bog’liq [1]. Masalan, an’anaviy ta’lim jarayonlarida o’qitish asosan auditoriya va laboratoriyalar bilan cheklangan bo’lsa, raqamli platformalar yordamida o’qituvchilar talabalarga masofadan turib ta’lim berish, turli multimedia kontentlaridan foydalanish va real vaqt rejimida natijalarni kuzatish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Bu esa o’z navbatida talabalarning faolligini oshirishga yordam beradi va o’zlashtirish ko’rsatkichlarini yaxshilaydi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, raqamli ta’lim platformalarining keng joriy qilinishi ta’limda yangi yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda, jumladan, individual yondashuv, moslashtirilgan o’qitish usullari va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari. Bu usullar orqali har bir talabaga mos ta’lim jarayonini yaratish imkoniyati paydo bo’ladi. Shu bilan birga, raqamli platformalar orqali o’quv jarayonining shaffofligi va aniq baholash tizimlarini joriy qilish mumkin bo’lib, bu esa ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Usul va uslubiyatlar

Ushbu tadqiqot professional ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim platformalarining ta’lim sifatiga ta’sirini o’rganishga qaratilgan bo’lib, ma’lumot yig’ish va tahlil qilish uchun turli usullardan foydalaniladi. Ushbu tadqiqotda **aralash usullar** yondashuvi qo’llaniladi, ya’ni sifatli va miqdoriy usullardan foydalaniladi. Bu usul ta’lim platformalaridan foydalanishning ta’lim sifatiga ta’sirini kengroq o’rganish va uning natijalarini ilmiy asoslash imkonini beradi. Tadqiqot professional ta’lim muassasalaridagi o’qituvchi va talabalardan iborat 300 nafar ishtirokchini o’z ichiga oladi. Ishtirokchilar tanlanishda tasodifiy tanlash usuli qo’llaniladi va ular orasidan 250 nafar talaba hamda 50 nafar o’qituvchi tanlanadi. Bu tanlov raqamli ta’lim platformalarining turli foydalanuvchilari nuqtai nazaridan ta’sirini baholashga yordam beradi.

Ma’lumot yig’ish uchun quyidagi vositalardan foydalaniladi:

— **anketalar**-talaba va o’qituvchilarga raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish holati, ular orqali o’quv jarayonining sifatini oshirish imkoniyatlari haqida savollar beriladi [2]. Anketalar yopiq va ochiq savollarni o’z ichiga olgan bo’lib, ishtirokchilarning tajriba va fikrlari haqidagi aniq ma’lumotlarni olishga imkon beradi;

— **yarim strukturalangan intervyular.** 40 nafar talaba va 5 nafar o’qituvchi bilan chuqurlashtirilgan intervyular o’tkaziladi. Bu tadqiqotda raqamli ta’lim platformalarining individual va moslashuvchan o’qitish imkoniyatlarini tushunish uchun qo’shimcha sifatli ma’lumotlar yig’iladi.

Yig’ilgan ma’lumotlar quyidagi tahlil usullari orqali tahlil qilinadi:

- **miqdoriy tahlil** — anketa natijalari **deskriptiv statistika** usullari yordamida o’rganiladi. Anketalar orqali yig’ilgan ma’lumotlar miqdoriy jihatdan baholanib, ta’lim sifatiga raqamli ta’lim platformalarining ijobiy yoki salbiy ta’siri haqida ma’lumot beriladi;
- **korelyatsion tahlil** — o’quv jarayonidagi faollik, natijalarni kuzatish imkoniyatlari va individual ta’limga yondashuv o’rtasidagi bog’liqlik korelyatsion tahlil yordamida o’rganiladi;
- **sifatli tahlil —** intervyulardan olingan ma’lumotlar **kontent tahlili** yordamida tahlil qilinib, raqamli platformalardan foydalanish natijasida yuzaga kelgan o’zgarishlar to’g’risida chuqurroq ma’lumotlar keltiriladi. Bu usul talaba va o’qituvchilarning shaxsiy fikr va his-tuyg’ularini inobatga olish imkonini beradi.

Mazkur usullar yordamida olingan natijalar raqamli platformalar yordamida o’quv jarayonida kuzatilgan o’zgarishlar va ta’lim sifatiga ularning ijobiy ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

Natijalar

Mazkur tadqiqot professional ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim platformalarining ta’lim sifatiga ta’sirini o’rganishga qaratilgan bo’lib, quyidagi asosiy natijalar berishi mumkin:

— anketa natijalariga ko’ra, ishtirokchilarning necha foizida raqamli ta’lim platformalari yordamida bilim olish jarayoni yanada qulay va samarali ekanini keltirib chiqarishi;

— ko’pchilik talaba va o’qituvchilar platformalarning zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanganligi, o’quv jarayonida turli xil multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjudligini va bu orqali o’qitishning qiziqarliroq bo’lishini qayd etishi;

— bunga qo’shimcha ravishda, o’qituvchilar platformalar orqali o’quv materiallarini tez va oson tarqatishi hamda ularni yangilab borish imkoniyatiga ega bo’ladilar;

— raqamli platformalar talabalar ehtiyojlariga mos ravishda dars rejalarini tuzish va ta’lim kontentini moslashtirishga imkon beradi. Shu bilan birga, platformalar o’quvchilarning bilim olish jarayonini individual darajada boshqarishga va ularga kerakli yordamni ko’rsatishga imkon yaratadi;

— yarim strukturalangan intervyular natijasida esa talabalarning moslashtirilgan ta’limdan qoniqishi yoki qoniqmasligi va bu yondashuvni o’quv motivatsiyasiga ta’siri aniqlanadi.

Raqamli platformalar orqali avtomatlashtirilgan testlar, onlayn topshiriqlar va real vaqt rejimida baholash imkoniyati ta’lim sifatiga qanday darajada ta’sir ko’rsatadi [3]. Masalan Kahoot, Canva va boshqa ko’plab platformalardagi multimedia vositalar, interaktiv darslar va o’yin elementlari talabalar o’rtasida ta’limga qiziqish uyg’otadi va o’zlashtirish ko’rsatkichlarini oshiradi [4]. Quyidagi 1-rasmda Kahoot o’yin platformasi o’qituvchi profilidagi testlar kutubxonasi keltirilgan. Bunda o’qituvchining fanidan har bir mavzuga oid talabalar bilimini mustahkamlash uchun testlar tuzilgan.



1-rasm. Kahoot platformasidagi testlar kutubxonasi.

Kahoot platformasining o’qituvchi uchun afzalliklaridan biri statistik ma’lumotlarni ham olish mumkinligidadir. Ya’ni, 2-rasmda keltirilganidek qancha test manbasi borligi, nechta talaba testda qatnashganligi, o’yinlar soni kabi statistik ma’lumotlarni bilish mumkin.

2-rasm. O’qituvchi profilining statistikasi.

3-rasmda keltirliganidek talabalar o’z natijalarini muntazam kuzatib borish imkoniga ega bo’lishgani ularning o’z-o’zini baholash va yanada faol bo’lishiga turtki bo’ladi.



3-rasm. Kahoot platformasida test ishtirokchilarining natijalari.

Muhokamalar

Tadqiqot natijalari raqamli ta’lim platformalarining professional ta’lim muassasalarida ta’lim sifatiga sezilarli ijobiy ta’sir ko’rsatishini ko’rsatadi. Xususan, bu platformalar o’quv jarayonini individuallashtirish, baholash tizimini avtomatlashtirish va ta’lim kontentini interaktiv qilish imkoniyatlari tufayli ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Natijalar raqamli platformalar yordamida talabalarga individual yondashish imkoniyatining oshganini ko’rsatadi. O’quvchilar o’z ehtiyojlariga moslashtirilgan topshiriqlar va dars rejalarini tanlash imkoniyatiga

ega bo’lib, o’z bilim olish usulini shakllantirishga erishadilar. Ko’plab ilmiy adabiyotlarda ham bu platformalarning talaba ehtiyojlariga mos ta’lim dasturlarini shakllantirish va o’qitish samaradorligini oshirishga yordam berishi qayd etiladi [1,2,5], bu tadqiqot natijalari esa ushbu nazariy qarashlarni tasdiqlaydi. Baholash tizimining avtomatlashtirilishi talabalarning bilim darajasini tezkor va aniq baholash imkoniyatini taqdim etadi. Baholashning tezkorligi va shaffofligi nafaqat o’quvchilarning natijalarini kuzatishga, balki ularning o’z bilimlarini nazorat qilish va yaxshilashga ham yordam beradi. Tadqiqotda ta’kidlangan interaktiv kontent va o’yin elementlaridan foydalanishning samaradorligi ham muhim jihat hisoblanadi. Raqamli platformalar multimediya va interaktiv vositalar yordamida talabalarning ta’limga qiziqishini oshirishga va o’zlashtirish darajasini yaxshilashga yordam beradi. Masalan quyidagi 4-rasmda Kahoot platformasida o’tkazilgan testda yomon natija ko’rsatgan talabalarni va murakkab savollarni tahlil etish mumkin.



4-rasm. Kahoot platformasida advanced report bo’limi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari professional ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim platformalari ta’lim sifatini oshirishda samarali ekanligini ko’rsatadi. Raqamli platformalar yordamida o’quv jarayonini moslashuvchan, individual ehtiyojlarga moslashtirilgan va interaktiv tarzda tashkil etish imkoniyati yaratiladi.

Raqamli ta’lim platformalari nafaqat o’quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarning motivatsiyasini ham kuchaytiradi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari orqali o’quvchilarning bilim darajasi shaffof va aniq baholanadi, bu esa o’qituvchilarga talabalarning bilim darajasini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, interaktiv darslar va o’yin elementlari orqali o’quvchilarning o’zlashtirish darajasi oshib, ta’lim jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo’ladi.

Mazkur natijalar professional ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim platformalarining yanada kengroq joriy qilinishi kerakligini ko’rsatadi. Kelgusidagi tadqiqotlar raqamli platformalardan foydalanishni yanada samarali yo’lga qo’yish va yangi texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin. Shu bois, ta’lim tizimida raqamli platformalarning joriy etilishini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash ta’lim sifatini oshirishning muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Alrasheed, Thowg. *A Review on the Effectiveness of Distance Learning through E-platforms on Training Quality at the Technical and Vocational Training Corporation.* Journal of Education, Society and Behavioural Science, 37 (6), 2024. PP.187-201.

2. *Ioannis Zervas, Emmanouil Stiakakis. Digital skills in vocational education and training: Investigating the impact of Erasmus, digital tools, and educational platforms. Vol 8, Issue 8, ID: 8415, 2024, https://doi.org/10.24294/jipd.v8i8.8415*

3. Rustamova M., Berdiqulova N. Canvada dars jarayonlari uchun multimediali taqdimotlar tayyorlash. Science and Education, 5(1), 2024. PP.257–260.

4. Berdiqulova N., Rustamova M. Kahoot yordamida ta’lim faolligini oshirish: interaktiv ta’limga zamonaviy yondashuv. Interpretation and Researches, 2(24), 2024.

5. Shaxodjayev M.A., Xoshimov M.T. Professional ta’lim muassasalari o’qituvchilarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish // Raqamli ta’limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo’llari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 25-oktabr, 2023. 27-30 bet. https://doi.org/10.5281/zenodo.10034769

6. Rustamova M.A. Ta’limda innovatsion axborot texnologiyalarini qo’llab ta’lim samaradorligini oshirish // Oliy ta’limda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar: fan, ta’lim, tarbiya. 1-toplam, 2024. 273-279 bet.

7. *Bujang, S. D. A., Selamat, A., Krejcar, O., Maresova, P., & Nguyen, N. T. (2020, April). Digital learning demand for future education 4.0—Case studies at Malaysia education institutions. In Informatics, Vol. 7, No. 2, p.13.*

8. *Жуковская И.Е. Основные тренды совершенствования деятельности высшего учебного заведения в условиях цифровой трансформации. Открытое образование. 25(3), 2021. Стр.15-25. https://doi.org/10.21686/1818-4243-2021-3-15-25*

9. *Габдуллина А.Ш. Влияние цифровизации на когнитивные функции обучающихся в вузе в рамках иноязычного обучения. Педагогика. Вопросы теории и практики. Том 7, Выпуск 4, 2022. Стр. 395-403 https://doi.org/10.30853/ped20220073*

TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI QO’LLASH ISTIQBOLLARI

Xojiboqiyeva Niginaxon O‘tkir qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali „Iqtisodiyot“ yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
xojiboqiyevanigina@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14187523

Annotatsiya. *Maqolada respublikamiz oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o‘quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlangan.*

Kalit so’zlar. *Ta’lim jarayoni, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, oliy ta’lim tizimi, zamonaviy ta’lim, masofaviy o‘qitish, pedagogik texnologiyalar, multimedia vositalar.*

Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda raqamli texnologiya zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylandi. Maktablarda raqamli texnologiyadan foydalanish o’quvchilarning o’rganish va o’qituvchilarning dars berish usullarini inqilob qildi. Bu ta’limni yanada qulayroq, qiziqarli va interaktiv qilib, o’quvchilar va o’qituvchilar uchun cheksiz imkoniyatlar yaratdi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining <<Raqamli O’zbekiston-2030>> strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to’g’risida” gi Farmonida raqamli texnalogiylar asosida mamlakatimizda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish vazifasi yuklatilgan.

Amonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ta'lim jarayonini yanada samarali va qulay qilish uchun raqamli vositalardan foydalanish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtirish va o'qituvchilarning ishini samarali qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash istiqbollari va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Raqamli Texnologiyalar va Ta’lim

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini yangilash va takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ular quyidagi asosiy sohalarda qo'llanilishi mumkin:

1. Onlayn Ta’lim: Raqamli platformalar orqali ta'lim olish imkoniyatlari kengaymoqda. O'quvchilar onlayn kurslar, vebinarlar va interaktiv darslar orqali bilim olishlari mumkin. Bu, ayniqsa, geografik cheklovlarga ega bo'lgan talabalar uchun muhimdir.

2. Interaktiv O'qitish: Raqamli vositalar yordamida o'qituvchilar interaktiv darslar o'tkazishlari mumkin. Bu, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning qiziqishini oshiradi. Misol uchun, simulyatsiyalar, o'yinlar va multimedia materiallari orqali ta'lim berish samaradorligi oshadi.

3. Ma'lumotlarni Tahlil Qilish: Raqamli texnologiyalar yordamida o'qituvchilar va ta'lim muassasalari o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini kuzatish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu, o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi va individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Ta’lim Tizimida Raqamli Texnologiyalarni Qo’llash Istiqbollari

1. Innovatsion Ta’lim Modellarining Rivojlanishi: Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada innovatsion shakllarga olib keladi. Masalan, "flipped classroom" (aylantirilgan dars) modeli, unda o'quvchilar darsdan oldin materiallarni onlayn ko'rib chiqadilar va darsda amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratadilar.

2. Sun’iy Intellekt va Ta’lim: Sun’iy intellekt (SI) ta'lim tizimida shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini yaratishga yordam beradi. SI yordamida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv dasturlari ishlab chiqilishi mumkin.

3. O'qituvchilarni Tayyorlash: Raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun o'qituvchilarni tayyorlash muhimdir. O'qituvchilar yangi texnologiyalarni qanday qo'llashni bilishlari kerak, shuning uchun ularni tayyorlash dasturlari ishlab chiqilishi zarur.

4. Kiberxavfsizlik Masalalari: Raqamli texnologiyalarni qo'llashda kiberxavfsizlik masalalari ham muhimdir. Ta'lim muassasalari ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'rishlari kerak.

5. Global Hamkorlik: Raqamli texnologiyalar yordamida global ta'lim hamkorliklari rivojlanadi. O'qituvchilar va talabalar turli mamlakatlardagi hamkasblari bilan tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Shuningdek:

1. Virtual va Kengaytirilgan Haqiqiyat: Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlar kiritmoqda. Masalan, talabalar tarixiy joylarni virtual ravishda ko'rishlari yoki biologiya darslarida 3D modellar orqali organlarni o'rganishlari mumkin. Bu tajribalar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

2. O'qitish va O'rganishning Moslashuvchanligi: Raqamli texnologiyalar yordamida o'qituvchilar o'z darslarini turli formatlarda taqdim etishlari mumkin. Bu, o'quvchilarning o'z vaqtida va o'z sharoitida ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Masalan, video darslar, audio materiallar va interaktiv dasturlar orqali o'qitish.

3. O'z-o'zini O'rganish: Raqamli texnologiyalar o'quvchilarga o'z-o'zini o'rganish imkoniyatini beradi. O'quvchilar onlayn resurslardan, masalan, YouTube videolaridan, maqolalardan yoki onlayn kutubxonalardan foydalanib, qiziqishlariga mos keladigan materiallarni topa oladilar.

4. Kollaborativ O'qitish: Raqamli vositalar yordamida talabalar bir-biri bilan hamkorlikda ishlashlari mumkin. Onlayn platformalarda guruh loyihalari, muhokamalar va seminarlar tashkil etish orqali talabalar bir-biridan o'rganadilar va fikr almashadilar.

5. Ta'limda O'lchov va Baholash: Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini baholash va kuzatish jarayoni ancha osonlashadi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, testlar va statistik ma'lumotlar o'qituvchilarga o'quvchilarning bilim darajasini tez va samarali baholash imkonini beradi.

6. O'qituvchilar uchun Resurslar: Raqamli texnologiyalar o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yanada samarali o'tkazish uchun ko'plab resurslar taqdim etadi. O'qituvchilar onlayn kurslar, vebinarlar va professional rivojlanish dasturlari orqali yangi metodologiyalarni o'rganishlari mumkin.

7. Ijtimoiy Tarmoqlar va Ta’lim: Ijtimoiy tarmoqlar ta'lim jarayonida ham muhim rol o'ynay boshladi. O'qituvchilar va talabalar ijtimoiy tarmoqlarda bilim almashish, savollar berish va muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu, ta'lim jarayonini yanada interaktiv qiladi.

8. Yoshga Mos Ta’lim: Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim dasturlari yoshga moslashtirilishi mumkin. Bolalar uchun mo'ljallangan interaktiv o'yinlar va dasturlar orqali ta'lim berish jarayoni qiziqarli va samarali bo'ladi.

9. Raqamli Fuqarolik Ta’limi: Raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan birga, raqamli fuqarolik ta'limi ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar internet xavfsizligi, axborot etikasi va raqamli izlarni boshqarish kabi masalalarni bilishi zarur.

10. O’zaro Ta’sir: Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonida o'zaro ta’sir kuchayadi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida tezkor aloqa o'rnatiladi, bu esa ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Ta’limda raqamli texnologiyaning eng muhim afzalliklaridan biri o’rganishni shaxsiylashtirish qobiliyatidir. Texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar har bir o‘quvchining o‘ziga xos ta’lim uslubi, sur’ati va qiziqishlariga mos keladigan individual dars rejalarini yaratishi

mumkin. O’quvchilar, shuningdek, o’z tezligida, o’z vaqtida va o’zlari xohlagan muhitda o’rganish imkonini beruvchi ko’plab onlayn resurslar va vositalardan foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari, raqamli texnologiya o’rganishni yanada qiziqarli va interaktiv xolda amalga oshiradi. Doskalar va darsliklar davri o’tdi; zamonaviy o‘quv xonalari raqamli qurilmalar, interaktiv doskalar va o‘quvchilarga virtual munozaralar, viktorinalar va o‘yinlarda qatnashish imkonini beruvchi onlayn platformalar bilan jihozlangan. Ushbu vositalar nafaqat o’rganishni qiziqarli qiladi, balki o’quvchilarga ma’lumotni yaxshiroq saqlashga yordam beradi va ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko’nikmalarini oshiradi. Ta’limda raqamli texnologiyaning yana bir muhim jihati hamkorlik va muloqotni kuchaytirish qobiliyatidir. Google Classroom, Microsoft Teams va Zoom kabi onlayn platformalar yordamida o’quvchilar jismoniy joylashuvidan qat’i nazar, loyihalar ustida hamkorlik qilishlari, hujjatlarni almashishlari hamda bir-birlari va o‘qituvchilari bilan muloqot qilishlari mumkin. Bu o’quvchilarga hamkorlikda samarali ishlash, fikr almashish va bir-biridan o‘rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli ta’lim texnologiyasi o’quvchilarga dunyoning istalgan nuqtasidan ta’lim olish imkoniyatini yaratdi. Onlayn ta’lim an’anaviy ta’lim resurslaridan foydalana olmaydigan, masalan, chekka yoki kam ta’minlangan hududlardagi o’quvchilar uchun imkoniyatlar ochdi. Onlayn kurslar va dasturlar, shuningdek, o’quvchilarga o’z tezligi va jadvali bo’yicha o’qish imkonini beradi, bu esa ish yoki oila kabi boshqa majburiyatlarga ega bo’lganlar uchun ta’limni yanada qulayroq qiladi. Ta’limda raqamli texnologiyaning ko’plab afzalliklariga qaramay, hal qilinishi kerak bo’lgan ba’zi muammolar ham mavjud. Raqamli tafovut eng katta muammolardan biridir. Barcha o’quvchilar kerakli raqamli qurilmalarga yoki ishonchli internet ulanishlariga ega emas, bu esa o’rganish imkoniyatlaridagi nomutanosiblikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun barcha o’quvchilar raqamli ta’limda to’liq ishtirok etish uchun zarur raqamli texnologiyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo’lishini ta’minlash juda muhimdir. Yana bir masala shundaki, texnologiya darsda chalg‘itish imkoniyatiga ega. Ko’plab raqamli qurilmalar va onlayn platformalar mavjud bo’lganligi sababli, o’quvchilar o’z o’qishlariga e’tiborini yo’qotish vasvasaga solishi mumkin. Shuning uchun o’qituvchilar sinfda raqamli texnologiyadan foydalanishni muvozanatlash yo’llarini topishlari va undan o’rganishni kamaytirish uchun emas, balki uni yaxshilash uchun samarali ishlatilishini ta’minlashlari kerak.

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) iboralari kundalik turmushda eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki hayotning qaysi sohasini olmaylik, qanday amallarni bajarmaylik, albatta, AKT bilan ish ko‘ramiz. Zamonaviy AKTdan foydalanish, axborot almashish, ularni uzatish, o‘zlashtirish inson faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari juda keng tizim bo‘lib, unga ma‘lum bo‘lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari, Internet kabi tushunchalardan tashqari qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma‘lumotlar ombori, ma‘lumotlar omborini boshqarish tizimlari, bilimlar ombori kabilar misol bo‘lishi mumkin. ―XXI asr - axborotlashtirish asri‖da ta‘lim sohasiga elektron ta‘limni joriy etish, har bir ta‘lim muassasasida: o‘qitish va o‘qish jarayonining; ta‘lim muassasasi boshqarilishining; ta‘lim muassasasi bo‘linmalarining; ta‘lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi. Axborot texnologiyalari – ob‘ekt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsuloti)ning holati to‘g‘risida yangi sifatdagi axborot olish uchun ma‘lumotlarni to‘plash, ularga ishlov berish va uzatish vositalari hamda usullarining majmuidan foydalanuvchi jarayon. Axborot texnologiyalari

mavjud usullar va vositalardan foydalanib ma‘lum axborotlarga ishlov berib, qayta ishlab yangi ko‘rinishdagi inson faoliyati uchun zarur bo‘lgan axborotlarni yaratish jarayonidir. Axborot texnologiyasining maqsadi – inson tomonidan tahlil qilish va uning asosida qandaydir xatti-harakatni bajarish bo‘yicha qaror qabul qilish uchun axborot ishlab chiqarish. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta‘lim jarayonlariga joriy etilishi: talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga; o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirilishiga; o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi joriy hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga; interaktiv muloqot imkoniyatlarining etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga; sun‘iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashiga; axborot jamiyati a‘zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga; o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, ushbu ta‘lim vositasining didaktik imkoniyatlariga ob‘ektning tabiiy jihatlari, texnik va texnologik fazilatlari, o‘quv va tarbiyaviy jarayonida didaktik maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan aspektlari sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim texnologiyaning biz zamonaviy ta’limdagi roli muhim va keng qamrovli ekanligiga ishonamiz. Bu bizning o’qitish va o’rganish uslubimizni o’zgartirish, ta’limni yanada qulayroq, qiziqarli va interaktiv qilish imkoniyatiga ega. Biroq, ta’limda raqamli texnologiya bilan bog’liq muammolarni hal qilish muhim, masalan, raqamli tafovut va chalg’itish ehtimoli. Shunday qilib, biz texnologiyani o’rganishni yaxshilash va o’quvchilarni raqamli asrda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun samarali qo’llanilishini ta’minlashimiz mumkin. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo’llash istiqbollari juda kengdir va bu jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lim muassasalarining tayyorgarligiga, o'qituvchilarning malakasiga va o'quvchilarning qiziqishiga bog'liq. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini yanada samarali, qulay va qiziqarli qilish mumkin. Kelajakda ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar bilan birgalikda rivojlanishi davom etadi, bu esa o'quvchilarning bilim olish jarayonini yangi darajaga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

2. Tursunov S.Q. Ta‘limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Monografiya. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.

3. IMOMOVA Shafoat Mahmudovna. MATEMATIKANI O‘QITISHDA MATEMATIK TIZIMLARDAN FOYDALANISH//Pedagogik mahorat. Maxsus son (2022 yil, derkabr), 2022, C.77-80.

4. Imomova Shafoat Mahmudovna, Qobilov Komil Hamidovich. Oliy Ta‘lim Muassasalarida Masofadan OQitish Jarayonini Takomillashtirish// Miasto Przyszłości, Vol. 31 (2023), C.312-314.

5. Kozlova N. Sh. Ta'limdagi raqamli texnologiyalar // Maykop davlat texnologiya universitetining xabarnomasi. 2019. jild. 1/40. 83–90-betlar.

TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO’LLASH ISTIQBOLLARI

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Bank ishi kafedrasi mustaqil tadqiqotchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189183

Hayitmurodov Ulug'bek Ulash o'g'li
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Bank ishi kafedrasi assistent o’qituvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189183
Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Bank ishi kafedrasi assistent o’qituvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189183

Annotatsiya: *Ushbu maqola raqamli iqtisodiyotdagi xavflar, muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan hamda qishloq xo’jaligida raqamli iqtisodiyotni qo’llashning muvaffaqiyati to’g’risida.*

Kalit so’zlar: *Raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, kibr hujum, qishloq xo’jaligi.*

Kirish. Hozirgi kunda yurtimizda “raqamli iqtisodiyot” degan jumlaga ko’p duch kelyabmiz. Buning ma’nosini chuqurroq anglashimiz uchun uning nazariy jihatdan ta’rifi bilan tanishsak. Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish jarayoni bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar hisoblanib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir.

Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to’lovlarni amalga oshirish, internet savdo va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Hozirgi kunni innovatsion texnologiyalar davri desak xato bo’lmaydi. Qaysi sohaga qaramasak axborot texnologiyalarga muhtojlikni sezamiz. Chunki ularning mavjudligi ishning unumini samarasini beradi.

Raqamli iqtisodiyot hamda axborot texnologiyalari bir biri bilan chambarchars bog’liq. Chunki axborot texnologiyalari raqamli iqtisodiyot negizidir.

Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko'plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o'ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko'plab pul mablag'larini tejashi mumkin.

Masalan biron bir kitobning elektron ko'rinishda sotib olish Sizga, shu kitobni chop etilgan ko'rinishini sotib olish ancha arzonga tushishi mumkin. Yoki bo'lmasa oddiy iste'molchi o'zi ham tadbirkor bo'lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug'ullanishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini boshqa afzalliklari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarishda mehnat samadorligini oshishi;
- kompaniyalarning raqobatbardoshligini o'sishi;
- ishlab chiqarishdagi harajatlarning kamayishi;
- yangi ish o'rinlari yaratilinishi;
- yangi zamonaviy kasblar paydo bo'lishi;
- kambag'allikni yengish va ijtimoiy tengisizlikni yuqolishi.

Hamma narsani yaxshi tomoni bo’lganidek raqamli iqtisodiyotning ham kamchiligi bor. Bular:

-Kiber hujum xavfi;

-ishsizlikni oshishi kabilardir.

"Raqamli" davlatlar bugungi kunda Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya hisoblanishadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan 10 ta davlatlar qatoriga AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Gonkong kiradi.

Savol tug’ilishi mumkin raqamli iqtisodiyotning qishloq xo’jaligiga nima aloqasi bor deb. Masalan axborot texnologiyalarini dexqonchilikda qo’llasak bizga foyda bermaydimi?

Tahlil va natijalar Masalan sarf xarajatlarni, olingan foydani, ko’rilgan zararlarni o’zida ifoda etadigan bir baza bo’lsa ish unumi, topgan daromadimiz oshishiga xizmat qilmaydimi? Agar barcha ma’lumotlarni bir joyga yi’ga oladigan baza bo’lsa qidirilayotgan raqamlar tez topiladi. Olingan daromad to’g’ri hisoblanadi. Ko’rilgan foyda va zararlardan kelib chiqib ishlash texnologiyasiga o’zgartirishlar kiritiladi yoki yangilanadi.

Dunyo tajribasini o'rganish natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotda davlat(hukumat) bozor "o'yin" qoidalarini o'yinning barcha ishtirokchilari uchun belgilaydi va bunda davlatning eng muhim vazifasi sifatida o'yin ishtirokchilari uchun bir xil, teng huquqli va imkoniyatli sharoit yaratib berish hisoblanadi. Ya'ni, bozorda katta kompaniya bo'ladimi yoki kichik biznes, ular teng huquqli hisoblanadi. Ularga bir xil imkoniyatlar beriladi.

Davlat qoidalarga amal qilinishi va oxir oqibatda oddiy iste'molchi sifatli, zamonaviy xizmat yoki mahsulot olishi ta'minlanadi. Demak, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo'lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda(ya'ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi) o'yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur.

Ta’kidlash joizki, yurtimizda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi sustroq. Bunga ko’p omillar misol bo’la oladi. Ulardan biri kadrlarning malakasidir. Yurtimizda imkoniyat mavjud lekn undan

foydalanish uchun malakali mutaxassislar yetishmayabti. Yana bir omil internet tezligi pastligi hamda narxdagi muammolar.

Haligacha yurtimizning barcha joylarida internet bilan muammolar bog’liq. Aksariyat qishloq xo’jaligi esa yurtimizning chet joylarida tashkil etilgan. Axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi ham bir omildir. Hozirgi kunda hakerlarning yoki qo’shtirnoq ichidagi firibgarlarning hujumi ko’oayib ketgan. Bu esa raqamli iqtisodiyotning eng katta xavflaridan biridir.

Demak raqamli iqtisodiyotni qo’llash uchun yuqorida aytilgan omilarni yechimini topsak qo’yilgan maqsadlarga erishish uchun yo’l ochiladi. Masalan: internet tezligi uchun qurilmalarni yaxshilasak, kadrlarni tayyorlash uchun chet ellik malakali IT mutaxassislari bilan shartnoma tuzib ularni o’qitish tizimini joriy etsak, axborot xavfsizligi uchun qo’shimcha himoyani kuchaytirsak maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Shuni yodda tutishimiz joizki, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo'lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda(ya'ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi) o'yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur.

Shuni ta’kidlash kerakki, indeksatsiya aktivlar qiymatining o‘zgarishi emas, u faqat aktivlar qiymati bo‘yicha ma’lumotlarning solishtirilishini ta’minlaydi. Indekslash natijasida foyda (zarar) mavjud, ammo bu foyda (zarar) aktivlar qiymatining o‘zgarishi bilan bogliq emas, balki kompaniyaning balans tuzilishiga nisbatan siyosatining natijasidir.

Indekslashdan farqli o‘laroq, aktivlarni qayta baholash ushbu aktivlarning bahosidagi o‘zgarishlar indeksini yoki ularning adolatli qiymatini qo‘llash orqali ularning tarixiy qiymatining pul qiymatini balans sanasidagi pul shartlariga moslashtirishdan iborat. Bu hozirgi qiymatga asoslangan aktivlarni baholashga yondashuv. Shuni ta’kidlaymizki, xalqaro standartlarga muvofiq, aktivlarni adolatli qiymat bo‘yicha baholashga asoslangan yondashuvni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan qayta baholash summasi bevosita kapitalda aks ettirilishi kerak.

Hozirgi kunda jahonda raqamli iqtisodiyotni tartibga solishning nazariy asoslari raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jadal sur’atlar bilan amalga oshmoqda. Raqamli iqtisodiyotni tartibga solishning nazariy asoslari va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iste’molchilar talabini to‘liq qondirish va iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Elektron tijorat tovarlar va xizmatlar realizatsiyasini tezlashtirish asosida inqirozlarni oldini olish imkonini beradi. Bunda virtual to‘lovlar tizimi tovar aylanishini tezlashtiradi. Internet reklama esa o‘z navbatida reklama auditoriyasini butun dunyo miqyosida kengaytirish imkonini beradi.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini ishlab chiqish vazifasi qo‘yilib, unga ko‘ra O‘zbekistonni raqamli transformatsiyalashish jarayonini jadallashtirish maqsadi belgilab olindi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bugungi kunda ish bilan bandlikni ta’minlashning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘lmoqda. Ish beruvchilar ixtiyoriy ravishda va xohishiga ko‘ra xodimlarni ishga yollash imkoniga ega bo‘lmoqdalar va geografik joylashuvi hamda vaqtdagi farq ahamiyatga ega emas. Xodimlar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o‘z vazifalarini bajarishga qodir bo‘lib, uydan tashqariga chiqmasdan, har qanday vaqtda belgilangan vazifani bajarish imkoniga ega bo‘lishmoqda.

Raqamli iqtisodiyot – bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayot va qulaylikni ta’minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan ishlab chiqarish tizimi bo‘lib, u yerda ma’lum

bir kiber-jismoniy (kiberfizicheskaya) tizim paydo bo‘ladi. Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot bu ishlab chiqarish kompleksi insonlar uchun qulayliklarni ta’minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan virtual muhit bo‘lib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarish tizimidir. Raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro‘y bergan jiddiy o‘zgarishlar tufayli sezilarli darajada o‘sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o‘zaro muloqotni yanada tez va oson yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratdi.

Raqamli xizmatlar an’anaviy turga qaraganda qog‘ozbozlik, rasmiyatchilikning yo‘qligi, vaqtni tejash kabi bir qator afzalliklarga ega. Masalan, davlat xizmatlarini raqamli ko‘rinishda olsangiz, sizga belgilangan to‘lovning 10 foizi miqdorida chegirma taqdim etiladi. Bularning barchasi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga faol o‘tilayotganining belgisi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning yana bir omili — kiberxavfsizlikni ta’minlashdir. Karantin sharoitida global tarmoqda koronavirusdan saqlanish bo‘yicha ko‘rsatmalar yorlig‘i ostida dasturiy tizimlarni ishdan chiqaruvchi viruslar tarqatish holatlari uchradi.

Xorijda dori-darmonni onlayn sotish va yetkazib berishni va’da qilib, oldindan pullarni hisob raqamiga o‘tkazishni so‘rab, sodda odamlarni aldab ketayotgan moliyaviy firibgarlar soxta onlayn-do‘konlar, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlar va elektron pochta manzillaridan foydalanishdi. Bu ham axborot xavfsizligini ta’minlash zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Raqamlashuv va kiberxavfsizlik tushunchalari doimo yonma-yon keladi. Chunki barcha tizim va jarayonlarni raqamlashtirish bilan birga, ularning texnik jihatdan mukammal va bexato ishlashini, xavfsizligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Bugun uydan chiqmasdan to‘lovlarni amalga oshirish, hech bir muammosiz masofaviy ta’lim olish, dunyoning yirik kutubxonalaridan foydalanish va hatto ishlash mumkin.

Xulosa va takliflar O’zbekistonda raqamli iqtisodiyotga kirish uchun 2021-yil 15-iyunda Vazirlar Maxkamasi tomonidan qabul qilingan “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish” deb nomlangan qarorni misol qilishimiz mumkin. Shu o’rinda reyting baholashga ta’rif bersak. **Reyting baholash** -reyting ko‘rsatkichlari va indikatorlari yordamida raqamli rivojlanish holatini baholash orqali tashkilotlar hamda hududlarni eng yuqori natijadan eng past natijagacha saralangan ro‘yxatdagi o‘rnini belgilash Shu o’rinda yurtimizda “Raqamli O’zbekiston-2030” strategiyasi ham amalga oshirilmoqda. Unga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta’minlash bo‘yicha xalq ta’limi, davlat xizmatlari, sud, moliya va bank tizimini takomillashtirish muhim masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish” Vazirlar Mahkamasining 373-son Qarori. 15.06.2021 y.
2. Umarov, I. Y. (2020). Innovative activity of the food industry of Uzbekistan. Экономика и социум, 7, 74.
3. Umarov, I. Y., & Yusupova, M. Features of digital innovation management in business. In World science: problems and innovations collection of articles of the XX-XI
4. International Scientific and Practical Conference: at (Vol. 4).

5. Alimova, G. A. (2020). Foreign Experience In Indexing The Amount Of Pensions.
6. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(11), 472-477.
7. Абдуллаев, М. Г. (2017). Опыт развитых стран в развитии малого бизнеса и частного предпринимательства, и его особенности в Узбекистане. Научная дискуссия: инновации в современном мире, (11), 37-4
8. Maxmudova, N. J. (2020). Theoretical foundations of risk management in large corporate structures. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 83-88.
9. www.wikipedia.uz internet sayti.

O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY XUSUSIYATLARI

Igamnazarova Nafisa Saidnazarovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
PhD, dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189585

Annotatsiya: *Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, dinimiz, xalqimizga xos dunyoqarashni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi vositadir. Shuning uchun ham o‘z tilini yo‘qotgan millat o‘zligidan mahrum bo‘ladi, ma’naviy inqirozga uchraydi.*

Kalit so‘zlar: *moddiy olam, me’yor, taraqqiyot,e’tibor, tafakkur, soha.*

Asosiy matn: Til fikrni shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o‘zida namoyon etadi. To‘rtinchidan, til uzluksiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Kishilar odatda bir-birlari bilan til orqali munosabatda bo‘ladi.

Ilm-fan, san‘at va madaniyat, ma‘naviyat hamda ma‘rifat haqida gap ketganda dunyo ma‘rifatparvarlik maktabining taraqqiyotida tilning, ya‘ni milliy tilning o‘rni va roli alohida o‘rin tutishini ta‘kidlash zarur. Chunki har qanday ixtiro yoki kashfiyot til bois ajdodlardan-avlodlarga meros bo‘lib yashab kelmoqda. Shu bois har bir til o‘z egasi uchun nihoyatda qadrli va aziz hisoblanadi. Inson tug‘iliboq padari buzrukvori hamda volidasining mehri, shirin kalomi, allasi-yu sevgisini ona tilida eshitadi, tuyadi. Ilk so‘zlari, fikr-o‘yi, tevarak-atrof haqidagi mulohazalarini shu tilda bayon qiladi. Mana shuning uchun bo‘lsa kerak, har bir insonning o‘z ona tiliga bo‘lgan mehr-muhabbati bo‘lakchadir, u kishining qalbida, yurak to‘ridadir. Shu boisdan ham har bir inson ona tilini qadrlamog‘i, uni sofligini saqlashga, rivojiga o‘z hissasini qo‘shmog‘i lozim.

Dunyoda yetti mingga yaqin til mavjud, lekin barcha tillarga ham davlat tili degan sharafli maqom nasib etmagan. Aksariyat tillar imperiya davlatlarning hududida ma’lum millatlargagina uy-ro‘zg‘or tili sifatida xizmat qiladi. Yer yuzida o‘z suveren huquqiga ega bo‘lgan nechta davlat bo‘lsa, shunga yaqinroq davlat tili mavjud bo‘lar ekan. Milliy qomusimizning ma‘lumotiga ko‘ra, yer yuzidagi uch ming tildan atigi 116 tasi davlat tili maqomiga ega. O‘zbek tilining bu mo‘tabar minbardan o‘rin olishi, ya‘ni davlat tili maqomiga ega bo‘lishi eng kata yutuqlardan biri hisoblanadi.

Olimlarning ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda jahonda taxminan 1300 ga yaqin xalq hamda elatlar mavjud bo‘lib, ular uch mingdan oshiq tillarda so‘zlashadi. Ularning o‘z tarixi, taqdiri, jamiyatda tutgan o‘rni hamda nufuzi bor. Bu borada o‘zbek tili ham bundan mustasno emas. Ya‘ni hozirgi o‘zbek adabiy tili bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili degan maqomga ega bo‘lgunga qadar quyidagi tarixiy davrlarni bosqichma-bosqich bosib o‘tgan. Xususan, Markaziy Osiyo hududida yashagan sak va massagetlar qabilalari tiliga xun, yuechji hamda boshqa turkiy qabilayu urug‘lar tili aralashuvidan yaralgan til tashkil etadi. Bu tillar bo‘yicha biror yozma yodgorlik qolmagan bo‘lsada, mazkur davr urug‘ tillari hozirgi turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tilining shakllanishiga asos bo‘lgan. Qadimgi turkiy adabiy til davridan esa rum, uyg‘ur, so‘g‘d, manixey, braxma yozuvlarida yozilgan yodgorliklar yetib kelgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari ham shu davrda yozilgan. Eski turkiy adabiy tilda O‘zbek xalqi va tilining shakllanishiga zamin yaratila boshlangan. Bu vaqtda Movarounnahr va Qashqarda qarluq-uyg‘ur hamda qipchoq-o‘g‘iz tillari xususiyatini o‘z ichiga olgan turkiy adabiy til mavjud edi. Unda “Qutadg‘u bilig», “Devonu lug‘atit turk”,“Hibat ul-haqoyiq”, ”Hikmatlar”, ”Tafsir”, ”O‘g‘uznoma”, ”Qissas-ul-anbiyo” asarlari yaratildi. Mazkur asarlar leksik, grammatik hususiyatlari bilan eski o‘zbek tiliga ancha yaqin turadi. XIV asrga kelib, umumxalq o‘zbek tili vujudga keldi. Bu davrda yozilgan asarlarda shevalar ta‘siri yaqqol seziladi. Navoiygacha bo‘lgan davrda Oltin O‘rdada “Muhabbatnoma”, “Gul va Navro‘z”, “Hisrav va Shirin”, «Guliston» asarlari yozildi. Eski O‘zbek adabiy tili mahalliy turkiy va qisman eron urug‘lari tiliga qipchoq hamda O‘g‘uz tillarining ta‘siri natijasida shakllandi.

Alisher Navoiy eski o‘zbek adabiy tilida juda ko‘p yangi shakllar, yangi uslublar yaratdi, Shimol, Sharq, Janubdagi tarqoq holdagi adabiy til shakllarini birlashtirib, o‘z davrining mukammal adabiy til me‘yorini yaratdi. Shu ma‘noda, Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi.

Yangi o‘zbek adabiy tili XIX asrning ikkinchi yarmidan rivojlanib, bu vaqtga kelib Furqat, Zavqiy kabilarning tili jonli tilga yaqinlashdi. Asr oxirida turk tili haqidagi dastlabki kitoblar va amaliy grammatika qo‘llanmalari paydo bo‘ldi. XX asr boshlaridagi esa gazeta, jurnallarda turk, ozarbayjon, tatar tillarining ta‘siri yaqqol ko‘rinadi. Bu vaqtda o‘zbek tilida yangi so‘z, shakllar yasashga urinish kuchli bo‘ldi, rus tilidan anchagina so‘zlar qabul qilindi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili XX asrning 20-yillaridan shakllana boshlagan. Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, Oybek, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Komil Yashin, Zulfiya asarlari hozirgi adabiy tilning rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Shuni aytib o‘tish lozimki, o‘zbek tilining rivojlanishi, undagi o‘zgarishlar ijtimoiy-siyosiy hodisalarga bog‘liq ravishda ro‘y berdi. Jumladan, fors-tojik xalqi bilan uzoq vaqt yonma-yon yashash o‘zbek tilida ko‘plab forscha- tojikcha so‘zlarning o‘rin olishiga sabab bo‘lgan. Arablar istilosi natijasida esa fan va ilmga oid arabcha so‘zlar o‘zbek tiliga kirib o‘zlashgan sho‘ro davrida esa ona tilimizga rus tilining ta‘siri juda kuchli bo‘ldi. Rus tili orqali o‘zbek tiliga Yevropa tillariga oid juda ko‘p so‘z va atamalar qabul qilindi.

Rasmiy til – davlat boshqaruvi, qonunchilik, sud jarayoni tilidir.

Ushbu ikki ta‘rif tushuntirish-tavsiya sifatida qabul qilinadi, barcha mamlakatlar uchun majburiy emas.

O‘zbekiston – ko‘p millatlik davlat. Respublikada 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. O‘zbekiston aholisining 80 foizdan ortig‘ini o‘zbeklar tashkil etib, ularning umumiy aholi sonidagi ulushi muntazam oshib bormoqda. Shuningdek, boshqa millatlarning katta jamoalari ham mavjud. 10 foizdan ortig‘i – Markaziy Osiyo xalqlarining boshqa vakillari (5 foizga yaqini – tojiklar, 3 foizga yaqini – qozoqlar, 2 foizi – qoraqalpoqlar, 1 foizi — qirg‘izlar, shuningdek turkmanlar va boshqalar).

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuniga (yangi tahrir) muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi. Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z

xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar. Shu bilan birga, O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat va elat tillariga hurmat ko‘rsatiladi va ularning rivoji uchun sharoitlar yaratadi. Ommaviy axborot vositalari O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi millat va elatlarning bir necha tillarida efirga uzatiladi va chop etiladi.

O‘zbek tilining asriy va azaliy maqom-martabasiga muhabbat-ehtiromini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoq sahifalari orqali turli ko‘rinishlarda namoyish qilinmoqda. Albatta, o‘zligini qadrlagan, o‘z millatiga daxldorligini his qilgan, milliy g‘urur va iftixorini yuqori tutgan har bir fuqaro bunday yo‘l tutishi tabiiy.

O‘zbek tili davlat tili sifatida ijtimoiy turmushimizning barcha sohalarida qonuniy ravishda qo‘llanmoqda, milliy ma’naviyatimizning betakror ko‘zgusi sifatida, xalqimizning borligi va birligi belgisi sifatida o‘rganilmoqda hamda o‘rgatilmoqda.

Tajribalardan ayonki, ko‘p til bilish – rivojlanishning ilg‘or qonuniyati, muvaffaqiyat garovidir. Ammo o‘z milliy tilni unutish, o‘zga tillar bilan chog‘ishtirish, qorishtirish evaziga emas! O‘zga tillarni o‘rganish orqali taraqqiyotga erishishni yoqlab chiqqan ma‘rifatparvar jadidlar ham bu borada ehtiyotkor va mas‘uliyatli bo‘lishgan.

Xususan, Abdulla Avloniy o‘z qayg‘usini “Milliy tilni yo‘qotmak millat ruhini yo‘qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun, kundan-kun unutmak va yo‘qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arab, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz... Zig‘ir yog‘i solub moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur”, - degan o‘tli fikrlarida ta‘sirchan oshkor qilgan[]. Bu fikrlar ayni kunda yana ham dolzarblashmoqda.

Milliy tilga e‘tibor va ehtirom millatsevarlik, vatanparvarlik, oliyjanoblikning yorqin ifodasi. Milliy til – milliy urf-odat, qadriyatlarni, milliy ma‘naviy meros-manbalarni bilish, o‘zlashtirish, yetkazib berish, targ‘ib etishda, o‘zlikni anglash, anglatishda birlamchi vosita. O‘z milliy tiliga muhabbati yo‘q, o‘zga tillarga ehtiromi yuksak insonni millat vakili, vatanparvar shaxs deb atash mumkinmi? Til millatga, jamiyatga, Vatanga daxldor oliy tushuncha. Shu boisdan bu borada ehtiyotkor bo‘lish, ajdodlardan meros buyuk ne‘mat ildiziga bolta urmaslik talab qilinadi.

Har bir insonning o‘z ona tiliga bo‘lgan mehr-muhabbati bo‘lakchadir, u kishining qalbida, yurak to‘ridadir. Shu boisdan ham har bir inson ona tilini qadrlamog‘i, uni sofligini saqlashga, rivojiga o‘z hissasini qo‘shmog‘i lozimdir. Shuni ham unutmasligimiz joizki, insonning ona tiliga bo‘lgan mehr- muhabbatini oshirishda, albatta, kitobxonlik madaniyatining ham o‘rni juda kattadir. Zotan, turli xildagi badiiy, publitsistik va ilmiy xarakterdagi asarlar mutolaasi jarayonida o‘quvchi ongida ona tiliga bo‘lgan, uning sehru jozibasiga, tarovatiga bo‘lgan mehri ham bosqichma-bosqich rivojlana boradi, o‘z ona tilida xatosiz yozish va gapirish ko‘nikmasi shakllanadi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish jarayoni ham osonlikcha ro‘y bergani yo‘q. XX asrning 80-yillarida boshlangan urinishlar natijasi o‘laroq, 1988- yilga kelib qator olimlarimiz tilimiz haq-huquqini tiklash yo‘lidagi dadil fikrlari bilan matbuotda chiqishlar qildilar. Nihoyat, 1989-yil 21-oktabrda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. 1995-yil 21-dekabrda qayta tahrir qilingan mazkur tarixiy qonun mazmun-mohiyati va ijtimoiy ahamiyati jihatidan dolzarbdir. Har bir fuqaroning davlat tili va u haqidagi muayyan bilimlarga ega bo‘lmog‘i ham foydadan xoli emasdir.

Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonun boshqa millat va elatlarining tillariga nisbatan ham hurmat va e‘tiborda bo‘lishga, bag‘rikenglik tamoyillariga da‘vat etadi: “O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi” (2-modda).

“O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta‘minlanadi…” (4-modda). Ya‘ni, ona tili boshqa til bo‘lgan, o‘zga tillarda so‘zlovchi odamlarga nisbatan muloqotni davlat tilida tashkil etish borasida taklif kiritish yoki bosim

o‘tkazish qonunan ta‘qiqlanadi[00]. Inson o‘z ona tiliga qanday munosabatda bo‘lsa, boshqa tillarga ham shunday munosabatda bo‘lishga chaqiradi.

Hozirgi globallashuv sharoitida adabiy til qo‘llanish doirasining kengayishi, til birliklarining badiiy, publitsistik matnlarda ijtimoiy xoslanish tamoyillarining chuqurlashuvi kabi masalalar haqida bakalavr talabalarga yetarli tushuncha berish, ularning turli funksional stillarga xos matnlarni ijtimoiy xoslanish nuqtai nazaridan mustaqil tahlil qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish, davlat tilining amaliy jihatdan talablarga mos tarzda qo‘llanilishi, ish yuritishda undan samarali foydalanish malakalarini takomillashtirishdan iboratdir.

Sharq mutafakkirlarining so‘zning ijtimoiy xoslanishi haqidagi qarashlari, adabiy tilning funksional stillari va ularni o‘rganish muammolari, tilning funksional stillarini tasniflashda ijtimoiy xoslanish tamoyillarining o‘rni, publitsistika va uning janrlari haqida, badiiy va publitsistik matnlarda so‘zning ijtimoiy xoslanishi hamda matnda so‘zning ijtimoiy xoslanishini aniqlash masalalari kabi mavzularni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida o‘zbek adabiy tilining qanchalik jozibali ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Navoiy adabiy tili, uning jonli so‘zlashuv tili va o‘zbek adabiy tiliga munosabati masalasi ancha murakkab bo‘lib, bu haqda olimlar tomonidan turlicha fikrlar bayon etilgan. Bu haqdagi dastlabki ma’lumotlar Boburning mashhur asari “Boburnoma”da keltirilgan. Bobur Andijon shahri aholisi va uning tili haqida ma’lumot berib, u Navoiyning asarlari tiliga juda yaqin ekanligini qayd qiladi: eli turkdur shahar va bozorisida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim Xirida nash’u namo topibtur, bu til biladur («Boburnoma» 60-b). Boburning bu fikri ma’lum tarixiy asosga ega. Chunki ikki madaniy markaz – sharqiy qarluq-chigil-uyg‘ur hamda g‘arbiy o‘g‘iz-qipchoq dialekt birliklari negizida shakllangan eski turkiy til asosida rivojlanib, XIII-XIY asrlarda to‘la tashkil topgan umumxalq o‘zbek adabiy tili juda katta hududda-Movarounnahr va Xurosonda keng qo‘llangan. Bu adabiy tilning lug‘at tarkibi, fonetik va morfologik qurilishi me’yorlari tarkib topan edi. Uning rivojlanishida, jonli so‘zlashuv tiliga yoqinlashuvida Navoiyga qadar yashab ijod etgan shoir-yozuvchilarning xizmati ham katta bo‘ldi. Mana shu adabiy til va uning ma’lum shevalarida so‘zlashgan xalq, turk-o‘zbek aholisi va XIY-XY asrlarda Farg‘ona vodiysida, Toshkent vohasi, Samarqand viloyati va hozirgi Afg‘onistonning shimoliy qismida yashaganlar. Demak, Navoiy asarlari ham xuddi mana shu tilda – turk-o‘zbek tilida yozilgan edi.

X.Vamberi, I.Berezin, I.Ilminskiy kabi kator sharqshunos olimlar Boburning bu fikrini quvvatlaydilar. Lekin I.Ilminskiy Navoiy adabiy tili Andijon aholisining tiliga yaqin bo‘lsa ham, aynan bir xil bo‘lgan emas, deb ta’kidlaydi. Chunki, xalq jonli tilida arab va fors-tojik tilga xos so‘zlar va iboralar Navoiy asarlarida bo‘lganidek ko‘p darajada bo‘lgan emas.

Darhaqiqat, yirik rus olimi R.Melioranskiy ta’kidlagandek, XIV-XV asrlarda Movarounnahrda, Xuroson va Xorazm vohasida iste’molda bo‘lgan o‘zbek adabiy tili o‘z tarkibi, til bilan mahalliy shevalarning o‘zaro munosabati jihatdan murakkab xususiyatga ega edi[]. Shu jihatdan Navoiyning adabiy tilini aniqlashda o‘sha davrda adabiy tilining fonetik tizimini, tovush tarkibini aniqlash, uni sheva xususiyatlari bilan qiyoslash muhim ahamiyatga egadir.

K. Yudaxin XIV-XIX asrlar o‘zbek adabiy tilining tovush tarkibini aniqlashda o‘ziga xos usulini qo‘llaydi. Lutfiy va Amiriy tuyuqlaridagi qofiyalarning bir xil talaffuz qilinishini ko‘rsatadi. Uning fikricha, Amiriyning bir tuyug‘ida qo‘llangan (o‘t- olov, o‘t- o‘simlik, o‘t-o‘tib ket) so‘zi qofiyaning talabiga ko‘ra o‘t tarzida bir xil aytiladi. Shuningdek, Lutfiyning bir tuyg‘uda qo‘llangan toshilin so‘zida ham (toshiddin – toshdan (kamin) tashqarisida va toshiddin – dindan tashqari) oxirgi bo‘g‘inida qisqa unli bir xil talaffuz qilinadi, ya’ni bu tuyuqlar singarmonizmga rioya qilib o‘qilsa, qofiya hosil qilinmaydi. K. Yudaxin XIV-XIX asrlar o‘zbek adabiy tilining tovush tarkibini aniqlashga o‘ziga xos usulini qo‘llaydi. Lutfiy va Amiriy tuyuqlaridagi qofiyalarning bir xil talaffuz qilinishini ko‘rsatadi. Uning fikricha, Amiriyning bir tuyug‘ida qo‘llangan.

Navoiy «Muhokamat-ul lug‘atayn» asarida unli tovushlarning turlicha talaffuz qilinishi haqida gapirib, “ yoyi ma’rif – yoyi majhul orqali yozilishi bir xil aytilishi har xil so‘zlardan bir

qanchasini keltiradi, ularga izoh beradi. Turkiy tilda bu harflarning har biri uch-to‘rttadan muqobilga ega ekanligini ko‘rsatadi “... turki domdur, yana turni andin dakikdokdurki, uyning turidur va turki barchadin arikdur”. Ko‘rinadiki, Navoiy tovushlarning qattiq yumshoqligiga e’tibor bergan, qattiq va yumshoq u, u (o) o, u (u), shuni ngdek e, i tovushlarini bir-biridan farqlay olgan. Yuqoridagi so‘zlar va tovushlarning xususiyatini aniqlashda Navoiy o‘zi uchun tayanch til negizi bo‘lib xizmat qilgan o‘zbek adabiy tiliga asoslanadi.

Shuningdek, -dagi (dagi-tag‘in, yana va dagi ma’nosida), nari, nariroq va o‘z ma’nolarida so‘zlarning so‘z o‘yini lyxom san’atida qo‘llanishi va aytilishi ham ochiq o unlisi xali alohida fonema darajasida ko‘tarilmaganligini ko‘rsatadi. Shuni ng uchun a fonemasining varianti, bir ko‘rinishi deb qarash maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

XIV-XV asrlar o‘zbek adabiy tilida, Alisher Navoiyda ham unlilar ohangdoshligining qattiq yumshoqlik va lab ohangdoshligi hodisasi saqlanganligini ko‘rish mumkin: barduk (borduk) – kelduk (kelduk) yoga (uyga)-kezga (kuzga) tilim-kozum (ko‘zum) baim (borip)- korup (ko‘rup) kabi. Shu bilan birga singarmonizm hodisasinig ba’zi hollarda buzila boshlaganligi ham ko‘zga tashlanadi. Odamlig‘-odamlig‘ kabi. Navoiy tili uchun xos undoshlarning qo‘llanishida mustaqil lab-tish tovushi f ajralib turadi. Bu undosh aslida turkiy tillar jumlasidan, o‘zbek tili uchun xos tovush emas. U o‘zbek tiliga fors-tojik tili orqali arab tilidan kirib kelgan. Navoiy asarlarida f fonemasining qo‘llanashi, uning p tovushiga o‘tmasligi va p tovushi f undoshining kelishi kabilar o‘zbek tilining Samarqand-Buxoro tipidagi shevalarga yaqinlashib kelishini ko‘rsatadi: tuproq (tufroq, yaproq) yafroq).

Dedi: el ganju kuy ishkin nixoni?
Dedi: tufroqqa berman kimeni.
Zaif tanda g‘amingdin yuz eski bulg‘on dog‘,
Har eski dog‘ bu shox uzra bir kuyuk yafroq.

Demak, Alisher Navoiy turkiy tilning fasohati va lug‘aviy boyligini dalillar bilan isbotlash vositasida turkiy tildagi adabiyot-she’riyatning yanada ravnaq topishi lozimligini ham nazarda tutgan.

A.Navoiy o‘zbek tilining boy sinonimlaridan o‘z asarlarida ustalik bilan foydalangan. O‘zbek tilida turli ma‘no nozikliklarini ifodalovchi sinonimik fe‘llardan 100 tasini “Muhokamatul lug‘atayn”da ham eslatib o‘tadi: “Bu 100 lafzdurki, g‘arib maqosid tayin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlar”. A.Navoiy o‘zi keltirgan 100 fe‘lning har biri o‘zbek tilida o‘z sinonimlariga ega ekanligini ta‘kidlaydi. Masalan, biror bir suyuqlikni ichish harakatini ko‘rsatuvchi ichmoq fe‘li bor. Navoiy bu fe‘lning sipqarmoq, tomshimoq kabi sinonimlardan ham foydalangan:

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o‘zimdin boray,
Shart bukim, har necha tutsang labo-lab sipqaray.
Soqiy, chu ichib, menga tutar qush,
Tomshiy-tomshiy oni qilay no‘sh.

Navoiy yuqoridagi misollarni keltirar ekan, ulardagi sinonimlarning poetik ustunligini, stilistik bo‘yoqdorligini va poeziyadagi rolini ko‘rsatadi. Bu bilan tildagi sinonimlarning rolini yaxshi tushunib yetganligini namoyish etadi.

Navoiy leksik me’yorlarni belgilashda hayotning turli sohalariga tegishli bir qancha turkiy so‘zlarni o‘z asarlariga singdirdi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Oziq-ovqat nomlari: qaymoq, qatlama, bulamo‘q, qurut, ulaba, mantu, quymoq, o‘rkamach, qo‘mo‘z, suzma, boza, tatmach, umach, qumaq kabi.
2. Chorvachilikka oid so‘zlar: tubuchaq, arg‘umaq, yaqa, yabu, taju; tay, g‘unan, dunan, tulan, cho‘rg‘a, lang‘a, jabildir, xana, toqum, chilvir kabi.
3. Kiyim-bosh nomlari: dastar, qalpaq, navro‘zi, to‘ppo‘, sho‘rdaq, jalak, dakla, qur, terlik kabi.
4. Ov hayvonlari nomlari: kiyik, to‘ng‘uz, xuna, qo‘lpaqcho‘, suyqun, bug‘u, maral, oxu, gavazi, xuk, guraz kabilar.

Navoiy faqat leksik me’yorlarnigina emas, balki grammatik me’yorlarni belgilashda ham samarali ish qildi. U o‘z asarlari grammatik shakllarining ixchamligiga va so‘z yasash texnikasiga mas’uliyat bilan qaradi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida o‘zbek tilining leksik boyliklaridan, sinonimlari va omonimlaridan, xalq maqollari va matallaridan, frazeologik, idiomatik birikmalaridan, jumla tuzilishidan keng foydalangan. Natijada, leksik va grammatik me’yorlarni ma’lum qolipga, tartibga solishga intilgan.

Tildagi o‘zgarishlar birdaniga bir-ikki yil orasida emas, balki asta- sekinlik bilan uzoq davr davomida sodir bo‘ladi. Dastlab onda-sonda uchraydigan hodisalar, fonetik variantlar, yonma-yon qo‘llanishlar asta-sekin qonuniyatlarga aylanadi. Shuning uchun har bir davrdagi til shu tilda so‘zlovchilar uchun o‘zgarmaydi, barqaror tuyuladi. Vaholanki, tilda taraqqiyot va o‘zgarishlar hech qachon to‘xtamaydi.. Har bir taraqqiyot davri uchun xos bo‘lgan fonetik sistemani tiklash, tasvirlash kabi masalalar ham o‘zbek tili tarixiy fonetikasida o‘rganiladi.

O‘zbek tilining turli taraqqiyot davrlarida yaratilgan yozma yodgorliklar, ilmiy va badiiy asarlar tarixiy fonetik tadqiqot uchun eng asosiy manba vazifasini o‘taydi, chunki yaratilgan yodgorlikda davr tili o‘z aksini topgan.

Yozma yodgorliklardan tashqari, o‘zbek tili tarixiy fonetikasini o‘rganish uchun hozirgi o‘zbek shevalari, o‘zbek tiliga qarindosh bo‘lgan boshqa turkiy tillar, ayniqsa, qo‘shni uyg’ur, qozoq, qoraqalpoq, turkman tillarining hodisalari ham katta ahamiyatga ega. O‘zbek tili fonetik sistemasidan kelib chiqib ketgan qator hodisalar – (old va orqa qator unlilarning fonologik farqi, cho‘ziq va qisqa unlilar, uyg’unlik-(singarmonizm) hodisasi, tovush almashinuvlari-o‘zbek shevalarida hamda boshqa turkiy tillarda saqlangan. Yozma yodgorliklar ma’lumotlari buni ma’lum darajada tasdiqlasa, bunday qonuniyatlar o‘zbek tili tarixiga ham xosligiga shubha yo‘q.O‘zbek tili tarixiy fonetikasi va grammatikasini bilish ona tili va adabiyoti mutaxassislari uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. O‘rta maktabda o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida o‘zbek tili tarixiy fonetikasi va grammatikasini bilish zarur.

Bizningcha, o‘zbek tilini o‘qitishda fonetika va uning grammatikasi muhim ahamiyatga ega, negaki, nutq tovushlari, tovushlarning hosil bo‘lishini to‘g`ri egallagan har bir o‘quvchi tovushlarning talaffuzini yaxshi anglaydi.

Fonetika (grekcha pohne - tovush) nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi, talaffuzi, imlosi, tasnifi, harf va yozuvning o‘zaro munosabati, bo‘g‘in va bo‘g‘in ko‘chirish, so‘z urg‘usi xususiyatlari kabi hodisalar haqidagi fan. Unda nutq tovushlari – so‘zlarning, qo‘shimchalarning eng kichik bo‘lagi va talaffuzi o‘rganiladi.

Aynan umumta’lim maktab ona tili darsliklarida fonetika bo‘yicha o‘rganish boshlang`ich va beshinchi sinfdan boshlanadi. Bunda berilgan so‘zlardagi tovushlar talaffuzi qiyoslanadi, unli va undoshlarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Tovushlar talaffuzida ishtirok etadigan nutq a’zolari belgilanadi. Berilgan so‘zlarga tovushdosh (tosh, tish, tush, to‘sh kabi), shakldosh (tosh – suvda erimaydigan qattiq tog‘ jismi, ot; sakkiz chaqirimga teng masofa, ot; bir toshdan ortiq yo‘l bosdi kabi), fe’l – toshmoq, qirg‘oqdan chiqib ketmoq; zid ma’noli (toshbag‘ir – ko‘ngilchan, ko‘ngli bo‘sh) so‘zlar topib, ma’nolarini izohlashi ko‘rsatib o‘tilgan.

Yuqoridagidek topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar til materiallarini kuzatadilar, so‘zlarni qiyoslaydilar, o‘xshash va farqli tomonlarini sharhlaydilar. Mazkur jarayon o‘quvchi so‘z boyligini oshirishga, imlo savodxonligining shakllanishiga, so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatadi.

Bizningcha, o‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi fanini o‘qitishda mashqlar tahlili va matnlarning tartibiga ahamiyat berilsa, talabalar so‘z, so‘z birikma va gaplarning ifodalanish tartibini yaxshi o‘zlashtira oladi.

Gap tilning eng yuqori pog‘onasini tashkil etuvchi birlik hisoblanadi, shu sababli, gapni matnning qurilish materiali tarzida talqin etish, matnni shakllantiruvchi asosiy til birligi deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Nemis tilshunosi M.Pfyutse aytganidek, har bir matn biror maqsad ifodasi uchun o‘zaro munosabatga kirishayotgan fraza (gap)larning mazmuniga ko‘ra birikishidan hosil bo‘ladi. Ammo gap matnning qurilish materiali singari talqin etilganda mustaqil

so‘z va so‘z birikmasining matn tarzida maxsus qo‘llanishi e’tibordan chetda qoladi. Shunisi aniqki, yakka, alohida olingan gap bog‘lanishli nutq materiali sifatida matn tarkibida so‘z va so‘z birikmalarining o‘zaro munosabati asosida aniqlashadi. Olimning yuqorida keltirilgan mulohazalarida ham asosiy e’tibor masalaning aynan shu tomoniga qaratilgani ma’lum bo‘ladi.

Fransuz tilshunos R.Bart matn tushunchasini quyidagicha izohlaydi: “Ichki bog‘lanishdan iborat bo‘lgan, muloqot maqsadida mazmunan o‘zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasini, bo‘lagini matn deb atash maqsadga muvofiq”.

Tilshunos A.Boguslavskiy ham matnni bir necha gapdan tashkil topgan nutqiy material sifatida tasvirlaydi. Olim asosiy e’tiborni muallif nima haqda gapirayotgani va uning mazmuniga emas, balki “o‘zaro birikib kelgan bir necha gaplardan iborat”ekanligi va matn qanday komponentlardan tarkib topganligini aniqlashga e’tibor qaratadi [30].

“O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik talqini”da M.Hakimov matn va uning birliklari o‘rtasidagi mazmuniy munosabatni ifodalovchi bog‘lovchilar ekanligi hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalariga aniqlik kiritgan. Ushbu ilmiy matnda muallifning munosabati bildirilgan bo‘lib, uning turlari, o‘zbekcha ilmiy matnlarning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari keng tahlil qilib yoritilgan. O‘zbek tilida berilgan ilmiy uslub matn kategoriyasi aspektida o‘rganilgan va gumanitar fanlarga tegishli bo‘lgan ilmiy matn namunalari faktik material sifatida xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақидаги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” ги ПҚ -4479-сонҚарори.

2. O‘zbek tili (darslik) S.Shermuhamedova. –Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2023. -200 b. (Adabiyot TDIU ARMda bosma va elektron shaklda mavjud)

2. O‘zbek tilini o`rganamiz (darslik). M.Muxitdinova Toshkent. TDIU. 2022-y. 250 b. (Adabiyot TDIU ARMda bosma va elektron shaklda mavjud)

3. O‘zbek tili (elektron darslik) N.Husanov, N.Dilmurodova, R.Xo‘jaqulova 2022.244 b. (Adabiyot TDIU ARMda bosma va elektron shaklda mavjud)

AKT SOHASIDA FIZIKA FANIDAN AMALIYOT MASHG‘ULOTLARIGA «FSMU TEXNOLOGIYA» SINI TADBIQ ETISH

Haydarov Kamoliddin Baratovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
k.khaydarov@tsue.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189642

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “FSMU texnologiyasi” ni fizikadan amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llashning ahamiyati va imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. FSMU (Faoliyatga asoslangan o‘qitish) texnologiyasi orqali o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy tajribalar bilan mustahkamlash, ularni jamoaviy faoliyatga jalb qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish maqsad qilinadi. Amaliy mashg‘ulotlarda tajribaviy va laboratoriya ishlari, shuningdek, refleksiya jarayonlari orqali o‘quvchilarning fizik qonuniyatlarini chuqurroq tushunishi va bilimlarni mustahkamlashi ta’kidlanadi. Maqola, shuningdek, o‘qituvchilar uchun*

samarali metodologiyalar va baholash kriteriyalarini taklif etadi. Natijada, FSMU texnologiyasi yordamida o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularga amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatishga erishish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so`zlar: *FSMU texnologiyasi; Amaliy mashg‘ulotlar; Faoliyatga asoslangan o‘qitish; Fizika ta'limi.*

Tabiatning fundamental qonunlarini ilmiy asosda tushuntirish, o‘quvchilarning ilmiy dunyo qarashi va falsafiy mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish, texnikada va turmushda foydalanilayotgan uskina va vositalarning ishlash printsipini tushuntiruvchi fizik jarayonlar haqida tasavvurlarni shakllantirish fizika o‘qitishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Hozirgi kunda respublikamizda barcha oliy o‘quv yurtlarida pedagogik texnologiyaga asoslangan darslar tashkil etish va o‘tkazish zamon talabidir. F-fikringizni bayon eting, S-fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating, M-ko‘rsatgan sababingizga misol keltiring, U-fikringizni umumlashtiring (FSMU) texnologiyasini munozarali masalalarni xal etishda, baxs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv rejasi asosida biron bir bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan bir qatorda talabalarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini taxlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baxolashga hamda talabalarni baxslashish madaniyatiga o‘rgatadi. Shu maqsadda ishlab chiqilgan texnologiyalarga asoslangan amaliyot mashg‘ulotlari juda ham talabalarga zarur bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirishga va dars sifatini oshirishga qo‘yilgan maqsad va natijalarga erisha olishga imkon tug‘diradi.

AKT sohasida fizika fanidan amaliyot mashg‘ulotlariga «FSMU texnologiya» (Fizika, Statistik, Matematik, Uslublar) ni tadbiq etish, o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda yordam beradi. Bu texnologiyani tadbiq etishning bir necha yo‘nalishlarini ko‘rib chiqaylik:

1. Interaktiv o‘qitish: Talabalar uchun interaktiv simulyatsiyalar va amaliy mashg‘ulotlari tashkil etish. Masalan, fizik qonunlarni simulyatsiya qilish orqali tushuntirish.
2. Onlayn resurslar: O‘quv materiallarini onlayn platformalarda taqdim etish, masalan, video darslar, interaktiv testlar va muhokamalar.
3. Ma’lumot tahlili: O‘quvchilarga statistik ma’lumotlar bilan ishlash va ularni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bu, masalan, tajribalar natijalarini tahlil qilishda yordam beradi.
4. Jamoaviy loyihalar: Talabalar o‘rtasida jamoaviy ishlarni tashkil etish, bu orqali ularning hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.
5. O‘z-o‘zini baholash: Talabalar o‘z bilimlarini baholash uchun onlayn testlar va kvizlar o‘tkazish.
6. Real hayot misollari: Fizikaning amaliyotdagi qo‘llanilishi, masalan, muhandislik, ekologiya va texnologiyalar bilan bog‘liq misollar keltirish.

Bu usullar yordamida o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va ularga fizikani yanada qiziqarliroq o‘rganish imkonini yaratish mumkin.

Bu maqolada asossan pedagogik texnologiya, texnologik jarayon, texnologik xarita, va h.k. atamalarning tushunchalari berilib ketilgan bo‘lib, ularning har biriga dars jarayonida ishlatilish holatlari ham keltirib o‘tilgan.

Bo‘lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olish katta ahamiyatga egadir, chunki u har bir mavzu, har bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi, shuningdek juda ko‘p metodlarni bilishi kerak bo‘ladi.

Akt sohasida fizika fanidan amaliyot mashg‘ulotlariga «FSMU texnologiya» sini tadbiq etish mavzusi, asosan, **fizika** fanining amaliyotlarda qo‘llanilishi va **FSMU texnologiyalari**

(Fizika, Suv, Mexanika, Umumiy texnologiyalar) asosida yangi metodikalarni joriy etish bilan bog‘liq. Bu mavzu bo‘yicha ba’zi kamyob va qiziqarli ma’lumotlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1. FSMU texnologiyalari va ularning amaliyotga ta’siri

- **FSMU texnologiyasi** – bu zamonaviy texnologiyalarni birlashtirgan va ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqishda fizika, mexanika, suv, va umumiy texnologiyalarni birlashtiradigan yondashuvdir. Bu texnologiya, asosan, texnik va ilmiy muammolarni hal qilishda ko‘p sohalar bo‘yicha o‘zgarishlar yaratadi.
- **Fizika** amaliyotlariga integratsiya qilish uchun FSMU texnologiyasi asosida fizika fanining amaliy va nazariy qismlari birlashtiriladi. Bu o‘z ichiga o‘quvchilarga moslashtirilgan yangi yondashuvlar, dasturlar, model va simulyatsiyalarni kiritadi.

2. Fizika fanidan amaliy mashg‘ulotlarda FSMU texnologiyalaridan foydalanish

- **Laboratoriya ishlarini optimallashtirish**: FSMU texnologiyasi yordamida fizika fanining laboratoriya mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, virtual va interaktiv simulyatsiyalar orqali talabalarga kuchli amaliy ko‘nikmalar beriladi. Bunda, o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladi, balki ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- **Modellashtirish va simulyatsiya**: FSMU texnologiyasi yordamida talabalarga o‘zgaruvchan fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish va simulyatsiya qilish imkoniyati yaratilib, ilmiy tajribalar va eksperimentlar natijalari haqida aniq va to‘g‘ri tushuncha hosil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

3. FSMU texnologiyalarining o‘quvchilarga ta’siri

- **Interaktiv o‘qitish metodlari**: Bu texnologiya yordamida o‘quvchilar ilmiy ko‘nikmalarni faol ravishda rivojlantirishga yordam beradigan interaktiv o‘qitish metodlarini qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Talabalar o‘quv mashg‘ulotlari davomida turli simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalardan foydalanishlari mumkin.
- **O‘quvchilarning tajriba va ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish**: FSMU texnologiyalari yordamida fizika faniga bo‘lgan qiziqishni oshirish mumkin. O‘quvchilar, texnologiyalar yordamida amaliy tajribalar va eksperimentlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shug‘ullanishlari, shu bilan birga, ilmiy izlanishlar olib borishlari mumkin.

4. FSMU texnologiyasining tizimli integratsiyasi

- FSMU texnologiyasi fizika fanidan o‘quv dasturlarini yanada integratsiyalashgan va innovatsion formatda ishlab chiqishga yordam beradi. Bu texnologiyalar ko‘pincha maxsus qurilmalar va apparatlar yordamida amaliy mashg‘ulotlar davomida qo‘llaniladi.
- O‘quvchilar bilimni nafaqat kitoblardan, balki o‘quv dasturlari, interaktiv modellash va tajriba orqali oladi. Bunda ular ilmiy metodlarni, eksperimentlarni va turli xildagi texnikaviy usullarni o‘rganadilar.

5. FSMU texnologiyalarining fizika fanining tashkiliy va pedagogik asoslari

- **Pedagogik yondashuvlar**: FSMU texnologiyalari pedagogik metodlarni ham yangilashni talab qiladi. Misol uchun, talabalar o‘qish jarayonida ilmiy eksperimentlarni yaratish, turli simulyatsiyalarni ishlatish orqali yangi ilmiy natijalarga erishishlari mumkin.
- **Amaliyotdagi qiyinchiliklar**: Biroq, FSMU texnologiyalarini joriy etishdan oldin o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar uchun maxsus treninglar, mashg‘ulotlar o‘tkazish zarurati mavjud. Bu texnologiyalarni to‘liq va samarali joriy etish uchun muayyan o‘quvchilarni o‘zlashtirishga tayyorlash zarur.

6. FSMU texnologiyalarining kelajakdagi rivojlanishi

- **Yangi texnologiyalarni qo‘llash**: Bu texnologiyalarni kengaytirish uchun ilmiy izlanishlar va yangi texnologiyalarni o‘rgatish dasturlari ishlab chiqilishi kutilmoqda. Avvalo, yangi sensorlar, yengil simulyatsiyalar va avtomatik ilmiy tadqiqotlar uchun interfeyslarni ishlab chiqish zarur.

- **Kelinga texnologiyalarning amaliyotga kirib borishi**: FSMU texnologiyalarining amaliyotga kirishishi bo‘yicha pilot loyihalar va tajriba ishlanmalari tashkil etiladi. Bu orqali barcha sohalarda innovatsion yondashuvlar muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Umuman olganda, FSMU texnologiyalarining fizika faniga integratsiyasi o‘quvchilarga yangi bilimlarni olishda ko‘proq imkoniyatlar yaratadi. Bu texnologiyalar ilmiy ishlanmalar va o‘quv jarayonlarini yanada samarali va modernizatsiya qilingan shaklda amalga oshirish imkonini beradi.

Texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jarayoni yaxlit xolda aks etgan bo‘lishi, hamda aniq kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak.

Quyida biz fizika fanidan «Elektrmagnetizm» bo‘limi bo‘yicha o‘tkaziladigan darsning oldindan loyixalashtirilgan texnologik xaritasini misol tariqasida ko‘rsatamiz.

Mavzu:	Elektromagnitizm
Maqsad, vazifalar	Talabalarga magnit maydonning mohiyati, ahamiyati va asoslarini tushuntirish. Mavzuga oid tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.
O‘quv jarayonining mazmuni	Magnit maydonini, toklarni o‘zaro ta’sirini, magnit maydon induktsiyasini sirkulyatsiyasini sabablarini ko‘rsatish. Bio-Savar-Laplas qonunini ta’rifini, formulasini ko‘rsatish va misollar keltirish.
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Metod: Og‘zaki bayon qilish, suxbat munozara. «Skarabey» texnologiyasi. Forma: Amaliy mashg‘ulot, kichik guruhlardan va jamoada ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar: matnlar, blankalar. Usul:Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida. Nazorat: Og‘zaki nazorat, savol javoblar, kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish. Baholash: Rag‘batlantirish: 5 balli sistema asosida.
Kutiladigan natijalar	O‘qituvchi: Mazmuni qisqa vaqt ichida barcha talabalar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishadi. Talabalar faolligini oshiradi. Talabalarda darsga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Bir vaqtning o‘zida ko‘pchilik talabalarni baholaydi. O‘z oldiga quygan maqsadlariga erishadi: Talaba: «Elektromagnitizm» bo‘limi bo‘yicha egallagan bilimlarni masala yechishga qo‘llashni, yakka va guruh bo‘lib ishlashni, nutqini rivojlantirib, eslab qolish qobiliyati kuchaytiradi va o‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganadi.
Kelgusi rejalar (taxlil, o‘zgarishlar)	O‘qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va darsga tadbiq etish, takomillashtirish. O‘z ustida ishlash. Mavzuni xayotiy voqealar bilan bog‘lash. Pedagogik mahoratni oshirish: Talaba: Matn bilan mustaqil ishlashni o‘rganish. O‘z fikrini ravon bayon qila olish. Shu mavzu asosida qo‘shimcha material topish va uni o‘rganish. O‘z fikri va guruh fikrini tahlilqilib bir yechimga kelish malakasini hosil qilish.

-Har bir talabaga FSMU texnologiyasining 4 bosqichli yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi. F-fikringizni bayon etish: S-fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating: M-ko‘rsatgan sababingizni isbotlab, misol (dalil) keltiring, U-fikringizni umumlashtiring.

1-Variant

(F)-Magnit maydon induktsiyasining ta’riflab bering.

(S)- Magnit maydon ta’sirini sababini ko‘rsating.

(M)- Magnit maydon ta’sirini misollar keltiring.

(U)- Magnit maydon induktsiyasini formulasini yozing va xalqaro birliklar sistemasida o‘lchov birligini keltirib chiqaring.

2-Variant

(F)-Toklarning o‘zora ta’sirida vositachi nima?

(S)-Toklarning o‘zaro ta’sirini sababini ko‘rsating.

(M)-Toklarning o‘zaro ta’sirini misollar keltiring.

(U)- Toklarning o‘zaro ta’sir formulasini ko‘rsating.

3-Variant

(F)-Bio-Savar-Laplas qonunini ta’riflab bering.

(S)- Bio-Savar-Laplas qonunida V-yo‘nalishini sababini ko‘rsating.

(M)- Bio-Savar-Laplas qonunini qo‘llanishga misollar keltiring.

(U)- Bio-Savar-Laplas qonunini formulasini yozing va xalqaro birliklar sistemasida o‘lchov birligini keltirib chiqaring

«FSMU texnologiya»sini AKT sohasida fizika faniga tadbiq etishda yanada ilg‘or yondashuvlarni ko‘rib chiqamiz:

- **Kengaytirilgan haqiqat (AR):** Talabalar uchun AR texnologiyalaridan foydalanib, fizikaviy tajribalarni jonlantirish. Masalan, tajribalar paytida o‘quvchilar o‘z smartfonlari yoki planshetlarida 3D model va simulyatsiyalarni ko‘rishlari mumkin.
- **Ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish:** Fizika fanida tajribalar o‘tkazish jarayonida real vaqt rejimida ma’lumot to‘plash va tahlil qilish uchun IoT (Internet of Things) qurilmalaridan foydalanish. Bu talabalar uchun tajribalarni yanada interaktiv va amaliy qiladi.
- **Mashina o‘rganish (ML):** Fizikaviy tajribalar natijalarini tahlil qilishda mashina o‘rganish algoritmlaridan foydalanish. Bu talabalar uchun ma’lumotlar tahlilini va fizik qonunlarning amaliyotdagi qo‘llanilishini o‘rganishda yordam beradi.
- **Virtual Haqiqat (VR):** Fizika fanida tajribalarni virtual muhitda o‘tkazish imkonini beruvchi VR texnologiyalaridan foydalanish. Bu talabalar uchun xavfsiz va qiziqarli tajribalar o‘tkazish imkonini yaratadi.
- **Ochiq ma’lumotlar va crowdsourcing:** Talabalarni global miqyosda fizik tadqiqotlarga jalb qilish uchun ochiq ma’lumotlar bazalari va crowdsourcing platformalaridan foydalanish. Bu ularga haqiqiy ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish imkoniyatini beradi.
- **Geyming yondashuvlari:** Fizikani o‘rganishda gamifikatsiya elementlarini qo‘shish, masalan, turli darajalardagi fizik masalalarni yechish orqali ball to‘plash va mukofotlar olish. Bu talabalar motivatsiyasini oshiradi.

Qadimgi ilmiy fikrlar va yondashuvlar orqali **FSMU texnologiyalari**ning ilmiy asoslarini va amaliyotdagi foydalanish usullarini qadimiy misollar bilan ko‘rib chiqish mumkin.

❖ Fizika va matematikani integratsiya qilish: qadimgi falsafiy yondashuvlar

Qadimgi Yunonistonning matematik va fizika fanlariga bo‘lgan qarashlari, zamonaviy **FSMU texnologiyalarining** shakllanishida asos bo‘lib xizmat qilgan. **Fizika**, **suv** (gidrodinamika), **mexanika**, va **umumiy texnologiyalar**ni birlashtirishda qadimgi falsafalar va ilmiy yondashuvlar ta’sir ko‘rsatgan. Bu yondashuvlarni analiz qilish orqali, FSMU texnologiyalarining tarixiy ildizlarini ko‘rish mumkin.

1. Pifagor (M.A. 570–495) va matematik modellashtirish

Pifagor va uning izdoshlari, tabiatdagi harakatlarni **sonlar va geometrik shakllar** bilan izohlashgan. Bu qarash, hozirgi zamon **FSMU texnologiyalariga** o‘xshash tarzda, tabiiy

hodisalarni matematik modellashtirish va fizik jarayonlarni simulyatsiya qilishning dastlabki formalaridan biridir. Pifagor tomonidan qo‘llanilgan **matematik modellar**, bugungi kunda **FSMU texnologiyalarining** ilmiy metodologiyasiga o‘xshaydi, chunki ular turli fizika jarayonlarini o‘rganish va tushunish uchun matematik va texnik usullarni birlashtirgan.

2. Aristotel (M.A. 384–322) va tabiatni kuzatish

Aristotel tabiatni tushunishda va fizik hodisalarni izohlashda, zamonaviy **FSMU texnologiyalarining eksperimentlar** va **observatsiya** asosida o‘rganishga intilgan. Aristotelning **“Fizika”** asarida u **tabiatning oddiy qonunlarini** va ular qanday ishlashini tushuntirib, biror fizika hodisasini tushunish uchun eksperimentlar o‘tkazish zarurligini ta’kidlagan. Bu, hozirgi zamon pedagogikasida, **amaliyot mashg‘ulotlari**ni o‘tkazishda qo‘llanadigan **interaktiv va amaliy metodologiyalarga** o‘xshaydi. Bu yondashuv **FSMU texnologiyalari** orqali ko‘plab laboratoriya ishlarini va tajribalarni amalga oshirishda yordam beradi.

❖ **Fizika va mexanikaning integratsiyasi: qadimgi texnologiyalar**

Fizika va mexanika sohalarining qadimgi o‘rganilishi ham **FSMU texnologiyalariga** o‘xshash tarzda yangi texnologik inshootlar va usullarni yaratishga yordam berdi.

1 Arximed (M.A. 287–212) va mexanikasining tushunchalari

Arximedning **gidrostatik prinsip** va **levorotatsion kuchlar**ga oid kashfiyotlari bugungi kunda ham **FSMU texnologiyalarida** keng qo‘llaniladi. Arximed, tabiiy jarayonlarni tushunishda matematik modellar va eksperimentlar yordamida **tezlik va kuchlarni** o‘rganishning muhimligini ko‘rsatgan. Masalan, uning **“Arximed prinsipi”** — “bir jism suyuqlikda cho‘kib borayotganda unga ko‘tarilish kuchi ta’sir qiladi” — fizika fanining asosiy tushunchalaridan biridir. Bu prinsipning o‘zi, **FSMU texnologiyalarida** amaliyot mashg‘ulotlarida **gidrodinamika**ni o‘rganishda foydalaniladi.

2 Evklid (M.A. 300–275) va geometrik modellashtirish

Evklidning geometriya prinsiplaridan foydalanish, **FSMU texnologiyalarida** tabiiy hodisalarni matematik modellashtirishning asosiy yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, Evklidning **to‘g‘ri chiziq, nuqta, va tekislik haqidagi tushunchalari**, bugungi kunda fizika amaliyotlari va simulyatsiyalarni yaratishda asosiy rol o‘ynaydi. Geometriya va fizikani integratsiyalash, **FSMU texnologiyalarining** eksperimentlar va amaliy mashg‘ulotlardagi samaradorligini oshiradi.

❖ **Suv va texnologiyalar: qadimgi ilmiy izlanishlar**

Suvning fizikasi, ya’ni gidrodinamika va gidrostatika, qadimgi ilmiy izlanishlarda katta o‘rin tutgan. Misol uchun, qadimgi **Misr** va **Yunoniston**da suyuqliklarning harakati va fizik qonunlari o‘rganilgan. Arximedning “S**uvdagi jismning ko‘tarilish kuchi”** haqidagi kashfiyoti, **FSMU texnologiyalarida** bugungi kunda gidrodinamikaning asosiy yondashuvlaridan biri hisoblanadi.

1. Gidrostatika va gidrodinamik usullar

Qadimgi zamonlarda ham, suyuqliklarning fizikaviy xususiyatlarini tushunish uchun muayyan **texnologik usullar** qo‘llanilgan. Arximed, shu bilan birga, **suyuqliklarda harakatlanishning** fizik qonunlarini o‘rganib, koinotda harakatlanayotgan jismlarning qanday kuchlarga duch kelishini aniqlagan. Bugungi kunda, **FSMU texnologiyalarida** suyuqliklar va harakatlanuvchi jismning muvozanati va kinetik energiyasini tushunish uchun bu qadimgi bilimlar asosida matematik modellar ishlab chiqiladi.

❖ **Texnologik ilm-fan: kosmologiya va astrofizikaga ta’siri**

Qadimgi **kosmologiya** va **astrofizika**ga oid ilmiy izlanishlar ham, **FSMU texnologiyalarining** kelajakdagi rivojlanishiga zamin yaratgan. Misol uchun, **Ptolemey** va **Aristarchus** o‘zlarining **geotsentrik** va **heliotsentrik** tizimlar haqidagi qarashlari orqali koinotning tabiiy qonuniyatlarini o‘rganishga harakat qilishgan. Bu qadimgi ilmiy qarashlar, bugungi zamon **FSMU texnologiyalarining** amaliy mashg‘ulotlarida koinot, energiya va harakat qonuniyatlarini tushunish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa:

Yuqorida zikr etilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, raqamlashtirish jamiyat va davlat rivojlanishining bir bo‘lagiga aylandi. Yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va darsga tadbiq etish, takomillashtirish. Xususan, Elektromagnitizm bo‘limi bo‘yicha egallagan bilimlarni masala yechishga qo‘llashni, yakka va guruh bo‘lib ishlashni, nutqini rivojlantirib, eslab qolish qobiliyati kuchaytiradi va o‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganadi. Har bir talabaga FSMU texnologiyasining 4 bosqichli yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi. F-fikringizni bayon etish: S-fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating: M-ko‘rsatgan sababingizni isbotlab, misol (dalil) keltiring, U-fikringizni umumlashtiring.

Muxtasar aytganda, Mazmuni qisqa vaqt ichida barcha talabalar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishadi. Talabalar faolligini oshiradi. Talabalarda darsga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Bir vaqtning o‘zida ko‘pchilik talabalarni baholaydi. O‘z oldiga quygan maqsadlariga erishadi.

Qadimgi ilmiy izlanishlar va falsafiy qarashlar, hozirgi **FSMU texnologiyalarining** dastlabki asoslarini tashkil etadi. Ular matematik modellashtirish, fizika va mexanikani integratsiyalash, va tabiiy hodisalarni o‘rganishda qo‘llanilgan usullar orqali bugungi zamon **amaliyot mashg‘ulotlarida** foydalaniladigan yondashuvlar va metodlarni shakllantirishga yordam bergan. Bu qadimgi texnologiyalar va ilmiy yondashuvlarni o‘rganish, **FSMU texnologiyalarining** samaradorligini oshirishga va zamonaviy fizik amaliyotlarni yanada rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va veb saytlar:

1. Q.P.Abduraxmanov, V.S.Xamidov, N.A.Axmedova, FIZIKA. Darslik.Toshkent.2018 y.

2. Q.P.Abduraxmanov, A.V.Umarov, V.S.Xamidov, O.O.Ochilova “Fizika masalalar to‘plami” Toshkent-2020

3. Khan Academy — fizika va boshqa fanlar uchun bepul resurslar.

4. https://phet.colorado.edu/

AXBOROT TIZIMLARI VA TEXNOLOGIYALARI YO‘NALISHIDA TEKISLIKDA BURCHAK OSTIDA OTILGAN JISM HARAKATINI MODELLASHTIRISH

Haydarov Kamoliddin Baratovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
k.khaydarov@tsue.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189650

Kunuzoqov Hayotjon Shodiboy o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi
1-bosqich talabasi
hayotjonline@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189650

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda tekislikda burchak ostida otilgan jismning harakatini modellashtirish masalasi o‘rganiladi. Jismning harakati kinematika va dinamikasi asosida tahlil qilinadi. Modelda jismning boshlang‘ich tezligi, burchak, yer tortish kuchi va havodagi qarshilik kabi omillar hisobga olinadi. Matematik modellashtirish usullari yordamida jismning yo‘nalishi, maksimal balandligi va masofasi aniqlanadi. Ushbu ish natijalari fizika va muhandislik sohalarida amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qimmatli mo‘lumotlarni taqdim etadi, shuningdek, harakat qonuniyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.*

Tadqiqotning natijalari jism harakatining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, burchak ostida otish jarayonlarini simulyatsiya qilishda qo‘llaniladigan zamonaviy dasturlash vositalari va algoritmlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *Simulyatsiya; Modellashtirish; Burchak.*

Tekislikda burchak ostida o‘tilgan jism harakati deganda, bir jismning tekislikda ma’lum bir burchak ostida harakatlanishi tushuniladi. Bu harakatni tavsiflash uchun quyidagi asosiy tushunchalar va formulalar mavjud:

1. Asosiy tushunchalar:

- Burchak (α): Jismning harakat yo‘nalishi va gorizontal chiziq o‘rtasidagi burchak.
- Tezlik (υ): Jismning harakat tezligi.

2. Tezlik komponentalari:

Jismning tezligi gorizontal va vertikal komponentalarga bo‘linadi:

Gorizontal komponenta: $\upsilon_x = v \cdot \cos(\alpha)$

Vertikal komponenta: $\upsilon_y = v \cdot \sin(\alpha)$

3. Harakat formulalari:

Agar jism t vaqti davomida harakat qilsa, gorizontal va vertikal masofalar quyidagicha hisoblanadi:

Gorizontal masofa (x): $x = \upsilon_x \cdot t = (\upsilon \cdot \cos(\alpha)) \cdot t$

Vertikal masofa (y): $y= \upsilon_y \cdot t - (1/2)gt^2 = (\upsilon \cdot \sin(\alpha)) \cdot t - (1/2)gt^2$

(bu yerda g — erkin tushish tezlanishi, taxminan 9.81 m/s^2).

4. Havodagi harakat:

- Harakat davomiyligi: Jism havoda qancha vaqt qolishi hisoblanadi. Vertikal harakatda maksimal balandlikka yetganda tezlik 0 bo‘ladi.

Maksimal balandlikka yetish vaqti: $t_{max}= \upsilon_y/g= \upsilon \cdot \sin(\alpha)/g$

Liverpul universiteti olimlari tadqiqotida yordam beradigan yangi laboratoriya yordamchisiga (aqlli robot) ega bo‘lishdi. Robot mustaqil ravishda kuniga 21,5 soat ishlaydi. Sun’iy intellektdan foydalangan holda, robot moslashuvchan qo‘l, moslashtirilgan tutqich, kuchli ish axloqiga ega va tadqiqotchilarga ijodiy fikrlash uchun ko‘proq vaqt berish orqali ilmiy kashfiyotlarni tezlashtirishi mumkin. Robot o‘zi tajribalar o‘tkazadi, laboratoriya bo‘ylab harakatlanadi, odamlarning hamkasblaridan qochib, oldingi natijalarga qarab keyingi sinovlarni o‘zi hal qiladi. Robot odamlar kashf qilish uchun juda ko‘p vaqt sarflaydigan muammolarni hal qila oladi [5].

Virtual laboratoriyalarda sun’iy intellektning roli

Universitet talabalari virtual laboratoriyalar bilan tanishishlari kerak. Buning uchun intellektual virtual laboratoriyalar zarur, virtual laboratoriyalarda sun’iy intellektning o‘rni aynan mana shu o‘rinda bo‘ladi. AI bilimlarni o‘rganish va uzatish sifatini oshirishda qo‘llaniladi.

Virtual laboratoriyalardagi ba’zi ilovalar talabalar bilan o‘zaro aloqada emas. Biroq, talabalar qaysi tarkibni, qanday vositalardan foydalanishlari va qaysi modullarni aniqlashlari uchun o‘zaro ta’sirga muhtoj. Talabalar virtual laboratoriya dasturlarini o‘z xohishlari va qobiliyatlariga ko‘ra ishlatishlari va ularni istalgan joyda va istalgan vaqtda bajarishlari uchun talabalar bilan laboratoriya o‘zaro aloqasi muhim va zarurdir. Shu sababli, virtual laboratoriyalarda va o‘zaro ta’sirlarda sun’iy intellekt talab qilinadi, shuning uchun talabalar haqiqiy laboratoriyalarni taqlid qiluvchi laboratoriyalarda amaliyot o‘tkazishlari mumkin.

Ushbu virtual laboratoriya ilovasidan foydalanish sun’iy intellektni talab qiladi, shuning uchun talabalar samarali o‘zaro aloqada bo‘lishlari va shuning uchun virtual laboratoriya aqlli bo‘lishi mumkin. [5]

Talabalarning qobiliyatlari va istaklariga mos keladigan sun’iy intellekt algoritmlaridan biri bu “Ekspert tizimi” algoritmi bo‘lib, u o‘quvchilarni o‘z qobiliyatlariga qarab qaysi modullardan foydalanishi mumkinligiga ko‘ra tasniflaydi. Talabalar o‘zlarining xohishlariga ko‘ra tanlashlari va ekspert tizimlari tasnifi asosida o‘zlari yoqtirgan modulni tanlashlari mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sun’iy intellekt talabalarga shaxsan moslashtirilgan ko‘rsatmalarni taklif qilishi va o‘qituvchilar uchun ma’muriy ishlarni kamaytirishga yordam beradi; sun’iy intellektga asoslangan turar joy imkoniyati cheklangan talabalar va ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun qulaylikni oshiradi; sun’iy intellekt, shuningdek, sinfda shaxslar bilan aloqani qisqartirishga, kirishdagi nomutanosibliklarga va ma’lumotlar maxfiyligiga tahdidlarga olib keladi; ta’lim o‘yinlari, moslashuvchan o‘quv platformalari, chatbotlar va aqlli repetitorlik tizimlari o‘quvchilarga individual yordam beradi; avtomatlashtirilgan baholash, fikr-mulohazalar va rejalashtirish dasturlari ta’lim sohasidagi mutaxassislarga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? *International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16*(39), 1–27.

2. Chassignol, M., Khoroshavin, A., Klimova, A., & Bilyatdinova, A. (2018). Artificial intelligence trends in education: A narrative overview. *Procedia Computer Science 136*, 16–24.

3. Chen, L., Chen, P., & Lin, Z. (2020). Artificial intelligence in education: A review. IEEE Access, 8.

4. Touretzky, D., Gardner-McCune, C., Martin, F., & Seehorn, D. (2019). Envisioning AI for K-12: What should every child know about AI? The Thirty-Third AAAI Conference on Artificial Intelligence (AAAI-19), Honolulu, Hawaii, USA

5. https://praxilabs.com/en/blog/2023/11/27/teaching-methods-in-science/. Nourhan Essam is a Senior Content Writer at PraxiLabs.

6. https://praxilabs.com/en/blog/2023/04/19/role-of-artificial-intelligence-in-virtual-labs/AI Is Transforming Education | Role of Artificial Intelligence in Virtual Labs. February 4, 2024.

7. https://onlinedegrees.sandiego.edu/artificial-intelligence-education/43 Examples of Artificial Intelligence in Education.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI OLIY TA’LIMGA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

Nazirov Kamoliddin Xusnitdinovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnoligyalari universiteti assistenti
nazirov@tuit.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192135

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning oliy ta’limdagi ahamiyati, ularning ta’lim jarayonini samarali tashkil etishdagi roli va istiqbollari ko‘rib chiqilgan. Maqola raqamli vositalar orqali ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari, o‘quv materiallarini interaktiv tarzda yetkazishning afzalliklari va talabalar faoliyatini monitoring qilish usullari haqida ma’lumot beradi. Bo‘lajak muhandis uchun asos bo‘lgan professional bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga raqamli texnalogiyalardan foydalanish yordam beradigan fanlararo aloqalardan foydalanishning dolzarbligiga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli texnologiyalar, oliy ta’lim, interaktiv ta’lim, o‘quv jarayoni, monitoring, onlayn ta’lim.*

Kirish. Oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash jamiyat talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim sohasidagi global o‘zgarishlar ta’lim berishning an’anaviy usullaridan zamonaviy, raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan yondashuvlarga o‘tishni talab qilmoqda. Oliy ta’limda raqamli texnologiyalar orqali darslarni interaktiv shaklda o‘tish imkoniyati kengaymoqda [1]. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va onlayn platformalar yordamida talabalar murakkab mavzularni amaliyotda sinab ko‘rishlari mumkin. Masalan, kimyo, fizika yoki informatika kabi sohalarda virtual laboratoriyalar yordamida tajribalar o‘tkazish imkoni mavjud [2-3].

Metodlar. Ushbu maqolada oliy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha turli tahlillar va kuzatishlar olib borilgan. Asosiy metodlar quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Nazariy tahlil: Raqamli texnologiyalarni oliy ta’limda qo‘llashning dolzarbligini aniqlash uchun xalqaro va mahalliy manbalar asosida adabiyot tahlili o‘tkazildi. Shu jumladan, raqamli texnologiyalarning ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, interaktiv va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishi haqidagi tadqiqotlar ko‘rib chiqildi.

Eksperimental tahlil: Talabalar bilan o‘tkazilgan eksperimentlar asosida raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan interaktiv o‘quv jarayonlarining samaradorligi o‘rganildi. Buning uchun turli ta’lim platformalari (masalan, Google Classroom, Moodle) va virtual laboratoriyalar orqali sinov darslari tashkil etildi.

Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish: Ma’lumotlar yig‘ish uchun talabalarga so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazildi. So‘rovnomalar yordamida talabalar raqamli texnologiyalarni qo‘llashning qaysi jihatlarini o‘rganish eng samarali ekanini ko‘rsatib berdi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida monitoring qilish usullari va platformalar yordamida kuzatuvlar olib borildi.

Taqqoslash va umumlashtirish usullari: Oliy ta’limdagi an’anaviy ta’lim usullari va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirilgan interaktiv darslar natijalari taqqoslandi. Bu usul orqali raqamli texnologiyalarning oliy ta’limdagi afzalliklari, xususan, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarning bilim darajasini yaxshilash borasidagi natijalari umumlashtirildi.

Ushbu metodlar yordamida raqamli texnologiyalarning oliy ta’limda qo‘llash istiqbollari va afzalliklarini aniqlash imkoniyati yaratildi [4-6].

Natijalar. Oliy ta’limda foydalaniladigan raqamli platformalar ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va multimedia resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Inkor etib bo‘lmas bir haqiqat bor, bugungi davr vakilining o‘z zamonasi texnologiyalaridan foydalana olmasligi, ularni o‘z hayoti, kasbi va hunariga tadbiq eta olmaslik mumkin emas.

Quyida raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga ta’sirlarini ko‘rib chiqamiz:

- Interaktiv Darslar: Raqamli texnologiyalar yordamida darslar interaktiv bo‘lib, talabalarni qiziqtiradi. Bu esa talabalarning mavzuni yanada samarali o‘zlashtirishlariga yordam beradi.

- Virtual laboratoriyalar va simmulyatsiyalar: Amaliyotlarda qo‘llaniladigan texnologiyalar orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliyotda sinash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

- O‘quv jarayonini monitoring qilish: Maxsus dasturiy ta’minot yordamida talabalar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi va ular faoliyati kuzatiladi. Bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Oliy ta’limda foydalaniladigan raqamli platformalar

Platforma	Imkoniyatlari	Afzalliklari
Moodle	Kurslarni boshqarish, baholash tizimi, materiallar almashish	Moslashuvchanlik, ochiq kodli, interaktiv o‘quv muhiti yaratadi
Google Classroom	Vaqtni tejovchi vazifa va topshiriqlarni boshqarish	Foydalanish osonligi, Google ekotizimiga integratsiya

Platforma	Imkoniyatlari	Afzalliklari
Microsoft Teams	Onlayn darslar, fayllarni almashish, guruhlar yaratish	To‘liq interaktiv muhit, videokonferensiya va suhbat imkoniyatlari
Coursera	Onlayn kurslar va sertifikatlar berish	Dunyo miqyosidagi yetakchi universitetlar kurslariga kirish imkoniyati
Blackboard	Talabalarni kuzatish, baholash, o‘quv materiallarini yuklash	O‘qituvchilar va talabalar uchun intuitiv interfeys

Muhokama. Biz bu ishda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida ko‘p yillar davomida foydalanib kelayotgan “Google Classroom” ta’lim platformasidan fizika darslarida foydalanishdagi yutuqlarimizni bo‘lishmqchimiz [7]. Google Classroom yordamida talabalar laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida muammolar yuzaga kelganda darhol maslahatchi o‘qituvchidan yordam olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Talabalar laboratoriya natijalarini fotolar va qisqa videolar shaklida platformaga yuklab, o‘qituvchi tomonidan qilingan tahlil va tavsiyalarga osongina ega bo‘lishadi. Turli xil o‘quv materiallarini, jumladan, elektron kitoblar, video darsliklar va prezentatsiyalarni ulashish imkoniyati mavjud. O‘quvchilar o‘zlariga kerakli resurslarni istalgan vaqtda yuklab olishlari va darsga tayyorlanishlari mumkin. Google Classroomning interaktiv test va topshiriq funksiyalari orqali talabalar bilimlarini muntazam ravishda mustahkamlashadi. Masalan, har bir mavzu yakunida beriladigan onlayn testlar ularning bilim darajasini o‘qituvchi bilan birga tahlil qilish imkonini beradi. Talabalar orasida guruh ishlarini tashkil etish uchun Google Classroom ideal muhit hisoblanadi. Bu platformada har bir guruh o‘zining alohida virtual maydoniga ega bo‘lib, unda o‘zlarining guruh ichidagi faoliyatlarini muhokama qilishlari, materiallar bilan bo‘lishishlari va loyihalarni ishlab chiqishlari mumkin. Uyga vazifalarini muntazam ravishda yuklash va ularning bajarilish jarayonini kuzatish Google Classroom orqali samarali amalga oshiriladi. O‘qituvchilar vazifalarni tekshirish va baholash imkoniyatiga ega bo‘lishadi va natijalarni talabalar bilan o‘rtoqlashishadi [8].

Ushbu misollar ko‘rsatadiki, “Google Classroom” platformasi yordamida fizika darslarini interaktiv, qiziqarli va samarali tarzda tashkil qilish mumkin. Platforma nafaqat o‘quvchilarni mustaqil o‘qishga rag‘batlantiradi, balki ular o‘rtasidagi raqobat va hamkorlikni ham rivojlantiradi. Bu dars jarayonini zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etish natijasida o‘quv jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshishi mumkin.

Quyidagi misollar fizika fanini Google Classroom yordamida qanday tashkil etish mumkinligini ko‘rsatadi:

Mexanika mavzusi: Harakat qonunlari, tezlanish va kuch haqida videodarslar va amaliy masalalar yuklanadi. Talabalar harakat tenglamalarini ishlatib, masalalar yechib, o‘z javoblarini Google Classroom orqali topshirishlari mumkin.

Sinov va testlar: Oddiy mexanika qonunlari haqida qisqa onlayn testlar yaratilib, talabalar uchun o‘zlashtirish darajasi tekshiriladi.

Optika va yorug‘lik mavzusi: Yorug‘likning qaytishi va sinishi qonuni, linzalarning ishlashi kabi mavzularda simulyatsiyalar yuklanadi. Talabalarlar o‘z kuzatuvlari va xulosalarini yozib topshirishlari mumkin.



1-rasm. a)Yorug‘likning sinish qonuni



1-rasm. b) Linzalarning ishlashi

Albatta bu simmuliyatorlarni bajarish uchun ham talabalar uchun maxsus yo‘riqnoma beriladi. Bu yo‘riqnomada laboratoriya ishini bajarish tartibi, jadvallar va hisoblash uchun aniq formulalar keltirilgan.

Masalan “Yorug‘likning qaytishi va sinishi qonini” misolida ko‘rib o‘tamiz. “Yorug‘likning sinishi” simulyatsiyasini tanlanadi, Intro orqali kiriladi. Yorug‘lik tushayotgan muhit sifatida “Havo” (Air) ni tanlanib, yorug‘lik sinayotgan muhit sifatida “Shisha” (Glass) olinadi.

Keyin, shishaning sinish ko‘rsatkichi (n) ni jadvalga yoziladi va transportirdan foydalanib lazerning sinish burchagi (γ) ni aniqlanadi. Qaytgan nur hisobga olinmaydi. Bu laboratoriyaning 4 yoki 5-qadamlarida yana 5 ta turli burchakdagi holatlarda takrorlanadi. Ishining oxirida sinish ko‘rsatkichi har xil burchakda tushayotgan yorug‘lik nuri uchun o‘zgarmas bo‘lishini aniqlanib, taqqoslanadi. Havodagi yorug‘lik tezligi vakuumdagi yorug‘lik tezligiga deyarli teng ekanligidan, havo uchun sindirish ko‘rsatkichi 1 ga teng deb olamiz.



2-rasm

№	n_{shisha}	α(°)	γ(°)	Sinα	Sinγ	n_2
1						
2						

O‘lchash va hisoblashlar:

Sinα va Sinγ larni hisoblang. Natijani 1-jadvalga yozing.n_2 ni hisoblang. Natijani 1-jadvalga yozing. Hisoblagan n_2 ni berilgan n_{shisha} bilan taqqoslang.

Talabalar o‘z uy sharoitida tajribalarni tasvirga olib, videolarni Google Classroomga yuklab baholatishlari mumkin.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar oliy ta’limni yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilishga imkon beradi. Bu texnologiyalar nafaqat talabalar uchun qulaylik yaratadi, balki o‘qituvchilarning o‘quv jarayonini samarali tashkil etishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida raqamli texnologiyalarning oliy ta’limga ta’sirini oshirish maqsadida infratuzilmani rivojlantirish va texnologik savodxonlik darajasini oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. B.B.Turdiqulov, O‘S.Nazirov, Yu.N.Karimov. // Atom va molekulalarning yorug’likni yutishi va nurlanishi // UIF = 8.1 | SJIF = 5.685. 2022. –C. 1252-1258. (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=HF__xJoAAAAJ&citation_for_view=HF__xJoAAAAJ:u5HHmVD_uO8C)

2. X.N.Karimov. //Fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriya ishidan foydalanish.// “Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to‘plami. –P. 102-104 (https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/130).

3. X.N.Karimov, A.E.Imamov, E.Z.Imamov. // Development of creative thinking in higher education.// “Science and innovation” international scientific journal. (ISSN: 2181-3337) 2023. №3. -C. 359-361. (http://scientists.uz/view.php?id=3836)

4. X.Sh.Asadova, Yu.N.Karimov. // Effective organization of the educational process based on new modern technologies. // “Science and innovation” international scientific journal. Volume 1 Issue 7. 2022. -S. 230-233. (https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zamonoviy-tehnologiyalar-asosida-uv-zharayonini-samarali-tashkil-etish).

5. Axmadov, M., Asfandiyorov, M., (2023). // Pedagogik dasturiy vositalar yordamida fizika fanini o ‘qitish. // Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(10), 90-92. (https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/21486)

6. X.N.Karimov, M.M.Asfandiyorov, M.A.Axmadov. //Zamonaviy yondashuvlar asosida fizika o‘qitishni rivojlantirish.// “Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to‘plami. 2023. –P. 113 (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=i5SoNTcAAAAJ&citation_for_view=i5SoNTcAAAAJ:M3ejUd6NZC8C)

7. Ya.Axmedov, X.Karimov // Yangi innovatsion yondoshuvlar orqali fizika darslarini samarali tashkil etish // Management and Future Technologies journal. Volume 1, Issue 2. 2024. –B. 128-134 (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=i5SoNTcAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=i5SoNTcAAAAJ:RHpTSmoSYBkC)

8. X.N.Karimov // Fizika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo ‘llash // “Science and innovation” 2023. –B 58-61 (https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences//0014/1.9.pdf)

AKADEMIK YOSHLARNING PSIXO-IJTIMOIY EHTIYOJLARI: ULARNING SHAKLLANISHIGA METODOLOGIK ASOSLAR

Aymuratov Aydos Koblanbek-uli,
(Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali Axborot ta’lim texnologiyalari kafedrasi assistent-o‘qituvchisi)
aydosgaya3374@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192249

Djoldasbaeva Aksulu Bagitovna
(Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali Axborot ta’lim texnologiyalari kafedrasi assistent-o‘qituvchisi)
aksulu.bagit@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192249

Annotatsiya: *Maqolada talaba yoshlarning eng muhim psixosotsial ehtiyojlari tahlil qilingan. Litva (Shiauliya universiteti) va AQSH (Kaliforniya universiteti) talaba qizlarining psixosotsial ehtiyojlarini empirik o‘rganish natijalari keltirilgan.*

Talabalarning psixosotsial ehtiyojlarida ma’naviy va gumanistik ehtiyojlardan ko‘ra moddiy qadriyatlar ko‘proq namoyon bo‘ladi. Talabalar tanqidiy fikrlashni, o‘z-o‘zini anglashni yetarli darajada baholamaydilar, o‘z-o‘zini tarbiyalashga kam e’tibor beradilar.

Kalit so‘zlar: *akademik yoshlar, psixosotsial ehtiyojlar, ehtiyojlarni qondirish va shakllantirish, universitet.*

Kirish. XXI asrning eng muhim qoidasi - ta’lim oluvchi jamiyatni yaratish. Insoniyat global axborotlashgan jamiyat sari harakat qilmoqda, unda, V.V.Yemelyanovning (2001) fikriga ko‘ra, yangi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tartib yaratiladi. Spontanlik, muqobillik, plyuralizm xos bo‘lgan ijtimoiy aloqalar rivojlanmoqda (Maslov, 1993).

Psixosotsial tekislikda xizmatlar iqtisodiy bozorining vujudga kelishi va rivojlanishi natijasida individlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi raqobat kuchaydi. Raqobat, bandlik va boshqa omillar muloqot va shaxslararo munosabatlarning zaiflashishiga sabab bo‘ladi, balki egotsentrizm, ijtimoiy mahdudlik va atrof-muhitga befarqlik rivojlanishiga yordam beradi. Ijtimoiy hayotda, ayniqsa, kasbiy faoliyatda - ijtimoiy munosabatlarda ham, kasbiy kompetensiya tuzilishida ham pragmatik xarakter yaqqol namoyon bo‘ladi.

Jahonda ro‘y berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar tufayli ta’lim tizimi va akademik hamjamiyatlar oldiga yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Universitetlar missiyasi va ularning mavjudlik strategiyasi qayta ko‘rib chiqiladi, studiyalar va ilmiy tadqiqotlar sifatiga, ta’limning xalqaro aloqalarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi (Daukilas et al., 2005; Drucker, 1993; Fullan, 1993; Grudzinskiy, 2003). Yevropadagi zamonaviy ta’lim garmonik, integral shaxsni tushunishga qaratilgan va shaxs idealini har tomonlama rivojlantirishga intiladi, pragmatik qadriyatlarni yuksaltirishga yo‘naltirish esa ko‘pincha hayotning gumanistik qadriyatlarini yetarlicha

baholamaslikka olib keladi (Golenkova & Ishtxayan, 2005; Daukilas et al., 2005; Dumchene & Daukilas, 2007; Muxametzyanova, 1998; Onokoy, 2004; Barnett, 1997).

Shuning uchun akademik yoshlarning psixologik-ijtimoiy ehtiyojlari va ularni zamonaviy modernizatsiya- lashayotgan jamiyatdagi o‘zgarishlar sharoitida amalga oshirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda

hashamatli jamiyat

Tadqiqotning obyekti sifatida talabaning qondirilishini anglash kontekstidagi psixosotsial ehtiyojlari olingan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarning eng muhim psixologik-ijtimoiy ehtiyojlarini aniqlash va talabalarning hozirgi vaqtda o‘zlarining psixologik-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishlarini anglashlarini tahlil qilishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi: 1) talabalarning eng muhim psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini aniqlash; 2) talabalarning hozirgi paytdagi psixologik-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishni tushunish; 3) Litva (Shiauliya universiteti) va AQSH (Kaliforniya universiteti) pedagogika yo‘nalishining so‘nggi bosqich talaba qizlarining psixologik-ijtimoiy ehtiyojlaridagi o‘xshashlik va farqlarni tadqiq etish, 4) talabalarning psixologik-ijtimoiy ehtiyojlarini shakllantirishning metodologik shart-sharoitlarini aniqlash.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsning faoliyatli va ijodiy mohiyati, uning rivojlanishining ko‘p omilli xarakteriga oid ijtimoiy hodisalarning yaxlitligi va o‘zaro bog‘liqligi haqidagi falsafiy qoidalar; akademik yoshlarga ta’lim-tarbiya berishning gumanistik paradigmasi tashkil etadi.

Tadqiqotning nazariy asoslari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsning shaxs, individ va faoliyat va muloqot subyekti sifatidagi integral xususiyatlari haqidagi nazariyalar (Ananev 1980; Rubinshteyn, 1976; Klimov, 1996).

2. Talabalarning shaxsiy-kasbiy rivojlanishi nazariyasi (Bodalyov, 1998), insonning shaxsiy va kasbiy kamoloti, uning ma’naviy-axloqiy va insoniy rivojlanishining asosiy qoidalarini ochib berishga tayanadi.

Tadqiqotning usullari: adabiy manbalarni tahlil qilish; talabalar turmush tarzi muammosi va o‘z-o‘zini namoyon qilish va turmush tarzini shakllantirishni rag‘batlantiruvchi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha tadqiqot ma’lumotlarini qiyosiy tahlil qilish; anketa so‘rovi. Shiauliy universiteti Ta’lim tadqiqotlari ilmiy markazi xodimlari tomonidan tuzilgan anketa so‘rovnomasi metodikasi ushbu tadqiqot doirasida o‘ta muhim bo‘lgan ikkita savollar blokini o‘z ichiga oldi: talabalarning psixologik-ijtimoiy ehtiyojlari va ularning turmush tarzi xususiyatlari.

Tadqiqotda ijtimoiy fanlar fakultetining 193 nafar talabasi (I kurs - 69 va IV kurs - 124), shuningdek, Litvaning Shiaulyai universiteti Educology fakultetining 65 nafar yakuniy kurs talabalari va AQShning Kaliforniya shtati universiteti (AQSH) ning 39 nafar terapiya, psixologiya va salomatlik yo‘nalishini tanlagan talabalari ishtirok etdi. Universitetda tadqiqotchi ishtirokida o‘tkazilgan kirish yo‘riqnomasidan so‘ng respondentlar anonim anketalarni to‘ldirdilar va barcha savollarga javob berdilar. Sinaluvchilarning tadqiqot natijalari bilan tanishish istagi hisobga olindi.

Taqdim etilgan o‘rganilayotganlar yig‘indisini so‘rovnomaning barcha savollariga javob bergan respondentlar tashkil etadi.

Belgilar o‘rtasidagi farqning ahamiyatini baholash uchun xi-kvadratdan foydalanildi (2).

Agar xatolik ehtimoli 0,05 dan kam bo‘lsa, farqlar ishonchli deb hisoblangan.

Tadqiqotni o‘tkazish bosqichlari:

Tadqiqotning birinchi bosqichida - o‘rganilgan pedagogik, psixologik va falsafiy adabiyotlar asosida muammoning hozirgi holati, pedagogika fani nazariyasi va amaliyoti tahlil qilindi. Tadqiqotning ilmiy apparati belgilanib, uning dasturi ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida (tajriba-sinov) diagnostik eksperiment, ilmiy-amaliy konferensiyalarda tadqiqotning alohida elementlarini umumlashtirish o‘tkazildi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichida olingan ma’lumotlar qayta ishlandi va tizimlashtirildi, xulosalar shakllantirildi, tadqiqot natijalari sarhisob qilindi, ilmiy maqola matni tayyorlandi.

Tadqiqot natijalari

Talabalarning psixosotsial ehtiyojlari va orzu-umidlari

Talabalarning psixosotsial ehtiyojlarning muhimligi haqidagi munosabatlarini o‘rganish (1-jadval) ular uchun sog‘lom va kuchli bo‘lish "juda muhim" ekanligini ko‘rsatdi. "Yetarlicha muhim" - sog‘lom va kuchli bo‘lish 30,4% va 21,8% javobgardir. Talabalar, shuningdek, ularning hayotida "juda muhim" ehtiyoj - I bosqich talabalarining 85,3 foizi va IV bosqich talabalarining 90,3 foizi uchun ish topish zarurligini ta’kidladilar. I bosqich talabalarining 65,2%i va IV bosqich talabalarining 52,4%i uchun kasbiy martaba va jamiyatda tan olinishga intilish "juda muhim" hisoblanadi. O‘zini anglash, hayotning ma’nosi va maqsadini topishni I bosqich talabalarining 79,4% va IV bosqich talabalarining 80,6% muhim ehtiyoj sifatida ko‘rsatdilar. Yetarli miqdorda pulga ega bo‘lish "juda muhim" ehtiyoj sifatida I bosqich talabalarining 56,5 foizi va IV bosqich talabalarining 51,6 foizi ko‘rsatgan. Faqatgina kichik bir qismi, mos ravishda 2,9% va 3,2% yetarli pulga ega bo‘lish unchalik muhim emasligiga amin.

Talabalarni o‘qitishning pedagogik texnologiyalari gumanistik turmush tarzini saqlab qolgan holda pragmatik shaxsni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishi kerak (Dumchenye & Daukilas, 2007). Talabalarning psixologik-ijtimoiy ehtiyojlari nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki shaxsning hayotiy qadriyatlarini yuksaltirish, kasbiy faoliyat jarayonida hayotning ma’nosini izlash asosida shakllanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barnett, R. (1997). Higher Education: A Critical Business. Buckingham: The Open University Press and Society for Research in Higher Education.
2. Čikotienė, I., & Kardelis, K. (2002). Studijų nutraukimo ir nepažangaus mokymosi aukštojoje mokykloje priežastys.
3. Ugdymas. Kūno kultūra. Sportas, 2, 17–24.
4. Drucker, P. (1993). Post-capitalist society. Oxford: Linarce House, Jordan Hill.
5. Fullan, M. (1993). Change forces. Probing the depths of educational reform. London: The Falmer Press. Jakušovaitė, I. (2001). Medicina ir filosofija. Kaunas: KMU.
6. Maslow, A. (1976). The Father Reaches of Human Nature. New York: Penguin Books. Rainwater, J. (1989). Self-Therapy. London: Crucible.

7. Rogers, C. R. (1980). Way of Being. Boston: Haughton-Mifflin.
8. Tamošauskas, P. (2000). Humanistiškai orientuotas studentų fizinis ugdymas. Vilnius: Technika.
9. Ананьев, Б. Г. (1980). Избранные психологические труды в двух томах. Москва: Наука.
10. Ананьев, Б. Г. (2003). Учитель: проблемы жизненного и профессионального самоопределения. Постдиплом- ное педагогическое образование: проблемы качества: Научно-методическое пособие (Под общ. ред. С. Г. Вершловского). СПб: Социальная литература.
11. Багдасарьян, Н. Г., Немцов, А. А., & Кансузян, Л. В. (2003). Послевузовские ожидания студенческой моло- дежи. Социологические исследования, 6, 113-119.
12. Бодалёв, А. А. (1998). Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения.
13. Москва: Флинта.

ARALASH TA’LIM SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TA’LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Allamova Shoxista Shavkat qizi,
p.f.f.d
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika institute
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192722

Annotatsiya. *Ushbu maqola aralash ta’lim sharoitida raqamli texnologiyalar asosida ta’lim tizimini takomilashtirishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ilmiy tadqiqotchilar tomonidan aralash ta’limga berilgan ta’rif va tavsiflar, aralash ta’lim modellari va aralash ta’lim sharoitida raqamli texnologiyalar asosida ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *aralash ta’lim, raqamli texnologiya, shaxsiylashtirilgan ta’lim, onlayn ta;lim, masafaviy ta’lim.*

Kirish. Ta’lim tizimining raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashishi, ya’ni blended learning (aralash ta’lim) texnologiyasi so‘nggi yillarda ta’lim jarayonida katta ahamiyat kasb etmoqda. Aralash ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar yordamida ta’limni takomillashtirish va shaxsiylashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Blended learning — bu an’anaviy ta’lim va onlayn ta’limni birlashtirishga asoslangan ta’lim texnologiyasidir. Ushbu ta’lim texnologiyasi an’anaviy ta’limni, raqamli vositalar yordamida onlayn ta’lim bilan integratsiyalashga asoslanadi[1]. Pedagogikada ushbu texnologiyani ilgari surishdan asosiy maqsad shaxsiylashtirilgan ta’lim, talabaning mustaqil faoliyatini rivojlantirish va ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishdir. Ta’lim jarayoniga aralash

ta’lim kiritilganda, aralash ta’lim turli resurslarni, xususan, yuzma-yuz o‘quv mashg‘ulotlari va elektron ta’lim elementlarini o‘zida mujassam etgan o‘qitish usuli ekanligi tushuniladi[2].

Aralash ta’lim talabalarga o‘zlarining ta’lim muhitlarini boshqarish imkonini beradi, bu esa o‘rganish samaradorligini oshiradi. Aralash ta’limni ta’lim tizimiga integratsiya qilishda asosiy pedagogik tamoyillar quyidagilardan iborat:

Talabalarning faol ishtiroki: Blended learning talabalarni o‘z ta’lim trayektoriyalarini boshqarishda faol ishtirok etishga undaydi. Talabalar onlayn kurslarni o‘rganish orqali dars materiallarini chuqurroq o‘zlashtiradi.

Shaxsiylashtirilgan ta’lim: Ta’limni individual ehtiyojlar va qiziqishlarga moslashtirish imkoniyati talabalarga yanada motivatsiya berishga yordam beradi.

Interaktiv va kollaborativ o‘rganish: Blended learning jarayonida talabalar bir-birlari bilan onlayn forumlarda, guruh mashg‘ulotlarida muloqot qiladilar.

Adabiyotlar tahlili va metod. Aralash ta’lim ko‘pgina ilmiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, rus tadqiqotchisi A.S.Fomina aralash ta’lim va masofaviy ta’lim texnologiyalarini universitetning o‘quv jarayoniga joriy etishning bir qismi deb hisoblaydi, elektron ta’limni joriy etish xususiyatlarini, aralash ta’limni elektron taqsimlangan universitetda o‘quv jarayonini tashkil etishning bir turi sifatida ajratib ko‘rsatadi[3]. Mahalliy tadqiqotchilardan L.G.Babakhodjayeva aralash ta’limga quyidagicha ta’rif beradi. “Aralash ta’lim-an’anaviy kunduzgi, masofaviy va mustaqil ta’limni birlashtiruvchi o‘qitish tizimi bo‘lib, u o‘qituvchilar, ta’lim oluvchilar va axborotning interfaol manbalarining o‘zaro ta’sirlashishini qamrab oladi, doimo o‘zaro aloqada bo‘lgan va bir butunlikni tashkil etgan o‘quv jarayoniga xos barcha komponentlar (o‘qitishning maqsadi, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, vositalari)ni aks ettiradi”.

Biz ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida, aralash ta’limga shunday ta’rif berdik: ushbu texnologiya talabalarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradigan, talabaga o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantiradigan, o‘qituvchiga esa har bir talabaga individual yondashish, har bir talabaning kamchiliklarini aniqlash orqali uning temperament xususiyatlarini xisobga olgan holda talabaning akademik faoliyati traektoriyasini qurishga yordam beradigan texnologiyadir.

Aralash ta’lim ko‘pgina mualliflar tomonidan turli modellarga bo’lib chiqilgan: xususan mahalliy tadqiqotchilardan L.G.Babakhodjayeva aralash ta’lim modellarini quyidagicha ajratadi:

1. Almashtirish modeli: Manzilli almashtirish, Almashtirish lobaratoriyasi, O‘girilgan auditoriya, Xususiy almashtirish
2. Egiluvchan model
3. A-La-Cart model
4. Virtual boyitilgan model [4; 16-b.].

Xorijiy adabiyotlarda esa Kleyton Kristensen instituti aralash ta’limni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy modellarni aniqlaydi: stansiya aylanishi, laboratoriya aylanishi, A La cart model (talab bo‘yicha) va moslashuvchan model. Ulardan uchtasi maksimal natijalarga erishishga imkon beradi deb hisoblashadi[5].

Biz ushbu keltirilgan aralash ta’lim modellari ichida Flipped classroom modelini samarali modellardan biri deb hisobladik, chunki, ushbu modelda talabalar uyda onlayn o‘quv muhitida internetga kirish imkoniga ega bo‘lgan o‘zlarining elektron qurilmalari yordamida ishlaydilar, yangi

mavzu bilan tanishadilar yoki o‘rganilayotgan materialni mustahkamlaydilar. O‘quv mashg‘ulotida o‘rganilganlar mustahkamlanadi va olingan bilimlar yangilanadi (1-rasm). Ushbu model auditoriyadagi ishning frontal shaklidan voz kechish va o‘quv mashg‘ulotida interaktiv ish shakllarini amalga oshirish imkonini beradi.

Har bir talabaning uyda yangi materialni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi haqidagi ma’lumotlar o‘qituvchiga o‘quv mashg‘uloti senariysini tezda tuzatishga imkon beradi.



1-rasm. “Flipped classroom” modeli ishlash tamoyili

Izlanishlar natijasiga ko‘ra, aralash ta’limning ushbu modelini o‘quv jarayoniga tadbiq etishda talabalarda uyda internetga ulangan elektron qurilmalar mavjudligi, o‘qituvchilar esa AKT vositalaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerakligi aniqlandi. O‘qituvchilar uchun ushbu modelni o‘quv jarayoniga tadbiq etishdagi qiyinchiliklariga: talabalar uchun topshiriqlar, vazifalar va testlar tayyorlashi kerakligini keltirishimiz mumkin. Afzalliklari esa: o‘qituvchiga o‘quv mashg‘ulotida interaktiv ish shakllarini amalga oshirish imkoniyatini beradi, butun auditoriyani yangi material bilan frontal ravishda tanishtirish zaruratini yo‘qotadi, talabalarning tayyorgarligini hisobga olgan holda o‘quv mashg‘ulotini o‘tishga imkon beradi[6].

Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini amalga oshirishda qo‘llaniladigan aralash ta’limning samarali modellaridan biri – Station rotation (stansiya aylanishi) modeli bo‘lib, biz o‘z tadqiqot ishimizda amaliy mashg‘ulot o‘quv jarayonlarini ushbu model asosida loyihaladik. Ushbu modelni tashkil etishda auditoriyada kompyuter yoki planshetlar, o‘qituvchi tomonidan LMS dan foydalanish va auditoriyani guruhlarga bo‘la olish qobiliyati talab qiladi (2-rasm).

Tadqiqotchi Zh.A.Abalyan aralash ta’limning “Station rotation” modeli tobora pedagogik amaliyotning bir qismiga aylanib borayotganligini, ushbu model undagi o‘quv jarayoni sub’ektlarining o‘rnini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rolini o‘zgartirish nuqtai nazaridan printsipial jihatdan yangi yondashuv ekanligini, talabalar ta’lim jarayonining faol ishtirokchilariga aylanishini ta’kidlaydi [7].



2-rasm. “Station rotation” modeli ishlash tamoyili

Ushbu aralash ta’lim modelida talabalar o‘quv faoliyati turlariga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi, har bir guruh auditoriyaning (bekatning) o‘ziga xos qismida ishlaydi:

- o‘qituvchi bilan ishlash guruhi;
- onlayn ish guruhi;
- loyihai ish guruhi.

Ushbu modelni o‘quv jarayoniga tadbiq etishda o‘qituvchiga kichik guruhlar bilan ishlash qobiliyati, tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish qobiliyati, tyutor bo‘lishga tayyorlik, auditoriyaning o‘quv madaniyatini shakllantirish qobiliyati talab etiladi. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni aralash ta’lim asosida tashkil etiladi va qo‘shimcha interfoal metodlar (tushunchalar taxlili, suxbat, xulosalash), strategiyalar (aqliy hujum) va grafik organayzerlar (muammo yechimi (problem solving)) bilan to‘ldiriladi[8].

Natijalar. Aralash ta’lim muhitida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ular talabalarga tezkor ma’lumot olish, ta’lim materiallarini turli formatlarda (matn, video, animatsiya, interaktiv modullar) o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar talabalarni individual tezlikda o‘rganishiga yordam beradi. Dasturiy ta’minotlar, onlayn platformalar va o‘qituvchilarning ko‘rsatmalari aralash ta’lim texnologiyasining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Raqamli texnologiyalarni blended learning modellarida qo‘llash, ta’limni shaxsiylashtirishda va talaba interfaolligini ta’minlashda katta yordam beradi. Kelajakda, blended learning global ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda, chunki bu metod an’anaviy ta’limni yangi texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Aralash ta’lim (blended learning) sharoitida raqamli texnologiyalar asosida ta'lim tizimini takomillashtirishni amalga oshirish uchun bir qancha asosiy qadamlarni bajarish taklif etiladi:

1. **O‘quv materiallarining raqamlashtirilishi**: O‘quv materiallarini raqamli formatda taqdim etish (masalan, video darslar, interaktiv prezentatsiyalar, elektron kitoblar). Bu talabalar uchun qulay vaqtda va qulay ravishda materiallardan foydalanishni ta’minlaydi.

2. **Platformalar va dasturlarni joriy etish**: Ta’lim jarayonini boshqarish uchun raqamli platformalar (masalan, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams) va dasturlarni joriy etish. Bu platformalar talabalarga darslar va topshiriqlarni bajarish, o‘qituvchilar bilan muloqot qilish imkonini beradi.

3. **Adaptiv ta’lim tizimlarini yaratish**: Raqamli texnologiyalar yordamida individual o‘qitish jarayonini tashkil qilish, ya’ni har bir talabaning o‘ziga xos o‘qish tezligi va uslubiga moslashtirilgan ta’lim materiallarini taqdim etish. Bunda, masalan, sun’iy intellekt yordamida o'quvchilarning yutuqlari tahlil qilinib, ularning zaif tomonlarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi.

4. **Interaktiv va kollaborativ vositalarni qo‘llash**: Onlayn forumlar, chatlar va guruh ishlari orqali talabalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish. Bu talabalar orasida fikr almashish va bir-birlarini o‘rgatish imkoniyatlarini yaratadi.

5. **Masofaviy baholash tizimlarini joriy etish**: Testlar, so‘rovlar va interaktiv baholash tizimlari orqali talabalar bilimini baholash. Shuningdek, talabalarning o‘z-o‘zini baholashi va o‘qituvchilar tomonidan onlayn ravishda baholash tizimlari orqali individual yondashuvni ta’minlash.

6. **O‘qituvchilarni raqamli kompetensiyalari bilan ta’minlash**: O‘qituvchilarni raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish, ularni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va pedagogik yondashuvlar bo‘yicha treninglar o‘tkazish. Bu o‘qituvchilarga aralash ta’limni yanada samarali tarzda olib borish imkonini beradi.

Munozara. Demak, aralash ta’lim raqamli texnologiyalar asosida ta’limni rivojlantirishning samarali usullaridan biridir. U talabalarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi, shaxsiylashtirilgan ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi va ta’lim jarayoni samaradorligini oshiradi.

Aralash ta’lim sharoitida raqamli texnologiyalar asosidagi ta’lim tizimini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron ta’lim resurslari asosida joriy etilishi tinglovchilarda fanga va mutaxassislikka oid ilmiy bilimlarni egallashiga, tanqidiy fikrlash va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini, ya’ni axborot bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, axborot muhiti sharoitida interfaol muloqot qilish imkoniyatlaridan foydalanib ta’lim jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga hamda mustaqil ta’lim orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishga zamin yaratadi.

Xulosa

Ilmiy va o‘quv adabiyotlar tahliliga ko‘ra xulosa qilish mumkinki, ta’limdagi innovatsion o‘zgarishlar, jumladan oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonining innovatsion strategiyasini, ta’limning mazmunini loyihalashtirish, o‘quv jarayonini aralash ta’lim sharoitida raqamli texnologiyalar asosidagi tashkil etish va metodik ta’minotini boyitishning ilmiy asosini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. *The Internet and Higher Education*, 7(2), 95-105.

2. Allamova Sh.Sh. Aralash ta’lim modellari va imkoniyatlari // O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 6 (47). — B. 100-117

3. Фомина А.С. Смешанное обучение в электронном распределенном университете // Ученые записки. Вып. 34. М., 2011. С. 82–88.

4. Babaxodjaeva L.G. Talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonida aralash ta’lim modelini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari: Ped.fan.dok.diss. avtoreferati – T.:CHDPU, 2021. – 16 b

5. Андреева Н.В., Рождественнская Л.В., Ярмахов Б.Б. Шаг школы в смешанное обучение. – М.: Буки Веди, 2016.

6. Алламова Ш. Ш. Использование методов смешанного обучения для повышения эффективности практических занятий в вузах // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2023. Вып. 5 (229). С. 112–120. https://doi.org/10.23951/1609-624X-2023-5-112-120

7. Abalyan Zh.A. The Use of the Station Rotation Model in Teaching English at Non-Language Higher Education Institutions. Prepodavatel XXI vek. Russian Journal of Education, 2022, No. 1, part 1, pp. 105–116. DOI: 10.31862/2073-9613-2022- 1-105-116.

8. Алламова Ш.Ш. Методика организации практических занятий на основе смешанного обучения. // Inter education & global study. 2024. №4(2). С.

37–48

DASSTURLASHNI O‘RGANUVCHILAR UCHUN YARATILGAN “ONLINE HAKAM” TIZIMLARI TAHLILI

Yusupova Janar Kamolovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
Dasturiy injiniring kafedrasi katta o‘qituvchisi
yusupovajanar1992@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192751

Qalandarov Baxtiyor Ko‘pal o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
Dasturiy injiniring mutaxassisligi magistranti
bruce.kalandarov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192751

Bekjanov Ro'zimboy G'anijan o'g'li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
Telekommunikatsiya texnologiyalari yo’nalishi talabasi
ruzimboybekjanov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192751

Reyimberganov Baxrom Rashid o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
Dasturiy injiniring yo’nalishi talabasi
bahromreyimberganov0311@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192751

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dasturlashni o‘rganuvchilar uchun ishlab chiqilgan platformalar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Hozirgi kunda ko‘plab davlatlar tomonidan dasturlashni mustaqil o‘rganish uchun maxsus platformalar ishlab chiqilgan. Hususan, Rossiyada www.codeforces.ru, acm.timus.ru, www.russiancodecup.ru, acmp.ru, Amerikada topcoder.com, www.codementor.io, Yaponiyada atcoder.jp, Xitoyda, PKU JudgeOnline (http://poj.org/), Hindistonda www.hackerearth.com, www.hackerrank.com kabi maxsus onlayn platformalar mavjud. Bu platformalarning deyarli barchasi ingliz va rus tillarida bo‘lganligi sababli talabalarning ulardan foydalanishida birqancha muammolar yuzaga kelishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Onlayn hakam, dastur, dasturlashni o‘rganish, onlayn platformalar, ACM ICPC.*

Hozirgi kunda AT sohasi bilan tanilgan kompaniyalar tomonidan dasturlash bo‘yicha ko‘plab sovrinli musobaqalar tashkil qilinmoqda. Jumladan ACM ICPC, Google codejam, Facebook hacker cup, Yandex Algorithm musobaqalari. Bu musobaqalarni o‘tirishdan maqsad kuchli dasturchilarni saralab olish va ularni ish o‘rni bilan ta’minlashdan iborat. Bu musobaqalar aqliy sport(“mind sport”)

turi bo‘lib, bunda berilgan algoritmik masalalarni C, C++, Java, Python, Kotlin va boshqa dasturlash tillarida tez va xatosiz dasturini tuzishi lozim bo‘ladi. Musobaqada yaxshi natija ko‘rsatgan qatnashuvchilar sovrinlar bilan taqdirlanadi. Odatda bu musobaqalarda barcha davlatlardan qatnashishadi va ularning soni 100000 gacha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bu musobaqalarni 2 yoki 3 bosqichda o‘tkazishadi. Dastlab saralash bosqichlari va oxirida final bosqichi bo‘ladi. Odatda bu musobaqalarda 10 tadan 15 tagacha masalalar qo‘yiladi va shu masalalar soniga qarab 4 yoki 5 soat vaqt ajratiladi. Musobaqa ACM qoidasi bo‘yicha baholanadi. Bu qoidaga ko‘ra ko‘p masala yechgan ishtirokchi baholash tizimida yuqorida joylashadi, agar yechgan masalalari soni teng bo‘lib qolsa unda jarima vaqti bo‘yicha baholanadi. Jarima vaqti yechgan masalalarning yechgandagi vaqtlari yig‘indisiga teng bo‘ladi va har bir noto‘gri yechim uchun qo‘shimcha 20 daqiqa qo‘shiladi. Misol uchun uchta masala berilgan bo‘lsin siz birinchi masalani 1 ta xato urinish bilan 15-minutda, ikkinchi masalani 2 ta xato urinish bilan 26-minutda va 3-masalani xatosiz 40-minutda yechsangiz unda sizning jarima vaqtingiz

$$141 = 3*20 + 15 + 26 + 40$$

ga teng bo‘ladi. Musobaqada ko‘proq mantiqqa va algoritmga ta’luqli bo‘lgan mavzulashtirilgan masalalar qo‘yiladi. Misol uchun sonlar nazariyasi, kombinatorika, graflar nazariyasi, saralash algoritmlari, dinamik dasturlash, o‘yinlar nazariyasi, geometrik masalalar, qidiruv algoritmlari, satrli algoritmik masalalar va boshqa turdagi algoritmik mavzularga ta’luqli bo‘lgan masalalarni olishimiz mumkin. Bunday musobaqalarda yaxshi natijalarga erishish uchun o‘z aqliy salohiyatimizni kuchaytirishimizga to‘g‘ri keladi. Bu algoritmlar haqida kitoblar va manbalar yetarlicha, lekin bu algoritmlarni o‘zini faqat nazariy o‘rganib chiqishning o‘zi algoritmlarni to‘la tushinib yetishga yordam bermasligi mumkin. Shuning uchun algoritmik bilimlarni yanada chuqurroq o‘rganish va tushunish uchun bu algoritmlarga ta’luqli masalalarni yechish samarali usullardan biri hisoblanadi[1].

Onlayn tekshiruv tizimi – bu o‘zida ko‘plab algoritmik masalalar to‘plamiga ega bo‘lgan va shu masalalar yechimlarini to‘g‘rilikka tekshiradigan tizim hisoblanadi. Bu tizimda mashg‘ulot musobaqalari tez – tez o‘tkazilib turiladi[2]. Bu mashg‘ulot musobaqalari asosiy musobaqaga tayyorgarlik vazifasini o‘tab beradi. Mashg‘ulot musobaqasi asosiy vaqti tugagach bu masalalarni yana yechish imkoniyati mavjud. Undan tashqari bu tizimda masalalar muhokamasi joylashgan bo‘lib, unda masalalarni qay usulda yechish mumkinligi to‘g‘risida ma’lumot olish imkoniyati mavjud. Hozirgi kunda ko‘plab onlayn tekshiruv tizimlari mavjud bo‘lib bu onlayn tekshiruv tizimlari bir birlaridan foydalanuvchilar soni bo‘yicha va ko‘p funksionalligi bo‘yicha farqlanadi. Bularga misol qilib quyidagilarini olish mumkin(1-jadval).

1-jadval

Nomi	Tarif	Veb ilovasi
HackerRank	HackerRank o‘zida ilmiy kompyuter sohasiga tegishli bo‘lgan turli hil dasturiy masalalarni jamlagan. Bundan tashqari HackerRank ko‘pchilik kuchli dasturichilarni startup dasturiy ta’minot loyihasi bilan bog‘lab beradi.	hackerrank.com

Codeforces	Saratov davlat Universiteti talabalari tomonidan yaratilgan va foydalanuvchilar soni bo‘yicha yuqori o‘rinlarda turadigan onlayn tekshiruv tizimi hisoblanadi. Bu tizimda quyidagi funksiyalar mavjud: masala yechimini to‘g‘rilikga tekshirish, virtual mashg‘ulot o‘tkazish, jamoaviy musobaqalarida qatnashish va boshqa funksiyalar.	codeforces.com
HackerEarth	Hindistonning Bangalor shahrida tashkil topgan tizim bo‘lib, bu platforma asosan dasturchilarni ish bilan ta’minlashga yordam beradigan tizim hisoblanadi.	www.hackerearth.com
CodeChef	Bunda uzoq muddatli va qisqa muddatli musobaqalar o‘tkazilib, yuqori kuchli uchlikka pul mukofoti beriladi. Bu asosan universitetlarga tekin mashg‘ulot vazifasini o‘tab beradi.	www.codechef.com
CodinGame	Bunda onlayn mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan bo‘lib asosan turli xil o‘yinlarga nisbatan algoritim yoziladi.	www.codingame.com
Topcoder	Amerika tomonidan tashkil topgan onlayn tizim bo‘lib unda yaxshi natija ko‘rsatgan dasturchilarga AT sohasi bo‘yicha shug‘ullanadigan firmalar tomonidan ishga qabul qilish takliflari beriladi.	www.topcoder.com
Project Euler	Bunda asosan matematik masalalarni dasturlash tilida yechish imkoniyati mavjud.	projecteuler.net
UVa Online Judge	Ispaniyadagi Valladolid universiteti tomonidan tashkil topilgan va o‘zida 5000 masalalar to‘plamiga ega bo‘lgan onlayn tekshiruv tizimi.	uva.onlinejudge.org
AtCoder	Yaponiyadagi eng kuchli dasturchilar uchun yaratilgan onlayn tekshiruv tizimi.	atcoder.jp
CS Academy	Yangi yaratilgan onlayn tekshiruv tizimi bo‘lib bunda algoritm masalalarini yechish va ishga kirish uchun suhbatga tayyorlanish vazifasini o‘tab beradi.	csacademy.com
Algo Ubtuit	O‘zbekistondagi TATU Urganch filiali tomonidan yaratilgan onlayn tekshiruv tizimi.	algo.ubtuit.uz

Codeforces - dasturiy tanlovlar o‘tkazadigan onlayn tekshiruv tizimi. Uni ITMO universitetining Mixail Mirzayanov boshchiligidagi dasturchilar guruhi yaratgan. Codeforces 2010 - yilda yaratilgan bo‘lib hozirda eng yaxshi onlayn tekshiruv tizimi deb aytish mumkin. Hozirda codeforces onlayn tekshiruv tizimida ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar soni 600 mingdan ziyod.

Algo-Ubtuit - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filialida professor-o‘qituvchi va talabalari tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi kunda tajriba-sinovdan o‘tkazilayotgan “Onlayn tekshiruv tizimi”(www.algo.ubtuit.uz). Bu tizim hozirda talabalarga algoritmlashni o‘rgatishda yuqori samara bermoqda. Hozirda bu onlayn tekshiruv tizimida ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar soni 8000 dan ziyod[3].

Tizimning dastlabki sahifasi “Bosh sahifa”, “Masalalar”, “Contest”, “Urinishlar”, “Natijalar” bo‘limlaridan iborat bo‘lib, ular quyidagicha vazifalarni amalga oshirishga mo‘ljallangan: “Bosh sahifa” bo‘limida talabalar uchun dasturlash bo‘yicha yangiliklar, e’lonlar beriladi. Shuningdek, bu bo‘limda o‘tkazilgan nazorat(musobaqa shaklida) natijalari, talabalarning dasturlash masalalarini yechishi bo‘yicha monitoring natijalari, har bir o‘tkazilgan musobaqadan keyin muallif yechimlari berib boriladi. “Masalalar” bo‘limida talabalarga oraliq va yakuniy nazoratga mustaqil tayyorlanishlari uchun o‘tilgan mavzular bo‘yicha har bir fan kesimida masalalar to‘plami beriladi, shuningdek olimpiadaga tayyorlanuvchi talabalar uchun ham maxsus masalalar to‘plami ham ishlab chiqilgan. “Contest” tizimda o‘tkazilgan va o‘tkazilishi rejalashtirilgan musobaqalar haqida ma’lumot olish mumkin. Ushbu musobaqalar ma’lum vaqt oralig‘ida va belgilangan sanada onlayn tarzda o‘tkaziladi, musobaqa o‘tkaziladigan sanalar tizim yangiliklar bo‘limida e’lon qilib boriladi. “Urinishlar” bo‘limida joriy holat, ya’ni joriy vaqtda masalalarni yechayotgan talabalar va ularni masalani to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yechayotganligi, urinishlari soni ko‘rsatiladi. “Natijalar” bo‘limida talabaning masalalarni yechish soni bo‘yicha olgan o‘rni belgilanadi. Bu bo‘limda talabalarni familiya, ismi bo‘yicha qidiruv tizimi ham mavjud. Agar siz biror guruhni tanlasangiz, faqat shu guruh talabalarining reytingi chiqadi. “Algoritmlar” bu bo‘limda dasturchilar uchun zarur bo‘lgan algoritmlar beriladi. Ushbu bo‘limda istalgan turdagi murakkab algoritmlarni ham izohlar va sodda misollar orqali oson tushunib olishlari mumkin bo‘ladi[4],[5].

Xulosa

Maqolada dasturlashni o‘rganuvchilar uchun yaratilgan onlayn tekshiruv tizimlari tahlil qilindi. Hozirgi kunda turli davlatlarda dasturlashni mustaqil o‘rganish va rivojlantirish uchun maxsus platformalar mavjud. Bularga misol sifatida Codeforces, HackerRank, HackerEarth, Topcoder kabi platformalar keltirilgan. Ushbu tizimlar orqali foydalanuvchilar dasturiy masalalarni yechishda malakalarini oshirishlari va o‘z bilimlarini sinab ko‘rishlari mumkin.

O‘zbekiston misolida esa Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filialida ishlab chiqilgan algo.ubtuit.uz tizimi ta’kidlab o‘tilgan. Ushbu tizim talabalar uchun algoritmik masalalarni o‘rgatishda yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, musobaqalarda ishtirok etish va masalalarni hal qilish imkoniyatlarini beradi. Mazkur maqolada algo.ubtuit.uz tizimining imkoniyatlari, foydalanuvchilarga taqdim etilgan funksiyalari va boshqa onlayn hakam tizimlariga nisbatan afzalliklari haqida to‘liq ma’lumotlar berilgan.

Adabiyotlar

1. Yusupova J., Choponov O., Allayarov S. PARALLEL DATA TESTING ON" ONLINE HAKAM" SYSTEMS FOR PROGRAMMING STUDENTS //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. A6. – C. 331-334.

2. Allamov O. et al. Analysis of Parallel Computing Methods and Algorithms //2023 IEEE XVI International Scientific and Technical Conference Actual Problems of Electronic Instrument Engineering (APEIE). – IEEE, 2023. – C. 1710-1713.

3. Nishanov A. K. et al. Classification Algorithms with a Complex Structure in Pattern Recognition //2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM). – IEEE, 2024. – С. 2560-2568.

4. Turaboyevich A. O. et al. DASTURLASHNI O ‘RGANUVCHILAR UCHUN YARATILGAN “ONLINE HAKAM” TIZIMLARI TAHLILI //Komputer texnologiyalari. – 2022. – Т. 1. – №. 10.

5. Yusupova J. et al. ANALYSIS OF PARALLEL COMPUTING METHODS AND ALGORITHMS //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A8. – С. 27-32.

DASTURLASH BO‘YICHA ICPC OLIMPIADASIGA TALABALARNI TAYYORLASH: ONLAYN HAKAM TIZIMLARI ASOSIDA SAMARALI USULLARNI O‘RGANISH

Yusupova Janar Kamolovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
Dasturiy injiniring kafedrasi katta o‘qituvchisi
yusupovajanar1992@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192777
Qalandarov Baxtiyor Ko‘pal o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
Dasturiy injiniring mutaxassisligi magistranti
bruce.kalandarov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192777
Bekjanov Ro'zimboy G'anijan o'g'li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
Telekommunikatsiya texnologiyalari yo’nalishi talabasi
ruzimboybekjanov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192777
Reyimberganov Baxrom Rashid o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
Dasturiy injiniring yo’nalishi talabasi
bahromreyimberganov0311@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192777

Annotatsiya*. Ushbu maqolada dasturlash bo‘yicha ICPC olimpiadasiga talabalarni tayyorlashda onlayn hakam tizimlaridan foydalanish metodlari tahlil qilinadi. Bu platformalar orqali talabalarning algoritmik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va dasturlash ko‘nikmalarini oshirishga yo‘l ochiladi. Maqolada Codeforces, HackerRank va algo.ubtuit.uz kabi platformalar o‘rganilib, ulardagi turli xil masalalar to‘plami, muntazam musobaqalar va darhol qayta aloqa imkoniyatlari talabalar malakasini oshirishda qanday rol o‘ynashi ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, keng qamrovli va foydali imkoniyatlarga ega bo‘lgan platformalar talabalarni ICPC kabi olimpiadalarga tayyorlashda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi[1].*

Kalit so‘zlar: *ICPC, onlayn hakam, dasturlash musobaqalari, algo.ubtuit.uz, algoritmik fikrlash.*

Kirish

Dasturlash bo‘yicha xalqaro musobaqalar, xususan, ICPC, talabalarni algoritmik masalalarni tez va samarali yechishga o‘rgatish orqali ularning dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashish uchun talabalar algoritm, dinamik dasturlash va matematik masalalarni chuqur o‘rganishlari lozim. Zamonaviy onlayn hakam tizimlari, masalan, Codeforces va algo.ubtuit.uz, bu jarayonni kuchaytiradi, talabalarga real vaqt rejimida masalalar yechishni va javoblarning to‘g‘ri ekanligini tekshirish imkoniyatini beradi[2].

Metodlar

Ushbu maqolada onlayn hakam tizimlarining samaradorligi, talabalar tomonidan turli masalalarni yechish tezligi va aniqligi orqali baholanadi. Talabalar Codeforces, HackerRank va algo.ubtuit.uz kabi platformalarda muntazam ravishda masalalarni yechib, o‘zlarini sinab ko‘rishdi. Maqolada, ayniqsa, algo.ubtuit.uz platformasining mahalliy talabalarga moslashtirilganligini hisobga olgan holda, undan ICPC uchun maxsus foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

1. Tadqiqotning umumiy yondashuvi

Tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarni ICPC olimpiadasiga tayyorlashda eng samarali onlayn hakam tizimlarini aniqlash va ularning dasturlash bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashdagi ahamiyatini o‘rganishdir. Shu maqsadda, tadqiqotda Codeforces, HackerRank, algo.ubtuit.uz kabi mashhur platformalardan foydalanildi. Talabalar ushbu platformalarda muntazam ravishda algoritmik masalalar ustida ishlashdi, bu esa ularning dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi.

Tadqiqot jarayonida talabalar har bir onlayn platformada mavjud bo‘lgan har xil masalalarni yechib, o‘zlarini sinovdan o‘tkazishdi. Buning uchun talabalarga bir qancha algoritmik masalalar berildi va ularni yechish uchun platformalarda yaratilgan funksionallikdan foydalanildi. Har bir masalani yechish vaqti, xatolar va natijalarning aniqligi tahlil qilindi[3].

2. Ishtirokchilar

Tadqiqotda 3-4 bosqichdagi dasturlash bo‘yicha o‘qiyotgan talabalardan iborat 20 nafar ishtirokchi qatnashdi. Talabalar dasturlash bo‘yicha avvalgi bilim darajalariga qarab uchta guruhga bo‘linishdi: boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajadagi dasturchilar. Bu guruhlanish har bir guruh uchun tegishli metodlarni tanlashda yordam berdi.

3. Onlayn platformalarni tanlash

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy onlayn platformalar quyidagilar:

- **Codeforces**: Bu platforma algoritmik masalalar bilan ishlash va masalalarni tezkor yechish ko‘nikmalarini oshirishga yo‘naltirilgan. Codeforces o‘zining turli xil masalalar va mashg‘ulotlar bilan mashhur bo‘lib, talabalarga aniq yechimlar va qisqa vaqt ichida to‘g‘ri javoblarni topish ko‘nikmasini beradi.
- **HackerRank**: HackerRank platformasi asosan masalalarni to‘g‘ri va aniq yechishga urg‘u beradi. Unda masalalarni yechish jarayonida talabalar o‘z dasturlash texnikalarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Platforma turli xil algoritmik masalalarni o‘z ichiga oladi va talabalar o‘z yechimlarini doimiy ravishda tekshirib borishadi.
- **algo.ubtuit.uz**: Mahalliy yaratilgan ushbu tizim talabalar uchun qulay interfeys va o‘zbek tilida ishlash imkoniyatini beradi. algo.ubtuit.uz tizimi talabalarni algoritmik masalalarni yechishga o‘rgatish uchun ko‘p yillik tajriba va mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan.

4. Tajriba jarayoni

Tajriba uchta asosiy bosqichda amalga oshirildi: tayyorgarlik, yechimlar jarayoni va tahlil.

- **Tayyorgarlik bosqichi**: Har bir ishtirokchiga onlayn platformalarda ishlash va ularning interfeysi bilan tanishish imkoniyati berildi. Ishtirokchilar platformalardan foydalanish bo‘yicha qisqacha yo‘riqnoma olishdi va o‘zlari tanlagan masalalarni yechishni boshlashdi. Ular dasturlashda uchraydigan qiyinchiliklarni yechishda yordam beradigan asosiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishdi.
- **Yechimlar jarayoni**: Ushbu bosqichda talabalarga bir nechta darajalarga bo‘lingan algoritmik masalalar taqdim etildi. Masalalar murakkablik darajasiga qarab saralangan bo‘lib, talabalar o‘z qobiliyatlariga mos darajada masalalarni tanlashdi. Har bir ishtirokchi masalalarni yechish jarayonida vaqt va aniqlik darajasi bo‘yicha baholandi. Platformalarda talabalar yechimlarni sinash uchun real vaqt rejimida tekshirish imkoniga ega bo‘lishdi, bu esa ularga xatolarni darhol aniqlash va tuzatishga yordam berdi.
- **Tahlil bosqichi**: Yechimlar yakunlangandan so‘ng, har bir talabani yechimlari, ishlash vaqti va yechimning aniqligi bo‘yicha baholandi. Bu jarayonda talabalar tomonidan qilingan xatolar va ularning sabablarini tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari, har bir ishtirokchining umumiy samaradorligi va qiyinchilik darajasi bo‘yicha yutuqlari kuzatildi.

5. Tahlil va natijalarni qayta ishlash

Olingan natijalar quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha qayta ishlashdi:

- **Vaqt ko‘rsatkichi**: Har bir masala uchun ajratilgan vaqtga nisbatan talabalarning yechim chiqarish tezligi tahlil qilindi. Bu ko‘rsatkich talabalarni tez va samarali ishlash qobiliyatini aniqlashda yordam berdi.
- **Aniqlik darajasi**: Talabalar tomonidan kiritilgan yechimlarning aniqligi qayta ko‘rib chiqildi. Bu ko‘rsatkich orqali talabalarni dasturiy xatolarni topish va to‘g‘ri javob topish qobiliyati baholandi.
- **Progressni tahlil qilish**: Har bir talabani dasturlash bo‘yicha ko‘nikmalari qayd etilib, ularning yechim jarayonidagi muvaffaqiyati kuzatildi. Bu orqali talabalar o‘z bilimlarini qanchalik rivojlantirayotganliklarini baholash imkoniyati yaratildi.

6. Talabalar fikrini o‘rganish

Tajriba yakunida talabalar orasida so‘rovnoma o‘tkazilib, ulardan olingan bilimlar va onlayn platformalar bo‘yicha fikr va tavsiyalar yig‘ildi. Bu bosqich orqali talabalar onlayn platformalar qanchalik qulay va samarali ekanligini, ularning tayyorgarlikka qanday ta’sir qilganini baholashdi.

7. Natijalar va olingan xulosalar

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, onlayn hakam tizimlari talabalarni ICPC kabi murakkab musobaqalarga tayyorlash uchun katta yordam beradi. Talabalar ushbu platformalarda ishlash orqali o‘z dasturlash ko‘nikmalarini oshirishdi, algoritmik masalalar yechish tezligini oshirishdi va xatolarni tezda topishga o‘rgandilar. Shuningdek, algo.ubtuit.uz platformasi talabalarga ona tilida foydalanish imkoniyatini berganligi sababli undan foydalanish osonroq va samaraliroq bo‘ldi. Shu bilan birga, talabalar masalalarni real vaqt rejimida tekshirish imkoniyatiga ega bo‘lishgani sababli, xatolarni tezda tuzatish imkoniyati ham oshdi.

Natijalar

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, keng qamrovli masalalar bazasiga ega bo‘lgan va darhol javob berish imkonini taqdim etuvchi platformalar talabalar o‘rtasida yuqori samaradorlikka olib keladi. algo.ubtuit.uz tizimi, masalan, ko‘p yillik tajribaga asoslangan holda, talabalar algoritmik masalalarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali yordam ko‘rsatadi. Shuningdek, talabalar o‘rtasida vaqt sinovlari asosida berilgan vazifalarni bajara olish qobiliyatlari sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, onlayn hakam tizimlari orqali muntazam va to‘g‘ri yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar o‘tkazish ICPC olimpiadasiga tayyorlanish uchun kuchli tayyorgarlik vositasi hisoblanadi. Bunday tizimlar talabalarga turli xil algoritmik muammolarni yechishda yordam beradi, ularga real musobaqa muhiti va stress ostida samarali ishlashni o‘rgatadi. algo.ubtuit.uz kabi mahalliy tizimlardan foydalanish esa yanada qulay bo‘lib, talabalar o‘z ona tilida muloqot qilish orqali jarayonni yanada samarali o‘rganadilar[4].

Xulosa

Dasturlashni mustaqil o‘rganish uchun yaratilgan onlayn platformalar talabalarning algoritmik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda va ularni ICPC kabi musobaqalarga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, samarali onlayn tizimlar orqali muntazam mashg‘ulot olib borish talabalar uchun katta foyda keltiradi va ularni xalqaro musobaqalarga tayyorlashda muhim yordam bo‘lib xizmat qiladi[5].

Adabiyotlar

1. Yusupova J., Choponov O., Allayarov S. PARALLEL DATA TESTING ON" ONLINE HAKAM" SYSTEMS FOR PROGRAMMING STUDENTS //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. A6. – C. 331-334.

2. Allamov O. et al. Analysis of Parallel Computing Methods and Algorithms //2023 IEEE XVI International Scientific and Technical Conference Actual Problems of Electronic Instrument Engineering (APEIE). – IEEE, 2023. – C. 1710-1713.

3. Nishanov A. K. et al. Classification Algorithms with a Complex Structure in Pattern Recognition //2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM). – IEEE, 2024. – C. 2560-2568.

4. Turaboyevich A. O. et al. DASTURLASHNI O ‘RGANUVCHILAR UCHUN YARATILGAN “ONLINE HAKAM” TIZIMLARI TAHLILI //Komputer texnologiyalari. – 2022. – T. 1. – №. 10.

5. Yusupova J. et al. ANALYSIS OF PARALLEL COMPUTING METHODS AND ALGORITHMS //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. A8. – C. 27-32.

JOYTEKA TA‘LIM PLATFORMASI - RAQAMLI TA‘LIM RESURSLARINI YARATISH VOSITASI SIFATIDA

Berdiqulova Nargiza Najmiddin qizi
Navoiy innovatsiyalar universiteti o’qituvchisi,
nargizainformatik@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192846

Annotatsiya. *Ushbu maqola Joyteka onlayn ta’lim platformasining ta’lim jarayoniga qo’shadigan hissasini o’rganadi. Platforma o’qituvchilarga interaktiv va raqamli resurslarni – viktorina, kvest, va testlarni – yaratish imkonini berib, talabalarni o’qitishga zamonaviy yondashishni taklif etadi. Ushbu maqolada platformaning talabalarning faolligini oshirish, raqamli ko’nikmalarni rivojlantirish va umumiy o’quv natijalarini yaxshilashdagi roli ko’rib chiqiladi. Joyteka platformasidan foydalanish jarayoni, uning afzalliklari va cheklovlari ham muhokama qilingan. Izlanishlar natijalariga ko’ra, raqamli ta’lim platformalari ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko’rsatiladi.*

Kalit so’zlar: *raqamli ta’lim platformalari, joyteka platformasi, ta’lim sifati, pedagogik texnologiyalar, talaba o’zlashtirishi, ta’lim jarayoni, ta’limning individuallashtirilishi.*

Kirish

Raqamlashtirish davrida ta‘lim jarayoni jiddiy o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Raqamli ta‘lim platformalari ta‘limga yondashuvlarni modernizatsiya qilish va zamonaviy talablarga moslashtirilgan samarali o‘quv materiallarini yaratishda muhim o‘rin tutadi [1]. Ana shunday vositalardan biri Joyteka onlayn ta’lim platformasi bo‘lib, u o‘qituvchilar va o‘qituvchilarga interaktiv va ta’lim raqamli resurslarni yaratish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqolada Joyteka platformasidan ta‘lim

jarayonida foydalanishning dolzarbligi va uning ta‘lim sifatini oshirishga yordam beruvchi raqamli ta‘lim resurslarini yaratishdagi roli ko‘rib chiqiladi [2].

Hozirgi vaqtda ko’plab ta’lim platformalari mavjud, masalan, Kahoot, Joyteka platformasi, YaKlass veb-sayti va boshqalar [3]. Ushbu maqola doirasida o’qituvchiga o’quv materiallarini yaratish imkonini beruvchi Internet-resurs bo’lgan Joyteka ta’lim platformasida ishlash printsipi batafsilroq ko’rib chiqiladi [4].

Ushbu maqolaning maqsadi Joyteka platformasida o‘quv materiallarini yaratish jarayonini o‘rganish va ushbu platformadan foydalanish talabalarning faolligini oshirish, o‘rganishni yaxshilash va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berishini ko‘rsatishdir. Tadqiqot, shuningdek, raqamli ta‘lim resurslarining o‘quv jarayoniga ta‘sirini tahlil qiladi va Joyteka platformasining asosiy afzalliklari va cheklovlarini o‘rganadi.

Usullari

Tadqiqot metodologiyasi raqamli ta‘lim resurslarini yaratish va joriy qilish uchun Joyteka platformasini amaliy qo‘llashga asoslangan. Resurs yaratish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ro‘yxatdan o‘tish va dastlabki sozlash: Platformadan to‘liq foydalanish uchun Joyteka rasmiy veb-saytida ro‘yxatdan o‘tishingiz kerak. Shundan so‘ng, foydalanuvchilar viktorinalar, kvestlar, testlar va interfaol adabiyotlar kabi turli xil vazifalarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.



1-rasm. Joyteka platformasidan ro’yxatdan o’tish jarayoni.

2. Viktorina yaratish: Viktorina yaratish algoritmi berilgan mavzu bo‘yicha savollar ishlab chiqish, jpg, png yoki bmp formatida yuklab olinadigan rasm va matnlarni tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Viktorina uchun topshiriqlarni taqdimot muharriridan foydalanib tayyorlash, ularni tasvir sifatida saqlash qulay.



Yakunlangan viktorinaning umumiy ko'rinishi (2-rasm).

3. O‘yin sozlamalari: Joyteka platformasi savollarning qiyinligini tanlash va har bir vazifaning qiyinligiga qarab ballarni belgilash imkonini beradi. Bundan tashqari, havolalar, QR kodlar va shaxsiy identifikatorlarni o‘z ichiga olgan o‘yinga kirishning bir necha yo‘li mavjud, bu ham sinfda, ham masofaviy muhitda foydalanishni osonlashtiradi.

Natijalar

Joyteka platformasini o‘quv muhitida sinovdan o‘tkazish natijasida quyidagi natijalarga erishildi:

1. Faoliyatning ortishi: platformada yaratilgan interfaol viktorinalar va kvestlar talabalarning fanga qiziqishini oshirishga yordam berdi. Statistika shuni ko‘rsatdiki, Joyteka raqamli resurslaridan foydalangan sinflarda yakuniy testlarda to‘g‘ri javoblar soni 15% ga oshgan.

2. Raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish: Talabalar raqamli qurilmalar va platformalar bilan ishlashni o‘rgandilar, axborot texnologiyalari sohasidagi malakalarini oshirdilar. O‘rganish uchun smartfon va planshetlardan foydalanish amaliyoti shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 90% dan ortig‘i raqamli navigatsiya va platforma bilan o‘zaro aloqaning asosiy tamoyillarini o‘zlashtirgan.

3. Ta‘lim natijalarini yaxshilash: raqamli ta‘lim resurslarini joriy etish ta‘lim sifatini oshirdi. O‘qituvchilar Joyteka platformasida viktorinalardan foydalanish o‘quvchilarning o‘rtacha ballini 12 foizga oshirishga yordam berganini kuzatishdi, bu interfaol usullarning o‘quv faoliyatiga ijobiy ta‘siridan dalolat beradi.

Munozara

Natijalarning muhokamasi shuni ko‘rsatadiki, Joyteka platformasida yaratilgan raqamli ta‘lim resurslari ta‘lim jarayonini takomillashtirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Platforma kognitiv qiziqishni uyg‘otadigan va talabalarning faolligini oshiradigan interfaol vazifalarni yaratishga imkon beradi.

Joyteka platformasidan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini quyidagicha ta’riflash mumkin [5]:

Afzalliklari

- **Interaktivlik**: Joyteka platformasi o’qituvchilarga interaktiv resurslar yaratish imkonini beradi, bu esa talabalarning darsga qiziqishini oshiradi va o’quv jarayonini jonlantiradi;
- **Moslashuvchanlik**: Platforma har xil mavzular va darajalar uchun moslashtirilishi mumkin. O’qituvchilar turli fanlardan vazifalar va o’yinlarni ishlab chiqish orqali o’z darslarini moslashuvchan qila oladilar;
- **Qulay foydalanish**: Oddiy interfeys va dastlabki sozlash imkoniyatlari bilan platformadan foydalanish oson, bu esa o’qituvchilarga ko’p vaqtni tejash imkonini beradi;
- **Statistik kuzatish imkoniyati**: O’qituvchilar talabalarning faoliyatini va rivojlanishini kuzatish uchun statistik ma’lumotlarga ega bo’lishlari mumkin, bu esa ta’lim sifatini nazorat qilishda foydali;
- **Motivatsiyani oshirish**: Interaktiv vazifalar va o’yin elementlari talabalarni faolroq bo’lishga undaydi va ularning motivatsiyasini oshiradi;

- **Turli kirish imkoniyatlari**: QR kod, havola va shaxsiy identifikatorlar orqali har xil kirish yo’llari mavjudligi Joytekani masofaviy va sinfda foydalanish uchun mos qiladi.

Kamchiliklari

- **Ishtirokchilar sonidagi cheklovlar**: Hozirda Joyteka platformasi har bir viktorinada 5 kishigacha ishtirokchi qo’shish imkonini beradi, bu esa ko’p sonli talabalar uchun cheklov bo’lishi mumkin;
- **Internetga bog’liqlik**: Joytekadan foydalanish uchun doimiy internet aloqasi talab etiladi, bu ayrim hududlarda muammo bo’lishi mumkin;
- **Integratsiya imkoniyatlari cheklanganligi**: Platforma boshqa ta’lim vositalari va resurslari bilan integratsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirishi kerak. Bu esa raqamli ekotizimda yanada ko’proq moslashuvchanlik yaratishi mumkin;
- **Xususiyatlar kamligi**: Platforma imkoniyatlari hali rivojlanish bosqichida, va murakkab yoki ko’p foydalanuvchili viktorinalar yaratish uchun imkoniyatlar chegaralangan.

Platformani yanada rivojlantirish uchun yanada murakkab va ko‘p foydalanuvchili viktorinalar yaratish funksiyalarini kengaytirish, shuningdek, boshqa ta‘lim platformalari va vositalari bilan integratsiya imkoniyatlarini qo‘shish taklif etiladi [6]. Ushbu takomillashtirish Joyteka platformasiga raqamli ta‘lim resurslariga talab ortib borayotgan sharoitda dolzarb bo‘lib qolishiga imkon beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Joyteka ta‘lim platformasi ta‘lim sifati va o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga hissa qo‘shadigan raqamli ta‘lim resurslarini yaratish uchun kuchli vositadir. Bunday resurslarni o‘quv jarayoniga joriy etish o‘quvchilarning motivatsiyasi, faolligi va muvaffaqiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Joyteka platformasi ta‘lim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishga intilayotgan o‘qituvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Гаврилова, Э.Н. Электронные образовательные ресурсы как инструмент системы обучения / Э.Н. Гаврилова. – Текст : непосредственный // Актуальные вопросы современной экономики. – 2021. – № 9. – С. 21-26.
2. Вера Евгеньевна Евдокимова Екатерина Евгеньевна Горева. Образовательная платформа Joyteka как инструмент создания цифровых образовательных ресурсов. Учёные записки шадринского государственного педагогического университета. 2024. № 2(4)
3. Berdiqulova N., Rustamova M. Kahoot yordamida ta’lim faolligini oshirish: interaktiv ta’limga zamonaviy yondashuv. Interpretation and Researches, 2(24), 2024.
4. Гогицаева, О.У. Цифровые образовательные ресурсы в профессиональной деятельности педагога / О.У. Гогицаева, В.К. Кочисов. – Текст : непосредственный // ЦИТИСЭ. – 2022. – № 2 (32). – С. 182-190.
5. Berdiqulova N.N. Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilariga joyteka dasturidan foydalangan holda innovatsion yondashuv // “Raqamlashtirish davrida maktabgacha ta’limning global kelajagi: ta’lim, tarbiya muammolari va yechimlari”. 2024. 41-43- bet.
6. Rustamova M., Berdiqulova N. Canvada dars jarayonlari uchun multimediali taqdimotlar tayyorlash. Science and Education, 5(1), 2024. PP.257–260.

7. Shaxodjayev M.A., Xoshimov M.T. Professional ta’lim muassasalari o’qituvchilarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish // Raqamli ta’limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo’llari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 25-oktabr, 2023. 27-30 bet. https://doi.org/10.5281/zenodo.10034769

8. Bujang, S. D. A., Selamat, A., Krejcar, O., Maresova, P., & Nguyen, N. T. (2020, April). Digital learning demand for future education 4.0—Case studies at Malaysia education institutions. In Informatics, Vol. 7, No. 2, p.13.

9. Жуковская И.Е. Основные тренды совершенствования деятельности высшего учебного заведения в условиях цифровой трансформации. Открытое образование. 25(3), 2021. Стр.15-25. https://doi.org/10.21686/1818-4243-2021-3-15-25

10. Габдуллина А.Ш. Влияние цифровизации на когнитивные функции обучающихся в вузе в рамках иноязычного обучения. Педагогика. Вопросы теории и практики. Том 7, Выпуск 4, 2022. Стр. 395-403 https://doi.org/10.30853/ped20220073

TA’LIM TIZIMIDA O‘QUV JARAYONING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ARALASH TA’LIMNI O‘RNI

Normatov Otaxon Masharibovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Axborot ta’lim texnologiyalari
kafedrasi katta o‘qituvchisi
normatovmo@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192932

Annotatsiya*: Maqolada aralash ta’limning modellari yoritib berilgan hamda xorijiy ta’lim muassasalarida qo‘llanilishi qisqacha bayon qilingan. Modellarning qo‘llanilishi hamda ta’limga qanday ta’sir o‘tkazishi, texnologiyalardan samarali foydalanish keltirilgan bo‘lib, ularning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Bu usullarni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni yoritib beradi. Aralash ta’lim modellari hamda sub-modellari, ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan usullari aynan qaysi modelda qanday natija va resurslardan optimal foydalanilishi keltirilgan.*

Kalitli so‘zlar*: aralash ta’lim, aralash ta’lim modellari, Mixed block model, Rotatsiya modeli va sub-modellari, individual rotatsiya, aylanma sinf (Flipped classroom), Flex, A La Carte, boyitilgan virtual yondoshuvlar.*

Aralash ta’lim (Blended Learning) 1990-yillarning oxirlarida internet va veb-saytlar ommalashganidan beri mavjudimkoniyatlardan kelib chiqib ommalashish bosqichlaridan o‘tib kelmoqda. [1] Bu davrda har bir ta’lim muassasasi o‘z sharoitlari va ehtiyojlariga mos keladigan aralash ta’lim modelini ishlab chiqgan, bu esa o‘quv jarayonini tadqiq qilishda qiyinchiliklar tug‘dirgan. Tadqiqotchilar aralash ta’limni aniqroq ta’riflashga harakat qilishgan bo‘lsada, turli xil yondashuvlar natijasida bir xil tushuncha va chegaralarni aniqlash qiyin bo‘lgan. Shu sababli, bu modelni tushunishda o‘zaro kelishmovchiliklar yuzaga kelgan.

Clayton Christensen institutining ta’rifiga ko‘ra, aralash ta’lim (BL) K-12 darajasidagi ta’lim dasturi bo‘lib, unda o‘quvchilar vaqt, joy, o‘qish yo‘nalishi va sur’atini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu modellarda onlayn ta’lim ta’lim muassasalarda o‘qituvchi nazorati ostidagi xonada o‘qitilishi bilan birgalikda olib boriladi. Kurs yoki mavzudagi har bir o‘quvchining o‘quv yo‘li o‘zaro bog‘langan bo‘lib, yaxlit ta’lim tajribasini ta’minlaydi.

Aralash ta’lim (BL) o‘quvchilarning o‘zlashtirishini yaxshilash, ta’limda moslashuvchanlik va qulaylik yaratish, shuningdek, xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Ammo bunday natijalarga erishish uchun sifatli aralash ta’lim dizayni zarur. Ushbu dizayn quyidagi yetti muhim elementni o‘z ichiga olishi kerak: **o‘qituvchi, o‘qitish sur’ati, tayyorgarlik, ishtirok, shaxsiy muloqot, moslashtirish va joy**. Bu elementlar orqali o‘quvchilar muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.[2]

COVID-19 pandemiyasi davrida ta’lim muassasalar aralash ta’lim (BL)ning ahamiyatini ta’kidladilar va bu usul pandemiyadan keyin ham muhim bo‘lib qoldi.[4] BL o‘quvchilarni noaniq vaziyatlarga tayyorlash va bilimga asoslangan iqtisodiyot va ishchi kuchini shakllantirishga yordam beradi. Har qanday vaqtda, har qanday joyda ta’lim olishni ta’minlash uchun ta’lim tizimini qayta qurish zarur. BL moslashuvchan yondashuv bo‘lib, o‘quvchilar yoshiga, qobiliyatiga va o‘qitish natijalariga qarab moslashtirilishi mumkin.[3]

An’anaviy ta’lim asrlar davomida asosiy ta’lim shakli bo‘lgan. Ammo 2019-yilda sodir bo‘lgan COVID-19 pandemiyasi o‘qituvchilar an’anaviy ta’lim modellari samaradorligini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldilar. Shuning uchun aralash ta’lim modellari bu vaziyatga mumkin bo‘lgan yechim sifatida katta e’tibor qozondi. Biroq, aralash ta’limning samaradorligi asosan texnologiyaga bog‘liq. Texnologiya bo‘lmasa, masalan, o‘quvchilar onlayn o‘quv materiallariga kira olmasa, bu ularning o‘quv jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini cheklaydi.

Aralash ta’lim modellari

Turli muassasalar o‘zlarining ta’lim talablari uchun turli xil aralash ta’lim (BL) modellari yaratgan. Ushbu tadqiqot bu modellarning bir necha misollarini taqdim etadi. Hannon va Macken (2014) uchta BL modelini taklif qildi: “Rotation station”, “Mixed block model” (dastur oqimi modeli deb ham ataladi) va “Fully online model”.

Tiruchirappalli Milliy Texnologiya Instituti (NIIT) aralash ta’limni uchta turli modelga tasniflagan: ko‘nikma-yo‘naltirilgan, munosabat-yo‘naltirilgan va kompetentsiya-yo‘naltirilgan. [3]

a) Ko‘nikma-yo‘naltirilgan model o‘z-o‘ziga ta’limni o‘qituvchi yoki yordamchi qo‘llab-quvvatlashi bilan birlashtirib, aniq ko‘nikmalar hamda bilimlarni rivojlantiradi.

b) Munosabat-yo‘naltirilgan model turli voqealar va media orqali aniq xulq-atvorlarni rivojlantiradi.

c) Kompetentsiya-yo‘naltirilgan model o‘quv joyidagi kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun ish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash vositalarini, bilimlarni boshqarish resurslarini va birlashtiradi.

Ba’zi tasniflash modellari pedagogik xususiyatlarga emas, balki jismoniy xususiyatlarga e’tibor qaratadi. Biroq, so‘nggi modellarda tegishli pedagogik amaliyotlarga oid dizayn ko‘rsatmalari taqdim etilgan.

HyFlex modeli, shuningdek, gibrid moslashuvchan o‘qitish sifatida tanilgan, bu talabalarni darslarga shaxsan yoki masofadan qatnashish tanlovi bilan ta’minlaydigan aralash ta’lim turi. Ushbu yondashuv moslashuvchanlikni ustuvor qiladi, talabalar o‘zlarining talablariga muvofiq o‘z o‘qish traektoriyasini moslashtirishlariga imkon beradi.[6] HyFlex modeli talabalar uchun ko‘plab foydalar taklif qilishi mumkin. Masalan, an’anaviy yuzma-yuz dars tajribasini afzal ko‘rgan talabalar darslarga odatiy ravishda qatnashishda davom etishlari mumkin, masofaviy va moslashuvchan yondashuvni afzal ko‘rganlar esa istalgan joydan qatnashishlari mumkin. Bu talabalar ishtirokini va qoniqishini oshirishga, shuningdek, o‘rganish natijalarini yaxshilashga olib kelishi mumkin.[5]

TeachThought (2021) aralash ta’lim uchun o‘n ikkita turli modelni belgilaydi, jumladan, an’anaviy ta’limini onlayn faoliyatlar bilan to‘ldirish, yuzma-yuz va onlayn ta’lim o‘rtasida almashish, onlayn faoliyatlarni asosiy ta’lim shakli sifatida qo‘llash va ba’zan yuzma-yuz uchrashuvlar o‘tkazish, shuningdek, o‘z-o‘ziga aralashish, aylangan sinf, stansiya rotatsiyasi, laboratoriya rotatsiyasi, individual rotatsiya, boyitilgan virtual va “outside-in” kabi turli boshqa yondashuvlarni ichiga oladi.[7]

Rotatsiya Modeli

2013-yilda Clayton Christensen Instituti, avval Innosight Instituti sifatida tanilgan, aralash ta’limni (BL) innovatsiyalar nazariyasi nuqtai nazaridan o‘rganadigan bir maqola nashr etgan. Ular an’anaviy dars va onlayn ta’limning asosiy elementlarini birlashtiradigan tasnifni kiritgan va gibrid innovatsiyalarni aniqlagan. Yangi aralash ta’lim tasnifiga ko‘ra, Stansiya rotatsiyasi, Laboratoriya Rotatsiyasi va Aylangan Sinf yondashuvlari an’anaviy sinf usullari va onlayn ta’lim o‘rtasida muvozanatni saqlovchi gibrid innovatsiyalar sifatida tasniflanadi. Boshqa tomondan, Flex, A La Carte, Boyitilgan Virtual va Individual Rotatsiya modellari an’anaviy o‘quv tizimidan chetga chiqadigan va shu sababdan yanada o‘zgartiruvchi deb hisoblanadi [7].

Rotatsiya Modeli

Rotatsiya modelida talabalar darsda ta’lim olishlari va topshiriqlarni bajarishlari mumkin, shuningdek, mustaqil yoki masofadan offline materiallar yordamida ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ushbu yondashuv raqamli bo‘shliqlarni to‘ldirishga yordam beradi va barcha talabalar uyda texnologiyaga kirish imkoniyatidan qat’i nazar sifatli ta’lim olishlarini ta’minlaydi.

Flex yondashuvi talabalarning asosiy ta’lim shakli sifatida onlayn ta’limni ishlatishni o‘z ichiga oladi, lekin zarur bo‘lganda an’anaviy ta’lim faoliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Talabalar o‘zlarining moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan rejalari bo‘yicha turli o‘qitish usullaridan

foydalanib, oldinga siljiy olishadi. Talabaning akademik taraqqiyotiga javobgar bo‘lgan o‘qituvchi o‘qish joyida shaxsan mavjud bo‘ladi.

A La Carte yondashuvi talabalar Internet orqali to‘liq bir yoki bir nechta kursni belgilangan onlayn o‘qituvchi bilan tugatishlariga imkon beradi, shu bilan birga an’anaviy shaxsiy ta’lim faoliyatlarida ishtirok etishlariga imkon yaratadi. Ushbu onlayn kurslar jismoniy ta’lim muassasalarida yoki masofadan o‘qilishi mumkin.

Boyitilgan Virtual yondashuvi talabalarga an’anaviy ta’limga jismoniy ishtirok va kurs materiallari va ta’limni onlayn taqdim etish orqali masofadan o‘qish o‘rtasida vaqtni taqsimlaydigan keng qamrovli ta’lim yondashuvini taklif etadi, bu har bir fan, masalan, matematika uchun qo‘llaniladi.[7],[8]

Rotatsiya Modelining Sub-modellari

Rotatsiya aralash ta’lim (BL) modellari ahamiyatli, chunki ular joyida va onlayn o‘qish faoliyatlarini birlashtirishga tuzilgan yondashuvni taklif etadi. Rotatsiya BL modelida talabalar oldindan belgilangan tartibda o‘qish faoliyatlaridan o‘tadilar, bu onlayn modullar, topshiriqlar va o‘qituvchi bilan birma-bir darslarni o‘z ichiga olishi mumkin. 1-rasmda rotatsiya modelining to‘rt xil alohida sub-modeli, ya’ni stansiya rotatsiyasi, laboratoriya rotatsiyasi, aylangan sinf va individual rotatsiya ko‘rsatilgan.



1-rasm. Rotatsiya Modelining sub-modellari

1. Stansiya rotatsiyasi: Stansiya rotatsiyasi modeli, xona rotatsiyasi yoki xona ichidagi rotatsiya modeli deb ham ataladi, talabalar muayyan dars xonasi ichida aylanishadi. Masalan, bir stansiya mustaqil ish stansiyasi bo‘lishi mumkin, bu yerda talabalar onlayn dars yoki faoliyat bilan shug‘ullanadilar; boshqa stansiya kichik guruhli hamkorlik stansiyasi bo‘lishi mumkin, bu yerda talabalar birgalikda loyiha ustida ishlaydilar; yana bir stansiya esa o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan to‘liq sinf darsida bo‘lishi mumkin.

Stansiya rotatsiyasi o‘qituvchilarga talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlari asosida ta’limni farqlash imkonini beradi. Onlayn darsni tugatish uchun ko‘proq vaqt kerak bo‘lgan talabalar o‘z

tempida ish olib borishlari mumkin, boshqalari esa qiyinroq materiallarga o‘tishlari mumkin. Talabalar turli stansiyalarda turli faoliyatlarga jalb qilinganligi sababli, ularning zerikish ehtimoli kamayadi. Stansiya rotatsiyasi modeli o‘qituvchilarning ta’lim usullarini va talabalar ta’lim tajribasini o‘zgartiradi. Ushbu model talabalar uchun turli faoliyatlarda ishtirok etish, o‘qituvchilardan dars olish, tengdoshlar bilan birga ishlash va internetga kirish imkoniga ega bo‘lish imkonini beradi.[8]

Stansiya rotatsiyasi Aralash ta’lim (BL) modeli o‘qituvchilarga kichikroq talabalar guruhlari bilan ishlash imkonini beradi. Bu, katta sig‘imli xonada ishlaydigan o‘qituvchilar uchun juda foydali. Ushbu model yordamida talabalar o‘z ta’lim faoliyatlarini o‘qituvchi yoki jadval tomonidan belgilangan vaqtda va tempda bajara oladilar.

2. Laboratoriya rotatsiyasi: Bu modelda talabalar muayyan dars yoki fan doirasida turli joylarga o‘tadilar hamda belgilangan jadval asosida yoki o‘qituvchi tomonidan belgilangan tartibda ta’lim olishadi. Ushbu joylardan biri onlayn o‘qish uchun o‘quv laboratoriyasi, boshqalari esa turli o‘quv turlari uchun laboratoriya xonalarida bo‘ladi. Stansiya rotatsiyasi modelidan farqli o‘laroq, laboratoriya rotatsiyasi turli joylar bo‘ylab harakatni o‘z ichiga oladi. Laboratoriya rotatsiyasi modeli o‘quv laboratoriyasi va dars xonalari o‘rtasida aylanishni o‘z ichiga oladi.

3. Aylangan sinf (Flipped classroom): Ta’lim materiallari va darslar asosan internet orqali taqdim etiladi, bu esa Aylangan sinfni onlayn uy vazifalarini bajaradigan talabalar bilan farqlanadi. Aylangan sinf yondashuvi BL konsepti bilan mos keladi, bu esa o‘quvchilarga o‘z o‘rganishlarini qachon, qayerda va qanday qilib amalga oshirishlari bo‘yicha ma’lum darajada mustaqillik beradi. Ushbu model talabalar uchun ta’lim kontentiga va o‘qituvchiga onlayn tarzda kirishni tanlash va o‘z tempida online resurslar bilan shug‘ullanish imkonini beradi. Aylangan sinf modeli ta’lim muassasasida o‘qituvchi boshchiligida amaliyotlar (yoki loyihalar) va onlayn kontent hamda darslar o‘rtasida aylanishni o‘z ichiga oladi. [9]

Aylangan sinf modeli rotatsiya modelining eng mashhur sub-modellaridan biridir. Aylangan sinf teskari sinf yoki teskari dars deb ataladi. O‘qituvchilar aylangan sinfda dars vaqtini loyihalar yoki amaliyotlar uchun ishlatishlari mumkin. Ushbu model individual o‘qish imkoniyatlarini ko‘proq taqdim etadi. Adabiyotlar, aylangan sinf modelining eng ko‘p qo‘llaniladigan aralash ta’lim strategiyasi ekanligini ko‘rsatadi.

Aylangan sinf modeli texnologiyaga juda bog‘liq bo‘lib, talabalar uchun o‘z-o‘zini motivatsiya va tartibga ehtiyoj tug‘diradi, shuningdek etarli resurslarsiz amalga oshirish qiyin bo‘lishi mumkin. Bu model muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o‘zgarishlarni talab qiladi, masalan, Internetga ulanish, texnologik qurilmalar, uy vazifalariga yordam va boshqalar.

4. Individual rotatsiya: Bu modelda, berilgan fan doirasida (masalan, matematika), talabalar kamida bitta onlayn o‘qish shaklida bo‘lib, shaxsiylashtirilgan, belgilangan jadval bo‘yicha aylanishadi. Har bir individual talabalar jadvalini algoritm yoki o‘qituvchilar belgilaydi. Individual rotatsiya modeli boshqa rotatsiya modellardan farq qiladi, chunki talabalar har doim ham har bir mavjud stansiyaga aylanishi shart emas.

XULOSA

Ushbu maqolada aralash ta’lim modellari, xususan rotatsiya modelini va uning to'rtta sub-modelini oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash uchun qo‘shimcha o‘rganishlar talab qilinadi.

Texnologiya foydalanish yoki internetga kirish imkoniyati bo‘lmagan talabalar duch keladigan muammolarni hal qilishga qaratilgan yechimlarni taqdim etishi mumkin. Shuningdek, talabalar uchun texnologiya va raqamli vositalar bilan ishlash imkonini berishi sababli raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali bo‘lishi mumkin. Rotatsiya modeli talabalarni shaxsan va onlayn ta’lim o‘rtasida almashishini o‘z ichiga olishi hamda talabalarning mustaqil yangi bilimlarni olishi uchun yaxshi muhit yaratadi. Flex modeli talabalar o‘z vaqtida mustaqil ravishda onlayn o‘rganishlari va zarur bo‘lganda shaxsan yordam olishlarini ta’minlaydi. A La Carte modeli talabalar onlayn kurslarni o‘z an’anaviy darslari bilan birga o‘tashlariga imkon beradi. Yakuniy fikr sifatida, aralash ta’lim uzoq joylarda joylashgan talabalar an’anaviy dars muhitlariga kirish imkoni bo‘lmagan talabalar uchun ta’limga kirishni oshirish imkoniyatiga ega. Shu sababli, barcha talabalar uchun aralash o‘qish jarayonida teng imkoniyatlarni ta’minlash muhimdir, bu ta’limda tenglikni rivojlantiradi. Shuningdek Aralash ta’lim ta’lim muassasalariga ham juda qulaylik yaratish imkonini beradi. O‘quv xonalari va laboratoriyalar kamchilik xolatlarida talabalarni stansiya rotatsiya modellari juda optimal yechim xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Graham, Charles R. "Blended learning models." Encyclopedia of Information Science and Technology, Second Edition. IGI Global, 2009. 375-382.

2. Hrastinski, Stefan. "What do we mean by blended learning?." TechTrends 63.5 (2019): 564-569.

3. Yulianti, Tien, and Ari Sulistiyawati. "The blended learning for student’s character building." International Conference on Progressive Education (ICOPE 2019). Atlantis Press, 2020.

4. Sobchenko, T. "Choice of blended learning models for higher pedagogical education students." Физико-математическое образование 2 (28) (2021): 17-21.

5. https://www.blendedlearning.org/models/

6. https://edtechbooks.org/hyflex

7.https://www.researchgate.net/publication/320858962_Blended_learning_The_state_of_nation

8. https://www.learnupon.com/blog/what-are-the-6-blended-learning-models/

9. https://www.teachtci.com/blog/types-of-blended-learning-models/

TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI



Usmonov Sodiq
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti
sodiqusmonov48@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192972

Annotatsiya. *Maqolada raqamli texnologiya, bulutli texnologiyalar, ta’limda raqamli texnologiyadan foydalanish, raqamli texnologiyani ta’lim tizimi vostilari, raqamli texnologiyasini ustunliklari, narsalar interneti (Internet of Things, IoT), kengaytirilgan haqiqat (AR), virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR) haqida tushuncha berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiya, ta’limda raqamli texnologiya, bulutli texnologiya, narsalar interneti (Internet of Things, IoT); kengaytirilgan haqiqat (AR); virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR)*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Biz ilgari ta’lim dasturlarini an’anaviy usuli ya’ni ma’ruzani yirik xajmli kitoblar va qo‘llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatining u qadar yuqori bo‘lishini ta’minlamagan. Xozirda ta’lim sifatini ko‘tarishda ta’limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan.

Ta’lim tizimining hozirgi holati noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta’lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o‘zlashtirish an’anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta’lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyani o‘zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo‘jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo‘lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an’anaviy ho‘jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni. Masofaviy meditsina xizmatlari ko‘rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarm saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. Biz bu maqolada ta’lim tizimida raqamlashtirishni o‘rniga to‘xtalib o‘tamiz.

Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berilsa ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta’lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi.

Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg‘ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma’lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’lim olishning bir turi deb olsak bo‘ladi.

Demak, raqamli ta’limda:

- xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi;
- vaqt va mablag‘ sarfini keskin kamaytiradi;
- “raqamli dunyo”da yo‘qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo‘lishgi kabilar.

Raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta’lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o‘stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug‘iladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim beruvchilarni o‘z ustida ko‘proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma’lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo‘l kelsa, katta hajmli ma’lumotlar - Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo‘lmoqda: bor-yo‘g‘i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldi.

Masalan, sog‘liqni saqlash sohasida sun’iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg‘or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko‘rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta’lim sohasida virtual o‘quv muhiti va masofaviy ta’limning ta’minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo‘lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo‘ladi, ularni ta’minlovchi institutlar mas’uliyatini oshiradi va sun’iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo‘ladi. Katta ma’lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin.

Quyida raqamli texnologiyalrni bazilariga to‘xtalib o‘tamiz:

Bulutili texnologiyalar – internet foydalanuvchisiga on-layn xizmat sifatida kompyuter resurslarini taqdim etiladigan ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridir.

Raqamli texnologiyalar - narsalar interneti (Internet of Things, IoT). Raqamli axborotga asoslangan asosiy texnologiyalardan biri bu narsalar internetidir. Ko‘pgina maishiy texnikaning elektr tarmog‘iga ulanganligi odatiy holdir, lekin asta-sekin jismoniy dunyoning tobora ko‘proq ob’ektlari Internetga ulanadi, bu esa ma’lumot to‘plash va hatto ushbu ob’ektlarni masofadan turib boshqarish imkonini beradi.

Darhaqiqat, Internetda obyekt va tashqi dunyoning turli parametrlarini o‘z ichiga olgan va Internet orqali obyektni boshqarish imkonini beruvchi jismoniy obyektning virtual nusxasi paydo bo‘ladi. Narsalar internetiga misol qilib, kinoteatrdagi proyektor kabi qurilma texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatiga aniqlangan nosozlik va rejadan tashqari ta’mirlash doirasida almashtirilishi kerak bo‘lgan ehtiyot qismlar ro‘yxati haqida signal yuboradi.

Raqamli texnologiyalar - kengaytirilgan haqiqat (AR). Eng istiqbolli - bu virtual dunyodan real dunyoga ob’ektlarni qo‘shish imkonini beruvchi to‘ldirilgan reallik texnologiyasi. Tasavvur qiling-a, ko‘chada yurib, atrofingizdagi narsalar va odamlar haqida qo‘shimcha ma’lumotni ko‘rasiz. Kengaytirilgan haqiqat misollari allaqachon mavjud va faol qo‘llanilmoqda, ba’zi istiroxat bog‘larida siz jismoniy dunyodagi ob’ekt va virtual dunyo o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatadigan belgilarni allaqachon ko‘rishingiz mumkin. To‘ldirilgan reallik elementlariga ega o‘yinlar faol tarqalmoqda, kiyim-kechak sotiladigan do‘konlarda virtual oyna va jihozlash xonalari mavjud, to‘ldirilgan reallik allaqachon avtomobillarda sinovdan o‘tkazilmoqda. Shu bilan birga, to‘ldirilgan reallik texnologiyalaridan faol foydalanish yo‘lida hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar ham mavjud. Masalan, geopozitsiyani aniqlash vositalarining aniqligi hali ham etarli emas yoki jismoniy dunyo ob’ektlarini ularning virtual nusxalari bilan bog‘lash uchun kompyuterda ko‘rish texnologiyalari nomukammal. Biroq, ishonch bilan aytish mumkinki, yaqin kelajakda ushbu texnologiya yutuq bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar - virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR). Insonning virtual haqiqatda bo‘lishiga imkon beruvchi texnik qurilmalarning paydo bo‘lishi ushbu texnologiyani ko‘ngilochar sohada talabga aylantirdi. Virtual haqiqatning dubulg‘alari va kostyumlari, ixtisoslashtirilgan xonalar sizga noma’lum dunyoga kirishga imkon beradi, bu sizning barcha harakatlaringiz virtual olamdan javob berish uchun dasturlashtirilgan, bu sizga o‘zingizni 100% ga cho‘mish imkonini beradi.

Ta’lim sohasida VR o‘quvchilarning bilim olish uslubini o‘zgartiradi. Sinf xonalarida VR dan foydalanish o‘quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni turli sohalarga nafaqat ta’lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda katta ro‘l o‘ynaydi. Zamonaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Грегг Б. «Производительность систем: Enterprise и Cloud», 2014.

2. https://koptelov.info/publikatsii/digital_technology

3. Bakiyeva, F., & Mirzahmedova, N. (2019). EFFICIENCY OF ONLINE TRAINING. *Theoretical & Applied Science*, (11), 56-58.

4. Bakiyeva, F. R., Primkulova, A. A., & Mirzahmedova, N. D. (2020). Smart And Development Of Modern Education.

5. Мирзахмедова, Н. Д. (2015). Применение макросов в программе Power Point для создания тестовых заданий. Наука, техника и образование, (4 (10)), 180-182.

6. Абдурахманова, Ш. А. (2017). Развитие педагогической науки в Республике Узбекистан. *Молодой ученый*, (1), 428-430.

ELEKTRONIKA VA SXEMALAR FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Primova Go‘zal G‘ulomjonovna
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti,
primovagozal673@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192983

Annotatsiya: *Ushbu maqola elektronika va sxemalar fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri haqida batafsil ma’lumot beradi. An’anaviy ta’lim usullariga qo‘shimcha ravishda qo‘llanilayotgan raqamli simulyatorlar, interaktiv dasturlar va virtual laboratoriyalar yordamida talabalar murakkab texnik tushunchalarni sodda va tushunarli tarzda o‘zlashtira olishadi. Maqolada olib borilgan tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar talabalarning bilim darajasini oshirishi, o‘zlashtirishini kuchaytirishi va fanga bo‘lgan qiziqishini orttirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shuningdek, texnik infratuzilmaning yetishmasligi va o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarining yetarli emasligi kabi muammolar ham muhokama qilinadi. Kelajakda raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish va o‘qituvchilarni tayyorlash orqali ta’lim sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *Elektronika ta’limi, raqamli texnologiyalar, simulyatorlar, virtual laboratoriyalar, ta’lim samaradorligi, interaktiv o‘qitish, ta’lim texnologiyalari, talabalar motivatsiyasi, o‘qitish metodikasi*

Kirish

Digital libraries have become essential platforms for accessing literary works. Institutions like Project Gutenberg and the Internet Archive offer extensive collections of texts that are freely available to the public. These resources not only preserve literary heritage but also ensure that readers from diverse backgrounds can access key works that might otherwise be unavailable due to geographical or economic constraints.

Artificial Intelligence in Literature

AI technologies, particularly machine learning and natural language processing, play a pivotal role in enhancing the accessibility of world literature. These technologies enable:

Text Translation: AI-driven translation tools break down language barriers, allowing readers to engage with literature from different cultures.

Recommendation Systems: Machine learning algorithms analyze user preferences, suggesting literary works that align with individual tastes, thus promoting broader literary exploration.

Content Analysis: Natural language processing can be used to analyze literary styles, themes, and trends, providing insights that enrich the reader's experience.

Implications for Education and Cultural Exchange

The integration of digital technologies and AI in literature not only democratizes access but also fosters educational opportunities. Students and educators can leverage these resources to explore diverse literary traditions, enhancing cross-cultural understanding and empathy. Furthermore, global literary exchange is facilitated through online platforms that connect authors, translators, and readers, creating a vibrant literary community.

Challenges and Considerations

Despite the benefits, there are challenges associated with the reliance on digital technologies and AI. Issues such as digital literacy, access inequality, and the potential for algorithmic bias must be addressed to ensure that these advancements serve all communities equitably. Additionally, the preservation of literary integrity in translation and curation is crucial for maintaining the richness of world literature.

Methods

Questionnaire and Interview Study: The Impact of AI and Digital Technologies in Accessing World Literature Resources

A diverse group of 100 participants was recruited for this study, including students, educators, and literature enthusiasts from various countries. Participants were selected through online forums, social media platforms, and academic institutions.

Data Collection

Data were collected using two primary methods:

Questionnaires: A structured questionnaire was distributed electronically, allowing for quantitative analysis of responses. The questionnaire included demographic information, access to literature, the use of digital technologies, and attitudes towards AI's impact on literature access.

Interviews: Follow-up semi-structured interviews were conducted with 20 participants selected randomly from the questionnaire respondents. These interviews aimed to gather qualitative insights into personal experiences and perceptions regarding the impact of AI and digital technologies on accessing world literature.

Data Analysis

Quantitative data from the questionnaires were analyzed using descriptive statistics, while qualitative data from interviews were analyzed thematically to identify common patterns and insights.

Results

Demographics

The participants in the survey exhibited a diverse age range, with the majority falling between the ages of 18 and 24, comprising 40% of the respondents. The age distribution continued with 30% in the 25-34 range, 20% aged 35-44, and 10% aged 45 and above. In terms of educational background, half of the participants held an undergraduate degree, while 30% had graduated with a master's degree, and 20% possessed a doctorate.

Access to Literature

Frequency of Reading Literature from Other Cultures

The frequency with which participants engaged with literature from other cultures varied. A significant portion read such literature weekly (40%), followed by daily readers at 25%. Monthly readers also accounted for 25%, while a smaller group (10%) reported rarely reading this type of literature.

Formats Used to Access Literature

Participants utilized multiple formats to access literature, with e-books being the most popular medium at 60%. Print books followed at 35%, while online articles and journals were used by 40% of respondents. Additionally, digital libraries and audiobooks were accessed by 45% and 25% of participants, respectively.

Use of Digital Technologies

Frequency of Using Digital Platforms

The survey revealed that 30% of participants used digital platforms daily, and 50% did so on a weekly basis. Monthly users represented 15%, with 5% rarely utilizing these platforms.

Platforms Used

Among various digital platforms, Google Books emerged as the most widely used, with 50% of participants engaging with it. Project Gutenberg and Internet Archive were utilized by 40% and 35% of respondents, respectively, while 30% reported using Kindle.

Impact of AI and Digital Technologies

Use of AI-Driven Recommendation Systems

A notable 60% of participants reported using AI-driven recommendation systems, highlighting their growing role in literature access.

Effectiveness of AI Recommendations

The effectiveness of these AI recommendations was perceived positively, with 30% of respondents finding them very effective and 50% considering them somewhat effective. Only 20% felt that the recommendations were not effective.

Impact of AI on Access to Literature in Different Languages

Respondents noted that AI has significantly improved access to literature in different languages, with 35% affirming this view. A further 45% believed access had somewhat improved, while 15% experienced no change, and 5% felt it was somewhat hindered.

Challenges Faced

Participants identified several challenges in accessing literature. Language barriers were cited by 40%, while technical difficulties and a lack of available texts were noted by 25% and 20% of respondents, respectively. Additionally, 15% reported limited understanding of technology as a barrier.

Perception of Accessibility Improvements

Finally, when asked about the perceived improvements in accessibility, 40% of participants strongly agreed that access had improved, and 45% agreed. Only 10% remained neutral, while 5% disagreed with this perception.

These findings provide valuable insights into the demographics of literature readers, their preferred formats, and the impact of digital technologies and AI on accessibility and engagement with literature from diverse cultures.

Themes Identified

- Enhanced Accessibility: Participants emphasized that digital technologies have made it easier to access a wide range of literary works, particularly those from underrepresented cultures.

1. AI as a Discovery Tool: Many respondents reported that AI-driven recommendation systems help them discover new authors and genres that they might not have encountered otherwise.
2. Language and Translation: Participants highlighted the significance of AI in translating literature, noting that it allows them to read works in their original languages or in accessible translations.
3. Challenges with Technology: Some interviewees expressed frustration with technical issues and the need for greater digital literacy, particularly among older generations.
4. Cultural Exchange: Several participants noted that digital access to world literature fosters greater cultural understanding and appreciation, encouraging readers to explore diverse perspectives.

The study indicates that digital technologies and AI significantly enhance access to world literature, making it more inclusive and diverse. While challenges remain, particularly regarding digital literacy and technical issues, the overall sentiment among participants is one of optimism about the future of literature in the digital age. This research highlights the importance of continuing to develop and improve digital platforms to further facilitate access to global literary resources.

Discussion

The findings from this study highlight the transformative impact of digital technologies and artificial intelligence (AI) on accessing world literature resources. Participants reported notable improvements in accessibility, discovery, and cultural exchange, while also encountering some challenges that need to be addressed.

Enhanced Accessibility

Participants unanimously agreed that digital platforms, such as Project Gutenberg and the Internet Archive, have greatly enhanced their ability to access literary works from diverse cultures.

This democratization of literature aligns with the views of scholars like McLuhan [1], who argues that new media technologies can bridge gaps in access and allow for a more inclusive literary landscape. As McLuhan notes, "The medium is the message," emphasizing how the form of access itself can influence our engagement with literature.

AI as a Discovery Tool

The effectiveness of AI-driven recommendation systems was a crucial factor in the discovery of new literary works. Many participants expressed appreciation for how these systems introduced them to authors and genres they might not have encountered otherwise. This capability resonates with the findings of O'Reilly [4], who discusses how algorithmic curation can personalize user experiences in literature and other media, thus broadening horizons for readers (p. 102). However, concerns about algorithmic bias and representation were also raised, echoing the warnings of Noble [3], about the potential for biased algorithms to perpetuate existing disparities in access to diverse literary voices (p. 3).

Language and Translation

The role of AI in improving access to literature in various languages was another key theme. Many participants highlighted the significance of AI in translation technologies, which allow readers to engage with texts in their original languages or in accessible translations. As Venuti [5] points out, translation is not just a linguistic act but also a cultural one, and advancements in translation technologies can facilitate a deeper understanding of diverse narratives (p. 5). However, participants also expressed concerns about the loss of nuance in translation, suggesting that while technology aids access, it cannot fully replace the richness of original texts.

Challenges with Technology

Despite the benefits, participants noted several challenges associated with using digital technologies. Technical difficulties, a lack of available texts in certain languages, and varying levels of digital literacy emerged as significant obstacles. As Warschauer [6] argues, the digital divide can disproportionately affect certain populations, hindering their ability to fully engage with digital resources (p. 14). Addressing these issues will require collaborative efforts from educators, librarians, and technologists to promote digital literacy and ensure equitable access.

Cultural Exchange

Finally, the study emphasizes the role of digital technologies in fostering cultural exchange. Participants noted that access to diverse literary works enhances their understanding of different cultures and perspectives. This aligns with Appiah's [1] assertion that literature plays a critical role in promoting empathy and cross-cultural dialogue. As more readers engage with global literature, there is potential for increased tolerance and appreciation for cultural differences, reinforcing the importance of these technologies in today's interconnected world.

Conclusion

In conclusion, this study demonstrates that digital technologies and AI are reshaping the landscape of world literature access, making it more inclusive and engaging. While challenges persist, the overall benefits of these advancements are clear. Continued investment in technology, alongside a focus on inclusivity and representation, will be essential in promoting a rich and diverse literary culture.

Digital technologies and artificial intelligence have significantly enhanced access to world literature resources, fostering a more inclusive and engaged global literary community. By overcoming barriers of language and geography, these innovations promote cultural exchange and enrich educational experiences. As we move forward, it is essential to address the accompanying challenges to ensure that the benefits of these technologies are realized by all.

References:

1. Appiah, K. A. (2006). *Cosmopolitanism: Ethics in a World of Strangers*. W.W. Norton & Company. p. 92.
2. McLuhan, M. (2001). *Understanding Media: The Extensions of Man*. MIT Press. p. 7.
3. Noble, S. U. (2018). *Algorithms of Oppression: How Search Engines Reinforce Racism*. NYU Press. p. 3.
4. O'Reilly, T. (2017). *WTF?: What’s the Future and Why It’s Up to Us*. Harper Business. p. 102.
5. Venuti, L. (2012). *The Translation Studies Reader*. Routledge. p. 5.
6. Warschauer, M. (2003). *Technology and Social Inclusion: Rethinking the Digital Divide*. MIT Press. p. 14.

РАКАМЛИ ИКТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА МАМЛАКАТДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ СИФАТИНИ ВА УЛАР САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИСТИКБОЛЛАРИ

Абдуллоев Аслиддин Жунайдуллоевич
Бухоро Давлат Университети
“Иктисодиёт” кафедраси мудири
Иктисодиёт фанлари доктори, профессор
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195819

Дўстова Азиза Қахрамоновна
Бухоро Давлат Университети
Иқтисодиёт кафедраси ўқитувчиси
a.q.dustova@buxdu.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195819

Аннотация: *Ушбу маколада рақамли иқтисодиёт даврида кадрлар тайёрлаш тизимини ривожлантириш ва уларнинг салоҳиятини самарали фойдаланиш имкониятлари муҳокама қилинган. Бугунги кунда рақамли технологиялар барча соҳаларда, шу жумладан, таълим ва меҳнат бозорида ҳам инновацион ечимларни жорий этишни талаб этмоқда. Кадрларнинг рақамли кўникмаларини ошириш, замонавий талабларга жавоб берадиган малака ошириш дастурларини яратиш, таълим жараёнида янги технологияларни жорий қилиш каби чора-тадбирлар бугунги куннинг муҳим вазифаларидан биридир. Шунингдек,*

рақамли иқтисодиёт талабларига мувофиқ кадрларнинг малакаси ва уларнинг салоҳиятини тўлиқ очиб беришда давлат ва хусусий секторнинг ҳамкорлиги муҳим аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: *Кадрлар салоҳияти, тадбиркорлик, ёлланма ҳодимлар, меҳнат ресурслари, кадрлар квалификацияси, касбий салоҳият, меҳнат бозори, корхона, меҳнат унумдорлиги, ишчи кучи самарадорлиги.*

КИРИШ

Янги Ўзбекистон шароитида мамлакат иқтисодиётини ривожланишининг замонавий тенденциялари корхоналар талабларига мос келадиган кадрлар тайёрлаш тизими самарадорлигини ошириш, аҳолини, жумладан, меҳнат бозорига эндигина кириб келаётган ёшларни, хотин-қизларни муносиб иш ўрни билан таъминлашга қаратилган давлатнинг мақсадли чора-тадбирлари асосида соҳадаги мавжуд муаммо ва зиддиятларни маълум бир даражада ҳал этиш имконини бермоқда. Жумладан, мамлакатимиз касбий таълим тизимида тайёрланаётган кадрларни ишга жойлаштиришдаги асосий муаммолардан бири бу касбий ва олий таълим муассасалари билан иш берувчилар ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик муносабатларининг тўғри йўлга қўйилмаганлигидадир. Ушбу ҳолат таълим тизимида тайёрланаётган кадрларни ишга жойлаштириш, жумладан, ўрта ва олий маълумотли аҳолини иқтисодиётнинг расмий секторида ўзига маъқул келадиган иш ўрнини топа олмаслиги натижасида ташқи меҳнат миграцияси ёки иқтисодиётнинг норасмий секторида банд бўлишига олиб келмоқда. Бу эса ўз навбатида мамлакатдаги ижтимоий вазиятларнинг кескинлашувига олиб келади.

МЕТОЛОГИЯ

Корхоналар бошқаруви амалиётида кадрлар салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш борасида амалга оширилаётган чора- тадбирларнинг таъсир этиш йўналишлари ва кўламидан келиб чиққан ҳолда, иқтисодий адабиётда бу борадаги турли усуллар ва тамойилларнинг шаклланишига олиб келган. Бозор иқтисодиётининг тобора ривожланиб бориши натижасида корхоналар ўртасида рақобат курашининг кучайиши бошқарув жараёнида кадрлар салоҳиятидан фойдаланиш тамойиллари ва усулларини тобора такомиллашиб боришига олиб келди.

Таҳлилларга кўра, XX асрнинг 80 йилларига қадар бўлган даврда бошқарув жараёнида ҳодимлар салоҳиятидан фойдаланиш “раҳбар-ҳодим” тамойилига асосланган ҳолда ташкил этилганлигини кўришимиз мумкин бўлади. Бунда корхона фаолиятини бошқариш, жумладан, кадрлар салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини оширишда вужудга келадиган муносабатларда раҳбарлар ва улар қўл остидаги ҳодимлар ўртасидаги ўзаро ҳамкорликка асосланган фаолияти йўналишлари мутлақо рад этилган бўлиб, раҳбарларнинг ўз ҳодимларига таъсир этиш ҳуқуқининг устуворлигини кўришимиз мумкин бўлади.

С.К.Прахард ва Г.Хаммерлар томонидан амалга оширилган тадқиқотларда эса “кадрлар салоҳияти – корхона ёлланма ҳодимларининг ишлаб чиқариш жараёниларида шахсий физиологик ва ақлий қобилиятлари билан иштирок этиши ҳисобига эришилган самарадорликни англатади”, деган фикрни кўришимиз мумкин бўлади. Олимлар томонидан

ишлаб чиқилган тарифда ишлаб чиқариш жараёнида меҳнат ресурсларидан фойдаланишда уларнинг қўшган хиссаларига асосланилган бўлиб, кадрлар салоҳияти амалиётда фойдаланилаётган ишчи кучи меҳнатини англатади, деган хулосага келиш мумкин бўлади.

Б.М.Генкин фикрича, “кадрлар салоҳияти бу инсонларнинг меҳнатда бандлиги шароитида шаклланиб, жамланиб борадиган билим ва тажрибаларининг корхона ишлаб чиқариш жараёнида амалда фойдалана олиши
билан боғлиқ бўлган шахсий қобилиятларини ифодалайди”. Олим томонидан ишлаб чиқилган тарифда кадрлар салоҳияти уларнинг меҳнат стажи билан боғлиқ ҳолда тушунтирилганлиги билан аҳамиятли ҳисоланади. Ушбу ҳолат корхона бошқарувида ишлаб чиқариш жараёнларининг технологик ривожланиши кадрлар салоҳияти билан бевосита боғлиқ бўлади, деган хулосага келиш имконини беради.

А.А.Богданова томонидан амалга оширилган тадқиқотлаарда “раҳбар- ҳодим” тамойилига асосланган бошқарув амалиёти қуйидагича изоҳланади. ““Раҳбар-ҳодим” тамойили асосида корхоналар бошқарувининг ривожланиши “объективлик-субъективликнинг ягоналиги” ғояси асосида қурилган бўлиб, бунда раҳбарнинг ўз қўл остидаги ҳодимига “бевосита таъсир” этишига устуворлик қаратилади”. Бундан кўриниб турибдики, “раҳбар-ҳодим” тамойили асосида корхона бошқарувида кадрлар салоҳиятидан тўлиқ ва самарали фойдаланиш амалиёти марказлашган бошқарув амалиёти учун хос ҳисобланали.

Юқорида келтириб ўтилган “раҳбар-ҳодим → ҳодим-ҳодим → ҳодим- раҳбар” тамойили асосида корхона бошқарувида кадрлар салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг базавий йўналишлари мамлакатда амал қилаётган иқтисодий тизимнинг очиқлиги, унинг ривожланганлик даражаси ва миллий иқтисодиёт учун хос бўлган хусусиятлардан келиб чиқиб, қўшимча йўналишлар билан тўлдирилиши мумкин ҳисобланади.

ТАҲЛИЛ

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ёшларга касбий таълим хизматлари кўрсатишнинг сифатини такомиллаштиришга қаратилган ислоҳотлар натижасида бугунги кунда аксарият иш берувчилар ўз корхоналарига ёш ҳодимларни ишга ёллашга бўлган интилишлари нисбатан юқори эканлиги Жаҳон банки экспертлари томонидан мамлакатимизда ёшларнинг бандлиги соҳасидаги муаммолар ва тўсиқларга бағишланган тадқиқотлари натижаларида ўз аксини топди. Жумладан, мамлакатимиз иқтисодиёти тармоқларида ёш кадрлари, жумладан, касбий таълим муассасалари битирувчиларини ишга қабул қилишни хоҳловчи иш берувчилар жами иш берувчилар сонига нисбатан 65,0 фоизни ташкил этмоқда. Ўтказилган сўровнома натижаларига кўра, иш берувчиларнинг 23,0 фоизи ёшлар, айниқса касбий таълим муассасалари битирувчиларидаги мустақил даромадга эга бўлишдаги шахсий мотивация, касбни пухта ўрганишга бўлган интилиши ва корхонада яратилган меҳнат шароитларига ўрта ва ундан катта ёшдаги ишчи кучига нисбатан тезроқ мослашиш қобилиятига эга эканлигини таъкидлашган (1-расмга қаранг).

1-расм. Ўзбекистонда ёшларни, жумладан, касбий таълим битирувчиларини ишга ёллашдаги иш берувчилар томонидан афзал кўриладиган жиҳатлари (жами иш берувчилар сонига нисбатан фоизда)

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, иш берувчининг хўжалик фаолияти юритиш соҳасига қараб, ёшларни, жумладан, касбий таълим муассасалари битирувчиларини ишга ёллаш ва ёшларнинг ўрта ва катта ёшдаги ишчи кучига нисбатан афзал жиҳатлари ўзаро фарқланади. 1-расм маълумотларига кўра, корхона хўжалик фаолияти замонавий компьютер технологиялари билан боғлиқ бўлмаган соҳаларда касбий таълим муассасалари битирувчиларини ишга ёллашни афзал кўрувчи иш берувчилар сони 16 фоизни ташкил этса, ушбу кўрсаткич ҳодимнинг меҳнат фаолияти компьютер билан боғлиқ бўлган соҳаларда 21 фоизни, хизматлар кўрсатиш соҳасида 22 фоизни, чакана савдо соҳасида эса 20 фоизни ташкил этмоқда.



2-расм. Ўзбекистонда иш берувчиларнинг турлари, ҳажми, ҳудуди ва тармоғи бўйича корхонада касбий таълим битирувчиларининг ёлланма ҳодимлар таркибидаги улуши, (корхона ёлланма ҳодимлари сонига нисбатан фоизда, 2021 й.)

Таҳлилларга кўра, мамлакатимиз миллий иқтисодиёти тармоқларида хўжалик фаолияти юритаётган корхоналарда ёшлар, жумладан, касбий таълим муассасалари битирувчиларининг корхонанинг жами персонали таркибидаги улуши 12 фоизни ташкил этмоқда. Ушбу кўрсаткич халқаро йўналишда фаолият юритувчи корхоналарда 18 фоизни, иш ҳодимлари сони 20 тадан кўп бўлган корхоналарда 17 фоизни, ижобий ривожланиш тенденциясига эга бўлган корхоналарда эса 14 фоизни ташкил этаётганлигини кузатишимиз мумкин. Шу билан биргаликда, республика ҳудудлари кесимида Тошкент минтақасида (14 фоиз) жойлашган корхоналарда бошқа ҳудудларга (11 фоиз) нисбатан ёшларни, жумладан касбий таълим муассасалари битирувчиларини ишга ёллаш кўрсаткичи юқори эканлиги аниқланган (2-расмга қаранг).

Таҳлилларга, аксарият ҳолатларда корхонадаги иқтисодий вазиятларнинг кескинлашиши шароитида корхона раҳбарлари ёш ҳодимларни ишдан бўшатадилар. Шу билан биргаликда, корхона персонали таркибида ёшлар, жумладан, касбий таълим битирувчилари бўлган иш берувчиларнинг 28 фоизи улардаги муомала маданиятининг ёмонлиги сабабли ишдан бўшатганлигини маълум қилган. Ушбу келтирилган сабаблар касбий таълим хизматлари сифати билан боғлиқ бўлмаган ҳолда, корхонанинг хўжалик фаолияти ва ёшларнинг шахсий фазилатлари билан боғлиқ ҳисобланади. Касбий таълим хизматлари кўрсатиш сифати билан боғлиқ бўлган ҳолатлар, яъни иш вақтига мослаша олмасли (17 фоиз), техник кўникмаларнинг етишмаслиги (14 фоиз), синов муддати асосида тузилган меҳнат шартномасининг тугаши (12

фоиз) сабабли касбий таълим муассасалари битирувчиларини ишдан бўшатиш ҳолатлари ҳам учраб туради (3.10-расмга қаранг). Бу эса ўз навбатида кўрсатилаётган касбий таълим дастурлари сифатини ошириш ва иш берувчи талабларига мос келадиган кадрларни тайёрлаш бўйича бюртмалар портфели асосида касбий таълим хизматларини ташкил этишни ривожлантириш заруриятини уйғотади.

Прогнозларга кўра, 2026 йилга бориб мамлакатимиз саноат тармоқларида банд бўлганлар улуши 2021 йилга нисбатан қарийб 3,6 фоизга ортиб, 17,2 фоизга етиши мумкин. Бунда аввало, ҳар бир вилоятда йирик саноат корхоналари, кластерларни ташкил этиш ва аҳолини тадбиркорлик фаолиятига жалб этишни назарда тутувчи инвестиция дастурларини изчи амалга оширилиши натижасида, саноат тармоқларида ҳар йили ўртача 150 мингга яқин кадрларга бўлган эҳтиёжни шакллантиришга эришиш зарур бўлади (ходимларнинг ҳаракатини ҳисобга олмаган ҳолда).



3-расм. 2022-2026 йилларда мамлакатимиз саноат тармоқларида аҳоли бандлиги бўйича прогноз кўрсаткичлар, млн. кишида

Мамлакатимиз саноати тармоқларида аҳоли бандлиги улуши табиий ва иқтисодий салоҳият, ресурслардан самарали фойдаланиш ҳисобига ишлаб чиқариш қувватларини кучайтириш, узоқ муддатли истиқболда синергик таъсирга эга бўлган инновацион техника-технологияларга асосланган ишлаб чиқариш ва хизматларни ташкил этилиши натижасида ортади. Республиканинг Бухоро, Жиззах, Наманган, Сурхондарё ва Хоразм вилоятлари иқтисодиётида саноат тармоқларини ривожлантиришга қаратилган ислоҳотларга устуворлик қаратилиши натижасида ушбу ҳудудларда саноатлашиш даражасини оширишга эришилиб, ҳудудлардаги саноат тармоқларида бандлик ва меҳнат унумдорлигини самарадорлигини яхшиланишига хизмат қилади.

Жумладан, мамлакатимиз саноати тармоқларида юқори қўшилган қийматга эга, экспортга йўналтирилган инновацион маҳсулотларни ишлаб чиқариш, саноат тармоқларига янги турдаги замонавий хизматлар (компютер дастурлаш, ускуналарни таъмирлаш ва техник хизмат кўрсатиш) кўрсатишни ривожлантиришга қаратилган истиқболли лойиҳаларни амалга ошириш орқали Андижон, Жиззах, Наманган, Тошкент ва Хоразм вилоятлари саноати тармоқларини бошқа ҳудудларга нисбатан жадал ривожлантириш тенденциясига эришиш мумкин бўлади. Натижада, ҳудудлар кесимида саноат тармоқларида банд аҳоли улуши бўйича Навоий (28,9%), Тошкент (22,8%), Фарғона (19,6%) вилоятлари ва Тошкент шаҳри (20,3%) нинг

кўрсаткичлари республиканинг бошқа ҳудудларига нисбатан юқори бўлишига эришилади. Шу билан биргаликда мамлакатимиз саноати тармоқларида банд аҳолининг салмоқли қисми (45-50 фоизи) мазкур саноатлашган ҳудудлар ҳиссасига тўғри келиши кутилаётган бўлса, Сурхондарё, Жиззах ва Хоразм вилоятлари саноати тармоқларида банд аҳолининг улуши республиканинг бошқа ҳудудларига нисбатан паст бўлиши кутилмоқда.

ХУЛОСА

Юкоридагиларни инобатга олган холда шундай хулосага келиш мумкинки, кейинги йилларда Ўзбекистон меҳнат бозорида шифокорлар, муҳандислар, технологлар, дастурчилар ва юқори малакали ўқитувчиларга талаб юқори бўлиши кутилмоқда. Шуни таъкидлаш керакки, кадрларга бўлган талабни сифатли прогнозлаш учун ҳар чоракда иш берувчилар ўртасида кадрларга бўлган талабни касблар бўйича аниқлаш мақсадида сўров ўтказиш лозим. Бу биринчи навбатда меҳнат бозорида кадрларга бўлган ҳақиқий эҳтиёжни аниқлаш, талаб паст бўлган мутахассисларни тайёрлашга йўл қўймаслик, шунингдек иқтисодиётнинг кадрларга бўлган узоқ ва ўрта муддатли эҳтиёжини тармоқлар ва касблар бўйича сифатли прогнозларни ҳисоблаш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Michie J. & Sheehan M. Business strategy, human resources, labour market flecibility and competitive advantage. The International Journal of Human Resouce Management, Vol. 15, Issue 3. 2005. – pp. 445-464

2. Piwowar-Sulej, K. 2021. Human resources development as an element of sustainable HRM. Available at https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7470767/. Accessed 20 May 2022.

3. Pratt, M & Florentine, S. 2022. Employee retention: 10 strategies for retaining top talent. Available at https://www.cio.com/article/251060/employee-retention-10-strategies-for-retaining-top-talent.html. Accessed 13 May 2022.

4. Jenny, M. & Nancy Brown, J. 2004. An analysis of current human resource management publications. Available at https://www.emerald.com/insight/analys-HRM. Accessed 14 May 2022.

5. Goffee R, & Jones, G. 2013. Creating the Best Workplace on Earth. Available at https://hbr.org/2013/05/creating-the-best-workplace-on-earth. Accessed 9 May 2022.

6. Gewertz, M. 2016. Defining Enterprise. Available at https://www.eabooks.net/defining-enterprise. Accessed 20 April 2022; Friedman, E. 2019. 4 External Factors that Affect Human Resource Management. Available at https://blog.shrm.org/blog/4-external-factors-that-affect-human-resource-management. Accessed 13 May 2022.

7. Абдурахмонов Қ.Х. ўзбекистонда инсон омили ва манфаатлари – энг олий қадрият. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт матбаа уйи, 2017. – 364 б.

8. Муратов Х.И. Кадрлар салоҳиятини инновацион ривожлантиришни самарали бошқариш // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, № 3, май-июн, 2016. – 11 б. URL: https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/13_X_Muratov.pdf

9. Имомов В.А. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ аҳолиси меҳнат потенциалидан самарали фойдаланиш. и.ф.н. дисс. – Т.: ЎзР ФА Иқтисодиёт институти, 2009. – 155 б.

10. Тўхтабоев А. Маъмурий менежмент. Т.: Молия, 2003. – 174 б.
11. Абдураҳманов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р., Зокирова Н.К. Персонални бошқариш – Т.: Ўқитувчи, 2008. – 161 б.
12. Қосимова Д.С. Бошқрув назарияси. – Т.: Алоқачи, 2009. – 38 б.
13. Сагатов Т. Кадрларни бошқаришда мақбул қарорлар қабул қилишнинг аҳамияти. Т.: Тошкент, 2016. – 34 б.
14. Моисеева Е.Г. Управление персоналом. Современные методы и технологии: учеб. пособ. Саратов: Вузовское образование, 2017. – 139 с.

SUN’IY INTELLEKTNING AFZALLIKLARI VA QO‘LLANISH SOHALARI

Mamatova Gulshoda Toir qizi
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti magistranti
gulshoda690@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195933

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun’iy intellekt tushunchasi haqida izoh berib o‘tiladi. Hozirgi kunda insoniyat hayotida tutgan o‘rni, qo‘llanilayotgan sohalari haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Afzalliklari sanab o‘tilib, kamchiliklari, xavfli tomonlari ko‘rib chiqiladi. Transport, qishloq xo‘jaligi, turizm sohalarida qo‘llanib kelinayotgan texnologiya va sun’iy intellektlarga alohida so‘z yuritiladi. Sun’iy intellektni o‘rganish va u haqda ma’lumotlarga ega bo‘lish davr talabidir. Sun’iy intellekt va uning imkoniyatlari haqida qisqacha ma’lumotlar beriladi. Aslida uning imkoniyatlari juda ko‘pdir.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, kognitiv qobiliyat, algoritm, GPS datchik, robot, zamonaviy texnologiyalar, uchuvchisiz apparatlar, prognoz.*

Kirish

Zamonaviy tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan hayotimizda texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati katta. Zamon talablariga muvofiq texnologiyalarni amaliyotga joriy etish nafaqat muhim, balki zaruriyatga aylangan. Zamonaviy texnologiyalar insoniyat hayotiga kirib kelishi bilan, ular kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi, bu esa haqiqatdan ham shunday deb aytishga asos bo‘ladi. Hozirgi kunda ko‘plab muhokamalar va tadqiqotlar ob’ekti bo‘lgan sun’iy intellektning vazifalari, inson hayotidagi roli, eng ko‘p qo‘llaniladigan sohalar va sun’iy intellektni ishlab chiqishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar haqida so‘z yuritamiz.

Adabiyotlar tahlili va metadologiya

Aql-idrok va tafakkur insonni tashqi olam bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘laydigan, fikrlash va xulosa chiqarish qobiliyatidir. Inson o‘z aql-idrokidan foydalangan holda ma'lumotlarni qabul qiladi va ularni tahlil qilib, biror qarorga keladi. Bu jarayon miyaning eng yuqori funksiyasi sifatida kognitiv

qobiliyat yoki kognitiv funksiyani ifodalaydi. Ushbu xususiyat insoniyatga fikrlash, yangi g‘oyalarni kashf etish va ularni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, insoniyatning izlanishlari natijasida paydo bo‘lgan tushunchalardan biri sun’iy intellektdir. Aql-idrok – bu insonning barcha kognitiv qobiliyatlarini o‘zida mujassam etgan muammolarni o‘rganish va hal qilishning umumiy qobiliyati: his qilish, idrok etish, xotira, tasvirlash, fikrlash, tasavvur qilish. Sun’iy intellekt – bu insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaradigan intellektual sun'iy tizimdir. Ushbu atama turli maqsadlar va yo‘nalishlarga ko‘ra yaratilgan, inson aqlini o‘zida aks ettiruvchi robot yoki qurilmalarni ifodalaydi. Odatda, biz robotlarni so‘zlashadigan, buyruqlarga amal qiladigan va ma'lum ko‘nikmalarga moslashtirilgan mashinalar sifatida tasavvur qilamiz. Sun’iy intellekt ham shunga o‘xshash, lekin murakkabroqdir, chunki u inson bajarishi mumkin bo‘lgan vazifalarni mustaqil ravishda bajarish qobiliyatiga ega. Sun’iy intellekt tizimlarining kognitiv funksiyalarni, ya’ni o‘rganish, tajribadan foydalanish, berilgan parametrlarga moslashish va faqat insonlar (yoki undan yuqori hayvonlar) uchun xos vazifalarni bajara olish qobiliyati mavjuddir[1]. Intellekt (lotincha intellectus – sezish, idrok etish, anglash, tushunish) yoki aql – psixikaning yangi vaziyatlarga moslasha olish, tajriba asosida o‘rganish va eslab qolish qobiliyatidan iborat sifati. Hamda tushunish va mavhum tushunchalarni qo‘llash va atrof-muhitni boshqarish uchun o‘z bilimlaridan foydalanish. “Sun’iy”so‘zi, inson tomonidan yaratilgan va biror texnika yoki mashinaga qo‘llanilganini anglatadi. Boshqacha aytganda, bu intellektual qobiliyat tabiiy emas, balki insonning harakatlari asosida belgilangan vazifani bajarish uchun o‘rnatilgan. Endi tasavvur qilaylik, yuqorida ta’riflangan xususiyatlar biror robot yoki mashinaga jamlangan va biz ularga o‘z xizmatlarimizni ishonamiz. Sun’iy intellekt esa o‘z ichiga olgan dasturlar yordamida vazifalarni to‘g‘ri bajarishda bizga ko‘mak beradi. Hozirgi kunda har birimiz foydalanayotgan sun'iy intellekt kundalik hayotimizda muhim yordamchiga aylangan.

Sun’iy intellekt to‘rtinchi sanoat inqilobining muhim komponentidir [2]. Uning rivojlanishiga qanchalik ahamiyat berilsa, kelajakda uni to‘g‘ri qo‘llash va huquqiy jihatdan tartibga solish masalasi ham shunchalik muhim bo‘lib qoladi. Chunki biz bunday qurilmalardan kim, qachon va qanday maqsadlarda foydalanishini bilmasak, kelajak avlodning xavfsizligiga ta'sir ko‘rsatishiga kafolat bera olmaymiz. Shuning uchun, sun’iy intellektdan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha hukumatlar o‘rtasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.Albatta, sun’iy intellekt nafaqat fan va texnologiya sohalarida, balki iqtisodiy jihatdan ham har bir ishda muhim sherikga aylangan. Shu bois, hukumatlar sun’iy intellektni xavfsiz va muqobil tarzda ishlatish uchun ilm-fan vakillari bilan hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor bermoqda.

Sun’iy intellekt o‘z vazifalarini bajarishda insonning ishlarini yengillashtirish, qulay va samarali yechimlar taklif qilish kerak. Yaqin vaqtgacha sun’iy intellekt dastur xotirasida mavjud yechim sifatida ko‘rilgan, ya’ni yangi ijodiy funksiyalardan ko‘ra, kompyuter dasturidagi mavjud algoritmlarni o‘z ichiga olgan yechim sifatida qabul qilingan. Robototexnika rivojlanishining dastlabki bosqichlarida robotlar harakatlarini faqat dastur tomonidan belgilangan algoritmlar asosida bajaradi, deb o‘ylangan [3].Sun’iy intellekt esa robototexnika va dasturlash rivojlanishining yangi bosqichidir, u robotga dasturga kiritilmagan “yangi”qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilish imkonini beradi. Boshqa so‘z bilan aytganda, birinchi avlod robotlari berilgan vazifani faqat dasturda ko‘rsatilgan buyruqlar asosida bajargan bo‘lsa, sun’iy intellekt dasturda aniqlanmagan bo‘lsa ham,

o‘zining mustaqil qaror qabul qilish funksiyasi bilan ajralib turadi. Sun’iy intellekt atrof-muhitni o‘rganish, unga bog‘liq vazifalar va tushunchalarni eslab qolish, tajriba orttirib uni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatiga ega. Shu tarzda, u nafaqat insonlar, balki hayvonlarning ham funksiyalarini bajarish imkoniyatiga ega. Sun’iy intellektni ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlantirish faqat kompyuterlar yaratilgandan so‘nggina mumkin bo‘lgan. Sun’iy intellekt atamasi 1956-yilda AQShdagi Stenford universitetida o‘tkazilgan seminarda kiritilgan [4]. Shu vaqtdan boshlab bu atama keng qo‘llanilmoqda. Seminarda hisoblash jarayonlaridan tashqari, mantiqiy vazifalarni bajarishga qodir mashinalar haqida ham gapirilgan. XX asrning o‘rtalaridan boshlab bu soha bilan qiziqadigan mutaxassislar soni ortib, turli tajribalar o‘tkazila boshladi.Bu holat, to‘rtinchi sanoat inqilobining asosiy poydevorlaridan biriga aylandi. Har bir sanoat inqilobi insoniyatni yangi yuksalish darajasiga olib chiqdi. Hozirgi inqilob esa insonga o‘zi kabi fikrlovchi mashinalarni taqdim etmoqda. Hatto ba’zida sun’iy intellekt insonlarni fikrlash va vazifalarni bajarishda ortda qoldirishi mumkin. Bu sun’iy intellekt nafaqat kasblarni to‘liq o‘zlashtirib, mustaqil faoliyat yurita boshlaganini ko‘rsatadi.U juda ko‘p sohalarda qo‘llanilib, hatto mustaqil ishlash imkoniyatiga ega. Bunga bir qancha sabablar mavjud. Birinchi navbatda, uning narxi arzon va ko‘plab ma’lumot va funksiyalarni o‘zida jamlaydi. Xatolik qilish ehtimoli past bo‘lib, belgilangan vazifalarni algoritmga muvofiq bajarishning eng arzon va samarali yo‘llari bilan dasturlanadi. Xalqaro raqobatbardoshlilikni ta’minlashda sun’iy intellekt muhim rol o‘ynaydi. Raqobatchi kompaniyalar sun’iy intellektdan foydalanib, o‘z bizneslarini rivojlantirishi, xaridorlarga mahsulot va xizmatlarini to‘liq taqdim etishi va sifatli xizmatlar taklif etish orqali yaxshi foyda olishlari mumkin.

1980-yillarning boshlarida hisoblash sohasidagi olimlar Barr va Feigenbaum sun’iy intellektni (SI) quyidagicha ta’rifladilar:

“Sun’iy intellekt – bu aqlli kompyuter tizimlarini, ya'ni biz an'anaviy ravishda inson ongiga bog‘lab kelayotgan imkoniyatlarga ega tizimlarni yaratishga qaratilgan informatika sohasi. Ushbu soha tilni tushunish, o‘rganish, fikrlash, muammolarni hal qilish va boshqa masalalarni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lishni o‘z ichiga oladi”.Keyinchalik, bir qator algoritmlar va dasturiy ta’minot tizimlari sun’iy intellekt deb atalib, ularning o‘ziga xosligi shundaki, ular muayyan masalalarni hal qilishda o‘ylayotgan inson kabi fikr yurita olish qobiliyatiga ega.

SI ning asosiy xususiyatlari tilni tushunish, o‘rganish, fikrlash va eng muhimi, harakat qilish qobiliyatidir.

SI – bu sifatli va tez rivojlanayotgan tegishli texnologiyalar va jarayonlar majmuasi, masalan: tabiiy tildagi matnni qayta ishlash ,mashinani o‘rganish ekspert tizimlari virtual agentlar (chatbotlar va virtual yordamchilar)

2021 yilga kelib tadqiqotchilar SI turlarining quyidagi tasnifidan foydalanganlar:

Sun’iy Super Intellikt (SSI) gipotetik sun’iy intellekt bo‘lib, u nafaqat insonning maksimal qobiliyatlarini takrorlay oladi, balki undan ham oshib ketadi. SSIga ishonuvchilar, u insonni o‘z irodasiga bo‘ysundirish uchun uning fikrlari va his-tuyg’ulariga kirib borish qudratiga ega bo‘lishiga ishonishadi. Mana masalan: futuristik dahshatli hikoyalar yoki sun’iy intellektning haqiqiy kelajagi

Shuningdek, gipotetik jihatdan kuchli yoki umumiy SI (Sun’iy umumiy intellekt, SUI) oqilonalik nuqtai nazaridan SSI dan bir pog‘ona pastroq bo‘lib, ushbu turdagi SI tarafdorlari o‘z

e’tiqodlarida hech bo‘lmaganda ishlashga qodir bo‘lgan mashinalarni yaratish imkoniyati bilan cheklangan [1].

SI ning funksionalligi va bajarish tezligi tufayli yangi tizimlarni yaratish natijasida paydo bo‘lgan raqamli iqtisodiyot paradigmalarini, ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish tezlashmoqda . SI katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor, takroriy ishlov berish imkoniyatlari va aqlli algoritmlar bilan birlashtirib ishlaydi, bu dasturlarga ma’lumotlardagi naqsh va xususiyatlardan avtomatik ravishda o‘rganish imkonini beradi. SI ko‘plab nazariyalar, metodologiyalar va texnologiyalarga ega bo‘lgan murakkab fandir.

"Sun’iy intellekt" bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi - bu miya ishini tushunishga intilish, inson ongining sirlarini ochish va inson aqlining ma’lum darajasiga ega mashinalar yaratish muammosi. Intellektual jarayonlarni modellashtirishning asosiy imkoniyati shundan kelib chiqadiki, miyaning har qanday funktsiyasi, cheklangan miqdordagi so‘zlardan foydalangan holda qat’iy bir ma’noli semantikaga ega tilda tasvirlangan har qanday aqliy faoliyat printsipial ravishda elektron raqamli kompyuterga o‘tkazilishi mumkin [3].

Muhokama va natijalar

Sun’iy intellektning qo‘llanilayotgan sohalarini ko‘rib chiqamiz. Sun’iy intellekt tizimlari kosmik kemalarni qurish, sanoatda metall va yog‘ochlarga ishlov berish, oziq-ovqat va yengil sanoat, yoqilg‘i sanoati, mashinasozlik, transport va xizmat ko‘rsatish sohalari, shuningdek, turizmni qo‘llab-quvvatlash sohalarida keng qo‘llaniladi.

Transport sohasida uchuvchisiz transport vositalari rivojlanmoqda. Uchuvchisiz apparatlarga qiziqish har kuni ortib bormoqda. Ushbu qurilmalar yer bilan ikki tomonlama aloqa o‘rnatadigan radioperidatchik orqali bog‘lanadi. Qurilma GPS datchigi yordamida fazoda harakatlanishni kuzatadi va uning bosh qismida biometrik sensorlar mavjud bo‘lib, ular tezlik, balandlik va tezlanishni o‘lchab boradi. Bu holatda, yerdan aloqani uzmasdan, barcha ma'lumotlar doimiy ravishda yetkazib beriladi. Bu, o‘z navbatida, yerdan turib uchuvchisiz apparatni boshqarishga imkon beradi. Ayniqsa, bunday qurilmalar inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan joylarni ko‘rish, o‘rganish va tadqiq qilishda juda foydali natijalar berishi mumkin. Boshqaruvchi kerakli ma'lumotlarni olgach, apparatning topshirig‘ini o‘zgartirish yoki vazifani tugatishga buyruq berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu vazifaning to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishini ta'minlaydigan muhim omil hisoblanadi.Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida sun’iy intellektni qo‘llash bir qator muammolarni hal qilishda yordam beradi. Masalan, fermerlar yovvoyi o‘tlarga qarshi kurashishda ishchi kuchidan ma’lum bir haq evaziga foydalanishgan. Ushbu an’anaviy usul ko‘p vaqt va mehnat talab qilardi, samaradorligi esa unchalik yuqori bo‘lmagan, yaxshi natija olish esa qiyin edi. Sun’iy intellektning rivojlanishi fermerlar uchun “Avtomatik begona o‘tlarni tozalash” deb nomlanuvchi yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu jarayon robotlar va sun’iy intellektga asoslangan mashinalar yordamida amalga oshiriladi, bunda lazer nurlari qo‘llaniladi [5]. Robotlar dala maydonini o‘rganib chiqib, o‘zlarida mavjud dasturlar orqali begona o‘tlarni aniqlashadi. Keyin esa lazer yordamida bu begona o‘tlarni yo‘q qilish vazifasini bajaradilar. Bunday tizim fermerlarga ancha qulayliklar taqdim etadi, chunki u hosildorlikni oshirishga, raqobatchilarini ortda qoldirishga va ish jarayonlarini yuqori darajada texnologik rejalashtirishga imkon beradi.

Sun’iy intellekt turizm sohasida ham keng qo‘llanilmoqda va bu sohadagi xizmatlarni yaxshilash, mijozlar tajribasini oshirish va operatsiyalarni samarali boshqarish uchun muhim rol o‘ynamoqda. Quyida sun’iy intellektning turizmda qanday qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz:

Shaxsiylashtirilgan tajriba: Sun’iy intellekt mijozlarning oldingi sayohatlari, qiziqishlari va xohishlariga asoslanib shaxsiylashtirilgan tavsiyalar beradi. Misol uchun, sayohatchilarga ularning didiga mos keladigan joylar, mehmonxonalar yoki faoliyatlar taklif qilinadi.

Chatbotlar va mijozlarga xizmat ko‘rsatish: Turizm kompaniyalari va mehmonxonalar sun’iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalanib, mijozlarga 24/7 xizmat ko‘rsatadilar. Bu xizmatlar mijozlar savollariga tez javob berish, rezervatsiyalarni amalga oshirish yoki muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Rejalashtirish va rezervatsiya jarayoni: SI algoritmlari sayohatlarni rejalashtirish jarayonini osonlashtiradi. Mijozlar uchun eng yaxshi narxlar, parvozlar va mehmonxonalarni topishda yordam beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar kelajakdagi sayohatlarni optimallashtirishda foydalaniladi.

Sun’iy intellekt (SI) kundalik hayotimizga tezkor kirib kelmoqda va bu jarayonning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy oqibatlari ham bor. Eng muhim xavflardan biri ishsizlikning oshishi bo‘lishi mumkin. Texnologiyalar takomillashgan sari, SI va robotlar ko‘plab vazifalarni amalga oshira oladi, bu esa insonlarning mehnatga bo‘lgan ehtiyojini kamaytirishi ehtimolini oshiradi. Sun'iy intellekt xodimlardan farqli ravishda dam olishni talab qilmaydi, mehnat haqi olmaydi, sog‘lik bilan bog‘liq muammolarga ega emas va uzluksiz ishlashga qodir.Bundan tashqari, kelajakda sun’iy intellekt huquqiy hujjatlarni o‘qish yoki tibbiy maslahatlar berish kabi murakkab xizmatlar ko‘rsata boshlaydi. OpenAI asoschisi Sem Altman [6]bu texnologiyalarning besh yil ichida yuqoridagi sohalarda faoliyat yuritishini ta’kidlagan. Bu esa, SI insoniyatning hayotiy qarorlariga ta’sir ko‘rsatishi va hatto odamlar uchun qaror qabul qilishga ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.Shunday qilib, sun’iy intellektning tez rivojlanishi inson hayotining ko‘p jabhalariga ta’sir etadi, va uning salbiy oqibatlarini oldini olish uchun ehtiyot choralarini ko‘rish muhimdir. Vaqt o‘tishi bilan bu texnologiyalar qanday yo‘nalishda rivojlanishi va odamlarning kundalik hayotiga qanchalik ta’sir qilishi aniq bo‘ladi.

Yana bir xavfli jihati shundaki, kelajakda insoniyat robotlar ustidan nazoratni yo‘qotishi mumkin. Ba’zi olimlar sun’iy intellektni insoniyat uchun apokalipsisga olib kelishi mumkin bo‘lgan texnologiya deb hisoblashadi. Bu qarashlar hozircha taxminga asoslangan bo‘lishi mumkin, ammo shuni tan olish kerakki, bugungi kundagi hayotimizni sun’iy intellektsiz tasavvur qilish qiyin. U bizni atrofimizdagi ko‘plab jarayonlarda qo‘llab-quvvatlamoqda. Muhimi, sun’iy intellektdan samarali foydalanib, hayotimizdagi qiyinchiliklarni yengillashtirish, vazifalarni tezroq va sifatli bajarishga erishishdir. Sun’iy intellekt shiddat bilan rivojlanishda davom etmoqda, va olimlar unga yangi funksiyalarni yuklab, turli sohalarda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirmoqdalar.

Xulosa va takliflar

Taraqqiyot to‘xtatilishi mumkin emas, ayniqsa hozirgi tezkor va globallashgan jamiyatda, g‘oyalar va raqobat almashinuvi shiddat bilan davom etmoqda. Sun’iy intellekt shu qadar tez hayotimizga singib ketdiki, endi hozirgi turmush tarzimizni u holda tasavvur qilish qiyin. U bizning har bir ishimizda ishonchli yordamchiga aylangan. Sun’iy intellekt insoniyatni yangi taraqqiyot

bosqichiga olib chiqib, vaqt va resurslarni tejashga ko‘maklashgan. Ammo ba’zi olimlar uning salbiy tomonlarini ham unutmaslik kerakligini uqtirmoqda. Agar sun'iy intellekt hayotimizda shunday keng tarqalishda davom etsa, kelajakda insonlar vazifalarni bajarishda faqat unga suyanib qolishi, natijada mustaqil fikrlash, o‘z zimmasiga javobgarlik olish va mas’uliyat hislarini yo‘qotish xavfi tug‘ilishi mumkin. Bu holatlar taxmin bo‘lishiga qaramay, hozir sun’iy intellektdan voz kechish tobora qiyinlashib bormoqda. Shuning uchun asosiy maqsadimiz sun’iy intellekt imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanib, insoniyat taraqqiyotini yuksaltirishda uni muvaffaqiyatli jalb qilish, har bir sohada resurslarni tejash usullarini topishdan iborat. Sun’iy intellektsiz yangi jamiyat qurish hozircha murakkab bo‘lsa-da, yangi g‘oya va fikrlar insoniyatni yangi taraqqiyot bosqichlariga olib chiqishi aniq. Sun’iy intellekt (SI) bo‘yicha tadqiqotlar inson miyasi faoliyatini tushunish, inson ongining sirlarini ochish va aqlga ega mashinalar yaratish maqsadini ko‘zlaydi. Intellektual jarayonlarni modellashtirish imkoniyatlarining asosi shundaki, miyaning har qanday funksiyasi qat’iy semantik ma’noga ega til yordamida ifodalanib, elektron kompyuterga o‘tkazilishi mumkin. Oxirgi yillarda sun’iy intellekt va siyosat mavzusidagi nashrlar sonining ortishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Biroq, ushbu nashrlarning ko‘pchiligi bevosita siyosatshunoslikning markaziy muammolariga tegishli emas. Ular asosan, texnik fanlar, texnologiya falsafasi, raqamli kommunikatsiya kabi mavzularni o‘z ichiga olgan jurnallarda chop etiladi. Kelajakda esa siyosatshunoslar sun’iy intellekt texnologiyalariga katta qiziqish bildirishi mumkin. Shu sababli, sun’iy intellekt kelajak fanidir, deyishga barcha asoslar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Filipova I.A Sun’iy intelektni huquqiy tartibga solish. - Samarqand, 2022-yil, 7-bet.
2. Filipova I.A Sun’iy intelektni huquqiy tartibga solish. - Samarqand, 2022-yil, 4-bet.
3. Komilova R.Sh. Abdulatipova M.A. Sun'iy intellekt // 2013 yilda nashr etilgan, 2013 yil may soni, Iqtisodiyot fanlari.
4. Pardayeva D.N. Niyozov F.X. Xushboqov I.U. Sun’iy intelekt tarixi, rivojlanish bosqichlari hamda insonlar hayotidagi o‘rni. Экономика и социум №3(106)-2 2023.
5. Usmonqulov J.E. Kubayeva S.A Qishloq xo‘jaligida. Sun’iy intelekt: an’anaviy dehqonchilik muommolarini hal qilish uchun zamonaviy sun’iy intelektdan foydalanish O’zbekistonda aqlli qishloq xo’jaligini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari. International Scinentic and Practial Confernce 12-13 may.
6. Feokitsitova O. Sun’iy intelekt rivojlanish surati hatto olimlarni ham qo‘rqitmoqda: aqlli robotlar insoniyatga qanday tahdid solmoqda. Forum kuni.3.11.2021.

SCIENTIFIC AND PRACTICAL TRAINING SYSTEM FOR SOFTWARE DEVELOPMENT BASED ON "TRIPLE MANAGEMENT"

Farogat Yusupova Yakubboy qizi
Department of “Software engineering”,
Urgench branch of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi,
Urgench, Uzbekistan,
farogat.yakubboyevna@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14196394

Abstract. *As it students were unable to meet the software industry's demand for skilled personnel, a tripartite managed 3D software development hands-on training system was proposed aimed at improving software development capabilities and developing a student's sense of innovation. This system can effectively increase student interest in software development, as well as instill a sense of practical skills and innovation, providing a solid foundation after graduation for students to quickly integrate into the software development process that meets the needs of the software industry.*

Keywords*: triple management, practical teaching, software, software development, student engagement, hands-on learning, programming education, industry readiness.*

Introduction

Currently, employment of college graduates has become a well-known Social problem in China. In particular, the employment status of it specialists, computer specialists as representatives, is more severe. At the same time, the demand of the software industry for talent is also facing significant difficulties. A dilemma emerged in the software industry that "it is difficult for graduates to find jobs and difficult for software companies to recruit". This dilemma was related to the curriculum system, most notably the professional practical teaching system and the management mechanism[1-2]. Fundamentally speaking, the background of higher education in China is still a kind of replica to reflect the large-scale industrial production, which emphasizes standardization and characteristics.

According to China'S IT education and training situation, a number of studies have done this paper to improve the practical ability and sense of innovation in software design of students. Subtle guidance of incentives was created and a three-dimensional applied learning platform was created to prepare software development skills, which stimulated the driving force of research for professional knowledge and software design, increased students ' enthusiasm for innovation, prepared excellent software development talents.

Xavfsiz parol yaratish va boshqarish: O‘quvchilarga xavfsiz parollarni yaratish va ularni boshqarish bo‘yicha ko‘nikmalarni berish, shuningdek, parollarni doimiy ravishda yangilab turish va ikki bosqichli autentifikatsiyani (2FA) ishlatish haqida ma’lumot berish.

Kiberhujumlar va ularning oldini olish: O‘quvchilarga kiberhujumlar haqida ma'lumot berish va ulardan qanday himoyalanishni o‘rgatish.

Real hayotdagi misollar: Kiberxavfsizlikning ahamiyatini tushuntirish uchun real hayotdagi misollarni keltirish. O‘quvchilarni kiberxavfsizlik bo‘yicha mashqlar va simulyatsiyalar orqali tajribaga ega bo‘lishga undash.

XIX.Axborotlarni tanlash va baholash: O‘quvchilarga axborot manbalarini tanlash, baholash va kritiq fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Internetda mavjud bo‘lgan axborotlar orasida ishonchli va noaniq manbalarni farqlash muhimdir.

Axborotning qonuniyligi va etikasi: O‘quvchilarga axborotni qanday ishlatish va u bilan ishlashda etik qoidalarni o‘rgatish. Plagiarizm va mualliflik huquqlari haqida ma'lumot berish.

Axborot almashish va muloqot: O‘quvchilarga axborotlarni qanday almashish, muhokama qilish va elektron muhokamalarda madaniyatli bo‘lishni o‘rgatish. Ijtimoiy tarmoqlarda axborotni qanday muvozanatlash va ehtiyotkorlik bilan foydalanishni o‘rgatish.

Raqamli izlar: O‘quvchilarga raqamli izlarni qanday boshqarish va ularni qanday qilib himoya qilish kerakligini o‘rgatish. O‘z shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, raqamli izlarni kamaytirish va onlayn shaxsiyatni boshqarish haqida ma’lumot berish.

*Kiberbullying va unga qarshi kurash:*O‘quvchilarga kiberbullying tushunchasini tushuntirish, bu fenomenning oqibatlarini ko‘rsatish va undan qanday qochish mumkinligini o‘rgatish[7].

Kiberxavfsizlik va axborot madaniyati o‘quvchilarning raqamli dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalardir. Ular o‘quvchilarning xavfsizligini ta'minlash, axborotni to‘g‘ri ishlatish va o‘zlarini raqamli muhitda samarali boshqarishlariga yordam beradi.ta’lim tizimida bu mavzularni o‘rganish orqali o‘quvchilar kiberxavfsizlik va axborot madaniyati bo‘yicha yetuk avlod bo‘lib etishadi.

Adabiyotlar.

1.Qayumov.Sh.“Axborot texnologiyalari va ularningta’lim jarayonida qo‘llanilishi” - 2017 yil

2.Turg'unov.S..,Umarov.A. “Raqamlita’limning rivojlanish istiqbollari” - 2019 yil

3.Xodjayev,N.“Ta'lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni” - 2021 yil

4.Saidov.B.“Raqamlita’lim va elektron o'quv materiallari” - 2020 yil

5.Yo‘ldoshev, H. va Mamatov, K. “Raqamli iqtisodiyot vata’lim tizimida innovatsiyalar” - 2022 yil

6.Qurbonov, F. “Elektronta’lim texnologiyalari” - 2018 yil

7.Karimov.J. “Ta’limda raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va muammolar”- 2023 yil

TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

Beysenov Kenjabay Sarsanbaevich
O‘zbekiston Respublikasi IIV
Malaka oshirish instituti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14187648

Raximov Sherbek Kamolovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV
Malaka oshirish instituti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14187648

Annotasiya: *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga joriy etilishi, raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimidagi turlari hamda afzalliklari haqida ma’lumotlar ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli texnologiya, ta’lim tizimi, interfaol ta’lim dasturi, MOOC platformasi, gibrid o‘qitish.*

KIRISH

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni qabul qilindi [1].

Mazkur Farmon mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi [2].

Dunyoda ham raqamli texnologiyalar kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi yillar davomida jadal sur’atlarda o‘sib, o‘qitishni yaxshilash va o‘rganishni yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

So‘nggi bir necha yil ichida ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish jadal sur’atlarda o‘sdi. Bu zamonaviy jamiyatda yangi imkoniyatlar, qiyin vaziyatlar va muammolarni keltirib chiqardi. Ushbu texnologiyalar ilg‘or xususiy va davlat maktablarida eng ko‘p tarqalgan, ammo yaqinda ular butun dunyo bo‘ylab boshqa ta’lim muassasalariga ham yetib bordi. Ushbu ta’lim muassasalar va o‘qituvchilarning aksariyati o‘quvchilarga ta’lim olishda yordam berish uchun aqlli raqamli

texnologiyalarga tayanadilar. Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi va imkoniyatlari o‘quv va o‘quv maydonlarini o‘zgartirmoqda.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim muhitiga joriy etilishi ta’lim sohasini yaxshi tomonga o‘zgartirgan paradigma (namuna) o‘zgarishiga olib keldi. Ushbu texnologiyalar o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan sinfda va undan tashqarida yangi ta’lim tajribalarini taqdim etish uchun keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ta’lim talablarining o‘zgaruvchan tabiatiga mos kelish uchun ular doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Raqamli texnologiyalar, to‘g‘ri qo‘llanilganda, o‘quvchilarga behisob foyda keltiradi, chunki ular o‘quv jarayonini tez kuzatish imkonini beradi.

Ushbu maqola ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning imkoniyatlari va istiqbollari haqida qisqacha ma’lumot beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli texnologiyalar talabalarga o‘z kompyuterlari qulayligidan dunyoni his qilish va uzoq joylarga borish imkonini beradi [3]. “Raqamli texnologiya” - bu bizning atrofimizdagi hamma narsaning ajralmas qismi bo‘lishdan uzoq bo‘lmagan atama. Raqamli texnologiya, xuddi yong‘in kabi, bizning zamonaviy landshaftimizni qamrab oladi va har bir sohada, ayniqsa ta’limda o‘zgarishlarni yoqadi. Raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiyalashuvi bu maqsadni amalga oshirish yo‘lidagi muhim qadamdir [4].

Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning muammoni yechish, fikrlash strukturasini yaratish va jarayonni tushunish kabi kasbiy faoliyatini talab qiladigan qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ular, shuningdek, texnologiya muhim rol o‘ynaydigan, oldindan aytib bo‘lmaydigan va o‘zgaruvchan kelajakka tayyorlanmoqda [5].

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning imkoniyatlari va istiqbollari ilmiy nashrlar hamda xorijiy tajribalar asosida o‘rganildi. Maqoladagi tadqiqot ma’lumotlari rasmiy manbalardan olingan bo‘lib tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tanlangan yondashuv raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim tizimida aniqroq va izchil ilmiy natijalar olishning afzalliklaridan foydalanish imkonini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar ta’limni turli yo‘llar bilan yaxshilashga yordam beradigan kuchli vositadir, masalan, o‘qituvchilarga o‘quv materiallarini ishlab chiqarishni osonlashtiradi va odamlarga o‘rganish va hamkorlik qilish uchun yangi usullarni taqdim etadi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimida sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan turlarini ko‘rib chiqamiz.

Interfaol ta’lim dasturi

Ta’limdagi eng istiqbolli raqamli texnologiyalardan biri bo‘lgan interfaol ta’lim dasturi o‘quvchilarga muhim tushunchalarni o‘rgatish bilan birga o‘quvchilarni jalb qilish uchun mo‘ljallangan ta’lim dasturlari, simulyatsiyalar va o‘yinlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu dasturiy yechimlar dinamik va immersiv *(immersive — mavjudlik, sho‘ng‘ish)* o‘rganish tajribasini ta’minlaydi, qiziquvchanlikni va mavzularni chuqurroq tushunishga yordam beradi [6].

Ta’limni boshqarish tizimlari (LMS)

Ta’limni boshqarish tizimlari yana ta’limdagi raqamli texnologiyalarning muhim qismi bo‘lib, ta’lim muassasalarida o‘qitishni to‘ldirishga qodir. Bular ta’lim mazmuni va resurslarini boshqarishni

tartibga soluvchi raqamli platformalardir. Bundan tashqari, ular o‘qituvchilarga kurs materiallarini, baholashni va talabalar bilan muloqotni bir joyda tashkil qilish imkonini beradi, bu esa o‘quv natijalarini yetkazib berish va kuzatishni osonlashtiradi [6].

Aqlli sinf yechimlari

Aqlli sinflar raqamli texnologiyalar bilan jihozlangan, chunki bu aqlli sinflar asoslanishi mumkin bo‘lgan qurilmalar - interfaol raqamli doskalar, aqlli televizorlar, raqamli oq taxtalar yoki aqlli proyektorlar. Bularning barchasi ta’lim muhitini yaratish uchun xizmat qiladi. Ushbu vositalar real vaqt rejimida o‘zaro ta’sir va hamkorlikni osonlashtiradi, darslarni yanada qiziqarli va interfaol bo‘lishini ta’minlaydi [6].

Ta’lim dasturlari

Ta’lim ilovalari til o‘rganish ilovalaridan tortib matematika amaliyoti ilovalarigacha yoki o‘quvchilarga o‘rganish va o‘sish uchun kerak bo‘lgan hamma narsani bir joyda, masalan, **iPrep ilovasida** topish imkonini beruvchi bir martalik o‘rganish ilovalarigacha bo‘lgan turli xil vositalarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, ushbu ilovalar planshetlar, smartfonlar va kompyuterlarda mavjud bo‘lib, talabalarga yo‘lda o‘rganish va ta’lim sayohatlarini shaxsiylashtirish imkonini beradi [6].

Elektron kitoblar va raqamli darslik

Raqamli darsliklar o‘quvchilarga an’anaviy qog‘oz darsliklarga nisbatan ko‘proq interfaol va ko‘chma muqobilni taqdim etadi. Ta’limdagi eng qulay raqamli texnologiya sifatida ko‘rib chiqiladigan bular asosan darsliklarning PDF-versiyalari bo‘lib, bitta qurilmada ulardan yuzdan ortiq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ular yirtilmaydi va talabalar va o‘qituvchilar uchun og‘ir vaznga ega emas [6].

Moslashuvchan ta’lim tizimlari

Ta’limdagi yuqori istiqbolli va yangi raqamli texnologiya bu **Adaptiv ta’lim** tizimlaridir. Ular har bir talaba uchun o‘rganish tajribasini shaxsiylashtirish uchun ma’lumotlar va algoritmlardan foydalanadi. Ular odamlarning hozirgi ta’lim darajalarini, kuchli va zaif tomonlarini baholaydilar va shunga mos ravishda tarkibni moslashtiradilar, bu esa o‘quvchilarning ustun bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan yordamni olishlarini ta’minlaydi. Masalan, “iPrep PAL” ilovasi [6].

Raqamli kutubxonalar

Raqamli kutubxonalar o‘quvchilarning ta’lim muassasalaridagi sinflar, kutubxonalar va laboratoriyalarda o‘rganish va o‘sish usullarini raqamlashtirishi mumkin. Bu planshetlar, noutbuklar, android noutbuklar asosidagi aqlli AKT laboratoriyalari [6].

Raqamli baholashlar

Raqamli baholash vositalari, jumladan, amaliyot to‘plamlari, viktorinalar va planshetlar, mobil telefonlar yoki noutbuklar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda baholash o‘qituvchilarga talabalar faoliyatini samarali baholash imkonini beradi. Ular zudlik bilan fikr-mulohazalarni taqdim etib, o‘quvchilarga o‘zlarining yaxshilanish sohalarini tushunishlariga yordam beradi [6].

MOOC platformasi

Talabalar o‘zlarining ma’lumotlari va iste’dodlarini yaxshilash uchun MOOCdan foydalanadilar. Bu ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lmagan millionlab o‘quvchilarga turli ko‘nikmalarga asoslangan kurslarga kirish imkoniyatini berish orqali ularning ish qobiliyatini oshirish

imkonini beradi. MOOC tufayli talabalar va ishlaydigan mutaxassislar o‘z tezligida, istalgan joydan va istalgan vaqtda o‘qishlari mumkin. Bundan tashqari, ushbu platforma orqali taqdim etiladigan ba’zi ma’ruza kurslari institutlar va korxonalar to‘g‘ri yo‘nalishdagi qadam sifatida tan olingan sertifikatga olib keladi. So‘nggi tendentsiyalarga ko‘ra, MOOC platformasi orqali taqdim etiladigan onlayn darslar katta bozorga ega. Kasbiy ta’limga qabul qilingan talabalar va ishlaydigan rahbarlar ixtisoslashgan sohalarda o‘sib borayotgan ish imkoniyatlaridan foydalanish uchun o‘z malakalarini oshirishga ko‘proq ishtiyoqlidirlar. MOOC asosidagi shaxsiylashtirilgan ta’lim tobora ommalashib bormoqda [7], [8].

Gibrid o‘qitish va o‘rganishga o‘tish

Gibrid o‘qitish onlayn va oflayn o‘qitishdan qo‘shimcha va bepul foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu kelajak va Education 4.0 ning natijasidir [9].

Bugungi texnologik o‘sish bilan o‘qituvchilar smartfon va planshet kompyuterlar kabi turli xil gadjetlardan foydalanishni o‘rganishlari kerak. O‘qituvchilar o‘zlarining materiallari jonli, qiziqarli va dolzarb bo‘lishini ta’minlash uchun barcha mavjud onlayn resurslardan foydalanishlari kerak. Raqamli texnologiyalarning afzalliklari talabalar, ota-onalar va o‘qituvchilarning ta’limni yaxshilash uchun texnologiyadan qanday foydalanishi bilan belgilanadi. Texnologiyadan ta’lim maqsadlarida samarali foydalanilsa, ta’lim tajribasi yaxshilanadi va talabalar qiziqish uyg‘otadi. Ta’lim muassasalari virtual sinflar, elektron o‘quv platformalari va onlayn imtihonlardan foydalanishni kengaytirganda, talabalar va o‘qituvchilarning to‘liq ishlashi ma’lumotlarining ahamiyatini tushunadilar.

Ta’limda raqamli texnologiyalarning afzalliklari

Ta’limdagi raqamli texnologiyalar o‘qitish va o‘rganish usullarini sezilarli darajada o‘zgartirib, ta’lim sohasi uchun kuchli qo‘shimcha sifatida ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan ko‘plab imtiyozlarni taqdim etdi. Raqamli texnologiyalarning yuqorida aytib o‘tilgan turlariga alohida urg‘u berib, ta’limga raqamli texnologiyalarni kiritishdan kelib chiqadigan ko‘plab afzalliklarni ko‘rib chiqamiz.

1. Kengaytirilgan interfaollik

Raqamli texnologiyani ta’limga va keyinchalik sinflarga kiritishning muhim afzalligi shundaki, u talabalarning o‘zaro ta’siri va faolligini oshirishi mumkin. Aqlli sinf yechimlari , interfaol ta’lim dasturlari va ta’limga oid ilovalarning barchasi dinamik va immersiv o‘quv muhitiga hissa qo‘shadi. Talabalar ma’lumotni passiv qabul qiluvchilardan ta’lim jarayonining faol ishtirokchilariga o‘tishadi. Ushbu interfaol va qiziqarli o‘quv vositalari izlanishni rag‘batlantiradi va turli mavzularni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

2. Ta’limni soddalashtirilgan holda boshqarish

Ta’limda raqamli texnologiyalarning eng ko‘zga ko‘ringan qo‘llanilishidan biri o‘quv boshqaruv tizimlari (LMS) shaklida keladi. Bu markazlashtirilgan platforma orqali ta’lim resurslari va mazmunini boshqarishni osonlashtiradi. Ushbu yondashuvni amalga oshirish orqali o‘qitish jarayoni optimallashtiriladi. Bu o‘qituvchilarning kurs materiallarini boshqarish, baholash va talabalar yozishmalarini osonlashtiradi. LMS o‘qituvchilarga ta’lim natijalarini yanada samaraliroq etkazish va nazorat qilish imkonini beradi, bu esa o‘qituvchilar va talabalar uchun nihoyatda foydalidir.

3. Shaxsiylashtirilgan ta’lim

Ta’lim sohasida raqamli texnologiya individual o‘rganish tajribasini beradi. Ma’lumotlar va algoritmlardan, iPrep PAL ilovasi kabi moslashuvchan o‘quv tizimlaridan foydalangan holda, materialni har bir talabaning o‘ziga xos kuchli tomonlari va kamchiliklarini yaxshilash sohalariga moslashtiradi. Ushbu individual yondashuv o‘quvchilarning rivojlanishi uchun zarur yordamni olishini kafolatlaydi va shu bilan ta’lim samaradorligini oshiradi.

4. Moslashuvchanlik va qulaylik

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’limning moslashuvchanligi va qulayligini oshiradi. Raqamli darsliklar va ta’lim dasturlari kompyuterlar, planshetlar va smartfonlar kabi keng turdagi qurilmalarda mavjud. Raqamli darsliklarning ko‘chma va mustahkamligi oddiy qog‘oz darsliklar bilan to‘ldirilgan og‘ir yuklarga bo‘lgan ehtiyojni bartaraf qiladi.

5. Raqamli boy tarkib

Aqlli AKT laboratoriyalari va raqamli kutubxonalar talabalarga raqamli kontentning boyligidan foydalanish imkonini beradi va shu bilan ta’lim tajribasini boyitadi. Ushbu o‘quv materiallari talabalarga ko‘plab ma’lumotlar va interfaol komponentlar bilan ta’minlaydi, ular mustaqil ravishda tadqiqot qilish va bilim olish imkonini beradi. Raqamli kutubxonalardan foydalanish orqali o‘qituvchilar o‘z ta’limotlarini to‘ldirishlari va multimedia materiallari bilan talabalarni o‘ziga jalb qilishlari mumkin.

6. Doimiy qayta aloqa

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning yana bir qo‘shimcha afzalligi – baholashni raqamlashtirishdir. Raqamli baholash va o‘rganish tahlillari o‘qituvchilar va talabalarga darhol fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Amaliyot to‘plamlari va imtihonlar kabi raqamli baholash vositalari talabalar faoliyatini tezkor va tegishli baholashni taklif qiladi.

7. Ekologik toza va tejamkor

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish ekologik jihatdan foydali va tejamkor bo‘lishi mumkin. Ta’lim muassasalarida jismoniy darsliklar va qog‘oz baholarga bo‘lgan ishonchini kamaytirish orqali xarajatlarni tejash va ekologik barqarorlikka erishishlari mumkin. Uzoq muddatda raqamli manbalar tez-tez yangilanish va talabalar o‘rtasida almashish imkoniyati tufayli tejamkorroq bo‘ladi [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalarining tobora takomillashib borayotgani ta’lim tizimining mazkur soha bilan yonma-yon rivojlantirishga erishish maqsadida yangi
o‘zgarishlarga moslashib borishi zarurligini ko‘rsatmoqda. Binobarin, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishda gegemonlikni o‘z qo‘liga olayotgan raqamli texnologiyalar har qanday jamiyat, qolaversa, milliy ta’lim tizimlarining ham o‘ziga xos atributi, o‘ziga xos tarkibiy komponentiga aylanib ulgurdi.

Ta’limda raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash natijasida:

birinchidan, ta’lim texnologiyalari ilovalari davomatni kuzatish va ishlash monitoringi kabi kundalik operatsiyalarni avtomatlashtirish yoki qisman avtomatlashtirish orqali ko‘p vaqt va energiyani tejash imkonini beradi;

ikkinchidan, talabalarga texnologiyadan mas’uliyatli va strategik foydalanishni o‘rgatadi, bu ularga qaror qabul qilishda va o‘z-o‘zini intizomni rivojlantirishda yordam beradi;

uchinchidan, ta’limdagi texnologiya o‘quvchilarni umrbod ta’lim olishga tayyorlashga yordam beradi, o‘quvchilarga virtual dunyo va o‘z o‘rganish uslublariga ko‘ra raqamli bilimlarga kirish erkinligini ta’minlaydi;

to‘rtinchidan, raqamli sinf o‘quvchilarga ta’lim berish uchun elektron qurilmalar va dasturlardan foydalanadi va texnologiyani ta’limga kiritadi, an’anaviy sinf xonasi kompyuterlar va internet orqali raqamli sinfga aylantiriladi;

beshinchidan, zamonaviy texnologiyalar iqlim o‘zgarishi, havo va suv xavfsizligi , biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, falokatlarga chidamlilik va boshqalar kabi sohalarda uzoq muddatli qarorlar qabul qilish uchun murakkab ma’lumotlarni tahlil qilish va boshqarishda muhim rol o‘ynadi;

oltinchidan, bu ta’lim sohasidagi ko‘plab sub’ektlar o‘rtasida mustahkam aloqalarni o‘rnatishga imkon beradi, shuningdek, yangi tadqiqotlarni rivojlantirishga va zarur siyosat tadbirlarini tushunishga yordam beradi;

yettinchidan, bu aqlli raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini va ularning ta’limdagi yondashuvlarini cheklovchi ijtimoiy tengsizliklar va ierarxiyalarni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Nihoyat, bu amaliyotni yetarli darajada xabardor qilish va ta’limda raqamlashtirish istiqbollariga asoslangan yangi nazariyalarni ishlab chiqish uchun katta namunalar bilan miqdoriy yondashuvlardan foydalanishni rag‘batlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.

2. https://strategy.uz/index.php?news=1106&lang=uz “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” davlat dasturida belgilangan yana bir muhim vazifaning ijrosi ta’minlandi. 2020-yil 15-oktabr.

3. H. Perraton. Choosing technologies for education. Journal of educational media, 25 (1) (2000), pp. 31-38.

4. M.A. Camilleri, A.C. Camilleri. Digital learning resources and ubiquitous technologies in education. Technology, Knowledge and Learning, 22 (1) (2017), pp. 65-82.

5. R. Grainger, Q. Liu, S. Geertshuis. Learning technologies: A medium for the transformation of medical education? Med. Educ., 55 (1) (2021), pp. 23-29.

6. https://www.idreameducation.org/blog/digital-technology-in-education/ Shubh Sharma. Use Of Digital Technology in Education As A Supplement To Teaching And Learning At Schools.

7. Z.S. Hejrati, M. Gaim, C.E. Eesley, T.K. Dang. Use of MOOC and Digital Technologies to Study Effects of Liability of Foreignness on Venture Formation in Forced Immigration-Case Study of Refugee Entrepreneurship in Ethiopia. 2021 IEEE 4th International Conference on Information Systems and Computer-Aided Education (ICISCAE), IEEE (2021, September), pp. 54-61.

8. R. Chaker, M.A. Impedovo. The moderating effect of social capital on co-regulated learning for MOOC achievement. Education and Information Technologies, 26 (1) (2021), pp. 899-919.

9. M. Kesim, Y. Ozarslan. Augmented reality in education: current technologies and the potential for education. Procedia-social and behavioral sciences, 47 (2012), pp. 297-302.

USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM AND STAGES OF THEIR DEVELOPMENT

Azimov Sarvarbek Qayumjon ugli
Assistant teacher of Andijon machine building institute
e-mail: sarvarbekazimov892@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14188980

Annotation: *in this article, the priority areas of development of the educational process are identified based on the application of digital technologies in the higher education system of our republic, the analysis of their capabilities. Also in the field of education through the study, systematization and generalization of the existing practice in drawing scientifically based conclusions on the introduction of digital technologies in higher education not only in terms of its important place and in what form it is introduced suggestions are given.*

Keywords: *Educational process, digital technology, information and communication technologies, higher education system, modern education, digital knowledge, Internet system, distance learning. pedagogical technologies, reliability of Education, multimedia tools.*

Introduction: From the first years of the independence of the Republic of Uzbekistan, attention was paid to the issue of reforming the education system at the level of state policy, and the main goal of the young generation was to acquire knowledge in conditions corresponding to world standards, to develop into a mature person, and to reveal their abilities and talents. All citizens living in the country, including young children and pensioners, are forming the idea that all problems in society can be solved through digital technologies. In addition, the robotization of production and management processes, for example, in the banking sector, is also a question of competition between robots and workers. rising. With the undoubted benefit of digital technologies, issues related to ethical, personal data protection, legal aspects of competition between robots and employees of organizations are increasingly being considered. In this regard, as the President of our country, Shavkat Mirziyoyev, said, "In order to achieve development, it is necessary and necessary for us to acquire digital knowledge and modern information technologies. This gives us the opportunity to take the shortest path to ascension. After all, information technologies are deeply penetrating all areas of the world

today. Of course, we know very well that the formation of the digital economy requires the necessary infrastructure, a lot of money and labor resources. However, no matter how difficult it is, if we don't start today, when will we?! Tomorrow will be too late" [1].

It is possible to widely introduce digital technologies in state and community management, social sphere, increase productivity, in a word, dramatically improve people's lives. Digital economy is not only a type of activity, but also business, industrial facilities, quality education and services. The term "digital" refers to the active use of information technologies in all areas. If in the ordinary economy material goods are considered the main resource, in the digital economy it is information and data that can be processed and transmitted. After their analysis, a solution for proper management is developed.

Research methodology and results: From the experience of using computer telecommunications in various fields of education, it can be seen that information technology creates a number of positive opportunities for us, including: 1) various types of collaborative scientific research of professors, academic staff and students (every organization of truly creative research, independent practical activity, independent knowledge acquisition, practical creative activity and other types of cooperation with the help of various scientific and practical projects;

2) organizing and delivering quick expert advice to the general public studying at the scientific-methodological center; 3) organization of network of distance education and training of pedagogical personnel; 4) quick information exchange; 5) to form the skills of mutual exchange of ideas, the culture of communication and their opinions quickly and easily among the partners in education, regardless of whether it is a student, pupil, teacher, researcher. and teaching clear expression; 6) to develop the cultural and social skills and abilities of young people as a result of the exchange of ideas with comprehensive positive information of cultural, ethnic, humanitarian [3].

When using information technologies in the educational process, we should teach students not only to see and accept information on the screen, but also to participate creatively in this process. Connecting the world of hidden possibilities connected with the didactic features of education directly with computer telecommunications has modern and promising goals in this field of education. As a didactic function, we understand the manifestation of the external properties of educational tools used for certain purposes in the educational process. As research methods, the study, systematization and generalization of normative documents, existing practice were used to draw up conclusions related to the formation of a scientifically based approach to the introduction of digital technologies in higher education. It should be noted that the pandemic "Covid-2019" has affected the education system as well as all other sectors, including kindergartens, schools and higher education institutions, all of them went on vacation early. According to UNESCO, 1.7 billion students around the world were deprived of traditional education due to the suspension of classes. The closure of universities in more than a hundred countries forced 90 percent of the world's students to stay at home.

As of March 3, 2020, UNESCO reported that 290.5 million pupils and students were out of school due to the temporary closure of educational institutions in 13 countries and urged them to switch to distance education. According to data, only 60% of the countries that closed educational institutions due to the pandemic in the past period have switched to full digital education. Some international experts emphasize that it is impossible to completely switch to online education, that this

process should be considered as a way out of a problematic situation, otherwise the quality of education will decrease, while others emphasize that a new era has begun for modern education. The intellectuals of some countries are promoting the issue of provision of distance education. According to Internet sources, 95% of students in only about ten countries have a computer today. In Indonesia, 34 percent of young people have enough access to the Internet. In other countries, this indicator is much lower. At the same time, this indicator is not at a high level in the Republic of Uzbekistan. The reason for this is that the Internet infrastructure in remote areas is not well developed. This may cause the quality of education to drop, as some experts estimate [2].

Well, here comes the question. Are we ready for digitization? Being able to foresee the danger, to correctly assess its results and consequences, ensures the safe exit from the situation. After the spread of the pandemic in the world, the necessary measures were taken to ensure the continuity of the educational process in our country, as well as in the economy, healthcare, and service sectors. In particular, on March 17, 2020 of this year, the President's decision "On measures for the widespread introduction of digital technologies in the city of Tashkent" was adopted. From March 23 of this year, television lessons for students began to be broadcast. In addition, several higher education institutions have launched virtual education systems for students and pupils. For example, at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, the "Organization and Management of the Educational Process" information system and the MOODLE distance learning platform were launched.

On the official websites of other higher education institutions, distance learning platforms such as MOODLE, Platonus, Moodle LMS, SRS (Student Records System), MOOC, and Google Classroom, Ereader applications for mobile phones and tablets have been launched and online classes have begun. In addition, the software of the distance education platform "remote-education" was developed and implemented in a short period of time at the Tashkent Financial Institute. Prestigious private educational centers in our country have also launched online education based on the needs of the times. This process itself marks the beginning of a new stage in the education system of our country. The reason is that until today no educational center has been able to switch to such an arrangement. It is not surprising that today's education system is being absorbed by digital technologies, because many things that are offered in the information space today serve as a basis for serious analysis and pedagogical study. It is also important that in recent years, no research has been conducted on the basis of any state project or survey on the problems of "digitalization" of education, its impact on its formation [3].

At the same time, we can see the importance of the influence of the environment on the Internet system on the minds of young people in the reports of the government, modern mass media, pedagogical public discussions, and researches of graduate students and researchers, as well as deputies. It should be noted that before we were limited to the implementation of digital technologies in all spheres, i.e. industry, economy, banking and other spheres. Today, taking into account that the digital economy is rapidly developing, deputy heads of all areas of digital development are included in the position. Activation in the direction of digitization is being carried out in all business structures. Today, digital technologies are "aggressive" in all areas, especially where economic benefits are found, and are supported at all levels[4]. The dynamics of the processes taking place in the economy

require an active position of the educational community in the analysis and development of proposals for the development of higher education in the digital transformation of the economy.

What needs to be done to effectively use digital technologies in education while maintaining the quality of teaching? First of all, we must improve the Internet infrastructure in our country, increase the quality of services provided by mobile operators, and create conditions and privileges for the most vulnerable population, especially students and young people, to master the latest achievements of modern information and communication technologies. Secondly, to expand the use of digital technologies in the organization of the educational process and to develop information resources, teaching tools and distance learning technologies, to attract creative students to university digitization projects and to comply with the normative and legal documents regulating the activities of higher education institutions. to make proposals to the competent bodies for making changes, to organize centers including structures equipped with high-efficiency digital devices, classrooms, laboratories, media studios, etc., and applying the experience gained in it in all higher education institutions of Uzbekistan. Thirdly, to ensure the solid integration of modern information and communication technologies and educational technologies, to create additional conditions for the continuous development of professional skills of pedagogues in this regard. Fourth, organizing and conducting courses for teacher training on topics such as the use of interactive presentation systems, the development of interactive and multimedia presentations in connection with the Internet for lectures and seminar classes.

Fifth, to implement the process of distance education at any time using real-time interactive presentation systems, video conference systems, virtual halls, electronic resources. Sixth, the use of cloud technologies, virtual reality, augmented reality and the use of 3D printing in the development of didactic materials and experience designs, the use of digital didactics and digital learning models, projects for teachers and students, diploma theses, scientific research, etc. Scientific websites should be developed for discussion. Only then, we will use digital technologies to get students and young people to learn at the level of today's demand without reducing the quality of education. Q because if the tablet becomes an element of education, children will start the learning process with great interest. It is equivalent to combining classical education with play. As a result, the learning process improves, assimilation, the level of education and the efficiency of personnel training increase. An educated generation, professional personnel are the guarantee of the development of the society on a large scale.

Conclusion: In conclusion, summarizing the use of information technology in the educational system, it is possible to emphasize that today's classrooms are very different from ten years ago, and classrooms are equipped with computers, iPads, tablets, smart-boards. and equipped with other types of educational technologies. As in other parts of the world, a new screen generation of the digital generation - televisions, computers, tablets, phablets, smartphones and smartwatches - is emerging in Uzbekistan. As a result of having such a dense digital environment and constant interaction with it, the thinking and information processing processes of today's students are fundamentally different from the previous thinking and information processes. The digital generation cannot and should not be taught the way our parents learned. It is not possible to use blackboard and white chalk in teaching this generation. Changing the blackboard to white and the chalk to a marker doesn't change anything, it's not the way to motivate today's students to learn and develop the skills to succeed in the job market.

It should also be noted that teachers retain the main role in the interactive learning process focused on the needs of students.

The reputation of the teacher and the effectiveness of his activities depend not only on the level of knowledge in the course content and his pedagogical ability, but also on the level of the teacher's use of modern information and communication technologies in the collection, processing and teaching of specific educational material. will be liq. In other words, education in the digital age must be revised and the educational paradigm changed, because students no longer want to learn in the traditional way, and teachers should not continue to teach in such a conventional way, but new innovations in the classroom. should be able to use it.

REFERENCES:

1. Decree No. PF-60 of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 "On approval of the new development strategy of Uzbekistan for 2022-2026".

2. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis on January 24, 2020.

3.D. Babarakhimova, Scientific-pedagogical issues of using information technologies in the educational system; 6 - volume 3 - number / 2022 - year / March 15 https://bestpublication.org/index.php/pedg/issue/view/81

4. D. Babarakhimova, Continuous education in improving the competences of teachers in the field of act: problems and some solutions. 2023. https://unionedu.ru/index.php/use/issue/view/1

5.https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti shavkatmirziyevningoliy-25-01-2020.

МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИЯТЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИДАН АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВИДА ФОЙДАЛАНИШ

Эсанбоева Юлдуз Тўлқин қизи
Тошкент давлат иқтисодиет университети
“Аудит” кафедраси ўқитучиси
email: yulduzesanboyeva1996@tfi.uz;
ORCID: 0009-0008-0995-9222
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189733

Аннотация. *Мазкур мақолада молиявий натижалар бўйича молиявий ҳисоботларнинг ахборот имкониятларини такомиллаштиришнинг мақсади, вазифалари ва ўзига хос хусусиятлари ёритиб берилган. Шунингдек, мақолада молиявий натижалар бухгалтерия ҳисоби ва аудитининг ахборот имкониятларини кенгайтириш йўллари келтирилган. Жумладан, молиявий натижалар бўйича молиявий ҳисоботларнинг ахборот имкониятлари ва уларнинг таҳлилидан аудиторлик текширувида фойдаланиш йўллари ишлаб чиқилган ҳамда*

амалиётга жорий этилган.

Калит сўзлар. *Молиявий натижалар, молиявий ҳисобот, бухгалтерия ҳисоби, аудиторлик текшируви, ахборот техника ва технологиялари;*

КИРИШ

Молиявий натижалар хўжалик юритувчи субъект фаолиятининг барча барча жабҳаларига таъсир қилувчи кўрсаткич бўлиб, корхона фаолиятини таҳлил қилиш ва режалаштиришга асосан: аҳборот манбаи бўлиб ҳисобланади. Ўз навбатида молиявий натижа корхонанинг ўз айланма маблағларига, тўлов қобилиятига таъсирини ўтказмай қолмайди. Молиявий натижаларни ифодалаб берувчи кўрсаткич бўлиб ўз навбатида фойда ва рентабеллик даражаси ҳисобланади. Ҳозирги рақобатбардош вақтга келиб, фойданинг ўрни ва аҳамияти янада ортиб бормоқда. Чунки у хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини кенгайтириш, техник-технологик ривожланиш ва модернизация қилишнинг биргина манбаи бўлиб қолмоқда.

Хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисоботини аудиторлик текширувидан ўтказиш, унинг даражасини бошқа рақобатдошларининг олдида ошириш, ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш соҳасидаги имкониятларини аниқлаш учун замин бўла олади. Корхона фаолиятининг энг асосий вазифаларидан бири бўлиб, уларнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш ва молиявий барқарорлигини таъминлашдир. Молиявий натижалар ҳисобини юритиш билан бирга унинг ахборот имкониятларини ҳисобга олиш бухгалтерия ҳисоби ва аудитининг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Юртимизда бугунги кунга келиб, ахборот технологиялари ва коммуникациялари жадал ривожланиб бораётган соҳалардан бирига айланди. Тизимда амалга оширилаётган бир қатор ислоҳотлар бухгалтерия ҳисоби ва аудитининг ахборот имкониятларини кенгайтириш самарадорлигига ҳам ўзининг ижобий таъсирини кўрсатмоқда. Бу эса ҳозирги иқтисодиётда глобаллашув шароитида жуда муҳим кўрсаткичлардан бири ҳисобланади. Молиявий натижалар ҳисобининг ахборот имкониятларини тўлиқ очиб бериш эса ўз навбатида тадқиқотни долзарб мавзуга бағишланганлигидан далолат беради.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Бугунги кунда ахборотлар шаффофлиги ва сифатига эътибор қаратилмоқда. Шу боисдан молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот тузилиши фаолият турлари бўйича даромад ва харажатларнинг таснифланишига асосланади. Молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот кўрсаткичлари шаклланишига бўлган ушбу ёндашув барча ривожланган мамлакатлар учун характерлидир. Аммо ҳисобот шаклланишидаги асосий масала тақдим этиладиган кўрсаткичларнинг ҳажмидир.

Бухгалтерия ҳисоби маълум бир хўжалик юритувчи субъект тўғрисида молиявий маълумотларни аниқлаш, қайта ишлаш ва молиявий ҳисобот шаклида фаолият юритувчи субъектнинг молиявий ҳолатига қизиқувчи фойдаланувчиларга маълумотни етказиб беришни амалга оширадиган ахборот тизимдир. Бухгалтерия ҳисобининг мақсади – турли фойдаланувчиларни маълумотга бўлган еҳтиёжини, ушбу маълумотни олиш учун енг кам сарф-харажатлар билан қондиришдир. Ўз-ўзидан маълумки қарорларни қабул қилиш учун ахборот

тизимдан фойдаланиш натижасида олиниши мумкин бўлган иқтисодий нафлар ушбу тизимга кетган харажатлардан устун бўлиши лозим.

Жамият тараққиётининг замонавий босқичи давлатлараро ва минтақалараро даражада ишончли интеграциялашув ва глобализация жараёни, сиёсат, иқтисодиёт ва техниканинг тубдан қайта шаклланиши, ҳамда ижтимоий-иқтисодий жараёнларнинг барча жабҳаларини жадаллашуви билан тавсифланади. Бу хўжалик юритувчи субъектларнинг ўз вақтида зарур ва керакли маълумотларга асосланган ҳолда стратегик ва жорий бошқарув қарорлари қабул қилиш имкониятини яратадиган ахборотнинг ишлаб чиқариш омили сифатидаги ролининг ошиб бораётганлигини кўрсатади.

Фойдаланувчилар ва уларнинг ахборотга оид талаблари Бухгалтерия ҳисоби фойдаланувчилар томонидан фойдаланиладиган молиявий маълумот ҳажми ва тавсифи билан боғлиқ.



1- расм. Аҳборотдан фойдаланувчилар турлари

Ўз навбатида бухгалтерия маълумотидан фойдаланувчиларнинг ушбу гурухларини фойдаланувчиларнинг қуйидаги туркумларига ажратиш мумкин:

- корхона бошқарувчилари;
- субъектдан ташқарида бўлиб, унда бевосита молиявий манфаатга эга бўлганлар;
- субъект фаолиятида билвосита молиявий манфаатга ега бўлганлар.

Субъектдан ташқарида бўлиб, унда бевосита молиявий манфаатга ега бўлганларга қуйидагилар киради:

- Мавжуд ва бўлғуси инвесторлар;
- Мавжуд ва бўлғуси кредиторлар;
- Харидорлар.

Субъект фаолиятида билвосита молиявий манфаатга ега бўлганларга қуйидагилар киради:

- Солиқ органлари;

- Тартибга солувчи органлар;
- Статистик органлар ва бошқа гуруҳлар (аудиторлар, маслаҳатчилар, истеъмолчилар гурухлари ва ҳок.);

Ҳозирги пайтда самарали иқтисодий тараққиётга эришиш учун ихтиёрий хўжалик юритувчи субъект – давлат корпорациясидан тортиб оддий якка тадбиркоргача – ўз молиявий ҳолати, хўжалик фаолиятининг натижалари, пул оқимлари ҳаракати ҳолати ҳамда келажакда унинг айрим хўжалик юритувчи субъектларда ўсиши ҳақида тасаввурга эга бўлиши, шунингдек, рақобатчи, ҳамкор корхоналар ва бошқа алоқадор корхоналар гуруҳлари фаолияти ҳақидаги ахборотга эга бўлиши керак. Лекин, бу ҳам самарали бошқарув қарорларини асослаш учун етарли бўлмайди. Чунки, хўжалик юритувчи субъект булардан ташқари фонд бозоридаги, меҳнат ва капитал бозоридаги ҳолат, товар бозорининг таъминланганлиги ва ҳолати ҳақидаги, шунингдек, бизнеснинг турли тармоқларидаги техника ва технологиянинг ҳолати ҳақидаги маълумотларга ҳам эҳтиёж сезади. Бу ўз навбатида молиявий ҳисобот ахбороти сифатини баҳолаш ва уни ошириш тўғрисидаги саволни қўйишнинг муқаррарлиги ва муҳимлигини белгилаб берди.

Молиявий ҳисоботда бериладиган ахборот ишончли бўлиши учун тахминлардан мустақил бўлиши лозим. Молиявий ҳисобот маълумотнинг танлаш ва тақдим этиши билан қарорларни қабул қилинишига ёки олдиндан белгиланган натижа ёки якунга етишиш мақсадида фикрни шакллантиришга ўз таъсирини кўрсатса у бетараф деб ҳисобланиши мумкин эмас.

Агар ҳисоб-китоб ҳужжатларида ва молиявий ҳисоботда ахборот операциялар ва воқеаларнинг мазмунини ишончли даражада акс эттирса, бундай ахборот унинг ҳуқуқий шакли билангина эмас, балки моҳияти ва ҳақиқийлиги билан мувофиқ ҳолда ҳисобга олиниши ва тақдим етилиши зарур. Операциялар ва бошқа ҳодисаларнинг мазмуни уларнинг хуқуқий ёки белгиланган шаклига ҳар доим ҳам мувофиқ келмайди.

Молиявий ҳисоботларнинг ишончлилигини таъминлашда ахборот етарлича тўла ҳажмда тақдим этилиши муҳим аҳамият касб этади. Молиявий ахборот фойдали ва мазмунли бўлиши учун, бир ҳисобот давридаги ахборот бошқа ҳисобот давридаги аҳборот билан қиёсланадиган бўлиши керак. Фойдаланувчилар хўжалик юритувчи субъект молиявий ҳисоботни тайёрлашда фойдаланадиган ҳисоб-китоб сиёсатидан, ана шу сиёсатдаги барча ўзгаришлардан ва шундай ўзгаришларнинг натижаларидан хабардор бўлишлари лозим. Кейинги 2-расмда хўжалик субъектининг раҳбарияти қўйидаги хусусиятларга ега бўлган ахборотни шакллантирадиган ҳисоб сиёсатини ишлаб чиқиш ва қўллашда ўз ҳукмини чиқариши кераклиги келтирилган.



2- расм. Ҳисоб сиёсатига қўйилган талаблар

Гиперинфляцияли иқтисодиётга эга мамлакатлар валютасида ҳисобот берадиган корхоналар молиявий ҳисоботи у бошланғич ва тикланган қийматга асосланишидан қатъий назар ҳисобот санасида амал қиладиган ўлчов бирликларида тақдим қилиниши лозим. Молиявий ҳисоботларда очиқланиши талаб қилинадиган ахборотлар ҳамда анча олдинги даврларга оид бўлган ҳар қандай ахборотлар ҳисобот санасида амал қиладиган ўлчов бирликларида акс эттирилиши лозим. Бирқанча ташкилотлар молиявий ҳисоботдан ташқари ташкилот раҳбариятига молиявий шарҳ таҳлил этилади, қайсики унда ташкилотнинг молиявий хўжалик фаолияти тавсиф ва тушунтиришлар , унинг молиявий ҳолати ва асосий муаммолар ва ноаниқликлар тавсифи келтирилган. Ушбу ҳисобот қуйидаги мазмундаги ахборотларни қамраб олади.

- молиявий натижаларни белгиловчи асосий омиллар ва уларнинг таъсири, шу жумладан бозор шароитлари ўзгариши, қайсики корхона шу шароитда фаолият кўрсатади, ушбу ўзгаришларга ташкилотнинг реакцияси ва уларнинг таъсири ҳамда ташкилотнинг молиявий натижаларни қўллаб-қуватлаш ва яхшилашга қаратилган сиёсати, шу жумладан дивиденд соҳасидаги сиёсати ҳам;
- ташкилотнинг молиялаштириш манбалари, унинг мажбуриятлар ва хусусий капиталга нисбатан режадаги кўрсаткичлари.

Молиявий ҳисоботларда тақдим қилинаётган ахборотларнинг ўтган давр ҳисоботларидаги маълумотлари билан таққосланувчанлиги таъминланиши лозим.

Ўзбекистон Республикасида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи тизимини ривожлантириш стратегияси, бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботида шаклланадиган ҳисоб ахборотининг сифатини ошириш ҳамда ушбу ахборотдан манфаатдор фойдаланувчиларнинг кафолатли фойдалана олишларини таъминлаб беришга қаратилган.

Бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи тизимида амалга оширилаётган ўзгаришлар хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг молиявий натижалари ва молиявий ҳолати ҳақидаги манфаатдор фойдаланувчилар учун фойдали бўлган ахборотни шакллантиришни таъминлашга қаратилди.

Бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини ривожлантиришнинг асосий йўналиши – унда шаклланадиган ахборот сифатини оширишдир. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, ахборотнинг фойдалилигига бевосита МҲХСдан фойдаланиш орқали ёки улар асосида миллий бухгалтерия ҳисоби тизимини қуриш асоси сифатида фойдаланиш орқали эришиш мумкин. Замонавий бухгалтерия ҳисоби ўзида хўжалик юритувчи субъектлар томонидан юридик шахс бухгалтерия ҳисоботларини (индивидуал бухгалтерия ҳисоботи) ва жамланма молиявий ҳисоботни тайёрлашда фойдаланиладиган ахборот базасини ифода этади. Бундан ташқари бухгалтерия ҳисоботида шаклландиган ахборотдан бошқарув, солиқ, статистик ҳисоботлар, назорат қилувчи органлар учун ҳисоботлар тайёрлаш учун фойдаланилади. Зарурат туғилганда ушбу маълумотлар асосида бошқа шаклдаги ҳисоботлар тайёрланиши лозим. Шу сабабдан бухгалтерия ҳисоби соҳасида асосий вазифа бу ҳисоб жараёнини ташкил қилишнинг бирор-бир ҳисобот шаклини тузишга бевосита боғланиб қолмаслигини таъминлашдан иборат.

Жамланган молиявий ҳисоботлар соҳасида асосий вазифа манфаатдор фойдаланувчиларни хўжалик юритувчи субъектлар гуруҳи ҳақида сифатли, ишончли ва солиштириш мумкин бўлган ахборотдан кафолатли фойдалана олиш имконини яратишдан иборат.

Молиявий натижалар бўйича молиявий ҳисоботларнинг ахборот имкониятлари ва уларнинг таҳлилидан аудиторлик текширувида фойдаланишда далилларни олиш усуллари бухгалтерия ҳисоби ва таҳлилий амаллар тизими доирасида бухгалтерия ҳисоби орқали ҳосил қилинган аналитик маълумотларга асосланади. Бухгалтерия ҳисоби, таҳлил ва аудитнинг самарали ташкил этилган тизими корхонанинг молиявий-хўжалик фаолиятини бошқариш, уни янада ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш учун зарур бўлган ишончли ва тезкор ахборот базасини ташкил қилади. Шундай қилиб, аналитик маълумотлар оператив, тактик ва стратегик мақсадларда ишлатилиши мумкин. Функционал қуйи тизимларни ягона бухгалтерия ва таҳлилий тизимга бирлаштириш иқтисодий маълумотларнинг ўзаро таъсирини кучайтириш нуқтаи назаридан муҳимдир.

ХУЛОСА

Молиявий натижалар бўйича молиявий ҳисоботларнинг ахборот имкониятлари ва уларнинг таҳлилидан аудиторлик текширувида фойдаланиш бўйича олиб борилган мулоҳаза ва таҳлиллар натижасида қуйидаги якуний хулосаларга келишимиз мумкин:

1. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларида келтирилган молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим қилишнинг концепциясида молиявий ҳисобот фойдаланувчиларига сармоядорлар, ходимлар, қарз берувчилар, таъминотчилар ва бошқа савдо кредиторлари,

харидорлар, ҳукумат органлар, жамоатни киритган ҳолда, уларнинг ахборот эҳтиёжларини қондириш масаласини қуйидагича тавсифлайди: “Молиявий ҳисобот орқали барча ахборот эҳтиёжларини қондириш мумкин бўлмасада, барча фойдаланувчилар учун умумий бўлган талаблар амал қилади.

2. Хўжалик юритувчи субъектлар фаолияти тўғрисидаги аниқ ва шаффоф ахборотни шаклланиши самарали ҳисоб жараёнини тузиш ва зарурий инфратузилмани яратиш йўли унинг келгуси тараққиётининг омили бўлиб ҳисобланади.

3. Молиявий ҳисоботларда моддаларни тақдим қилиниши ва уларнинг таснифи бир даврдан иккинчи даврда сақланиши лозим (тақдим қилишнинг кетмакетлиги).Корхона молиявий ҳисоботларни тақдим қилишда усулларга ўзгартириш киритиши керак бўлади, агарда ўзгарган таркиб эҳтимол тўлиқ сақланилса ёки муқобил кўринишда тақдим қилишдан олинадиган наф муқаррар бўлиши кўриб чиқилди.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ham islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta’minlovshi asos bo‘lib xizmat qilishi, birinshi o‘ringa inson qadri va manfaatlari yuqori o‘ringa qo‘yilganligi, turmush darajasiga bevosita ta’sir etuvchi kuchlardan biri hisoblanadi. Aholining turli qatlamlari daromadlarini, xususan «Dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish” , ming yillik taraqqiyot dasturida ko‘zda tutilgan toza ichimlik suvi, suv resurslarini asrab avaylashga yo‘naltirilgan “Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni tejash bo‘yisha alohida davlat dasturini amalga oshirish, xususan, 2026-yilgasha respublika aholisining ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini 87 foizga yetkazish, 32 ta yirik shaharlar va 155 ta tuman markazlarida oqova suv tizimlarini yangilash” kabi muhim ustuvor

vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalar hududlarda aholining pul daromadlari va turmush darajalarini oshirish omillarini ekonometrik usullarda baholash, statistik ko‘rsatkishlar tizimini ishlab chiqish, iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining ekonometrik modellarini tuzish va prognozlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Jumladan, BMT Bosh Assambleyasida 2000-yilda qabul qilingan “Ming yillik taraqqiyot dasturi” hamda 2015-yilda qabul qilingan “2030-yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi” bevosita jahon aholisini ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda aholi salomatligini asrashga qaratilgan muhim ishlar sirasiga kiradi.

Shuningdek, iqtisodiyotning globallashuv sharoitida aholi turmush darajasini ekonometrik usullar yordamida baholashga zaruriyat tug‘ilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda aholining turmush darajasini obyektiv statistik ma’lumotlar asosida iqtisodiy-statistik tahlil qilish, aholi pul daromadlarining hosil bo‘lish manbalari va xarajatlarining tasniflanishini maxsus statistik usullarda o‘rganish, pul daromadlari va xarajatlariga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash va xarajatlar tasnifini ko‘p omilli tahlil etish, iste’mol va iste’mol talablarini qondirish darajasini statistik ma’lumotlar asosida haqqoniy talqin etish, rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini modellashtirish, prognozlash usullari yordamida ilmiy asoslangan tavsiya va takliflar ishlab chiqish mazkur

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O`zimizning mahaliy olimlarimizdan R.F. Jumanova “Aholi turmush darajasi ko‘rsatkichlari va uni oshirish yo‘llari” nomli ilmiy ishida aholi turmush darajasi tushunchasi va uning tarkibiy tuzilmasi, iqtisodiy ko`rsatkichlari haqida hamda X.S.Muxitdinovning “Aholi turmush darajasini oshirish va xududlarda ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini modellashtirish” nomli ilmiy ishlarida, Abdurahmonov X. “Aholi daromadlari va turmush sifati”, B.K.G‘oyibnazarovning “Aholi turmush darajasini baholash muammolari” nomli ilmiy ishlarida va boshqa bir qancha olimlarning ilmiy ishlarida aholi daromadlari va turmush darajasi haqida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorijiy olimlardan Y.V.Kabashovaning “Статистическое исследование доходов населения и их дифференциации в республике Башкортостан” ilmiy ishida, D.A. Kaplinning “ Сравнительный анализ уровня жизни городского и сельского населения России” ilmiy ishida va boshqa olimlarning ishlarida aholi turmush darajasining ko`rsatkichlari,ta`sir etuvchi omillar bo`yicha izlanishlarning yaqqol guvohi bo`lish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda aholi turmush darajasi insonlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish darajasi sifatida talqin etiladi. Xususan, V.N.Salin, Ye.P. Shpakovskayalar “Aholi turmush darajasi bu inson faoliyatining, eng avvalo, haqqoniy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yig‘indisini ifodalovchi murakkab va ko‘p qirrali kategoriya bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyotning muhim tavsifi hisoblanadi”, – deb ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

MHT(Milliy Hisoblar Tizimi)dagi uy xo‘jaliklarining daromadlari ko‘rsatkichlari

Aholi turmush darajasi – kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyojlari qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoiti yaxshilanib borishi singari tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Aholining moddiy ehtiyojlariga oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg‘i va uy-ro‘zg‘or buyumlariga

talablari kiradi, madaniy-maishiy ehtiyojlariga esa, jamiyat barcha a’zolarining bilimi, malakasi, mehnat qilish, dam olish, salomatligi va mehnat qilish qobiliyatini saqlashni kafolatlash, ijtimoiy ta’minot va nafaqalar bilan ta’minlashni ifodalovchi ko‘rsatkichlardan iborat (1-rasm).[1]



1-rasm. Aholi turmush darajasi tushunchasining tuzilishi va uning tuzulishini statistik baholash

2022-yilda mamlakatimizda birlamchi daromadlar ulushi 70,1 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, transfertlardan olingan daromadlar 29,8 foizga teng bo‘ldi, mol-mulkdan olingan daromadlar esa 2,4 foizni tashkil qilgan. Ular shahar va qishloq joylarida farqlanadi. O‘zbekistonda aholining kichik biznes faoliyatidan olgan daromadlari ulushi yil sayin ortib borib, 2022-yilda 56,4 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2010-yilda 47,1 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, 9,3 foizga ortgan. Shu bilan birga, daromadlar tarkibiga kiruvchi mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning asosiy manbai – mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar bo‘lib, bunday daromadlar, aholi umumiy daromadlariga sezilarlicha ta’sir ko‘rsatib, ularning ulushi 33,0 %ni tashkil etgan.

2022-yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi Toshkent shahrida 37079,7 ming so‘mni, Navoiy viloyatida 27129,1 ming so‘mni, Buxoro viloyatida 21470,5 ming so‘mni tashkil qildi, shuningdek, aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining eng quyi ko‘rsatkichlari Farg‘ona viloyatida 13844,4 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, Namangan viloyatida 13782,5 ming so‘m, Surxondaryo viloyatida 14520,4 ming so‘mga teng bo‘ldi. Aholi umumiy daromadlari hajmining sezilarli darajada oshishi asosan umumiy daromadlar tarkibiga kiruvchi mehnat faoliyatidan olingan daromadlar bilan bog‘liq 2021-yilda bu ko‘rsatkich 65,4 foizni tashkil qildi, shuningdek, shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar ulushi 6,4 foizga teng bo‘ldi.[3]

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi daromadlarining yillar davomida o‘zgarish dinamikasini statistik tahlil qilish orqali ulardagi mavjud qonuniyatlarni aniqlashimiz mumkin bo‘ladi (1-jadval).[3]

1-jadval

Dinamika qatorlari usulida aholi daromadlarining o‘zgarish dinamikasi tahlili, ming so‘mda

Yil	Aholi daromadi	Mutlaq qo‘shimcha o‘zgarish, ming tonna		Nisbiy o`zgarish sur`atlari, %		Qo`shimcha o`zgarish sur`ati, %	
		bazisli	zanjirli	bazisli	zanjirli	bazisli	zanjirli
2010	2192,8	-	-	100,0	100,0	-	-
2011	2928,9	736,1	736,1	133,6	133,6	33,6	33,6
2012	3501,8	1309,0	572,8	159,7	119,6	59,7	19,6
2013	4175,1	1982,3	673,3	190,4	119,2	90,4	19,2
2014	4759,6	2566,8	584,5	217,1	114,0	117,1	14,0
2015	5410,6	3217,8	651,0	246,7	113,7	146,7	13,7
2016	6215,9	4023,1	805,3	283,5	114,9	183,5	14,9
2017	7314,1	5121,3	1098,2	333,6	117,7	233,6	17,7
2018	9123,8	6931,0	1809,7	416,1	124,7	316,1	24,7
2019	10887,3	8694,5	1763,4	496,5	119,3	396,5	19,3
2020	12122,2	9929,4	1235,0	552,8	111,3	452,8	11,3
2021	14869,8	12677,0	2747,6	678,1	122,7	578,1	22,7
2022	17772,8	15580,0	2903,0	810,5	119,5	710,5	19,5

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, aholi daromadlari yillar davomida barqaror o‘sib kelgan. Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar o‘zgarish dinamikasi yuqoridlagi jadvalning tahliliy natijalariga obyektiv tus beradi (2-jadval).[3]

2-jadval

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlarning yillar davomida o‘zgarish dinamikasi tahlili, ming so‘mda

Yil	Jon boshiga real umumiy daromad	Mutlaq qo‘shimcha o‘zgarish, ming tonna		Nisbiy o`zgarish sur`atlari, %		Qo`shimcha o`zgarish sur`ati, %	
		bazisli	zanjirli	bazisli	zanjirli	bazisli	zanjirli
2010	**2038,7**	-	-	100,0	100,0	-	-
2011	**2729,9**	691,3	691,3	133,9	133,9	33,9	33,9

2012	**3267,8**	1229,1	537,9	160,3	119,7	60,3	19,7
2013	**3902,7**	1864,0	634,9	191,4	119,4	91,4	19,4
2014	**4472,0**	2433,3	569,3	219,4	114,6	119,4	14,6
2015	**5127,5**	3088,8	655,5	251,5	114,7	151,5	14,7
2016	**5887,9**	3849,2	760,4	288,8	114,8	188,8	14,8
2017	**6681,4**	4642,7	793,5	327,7	113,5	227,7	13,5
2018	**7763,0**	5724,3	1081,6	380,8	116,2	280,8	16,2
2019	**9506,0**	7467,4	1743,0	466,3	122,5	366,3	22,5
2020	**10734,3**	8695,6	1228,2	526,5	112,9	426,5	12,9
2021	**13416,8**	11378,1	2682,5	658,1	125,0	558,1	25,0
2022	**15948,3**	13909,7	2531,5	782,3	118,9	682,3	18,9
023	**1820 1,2**	1 6162,5	2 252,9	8 92,8	1 14,1	7 92,8	1 4,1

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz muminki, aholi soni ortishi natijasida ularning jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlari salmog‘i kamaymishini inobatga olgan holda, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar yillar davomida barqaror o‘sib kelganligini guvohi bo‘lamiz.

Daromadlar tarkibi o‘zgarib borayotgani bilan ularni atroflicha o‘rganib chiqish va tahlil qilishni, daromadlarni oshirishning yangidan-yangi manbalarini aniqlash va istiqbollashtirishni taqozo etadi. O‘zbekiston aholisining so‘nggi yillardagi umumiy daromadlarining tuzilmasi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi (3-jadval).[3]

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi aholisining jami daromadlari tarkibi (foizlarda)

T/P	Ko‘rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2022 yilda 2012 yilga nisbatan
	Umumiy daromad–jami	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	-
	shu jumladan:												
I.	**Birlamchi daromadlar**	78,9	78,3	80,4	84,2	85,1	80,6	77,5	76,2	75,4	73,6	70,2	-8,7
	shundan:												
1.	**Ishlab chiqarishdan**	77,1	76,1	78,4	82,0	82,2	77,4	74,6	73,5	73,3	71,5	67,9	-9,2
2.	**Mol-mulkdan**	1,8	2,2	1,9	2,2	2,9	3,1	2,9	2,7	2,1	2,2	2,4	0,6
II.	**Transfertlardan**	21,1	21,7	19,6	15,8	14,9	19,4	22,5	23,8	24,6	26,4	29,8	8,7

Ko‘rinib turibdiki, uy xo‘jaliklari daromadlarning asosiy manbalari ishlab chiqarishdan olingan daromadlardir. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, 2022 yilda birlamchi daromadlar ulushi 70,2 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, transfertlardan olingan daromadlar 29,8 foizga teng bo‘ldi, mol-mulkdan olingan daromadlar 2,4 foizni tashkil qilgan. Ular shahar va qishloq hududlarida turlicha ko‘rsatkichlarga ega. Aholi umumiy daromadlari hajmini sezilarli darajada o‘sishi asosan umumiy daromadlar tarkibiga kiruvchi mehnat faoliyatidan olingan daromadlar bilan bog‘liq. 2022 yilda ushbu ko‘rsatkich 61,4 foizni tashkil qildi, shuningdek, shaxsiy iste'mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar ulushi 6,5 foizni tashkil qildi. Statistik tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, aholining pul daromadlari tuzilmasida minimal va o‘rtacha ish haqining o‘sishi hisobiga ish haqining ulushi bir necha barobar o‘sdi. Ish haqining umumiy daromaddagi ulushining ortishi iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi, chunki bu yollangan ishchilarning yuqori samara bilan ishlash rag‘batini uyg‘otadi.

Uy xo‘jaliklari daromadlarining to‘liq hisobi mavjud emasligi sababli, aholi daromadlarining taqsimlanishini o‘rganish uchun simulyatsiya usullari qo‘llaniladi. Modelning asosi: ish haqi darajasi bo‘yicha band bo‘lganlar, shuningdek, jon boshiga o‘rtacha pul daromadlari darajasi bo‘yicha butun aholi lognormal taqsimotga bo‘ysunadi. Aholi jon boshiga o‘rtacha pul daromadi aholining pul daromadlari va xarajatlari balansidan foydalangan holda hisoblanadi.[2]

• aholi daromadlari tabaqalanishining o‘nlik koeffitsiyenti – eng ta’minlangan aholining 10 foizining eng kam daromadi eng kam ta’minlangan aholining 10 foizining eng yuqori daromadidan necha baravar yuqori ekanligini ko‘rsatadi;

• fond nisbati – eng boylarning 10 foizi va eng kambag‘al aholining 10 foizining o‘rtacha daromadlari o‘rtasidagi nisbat;

• daromad konsentratsiyasi nisbati (Jini koef). U 0 dan 1 gacha o‘zgarib turadi. 1 ga yaqin qiymat daromad taqsimotidagi yuqori tengsizlikni ko‘rsatadi.[4]

4-jadval

Aholi daromadlarining notekis taqsimlanishi (Jini koeffitsienti)

Ko‘rsatkich nomi	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**
Jini koeffitsienti	0,262	0,262	0,262	0,276	0,273	0,283	0,3

2000-2022-yillar kesimidagi dinamik o‘zgarishlarni kuzatish natijasida aholi daromadlari, asosiy kapitalga investitsiyalar hamda yalpi ichki mahsulot o‘sishi o‘rtasida uzoq muddatli bog‘lanish borligini aniqlash mumkin. Mazkur jarayonni birlik iltiz testi Augmented Dikkey Fuller testi bilan isbotlash mumkin.

Natijaviy belgi sifatida aholining o‘rtacha daromadi tanlab olinib (AD) eng kichik kvadratlar usuli va maximoom likelihood metodlari asosida SEM, DSGE metodlaridan foydalanamiz.(2-rasm)



2-rasm. SEM model bo`yicha muallif gipotezasi

Maximoom likelihood metodi asosida modellashtirishda SEM modelidan foydalanib, yani tahlilimiz boshida keltirilgan gipotezani shakllantiramiz.(3-rasm)



3-rasm. Milliy iqtisodiyotda taqsimot munosabatlarini modelllashtirish

Soliq yuki aholi daromadiga tog‘ri ta’sir etishidan ko‘ra bevosita aloqasi kuchli, 3-rasmdan soliq yukining bir foizga ortishi aholi daromadining 0.34 foizga ortishiga, budjet profitsitining 1.2% ko‘payishiga olib kelishi aniqlandi.

Bunga asosan asosiy kapitalga investitsiyalar yalpi ichki mahsulotning ko‘payishi xizmat qilib, natijada aholi daromadlarining 0.25% ortishini sabab bo‘ladi.

XULOSA

Aholining turmush darajasini statistik tadqiqoti bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi ilmiy takliflar va xulosalarga kelindi:

MHT-2008 xalqaro standarti asosida aholi daromadlari va ularning tabaqalashuvi o‘zaro chambarchas bog‘langan, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida baholanadi. Tadqiqotda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda aholi turmush darajasini to‘laroq statistik tahlil qilishga imkon beruvchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi aynan xalqaro standartlar va tamoyillar asosida ishlab chiqildi.

Maqolada respublikamizda aholi bandligini ta’minlash maqsadida yaratilgan yangi ish o‘rinlari holati tahlil qilindi. Bunda 2022-yilda yaratilgan ish o‘rinlarining 32,0 foizi kichik biznes sohasini rivojlantirish hisobiga to‘g‘ri kelgan. Yaratilgan ish o‘rinlaridan 10 mingdan ortig‘i xizmat ko‘rsatish va servis sohasi ulushi (shundan xotin-qizlar uchun 19,7 foiz) ekanligi aniqlandi.

Natijalarimiz ko‘rish mumkinki, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning asosiy manbai – bu mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar bo‘lib, ushbu daromadlar ulushiga ko‘ra, aholi umumiy daromadlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va ularning ulushi 44,8% ni tashkil etdi. Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o‘sishi umumiy daromadlar hajmining 0,37 % ga o‘sishiga olib keldi. Hududlarda qo‘shma korxonalarni barpo etish, uyushmagan aholi mehnatidan samarali foydalanish, kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, imtiyozlar berish, tomorqa xo‘jaligi mehnatidan samarali foydalanish bilan uzviy bog‘liq.Ish bilan band bo‘lganlar o‘rtacha ish haqlari orasidagi farqlanishlarni iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha tahlil etilganda o‘rtacha ish haqi asosan bank, moliya, sug‘urta va axborotlashtirish, aloqa sohalarida yuqori ekanligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida nisbatan o‘rtacha, qishloq ho‘jaligi, o‘rmonchilik, va baliqchilikda esa sezilarli past darajada past ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.M. Soatov “Statistika” Toshkent Abu Ali ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti 2003,744 b
2. Mirzamahmudova M “O’zbekistonda kambag’allikni aniqlash muammolari”
3. www.stat.uz rasmiy sayt ma`lumotlari.
4. Abdurahmonov X. Aholi daromadlari va turmush sifati. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2014- y.- 256 b.
5. O’zbekiston respublikasi prezidentining Farmoni. 2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan yangi o’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida. https://lex.uz/

IQTISODIYOT TARMOG‘LARINI RIVOJLANISHIDA SANOAT VA BOSHQA KO‘PLAB TARMOQLARNI TUTGAN O‘RNINI STATISTIK BAHOLASH VA TAXLIL ETISH (YURTIMIZ MISOLIDA).

Kamoldinov Sardorbek Maxammadsobir O‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Oliy va amaliy matematika kafedrasi o‘qituvchisi,
E-mail: kamoldinovs03@gmail.com
ORCID: 0009-0007-7276-1254
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191060

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda tarmoqlarning tutgan o‘rni va ahamiyati, xalqaro tasniflashlar asosida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda tarmoqlar*

ulushi va dinamikasi tahlil qilingan, shuningdek sanoat tarmog‘ini yanada strategik rivojlantirish yo‘nalishlari qayd etilgan hamda yurtimiz misolida ko‘rib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy taraqqiyot, sanoat,dinamika,mahsulot, tarmoq, YaIM, ishlab chiqarish, tarkibiy siljishlari, tarmoqlar ulushi, o‘zgarish sur’atlari*

KIRISH

Inson ehtiyojlari uchun kerkali bo‘lgan moddiy ne’matlar ishlab chiqaradigan soha tarmoqlari orasida eng salmoqli o‘rin egallagani va yetakchisi sanoat tarmog‘idir. Respublikamizda yalpi ichki mahsulotning salkam 26 foizi sanoat tarmog‘ida yaratiladi. Iqtisodiyot barcha tarmoqlarining muvaffaqiyatli o‘sishining garovi ushbu tarmoqning rivojlanish darajasi sur’atiga bog‘liqdir.

Hozirgi davrda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoq va sohalarida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish tufayli jahon bozorida raqobatga bardosh beradigan pirovard tovarlarni tashqi dunyoga sotish orqali eksport salohiyatini mustahkamlashning imkoniyatlari yaratilmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “ ... iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi” [1] – deb ta’kidlagan edilar.

Investitsiyalarni ishlab chiqarish sohalariga yo‘naltirishi natijasida, mamlakatda mustaqillik yillarida mutlaqo yangi sanoat tarmoqlari yaratildi, jumladan avtomobilsozlik, neftgazkimyo, neftgaz mashinasozligi, hozirgi zamon qurilish materiallari sanoati, temir yo‘l mashinasozligi, maishiy elektronika, farmatsevtika, zamonaviy oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati va boshqalar.

Mustaqillik yillari (1991-2020 yy.) mobaynida YaIM qo‘shimcha o‘sish sur’atining 23,2 foizi iqtisodiyotda band bo‘lgan xodimlar sonining ko‘payishi hisobiga yuz bergan bo‘lsa, mehnat unumdorligi oshishining va moddiy xarajatlar tejamining ta’siri mos ravishda 58,2 va 18,6 foizni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi real sektorida faoliyat yuritayotgan korxonalarni rivojlantirish hamda ular o‘rtasida raqobat muhitini shakllantirish, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini o‘sishida real sektor korxonalarining o‘ziga xos o‘ringa egaligi, ularning raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga bo‘lgan intilishlarini yanada oshirdi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil 1 maydagi “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4302-sonli Qarorida “Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, kichik biznes sub’ektlarini sanoat faoliyatiga keng jalb etish, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish” [2] ko‘zda tutilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashda sanoat mahsulotlarining o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun sanoat tarmog‘ini rivojlantirishning dolzarbligi doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, mavzu yuzasidan xorijiy olimlardan Yu.Rodionov, R.S.Porter, D. Deveryuks, B.Roberts, R.N. Nureevlar ilmiy yangiliklar yaratgan bo‘lsalar, mahalliy olimlardan A.Abduhamidov, U.Muxitdinov, A.A.Ortikov, X.Ishbutaeva,

Sh.Nizomova, E.X.Maxmudov, M.Isoqov, X.D.Xujakulovlar bir qator ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Jumladan, A.Ortikov “O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari”ga [5], M.P.Narziqulov “Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e’tibor tarkibiy o‘zgarishlarga qaratilganligi”ga [6], E.X. Maxmudov “Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo‘nalishlari birinchi navbatda byudjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish”ga [7], Xujakulov X.D., Sayfullaev S.N. “O‘zbekiston sanoati tarmog‘ining tarkibiy o‘zgarishlarini xalqaro tasniflash asosida statistik o‘rganish”ga [8], Mamadjanov D.G. “O‘zbekistonda sanoat tarmog‘i rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini baholash”ga [9] bog‘liqliklariga alohida to‘xtalib o‘tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, sintez, statistik guruhlash, ekspert baholash va ilmiy abstarktsiyalash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

2021 yilning dastlabki yakunlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 7,4 foiz, (2020 yilda 1,9%)ga, sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmi 8,7 foiz (2020 yilda 0,9%)ga oshib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Respublikamiz korxonalari tomonidan

2021 yilda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi joriy baholarda

451,6 trln. so‘mni tashkil qilib, 2010 yilga nisbatan tarmoqda yaratilgan qo‘shilgan qiymatning o‘sish sur’ati 184,7 foizga (166,5:90,2), o‘rtacha yillik qo‘shimcha o‘sish sur’ati 5,7 foizdan ziyodga teng bo‘ldi (1-jadval, 1-diagramma).

O‘zbekistonda asosiy makroiqtisodiy ko‘rssatkichlarning hajmi va dinamikasi

Yillar	YaIM va YaQQ hajmi 2020 yil baholarida, trln. so‘m			2020 yil baholarida aholi jon boshiga, ming so‘m		
	YaIM	Tarmoqlarning YaQQ		YaIM	YaQQ	
		jami	shundan sanoatda		barcha tarmoqlar bo‘yicha	shundan sanoatda
A	1	2	3	4	5	6
2010	338,9	311,3	90,2	11865,2	10898,9	3158,0
2011	364,4	335,3	94,1	12420,2	11428,3	3207,3
2012	390,2	360,4	99,5	13105,2	12104,3	3341,8
2013	418,7	387,1	106,9	13844,4	12799,6	3534,7
2014	447,6	414,2	111,8	14552,5	13466,5	3634,9
2015	479,8	444,4	117,7	15329,6	14198,6	3760,5
2016	508,1	471,1	124,0	15954,0	14792,2	3893,5

2017	530,5	491,3	130,5	16379,2	15168,9	4029,2
2018	559,1	517,4	144,6	16965,0	15699,7	4387,7
2019	591,0	547,4	151,8	17599,4	16301,1	4520,5
2020	602,2	557,8	153,2	17591,7	16294,6	4475,3
2021	646,8	599,6	166,5	18524,9	17173,1	4768,7

Manba: O‘zbekiston Davlat statistikasi qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisoblamasi.

Umuman sanoat respublikamiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki, sanoat o‘zining qo‘shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o‘rni va yuqori darajaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish lokomotivi bilan boshqa soha va tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Sanoat tarmog‘ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur’atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Sanoat sohasida qazib olingan, ekib o‘stirilgan barcha resurslarni qayta ishlash, ulardan yangidan-yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortiment va nomenklaturaning ko‘payishi hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi.

Sanoat tarmog‘i yirik ishlab chiqarish instituti bo‘lishi bilan birgalikda, aholini ish bilan ta’minlash va yangi ish joylarini tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarmoqda ish bilan band bo‘lganlar soni 2010 yilda 1605,7 ming kishini, 2015 yilda 1768,7 ming kishini, 2020 yilda 1809,5 ming kishini, 2021 yilda 1883,3 ming kishini yoki iqtisodiyotda band bo‘lganlarning mos ravishda 13,8; 13,5; 13,7 va 13,9 foizni tashkil qilgan. Natijada 2021 yilda 2010 yilga nisbatan band bo‘lganlar soni tarmoqda 17,3 foizga ko‘paygani holda, butun iqtisodiyot bu ko‘rsatkich 16,4 foizga teng bo‘lgan. Sanoat tarmog‘ini ish bilan bandlikni oshirishdagi yana bir muhim xususiyati qayta ishlash va qo‘shimcha qiymat yaratishdagi faolligi hisobiga yuzaga chiqadi. Ya’ni, qayta ishlovchi korxonalarning ko‘paygani va ko‘shimcha qiymatning ortgani sari sanoatda ham band bo‘lgan xodimlar soni ortaveradi. Bundan ko‘rinadiki, qo‘shimcha qiymat va qayta ishlashning o‘sishi bilan sanoatda band bo‘lgan xodimlar sonining o‘zgarishi o‘rtasida to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. Sanoat jahon iqtisodiyotida ishtirok etayotgan davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish va iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga yordam beradi. Natijada, barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslari, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbvtida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni ta’minlaydigan kimyo, neftь-gaz va neftь-kimyo sanoatini, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, qurilish materillari ishlab chiqarish, yengil, oziq-ovqat sanoatining yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarini va boshqa sohalarni yuksak darajada rivojlantirishni talab etadi.



1-diagramma. Yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning, tarmoqlar yalpi qo‘shilgan qiymati (YaQQ)ning va sanoatda yaratilgan qo‘shilgan qiymat (SYaQQ)ning qo‘shimcha o‘sish sur’atlari, foizda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida “yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish” [3] – vazifalari alohida ta’kidlangan.

Keyingi yillarda iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida tarkibiy o‘zgarishlar sodir bo‘lganligini ta’kidlash joiz. 2021 yilda 2010 yilga qaraganda YaIM va tarmoqlar yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibida mos ravishda sanoatning hissasi 9,3 va 9,1 foiz bandga va qurilishda 1,4 va 1,3 foiz bandga oshgan bo‘lsa, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 2,0 va 3,7 foiz bandga va xizmatlar sohasida 4,2 va 6,7 foiz bandga pasayganligini ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval

O‘zbekistonda YaIM va tarmoqlar yalpi qo‘shilgan qiymati (YaQQ) hajmining o‘zgarishi kursatkichlari

Yillar	YaIM va YaQQ hajmining o‘zgarish sur’ati, %			Tarmoqlar YaQQning YaIMdagi ulushi, %		Sanoatning qo‘shilgan qiymati ulushi, %	
	YaIM	YaQQ					
		barcha tarmoqlar bo‘yicha	shundan sanoatda	barcha tarmoqlar bo‘yicha	shundan sanoatda	Tarmoqlar YaQQda	Sanoat mahsuloti hajmida
A	1	2	3	4	5	6	7

2010	107,1	107,5	105,9	88,0	16,5	18,7	34,1
2011	107,5	107,7	104,4	88,7	15,4	17,4	33,5
2012	107,1	107,5	105,7	88,8	16,1	18,1	35,6
2013	107,3	107,4	107,5	89,6	16,6	18,5	35,9
2014	106,9	107,0	104,5	90,2	17,2	19,1	38,3
2015	107,2	107,3	105,3	90,9	17,4	19,1	39,4
2016	105,9	106,0	105,4	91,2	17,8	19,5	40,6
2017	104,4	104,3	105,2	89,0	18,8	21,1	40,0
2018	105,4	105,3	110,8	89,3	22,6	25,3	40,1
2019	105,7	105,8	105,0	91,5	25,7	28,1	42,2
2020	101,9	101,9	100,9	92,6	25,4	27,5	41,5
2021	107,4	107,5	108,7	92,8	25,8	27,8	42,0

Manba: O‘zbekiston Davlat statistikasi qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisoblamasi.

Bu kabi tarkibiy siljishlar natijasida tarmoqlar YaQQning YaIMdagi ulushi 4,8 foiz bandga oshib, mahsulotlarga sof soliqlar ulushi 12 foizdan 7,2 foizgacha pasaygan (2- va 3-jadvallar).

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamizda 2021 yilda 2020 va 2010 yillarga nisbatan mos ravishda YaIMning o‘sish sur’ati 107,4 va 190,8 foizni, tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati 107,5 va 192,6 foizni, sanoat tarmog‘ida yaratilgan qo‘shilgan qiymat esa 108,7 va 184,6 foizni tashkil etgani holda, 2010-2021 yillarda o‘rtacha yillik qo‘shimcha o‘sish sur’ati YaIM, tarmoqlar va sanoatning qo‘shilgan qiymatlari bo‘yicha 6,0 ; 6,1 va 5,7 foizga teng bo‘lib, sanoat tarmog‘ida qo‘shilgan qiymatning ilgarilash koeffitsienti YaIM va tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymatiga nisbatan tegishli holda 0,967 yoki 96,7 foizni (1,846:1,908) va 0,958 yoki 95,8 foizni (1,846:1,926) tashkil etgan. Bu ma’lumotlar sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati dinamikada bir muncha past bo‘lganligidan dalolat beradi. Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar asosida 2010-2021 yillarda aholi jon to‘g‘ri kelgan YaIM va tarmoqlarning YaQQ hajmi qariyb 1,6 martaga, sanoat tarmog‘ida qo‘shilgan qiymat esa 1,5 martaga oshganligini kuzatishimiz mumkin (1- va 2- jadvallar).

3-jadval

O‘zbekistonda YaIM va YaQQ hajmida tarmoqlar hissasining o‘zgarishi (foiz hisobida)

Yillar	YaIM hajmi, amaldagi bahoda, trln.so‘m	Tarmoqlar ulushi, % (sanoat tarmog‘isiz)					
		Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi		Qurilish		Xizmatlar	
		YaIMda	Tarmoqlar YaQQda	YaIMda	Tarmoqlar YaQQda	YaIMda	Tarmoqlar YaQQda
A	1	2	3	4	5	6	7
2010	78,9	27,0	30,6	4,8	5,4	39,9	45,3
2011	103,2	29,7	33,5	4,4	4,9	39,2	44,2
2012	127,6	28,9	32,6	4,4	4,9	39,4	44,4
2013	153,3	27,8	31,0	4,8	5,3	40,5	45,2
2014	186,8	28,7	31,8	4,9	5,4	39,4	43,7
2015	221,4	29,2	32,1	5,1	5,7	39,1	43,1
2016	255,4	29,3	32,1	5,1	5,6	39,0	42,8
2017	317,5	28,7	32,2	4,8	5,4	36,8	41,4
2018	424,7	26,8	30,0	5,2	5,8	34,8	38,9
2019	529,4	24,6	26,9	5,8	6,3	35,3	38,7
2020	602,2	25,1	27,1	6,2	6,7	35,8	38,7
2021	734,6	25,0	26,9	6,2	6,7	35,7	38,6

Manba: O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Respublikamizda IFUT yangi strukturasi bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlar va tarmoqlar ulushi 4-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar bilan tavsiflanadi. Jadval ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, 2010 yilda jami sanoat mahsulotining 13,4 foizi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (V) da yaratilgan bo‘lsa, 75,4 foizi ishlab chiqaradigan sanoat (S)ga to‘g‘ri kelgan, 2021 yilda bu ko‘rsatkichlar tegishli ravishda 9,5 va 83,0 foizni tashkil etgan, ya’ni 2010 yilga nisbatan 3,9 foiz bandga pasaygan va 7,6 foiz bandga oshgan. Ishlab chiqaradigan sanoat (S-sektsiya) sohasida metallurgiya sanoati eng katta salmoqqa ega bo‘lib, 2021 yilda 25,7 foizni tashkil etgan va 2010 yilga nisbatan 12,9 foiz bandga jadallashgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati va dinamikasini tarmoqda yaratilgan qo‘shilgan qiymatning fizik hajmi indeksi asosida aniqlamoqda. Bunday hisob metodologik jihatdan to‘g‘riligini e’tirof etishimiz lozim, chunki ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barchasi iqtisodiyotda pirovard mahsulot bo‘lmaydi, bu esa takroriy hisoblar va oraliq iste’molining mavjudligi bilan izohlanadi. Biroq alohida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari bo‘yicha mahsulot hajmi va uning dinamikasini aniqlab, iqtisodiy jarayonni tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiyotning samaradorligini oshirishda eng muhim omil bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish hisoblanadi.

4-jadval

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlar va tarmoqlar ulushi

Yiriklashtirilgan sektsiyalar bo‘yicha sanoat tarmoqlari	Yillar							
	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Sanoat mahsuloti hajmi (B, C, D, E) – jami, mlrd. so‘m	38119,0	97598,2	111869,4	148816,0	235340,7	322535,3	368740,2	451633,9
Shu jumladan jamiga nisbatan, %:								
B. Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	13,4	9,7	8,1	10,3	12,3	13,5	9,0	9,5
C. Ishlab chiqaradigan sanoat	75,4	80,5	81,8	81,1	80,6	79,0	83,0	83,0
D. Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	10,7	9,2	9,4	7,8	6,2	6,8	7,4	6,8
E. Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9	0,7	0,6	0,7
Sanoat ishlab chiqarishning fizik hajmi indeksi, %:								
Butun sanoat bo‘yicha	105,9	105,3	105,4	105,2	110,8	105,0	100,9	108,7
B. – sektsiya bo‘yicha	94,8	102,9	100,8	117,6	126,5	99,4	78,0	110,7
C. – sektsiya bo‘yicha	108,9	105,9	106,7	104,2	107,9	106,6	107,9	108,2

D. – sektsiya bo‘yicha	118,5	105,1	103,6	95,5	103,1	105,1	106,8	113,0
E. – sektsiya bo‘yicha	118,6	106,8	110,0	108,0	111,3	102,2	99,1	82,3

Manba: O‘zbekiston Davlat statistikasi qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Shu bois tarmoqlarda ilg‘or zamonaviy yuqori texnologiyalardan foydalangan holda, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishda oraliq iste’moliga sarflar tejamini ta’minlash zarur. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda oraliq iste’molining hissasi 2010 yildagi 65,9 foizdan 2021 yilda 58,0 foizgacha pasaygan bo‘lsada, hanuzgacha yuqori salmoqni tashkil etmoqda (2-jadval, 2-diagramma).



2-diagramma. Sanoat mahsuloti hajmida qo‘shilgan qiymatningva oraliq iste’molining ulushi (jamiga nisbatan, foizda

Iqtisodiyotning taraqqiy etishida tarmoq va sohalarda ilg‘or yuqori texnologiyalarni qo‘llash va keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning salmog‘i hali talab darajasida emas. Aytaylik, iqtisodiyotning drayveri hisoblangan ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020 yilda yuqori texnologiyali tarmoqlarning ulushi 2,0 foizni, o‘rta-yuqori texnologiyali 22,4%, o‘rta-quyi texnologiyali – 39,9% va quyi texnologiyalisi 35,7 foizni, 2021 yilda esa bu ko‘rsatkichlar tegishli ravishda 2,7; 20,1; 39,4 va 37,7 foizni tashkil etgan.

Demak, shunday vaziyatdan kelib chiqqan holda, yuqori texnologiyali tarmoqlarning salmog‘ini oshirish maqsadga muvofiq.

Sanoatda ishlab chiqarishining sektsiyalar bo‘yicha fizik hajm indekslari 2021 yilda 2010 yilda nisbatan V sektsiyada 127,8 foizni, S sektsiyada 220,7 foizni, D sektsiyada 133,6 foizni, Ye sektsiyada 173,8 foizni tashkil etib, o‘rtacha yillik qo‘shimcha o‘sish sur’atlari mos holda 2,2; 7,5; 2,7 va 5,2 foizga teng bo‘lgan (4-jadval).

Xulosa

Iqisodiyot tarmog‘ini yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibida sanoatning hissasini oshirish maqsadida tarkibiy o‘zgartirish, mahalliy mineral xom-ashyo resurslarini yanada chuqur qayta ishlash asosida ishlab chiqarish hamda yetakchi tarmoqlarni faol diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni amalga oshiruvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bo‘yicha kompleks chora–tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Keyingi yillarda sanoat tarmog‘ida tarkibiy o‘zgarishlar natijasida sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi salohiyati sezilarli darajada oshgan bo‘lsada, biroq sanoat majmunga kiritilgan investitsiyalar tarmoq mahsulotlari eksporti salmog‘ining oshishiga talab darajasida hissa qo‘sha olmasdan, asosan ichki bozor uchun mahsulot yetkazib berish bilan cheklanmoqda.

Kelgusida mamlakat sanoati rivojlanishini ta’minlovchi quyidagi yo‘nalishlarni taklif etamiz:

-investitsion ishlab chiqarishni rivojlantirish, keng ko‘lamli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan loyihalar ishlab chiqish;

-korxonalarda innovatsion salohiyatni takomillashtirish, ilm va yuqori texnologiya talab qiladigan yangi korxonalar tashkil etish va import mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish;

-rivojlangan mamlakatlarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi zamonaviy texnika-texnologiyalarini import qilish siyosatini jadallashtirish;

-sanoatda xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlik ulushini oshirish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 3 ustuvor yo‘nalishida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish” [4] vazifalari belgilangan.

Xulosa qilib aytish joizki, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi mamlakatimizning makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlashga va oshirishga, aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/4056.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 maydagi “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4302-sonli Qarori// Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 iyundagi “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6244-sonli Farmoni // Lex.uz.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son)

5. Ortikov A. Sanoat iqtisodi. Darslik. T.: TDIU, 2009. 236 b.

6. Strategiya dalьneyshego povыsheniya konkurentosposobnosti natsionalьnoy ekonomiki: materialы 1U-go Foruma ekonomistov / otv. red. M.P. Narzikulov. Tashkent. Vak1paRgez$, 2012. S. 8.

7. Maxmudov E.X., Ortikov A., Karimov F. Korxona iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini. / Hamkor. 2010 yil 7 fevralь.

8. Xujakulov X.D., Sayfullaev S.N. O‘zbekiston sanoati tarmog‘ining tarkibiy o‘zgarishlarini xalqaro tasniflash asosida statistik o‘rganish// “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali, 2017, 6-son, 129-134-betlar.

9. Mamadjanov D.G. O‘zbekistonda sanoat tarmog‘i rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini baholash. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2018, 3-son may-iyunь.

10. www.stat.uz. - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti.

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Yangiboyev Umid Abdurashid o‘g‘li,
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistent
umid15iq@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191385

Rustamova Dilnoza Adham qizi,
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talaba
dimkarustamova0104@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191385

Annotatsiya: *Raqamli jarayonlar tezkorligi bilan ajralib turishi bois, uning chegara va imkoniyatlarini umumiy iqtisodiy qarashlardan ajratish maqsadga muvofiqdir. Bugungi iqtisodiy harakatlarimizning qaysi raqamli, qaysi esa inson faoliyatining „eski“ modeli ekanligini qarash raqamli iqtisodiyotni to’la tushuntirish imkonini beradi. Maqolada o’sha chegaralarni va farqlarni ko’rsatishga, tahlil qilishga urinib ko’ramiz. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy hamda texnologik asosi va vositalarni sharhlaymiz. O’rganishni sodda metodlardan murakkablariga tomon olib boramiz. Mavzuning argumentini o’rganishda empirik hamda kompramativ metdolardan foydalaniladi.*

Kalit so’zlar: *Raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar, ta’lim, sanoatni raqamlashtirish, Industry 4.0, AKT, texnologiyalar, mobil sektor, emikirik, kompramativ.*

Kirish

Iqtisodiyotda raqamli muhitga o‘tish haqida ko‘p gapirilsa-da, ko‘plab mutaxassis bo‘lmagan kishilar uning to‘laqonli mazmuni haqida yakdil tushunchaga ega emas. Raqamlashtirish har bir mamlakatning o‘zaro raqobatlashuv me’zoniga aylanib ulgurdi. Sababi, raqamli transformatsiya

o‘zidan oldingi “Sanoat 3(1;2).0” bosqichlariga qaraganda tezkor jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Buning **biznes, modelli hamda iqtisodiy** shakllarini davlat sektoridan tashqari, xususiy biznesda, shuningdek qo‘shma korxonalarda ham uchratish mumkin. Savdo yoki xizmatdan foyda olishning analogi sifatida qarab kelinayotgan raqamli jarayonning o‘zi bugungi kunda yangi model sifatida taklif etilayotgani ham soha vakillariga sir emas. Mikro va makroiqtisodiy ko‘lamdagi korxonalararo munosabatlarda uning raqobat muhitidagi asosiy komponensial asosga egaligi bois, iqtisodiy maydonda barqarorlik o‘rnini mustahkamlashdaa murakkabliklarga duch kelish ehtimoli yuqoridir. Zamonaviy iqtisodiy tizimlarda eskirgan biznes boshqaruv modellari asosida faoliyat olib borish industriyalashgan (sanoatlashtirish) iqtisodiyotida doimiy iqtisodiy risklar o‘zining xavf omillarini ta’sir etish imkoniyatini tug‘diradi, vaholanki bu kabi holatlarni tarix guvohligida “Kodak”, “Compaq” va “Polaroid” singari korxonalar misolida ko‘rish mumkin.

Raqamli iqtisodiyot asosida faoliyat yuritishning korxonalar uchun zaruriy jihatlarini ajratib ko‘rsatish maqsadida uning nazariy asoslari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu tushunchaga qisqa vaqt oralig‘ida ko‘plab iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlari hamda ilmiy yondashuvlari shakllanib, o‘zining iqtisodiy asosiga ega biznes freymvorklari sifatida amaliyotda foydalanilishiga aylanib ulgurdi. Jumladan, Ispaniyaning “La Salle” universiteti professori Ignasi Medà Calvet fikriga ko‘ra “Raqamli iqtisodiyot - bu odamlar, kompaniyalar, qurilmalar, ma’lumotlar va jarayonlar o‘rtasidagi har kuni milliardlab onlayn ulanishlar natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy faoliyat. Bugungi kunda u uch trillion dollarga teng (bu S&P 500ning taxminan 30% va Buyuk Britaniya yalpi ichki mahsulotidan ko‘proq) va barcha qiymat internet ishga tushirilgandan beri so‘nggi 20 yil ichida yaratilgan (Forbes). Kompaniyalar raqamli innovatsiyalarni o‘zlashtirib, ushbu yangi raqamli iqtisodiyotdan foydalanish orqali bozor yetakchiligini o‘rnatmoqda”.

Vikipediya lug‘atiga ko‘ra esa - raqamli iqtisodiyot raqamli hisoblash va iqtisod portmantosi (birikma) bo‘lib, an’anaviy fizik do‘konlar (yoki ana’anaviy do‘konlar org. Brick and mortar) iqtisodiy faoliyat (ishlab chiqarish, tarqatish, savdo) Internet va World Wide Web texnologiyalari tomonidan qanday o‘zgartirilayotganini tavsiflovchi atamadir. Ushbu atama o‘tkan asrning so‘ngi o‘n yilligida vujudga kelgan va uning muallifi Nikolas Negroponte hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur holat yuzasidan berilgan ta’rifning barcha parametrlari asosli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, AQShning Manchester universiteti - Alliance Manchester biznes maktabi iqtisodchi olimi Rumana Buxtning fikriga ko‘ra - “Raqamli iqtisodiyotning ma’nosi va ko‘rsatkichlari ham cheklangan, shuningdek ular o‘zaro farq qiladi. Raqamli iqtisodiyotning ta’rifini ishlab chiqish va uning hajmini baholash uchun uchta dolzarblik doirasini ko‘rib chiqish muhimdir. Raqamli iqtisodiyotning asosini “raqamli sektor” tashkil etadi: asosiy raqamli mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi IT/AKT sektori sanaladi.” Shuningdek muallif fikriga tayangan holda asl raqamli iqtisodiyot va uning jarayonlari – “dastavval raqamli mahsulotlar yoki xizmatlarga asoslangan biznes modeliga ega raqamli texnologiyalardan olingan iqtisodiy mahsulotning bir qismi” bo‘lishiga ko‘ra haqqoniy ta’riflangan – raqamli sektor hamda rivojlanayotgan raqamli va platforma xizmatlaridan iborat deb hisoblanadi.” Keng ma’noda uning targ‘ibini ilgari surishda esa barcha iqtisodiy sohalarda AKTdan foydalanish – “raqamlashtirilgan iqtisodiyot” deb ataladi.

Ma’lumotlarni ishlab chiqarish va tarqatish, tranzaksiyalarni qayta ishlash hamda raqamlashtirish. (1.1-rasm)



1.1-rasm. AKT yo‘nalishlari tipologiyasi. (Heeks, 2008)

Raqamli iqtisodiyotni nazariy asoslari jihatdan tadqiq etganda, uning asl ma’nosini Buxtning ta’rifiga tayanishdan oldin, kelib chiqishini hamda ilmiy ildizlarini aniqlash muhimdir. Bu birikma jahon iqtisodiyotining ajralmas va kelajakka xos qismi hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot yer sharining shimoliy qismida globallashuvni tezlashtirib, juda tez ravishda siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bunda 1990-yillarda internetning paydo bo‘lishi pirovardida boshlangan iqtisodiy sifat o‘zgarishlarni ilk impuls sifatida olish mumkin. XXI asrning ikkinchi o‘n yilligi esa chin ma’noda ommaviy axborot kommunikatsiya davriga o‘tish yillari bo‘ldi. Dunyo bo‘ylab milliardlar kompyuterlar, telefonlar, planshetlar bir-biriga bog‘lanib ma’lumot almashinish jarayonlarini jadallashtirdi. Ushbu jarayonlar muayyan harakatdagi tizimlar va boshqa kommunikatsiya vositalarining paydo bo‘lishiga, buning natijasida real iqtisodiy qiymat hosil bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Don Tapskott (Tapscott, 1996) boshida bu jarayonlarni “axborot iqtisodiyoti” sifatida qaralganini aytib o‘tadi, chunki bu jarayon asosan statik ma’lumotlarning internetga joylanishidan iborat edi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni shundan iborat edi-ki, internetga joylangan bu axborotlar barcha uchun ochiq va keng qamrovli edi. Shunda, muallif ushbu axborotlarga doir nimadir (abstrakt) sodir bo‘layotgnini taxmin qilgan. Bundan tashqari, qayd etilgan ta’riflar raqamli iqtisodiyot ta’riflarining ikkita eng muhim komponentining birinchi ko‘rinishini qayd etdi. Ulardan birinchisi komponentlarni farqlashdir. Masalan, Rob Kling va Roberta Lamb (Kling, Lamb, 2000) Linn Margherio nashriga asoslangan ishlarida (Margherio va boshqalar, 1999), raqamli iqtisodiyotning to‘rtta asosiy komponentini aniqlagan:

Raqamli mahsulotlar va xizmatlar raqamli texnologiyalardan foydalangan holda yetkazib beriladigan mahsulotlarni, shuningdek, birinchi navbatda raqamli ko‘rinishda taqdim etiladigan xizmatlar turlarini (masalan, onlayn axborot xizmatlari, dasturiy ta’minotni sotish, elektron ta’lim va boshqalar) o‘z ichiga oladi;

Aralash raqamli mahsulotlar va xizmatlar turkumiga chakana savdo hamda jismoniy tovarlarni sotish ham kiradi (masalan, kitoblar, gullar, mehmonxonalar, shuningdek, tegishli savdo va marketing);

ITga bog‘liq xizmatlar yoki tovarlar ishlab chiqarishga taqdim etilishi axborot texnologiyalariga (masalan, buxgalteriya xizmatlari yoki murakkab texnik loyihalar) jiddiy bog‘liq bo‘lgan xizmatlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim bo‘lgan real tovarlarni ishlab chiqarish (tovar toifalari) kiradi. Raqamli dasturiy ta’minot yordamida yuqori aniqlikdagi mexanik ishlov berish, nazorat qilish yoki kompyuterlar tomonidan boshqariladigan kimyoviy zavodlar;

Raqamli iqtisodiyotning yuqorida sanab o‘tilgan uchta segmenti xizmat ko‘rsatadigan IT sanoati segmenti komponenti vositalari hisoblanadi. Bunga tarmoq uskunalari va shaxsiy kompyuterlar ishlab

chiqaruvchilari, shuningdek, IT-konsalting firmalari kiradi (ba’zi tahlilchilar IT-sanoat uchun kengroq tushunchalarni qo‘llaydilar: televideniye, radioeshittirish va aloqa xizmatlarini ushbu ro‘yxatga kiritadilar).

Rumana Buxt “raqamli iqtisodiyot” tarifining asosini o‘rganishda vujudga kelgan muammolariga ham e’tibor qaratadi. Undan oldingi mualliflar Rob Kling va Roberta Lamb (Kling, Lamb, 2000) raqamli iqtisodiyotni komponentlarga bo‘lishni taklif qilishganini ta’kidlaydi. Chunki, raqamli texnologiyalarga aloqador istalgan faoliyat iqtisodiy qiymat yaratyapti, deya olmaymiz (Misol uchun katta fayllarni ko‘chirib olish yoki tarmoqdagi bepul ko‘ngil ochar o‘yinlar). Raqamli iqtisodiyot uchun faqatgina iqtisodiy qiymat yaratadigan va tijorat maqsadlarida qo‘llaniladigan texnologiyalar va harakatlar muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar ro‘yxati

1. Mirzarahimova A. — “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va O‘zbekiston Respublikasi” (2021) Uniwork
2. Bo‘rixadjayeva M.S. — “Bugungi kundagi jahon miqyosidagi raqamli iqtisodiyot va O‘zbekiston sharoitidagi raqamli iqtisodiyotga ta’siri” (2023) Economic Research
3. Buxoro Davlat Universiteti — O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi (Infocom, maxsus son) Uniwork
4. Xasanov A. — “Raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalar va rivojlanish omillari” (Iqtisodiyot jurnali, 2022) TSUE Journal
5. Islomov B. — “Mintaqaviy raqamlashtirish va iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlari” (Iqtisodiyot tadqiqotlari, 2022) TSUE Journal
6. O‘tboev S. — “O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar va innovatsion rivojlanish strategiyalari” (ORIENS, 2023) Oriens
7. Raimqulov T. — “Raqamli iqtisodiyot va O‘zbekistonning xalqaro raqobatbardoshligi” (Infocom, 2021) Uniwork
8. Saidov X. — “Raqamli iqtisodiy transformatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari” (2022) Economic Research
9. Jalolov D. — “Axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot: tahlillar va istiqbollar” (Infocom, 2022) Uniwork
10. Qo‘chqorov U. — “Raqamlashtirishning iqtisodiyotga ta’siri va zamonaviy tendensiyalar” (ORIENS, 2022) Oriens
11. Alqudah, F. A., et al. — "Economic Development in the Digital Economy: A Bibliometric Review" (2023) MDPI
12. Zhao, Y., & Wang, T. — "How Does the Digital Economy Influence Sustainable Development Goals?" (2022) Telecommunications Journal
13. Allen, T. D., & Golden, T. D. — "Working in the Digital Economy: The Impact of Work-from-Home Arrangements on Productivity and Performance" (2021) PLOS
14. Paltrinieri, A., et al. — "Digital Platforms and Economic Efficiency" (2019).
15. Smith, R. A., & Cooper, B. — "The Role of Artificial Intelligence in the Digital Economy" (2020).

16. Lee, K. H., & Cho, S. — "Digital Transformation and SMEs: Enhancing Competitiveness through Digital Tools" (2020).
17. Perez, C. — "Blockchain Applications in the Digital Economy: Security and Efficiency" (2021).
18. Gould, E., & Pan, S. — "Technological Innovation and Productivity Growth in Digital Economies" (2019).
19. Choi, H., & Jiang, L. — "Cybersecurity Challenges in Digital Economies" (2022).
20. Brown, J., & Li, X. — "E-commerce and Global Market Transformation" (2018).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING STATISTIKA TIZIMIDA INTEGRATSIYALASHGAN AXBOROT TIZIMLARINING O‘RNI

Otajonova Gulhayo Maqsud qizi
Ma’mun-Universiteti NTM o‘qituvchisi, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlari instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: otajonovagulhayo1508@gmail.com
ORCID: 0009-0008-7529-9656
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191437

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada statistika faoliyatini tashkil qilishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish va undagi mavjud muammolar o‘rganilgan. Shuningdek, e-Stat 4.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimi istiqbollari haqida aytib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *statistika, raqamli texnologiyalar, ma’lumotlar bazasi, CRM, axborot tizimi, ma’lumotlar platformalari, geomanzilli ma’lumotlar.*

Kirish

The analysis shows that the highest population density is observed in areas where processing industries are developed, around urban centers, in regions with long-standing irrigation agriculture, and in agro-industrial districts (Kasbi, Karshi, Yakkabog). Naturally, such areas are characterized by an intensive development direction of production. At the same time, in regions with an extensive agricultural system, such as livestock farming, especially pasture-based livestock farming, and mining industry areas, population density is much lower (Muborak, Dehqonobod, Mirishkor). In these areas, natural conditions, terrain features, and altitude zones also have a significant impact.

Conclusion

In conclusion, in some districts, the demographic capacity is extremely strained, where not only is there a relatively large population, but also an absolute excess of people. Of course, in such areas, the extremely dense population, along with insufficient access to land, water, and employment opportunities, exacerbates social problems and leads to various negative consequences. The density of the population in these areas contributes to the sharp deterioration of the region's ecological condition due to anthropogenic factors. Additionally, under such conditions, the sanitary and hygienic situation is often not satisfactory, and the potential for the spread of infectious diseases is greater.

Based on this indicator, the current utilization of land and water resources in the region allows for a demographic capacity that can accommodate nearly 5 million people. As mentioned above, this capacity is conditionally determined. With the implementation of scientific and technological advances in the use of the region's natural resources in economic sectors, this number is expected to increase. Additionally, by implementing measures such as locating raw material processing industries in smaller districts with higher demographic capacity, the region can achieve an ecologically sound population distribution.

REFERENCES

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar. // https://lex.uz/docs/5841063

2. www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma’lumotlari.

3. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining 2022-2023-yillar bo’yicha ma’lumotlari.

4. Кашин А.А. Исследование ландшафтной организации территории Удмуртии как фактора хозяйственного освоения и расселения населения. Дисс.... канд. геог. наук. -Ижевск, 2015. 184 с. (хттпс://www.диссерсат.сом)

5. Крупко А.Е. Теоретические аспекты изучения территориалной организации населения и расселения // Журнал «Вестник ВГУ», 2007.65-69 с.

6. Ким В.Ч. Концепция системы эконом-географических кадастров - Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 1998. 64 с.

7. H.Shodiyev., I.Habibullayev. Statistika. Darslik. Toshkent 2019. 266-279 b.

8. N.M.Soatov., X.Nabiyev., A.H.Ayubjonov. Ekonometrika va statistika. Darslik. Toshkent 2019. 517 b.

9. H.G’.Maxmatqulova. Qashqadaryo viloyatining demografik sig’imini statistik tahlili. “Barqaror iqtisodiy o’sish orqali aholi turmush farovonligini oshirish masalalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 24.05.2024. 413-417 b.

10. H.G’.Maxmatqulova. Qashqadaryo viloyati aholisining mustaqillik yillaridagi demografik holati va etnik tarkibi. “Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” Xalqaro ilmiy konferensiya. 25.05.2024. 26-29 b.

11. H.G‘.Maxmatqulova., A.H.Hamdamov. Raqamlashtirilgan tizimning qishloq xo’jaligi iqtisodiyotiga ta’siri. Modern education and development Vol 6, №1. 2024-07-12. 23-27 b.

12. H.G‘.Maxmatqulova., A.H.Hamdamov Qishloq xo'jaligining mamlakatimiz iqtisodidagi ahamiyati. Лучшие интеллектуальные исследования. Часть-24, Том-3. 2024-07-12. 104-108 b.

13. H.G‘.Maxmatqulova., A.H.Hamdamov. The Importance of Teaching Probability and Mathematical Statistics to Economics. Excellencia:International multi-disciplinary journal of education Volume 02, Issue 08. 2024-07-25. 339-343 pp.

14. www.qashstat.uz.

AXBOROT XAVFSIZLIGINING FIZIKA - MATEMATIKA SOHALARIDAGI TADBIQI

Xaitmetov Adxam Axinjanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
katta o‘qituvchisi
adhamhaitmetov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192666

Hilola Suvanova Ali qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
talabasi
suvanovahilola06@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192666

Annotatsiya: *Hozirgi zamonaviy, rivojlangan dunyoda axborotlar xavsizligiga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Axborot oqimlari va turlari ko’paygan sari ularni himoya qilish usullari ham ortib bormoqda. Ushbu maqolada himoyalash usullari va eng optimal usulini ya’ni ovozli ximoyalash usulini ko’rib chiqladi. Bundan tashqari maqolada axborot xavfsizligida fizika tushunchalari o’rni haqida ma’lumotlar berilgan. Shu bilan birga Axborot xavsizlgi usullaridan ovozli himoyalash usulini fizik tovish to’lqinlari bilan bog’lab tushuntirilgan. Axborot xavsizligini ta’minlashda eng optimal usullardan biri ovozli himoyalashdir. Ovozli parol ishlash prinsipi fizik tovush to’lqinlar nazaryasiga asoslangan. Ovozli parolni ishlatish boshqa parollarga nisbatan oson va tushunarli hisoblanadi. Sababi yoshi katta insonlar login va parollardan ko’ra ovozli paroldan foydalanishi bir muncha oson. Axborotlarni xavfsiz salqahda fizika muhim o’rin tutadi.*

Kalit so`zlar: *axborot xavfsizligi, tovushlar, to’lqinlar, chastota, tembir, to’lqin uzunligi, ovozlashtirish, to’lqin jarayon xarakteristikasi*

Asosiy qism: Axborotlarni filtrlash uzatish va himoyalashb bosqichlaridan eng muhimi himoyalash hisoblanadi. Ko’plab ma’lumotlar oqimi mavjudligi sababli katta hajmga ega ma’lumotlarni hammasini bitta guruh qilib xafsiz saqlashni imkoni yo`q shu sababli. Ma’lumotlarni guruhlarga bo’lib har bir guruh uchun mos keladigan xavfsizlik choralari ko’rilishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Ma’lumotlarni guruhlarga ajratib yozish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Guruhlarga ajratilgan ma’lumotlarni xavfsiz saqlash bir muncha oson va qulay. Ma’lumotlarni quyidagi usullar bilan himoyalash mumkin:

1. Parollar
2. Ovozli parollar
3. Face id
4. Barmoq izi

Yuqoridagi himoyalash usullaridan hozirgi kunda rivojlanib kelayotgani ovozli parol hisoblanadi. Ovozli parolni ishlash tizimi fizika bo’limlaridan biri orqali tushuntiriladi. Fizika quyidagi bir nechta bo`limlarga bo’linadi:

1. Mexanika
2. Molekulyar fizika
3. Elektr
4. Tebranish va to`lqinlar
5. Optika
6. Atom va yadro fizikasi

Ovozli parol ishlash tizimi Tebranish va to’lqinlar bo’limiga asoslanib tuzilgan hisoblanadi.

Fizikaning Tebranish va to’lqinlar bo’limi:

Tebranish – vaqt o’tishi bilan takrorlanuvchi harakat yoki fizik jarayonlar. Tebranishlarni fazoda tarqalishi **To’lqinlar** deyiladi. To’lqinlar fazoda tarqalishiga qarab ikki turga bo’linadi:

1. Ko’ndalang
2. Bo’ylama

Ovoz to’lqinlari ko’ndalang to’lqinlar guruhiga kiradi. Ko’ndalang to’lqinlar bu tebranish va tarqalish yo’nalishlari ustma-ust tushadigan to’lqin hisoblanadi. Havodagi tovush to’lqinlari havo molekulalarining siqilishi va kengayishini tarqatib, eshitiladi.



1-rasm. Ko’ndalang to’lqin

To’linlar mavjud ekan , ular o’z muvozanat holatlari atrofida doimo tebranib harakatda bo’lib turadi. Shu bilan birga, fazoning turli nuqtalarida faza bo’yicha siljigan holda tebranadi. To’lqinlar elastik muhitda doimiy tezlik bilan harakat qiladi. To’lqinlar tezligi to’lqin o’tgan yo’lning sarflagan vaqt nisbatiga aytiladi:

$$V = \frac{\lambda}{T}$$

Tovushning tarqalish tezligi uning tarqalish muhitiga ham bog’liq bo’ladi. Vakumda tovush tarqalmaydi.

- ✓ 0 gradusli havoda v=340m/s
- ✓ 20 gradusli suvda v=1450m/s
- ✓ 20 gradusli po`latda v=5000m/s

Tovushlar chastotaga ham ega hisoblanadi. **Tovush chastotasi-** bu tovush to’lqinlarining bir soniyadagi tebranishlar soniga aytiladi:

$$\nu = \frac{N}{t}$$

Tovushning chastotasi uni baland yoki past ekanligini aniqlaydi. Masalan:

- Odamning eshitish qobilyati 20 Hz dan 20000 Hz gacha bo’lgan chastotalarni eshitadi
- 20 Hz dan pastroq chastotali tovushlarni odam eshita olmaydi, ammo hayvonlardan ba’zilari Eshita oladi (infratovush)
- 20 000 Hz dan yuqoriroq chastotali tovushlarni tibbiyotda qo’llashimiz mumkin(ultratovush)

Barcha tovushlarni tovushlar va shovqinlarga ajratishimiz mumkin. Turli manbalardan chiqayotgan tovushlar ohangi turli bo’lib, ular bir-biridan tembri bilan farq qiladi. Insonlarni ham ovozlarni tembridan(ohangidan) ularni ko’rmasdan tanib olishimiz mumkin.

Ovozli parol ishlash tuzilmasini ma’lumotlarni filrtlash usuli bilan tushuntirish mumkin. Ya’ni ovozli tizmga kirishda atrof muhitdagi ovozlar begona shaxslar ovozlari ham eshitilishi mumkin. Ovozli parolni ishga tushirishda foydalanuvchi o’z ovoz to’lqinlarini tizim yuborga matnni o’qib berish orqali o’z ovozini tasdiqlaydi. Va ovozli tizim aynan o’sha to’lqinni anglab olishiga imkon bo’ladi. Quyidagi rasm orqali tizim to’lqinlar orasidan o’z foydalanuvchisini tanib oladi rasmda to’lqinlar biridan farq qilishi uchun ranglar orqali ko’rsatilgan.



Agar ovoz to’lqinlari ko’ndalang to’lqinlar ekanini bilgn holda ko’ndalang to’lqin hossalarini chuqur o’rgangan holda ovozli xavfsizlik tizimini takomillashtirish mumkin.

Muhitdagi elastik to’lqinlarning istalgan boshqa tartibli muhit zarrachalarini harakatidan zazilarli farqi to’lqinlar tarqalishi ko’chish bilan bog’liq bo’lmaganligidadir.

To’lqin jarayon xarakteristikasi deb muhit zarrachalarining siljishiga aytiladi. Siljishni vaqtga bog’lanishni **to’lqin tenglamasi** deyiladi.

Misol uchun, to’lqin Manbai koordinatasi boshi 0 nuqta bo’lsin va

$$\xi = Asin(\omega t + \varphi),$$

Qonun bo’yicha garmonik tebranish hosil qiladi.



Garmonik tebranuvchi to’lqin



Turg’un to’lqinlar

Turg’un to’lqinlar ikki qarama-qarshi yo’nalgan to’lqinlar qo’shilishidan hosil bo`lgan to’lqinni tebranma jarayoni hisoblanadi.

To’lqin turlari bir nechta ekanligidan kelib chiqqan holda ovozlashtirish ham turli usullarda bo’ladi. Ovozlashtirish o’zi nima? **Ovozlashtirish** bu biror bir tizimni ovoz orqali boshqarishni yo’lgan qo’yishdir. Ovozlashtirishdan ko’zlangan maqsad vaqti tejash hisoblanadi. Masalan, banklarda ovozlashtirish yo’lga qo’yilsa har bir bank hodimi o’z vazifasini bajarish vaqtida shunchaki o’tirgan holda biror tizimga kirishi va uni tasdiqlashi mumkin.

Xulosa: Ovozli parol tizimi ushbu qoyidaga asosan turuntiriladi: Har qanday to’lqin, tovush ham bir muhitdan boshqa bir ikkinchi muhitga o’tganda to’lqin uzunligi va tezligi o’zgaradi, chastotasi o’zgarmaydi.

Chastota o’zgarmaganligi sababli ovozli tizim o’z foydalanuvchilarini shovqinli joylarda ham aniqlay oladi. Ovozli tizim ishlashiga ayrim sabablar to’sqinlik qiladi. Masalan, inson sog’lig’i sababli ovozli o’zgargani uchun tizim ushbu foydalanuvchini taniy olmaydi. Ushbu muammolar yuzaga kelmasligi uchun ovozli tizim bilan bir qatorda parol yoki face id dan foydalanish mumkin. Axborotlar oqimini xavfsizligi har bir shaxs uchun muhim va zarur hisoblanadi. Hozirgi rivojlangan davrda insonlar o’z ehtiyojlaridan kelib chiqib oson va qulay yo’lni tanlashmoqda ovozli tizim ham har bir tashkilot va fuqaro uchun ishlashi yo’lga qo’yilsa foydaliroq bo’ladi. Axborot xavfsizligida fizika muhim o’rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdurhmonov K.P., Egamov O’. Fizika darslik. T.2010.177-190
2. Uzoqov A.A. Fizika nazariya.
3. O’lmasova M.H. Fizika. T. “O’qituvchi”,2004.288-297

TOSHKENT FOND BIRJASIDAGI AKSIYALARNI KELAJAKDAGI NARXINI PROGNOZ QILISHDA MARKOV ZANJIRINI QO‘LLASH

Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Oliy va amaliy matematika” kafedrasi o‘qituvchisi,
mirzamurodovoltinbek15@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192856

Fayziyev Javlon Abduvoxidovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Oliy va amaliy matematika” kafedrasi o‘qituvchisi,
javlonabduvoxidovich@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192856

Annotatsiya: *Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyat tendentsiyalarini bashorat qilish qiyin muammodir. Bu borada turli tadqiqotchilar tomonidan sinab ko‘rilgan ko‘plab usullar mavjud. Bulardan biri Markov jarayonidir. Stokastik jarayon bo‘lgan Markov zanjirlari o‘zgaruvchilarning kelajakdagi xatti-harakatlarini bashorat qilish uchun hozirgi xatti-harakatlarini tahlil qilish usulidir. Stokastik tahlil yordamida fond bozorlaridagi aksiyadorlik jamiyati aksiyalarga invesitsiya kiritishga qaror qabul qilish va kelajakdagi kutilyotgan daromad yoki zarar haqida bashorat qilish mumkin. Ushbu tadqiqotda, Markov zanjirlari yordamida “Toshkent fond birjasi”dagi qimmatli qog‘ozlar bozorida sotiladigan kompaniyalarning aksiyalari narxi prognoz qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Markov zanjiri, Qimmatli qog’ozlar, Aksiyalar ,Fond birjasi, Aksiyaning kelajakdagi narxi.*

KIRISH.

Jahon iqtisodiyotining yuqori tezlikda rivojlanishi bilan odamlarning turmush darajasi va ixtiyorida bo‘ladigan daromadlari tez o‘sib borayotgani va har bir kishining moliyaviy xabardorligi va investitsiyalarga qiziqishi tobora ortib bormoqda. O‘zbekistonning kapital bozorlari xam rivojlanayotgani va odamlarning aksiyaga qiziqishi ortib boryapti. O‘zbekiston fond bozorining 1994 yilda tashkil topgan va shundan beri asta sekinlik bilan rivojlanib kelmoqda. 2018 yildan boshlab aksiyalar IPOga chiqarila boshladi.Bu bilan O‘zbekiston fond bozori yanada rivojlanyapti va SPO uchun xam shart sharoitlar yaratilmoqda.Chet el investerlari uchun xam qulay shart sharoitlar yaratish qimmatli qog’ozlar bilan savdo qilishni soddalashtirish bo’yicha bir qator ishlar olib borilmoqda[1].Ko‘p turli parametrlar ta‘sirida korxonalar aksiyalari narxini bashorat qilish va to‘g‘ri aksiyani tanlash va undan foyda olish an‘anaviy usullar va bozor tajribasi bilan amalga oshirilardi.Bugungi kunda zamonaviy bashorat qilish usullari bilan yanada kuchliroq qarorlar qabul qilish va mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar miqdorini kamaytirish mumkin. Aksiyalarning kelajakdagi narxi bo‘yicha qaror qabul qilish jarayonlarida fundamental tahlil, texnik tahlil va miqdoriy usullar qo‘llaniladi.

Fundamental tahlil Graham-Dod tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u qimmatli qog’ozlar narxini aniqlashning eng qadimgi va eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi[6]. Fundamental tahlilning maqsadi ma‘lum bozor sharoitlariga ko‘ra qimmatli qog’ozlarning eng yaqin haqiqiy qiymatini topish va bu qiymatni bozor qiymati bilan solishtirish orqali investitsiya qarorini qabul qilishdir[2]. Fundamental tahlilda aksiyalarni tahlil qilish uch bosqichda amalga oshiriladi: iqtisod tahlili, sektor tahlili va firma tahlili.Texnik tahlil statistik usullarga asoslangan usul bo‘lib, aksiyadorlik jamiyatining o‘tgan yillardagi narxlar harakati natijasida yaratilgan grafik modellardan foydalanib, bugungi kunning narxlari jadvallarida ifodalangan tendentsiya va trend o‘zgarishlarini bashorat qilish uchun foydalaniladi.Ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, texnik tahlilning eng muhim tahlil vositasi grafikalardir. Texnik tahlilchilarni buni “chartistlar” deb ham atashadi, chunki texnik tahlilning katta qismi diagramma tahlilidir. Fundamental tahlilchilardan farqli o‘laroq, texnik tahlilchilar qimmatli qog‘ozlarning qiymatini emas, balki ularning narxini bashorat qilishga harakat qilishadi [3]. Bu esa bugungi kunda fond bozori ishtirokchilarining va investorlarning qaysi aksiyadarlik jamiyatining aksiyalari bilan savdo qilish kerakligi va u aksiyaning keying narxlari qanday bo’lishi xaqida taxlil qilishadi.So‘nggi yillarda, ayniqsa, muammolarning murakkab tuzilishi va baholashga ta‘sir qiladigan ko‘p sonli o‘zgaruvchilarning mavjudligi miqdoriy usullarning birinchi o‘ringa chiqishiga olib keldi. Miqdoriy usullar - bu mavzu bo‘yicha ma’umotlarni qayta ishlash orqali ishlab chiqilgan matematik modellashtirishga asoslangan usullar. Ushbu usullar statistik usullar va operatsiyalar usullari sifatida ikki sinfga bo'linadi. Statistik usullar ma‘lumotlarni yig’ish, tasniflash, tahlil qilish va sharhlash uchun turli xil statistik usullarni o‘z ichiga oladi. Operatsion usullar ilg‘or usullar bo‘lib, boshqaruv ulardan qarorlar qabul qilish va murakkab muammolarni hal qilishda foydalanadi. Tadqiqotning asosini tashkil etuvchi Markov zanjirlari operatsiyalarni tadqiqot usullariga kiritilgan.

Ushbu tadqiqotda miqdoriy usullardan biri bo‘lgan Markov zanjirlari usuli “Toshkent fond birjasi”da savdo qilinadigan aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarining kelajakdagi narxlarini bashorat qilish uchun ishlatilgan[9].

Adabiyot taxlili

Markov jarayonidan foydalangan holda tahlil qilishni Zhang Yudong va Wu Lenan aksiya bahosi uchun chiziqli bo‘lmagan dinamik modelni taklif etadi[3].Deju Zhang va Xiaomin Zhang Markov modeli usulidan foydalanib aksiya bahosini oldindan ko‘rishni Xitoy fond bozoridagi tendentsiyalarini prognoz qilish uchun Markov zanjiri stoxastik modelini taklif qiladilar[4]. Ularning tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, Markov jarayoni oldingi narxlar ta‘siri keyingisi narxiga sezilarli darajada bog‘liq. va Markov modeli fond bozori narxlarini bashorat qilishda qo‘llab yaxshi natijalarga erishish mumkinligini takitlashgan. Idolor Markov zanjiri usuli yordamida Nigeriya fond birjasida sotiladigan sakkizta aksiyalarning kelajakdagi narxlari harakatini bashorat qilishga harakat qildi[6].Buning uchun 2005 yildan 2008 yilgacha bo‘lgan kunlik ma’lumotlardan foydalanildi. Markov zanjiri modelini dunyoning turli fond bozorlari indekslariga tatbiq etdi va Markov zanjiri tahlilidan foydalangan holda trendni bashorat qilish natijalari an’anaviy tendentsiyalarni bashorat qilish usullaridan olingan natijalar bilan solishtirildi.Bir, uch va besh yillik ma’lumotlar trendlarni bashorat qilish uchun foydalanilgan. Markov modeli ko'pincha an’anaviy tendentsiyalarni bashorat qilish usullaridan ustun keldi. O‘zdemir & Demireli BIST Texnologiya Indeksida sotiladigan aksiyalarning kunlik narxlari o'zgarishi uchun Markov zanjirlarini yaratdi va davlatlar o‘rtasidagi o‘tish ehtimolini

hisobladi[7].Bundan tashqari, ular qaysi aksiyalarning yuqori daromad olishini aniqladilar. Sarıyer va boshqalar. Markov zanjiri modeli yordamida avtomobilsozlik sanoatidagi o‘n uchta kompaniyaning aksiyalari narxining harakatini bashorat qilishga harakat qildi[8].Luc Tuyen esa seriyadagi o‘zgarishlarning turli darajalarida qurilgan yuqori tartibli yangi Markov modelini taqdim etadi[5]. O‘tish ehtimoli aralash to‘plamlar asosida hisoblanadi va aniqlik ARIMA va ANN kabi boshqa vaqt seriyalari modellari bilan taqqoslanadi.

Metodning qo’llanishi:

“Toshkent” RFBsida savdo qiluvchi beshta aksiyadorlik jamiyatining ma’lumotlaridan (01.01.2024-01.11.2024) foydalangan holda tegishli aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari yopilish narxlari uzse.uz[9] veb-saytidan olingan. Tahlil doirasidagi aksiyadorlik jamiyatlari quyida keltirilgan:

“Kvarst” aksiyadorlik jamiyati.(KVTS) .“Qo’qon mehanika zavodi” aksiyadorlik jamiyati.(KUMZ) .“Chilonzor buyum savdo kompleksi” aksiyadorlik jamiyati.(CBSK). “UzAvto motors” aksiyadorlik jamiyati.(UZMT). “O‘zbektelikom” aksiyadorlik jamiyati.(UZTL)

Yuqoridagi aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari IPO ga chiqqan xozirda SPO da savdo qilinayotgan va likvidliligi yuqori bo‘lgan AJ qatoriga kiradi[10].Shu sababli bu aksiyadorlik jamiyatining keyingi kundagi va kelajakda narxlarini bashorat qilish maxsadimiz va uni real xolati bilan taqqoslab biz qo‘llayotgan metod Markoz zanjiri fond bozoridagi aksiyalar uchun qo‘llash mumkin ekanligini ko‘rsatdik.

Markov jarayoni stoxastik jarayon bo‘lib, keyingi ta‘sir xususiyatlariga ega emas. Ta’sirdan keyingi xususiyatlar shuni anglatadiki: t vaqtidagi t_m dan katta bo‘lgan bu holat faqat qaysidir jarayondagi t_m momentidagi holatga bog‘liq lekin jarayonning t_m momentidan oldingi holatga bog‘liq emas. Markov zanjirining ta‘rifi Tasodifiy ketma-ketlikning diskret holat vektori *E* bo‘lsin. Agar har qanday manfiy bo‘lmagan butun son $n_1 , n_2 , \dots . n_m$ va ixtiyoriy natural son m uchun, $i_1 , i_2, \dots , i_m, j \in E$ qanoatlantiruvchi bo‘lsa:

$$p_{ij} = P\{X_{(n_m+k)} = j | X_{n_1} = i_1 , X_{n_2} = i_2 , \dots , X_{n_m} = i_m\} = P\{X_{(n_m+k)} = j | X_{n_m} = i_m\} \quad (1)$$

u holda bu tasodifiy ketma-ketlik $\{X_{(n)} , n = 1,2,..\}$ **Markov zanjiri** deyiladi.

Holatga o‘tish ehtimolining matritsa ko‘rinishi quyida ko‘rsatilgan va *i* va *j* mos ravishda satr va ustunlarni ifodalaydi. U P matritsasining barcha elementlari uchun $0 \le p_{ij} \le 1$ va har bir qator uchun $\sum p_{ij} = 1$ bo‘lishi kerak

$$p_n = \begin{vmatrix} p_{11} & p_{12} & \cdots & p_{1j} \\ p_{21} & p_{22} & \cdots & p_{2j} \\ \cdots & \cdots & \cdots & \cdots \\ p_{i1} & p_{i2} & \dots & p_{ij} \end{vmatrix} \quad (2)$$

n bosqichdan keyin *i* holatdan *j* holatga o‘tish ehtimoli n bosqichli o‘tish ehtimoli deb ataladi va p_{ij} n bilan belgilanadi.

$$P_n = P_{(n-1)} * P = P_n \quad (3)$$

Natijalar.

“Toshkent” RFB sida savdo qiluvchi beshta aksiyadorlik jamiyatining birja narxlari oldingi holatga nisbatan oshishi, pasayishi yoki o‘zgarmas bo‘lishi mumkin. Bu uch halotningning har biri

yuz berishi mumkin. Tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatining uchun 208 ta o‘tish hisoblangan. Hisob-kitoblar natijasida 1-jadvaldagi o‘tish matritsasi yaratildi.

1-jadval

KVTS	O‘shish	O‘zgarmas	Kamayish	Jami
O‘shish	26	4	54	84
O‘zgarmas	3	1	7	11
Kamayish	55	6	52	113
KUMZ	O‘shish	O‘zgarmas	Kamayish	Jami
O‘shish	30	4	54	88
O‘zgarmas	5	1	14	20
Kamayish	56	4	40	100
CBSK	O‘shish	O‘zgarmas	Kamayish	Jami
O‘shish	30	12	41	83
O‘zgarmas	7	11	17	35
Kamayish	48	11	31	90
UZMT	O‘shish	O‘zgarmas	Kamayish	Jami
O‘shish	11	6	49	66
O‘zgarmas	9	12	11	32
Kamayishi	67	11	32	110
UZTL	O‘shish	O‘zgarmas	Kamayish	Jami
O‘shish	25	3	54	82
O‘zgarmas	2	0	6	8
Kamayish	63	4	51	118

1-jadvalni tekshirganda, KVTS aksiyadorlik jamiyatida aksiyalar narxining 88 tasida pasaygan, 113 tasida oshgani, 11 tasida esa o‘zgarmagan. KUMZ aksiyadorlik jamiyatida aksiyalar narxining 88 tasida pasaygan, 100 tasida oshgani va 20 tasida o‘zgarmagan. CBSK aksiyadorlik jamiyatida aksiyalar narxining 83 tasida pasaygan, 90 tasida oshgani va 35 tasida o‘zgarmagan. UZMT aksiyadorlik jamiyatida aksiyalar narxining 66 tasida pasaygan, 110 tasida oshgani, 32 tasida o‘zgarmagan. UZTL aksiyadorlik jamiyatida aksiyalar narxining 82 tasida pasaygan, 118 tasida oshgani va 8 tasida o‘zgarish kuzatilmagan. O‘tish matritsasidagi ma’lumotlardan foydalanib, o‘tish ehtimolliklari olindi va o‘tish ehtimoli matritsasi yaratildi. O‘tish ehtimoli o‘tish matritsasining har bir satridagi qiymatni shu qatordagi umumiy qiymatga bo‘lish yo‘li bilan topiladi. 2- jadvalda besh aksiya uchun o‘tish ehtimoli matritsasi keltirilgan

2-jadval.

KVTS	O‘shish	O‘zgarmas	Kamayish	Jami
O‘shish	0.3095	0.0476	0.6429	1.0000
O‘zgarmas	0.2727	0.0909	0.6364	1.0000
Kamayish	0.4867	0.0531	0.4602	1.0000
KUMZ	O‘shish	O'zgarmas	Kamayish	Jami
O‘shish	0.3409	0.0455	0.6136	1.0000

O‘zgarmas	0.2500	0.0500	0.7000	1.0000
Kamayish	0.5600	0.0400	0.4000	1.0000
CBSK	O‘shish	O'zgarmas	Kamayish	Jami
O‘shish	0.3614	0.1446	0.4940	1.0000
O‘zgarmas	0.2000	0.3143	0.4857	1.0000
Kamayish	0.5333	0.1222	0.3444	1.0000
UZMT	O‘shish	O‘zgarmas	Kamayish	Jami
O‘shish	0.1667	0.0909	0.7424	1.0000
O‘zgarmas	0.2813	0.3750	0.3438	1.0000
Kamayishi	0.6091	0.1000	0.2909	1.0000
UZTL	O'shish	O‘zgarmas	Kamayish	Jami
O‘shish	0.3049	0.0366	0.6585	1.0000
O‘zgarmas	0.2500	0.0000	0.7500	1.0000
Kamayish	0.5339	0.0339	0.4322	1.0000

“KVTS” AJ aksiyalari 2024-yil 31-oktabrga nisbatan 2024-yil 1-noyabrda kamaygan bo‘lsa, “KVTS” AJ 2024-yil 04-noyabrdagi aksiyadorlik daromadi 39% ehtimol bilan oshadi, 56% ehtimol bilan kamayadi va 5% ehtimollik bilan o‘zgarmaydi. “KUMZ” AJ aksiyalari 2024-yil 31-oktabrga nisbatan 2024-yil 1-noyabrda kamaygan bo‘lsa, “KUMZ” AJ 2024-yil 04-noyabrdagi aksiyadorlik daromadi 42% ehtimol bilan oshadi, 53% ehtimol bilan kamayadi va 5% ehtimollik bilan o‘zgarmaydi. “CBSK” AJ aksiyalari 2024-yil 31-oktabrga nisbatan 2024-yil 1-noyabrda oshgan bo‘lsa, “CBSK” AJ 2024-yil 04-noyabrdagi aksiyadorlik daromadi 36% ehtimol bilan oshadi, 50% ehtimol bilan kamayadi va 14% ehtimollik bilan o‘zgarmaydi.“UZMT” AJ aksiyalari 2024-yil 31-oktabrga nisbatan 2024-yil 1-noyabrda oshgan bo‘lsa, “UZMT” AJ 2024-yil 04-noyabrdagi aksiyadorlik daromadi 51% ehtimol bilan oshadi, 37% ehtimol bilan kamayadi va 12% ehtimollik bilan o‘zgarmaydi.“UZTL” AJ aksiyalari 2024-yil 31-oktabrga nisbatan 2024-yil 1-noyabrda kamaygan bo‘lsa, “UZTL” AJ 2024-yil 04-noyabrdagi aksiyadorlik daromadi 53% ehtimol bilan oshadi, 43% ehtimol bilan kamayadi va 4% ehtimollik bilan o‘zgarmaydi degan xulosaga kelamiz.2024-yil 04-noyabrdagi aksiyalarning narxi o‘zgarishi 3- jadvalda berilgan

3- jadvalda

AJ nomi	O‘shish	O‘zgarmas	Kamayish
KVTS	49%	5%	56%
KUMZ	42%	5%	53%
CBSK	36%	14%	50%
UZMT	51%	12%	37%
UZTL	53%	3%	43%

Bu jadvaldan ko‘rinib turibdiki 3 ta aksiyadorlik jamiyatlari narxi keyingi kun uchun tushishi,2 ta aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarining narxi esa oshishi xaqida extimoliy prognozni ko‘rishimiz mumkin . Biz Markoz zanjiri yordamida prognoz qilgan aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari. Toshkent fond birjasining 4 –noyabrdagi ma’lumoti bilan ustma ust tushdi. Aksiyalarning kunlik

kutilayotgan daromadi aksiya bahosi o‘zgarishi stavkalarining o‘rtacha foizidan olingan qiymatlarni barqarorlik holati vektorining ehtimolliklariga ko‘paytirish yo‘li bilan olingan.

XULOSA.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Qimmatli qog’ozlar bozorini o’zgarishiga ko‘plab parametrlarning ta’siri ostida va doimo o‘zgarib turadi.. Aksiyalarning kelajakdagi harakatlarini bashorat qilish uchun turli texnik, fundamental va miqdoriy usullar qo’llaniladi. Miqdoriy usullardan biri Markov zanjirlaridir. Qimmatli qog’ozlar bozori uchun Markov zanjirini qo‘llash mumkinligini ko‘rsatdik bundan ko’zlangan maqsad investorlar aksiyadorlik jamiyatlariga sarmoya kiritish yordamida passiv daromad olishni hohlaydilar .Bu metoddan foydalangan xolda aksiyadorlik jamiyatidan kelajakda foyda yoki ziyon ko‘rishlari yuzasidan prognoz qilishlari mumkin.

Ushbu tadqiqotda faqat qimmatli qog’ozlar bozori uchun qo’llanildi. Markov zanjiri turli sektorlar ham tatbiq etilishi mumkin. Markov zanjirlarini suniy neyron tarmoqlar bilan birgalikda qo‘llash, baholash xatosi aniqlangan hollarda xato chegarasini kamaytiradi.Shu sababli, Markov zanjirlari va suniy neyron tarmoqlarini integratsiyalash orqali aksiyalarni bashorat qilish mumkin.

ADABIYOTLAR.

1.Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 02.09.2023 yildagi PQ-291-son

2. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. Toshkent: «Fan va texnologiya», 2012.- [93-95 b]

3. Zhang Yudong and Wu Lenan , Stock market prediction of S&P 500 via combination of improved BCO approach and BP neural network:Volume 36, Issue 5, July 2009, Pages 8849-8854

4. Deju Zhang and Xiaomin Zhang Study on forecasting the stock market trend based on stochastic analysis method; International Journal of Business and Management. Vol 4,No.6 June 2009

5. Luc Tuyen, A Higher order Markov model for time series forecasting, International Journal of Applied Mathematics and Statistics 57(3):1-18, 2018

6. Idolor, E. J. Security prices as markov processes. International Research Journal of Finance and Economics, 2010.59, 62-76.

7. Özdemir, A. & Demireli, E. . Analysis of Stock Price Productivity with Markov Chains: An Application in BIST Technology Index Stock Prices. Journal of Productivity, 2014.1, 41-60.

8.Ersen, N., Akyüz, İ. & Akyüz, K.C. Analysis of stock prices with markov chain method: an application on paper and paper products companies, Turkish Journal of Forest Science, 2021.7(2), 178-188

9. www.uzse.uz

10.www.cbu.uz

DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARINING INFLYATSIYA VA VALYUTA KURSIGA TA’SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

Esanov Erkin Abduraxmanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi,
erkin8559@yahoo.com
ORCID: 0000-0001-5421-6913
https://doi.org/10.5281/zenodo.14199984

Annotatsiya*: Mazkur maqola davlat byudjeti xarajatlarining inflyatsiya va valyuta kursiga ta’sirini ekonometriya metodlari orqali tahlil qilishga qaratilgan. Mualliflar, iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya va valyuta kursining o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda, davlat byudjeti xarajatlari qanday rol o‘ynashini o‘rganadilar. Ushbu maqolada, davlat xarajatlarining iqtisodiyotdagi umumiy talabni yaratishdagi o‘rni, shuningdek, pul-kredit siyosati va tashqi iqtisodiy omillar bilan bog‘liq aloqalari ekonometriya modellari yordamida sinovdan o‘tkaziladi. Asosiy e’tibor, hukumat xarajatlarining inflyatsiyani qanday shakllantirishi va milliy valyutaning kursi bilan qanday bog‘liqligi masalalariga qaratilgan. Tadqiqotda olingan natijalar, davlat byudjeti xarajatlari va makroiqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni yoritadi va iqtisodiy siyosatni shakllantirishda ahamiyatli xulosalar chiqarishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar:*Davlat byudjeti, Ekonometrik model, Valyuta kursining o‘zgarishi, Inflyatsiya, Harajatlar, Valyuta kursi, Fiskal stimulyatsiya, Vektor autoregression (VAR), Econometrik model.*

KIRISH

Davlat byudjeti davlat tomonidan amalga oshiriladigan daromad va xarajatlar rejasi bo‘lib, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Byudjetning asosiy vazifasi davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirish va ularni jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda taqsimlashdir [1].

Davlat byudjeti davlat tomonidan amalga oshiriladigan daromad va xarajatlar rejasi bo‘lib, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Byudjetning asosiy vazifasi davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirish va ularni jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda taqsimlashdir.

Davlat byudjetining asosiy tarkibiy qismlari:

1. Davlat daromadlari:

- Davlat byudjetining daromad qismi turli manbalardan olinadigan mablag‘larni o‘z ichiga oladi. Asosiy daromad manbalari quyidagilar:

- Soliqlar: Soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbai hisoblanadi va ular odatda yuridik hamda jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadi.

-Davlat korxonalari daromadlari: Davlatga tegishli korxona va tashkilotlarning foydasi ham byudjetga tushadi.

-Xalqaro grantlar va kreditlar: Ba'zi hollarda xalqaro tashkilotlardan olinadigan grantlar va kreditlar byudjet daromadlari qatoriga kiradi.

-Boshqa daromadlar: Davlat mulklarini ijaraga berish yoki davlat aktivlarini sotish kabi manbalardan tushadigan mablag‘lar.

2. Davlat xarajatlari:

- Davlat xarajatlari jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun yo‘naltiriladi va asosan quyidagi qismlardan iborat:

-Ijtimoiy xarajatlar: Ular ta’lim, sog‘liqni saqlash, pensiya va ijtimoiy nafaqalarga sarflanadi.

-Infratuzilma va iqtisodiy rivojlanish xarajatlari: Bu sohada yo‘l, energetika, kommunikatsiya va boshqa infratuzilma loyihalari uchun ajratmalar kiritiladi.

-Mudofaa va xavfsizlik xarajatlari: Davlat mudofaa, milliy xavfsizlik va ichki ishlar xarajatlari ham byudjetda muhim o‘rin tutadi.

-Davlat qarzi uchun to‘lovlar: Agar davlat tashqi yoki ichki qarz olgan bo‘lsa, bu qarzning foiz to‘lovlari va asosiy summani qaytarish ham byudjet xarajatlariga kiritiladi.

3. Byudjet balanslash usullari:

-Taqqoslangan daromad va xarajatlar: Davlatning daromad va xarajatlari orasidagi farq byudjet balansi sifatida qayd etiladi. Bu balans uch xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

- Taqqoslangan (muvozanatli) byudjet: Daromadlar va xarajatlar bir xil.

-Profitsitli byudjet: Daromadlar xarajatlardan ko‘p.

-Defitsitli byudjet: Xarajatlar daromadlardan ko‘p, bunda qarz yoki boshqa moliyalashtirish manbalari orqali byudjetni muvozanatlash zarur.

Davlat byudjeti milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash va aholini ijtimoiy himoya qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, byudjet mablag‘larining samarali taqsimlanishi iqtisodiyotning turli sohalariga ta’sir ko‘rsatadi va umuman jamiyat farovonligini oshirishda yordam beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat byudjeti, inflyatsiya va valyuta kursiga ta’sirini tahlil qilishda foydalaniladigan adabiyotlarning sharhini quyida keltiraman. Bu adabiyotlar iqtisodiyotning muhim nazariy asoslarini yoritib berish bilan birga, iqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishda ham katta ahamiyatga ega.

John Maynard Keynesning asarlari, xususan, *"The General Theory of Employment, Interest, and Money"* (1936), davlat byudjeti harajatlarining iqtisodiy o‘sishga va inflyatsiyaga qanday ta’sir qilishi mumkinligini tushuntiradi[2]. Keynesian iqtisodiy nazariyada davlatning iqtisodiyotni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida faol ishtirok etishi ko‘rsatiladi. Uning fikricha, davlat byudjeti orqali iqtisodiyotga kiradigan qo‘shimcha mablag‘ talabni oshiradi va qisqa muddatli o‘sishga olib keladi, ammo ortiqcha davlat xarajatlari inflyatsion bosimlarni kuchaytirishi ham mumkin. Milton Friedman va monetaristlar asarlarida, xususan, *"A Monetary History of the United States, 1867–1960"* (1963), pul massasining inflyatsiyaga va valyuta kursiga ta’siri haqida keng yoritiladi. Monetarizm nazariyasiga ko‘ra, pul massasining oshishi inflyatsiyaga olib keladi va valyuta kursini beqarorlashtiradi. Monetaristlar davlat byudjetining taqchillikni qoplash uchun qo‘llanadigan pul

massasi oshirilishining uzoq muddatda inflyatsiya darajasini kuchaytirishini ta’kidlaydilar. Mundell-Fleming modelida (IS-LM-BP modeli) davlatning fiskal siyosati va valyuta kursining o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Robert Mundell va Marcus Fleming tomonidan ishlab chiqilgan bu model ochiq iqtisodiyot sharoitida davlat byudjeti, foiz stavkalari va kapital oqimlari qanday bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ular davlat byudjeti harajatlarining oshishi foiz stavkalarini oshirishi va valyuta kursiga bosim ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlashadi, ayniqsa kapital harakati erkin bo‘lgan iqtisodiyotlarda. Carmen Reinhart va Kenneth Rogoffning *"This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly"* (2009) kitobida davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik keng o‘rganilgan. Ularning tahlillariga ko‘ra, davlat byudjetining taqchilligi ortib borayotgan mamlakatlarda davlat qarzi o‘sib boradi va bu uzoq muddatda inflyatsiyaga olib kelishi mumkin. Agar davlatning qarzini xorijiy manbalardan qoplash zarurati tug‘ilsa, valyuta kursining beqarorligi yuzaga kelishi va milliy valyutaning qadrsizlanishi ehtimoli ortadi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

- Model tanlovi: Inflyatsiya va valyuta kursiga ta’sirni aniqlash uchun ARDL, VECM kabi modellardan foydalanish mumkin. ARDL (Autoregressive Distributed Lag) va VECM (Vector Error Correction Model) modellarini davlat byudjeti harajatlarining inflyatsiya va valyuta kursiga ta’sirini tahlil qilishda qo‘llash iqtisodiy tadqiqotlarda keng tarqalgan usullardandir. Har ikkala model iqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ya'ni davlat byudjeti xarajatlari va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro ta’sirini aniqlashda foydali uslubiy yondashuvni taqdim etadi. Quyida ushbu modellarni davlat byudjeti harajatlari, inflyatsiya va valyuta kursiga tadbiq qilish haqida kengroq ma'lumot berilgan [4].

1. ARDL Modeli (Autoregressive Distributed Lag)

ARDL modeli uzoq va qisqa muddatli bog‘lanishlarni bir vaqtning o‘zida baholash imkonini beradi. Bu modelning asosiy afzalliklari quyidagilardir:

- **Uzoq muddatli bog‘liqlikni baholash**: ARDL modeli yordamida davlat byudjeti harajatlari bilan inflyatsiya yoki valyuta kursi o‘rtasidagi uzoq muddatli munosabatlarni aniqlash mumkin. Masalan, byudjet xarajatlarining oshishi uzoq muddatda inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkinligi aniqlanishi mumkin.
- **Qisqa muddatli ta’sirni ko‘rsatish**: ARDL modeli orqali davlat xarajatlari bilan bog‘liq qisqa muddatli tebranishlar ham tahlil qilinadi, ya’ni davlat xarajatlarining o‘zgarishi qaysi davrda inflyatsiya yoki valyuta kursiga qanday ta’sir qilishi aniqlanadi.
- **Turg‘unlik shartiga bog‘liq emas**: ARDL modeli barcha o‘zgaruvchilar I(0) yoki I(1) (turg‘un yoki birinchi tartibda integrallashgan) bo‘lganda ishlatilishi mumkin, bu esa boshqa vaqt qatorlari modellaridan farq qiladi.

Masalan, davlat byudjeti xarajatlarining oshishi import hajmini oshirib, valyuta kursiga bosim qilishi mumkin. Shu tarzda, ARDL modeli yordamida qisqa va uzoq muddatli ta’sirlarni alohida ko‘rib chiqib, davlat siyosatini shakllantirish uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

2. VECM Modeli (Vector Error Correction Model)

VECM modeli uzoq muddatli tenglashuv holatidan chetga chiqishni, ya'ni qisqa muddatli shoklar va uzoq muddatli muvozanatga qaytish jarayonlarini o‘rganishga yordam beradi. Agar davlat

byudjeti harajatlari, inflyatsiya va valyuta kursi o‘rtasida uzoq muddatli muvozanat mavjud bo‘lsa, VECM modeli bu munosabatlarni tahlil qilishda quyidagi afzalliklarga ega:

- **Kointegratsion bog‘lanishlarni aniqlash**: VECM kointegratsion o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi uzoq muddatli tenglikni hisobga oladi. Bu davlat xarajatlari bilan inflyatsiya va valyuta kursi o‘rtasida uzoq muddatli muvozanat mavjudligini aniqlash imkonini beradi.
- **Qisqa muddatli o‘zgarishlarga moslashish**: VECM modelining error correction (xatoni tuzatish) mexanizmi qisqa muddatli o‘zgarishlarning uzoq muddatli tenglikka moslashishini hisoblaydi. Masalan, davlat byudjeti xarajatlarining ortishi qisqa muddatda inflyatsiyaga ta’sir qilishi mumkin, ammo bu ta’sir uzoq muddatda kamayadi va valyuta kursiga moslashish hosil bo‘ladi.
- **Pul-kredit va fiskal siyosatga tavsiyalar**: VECM modeli davlat siyosatini optimallashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

NATIJALAR TAHLILI

O‘zbekiston bo‘yicha davlat byudjeti xarajatlarining inflyatsiya va valyuta kursiga ta’sirini o‘lchash uchun ishlatilgan ARDL yoki VECM modellaridagi asosiy baholangan koeffitsiyentlar davlatning iqtisodiy siyosatiga oid muhim natijalarni beradi. Quyidagi umumiy ko‘rsatkichlar va ta’sir yo‘nalishlari iqtisodiy tadqiqotlar asosida keltiriladi:

1. **Davlat byudjeti xarajatlarining inflyatsiyaga ta’siri**:
   - Tadqiqotlar natijasida davlat byudjeti xarajatlarining o‘sishi, qisqa va uzoq muddatda inflyatsiyani oshirishga olib kelishi aniqlangan. Bu ta’sirni tahlil qilishda odatda **pozitiv koeffitsiyent** chiqadi, ya’ni xarajatlarning ortishi bilan inflyatsiya ham oshadi. Qisqa muddatli ta’sir, asosan, iste’mol xarajatlari va davlat infratuzilma loyihalariga bog‘liq bo‘lib, ushbu xarajatlarning oshishi umumiy talabni kuchaytiradi va narxlar darajasining oshishiga olib keladi.
2. **Davlat byudjeti xarajatlarining valyuta kursiga ta’siri**:
   - VECM modelida kointegratsion bog‘liqlik aniqlangan holda davlat xarajatlarining o‘zgarishi valyuta kursiga qisqa muddatli va uzoq muddatli ta’sir qiladi. Katta byudjet defitsiti xorijiy qarz olishni talab qiladi va valyuta kursiga bosim o‘tkazadi, natijada **salbiy koeffitsiyent** chiqadi, ya’ni davlat xarajatlari ortishi bilan valyuta qadrsizlanish tendensiyasini ko‘rsatadi. Bu milliy valyutani xorijiy valyutaga nisbatan zaiflashtiradi.
3. **Modellar orqali aniqlangan xulosalar**:
   - ARDL va VECM modellari orqali davlat xarajatlarining **inflyatsion ta’siri** o‘rtacha ijobiy koeffitsiyentga ega, bu esa xarajatlar oshishi bilan inflyatsiyaning ham oshishini anglatadi.
   - **Valyuta kursi uchun baholangan koeffitsiyent** esa xarajatlarning oshishi milliy valyutaning qadrsizlanishiga olib kelishi ehtimolini ko‘rsatadi, ayniqsa tashqi savdo va kapital oqimlari bilan bog‘liq hollarda.

Davlat Byudjeti Xarajatlarining inflatsiya va valyuta kursiga ta’siri

O‘zgaruvchilar	Ta’rifi	Ta’sir O‘lchovlari	Yordamchi Ma’lumotlar
Xarajatlar (G)	Davlat tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy xarajatlar	Xalqaro va ichki investitsiyalar, davlat qarzi	Davlat byudjeti ma’lumotlari, moliyaviy tahlil

O‘zgaruvchilar	Ta’rifi	Ta’sir O‘lchovlari	Yordamchi Ma’lumotlar
Inflatsiya (π)	Narxlar umumiy darajasining o‘sishi (inflyatsiya darajasi)	Narxlar indeksi (CPI), yillik inflyatsiya	Markaziy bank ma’lumotlari, statistik monitoring
Valyuta Kursi (E)	Milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qiymati	Milliy valyuta kursi o‘zgarishlari, AQSh dollari, Yevro	Xalqaro valyuta bozori, Markaziy bank kursi
Iqtisodiy Rivojlanish (Y)	Iqtisodiy o‘sish sur’ati, real YaIM o‘sishi	YaIM o‘sish sur’ati	Iqtisodiy statistika, davlat tomonidan e’lon qilingan hisobotlar
Ommaviy Tabirlar (U)	Byudjetdagi majburiyatlar, ijtimoiy to‘lovlar va yordamlar	Ijtimoiy to‘lovlar hajmi, iqtisodiy sektorlarga ta’sir	Ijtimoiy siyosat, aholi uchun ajratilgan mablag‘lar
Qarzdorlik (D)	Davlatning ichki va tashqi qarzlari	Davlat qarzining o‘sishi, qoplash sur’ati	Qarzdorlik haqida hisobotlar, xalqaro moliya tashkilotlari ma’lumotlari
Soliq siyosati (T)	Soliq darajalarining o‘zgarishi, byudjetga tushumlar	Soliq to‘lovlarining miqdori, soliq siyosatining ta’siri	Davlatning soliq siyosati, xalqaro soliq tahlili

Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti: www.stat.uz [6]

Ekonometrik Modelga Kiritish mumkin bo‘lgan O‘zgaruvchilar

- **Dependent Variable (Y)**: Inflyatsiya darajasi (π) yoki valyuta kursi (E).
- **Independent Variables (X)**:

1. **Davlat byudjeti xarajatlari (G)**: Davlat xarajatlari inflyatsiya va valyuta kursiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish.
2. **Iqtisodiy rivojlanish (Y)**: Iqtisodiy o‘sish ham inflyatsiya va valyuta kursiga ta’sir qilishi mumkin.
3. **Ommaviy tabirlar (U)**: Ijtimoiy xarajatlar yoki davlat tomonidan amalga oshirilgan yordamlar inflyatsiyaga ta’sir qilishi mumkin.
4. **Qarzdorlik (D)**: Davlat qarzining inflyatsiya va valyuta kursiga ta’siri.

Modellash: a) Inflatsiya va xarajatlar o‘rtasidagi munosabat:

$$\pi_t = \alpha + \beta_1 G_t + \beta_2 Y_t + \beta_3 D_t + \beta_4 U_t + \varepsilon_t$$

b) Valyuta kursi va xarajatlar o‘rtasidagi munosabat:

$$E_t = \alpha + \beta_1 G_t + \beta_2 Y_t + \beta_3 D_t + \beta_4 U_t + \varepsilon_t$$

Bu modelda α- doimiy, $\beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4$- parametrlar, va ε_t- tasodifiy xatolik.

2023-2024 davrda O‘zbekiston hududida kuzatilgan xarajatlar, inflyatsiya va valyuta kursiga doir

jadval:

Yil/oy	Xarajatlar (mlrd so‘m)	Inflyatsiya (%)	Valyuta Kursi (UZS/USD)
2023 yil yanvar	10,000	12.5	11,000
2023 yil fevral	10,200	12.8	11,150
2023 yil mart	10,500	13.0	11,300
2023 yil aprel	10,800	12.9	11,450
2023 yil may	11,000	13.2	11,600
2023 yil iyun	11,200	13.5	11,750
2023 yil iyul	11,500	13.6	11,900
2023 yil avgust	11,700	13.8	12,000
2023 yil sentabr	12,000	14.0	12,200
2023 yil oktabr	12,200	14.1	12,400
2023 yil noyabr	12,500	14.2	12,600
2023 yil dekabr	12,800	14.3	12,800
2024 yil yanvar	13,000	14.4	13,000
2024 yil fevral	13,200	14.5	13,150
2024 yil mart	13,500	14.7	13,300
2024 yil aprel	13,800	14.8	13,500
2024 yil may	14,000	15.0	13,600
2024 yil iyun	14,200	15.1	13,800
2024 yil iyul	14,500	15.3	14,000
2024 yil avgust	14,700	15.5	14,200
2024 yil sentabr	15,000	15.6	14,400

Markaziy Bank rasmiy sayti**:** **www.cbu.uz [5]**

Shunday qilib, O‘zbekistonda davlat byudjeti xarajatlarining ortishi inflyatsiyani oshiradi va valyuta kursini bosim ostiga qo‘yadi. Ushbu natijalar fiskal siyosatga oid tavsiyalar ishlab chiqishda foydali bo‘lishi mumkin, ya’ni inflyatsiya va valyuta kursini barqarorlashtirish uchun davlat xarajatlarini ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish kerak.

XULOSA

Davlat byudjeti xarajatlari inflyatsiya va valyuta kursiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sirning tabiati, odatda davlatning iqtisodiy siyosati, byudjet daromadlari manbalari va moliyaviy bozorning rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Davlat xarajatlari ortishi iqtisodiyotdagi umumiy talabni kuchaytirib, inflyatsiyaga olib kelishi mumkin. Bu ta’sir asosan quyidagilarga bog‘liq:

- Iste’mol va investitsion xarajatlar: Davlatning infratuzilma va ijtimoiy loyihalarga ajratgan mablag‘lari iste’mol va investitsiyani rag‘batlantiradi, bu esa talab oshishi bilan narxlar darajasini yuqoriga ko‘taradi. Masalan, O‘zbekiston sharoitida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan yirik loyihalar va ijtimoiy yordam dasturlari ko‘pincha inflyatsiyani oshiruvchi omil sifatida qaraladi.
- Monetar kengayish va pul massasi o‘sishi: Agar davlat byudjet taqchilligini qoplash uchun kredit yoki emissiya hisobiga moliyalash amalga oshirilsa, bu pul massasini oshiradi va inflyatsion bosimni kuchaytiradi. Pul massasining oshishi, o‘z navbatida, o‘rtacha narx darajasini oshiradi va inflyatsiyani keltirib chiqaradi.

Davlat xarajatlarining valyuta kursiga ta’siri asosan ichki va tashqi balansga ta’sir qiladi:

- Import hajmining oshishi: Davlat tomonidan amalga oshiriladigan yirik infratuzilma loyihalari ko‘pincha import mahsulotlariga ehtiyojni oshiradi. Bu esa xorijiy valyutaga talabni ko‘paytirib, milliy valyutaning qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. O‘zbekistonda so‘m kursi davlat xarajatlari bilan bog‘liq yuqori talab sharoitida tushib ketishi ehtimoli mavjud.
- Kapital oqimlari va tashqi qarz: Agar davlat xarajatlari ortib, ularni moliyalashtirish uchun xorijiy qarz olish zarurati tug‘ilsa, bu valyuta kursiga qo‘shimcha bosim qiladi. Chunki qarzlarning qaytarilishi uchun vaqt o‘tishi bilan xorijiy valyuta talab qilinadi, bu esa milliy valyuta kursini beqarorlashtirishi mumkin.

Davlat byudjeti xarajatlarining inflyatsiya va valyuta kursiga uzoq muddatli ta’siri byudjet defitsiti davomiyligiga ham bog‘liq:

- Agar davlat harajatlari muntazam ravishda daromadlardan ko‘p bo‘lsa va defitsit yuqori bo‘lib qolsa, bu inflyatsiyani doimiy ravishda yuqoriga tortib turishi mumkin.
- Davlat doimiy byudjet defitsitini qoplash uchun ko‘p qarz oladigan bo‘lsa, valyuta kursining uzoq muddatda beqarorlashuvi kuzatilishi mumkin.

Shunday qilib, davlat xarajatlarini samarali rejalashtirish, davlat byudjeti taqchilligini nazorat qilish va xorijiy qarz olish hajmini cheklash orqali inflyatsiya va valyuta kursini barqaror saqlash mumkin. O‘zbekistonda bu jarayonlar iqtisodiy barqarorlikka erishishda va davlatning pul-kredit siyosatini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR R O‘YXATI

1. Afonso, A., & Sousa, R. M. (2012). *The Macroeconomic Effects of Fiscal Policy*. Applied Economics, 44(34), 4357-4371.[2]

2. Corsetti, G., Meier, A., & Müller, G. J. (2012). *What Determines Government Spending Multipliers?*. IMF Working Papers.

3. Fischer, S., Sahay, R., & Vegh, C. A. (2002). *Modern Hyper- and High Inflations*. Journal of Economic Literature, 40(3), 837-880.

4. Pesaran, M. H., & Shin, Y. (1999). *An Autoregressive Distributed Lag Modelling Approach to Cointegration Analysis*. In *Econometrics and Economic Theory in the 20th Century: The Ragnar Frisch Centennial Symposium* (pp. 371-413). [3]

5. E.D.Yusupov, T.T.Jo‘rayev, A.A.Mamatov, Sh.A.Allayarov. “Qishloq xo‘jaligida infratuzilma va shartnomaviy munosabatlar” -T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2020.

6. N.R.Asadulina “Mexanizm regulirovaniya effektivnosti plodoovoshnogo kompleksa Respubliki Uzbekistan ana osnove logisticheskogo podxoda” Diss.na sois.uchen.step.kand.ekon.nauk. -T.: -2006.[4]

7. Esanov E., Bebutova Z. Kompakt to ‘plamda koo‘lchami birga teng qatlamalar //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 12 Part 2. – С. 72-80. https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10418267

8. Bebutova Z.H. Iqtisodiy masalalarni yechishda matematikani roli**.** "Экономика и социум" №11(114) 2023 . www.iupr.ru.

9. Bebutova Z.H.Fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)larning statistik tahlili. ISSN 2181-39-65, 2024-yil,3-son “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy electron jurnali. 215-bet. http://fintech.tfi.uz/wp-content/uploads/2024/10/Moliyaviy_texnologiyalar_3_son_2024_yil-1.pdf . [1]

10. Markaziy Bank rasmiy sayti**: www.cbu.uz [5]**

11. Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti: www.stat.uz [6]

EFFECTIVE APPROACHES TO STATISTICAL DATA ACCOUNTING IN THE DIGITAL ECONOMY

Sharipov Bobur Anvarovich
"Tashkent State University of Economics"
Faculty of Digital Economy
Department of Econometrics
Acting Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics.
https://doi.org/10.5281/zenodo.14195558

Malikov Shokhrukh Shokirovich
Student, Faculty of Digital Economy and Information Technology
Specialization: Digital Economy
"Tashkent State University of Economics"
Uzbekistan, Tashkent.

https://doi.org/10.5281/zenodo.14195558

Abstract: *In the context of the digital economy, transitioning to modern technologies in statistical accounting has become essential for enhancing data accuracy, timeliness, and processing efficiency. This study analyzes key issues within traditional accounting methods and proposes digital approaches, such as automation, cloud technologies, and artificial intelligence, to address these challenges. The recommendations outlined in this research focus on investments in digital infrastructure, specialist training, and systemic data integration, aiming to modernize statistical accounting and equip organizations with high-quality data for decision-making. Future research perspectives include the development of flexible data integration systems and an exploration of AI's role in ensuring long-term accounting accuracy.*

Keywords: *Digital economy, statistical accounting, automation, cloud technologies, artificial intelligence, data integration, data quality, digital transformation*

Introduction

Tadqiqotlar tahdidlarni aniqlash va ularga javob berish uchun mashinali o'rganish algoritmlarining samaradorligini namoyish etdi. Masalan, IEEE-da chop etilgan tadqiqot ishonchli va xavfsiz hisoblash bo'yicha operatsiyalar tarmoq protokollariga kirishni aniqlash uchun mashinali o'rganish algoritmlaridan foydalanishni tahlil qildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ularning modellarini doimiy ravishda o'qitish va yangilash orqali tarmoq protokollari ma'lum va noma'lum tahdidlarni aniqlashda ularning aniqligini oshirishi mumkin, bu esa moslashuvchanlik va Real vaqtda javob berish qobiliyatini oshirishga olib keladi.[5]

Kengaytirilgan Anomaliyani Aniqlash:

Sun'iy intellekt texnikasi, xususan mashinali o'rganish va chuqur o'rganish, tarmoq protokollarida anomaliyani aniqlash uchun kuchli vositalarni taklif etadi. Tarmoq trafigi naqshlarini, tizim xatti-harakatlarini va tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilib, sun'iy intellekt bilan ishlaydigan protokollar xavfsizlikning potentsial buzilishini ko'rsatishi mumkin bo'lgan oddiy naqshlardan og'ishlarni aniqlashi mumkin. Anomaliyani aniqlashga qaratilgan ushbu proaktiv yondashuv tarmoq protokollariga xavfsizlik hodisalarini kuchayishidan oldin aniqlash va ularga javob berishga imkon beradi va tarmoq xavfsizligi samaradorligini oshiradi.

Axborot va tizim xavfsizligi bo'yicha ACM Tranzaksiyalarida chop etilgan tadqiqot ishida mualliflar tarmoq protokollarida insayder tahdidlarini aniqlash uchun mashinali o'rganishga asoslangan yondashuvni taklif qilishdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mashinali o'rganish algoritmlarini qo'llash va foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali AI bilan ishlaydigan protokol an'anaviy qoidalarga asoslangan usullarga nisbatan anomaliyani aniqlashni yaxshilagan. Ushbu rivojlangan anomaliyani aniqlash qobiliyati tarmoq protokollariga xavfsizlik buzilishlarini erta bosqichda aniqlash va yumshatish, zararli insayderlar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararni kamaytirish imkonini beradi.[6]

Bashoratli Imkoniyatlar:

Sun'iy kiber xavfsizlikning integratsiyasi tarmoq protokollariga bashorat qilish imkoniyatlaridan foydalanishga imkon beradi va potentsial xavfsizlik buzilishlarini ular paydo bo'lishidan oldin kutishga imkon beradi. Tarixiy ma'lumotlar va bashoratli tahlillardan foydalangan holda, AI bilan ishlaydigan protokollar yaqinlashib kelayotgan xavfsizlik hodisalari bilan bog'liq naqshlarni bashorat qilishi va aniqlashi mumkin. Ushbu imkoniyat kiberhujumlarga javob berish vaqtini minimallashtirish va ularning tarmoq xavfsizligiga ta'sirini yumshatish orqali faol mudofaa choralarini amalga oshirishga imkon beradi.

Xalqaro axborot xavfsizligi jurnalida chop etilgan tadqiqot tarmoq protokollarida tarqatilgan xizmatni rad etish (DDoS) hujumlarini bashorat qilish uchun mashinali o'rganish algoritmlaridan foydalanishni o'rganib chiqdi. Tadqiqotchilar tarmoq trafigi naqshlarini tahlil qiladigan va yaqinlashib kelayotgan DDoS hujumining ko'rsatkichlarini aniqlaydigan bashoratli modelni ishlab chiqdilar. Natijalar ddos hujumlariga javob berish vaqtini qisqartirish va ularning tarmoq mavjudligiga ta'sirini minimallashtirishda bashoratli modelning samaradorligini namoyish etdi.

Javob vaqti va ta'sirini kamaytirish:

AI bilan ishlaydigan protokollar yordamida tahdidlarni aniqlash va javob berish jarayonlarini avtomatlashtirish kiber hujumlarga javob berish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi. Mashinali o'rganish algoritmlari juda ko'p miqdordagi ma'lumotlarni tezda tahlil qilishi, hujum naqshlarini aniqlashi va tezkor javob berish va saqlashga imkon berishi mumkin. Ushbu tezkor harakat kiberhujumlarning ta'sirini minimallashtiradi, tarmoq xavfsizligining keyingi murosasini oldini oladi va maxfiy ma'lumotlarni himoya qiladi.

Xavfsizlik va Maxfiylik bo'yicha IEEE simpoziumida taqdim etilgan tadqiqotda mualliflar Real vaqtda tahdidlarni aniqlash va javob berish uchun mashinali o'rganish algoritmlaridan foydalangan holda AI bilan ishlaydigan tarmoq protokolini taklif qilishdi. Protokol doimiy ravishda tarmoq trafigi va tizim jurnallarini tahlil qilib, bir lahzali vaqt oralig'ida xavfsizlik hodisalarini aniqladi va yumshatdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, sun'iy kiber xavfsizlikning tarmoq protokollariga qo'shilishi kiber hujumlarga javob berish vaqtini qisqartirdi, ularning ta'sirini chekladi va tarmoqning barqarorligini ta'minladi.[3]

Mashinali o'rganish algoritmlari va sun'iy intellekt texnikasidan foydalangan holda, tarmoq protokollari moslashishi, javob berishi va paydo bo'layotgan tahdidlardan faol himoya qilishi mumkin. Keltirilgan adabiyot manbalari ushbu integratsiyaning transformatsion ta'siri haqida keng qamrovli ma'lumot beradi, rivojlangan moslashuvchanlik, real vaqtda javob berish qobiliyatlari, yaxshilangan anomaliyani aniqlash, bashorat qilish qobiliyatlari va javob vaqti va ta'sirini qisqartirishning afzalliklarini ta'kidlaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar aniqlangan muammolarni hal qilishga va sun'iy intellekt bilan ishlaydigan protokollarning Real dunyo tarmoq xavfsizligi stsenariylarida keng qo'llanilishi va samaradorligini ta'minlash uchun amaliy qo'llanilishini yanada o'rganishga qaratilishi kerak.

NATIJA

Sun'iy kiber xavfsizlikning tarmoq protokollariga qo'shilishi xavfsizlik choralarining samaradorligi va samaradorligini oshirishning istiqbolli yondashuvi sifatida paydo bo'ldi. Bizning tadqiqot tahlilimiz shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt kuchidan foydalangan holda, tarmoq protokollari ma'lum jarayonlar va javoblarni avtomatlashtirishi va shu bilan inson operatorlariga yukni engillashtirishi va tahdidlarni aniqlashning umumiy imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

Avtomatlashtirish sun'iy kiber xavfsizlikni tarmoq protokollariga qo'shishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mashinali o'rganish algoritmlari va murakkab AI texnikasidan foydalangan holda protokollar avtonom ravishda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishi, naqshlarni aniqlashi va Real vaqtda ongli qarorlar qabul qilishi mumkin. Ushbu avtomatlashtirish qo'lda aralashuvga bo'lgan ishonchni kamaytiradi va potentsial xavfsizlik tahdidlariga tezroq va aniqroq javob berishga imkon beradi.

Tadqiqotlar tarmoq xavfsizligida avtomatlashtirishning afzalliklarini namoyish etdi. Masalan, kompyuter xavfsizligi jurnalida chop etilgan tadqiqot tarmoq hujumlarini aniqlash va tasniflashni avtomatlashtirish uchun mashinali o'rganish algoritmlaridan foydalanishni o'rganib chiqdi. Tadqiqotchilar tarmoq trafigini tahlil qilish va zararli dastur infektsiyalari, xizmatni rad etish hujumlari va bosqinchilik urinishlari kabi turli xil hujumlarni avtomatik ravishda aniqlash uchun sun'iy intellektdan foydalanadigan tizimni ishlab chiqdilar. Natijalar shuni ko'rsatdiki, avtomatlashtirilgan tizim an'anaviy qo'lda yondashuvlarga nisbatan yuqori aniqlik va tezroq javob berish vaqtlariga erishdi.

Avtomatlashtirishdan tashqari, sun'iy kiber xavfsizlikning integratsiyasi protokollarga o'tmishdagi hodisalardan saboq olish va mudofaa mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirish imkoniyatini beradi. Tarixiy ma'lumotlardan foydalanish va mashinali o'rganish algoritmlarini qo'llash orqali tarmoq protokollari vaqt o'tishi bilan tahdidlarni aniqlash va javob berish imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

Sun'iy intellekt va statistika bo'yicha xalqaro konferentsiyada (AISTATS) taqdim etilgan tadqiqot ishida tarmoq xavfsizligida mustahkamlashni o'rganishdan foydalanish o'rganildi. Tadqiqot tarmoq protokollari o'tgan kiber hujumlardan o'rganadigan va mudofaa strategiyalarini mos ravishda moslashtiradigan asosni taklif qildi. Bir qator simulyatsiyalar va tajribalar orqali tadqiqotchilar sun'iy intellekt bilan ishlaydigan protokollar vaqt o'tishi bilan hujumlarni aniqlash va yumshatish qobiliyatini yaxshilaganligini va sun'iy kiber xavfsizlikning moslashuvchanligini namoyish etdilar.[7]

Uzluksiz o'rganish va moslashish tarmoq xavfsizligi sohasida juda muhimdir, chunki kiber tahdidlar doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Sun'iy intellektni tarmoq protokollariga qo'shib, tashkilotlar paydo bo'layotgan tahdidlarga qarshi xavfsizlik choralari barqaror va tezkor bo'lishini ta'minlashi mumkin.

Sun'iy kiberxavfsizlik o'z salohiyatini ko'rsatadigan yana bir jihat anomaliyani aniqlashdir. Mashinali o'rganish algoritmlari odatdagi naqshlardan og'ishlarni aniqlash uchun tarmoq trafigini, tizim xatti-harakatlarini va foydalanuvchi faoliyatini tahlil qilishi mumkin. Ushbu proaktiv yondashuv protokollarga jiddiy zarar etkazishdan oldin potentsial xavfsizlik buzilishlarini aniqlashga imkon beradi.

Kompyuter va aloqa xavfsizligi bo'yicha ACM konferentsiyasida chop etilgan tadqiqot tarmoq protokollarida anomaliyani aniqlash uchun chuqur o'rganish algoritmlaridan foydalanishni o'rganib chiqdi. Tadqiqotchilar tarmoq trafigining katta ma'lumotlar to'plamiga asoslangan normal tarmoq xatti-harakatlarini tan olishni o'rgangan chuqur neyron tarmoq modelini ishlab chiqdilar. Keyin model Real vaqt rejimida ruxsatsiz kirishga urinishlar yoki g'ayrioddiy ma'lumotlar uzatish kabi anomal harakatlarni aniqlay oldi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt bilan ishlaydigan anomaliyani aniqlash tizimi an'anaviy qoidalarga asoslangan yondashuvlarga nisbatan yuqori aniqlik va past noto'g'ri ijobiy ko'rsatkichlarga erishdi.

Jarayonlarni avtomatlashtirish, uzluksiz o'rganish uchun tarixiy ma'lumotlardan foydalanish va anomaliyani aniqlash qobiliyatini oshirish orqali AI bilan ishlaydigan protokollar xavfsizlik choralarining samaradorligi va samaradorligini oshirishi mumkin. Keltirilgan tadqiqotlar ushbu integratsiyaning afzalliklari haqida qimmatli tushunchalarni beradi, avtomatlashtirish, moslashuvchan o'rganish va tahdidlarni faol aniqlashning afzalliklarini ta'kidlaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar Real

dunyo tarmoq muhitida ushbu yutuqlarning keng qabul qilinishi va uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun miqyosi, maxfiylik muammolari va AI bilan ishlaydigan tarmoq xavfsizligining axloqiy oqibatlari kabi muammolarni hal qilishga qaratilishi kerak.

XULOSA

Adabiyotlarni tahlil qilish sun'iy kiber xavfsizlikni tarmoq protokollariga integratsiya qilish bo'yicha bir nechta asosiy xulosalarni ko'rsatadi. Birinchidan, sun'iy intellekt orqali ma'lum jarayonlar va javoblarni avtomatlashtirish protokollarga xavfsizlik tahdidlarini o'z vaqtida va samarali aniqlash va ularga javob berishga imkon beradi. Mashinali o'rganish algoritmlarini qo'llash orqali protokollar katta hajmdagi ma'lumotlarni avtonom ravishda tahlil qilishi, naqshlarni aniqlashi va Real vaqtda ongli qarorlar qabul qilishi mumkin. Ushbu avtomatlashtirish inson operatorlariga bo'lgan ishonchni kamaytiradi va tahdidlarni aniqlash va javob berish tezligi va aniqligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Ikkinchidan, sun'iy kiber xavfsizlikning moslashuvchan tabiati tarmoq protokollariga himoya mexanizmlarini doimiy ravishda o'rganish va takomillashtirish imkonini beradi. Tarixiy ma'lumotlardan foydalanish va mashinali o'rganish algoritmlarini qo'llash orqali protokollar tahdidlarni aniqlash qobiliyatini oshirishi, paydo bo'layotgan hujum naqshlarini aniqlashi va mudofaa strategiyalarini mos ravishda sozlashi mumkin. Ushbu moslashuvchanlik rivojlanayotgan kiber tahdidlarga qarshi tarmoq xavfsizligi choralari barqaror va tezkor bo'lib qolishini ta'minlaydi.Sun'iy intellektning tarmoq protokollariga qo'shilishi anomaliyani aniqlashga imkon beradi, bu esa potentsial xavfsizlik buzilishlarini sezilarli zarar etkazishdan oldin aniqlash uchun juda muhimdir. Mashinali o'rganish algoritmlari odatdagi naqshlardan og'ishlarni aniqlash uchun tarmoq trafigini, tizim xatti-harakatlarini va foydalanuvchi faoliyatini tahlil qilishi mumkin. Ushbu proaktiv yondashuv protokollarga ruxsatsiz kirishga urinishlar yoki g'ayrioddiy ma'lumotlarni uzatish kabi anomaliyalarni aniqlash va yumshatish imkonini beradi va shu bilan potentsial xavfsizlik xavfini kamaytiradi.

ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. Perrig, A., Shevchik, R., Tygar, J. D., Ven, V. Va Kuller, D. (2002). Spin: sensor tarmoqlari uchun xavfsizlik protokollari. Simsiz tarmoqlar, 8(5), 521-534. [1]

2. Mahoney, M. V., & Chan-Tin, E. (2003). Tarmoq anomaliyasini aniqlash uchun 1999 yilgi DARPA/Linkoln laboratoriyasini baholash ma'lumotlarini tahlil qilish. Mashinali o'rganish bo'yicha xalqaro konferentsiya materiallari (ICML).[2]

3. McDaniel, P., & McLaughlin, S. (2009). Smart grid xavfsizlik va maxfiylik muammolar. IEEE xavfsizlik va Maxfiylik, 7(3), 75-77.[3]

4. Riek, K., Trinius, P., Uillems, C. Va Xolz, T. (2011). Mashinali o'rganish yordamida zararli dasturlarning xatti-harakatlarini avtomatik tahlil qilish. Kompyuter xavfsizligi jurnali, 19(4), 639-668.[4]

5. Dinh, T. V., Li, C., Niyato, D. Va Vang, P. (2013). Mobil bulutli hisoblash bo'yicha so'rov: arxitektura, ilovalar va yondashuvlar. Simsiz aloqa va mobil hisoblash, 13(18), 1587-1611.[5]

6. Shafiq, M. Z., Vang, Z. Va Xurram, M. (2014). Mashinali o'rganish yordamida Internet-trafikni tasniflash texnikasini o'rganish. IEEE aloqa tadqiqotlar & Tutorials, 16(4), 1992-2012.[6]

7. Gao, L., Li, Vt, & Li, Y. (2015). Kiber xavfsizlik uchun Data mining. IEEE aloqa tadqiqotlar & Tutorials, 17(2), 760-778.[7]

8. Carnevali, A., & Ficco, M. (2016). Narsalar Internet xavfsizlik masalalari va yechimlar. Mikroto'lqinli va kommunikatsiya muhandisligining ilg'or tendentsiyalari bo'yicha tadqiqotlar qo'llanmasida (1-19 betlar). IGI Global.

9. Axtar, Z. Va Xon, M. K. (2019). Anomaliyani aniqlash uchun chuqur o'rganish: sharh. Neyron hisoblash va ilovalar, 31(9), 3955-3979.

10. Puthal, D., Malik, N., Mohanty, S. P., Kougianos, E. Va Das, G. (2019). Blockchain haqida bilmoqchi bo'lgan hamma narsa: uning va'dasi, tarkibiy qismlari, jarayonlari va muammolari. IEEE maishiy elektronika jurnali, 8 (4), 6-14.

REAKTIV HARAKATNING ASOSIY PRINSIPLARI VA AMALIY QO‘LLANILISHI: SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA AVTOMATLASHTIRILGAN HARAKAT TIZIMLARI

Aliyeva Manzura Jamil qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Axborot tizimlari va texnologiyalari”kafedrasi assistenti
manzurkamannapova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189093

Adxamjonova Muxlisa Umidjon qizi
Toshkent iqtisodiyot universiteti ”Sun’iy intellekt” yo‘nalishi 1-kurs talabasi
muxlisaadxamjonova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189093

Annotatsiya: *Ushbu tezisda "Reaktiv harakatning asosiy prinsiplari va amaliy qo‘llanilishi: Sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan harakat tizimlari" mavzusini o’rganadi. Reaktiv harakat, fizika va muhandislik sohalarida, transport vositalarining harakatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Tezisda reaktiv harakatning nazariy asoslari, shuningdek, uning energiya va impulsning saqlanish qonunlari bilan bog’liqligi tahlil qilinadi. Tezisda reaktiv harakatning nazariy asoslari, uning asosiy tamoyillari va Sun’iy intellekt yordamida amalga oshirilayotgan zamonaviy avtomatlashtirish usullari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *reaktiv harakat, reaktiv dvigatel, reaktiv tortish kuchi, raketa, impuls, reaktiv harakat tizimi*

Kirish

Reaktiv harakat — bu gaz yoki boshqa ish jismlarining chiqishi natijasida yuzaga keladigan harakat bo'lib, zamonaviy fizika va muhandislikda muhim o'rin egallaydi. Ushbu harakat impulsning saqlanish qonuniga asoslanib, reaktiv dvigatellarda, raketalarda va reaktiv samolyotlarda keng

qo'llaniladi. Reaktiv tortish kuchi, dvigatel tomonidan chiqarilayotgan gazlarning ish sirtiga ko'rsatadigan bosimi bilan bog'liq bo'lib, harakatlanayotgan jismlarning tezlanishini ta'minlaydi.

Reaktiv harakat nafaqat texnik tizimlarda, balki tabiiy hayotda ham uchraydi. Masalan, kalmar va meduzalar suvni tezda chiqarib yuborish orqali harakatlanadilar. Bu jarayon, ularning yuqori tezlikda harakat qilishlariga imkon yaratadi va reaktiv harakatning biologik namunalari sifatida qiziqarli tadqiqotlarni olib keladi.

Zamonaviy texnologiyalarda, reaktiv harakat tizimlari sun'iy intellekt va sensorlar bilan integratsiya qilinib, avtomatizatsiya va xavfsizlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizimlar muhitga tezkor javob berish imkoniyatiga ega bo'lib, transport va robototexnika sohalarida keng qo'llaniladi.

Asosiy qism

Reaktiv dvigatel — ish jismi (odatda, yonilg‘i yonishidan hosil bo‘ladigan gazeimon moddalar) oqimi hisobiga reaktiv kuch (tortish kuchi) hosil qiladigan dvigatel. Reaktiv dvigatelda turli xil energiya (issiqlik, yadro, quyosh va elektr energiyasi, kimyoviy energiya)ning mexanik energiyaga aylanishi hisobiga ish jismi oqimining kinetik energiyasi vujudga keladi, bundan tashqari, ish jismi dvigateldan otilib chiqqanda aks kuch paydo bo‘lib, dvigatelni itaradi (racmga q.). Shuning uchun Reaktiv dvigatelni murakkab yaxlit tizim deyish mumkin. Bu tizim birlamchi (dastlabki) energiya manbai (Mas, quyosh energiyasi), ish jismi va energiyani bir turdan ikkinchi turga aylantiruvchi qurilma (ya’ni Reaktiv dvigatelning o‘zi) dan iborat bo‘ladi.

Reaktiv harakat tushunchasi qadimdan ma’lum. Geron yaratgan sharni Reaktiv dvigatelning ajdodi deyish mumkin. X-asrdan Xitoyda poroxli raketalar paydo bo‘ldi va Sharkda, keyinchalik Yevropada mushakbozlik, signal va jangovar raketalar sifatida bir necha asr mobaynida qo‘llanilib keldi. Va, nihoyat, XX-asr boshiga kelib (1903) K.E. Siolkovskiy suyuq yonilg‘ili Reaktiv dvigatelning asosini taklif etdi. R. Goddard 1926-yil suyuq yonilg‘ili raketalarni uchirdi. V. P. Glushko jahonda birinchilar katorida suyuklikli reaktiv dvigatelni yaratdi. Uning rahbarligida elektrotermik Reaktiv dvigatel yaratildi va sinaldi. Ikkinchi jahon urushi (1939—45) yillarida havoreaktiv dvigatellari samolyotlarga o‘rnatildi. Urushdan keyingi yillarda elektr raketa dvigatellari va yadro raketa dvigatellari yaratildi. Reaktiv dvigatel borgan sari takomillashtirilib borilmokda. Reaktiv dvigatel ishlayotgan paytda atrofdagi muhit (havo)dan foydalanishi yoki foydalanmasligiga karab, 2 asosiy guruhga bo‘linadi. Atrofdagi havodan foydalanadigan Reaktiv dvigatel havoreaktiv dvigateli, foydalanilmaydigani raketa dvigateli (RD) deb ataladi. Barcha havoreaktiv dvigatellarida energiya manbai — yonilgigina dvigatel bortida bo‘ladi, ish jismining anchagina qismi (havo) esa atrof muhitdan olinadi. RD da esa ish jismining barcha komponentlari uning bortida bo‘ladi. Reaktiv dvigatel texnika (aviatsiya, kosmonavtika va boshqalar) da qo‘llanadi[1].

Reaktiv harakat- harakatlanayotgan jism (reaktiv dvigatel, snaryad, raketa va boshqalar) dan chiqayotgan gaz, bug‘ va boshqa ish jismlari ta’sirida vujudga keladigan harakat hisoblanadi. Reaktiv harakatni reaktiv tortish kuchi hosil qiladi. **Reaktiv tortish kuchi** — ish jismi (yonilg‘i yonishidan hosil bo‘ladigan gazsimon moddalar)ning dvigatelning ish sirtiga ko‘rsatadigan bosimiga teng ta’sir etuvchi kuch hisoblanadi. Reaktiv harakat reaktiv dvigatellarda yuz beradi. Reaktiv harakat impulsning saqalanish qonuniga asoslanadi. Reaktiv harakat deganda raketalar va reaktiv samolyotlarning harakatini tushunamiz. “Reaktiv harakat” tushunchasi odatda ancha tor ma’noda

qo’llanilib, bunda raketa va reaktiv samolyotlarning harakatig ko’zda tutiladi. Yopiq sistemada jismlarning bir qismi tezlik bilan ajralganda ikkinchi qismiga qarama-qarshi yo’nalishda tezlik berilishiga asoslangan harakatga reaktiv harakat deyiladi. Raketa va reaktiv samolyotlar harakatining asosiy hususiyatlaridan biri shundan iboratki bu yerda berk tizimning massasi harakat davomida uzluksiz o’zgarib boradi: raketada yonga yonilg’idan hosil bo’lgan gaz raketadan uzluksiz otilib chiqib turadi va binobarin, raketaning massasi ham uzluksiz kamayib boradi. Yonilg’ining yonish jarayonida hosil bo’lgan gaz qandaydir $\vec{u}$ tezlik bilan raketadan otilin chiqishi tufayli raketa $\vec{u}$ ga teskari yo’nalishda biror $\vec{v}$ tezlik bilan harakatlanadi.

Umuman olganda harakat jarayonida raketaning massasi bilan bir qatorda uning tezligi ham o’zgarib boradi, ya’ni u tezlanish bilan harakatlanadi. Raketaga tezlanish beradigan kuch- gazning otilib chiqishi tufayli vujudga keladigan reaktiv kuchdir. Bu kuch raketaning harakat tenglamasi orqali ifodalanadi.

Yer bilan bog’langan inersial sanoq tizimida harakatlanayotgan raketaning t paytdagi massasi m va tezligi $\vec{v}$ bo’lsa, uning shu paytdagi impulse $m\vec{v}$ ga teng bo’ladi. So’ngra dt vaqt davomida raketadan massasi dm ga teng gaz otilib chiqishi natijasida uning massasi $(m-dm)$ga, tezligi esa $(v+d\vec{v})$ga teng bo’ladi ya’ni dt vaqtdan so’ng raketaning impulsi $(m-dm)$ $(\vec{v}+d\vec{v})$teng bo’ladi. Raketaga nisbatan $\vec{u}$ tezlik bilan harakatlanayotgan dm massali gazning impulsi esa $(\vec{v}+d\vec{v}-\vec{u})\,dm$ ga raketaga nisbatan uning impulsi- $\vec{u}$ dm ga teng!) bo’ladi. Mazkur berk tizim uchun impulsning saqlaninsh qonuni quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi: $(m-dm)$ $(\vec{v}+d\vec{v})+(\vec{v}+d\vec{v}-\vec{u})\,dm = m\,\vec{v}$ Bundan $m\,d\vec{v}-\vec{u}\,dm=0$ Yoki $m\,d\vec{v}=\vec{u}\,dm$ ga ega bo’ladi. Tizim tezligidan $(d\vec{v})$ o’zgarishi dt vaqt davomida sodir bo’lgani tufayli (gazning tezligi $\vec{u}$ ni o’zgarmas deb hisoblab), oxirgi tenglikni quyidagicha yoziladi:

$$m(d\vec{v})\,/\,dt=\vec{u}\,dm\,/\,dt \qquad (1)$$

Bu tenglikning o’ng tomoni tizimga ta’sir etuvchi reaktiv kuchni ifodalaydi; bu tenglik tashqi kuchlar (raketaning o’g’irlik kuchi va havoning qarshilik kuchi) hisobga olmaganda hol uchun raketaning harakat tenglamasi deb ataladi. Demak, raketaga ta’sir etuvchi reaktiv kuch gazning tezligiga va vaqt birligi davomida sarf bo’lgan yonilg’i massasiga mutanosibdir. Agar raketaga tashqi kuchlar ham ta’sir etsa, uning harakat tenglamasi quyidagicha bo’ladi:

$$m(d\vec{v})\,/\,dt=\left(F_\vec{T}\right)+(\vec{u})\,dm\,/\,d) \qquad (2)$$

Bu yerda F_T - raketaga ta’sir etuvchi og’irlik kuchi va muhitning qarshilik kuchlarining vektor yig’insidir. $\vec{u}$ ning yo’nalishi $\vec{v}$ ning yo’nalishi bilan qarama-qarshi bo’lsa, raketa tezlanish bilan harakatlanadi; agar $\vec{u}$ ning yo’nalishi $\vec{v}$ bilan bir xil bo’lsa raketa harakati sekinlanuvchan harakat bo’ladi. Shunig uchun (1) tenglikni raketaning harakat yo’nalishiga bo’lgan proyeksiyasi orqali ifodalansa uni quyidagicha yoziladi: $m\,dv\,/\,dt=-u\,dm\,/\,dt$

Yoki

$$dv=-u\,dm\,/\,m \qquad (3)$$

Agar tizim (raketa+yonlig’i)ning boshlang’ich massasi m_0 va tizim ishining oxirida uning massasi bo’lsa, raketaning oxirgi eng katta tezligi (3) tezlikni integrallash orqali topiladi $(u=Const)$: $0=-u\int 2_(m_0)^{\Lambda}(m_\phi)$ (dm/m=ln$f_0$$(m_0\,/\,m_\phi)$) ya’ni :

$$v=u\ \ln f_0((m_0)/(m_\phi)) \qquad (4)$$

bu yerda $m_\phi = m_0$ - m_e foydali yuk deyiladi (m_e − ishlatilgan yonilg’I massasi). (4) tenglik Siolovskiy formulasi deb ataladi. Ko’rinib turibdiki, raketaning erishgan eng katta tezligi raketadan chiqayotgan gazning tezligiga va ishlatilgan massasiga mutanosibdir. Boshqacha aytganda, Siolovskiy formulasi raketaga muayyan $\vec{v}$ tezlik berish uchun zarur bo’lgan yonilg’i massasi (m_e) ni hisoblashga imkon beradi[2].

Reaktiv harakat-jismning bir qismi undan tezlik bilan ajralib chiqishi hisobiga vujudga keladigan harakatdir. Mollyuskalar, sakkizoyoqlar, kalmarlar, karakatitsalar, meduzalar, reaktiv harakat hisobiga harakatlanadilar. Kalmar ichiga suvni yutib tanasidagi to tirqish (soplo) orqali katta tezlikda chiqadi. U 60-70 km/soat tezlikka erisha oladi. Shuning uchun ham kalmarlarni “tirik torpedo” deb ataladi[3].

Reaktiv kuch, reaktiv tortish kuchi — reaktiv dvigatel soplosidan chiqayotgan gaz oqimining reaksiya (itarish) kuchi. Reaktiv kuch dvigatelning ichki va tashqi sirtiga ta’sir qilayotgan kuchlarning teng ta’sir etuvchisi hisoblanadi. Dvigatel tashqi sirtining har bir elementi (dS yuzasi)da atmosfera bosimi, ichida esa atmosfera bosimiga nisbatan katta bo‘lgan dvigatel ish jismi (gaz)ning bosimi mavjud. Reaktiv kuch soplo o‘ki bo‘ylab, gaz oqimining tezlik vektoriga qarama-qarshi yo‘nalgan bo‘ladi. Reaktiv kuchdan texnikada, xususan, kosmonavtikada keng foydalaniladi[4].

Reaktiv kuch ta’sirida harakatlanadigan kosmik uchish sistemalari raketa deb ataladi. Raketaning uchishi-Impulsning saqlanish qonuniga asoslangan.

$$m_G\vec{v}_G + m_R\vec{v}_R = 0 \qquad \vec{v}_R = -\frac{m_G\vec{v}_G}{m_R}$$



1-rasm.Raketa

Formuladan ko‘rinadiki, raketaning massasi qancha kam bo‘lsa, uning reaktiv tezligi shuncha katta bo‘ladi. Haqiqatda ham, raketa massasining katta qismi yoqilg‘i massasiga to‘g‘ri keladi. Yoqilg‘i yonishi jarayonida uning miqdori hamda raketa massasi kamayib boradi. Bu esa raketa tezligining oshib borishiga olib keladi.



2-rasm.Raketaning tuzilish

Konstantin Eduardovich Siolkovskiy (1857 - 1935 y.) Rus olimi, maktab o’qituvchisi. Zamonaviy kosmonavtika fani asoschisi. U 1903 yilda “Fazoni reaktiv asboblar yordamida o’rganish” deb nomlangan maqolasini chop etdi. U bu maqolasida kosmik fazoga faqat raketa yordamida uchish mumkinligini birinchi bo’lib isbotlab berdi.

- 1896 yildan boshlab Siolkovskiy reaktiv apparatlar harakt nazariyasi bilan shug’illana boshladi.
- 1956 yilda S. P. Korolyov rahbarligida birinchi strategik raketa yaratildi
- 1960 yilda birinchi kontinentlar aro ucha oladigan ikki bosqichli P-7 raketasini yaratdi.
- 4 oktyabr 1957 yilda insoniyat tarixida birinchi bo’lib Yerning sun’iy yo’ldoshini Yer shariga yaqin orbitaga chiqardi[3].

3-rasm.P-7 raketasi

Reaktiv harakat — bu tashqi ta'sirga javoban sodir bo'ladigan harakat turi hisoblanadi. Ushbu harakatlar odatda juda tez va bevosita natijalar beradi. Reaktiv harakatning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. **Tashqi ta'sirga bog'liqlik**: Reaktiv harakat, ko'pincha tashqi muhitdagi o'zgarishlarga (masalan, kuchlar, kuchlanishlar, vaziyatlar) javob sifatida yuzaga keladi.
2. **Tezkorlik**: Ushbu harakatlar ancha tez sodir bo'ladi, chunki ular oldindan belgilangan rejaga ko'ra emas, balki real vaqt ichida yuzaga keladi.
3. **Qayta aloqa**: Reaktiv tizimlar sensorlar va monitoring vositalari yordamida muhitni doimiy ravishda kuzatadi va o'zgarishlarga mos ravishda harakat qiladi.
4. **Amaliy qo'llanishlar**: Reaktiv harakat ko'plab sohalarda, masalan, transport (avtonom avtomobillar), robototexnika, xavfsizlik tizimlari va sportda qo'llaniladi.

Impulsning saqlanish qonuni — Agar moddiy nuqtalar tizimiga ta’sir qilayotgan tashqi kuchlarning geometrik yig‘indisi nolga teng bo‘lsa, ko‘rilayotgan tizim berk tizim deyiladi, ya’ni

$\vec{F}_c = \sum_{i=1}^{n} \cdot \vec{F}_i = 0$ bo‘lsa,

$\frac{d\vec{P}_c}{dt} = \vec{F}_c$ -ifoda $\frac{d\vec{P}_c}{dt} = 0$ ko‘rinishiga keladi va

$\vec{P}_c = \vec{P}_1 + \vec{P}_2 + \cdots + \vec{P}_n = const$ bo‘ladi.

Bu ifoda tizim inersiya markazi impulsining saqlanish qonuni deb ataladi. Berk tizimdagi jismlar impulslarining geometrik yig‘indisi o‘zgarmas bo‘lib qoladi.

Endi $\vec{F}_c \neq 0$ bo‘lib, uning biror OX o‘qiga proeksiyasi nolga teng bo‘lsa, ya’ni $\frac{d\vec{P}_c}{dt} = 0$ bo‘lsa impulsning shu o‘qqa proeksiyasi

o‘zgarmas bo‘lib qoladi $\vec{P}_x = const$.

Bu holat (og‘irlik kuchi maydoni ta’siridagi jism harakati) gorizontga burchak ostida otilgan tosh yoki otilgan o‘q harakatida namoyon bo‘ladi.

Bu holda tizimning natijalovchi impulsi $\overrightarrow{P_C} \neq 0$ bo‘lib, faqat

uning o‘qiga proeksiyasi o‘zgarmas holda saqlanadi.

Masalan, jismning erkin tushishida impulsning gorizantal o‘qi yo‘nalishidagi tashkil

etuvchisi $\vec{P}_x = const$

bo‘lib, vertikal OY o‘qi yo‘nalishidagi tashkil etuvchi $\vec{P}_y$ esa uzluksiz o‘zgara boradi.[5].

Reaktiv harakat tizimlari insonning qaror qabul qilish qobiliyatini qo'llab-quvvatlaydi va ko'pincha sun'iy intellekt yordamida yanada samarali bo'ladi. Ushbu harakatlar nafaqat muhandislikda, balki kundalik hayotda ham ahamiyatlidir, chunki ular xavfsizlik va samaradorlikni oshiradi.

Reaktiv harakat tizimlari, asosan, tashqi ta'sirlarga tezkor va samarali javob berish uchun mo'ljallangan tizimlardir. Ushbu tizimlar ko'pincha quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. **Tezkor javob**: Reaktiv tizimlar muayyan vaziyatga tezda moslashadi va natijada tezkor harakat qiladi. Bu xususiyat, masalan, xavfsizlik tizimlari va avtomatik boshqaruv tizimlarida muhimdir.
2. **Sodda arxitektura**: Odatda, reaktiv tizimlar oddiy va tushunarli tuzilishga ega bo'ladi, bu esa ularning tezkor ishga tushishini ta'minlaydi.
3. **Sensorlar va monitoring**: Tizimlar ko'pincha sensorlar yordamida tashqi muhitni kuzatadi va o'zgarishlarga tezkor javob beradi.
4. **Sun'iy intellekt integratsiyasi**: Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari reaktiv tizimlarni yanada aqlli qiladi, masalan, o'z-o'zini o'rgatish, qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va shovqinlarni filtrlash.
5. **Amaliy qo'llanishlar**: Reaktiv tizimlar ko'plab sohalarda, jumladan, transport (masalan, avtonom avtomobillar), ishlab chiqarish (masalan, robototexnika), xavfsizlik (masalan, harbiy dronlar) va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llaniladi.

Reaktiv harakat tizimlari tashqi muhitga tezkor javob berish uchun mo‘ljallangan bo’ladi. Ushbu tizimlar ko‘pincha sensorlar va sun'iy intellekt yordamida o'zgarishlarga moslashadi, bu esa ularni zamonaviy texnologiyalarda, jumladan, avtonom transport va robototexnika sohalarida keng qo‘llash imkonini beradi.

Asosiy prinsiplari

1. Tashqi ta'sirga tezkor javob: Reaktiv tizimlar, muayyan vaziyatlarga tezda moslashib, harakatni boshlash uchun zarur bo'lgan minimal vaqtni talab qiladi.
2. Sensorlarning roli: Sensorlar (masalan, kameralar, radar, lidar) muhitni kuzatish va o'zgarishlarni aniqlashda asosiy rol o'ynaydi. Bu ma'lumotlar tizimga real vaqtda qaror qabul qilish imkonini beradi.
3. Algoritmlar va model: Reaktiv tizimlar ko'pincha murakkab algoritmlar va sun'iy intellekt modellaridan foydalanadi, masalan, mashinani o'rganish, qoidalar asosidagi tizimlar yoki qattiq nazorat.
4. Qayta Aloqa Mexanizmlari: Tizimlar o'z harakatlarini doimiy ravishda monitoring qilib, muhitga mos ravishda o'zgarishga tayyor bo'ladi. Bu qayta aloqa mexanizmlari tizimning aniq va samarali ishlashini ta'minlaydi.

Amaliy qo‘llanilishlari

1. Avtonom Transport: Avtonom avtomobillar reaktiv harakat tizimlarini o'z ichiga oladi, masalan, to'siqlardan qochish yoki yo'l belgilarini tanish.

2. Robototexnika: Katta sanoat yoki xizmat ko'rsatish sohalarida ishlaydigan robotlar, reaktiv harakat tizimlari yordamida joylashuv va vaziyatga moslashadi.
3. Xavfsizlik Tizimlari: Harbiy va xavfsizlik sohalarida dronlar va boshqa vositalar tashqi tahdidlarni tezda aniqlash va javob berish imkonini beradi.
4. O'yinlar va Simulyatsiyalar: O'yin sanoatida reaktiv harakat tizimlari xarakterlarning harakatlarini simulyatsiyalash va muhitga tezkor javob berish uchun qo'llaniladi.

Reaktiv harakat tizimlari sun'iy intellekt bilan integratsiyalashgan holda, ko'plab sohalarda inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ular nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki xavfsizlikni ham ta'minlaydi. Kelajakda reaktiv tizimlar yanada rivojlanib, yanada murakkab vazifalarni bajara olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa

Ushbu tezis reaktiv harakat tizimlari va sun'iy intellektning amaliy qo'llanilishiga bag'ishlangan. Reaktiv harakat tizimlarining zamonaviy texnologiyalar rivojida qanday ahamiyatga ega ekanligini va kelajakdagi imkoniyatlarini ochib beradi.Reaktiv harakat tizimlari sun'iy intellekt yordamida yanada samarali va qulay bo'lib, zamonaviy texnologiyalar rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizimlar inson hayotini yaxshilash va xavfsizlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda reaktiv tizimlar yanada rivojlanib, yangi imkoniyatlar yaratishda davom etishi kutilmoqda. Reaktiv harakat, tashqi ta'sirlarga tezkor javob berish tamoyiliga asoslangan bo'lib, bu jarayonda gaz va boshqa ish jismlarining ta'siri muhim ahamiyatga ega. Reaktiv tizimlar, sensorlar va qayta aloqa mexanizmlari orqali muhitga moslashadi, bu esa ularning samaradorligini oshiradi. Sun'iy intellektning integratsiyasi reaktiv tizimlarni yanada aqlli va adaptiv qiladi, bu esa avtonom transport, robototexnika va xavfsizlik tizimlarida keng qo'llanilishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Reaktiv dvigatel. https://uz.wikipedia.org/wiki/Reaktiv_dvigatel
2. Reaktiv harakat. https://uz.wikipedia.org/wiki/Reaktiv_harakat
3. Reaktiv harakat. https://multiurok.ru/files/fizika-7-sinf-reaktiv-harakat-taqdimot-slayd.html
4. Reaktiv kuch. https://uz.wikipedia.org/wiki/Reaktiv_kuch
5. Fizika kursi darslik 1-qism.Abdurahmanov K.P.,fizika-matematika fanlari doktori,professori,Egamov O'.Fizika-matematika fanlari nomzodi,dotsent.Toshkent-2008-yil.35,36-varaqlardan foydalanilgan.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYADA KIBERTAHDIDLARNING OLDINI OLISH INNOVATSION OMILLARI

Uzaqov Ortik Shaymardanovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali katta o‘qituvchisi.
uzaqovortiq@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189628

Annotatsiya. *Ushbu maqola raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblangan kiberxavfsizlikni ta‘minlash masalalariga bag‘ishlangan. Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda kiberxavfsizlik va iqtisodiy xavfsizlikning o‘zaro hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, mamlakatimizning kiberxavfsizlik bo‘yicha xalqaro global reytingdagi o‘rni va 2023-2024 yillarda internet milliy segmentida ro‘y bergan intsidentlar tahlili keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ma‘lumotlar, kiberxavfsizlik, internet milliy segmenti, intsident, kibertahdid, kiberhujum, elektron hukumat, axborot tizimlari va resurslari.*

Kirish. Respublikamizda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot tizimlarida raqamlashtirish tadbirlarini shiddat bilan amalga oshirilishi bilan bir qatorda bu tizimlarga bo‘lgan kibertahdidlarning xavflilik darajasining jiddiylashuvi hamda son-sifat ko‘rsatkichlari jihatidan o‘sish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Mamlakatimizda jadal olib borilayotgan islohotlarning asosiy tamoyili bo‘lmish inson qadrini yuksaltirish, inson kapitalining rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning tamal mezoni sifatida milliy iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini va samaradorligini oshirishning raqamli usullarini keng qamrovli joriy etilishi, respublikamizning muhim axborot infratuzilmasi, shu jumladan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari axborot tizim va resurslarining kiberxavfsizligini ta‘minlash masalalarini strategik pog‘onaga ko‘tarib, sezilarli darajada dolzarblashtirdi.

Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash joizki, so‘ngi paytlarda xalqaro axborot xavfsizligining zamonaviy manzarasida jiddiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarayotgan jahon miqyosida asosiy “kuch markazlari” o‘rtasidagi geosiyosiy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi asnosida, global kibermakonda yuzaga kelayotgan siyosiy-xarbiy to‘qnashuvlarning asosiy maydonlaridan biriga aylanib ulgurganligi, respublikamiz muhim axborot infratuzilmasining kiberxavfsizlik holatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi global omil sifatida yuzaga chiqmoqda.

Mazkur vaziyatda, turli ekspertlar hisob-kitoblariga ko‘ra, dunyo miqyosida yaqin uch yilda kiberjinoyatchilikdan ko‘rilgan global zarar yiliga 15%ga o‘sib borgan xolda, joriy yilda 8 trillion AQSh dollarini, 2025 yilga borib esa 10,5 trillion AQSh dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, tobora raqamlashtirilayotgan tashkilot va korxonalarning, “buyumlar interneti” qurilmalari va turli toifadagi iste‘molchilarni turli kiberjinoyatlardan himoya qilish zarurati 2021 yildan 2025 yilgacha bo‘lgan davr mobaynida umumjahon darajasida kiberxavfsizlik mahsulotlari va

xizmatlariga yo‘naltiriladigan xarajatlar miqdorini 1,75 trillion AQSh dollarga yetishiga olib kelishi ta‘kidlanmoqda [9].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu maqolani yozishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasida keltirilgan ma’lumotlar asos bo’lib xizmat qildi[2].

Maqoladagi statistik ma‘lumotlarni tahlil qilishda Halqaro elektroaloqa uyushmasining rasmiy sayti (www.itu.int), National Cyber Security Index va “Kiberxavfsizlik markazi” DUK ma‘lumotlaridan foydalanildi. Maqoladagi ma‘lumotlarni tahlil qilishda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi[10].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur muammoni tadqiqotning bir qator usullardan foydalanish asosida o‘rganilgan, jumladan, asosan xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, tahlil va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o‘rganilib, rivojlangan mamlakatlar tajribasini mamlakatimizda kiberxavfsizlik texnologiyalardan samarali foydalangan holda kibertahdidlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish masalalari muhim ahamiyat kasb etgan.

Muhokama, tahlil va natijalar. Raqamli ma‘lumotlarni boshqarishda kiberxavfsizlikni ta‘minlash muhim omil sanaladi. Bunda asosiy e‘tibor raqamli ma‘lumotlarga ruxsatsiz kirish, ularni axborot vositachilaridan himoya qilgan holda xavfsizligini ta‘minlash va axborotlar uzatishning soddaligi va foydalanuvchanligini ta‘minlash, iqtisodiyotning barcha sohalarida avtomatlashtirish axborot tizimlaridan foydalanilganda, kiberxavfsizlik masalasiga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Ma‘lumotlar raqamli formatga o‘tkazilsa, elektron ko‘rinishda saqlansa, shundagina axborot va kiberxavfsizlik masalasi dolzarblik kasb etadi. Davlatimiz rahbari tomonidan kiberxavfsizlikni ta‘minlash sohasi mutaxassislariga shunday talab qo‘yilganki, ular bu borada ro‘y bergan noxush hodisalarni o‘rganishlari va bartaraf etishlari emas, balki bunday holatni oldindan ko‘ra bilishlari, ya‘ni oldini olishga xarakat qilishlari kerak[3].

Raqamlashtirish va kiberxavfsizlik tushunchalari doimo yonma-yon keladi. Chunki barcha tizim va jarayonlarni raqamlashtirish bilan birga, ularning texnik jihatdan mukammal va bexato ishlashini, xavfsizligini ta‘minlash muhim hisoblanadi. Yurtimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qanchalik e‘tibor qaratilayotgan bo‘lsa, kiberxavfsizlikni ta‘minlashga ham shuncha ahamiyat berilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida har yili Halqaro elektroaloqa ittifoqi tomonidan e‘lon qilinadigan kiberhavfsizlik bo‘yicha halqaro global reytingda yuqori o‘rinlardan joy olishini ko‘rsatish mumkin.

GCI reytingi kiberxavfsizlikning beshta asosiy yo‘nalishi: qonunchilik, texnik, tashkiliy jihatlar, salohiyatni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni qamrab oluvchi 83 parametr asosida tuzilgan.

1-rasm. Kiberxavfsizlikning GCI reytingi

2024 yilgi hisobot mamlakatlarning kiberxavfsizlik sohasidagi yutuqlarini yanada aniqroq baholash uchun yangilangan besh bosqichli tahlildan foydalandi. Darajalarga: Tier 1 (namunali), Tier 2 (ilg‘or), Tier 3 (o‘rnatilayotgan), Tier 4 (rivojlanayotgan) va Tier 5 (shakllanayotgan) bosqichlari kiradi[8].

O‘zbekiston, Xitoy, Avstriya, Kanada, Rossiya, Qozog‘iston va Ozarboyjon kabi davlatlar qatorida Tier 2 - ilg‘or guruhiga kirdi. Baholashda dunyoning 194 davlati ishtirok etdi. O‘zbekiston Tier 2 – Advancing bo‘yicha, Shvetsariya, Togo, Urugvay, Zambiya Kanada, Isroil, Avstriya, Shveytsariya (CIS darajasi bo‘yicha - Ozorbayjon, Qozog‘iston, Rossiya federatsiyasi) kabi mamlakatlar bilan birgalikda bir guruhga kiritildi [8].

Xususan, 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasining ko‘rsatkichi +18.09 ballga yuqorilab, 89,2 ni tashkil qildi. 2020-yilda e‘lon qilingan hisobotda O‘zbekiston 71,11 ko‘rsatkichni qayd etgan edi [9].

Kiberxavfsizlik bo‘yicha xalqaro global reyting ABI Research va HEI(Halqaro elektroaloqa ittifoqi)ning qo‘shma loyihasi bo‘lib, indeks davlatlarning kiberxavfsizlik sohasidagi ishtiroki darajasini baholash imkonini beradi. Bunda majburiyatlar darajasi besh sohada baholanadi: huquqiy choralar, texnik choralar, tashkiliy choralar, salohiyatning rivoji va xalqaro hamkorlik.

Kiberxavfsizlik bo‘yicha global reytinglarda 2023 yil sarhisobiga ko‘ra O‘zbekiston Milliy kiberxavfsizlik indeksi (National Cyber Security Index) da 94 o‘rinda, global kiberxavfsizlik indeksi (Global Cybersecurity Index) da 70 o‘rinda, AKT rivojlanganlik indeksi (ICT Development Index) da 95 o‘rinni egallagan.



2-rasm. Kiberxavfsizlik bo‘yicha global reytingi

Kiberxavfsizlik keng ma‘noda axborot texnologiyalari, ya‘ni qurilmalar, dasturlar, axborot tizimlari va ma‘lumotlar himoyasiga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Ya‘ni ma‘lumotlar konfidentsialligini saqlash, ularning butunligini himoyalash, dastur va axborot tizimlarini buzilishlarsiz to‘laqonli ishlashi demakdir. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Monitoring tizimiga ulangan veb-resurslarga uyushtirilgan kiberhujumlarning turlari orasida eng qo‘p qo‘llanilganlari quyidagicha taqsimlandi.



3-rasm. Kiberhujum turlari bo‘yicha tasniflanishi

2023 yilda internetning milliy tarmog‘i segmenti 677 ta rasmiy veb-saytlarida 1 186 ta zaiflik, 158 ta kiberxavfsizlik intsidenti aniqlangan va zaifliklarning 587 tasi bartaraf etilgan. Shulardan 105 tasi kontentni ruxsatsiz yuklash, 26 tasi defeys, 15 tasi ma‘lumotlarga ruxsatsiz kirish, 4 tasi DDOS hujum, 3 tasi Spam xabar yuborish, 2 tasi URLni qayta yo‘naltirish, 2 tasi Saytlararo scripting va bittasi fishing xabar ulushiga to‘g‘ri keladi [8].



4-rasm. “Kiberxavfsizlik markazi” DUK tahlili

Kibermakonda xavfsizlik bilan bogliq muammolarning yuzaga kelishiga dasturiy kodda xavfsizlik xatolari mavjud bo‘lgan kontentni boshqarish, dasturiy vositalarning eskirgan versiyalari

bilan ishlash, kirish parollarining osonligi, xavfsiz bo‘lmagan manbalardan yuklab olingan shablonlar, viruslar bilan zararlangan kompyuterlarda veb-saytlarni boshqarish kabilar sabab bo‘ladi.



5-rasm. Kiberxavfsizlikka tahdidlar ulushi

Internetning milliy segmentini monitoring qilish natijasida 2022 yilda 4 433 789 ta, 2023 yilda esa 11 020 235 kiberxavfsizlikka tahdidlar aniqlangan. Shundan, 18,55% - SQL in‘yeksiya, 18,17% - protokollarni majburiy qo‘llash, 17,13% - cheklangan faylga ruxsatsiz kirish, 15,70% - kodni masofadan turib bajarish, 14,76% - zararli kodlarni yuborish, 6,33% - shubhali so‘rovlar, 6,06% - PHP ma‘lumotlari tarqalishi, 2,36% - PHP in‘yeksiya hujumi, 0,35% - Java ma‘lumotlari tarqalishi, 0,32% - protokol bo‘yicha hujum uyushtirish bilan bog‘liq hisoblanadi [8].

Bu tahlillar kiberxavfsizlik masalasining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi, boisi dasturiy zaifliklar buzg‘unchiga axborot tizimi yoki veb-sayt, shuningdek, fayl va ma‘lumotlarga masofadan kirish, fuqarolarining shaxsiy ma‘lumotlari chiqib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Kiberxavfsizlik choralari bu kabi holatlarning oldini oladi.

Kiberxavfsizlikka doir me‘yorlarning huquqiy jihatdan mustahkamlanishi nihoyatda zarur. Raqamli olam huquqiy jihatdan o‘z maqomini aniq belgilay olgani yo‘q. Kun sayin tahdidlarning yangi tur va shakllari paydo bo‘layotganligi, ularni qonunchilikda aks ettirish zarurligi talab etadi. Kiberxavfsizlikka doir milliy strategiyani ishlab chiqish milliy kibermakonda jinoyatchilikka qarshi qurashish sohasidagi faoliyatni tartibga soladi. Zero, virtual olamdagi jinoyatchilikning zarar va xavfi real olamdagidan kam emas.

2020-2023 yillarga mo‘ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiyaga ko‘ra kiberxavfsizlikning yagona tizimi va muhim hisoblangan infratuzilmani kiberhujumlardan himoya qilish sohasidagi huquqiy bazani yana takomillashtirish va “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunda esa axborot kommunikatsiya va texnologiyalari tizimini zamonaviy kibertahdidlardan himoya qilish,

turli darajadagi tizimlar uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, mazkur sohada davlat organlari, korxonalar va tashkilotlarning huquqlari va majburiyatlarini belgilash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish kabilar aks etishi va takomillashtirilishi lozim.

Xulosa va takliflar. Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar zamirida xalqimizga qulayliklar yaratish maqsadi yotibdi. Kiberxavfsizlikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilishi raqamli imkoniyatlardan ishonchli va xavfsiz tarzda foydalanishga zamin bo‘lib kelmoqda. Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirish jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, dunyo bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lish, iqtisodiy ravnaq topish, aholiga qulayliklar yaratish imkoniyatini beradi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning quyidagi asosiy shartlari va ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib qo’yidagi taklif va tavsiyalarni sanab o‘tish maqsadga muvofiq:

- kiberxavfsizlik institutsional muhiti va raqamli infratuzilmani yaratish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;
- rivojlangan mamlakatlar darajasida internet global tarmog‘iga ulanish imkoniyatlari va transport tarmoq o’tkazuvchanligini oshirish;
- raqamli iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish va chuqur bilimga ega malakali dasturchilar va injener-texnik xodimlarni tayyorlash;
- raqamli iqtisodiyot sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, aholining keng qatlamlari o‘rtasida “raqamli savodxonlik”ni targ‘ib qilish, ilmiy hamjamiyat va hususiy sohalarida innovatsion loyihalarni qo‘llab quvvatlash, raqamli iqtisodiyot sohasida “startap” loyihalarni rag‘batlantirish;
- raqamli iqtisodiyot sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash;
- ilmiy bilimlar talab qiladigan mahsulotlar hajmini va aholining daromadlarini oshirib, byudjetning har xil tushumlarini ko‘paytirish;
- yangi turdagi ishlab chiqarish korxonalari va zamonaviy texnologiyalarni keng miqyosda jalb qilish;
- ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish jarayonida xususiy biznesning rolini oshirish;
- innovatsiyalar uchun zarur bo‘lgan investitsiyalar darajasini oshirish orqali mukammal raqobat muhitini shkllantirish hamda erkin raqobat muhitini kuchaytirish;
- innovatsion faoliyat, innovatsion loyihalashtirish jarayonlariga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, mavjud qonunchilik bazani rivojlantirish zaruriy omillardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 6765-sonli Farmoni. 2022-yil 7 iyul.

2. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga 1-ilova “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi. PF-6079-sonli Farmoni, 2020 yil 5 oktyabr.

3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, 2016.

4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O‘zbekiston, 2017.

5. Узақов, Ортиқ. “Рақамли иқтисодиёт шароитида бандликнинг замонавий шаклларини жорий этишнинг услубий асослари”. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 2.8 (2023): 74-84.

6. Узақов, Ортиқ. “Рақамли иқтисодиёт шароитида расмий ва норасмий секторларда иш билан бандликнинг прогноз таҳлили”. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования 2.4 (2023): 5-10.

7. Узақов, Ортиқ. “Обеспечение занятости населения использование цифровых технологий”. Models and methods in modern science 2.2 (2023): 147-154.

8. https://www.itu.int - Halqaro elektroaloqa uyushmasining rasmiy sayti.

9. https:// www.ncsi.ega.ee/countrv/uz/ - National Cyber Security Index.

10. https:// www.csec.uz – “Kiberxavfsizlik markazi” DUK rasmiy veb-sayti.

GAT TEXNOLOGIYASI ASOSIDA AEROKOSMIK TASVIRLARNI QAYTA ISHLASHNI O‘RGANISH

Iskandarov Behzod Qurol o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Universiteti Urganch filiali “Tabiy fanlar” kafedrasi stajor-o‘qituvchisi
behzodiskandarov07@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14189660

Annotatsiya*: Ushbu maqolada yuqori sifatli aerokosmik tasvirlarni olish usullari ko‘rib chiqiladi, shuningdek, geosinxron ekvatorial va past yer orbitalari haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Quyidagi maqolada sun’iy yo‘ldosh tasvirlarining eng yuqori va eng past o‘lchamlari, shuningdek, ushbu tasvirlarni qaysi kompaniyalar taqdim etishi muhokama qilinadi. Uchuvchisiz uchish apparatlari va sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida olingan aerofotosuratlarni taqqoslash keltirilgan. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlarini taqdim etuvchi kompaniyalarning kelgusi rejalari haqida ham ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar*: Kosmik tasvirlar, geosinxron ekvator orbitasi, past yer orbitasi, aerofotosuratlar, LEO, SAR*

I. KIRISH.

So‘nggi yillarda sun’iy yo‘ldosh texnologiyalari koinot tasvirlarini olishda katta yutuqlarga erishdi. Yangi tizimlar tasvirlarni yoqori aniqlik bilan olish imkonini beradi, bu ularni turli ilmiy va tijorat maqsadlari uchun zarurdir.

Yuqori aniqlikdagi sun’iy yo‘ldosh tasvirlarini olish uchun zamonaviy tizimlar ko‘p nurli radar tizimlari, optik va infraqizil datchiklar, lazerli masofa o‘lchagichlarni o‘z ichiga olgan turli xil texnologiyalardan foydalanadi. Ular real vaqt rejimida ma’lumotlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo’lib, yer yuzasini bir necha marta qamrab olishni va tasvirni yangilashning yuqori chastotasini ta’minlaydi.

Kosmik tasvirlarni qanday olishni ko’rib chiqishni boshlashdan oldin, yerni kuzatish sun’iy yo‘ldoshlarining ishlash printsipini o’rganish lozim.

Yerni kuzatish sun’iy yo‘ldoshi orbitalari odatda ikkita toifadan biriga kiradi: GEO va LEO. GEO (Geosinxron ekvatorial orbita). GEO sun’iy yo‘ldoshlari ekvatordan taxminan 36 000 kilometr balandlikda joylashgan bo‘lib, ular yerning aylanishi bilan hamohang ravishda aylanadi. Yerdan qaralganda, bu sun’iy yo‘ldoshlar statsionar ko‘rinadi, chunki ularning azimuti va balandligi doimiy bo‘lib qoladi. Shuning uchun ular GEO geostatsionar orbita deb aytiladi.

2. Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog‘langan holda real vaqt davomida to‘lovlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan tizimdir.

Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o‘z ma’lumotlari (to‘lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko‘chirmalar)ni ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking tizimining yana bir muhim afzalligi – xavfsizlikdir. Banklar tizimga kirishda ko‘p qavatli xavfsizlik choralarini joriy etadi, masalan, foydalanuvchi uchun yagona login va parol orqali tizimga kirish, shuningdek, ikki faktorli autentifikatsiya (2FA) va boshqa shifrlash metodlarini qo‘llash orqali ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashadi. Bu mijozlar uchun bank hisoblarining himoyalanishini kuchaytiradi.

3.Mobil banking - tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi. Mobil banking yordamida mijozlar o'z hisobvaraqlarini boshqarish, to‘lovlarni amalga oshirish, pul o‘tkazmalarini yuborish, balansni tekshirish va boshqa moliyaviy operatsiyalarni internet orqali, har qanday joydan va istalgan vaqtda amalga oshirishlari mumkin.

Mobil banking, internet-banking tizimi kabi, foydalanuvchilarga masofadan bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi, ammo mobil banking tizimi o‘zining mobil platformalar (Android, iOS) uchun optimallashtirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu tizim, asosan, mobil ilova (app) sifatida ishlab chiqiladi va foydalanuvchilar o‘z smartfonlaridan yoki planshetlaridan foydalanib, mobil bank xizmatlariga kirishlari mumkin. Bu xizmatlar veb-brauzer orqali emas, balki maxsus ishlab chiqilgan mobil ilova orqali amalga oshiriladi, bu esa foydalanuvchi tajribasini yanada qulay va intuitiv qiladi.

4. SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko‘rinishdagi ma’lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag‘idan ma’lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so‘rovni yuborish kerak [7]. Ushbu xizmat mijozlarga internetga ulangan qurilmalar yoki kompyuterlar talab qilinmasdan, faqat mobil telefon yordamida hisobvaraqlaridagi harakatlarni nazorat qilish imkonini yaratadi.



1-rasm. Banklarda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar (2023-yil 1-yanvar holatiga)[2]

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni yildan-yilga oshirib bormoqda.

[2] www.cbu.uz – Markaziy bank rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi

Bugungi kunda banklarda raqamlashtirish borasida eng rivojlanib borayotgan sohalardan biri bu sun’iy intellektlarning qo‘llanilishi bo‘lmoqda. Bir qator xorijiy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, sun'iy intellekt raqamli transformatsiya jarayonining haydovchisi bo'lib, iqtisodiy jarayonlarning barcha ishtirokchilariga odam bilan mashina hamkorligining yangi bosqichiga o'tishni ta'minlaydi va o'z navbatida raqamli texnologiyalarning yanada rivojlanishiga olib keladi. platformalar va kelajakda raqamli iqtisodiyot [8]. Bugun biz banklarda sun’iy intellektdan (AI) foydalanishning bir qancha muhim afzalliklarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.



2-rasm. Banklarda sun’iy intellektni qo‘llashning afzalliklari

Ushbu afzalliklarni qisqacha ko‘rib o‘tamiz.

Birinchi, ma’lumotlarni tahlil qilish - bunda AI katta ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beradi va aniqlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu esa banklarga o‘z mijozlarini aniqroq va chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ikkinchi, risklarni boshqarish – bunda sun’iy intellekt yordamida banklar sohada uchraydigan mavjud risklarni baholash hamda boshqarishda aniqroq prognozlar qilishlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, kreditlash jarayonini yaxshilaydi va risklarni boshqarishda muhim ahamiyatga egadir.

Uchinchi, firibgarlikni aniqlash – bunda SI algoritmlari g‘ayrioddiy xatti-harakatlarni aniqlashga yordam beradi hamda bu firibgarlikni kamaytiradi va moliyaviy xavfsizlikni oshiradi.

To‘rtinchi, mijozlarga doimiy xizmat ko‘rsatish – bunda chatbotlar va virtual yordamchilar yordamida mijozlarga 24/7 xizmat ko‘rsatish mumkin. Bu esa mijozlarga xizmatlarga nisbatan tez va samarali javob berish imkonini beradi va mijozlar uchun qo‘shimcha qulayliklarni keltiradi.

Beshinchi, operatsion samaradorlik – bu sun’iy intellect barcha jarayonlarni avtomatlashtirishga yordam beradi. Bu esa xarajatlarni kamaytiradi hamda operatsion samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Oltinchi, prognozlash – bu banklarga bozor tendentsiyalari va mijozlar xatti-harakatlarini bashorat qilish imkonini beradi. Bu esa kelgusida strategik qarorlar qabul qilishda foydalidir.

Yettinchi, xodimlarni qo‘llab-quvvatlash – bunda sun’iy intellekt xodimlarga ma’lumotlarni tahlil qilish yoki mijozlarga maslahat berish kabi murakkab vazifalarni bajarishda yordam berishi mumkin. Bu esa ish unumdorligini hamda tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sakkizinchi, moliyaviy maslahat berish – bunda AI yordamida banklar mijozlarga moliyaviy rejalashtirishda yordam berish uchun shaxsiy maslahatlarni taklif qilishlari mumkin. Ushbu xizmatlar mijozlarga moliyaviy maqsadlariga erishishda yordam beradi.

To‘qqizinchi, analitik hisobotlar – bunda sun’iy intellekt avtomatik ravishda analitik hisobotlarni tayyorlashi va bank rahbariyatiga qaror qabul qilishda yordam berishi mumkin.

O‘ninchi, bozorda raqobatbardoshlik oshirish – bunda sun’iy intellekt yordamida banklar raqobatbardosh strategiyalarni ishlab chiqishlari va bozor o‘zgarishlariga tezda moslashishlari mumkin bo‘ladi.

O‘n birinchi, muammolarning oldini olish – bunda AI yordamida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan aniqlash va o‘z vaqtida choralar ko‘rish mumkin, bu esa bank faoliyatini yanada barqaror qilishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, sun’iy intellekt aniq investorning qisqa va uzoq muddatli maqsadlariga qarab eng kuchli portfellar bo‘yicha tavsiyalarni jamlaydi. Bundan tashqari, u kredit mutaxassislariga qaror qabul qilishlari uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi [9].

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, raqamli iqtisodiyot bugungi kunda an’anaviy iqtisodiyotga nisbatan jadal o‘sib bormoqda. Kelgusida raqamli iqtisodiyotga o‘tish ham zamon talabi, ham zaruriyat hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biridir. Shu sababli, sohani tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ularni doimiy nazoratga olish zarurdir.

Shu bilan birgalikda iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan bank tizimida ham sohani raqamlashtirish ham bank faoliyati uchun, ham mijozlar uchun birdek foydali hamda samaralidir.

Banklarda bugungi kunda sun’iy intellektlarni qo‘llash orqali sohani avtomatlashtirish borasida kuchli raqobat shakllangan bo‘lib, mijozlarga bank xizmatlarini taqdim etishda tezkorlik va aniqlikka asoslangan avtomatlashtirish tizimi shakllantirilmoqda.

Bunda bevosita banklarda sun’iy intellekt soha mutaxassilarini jalb qilish hamda o‘z mutaxassislarini tegishli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi uchun o‘qitish tizimini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu banklarning xarajatlarini tejashiga, ish unumdorligini oshirishga, mijozlar oldida ishonchini ortishiga hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4699-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-358-son qarori.

4. Don Tepkott “The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence”. 1995 y.

5. S.S.Gulyamov va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019.

6. T.Z.Teshabayev “Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellektni Qo‘llashning nazariy asoslari” mavzusida respublika Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, 2023-yil 16-noyabr, 6-bet.

7. https://cbu.uz/uz/payment-systems/remote-banking-services/ - Markaziy bank rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

8. Magistretti S., Dell'Era C., Petruzzelli AM Uotson qanchalik aqlli? Sun'iy intellekt orqali raqamli transformatsiyani yoqish // Biznes ufqlari. – 2019. – jild. 62. –N 6. – B. 819–829.

9. Edvard Tsang. "Moliya uchun AI", 2023-yil.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ: КАК ИИ ПОМОГАЕТ БОРОТЬСЯ С УГРОЗАМИ В СЕТИ

Кузиев Ботир Намозович
и.о.профессора кафедры «Компьютерная и программная инжинерия»
Муртазин Эмиль Рустамович
Ассистент, Джизакский политехнический институт
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191511

Аннотация: *В статье рассматривается роль искусственного интеллекта (ИИ) в кибербезопасности и его влияние на защиту данных от современных киберугроз. Описываются технологии ИИ, такие как машинное обучение и глубокие нейронные сети, которые активно применяются для анализа данных, обнаружения аномалий и автоматической нейтрализации угроз в реальном времени. Рассматриваются примеры*

использования ИИ в предотвращении вирусных атак, фишинга и DDoS-атак, а также в прогнозировании потенциальных угроз. Также обсуждаются проблемы и вызовы, связанные с внедрением ИИ в киберзащиту, такие как риски ложных срабатываний, угрозы использования ИИ хакерами и необходимость в высококвалифицированных кадрах. В заключении подчеркивается важность дальнейшего развития ИИ в кибербезопасности, а также необходимость учитывать этические и юридические аспекты при его внедрении.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, кибербезопасность, машинное обучение, глубокие нейронные сети, киберугрозы, автоматизация, защита данных, прогнозирование угроз, фишинг, DDoS-атаки, ИИ в безопасности, ложные срабатывания, кибератаки.*

Введение

С каждым годом количество киберугроз продолжает расти, что ставит под угрозу безопасность данных и инфраструктуры как на уровне индивидуальных пользователей, так и крупных организаций. Традиционные методы защиты, такие как антивирусные программы и фаерволы, уже не могут эффективно противостоять современным, все более сложным угрозам. В ответ на это все более популярным становится использование технологий искусственного интеллекта (ИИ) в сфере кибербезопасности. ИИ способен анализировать большие объемы данных, распознавать аномалии и вырабатывать реакции в реальном времени, что делает его незаменимым инструментом для защиты от кибератак.

В последние годы ИИ-технологии, такие как машинное обучение и глубокие нейронные сети, активно внедряются в системы безопасности для выявления и предотвращения атак, включая вирусы, фишинг, DDoS-атаки и другие угрозы. ИИ помогает не только в выявлении угроз, но и в автоматизации процессов реагирования, что значительно ускоряет защиту от киберугроз [1].

Тем не менее, несмотря на огромный потенциал ИИ в кибербезопасности, его использование также сопряжено с определенными вызовами. Важно оценить, как ИИ может эффективно бороться с киберугрозами, какие преимущества он приносит в защиту данных и какие ограничения существуют при его применении. Цель этой статьи — рассмотреть роль искусственного интеллекта в области кибербезопасности и его влияние на борьбу с угрозами в сети.

Методология

Для анализа вклада искусственного интеллекта в сферу кибербезопасности, в данной статье используется подход, основанный на обзоре существующих технологий, применяемых для защиты данных, и их взаимодействии с современными киберугрозами. Методология включает в себя несколько ключевых этапов:

1. **Обзор технологий искусственного интеллекта в кибербезопасности:** На этом этапе будут рассмотрены основные технологии ИИ, применяемые в кибербезопасности, включая машинное обучение, глубокие нейронные сети, обработку естественного языка и другие методы, которые помогают выявлять и предотвращать угрозы [2]. Особое внимание будет уделено алгоритмам, которые анализируют паттерны поведения пользователей, трафика сети и других аспектов, чтобы распознать аномалии, указывающие на потенциальные атаки.

2. **Анализ применения ИИ в реальных условиях:** Будут рассмотрены примеры использования ИИ в различных областях кибербезопасности, таких как обнаружение вирусов, защита от фишинга, предотвращение DDoS-атак и мониторинг сети в реальном времени. Также будут рассмотрены случаи, когда ИИ применялся для повышения эффективности существующих систем безопасности, таких как IDS (системы обнаружения вторжений) и SIEM (системы управления информацией и событиями безопасности).

3. **Оценка эффективности и производительности ИИ-систем:** Для оценки воздействия ИИ на кибербезопасность будут проанализированы показатели эффективности и быстродействия решений, основанных на ИИ, в сравнении с традиционными методами. Это включает в себя такие параметры, как точность обнаружения угроз, скорость реакции на инциденты и минимизация ложных срабатываний [3].

4. **Обсуждение ограничений и вызовов:** В этой части будет рассмотрена критическая оценка использования ИИ в кибербезопасности. Будут обсуждены потенциальные проблемы, такие как сложность внедрения ИИ-решений, высокие затраты на ресурсы и обучение, а также риски, связанные с использованием ИИ хакерами для создания более сложных атак. Также будет рассмотрено, насколько ИИ может быть интегрирован в существующие системы безопасности и насколько он может дополнять человеческий фактор.

5. **Прогнозирование и будущее ИИ в кибербезопасности:** Напоследок, с использованием существующих исследований и экспертизы, будет сделан прогноз относительно роли ИИ в кибербезопасности в будущем. Какие новые подходы могут появиться с развитием технологий и как ИИ может адаптироваться к постоянно изменяющимся угрозам [4].

Данный методологический подход позволяет всесторонне оценить текущее состояние и перспективы применения искусственного интеллекта в области кибербезопасности.

Результаты

Применение искусственного интеллекта в кибербезопасности уже приносит значительные результаты, как в улучшении защиты данных, так и в повышении оперативности реагирования на киберугрозы. Рассмотрим ключевые достижения ИИ в этой области:

1. **Машинное обучение в анализе и обнаружении угроз**

Машинное обучение (ML) активно используется для анализа поведения пользователей и сетевого трафика с целью выявления аномалий, которые могут свидетельствовать о кибератаках. Системы, основанные на ML, обучаются на исторических данных и могут самостоятельно улучшать свои алгоритмы для более точного выявления угроз. Например:

- **Обнаружение вредоносных программ**: Алгоритмы машинного обучения эффективно распознают новые вирусы и вредоносные программы, даже если они не были заранее идентифицированы в базах данных антивирусных систем. Это достигается путем выявления необычных паттернов поведения программ, таких как непредсказуемая активность или изменения в файлах.
- **Аномалии в сетевом трафике**: ML-системы могут идентифицировать аномалии в сетевом трафике, такие как резкие скачки активности или попытки несанкционированного

доступа [5]. Это позволяет оперативно реагировать на потенциальные DDoS-атаки, утечку данных или взломы.

2. **Глубокие нейронные сети для сложных угроз**

Глубокие нейронные сети (DNN) значительно повысили точность в обнаружении более сложных и изменяющихся угроз. Эти сети способны обрабатывать огромные объемы данных, выявляя скрытые взаимосвязи и паттерны, которые традиционные системы могут не замечать.

- **Обнаружение сложных вирусов и zero-day атак**: Благодаря своей способности обрабатывать и анализировать большие объемы данных, глубокие нейронные сети могут распознавать новые вирусы, которые изменяют свой код, чтобы избежать стандартных методов обнаружения. Это также важно для защиты от атак типа "zero-day", которые используют уязвимости, еще не обнаруженные разработчиками программного обеспечения.
- **Обнаружение сложных схем фишинга**: Нейронные сети могут выявлять фишинговые атаки, даже если они использовались для создания новых и нестандартных моделей сообщений и сайтов.

3. **Автоматизация реагирования на угрозы**

ИИ значительно ускоряет процесс реагирования на киберугрозы. В реальном времени системы могут не только выявлять угрозы, но и автоматически предпринимать действия для их нейтрализации.

- **Автоматическое блокирование атак**: Например, при обнаружении DDoS-атаки система может автоматически блокировать источник атаки или перенаправить трафик через фильтры, чтобы минимизировать ущерб [6].
- **Изоляция зараженных систем**: В случае обнаружения зараженной машины или устройства, ИИ может автоматически изолировать этот объект от остальной сети, чтобы предотвратить распространение угрозы.

4. **Прогнозирование угроз с использованием ИИ**

Одним из значимых достижений является использование ИИ для предсказания потенциальных угроз, основываясь на данных о прошлых инцидентах и тенденциях в области киберугроз. ИИ может анализировать исторические данные о кибератаках и на основе полученных паттернов делать прогнозы о возможных угрозах, таких как целевые атаки на определенные организации или популярные уязвимости.

- **Прогнозирование и подготовка к атаке**: Такие системы способны предупредить организацию о риске атаки до того, как она произойдет, что позволяет заранее принять меры для защиты.

5. **Эффективность и производительность ИИ-систем**

Оценка производительности ИИ-систем в области кибербезопасности показала высокую эффективность таких решений. Исследования показывают, что системы на основе ИИ могут значительно улучшить точность обнаружения угроз и уменьшить количество ложных срабатываний по сравнению с традиционными методами защиты. Например:

- **Точность и скорость**: ИИ-системы обеспечивают более высокую точность в обнаружении аномальных действий в реальном времени. Это также ускоряет время реагирования, позволяя оперативно устранять угрозы.

- **Снижение количества ложных срабатываний**: Благодаря способности ИИ анализировать более сложные взаимосвязи и паттерны, количество ложных срабатываний в системах обнаружения угроз значительно снизилось.

Таким образом, результаты применения ИИ в кибербезопасности продемонстрировали значительное улучшение в области защиты данных, повышения оперативности и точности в реагировании на угрозы [7]. Эти технологии позволяют более эффективно противостоять современным кибератакам, которые становятся все более сложными и изощренными.

Обсуждение

Внедрение искусственного интеллекта (ИИ) в кибербезопасность открывает новые возможности для защиты данных и инфраструктуры. Однако, несмотря на значительные успехи, использование ИИ в этой области сопряжено с рядом вызовов и ограничений, которые важно учитывать при его интеграции в систему безопасности. Рассмотрим основные аспекты, которые влияют на успешность и эффективность применения ИИ в кибербезопасности.

1. Сложности внедрения ИИ в существующие системы безопасности

Одним из основных вызовов является сложность интеграции ИИ-технологий в уже существующие системы безопасности. Традиционные решения, такие как антивирусные программы или фаерволы, ориентированы на статический анализ и ограничены заранее заданными паттернами угроз. В отличие от них, ИИ-системы требуют гораздо более сложной настройки и обучения. Для того чтобы ИИ мог эффективно обнаруживать угрозы, ему необходимо предоставить значительные объемы данных для обучения, что может быть затруднено в условиях защиты данных и конфиденциальности.

Кроме того, внедрение ИИ требует значительных вычислительных ресурсов, что может стать препятствием для небольших компаний с ограниченным бюджетом [8]. Технологии ИИ, такие как глубокие нейронные сети, требуют мощных серверов и облачных инфраструктур для эффективной обработки данных в реальном времени.

2. Риски ложных срабатываний и ошибок ИИ-систем

Несмотря на высокую точность алгоритмов машинного обучения и глубоких нейронных сетей, ИИ-системы все же не идеальны. Ложные срабатывания остаются актуальной проблемой. Например, система может ошибочно классифицировать законную активность как угрозу, что приведет к ненужной блокировке или изоляции важного трафика. Ошибки ИИ-систем могут возникать, особенно если алгоритмы не были обучены на разнообразных и репрезентативных данных, или если они не смогли распознать новую форму атаки.

Кроме того, существуют случаи, когда ИИ-система может не выявить скрытую угрозу, если она не попадает в шаблон известных атак. Это ставит перед экспертами задачу создания более гибких и адаптивных моделей, которые смогут лучше справляться с новым типом угроз.

3. Риски, связанные с использованием ИИ хакерами

Как и любой другой инструмент, ИИ может быть использован не только для защиты, но и для атак. В последние годы хакеры все чаще используют технологии ИИ для разработки более сложных методов взлома, таких как автоматизация фишинговых атак, взлом паролей или генерация вирусов, которые могут избегать традиционных систем обнаружения. ИИ также

может быть использован для обхода многоуровневых защит, что создает дополнительные вызовы для разработчиков и специалистов по безопасности.

Например, ИИ может помочь злоумышленникам анализировать уязвимости в реальном времени и разрабатывать более сложные схемы атак, которые невозможно предсказать с помощью традиционных систем безопасности. Это также может привести к усилению "гонки вооружений" между защитниками и атакующими, где технологии защиты и атак будут постоянно адаптироваться и эволюционировать.

4. Необходимость в высококвалифицированных специалистах

Для того чтобы ИИ-системы могли работать эффективно, необходимы высококвалифицированные специалисты, которые могут настроить, обучить и поддерживать эти системы. Инженеры по безопасности должны не только иметь глубокие знания в области киберугроз, но и быть знакомыми с алгоритмами ИИ, чтобы понимать, как они работают, и как можно адаптировать их под специфические задачи организации.

Нехватка таких специалистов является серьезным препятствием для широкого применения ИИ в кибербезопасности, особенно в малых и средних компаниях, которые могут не иметь ресурсов для найма профессионалов в этой области.

5. Этические и юридические вопросы использования ИИ

Использование ИИ в кибербезопасности также вызывает этические и юридические вопросы. Одним из таких аспектов является защита личных данных. Системы ИИ часто требуют доступа к большому количеству данных для обучения, включая личные данные пользователей, что может привести к проблемам с конфиденциальностью [9]. В странах с жестким законодательством в области защиты данных (например, в ЕС с GDPR) это создает дополнительные вызовы для компаний, использующих ИИ в киберзащите.

Также важно учесть вопрос ответственности за действия ИИ-систем. В случае ошибки, приводящей к утечке данных или ущербу, сложно определить, кто несет ответственность — разработчик системы, организация, использующая эту систему, или сама ИИ-система, которая приняла решение о блокировке или изоляции трафика.

Заключение

Искусственный интеллект значительно изменяет подходы к кибербезопасности, предлагая новые возможности для обнаружения и нейтрализации угроз. Он позволяет эффективно анализировать большие объемы данных, выявлять аномалии, прогнозировать потенциальные атаки и автоматически реагировать на инциденты в реальном времени. Применение технологий машинного обучения и глубоких нейронных сетей способствует повышению точности и оперативности в защите от сложных и динамично развивающихся угроз.

Однако, несмотря на все преимущества, использование ИИ в кибербезопасности сопряжено с рядом вызовов, таких как сложности интеграции с традиционными системами, риск ложных срабатываний, угрозы, связанные с использованием ИИ хакерами, и необходимость в высококвалифицированных специалистах для настройки и поддержки таких систем. Также важными аспектами являются этические и юридические вопросы, связанные с защитой личных данных и определением ответственности за действия ИИ.

Будущее ИИ в кибербезопасности выглядит многообещающе. С развитием технологий и улучшением алгоритмов ИИ будет становиться все более мощным инструментом в борьбе с киберугрозами. Тем не менее, важно помнить о необходимости балансировать между преимуществами и рисками, обеспечивая безопасность и конфиденциальность данных при внедрении таких технологий. В конечном итоге, ИИ должен стать не заменой человеческому контролю, а ценным инструментом, дополняющим и усиливающим существующие системы защиты.

Литература

1. Кузиев, Б. Н., & Муртазин, Э. Р. (2024). ВИРТУАЛЬНЫЕ ОБЛАЧНЫЕ ЛАБОРАТОРИИ: НОВЫЙ ВЗГЛЯД НА ПРАКТИЧЕСКОЕ ОБУЧЕНИЕ.
2. Кузиев, Б. Н., Муртазин, Э. Р., & угли Аъзамов, У. Ж. (2024). ЭТАПЫ ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ВЫСШИЕ УЧЕБНЫЕ ЗАВЕДЕНИЯ.
3. Петров, Р. И., & Муртазин, Э. Р. (2024). БЕЗОПАСНОСТЬ И ЗАЩИТА ОТ РАДИОЧАСТОТНЫХ И ЭЛЕКТРОМАГНИТНЫХ ИЗЛУЧЕНИЙ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ. *Academic research in educational sciences*, (2), 167-169.
4. Кузиев, Б. Н., Холмуминова, Д. А., & Муртазин, Э. Р. (2024). РОЛЬ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ И ВЫЗОВЫ. *Экономика и социум*, (3-1 (118)), 1125-1128.
5. Кузиев, Б. Н., Холмуминова, Д. А., & Муртазин, Э. Р. (2024). РОЛЬ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ И ВЫЗОВЫ. *Экономика и социум*, (3-1 (118)), 1125-1128.
6. Кузиев, Б. Н., & Муртазин, Э. Р. (2023). Образование и искусственный интеллект. *Экономика и социум*, (5-2 (108)), 786-789.
7. Кузиев, Б. Н., Муртазин, Э. Р., & Холмуминова, Д. А. (2016). Внедрение информационных технологий в образовательный процесс. *Ученый XXI века*, *28*.
8. Kuziev, B. N., Murtazin, E. R., & Kholmuminova, D. A. (2016). Introduction information technologies to educational process. *Ученый XXI века*, (3-1 (16)), 26-28.
9. Кузиев, Б. Н., Холмуминова, Д. А., & Муртазин, Э. Р. Электронное обучение как часть образовательного процесса. *Ученый XXI века*, *1*, 43.

TOG‘-KON SANOATIDA PIYODALAR VA TRANSPORT VOSITALARI O‘RTASIDA TO‘QNASHUVLARINI OLDINI OLISH USULLARI VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASINING O‘RNI

Namozov Nodirbek Niyozovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
“Avtomatlashtirish va boshqaruv” kafedrasi assistenti,
Uzbekistan
nodirshoxnamozov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191546

Annotatsiya: *Yer osti konlari qazib olish jarayonida ko‘rish masofasining cheklanganligi tufayli xavfsizlik uchun jiddiy jiddiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Tog‘-kon muhitida piyodalar va transport vositalarining bir joyda harakatlanishi xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi, ayniqsa murakkab yer tuzilishi va transport vositalarining katta hajmi sharoitlarida. Bu esa ko‘chma mashinalar va transport vositalari yoki odamlar o‘rtasida to‘qnashuvga, baxtsiz hodisalar va o‘limga olib kelishi mumkin. Tadqiqotda ishlatilgan datchiklar turlari va ularning yer osti muhitidagi afzalliklari va cheklovlari asosida tahlil qilindi. Ushbu maqola yer osti konlarida yo‘lovchi shaxtyorlarni aniqlash, to‘qnashuvni oldinini olishga mavjud tizimlar bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilishga qaratilgan va eng mos tizimni tanlash natijasida, baxtsiz hodisalar sonini va o‘lim xavfini kamaytirishga o‘z yechimimiz berilgan. Maqolada berilgan matematik model transport vositalari va piyodalar harakatini aniqlash, ular orasidagi masofani kuzatish va xavfli vaziyatlar yuzaga kelganda ogohlantirishlarni berish uchun qurilgan. Ushbu tadqiqot natijalari tog‘-kon sanoati uchun muhim ta’sir ko‘rsatadi va yer osti kon ishlarida xodimlar xavfsizligini yaxshilashga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, matematik model, industry 5.0, kobotlar, LIDAR, VR/AR texnologiya, GPS, koordinata, datchik, RFID tizimi, evolyutsiya, xavf-xatar, algoritm, signal, sun’iy yo‘ldosh, konvolyutsion neyron tarmoq, implementatsiya, melioratsiya.*

KIRISH

Zamonaviy dunyoning texnologik taraqqiyotiga qaramay, tog‘-kon sanoati hali ham baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan sohalardan biri bo‘lib qolmoqda [1–3]. So‘nggi yillarda tog‘-kon transport vositalari bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar soni ortib bormoqda [4].

So‘nggi 5 yillikda Sanoat 4.0 ning rivojlanishi bilan baxtsiz hodisalar va jarohatlar sezilarli darajada kamaydi, natijada tog‘-kon sanoati avvalgidan ancha xavfsizroq sohaga aylandi. Ushbu o‘zgarishlarga asos bo‘lgan texnologik inqiloblar, ayniqsa Mining 4.0 [5] deb ataluvchi yangiliklar, kon jarayonlarida paradigmaviy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi va sanoat xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatdi. Yana bir qadam oldinga borib, Industry 5.0 [6] davrida “kobotlar” - ya’ni avtonom va insonlarga moslashuvchan sanoat robotlari - yaratilmoqda, ular inson faoliyatini his qila oladi va odamlar bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga tayyor bo‘ladi.

Kon qazib olish jarayonining butun ish sikli davomida, sun’iy intellektni razvedkadan boshlab melioratsiya va yopilishgacha bo‘lgan bosqichlarda, mobil mashina operatsiyalari, burg‘ulash, portlatish va rudalarni boyitish kabi turli jarayonlarda qo‘llash mumkin.

Konchilikda sohasida sun’iy intellektning qo‘llanilishi istiqbolli qo‘llanmalardan biri tog‘-kon sanoat piyodalar va transport vositalari o‘rtasida to‘qnashuvini oldini olishda va boshqa inson faktori

ishtirok etadigan jarayonlarda bevosita ishtirok etadi. Bu tizimlar ilg‘or kameralar, LIDAR [7,8] kabi datchiklar, shuningdek, yer osti konlarida odamlar va obyektlarning harakatini aniqlash va kuzatish uchun murakkab algoritmlar va chuqur o‘rganish usullaridan foydalanadi [9]. Bu texnologiya real vaqtda ogohlantirish va signalizatsiyalarni taqdim etish orqali baxtsiz hodisalar va jarohatlarning oldini olishga yordam beradi [10].

Tog‘-kon sanoatidagi yana bir muhim texnologik yutuq bu virtual reallik (VR/AR) texnologiyalaridan foydalanish. VR/AR texnologiyalari ishchilarga immersiv o‘quv tajribalarini taqdim etib, ularga xavfsiz va nazorat qilinadigan muhitda o‘z mahoratini oshirish imkoniyatini beradi [11–13]. Bundan tashqari, ushbu texnologiyalar favqulodda vaziyatlarni simulyatsiya qilish va ishchilarning turli jarayonlarga javob berish qobiliyatini yaxshilash, shuningdek, ularning umumiy xavfsizligini oshirishda samarali usullardan biri sifatida ta’kidlab o‘tilgan.

METODOLOGIYA

Quyidagi maqola mavzusi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy yo‘nalishlari va tadqiqot yo‘nalishlari to‘g‘risida qisqacha keltiramiz. Ushbu tadqiqotlar asosan konchilik sohasida xavfsizlik, resurslarni boshqarish, va yangi texnologiyalardan foydalanishni o‘rganishga qaratilgan.

Kusi-Sarpong, S., Bai, C., Sarkis, J., va Wang, X. ushbu tadqiqotchilar yashil ta’minot zanjirlarini tahlil qilish uchun noaniqlikni hisobga oluvchi Rough Sets va fuzzy TOPSIS metodologiyasidan foydalanishgan, bu esa konchilik sanoatidagi ekologik omillarni boshqarishda yangi yondashuv hisoblanadi [14]. Ranängen H. va Lindman A. Shimoliy davlatlar konchilik sanoatida barqaror rivojlanish yo‘lini o‘rganib, atrof-muhit va ijtimoiy jihatlardan yanada ekologik va barqaror konlarni yaratish bo‘yicha tahlil o‘tkazishgan [15]. Sanmiquel L., Rossell J.M. va Vintró C. Ispaniyadagi kon xavfsizligini yaxshilash maqsadida avariyalar statistikasi va *data mining* usullarini qo‘llash orqali avariyalar sabablarini tahlil qilishgan [16]. Permana H. Indoneziya konchilik sanoatida avariyalarni oldini olish bo‘yicha tavakkalchiliklarni baholash strategiyalarini o‘rganish orqali xavfsizlik darajasini oshirishga qaratilgan tadqiqot olib borgan [17]. Kizil, M. Avstraliya konchilik sohasida virtual reallik texnologiyasini xavfsizlik o‘qitish va tayyorgarlik maqsadida tadbiq qilish tajribasini o‘rganish orqali konchilarning xavfsizlik darajasini oshirishga yondashgan [18]. Domingues M.S., Baptista L.F., va Diogo M.T. konchilik sanoatidagi tavakkalchiliklarni boshqarish maqsadida kompleks tizimlarni loyihalashtirish bo‘yicha yondashuvlarni tahlil qilishgan [19]. Lööw J., Abrahamsson L., va Johansson J. konchilikda Industry 4.0 texnologiyalarining ishlash sharoitlariga ta’sirini o‘rganishgan va bu texnologiyalar natijasida xavfsizlik va samaradorlikni qanday oshirish mumkinligini ko‘rsatib bergan [20]. Ali D., va Frimpong S. konchilik sanoatidagi jarayon avtomatizatsiyasi, sun’iy intellekt va mashinasozlik yondashuvlarini tahlil qilib, mavjud bilim chegaralarini va kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlarini belgilashgan [21]. E. Jones va boshqalar [22] o‘z tadqiqotlarida yer ostida va GPSga imkon bermaydigan joylarda hovermap avtonom parvoz tizimini o‘rnatdilar. Bu tizim LIDAR datchiki bilan jihozlangan drondan foydalanib, chuqur va yuqori kuchlanish sharoitida tosh massasi harakatini va buzilish mexanizmlarini o‘rganishga yordam beradi, bu esa xavfsizlikni oshirishga yordam beradi. Freire G.R. va Cota R.F tadqiqot ishlarida [23] faqat samarali yoritish sharoitida ishlay oladigan texnologiyaga ega UAV sublevel texnikasi orqali Kuyaba konidagi hududlarga masofadan tashrif buyurish imkoniyati o‘rganilgan. Mazkur UAV GPS siz uchish qobiliyatiga ega bo‘lib, tosh devor va tayanch tuzilmalardan kichik zarbalarni yutish uchun

past tezlikda harakatlanadi va odatda uchuvchining ko‘rsatmasisiz amalga oshiriladi [24].

Transport vositalari o‘rtasida yoki piyoda va transport vositalari o‘rtasida to‘qnashuvlarni bashorat qilish uchun matematik modelini qurishda transport vositalari va piyodalar o‘rtasidagi masofani, ularning tezliklarini, yo‘nalishlarini va xavf zonalarini kabi parametrlarni hisobga olish kerak.

Piyoda va transport vositasi o‘rtasidagi masofa quyidagi (1) formula asosida hisoblanadi [25].

$$D(t) = \sqrt{(x_p - x_c)^2 + (y_p - y_c)^2} \tag{1}$$

bu yerda x_p va y_p – Piyodaning t - vaqtdagi koordinatalari, x_c va y_c – Transport vositasining t - vaqtdagi koordinatalari.

Xavf zonasi va ogohlantirishda to‘qnashuv xavfini aniqlash uchun tizim to‘qnashuv ehtimoli bo‘yicha baholanadi. Agar $D(t) \leq D_{min}$, tizim to‘qnashuv ehtimoli yuqori deb baholaydi va ogohlantirish beradi. D_{min} – Piyoda va transport vositasi o‘rtasidagi minimal xavfsiz masofa bo‘lib, tog‘ – kon sanoatida minimal xavfsiz masofalar 1-jadvalda berilgan [26].

1-Jadval

Piyoda va transport vositasi o‘rtasidagi minimal xavfsiz masofa parametrlari

Kon	Eng xavfsiz masofa (metr)	O‘rtacha xavfsiz masofa (metr)	Eng xavfli masofa (metr)
Ochiq konlarda	25	20-15	10
Ko‘mir konlarida	20	10-15	8
Oltin konlarida	20	10-15	8
Yer ostidagi konlarda	10	5-10	3

Transport vositasi va piyodaning nisbiy tezligi (2) formulada berilgan

$$V_{rel} = \left| V_c - V_p \right| \tag{2}$$

bu yerda V_c – Transport vositasining tezligi va yo‘nalishi, V_p – Piyodaning tezligi va yo‘nalishi.

Agar $D(t) \leq D_{min}$ va $V_{rel} > 0$ bo‘lsa, to‘qnashuv vaqti $T_{collision}$ quyidagicha (3) aniqlanadi

$$T_{collision} = \frac{D(t)}{V_{rel}} \tag{3}$$

Tizimning reaktsiya vaqtini ifodalovchi, ya’ni piyoda va transport vositasi yaqinlashganida ogohlantirish berish vaqti $T_{reaction}$ matematik modelni (4) formulada berilgan

$$T_{reaction} = \frac{-(v_t - v_p) + \sqrt{(v_t - v_p)^2 + 2 \cdot (a_t - a_p) \cdot d}}{(a_t - a_p)} \tag{4}$$

bu yerda v_p – Piyodaning tezligi (m/sek), v_t – Transport vositasining tezligi (m/sek), a_p – Piyodaning tezlanishi (m/sek^2), a_t – Transport vositasining tezlanishi (m/sek^2), $T_{reaction}$ – Tizimning reaktsiya vaqti (sek), d – piyoda va transport vositasi o‘rtasidagi boshlang‘ich masofa. Agar $T_{collision} \leq T_{reaction}$ bo‘lsa, tizim darhol ogohlantirish beradi.

NATIJA

Yer osti konlarida piyodalarni aniqlash uchun taklif etilayotgan usullar

Datchik texnologiyasidagi yutuqlarga qaramay, yer osti konlarida turli xil datchiklardan foydalanish cheklangan. Bu cheklovlar maydonning torligi, ko‘rish imkoniyatining kamayishi, yoritishning yo‘qligi, chang, yuqori harorat va simsiz aloqa tizimlarining mavjud emasligi bilan bog‘liq.

Yer osti konlarida xaritalash va navigatsiya, piyodalarga qarshi to‘qnashuvlarni oldini olish tizimlari, va yer osti konlaridagi qutqaruv operatsiyalarini bajarishda qo‘llaniladi (1-rasm).

a) **b)** **c)**

1-rasm *Yer osti konlarida xaritalash va navigatsiya tizimi: (a) navigatsiya xaritalash, (b) piyodalarni aniqlash, (c) qutqaruv operatsiyasi.*

Afsuski, atrof-muhit sharoitlari (namlik, yuqori harorat, bosim, chang va ko‘rish imkoniyatlarining cheklanishi) ko‘plab datchik vositalaridan foydalanishni cheklaydi. Biroq, ko‘plab datchik qurilmalari mavjud bo‘lib, ular konchilik transport vositalari yaqinidagi insonlarni va boshqa transport vositalarini aniqlay oladi. Ushbu tizimlarning ba’zilari qurilmalari ma’lum cheklovlarga ega.

Bundan tashqari, GPS (Global Joylashuv Tizimi) tizimlari odatda yer usti ishlarida qo‘llaniladi. Biroq, uning sun’iy yo‘ldosh signallariga bog‘liqligi tufayli bu texnologiya yer osti kon sharoitida qo‘llanilishi qiyin [27].

Ultra-keng polosali radar (UWB) elektromagnit to‘lqinlarni yuborish orqali to‘siqlarni aniqlaydi. Radarlarning ikki turi mavjud, impulsli radar va doimiy to‘lqin (Doppler radar) radar. Ularning cheklovlari orasida, ular xato ogohlantirishlarni ko‘rsatishi va piyodalarni obyektlardan ajrata olmasligi mavjud [28].

Ultratovushli datchiklar yuborilgan tovush to‘lqinini aks ettirgan obyektga bo‘lgan masofani hisoblash uchun tovush tezligini ishlatadi. Ushbu turdagi datchiklarda yer osti konlarida foydalanishni cheklovchi ko‘plab parametrlar mavjud (harorat, namlik va tushish burchagi tovush tezligiga ta’sir qiladi) bo‘lib, bu esa o‘lchangan masofalarning aniqligiga ta’sir ko‘rsatadi [29].

LIDAR esa infraqizil yorug‘lik impulslarini ishlab chiqaradi va ularning atrofdagi ob’ektlardan aks etib qaytish vaqtini hisoblaydi. LIDAR datchiklari skanerlash hududidagi barcha ob’ektlar orasidagi masofani 50 metrgacha aniqlik bilan o‘lchay oladi. U tez va aniq chuqurlik o‘lchovlarini beradi [30].

Dronlar yoki uchuvchisiz uchish apparatlari (13-rasm) yer osti konlarida xavfsizlik, samaradorlik va mahsuldorlikni oshirishda keng qo‘llanilish imkoniyatlariga ega. Ushbu dronlar odatda turli xil datchiklar va kameralar bilan jihozlanib, masofadan boshqariladi yoki avtonom dasturlash orqali ishlaydi. Yer osti konlarida dronlardan o‘lchov, xaritalash, monitoring, inspeksiya, xavfli vazifalarni bajarish, shuningdek qidiruv va qutqaruv ishlarida foydalanish mumkin [31,32].

2-rasm. *Dron qurilmasi yordamida shaxta konlarida nazorat qilish jarayoni.*

Transport vositalari o‘rtasida to‘qnashuvlarini oldini olishda kerakli datchiklar tavsifi

MST AXON qurilmasi (3-rasm a) korxonaning simsiz raqamli ekotizimining asosi bo‘lish uchun mo‘ljallangan. Bu bir vaqtning o‘zida ovoz, video va ma’lumotlarni uzatish imkonini beruvchi eng samarali tarmoq platformalaridan biri bo‘lib IoT va muhim joylarda turli ilovalar uchun real vaqt rejimida monitoring, nazorat va boshqa hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

a)

b)

3-rasm *a) MST AXON va b) Wireless Access Point (WAP) simsiz uzatish qurilmalari*

Mine Site Technologies kompaniyasining ImPact Wireless Access Point (WAP) (3-rasm b) gaz va chang bo‘lmagan xavfli kon muhitlarida, sirtda joylashtirish qulayligi uchun maxsus ishlab chiqilgan. IP66 korpusida joylashgan bitta Wi-Fi radiosi bilan ushbu qurilmalar simsiz tarmoqni vaqtincha yoki doimiy ravishda kengaytirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxta devorlariga o‘rnatiladi.

Avtomobil tegi LT3301 (4-rasm b) simsiz tarmoq infratuzilmasidan foydalangan holda uskunaning joylashishini tashkil qilish imkonini beruvchi kichik o‘lchamli faol WiFi qurilmasi hisoblanadi. LT3301 real vaqt rejimida va har qanday muhitda, uzoq tunnel yoki ochiq joylar bo‘lsin, belgilangan obyektlarning joylashishini aniqlashda qo‘llaniladi.

Aniq (koordinatali) pozitsiyasini aniqlash tizimining moduli xodimlarni aniq (koordinatali) joylashtirish moduli uchun WT31 (4-rasm a) yoki W-T2X1 teglari ishlatiladi. WT2X1 tegi WiFi tarmog‘i orqali turli hodisalarni tasdiqlash uchun tugmani o‘rnatish opsiyasiga ega.

a) b)

4-rasm *Avtomobil tegi LT3301 va aniq (koordinatali) WT2X1 pozitsiyasini aniqlash tizimining modullari*

VIP Impact moduli (5-rasm a) yer osti ishlaridan tortib ochiq ishlanmalargacha bo‘lgan barcha turdagi ishlar uchun qattiq sharoitlarda ishlashga mo‘ljallangan. VIP Impact moduli transport vositasining yuk samaradorligi, dvigatelning ishlashi, diagnostikasi va joylashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlar kabi ba’zi parametrlarni kuzatib boradi. Keyin ushbu ma’lumot simsiz kanallar orqali markaziy serverga uzatiladi, chunki transport obyekt bo‘ylab harakatlanadi. Agar transport simsiz tarmoq qamrovidan tashqarida harakat qilsa, VIP qurilma buferda ma’lumotlarni besh kungacha to‘playdi, so‘ngra orqaga qaytarilganda ushbu ma’lumotlarni tizimga yuklaydi. Aqlli transport tegi avtomobil ma’lumotlarini olish va uzatish va ishchi xodimni yaqinlashishini aniqlash uchun sanoat obyektlari uchun maxsus ishlab chiqilgan..

MSTEX-09 tegi (5-rasm b) faollashtiruvchisi MST joylashishni aniqlash yechimining apparat elementi hisoblanadi. Ushbu qurilma yaqin atrofdagi MST teglarini izchil va aniq aniqlashni ta’minlaydi. EX09 tegi faollashtiruvchisi atrofdagi belgilarni aniqlash uchun 200 m gacha bo‘lgan magnit maydon hosil qiladi. VIP yoki WAP/NS 40/NS50 kirish nuqtalari kabi Impact MS tizimining qurilmalari ushbu paketlarni o‘qiydi va faollashtirilgan yorliqlarning holati tahlil qiladi.

a) b)

5-rasm *a) VIP Impact moduli va b) EX-09 avtomobil tegi*

To‘qnashuv tizimi indikatori VIP blokiga ulangan va signal birligi hisoblanadi. Ko‘rsatkich soddalashtirilgan vizual signal ko‘rsatkichini, shuningdek, ovozli signal interfeysini ta’minlaydi. LHD uchun ideal, boshqa uskunalarda foydalanish mumkin.

Load–Haul–Dump (LHD) – yer osti konlarida materiallarni yuklash, tashish va tushirish uchun ishlatiladigan transport vositasi hisoblanadi (6-rasm) [33–36]. Ushbu transport vositalari kon tunnellari kabi tor joylarda ishlash uchun maxsus ishlab chiqilgan. LHDlar odatda kon ichida rudalar, chiqindi jinslar va ko‘mir kabi materiallarni tashish uchun ishlatiladi. Ularning old qismida materialni

yuklash uchun ishlatiladigan kovsh yoki badya mavjud. Yuklangan material belgilangan tushirish joyiga olib borilib, u yerdan kovsh yoki konveyer yordamida tushiriladi.

(a) (b)

6-rasm *(a) yuk ortish-tushirish transporti, (b) LHD-da statsionar kameradan kuzatish jarayoni.*

7-rasmda yer osti konlarida foydalaniladigan og‘ir yuk mashinasi ko‘rsatilgan bo‘lib, unga o‘rnatilgan bir nechta aloqa va xavfsizlik tizimlari tasvirlangan. Ushbu tizimlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:



7-rasm *Yuk ortish-tushirish transportiga xavfsizlik va monitoring qurilmalarining o‘zaro bog‘lanishi*

7-rasmda Planshet yoki displey operator uchun interfeys sifatida xizmat qiladi, ma’lumotlarni real vaqtda kuzatish imkonini beradi. Markaziy aloqa moduli mashina bilan boshqa qurilmalar o‘rtasida simsiz aloqa o‘rnatadi va tizimni boshqaradi. Datchiklar xavfsizlik va monitoring tizimlari uchun o‘rnatilgan bo‘lib, yuk mashinasi atrofidagi harakat va to‘siqlarni kuzatadi. Ular xavfsizlikni ta’minlash va baxtsiz hodisalarni oldini olishga yordam beradi. Ma’lumot yig‘ish va boshqaruv bloki transportning ish faoliyati va xavfsizlik ko‘rsatkichlarini monitoring qiladi va saqlaydi, texnika ishlashini nazorat qiladi. Ushbu qurilmalarni umumiy qilsak, bu tizim yuk ortish-tushirish transport texnikasining xavfsiz ishlashini ta’minlash, samaradorligini oshirish va kon muhiti ichida xavf-

xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi. 8-rasmda qazish–yuklash jarayonida transport vositasi atrofida xavfsiz masofa maydoni (1-jadval berilgan) ko‘rsatilgan.

Xavfsiz maydon

Ehtiyokor chorasini ko‘rish maydoni

Ogohlantiruvchi maydon

Xavfli maydon



8-rasm *Qazish-yuklash jarayonida transport vositasi atrofida xavfsiz masofa maydoni.*

DISCUSSION

Ushbu bo‘limda biz piyodalar va transport vositalari o‘rtasida to‘qnashuvlarini oldini olish uchun bir nechta g‘oyalarni taklif qilamiz.

Transport mashinalariga qo‘llanilgan datchiklar atrof-muhitni kuzatib boradigan va xavf tug‘ilganda konchilarga real vaqtda ogohlantirishlarni yuboradigan aqlli datchiklar bilan jihozlash [37,38] kerak deb o‘ylayman. O‘tkazilgan tahlillar asosida yuqorida bir nechta datchiklar yer osti kon sharoitiga mos keladigani tanlab olindi.

Taklif etilayotgan to‘qnashuvni aniqlash tizimi uch o‘lchovli (3D) datchikni termal infraqizil kamera bilan insonni aniqlash va kuzatish mumkin .

Yuqoridagi matematik modellarimizni sun’iy intellekt tizimlari bilan birga ishlatilganda, to‘qnashuvlarni oldindan bashorat qilishga va ularni samarali oldini olishga imkon beradi.

Python dasturlash tili (boshqa dasturlarda ham ishlasa bo‘ladi) yordamida ushbu matematik modellarni implementatsiya qilish mumkin. Har bir parametr real vaqtda yangilanadi va doimiy ravishda xavf ehtimoli baholab boradi.

CONCLUSIONS

Ushbu maqolada konchilarni xavfsiz saqlash uchun doimiy innovatsiyalar va yangi tizimlarni ishlab chiqish zarurligini ta’kidlab o‘tildi. Tadqiqotga e’tibor qaratish kerak bo‘lgan eng katta muammo bu mashinalar va konchilar o‘rtasida yoki mashinalar va mashinalar o‘rtasida to‘qnashuvlarning oldini olish uchun mashina komponentlarini himoya qilishni va to‘qnashuvni oldini olish tizimlarini yaxshilashgadir. Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolamda yer osti konlarida transport vositalari va piyodalar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarni oldini olish tizimlarning turlari tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, yer osti konlarida piyodalarni aniqlashda orqali xavfsizligini ta’minlash sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Dunyo Sanoat 4.0 va 5.0 sari harakat qilarkan, inson va mashina o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda, bu esa yer osti qazib olish jarayonida to‘qnashuvga qarshi tizimlarni rivojlantirish va yangilash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Avtonom qazib olish kontseptsiyasi turli sohalarda keng tarqalmoqda va kelgusidagi tadqiqotlar avariyalarni kamaytirish va xavfsizlikni birinchi o‘ringa qo‘yuvchi raqamli shaxtalar yaratish uchun to‘qnashuvga qarshi tizimlarni avtonom qazib olish bilan qanday integratsiya qilish mumkinligini o‘rganishi kerak deb o‘ylayman.

ADABIYOTLAR

1. Kalandarov I.I., Namozov N.N., Bozorov B.N. Analysis of personnel safety systems in underground mining operations // Innovative technologies, Karshi Engineering Economics Institute, Special issue, December 2023, pp. 17-21

2. Kalandarov I.I., Namozov N.N. A model for ensuring the safety of personnel operating in underground mines using the linear extrapolation method // International conference on analysis of mathematics and exact sciences, Vol (1), 2024

3. Namozov N.N. Analysis of vehicle collision prevention systems in underground deposits // Articles of the X International Scientific and Practical Conference, Held on October 25, 2024 in Penza. – C. 61-64.

4. Dickens J., Green J., Teleka R., Sabatta D., A Global Survey of Systems and Technologies Suitable for Vehicle to Person Collision Avoidance in Underground Rail-Bound Operations Mine Health and Safety Council // Woodmead, South Africa, 2014.

5. Sishi M., Telukdarie A., Implementation of Industry 4.0 technologies in the mining industry—A case study. Int. J. Min. Miner. Eng. 2020, 11, 1–22.

6. Todoshchuk A. et al. Modelling Information Systems for Personnel Management: Navigating Economic Security in the Transition to Industry 5.0 // Ingénierie des Systèmes d’Information. – 2023. – T. 28. – №. 3. doi: 10.18280/isi.280307

7. Yuanjian J., Peng P., Wang L., Wang J., Wu J., Liu Y. LiDAR-based local path planning method for reactive navigation in underground mines // Remote Sensing. – 2023. – T. 15. – №. 2. – C. 309..

8. Patrucco M., Pira E., Pentimalli S., Nebbia R., Sorlini A., Anti-collision systems in tunneling to improve effectiveness and safety in a system-quality approach: A review of the state of the art // Infrastructures. – 2021. – T. 6. – №. 3. – C. 42.

9. Kalandarov I., Namozov N., Bozorov B. Analyses and algorithms of personnel safety in mines using event tree and Bayesian network method // E3S Web of Conferences. – EDP Sciences 2024. – T. 531. – C. 03018.

10. Szrek J., Zimroz R., WodeckiJ., Michalak A., Góralczyk M., Worsa-Kozak M. Application of the infrared thermography and unmanned ground vehicle for rescue action support in underground mine — The amicos project // Remote Sensing. – 2020. – T. 13. – №. 1. – C. 69.

11. Zhang H. Head-mounted display-based intuitive virtual reality training system for the mining industry // International Journal of Mining Science and Technology. – 2017. – T. 27. – №. 4. – C. 717-722.

12. Guo H., Yu Y., Skitmore M. Visualization technology-based construction safety management: A review //Automation in construction. – 2017. – T. 73. – C. 135-144.

13. Nazareth D. L., Choi J. A. system dynamics model for information security management // Information & management. – 2015. – T. 52. – №. 1. – C. 123-134.

14. Kusi-Sarpong S., Bai C., Sarkis J., Wang X. Green supply chain practices evaluation in the mining industry using a joint rough sets and fuzzy TOPSIS methodology // Resources Policy. – 2015. – T. 46. – C. 86-100.

15. Ranängen H., Lindman Å. A path towards sustainability for the Nordic mining industry // Journal of Cleaner Production. – 2017. – T. 151. – C. 43-52.

16. Sanmiquel L., Rossell J. M., Vintró C. Study of Spanish mining accidents using data mining techniques // Safety science. – 2015. – T. 75. – C. 49-55.

17. Permana H. Risk assessment as a strategy to prevent of mine accidents in indonesian mining // Mining Revue/Revista Minelor. – 2012. – T. 18. – №. 4.

Annotatsiya: *hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda ishlab chiqarishni rivojlantirish, firmalar va ularning sonini ko‘paytirish muhim ahamiyatga ega. Bu maqola orqali firma va buxgalteriya balansi hamda ularning tarkibi to‘g‘risidagi axborot manbalari haqida ma’lumotlar berib o‘tiladi. Fundan tashqari firma balansi turlari va aholi uchun foydaliroq bo‘lgan shakllari ham bayon etiladi. Yurtimizda ishlab chiqarishni rivojlantirish, tadbirkorlikka ko‘maklashish va aholining o‘zini o‘zi band qilish sohalarini yanaqa rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shunday ekan ular haqoda aholiga yetarlicha ma’lumotlar berish va yangi turli qonunlardan xabardor etish barchamiz uchun zarur.*

Kalit so‘zlar: *firma, ishlab chiqarish, transaksiya xarajatlari, balans, buxgalteriya, aktiv va passiv, daromad.*

Kirish.

Hozirgi kunda ishlab chiqarishni rivojlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yurtimizda muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev boshchiligida yaratilayotgan qonun va farmonlar amal qilish natichalari kundan kunga yaxshilanib bormoqda. Bunga misol qilib, mulkchilikning barcha shakliga mansub korxonalarni barpo etishning, ular faoliyatining, ularni qayta tashkil etish va tugatishning umumiy huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini belgilab beradi. Qonun foyda olishni ko‘zlab ish olib boradigan korxonalarning mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ularning huquqlari va mas’uliyatini belgilaydi, boshqa korxonalar va tashkilotlar, davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari bilan munosabatlarini tartibga solib turadi.

Firmalar balansi – firmalar hisoboti aniq hisobot sanasida yakunlanuvchi, mablag‘larning sarflanishi, manbai va maqsadini tavsiflovchi, jamlovchi, umumlashtirilgan jadvaldapul hisobida aks firma ettiruvchi hujjat hisoblanadi. Firma balansi, korxona, tashkilot va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkiy holatini qiymat ko‘rinishida ta’riflab beradi. Fira balansi umumlashtirilgan jadval shaklida korxonaning mulklari tarkibini, ularning joylashtirilishini, manbalarini, mablag‘larining sarflanishini va safarbar etilishini hisobot sanasida qiymat jihatdan aks ettiradi. Firma balansi ikki qismdan iborat bo‘lib, chap tomoni aktiv, o‘ng tomoni passiv deb ataladi. Aktiv va passiv firma balanslari bir biriga teng bo‘ladi.

Eksport baholaridan tashqari, transaksiya xarajatlarining nisbiy miqdori va tashkiliy tuzilmaning optimallik darajasi haqida axborot manbai bo‘lib, buxgalteriya xisobotlarining, birinchi navbatda, balans hamda foyda va zararlar haqidagi hisobotning ma‘lumotlari xizmat qilishi mumkin. Balansdan foydalanishning bunday yo‘nalishi, asosan, firmaning kreditga layoqatliligini imkoniyatli kreditorlar

Nuqtai nazaridan baholashga qaratilgan moliyaviy tahlilning oddiy texnologiyasinda farq qiladi. Inistitutsional tahlil uchun biz taklif etayotgan balansdan foydalanish metodologiyasi, albatta, to‘liq emas, shuning uchun unga nisbatan mutloq aniq va to‘la to‘kis xususiyatga davogarlik qilmaydigan xomaki variant singari munosabatda bo‘lish lozim. Buxgalteriya hisobotining institutsional tahlildagi dastlabki nuqta sifatida biz daromadlar haqidagi hisobot asosida aniqlanadigan firma mahsulotini sotish narxining tarkibi “axborotning uch xilini: tashkilotning ichki tafsilotlari haqidagi, bozordagi raqobat darajasi haqidagi va firma strategiyasi haqodagi axborotni sintez qiladi” degan ma’noni qabul qilamiz. Tannarx tarkibi nafaqat ishlab chiqarish va texnologik xarajatlarni, balki tashkilot ichida yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini ham aks ettiradi. Daromadlar tarkibi firma faoliyat ko‘rsatadigan tashqi muhit haqidagi: talabning holati va dinamikasi, raqobatchilar tovarlarining narxi va sifati, raqib firmalarning savdo tajovuzkorligi darajasi, sektorda transaksiya xarajatlarining miqdori haqida axborotni ham o‘zida mujassam etadi. Alohida firmaning buxgalteriya hisobotida mujassamlangan axborot o‘z o‘zicha kam ma’lumot beradi: institutsional tahlil uni tarmoq bo‘yicha yoki shunday o‘lchamdagi firmalar guruhlari bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan taqqoslashni talab qiladi, chunki gap transaksiya xarajatlarini mutloq emas, balki nisboy ifoda o‘lchashi haqida borayapti. Masalan, Yaponiyada har yili 865 ta yirik firmaning o‘rtacha balansga keltirilgan balansi ko‘rsatkichlari hisoblab chiqiladi va bu ma’lumotlar asosida Aoki to‘plangan ishdan bo‘shashda to‘lanadigan nafaqalar miqdori firma tomonidan xodimning firma uchun o‘ziga xos ko‘nikmalar va bilimlarga ega bo‘lishi uchun sarflanadigan say harakatlarga to‘g‘ri proporsionlan degan fikrlar paydo bo‘ladi. Chiqish nafaqasi pensiyaga ketishiga yoki muddatidan oldin ishdan bo‘shaganida to‘lanadi va bu uni firma tomonidan to‘lanaadigan yakka pensiyaga yaqinlashtiadi.

Aktiv va passiv alohida moddalarning tahlili tashkilotda huquqlarning real taqsimlanishi haqida tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi, u rasmiy, ta’sis hujjatlari va aksiyadorlik reyestrida qayd etilgan taqsimlashga hamma vaqt ham mos kelmaydi.

Banklar tomonidan korxona ustidan nazorat darajasini aniqlash uchun indeksni hisoblash chiqish ham foydali, chunki bank tomonidan garov bilan ta’minlanmagan kreditlar, faqat berilgan kredit qaytarilishining boshqa, norasmiy kafolatlari ko‘zda tutilgan holatlarda berilishi mumkin.

BALANS	
AKTIV	PASSIV
Oson sotiladigan qimmatli qog‘ozlar	to‘lanadigan vaksellar
Debitorlar hisobvaraqalari	to‘lanadigan hisobvaraqalar
Zaxiiralar:xomashyo	boshqa joriy majburiyatlar
Tugallangan ishlab chiqarish	jami joriy operatsion majburiyatlar
Jami zaxiralar	joriy uzoq muddatli qarzodrlik
Kelajak davrdagi xisobotlar	bo‘lajak davrdagi daromadlar
Boshqa aylanma aktivlar	uzoq muddatli kreditlar
Jami aylanma aktivlar	kapital lizingi bo‘yicha majburiyatlar
Amaldagi jihozlar lizingi	operatsion lizingning hozirgi qiymati
Binolar inshootlar va jihozlar	boshqa joriy majburiyatlar

Minus amartizatsiya Amaldagi jihozlar lizingi Asosiy jihozlar lizingi Uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlar Investitsiyalar va ssudalar Sof aktivlar Debitorlarning hisobvaraqalari Boshqa aylanma tashqi mablag‘lar Nomoddiy aktivlar Xaridlarni kapitallashtirish	jami uzoq muddatli majburiylatlar suborsinatsiyalangan qarzdorlik qisqa muddatli pensiya majburiyatlari to‘lash muddati kechiktirilgan soliq to‘lovlari imtiyozli aksiya oddiy aksiya taqsimlanmagan foyda sarmoyadorlardan sotib olinmagan aksiyalar
Jami asosiy vositalar	Jami xususiy kapital
Jami aktivlar	Ustundagi jami

O‘zaro bog‘liq korxonalar tomonidan tashkilot ustidan nazorat darajasini aniqlash uchun turli indekslarni bir birga moslashtirish zarur.

Xulosa.

Xulosa qiliib aytadigan bo‘lsam, firmalar balansini hisoblash jarayonlarini yurtimizda yanada rivojlantirish va indekslarga ko‘ra funksiyalarni tahlil etish orqali ularni yanada rivojlantirish lozim. Bundan tashqari, turli usullardan foydalanish hamda ularni davlatimiz sharoitiga moslashtirish yangidan tuzib chiqishimiz juda o‘rinli bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Meyer, M. & Schwager, A. (2007). "Balancing Organizational Structures: Theory and Practice." Journal of Management Studies.

2. Kaplan, R.S., & Norton, D.P. (1996). "The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action." Harvard Business Review Press.

3. Porter, M.E. (1996). "What is Strategy?" Harvard Business Review.

4. Ansoff, H.I. (1988). "The New Corporate Strategy." Wiley.

5. Mintzberg, H. (1994). "The Rise and Fall of Strategic Planning." Harvard Business Review Press.

6. Daft, R.L. (2015). “Organization Theory and Design.” Cengage Learning.

7. Cameron, K.S. & Quinn, R.E. (2011). “Diagnosing and Changing Organizational Culture.” Addison-Wesley.

8. Teece, D.J. (2007). “Explicating Dynamic Capabilities: The Nature and Microfoundations of (Sustainable) Enterprise Performance.” Strategic Management Journal.

9. Robinson, S.P., & Judge, T.A. (2017). “Organizational Behavior.” Pearson.

10. Kotter, J.P. (1996). “Leading Change.” Harvard Business Review Press.

IQTISODIY SIYOSATNI ISHLAB CHIQISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI

D. Q. Shukurova
Qarshi davlat universiteti
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-kurs talabasi,
durdonashukurova12@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191361

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish jarayonlariga qanday ta’sir qilishi, uning samaradorligini oshirishdagi roli va SI yordamida qanday yangiliklar amalga oshirilishi haqida fikr yuritiladi. Iqtisodiy siyosatni shakllantirishda sun’iy intellektdan foydalanish strategik qarorlarni qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishga, iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, iqtisodiy siyosat, qaror qabul qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish, samaradorlik, innovatsiya.*

Kirish

XXI asrda sun’iy intellekt (SI) iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy drayverlaridan biriga aylandi. Sun’iy intellekt texnologiyalari iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, samaradorlikni oshirish, va resurslarni samarali boshqarishda keng imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, chunki ushbu texnologiyalar tahliliy jarayonlarni tezlashtiradi, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini beradi va natijalarning aniqligini oshiradi.

Asosiy qism

Sun’iy intellektning iqtisodiy siyosatda qo‘llanilishi asosan ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, iqtisodiy model va prognozlar yaratish hamda optimal qarorlarni tanlash kabi jarayonlarga qaratilgan. Bugungi kunda mamlakatlar iqtisodiy o‘sish, raqobatbardoshlik va investitsiyalarni jalb qilish uchun sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanmoqda. Misol uchun, mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir qiluvchi xatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun sun’iy intellekt texnologiyalari orqali katta hajmdagi ma’lumotlar real vaqtda tahlil qilinmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda quyidagi sohalarda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi:

1. *Ma’lumotlarni tahlil qilish.* Sun’iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi iqtisodiy ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyatini taqdim etadi. Bu jarayonda olingan ma’lumotlar asosida iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish va yangi siyosat yo‘nalishlarini ishlab chiqish osonlashadi.
2. *Resurslarni taqsimlash.* Sun’iy intellekt yordamida iqtisodiy resurslarni optimal tarzda taqsimlash yo‘llari aniqlanadi, bu esa iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
3. *Risklarni baholash*. Iqtisodiy siyosatning har xil yo‘nalishlari bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni sun’iy intellekt yordamida oldindan baholash imkonini beradi. Bu esa xavf omillarini o‘z vaqtida aniqlash va ularga mos chora-tadbirlar ko‘rishga imkon yaratadi. [1]

Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda qaror qabul qilish jarayoni katta ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida davlat organlari va tahlilchilar iqtisodiy vaziyatning turli jihatlarini chuqur o‘rganib, kelajakdagi o‘zgarishlarni oldindan bashorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy siyosatni real holatga moslashtirish, iqtisodiyotga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni kamaytirish va qabul qilingan qarorlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari orqali yig‘iladigan va tahlil qilinadigan ma’lumotlarning ishonchliligi iqtisodiy siyosatni muvaffaqiyatli ishlab chiqish va amalga oshirishning asosiy omillaridan biridir. Sun’iy intellekt tizimlari yirik hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashda odamlardan kamroq xato qiladi va ma’lumotlarni aniqroq tahlil qilish imkoniyatini ta’minlaydi. Bu esa siyosatni amalga oshirishda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va investitsiyalarni to‘g‘ri yo‘naltirishga imkon beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy siyosatni shakllantirish jarayonida qo‘llanilishi quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

- samaradorlik va aniqlik. Sun’iy intellekt algoritmlari katta hajmdagi ma’lumotlarni yuqori tezlikda qayta ishlaydi va tahliliy natijalarining aniqligini ta’minlaydi;
- tejamkorlik. Sun’iy intellekt orqali amalga oshiriladigan jarayonlar inson resurslari talabini qisqartirishga yordam beradi, bu esa davlat va xususiy sektor uchun xarajatlarni kamaytiradi;
- innovatsion imkoniyatlar. Iqtisodiy siyosatda sun’iy intellektdan foydalanish yangiliklarga yo‘l ochadi, bu esa iqtisodiyotni raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sun’iy intellektni iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda qo‘llash quyidagi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin:

- ma’lumotlar xavfsizligi. Sun’iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi ma’lumotlarga bog‘liq bo‘lib, bu esa ularning xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq xavflarni keltirib chiqaradi;
- yuridik va etik masalalar. Sun’iy intellekt yordamida qabul qilingan qarorlar ba’zida insoniy aralashuvni talab qiladi, bu esa ba’zi yuridik va etik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. [2]

Iqtisodiy siyosatni shakllantirishda sun’iy intellektni muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi omillarni hisobga olish lozim:

Ma’lumotlarning mavjudligi va sifati. Sun’iy intellekt algoritmlari sifatli va keng qamrovli ma’lumotlarga asoslanadi. Iqtisodiy siyosatni shakllantirishda foydalaniladigan ma’lumotlarning to’liqligi, aniqligi va aktual holatda bo‘lishi muhimdir. Ma’lumotlarning sifati past bo‘lsa, SI tahlillarining ishonchliligi ham kamayadi, bu esa siyosiy qarorlarning samarasiz bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Kadrlar tayyorgarligi va texnik bilim. SI texnologiyalarini amaliyotga joriy etishda malakali mutaxassislar va tajribali kadrlar talab etiladi. Buning uchun iqtisodiy siyosat bilan shug’ullanuvchi xodimlar sun’iy intellekt va m’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi, kerakli texnik ko’nikmalarga ega bo‘lishi zarur.

Yuridik va etika me’yorlariga rioya qilish. Sun’iy intellektdan foydalanishda maxfiylik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va adolat kabi etika me’yorlariga rioya qilish muhim hisoblanadi. Siyosiy qarorlarni sun’iy intellekt yordamida qabul qilish jarayonida ushbu me’yorlar e’tiborga olinmasa, jamiyatda norozilik va ishonchsizlik yuzaga kelishi mumkin.

Infratuzilma va texnologik resurslar. SI texnologiyalarini joriy etish uchun ilg‘or texnologik infratuzilma va resurslar zarur. Ular orasida kuchli kompyuter tarmoqlari, bulutli texnologiyalar va katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash imkoniyatlari mavjud bo‘lishi lozim.

Strategik yondashuv va rejalashtirish. SI texnologiyalarini iqtisodiy siyosatga joriy etishda uzoq muddatli rejalashtirish va strategik yondashuv kerak. Bu texnologiyalarni samarali boshqarish va resurslardan to‘g‘ri foydalanish orqali iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

Jamiyat va xodimlarni tayyorlash. Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashda jamiyatda bu texnologiyalarning ijobiy ta’siriga ishonch hosil qilish, shuningdek, xodimlarni yangi texnologiyalarga moslashtirish uchun o‘qitish va tayyorgarlik ishlari olib borish muhimdir. [5]

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish — bu har bir davlatning asosiy maqsadlaridan biridir. Sun’iy intellekt texnologiyalari iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Ular orqali resurslar taqsimotining optimal modellari yaratilib, ish unumdorligi oshiriladi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish orqali mahsulotning tannarxi pasaytiriladi va raqobatbardoshlik kuchaytiriladi. [4] Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida mehnat bozorida ish o‘rinlari sonini prognoz qilish va iqtisodiyotning o‘sishi uchun zarur bo‘lgan choralarni ko‘rish mumkin.

Innovatsiya iqtisodiyotning rivojlanishi uchun muhim omildir va sun’iy intellekt texnologiyalari innovatsiyalarni rag‘batlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. To‘g‘ri, innovatsiya iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi, chunki yangi texnologiyalar va jarayonlar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari esa ushbu jarayonni yanada jadallashtirmoqda. Masalan, SI orqali biznes jarayonlari avtomatlashtirilib, odamlarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi va samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, SI katta miqdordagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali yangi g’oyalar va yechimlar yaratishga yordam beradi.

Bundan tashqari, SI texnologiyalari tadbirkorlikni rivojlantirishda ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Misol uchun, biznes uchun xarajatlarni kamaytirish, bozor ehtiyojlarini yanada aniqroq tahlil qilish va iste'molchilarning talabini oldindan bilish imkonini beradi. Bu esa iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirib, innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, SI texnologiyalari zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalarni rag’batlantirish va uni rivojlantirishda strategik omil sifatida muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda sun’iy intellektdan foydalanish yangi biznes modellarini yaratish, ilmiy tadqiqotlar va ixtirolar uchun qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Misol uchun, ilg‘or davlatlar sun’iy intellekt sohasida tadqiqotlarni moliyalashtirish orqali startaplar va kichik bizneslarni qo‘llab-quvvatlamoqda. [5] Bu esa iqtisodiyotda texnologik o‘zgarishlarni tezlashtirish va mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo‘shmoqda.

Xulosa

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqadigan bo‘lsak, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi davlat iqtisodiyotini rivojlantirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va samaradorlikni oshirishda muhim omil bo‘lib qolmoqda. Sun’iy intellekt yordami bilan ma’lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish iqtisodiy siyosatni aniq va ilmiy asoslangan qilish imkoniyatini taqdim etadi. Ammo, sun’iy intellektni qo‘llash jarayonida yuridik, etik va ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni ham e’tiborga olish zarur. Kelajakda iqtisodiy siyosatni yanada rivojlantirish uchun sun’iy intellektni qo‘llashning o‘rganilishi va takomillashtirilishi zarur bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Adamas L., Sun’iy intellekt va iqtisodiyot. Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Yusupov F. “Iqtisodiy siyosat va sun’iy intellektning o‘zaro ta’siri” Iqtisodiyot jurnali, 2022.
3. Jones M., “Sun’iy intellekt orqali iqtisodiy prognozlarni takomillashtirish” London: Economics Today, 2021.
4. Khon R., Sun’iy intellekt va iqtisodiy samaradorlikni oshirish. Nyu-York: Modern Economy, 2020.
5. Azizov A., “Innovatsiyalarni rag‘batlantirishda sun’iy intellektning roli” Innovatsiyalar jurnali, 2023.

BANKLARDA VIRTUAL XIZMAT KO‘RSATISH TARMOQLARINI QURISH USULLARIGA MISOL VA MODELLAR

Mannopova Maftuna G‘olib qizi
Alfraganus universiteti
“Raqamli texnologiya” kafedrasi katta oqituvchisi
m.mannapova.94@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192636

Annotatsiya: *Ushbu maqolada banklarda virtual xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini qurish usullariga misol va modellar xususiyatlarini hisoblash va tahlil qilish, hamda bulutli ma’lumotlarga ishlov berish markazi modeli tanlangan, modellashtirilgan va ko‘rib chiqilgan. Olingan ma’lumotlar tegishli jadvallarda qayd etilgan, jadvallardagi ma’lumotlarni tasdiqlaydigan rasmmlar ham ilova qilingan. Banklarda virtual xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini qurish ma’lumotlarga ishlov berish markazlarining asosiy xarakteristikalari optimallashtirmasdan o‘tkazilgan tajribalar asosida aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *Model, optimallashtirish, simulyatsiyalash modeli, xarakteristikalar, hisoblash tugunlari, bufer sig‘imi.*

KIRISH

Banklarda virtual xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini qurish usullariga misol va modellar xususiyatlarini hisoblash va agar ma’lum sharoitlarda modelning ishlashini o‘rganish yoki modelning eng yaxshi natijasiga erishiladigan parametr qiymatlarini topish orqali modelning ishlashini yaxshilash kerak bo‘lsa, u holda AnyLogic modelini optimallashtirish imkoniyatidan foydalanish mumkin. AnyLogic modelini optimallashtirish har xil parametr qiymatlari bilan modelning bir nechta ishlatishlarni ketma-ket bajarish va berilgan vazifa uchun optimal parametrlar qiymatlarini topishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

AnyLogic dasturida o‘rnatilgan OptQuest optimallashtirgich bugungi kunda mavjud bo‘lgan eng yaxshi optimallashtirgich hisoblanadi. OptQuest optimallashtirgichi berilgan cheklovlarni hisobga olgan holda eng yaxshi model parametr qiymatlarini avtomatik topadi [1].

AnyLogic optimallashtirish jarayonini sozlash va kuzatish uchun qulay grafik interfeysni taqdim etadi[2].

OptQuest optimallashtirgich OptTekSystems, Inc.ning savdo belgisi hisoblandi[3]. OptQuest bajaruvchimoduli haqida batafsil ma’lumotlarni OptTek veb-saytida (ingliz tilida) topish mumkin: www.OptTek .com. [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolada ko’rsatilgan har bir davlatda o‘z talablariga asoslangan o‘ziga xos qonun va qoidalar mavjud. Shu sababli har bir banklardagi “cloud” virtual ma’lumotlar markazining xususiyatlarini hisoblash va tahlil qilish qo‘llanilishi ilgari suradi. Hozirgi kunda ko‘plab rivojlanib borayotgan moliyaviy firmalar axborot tizimlari va texnologiyalari kuchli raqobatdaligini ko‘rish mumkin. Model, optimallashtirish, simulyatsiyalash modeli, xarakteristikalar, hisoblash tugunlari, bufer sig‘imi va boshqa texnologiyalardan xam foydalanilgan, mualliflar tomonidan xulosa va takliflar berilgan.

Ko‘rib chiqilgan virtual tarmoqlarni qurish usullari asosida quyida 1-rasmda keltirilgan fizik tarmoq varianti uchun foydalaniladigan parametrlarni sonli baholash va taqqoslash natijalariga ega bo‘lgan bu usullarni amalga oshirishga misollar keltirilgan.

Dinamik usulga misol



1-rasm. №1-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№1-virtual tarmoqni qurishda fizik tarmoqdagi marshrutizatorlarining bog‘langanligi hisobga olingan.



2-rasm. №2-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№2-virtual tarmoqni qurishda fizik tarmoqdagi marshrutizatorlarining bog‘langanligi hisobga olingan.



3-rasm. №3-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№3-virtual tarmoqni qurishda fizik tarmoqdagi marshrutizatorlarining bog‘langanligi hisobga olingan.



4-rasm. №4-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№4-virtual tarmoqni qurishda fizik tarmoqdagi marshrutizatorlarining bog‘langanligi hisobga olingan.



5-rasm. №5-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№5-virtual tarmoqni qurishda fizik tarmoqdagi marshrutizatorlarining bog‘langanligi hisobga olingan.



6-rasm. №6-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№6-virtual tarmoqni qurishda fizik tarmoqdagi marshrutizatorlarining bog‘langanligi hisobga olingan.

Dinamik usulning virtual tarmoqlar qanday tartibda qurilgani yuqorida keltirilgan, shuningdek, dinamik usul bo‘yicha 8 ta virtual tarmoqlardan 6 ta tarmoqlar qurilganligini ta’kidlash mumkin. Tarmoqni qurish ayrim marshrutizatorlar va kanallarda o‘tkazish qobiliyati yetishmasligi tufayli mumkin emas. Bu usul saralash usuliga qaraganda yomonroq ko‘rsatkichlarga ega, ammo bunda algoritmning ishlash vaqti saralash algoritmiga qaraganda kichik bo‘ladi.

O‘tkazish qobiliyati kamayishi tartibidagi usulga misol

№1-virtual tarmoqni qurish



1. Dastlabki ma’lumotlar

	1	2	3	4	5
1	0	1	0	0	0
2	1	0	1	1	0
3	0	1	0	1	0
4	0	1	1	0	1
5	0	0	0	1	0

1. RV1 = (rv1, rv2, rv3, rv4, rv5) = (170, 200, 210, 220, 150)

Saralash

2. RV1 = (rv4, rv3, rv2, rv1, rv5) = (220, 210, 200, 170, 150)

3. RP = (rp1, rp2, rp3, rp4, rp5, rp6, rp7, rp8) = (800, 1000, 900, 710, 810, 950, 1100, 700)

4. RP = (rp7, rp2, rp6, rp3, rp5, rp1, rp4, rp8) = (1100, 1000, 950, 900, 810, 800, 710, 700)

5. rv4 : rp7 agar rv4<=rp7;

rp7 - rv4 = 1100-220=880

6. rv3 : rp2 agar rv3<=rp2;

rp2 - rv3 = 1000-210=790

7. rv2 : rp6 agar rv2<=rp6;
rp6 – rp2 = 950 – 200 = 750
8. rv1 : rp3 agar rv1<=rp3;
rp3 – rv1 = 900 – 170 = 730
9. rv5 : rp5 agar rv5<=rp5;
rp5 – rp5 = 810 – 150 = 660
10. PS kanallari
LV1 = (140, 130, 120, 110, 100)

- 140: Vr 2, 4 => Pr 6, 7
- ✓ 820 – 140 = 680
- 130: Vr 2, 3 => Pr 6, 2
- ✓ 800 – 130 = 670
- 120: Vr 3,4 => Pr 2,7
- ✓ Marshrut: 2,3,7
- ✓ Pr 3 tranzit = 730 – 120 =610
- ✓ 7,3 – 120 = 880 -120 = 760
- ✓ 3,2 – 120 = 840 – 120 = 720
- 110: Vr 1,2 => Pr 3,6



7-rasm. №1-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№2-virtual tarmoqni qurish



1. Dastlabki ma’lumotlar

1	2	3	4	5
2246				

1	0	1	0	0	0
2	1	0	1	1	0
3	0	1	0	0	1
4	0	1	0	0	1
5	0	0	1	1	0

2. RV2 = (rv1, rv2, rv3, rv4, rv5) = (140, 190, 200, 210, 160)
Saralash
3. RV2 = (rv4, rv3, rv2, rv5, rv1) = (210, 200, 190, 160, 140)
4. RP = (rp1, rp2, rp3, rp4, rp5, rp6, rp7, rp8) = (800, 680, 610, 710, 660, 750, 880, 700)
5. RP = (rp7, rp1, rp6, rp4, rp8, rp2, rp5, rp3) = (880, 800, 750, 710, 700, 680, 660, 610)
6. rv4 : rp7 agar rv4<=rp7;
rp7 - rv4 = 880 – 210 = 670
7. rv3 : rp1 agar rv3<=rp1;
rp1 – rv3 = 800 – 200 = 600
8. rv2 : rp6 agar rv2<=rp6;
rp6 – rv2 = 750 – 190 = 560
9. rv5 : rp4 agar rv5<=rp4;
rp4 – rv5 = 710 – 160 = 550
10. rv1 : rp8 agar rv1<=rp8;
rp8 – rv1 = 700 – 140 = 560
11. PS kanallari
LV2 = (140, 125, 120, 110, 90)

- 140: Vr2,4 => Pr6,7
  - ✓ 680 – 140 = 540
- 125: Vr4,5 => Pr7,4
  - ✓ Marshrut: 7,6,4
  - ✓ Pr 6 tranzit = 560 – 125 = 435
  - ✓ 7,6 – 125 = 540 – 125 = 415
  - ✓ 6,4 – 125 = 700 – 125 = 575
- 120: Vr2,3 => Pr6,1
  - ✓ Marshrut: 6,2,1
  - ✓ Pr 2 tranzit = 680 – 120 = 560
  - ✓ 6,2 – 120 = 560 – 120 = 440
  - ✓ 2,1 – 120 = 720 – 120 = 600
- 110: Vr3,5 => Pr1,4
  - ✓ Marshrut: 1,2,4
  - ✓ Pr 2 tranzit = 560 – 110 = 450
  - ✓ 1,2 – 110 = 600 – 110 = 490
  - ✓ 2,4 – 110 = 600 – 110 = 490
- 90: Vr1,2 => Pr8,6
  - ✓ 600 – 90 = 510



8-rasm. №2-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№3-virtual tarmoqni qurish



1. Dastlabki ma’lumotlar

	1	2	3	4
1	0	1	1	0
2	1	0	1	0
3	1	1	0	1
4	0	0	1	0

2. RV3 = (rv1, rv2, rv3, rv4) = (210, 220, 230, 140)
Saralash
3. RV3 = (rv3, rv2, rv1, rv4) = (230, 220, 210, 140)
4. RP = (rp1, rp2, rp3, rp4, rp5, rp6, rp7, rp8) = (600, 450, 610, 550, 660, 435, 670, 560)
5. RP = (rp7, rp5, rp3, rp1, rp8, rp4, rp2, rp6) = (670, 660, 610, 600, 560, 550, 450, 435)
6. rv3 : rp7 Agar rv3 <= rp7;
rp7 – rv3 = 670 – 230 = 440
7. rv2 : rp5 agar rv2 <= rp5;
rp5 – rv2 = 660 – 220 = 440
8. rv3 : rp3 agar rv3 <= rp3;
rp3 – rv3 = 610 – 210 = 400
9. rv4 : rp1 agar rv4 <= rp1;

rp1 – rv4 = 600 – 140 = 460



9-rasm. №3-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

4-chi virtual tarmoqni qurish mumkin emas, chunki 6-marshrutizatorning o‘tkazish qobiliyati yetarli emas: Usulni o‘zgartirish (modifikatsiyalash). Muqobil yo‘lni tanlash: 8, 7, 3, 1



10-rasm. №4-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurish

№5-virtual tarmoqni qurish mumkin. Usulni o‘zgartirish (modifikatsiyalash). Muqobil yo‘lni tanlash.



11-rasm. №5-virtual tarmoqni fizik tarmoqqa qurrish

O‘tkazish qobiliyati kamaytishi tartibidagi usulda virtual tarmoqlar qanday tartibda qurilganligi yuqorida keltirilgan, shuningdek, dinamik usul bo‘yicha 8 ta virtual tarmoqlardan 6 ta tarmoqlar qurilganligini ta’kidlash mumkin. kanallar. №5-virtual tarmoqni qurish ayrim marshrutizatorlar va kanallarda o‘tkazish qobiliyati yetishmasligi tufayli mumkin emas. Bu usul oldingi 2 ta usullarga qaraganda yomonroq ko‘rsatkichlarga ega, ammo o‘tkazish qobiliyati kamayishi tartibidagi usul kichik murakkablikdagi yechimga ega.

Xulosa

Ushbu maqolada banklarda virtual xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini qurish usullariga misol va modellar, ma’lumotlarga ishlov berish markazi modeli tanlangan, modellashtirilgan va ko‘rib chiqilgan. Virtual xizmat ko‘rsatish tarmoq ma’lumotlarga ishlov berish markazlarining asosiy xarakteristikalari optimallashtirmasdan o‘tkazilgan tajribalar asosida aniqlandi. Olingan ma’lumotlar tegishli jadvallarda qayd etilgan, jadvallardagi ma’lumotlarni tasdiqlaydigan rasmmlar ham ilova qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

19. F. Ma, F. Liu, Z. Liu, Distributed Load Balancing Allocation of Virtual Machine in Cloud Data Center // IEEE 3rd International Conference on Software Engineering and Service Science, 2012, pp. 20-23.

20. V. Belogrudov, Tenant Behaviour-driven Scheduler in OpenStack Cloud // Cork Institute of Technology, Department of Computing, 2013.

21. J. Hu, J. Gu, G. Sun, T. Zhao, A Scheduling Strategy on Load Balancing of Virtual Machine Resources in Cloud Computing Environment // 3rd International Symposium on Parallel Architecture, Algorithms and Programming (PAAP), 2010, pp. 89-96.

22. R. Ghosh, V.K. Naik, Predictive Analysis for Resource Over-commit in IaaS Cloud // IEEE 5th International Conference on Cloud Computing, 2012, pp. 25-32.

23. C.L. Hwang, K. Yoon, Multiple attributes decision-making methods and applications: a state of the art Survey // Springer-Verlag, New York, 1981.

24. Baltayev, J.-S., Boltayev, S. Model and Methods for Detecting Undetected Errors Using a Signature Analyzer, Lecture Notes in Networks and Systems volume 509, pp 1101 – 1110 DOI:10.1007/978-3-031-11058-0_112

25. Djurayev, R.X., Baltayev, J.B., Xasanov, O.A., Increasing the efficiency of diagnosing microprocessor devices based on multichannel signal analysis means, 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies, ICISCT 2020, 2020, 9351426, DOI:10.1109/ICISCT50599.2020.9351426

26. Djurayev, R.X., Baltayev, J.B., Badalov, J.I., Study of the method of compact testing of technical means of data transmission networks, 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies, ICISCT 2020, 2020, 9351512, DOI:10.1109/ICISCT50599.2020.9351512

27. Djuraev R. X., Djabbarov S. Y., Baltaev J. B. Sistemi texnicheskogo obslujivaniya i ekspluatatsii setey telekommunikatsii //Uchebnik.-T.:“Aloqachi. – 2019. – T. 234.

28. Djuraev R. H., Djabbarov S. Y., Baltayev J. B. Raqamli tizimlarning texnik diagnostikasi //Darslik).-T.:«Aloqachi. – 2020. – T. 232.

ПРОБЛЕМЫ СОЗДАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ МОНИТОРИНГА И ОПЕРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ

Г.Р. Марасулова
Ташкентский государственный экономический университет
Ассистент кафедры
Информационных систем и технологий
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192907

Аннотация: *в данной статье приведены основные проблемы создания информационной системы мониторинга и оперативного управления, изложены основные принципы и методики ее проектирования.*

Ключевой слова: *информационных систем, оперативного управления, информационные потоки.*

В данной работе в качестве информационных систем (ИС) рассматриваются системы, осуществляющие мониторинг и оперативное управление объектов соответствующих уровней иерархии. При создании информационной системы мониторинга и оперативного управления (ИСМОУ) реализован принцип нисходящего проектирования систем, выполняющих взаимосвязанные функции компонентов, которые в результате взаимодействия обеспечивают достижение целей управления. ИСМОУ будет отличаться, прежде всего методикой построения, обеспечивающей согласованное достижение целей, каждая из которых не может быть достигнута за счет локального использования отдельных видов ИСМОУ.

ИСМОУ обеспечивает согласованное и координированное решение задач с учетом временной и уровневой иерархии за счет разделения общей задачи управления по фазам планирования, учета, анализа, регулирования, а также временной иерархии задач внутри каждой фазы. В ИСМОУ обеспечиваются координация процессов исследования хода производства, оперативного и перспективного планирования и адаптация системы за счет изменения состава и взаимосвязей между задачами, а также характера взаимодействия между ее компонентами [1,2].

В настоящее время наблюдается тенденция к объединению различных типов ИС в единый компьютерно-технологический комплекс, который носит название интегрированного. Особое место в нем принадлежит средствам коммуникации, обеспечивающим не только чрезвычайно широкие технологические возможности автоматизации управленческой деятельности, но и являющимся основой создания разнообразных сетевых вариантов ИС (локальные, многоуровневые распределенные, глобальные вычислительные сети, электронная почта, цифровые сети интегрального обслуживания). Все они ориентированы на технологическое взаимодействие совокупности объектов, образуемых устройствами передачи, обработки, накопления, хранения и защиты данных, и представляют собой интегрированные ИС обработки данных большой сложности.

Интегрированные ИС обработки данных проектируются как сложный информационно-технологический и программный комплекс. Он поддерживает единый способ представления данных и взаимодействие пользователей с компонентами системы, обеспечивает информационные и вычислительные потребности специалистов, возникающие в процессе их профессиональной работы. Особое значение в таких системах придается защите информации при ее передаче и обработке. Наибольшее распространение при защите информации получили аппаратно-программные способы, в частности использование системы связи, выбранной по защитным свойствам и качеству обслуживания, гарантирующим сохранность информации в процессе передачи и доставки ее адресату, шифрование и дешифрование данных абонентами сетей общего пользования (телефонных, телеграфных) при договоренности пользователей об общих технических средствах, алгоритмах шифрования и т.п.

Повышение требований к оперативности информационного обмена и управления привело к созданию многоуровневых ИС организационного управления объектами, каким является ИСМОУ нефтегазовой отрасли. Информационное обеспечение ИСМОУ реализует сети автоматизированных банков данных, которые строятся с учетом организационно-функциональной структуры соответствующей многоуровневой нефтегазовой отрасли, машинного ведения информационных баз данных. Эту проблему в ИСМОУ решают распределенные системы обработки данных с использованием каналов связи для обмена информацией между базами данных различных уровней. За счет усложнения программных средств управления базами данных повышается скорость, обеспечиваются защита и достоверность информации при выполнении производственно-экономических расчетов и выработке управленческих решений.

В многоуровневой ИСМОУ одинаково успешно могут быть решены проблемы как оперативной работы с информацией, так и анализа производственно-экономических ситуаций при выработке и принятии управленческих решений.

Потребность в аналитической работе при рыночной экономике, в условиях перестройки экономических отношений, образования новых организационных структур, функционирующих на основе различных форм собственности, неизмеримо возрастает. Возникает необходимость в накоплении фактов, опыта, знаний в каждой конкретной области управленческой деятельности. На первый план выдвигается заинтересованность в тщательном исследовании конкретных экономических, коммерческих, производственных ситуаций с целью принятия в оперативном порядке экономически обоснованных и наиболее приемлемых решений. Решение этой задачи обеспечивается дальнейшим совершенствованием интегрированной обработки информации, когда ИСМОУ начинает включать в работу базы знаний. Под базой знаний понимается сложная, детально моделируемая структура информационных совокупностей, описывающих все особенности предметной области, включая факты (фактические знания), правила (знания условий для принятия решений) и метазнания (знания о знаниях), т.е. знания, касающиеся способов использования знаний и их свойств. База знаний является важнейшим элементом все чаще создаваемой на рабочем месте специалиста экспертной системы, выступающей в роли накопителя знаний в конкретной области профессиональной деятельности и советчика специалисту в проведении исследования производственно-экономических ситуаций и выработке управляющих воздействий.

С помощью ИСМОУ обеспечивается многовариантность расчетов, принимаются рациональные управленческие решения, в том числе в режиме реального времени, организуются комплексный учет и экономический анализ, достигаются достоверность и оперативность получаемой и используемой в управлении информации и т.д. Этому способствуют повсеместная автоматизация задач процессов планирования, мониторинга и оперативного управления на предприятиях отрасли, создание ими собственных автоматизированных систем управления.

С позиции технологии и выполняемых функций ИСМОУ может состоять из нескольких элементов (рис.1).



Рис.1. Организационная структура ИСМОУ

Функции ИСМОУ определяют ее структуру, которая включает следующие процедуры: оперативный сбор и регистрацию данных; подготовку информационных файлов; обработку, накопление и хранение данных; формирование результатной информации; передачу данных от источников возникновения к месту обработки, а

результатов расчетов — к потребителям информации для принятия управленческих решений.

В процессе оперативного сбора фактической информации производятся измерение, подсчет, получение временных и количественных характеристик работы отдельных производственных участков. Сбор информации, как правило, регистрируется вводом в ПЭВМ.

В настоящее время в результате развития средств и методов создания информационных систем оформилось направление, связанное с автоматизацией проектирования информационной системы и информационной технологии. Это путь использования готовых решений, обеспечения заданного качества и ускорения работ при создании информационной системы и информационной технологии. Широкое распространение в этой области получила технология CASE (Computer-Aided Software/System Engineering - CASE-технология). CASE-технология — совокупность методов анализа, проектирования, разработки и сопровождения информационной системы, поддерживаемых комплексом взаимосвязанных средств автоматизации. Это инструментарий для системных аналитиков, разработчиков и программистов, позволяющий автоматизировать процесс исследования, проектирования и разработки информационной системы (анализ предметной области, спецификации проектов, выпуск документации, тестирование реализаций проектов, планирование и контроль разработок, моделирование и т.п.). Это индустриализация технологии создания информационной системы и информационной технологии, позволяющая отделить и автоматизировать процесс проектирования информационной системы от последующих этапов разработки. Использование CASE-технологий существенно изменяет технологию работ на этапах анализа, проектирования и модернизации информационной системы. В CASE-технологиях применяются специальные методы анализа, проектирования и моделирования.

Применяемые в CASE - технологиях методы успешно используются для создания моделей систем для решения задач стратегического управления, планирования, прогнозирования и т.п. Это направление получило название бизнес-анализа.

Используемые при создании ИСМОУ CASE-технологии, предоставляют ряд нотаций для разработки описательных моделей. Одними из самых популярных программных продуктов, обеспечивающих полный цикл анализа, проектирования и кодогенерации, являются автоматизированные инструменты серии Platinum technology (Logic Works): BPWin, ERWin, ModelMart, Paradigm Plus, RPTWin.

BPWin поддерживает методологию функционального моделирования IDEF0 для реорганизации производственно-экономических процессов и проектирования организационной структуры. Методология IDEF3 используется для разработки модели описания производственно-экономических процессов. Экспорт данной модели в BPSimulator позволяет создать имитационную модель и рассчитать ее характеристики. Методология функционально-стоимостного анализа (Activity Based Costing – ABC) используется для оценки затрат на реализацию производственно-экономических процессов.

Программный продукт ModelMart позволяет синхронизировать модели ERWin и BPWin, обеспечивая единый тезаурус, контроль версий, хранение репозитория моделей. Генератор отчетов RPTWin предназначен для создания презентаций моделей. Еще одним

преимуществом использования CASE-технологий является автоматизированная подготовка документации. Несмотря на то, что перечисленные инструментальные средства создают описательные модели, существует возможность реальной разработки. В частности, ERWin создает базу данных, а Paradigm Plus генерирует программный код на языке C++ или Java. Platinum technology включает инструментальные средства мониторинга сети (ProVision Network monitor), анализа производительности сервера баз данных (SQL Compass), тестирования структуры данных (Test bytes) и анализа производительности Web-сервера (FinalExam Webload). Помимо перечисленных CASE-средств, в процессе разработки информационных систем необходимы инструменты прогнозирования, оперативного планирования (например, Time Line) и программы оценки инвестиционного проекта (например, Project Expert).

Таким образом, использование CASE-технологий позволяет ускорить разработку комплексной ИСМОУ за счет решения ряда организационных проблем – взаимодействия между различными специалистами, этапами проектирования и отдельными компонентами информационной системы, создания документации, единства тезауруса и репозитория моделей.

Литература

1. Закиров А. А., Ишанходжаев Г.К. Концепция создания системного мониторинга производственно-экономической деятельности НХК «Узбекнефтегаз» //Узб. журнал нефти и газа. 2002. №3.

2. Бекмуратов Т.Ф., Набиев О.М. Основные принципы создания системы мониторинга и управления в многоуровневых производственно-экономических комплексах// Сборник научных статей Международной научно-практической конференции “Инновация-2003”. Ташкент.-2003.

TA’LIM TIZIMIDA O‘QUV JARAYONING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ARALASH TA’LIMNI O‘RNI

Normatov Otaxon Masharibovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
normatovmo@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192932

Annotatsiya*: Maqolada aralash ta’limning modellari yoritib berilgan hamda xorijiy ta’lim muassasalarida qo‘llanilishi qisqacha bayon qilingan. Modellarning qo‘llanilishi hamda ta’limga qanday ta’sir o‘tkazishi, texnologiyalardan samarali foydalanish keltirilgan bo‘lib, ularning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Bu usullarni amalga oshirishda yuzaga keladigan*

muammolarni yoritib beradi. Aralash ta’lim modellari hamda sub-modellari, ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan usullari aynan qaysi modelda qanday natija va resurslardan optimal foydalanilishi keltirilgan.

***Kalitli so‘zlar**: aralash ta’lim, aralash ta’lim modellari, Mixed block model, Rotatsiya modeli va sub-modellari, individual rotatsiya, aylanma sinf (Flipped classroom), Flex, A La Carte, boyitilgan virtual yondoshuvlar.*

Aralash ta’lim (Blended Learning) 1990-yillarning oxirlarida internet va veb-saytlar ommalashganidan beri mavjudimkoniyatlardan kelib chiqib ommalashish bosqichlaridan o‘tib kelmoqda. [1] Bu davrda har bir ta’lim muassasasi o‘z sharoitlari va ehtiyojlariga mos keladigan aralash ta’lim modelini ishlab chiqgan, bu esa o‘quv jarayonini tadqiq qilishda qiyinchiliklar tug‘dirgan. Tadqiqotchilar aralash ta’limni aniqroq ta’riflashga harakat qilishgan bo‘lsada, turli xil yondashuvlar natijasida bir xil tushuncha va chegaralarni aniqlash qiyin bo‘lgan. Shu sababli, bu modelni tushunishda o‘zaro kelishmovchiliklar yuzaga kelgan.

Clayton Christensen institutining ta’rifiga ko‘ra, aralash ta’lim (BL) K-12 darajasidagi ta’lim dasturi bo‘lib, unda o‘quvchilar vaqt, joy, o‘qish yo‘nalishi va sur’atini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu modellarda onlayn ta’lim ta’lim muassasalarda o‘qituvchi nazorati ostidagi xonada o‘qitilishi bilan birgalikda olib boriladi. Kurs yoki mavzudagi har bir o‘quvchining o‘quv yo‘li o‘zaro bog‘langan bo‘lib, yaxlit ta’lim tajribasini ta’minlaydi.

Aralash ta’lim (BL) o‘quvchilarning o‘zlashtirishini yaxshilash, ta’limda moslashuvchanlik va qulaylik yaratish, shuningdek, xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Ammo bunday natijalarga erishish uchun sifatli aralash ta’lim dizayni zarur. Ushbu dizayn quyidagi yetti muhim elementni o‘z ichiga olishi kerak: **o‘qituvchi, o‘qitish sur’ati, tayyorgarlik, ishtirok, shaxsiy muloqot, moslashtirish va joy**. Bu elementlar orqali o‘quvchilar muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.[2]

COVID-19 pandemiyasi davrida ta’lim muassasalar aralash ta’lim (BL)ning ahamiyatini ta’kidladilar va bu usul pandemiyadan keyin ham muhim bo‘lib qoldi.[4] BL o‘quvchilarni noaniq vaziyatlarga tayyorlash va bilimga asoslangan iqtisodiyot va ishchi kuchini shakllantirishga yordam beradi. Har qanday vaqtda, har qanday joyda ta’lim olishni ta’minlash uchun ta’lim tizimini qayta qurish zarur. BL moslashuvchan yondashuv bo‘lib, o‘quvchilar yoshiga, qobiliyatiga va o‘qitish natijalariga qarab moslashtirilishi mumkin.[3]

An’anaviy ta’lim asrlar davomida asosiy ta’lim shakli bo‘lgan. Ammo 2019-yilda sodir bo‘lgan COVID-19 pandemiyasi o‘qituvchilar an’anaviy ta’lim modellari samaradorligini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldilar. Shuning uchun aralash ta’lim modellari bu vaziyatga mumkin bo‘lgan yechim sifatida katta e’tibor qozondi. Biroq, aralash ta’limning samaradorligi asosan texnologiyaga bog‘liq. Texnologiya bo‘lmasa, masalan, o‘quvchilar onlayn o‘quv materiallariga kira olmasa, bu ularning o‘quv jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini cheklaydi.

Aralash ta’lim modellari

Turli muassasalar o‘zlarining ta’lim talablari uchun turli xil aralash ta’lim (BL) modellari yaratgan. Ushbu tadqiqot bu modellarning bir necha misollarini taqdim etadi. Hannon va Macken (2014) uchta BL modelini taklif qildi: “Rotation station”, “Mixed block model” (dastur oqimi modeli deb ham ataladi) va “Fully online model”.

Tiruchirappalli Milliy Texnologiya Instituti (NIIT) aralash ta’limni uchta turli modelga tasniflagan: ko‘nikma-yo‘naltirilgan, munosabat-yo‘naltirilgan va kompetentsiya-yo‘naltirilgan. [3]

d) Ko‘nikma-yo‘naltirilgan model o‘z-o‘ziga ta’limni o‘qituvchi yoki yordamchi qo‘llab-quvvatlashi bilan birlashtirib, aniq ko‘nikmalar hamda bilimlarni rivojlantiradi.
e) Munosabat-yo‘naltirilgan model turli voqealar va media orqali aniq xulq-atvorlarni rivojlantiradi.
f) Kompetentsiya-yo‘naltirilgan model o‘quv joyidagi kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun ish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash vositalarini, bilimlarni boshqarish resurslarini va birlashtiradi.

Ba’zi tasniflash modellari pedagogik xususiyatlarga emas, balki jismoniy xususiyatlarga e’tibor qaratadi. Biroq, so‘nggi modellarda tegishli pedagogik amaliyotlarga oid dizayn ko‘rsatmalari taqdim etilgan.

HyFlex modeli, shuningdek, gibrid moslashuvchan o‘qitish sifatida tanilgan, bu talabalarni darslarga shaxsan yoki masofadan qatnashish tanlovi bilan ta’minlaydigan aralash ta’lim turi. Ushbu yondashuv moslashuvchanlikni ustuvor qiladi, talabalar o‘zlarining talablariga muvofiq o‘z o‘qish traektoriyasini moslashtirishlariga imkon beradi.[6] HyFlex modeli talabalar uchun ko‘plab foydalar taklif qilishi mumkin. Masalan, an’anaviy yuzma-yuz dars tajribasini afzal ko‘rgan talabalar darslarga odatiy ravishda qatnashishda davom etishlari mumkin, masofaviy va moslashuvchan yondashuvni afzal ko‘rganlar esa istalgan joydan qatnashishlari mumkin. Bu talabalar ishtirokini va qoniqishini oshirishga, shuningdek, o‘rganish natijalarini yaxshilashga olib kelishi mumkin.[5]

TeachThought (2021) aralash ta’lim uchun o‘n ikkita turli modelni belgilaydi, jumladan, an’anaviy ta’limini onlayn faoliyatlar bilan to‘ldirish, yuzma-yuz va onlayn ta’lim o‘rtasida almashish, onlayn faoliyatlarni asosiy ta’lim shakli sifatida qo‘llash va ba’zan yuzma-yuz uchrashuvlar o‘tkazish, shuningdek, o‘z-o‘ziga aralashish, aylangan sinf, stansiya rotatsiyasi, laboratoriya rotatsiyasi, individual rotatsiya, boyitilgan virtual va “outside-in” kabi turli boshqa yondashuvlarni ichiga oladi.[7]

Rotatsiya Modeli

2013-yilda Clayton Christensen Instituti, avval Innosight Instituti sifatida tanilgan, aralash ta’limni (BL) innovatsiyalar nazariyasi nuqtai nazaridan o‘rganadigan bir maqola nashr etgan. Ular an’anaviy dars va onlayn ta’limning asosiy elementlarini birlashtiradigan tasnifni kiritgan va gibrid innovatsiyalarni aniqlagan. Yangi aralash ta’lim tasnifiga ko‘ra, Stansiya rotatsiyasi, Laboratoriya Rotatsiyasi va Aylangan Sinf yondashuvlari an’anaviy sinf usullari va onlayn ta’lim o‘rtasida muvozanatni saqlovchi gibrid innovatsiyalar sifatida tasniflanadi. Boshqa tomondan, Flex, A La Carte, Boyitilgan Virtual va Individual Rotatsiya modellari an’anaviy o‘quv tizimidan chetga chiqadigan va shu sababdan yanada o‘zgartiruvchi deb hisoblanadi [7].

Rotatsiya Modeli

Rotatsiya modelida talabalar darsda ta’lim olishlari va topshiriqlarni bajarishlari mumkin, shuningdek, mustaqil yoki masofadan offline materiallar yordamida ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ushbu yondashuv raqamli bo‘shliqlarni to‘ldirishga yordam beradi va barcha talabalar uyda texnologiyaga kirish imkoniyatidan qat’i nazar sifatli ta’lim olishlarini ta’minlaydi.

Flex yondashuvi talabalarning asosiy ta’lim shakli sifatida onlayn ta’limni ishlatishni o‘z ichiga oladi, lekin zarur bo‘lganda an’anaviy ta’lim faoliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Talabalar o‘zlarining moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan rejalari bo‘yicha turli o‘qitish usullaridan foydalanib, oldinga siljiy olishadi. Talabaning akademik taraqqiyotiga javobgar bo‘lgan o‘qituvchi o‘qish joyida shaxsan mavjud bo‘ladi.

A La Carte yondashuvi talabalar Internet orqali to‘liq bir yoki bir nechta kursni belgilangan onlayn o‘qituvchi bilan tugatishlariga imkon beradi, shu bilan birga an’anaviy shaxsiy ta’lim faoliyatlarida ishtirok etishlariga imkon yaratadi. Ushbu onlayn kurslar jismoniy ta’lim muassasalarida yoki masofadan o‘qilishi mumkin.

Boyitilgan Virtual yondashuvi talabalarga an’anaviy ta’limga jismoniy ishtirok va kurs materiallari va ta’limni onlayn taqdim etish orqali masofadan o‘qish o‘rtasida vaqtni taqsimlaydigan keng qamrovli ta’lim yondashuvini taklif etadi, bu har bir fan, masalan, matematika uchun qo‘llaniladi.[7],[8]

Rotatsiya Modelining Sub-modellari

Umirzakov Bahodir Mamadiyorovich
(TSUE, center for digital learning technologies, director)
https://doi.org/10.5281/zenodo.14224063

Abstract - *with the intensive development of telecommunication infrastructure and integration into international networks, information security in data transmission networks is becoming increasingly relevant. However, at present, methods for quantitative assessment of information security in data transmission networks are lacking, even though such methods exist for most other quality of service indicators (accuracy, speed, and reliability). The integrity indicator, unlike traditional accuracy, takes into account the influence of both random and intentional security threats. This paper presents a simulation model for assessing security during random and intentional integrity violations and calculating the weight spectrum of cyclic redundancy codes.*

Keywords - *Information security, integrity, weight spectrum, error rate, cyclic code, packet loss.*

INTRODUCTION

The intensive development of information infrastructure, based on high-speed data transmission systems (SPDs), has led to the emergence of a number of scientific problems, including those related to information security, which are among the most complex and knowledge-intensive. The introduction of new data transmission technologies requires a comprehensive approach to ensuring the information security of high-speed SPDs.

Information security in SPDs refers to the degree of protection of their information sphere from information security threats, leading to the deterioration of the specified qualitative characteristics of SPD operation, and thus causing harm to its users or owners.

The information sphere of SPD consists of:

- The informational resources of SPD (stored, processed, and transmitted data);
- The informational infrastructure (software, protocols, interfaces, procedures that support the functioning processes of the SPD, etc.).

The widespread use of foreign technologies and equipment in data transmission networks makes them particularly vulnerable to the use of information warfare. This is because the complex software used in these systems, whose source codes are not provided, makes systems and data transmission networks opaque to detailed monitoring. As a result, operators cannot know everything embedded in the equipment, which increases the likelihood of dangerous undocumented impacts, since the equipment and/or its software may include features that can be triggered by external commands or at a designated time.

In new international standards and recommendations from the International Organization for Standardization (ISO), the International Telecommunication Union (ITU), the European

Telecommunications Standards Institute (ETSI), and others, information security is considered as one of the quality of service indicators for data transmission networks. However, currently, there are no methods for the quantitative assessment of information security in telecommunications networks, although such methods are available for most other quality of service indicators (accuracy, speed, and reliability).

Let us consider the parameters that characterize the quality of operation of a data transmission network, which are divided into two groups. The first group includes parameters that characterize quality criteria such as speed, and the second group includes accuracy and reliability.

One of the most important accuracy criteria is the error rate. The degree of correspondence between the received and transmitted message is characterized by the concept of accuracy. A quantitative characteristic of accuracy is the error coefficient Kerror, determined as the average number of errors n_{error} (incorrectly received elements) to the total number of elements n_{tran} transmitted during the test session.

$$K_{error} = \frac{n_{error}}{n_{tran}}$$

The main parameters characterizing QoS in IP networks are:

- packet transfer delay;
- packet delay variation (jitter);
- packet loss ratio;
- packet error ratio.

IP packet delivery parameters:

- IP packet transfer delay (IPTD);
- IP packet delay variation (IPDV);
- IP packet loss ratio (IPLR);
- IP packet error ratio (IPER).

Analysis shows that currently, information security in telecommunications networks does not have a quantitative assessment, whereas most other quality of service indicators (accuracy, speed, and reliability) do.

As a result, more attention is being paid to the task of ensuring the quality of telecommunications services in the presence of possible intentional and unintentional impacts on the transmitted user and control information. Therefore, the main goal of ensuring information security in telecommunications networks is to maintain such security characteristics as integrity and availability in the presence of intentional and unintentional threats to the information sphere.

In the ITU-T recommendations (X.800), the following definition is provided: "Data integrity is an indicator that data has not been altered or destroyed in an unauthorized manner during transmission through communication systems (networks). Data (information) integrity means that the data is protected from unauthorized alteration, deletion, creation, and duplication, and that attempts to perform such unauthorized actions are indicated."

It should be noted that traditional quality parameters characterize the impact on service quality of random processes (noise, distortions, aging processes of devices and line structures, errors by operating personnel, and other causes), whereas information security parameters

characterize intentional actions by malicious actors aimed at distorting the transmitted information, its destruction, and the introduction of false information.

To determine the possibility of violating information integrity in the presence of security threats, a simulation model is presented. The simulation model allows for simulating integrity violations under random and intentional threats and generating results. The attack on DTN (high-speed data transmission systems) is presented in Figure 1.

The algorithm for analyzing integrity control methods consists of:

- A random data string generator;
- An algorithm for calculating cyclic redundancy codes;
- A method for marking the transmitted message;
- A simulation of integrity violations under random and intentional security threats;
- A receiver part that determines the possibility of error undetection.



Fig. 1. Attack on DTN

The message marking method allows for the detection of malicious actions. If an attacker knows that the transmitted message is being checked for integrity using one of the integrity control algorithms, the integrity check for this message will include 4 extra bits (the marker), which, in turn, will be detected by the program during message analysis, as the program uses the integrity control calculation data without considering the last 4 bits. The format of the formed message is shown in Figure 2.



Fig. 2. View of the Formed Message

A marker consisting of 4 bits is added to the message, calculated as the sum of every second bit of the data block. That is, if the message consists of 8 bits, then M = 2nd bit + 4th bit + 6th bit + 8th bit, where M is the marker.



Fig. 3. Simulation model for assessing security in the case of random integrity violations of information



Fig. 4. Simulation model for assessing security in the case of intentional integrity violations of information

The encoding methods discussed above were developed for conditions involving random interference on stored, processed, and transmitted information (data). In cases of intentional attacks, the discussed encoding methods should be used in conjunction with cryptographic transformation methods, creating conditions where the best strategy for the attacker, for example, to introduce undetectable errors into the transmitted message, ensures the greatest benefit to the attacker.



Fig. 5. Simulation model for assessing security in the case of random integrity violations using cyclic redundancy code



Fig.6. Simulation model using the message marking method in the case of an intentional security threat

Simulation Modeling of Integrity Violation Threats Revealed the Following:

- In the case of random security threats, there is a 10-15% chance that undetected errors may occur in transmitted packets, which could lead to integrity violations. To reduce the probability, generating polynomials with higher code distances should be used—this is achieved by selecting polynomials of higher degree.
- In the case of intentional threats, the attacker may receive a packet, modify the data, and if they know the algorithm used for integrity checking, they could recalculate the cyclic redundancy code, so the error will not be detected upon reception.
- When using the message marking method, the probability of detecting errors significantly increases.

Conclusion

Based on the results obtained in this work, the following conclusions can be made:

- To prevent an attacker from finding generating combinations, generating polynomials with higher code distances should be used. This can be achieved by introducing polynomials of higher degree.
- To prevent the extraction of a sequence from the array, two-level encryption using direct and reverse codes can be applied, which will eliminate the possibility of undetectable errors.
- The method of frequently changing the generating polynomial allows an attacker to determine the polynomial but prevents them from modifying it because a different

polynomial will be in effect by the time of decryption. This allows an attacker to apply stream inversion and identify the location of the violated message.

- The method of changing the marker's position will not allow the attacker to mask data modifications as authentic because the changes will be incorrectly encrypted, as in the method with frequent changes in the generating polynomial.

1. Шварцман В.О. Взаимосвязь характеристик качества услуг и характеристик информационной безопасности систем сетей связи// Век Качества.- 2007.- 1.
2. R.X. Djuraev, B.M. Umirzakov, R.R. Raxmatov Experimental analysis of QoS parameters in data transmission networks. Perspectives for the development of information technologies PA – 2014, 4 – 5 november, Tashkent – 2014
3. R.X. Djuraev, B.M. Umirzakov Model of assessment of risks of information security in the environment of cloud computing. 2016 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). 02-04 November 2016
4. Botirov S. R., Djuraev R. Kh. Analysis of Information Security Evaluation Models in the Cloud Computing Environment. 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT).

KORXONA FAOLIYATINING IMITATSION MODELI

Urokov Shavkat Ravshanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, if.n.,
E-mail: sh.urokov@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.14226941

Annotatsiya. *Pillachilik tarmog‘ini samarali bopshqarishni takomillashtirish, tarmoqda bozor munobatlarini chuqurlashtirish va korxonalarning eksport salohiyatini oshirishning imitatsion modeli ishlab chiqilgan. Maqolada pillachilikning ozuqa bazasi tarkibini hamda pilla tayyorlashni bashorat qilishning algoritmlari va modellarini ishlab chiqish qaraladi.*

Kalit so‘zlar: *imitatsion model, optimallashtirish, pillachlik kompleksi, model ishlab chiqish, axborot muloqot tizimi.*

Kirish. Pillachilik tarmog‘i ozuqa bazasini yaxshilash masalasini to‘liq hal etish tegishli Davlat tashkilotlarining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatiga hamda Hukumatning ozuqa bazasini mustahkamlash bo‘yicha sug‘oriladigan maydonlarni ajratuvchi mas’ul mahalliy tashkilotlarning samarali faoliyatiga bog‘liq.

Asosiy e’tibor, ipak qurtining yuqori hosildorlikka ega zot va duragaylarini joriy etish; sifatli ipak qurti urug‘ini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish; mavjud ipak xom-ashyosi ishlab chiqarish quvvatini yaratish, ipak qurtini qayta ishlashni tashkil etish, ipak qurti urug‘i va pilla ishlab chiqarish, pilla tayyorlash va unga dastlabki ishlov berishni yangilash asosida ipak qurti va pilla ishlab chiqarish hamda pilla tayyorlash va unga dastlabki ishlov berishga qaratilgan.

Asosiy qism. Pillachilik tarmog‘i samaradorligini oshirishda ozuqa bazasini mustahkamlash va foydalaniladigan tutzorlar holatini yaxshilash muhim rol o‘ynaydi. Pilla ishlab chiqarishni rivojlantirish dinamikasi va mavjud tuzilmasi pilla ishlab chiqarish hajmi va pillachilik kuch tuzilmalarini bashorat qilishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bunday holat olingan turli bashorat natijalariga ko‘ra boshqaruv qarorini qabul qilish qiyinlik tug‘diradi [1].

Pillachilik tarmog‘i maqbul faoliyatini tashkil etishda axborot texnologiyalari, ya’ni matematik modellashtirish, ma’lumotlar bazasi va kompyuter dasturlar majmuini foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi [2]. Ushbu maqsadda pillachilik tarmog‘ining ozuqa bazasi tarkibini bashorat qilish va pilla ishlab chiqarishning algoritm hamda modellari ishlab chiqilgan.

Korxona ishlab chiqarishining imitatsion modeli. Korxonaning t vaqtdagi faoliyat turi aniqlanadi. Bu jarayon mantiqiy o‘zgaruvchilardan foydalangan holda amalga oshiriladi. $\delta_{kb}^{P}, \delta_{g}^{P}, \delta_{k}^{P}, \delta_{sh}^{P}, \delta^{K}$ va δ^{I} o‘zgaruvchilar tanlanmaga bog‘liq ravishda 0 yoki 1 qiymat qabul qiladi. Mazkur o‘zgaruvchilar korxonaning texnologik xususiyatlarini tasvirlash zaruriyati sababli kiritiladi: u keltirilgan faoliyat turlaridan yoki alternative yoki aralash strategiyani tanlaydi. O‘z navbatida, qaralayotgan ob’ektni sinflarga ajratishdagi o‘zgarishlarni tasvirlashga imkoniyat beruvchi moslashuvchan ishlab chiqarish funktiyasidan foydalanuvchi korxona modeli sifatida faraz qilish mumkin.

Quyidagi formulalarda 0 qiymat qabul qiluvchi o‘zgaruvchilar - ishlab chiqarish hajmi va xarajatlari 0 qiymat qabul qiladi, ya’ni mos ravishda mazkur faoliyat turi uchun foyda 0 ga teng bo‘ladi, ularning yagona qiymati uchun bu ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Pillachilik majmui xarajatlari bloki.

Iste’mol funktsiyasi tarkibiy boshqarishdan iborat bo‘ladi:

$$D = \lambda_1 + \lambda_2 P + \lambda_3 P_{-1} + \lambda_4 (W' + W''),$$

bu yerda D- xarajatlar, P- foyda, P_{-1} – oldingi davrdagi foyda, W' -pillachilik kompleksining agrar sektoridagi ish haqqi, W'' -pillachilik kompleksining ishlab chiqarish sektoridagi ish haqqi.

Ish haqqini hisoblash funktsiyasi tarkibiy boshqarishdan iborat bo‘ladi:

$$W = \gamma_1 + \gamma_2 (Y + T) + \gamma_3 (Y + T)_{-1},$$

bu yerda Y - ipak ishlab chiqarish, T - bilvosita soliqlar, I-investitsiya va $Y + T = D + I$.

Ta’lim resurslari bloki.

Ishlab chiqilgan dinamik model qaralayotgan jarayonni dinamik rivojlanishini ifodalovchi omillar, ya’ni tut ko‘chatlari navlarini va ularni tabiiy nobud bo‘lishini inobatga olgan holda ilmiy asoslangan ekish turi hamda maqbul sxemasini tanlashni o‘z ichiga oladi:

$$\begin{cases} F = -Fh - S^{+} \\ F_1 = Fh - S^{-} \end{cases},$$

bu yerda F – tut ko‘chatlari ekiladigan yer maydoni, F_1 – ekilgan tut ko‘chatlari maydoni, S^{+} - ekspluatatsiya qilinadigan tut ko‘chatlari maydoni, S^{-} - yaroqsis tut ko‘chatlari maydoni, h - Xevisaydo funktsiyasi.

Xom-ashyolarni taqsimlash bloki.

Pillachilik tarmog‘i faoliyati quyidagicha rasmiylashtiriladi:

- pillachilik tarmog‘ida taqsimlash jarayoni har biri ishlab chiqarishning tayin turi bilan bog‘liq n ta faoliyat ko‘rinishida tasvirlanadi;

- har bir faoliyat A_j – ustun-vektor orqali belgilanadi, bunda uning har bir elementi faoliyat natijalarini va bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun xom-ashyo sarfini tavsiflaydi;

- ishlab chiqarishning asosiy ko‘rsatkichi sifatida xariddan olingan foyda olinadi;

- pillachilik tarmog‘ida ishlab chiqarish uchun xom-ashyoning m ta turi ajratiladi;

- xom-ashyolarni umumiy holda mehnat, material va energiya ko‘rinishdagi xom-ashyolarga ajratiladi, i-resurslar yig‘indisi b_i orqali belgilanadi;

Xom-ashyoni chegaralanganlik sharoitida kam xom-ashyo sarf qilinadigan faoliyat samarali hisoblanadi.

Keltirilgan shakllantirishlarni hisobga olgan holda xom-ashyolarni taqsimlash va qayta taqsimlash modeli uchun yuqori foyda olish talab etiladi:

a) xom-ashyo taqsimlash modeli.

Faoliyatlar tizimi indikatori quyidagi funktsiya ko‘rinishida tasvirlanadi:

$$F(x) = \sum_{j=1}^{n} a_{ij}\, x_j \ (i = 1)$$

Bunda xom-ashyo chegaralanganligi va ulardan to‘liq foydalanish sharti qiuyidagi ko‘rinishda tasvirlanadi:

$$\sum_{j=1}^{n} a_{ij}\, x_j = b_i \ \ (i = 2,3, \dots)$$

O‘zgaruvchilar nomanfiy aniqlangan bo‘ladi: $x \geq 0$

Barcha ajratilgan xom-ashyolardan foydalangan holda F ning berilgan qiymatini ta’minlovchi tizim faoliyatining nomanfiy $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$ vektorini topish talab etiladi.

Masalani yechish uchun daturlar majmui yaratilib, chiziqli model ishlab chiqildi.

b) Xom-ashyoni maqbul taqsimlash modeli.

Maqbullik mezonlari:

$$F(x) = \sum_{j=1}^{n} a_{ij}\, x_j \rightarrow max \ (i = 1)$$

Chegaraviy shartlar:

$$\sum_{j=1}^{n} a_{ij}\, x_j \leq b_i$$

O‘zgaruvchilarning nomanfiy bo‘lishi: $x \geq 0$

Modelnin qtadbiq etish uchun dasturiy ta’minot ishlab chiqildi. Natijada xom-ashyo chegaralanganlik sharoitida turli yechimlar topiladi.

Ishlab chiqarish faoliyati bloki.

pillachilik tarmog‘ida mahsulot ishlab chiqarish Q orqali belgilanadi, bunda Q - to‘liq xom-ashyo almashinuvidan foydalangan holda ishlab chiqarish funktsiyalari orqali tavsiflanadi:

$$Q = F(x_1, x_2, \dots, x_n) = \sum_{i=1}^{n} a_i\, x_i,$$

bu yerda x_i – ozuqa bazasi xom-ashyosi.

Pilla ishlab chiqarishni neoklassik ishlab chiqarish funktsiyalari yordamida tasvirlash mumkin:

$$Q = F(x_1, x_2, \dots, x_n) = \prod_{j=1}^{n} {x_j}^{a_i}\ , \sum_{i=1}^{n} a_i \leq 1.$$

Ipak mahsulotlari ishlab chiqarish xom-ashyoning to‘liq to‘ldirilishini hisobga oluvchi ishlab chiqarish funktsiyalari orqali tavsiflanadi:

$$Q = F(x_1, x_2, \dots, x_n) = min\left\{\frac{x_1}{a_1}, \frac{x_2}{a_2}, \dots, \frac{x_n}{a_n}\right\}$$

Xulosa. Ishlab chiqilgan dasturiy ta’minot pillachilik tarmog‘i mutaxassislariga ko‘p o‘lchovli bashorat natijalari olishni amalga oshirishlariga imkon beradi. Ishlab chiqilgan modellar tizimi asosida pillachilik ozuqa bazasi tarkibining maqbul variantini aniqlash, axborot texnologiyalari asosida pilla ishlab chiqarishning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini bashorat qilishga imkoniyat yaratadi. Mazkur imitatsion modellar tizimidan pillachilik kompleksini boshqarishning barcha jabhalarida foydalanish mumkin.

Ishlab chiqilgan imitatsion modellar tizimi tajribalarni modellashtirish, ya’ni nazorat parametrlarining qiymatlarini o‘zgartirishga hamda korxonalar faoliyatining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qulaylik yaratuvchi turli yo‘nalishlarini aniqlashga imkoniyat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bogoslovsky, V. V. Prediction of productivity, adaptation capacity of species and hybrids of the silkworm for enzyme systems and proteins spectra the Text.: dissertation of candidate of biological Sciences/ Theological. Stavropol, 2009.

2. Gasifier system for silk industry. http://www.terrin.org/case/silk.htm.- 1/2/2004.-C. 1-5.285. hybrids weave silken chase. http://www deccanherald.com/deccanheral. -2004. C. 2-4.

3. Muhamediyeva D.T., Urokov Sh. Imitation Model of Activity of the Industrial Complex // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE), ISSN: 2278–3075 (Online), Volume-9 Issue-2, December 2019, Page No. 2530-2533.

OMBORXONA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA WMS TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Raimqulov Bekzod Abdiqayum o‘g‘li
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti
2-kurs MBA-01 guruhi magistranti
bekzodraimqulov7@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14226946

Annotatsiya. *Ushbu maqolada omborxonani WMS tizimi yordamida boshqarish samaradorligini oshirish hamda WMS tizimining afzalliklari tadqiq etilgan. Tadqiqotda WMS tizimining ombor jarayonlariga ta’sirini, uning samaradorlik, tezkorlik, inventarizatsiya aniqligi va xarajatlarni kamaytirish borasidagi afzalliklarini o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada WMS tizimini joriy qilish jarayonidagi muammolar va yechimlar ham yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *Omborxona boshqaruvi, WMS tizimi, samaradorlik, avtomatlashtirish, logistika, inventarizatsiya, xarajatlarni kamaytirish.*

Kirish:

Bugungi raqobatbardosh bozor sharoitida mahsulotlarni o‘z vaqtida va sifatli yetkazib berish, omborxona jarayonlarining aniq hamda samarali tashkil etilishi dolzarb vazifa hisoblanadi. Respublikada raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda [1].

Omborxona boshqaruvi bugungi kunda logistika va ta’minot zanjirining muhim qismi hisoblanadi. Raqobatbardosh bozor sharoitida tovarlarni o‘z vaqtida va sifatli yetkazib berish kompaniyaning muvaffaqiyati uchun asosiy omillaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bunday sharoitda omborxona samaradorligini oshirish, jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish har qanday biznes uchun dolzarb masaladir. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirish imkoniyatlaridan foydalanmaslik ombor faoliyatida ortiqcha xarajatlarga, xatoliklarning ko‘payishiga va samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

WMS (Warehouse Management System) tizimi – bu omborxona jarayonlarini boshqarish va avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minot bo‘lib, inventarizatsiya, saqlash, yuk tashish va boshqa logistika jarayonlarini yaxshilashga xizmat qiladi. WMS tizimi yordamida omborda mahsulotlarni joylashish va ko‘chirish jarayonlari aniq va samarali tashkil etiladi. Ushbu tizim nafaqat jarayonlarni optimallashtirishni, balki mavjud resurslardan oqilona foydalanishni ham ta’minlaydi, buning natijasida xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkoni paydo bo’ladi.

Kompaniya o‘zining faoliyat turi, jarayon murakkabligi, byudjeti va texnologiyaga bo‘lgan talablarga qarab o’ziga mos WMS tizimini tanlashi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Omborxona boshqaruv tizimlari, xususan WMS tizimini samaradorligini ko’plab olimlar tadqiq etishgan. Xususan, J. Heizer, B. Render, C. Munson o‘z izlanishlarida ta’kidlashicha, WMS tizimi – ombordagi operatsiyalarni samarali boshqarish, xarajatlarni kamaytirish, xatoliklarni minimallashtirish va mahsulotlarni tezkor izlashni ta'minlaydi. Bu tizim, shuningdek, inventarizatsiyaning aniqligini oshiradi va ombor joylashuvini optimallashtiradi [2].

J. Chang, K. Lee va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, WMS tizimi inventarizatsiya jarayonini avtomatlashtirish orqali aniqlikni 99% gacha oshiradi. Bu tizim mahsulotlarning omborda mavjudligini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi [3].

J. Stevens va P. Anderson o‘z tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, WMS tizimini joriy qilish natijasida ishchilarning samaradorligi 15-25% ga oshadi, qo‘l mehnatiga bo‘lgan ehtiyoj esa 30-40% ga kamayadi. Bu avtomatlashtirilgan jarayonlar tufayli erishilgan [4].

D. Brown, L. Smith va R. Johnson tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda, WMS tizimining joriy qilinishi ortiqcha mahsulot zahiralarini 10-15% ga kamaytirishga yordam berganligi

aniqlangan. Tizimning real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatlari ortiqcha zahiralarni oldindan aniqlashga yordam beradi [5].

F. Martinez va A. Lopez tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida, WMS tizimi komplektatsiya jarayonini 2-3 marta tezlashtirish va xatoliklarni 50-60% ga kamaytirishga yordam beradi [6].

K. Smith va S. Carter o‘z tadqiqotlarida WMS tizimi mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishini ta’kidlashdi. Tovarlarning real vaqt kuzatuvi va tezkor yetkazib berish mijozlarning qoniqish darajasini 20-25% ga oshiradi [7].

H. Kim va Y. Wang o‘z izlanishlarida WMS tizimi yordamida ma’lumotlarning aniqligi va tahlil qilish imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilanganligini ko‘rsatdi. Bu tizim orqali katta hajmdagi ma’lumotlar tahlil qilinadi va samarali qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi [8].

Bizning fikrimizcha, WMS joriy etilishi natijasida ombor jarayonlarida aniqlik va tezkorlik ortishini, inventarizatsiya aniqligining o‘sishini va xatoliklarning kamayishiga erishiladi.

WMS tizimlari biznesning turli o’lchamlariga qarab turlicha bo’lishi mumkin. Quyida WMS tizimlarining turlarini keltirib o’tamiz:

1-jadval

WMS tizimlarining asosiy turlari

Mustaqil (Stand-Alone) WMS	•Bu mustaqil ishlaydigan, faqat ombor operatsiyalarini boshqarish uchun mo‘ljallangan dasturiy ta'minotdir. U boshqa tizimlarga integratsiyani talab qilmaydi.
ERP Integratsiyalashgan WMS	•WMS ERP (Enterprise Resource Planning) tizimining bir qismi sifatida ishlaydi.
Bulut asosida (Cloud-Based) WMS	•Ushbu tizim internet orqali ishlaydi va saqlanadi, ya'ni "SaaS" (Software as a Service) modeli asosida.
Katta hajmdagi WMS (Complex Enterprise WMS)	•Katta miqyosdagi korxonalar uchun mo‘ljallangan va kengaytirilgan funktsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydigan tizim.
Sanoatga xos WMS (Industry-Specific WMS)	•Maxsus soha yoki sanoat talablariga moslashtirilgan tizim. Masalan, farmatsevtika, oziq-ovqat yoki chakana savdo uchun.
Gibrid WMS	•Bu bulut va mahalliy (on-premises) tizimlar funksiyalarini birlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Ushbu tadqiqotda omborxona samaradorligini oshirishda WMS tizimidan foydalanishni afzalliklarini o‘rganish uchun ilmiy va amaliy manbalardan ma’lumot yig‘ilib, tizimning funksiyalari va samaradorlikka ta’siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan. Kuzatuv metodi orqali WMS tizimining holati baholandi va abstrakt-mantiqiy fikrlash orqali tegishli xulosalar shakllantirildi. Tahlil natijalariga

asoslanib, WMS tizimidan foydalanishning afzalliklari va omborxona samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil natijalari:

Bugungi kunda WMS tizimi turli sohalarda keng qo‘llanilmoqda, jumladan, e-tijorat, logistika, ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash va boshqa tarmoqlarda. Quyida WMS tizimidan foydalanishda jahon tajribasini ko’rib chiqichimiz mumkin.

Amazonning gigant omborlari va ularning avtomatlashtirilgan tizimlari yordamida kompaniya buyurtmalarni tezda to‘g‘ri va samarali tarzda yetkazib beradi. Bu, o‘z navbatida, kompaniyaning raqobatbardoshligini oshiradi, buyurtmalarni tezda va aniqlik bilan bajarishga yordam beradi.

DHLning Yevropadagi Cherwell sog‘liqni saqlash markazi farmatsevtika mahsulotlarini boshqarishda WMS tizimidan foydalanadi. Bu tizim yordamida ular haroratni nazorat qilish va maxsus inventarizatsiya jarayonlarini amalga oshiradi.

Germaniyaning ishlab chiqarish kompaniyalari o‘zlarining ERP tizimlari bilan WMS tizimlarini integratsiyalash orqali ta'minot zanjirini boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirishmoqda.

WMS tizimlari sog‘liqni saqlash sohasida ham muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Masalan, WMS tizimlari yordamida, haroratga sezgir dori-darmonlarni va tibbiy asbob-uskunalarni boshqarish, shuningdek, ularning saqlanishi va tarqatilishi bo‘yicha talablarni samarali bajarmoqda.

Jahonning yirik kompaniyalari WMS tizimlaridan foydalanishi ushbu tizimning biznes uchun naqadar samarali ekanligini bilib olishimiz mumkin. Ayniqsa, ushbu tizimni sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va bulutli hisoblash kabi raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi WMS tizimlarini yanada samarali va moslashuvchan bo’lishiga ta’sir ko’rsatadi. Quyidagi 1-rasmdan WMS tizimining 2019-2024-yillardagi jahon bozoridagi qiymatini ko’rishimiz mumkin.



1-rasm. WMS tizimining 2019-2024-yillardagi jahon bozori qiymati va o‘sish sur’ati

2019-yilda WMS bozorining qiymati $2.94 milliardni tashkil etgan. Bu davrda, ko‘p kompaniyalar ombor avtomatlashtirish va texnologik echimlarga o‘tishni boshlagan. 2020-yilda pandemiya sababli e-tijoratning tez sur’atlarda o‘sishi WMS tizimlariga talabni oshirdi, natijada bozor hajmi $3.40 milliardga yetdi, yillik o‘sish sur’ati 15.65% bo‘ldi. 2021 va 2022-yillarda bozor mos ravishda $3.74 va $4.18 milliardga yetdi, o‘sish sur’ati nisbatan barqaror bo‘lib, 10-12% atrofida edi. 2023-yilda WMS bozori $4.74 milliardga yetdi, bu bulut texnologiyalariga asoslangan echimlarning keng tarqalishi va kichik va o‘rta bizneslar orasida ularni joriy etishining tezlashishi bilan izohlash mumkin. 2024-yilda bozor hajmi taxminan $5.61 milliardga yetishi kutilmoqda, bu o‘sish sur’atining yanada ortishi bilan bog‘liq.

Olib borilgan tadqiqot natijasida WMS tizimining omborxonalarni samarali boshqarishda bir qancha afzalliklarini ko‘rib chiqishimiz mumkin:

WMS tizimi inventarni real vaqt rejimida kuzatib borish orqali omborda mahsulotlarning aniq miqdorini ko‘rish imkonini beradi. Bu funksiyaning afzalliklaridan biri — mahsulotlar zaxirasida kamchiliklar yoki ortiqcha mahsulotlar muammosini kamaytirishdir. WMS yordamida zaxira darajasini aniq nazorat qilish mumkin, bu esa operatsion jarayonlarni optimallashtirishga va mahsulotning o‘z vaqtida buyurtmachiga yetib borishiga yordam beradi.

Masalan, real vaqt rejimidagi kuzatuv mahsulotlarning joylashuvi va miqdori bo‘yicha aniqlikni oshiradi, shuning uchun buyurtmalarni to‘g‘ri va samarali bajarish osonlashadi. Bu esa ortiqcha zahira yoki kamayib ketish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Natijada, ombor operatsiyalari yanada samarali tashkil qilinadi va logistika jarayonlari ham tejamkor bo‘ladi, bu esa kompaniya xarajatlarini kamaytiradi va mijozlarni qoniqtirish darajasini oshiradi.

WMS tizimi ombordagi ish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali buyurtmalarni yig‘ish, inventarni joylashtirish, va boshqa operatsiyalarni tezroq va samarali bajarishga imkon beradi. Avtomatlashtirish orqali ishchi kuchini yanada oqilona taqsimlash mumkin bo‘ladi, bu esa omborda mavjud ishchilarni boshqa muhim vazifalarga jalb qilish imkonini beradi.

Buyurtmalarni avtomatik ravishda to‘plash va joylashtirish jarayonlari xatoliklarni kamaytiradi va vaqtni sezilarli darajada tejaydi. Tizim har bir buyurtma bo‘yicha aniq yo‘riqnoma berib, qaysi mahsulotni qayerdan va qanday miqdorda olish kerakligini ko‘rsatadi. Bu esa ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirib, xarajatlarni kamaytirishga va ombor samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Avtomatlashtirish jarayonining yana bir afzalligi — buyurtmalarni bir necha marta tekshirishga ehtiyoj qolmaydi, chunki WMS tizimi real vaqt rejimida barcha operatsiyalarni kuzatib boradi. Shu orqali tezkor va sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi, mijozlar esa buyurtmalarini o‘z vaqtida qabul qilib oladilar.

WMS tizimi ombor hududidan samarali foydalanishga yordam berib, mahsulotlarni talab darajasi va aylanish tezligiga qarab joylashtirish imkonini beradi. Ushbu joylashtirish strategiyasi omborda ko‘proq mahsulot saqlash imkonini yaratadi, chunki mahsulotlar ombor ichida eng yaxshi joylarga joylashtiriladi va kamroq talab qilinadigan mahsulotlar chetki yoki pastki hududlarda saqlanadi.

Bu tizim bilan mahsulotlar omborning eng optimal joylariga joylashtiriladi, shuning uchun buyurtmalarni yig‘ish tezlashadi va vaqt tejashga erishiladi. Masalan, tez aylanuvchi mahsulotlar kirish-chiqish joylariga yaqinroq joylashtiriladi, bu esa ularni yig‘ish va yetkazib berish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Shu bilan birga, joylashuvlarni optimallashtirish orqali omborning umumiy sig‘imi oshadi, ya'ni ko‘proq mahsulotni bir vaqtning o‘zida saqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

WMS tizimi ombor operatsiyalari haqida batafsil ma’lumot va hisobotlar taqdim etib, rahbariyatga ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Zaxira miqdorlari, buyurtmalarni bajarish vaqtlari, va ishlab chiqarish samaradorligi kabi ko‘rsatkichlarni kuzatib, tizim inventar holati va ombor faoliyatining umumiy jarayonlarini to‘liq tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Rahbariyat ushbu ma’lumotlar asosida zaxiralarni qachon va qancha miqdorda to‘ldirish kerakligini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, buyurtmalarni bajarish vaqtlari bo‘yicha ma’lumotlar ishchi kuchini samarali taqsimlashda yordam beradi, chunki eng ko‘p talab qilingan vaqtlarda ishchilar sonini oshirish yoki ish vaqtini moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish va logistika jarayonlari ko‘rsatkichlari rahbariyatga operatsiyalarni optimallashtirish uchun kerakli o‘zgarishlarni kiritish va resurslardan to‘g‘ri foydalanish imkonini beradi.

Shunday qilib, WMS tizimi yordamida aniq ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish ombor jarayonlarini samarali tashkil etishga, xarajatlarni kamaytirishga va ish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu tizim kompaniya faoliyatining har bir bosqichida tahlil qilish va boshqarishni takomillashtiradi, natijada umumiy biznes natijalarini yaxshilaydi.

WMS tizimi yordamida buyurtmalarni tezroq va aniq bajarish mijozlarning qoniqishini oshirishga yordam beradi. Tizimning avtomatik yig‘ish, joylashtirish va buyurtmalarni to‘g‘ri tayyorlash kabi funksiyalari xatoliklarni kamaytiradi, bu esa mahsulotlarning noto‘g‘ri yetkazib berilishining oldini oladi. Mahsulotlar doimiy ravishda mijozlarga o‘z vaqtida va to‘g‘ri yetkaziladi, bu esa mijozlarning ishonchini oshiradi.

Tezkor yetkazib berish va buyurtmalarni aniq bajarish mijozlar bilan ijobiy munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Agar mijozlar doimiy ravishda o‘z buyurtmalarini o‘z vaqtida va xatosiz olishsa, ularning sodiqligi oshadi va ular qayta-qayta xizmatdan foydalanishga moyil bo‘lishadi. Shuningdek, WMS tizimi ombordagi jarayonlarni optimallashtirib, kompaniyaning umumiy samaradorligini oshiradi, bu esa mijozlarga eng yaxshi xizmat ko‘rsatish imkonini beradi
.

WMS tizimlarining moslashuvchanlik va kengayish imkoniyati kompaniyalarga o‘z o‘sishiga yoki mavsumiy talablarning o‘zgarishiga moslashish imkonini beradi. Ushbu tizimlar kengaytiriladigan bo‘lib, omborning o‘lchami, xususiyatlari yoki ishlash ehtiyojlari o‘zgarganida, tizimni osonlik bilan yangilash yoki kengaytirish mumkin.

WMS tizimi o‘zining kengayish qobiliyati bilan, mavjud resurslardan to‘liq foydalanishni ta’minlab, omborni samarali boshqarishga imkon beradi. Misol uchun, mavsumiy talabning oshishi bilan yangi mahsulotlarni kiritish, qo‘shimcha ishchilarni qo‘shish yoki yangi mahsulot turlarini boshqarishni osonlashtiradi. Bunday moslashuvchanlik omborni samarali va to‘g‘ri boshqarishga yordam beradi, natijada kompaniya ko‘proq mahsulotni qabul qilish va yetkazib berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, tizimning kengaytirilishi kompaniyalarga yangi omborlar yoki distribyutorlar bilan ishlashda qo‘shimcha moslashuvchanlikni taqdim etadi. Bu xususiyat kompaniyaning o‘sishi bilan birga tizimning har doim mos kelishini ta’minlaydi va biznesning davomiy muvaffaqiyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Sh bilan birga WMS tizimining bir qancha kamchiliklari ham bor. Ular quyidagilar:

WMS tizimi joriy etish va sozlash uchun yuqori boshlang‘ich xarajatlar talab qiladi. Bu tizimni tanlash, integratsiya qilish, va xodimlarni o‘qitish xarajatlari kichik va o‘rta bizneslar uchun qiyin bo‘lishi mumkin.

WMS tizimlarini joriy etish murakkab bo‘lishi mumkin, chunki bu tizimlarning ba'zilari keng qamrovli va yuqori texnik talablarni talab qiladi. Bu esa operatsion tizimlar, apparat va dasturiy ta'minotni yangilashni talab qiladi, bu esa mavjud resurslarni cheklaydi.

Ba’zi WMS tizimlari juda maxsus va moslashuvchan emas. Tizimni boshqa sanoat tarmoqlariga yoki o‘zgaruvchan talabga moslashtirish ba'zan qiyin bo‘ladi.

WMS tizimini boshqa tizimlar bilan integratsiya qilishda muammolar yuzaga kelishi mumkin, ayniqsa eski yoki moslashuvchan bo‘lmagan tizimlar bilan. Integratsiya jarayoni vaqt va resurslar talab qiladi, va ba'zi hollarda tizimlar o‘rtasidagi moslik muammolariga duch kelinishi mumkin.

WMS tizimi samarali ishlashi uchun xodimlarni to‘g‘ri o‘qitish zarur. Bu jarayon vaqt talab qilishi mumkin va xodimlarning yangi tizimni o‘zlashtirishi uchun ularga doimiy treninglar kerak bo‘ladi.

Shu bilan birga, ushbu kamchiliklar tizimni joriy etishda e'tiborga olinishi va ularni bartaraf etish uchun tegishli choralar ko‘rilishi kerak.

WMS tizimini joriy qilish xarajatlari va vaqti ularning turlariga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatidan kelib chiqqan holda WMS tizimlarini to‘g‘ri tanlashi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Quyida WMS tizimlarining asosiy turlarini joriy qilish xarajatlari va vaqtini ko‘rib chiqamiz:

Mustaqil (Stand-Alone) WMS tizimining dasturiy ta’minot litsenziyalari va boshlang‘ich joriy qilish xarajatlari $5,000 dan $50,000 gacha bo‘lishi mumkin. Bu kichik bizneslar uchun nisbatan arzon bo‘ladi. Oddiyligi sababli 1 oydan 3 oygacha joriy qilinadi va qo‘shimcha integratsiya talabi mavjud emas.

ERP Integratsiyalashgan WMS tizimining ERP va WMS tizimlarini integratsiyalash xarajatlari bilan $50,000 dan $500,000 gacha, yirik kompaniyalarda esa bir necha million dollar bo‘lishi mumkin. Murakkab integratsiya va moslashtirish talab qilinadi, shu sababli 6 oydan 2 yilgacha vaqt talab etiladi.

Bulut asosidagi (Cloud-Based) WMS tizimining oylik abonent to‘lovlari yoki yillik to‘lovlar bilan $500 dan $5000 gacha bo‘ladi. SaaS modeli orqali kichik boshlang‘ich xarajatlar talab qilinadi. 1 oydan 3 oygacha joriy qilinishi mumkin, chunki dasturiy ta’minot bulutda joylashgan va moslashuvchan bo‘ladi.

Katta hajmdagi WMS (Complex Enterprise WMS) tizimining xarajatlari $100,000 dan bir necha million dollargacha bo‘lishi hamda murakkab logistik funktsiyalar va avtomatlashtirish talab qilinadi. Katta miqyosdagi moslashtirish va integratsiya talab qilinadi, bu esa joriy qilish jarayonini 1 yildan 2 yilgacha cho‘zadi.

Sanoatga xos WMS (Industry-Specific WMS) tizimining xarajatlari $20,000 dan $250,000 gacha bo‘ladi. Soha talablariga moslash uchun qo‘shimcha xarajatlar bo‘lishi mumkin. Maxsus modifikatsiyalar talab etiladi, lekin umumiy tizim murakkab emasligi sababli 3 oydan 6 oygacha joriy qilinishi mumkin.

Hybrid WMS tizimining integratsiyasi va mahalliy-bulut aralash infratuzilma xarajatlari tufayli $50,000 dan bir necha yuz ming dollargacha yetadi. Bulut va mahalliy tizimlarni birlashtirish ko‘proq vaqt talab qiladi, shuning uchun joriy qilish jarayoni o‘rtacha 6 oydan 1 yilgacha uzoqlikda bo‘ladi.

Bu xarajat va vaqtlar kompaniyaning maxsus ehtiyojlariga va WMS ning qaysi darajada moslashtirilishi kerakligiga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin.

Xulosa va takliflar:

WMS tizimi bugungi kunda omborlarni samarali boshqarish va logistika jarayonlarini optimallashtirish uchun juda muhim vositadir. WMS tizimi yordamida operatsion samaradorlikni oshirish, inventarizatsiya aniqligini yaxshilash va ishchi kuchidan samarali foydalanish mumkin. Tizimning avtomatlashtirilgan jarayonlari, masalan, buyurtmalarni tez va aniq bajarish, joydan samarali foydalanish va resurslarni to‘g‘ri taqsimlash kompaniyalarga katta afzalliklar yaratadi. Bunda, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatlari rahbariyatga strategik qarorlar olishda yordam beradi, natijada kompaniyaning umumiy samaradorligi va raqobatbardoshligi oshadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, korxona WMS tizimini joriy qilganda quyidagi samaradorlik ko’rsatkichlariga ega bo’ladi:

- WMS tizimini joriy qilish inventarizatsiya aniqligini 99% gacha oshiradi;
- WMS tizimi avtomatlashtirilgan jarayonlar tufayli ishchilarning unumdorligini 15-25% ga oshiradi;
- Tovar zahiralarining ortiqcha miqdori 10-15% ga qisqaradi;
- Yaroqlilik muddati o‘tgan mahsulotlar soni 20-30% ga kamayadi;
- Ombor maydonidan foydalanish samaradorligi 10-20% ga oshadi;
- WMS tizimi joriy qilinganidan keyin umumiy operatsion xarajatlar 15-20% ga kamayadi;
- WMS tizimi joriy qilinganidan so‘ng yetkazib berish tezligi 25-30% ga oshadi;
- Mijozlarning qoniqish darajasi 20-25% ga ko‘tariladi;
- Ma’lumotlarni avtomatik yig‘ish va tahlil qilish jarayonlari 50-70% ga tezlashadi;
- Hisobotlar tayyorlash uchun ketadigan vaqt 40-50% ga qisqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli ““Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Heizer, J., Render, B., Munson, C. – Operations Management, Sustainability and Supply Chain Management (12th Edition, 2017). 441- 471.
3. Adabiyot: Chang, J., Lee, K., & Park, H. (2018). "Warehouse Management Systems and Inventory Accuracy: A Systematic Review." Journal of Logistics Research, 12(3), 45-58.
4. Adabiyot: Stevens, J., & Anderson, P. (2019). "Enhancing Labor Productivity through Warehouse Management Systems." International Journal of Supply Chain Management, 10(2), 85-99.
5. Adabiyot: Brown, D., Smith, L., & Johnson, R. (2020). "Optimizing Inventory Levels with Warehouse Management Systems." Journal of Operations Research, 15(4), 112-126.
6. Adabiyot: Martinez, F., & Lopez, A. (2021). "Improving Order Fulfillment with Advanced Warehouse Management Systems." Logistics and Supply Chain Review, 8(1), 50-65.
7. Adabiyot: Smith, K., Jones, T., & Carter, S. (2019). "Customer Satisfaction Improvement through Real-Time Warehouse Tracking Systems." Customer Experience Journal, 5(2), 78-90.
8. Adabiyot: Kim, H., & Wang, Y. (2020). "Data Accuracy and Analysis Capabilities of Warehouse Management Systems." Data Analytics and Logistics, 7(3), 35-52.
9. www.stat.uz
10. www.strategy.uz

TA’LIMDA IT TEXNOLOGIYALARI

Toshboyev Asliddin Baxrom o’g’li
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Iqtisodiyot va axborot texnalogiyalari fakulteti,
“Axborot tizimlari va texnologiyalari texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishi 4-23 guruh talabasi
asliddintoshboyev13@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14226951

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida IT texnologiyalarining ahamiyati va ularning ta’lim jarayonini takomillashtirishdagi roli tahlil qilinadi. Maqola O‘zbekistonda IT texnologiyalarining ta’limga ta’siri, ayniqsa, sun’iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik, shuningdek, Internet of Things (IoT) kabi texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari haqida so‘z yuritadi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning IT savodxonligini oshirish, o‘quvchilarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish va kelajakda ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish istiqbollari muhokama qilinadi. Tavsiyalar va xulosa qismida IT texnologiyalarini kengroq qo‘llash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar taklif qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *IT texnologiyalari, raqamli ta’lim, O‘zbekiston ta’lim tizimi, sun’iy intellekt (AI), virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), Internet of Things (IoT), blokcheyn texnologiyasi, o‘quvchilar rivojlanishi, o‘qituvchilar malakasi, masofaviy ta’lim, raqamli ko‘nikmalar, ta’lim platformalari, zamonaviy ta’lim metodlari, innovatsion texnologiyalar, ta’limda interaktivlik, ta’limni modernizatsiya qilish, raqamli iqtisodiyot, o‘quv jarayoni, kadrlar tayyorlash.*

Kirish

O‘zbekiston raqamli iqtisodiyot va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishga intilmoqda. Ushbu jarayonda IT texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ta’lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va zamonaviy qilib beradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi global rivojlanishning bir qismi sifatida o‘zgarishlar va yangiliklarga ehtiyoj sezmoqda. IT texnologiyalar, jumladan, internet, multimedia vositalari va dasturiy ta’minotlar, ta’lim jarayonini yanada samarali qilishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o‘qituvchilarning professional malakasini yuksaltirishda IT texnologiyalarining ahamiyati alohida o‘ringa ega.

O‘zbekiston hukumati tomonidan ta’lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha ko‘plab tashabbuslar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, zamonaviy o‘quv dasturlari, onlayn ta’lim platformalari va raqamli resurslarning joriy etilishi nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini osonlashtiradi, balki o‘qituvchilarga ham zamonaviy uslublar va metodologiyalarni qo‘llash imkonini beradi.

Ushbu maqolada IT texnologiyalarining O‘zbekiston ta’lim tizimidagi o‘rni, imkoniyatlari, real misollari va istiqbollari haqida so‘z yuritamiz. Buning orqali biz raqamli ta’limning qanday o‘zgarishlar keltirishi, yangi imkoniyatlar ochishi va kelajak avlodlar uchun qanday istiqbollar

yaratishi mumkinligini tahlil qilamiz. O‘zbekiston ta’lim tizimida IT texnologiyalarining o‘rni haqida chuqurroq ma’lumot berish, ushbu sohadagi eng yaxshi amaliyotlarni ko‘rsatish va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini baholash maqsadida, maqolamizda bir qator misollar va tahlillar keltiriladi.

Ta’limda ITning ahamiyati

O‘zbekiston uchun raqamli ta’lim, ayniqsa, pandemiya davrida muhim o‘rin egalladi. Masofaviy ta’lim imkoniyatlari oshib, bir qator onlayn o‘quv platformalar yaratildi. Misol uchun, O‘zbekiston ta’lim vazirligi tomonidan my.uzedu.uz platformasi tashkil etildi, bu esa o‘quvchilarga masofaviy ta’lim olish imkoniyatini berdi. Shu bilan birga, mamlakatda 2022-yil holatiga ko‘ra, ta’lim tizimida IT dasturlari bo‘yicha o‘quvchilar soni yiliga 25 foizga oshgani kuzatildi, bu esa IT ta’limga bo‘lgan qiziqishning yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar

O‘zbekiston ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash jarayoni kuchayib bormoqda. Bu jarayon o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish, o‘qituvchilarni malakasini oshirish va ta’limni innovatsion tarzda rivojlantirish maqsadida amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston ta’limida qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ega:

1. Masofaviy ta’lim platformalari

O‘zbekiston ta’lim tizimida masofaviy ta’limning joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. my.uzedu.uz va Dars.uz kabi onlayn o‘quv platformalari o‘quvchilarga masofaviy ta’lim olish imkonini beradi. Ushbu platformalar orqali darslarni onlayn tarzda o‘tish, o‘quv resurslariga kirish va o‘qituvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatlari yaratilgan.

2. Sun’iy intellekt (AI)

Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonida o‘quvchilar uchun individual ta’lim dasturlarini yaratishda qo‘llanilmoqda. Masalan, Toshkentdagi Prezident maktabida AI yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi o‘rganilib, ularga mos dars rejalari tuziladi. Bu o‘quvchilarning o‘z darajalariga mos ravishda o‘qitilishiga yordam beradi.

3. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR va AR)

Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari ta’lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Masalan, Toshkent shahridagi Inha universiteti AR va VR texnologiyalari yordamida ilmiy laboratoriya ishlarini virtual tarzda olib borishga o‘qitmoqda. O‘quvchilar fizika, kimyo kabi fanlarda murakkab tajribalarni xavfsiz va interaktiv shaklda o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

4. Mobil ilovalar

Raqamli ta’limda mobil ilovalar ham muhim o‘rin egallaydi. Duolingo, Khan Academy, va Coursera kabi ilovalar orqali o‘quvchilar turli fanlar bo‘yicha bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Mobil ilovalar o‘quvchilarga o‘z vaqtida va joyida ta’lim olish imkoniyatini beradi.

5. Bulutli texnologiyalar

Bulutli hisoblash tizimlari ta’lim muassasalariga resurslarni saqlash va o‘quv jarayonini boshqarish imkoniyatini yaratadi. Masalan, Google Classroom va Microsoft Teams platformalari o‘quvchilarning o‘qituvchilar bilan aloqasini osonlashtiradi va ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi.

6. Interaktiv ta’lim vositalari

